



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Buxoro - 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

TAFAKKUR VA TALQIN

mavzusida

Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami

(II qism)

Buxoro 2023-yil, 17-may

Tahrir hay'ati

- | | |
|-------------------------|---|
| O.X.Xamidov | - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor; |
| R.G'.Jumayev | - Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent; |
| T.H.Rasulov | - Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), dotsent; |
| A.A. Turayev | - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| D.R. Djurayev | - Fizika-matematika fanlari doktori, professor; |
| S.Q. Qaxxorov | - Pedagogika fanlari doktori, professor; |
| M.Y. Ergashov | - Kimyo fanlari nomzodi, professor; |
| S. Bo'riyev | - Biologiya fanlari doktori, professor; |
| B.N.Navro'z-zoda | - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor; |
| D.S. O'rayeva | - Filologiya fanlari doktori, professor; |
| A.R.Hamroyev | - Pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent; |
| M.B.Ahmedova | - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent; |
| B.E.Qilichov | - BuxDU "Ozbek tilshunosligi va jurnalistikasi" kafedrası professori; |
| E.B.Dilmurodov | - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); |

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent

Musahhih:

S.B.Shamsiddinova – bosh muharrir

T.Sh.Ergashev – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi

D.R.Rahmatova – Magistratura bo'limi mutaxassisi

Anjuman 2023-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 02.05.2023 yildagi 118-son buyrug'iga asosan ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

MUQADDIMA

JAMIYATNING QON TOMIRI BO'LGAN TA'LIMGA E'TIBOR KELAJAKKA E'TIBORDIR!

O'zbekistonda fan va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar, yoshlarimizning ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar natijasida fanning barcha tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ma'lumotli, yuqori malakaga ega xodimlarning ulushi ortib bormoqda.

Betakror yurtimizda barqaror jamiyatni va bardavom taraqqiyotni ta'minlash – barchamizning bosh maqsadimizdir. Adolat tarozusiga tortadigan bo'lsak, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ulug'lashga qaratilgan ezgu g'oya ilgari surilmoqda. Har sharaf ortida shubhasiz ilm, ta'lim yotadi. Joriy yilning Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deya nomlanishi ham bejizga emas.

Prezidentimiz faoliyatining boshidayoq inson qadri g'oyasiga alohida urg'u berib, ushbu ezgu g'oya amaliyotda ham har bir sohada tadbqiq qilinmoqda. Inson va uning manfaatlarini ta'minlash, fuqarolarning tinch va xotirjam yashashi, sihat-salomatligi joyida bo'lishi, sifatli ta'lim olib, halol oila tebratishi uchun nimaiki zarur bo'lsa, amalga oshirishga harakat qilinmoqda.

Bu manzilda eng to'g'ri yo'l bu – ta'limga e'tibordir. Ta'lim sifatining oshirilishi ko'pgina muammolarga yechim bo'la oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir”. Zero, Ilm-hikmat va fazilat egalarini kamol toptirish barcha zamonlarda dolzarb bo'lib kelgan.

Prezidentimizning eng avvalo, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz, degan kuyinchakliklarida bugungi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan Fitrat-u Behbudiylarning ezgu orzuniyatlarini, harakatlari mujassamdir. Zero, ushbu ezgu g'oya har zamonda o'z

dolzarbligini yo`qotmaydi. Darhaqiqat, bundan 11 asr oldin buyuk mutafakkirimiz Yusuf Xos Hojib “O`quv qayda bo`lsa, ulug`lik o`lur, bilim qayda bo`lsa, buyuklik olur” deganda butun insoniyatning kelajagi uchun ta`lim va tarbiya orqali komillikka, tinch va osoyishta jamiyat sari borish mumkinligini eslatma o`laroq yozib qoldiradilar. Zero, Edvert Everett nazdi bilan aytganda, Ta`lim va tarbiya armiyadan ko`ra mustaqillik va erkinlikni himoya qilishning ishonchli vositasi. Millatning najot yo`li ham aslida ta`limdadir. Ta`lim bu butun umr egasini kuzatib boradigan xazinadir. Jamiyatning qon tomiri bo`lgan ta`limga e`tibor Yangi O`zbekistonning galdagi nurafshon yo`lining mayog`idir.

Har qanday sohaning rivoji unda faoliyat olib boradigan kadrlar salohiyatiga bog`liq. Yangi O`zbekistonda ilmga e`tibor, ustozlarning jamiyatda obro`yini oshirish yo`lida qilinayotgan yangiliklar e`tiborga sazovor. Tomirlarida olim-u ulamo, fozil-u fuzalolarning iqtidori, shijoati, yaratuvchanlik qoni oqayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o`qitish uchun yaratilgan shart-sharoit – kelajak yo`lida qurilgan eng mustahkam poydevor demakdir. Zotan, sifatli kadr hamda sifatli ta`limga erishish uchun bugungi tezkor va globallashuv jarayonlariga moslasha oladigan, jahon standartlariga javob beradigan, faoliyatini korrupsiyadan xoli halollik asosida tashkillashtiradigan fidoyi va vatanparvar talaba-yoshlarni tarbiyalashimiz lozim.

Nur – Sharqdan bo`lgani kabi, ilm va salohiyat nuri ham Buxoroyi Sharifdan ekanligi, hanuzgacha mana shu e`tirof va e`tiborga loyiq amallar qilinayotgani quvonarlidir. Ajdodlarning munosib vorisi bo`lish uchun intilayotgan viloyatimiz yoshlari davlatimiz taraqqiyotiga o`zlarining munosib hissalarini qo`shish uchun fanning turli yo`nalishlarida ilmiy faoliyatlarini rivojlantirmoqdalar. Shu ma`noda, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish uchun oliy ta`lim muassasalarida konferensiyalar tashkil etilmoqda. Ilmiy ishlar, xulosalar xalqaro miqyosda e`lon qilinmoqda. Ushbu to`plamda ilm-fanda ustozlarning davomchilari bo`lgan, har sohada peshqadam mutaxassis bo`lish uchun intilayotgan bakalavr, magistratura, doktorontura tahsil oluvchilarining ilmiy qarashlari, professor-o`qituvchilarning ilmiy xulosalari o`z ifodasini topgan.

Keltirilgan maqolalar yosh tadqiqotchilarning izlanishlarining ilk samarasi bo'lib, bu natijalarni ommalashtirish, yosh tadqiqotchilarning o'zlarining ilmiy faoliyatlari yo'nalishlari bo'yicha hamkor korxonalar va o'z sohasining yetuk olimlari bilan tanishishlariga imkoniyat yaratish lozim. yirik loyihalar ishlab chiqishlari, fan va ishlab chiqarish hamkorligining samarali ko'rinishlarini yuzaga keltirishlari mazkur to'plamni tayyorlashning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Ilmiy to'plam materiallari ta'lim muassasalari o'qituvchilari, korxonalar va tashkilotlarning mutaxassislari hamda yosh ijodkorlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda BuxDUning izlanuvchan ilm talabalari orasidan o'z ilmiy maktablariga ega bo'lgan olimlar, nufuzli xalqaro oliy dargohlarda dars bera oladigan ustozlar, xalq xo'jaligining fidoiy xodimlari, jamiyatimizga kerakli kadrlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

O.X. Xamidov,

Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor.

MAGISTRLARNI ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA JALB QILISHNING AHAMIYATI

A.A. Turayev,

Buxoro davlat universiteti magistratura bo'limi boshlig'i,

f.-m.f.f.d., (PhD), dotsent

Yangi O'zbekistonda barcha jabhalarda bo'layotgan yangilanishlar kabi magistratura sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'limning bu bosqichida ilmning mazmuni yanada takomillashtirildi. Hozirgi kunda jahon bilan bo'ylashish maqsadida xorijiy tillarni o'rganishning ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, xorijiy tilni bilish sertifikatini orqali qabulni amalga oshirish joriy etilganligi, barcha mutaxassislarning izlanishini hamda chet tillarini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Darvoqe, OTMlarning magistratura bosqichi uchun qabul yangicha tizimga o'tkazildi. Endilikda nomzodlar bakalavriatda olgan baholarining o'rtacha ko'rsatkichi va chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikat baliga qarab, ballar ketma-ketligi asosida saralab olinishi belgilandi. Magistraturaga qabul qilishda xorijiy tilni

bilish sertifikatini talab qilishdan maqsad – OTMlarga eng iqtidorli, bilimli yoshlarni jalb qilishdan iborat.

Darhaqiqat, magistratura – ilm-fanga yo'naltiradigan muhim bosqich. Bir so'z bilan aytganda, kichik tadqiqotchilikka tayyorlovdir. Ta'lim dasturi ham magistrnlarni kelajakda kasbiy yoki ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorlaydigan tarzda tuzilgan. Butun dunyoda tan olingan tartibning joriy etilganligi ilm yo'lida ildamlashimiz uchun zamin yaratadi. Ilmni xorijiy tillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda 90 foizdan ortiq ilmiy ma'lumot ingliz tilida mavjud.

Joriy yilda magistraturaning barcha bosqichlarida xotin-qizlar to'lov-kontraktdan ozod qilinganligi quvonchli hodisa bo'ldi. So'nggi yillarda insonga e'tibor namunasi o'laroq, xotin-qizlarga g'amxo'rlik qilinayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ularning kasb o'rganish uchun sarflagan xarajatlarini davlat tomonidan to'lab berilishi, og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar berilayotgani, davlat OTMlarida magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab berilgani va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratilayotgani, xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratilishi, ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to'lab berilishi, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMlariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalari bilan kontrakt asosida o'qishga qabul qilinayotgani, davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borilayotgani O'zbekistonda so'nggi yillarda ayollarga berilayotgan e'tiborning bir qismi xolos. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq.

Har bir yaratib berilayotgan sharoit bizdan va tolibi ilm bo'lgan magistrantlarimizdan yuksak mas'uliyat, g'ayrat talab etadi. Har bir mashaqqatimiz,

muammomizning bosh sababi ta'lim tizimidagi kamchiliklar, yo'l qo'yayotgan xatolarimiz ekanligini teran anglagan holda munosib javob qaytarishimiz, chuqur tafakkur qilmog'imiz, kuchimizni safarbar etib, o'qiyotgan sohamiz, muassasamiz, va eng muhimi, vijdonimiz oldida javob bera olmog'imiz lozim.

III-SHO'BA

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

70220301– TARIX (YO'NALISHLAR VA FAOLIYAT TURI BO'YICHA)

O'ZBEKISTON SSRDA SOVET HOKIMIYATINING ILMIY SIYOSATI (OLIIY TA'LIMDAGI TADQIQOTLAR. 1943 Y.).

Nasilloev Sunnat Shavkat o'g'li,

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi

Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati urush (1941-1945 yillar) davriga kelib nafaqat ilmiy tadqiqotchilarni, balki butun bir oliy ta'lim va ilmiy tekshirish muassasalarini qamrab oldi.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyati, O'zbekiston SSR, O'rta Osiyo Davlat universiteti, SSSR Fanlar Akademiyasi O'zbekiston filiali, dissertatsiya.

Sovet hokimiyati O'zbekiston SSRda o'zining moddiy maqsadlariga qaratilgan ilm-fan siyosatining huquqiy negizlari va mafkuraviy asoslarini shakllantira oldi. Ushbu negiz va asos ta'sirida olimlar mavjud imkoniyatlari va barcha milliy tabiiy resurslarni "o'ta muhim" hisoblanilgan masalalarni hal etishga yo'naltirishdi. O'rta Osiyo Davlat universiteti (CAFY) O'zbekiston va o'zga qardosh respublikalar xalqlarining madaniyatini va xalq maorifini rivojlantirish yo'lida beto'xtov xizmat qildi. O'rta Osiyo Davlat Universiteti O'rta Osiyoda birinchi oliy o'quv yurti bo'lib, uning geografiya, fizika, kimyo, astronomiya, matematika, gumanitar va boshqa fanlarni rivojlantirish va kadrlar tayyorlashdagi roli g'oyat katta bo'ldi. Universitet 1930-1943-yillar mobaynida

o'zbek xalqi orasidan ikki fanlar doktori, o'nlab fanlar nomzodi va yuzlab yuqori malakali ilmiy xodimlar yetishtirib chiqargan.

Universitet respublika oliy o'quv yurtlarining kengayishi va ko'payishi uchun ham katta xizmatlar qilgan. Chunonchi, 1943-yilgacha bo'lgan davrda tibbiyot, qishloq xo'jaligi, yuridik va boshqa ko'plab o'quv yurtlari universitet fakultetlari zaminida kengayib, rivoj topgan, so'ngra maxsus institutlar holida ajralib chiqqan.

SSSR Fanlar Akademiyasi O'zbekiston filialining (O'zFAN) bir qancha institutlari va sektorlari universitetining ilmiy xodimlarini jalb etish yo'li bilan tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistondagi va O'rta Osiyoning boshqa respublikalaridagi oliy o'quv yurtlarining ilm-fan, tadqiqot bilan shug'ullangan olimlar, professor o'qituvchilari tarkibida O'rta Osiyo Davlat Universiteti yetkazib bergan ilmiy xodimlar soni salmoqli edi. Urush davrida universitetning barcha fakultetlari (kimyo, biologiya, fizika-matematika, tarix, fiologiya va geografiya - tuproqshunoslik fakultetlari) mavjud ilmiy imkoniyatlarini urush manfaatlariga safarbar etildi.

Jumladan, 1943-yil 20-noyabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan "Barcha turdagi don mahsulotlarini yetkazib berish rejasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] tuproqshunoslik fakultetlarida o'kadagi qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlarni ahamiyatini va salmog'ini oshirgan.

Kimyo fakultetining kafedralari mahalliy xomashyolardan dori-darmonlar, ko'chirib keltirilgan zavodlar uchun mahsulotlar tayyorlab bergan bo'lsalar, biologiya fakultetining kafedralari qishloq xo'jaligiga doir masalalarni (qishloq xo'jaligi zarakunandaliga qarshi kurashish, o'simlik seleksiyasi, o'simliklarni ozuqalash, v.h.k.) mavaffaqiyat bilan hal qildilar. Kimyo hamda biologiya fakultetlarining ilmiy xodimlari ushbu xizmatlari uchun O'zbekiston Oliy Sovetining "Faxriy Yorliq"lari bilan mukofotlangan.

1943-yilning avgust oyiga kelib, universitet va undagi fakultetlar sovetining a'zolari orasida 30 dan ortiq fan doktori va xizmat ko'rsatgan fan arboblari, shuningdek, 40 dan ortiq professor ilmiy tadqiqot bilan shug'ullangan. Garchi tadqiqot yo'nalishlari

va mavzulari urush davriga moslangan, ma'lum ma'noda sovet mafkurasiga sug'orilgan bo'lsada universitet va undagi fakultetlar tomonidan salmoqli natijalarga erishilgan. Zotan sovet hokimiyatining siyosati ham shundan iborat edi.

Urush davrida universitet kengashida fan doktori unvonini olish maqsadida har biri tegishli fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan 19 ta dissertatsiya himoya qilingan.

Universitetning fakultetlari kengashida fan nomzodi unvonini olish uchun 128 dissertatsiya shu jumladan biologiya sohasida - 20 ta, adabiyot sohasida - 12, fizika - matematika fanlaridan - 24 ta, tarix sohasida -18 ta, kimyo sohasida - 13 ta, falsafa sohasida - 6 ta, pedagogika fanlaridan - 8 ta, iqtisodiy fanlardan - 8 ta, geografiya sohasida - 7 ta, minerologiya va tuproqshunoslikdan - 6 ta dissertatsiya himoya qilingan. Bu dissertatsiyalardan 24 tasi o'zbek olimlari tomonidan himoya qilingan.

1943 yilning 4-sentabrida O'rta Osiyo Davlat Universiteti (CAFY) rektori T. Sarimsoqovning (Fizika matematika fanlari doktori, professor) "Qizil O'zbekiston" gazetasida "CAFY vatan urushi kunlarida" nomli maqolasida universitetda 10 yillik maktabni bitirganlarni va o'rta maktab darajasida ma'lumotga ega bo'lgan abituriyentlar talabalik safiga chaqirilayotganini, 10 yillik maktabni tugata olmaganlar uchun universitet qoshida bir yillik va sakkiz oylik kurslar tashkil etilganligini, bu kurslarga ham o'quvchilar qabul qilish davom etayotganini qayd etgan. Ushbu maqola orqali shu anglashimiz mumkinki, sovet hokimiyati nafaqat olimlardan o'z maqsadi yo'lida foydalangan, shuningdek, sovet mafkurasiga mos, ittifoq iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi kadrlar miqdorini muttassil oshirib borishni ko'zlagan. Yetishib chiqqan kadrlar esa yer osti, yer usti boylıklaridan imkon qadar ko'p foydalanishga, yoki sovet mafkurasiga xizmat qilishga safarbar etilgan. Leninning "o'qish - o'qish va yana o'qish" degan iborasi sovet hikimiyati uchun mafkuraviy qurol vazifasini bajardi. Zotan aynan "o'qishlar" davomida insonlar sovet mafkurasi ta'siriga tushib qolganliklari bugun siz-u bizga sir emas.

Tibbiyot sohasida ilmiy natijalarga erishmay turib urushda g'alaba qozona olmasligini yaxshi bilgan sovet hokimiyati O'zbekistonda tibbiyot ilmiga oid

tadqiqotlarga jiddiy kirishdi. Turli orden va medallar berish orqali shifokorlar kasbiy va ilmiy natijalari uchun rag'batlantirilgan. Bu esa aslida inson haq-huquqlariga zid ravishda ular mehnatidan ortiqcha foydalanish edi, xolos. Urush frontidagi kabi mamlakat ichkarisidagi tibbiyot hodimlari ham yarador jangchi va ofitserlarni davolash va ularni safga qaytarish yo'lida tinmay mehnat va tadqiqot olib bordilar. O'rta Osiyo Harbiy Okrugining Sanitariya bo'limi urushning birinchi yilida gospitallarda to'plangan ko'p va boy tajribani yakunlab 36.5 bosma taboqdan iborat katta bir kitobni nashr ettirgan. "Vatan urushida mamlakat ichkarisining harbiy meditsinasi" deb nomlangan ilmiy asarni yozishda tibbiyot xizmatining general-mayori K.N. Pavlovskiy, akademiklardan V.P. Filatov, V.P. Osipov, professorlardan N.A. Bogoraz, P.I. Emdin, I.I. Orlov, F.F. Degengof, M.S. Astrov, P.F. Arxangelskiy, G.A. Rixter va boshqalar olimlar tadqiqot natijalari va bilimlarini jamlaganlar [2].

Tashkil etilgan ilmiy sessiya va konfrensiyalarning bosh mavzusi ham urush davri tibbiyotini chetlab o'tmagan. 1943-yil 20-martda Toshkent tibbiyot institutida ochilgan ilmiy sessiya kun tartibiga davolash va profilaktika sohasida erishilgan yutuqlarni gospitallar, harbiy qismlar va mudofaa tashkilotlarida ishlovchi tibbiyot hodimlariga o'rgatish; tajribalar bilan o'rtoqashish; fanda, ilmiy tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan bilimlarni amaliyotga joriy etish kabi masalalar o'rin olgan. Sessiyaning birinchi majlisida travmatik shokni davolash masalasi ko'rilgan. SSSR Fanlar Akademiyasi korrespondent a'zosi professor Astratyan, xizmat ko'rsatgan fan arbobi E.V. Korchis, professor M.N. Xaninlar urush davri tibbiyoti muammolaridan biri bo'lgan travmatik, ruhiy shok ustidagi tajribalari, mavjud bilimlari bilan o'rtoqlashdi. Ikkinchi yig'ilishda - qon quyish (professor V.K. Yasevich, professor A.S. Volinskiy), jarohatni girurgik yo'l bilan davolash (professor I.I. Orlov, xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor M.S. Astrov), sovuq urgan a'zolari davolash (professor S.A. Kristanov) masalalariga oid doldarb masalalar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar yuzadidan maruzalar qilingan. Uchinchi yig'ilishda mamlakat ichkarisidagi sanitariya, tibbiyot masalalariga, xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor M.I. Slonim, xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor I. Xudokin, professor L.Y. Shargorodskiy va boshqa olim, ilmiy tadqiqotchilarning

tadqiqot natijalari tinglangan. Sessiyaning so'ngi yig'ilishida esa ovqatlanish rejimi (professor L.A. Cherkes, N.V. Danilov) masalalari ko'rilgan.

Sovet hokimiyatining yuritgan siyosati nafaqat O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahrida, balki viloyatlardagi ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida ham shiddat bilan takomillashtirilgan. Jumladan, Samarqand tibbiyot instituti 1930-1943-yillar oralig'ida xalq xizmati uchun 1156 ta shifokor tayyorlab bergan, ulardan 241 tasi yerli millar vakillari edi. Institut faqatgina soha hodimlarini yetishtirish bilan kifoyalanmasdan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug'ullangan. Jumladan 1930-1943 yillarda 28 nafar tibbiyot fanlari nomzodi, 12 nafar olim esa tibbiyot fanlari doktori darajasini qo'lga kiritgan. Samarqand tibbiyot institutda o'zbek millatiga mansub tadqiqotchilar ham yil sayin oshib bordi. 1943-yilda ularning soni 25 tani tashkil etgan holda, 5 nafari fan nomzodi, 20 nafari esa asistent sifatida ilmiy tadqiqot olib borgan. Ushbu muassasada 12 yil davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda 664 ta ilmiy asar yaratilgan. Bulardan 55 tasi katta hajmli monografiyalar edi. Urush davrida Samarqand tibbiyot instituti hodimlarining tadqiqot ishlari frontga yo'naltirilgan. Tadqiqotchilar tez fursatda jarohatni davolash, qon quyish, ko'rish va eshitish organlarining urush davridagi jarohatlarini aniqlash (diagnostika) va davolash bo'yicha tadqiqot olib borganlar.

Sovet hokimiyati ilmiy tadqiqot markazlarining miqdori oshirish bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalarida ham tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish uchun sharoitlar yaratib berdi. 1943-yilda aspiranturaga qabul qilish kvotalari oshirilgan. Jumladan, aynan shu yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanikalash injenerlari instituti - 1) Gidromelioratsiya sistemalarini ekplatatsiya qilish, 2) Gidrotexnika inshootlari, 3) Binokorlik materiallari va ishlari, 4) Injenerlik konstruksiyalari kabi yo'nalishlar; O'rta Osiyo Industrial instituti - 1) Elektr mashinalari 2) Metall kesuvchi stanoklar 3) Foydali qazilmalarni qidirish 4) Tog' mexanikasi 5) Mashinasozlik texnologiyasi, 6) Elektr o'lchash texnikasi 7) Sanoat korxonalarini elektrlashtirish ixtisosliklarida; Toshkent Yuridik instituti - 1) Grajdan huquqi va protsessi 2) Jinoiy protsess 3) Yer-suv va kolxoz huquqi 4) Davlat va huquq tarixi 5) Davlat va huquq nazariyasi 6) Xalqaro huquq kabi

ixtisosliklar uchun aspiranturaga qabul qilgan. Talabgorlar uchun imtihonlar jarayonlari “Marksizm-Leniniz asoslari” kursidan, chet tili va maxsus fanlardan o'tkazilgan.

O'zbekiston SSRda Ilmiy tadqiqot mavzulari sovet mafkurasi va moddiy manfaatlariga mos tarzda tashkillashtirildiki, maqsad xalq muammolarini ijobiy hal etish emas, SSSR ehtiyojlari (sanoat va mafkura)ga yo'naltirish bo'lgan.

Adabiyotlar

1. O'zR MDA, 904-fond, 1-ro'yxat, 296-ish, 48-49-varaqlar.
2. Qizil O'zbekiston gazetasi 1943 yil 20 mart. № 64.5664.
3. Sovet O'zbekistoni kitobi (Bibliografik ro'yxat, 1941-1944)

GFR NING “QARIYA” KANSLERI

Sadiyeva Rohat Bahritdinovna,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ikkinchi jahon urushida fashistik Germaniyaning yengilishi bilan uning parchalanib tashlanishi, GFRning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Konrad Adenauer siyosati.

Kalit so'zlar: GFR, Konrad Adenauer, GFR konstitutsiyasi,

Ikkinchi jahon urushi nemis xalqi uchun juda katta musibat keltirdi. Urushdan sharmandalarcha yengilgan Germaniya endi mustaqil davlat bo'lmay qoldi. Urushdan oldingi hududining bir qismidan ayrilgan Germaniya g'olib davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya) tomonidan okkupatsiya zonalariga bo'lib tashlandi. Xuddi shu davrda Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) va Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) tashkil topdi. GFRning ko'zga ko'ringan siyosiy arbobi Konrad Adenauer birinchi kansler qilib saylandi. GFRning iqtisodiy rivojlanishi uning misli ko'rilmagan taraqqiyotga erishishi bevosita Konrad Adenauer nomi bilan bog'liqdir.

Uning siyosiy faoliyati muvafaqiyatli boshlandi. U dastlab Kyoln burgomistrining o'ninchi yordamchisi bo'ldi va munisipal soliqlar hamda boshqa yig'imlar xizmatini boshqardi. Keyinroq Kyolnning burgomistri bo'ldi. Kayzer Vilgelm II unga ober-

burgomistr unvonini taqdim etdi. K.Adenauerning siyosiy jihatdan mashhurligi Uchinchi reyxning harbiy mag'lubiyatidan keyin boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Kyolnning amerikalik komendanti unga burgomistr vazifasini bajarishni taklif qildi. U rozi bo'ldi. Germaniyaning taslim bo'lishi haqidagi hujjat imzolanishi bilan oq, ittifoqchilarning okkupasion ma'muriyati tomonidan Germaniyaning kelajagi uchun eng muhim bo'lgan siyosatchilar ro'yxati tuzildi [1].

Ro'yxatdagi birinchi o'rindab Konrad Adenauerning ismi turardi. Ammo ittifoqchilarning ishonchiga sazovor bo'lgan bo'g'usi kansler Vashngiton, London va Parijlik rejisyorlar "boshqaradigan" itoatkor siyosiy qo'g'irchoqqa aylanmoqchi emas edi. Qat'iy va mustaqil xarakterga ega bo'lgan K.Adenauer natsizm vayronalari ustida yangi, demokratik, o'z milliy manfaatlarini himoya qila olishga qodir bo'lgan Germaniya qad ko'tarishiga ishonardi. Ayni o'sha paytlarda uning "Nemis xalqi egildi, ammo u sindirilgan emas" degan mashhur iborasi butin mamlakat bo'ylab tarqaldi. Dastlab Germaniya juda achinarli holatda edi. Halokat yoqasida turgan Germaniyani qutqarib qolishga qodir bo'lgan tez va qat'iy choralar ko'rish lozim edi. Urush tugashining dastlabki yillarida amerikaliklar, britaniyaliklar va fransuzlar egallagan Germaniya hududida 11 ta G'arbiy Germaniya yerlari tashkil qilindi. Parlament kengashi ish boshladi va uning Prezidenti qilib Xristian-demokratik ittifoqining (XDI) raisi K.Adenauer saylandi. U bozor iqtisodiyotini maqulladi. Adenauerning siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, G'arbiy Germaniyada ijtimoiy taraqqiyotning mustahkam hududiy asosini yaratishga bo'lgan urinishlari muvaffaqiyatli bo'ldi. Barqarorlik va mo'tadillikka intilish Adenauer siyosiy uslubining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Maqbul nihoyatda samarali iqtisodiy islohotlar o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning mafkuraviy yordamchisi tengi yo'q iqtisodiyot vaziri Lyudvik Erxard edi.

Erxard siyosati natijasida yartilgan ijtimoiy bozor xo'jaligi modeli, ordoliberalizm-Valter Oykenning Frayburgdagi maktabi tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy nazariya konsepsiyasiga asoslanar edi. Ordoliberal, davlat ishtirokisiz emas, balki davlat aralashuvi bilan rivojlanuvchi erkin bozor munosabatlari tarafdorlari edilar. Adenauer hukumati iqtisodiy islohotning eng murakkab davrida (1949-1950 yillarda) nihoyatda

qat'iylikni namoyish qildi. O'sha davrda pul massasining qisqartirilishi va narxlarning liberallashtirilishi aholi daromadlari past bo'lgan bir paytda narxlarning oshishiga olib keldi.

Ishlab chiqarishning qayta qurilishi esa, ishsizlikning o'sishi bilan birga ro'y berdi. Ammo tezda yaxshi tomonga o'zgarish sezila boshladi, narxlar o'sishi to'xtadi, ishsizlik kamaya boshladi. Keyingi yillarda keskin iqtisodiy o'sish ro'y berdi.

GFR g'arb mamlakatlari ichida sanoat ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Katta eksport mamlakatda Angliya, Fransiya va Shvetsiyalarning umumiy zaxirasiga teng oltin zaxira yaratishga imkon berdi. Germaniya valyutasi Yevropada eng kuchli valyutaga aylandi. 50-yillarning oxirida ishsizlik amalda yo'qoldi, aholining real daromadlari 3 marta oshdi. Okkupasion ma'muriyat vakillari yangi kansler qiyofasida o'jar va e'tiqodli siyosatchiga duch kelganliklarini tezda anglab oldilar. ***”Biz afrikalik qabila emasmiz, -deya takrorlashni yoqtirardi kansler, - mag'rur yevropalik millatmiz. Dunyo bilib qo'yishi kerakki, taslim bo'lgan nemis xalqi emas, german armiyasi edi”.***

K. Adenauer bir muddat bir paytning o'zida tashqi ishlar ministri vazifasini ham bajardi. Kansler Yevropa kelajagini iqtisodiyotning turli shakllari qo'shib olib borilishida, ma'naviy va madaniy qadryatlarning doimiy almashinib turishida ko'rardi. Birlashgan Germaniyani u faqat G'arb dunyosi bilan ittifoqda ko'rardi va uni betarflashtirishning har qanday rejalarini rad qilardi. K. Adenauerning obro'yi tobora ortib borardi. U to'rt marta parlament saylovlarida g'olib chiqdi. G'arb mamlakatlarining rahbarlari uni teng huquqli va hurmatli hamkor sifatida qabul qilardilar. ”Mening, -degan edi o'shanda Adenauer, - eng avvalgi o'ringa Yevropa birligini qo'yib, faqat shundan keyingina o'z davlatining manfaatini qo'yadigan yagona nemis kansleri ekanligimni unutmang” Sharqdan ko'chib kelayotganlar oqimi va kansler Adenauerning hamda iqtisod ministri Erxardning qulay iqtisodiy siyosati Germaniya “Marshal rejasi” olgan salmoqli moliyaviy ko'magi bilan shunga olib keldiki, mamlakat misli ko'rilmagan taraqqiyotga erishdi. 60-yillarda Adenauer shunday degandi: ***”Bizning maqsadimiz, Yevropa kelajakdabarcha yevropaliklar uchun umumiy***

xonadon bo'lsin, u erkinlik makoni bo'lsin". U yoshi bir joyga borib qolganiga qaramasdan tinimsiz ishlardi. U mamlakat bo'ylab yurardi va odamlar uni qiziqish bilan tinglardi. Bu siyosatchi murosaga kela olar, ba'zan ayyorlik qilar, aytganini bajartirar va ishontirar, boshqalarga quloq sola olar, qaror qilgandan so'ng esa, uning bajarilishini qat'iyat bilan talab qilardi [2]. Germaniyada "Millat otasi" deya atashadigan odam ana shunday inson edi. K. Adenauer 91 yoshida vafot etdi. U umrining asosiy qismini davlati manfaatlari uchun sarfladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya qanday yutuqlarga erishgan bo'lsa bu albatta ulug' siyosatchi Konrad Adenauerning xizmatlari mevasidir.

"Men uchun oddiy odam hamma narsadan muhim. Agar meni tushunsalar, maqsadimga erishgan bo'laman. O'limdan qo'rqmayman, faqat men o'lganimdan so'ng Germaniya va Yevropaning qanday bo'lishi qiziqarli"

(Konrad Adenauer)

ADABIYOTLAR

1. Sh. Ergashov, T. Bobomatov XX asr: taqdirlarda aks etgan tarix - Toshkent: "O'zbekiston", 2015. - 488 b
2. M. Usmonov "Eng yangi tarix" ikkinchi qism Qarshi : 2013

JUNG'OR XONLIGINING TUGATILISHIGA TAYYORGARLIK JARAYONIDA MARKAZIY OSIYODAGI XALQARO MUNOSABATLAR

Boltayev Oxun Obid o'g'li,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Ushbu maqolada XVIII asr oxirida Jung'or xonligining nqirozi, Xitoy Sinlarining bosqini va ushbu jarayonlardagi Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyat haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Galdan Selen, Tarim havzasi, Xitoy Sinlari, Sharqir Turkiston. Shinjon-uyg'ur provinsiyasi, Tibetdagi Dalaylama hukmronligi.

O'rta Osiyo xalqlarining butun qadimiy va o'rta asrlar tarixi va birinchi navbatda uning shimoli-g'arbiy qismi (XXRning hozirgi Sin-Uyg'ur avtonom viloyati,

Qozog'istonning janubi-sharqiy va sharqiy qismlari, Mo'g'uliston Xalq Respublikasining g'arbiy qismi). RSFSRning Oltoy o'lkasi va O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston SSRning janubi-sharqiy qismi), siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Xitoy bilan uzviy bog'liqlikda kechgan. Bu yerda, o'troq va ko'chmanchi xalqlar madaniyati o'zaro ta'sir qiladigan mintaqaga bo'lib, O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri sivilizatsion jarayonlari savdo va migratsiya yo'llari dunyoning yetakchi sivilizatsiyalaridan bo'lgan Xitoy bilan munosabatlar o'rnatgan [1]. Ushbu munosabatlarning o'zagini buyuk ipak yo'li tashkil qilgan edi.

Mintaqada uzoq tarixiy jarayonlarda bir necha bora ulkan imperiyalar tuzilgan, rivojlangan va ma'lum vaqtdan keyin inqirozga uchragan. Bu jarayonlarda ayrim madaniyatlar inqirozga uchragan bo'lsa, ayrimlari gullab yashnagan. Madaniy munosabatlardan biri bu dinlararo aloqalar bo'lib, deyarli barcha dunyo dinlari Markaziy Osiyo orqali Xitoyga kirib borgan edi. Manbalarning kamligi tadqiqotchilarni ko'chmanchi xalqlarning ijtimoiy-siyosiy tizimi tarixi muammolarini har xil bilvosita ma'lumotlar asosida hal qilishga majbur qilgan. Shu tariqa ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni real tarixiy faktlar emas, balki tadqiqotchilarning shaxsiy qarashlari asosiy rol o'ynagan¹. Bu oliy xonlar va shahzodalar o'rtasidagi yaylovlar uchun kurash jarayonini tezlashtirgan. Bu yillardagi dramatik voqealar N.Bichurinning Jung'oriya va Oyratlar haqidagi asarlarida bir qadar to'liqroq yoritilgan. Jung'or xonligining so'nggi yillarida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni oyrat, manchjuriya (shimoliy-sharqiy Xitoy) va rus manbalaridan bilib olish mumkin edi. Ammo, oyrat manbalarining katta qismi bizga yetib kelmagan bo'lib, 1754-1758 yillardagi urush harakatlari davrida ko'plab oyrat hujjatalari va manbalari yo'q qilingan. Manchjur va xitoy manbalarining anchagina qismi tarixchilar tomonidan ilmiy muomalaga tortilmagan bo'lib, ularning aksariyati hali ham Xitoy Xalq Respublikasi arxivlarida saqlanmoqda.

Galdan-selenning o'limi bilan boshlangan Jung'or xonligining parchalanishi jarayoni 13 yilni tashkil qilgan. Galdan vafotidan keyin ellik yil davomida Jung'orning Sin bilan munosabatlari ochiq urush va keskin sulhlar o'rtasida almashib turdi. Bizga

tanish bo'lgan sxema bo'yicha ikki davlat Sharqiy Shinjonni (Xami, Turfon va Urumchi hududlari) nazorat qilish uchun o'zaro kurash olib borganlar va bu shaharlar va ularning xalqlari ustidan nazorat o'rnatganlar. 1717-yilda, zung'orlar Dalay-lamaning siyosatiga aralashgach, kurash Tibet hududlarida ham olib borilgan. Ularning 1720 yilda Sin tomonidan mag'lubiyatga uchrashi Tibetdagi Sin protektoratining boshlanishini anglatgan.

Jung'orlar 1723 yilda G'arbiy Turkistonga ham bostirib kirib, Toshkent va boshqa shaharlarni talon-taroj qilganlar, bu zung'or hujumlari qozoqlarning O'rta va Buyuk O'rdalarini juda zaiflashtirib, Rossiyaning O'rta Osiyoga kirib kelishiga yordam bergan [3]. Jung'orlar hukumronligi ostidagi qabilalardan bo'ysunish va o'lpon talab qilayotgan ruslarga qarshi ham davriy kurash olib bordilar.

XVII-XVIII asrlarda Sin imperatorlarining jung'orlarning ishonchsiz, jangovar va isyonkor tabiatini qoralaganidan beri xitoy manbalarida Jung'orlarga munosabati deyarli o'zgarmagan. Shu sababli ushbu manbalargada ko'proq neytral nuqtai nazarda ekanligiga ishonish mumkin. Jung'orlar, xuddi Sin, chor Rossiyasi va, albatta, bir qancha Yevropa davlatlari kabi, o'z-o'zini mustahkamlash bilan shug'ullangan. XVIII asr oxiriga kelib Jung'or feodallar davlati uzluksiz, tobora tezlashib parchalanish bosqichiga kirdi, bu voqealar 1758 yilda uning vayron bo'lishi bilan yakunlangan. Sin imperiyasi va Jung'or xonligining qariyb bir asr davom yetgan kurashi Sinlarning g'alabasi bilan yakunlandi, uning armiyasi nafaqat Oyrot davlatini yer yuzidan yo'q qilib tashladi, balki uning yuz minglab aholisini ham qirib yuborgan.[4] Galdan Selen 1745 yilda vafot etib, bu Tarim havzasida keng tarqalgan qo'zg'olonni boshlanishiga sabab bo'lgan. Bo'ysindirilgan xalqlarning qo'zg'olonlari yetishmaganidek, taxt uchun kurashlar ham boshlanib, Galdanning o'g'illari meros uchun kurash boshlangan. 1749 yilda Galdan-selenning o'g'li Lama Dorji taxtni ukasi Sevang Dorji Namjaldan tortib olgan. Uning hokimiyati amakivachchasi Davachi va Xoid zodagonlari yetakchisi Amursana tomonidan ag'darilgan, ammo ular ham xonlikda yakka nazorat uchun kurash olib borganlar. Ularning tortishuvi natijasida 1753 yilda Dorbet va Bayodni boshqargan Davachining uchta qarindoshi Sin imperiyasi tomonga o'tib, Xalxa hududiga ko'chib

o'tadi. 1754-yilda Qoshg'ar hukmdori Yusuf isyon ko'tarib, u yerda yashovchi jung'orlarni kuch bilan islom diniga kiritgan. Uning katta akasi yorqendlik Jahonxo'ja ham isyon ko'tarsada, muvoffaqiyat qozona olmagan. Chunki, Oqsuvlik Ayyub Xo'janing xiyonati tufayli jung'orlar qo'lga asir tushgan. Jahonxo'janing o'g'li Sodiq Xo'tanda 7000 kishini to'plab, Oqsuvga hujum qilgan. 1755 yilning bahorida Sin imperatori Sianlun Davachiga qarshi 50 minglik qo'shin yuborgan. Ular deyarli hech qanday qarshilik ko'rsatmagan va 100 kun ichida Jung'or xonligini yo'q qildi [5]. Davachi Oqsuv shimolidagi tog'larga qochib ketgan, lekin Uchturfan begi Xojilar tomonidan qo'lga olingan va Singa topshirilgan.

Jung'or xonligini mag'lubiyatga uchratgandan so'ng, Sin imperiyasi to'rtta oyrot qabilasining har biriga alohida xon o'rnatishni rejalashtirgan edi, biroq Amursana butun Oyrotlar ustidan hukmronlik qilmoqchi bo'ldi. Buning o'rniga Qing imperatori Sianlun uni faqat Xoid xoni qilib tayinlagan. Yozda Amursana mo'g'ul rahbari Chingunjav bilan birga Singa qarshi qo'zg'olon ko'targan. Ammo, Sin ustidan g'alaba qozona olmagan Amursana shimolga qochib, ruslardan panoz izlaydi va rus yerlarida chechakdan vafot yetgan. 1762 yilning bahorida uning muzlatilgan jasadi Kuaxtaga keltirilgan. Shu vaqtda Rossiya ma'murlariga Xitoy elchilari kelib vafot etgan Amursanani jazolash uchun Sinlarga topshirishni talab qilsalarda, Rossiya imperiyasi vakillari manjurlarning talabini rad etib, Amursanani hurmat bilan dafn etishgan. Boshqacha qilib aytganda, 1755 yilning yozida Jungriya davlati tarix sahnasidan butunlay o'chirilgan. Raqibini mag'lub etgan Sinlar Jung'orlar nomini odamlar xotirasidan ham o'chirishga qaror qilishgan. Sin olimi Vey Yuan (1794-1857) ma'lumotlariga ko'ra, Sin istilosidan oldin jung'or aholisi 200.000 xonadon 600.000 kishi atrofida bo'lgan. Vey Yuanning yozishicha, jung'or xonadonlarining 40 foizga yaqini chechakdan qirilib ketgan, 20 foizi Rossiya yoki qozoq qabilalari tomonga qochib ketgan, 30 foizi yesa manjur qo'shinlari tomonidan o'ldirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Jung'or xonligi Sin imperiyasi tomonidan tugatilish jarayonida, Sharqiy Turkistondagi mayda bekliklar, Qozoq juzlari, Rossiya imperiyasi, Xitoy Sin imperiyasi o'rtasida qizg'in xalqaro munosabatlar sodir bo'lib, istilochilik

natijasida jung'orlarning jismonan va ma'nan yo'q bo'lish xavfi vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Златкин И.Я. История Джунгарского ханства 1635-1758. Издание второе. – М.: Наука, 1983. – 259 с
2. Гуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в XVII – первой половине XIX в Издание второе. – М.: Наука, 1983. – С. 85
3. Lattimore, Owen. Pivot of Asia; Sinkiang and the inner Asian frontiers of China and Russia. Little, Brown, 1950 - page 105
4. Н.Я Бичурин (Иакинф) Историческое обозрение ойратов или калмыков с XV столетия до настоящего времени. – СПб. 1834.
5. Chahryar (2003). History of Civilizations of Central Asia

O'ZBEKISTONDA SABZAVOT EKIN YANGI NAVLARINING TARQALISHI TARIXI

Haitov Jahongir Shodmonovich,

Buxoro davlat universiteti "Jahon tarixi"

kafedra dotsenti, PhD

Email: jahongir.hayitov.89@mail.ru

O'zbekistonning qulay iqlimi, unumdor tuproqqa ega ekanligi kabi omillar ekinlarning yangi navlarini o'stirish, ularni tarqatish va rayonlashtirishga keng yo'l ochmoqda. Hozirgi davrda dunyoda kechayotgan demografik jarayonlar, aholi sonining keskin ko'payishiga, aksincha ekologik muammolar va boshqa tabiiy omillar tufayli oziq – ovqat, meva – sabzavot mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari qiyinlashuviga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, meva va sabzavotlarning yangi navlarini yaratish masalalari yech qachon hozirgidek dolzarb qilib qo'yilmagandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: "qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hych shubhasiz, biz uchun eng

muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi" [1] – deb ta'kidlagan edilar.

Sabzavotchilik azaldan xo'jalik hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, sabzavotlar yetishtirish va parvarishlash borasida mamlakatimiz dehqonlari ko'p asrlik tajribaga ega.

Sabzavotchilik – o'simlikshunoslikning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, kartoshka, pomidor, karam, sabzi, sholg'om, lavlagi, qovoq, piyoz, sarimsoqpiyoz, baqlajon, shirin va achchiq bulg'or qalampiri, akrop, salat, shivit, petrushka kabi o'nlab ekin navlari mavjud. Sabzavotchilik birinchidan inson, ikkinchidan chorva hayvonlari uchun muhim oziq-ovqat manbai hisoblanadi. O'zbekiston hozirda iste'mol uchun yetishtirilgan sabzavotlarni mahalliy va xorijiy navlarga ajratish bilan birga, ular tezpishar, o'rtapishar, kechpishar turlarga, shuningdek, yillik va oraliq ekinlar naviga bo'linadi. Mamlakatimizda sabzavotchilikning rivojlanishi o'simlikshunos olimlar A.T. Boltayev, A.Y. Grachyov, R.I. Shreder, M.V. Ritov, N.I. Kichunov, S.I. Jechalov, N.I. Vavilov, V.I. Efeloshteyn kabilari nomi bilan bog'liq [2].

Sabzavotlar yangi navlarining O'zbekistonga xorijdan keng miqiyosda kirib kelishi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuz berib, bu davrda G'arb va Sharqning o'nlab davlatlari, Kavkaz, Qrim, Rossiya imperiyasi markaziy hududlaridan ko'plab navlar kirib keldi va tarqaldi. Ko'pkina sabzavotlar yurtimizda bu davrda ilk bor paydo bo'lib, ular sirasiga kartoshka, pomidor, karam, lavlagi, salat, baqlajon, bulg'or qalampiri kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, ayrim sabzavot ekinlari, jumladan sabzi, qovoq, sholg'om, piyoz, tarvuz, qovunlarning O'zbekistonda avval ekilmagan yangi navlari ham aynan shu tarixiy bosqichda keng tarqaldi. 1865-1917 yillarda hozirgi O'zbekiston hududida kartoshkaning 32 ta navi, pomidorning 6 ta navi, gulkaramning 3 ta navi tarqalib, ushbu navlar bir qator tarixiy bosqichlarda transformasiya jarayonlaridan o'tdi. Pomidorning "Koloss", "Trofi", "Mikado", "Чудо рынка" (Bozor mo'jizasi), "Sparks" kabi xorijiy navlari, gul karam va qand lavlagi navlaridan yuqori hosil olish agrotexnik qoidalarini mahalliy dehqonlar egallashi uchun ma'lum bir davr

taqozo etildi. Yuqoridagi ekinlar tub joy aholisining “o‘z ekin navi”ga aylangunga qadar ancha yillar o‘tganligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi [3].

1925-1930 yillarda, hatto, ikkinchi jahon urushidan so‘nggi davrlargacha pomidor va kartoshkaga “shayton olma” sifatida munosabatda bo‘lish, uni yetishtirganlarga “kofir ekini”ni parvarishlovchilar deb qarash, ushbu sabzavotlarni iste'mol qilishdan tiyilish tendensiyalari mavjud bo‘lib kelgan.

Tadqiqotchi olim O.A. Isayevning yozishicha, 1929-1932 yillarda Farg‘ona vodiysi viloyatlaridan Surxandaryo viloyati Sariosiyo va Denov tumanlariga, quloq qilib ko‘chirilganlar o‘zlari bilan pomidor va kartoshka ekinlari urug‘larini olib kiyelishgan. Ular bilan bodring, bulg‘or qalampiri, turp, sholg‘om, lavlagi, baqlajon, karam, ko‘katlarni olib kelib voha dehqonchiligi madaniyatini rivojlantirganlar. Mahalliy aholi ushbu ekinlardan xabarsiz, hatto, dastlabki yillarda yetishtirishdan bosh tortgan. O.Isayev Jarqo‘rg‘on tumani Qorayantoq mahallasida istiqomat qilgan Tojixon Isayeva tilidan 1930 yillarda kolxoz yerlariga pomidor va bodring mahalliy aholiga majbur qilib ektirilgani, odamlar pishib yetilgan ushbu mahsulotlarni iste'mol qilishdan bosh tortib, “kofirlarning ovqati” deb hisoblaganini hikoya qilgan. Kolxoz a'zolaridan Ernazar ismli yigitning pomidor iste'mol qilib turganligini ko‘rgan mahalliy aholi “Ernazar jo‘yakni ichida og‘zi qizarib, qizilcha yeb o‘tiribti” deyishgan. Broq, oradan ancha vaqt o‘tib, odamlar ushbu ekinlarga ko‘nikishgan, sotish va iste'mol uchun o‘z tomarqalariga ekishgandi [4].

Yana bir misol, Buxoro viloyati Romitan (hozirgi Peshku) tumani Deycha qishlog‘ida Ikkinchi jahon urushi arafasida ilg‘or fikrli, yangilikka intiluvchan dehqonlardan biri Jomol Qodir o‘g‘li o‘z tomarqasining bir qismiga kartoshka urug‘larini qadab mo‘l hosil oladi. Ushbu hosilni qishloq ahli iste'mol qilmasligi tufayli jiyani qo‘l-ayog‘i chaqqon Sharif Fattoyev yordamida Buxoro shahriga arobada olib kelib mo‘may pulga sotadi [5]. Demak tub joy aholi Buxoro atrofidagi chekka qishloqlarda 1938-1939 yillarda ham iste'mol uchun emas, balki bozorda sotish uchun ushbu ekinlarni yetishtirishgan.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз (Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимиغا киришиш тантанали маросимиغا бағишланган Олий мажлис тантаналарининг қўшма мажлисидаги нутқи). – Т.: Ўзбекистон; 2016. – Б.15.

2 .Сабзавотчилик. (Тузувчилар З.Рустамов, И.Абдуллаев, Ф.Турдиева). – Андижон-2013. –Б.5-6.

3. Ҳайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири – XX аср бошлари). - Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2018. –Б.104-124.

4. Исаев О.А. Сурхон воҳасидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар (1925-1941 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Термиз-2020. –Б.85-86.

5. Муаллифнинг Шариф бобо Фаттоев билан шахсий мулоқоти. 2015 йил 25 апрель.

X-XV ASRLARDA G'ARBIY YEVROPA SHAHARLARI RIVOJI

Odinayeva Umida Usmonovna,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa shaharlarining tuzilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: shaharsozlik, o'rta asr, zamoklar, rohibgoh, yemakxona, yotoqxona.

O'rta asrlar shaharsozligi bir qancha o'ziga xosliklarga ega. Bu o'ziga xosliklar qadimgi shaharsozlik bilan qiyos qilinganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Qadimgi davrda aksari shaharlar markazlashgan hokimiyatlar - qudratli davlatlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda barpo bo'lar edi. O'rta asrlardagi, ayniqsa, ilk olrta asrlarda hokimiyatlar tasarrufi, asosan, mayda hududlar bilan cheklangan. Markaziy hokimiyat qadimgi davrga qaraganda zaif edi. Bu esa o'rta asrlarda Sharqda dehqonlar (G'arbda-feodallar) tayanch bo'lgan qal'alar (ko'shklar, zamoklar) qurilishi shaharlar qurilishiga qaraganda ahamiyatliroq bo'lib qolishga olib keldi. Ayni vaqtda qadimgi davrda

markaziy hokimiyatlarning sustlashgan chog'lari bo'lgani kabi o'rta asrlarda ham markaziy hokimiyatlarning kuch-qudratga to'lgan chog'lari ham bo'lgan.

Tabiiyki, bunday jarayonlar o'rta asr shaharsozligida ham turli ko'rinishlarda o'z aksini topgan. Qadimgi shaharsozlikda shaharlar qisqa vaqtda bunyod etilib, ko'proq tarxi to'g'ri to'rtburchak shakliga ega, ko'chalari to'rsifat o'tkazilib, shahar hududi kataklarga bo'linar edi. O'rta asrlardagi shaharlar ko'proq uzoq vaqt-asrlar mobaynida bunyod etilib shaharlar tarxi doira shaklini, asosiy ko'chalari esa radial-halqa ko'rinishni olar edi.

O'rta asrlar shaharlarida ham basharning, umuman tamadduni (sivilizasiyasi)da bo'lgani kabi dinlarning tarqalishi katta ta'sirga ega bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda islom dinini tarqalishi shaharsozlikka kirib kelgan bir qacha jiharlar orqali namoyon bo'ladi. Bu jihatlar Hindistonda boburiylar sulolasi qaror topgan vaqtdagi shaharsozlikda ham ko'rinadi. Hindistonning janubiy qismida va Xitoydagi shaharsozlikda qadimgi davrda vujudga kelgan an'analar davom ettirildi. Qadimgi Rim imperiyasining negizida paydo bo'lgan davlatlarda - G'arbiy Rim imperiyasida (Yevropa mamlakatlarida) va Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiyada) shaharsozlik an'analariga turlicha qarashlar mavjud edi. An'analar Vizantiya davlatida bevosita davom ettirilgan bir vaqtda, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ular unitilayozgan edi. Romanika va gotika davrlari (X—XV asrlar)da yangicha shaharsozlik bunyod etildi.

Inqiroz tufayli qadimgi Rim imperiyasi parchalanib ketdi. Sharqiy Rim imperiyasi —Vizantiya XV asrda tanazzulga uchragunga qadar o'rta asrlarda qudratli, yaxlit davlat sifatida havot kechirdi. Undan farqli o'laroq G'arbiy Yevropaning asosiy qismini tashkil qilgan G'arbiy Rim imperiyasi o'rta asrlarda zaif davlat sifatida hayot kechirdi. U bir-biri bilan bog'liqligi kam bo'lgan, mayda-mayda hududlardan iborat edi. Merovinglar va Karolinglar davri bo'lgan VI—IX asrlarda qurilishlar juda sodda, kam edi. Oldingi, yuksak Rim me'morligi va shaharsozlik an'analari unut bo'lgandi. Ahvol Romanika (X—XI asrlar) davrida birmuncha yaxshilandi.

Qadimgi Rimmiki bilan kam bog'liq bo'lgan yangicha me'morlik va shaharsozlik vujudga keldi. Bu jarayonda rohibgoh (monastr)larning ahamiyati katta edi. Keyingi

Gotika (XII-XV asrlar) davrida shaharlarning mavqeyi juda yuqori bo'ldi. Shaharlarning hayotida hunarmandlarning uyushmalari kasabalar muhim rol o'ynadi. Monastrlar rohiblar jamoasining ibodat va maishiy hayoti uchun eng zarur barcha binolar majmuasidan iborat bo'lgan. Bunga Sent-Gallen rohibgohi (IX asr) misol bo'la oladi. Unda lotin salbi ko'rinishidagi tarxli cherkov binosi ajralib turgan. Cherkovning g'arbiy tomonida ikki minorasimon qurilma asosiy tarzni belgilab turgan. Cherkov yonidagi hovli - kluatr rohibgohning o'rtasini egallagan edi. Kluatrning tomonlarida yotoqxonalar va yemakxonalar (oshxona) bo'lgan. Bulardan tashqari, rohibgohda maktab, musofirxona, shifoxona, mozor, bir qancha xo'jalik binolari, hunarmandlarning uylari, tomorqalar bo'lgan.

Zamindor (feodal)lar o'zlariga qarorgoh sifatida pfaleslar qurishgan. VIII asrda Buyuk Karl saroy majmuasiga aylantirgan Axen pfalesi hududini asosiy ikki: saroy va kapella — oilaviy cherkov binolari egallagan. Ularning oraliqlarida ikki hovli mavjud bo'lgan. Binolarni uzun yo'lak (galereya) birlashtirgan edi.

Shaharlarning vujudga kelishida aksari dastlabki tayanch imorat majmualari katta rol o'ynagan. Aholi punkti bunday tayanch imorat majmualariga nisbatan qanday joyda kengayganiga qarab shaharlarning shakllanishida ikki usulni ajratish mumkin. Birinchi usul bo'yicha tayanch imoratlar majmuasi o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Aholi majmua atrofida joylashib boradi. Fransiyadagi Mon Sen Mishel shahri tog' tepasidagi abbatlik (rohibgoh) atrofida vujudga kelgan.

Ikkinchi usul bo'yicha, tayanch imoratlar majmuasini vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotadi. Aholi uning yoniga, birmuncha uzoqlikda joylashib boradi. Polshadagi Nova Ves shahri tepalikda qaror topgan feodalning qarorgohi — zamok yonida vujudga kelgan.

O'rta asrlarda aholi joylarining mudofaasi (qo'rg'on me'morligi)ga alohida e'tibor berilgan. Feodallarning zamoklari qamalga uzoq vaqt dosh bera oladigan tarzda barpo etilar edi. Zamoklarning tarkibida alohida minorasimon qismi — donjon bo'lib, zamokning boshqa qismi dushman qo'lga o'tgan taqdirda ham, uning ichida yana ancha vaqt davomida himoyachilarga jon saqlash imkoniyatini bergan. Zamoklarning atrofi

aksari xandaq (suvli zovur) bilan o'ralib zamokni tashqi dunyo bilan faqat ko'tarma ko'prik bog'lab turgan.

Muhofazasi juda mustahkam bo'lgan shaharlar qatoriga Fransiyadagi Karkasson kiradi. Uning Yuqori shahari ikki qator qo'rg'on devorlar bilan o'ralgan edi. Asosiy qal'asi - zamokdan tashqari uning g'arbida aylana tarxli qurilma (bar-bakan) bo'lgan. Od daryosining chap qirg'og'idagi Quyi shahar muntazam tarx bilan rejalangan edi.

G'arbiy Yevropaning o'rta asrlaridagi shaharlarida jamoat markazlarining ikki: diniy va dunyoviy xillari boshqa xillarga qaraganda ustuvor bo'lgan. Bu hol XIII asrning oxirida Fransiyaning janubida muntazam reja asosida qirol tomonida bo'lgan Monpaz'ye shahrida, ayniqsa, ravshan ko'zga tashlanadi. Burchaklari va uzun tomonlari burjlar bilan mustahkamlangan to'g'ri to'rtburchak tarxli bu shaharlarning o'rtasida ikki maydon joylashgan. Bir maydonda sobor qurilgan, ikkinchi maydon tomonlari esa do'konlar bilan qurshab olingan edi.

Shaharlarning dunyoviy markazlari — ratushalar o'zlarida nafaqat savdo-sotiq, balki ma'muriyat funksiyalarini ham mujassam etgan. Maysen (Olmoniya) shahrining markaziy (bozor) maydoni trapetsiya shakliga ega. Atrofidagi binolar (ratusha, cherkov, turar uylar) qiyofalari bir-birlariga hamohang ravishda bo'lib, yaxlit fazoviy muhitni tashkil qilgan.

Oderning chap irmog'i Neyse qirg'og'ida qurilgan Xerlis shahrining asosiy maydoni Quyi bozor hisoblangan. Katta trapetsiya tarxli maydon o'rtada qolib ketgan turar uylar bloki tufayli ikkiga bo'lingan. Asosiy qismini qiyofasini ratusha binosi, ravokdor galereya va favvora belgilaydi. Elbaning chap qirg'og'ida qurilgan Pirna shahrining bozor maydoni to'rtburchak shaklga yaqin bo'lgan. O'rtada ratusha binosi joylashgan. Pirnaning tarixiy rejasida shaharlarga talaygina muxtoriyat bergan Magdeburg huquqi berilgan imtiyozlar majmuasi bo'lgan.

Florensiya shahrining (Italiya) dunyoviy markazi — Sin'oriya maydonida burchakda me'mor Arnolfo di Kambino qurgan Vekkiyo palassosi joylashgan. U ratusha vazifasini o'tagan. Palossoning minorasida dastlab qo'ng'iroq bo'lib u orqali zarur paytlarda shaharliklarni maydonga chorlagan. Maydon qiyofasini lojiya (ravoqli ayvon)

jonlantirib turadi. Me'mor Arnolfo di Kambio qurilajak shaharlar hududlarini mutonasib ravishda taqsimlash bo'yicha ham izlanishlar olib borgan.

Parij shahri XI asrda tarqoq hududlardan iborat bo'lgan. Shaharning markaziy qismi — Site oroli ikkiga bo'linib, biri qirol tasarrufida, ikkinchi Notr-Dam sobori joylashgan qis-mida ruhoniylar tasarrufida bo'lgan. Orolning o'rtasidan o'tgan Sen-Jak va Sen-Martin ko'chalari shaharning bosh ko'chasini belgilab turgan. XII—XIII asrlar oralig'ida Filipp-Avgust tomonidan qurilgan devor dastlabki shahar devori bo'lgan.

G'arbiy Yevropa o'rta asrlardagi shaharlarning asosiy strukturasi va Uyg'onish keyingi Barokko davrlardagi shaharlarning negizini tashkil qildi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1—12-jildlar. T.: 2000-2006.
2. Искусство стран и народов мира. Т. 1-4. М.: 1962-78.
3. Ртвеладзе Е. Великий шёлковы й путь. Древность и раннее средневековье. Энциклопедический справочник. Т.: 1999.
4. Саваренская Т. История градостроительного искусства. М.: 1984.

DIPLOMATIYA TARIXI

Haqqulov Mehriddin Yunus o'g'li,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Kishilik jamiyati shakllanish jarayonida munosabatlar o'ta muhim ro'l o'ynaydi. Munosabat shakllanish jarayoni uning me'zoniy strukturasi bo'lib, davrlar aro rivojlanib keladi. Bu rivojlanish natijasida diplomatiya shakllanadi, qadimgi dunyo diplomatiyani o'z xolicha tushunib, munozaralar, kelishuv va hamkorlik deb xisoblashgan. Jamiyat va davlat rivojlanishida esa Diplomatiyaning o'rni juda kattadir.

Kalit so'zlar: Qadimgi dunyo, diplomatiya, qadimgi Misr, Mesopotamiya, buyuk ko'chish, Vavilon, Kritdagi Minay sulolasi, Manu qonunlari to'plami, Pona yozuvlar, Aleksandr Makedonskiy.

Madaniy jarayonlar sur'atlarining tenglashuviga xalqaro, aniqroq qilib aytganda, qabilalararo munosabatlar imkon yaratdi. Maqsadga yo'naltirilgan mustamlaka qilish, urushlar, savdo aloqalari, ko'chib o'tishlar singari rejali harakatlar yoki ov paytida, tabiiy ofatlar yuz berganda, yashash uchun yangi joy qidirish, asirlik yoki qullikdan qochish singari tasodifiy harakatlar kishilarning ilg'or bilimlari va ko'nikmalari, mehnat va urushning samaraliroq qurollari, turmush va muloqot madaniyati tarqalishiga imkon yaratdi [1].

Xalqlarning buyuk ko'chishlari deb atalgan hodisa ham insoniy tamaddunning vujudga kelishida eng sezilarli rol o'ynagan. Bu ko'chib yurishlar kelgindilar va tub aholining oddiy bo'lmagan munosabatlari – urushlar, mustamlaka qilish, bo'ysunish, yon berish, uzoq davom etgan raqobat, ittifoq tuzishlar, turli etnik guruhlarining aralashib ketishi bilan birga kechganini tasavvur qilish mumkin.

Shu asnoda qabilalar va qabilalar ittifoqi muloqotning ayg'oqchi orqali ma'lumot olish (razvedka), sezilmay kuzatish, asirga olish, shuningdek, dastlabki diplomatik harakatlar: elchilar yuborish, oliy darajadagi uchrashuvlar (ya'ni qabila boshliqlarining uchrashuvlari), bitimlar tuzish va ularni bekor qilish, vositachilik, garovga olish bilan kafolatlash va h.k. usullardan foydalangan bo'lishlari mumkin. Ammo voqelik shundan iboratki, diplomatiya xizmati tarixi faqat yozma tarix zamonlaridan beri - yozuv rivojlangan davlatlar yaratilgan davrlar, ya'ni insoniy tamaddunning dastlabki o'choqlari - Qadimgi Misr, Vavilon, Kritdagi Minay sulolasi va h.k.lar paydo bo'lgan davrdan boshlanganligini ko'rsatmoqda. Tarixchilar tomonidan o'qib chiqilgan ponada yozilgan taxtakachlarda tashqi ishlar kim tomonidan va qanday olib borilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, VI sulola hukmdori (Eramizga qadar XXV asr) Misrning janubiy qo'shnilari bilan ko'p qiziqqan ko'rinadi. Ponada yozilgan taxtakachlardan ma'lum bo'lishicha bu hukmdor Punt mamlakatiga (hozirgi Habashiston yoki Somali hududining qayeridadir joylashgan) 11 marta o'z elchilarini yuborgan ekan. Bundan birinchidan, hukumatning tashqi ishlari muntazam va tizimli olib borilganligi, ikkinchidan, xalqaro aloqalar uchun maxsus tayyorlangan kishilar bo'lganligi (Chunki

har bir ikki yil oralig'ida yuboriladigan vakillar uchun har safar tayyorgarlikka ega bo'lmagan kishilar yuborilmagan bo'lsa kerak) borasidagi xulosaga kelish mumkin [2].

Pona yozuvlarni o'qishda davom etadigan bo'lsak yuqoridagi xulosalarni tasdiqlashga va diplomatik xizmat ta'sirining samarali bo'lganligi borasidagi fikrlarni tasdiqlashga imkon topishimiz mumkin. Bizning eramizgacha bo'lgan 1296 yilda Firavn Ramzes II o'z diplomatlaridan juda rozi bo'lgan, ular jangovor xetlar davlati (Old Osiyo) bilan urushsiz sulh tuzishga muvaffaq bo'lishgan. Xetlarning o'zi ham diplomatiyada sezilarli iz qoldirgan. Xet hukumati xattotlari bitgan pona bilan yozilgan taxtakachlar orasida tarixchilar namunaviy xalqaro shartnoma matnini topishgan. Namunaviy shartnoma tuzilmasi uch qismdan: preambula ya'ni shartnoma nimaga bag'ishlanganligi; asosiy matnda bir necha moddada shartnomaning mazmuni; tomonlarning o'zaro olingan majburiyatlarni bajarish borasidagi qasamlari keltirilgan, shu asnoda o'zlarining rost so'zlayotganligi hamda sadoqat kafolati tarzida o'zlarining ma'budlari guvohlikka chaqirilgan va shartnoma bajarilmay qolgan taqdirda turli tuman balo ofatlar yog'ilishi ko'rsatilgan.

Bizning eramizgacha I asrda Hindistonda yaratilgan Manu qonunlari to'plamida diplomatik faoliyat to'g'risida qiziqarli fikrlar keltirilgan. Qadimgi hind donolari "diplomatiya san'ati – bu mamlakatni urushlardan asrashdir" deb hisoblashgan. To'plamda diplomatik xizmatga olinadigan kishilar qanday bo'lishi borasida mahorojalarga (hukmdorlarga) maslahatlar keltirilgan. Shunday qilib hindlarning fikrlariga ko'ra diplomat katta yoshdagi, o'z hukmdoriga faqat rost so'zlaydigan sadoqatli, harakatlari chaqqon, yaxshi xotiraga ega bo'lgan hamsuhbatining qiyofasidan uning fikrlarini o'qib oladigan kishi bo'lishi lozim. Qadimgi Gretsiyaning diplomatiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar qadimgi afsonalarda va Gomerning poemalarida uchraydi, birinchi diplomatlar esa – bular afsonaviy ma'budlar va qahramonlar bo'lib ular muntazam o'zaro raqobatda bo'lgan, ittifoqlar tuzishgan, fitnalarni uyushtirgan, Elladaning qabilalari va xalqlarini shu fitnalarga tortgan [3]. Grek polislari hududlarni kengaytirishga, qullar keltirishga, xalqaro savdoda imtiyozlar olishga yo'naltirilgan bir muncha amaliy tashqi siyosat olib borgan.

Qiyin zamonlarda mudofa ittifoqlari tuzish, raqiblarni tarqatib yuborish va ularga yolg'on axborot yetkazish, tinchlik va yon berishlarga erishish to'g'risida gap brogan [4]. Tashqi siyosat vazifalarining mazmunini diplomatiya urush manfaatlariga xizmat qilishi oldindan belgilab qo'ygan. Qadimgi Gretsiyaning buyuk diplomatlari harbiy sarkardalar va siyosiy dohiylar bo'lgan. Bir martalik 29oorish29ic missiyalarni bajarish uchun elchilar – xabarchilar va oqsoqollar xalq yig'ilishlarida tayinlangan. Shahar hukumati – polislar elchilarga maxsus yorliqlar – 29oorish yoki pergamentdan tayyorlangan ikki varaqdan iborat diplomlar bergan.

Yil bo'yi o'nlab rim elchixonalari qo'shni mamlakatlar va hududlar bo'ylab kezib yurgan, yangi urushlar uchun ittifoqlar izlashgan, raqiblarni cheklab qo'yishga yoki bir birlariga qayrab qo'yishga intilgan. Ularni qo'rqitishga, rim mustamlakasining bo'lg'usi qurbonlarini ruhini sindirishga urinilgan. "Parchalab tashla va hukmronlik qil" (Divide et impere) rim strategiyasining asosiy shiori edi. Rimliklar 29oorish29ic faoliyat uchun mablag' va vaqtni ayashmagan. Ular xorijiy delegatsiyalarni kutib olish, muzokaralar olib 29oorish, 29oorish29ic yozishmalar olib 29oorish usullari, protokoli batafsil ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR

1. Косимов А.М. Дипломатик ва консуллик хизмати. – Т.: 1998.
2. Хидоятлов Г.А. Основы дипломатии. – Т.: УМЭД, 2002.
3. Попов В. И. Современная дипломатия. Теория и практика. М., 2004.
4. Хидоятлов Г.А. Основы дипломатии. – Т.: УМЭД, 2002.

1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATI

U. F. Xayrullayev,

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi bo'yicha II bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada keltirilgan ma'lumotlar birinchi jahon urushidan keyin Polshaning g'olib davlatlar tomonidan tan olinishi va ikkinchi jahon urushigacha

bo'lgan davrda uning siyosiy va iqtisodiy ahvoli, tashqi va ichki siyosat masalalarini o'rganish va bo'lingan davlatning birlashuvigacha bo'lgan davrini nazariy tahlil qilish, Polshaning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni jarayonining ayrim masalalarini optimal o'rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Polshaning yarimmustamlaka sharoitidagi ichki siyosati, mehnatkashlarning ish tashlashlari, Birinchi jahon urushidan so'ng mustaqillikka erishishi, Statizm davri, Yangi iqtisodiy brigade, Sanatsiya davri, Seym islohotlari, Zlotiyning joriy etilishi, Pilsudskiy rejimi, Ridz Smiglining kata siyosat sahnasiga kirib kelishi, Polsha-sovet urushi, Vays rejasi, Daues rejasi, Jeneva konferensiyasi, Lokarno kelishuvi, Rapallo shartnomasi, Ribentrop-Molotov pakti.

1918-yil noyabr oyi boshida Lyublin shahrida Ignatsi Dashinskiy boshchiligida Polsha Respublikasining Muvaqqat xalq hukumati tuzildi. Bu tuzilma so'1 sotsialistik yo'nalishga ega edi va Varshavadagi konservativ nemisparast Regensy Kengashiga qarshi edi. Yenjdey Morachevskiy Dashinskiy hukumatida aloqa vaziri etib tayinlandi [1]. 1918-yil 14-noyabrda Jozef Pilsudskiy davlat boshlig'i deb e'lon qilindi. Bir kundan keyin Ikkinchi Polsha-Litva Hamdo'stligining birinchi hukumati tuzildi. Pilsudskiy Yenjdey Morachevskiyni bosh vazir etib tayinladi. 1918-yil 16-noyabrda Y. Pilsudskiy radio orqali xalqqa murojaat qilib G'arb mamlakatlari Polsha mustaqilligini tan olganligini e'lon qildi [2]. 1919-yilning ikkinchi yarmida Berlin, Varshava va Parijda bu masala bo'yicha Polsha-Germaniya muzokaralari bo'lib o'tdi. Polsha tomonining Versalda ilgari surilgan tashabbuslari g'olib mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Polsha boshqaruvida Pilsudskiyga G'arb kuchlari tomonidan bosim uyushtirilayotgan edi. U 1918-yil 16-noyabrda G'arb davlatlariga nota yubordi lekin, G'arb hukumatlari tomonidan bu nota inobatga olinmadi. Hukumatni almashtirish Pilsudskiy uchun nafaqat rasmiy huquqiy, balki nufuzli masala hisoblanardi. Polshada 1919-yil 4-yanvardan 5-yanvarga o'tar kechasi davlat Sapegi Yanushaytis –Jegota Marian Jozef, knyaz Eustake Sapegi, iqtisodchilar Mstislav Dymovskiy va Yerji Zdzichovski boshchiligidagi konservativ guruh davlat to'ntarishini amalga oshirishga

urindi. Millatchi ruhdagi kursantlar otryadi Morachevskiy boshchiligidagi bir qancha vazirlarni hibsga oldi.

Saylovlar bo'yicha kichkina bir statistikaga e'tibor qaratadigan bo'lsak 1919-yil 26-yanvar kuni saylovlarda 296 nafar deputat saylandi. Germaniya va Avstriya-Vengriyadagi 44 nafar sobiq polshalik deputat ham Seymga saylangan. 1919-yil iyun oyining oxirida Seymda 394 deputat, 1920-yil may oyida - 412, 1922-yil mart oyida - 432 mandat egalari bor edi.

Dastlab, Seymda 10 ta fraksiya shakllangan bo'lsa, 1922-yilda ularning soni 16 taga yetdi. Mandatlarning nisbiy ko'pchiligini (116 ta) o'ngdagi Xalq milliy ittifoqi oldi. Seymning chap qanoti PSL "Qutqaruv" (58 o'rin) va Polsha sotsialistlari (32 o'rin) deputatlaridan iborat edi. Pilsudskiy davrida Polsha davlati bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Qilgan xizmatlari uchun 1921-yil 25-iyunda Polshaning "Virtuti Militari" ordeni bilan taqdirlandi. Polshada demokratik jarayonlar shiddat bilan rivojlana bordi. 1922-yil 9-dekabrda Polsha o'zining demokratik yo'l bilan saylangan birinchi prezidentini qabul qildi. Bu chap dehqonlar partiyasidan nomzod Gabriel Narutovich edi. 1922-yil 14-dekabrda Pilsudski hokimiyatni Polshaning birinchi prezidenti Gabriel Narutovichga topshirdi [4]. Ikki kundan so'ng, Polshani larzaga keltirgan va jahon matbuotining birinchi sahifalariga tushgan fojiali voqea yuz berdi. "Zahenta" ko'rgazma zalida san'at ko'rgazmasini tomosha qilayotgan prezident Narutovich orqasidan uchta o'q uzildi. U o'sha kuniyoq hushiga kelmay olamdan o'tdi. Qotil Madaniyat vazirligida xizmat qilgan muvaffaqiyatsiz rassom va san'atshunos E.Nevyadomskiy edi.

Yoshligida u Milliy liga a'zosi bo'lgan. Qotilni tanigan odamlar uni aqliy jihatdan nosog'lom odam deb bilishardi. Prezident Gabriel Narutovich o'ldirilganidan so'ng Seym marshali (raisi) Masey Ratay Vazirlar Kengashi Raisi lavozimiga Polsha armiyasi bosh qo'mondoni Vladislav Sikorskiy nomzodini taklif qildi. Sikorskiy bu lavozimni 1923 yil 26 maygacha turdi. 1926-yil mayida Pilsudskiy tomonidan davlat to'ntarishi o'tqazildi oqibatda 379 kishi halok bo'lgan va 920 kishi yaralangan davlat to'ntarishidan keyin ertalab Polsha yangi siyosiy tizim bilan uyg'ondi va u tez orada "sanatsiya"

(tiklash) rejimi deb nomlandi [3]. 1928-yilgi saylov kampaniyasi Polsha parlamentarizmi tarixida birinchi bo'lib tashviqot va tashviqot radio orqali ham amalga oshirildi. 1928-yil mart oyidagi saylov natijalari bir ma'noli talqin qilish uchun o'zini oqlamaydi. Ularda 34 ta siyosiy tashkilot ishtirok etdi. Saylov natijalariga ko'ra Seymda 21 ta fraksiya shakllandi. Polshaning 20-yillar oxiridan 30-yillar boshigacha ichki siyosati Pilsudskiy va parlament o'rtasidagi kurash bilan kechdi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki Polsha davlatida oz muddat bo'lsada demokratiya shamoli hilpirab turdi. Bir nechta davlat to'ntarishlari amalga oshirilib hukumat tez-tez almashib turgan bo'lsada ularning barchasi Polyak xalqining farovonligi uchun xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Матвеев Г. Ф. Юзеф Пилсудский и Польская государственность (1892 – 1921) Мн.: БГУ, 2010. — С.123.

2. Лыкошина Л.С., Матвеев Г.Ф., Носкова А.Ф. Польша в XX веке. Очерки политической истории — М.: Издательство «Индрик», 2012. с. 122

3. Roos, Hans. [A History of Modern Poland, from the Foundation of the State in the First World War to the Present Day](#), 1st American, New York: Knopf, 1966. p. 153.

SHIMOLIY KOREYA (KXDR)DA HOKIMIYATNI TASHKIL QILISH XUSUSIYATLARI VA TASHQI SIYOSAT

Tog'oyeva Maftuna Sulton qizi,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatdagi siyosiy rejimning shakllanishi va qonunchilik jihatdan mustahkamlanishining xususiyatlari, u qanday tashkil etilganligi, shuningdek, mamlakatning hukmron elitasi hokimiyatni qanday usullar yordamida tashkil etishi va uni saqlab qolish uchun nima qilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: KXDR, hokimiyat, hukmron partiya, diktatura, boshqaruv.

Ushbu maqola Shimoliy Koreyada hokimiyatning xususiyatlari, nima uchun bu tarzda rivojlanganligi va uning namoyon bo'lishini ochib beradi. Bu mavzuning qiziqarli Tomoni shundaki, KXDR bugungi kunda sotsialistik tamoyillar asosida faoliyat yuritayotgan davlatlarning vakillaridan biri hisoblanadi .

Qizig'i shundaki, mamlakatning bo'linishi va rejimlarning o'zgarishi koreyslar tomonidan qo'llab quvvatlanmagan. Bu ishda asosiy qaror qiluvchi AQSh va SSSR edi. Shunday qilib, Shimoliy Koreya SSSR mafkurasini qabul qiladi. Shunga ko'ra, ular Sovet Ittifoqida mavjud tuzumga yaqin siyosit davlat qurilishiga amal qilishadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, hokimiyat tashkilotining tuzilishi o'xshash bo'lgan.

KXDR siyosati markazlashgan hokimiyat tamoyillari asosida qurilgan. Davlatning asosiy mafkurasi - Juchxe. Rasmiy ravishda KXDR Konstitutsiyasida barcha inson huquqlari va demokratik tamoyillar asosida qurilgan hukumat e'lon qilingan bo'lsa-da, aslida mamlakatda so'z erkinligi cheklangan va davlat fuqarolar hayotini diqqat bilan nazorat qiladi. Mamlakatdagi haqiqiy hokimiyat Kim Chen In boshchiligidagi Koreya ishchilar partiyasiga tegishli. Bundan tashqari, ikkita kichikroq siyosiy partiyalar - Chxondogyo va Koreya Sotsial-demokratik partiyasi mavjud bo'lib, ular davlatning siyosiy hayotida deyarli ishtirok etmaydi. De-fakto, mamlakatda Kim sulolasi shaxsiga sig'inuvchi totalitar diktatura o'rnatilgan.

1998 yil qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra, KXDRning sobiq prezidenti Kim Ir Sen "abadiy prezident"[1]. hisoblanadi, shuning uchun uning lavozimini hech kim egallashga haqli emas. Konstitutsiyada odatda davlat rahbari bajaradigan funksiyalarning aksariyati Oliy xalq majlisiga yuklangan. 1994-yilda Kim Ir Sen vafotidan keyin uning o'g'li Kim Chen Ir hukumat rahbari bo'ldi.

KXDR hukumatini Bosh vazir boshqaradi va Oliy xalq qo'mitasi (OXQ) nazorati ostida. OXQ siyosatni amalga oshirish va vazirlar mahkamasini nazorat qilish uchun javobgardir [2].

Kim Chen Ir 2011-yil 17-dekabrda vafot etguniga qadar davlat rahbari bo'lgan. U bir vaqtning o'zida bir nechta lavozimlarni egallagan va bir nechta rasmiy unvonlarga ega bo'lgan, jumladan, Koreya Mehnat partiyasi bosh kotibi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi

raisi va Qurolli kuchlar Oliy qo'mondoni. U “Muhtaram rais” rasmiy unvoniga ham ega edi (otasi Kim Ir Sen “Buyuk rais” deb ataladi).

Kim Chen Ir vafotidan keyin [3] hokimiyat tepasiga uning kenja o'g'li Kim Chen In keldi. 2019 yildan boshlab Bosh vazir Kim Chje Ryon hisoblanadi.

U bir vaqtda Koreya Mehnat partiyasi Bosh kotibi (2012-2016 yillarda birinchi kotib va 2016-2021 yillarda rais), KMP Markaziy harbiy komissiyasi raisi, Koreya xalq armiyasi Oliy qo'mondoni va Qaror qabul qiluvchi oliy organ bo'lmish partiya Siyosiy byurosi Prezidiumi a'zosi lavozimlarida ishlagan.

Kim Chen In hukmronligi raketa va yadro qurollarining uzluksiz rivojlanishi, kosmik sun'iy yo'ldoshlarning uchirilishi, iqtisodiy islohotlar, Xitoy Xalq Respublikasi bilan do'stona munosabatlarning rivojlanishi, shuningdek, Janubiy Koreya va Koreya Respublikasi hamda G'arb mamlakatlari bilan munosabatlardagi tebranishlar: 2015-2017 yillardagi keskin yomonlashuvdan 2018 yildagi “erish”gacha bo'lgan muhlat bilan ajralib turadi.

KXDR tashqi siyosiy munosabatlarini o'rganganda diqqat jalb qiluvchi bir qator jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Xususan, bugungi kunda KXDR va Rossiya, KXDR va Xitoy, KXDR va AQSh hamda G'arb mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar alohida diqqatga loyiq.

1945-yilda Ikkinchi jahon urushi oxirida Yaponiya taslim bo'lganidan keyin Koreya yarim oroli 38-parallel bo'ylab ikki zonaga bo'lingan [4]. Amerika Qo'shma Shtatlari mamlakat janubini, Sovet Ittifoqi esa shimolini egallab oldi. 1948 yilda sobiq birlashgan Koreya hududida ikki davlat - janubda Koreya Respublikasi va shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) tashkil etildi [5].

1950-yil 25-iyunda Shimoliy Koreya qo'shinlari Janubiy Koreyaga bostirib kirdilar. Qo'shma Shtatlar boshchiligida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 16 davlatidan iborat koalitsiya Janubiy Koreyani himoya qilishni o'z zimmasiga oldi.

1953-yil 27-iyulda harbiy harakatlarning faol bosqichi tugadi, tinchlik shartnomasi hech qachon imzolanmadi. Shimoliy va Janubiy Koreya Koreya urushi tugaganidan beri murakkab munosabatlarga ega. Ikki davlatni qurolsizlantirilgan zona ajratib turadi.

Urushdan keyingi davrda har ikki davlatning Koreya rasmiylari birlashish istagini bir necha bor bildirishgan, ammo 1971 yilgacha ikki davlat hukumatlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va rasmiy aloqalar bo'lmagan. Qo'shma Shtatlar Koreya xalqi uchun maqbul shartlarda Koreyani tinch yo'l bilan birlashtirishni qo'llab-quvvatlaydi va Koreya yarim orolining kelajagi uning xalqi qo'lida ekanligini tan oladi. Qo'shma Shtatlar Shimoliy va Janubiy Koreya o'rtasida mavjud muammolarni hal qilish uchun konstruktiv va jiddiy muloqot zarur, deb hisoblaydi. Shimoliy Koreyaning yadro dasturini ishlab chiqish istagi va ularning inson huquqlarini buzishi bu mamlakatning qolgan xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuviga yordam bermaydi.

Sof gumanitar yordamdan tashqari AQSh iqtisodiy yordamining aksariyat shakllari AQSh Davlat departamenti tomonidan taqiqlangan. Shimoliy Koreya aholisi vaqti-vaqti bilan ocharchilik davrlarini boshdan kechiradi va Qo'shma Shtatlar oziq-ovqat yordamini ko'rsatadi. Qo'shma Shtatlar shimoliy koreyaliklarga mamlakatda yuqumli kasalliklar tarqalishiga qarshi kurashda ham yordam ko'rsatmoqda.

1950 yilda Qo'shma Shtatlar Shimoliy Koreyaga deyarli to'liq iqtisodiy embargo qo'ydi. Keyingi yillarda AQSh sanksiyalarining bir qismi yumshatilgan, biroq boshqalari joriy qilingan. AQShning Shimoliy Koreya bilan iqtisodiy aloqalari minimal darajada qolmoqda.

2018-yil 22-mart kuni AQSh Kongressi KXDRda inson huquqlarini himoya qilish uchun sakkiz million dollar ajratilishini e'lon qildi.

KXDR rahbariyati mamlakat yetakchisi Kim Chen In va AQSh prezidenti Donald Tramp o'rtasidagi muzokaralar arafasida josuslik va "dushmanlik"da ayblanib hibsga olingan AQShning uch fuqarosini AQShga topshirishga tayyorlanmoqda. harakatlar."

AQSh Davlat departamenti matbuot kotibi Ned Praysning aytishicha, AQSh ma'muriyati Shimoliy Koreya bilan munosabatlarda AQShning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ittifoqchilarini himoya qilishi va xavfsizligini ta'minlaydigan yangi yondashuvni topadi.

2022-yil 16-may kuni AQSh Moliya vazirligi IT-kompaniyalarini KXDRdan masofaviy ishchilarni yollashdan ogohlantiruvchi bildirishnoma chiqardi, ular AQSh

hukumatiga ko'ra, ba'zi hollarda buyurtmalar olish uchun o'zini boshqa davlat fuqarolari sifatida namoyon qiladi. Vashingtonning fikricha, bunday mutaxassislar ishlab topgan pul oxir-oqibat Pxenyanning qurol-yarog'ni rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga ketadi.

SSSR parchalanib, Boris Yeltsin Rossiyada hokimiyat tepasiga kelgach, Rossiya-Shimoliy Koreya aloqalari ancha zaiflashdi va 1990-yillarda diplomatik aloqalar aslida faqat elchixonalar darajasida mavjud edi. Bu, xususan, Rossiya oliy rahbariyati 1994 yilda Kim Ir Senning vafoti munosabati bilan KXDRga rasmiy hamdardlik bildirmaganligida namoyon bo'ldi, garchi hatto G'arb kapitalistik davlatlari, xususan, AQSh rahbarlari ham. va Frantsiya shunday qildi. Shuningdek, boshqa qo'shni davlatlar ocharchilik paytida Rossiya KXDRga gumanitar yordam ko'rsatmagan. Va 2000 yilda hokimiyat tepasiga Vladimir Putin kelganidan keyingina Rossiya davlati rahbarining Pxenyanga birinchi tashrifi bo'lib o'tdi. O'shanda siyosiy aloqalarni faollashtirish, iqtisodiy hamkorlikni tiklash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishilgan edi. Keyingi yillarda havo qatnovi to'g'risida, madaniy hamkorlik to'g'risida, sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, fuqarolarning o'zaro sayohatlari, iqtisodiy va texnik hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitimlar imzolandi; o'rmon xo'jaligi sohasida, bojxona ishi, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqni muhofaza qilish sohasida, sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlaridan foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risida.

Rossiya vaqti-vaqti bilan KXDRga insonparvarlik yordami yetkazib turadi. 2004 yil 1 avgustda BMTning Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) orqali Rossiyaning Jahon oziq-ovqat dasturiga birinchi donor hissasi sifatida KXDRga oziq-ovqat partiyasi (34,7 ming tonna bug'doy qiymati 10 million dollar) etib keldi. 2009-yilda Tumangan-Najin [6] temir yo'lini birgalikda rekonstruksiya qilish bo'yicha kelishuvga erishildi. Najin portida konteyner terminali qurish rejalashtirilgan.

KXDRning diplomatik vakolatxonalari 43 davlat hududida faoliyat yuritadi. Diplomatik aloqalar o'rnatilgan davlatlar soni aslida ko'proq, chunki ba'zi Koreya elchixonalari bir nechta davlatlarga xizmat qiladi. Shunday qilib, KXDRning

Moskvadagi elchixonasi Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya va Ukrainadagi elchixonasi hisoblanadi (garchi Minskda KXDRning savdo-iqtisodiy vakolatxonasi ham faoliyat yuritadi) [7]. Shvetsiyadagi elchi ham Latviyadagi elchi hisoblanadi. KXDR AQSh bilan ikki tomonlama munosabatlarga ega emas, ammo Pxyenyandagi amerikalik fuqarolarning manfaatlarini Shvetsiya Qirolligi elchixonasi himoya qiladi va KXDR, kerak bo'lsa, BMTdagi vakolatxonasi orqali AQSh bilan aloqa qiladi. Nyu-York [8]. KXDRni tan olgan eng yosh davlat 2011-yilda Janubiy Sudan bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi Konstitutsiyasi (rus tilida, 1992 yil nashri) - <https://worldconstitutions.ru/?p=30>
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Shimoliy Koreya rahbari Kim Chen Ir qazo qildi - https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2011/12/111219_latin_kim_jong_il_dies
4. Соколов Б.В. КОРЕЙСКАЯ ВОЙНА (1950-1953 ГОДЫ) // Сто великих войн. — СПб.: Вече 2000, 2001. — ISBN 5–89173–145–2.
5. Daron Acemoglu, James A. Robinson: Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty (2012).
6. Regional CO-Operation in Northeast Asia The Tumen River Area Development Program, 1990—2000: In Search of a model for regional economic co-operation in Northeast Asia.
7. Доклад "Не померкнет Солнце, освещающая путь к процветанию корейского народа" на Торжественных собраниях в Минске и в Бресте, посвященных 99-й годовщине со дня рождения ...
8. U.S. Relations With the Democratic People's Republic of Korea - <https://www.state.gov/u-s-relations-with-north-korea/>

JANUBIY KOREYA VA YANGI O'ZBEKISTON: STRATEGIK SHERIKLIK SARI

Oybek Rashidov,

BuxDU Jahon tarixi

kafedra professori, t.f.d (DSc).

Narziyeva Rayxon Ramazonovna,

BuxDU Tarix (yo'nalishlar va

faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola Janubiy Koreya va O'zbekistonning mustaqillik yillaridan boshlab olib borilgan hamkorlik natijalariga bag'ishlangan. Bunda asosan ikki davlat o'rtasida turli sohalarda oxirgi yillar davomida olib borilgan strategik sheriklik masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Janubiy Koreya, O'zbekiston, strategik sheriklik, investitsiya, delegat, KOICA, ta'lim.

Uzoq o'tmishdan ma'lumki, o'zbek va koreys xalqlarini asrlar davomida qaror topgan qadimiy do'stlik rishtalari bog'lab turadi. Buni Samarqand hududida joylashgan Afrosiyob shahri devorlarida saqlanib qolgan VII asrda Koreyaning Koguryo sulolasi elchilari tashrifi aks etgan suratlarda ko'rish mumkin [1]. Bugungi kunga kelib Janubiy Koreya va O'zbekiston o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik kengayib, Yangi O'zbekiston strategiyasida Janubiy Koreya Prezidenti Mun Chje Inning 2019-yil tashrifidan so'ng imzolangan "Alohida strategik sheriklik to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya va O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil Janubiy Koreyaga qilgan safari ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekistonning to'rtinchi yirik tashqi savdo hamkori, "Osiyo Yo'lbarisi" hisoblangan Janubiy Koreya iqtisodiy resurslar, geografik joylashuv va yirik bozorga ega bo'lgan O'zbekiston bilan munosabatlarni chuqurlashtirishdan manfaatdor. Janubiy Koreyaning O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyaning umumiy hajmi 7 mlrd dollar bo'lib, "Daewoo International", "LG", "Korean Air", "Kia Motors", "Samsung Group", "Shindong Enercom" kabi yirik kompaniyalar tomonidan kiritilgan investitsiyalar miqdori salmoqdor [2]. Shuningdek, bugungi kunda ikki davlat

o'rtasidagi savdo aylanmasi 2,5 mlrd dollarni tashkil etsa, bu ko'rsatkichni 2025-yilga kelib 5 mlrd dollarga ko'tarish rejalashtirilgan. Garchand Janubiy Koreya o'tgan asrning 70-yillarida kambag'allik darajasi o'ta yuqori bo'lgan bo'lsada, 1970-yilda Prezident Pak Chon Xi tomonidan qo'llanilgan "Yangi qishloq uchun harakat" dasturi samarali natija berdi [3]. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida shu dastur tajribasidan foydalanilmoqda.

Siyosiy hamkorlik masalasida O'zbekiston Mun Chje Inning Shimoliy Iqtisodiy Hamkorlik doirasidagi "Yangi shimoliy siyosat" ini to'liq qo'llab-quvvatlab, Janubiy Koreyaning global xavfsizlikni ta'minlash borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan Koreya yarimorolidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tinchliksevar siyosatini ma'qullaydi. Parlamentlararo munosabatlarda 2021-yilda ilk bor kengaytirilgan tarkibdagi tashriflar bo'lib o'tdi. Xususan, O'zbekistondan tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan Abdulaziz Komilov boshchiligidagi delegatsiya Koreyaga bordilar. O'z navbatida shu yilning o'zida Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Pak Byon Sok boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdilar. Keyingi yillarda ham ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Zero Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Pak Byon Sok ta'biri bilan aytganda, "parlamentlar ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi kerak".

O'zbekistonning Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan sermahsul sherikchiligi ham kengayib, 1995-yildan boshlab faoliyat yuritayotgan Toshkentdagi KOICA markazi til, madaniyat va sog'likni saqlash masalalarida yordam berib kelmoqda. O'zbekistonning 7 ta oliy o'quv yurtida talabalar koreys tili mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olyaptilar. Koreya Respublikasining Pusan, Tegu, Hanguk universitetlarida o'zbek tili o'rgatilmoqda. Ayni damda O'zbekistonda Janubiy Koreyaning 5 ta oliy o'quv yurti filiali ishlab turibdi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan joriy yilda O'zbekiston-Koreya rektorlari 1-forumini o'tkazish rejalashtirilgan.

Tarixdan ma'lumki, 1937-yilda Uzoq Sharqda yashagan koreys aholisi O'zbekiston va Qozog'istonga deportatsiya qilingan edi [4]. 2022-yilda yurtimizda

koreys diasporasining 85 yilligi keng nishonlandi. Ayni shu yili O'zbekiston va Janubiy Koreya diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 30 yilligi munosabati bilan Koreyada Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi [5]. Aytib o'tish joizki, bu haykal 2021-yil Janubiy Koreya poytaxti Seulda Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlab o'rnatilgan edi. Haykal ostida esa koreys tilida "O'zbek xalqining buyuk ajdodi, adabiy tili asoschisi" degan so'zlarning bitilishi ikki davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamladi.

Xulosa o'rnida aytganda, diplomatik aloqalar o'rnatilgandan buyon O'zbekiston barcha yo'nalishlarda, ayniqsa, xalqaro masalalarda Janubiy Koreyaning ishonchli hamkoriga aylandi. Keyingi yillarda ham bu hamkorlikni davomiylik asosida kengaytirish har ikkala davlat manfaatlariga to'la mos keladi.

ADABIYOTLAR

1. Стратегик шериклик муносабатларини янада мустаҳкамлайдиган тарихий таширф // “Халқ сўзи”. 2021-йил 19-декабрь, 271-сон

2. 2022-йил - “Ўзбекистон ва Корея Республикаси ўртасидаги ўзаро алмашинувлар йили” // “Янги Ўзбекистон”. 2021-йил 21-декабрь. 257-сон

3. Курбанов С.О. История Кореи: с древности до начала XXI В. – 3-е изд., испр. – СПб.: Изд-во С.- Петерб, ун-та, 2018. – 744 с

4. Хан V.S. Koreya tarixi – Toshkent: Baktria Press, 2013. – 128 b

5. Flower laying ceremony at the monument of Alisher Navoiy takes place in Seoul // “The Korea Post”. 2022.02.10

MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI

Aslonov Axmadjon G'ani o'g'li,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davrida O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari, BMT, UNESCO, xalqaro hamjamiyatning yetakchi davlatlari AQSH, Xitoy, Rossiya Yevropa ittifoqi bilan aloqalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xalqaro tashkilotlar, Mintaqaviy tashkilotlar, BMT, YEI.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Jumladan, AQSH, Turkiya, Germaniya, Hindiston, Pokiston va boshqalar. Shuningdek, O'zbekistonda 2006 yilga kelib, 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarining 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq davlatda - AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchihonalari ishlab turibdi [1].

O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya koorparatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa xalqaro moliyaviy - iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi, hamda ular bilan hamkorlik qilmoqda. Jumladan, xalqaro valyuta fondi mutaxassisligi ishtirokida O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish maqsadida dastur ishlab chiqildi va uni amalga oshirish uchun 74 million AQSH dollari miqdorida dastlabki mablag' ajratildi. Jahon Banki bilan O'zbekiston o'rtasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, milliy valyutamizni mustaqkamlash uchun 160 million AQSH dollari miqdorida tiklanish qarzi berish to'qrisida bitim imzolandi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohatlar dasturini qo'llab-quvvatlash va qarz beruvchi 21 ta mamlakat tomonidan O'zbekistonga texnikaviy yordam ko'rsatmoqda. Bu yordam miqdori 1993-2006 yillarda salkam 75 million AQSH dollariga teng bo'ldi. Ushbu mablag' mutahassislar tayyorlashga, energetika va transport tizimini takomillashtirishga, sog'liqni saqlash, dori-darmon bilan ta'minlash, atrof muhitni muxofaza qilish, iqtisodiyotning turli soqalarini kompyuterlashtirishga yo'naltirildi. O'zbekiston bilan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa mamlakatlar o'rtasida

savdo-sanoat palatalari barpo etildi, 2 mingdan ziyod xo'jalik subyekti, shu jumladan, upshmalar, konöernlar va hususiy korhonalarga tashqi bozorga chiqish ququqi berildi. Ayni shu paytda prtimizda dunyoning 25 mamlakatiga qarashli xorijiy, firma, bank va kompaniyalarning 166 ta vakolatxonasi ishlamoqda. O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy banki dunyoning 80 ta yirik bankida vakillik hisobini ochgan [2].

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtrishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'grisida" gi, "chet El investitsiyalar to'g'risida" gi, "Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida" gi qonunlar va boshqa me'yoriy qujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu huquqiy qujjatlar tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida halqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarini import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va Dunyo mamlakatlari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish uchun davlatlar bilan samarali tinchliksevar bitimlar taklif qila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining xoxiish irodasi va taklifiga ko'ra, 1992 yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng ququqli a'zosi bo'ldi.

Bugungi kunda insoniyatning taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlarga bog'liq bo'lib turibdi. Xalqaro maydondagi har bir siyosiy tangliq mojarro barcha mamlakatlar xalqlari manfaatiga dahldor bo'lib qoldi. Shu bois O'zbekistonning xalqaro maydonda olib borayotgan siyosatini, uning mamlakatimiz milliy manfaatlariga javob beradigan strategik ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab olish nihoyatda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu maqsadda 2012 yil sentyabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qonunda belgilab berilgan prinsiplar muhim voqyea bo'ldi. Bu prinsiplar quyidagilar: O'zbekistonning turli harbiy bloklardan uzoq bo'lishi; o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozisiyaga ega bo'lishi

va o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalarini joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik; ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borish. Uzbekiston Respublikasining BMT bilan munosabatlarida 2016 yilning ikkinchi yarmidan boshlab yangi tendensiyalar ko'zga tashlanib, uzaro munosabatlarda yangi boskich boshlandi. Jumladan, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi tug'risida»gi Farmoni asosida mamlakat tashki siyosati, jahonning rivojlangan mamlakatlari va xalkaro tashkilotlari bilan hamkorligini yangi boskichga ko'tarishning «yo'l xaritasi» belgilab olindi [3]. «Harakatlar strategiyasi» O'zbekiston tashki siyosiy faoliyatida yangi omillar, resurslar va uzaro hamkorlikni [yanada rivojlantirish](#), siyosiy va iktisodiy diplomatik munosabatlarni chukurlashtirish uchun asos yaratdi. Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, Harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari global dasturi bilan uyg'undir. Harakatlar strategiyasi - bu BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekistonning yo'l xaritasidir. Shunga asosan, O'zbekiston tashki siyosiy faoliyatida, jahonning rivojlangan mamlakatlari va xalkaro tashkilotlari xususan, BMT bilan munosabatlarida yangi sahifa ochildi. 2017 yil 19 sentyabrda Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mir-ziyoyev AKShda bulib, BMTning 72-sessiyasida nutk suzladi. Mazkur nutk Uzbekistonning BMT doirasidagi xalkaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi. Uzbekiston Prezidenti uz nutkida mamlakat ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi uzgarishlar xam da anik va asosli manbalarga ega bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi. Ya'ni globallashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga karatilgan umumlashtirilgan xalkaro xukukiy xujjat - BMTning Yoshlar xukuklari to'g'risidagi xalkaro konvensiyasini ishlab chikish, BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini kabul kilish, BMT Xavfsizlik Kengashini [boskichma-boskich isloh kilish](#), kabi global xarakterdagi takliflari jaxrn jamoatchiligida katta kizikish uyg'otdi. Xususan, O'zbekiston Prezidenta Sh.Mirziyoyovning mazkur nutki mavjud

muammolarga maxalliy, mintakaviy va global darajada ahamiyat qaratilib, ularning yechimiga pragmatik yondashilganligi bilan aloxida ahamiyat kasb etdi.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;

ADABIYOTLAR

1. Achildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar.-T.: O'zbekiston, 2004
2. Abdurahmonov F. Mustaqillik va milliy manfaatlar.-T.: Fan, 1994
3. O'zbekiston Prezidentining “ O'zbekiston resp[ublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947 son farmoni Xalq so'zi, 2017 8-fevral.

O'ZBEKISTONDA XX ASR 80-YILLAR OXIRIDAGI MILLATLARARO MOJAROLAR

Rashidova Gulniso Qurbonovna,

Bux.DU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Ushbu maqolada XX asr 80-yillar oxiridagi yurtimizda sodir bo'lgan millatlararo mojarolar, O'zbekiston SSR da “Paxta ishi” hamda Farg'ona voqealari va uning oqibatlarini haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sotsialistik millat ittifoqi, “Qayta qurish”, ma'muriy buyruqbozlik, “paxta ishi”, “o'zbek ishi”, mesxeti turklari, millatchilik.

XX asrning 80- yillari o'rtalarida sovet jamiyatida “qayta qurish”, tushunchasi iste'molga kirib keldi. 1985-yil arafasiga kelganda SSSR ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan chuqur tushkunlikni boshodan kechirayotgan edi. KPSS etakchisi va SSSR rahbari K.I. Cherchenko vafotidan so'ng KPSS Markaziy Komiteti Bosh kotibi lavozimiga saylangan M. S. Garbaxyov 1985-yil 11 – iyunda “Partiya iqtisodiy siyosatining tub masalasi” nomli ma'ruzasida birinchi marta “qayta qurish” siyosatining ayrim jihatlarini to'g'ri ko'rsatishga harakat qildi. Sovet jamiyatini qamrab olgan qayta qurish davrini quyidagi ikki bosqichga ajratish mumkin.

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985 – 1986) ma'muriy-tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usulda olib borishi bilan izohlanadi. Bu paytda SSSR tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham mamlakatdagi qayta qurish jarayonlariga tortildi, uning qonuniyatlariga amal qildi. Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1986-1987) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkoniyat yaratdi. XX asrning 80 - yillari o'rtalaridan boshlangan “qayta qurish siyosati natijasida sobiq ittifoq xalqlari o'z manfaatlari uchun kurash yo'lini tutib, kuchayib borayotgan milliy manfaatlarini himoya qilish sari harakat qila boshladilar [1].

Mustabid tuzumning milly siyosati kommunistik partiyaning milliy masalani to'liq hal qilishi, kommunistik jamiyat qurilishi, jarayonida mamlakatdagi barcha millatlarning qo'shilib ketishi asosiy qoidalari negizida yuritildi. Bunday siyosatning aniq ko'rinishlaridan biri ko'p millatchilikning sun'iy ravishda rivojlantirishga qaratilgan edi. Bu jarayon O'zbekistonda yaqqol ko'zga tashlandi. O'zbekistonda 1926-yilda 91 ta millat vakillari yashashi qayd etilgan edi, bu ko'satkich 1959-yilda 113 tani , 1979-yilda 123 tani , 1989-yilda esa 127 tani tashkil etagan. 80-yillarning oxiriga kelib, “qayta qurish” siyosatining jamiyat hayotiga so'z erkinligi, oshkoralik, demokratiya kabi tamoyillarni olib kirishi millatlararo munosabatlar qanday ahvolda ekanligini aniq namoyon etdi. Ko'pgina mintaqalar

(Tog'li Qorabog', Checheniston, Farg'ona, Abxazia) millatlararo nizolar va mojarolar avj oldi [2].

O'zbekistonda sovet rejimi tomonidan amalga oshirilgan kompaniyalarning eng oxirgisi "paxta ishi" sifatida tarixga kirgan. Paxta ishi - sovet rejimi tomonidan O'zbekistonda 1983-1990 yillarda keng miqyosda olib borilgan sud-tergov jarayonlarining rasmiy nomi SSSR rahbari Yu. V. Andropov tashabbusi bilan 1983-yil fevralda KPSS MK siyosiy buyurosi O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko'zbo- yamachilik bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish to'g'risida maxsus qaror qabul qilib bu vazifani bajarish uchun SSSR prokuraturasida maxsus tergov komissiyasini tuzishni topshirdi. 1983-yil aprelda T. X. Gdlyan va N. V. Ivanov rahbarligida ana shunday maxsus tergov guruhi tuzildi. 1983-yil boshlarida O'zbekistonda maxsus tergov guruhi yuborildi. Bu tergovchilar keyinchalik Markazdan respublikaga kelgan "desantchilar" partiya, sovet va xo'jalik rahbarlariga tayanib, O'zbekistonda keng miqyosli sud tergovini amalga oshirdilar. Respublikalarda rivojlanib borayotgan milliy demokratik harakatlarga Markaz "jiddiy xudbinlik va mahalliychilik"ning ko'rinishi deb qaradi. O'zbekistonda bunday katta jinoyat deb yuritilayotgan masala "paxta ishi" va keyinchalik "ozbek ishi" deb nomlandi [3]. 1983- yil O'zbekiston SSR da qatag'onning yangi bosqichi boshlanib, go'yoki Sovet ittifoqidagi barcha jinoyatlar faqat O'zbekistonda sodir qilindi. Uni faqat o'zbeklar amalga oshirdi degan fikr jamoatchilik ongiga singdirildi. Gdlyan guruhidagi tergovchilarning miqdori 500-600 kishiga yetgan. O'zbekistonlik ko'pgina rahbarlar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ayrim sobiq rahbarlar qamoqqa tushmaslik uchun o'z jonlariga qasd qilishdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, "paxta ishi" ning haqiqiy mohiyati yana ham teran ochib tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov 1991-yil 25-dekabrda "paxta ishi" bilann sudalnib, respublika hududidagi axloq-tuzatish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni avf etish to'g'risidagi Farmonga imzo chekdi. Shunga ko'ra, ko'pchilik maxbuslar qolgan jazo muddatini o'tashdan ozod etildilar [4].

Tarixiy voqelik ittifoq o'z umrini yashab bo'lmayotganligi uning parchalanishi muqarrar ekanligini ko'rsatib turardi. Farg'ona vodiysida XX asr 80-90 yillarda o'ziga xos demografik vaziyat hukm surgan. Ikkinchi jahon urushi davrida SSSR Davlat Mudofaa Komiteti rahbari I. V. Stalinning 1944 yil 14 noyabrdagi qaroriga ko'ra 120.000 nafar mesxeti turklari Guruziyaning janubi g'arbiy hududidagi tarixiy Mesxetiya va Jevaxetiya viloyatlaridan Orta Osiyo va

Qozog'iston respublikalariga ko'chirildi. O'rta Osiyoga departatsiya qilingan mesxeti turklarining eng ko'p qizmi O'zbekistonga joylashtirilgan edi. Shu jumla-dan katta guruhlardan biri Farg'ona vodiysiga joylashgan edi. 1989-yil 1-iyunda shahar aholisi 58400 kishi bo'lib uning milliy tarkibi xilma-xilligi bilan ajralib turar edi. Quvasoyda 47 ta turli millat va elat yashagan. 1989- yil may oyida bu hududga bir qancha bezoriliklar, ayniqsa mesxeti turk yoshlarining tartibsizliklarni keltirib chiqishlari Farg'ona voqealarining boshlanishiga sabab bo'lgan. Mesxeti turklarining boshqa millatlarga nisbatan iqtisodiy ahvoli yaxshi edi.

Xullas, "Tadbirkor va uddaburon" bo'lgan mesxeti turklari mahalliy hokimiyat organlari bilan yaxshi munosabatda bo'lilib, iqtisodiy jihatdan "ta'minlab" turishgan. Quvasoy shahrida hukm surgan iltimoiy tanglik natijasiga unda yashovchi turli millatlar, o'zbeklar va mesxeti turklari orasida janjal chiqadi. Natijada ular o'rtasida qonli to'qnashuvlar yuz beradi. Birinchi katta to'qnashuv Marg'ilon shahrining shimoli – sharqida joylashgan Toshloq rayonida yuz beradi. Bu hududga 20 ga yaqin turli millat vakillari istiqomat qilardi. Olomon orasida tayoq va temirlar, pichoq va boltalar, turli xil narsalar bilan qurollangan bezorilar faollik ko'rsatishgan. 5- iyunda Toshloq tumanida vaziyat osoyishtaroq bo'lgan. Bu yerga SSSR Ichki ishlar ministrligining ichki qo'shin askarlari kiritilgan. Ular 3 kun davomida mahalliy aholi yordami bilan 1000 nafar mesxeti turklarini maxsus qochoqlar lageriga yuborgan. Sovet rahbari o'z jinoyatlarini yashirish uchun tinch, namoyishchilarni (ular asosan o'zbek yoshlari edi) "ekstremistlar", ko'zi qonga to'lgan bandetlar, "nashavandlar", "millatchilar", "bosmachilar" kabi

soxta yorliqlar bilan atab xalqqa qarshi qaratilgan zo'ravonlik qilishlarini oqlashga urindilar. Natijada Sovet askarlari va ularning rahbarlari hech qanday jazosiz qoldirildi.

Mustaqil O'zbekiston oldida millatlararo munosabatlarni yaxshilash va barqarorlikni saqlash kabi muhim vazifalar ko'ndalang turar edi. O'zbekistonda o'tmish davrida millatlararo munosabatlarda barqarorlik saqlanib turishi o'zbek xalqida boshqa millatlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, tarixan shakllangan do'stlik va kengfellik fazilatlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “О’zbekiston”, 2019. –576 б.

2. Rashidov O. Ozbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Muharrir, 2022. – B.200.

3. Ражабов Қ., Абуев Х. Ўзбекистон ССРда совет давлатининг емирилиши ҳамда қайта қуриш сиёсатининг таназзули (1985-1991йй.) – Тошкент: Фан, 2022.– 176 б.

4. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu Matbuot-konsart, 2009. – 176.

O'ZBEKISTONNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIGA

A'ZO BO'LISHI VA FAOLIYATI

Jabborova Dilrabo Tog'oy qizi,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning ShHTga a'zo bo'lish tarixi va undagi faoliyati haqida fikr mulohazalar yuritilgan bo'lib asosan O'zbekiston raislik qilgan davrda erishilgan yutiqlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, diplomatik, terror, ekstremizm, narkobiznes, MOH, ayirmachilik, fundamental muammolar

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. Negaki, davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ana shu vazifalarning oqilona hal yetilishiga bog'liq bo'lib qolgan edi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'lini tanladi va og'ishmay shu yo'ldan bormoqda. 2000-yil 5 iyul kuni "Shanxay beshligi" tashkilotining Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi sammitida O'zbekiston hukumati kuzatuvchi maqomida ishtirok etgan edi. 2001-yil 15-iyun kuni Shanxayda bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuv chog'ida O'zbekiston ham teng huquqli a'zo sifatida ularning safiga qo'shildi va shu kuni "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" tuzilganligi to'g'risida deklaratsiya imzolandi. Bu tashkilot faoliyatiga oid fikrlarni bildirib, yechimini kutayotgan bir necha dolzarb muammoni sanab o'tdi. Albatta, birinchi navbatda, Afg'oniston mojarosi qayd etildi. Bu yerdagi xunrezlik tugamas ekan, tahdid saqlanib qolaveradi. Natijada o'z-o'zidan, yangidan-yangi muammolar kelib chiqaveradi. Terror, ekstremizm, ayirmachilik va narkobiznes bir-biridan ayri muammolar emasligi yaxshi ma'lum. Narkotik moddalar savdosidan kelgan milliardlab dollarlar evaziga qo'poruvchilar yollanmoqda va turli vahshiyliklarga yo'naltirilmoqda. Bu tizim g'oyat yaxshi muvofiqlashtiriladi. Demak, unga qarshi bahamjihat kurashilmasa, natija kutilganidek bo'lmaydi [1].

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning ShHT davlat rahbarlarining Sankt-Peterburg sammitida so'zlagan nutqi ham diqqatga sazovor, albatta. *"Bu davr fundamental muammolar va xalqaro xavfsizlikka tahdid, birinchi galda, sayyoramizdagi tinchlik va barqarorlikka eng ko'p darajada xavf solayotgan*

xalqaro terrorchilik tahdidiga to'qnash kelayotgan sifat jihatdan yangi dunyo tartiboti bilan tavsiflanadi. Yaqin o'tmishimiz voqealari va dalillari barchamiz e'tiborga olishimiz lozim bo'lgan yana bir achchiq haqiqatni namoyon etdi: nechog'lik mukammal qurol yoki qudratli va zamonaviy yadro-raketa vositalariga ega bo'lmasin, dunyoning hech bir mamlakati bugungi kunda o'zini ushbu dahshatli tahdiddan xoli deb hisoblay olmaydi. Faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar bilangina xalqaro hamjamiyat insoniyatga xavf soluvchi tobora kuchayib borayotgan ana shu tahdiddan xalos bo'la oladi... Erishilgan kelishuvlar, bizning fikrimizcha, vujudga kelayotgan xalqaro vaziyatni oqilona va to'g'ri baholash natijasi bo'lib, hech shubhasiz, yangi, o'zaro ishonchga hamda butun dunyodagi xavfsizlikka asoslangan konsepsiya ishlab chiqishga yordam beradi... ShHTning ushbu barcha murakkab vazifalarni amalga oshirishdagi o'rni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uni o'z ishtirokchilarining holati va imkoniyatlariga mos, mumkin qadar ochiq, omilkor va samarali tashkilotga aylantirish nihoyatda muhimdir.

O'zbekiston bugungi kunda ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo. Ammo mamlakatimiz va mintaqamiz istiqboli uchun ulardan ikkitasi alohida ahamiyatga ega. Bular – “Markaziy Osiyo hamkorligi” (MOH) tashkiloti va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT). O'zbekiston bu ikki xalqaro tashkilotning ta'sislaridan va faol ishtirokchilaridan biridir. O'zbekiston ShHTga birinchi marotaba raislik qilgan davrda (2003-2004) tashkilotning institusional shakllanishi nuqtai nazaridan muhim hujjatlar: ShHT huzuridagi kuzatuvchi maqomi to'g'risidagi Nizom va ShHTning kuzatuvchilar bilan hamkorligi tartibi imzolandi. O'zbekiston Respublikasi 2010-yilda bo'lib o'tgan ShHT sammitiga ikkinchi bor raislik qildi. Ushbu yig'ilishda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, tashkilotning tashqi aloqalarini kengaytirish, keng mintaqadagi tinchlikni, osoyishtalik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalar muhokama qilindi. Shuningdek, sammit davomida Qirg'izistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashilib, ishtirokchilar Qirg'iziston Respublikasiga zarur yordam berish va qo'llab-quvvatlashga tayyorliklarini bildirdilar. Shuni qayd etish o'rinliki, yurtimizning tashkilotga ikkinchi raisligi davrida ilm-fan hamda texnika bo'yicha ShHTga a'zo davlatlar vazirlik va

idoralari rahbarlari uchrashuvining mexanizmi ishga solindi. Bundan tashqari, ShHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida qishloq xo'jaligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash sohalarida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi.

Mamlakatimizning bu galgi mezbonligi ham jahon ommaviy axborot vositalarida yuqori e'tirofga sazovor bo'ldi. Birgina "InfoShOS" internet portalining bosh muharriri Tatyana Sinisinining mulohazasiga ko'ra, O'zbekiston raisligining qiymati, eng avvalo, aniqlikdadir. *"Turlicha fikr bildirganlar ko'p bo'ldi, lekin karvon o'z yo'lida davom etdi. Xususan, Toshkent deklaratsiyasi hamkorlikning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgani bilan ahamiyatga egadir. Bu mazkur tashkilotlar o'rtasidagi muloqotlarning yanada ishonchli va amaliylikini ta'minlaydi [2]"* – deyiladi unda. Bundan tashqari yig'ilish chog'ida BMT rahbarlariga qurib borayotgan Orol dengizining ekologik manzarasining yaqqol ko'rsatilganligi, faqat ShHT va BMT hamkorlikdagina bunday ekologik muammolarni hal qila olishi mumkinligi haqidagi xabarlarni "Новости" axborot agentligi veb-saytida ham uchratishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi sammitda qilgan raisligini ham alohida e'tirof etish o'rinli, albatta. Chunki mazkur sammit oldingilariga nisbatan o'zgacha ruhda o'tdi, shu bilan birga, ShHT rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur sammit ShHT faoliyatining 15 yillik yubiley sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar davomida ShHT faoliyatini me'yoriy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni izchil rivojlantirish, shuningdek, terrorizm, separatizm va ekstremizmga, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi birgalikda kurashish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari, Afg'oniston va Yaqin Sharqdagi vaziyat muhokama qilindi [3].

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, O'zbekiston ShHTning to'laqonli a'zosidir. Bu esa, O'zbekistonni bir vaqtning o'zida ham Xitoy va Rossiya bilan, ham qo'shni hisoblangan Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini olib borish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Шодиева Ш. Ўзбекистон ва ШХТ – барқарор тинчлик йўлида // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2017. – Б.164.

2. ШХТнинг Тошкент саммити хорижий экспертлар нигоҳида // Халқ сўзи. №115(5030), 2010 йил 11 июнь.

3. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Tom 12.2004.342-bet

SHARQ UYG'ONISH DAVRI MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSINING YEVROPA (G'ARB) FANI VA MADANIYATI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Nematov Bobir Xidoyatovich,

BuxDU, Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

b.x.nematov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharqda ro'y bergan uyg'onish davrida (IX-XII asrlarda) faoliyat olib borgan mutafakkirlarning ilmiy merosining Yevropa (G'arb) fani va madaniyati rivojida tutgan o'rnini tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Ilm-fan, mutafakkir, Sharq Uyg'onish davri, Al-Xorazmiy, riyoziyot, Kremonalik Herardo, ingliz Robert Chester, «al-jabr va-l-muqobala», Alfraganus, Ahmad al-Farg'oniy, Robert Grossetest, Forobiy, Ibn Sino.

IX-XII asrlarda ro'y bergan Sharq Uyg'onish davri shunday mutafakkirlarni yaratdiki, ularning qilgan ishlari, ilm-ma'rifat sohasida yaratgan kashfiyotlari hanuz butun insoniyat tomonidan tan olinib kelinmoqda.

Sharq uyg'onish davri o'zidan keyingi davrlarda ro'y ilm-fan taraqqiyotiga hamda jahon sivilizatsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Sharq uyg'onish davrida faoliyat olib borgan o'rta asr sharq allomalari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda mazkur izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlar va buyuk kashfiyotlar dunyoning boshqa mintaqalarida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishida turtki bo'lgan.

Sharq mutafakkirlarning katta qismi Arab–fors tillarida ijod etgan bo`lib, O`rta Osiyo, Eron va Yaqin Sharqda yashab o`tganlar. Ular sirasiga Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ahmad Farg`oniy kabi o`nlab mutafakkirlarning nomini keltirish mumkin.

Xorazmiyning "Ziji al-Xorazmiy", "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala" va "Al-jam vat-tafriq bi-hisob al-hind" asarlari XII asrdayoq Toledoda Batlik Adelyard, Kremonalik Herardo, ingliz Robert Chester, Sevilyalik Xuanlar tomonidan lotin tiliga tarjima etilgan. Bu tarjimalar mazkur asarlar yaratilganidan uch yuz yil keyin Yevropada astronomiya, matematika, jug`rofiya, medisina fanlarining tarqalishiga olib keldi va ularning poydevoriga asos bo`ldi.

Muhammad Xorazmiy va Sharqning boshqa olimlari qisqa fursatda bajargan ilmiy ishlar Yevropa olimlari tomonidan uch asrdan ziyod vaqt ichida o`zlash-tirildi,— deb iqrar bo`ladi nemis matematika tarixshunosi Seyten.

Umuman Sharq matematikasi Yevropa olimlariga, bnr tomondan, o`z kashfiyotlarini uzatgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, grek, bobil, hind, suriyoniy ilmiy meroslari ham Yevropaga va jahonga shu Sharq adabiyoti orqali tarqaldi. Shundan keyin Yevropa olimlari fanning mustahkam zaminiga ega bo`ldilar. Xoraemin asarlarining xalqaro ahamiyati yana shundaki, u Gretsiya, Bobil, Suriya, Hindiston, O`rta va Yaqin Sharq matematikasi bilan Yevropa matematikasi o`rtasida vositachi rolini o`ynagan. Ana shu vositachilik tufayligina Yevropa olimlari original asarlar yarata boshladilar va matematika yanada rivojlana boshladi [1].

Ahmad al-Farg`oniy Yevropada Alfraganus nomi bilan tanilgan Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg`oniy o`rta asrlarning eng ko`zga kuringan allomalaridan edi. Olimning ilmiy shuhrati va tadqiqotchilik mahorati haqida mashhur fan tarixchisi Fuad Sezgin fransiyalik Perri Duxim fikrlariga tayangan holda shunday mulohaza yuritadi: «XIII asr Parijdagi Arastu maktabining yetakchi namoyandasi Robert Grossetest o`zining «Summa Philosophiae» asarida Batlamiusning qalamiga mansub deb ko`rsatgan narsalarning barchasi amalda al-Farg`oniydan olingan.

Biz buni davom ettirib, yana shuni ta'kidlaymizki, XIII asrdan boshlab XIV asrning boshlarigacha yashagan italiyalik astronomlar Batlamiusga ishora berganlarida, to'laligicha al-Farg'oniyning kitobidan foydalanganlar.

Al-Farg'oniyning italiyalik mashhur shoir Dante Alligeriga ta'siri shundaki, shoir o'zining «II Convivo» («Bazm») kitobida Batlamyusning astronomiyaga oid barcha qrashlarini al-Farg'oniyning risolasidan oladi. Va nihoyat, men shuni eslatib o'tishim zarurki, mashhur renessans olimi Retimontan ham o'zining 1464 yili Paduadati ma'ruzalarini Al-Farg'oniyning kitobiga asoslangan holda yozgan [2].

Al-Farg'oniyning stereografik proyeksiyalar nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografik kartalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va «Rusiya imperiyasining bosh kartasi» ni tuzishda ishlatdn. Shunnngdek, kompleks o'zgaruvchan miqdorlar tekisligi, noevklid geometriyalar, Lobachevskin tekisligining Beltrami-Kleyn proeksiyasi, kosmik geodeziya va kosmografiyalarning zamonlarida ham al-Farg'oniyning shu nazariyasi yotadi.

Arab–musulmon mutafakkirlari o'z faoliyati davomida islom mafkurasidan oziqlangan holda dunyoviy ilm sir–asrorlarini o'rgandi, rivojlantirdilar. Arab–musulmon mutafakkirlari islom mafkurasi targ'ibotchisi sifatida o'z asarlarida, hayotiy faoliyatlari davomida ezgu amallarni bajardilar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'z ilmiy izlanishlari orqali Aflotunning qonunlar, davlat va jamiyatga oid qarashlarini izohlab berdi va musulmon dunyosini jahon siyosiy tafakkuri g'oyalari bilan tanishtirishga erishdi. U o'z ta'limotida baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan fazilatli shahar va shu baxtga erishish maqsadida birlashgan fazilatli jamoa g'oyasini ilgari surdi.

Uning qarashlari reaksiyon ruhoniylar tomonidan qattiq qoralanadi. Uni dinsiz, xudosizlikda ayblashdi, so'ngroq uning asarlari yondirildi. Ammo uning ilg'or ratsionalistik va gumanistik g'oyalari Ibn Sino, Ibn Rushd, Nizomiy, Umar Xayyom, Maymonid, Rodjer Bekon, Spinoza kabi allomalarning siyosiy dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi. Forobiy asarlari ayniqsa, Yaqin Sharqda chuqur o'rganildi.

Yevropaliklar unga Alfarobus degan nom berdi. Uning asarlari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilindi.

Jahon ilm ahli oldida mutafakkir Ibn Sinoning xizmatlari katta. Uning ijtimoiy–siyosiy g'oyalari asosini inson tashkil etadi. U insonni ijtimoiy jonzot, deb ta'riflaydi. Uning fikricha, jamiyatning barqarorligi shu jamiyat a'zolari uchun bir xil mazmunga ega bo'lgan qonun va adolatli huquqning mavjudligiga bog'liqdir. Jamiyatning barcha a'zolari o'zlari va jamiyat uchun zarur ijtimoiy - foydali faoliyat bilan band bo'lsa, shu jamiyatda taraqqiyot yuz beradi. Jamiyatdagi ijtimoiy adolatning ustunligi odamlar o'rtasida kelajakga ishonchni uyg'otadi. Barcha kishilarning shoh va sultonga aylanishi yoki hammaning qashshoqlardan iborat bo'lishi norealdir. Bunday vaziyat tabiiy va ijtimoiy qonun – qoidalarga tubdan ziddir [3].

"Qonun" Ibn Sinogacha Sharq, Gresiya va Rimda yaratilgan tibbiyot haqidagi ilm va shaxsiy tajriba yakunigina bo'lib qolmay, bu fanni o'z davri uchun hayratomuz yuqori darajaga ko'targan asardir. "Qonun" XII asrdayoq Toledoda Herardo tomonidan arab tilidan lotinchaga qisqartirilib tarjima etilgan. Herardo "Ash-shifo"ni ham lotin tiliga ag'dargan. 1279 yili Natan ta Meati Rimda "Qonun"ning to'liq nusxasini yahudiy tiliga tarjima etadi. Shu o'rinda olim ismining ovropocha transkripsiyasi haqida o'z mulohazalarimizni aytib o'tmoqchimiz. Yahudiy tarjimon "Ibn Sino" nomini yahudiy variantida "Aben Sena" deb bergan. U borib og'zaki tilda "Aven Sina"ga, bu variant lotin transkripsiyasida "Avitsenna"ga aylangan.

VII-XI asrlar orasida Ispaniyadan tortib to Xitoy chegaralarigacha bo'lgan xalifalik hududlarida arab tilida yaratilgan ilmiy-falsafiy yutuqlar, texnik va tabiiy fanlar rivoji samarasini o'zlashtirib, hayotga tatbiq etish uchun G'arbiy Yevropa xalqlariga kamida besh yuz yil zarur bo'ldi. Yevropa madaniyati, ilm-fani, falsafasi va adabiyoti rivojini to'g'ri anglab yetish uchun Sharq renessansining Yevropaga ta'sirini aniqlamoq lozim.

ADABIYOTLAR

1. Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010. -В. 76
2. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -Т.: “O'zbekiston”, 1997. -В. 223

3. Хайруллаев М. М. “Узбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар” . — Т.: Узбекистон, 1995. -Б. 31

TURIZM MAMLAKAT IQTISODIY TARAQQIYOTINING USTUVOR YO‘NALISHLARIDAN BIRIDIR

Gulyamov Alisher Azizovich,

BuxDU, Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turi bo`yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining hozirgi davrda rivojlangan sohalar sirasiga kirib, mamlakatlar iqtisodiyotining ijobiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shayotganligi, yurtimizda ham shu sababli turizmga keng yo`l ochib berilayotganligi va qadimgi Buyuk Ipak yo`lining o`rganilishi turizm rivojiga ta`siri masalalari tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: turizm, biznes, karvon yo`llari, valyuta, nodir mahsulotlar.

Turizm (fransuzcha tour-sayr,sayohat), sayyohlik - sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning istiqomat joyidan sog`lomlashtirish, ma`rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan 1 yil muddatga jo`nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi [1].

Tarixiy turizm – bu qadimiy odamlardan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlari, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylar, qal`alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar, madrasalar, masjidlar va moddiy tarixiy manbalar bilan qiziquvchi turistlarning faoliyati tushuniladi [2].

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tashqi iqtisodiy faoliyatimizni tubdan isloh qilish masalasiga e`tibor qaratib: “Eksport masalasida chuqur o`zgartirishlarni amalga oshirish lozim. Xom-ashyoni eksport qilishdan ko`ra, O`zbekiston uchun ko`proq naf keltiradigan yo`nalishlarga o`tish zarur. Bular jumlasiga ... xalqaro turizmni rivojlantirish kiradi” [3], - deb ta`kidlagan edi.

Turizm (sayohat) piyoda va ulovlarda yurish, tarixiy va boshqa diqqatga sazovor joylarda sayr-tomosha qilish, kuzatish xushmanzarali va oromgohlarda dam olish, sof havo, quyosh nurlari va zilol suvlarda chiniqish demakdir. Tabiiyki, kechadigan bunday ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarda atrof-muhitni o'rganish, ma'lum maqsadlar yo'lida qo'yilgan vazifalarni bajarish, turli toifadagi kishilar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri keladi. Shu sababdan ham qadimgi ajdodlarimiz ov qilish hamda turli xil mashg'ulotlarni bajarib borishi barobarida eng muhimi, jismoniy sifatlarni (chaqqonlik, tezlik, epchillik, chidamlilik va h.k.) ham takomillashtirib borganlar. Bu haqda xalq og'zaki ijodida ta'rif etilgan turli xil rivoyatlar, afsonalar va hikoyalardagi dalillar, mushohadalar ham guvohlik beradi.

Jahon mamlakatlari qatorida O'zbekiston ham o'zining uzoq va betakror boy tarixiga ega. Qadim zamonlardayoq Turon zamin deb e'tirof etilgan ona Vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko'ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatoridan munosib o'rinni egallagan.

Ko'hna, madaniy va ma'naviy yodgorliklarga boy tarixi, qadimiy me'moriy hamda tasviriy san'ati jahon turistlarini o'ziga jalb etib kelgani hech kimga sir emas. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva va Urganch hamda respublikaning turli joylarida joylashgan tarixiy obidalar, ko'hna yodgorliklar mamlakatimiz turizmining asosiy poydevori vazifasini o'taydi [4]. Turizm umumiy ma'noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlarida tarkib topadi. Turizmning tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, uning asosida mehmondo'stlik yotadi. Bu insoniyatning azaliy odati bo'lib kelgan. Oldin mehmonlarni o'z uyida, xonadaonida kutib olgan bo'lsa, hozir uning mazmuni o'zgardi. Odatda odamlar bir necha kun, xafta, oy mobaynida uyidan uzoqda yashashiga to'g'ri keladi. Unga "begona" kishilarning qo'llab-quvvatlashi va yordami kerak bo'ladi. Bu esa mehmondo'stlik orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda mustaqillik qaror topgach turizm ishlari keng yo'lga qo'yila boshlandi. Uning huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi farmoni bilan turizm sohasida respublika yagona siyosatini amalga oshiruvchi davlat organi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tuzildi. Uning tarkibiga tarmoqqa aloqador davlat va jamoat tashkilotlari kiritildi, hududiy bo'limlari tashkil etildi.

1993-yil Jahon Turizm Tashkiloti Bosh Assambleyasiga "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi to'la huquqli a'zo etib qabul qilindi [5].

O'zbekistonda turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi 408 ta firma va korxonalar bor. 14 mingdan ortiq o'ringa ega bo'lgan 168 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatadi (2006 yil). Respublikaga 2005-yilda dunyoning 117 mamlakatidan 241,9 ming xorijlik turist sayohatga keldi. O'zbekiston fuqarolaridan 380,9 ming kishi chet elga turistik sayohatga chiqdi. Shuningdek, mamlakat ichki turizmidan 334,1 ming kishi foydalandi.

Mamlakatda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi muassisligida rus va ingliz tillarida "Turizm Uzbekistana" (Tourism of Uzbekistan) jurnali nashr etiladi va kompaniya o'zining www.Uzbektourism.uz veb saytiga ega.

Yurtimizda turizm sohasini yanada takomillashtirish borasida bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi: Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizm zamonaviy infratuzilmasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 1995-yil 3-iyundagi 210-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "2005-yil davrigacha mo'ljallangan O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida", 1999-yil 15-apreldagi PF-228b-son Farmoni, 1999-yil 20-avgustda "Turizm tug'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesi va turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2002-yil 2-sentyabrdagi 310-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-oktyabrdagi 288-son qarori hamda boshqa bir qator qarorlar qabul qilindi.

O'zbekistonning to'rtga – Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Endilikda ushbu shaharlar ochiq osmon ostidagi muzeylar sifatida tilga olinmoqda.

Aytish joizki, O'zbekiston hukumati tomonidan xizmatlar sohasini, shu jumladan, turizm tarmog'ini kengaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, ushbu soha mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Mazkur tarmoqni mamlakatimiz iqtisodiy majmuining muhim tarkibiy qismiga aylantirish yo'lida muayyan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi, aholi farovonligining o'sishi, valyuta va soliq tushumlarining ko'payishi sezilarli hissa qo'shmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. 2. E-M – B.328.
2. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-Toshkent, 2002.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. -T.: O'zbekiston, 1993, B.15.
4. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev L., Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsiya
5. Jahon Turizm Tashkiloti Bosh Assambleyasi Bali shahrida (Indoneziya) bo'lib o'tgan majlis., 1993-yil, X sessiya.

RUS OLIMLARI NIKOLAY LUNIN VA NIKOLAY PIROGOVLARNING TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASI

R.N.Tursunov,

O'zMU Tarix fakulteti, t.f.n., dots.

Ibodullayeva Umida,

BuxDU, Tarix (faoliyat va turlari bo'yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmida rus olimlari Nikolay Lunin va Nikolay Pirogovlarning qilgan ixtirolari va tibbiyotga qo'shgan hissalarini haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: fan-texnika, vitamin, xirurgiya, Pirogov, behushlik, noorganik tuzlar.

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. Chunki faqat ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlargina butun insoniyat hayotini o'zgartirishga qodir hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bejizga “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asarlarida “Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Fan jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch, vosita bo‘lmog‘i lozim”[1], degan fikrlarni aytib o‘tmaganlar. Demak, ilm-fan jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Butun XIX asr jahon tarixiga ilm-fanda qilingan buyuk kashfiyotlar davri bo‘lib kirdi. Bu esa tibbiyotga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmadi va bu sohada erishilgan yutuqlar ko‘p insonlarning taqdirini o‘zgartirib yubordi. Bu borada, ayniqsa, rus olimlari tomonidan qilingan kashfiyotlar e‘tiborga molik sanaladi. Shunday olimlardan biri Nikolay Ivanovich Lunin (1853-1937)dir. U tibbiyot va biologiya sohasidagi muhim kashfiyotlardan biri bo‘lgan vitaminlarni kashf etdi. Bu bilan olim tibbiyotda yangi tarmoq-vitamin terapiyasiga asos soldi. Eng avval Lunin sichqonlarni bir necha guruhlarga ajratib ular ustida tajriba qildi. Olim ba‘zi kemiruvchilarni organik tarkibga ega bo‘lgan, asosiy tarkibiy qismlari mineral tuzlar, suv, yog‘lar, oqsillar va uglevodlar bilan oziqlantirgan. Boshqa guruhga tadqiqotchi tabiiy sigir sutini beradi.

Birinchi toifadagi sichqonlar bir necha haftadan so‘ng vafot etdi. Tabiiy sigir suti bilan oziqlangan ikkinchi guruh sichqonlari esa yashashda davom etishdi. Olingan natijalarga asoslanib, Nikolay Ivanovich sutda ilgari noma‘lum mikroelementlar mavjud degan xulosaga keldi. 1880-yilda Lunin o‘zining tajribalari natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi. Bu “Hayvonlarning oziqlanishi uchun noorganik tuzlarning ahamiyati to‘g‘risida” deb nomlangan tezisdagi o‘z ifodasini topgan edi. Aynan shu asarda vitaminlarning mavjudligi va ularning organizmlar hayotidagi roli birinchi marta qayd etilgan edi. Ammo bu kashfiyot o‘sha davrdagi ilmiy jamoatchilik tomonidan mutlaqo e‘tiborga olinmadi [2]. Yakuniy qadamni polshalik tadqiqotchi Kazimir Funk amalga oshirdi, u Luninning ishlanmalaridan foydalanib, kimyoviy vositalar yordamida organik moddalardan vitaminlar sintez qildi.

Nikolay Pirogov (1810-1881) esa Rossiya tarixida jarrohlik amaliyotining rivoj topishiga o'z hissasini qo'shdi. U Rossiyaning taniqli jarrohi, anatom, professor, rus harbiy dala xirurgiyasining asoschisi sifatida shuhrat qozongan. U ko'plab harbiy yurishlarda qatnashgan va minglab yaradorlarni davolagan. Olim 1847-yilda Kavkazga jo'nab ketadi. Chunki u dalada ishlab chiqqan operatsiya usullarini sinab ko'rmoqchi edi va bunga erishdi ham. Pirogov Dog'istonning Salti qishlog'ini qamal qilish paytida jarrohlik tarixida birinchi marta efir behushligini, ya'ni og'riqsizlantirish usulini qo'llagan. Pirogovning aytishicha, efirni jarrohlik amaliyotida joriy etish ancha qiyin kechgan. Vaqt tig'izligi, kerakli miqdorda efir va boshqa uskunalarni yetkazib berish jarrohlik amaliyotiga to'sqinlik qilgan. Lekin, qiyinchiliklarga qaramay Pirogov Dog'istonda 100 ta shunday jarrohlik amaliyotini o'tkazishga muvaffaq bo'lgan [3]. Bu bilan Pirogov harbiy dala xirurgiyasiga asos solgan. Keyin olim Qrim urushi (1853-1856) da ham qatnashib, Opa-singillar Muqaddas Xoch hamjamiyati tashkilotiga rahbarlik qilgan. Pirogov ularni to'rt guruhga ajratdi: bog'lovchilar, farmasevtlar, uy bekalari va yaradorlarni kasalxonaga kuzatib boradigan transport opa-singillari. O'sha paytda bu jarayon yangilik hisoblangan.

Pirogovning harbiy dala jarrohligining asosiy qoidalari uning urushga travmatik epidemiya sifatida qarashidan kelib chiqadi. U yaradorlarni to'rt guruhga ajratadi. Birinchi guruh o'lik yaradorlardan iborat bo'lgan, ikkinchi guruhga shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj yaradorlar kirgan. Uchinchi guruh esa ertasi kuni yoki undan keyingi operatsiyalarga duchor bo'lganlarni qamrab olgan. To'rtinchi guruhga yengil yaradorlar kirgan. Yaradorlarni operatsiya qilgan shifokor rus tibbiyot tarixida birincha marta gips qo'llagan va bu oyoq-qo'llarning shikastlanishini davolashda tejash taktikasini yaratdi hamda ko'plab askarlarni amputatsiyadan qutqardi [4]. Ushbu urush paytida yaradorlar va kasallarga yordam berishda xizmatlari uchun Pirogov 1-darajali Avliyo Stanislav ordeni bilan taqdirlangan.

Pirogovning xirurgik anatomiya va operativ xirurgiyaga oid asarlari xirurgiyaning rivojlanishiga ilmiy asoslar yaratdi. Operatsiyaning ajoyib texnikasiga ega bo'lgan taniqli jarroh Pirogov o'sha paytda ma'lum bo'lgan jarrohlik yondashuvlari va usullarini

qo'llash bilan cheklanmadi. Balki, uning nomi bilan atalgan bir qancha yangi operatsiyalar usullarini yaratdi. Pirogovning patologik anatomiyasi ham e'tibordan chetda qolmadi. Uning Demidov mukofotiga sazovor bo'lgan “Osiyo vabosining patologik anatomiyasi” nomli mashhur asari hali ham tengsiz tadqiqotdir. Pirogov faoliyati inson tanasining kasalliklariga qarshi kurash fanining rivojlanishida muhim bosqich bo'lib qoldi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Nikolay Lunin va Nikolay Pirogovning tibbiyotda qilgan kashfiyotlari nafaqat rus xalqini, balki butun jahon xalqlarining hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunki, ularning buyuk kashfiyotlari tufayli ko'pgina bemorlar kasalliklarini yengishga, yana yangi hayot uchun qadam tashlashga kuch topdilar. Shuning uchun bu olamshumul ixtirolar keyingi asr ilm-fan taraqqiyoti uchun ham poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q / Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent, 1999. 150-bet
2. Волосецкий А. Валентина Д. Милютин А. Большая энциклопедия науки. 100 главных научных открытий, изменивших наш мир – М., 2017 – с 120
3. История медицины [текст] : учебно-метод. Пособие. Волгоград: Изд-во ВолГМУ, 2016. – с 186
4. Скороходов Л.Я. Истории русской медицины. Ленинград: издательство «Практическая медицина». 1926 –с 161

SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Rashidov Oybek,

BuxDU professori, t.f.d(DSc)

Rahimboyeva Sitorabonu Qahramon qizi,

BuxDU, Tarix (faoliyat va turlari bo'yicha) magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Saudiya Arabiston Podshohligi o‘rtasidagi savdo, iqtisodiyot, investitsiya, texnika, madaniyat, sport va yoshlar ishlari sohalarida hamkorlik qilish to‘g‘risidagi bitimlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Saudiya Arabiston podshohligi, konsulxona, turizm, haj ziyorati, xalqaro transport, moliyaviy hamkorlik, aviaqatnov, bitim-shartnoma.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, umummilliy va davlat manfaatiga mos tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldi. Shu ma’noda istiqolning ilk yillaridan boshlab O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan davlatlardan biri Saudiya Arabistoni Podshohligi ekanini ta’kidlash kerak. Saudiya Arabistoni Podshohligi 1990 -yil 30 - dekabr kuni O‘zbekiston davlat mustaqilligini tan olgan. 1992- yil 20 - fevral esa ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgan kun sifatida tarix sahifalariga bitilgan [1]. 1992-yil noyabr oyida Jidda shahrida O‘zbekiston konsulxonasi faoliyat boshlab, 1994-yil may oyida Bosh konsulxona maqomiga ega bo‘ldi. Diplomatiq munosabatning ilk huquqiy asosi o‘sha davrdan e’tiboran shakllanganini qayd etish mumkin. 1995- yil may oyida Ar-Riyodda Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi ochilgan bo‘lsa, 1997-yil martdan boshlab Toshkentda Saudiya Arabistonning Podshohligi elchixonasi ish yuritmoqda.

2005-yil 6-fevral kuni O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuv to‘g‘risida Anglashuv memorandumini imzolangan. Shu paytdan e’tiboran ikki davlat tashqi siyosiy idoralararo muntazam ravishda siyosiy maslahat amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasida xavfsizlik, ta’lim va qurilish sohalaridagi sheriklikda ham sezilarli natijaga erishilgan. Misol tarzida 2010-yil 27-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Saudiya Arabistoni Podshohligi hukumati o‘rtasida terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga, shuningdek, boshqa jinoyatlarga qarshi kurash sohasida hamkorlik to‘g‘risida” bitim imzolanganini qayd etish kerak. Bu davr xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlikning huquqiy asosini

shakllantirish bilan boshlanadi va keyinchalik iqtisodiyot, savdo, texnika sohalaridagi aloqalarda ham sezilarli faollik kuzatiladi.

2010-yildan Saudiya Arabistoni Podshohligi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida iqtisodiy-savdo, investitsion sohalarda qator hukumatlararo va idoralararo shartnomalar imzolangan.

O'zaro munosabatning holati va istiqboli, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik masalasi Toshkent va Ar-Riyodning doimiy nigojida, deyish mumkin. 2014-yil may oyida Ar-Riyod shahrida "Arab davlatlari ligasi – Markaziy Osiyo, Ozarbayjon" birinchi iqtisodiy forumida O'zbekiston delegatsiyasi ham qatnashdi va tashrif natijasiga ko'ra, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Ko'rinib turibdiki, munosabatlarning 2005-2015 yillardagi rivojlanish tendensiyasi, eng avvalo, xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurash masalalarida shakllantirilgan va keyinchalik savdo-iqtisodiy sohaga ko'chgan.

2016-yil O'zbekiston va Saudiya Arabistonning hamkorligida yangi bosqich boshlandi. Mazkur davrda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, investitsiyaviy aloqalarning huquqiy asosini mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratildi.

Xususan, 2016- yil 28-may 3-iyul kunlari ikki davlat Adliya vazirliklari o'rtasida Anglashuv memorandumini imzolanishi bilan huquqiy sohadagi hamkorlik ildamlashdi. Shuningdek, Podshohlik hukumati a'zolari bilan muzokara olib borilishi ko'lami kengaydi, arab davlatlari bilan xalqaro tashkilotlar doirasidagi munosabat, xususan, Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki bilan aloqa faollashdi.

Islom hamkorlik tashkiloti doirasidagi rishtalarga to'xtalganda 2016- yil 18-19-oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan IHT Tashqi ishlar vazirlari Kengashining 43- sessiyasiga O'zbekiston mezbonlik qilganini e'tirof etish lozim. Ushbu tadbirda Saudiya Arabiston bilan moliyaviy hamkorlik bitimi va Toshkent deklaratsiyasi imzolandi.

2017- yil 21-may kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Podshoh Salmon bin Abdulaziz as - Saud taklifiga ko'ra, arab-musulmon davlatlari va AQSh sammitida

ishtirok etish uchun Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi [2]. Forum doirasida davlatimiz rahbari qator davlatlar rahbarlari, shuningdek, Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz as - Saud bilan uchrashdi.

2011- yil Jidda shahrida O'zbekiston va Saudiya taraqqiyot jamg'armasi o'rtasida "G'uzor – Chim – Ko'kdala" avtomagistrali rekonstruksiyasini moliyalashtirish to'g'risida bitim imzolandi. Ushbu maqsadda hamkor tomon 30 million dollar ajratdi. Shuningdek, jamg'arma tomonidan irrigatsiya tizimi va umumta'lim maktablarini rivojlantirish loyihalari ham amalga oshirilgan.

Saudiya Arabistoni Podshohligi va O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon-Qatar" xalqaro transport yo'lagi doirasida o'zaro hamkorlik qilmoqda, bu ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni faollashtirishga imkon beradi, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining jahon bozorlariga chiqishiga va Fors ko'rfaz davlatlari, shu jumladan Saudiya Arabiston Podshohligi bilan hamkorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Jumladan, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va Saudiyaning «ACWA Power» kompaniyasi o'rtasida imzolangan investitsiya shartnomasi dunyoga mashhur mazkur xorijiy hamkorimiz tomonidan yurtimizda issiqlik elektr stansiyasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish va korxonani 25 yil muddatga ishlatishni nazarda tutadi. Loyihaga «ACWA Power» 1.2 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qiladi, qurilish va foydalanish bosqichida 1000 dan ortiq ish o'rni yaratadi. Stansiya yiliga 12 milliard kVt/soat qo'shimcha elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Mazkur obyekt 2023- yil to'rtinchi chorakda topshiriladi.

So'nggi 5-6 yilda Saudiya taraqqiyoti jamg'armasi bilan hamkorlik yangi mazmun kasb etdi. Jamg'arma delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi doirasida "Qishloq yerlarida turar-joy qurilishi" loyihasini moliyalashtirish bo'yicha ikki tomonlama uchrashuv o'tkazildi. Bu ishlar 2018, 2019 va 2020-yillarda ham amaliy natijasini ko'rsatdi.

O'zbekiston va Saudiya sherikligining huquqiy asosi 20 ga yaqin hujjatni tashkil qiladi. Haj va Umra ziyorati bo'yicha hamkorlik shartnomalari har yili yangilab boriladi.

Xalqaro hukumatlararo va idoralararo shartnomalar qatori iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlar ahamiyati ham oshib borayotganini qayd etish lozim. Saudiya Arabiston Podsholigi (SAP) Islom dinining markazi bo'lib, unda islomning asosiy qadamjolari – Makkadagi “Al-Haram” masjidi va Madinadagi “Masjid an-Nabaviy” masjidi joylashgan. Shu bois Podshohlik Haj va Umra safarlarini ado etish uchun butun dunyo, jumladan, O'zbekistondan keladigan musulmonlar hayotida ahamiyatli o'rin egallaydi. Ayni damda Saudiya Arabiston O'zbekistoni islom sivilizatsiyasi “beshiklari”dan biri deb biladi.

Ikki davlat o'rtasida ta'lim va din sohalarida ham hamkorlik rivojlangan. 1997- yil Saudiya Arabistoni oliy ta'lim vaziri Xalid al-Anqariy O'zbekistonga Saudiya Arabistonining bir necha universitetlari rektorlaridan iborat delegatsiya bilan tashrif buyurdi. Mustaqillik davrida respublikamizning 45 mingdan ortiq fuqarosi haj, 35 mingdan ziyod fuqarosi umra safarlarida bo'ldilar (2004) [3].

Yurtimizning haj ziyoratchilari soni 12 ming nafardan, umra ibodatini bajaruvchilar soni esa 40 ming nafardan oshganida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, yurtimizda “Haj” va “Umra” tadbirlari Vazirlar Mahkamasining 364-sonli qarori asosida tegishli Jamoatchilik Kengashi tomonidan amalga oshirib kelinayotgani, bu borada O'zbekiston musulmonlari idorasi katta tajriba orttirgani, natijada yurtimiz ziyoratchilari har yilgi haj mavsumida eng namunali ziyoratchilar, degan maqomga munosib bo'layotgani alohida qayd etildi [4].

2016-yildan boshlab yana hukumatlararo va idoralararo shartnomalar imzolanishi jadallashdi. Yangi, zamonaviy yo'nalishdagi qo'shma investitsion kompaniya tashkil etish to'g'risida shartnoma, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish va zamonaviy agroklaster tashkil etish to'g'risidagi bitimlar, qayta tiklanadigan energiya, quyosh elektr stansiyalari tashkil etish to'g'risidagi shartnomalar orqali hamkorlikning huquqiy asosi takomillashtirilayotgani ham quvonarli. Mamlakatimiz elchixonasi tomonidan O'zbekiston va Saudiya Arabiston o'rtasida turizm va transport yo'nalishidagi hamkorlikni rivojlantirishga bag'ishlangan videokonferensiya o'tkazildi.

Xulosa, bugun Yangi O'zbekistonimiz har tomonlam rivojlanish bilan birga, boshqa dunyo davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi quvonarli holdir. Biz mazkur maqolada esa faqat ikki davlat O'zbekiston va Saudiya Arabiston Podshohligi o'rtasidagi diplomatik munosabatlarini ayrim jihatlari xususida to'xtaldik xolos.

ADABIYOTLAR

1. /“Dunyo” AA/.Toshket, 20 fevral 2020.
2. <https://president.uz/oz/lists/view/51618.05.2017>
3. Orifxo'jaev N. o'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. “Yangi O'zbekiston” gazetasi 2022-yil 29 - sentabr, 200-son

LEONARDO DA VINCHI-ITALIYA UYG'ONISH DAVRINING ULUG'

NAMOYONDASI

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi,

BuxDU, Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari bo`yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

nilufarelmurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Italiya uyg'onish davrining ulug' namoyondasi Leonardo da Vinchi ilmiy merosi adabiyotlar tahlili orqali qiyosiy-mantiqiy tahlil qilinadi.

Tayanch atamalar: Uyg'onish, gumanizim, rassomchilik, Leonardo da Vinchi, chaqmoq zatvor, vertalyot, g'avvos kostyumi, ko'prik, papa, noib, shogird, haykal, meros, madaniyat, suvoriy, piyoda.

XIV-XV asr Italiya uyg'onish madaniyati rivojida va jahon san'atida Leonardo da Vinchining roli beqiyos bo'lib, asrlar davomida u qoldirgan ma'naviy me'ros avlodlarni lol qoldirib kelmoqda. Leonardo da Vinchi (1452-1519) Toskanada notarius ishi bilan shug'ullanuvchi “senyor” unvoniga ega bo'lgan Puero da Vinchi oilasida dunyoga keldi.

Italiyalik buyuk rassom va haykaltarosh Leonardo da Vinchiga dunyoni hayratda qoldirish uchun “Monoliza” asarining o'zi kifoya qildi. Biroq uning olamni anglash bilan bog'liq yuksak fenomenal (g'ayritabiiy) qobiliyati texnika sohasidagi o'lmas

kashfiyotlarga yo'l ochdi. Insoniyat uning hayotdan ketganiga 500 yildan oshgan bo'lsada, u kashf etgan o'zgarishlardan hamon foydalanib kelmoqda [1].

Leonardo da Vinchi hayotligida uning faqat bitta kashfiyotidan foydalanilgan, u kam bolsa “to'pponcha uchun chaqmoq zatvor” bo'lib, ayniqsa, XVI asr oxirida keng foydalanildi, ushbu qulay kashfiyotdan harbiylar XIX asrda ham foydalanib kelganlar. Yana bir kashfiyoti, havoni siqib turbalarga haydash loyihasi bo'lib, u orqali pechlarni qizitish, ventilyatsiya maqsadlarida qo'llash yuzaga kelgan [2]. Leonardo da Vinchi suv ostida uzoq muddat turishga va suv yuzasiga oson chiqishga mo'ljallangan g'avvoslar kastyumini yaratdi. Uning rejasi asosida g'avvos ko'krak qafasi havo bilan to'ldirilgan kostyum hamda naycha yordamida oson va qulay harakat qilgan.

Uning kashfiyotda hozirgi vertalyotlarning “otaxoni” hisoblangan vertalyot loyihasi ham yaratildi, vertalyotlar parragining radiusi 4.8 metr bo'lib, u metal hoshiya va kanop bilan qoplanib, parrak o'z o'qi atrofida aylanib, odamlar tomonidan harakatga keltirildi. “Parragi tez aylangan vertalyot balandga chiqishiga hech qanday shubha yo'q [3]”-deb yozgandi Leonardo. Leonardodan meros bo'lib qolgan sur'atlardan birida avtomobilning tasviri aks etgan bo'lib, arbalet mexanizmi rulda birlashgan qurilmalarga energiya yetkazib berishi kerak edi, “o'zi yuradigan aroba” (avtomobil)ning g'ildiraklaridan ruli bilan boshqariladigan to'rtinchi g'ildirak boshqaruvchi bo'lishini Leonardo da Vinchi hayolan tasvirlab bergan edi.

Leonardo da Vinchi piyodalar ko'prigi yaratish g'oyasini ham ilgari surib, ushbu ko'prik dengizning tor joylarida ustunlar asosida toshdan qilishini asoslab bergan edi. Ushbu ko'prik Usmoniylar saltanati hukimdori Boyazid II davrida Istanbuldagi Oltin shox qo'ltig'idan o'tishi kerak edi. Biroq Turkiya tarixida qobiliyatsiz hukmdor deb nom olgan Boyazid II Leonardo da Vinchi taklifidan voz kechdi [4].

Qarangki, 2001-yilda Norvegiyaning As shaharchasida shunday ko'prik qurilib, u avtomobil ko'prigidan 8 metr balandda bo'lgan. Leonardo da Vinchi parashyut loyihasi (havo shari) ni ham yaratib, sinovchilardan biri uning parashyuti bilan uch ming metrdan talofatsiz sakradi.

Suvda suzish bilan bog'liq qutqaruv chamberagi, suzishni tezlashtiruvchi parrak qo'lqoplar bilan bog'liq kashfiyotlarni yaratishda u mexanik va yerning tortishish qonunlarini yaxshi bilganligini ko'rsatadi. U ekskavator, ko'tarma kran kabilar orqali kanal qazish, xandaklar hosil qilish kabilar g'oyasini ilgari surdi. 2002-yilda Buyuk Britaniyada Leonardo da Vinchining delpalanlarining sinovlari amalga oshirildi. Delpalanerizm bo'yicha jahon chempioni Yudi Liden "rvotodeltiplani"ni 10 metr balandlikka ko'tarib, 17 minut havoda ushlab turdi. Apparatning chindan ham ishlayotganligini ko'rsatish uchun shu kunning o'zi yetarli edi. Leonardo da Vinchi o'ta sinchikov, tabiat voqealarini erinmay jiddiy kuzatardi. U dengiz suvining ko'tarilishi va pasayishini, qushlarning har xil holatda ko'kdagi parvozini kuzatish orqali tabiat qonunlarini o'rganardi. U fan insonlarga yordamga kelishi, qo'l mehnatini yengillatishi zarur deb hisoblardi. Istiqbolda fan kashfiyotlari insonlar najotkori bo'lishiga umid qilardi. Uning rejasi va loyihalari asosida Milan shahrini ichimlik suvi bilan taminlaydiga kanal qurildi, o'nlab ko'priklar bunyod etildi. U maxsus yozuv daftar tutib, ularda tokarlik va to'quvchilik dastgohlari ham, ip yigirish charxi ham yer kavlash mashinalari uchun turbinalar va yuk ko'targich asboblarni ham yurish mumkin bo'lgan. Bundan tashqari parashyut va vertalyot, suv osti kostyumi va g'avvoslar kiyimi haqidagi rasmlar bilan daftar to'ldirib tashlangandi.

Rassomchilik benazir bo'lgan Leonardo da Vinchi inson qiyofasini ma'nodor va ma'nosiz qilib ifodalaydi, xafaqon va xursand holda tasvirlash ichki kechinmalar hamda tuyg'ularni nim tabassum orqali ko'rsatish borasida tengi yo'q edi. U o'sha mashhur "Monoliza"dan tashqari "Madonna Binua" (1478), "Qoyadagi Madonna" (1483-1494), "Maxfiy kechalar" (1495-1497), "Anguari jangi" (1503-1506), "Ioann Krestitel" (1513-1517), "Toshqin" (1514-1516) rasmlar turkumini yaratdi. Uning yaratgan benazir rasmlari va yetti ming varaqdan iborat daftarlari haqidagi loyihalarni to'plab shogirdi F.Melsi Yevropada mashhur bo'lgan "Rang tasvir haqida risola" kitobini yaratgan. Leonardo da Vinchi rassomlik ishining cho'qqilaridan biri "Angaradagi jang" rasmi hisoblanadi. Ushbu rasmda 1440-yilda Angara shahrida ishtirok etgan suvoriy va piyodalarning qiyofasi ifodalangan. Biroq haykaltarosh Mikelanjelo uni raqibi bo'lsada

Dovud haykalini yaratishda Leonardo uslubidan foydalanilgan. Leonardo o'z xizmatlari uchun qirol Lyudovik XII tomonidan ham, Sharl d Adam tomonidan ham yuksak hurmatga sazovor bo'lgan. Leonardo da Vinchining ijodi kamolotiga oilasidagi qo'ydi-chiqdi va mojarolar o'z ta'sirini o'tkazgan. Olimning otasi 1507-yilda vafot etib, meros masalasida aka-ukalari bilan o'zaro ziddiyat kelib chiqqan.

Leonardo amakisi yordamida otasi merosini qo'lga kiritgan bo'lsada, uni shogirdlari kamoliga bir qismini sarflaydi va Jan Franchesko Rustini kabi shogirdiga o'z uyi bir qismini beradi. Uning so'nggi surati 1508-yilda chizilgan "Anna Mariya Iso bilan", so'ngi haykali esa, 1511-yilda yaratilgan bo'lib, undan keyin alohida bir qadar mushkullik vujudga keldi. U fransuz noiblarining himoyati va homiyligidan foydalanar edi. Biroq ular Milandan quvilganidan so'ng Rim papasi Lev X huzuriga borib panohtopishga majbur bo'ladi.

Leonardo da Vinchi jismonan ham baqquvat kishi bo'lib, u qilichbozlikda ham tengi yo'q edi. Uning faoliyatida o'z shogirdlariga raxmdillik, shogirdlarini doimo o'z ortidan ergashtirib ball va hashamlarda yurishi Mikelanjelo singari zamondoshlariga yoqmasdi. Leonardo da Vinchiga bunchalik ulug' qudrat va salohiyatni berganligi kishini hayratda qoladi. Undan bizga beqiyos g'oyalar, hayratlanarli chizgilar meros bo'lib qoldi. Leonardo da Vinchining ilmiy merosi va ma'naviy sarchashmasi hozirgi paytda ham o'rganilayotgani esa isbot talab qilmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Вольинкий А.Л. Жизнь Леонардо Винчи –М.: Алгоритм, 1997. –С.539.
2. Михайлов Б.П. Леонардо Винчи архитектор. М.: Государственное издательство литературы по стоиствластву и архитектуре. М.:1952. –С.79.
3. Сеайлв Г. Леонардо да Винчи как художик и ученый (1452-1519) Олыт психологической биографик//Пер –С Фр. М.: Ком. Книга, 2007.-С.358.
4. Анцешович Е.С. Леонардо да Винчи: Элементы физики. М.: Учпедгиз, 1955.-С.88.

AMERIKADAGI O'ZBEK DIASPORASINING MILLIY TASHKILOTLARI VA HAMDO'STLIK MARKAZLARINING AHAMIYATI

Jumayeva Nodira Olim qizi,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola AQSHdagi o'zbek muxojirlari tomonidan tashkil etgan tashkilotlari va milliy madaniyat markazlari va ularning faoliyatlari va O'zbekiston bilan bo'lgan aloqalarini taxlil qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek Diasporasi, AQSH, TAA, Nyu-York.

Mamlakatimizda ta'limga berilayotgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda shular qatorida tarix fanidan ham juda ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan O'zbek muxojirligi tarixini o'rganishda ham ko'plab izlanishlar olib borilmoqda va xorijdagi O'zbekistonliklar tomonidan tashkil etilgan turli uyushmalar va madaniy markazlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatilmoqda. Hozirgi kunda o'zbek diasporasi dunyoning ko'plab hududlarida tarqalmoqda. Diaspora atamasi - bu aholining bir markazdan (yoki vatandan) tashqari hududlarga ommaviy, ko'pincha beixtiyor tarqalishi, tarqalish tarixi va oqibatlariga asoslangan jamoalar uchun ishlatiladigan atama [1]. Xorijdagi O'zbek diasporasining tarqalishi va tashkilotlari to'g'risida ko'plab olimlarimiz bugungi kunda izlanishlar olib borilmoqda.

Birgina Amerika Qo'shma Shtatlarining o'zida o'nlab tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular bevosita O'zbekistonning AQSHdagi konsulligi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yganlar. O'zbeklar Shimoliy Amerikaga 1980-yillarda Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga bostirib kirishi sababli qochqin sifatida kela boshlagan. 90-yillarning boshidan Amerikaga kela boshlashganlar. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra Shimoliy Amerikada 67 000 ga yaqin o'zbeklar yashaydi. Aholining yarmidan ko'pi Nyu-York, kichikroq aholi Los-Anjeles, Filadelfiya, Chikago va Vashingtonda yashaydi.

Muxojir o'zbeklar tomonidan tuzilgan uyushma va tashkilotlar orasida AQSHdagi milliy uyushmalarning faoliyati muhim o'rin tutadi. AQSh ning Nyu-York, Vashington, Kaliforniya, Chikago, Los-Anjelos shtat va shaharlariga 1950 yillardan boshlab o'zbek oilalarining ko'chib o'tish jarayoni tufayli bu mamlakatda «o'zbek diasporasi» vujudga kelgan. 1958 yildan Nyu-York shahrida «Turkistonliklar jamiyati» tuzilgan edi. Biroq

bu tashkilot ommaviy tus oladigan ta'sirga ega bo'lmagan. Ammo shunday bo'lsada ushbu tashkilot o'zidan keying tashkilotlarga turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

1965-yilda o'zbek oilalari zich yashaydigan Nyu-York shahrida "Turkistonliklar Amerika jamiyat"- tuzildi [2].

Yana bir O'zbek muhojir tashkiloti "AQSHdagi Turkistonliklarning o'zaro yordam jamiyati" 1958-yilda tashkil etilgan bo'lib, 1983-yilda bu jamiyat "Turkiston-Amerika Asotsatsiyasi" (TAA) ga aylantirilgan. Mazkur jamiyatni tuzishda AQSHga nisbatan oldinroq muhojir bo'lib borib qolganlar: Mahmud Maqsudbek, Husan Ikrom, Ergash Shermat (Buloqboshi); Is'hoqxon Narziqul, Ro'zi Nazar, Turobxo'ja Abdullaxo'ja kabi (ja'mi 13 kishi) muhim rol o'ynadilar. TAA ning birinchi prezidenti (raisi) asli qo'qonlik, ilk bor AQSHga borganlardan biri o'zbek muhojiri Mahmud Maqsudbek bo'lgan. M. Maqsudbek Nyu-York universiteti talabalariga o'zbek tilidan dars bergan. Universitetning «sovet muammolari» bo'limida tahsil olgan talabalar, hatto AQSH professori E. Ollvort ham ushbu shaxsdan o'zbek tilida o'qish, yozish, gapira olish kabilarni o'rganib maxsus imtihon topshirgan. M. Maqsudbek ushbu tashkilotga umrining oxirigacha (1910-1993) a'zo bo'lib qoldi.

1988-1990 yillarda Turkiston Amerika Assotsiatsiyasi (TAA, Nyu-York, AQSH) bilan «Vatan» jamiyati o'rtasida munosabatlar o'rnatildi. O'zaro delegatsiya almashuvlaridan so'ng, «Navro'z» bayramini nishonlash uchun O'zbekistondan TAA manzilgohiga milliy kiyimlar, suviner va buyumlar yuborildi. O'zbek san'ati ustalarining o'n kunlik konsert gastrolu tashkil etildi [3]. Ushbu tashkilot faollaridan «Amerika ovozi» radiostansiyasining o'zbek eshittirishlari muxbiri, 1930 yilda Qo'qonda tug'ilgan Mirzo Po'lat Hakimiy O'zbekistonda bo'ldi

Ayni paytda ushbu Uyushma prezidenti o'rta darajadagi tadbirkor Abdulla Xo'ja hisoblanadi. Assotsiatsiya Nyu-Jersida 300 o'rinli konferentsiya zali, kutubxona va kinozal binosiga ega. Uyushmada turli bo'limlar, badiiy, professional to'garaklar mavjud.

2004 yil iyul oyida TAA prezidenti Abdulla Xo'ja boshchiligidagi 6 kishidan iborat delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. Do'stlik jamiyatlari kengashi tomonidan

qator uchrashuv va tadbirlar tashkil etildi. Suhbat chog'ida O'zbekiston va TAA o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. O'sha yilning dekabr oyida Abdulla Xo'ja Respublika Oliy Majlisiga saylovda xalqaro kuzatuvchi sifatida O'zbekistonda bo'ldi. Shuningdek o'zaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida 2007-yilda "Turkiston-Amerika uyushmasi" prezidenti Abdulla Xo'ja O'zbekiston Prezidenti saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Shuningdek 2009-yil dekabr oyida "Turkiston-Amerika uyushmasi" prezidenti Abdulla Xo'ja O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida O'zbekistonga tashrif buyurdi. 2010-yil 23-sentabrdan 10-oktabrgacha "Turkiston-Amerika uyushmasi" Abdulla Xo'ja delegatsiya rahbari sifatida O'zbekistonda bo'ldi. Chunonchi O'zbekiston va TAA o'rtasidagi iliq munosabatlar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham davom etmoqda xususan 2018-yil 15-dekabr kuni New Jersey shtatining Dover shahrida Turkiston Amerika Assotsiatsiyasi tashkil topganligining 60 yillik yubileyi o'tkazildi. Unda qator nufuzli mehmonlar qatorida Chikago o'zbek-amerika assotsiatsiyasi Prezidenti Olim Sharipov ham ishtirok etib TAA Prezidenti Abdulla Xo'jani ushbu yubiley bilan qutlab esdalik sovg'alar topshirdi.

Ushbu tadbirda O'zbekistonning Qo'shma Shtatlardagi favqulodda va muxtor elchisi janob Javlon Vahobov ham ishtirok etib u Turkiston Amerika Assotsiatsiyasi Prezidenti janob Abdulla Xo'jaga O'zbekiston Prezidenti Farmoni bilan "Do'stlik" ordenini taqdim etdi [4].

Xulosa qilib aytganda Amerika Qo'shma shtatlaridagi o'zbek diasporasi va tashkilotlari shuningdek madaniyat markazlari so'ngi kunlarda sezilarli darajada faol va O'zbekistonning AQSHdagi konsulligi va hamda hukmatimiz o'rtasida iliq munosabatlar o'rnatmoqdalar.

ADABIYOTLAR

- 1 Jemima Pierre 'Diaspora' 2013 years
- 2 ЎзРМДА. P-2822-ф, 1-p, 89-x, 38-B
- 3 ЎзРМДА. P-2822-ф, 1-p, 98-x, 40-B; 90-x, 1-B

O'RTA OSIYODA ILK DAVLAT BIRLASHMALARINING PAYDO BO'LISHIDAGI SHART-SHAROITLAR

Ismatova Nigina Nuriddinovna,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: O'rta Osiyoda ilk davlat birlashmalarining paydo bo'lishi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo o'zining qulay geografik o'rni bilan boshqa hududlardan farq qilgan. O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qulay shart-sharoitlar hamda o'ziga xos omillar mintaqada davlatchilik paydo bo'lishiga zamin tayyorladi. Ushbu maqolada O'rta Osiyoda ilk davlat birlashmalarining vujudga kelish sabablari, o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avesto, O'rta Osiyo, Qadimgi Sharq, "Sharq yo'li", "Yevropa yo'li", A.S. Sagdullayev, "Aryoshayyona", Baqtriya, Sug'd.

O'rta Osiyo geografik jihatdan Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi va ko'chmanchi xalqlar madaniyati kesishgan hududlar qatoriga kiradi. Bu ikki xalqning o'zaro madaniy ta'siri eneolit davridan boshlab kuzatiladi. Bizga ma'lumki, davlatchilik tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo hududida ilk davlatchilikning shakllanish jarayoni uch davrga bo'linadi:

-birinchi davr: mil. av. II mingyillik o'rtalaridan mil. av. I mingyillik boshlarigacha;

-ikkinchi davr: mil.av. X - VIII asrlar;

- uchinchi davr: mil.av . VII - VI asrlar;

O'rta Osiyo hududida vujudga kelgan davlatlar shakllanishida sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, saqlash va ulardan foydalanish uchun katta kuch hamda safarbarlik zarurligi, dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlikning rivojlana boshlashi, tub yerli aholining tinch-totuv yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi o'ziga xos omillar mintaqada davlatchilik paydo bo'lishiga zamin tayyorladi.

Birinchi, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li" bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli miloddan avvalgi IV ming yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi mintaqalarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining ikkinchi, «Yevropa yo'li» Yevropa mintaqasida mil.avv.V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi polislarida mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanishuvi jarayoni (sinflar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi [1].

Ilk davlatlar shakllanayotganda uning shart-sharoitlari, iqtisodiy va ijtimoiy omillari yetilgan bo'lishi zarur. So'nggi bronza davrida O'zbekistonning janubiy viloyatlarida xuddi shunday omillar mavjud edi. Davlatchilikning shakllanishidagi eng asosiy omillardan biri, qulay tabiiy geografik muhitdir. Tabiiy geografik muhitning qulayligi dehqonchilikda yuqori hosil olish garovi hisoblanadi. Yuqori hosil esa ehtiyojdan ortiqcha mahsulot yetishtirish uchun yo'l ochadi. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari joylashgan hududlarning barchasi tabiiy geografik muhitning qulayligi bilan xarakterlanadi [2].

Davlatchilik paydo bo'lishining quyidagilardan iborat:

1. Davlat hamma vaqt ham mavjud bo'lmagan (dastlabki davlat tuzilmalari qariyb 5 ming yil oldin paydo bo'lgan: bungacha bir yarim million yil mobaynida jamiyatning ibtidoiy tashkiloti mavjud bo'lgan).

2. Davlat ijtimoiy rivojlanishning qonuniy mahsuli, birinchi navbatda moddiy va ma'naviy hayotning shartlari va ehtiyojlaridan paydo bo'ldi.

3. Davlat uzoq davom etgan tarixiy jarayonda muayyan vaqtda paydo bo'ldi. Davlat o'zining ravnaqi tomon kurash va qarama-qarshiliklarning uzoq yo'lidan bordi.

4. Davlat bir qancha omillarning ta'siri ostida paydo bo'ldi. Bu omillarning ahamiyati turli xalqlarda har xildir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ularning ro'yxati

mutlaqo iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmaydi. Bularning barchasi davlatchilik paydo bo'lishi jarayonining murakkabligidan dalolat beradi.

5. Davlatning yuzaga kelishi jarayoni bu bir paytda yuz beradigan jarayon emas. U asta-sekin, uning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgandan keyin paydo bo'ladi. Turli xalqlar davlatchilikka turli davrlarda keladilar: bir xillari oldin, boshqalari keyinroq keladi, chunki davlat yuzaga kelishi uchun shart-sharoitlar hammada bir vaqtda yaratilavermaydi.

6. Davlat genezisining asosiy omillari aniq tarixiy sharoitlarda o'zini turlicha namoyon qildi va har bir aniq holatda bir kancha o'ziga xos xususiyatlar bilan to'ldirildi.

7. Ijtimoiy manfaatlarning vakili, jamiyatdan ustun turuvchi kuch sifatida paydo bo'ladi va tuziladi, u eng avval boshdanoq bir xil odamlarning boshqa odamlar ustidan tashkiliy siyosiy hukmronligi tizimi sifatida namoyon bo'ladi [3].

A.S.Sagdullayev O'rta Osiyo janubida ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonini quyidagi davrlar bilan belgilagan:

1. Bronza davri (miloddan avvalgi II mingyillik). Marg'iyona va Baqtriya vohalarida ilk davlatchilik tizimiga o'tish bosqichi.

2. Bronza davridan temir asriga o'tish davri (miloddan avvalgi X-VIII asrlar). Avestoda tilga olingan "Aryoshayyona" kabi vaqtincha harbiy siyosiy birlashmaning tarkib topishi.

3. Ilk temir davri (miloddan avvalgi VII-VI asrlar). Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishi (aynan Baqtriya, Sug'd, Marg'iyona va Ariya). Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishiga, ichki ijtimoiy sabablardan tashqari, ko'chmanchilar tomonidan mavjud harbiy tahdid asos bo'lgan, deb faraz qilingan.

Davlatchilikning yana bir asosiy muhim belgilaridan biri bu – aholini ma'lum bir tabaqalarga bo'linib yashaganligidir. Tarixdan bizga ma'lumki, temir davrining boshlaridayoq aholi 4 guruh (Kohin, jangchi, dehqon, hunarmand) ga bo'linib yashagan. Yuqorida aytib o'tilgan muhim belgilar ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishida zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Эшов Б. «Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи». «Янги аср авлоди», -Т.: 2012. - 556 бет.
2. Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. - Тошкент, 1964. – Б.17.
3. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдулаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: Давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. - Тошкент: “Адолат” 2001.- 416 бет.

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDA YURITGAN PAXTA SIYOSATI TARIXIGA DOIR

B.K. Oltinov,

BuxDU, Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston hududlarida jumladan, O'zbekistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin, ulkan xomashyo bazasiga ega bo'lishi, tashqi savdo hududlarini kengaytirish, o'lkada paxtachilik siyosati va yangi paxta navlarini joriy qilish bilan bog'liq ma'lumotlar adabiyotlar tahlili orqali keltirilgan.

Tayanch so'zlar: paxtachilik, Amerika paxta navi, paxta monokulturasini, paxta sanoati, sanoat korxonalarini, bojxona, moddiy boyliklar, mustamlakachilik.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ijtimoiy fanlarda ham tub o'zgarishlarga asos soldi. Eng avvalo, ularning nazariy-uslubiy asoslari yangilandi. Ayniqsa, tarix fanining nazariy-uslubiy asoslari, uning maqsad va vazifalari tubdan o'zgardi.

Chor Rossiyasining o'lkada mustamlakachilik siyosatining mazmun-mohiyati haqida quyidagi fikrini keltirsak: “millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi”. Mazkur iborani birinchi bo'lib rus istilochi generali M.D.Skobelev aytgan edi.

Chor Rossiyasi Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885 yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan

bo'lsa, 1915 yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, ya'ni 13 barobarga o'sdi. O'lka Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi [1].

Chor Rossiyasi mustamlakachilarining asosiy iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish bilan birgalikda, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarini markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu siyosatdan tobora rivojlanib borayotgan rus burjuaziyasi, ayniqsa, to'qimachilik sanoati egalari manfaatdor edilar. Chunki, ularga o'lkaning paxtasi birinchi navbatda zarur edi. Shuning uchun ham knyaz Masalskiy paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish rus to'qimachilik sanoati uchun "yaqin kelajakda hayot-mamot masalasiga aylandi" [2] deb aytgandi.

Aytish kerakki, rus to'qimachilik sanoati Turkistonda paxtachilikning rivojlanishi oqibatida jahon bozorida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Masalan, 1900 yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizni tashkil etgandi. Yildan-yilga paxtachilikning rivojlanishi bilan bog'liq holda bu raqam ortib bordi. 1914 yilga kelib 50 foizga va keyinchalik 60-70 foizga yetdi. 1916 yilga kelib Turkistonda Amerika navli paxta ekiladigan maydonlar hajmi 7 barobarga kengaytirildi.

Boshqacharoq aytganda, XIX asrning 80-yillaridan boshlab Turkiston o'lkasida Amerika navli paxtani ekish keng joriy qilinishi oqibatida imperiya to'qimachilik sanoati egalari uni yanada kengaytirishga jon-jahdlari bilan harakat qildilar. Masalan, 1889 yil Amerika navli paxta 50 ming, 1895 yilda 100 ming tanob maydonga ekildi. 1901 yilga kelib esa, o'lkada 186326 tanob yerni egallangan paxtadan 174026 tanobi rus sanoati ehtiyoji uchun zarur bo'lgan Amerika navli paxtaga taaluqli edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chor Rossiyasi iqtisodiyotiga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi, lekin bu jarayonda uning Yevropa davlatlaridan ortda qolishi va xalqaro bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlar chiqara olmaganligi, uning Kavkaz, Sibir va Turkiston o'lkalariga ham tashqi bozor, ham arzon xom ashyo manbai sifatida kirib borishini kuchaytirdi. Ayniqsa, Turkiston o'lkasi rus mustamlakachiligining diqqat markazida bo'ldi. Chunki, Turkiston o'lkasi o'zining qulay ob-havo sharoiti, tabiiy boyliklarining mo'lligi, eng asosiysi, rus kapitali uchun

zarur bo'lgan paxta xom ashyosiga boyligi uchun, boshqa hududlarga nisbatan bu yerga qiziqish alohida ahamiyat kasb etdi.

1813-1814 yillarda Qo'qon xonligida bo'lgan Filipp Nazarov shunday degan: "Qo'qon va Qo'qon xonligida paxta va tut daraxti juda ko'p ekiladi. Hamma joyda paxta ekilganligini ko'rasiz". Shu bilan birga Filipp Nazarov paxtadan ip gazlama ko'p miqdorda ishlab chiqarilishini ham ta'kidlagan edi.

O'zbek paxtasi Rossiyada hali bu hududlarni bosib olinmasidan ilgariroq katta qiziqish uyg'otgan. Hatto, rus hukumati texnika o'simligi hisoblangan paxtani Orenburgda o'stirishga harakat qildi. 1753-yilda Orenburg general-gubernatorining Sankt-Peterburgga yuborgan axborotida gubernyada Xorazmdan keltirilgan chigit ekilganligi va g'o'zaning yaxshi rivojlanayotganligi aytib o'tiladi. O'sha yili ko'karib turgan bir tup g'o'za namuna tarzida poytaxtga ham jo'natilgan. Biroq, iqlim sharoitining pastligi tufayli pishib yetilmaydi.

Rossiya hukumatining mamlakatda paxtachilikni yo'lga qo'yishga intilishi bir tomondan gazlama va paxta savdosidan O'rta Osiyoga olib kelinayotgan katta mablag'ni ushlab qolish edi. XIX asrning boshlarida o'zbek savdogarlari Rossiyadan, xususan, Oryenburgda paxta, ipakdan 58 foiz va bir toy paxtadan 15 foiz foyda olardilar. Rus savdogarlarining o'zbek mollarini olib sotishdan foydasi esa 33 foizni tashkil etgan.

Xullas, o'zbek paxtasi va undan ishlangan mahsulotlarni Rossiyaga olib borish vaqt o'tishi bilan o'sib bordi. Masalan, 1758-1760 yillarda 2780, 1768-1772 yillarda 37930, 1802-1804 yillarda 391335, 1824-1826 yillarda 361449 va 1851-1853 yillarda 316557 so'mlik paxta Rossiyaga keltirilgan. Shuningdek, Rossiyaga ip gazlamalarni keltirish tobora ortib borgan. Ular 1792 yilda 305269, 1802-1804 yillarda 553088, 1842-1844 yillarda 669196, 1851-1853 yillarda 556057 so'mni tashkil etgan.

ADABIYOTLAR

1. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Тошкент. 2000

2. Назаров Ф. Записки о некоторых землях средней части Азии. САБ. 1821.

3. Хайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири-XX аср бошлари). Бухоро. Дурдона, 2018.

FRANSIYA VA O‘ZBEKISTON ALOQALARIDA YUNESKONING O‘RNI

N.B. To‘rayeva,

BuxDU, Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha)

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Fransiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarning o‘rnatilishi o‘rta asrlarga borib taqaladi. Mustaqillikdan keyin Fransiya davlati bilan o‘rnatilgan madaniy aloqalarda YUNESKO tashkilotining ahamiyati, o‘zbek madaniyatining dunyoga yoyilishi haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: YUNESKO, Fan, Ta‘lim, Shashmaqom, Sharq taronalari Navro‘z bayrami, Katta ashula, Askiya, Buyuk ipak yo‘li – muloqot yo‘li, madaniyat.

Dunyoda tinchlik o‘rnatish, barqaror rivojlanishni ta‘minlash, ta‘lim orqali madaniyatlararo muloqot tuzish, fan sohalarini rivojlantirish, xalqaro madaniy va ma‘lumot almashinuviga yordamlashish kabi sohalarda faoliyat yurituvchi YUNESKONing jahon sivilizatsiyasi tarkibidagi nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash yo‘lidagi xizmati katta. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “YUNESKO timsolida eng muhim insonparvarlik masalalarining yechimiga ijodiy yondashishda harakatlanuvchi kuch bo‘lib xizmat qiladigan o‘ziga xos, betakror tashkilotni ko‘ramiz” degan edi [1].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarkibidagi mazkur xalqaro tashkilotga 1945-yilning 16-noyabrda asos solingan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, ya‘ni 1993-yilning 29-oktabrida YUNESKOGa a‘zo bo‘ldi. 1996-yilda Toshkentda tashkilot vakolatxonasi ochildi. O‘sha yilning aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashkilot bosh qarorgohiga tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim voqea bo‘ldi. 1998-yilning 6-7-noyabr kunlari Toshkentda YUNESKO Ijroiya kengashining yakunlovchi majlisi bo‘lib o‘tdi. MDH miqyosida

birinchi marta tashkil etilgan mazkur tadbirda «Jahon madaniyati va YUNESKOning a'zo davlatlardagi faoliyati» nomli Toshkent dek-laratsiyasi qabul qilindi. Azal-azaldan maorif, fan va madaniyat masalalariga alo-hida e'tibor qaratgan o'zbek xalqining mazkur tashkilot bilan izchil va istiqbolli hamkorligi ayni muddao bo'ldi. YUNESKOning ta'lim sohasidagi asosiy dasturi Birlashgan maktablar dasturi tarmog'i hisoblanib, unga jahonning olti mingdan ziyod maktabi a'zo. Ushbu dasturning asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinch-lik, madaniyatlararo muloqot va barqaror taraqqiyot g'oyalarini targ'ib etish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. 1994-yil dekabrda tuzilgan YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi mamlakatimizda ushbu tar-moqni rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. 1996-yildan buyon mazkur tarmoqqa mamlakatimizning 45 ta'lim muassasasi qo'shildi. Mazkur ta'lim muas-sasalari bir qator xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli qatnashib, «Ta'lim barcha uchun» maqsadlarini va BMTning barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligini targ'ib etmoqda. Bundan tashqari tashkilotning ta'lim sohasidagi faoliyati inklyuziv ta'lim, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ta'lim, jamoat ta'limi markazlari, kasb-hunar o'quv muassasalari, sog'lom turmush tarzi ta'limi kabi yo'nalishlarni qamrab olganni ko'rishimiz mumkin [2].

YUNESKO tomonidan 2003-yilda “Barqarorlik va taraqqiyot uchun ta'lim 10-yilligi” e'lon qilindi. Bu borada mamlakatimizda ham ko'plab tadbirlar o'tka-zildi. Ushbu dastur doirasida aholining til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish, ma'naviyat va ma'rifat yo'nalishlari bo'yicha ta'limni rivojlantirish, fan-texnika yutuqlaridan yanada keng foydalanishni ta'minlash kabi vazifalar izchillik bilan amalgaoshirildi [3]. Mazkur xayrli ishlarning amaliy natijasi misolida yurtdosh-larimizning «Suv va tabiiy manbalarni boshqarish» va «Sahroda voha yaratish» loyihalari barqaror taraqqiyot ta'limi doirasida 2009-yilning eng ilg'or tajriba loyihalari, deb topildi. YUNESKOning fan dasturlari doirasida biologik xilma-xillikni asrash va tabiiy manbalardan oqilona foydalanish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga bag'ish-langon loyihalar hayotga tatbiq qilinmoqda. Tashkilotning «Xalqaro gidrologiya», «Inson va biosfera», «Bioetika, MOST (Ijtimoiy

islohotlarni boshqarish)» xalqaro dasturlari bo'yicha mamlakatimizda milliy qo'mitalar tashkil etildi . O'zbekiston olimlari YUNESKO shafeligida o'tkazilgan Avstraliya, Sloveniya, Tailand, Eron xalqaro ilmiy anjumanlarida ishtirok etib kelmoqda [3]. Hozirga qadar O'zbekiston nomoddiy madaniy merosining milliy ro'yxatida 74 ta obyekt mavjud. Umumjahon merosining noyob namunasi sifatida O'zbekiston hududidagi to'rt qadimiy shahar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabzning YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani, yasharish va yangilanish ayyomi – Navro'z bayrami, Katta ashula, «Shashmaqom», askiya insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi sifatida YUNESKOning Rerezentativ ro'yxatidan joyolga-ni, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzurida Abu Rayhon Beruniy nomi-dagi Sharq qo'lyozmalari markazida to'plangan nodir qo'lyozmalar «Jahon xotirasi» ro'yxatiga kiritilgani O'zbekistonning mazkur xalqaro tashkilot bilan izchil va samarali hamkorligi samaralaridir [4].

ADABIYOTLAR.

1. Madaniy hamkorlik aloqalari // Xalq so'zi, 2007-yil, 31-mart.
2. <https://uzbekistan.lv/uz/ozbekiston-yunesko-tinchlik-va-ezgulik-yolidagi-hamkorlik/>
3. Matxoliqov Q. O'zbekiston Respublikasini Yevropaning Frankon Davlatlari Bilan Madaniy Aloqalari. - T.: "Lesson Presas", 2022. - B. 56
4. Мўминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий

QIRG'IZISTON O'ZBEKLARI, ULARDA KECHGAN DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARNING TARIXIY ILDIZLARI VA ASOSIY BOSQICHLARI.

Ismoilov Shamshod Qosim o'g'li,

BuxDU, tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)

mutaxassisligi II-bosqich magistranti.

Qirg'iziston xalqlari o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet, urf-odat va an'ana, qadriyat va qarashlar, din va ma'naviyat zamirida shakllanib, kishilarning tarixiy va hududiy birligi, umumiy turmush tarzi, tili, ruhiy uyg'unligi va mushtarakligi asosida mavjudlik kasb etadi. Sovet hokimiyatining o'lkamizda yuritgan milliy siyosati

tufayli qon-qarindosh, milliy yagona hududda yashagan millatlar qisqa fursat ichida birbirlariga nisbatan chegaraviy munosabatlarga kirishishdi. 1924 yilda shakllantirilgan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston o‘zlarining alohida tarixiy taqdiriga ega bo‘lishdi.

Qirg‘iziston va O‘zbekiston davlatlari 1924–1991 yillar oralig‘ida yagona davlat doirasida ittifoqdosh respublikalar sifatida tarixiy davrni o‘z boshidan o‘tkazdi. Bu davrda mintaqadagi o‘zbek millati vakillari yagona davlat doirasida, yagona hudud, yagona qonunchilik, yagona ijtimoiy tuzum vakili sifatida umrguzaronlik qildi. Davlatlararo chegaralarning mavjud emasligi, bir davlatdan ikkinchi davlat hududiga kirib-chiqish va bordi-keldilarning osonligi bu millat vakillarining o‘zaro aloqalarida keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Boshqacha aytganimizda, yagona vatan doirasida yashab qavm-qarindoshlik, quda-andachilik, og‘a-inilik munosabatlarini insoniylik tamoyillari asosida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Qirg‘iziston Respublikasining vujudga kelishi va shakllanishi tarixi qo‘yidagi bosqichlarda kechdi. 1924 yil yanvar oyida Sovetlarning Butunturkiston XII qurultoyi “Turkiston respublikalarini rayonlashtirish uchun barcha tayyorgarlik ishlarini iqtisodiy va tabiiy-tarixiy xususiyatlar asosida tugatish va shunga muvofiq ma’muriy-xo‘jalik boshqaruvini qayta tashkil etishga kirishish haqida” qaror qabul qildi. 1924 yilning may oyida Turkiston Kompartiyasining sakkizinchi qurultoyi, so‘ngra Buxoro va Xorazm Kompartiyalarining Markaziy Komiteti va RKP (b) Markaziy Komitetining O‘rta Osiyo byurosi milliy bo‘linishni o‘z vaqtida va maqsadga muvofiq deb tan olishi bilan boshlandi. O‘rta Osiyo partiya tashkilotlarining bu qarori 1924 yil iyulida RKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan ma’qullanib, milliy demarkatsiyaga tayyorgarlik ishlari 1924 yil sentyabr oyiga kelib tugallanishi rejalashtirildi [1]. 1924 yil 16 sentabrda Turkiston ASSR MQning navbatdan tashqari sessiyasi milliy chegaralanish to‘g‘risida qaror qabul qildi. XI chaqiriq Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining ikkinchi sessiyasi 1924 yil 14 oktyabrda ushbu rezolyusiyani tasdiqladi va shunday qilib, RSFSR tarkibida Qora-Qirg‘iz Muxtor viloyati tashkil etildi. 1925 yil may oyida u Qirg‘iz muxtor viloyati deb qayta nomlandi [2]. 1897 yilda o‘tkazilgan aholining ro‘yxati

tahliliga ko'ra o'zbeklar hozirgi Qirg'iziston hududida umumiy aholining 37,7 foizini, o'troq aholining 61,2 foizini, shahar aholisining 86 foizini tashkil etishi aniqlangan [3]. Ammo bizga Qirg'izistondagi o'zbeklar sonini aniqlashda aniqroq ma'lumotlarni O'zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi "Rayonlashtirishga oid turli materiallar" nomli rasmiy hujjatlar yig'ma jildida Qirg'iziston muxtor viloyati aholisining soni va milliy-etnik tarkibi bilan bog'liq hujjatlar beradi. Jumladan, hujjatlarda aholining umumiy soni va iqtisodiy rivojlantirishni loyihalashtirishdagi o'rni haqida, shuningdek, "rayonlashtirish komissiyasi"ning loyihalari, vujudga keltirilayotgan okruglarning umumiy ma'lumotlari, aholining hududlar kesimidagi joylashuvi, Qirg'iziston muxtor viloyati aholisining umumiy ma'lumotlari, shuningdek milliy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda "rayonlashtirish komissiyasi"ning hisobotlari keltirib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlarning ahamiyatli jihati shundaki, unda Qirg'iziston muxtor viloyatida istiqomat qiladigan o'zbeklar millati vakillari to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etib o'tilgan.

O'zbeklar tarixning barcha bosqichlarida mintaqa aholisi ichida etakchi millatlardan biri bo'lib kelgan. Qirg'iziston o'zbeklari xorijdagi o'zbeklarning eng ko'p sonlisi hisoblanib, Qirg'izistonda 14,2 foizini tashkil etadi. Qirg'iziston o'zbeklari mustaqilligining ortda qolgan yillarida yangicha tarixiy sharoitda yashash tajribasini va katta sinovlarni, chidam va iroda hamda matonat bilan o'tadilar. Mamlakatda yuz bergan og'ir iqtisodiy inqiroz, murakkab ziddiyatli etno-milliy, etno-sotsial, etno-madaniy jrayonlarni boshdan kechirishga to'g'ri keldi. Ajdodlari erlariga mustahkam bog'langan o'zbeklar og'ir sinovli damlarda ham migratsiya jarayonlariga keng tortilmadi. Ular o'zlikni saqlab qolish bilan birga mustaqillik sharoitida transformatsion jarayonlarni boshdan kechirdilar. O'zbeklar an'anaviy xo'jalik turlari hisoblangan dehqonchilik, bog'dorchilik, donchilik, paxtachilik, polizchilik, sabzavotchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik mashg'ulotlari bilan shug'ullanishdi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida yashash imkoniyatini yaratishga qaratilgan yangi kasblarni ham o'zlashtirdilar. O'zbek millati vakillari Qirg'izistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarning faol ishtirokchisi hisoblanadilar. Ular orasida bank va maishiy xizmat sohasi xodimlari,

biznesmen va tadbirkorlar, fan, adabiyot, san'at namoyandalari etishib chiqqanligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi. Bu esa o'zbek millatiga mansub aholi intellektual salohiyati jahonning ilg'or xalqlaridan qolishmasligi va yuksakligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Осмонов О. Дж., Осмон уулу Улукбек. История Кыргызстана (с древнейших времён до наших дней). Краткий курс (в таблицах, схемах, картах и рисунках). Учебное пособие. – Бишкек: Мезгил, 2013. –С. 127

2. Плоских В.М., Джунушалиев Д.Д., Абдырахманов Т.А. История кыргызов и Кыргызстана: учебник для вузов. / Отв. ред. А.Ч. Какеев. 3-е дораб. изд. – Бишкек: КРСУ, 2015. –С. 307-325

3. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897. под редакцию Н.А.Тройницкаго. Выпуск.

BUXORO VILOYATI DAVLAT ARXIVI FONDLARIDA KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARI FAOLIYATINING AKS ETISHI

Murodova Dilrabo Shomurodovna,

BuxDU, tayanch doktoranti

XX asrning 70-yillarida respublika xalq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy omili sifatida hududlarda kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga kirishildi. O'zbekiston Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP MKning 1971 yil 22 noyabrdagi №559 "Kasb-hunar ta'limini yanada rivojlantirish va respublika xalq xo'jaligini malakali kadrlar bilan ta'minlash to'g'risida"gi qarori profeyessional-texnik ta'lim sohasining tayanch tashkilotlari bilan hamkorlikda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu rasmiy hujjatning ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro viloyat kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tashkil etilgan [1].

Kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 1973 yil 24 yanvardagi buyrug'ida 1973 yilning II choragida qishloq xududidagi bilim yurtlariga reja bo'yicha 810 ta, III chorakda esa 1560 ta qabul qilish zarurligi aytilgan. 1909 ta yoshni kolxoz, sovxoz, va suv xo'jaligi tashkilotlariga ishga yuborish belgilangan.

1972-1976 yillarda kelib Buxoro kasb-hunar bilim yurtlari 66 ta yo'nalish bo'yicha 26185 mutaxassislar tayyorlangan. 1973 yilda respublikadagi shahar bilim yurtlarida jami 27420 ta malakali ishchilar tayyorlangan bo'lsa, shundan 3060 tasi Buxoro viloyati kasb-hunar bilim yurtlariga to'g'ri kelgan [2]. Shu yilning o'zida esa texnika yo'nalishidagi bilim yurtlarida respublika bo'yicha 4703 ta malakali ishlar tayyorlanib, shundan 324 tasi Buxoro viloyati yoshlari tashkil qilgan. Bundan tashqari qishloq xo'jalik bilim yurtlarida respublika bo'yicha 19310 ta mutaxassis tayyorlangan bo'lsa, shuning 1909 tasi Buxor viloyatiga to'g'ri keladi [3]. Kechki muassasalarda respublika bo'yicha 3220 ta mutaxassisdan 1120 tasi Buxoroga to'g'ri kelgan.

1971/74 yillarda oblast kasb-hunar bilim yurtlariga 27318 nafar yoshlar qabul qilingan. Shundan kunduzgi muassasalarga 22270 ta to'g'ri keladi. Texnik bilim yurtlariga esa 1,97 ming yoshlar qabul qilingan. 1974 yilga kelib o'tgan yilga nisbatan o'qiydiganlar soni 20 foizga ortadi. 1974 yilda bilim yurtlarining umumiy soni 27 taga yetgan [4]. 1975 yil 1 yanvarida ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni 9673 taga yetgan, shundan 3967 tasi o'rta kasb-hunar muassasalarida ta'lim olgan.

1970/1974 yillarda viloyat bilim yurtlarida jami 20532 nafar mutaxassis tayyorlangan. Shundan kunduzgi bilim yurtlarda 16906 ta mutaxassis tayyorlangan. Shu yillarda ushbu muassasalarda 80 ta o'quv xonalari, laboratoriya va ustaxonalar tashkil qilingan. O'quvchilarga nazariy bilimlar berish bilan birga maxsus kurslar, umumta'lim fanlari va umumtexnik fanlarni yuqori saviyada o'qitilgan. Bundan tashqari zamonaviy texnik qurilmalar bilan jihozlangan amaliy laboratoriya darslarida muammoli ta'lim jarayonlari tashkil qilingan.

1974/75 o'quv yilida Buxoro shahrida 5 ta kasb-hunar muassasalari faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 1727 ta talaba 34 ta mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishgan. Shahar bilim yurtlarining moddiy-texnik bazasi zaif bo'lib, ularning birortasida ham ustaxona, laboratoriya xonalari, poligonlar umuman bol'maganligini arxiv hujjatlarida ko'rish mumkin. 100, 137 shahar kasb-hunar bilim yurtlarida mutaxassislik o'qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta'limi masterlari yetishmasligi, kun sayin malakali ishchi kadrlarga bo'lgan talabning oshib borganligi, biroq, tayanch tashkilotlar

hisoblangan 163 qurilish tresti va ipakchilik fabrikasi mutassadilari bu jarayonga loqayd qaraganliklari boshqarma hujjatlarida qayd etilgan. Ayniqsa, talabalar yotoqxonasi hamda o'quv laboratoriyalari muammosi juda og'irligini 163 trest tomonidan yangi qurib topshirilgan 100 - texnika bilim yurti misolida arxiv hujjatlarida ko'rish mumkin [5].

1980 yilda Navoiy syement zavodi uchun qurilish va mexanizatorlik yo'nalishlari bo'yicha 11 ta tyexnik bilim yurti tashkil qilingan. 1980/81 o'quv yilida Rastov-Don, Shaxti, Zernograd shaharlarida soha rivoji va tajriba almashinuvi maqsadida 3 ta xududiy seminarlar o'tkazilgan. 1980 yilda viloyat miqyosida hunar-texnika bilim yurtlarida 18328 kishi, shundan 11849 nafari o'rta hunar-texnika bilim yurtida, maxsus o'rta o'quv yurtida 14620 kishi o'qishga jalb etilgan. 5,7 ming yoshlar o'rta maxsus o'quv yurtiga qabul qilingan. Ushbu muassasalar tomonidan mazkur davrda viloyat xalq xo'jaligiga 4,2 ming nafar o'rta ma'lumotli mutaxassis yetkazib berilgan [6].

1981 yilda viloyatda 52 ta ta'lim muassasi bo'lib, ulardagi talabalar soni 18,5 mingga yetgan. 1980/81 o'quv yilida Buxoro oblast kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tarkibidagi ta'lim muassasalarida 12015 nafar talaba o'rta ma'lumotga ega bo'lgan. O'quv yili oxiriga kelib, 1135 talaba turli sabablarga ko'ra o'qishdan ketgan [7].

Buxoro viloyat professional-texnik ta'lim boshqarmasi 1971-88 yillardagi faoliyati davomida O'zSSR professional-texnik ta'lim davlat qo'mitasiga qarashli bo'lgan. Buxoro viloyat professional-texnik ta'lim boshqarmasining asosiy vazifasi xududda professional-texnik ta'limni rivojlantirish, xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, professional-texnik ta'lim bilim yurtlari va ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilashdan iborat bo'lgan. Boshqarma muntazam ravishda viloyatdagi soha taraqqiyoti yo'lida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilgan va mutaxassislar malakasini oshirish jarayonini qo'llab-quvvatlagan.

ADABIYOTLAR

1. BVDA. 1085- fond, 1-ro`yxat, 3-yig`majild, 1-varaq.
2. BVDA. 1085- fond, 1-ro`yxat, 1-yig`majild, 6-varaq.
3. BVDA. 1085- fond, 1-ro`yxat, 1-yig`majild, 8-varaq.

4. BVDA. 1085- fond, 1-ro`yxat, 3-yig`majild, 1-varaq.
5. BVDA. 1085- fond, 1-ro`yxat, 3-yig`majild, 9-varaq.
6. Б.Мирзакулов. Бухоро тарих зарварақларида. Монография. (2-китоб) Дурдона. Бухоро.2018.181-б.
7. BVDA. 1085- fond, 1-ro`yxat, 3-yig`majild, 5-varaq.

70220303 – TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK VA TARIXIY TADQIQOT USULLARI (MAMLAKATLAR BO'YICHA)

BUXORO ME'MORIY OBIDALARINING SHAKLLANISHI, ME'MORCHILIKDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR

Sattorov Sarvar Safar o'g'li,

BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik

va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo'yicha)

mutaxassisligi I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Buxoro qadimdan buyuk svilizatsiyalar kesishgan nuqtada, savdo-sotiq, tijorat, hamda tarixan boy bo'lgan xalqaro munosabatlar yo'nalishining chorrahasida joylashgan. Takomillashib borgan savdo-sotiq sohasida tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish tizimi faoliyati yetarlicha yo'lga qo'yilgan. Biz rus tadqiqotchilari esdaliklarida ham karvonsaroylar xizmati haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, qurilish-arxitektura, Buxoroyi Sharif, svilizatsiya, ilmlar markazi, Ark qalasi, Somoniylar maqbarasi, osmon osti muzeyi, Buxoro yodgorliklari, Karvonsaroy, omborxonona

Buxoro zardushtiyalar davrida Buxoro "ilmlar markazi" sifatida mashhur bo'lgan. Islomiyat davrida u "Buxoroyi Sharif" deb ulug'langan, "Qubbatil islom" unvoni bilan sharaflangan. Buxoro Markaziy Osiyodagi tarixan boy bo'lgan, Buyuk ipak yo'lida joylashgan va jahon ilm-fani, madaniyatida, tarixida o'ziga xos qiyofasi, madaniy meros obyektlari, tarixiy-me'moriy yodgorliklari bilan ajralib turadigan eng qadimiy

shaharlardan biridir. Uning o'tmishi, taraqqiyoti va ayni vaqtdagi ahamiyati haqidagi fikrlarni keltirish imkonsizdir. Mutaxassislar tomonidan Buxoro shahri osmon ostidagi ulkan muzey, tirik kitobdir deya ta'rif beriladi. Shonli tariximizdagi yuksak mahoratli me'mor ustalarning binokor avlodlari tomonidan o'ziga xos me'morchilik uslublarida barpo etilgan, Buxoro shahri Vatanimiz, millatimiz iftixoridir. Ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt ichida yaratilgan yaxlit arxitektura ansambllari Buxoro me'morchilik maktabining mevasidir. Buxoroning arxitekturaviy ansambllari yuz yilliklar, ming yilliklar davomida shakllangan bo'lib, ular yagona rejaviy va hajm - fazoviy kompozitsiya bilan bog'liqdir. Milodning boshida poydevori qo'yilgan Ark qalasi, IX asrda barpo etilishi boshlangan Somoniylar maqbarasi (Ismoil Somoniy vaqf yorliqlarida keltirilgan ma'lumotlar o'rta asrlarda Buxoroda 4 ta maqbaradan iborat me'moriy majmua bo'lgani va ularda Somoniylar xonadoni a'zolari dafn etilgani haqida fikrlar mavjud) [1], XII asr va undan keyingi davrda yaratilgan Poyi Kalon, Labi hovuz me'moriy ansambllari va boshqa ko'plab monumental arxitektura mo'jizalari Buxoro arxitektura maktabining mahsuli bo'lib, binokorlik an'analarining yuksak namunasi sifatida umumjahon madaniy merosi deb tan olingan. Yangi o'rta asrlardagi Buxoro me'morchilik maktabi Markaziy Osiyoda yagona yetakchi kuch sifatida boshqa hududlar me'morchilik va binokorlik maktablarini rivojlantirishga ham katta xizmat qilgan [2].

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahri Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining (yozma tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Zarirudning) ikki qirg'og'ida shakllangan [3], Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning ta'kidlashicha, "daryo tomondan odamlar yig'ilib, u joy obod bo'ldi" Bu viloyatda suv va daraxtlar, ov qilinadigan jonivorlar ko'p bo'lganidan kishilarga bu viloyat xush kelib, shu yerga joylashdilar" [4]. Afsonalarga ko'ra, Buxoro shahrining poydevori Iskandar Zulqarnayn yoki Buyuk Iskandar zamonlariga to'g'ri keladi [5]. Akademik A.R. Muhammadjonov rahbarligidagi ekspeditsiya tomondan shahar devorlarining qoldiqlarini 15,5 va 18,5 m chuqurlikda mavjud bo'lganligi aniqlangan. Bu esa, o'z navbatida Buxoro qadimda shahar tusini olganligi, mudofaa devori bilan

o'ralganligi va hunarmandchilikning markazi bo'lganligidan guvohlik beradi. Uning shakllanishi Zarafshon vodiysini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan. XVI - XVIII asrlarda Buxoro arxitekturasi va shaharsozligi gullash davrini kechirgan. XVI asrning birinchi yarmida o'tmishning eng yaxshi an'analarini o'zida mujassam etgan noyob arxitektura inshootlari qad rostlagan. Qoraxoniylardan qolgan masjid o'rnida Juma masjidi - Masjidi Kalon (XII asrdagi qadimiy imorat qoldiqlari ustiga XIV-XV asrlarda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida ta'mir etilgan [6]. (1514-yil)), uning qarshisida Mir Arab madrasasi barpo etilgan. XVI asrning 40-yillarida shahar devori qayta tiklangan. XVI asrning ikkinchi yarmida shaharga yangi hudud – Jo'ybor qo'shilgan. Chorsularda rasta, gumbaz (toqi), timlar paydo bo'lgan. Modarixon va Abdullaxon, Ko'kaldosh va Govkushon singari madrasalar va ularning ansambllari shakllantirilgan. Buxoro atrofidagi Sumitan qishlog'ida Chor Bakr (1561-1563), Xinduvon qishlog'ida Bahouddin Naqshbandiy tarixiy-me'moriy ziyoratgohlari bunyod etilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda 12 mahalla, 360 dan ortiq guzar. 250 dan ortiq madrasa, 390 masjid, 150 ga yaqin karvonsaroy, 350 ta hovuz mavjud bo'lgan. Muhammad Ali Boljuvoni - Tarixi Nofei (Foydali tarix) asarida - "Bu shaharda 196 ta mahalla, 299 ta besh vaqt nomoz o'qiladigan masjid mavjud", deb Buxoro shahri atrofini devor va qal'alar o'rab turishi va unda 11 ta darvoza o'rnatilganligi haqida ham to'xtalib o'tadi [7]. XVI-XIX asrlarda shakllangan turar-joylar majmuasi 2-3 qismdan tashkil topgan (doran - ichki, berun - tashqi va uy-ro'zg'or hovlisi) [8]. Ichkari hovlining shimoliy qismida zimistoni - qishki pastqamroq xonalar guruhi joylashgan. Janubga qaragan bu xonalar balandligi 2-2.5 metr qilib olingan. "Zimistoni"ning qarama-qarshisida "tobistoni", ya'ni yozgi xonalar joylashgan. Ular, odatda, osti "tahxona" (tagxona) deb ataluvchi yerto'lalardan tashkil topgan va baland supalar ustida, bahavo, balandligi 4-4.5 metr qilib qurilgan [9].

Tarixiy-me'moriy yodgorliklar orasida XVI asrda qayta ta'mirlangan an-anaviy hukmdor saroyi Arki oliy alohida o'rin tutadi. Ma'lumotlarga ko'ra, arkning maydoni 34675 kv. metrga to'g'ri keladi, bizning vaqtimizgacha ham shu holicha saqlanib qolgan [10].

Hukmdor saroyi baland tepalik ustiga barpo etilgan bo'lib, kirish uchun bitta asosiy darvozaga ega. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon - yo'lakning chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomondagi tokchalarning ba'zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor. "Guldasta"lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto'la - kanaxonalar bo'lgan. Dolonning o'ng tomonidagi o'rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvofiga Navro'z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo'lgan). Dolondan chiqaverishda to'pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto'lada esa qiynoqxona bo'lgan. Undan sal narida (g'arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga qur'on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girihlar bilan bezatilgan. Ark qal'asining shimoli-g'arb burchagida to'pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qiladigan xon) joylashgan [11]. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida devonbening mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli- ko'rinishxona o'rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo'g'onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan. Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan. Arkning markazida o'rda (amirning xotinlari

turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtarxona - amir haramidagi qizlar uylari o'rnashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Battol g'ozi mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'ylab g'ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o'q-dorilar xonalari) joylashgan.

Masjidi Kalon arxitekturasi. XVI asr boshida o'troq va ko'chmanchi qabilalardan tarkib topgan yangi dinastiya - Shayboniyxonlar Buxoroni ishg'ol qilganlar. XVI asrning ikkinchi yarmida poytaxt Samarqand bo'lib qolsada, Buxoro Qoraxoniylar davlatining siyosiy markaziga aylangan. Bu davrga kelib shahar devorini yana qayta qurish zaruriyati tug'ilgan. Shaharda hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Buxoro ko'p davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalarni o'rnatgan. 1557-yilda erkin savdoga ruxsat so'rash uchun Buxoro vakillari Rossiyaga yuborilgan. XVI-XVII asrlarda Buxoro me'morchiligi va binokorligi gullab yashnagan. Shaharning bosh rejasi o'zgargan. Shahar qayta qurilgan, ushbu rivojlangan davrning noyob arxitektura yodgorliklaridan biri Masjidi Kalon hisoblanadi. Masjidi Kalon joyida dastlab 1121-yilda Juma masjidi bunyod etilgan. Vaqt o'tishi bilan inshoot vayronaga aylangan. 1514-yilga kelib, bu inshoot Masjidi Kalon sifatida qayta qurilgan. Bu inshoot qadimiyligi va yirikligi tomonidan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Masjidi Kalonning bosh fasadi sharq tomonga qaragan.

Mir Arab madrasasi 1520-1536-yillarda Mir Arab nomi bilan tanilgan Abdulla Yamaniy rahbarligida qurilgan. Mir Arab madrasasi jahonga tanilgan va musulmon dunyosining yirik diniy oliy maktablaridan hisoblanadi. U madrasa inson tafakkurining mahsuli bo'lgan ajoyib arxitektura yodgorligidir. Mir Arab madrasasining peshtoqi Masjidi Kalonning portali bilan yagona o'qda joylashgan. Biroq madrasa bir oz balandroqda bunyod etilgan. Manbalarda keltirilgan ma'iumotlarga ko'ra, u joy bir oz past bo'lgan, shuning uchun bino asosi tuproq bilan to'ldirilib ko'tarilgan. Ushbu madrasada yoshligida o'qigan, buxorolik taniqli tojik adibi Sadridin Ayniy o'zining Buxoro kitobida xonalarni izohlab, "odam ham, havo ham, yorug'lik ham birgina eshikdan kiradi, o'chog'ning tutuni ham o'sha yerdan chiqadi, dahlizdagi o'choqda

ovqat pishiriladi, o'tin qo'yiladi, yuz-qo'l yuviladi", degan misralarni keltiradi. Madrasa jami 114 hujradan iborat bo'lib, Muqaddas Qur'oni karimdagi suralar soni bilan tengdir. Me'morchilik va shaharsozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu uchala inshoot birgalikda markaziy monumental kompozitsiyani tashkil etgan.

Labi hovuz me'moriy ansambli. XVII asrda qurib bitkazilgan Buxorodagi noyob va yirik me'moriy ansambllardan yana biri Labi hovuzdir. Ansambli tarkibiga kiruvchi Ko'kaldosh madrasasi 1568-1569- yillarda, Devonbegi xonaqosi 1622-yilda qurib bitkazilgan. Me'moriy ansamblning markaziy elementini Labi hovuz tashkil etadi. XIX asrda Buxoro amirligiga tashrif buyurgan A. Vamberi z esdalik asarida ("Путешествие по Средней Азии") Labi hovuz haqida fikr bildirib, "Men uni Buxoroning eng go'zal joyi deb bilaman" deya tariflaydi. Hovuzning eni 36 m, bo'yi 45,5 m, chuqurligi 5 m. Hovuz devorlari sinchlar bilan mustahkamlanib, shag'al va tuproq bilan to'ldirilgan va shibbalangan. Ko'kaldosh madrasasi ochiq maydonda, to'g'ri to'rtburchak shaklida barpo etilgan. Madrasa peshtoqidagi eshikka girih va islomiy naqshlar ishlangan. Mix qoqmay, "tirnoq" qilib mahkamlangan pilakchalardan yasalgan eshik yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko'rinadi. Hujralarning umumiy soni 162 ta ni tashkil etadi.

"Toqi Zargaron" shahriston bozorining taxminan bosh chorrahasiga mos keladi. U o'zining nomini bugungacha saqlab kelgan. Ushbu inshoot qatnov yo'lining ustida bunyod etilgan, qadimgi shahristonning markazida bo'lgan. "Toqi Zargaron"dan janubga boraverishda chap qo'lda Abdulloxon timi, undan keyin ro'parasida "Toqi Telpakfuro'shon" joylashgan. Abdulloxon timi (usti berk savdo rastasi) 1577-yilda bunyod etilgan. Tim kvadrat shaklida, devorlariga ikki tomondan ravoqli tokchalar joylashgan. O'rtadagi miyon saroy baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklar yorug' tushishi uchun mo'ljallangan.

Hammomlar. Shahar me'morchilik va binokorlik tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hammomlar odatda bozorlar oldida qurilgan. Hammomlar ko'chadan salobatli ko'rinmasada, ichki rejaviy va hajmiy yechimlari e'tiborni o'ziga tortadi.

Hammomlarga bevosita ko'chadan kiriladi. Arxitekturasi bir - biriga juda o'xshash bo'lgan hammomlarning yechinish, choy ichib hordiq chiqarish uchun yog'och ustunli ulkan zallari bo'lgan. Zaldan zinapoyalar orqali pastga tushilib, hammomning asosiy xonalariga kiriladi. Hammomning o'rtasida usti gumbaz bilan yopilgan katta zali (massaj joyi) joylashgan. Katta zal atrofida yuvinish xonalari joylashtirilgan bo'lib, ular kichik gumbazlar bilan yopilgan. Xonalarda g'isht, tosh terib ishlangan hovuzak (bak) larda issiq va qaynoq suv saqlanadi, xonalar ostidan issiq havo bilan isitilib turiladi. Xonalardan xonalarga o'tgan sayin issiqlik osha boradi. XVI asrda qurilgan bu hammomlarning yechimi Buxoroning an'anaviy fuqarolik binolari sifatida katta qiziqish uyg'otgan. Unda o'rta asr sharqining hammomlariga o'xshash boy tuzilish yo'q, biroq injener-texnik yechim nuqtai nazaridan zamonaning yutuqlari aks ettirilgan.

Qo'sh madrasa ansambli. Registon maydonining janubi-g'arb tomonidajoylashgan. Bir o'q bo'yicha ro'para turuvchi ikki inshoot yaratish usuli Buxoro me'morchiligi uchun xos jihatdir. Ulardan biri - Modarixon madrasasi 1566-1567-yillarda, ikkinchi - Abdullaxon madrasasi 1588-1590-yillarda barpo etilgan.

Modarixon madrasasi g'arbiga qaratib joylashtirilgan bo'lib, Abdullaxonning onasi sharafiga qurilgan. Madrasa tarhi trapetsiya shaklida. Bosh fasad katta peshtoq, ikki qavatli ayvon va buij-guldastalar bilan bezalgan. Peshtoq va burchaklardagi guldastalar sirkor g'ishtlar- bilan pardozlangan. Toqilar orasidagi bag'allarga koshinlar bilan geometrik shakllar berilgan. Madrasaning boshqa yerlari bezaksiz ishlangan.

Govkushon madrasasi. 1562-1566-yillarda Buxoroning ikkinchi gumbazi "Toqi Telpakfuro'shon" bozori yaqinida Govkushon madrasasi barpo etilgan. Madrasa besh burchakli tarhga, hujralari esa to'g'ri bo'lmagan geometrik shaklda ishlangan.

Buxoroning shimoli-g'arb tomonida, shahardan 10 km uzoqlikda Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti barpo etilgan. Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyektini barpo etilishiga Abdulazizxon ibn Ubaydulloxon 1544-yilda asos solgan. Abdulazizxon buyrug'i bilan mozor tartibga soiinib, ansambl shakliga keltirilgan va 1544-1545-yillarda kompleksning eng katta binosi - xonaqoh qurilgan. Kompleksning asosiy qismiga daxmalar. maqbara, ikkita masjid, sakxona, hovuz,

quduq, minora, madrasa va Abdullaxon xonaqohi kiradi. Daxmai shohon to'rtburchak, balandligi 2,5 m, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda ko'plab marmar o'ymakorligi, xattotlik san'atining ajoyib namunalar mavjud.

Buxoro shahrining g'arb tomonida, undan 5 km uzoqlikda joylashgan Sumitan qishlog'ida Jo'ybori shayxlarining shahardan tashqaridagi nekropoli - Chor Bakr qurilgan. Ziyoratgohning bosh kompleksi 1560 - 1569-yillarda barpo etilgan. Kompleks uzoq vaqt shakllangan. Daxmalar, darvoza, hovli, yo'Chak, ko'p sonli qabrlar usti inshootlari bunyod etilgan Me'moriy kompleks negizini tashkil etgan xonaqoh (shimolda), madrasa (janubda) va namozgoh (g'arbda) orasidagi sahn supa tarzida.

Chor Minor madrasasi arxitekturasi. G.A. Pugachenkova Chor Minor madrasasini kompleks inshoot deb ataydi, qaysiki masjidning kubsimon massivi, tagiga g'ishtlar to'shalgan o'yma yog'och ustunlari bo'lgan ikki tomonlamali ayvon, bir qavatli xujralar kirish qismi bilan yakunlanadigan inshoot tizmasi hovli yuzasi bo'ylab yastangan [12]. Chor Minor madrasasini turkman Xalifa Niyozqul 1807-yilda qurdirgan. To'g'ri to'rtburchakli hovli atrofida bir qavatli ustun ayvonli xonalar joylashtirilgan. Janubi-g'arb tomonidagi burchakda sinchli masjid qavatli bo'lib, pastki qavati madrasaga kirish uchun yo'lak vazifasini bajarsa, tepadagi ikkinchi qavat kutubxona bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadimiy va boqiy Buxoro ming yilliklar davomida shakllangan tarixiy-me'moriy go'zallikka ega shahar. Ko'plab tarixchilar, yozuvchilar va shoirlar hali-hanuz o'z ijod namunalarida shaharning yetuk tarifini keltirilgan emaslar. Buxoro shahar maqomini olibdiki muttasil ravishda takomillashib, kengayib, chiroy ochib kelgan. Ayniqsa Buxoro XVI-XIX asrlarda o'z binokorligining yuksak cho'qqisiga chiqqan, benihoya taraqqiy etgan. Uning taraqqiyoti sabablari, tarixiy inshootlar, me'moriy obidalarning (hukmdor saroylaridan tortib oddiy aholining turar uy-joylarigacha; ijtimoiy binolar "masjid, madrasa, hammomlar, guzarlar, choyxonalar; iqtisodiy binolar" doimiy, hamda, ko'cha bozorlari, shuningdek, savdo rastalari, tim, toq va chorsular, karvonsaroylar) joylashuvi, badiiy-me'moriy, loyihaviy yechimi juda qiziq va shu bilan birgalikda hanuzgacha o'rganilmagan sohadir. Ayni vaqtda tarixchilar oldida "boqiy Shahar" o'ziga xosligi, hamda jahon hayratiga sazovor bo'layotgan

tarixiy-me'moriy obidalarni atroflicha va chuqurroq o'rganish vazifasi mavjud. Zero bizning tarixan ulug'vorligimiz, buyuk ajdodlarimizning teran tafakkurlari namunasi me'moriy obidalarimizda mujassamdir. Ularni asl manbalar orqali o'rganish biz uchun chinakam faxr-u iftixor hamdir.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Kamoliddin. Buxorodagi Somoniylar maqbarasi, “Moziydan sado” - Toshkent. 2.(66).2015-y. –B. 12.
2. Vaxitov M.M, Mirzayev SH.R. “Me'morchilik. 1- qism Me'morchilik tarixi” – Toshkent.: “Tafakkur nashriyoti” 2010. –B. 147.
3. Қиличев Р.Э. Қиличева М.Р. Марказий Осиёнинг тарихий-меъморий ва археологик ёдгорликлари, “Дурдона” нашриёти. 2018. –B. 35.
4. Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. /Форс тилидан А.Расулов таржимаси (Қайта нашри). - Тошкент: “Шарқ баёзи”, 1993. -Б-23.
5. Борнс А. Путешествие в Бухару. Второй част. 1848 г. -Москва. -С. 423.
6. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий (фойдали тарих). –Toshkent.: “Академия”, 2001. –B. 10.
7. D. Nozilov. O'zbekiston xalq me'morchiligi, “Moziydan sado” -Toshkent. 2.(66).2015-y. –B. 36-37.
8. M. Ahmedov. Xalq me'morchiligi an'analari, “Moziydan sado” -Toshkent. 2.(74).2017-y. –B. 14-15.
9. To'rayev H.H. Buxoro tarixi: o'quv qo'llanma. –Buxoro: “Sadriiddin Salim Buxoriy” Durдона nashriyoti, 2020. –B. 65.
10. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. -Москва.: “Восточная литература”. 2003. -С. 86.
11. Р.Э. Холиқова. XIX аср бухоро амирлигида меъморчилик ва қурилиш иши, “Архитектура. Қурилиш. Дизайн” Илмий-амалий журнал. “Фан ва технологиялар маркази”нинг босмаҳонаси. –Ташкент. 2019. –B. 75.
12. Р.Э. ХОЛИҚОВА. XIX аср бухоро амирлигида меъморчилик ва қурилиш иши, “АРХИТЕКТУРА. ҚУРИЛИШ. ДИЗАЙН” Илмий-амалий журнал.

“Фан ва технологиялар маркази”нинг босмахонаси. Т.: - 2019.Б.75. // Пугаченкова Г.А. Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. –М., 1965. С.376. // Л.О. Смирнова. ДАТИРОВКА ЧОР-МИНОР В БУХАРЕ, УЗБЕКИСТАН. Санкт-Петербург, Россия, Проблемы истории, филологии, культуры 2 (2020), С-176–189.

“BUXORO AXBORI” GAZETASI MUHARRIRLARI FAOLIYATI

Jo'raboyev Azizbek Axmadjon o'g'li,

BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

a.a.juraboyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Buxoro axbori” (“Buxoronoma”) gazetasida O'zbekiston davlatchiligi boy tarixga ega bo'lib, xususan milliy davlatchiligimiz tarixida o'ziga xos davr hisoblangan Buxoro amirligi davlatining inqirozi, amirlik davridagi ijtimoiy–siyosiy shart-sharoitlar, BXSРning shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Matbuot, gazeta, muharrir, publitsistik, xat, maorif, madaniyat.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi milliy o'zlikni anglashga bo'lgan istak va intilish o'zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish masalasini kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Respublika yetakchi tarixchi olimlar bilan 1998-yil iyun oyidagi uchrashuvi va prezidentimizning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” asari tarixiy xotira va ma'naviy hayot masalalarini qamrab olgan tarix fanining siyosiy va ijtimoiy hayotdagi haqiqiy o'rnini ko'rsatishga va tarixni xolisona, obyektiv manbalar asosida yaratishga yordam berdi.

O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash borasida “Jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini chuqur qaror toptirish, davlat hokimiyati, idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha boshlagan ishlarimiz ortga

qaytmas tus olganini bugun yana bir bor ta'kidlamoqchiman" [1] – deydi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.

Maxmud S.Ahroriy 1921-yil iyul oyidan Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Ozarbayjondagi vakolatxona boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Keyinchalik 1930-yilda S.Ahroriy Samarqanddagi Moliya-iqtisod texniko'mida o'qituvchilik qiladi.

1930-yilning 12-noyabrida aynan shu joyda hibsga olinadi. 1931-yilning 23-mayida Moskvada ayblanib otuvga hukm qilindi. Lekin hukm chiqishidan o'n kun oldin, 1931-yil 13-mayidayoq S.Ahroriy otib tashlangan [2].

1920-yilning kuzida Buxoroga ko'chib kelgan Said Ahroriy "Buxoro axbori" gazetasining 9-sentabr 1-sonidan 1921-yil 30-iyun 41-sonigacha bosh muharrir lavozimida ishlaydi. K.Rahmonovning aniqlashicha, o'tgan 9 oy ichida Said Ahroriy "Buxoro axbori" sahifalarida 28 ta maqola e'lon qilgan. BXSR hukumatining davlat nashriyoti mudiri lavozimida ma'lum bir muddat ishlagan Said Ahroriy "Ozod Buxoro" gazetasining 105-sonida BXSRning davlat nashriyoti haqida yirik maqola chop etib, BXSRda bosmaxona ishlarining tashkil etilishi, uning o'zagini esa amirlik davrida qolgan bosmaxona bo'lganligi xususida ham to'xtalib o'tadi [3].

Said Ahroriy 1921-yil iyul oyidan Buxoro Respublikasining Ozarboyjondagi vakolatxonasi boshlig'i lavozimiga tayinlanadi. Uning bevosita ishtirokida Buxoro Respublikasidan 25 talaba va o'quvchi Ozarboyjonga o'qish uchun yuborilgan. Said Ahroriy BXSRning Bokudagi vakolatxonasi mudiri vazifasida ishlagan paytida bu yerda Sharq xalqlarining qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda ilgari surgan rus samoderjaviyasining hukmronligi ostida yashagan barcha musulmon xalqlari uzil-kesil mustaqillik da'vo qilishdi. Sho'ro hokimiyati tazyiqi ostida Turkistonda milliy chegaralanish o'tkazish g'oyasi zo'r berib targ'ib qilinayotgan bir paytda Said Ahroriy milliy istiqlolni himoya qilishga birinchilardan bo'lib jur'at etdi [4].

Afsuski, Said Ahroriyning matbuotdagi erkparvar chiqishlarini sho'ro hokimiyati hisobga olib bordi, kuzatib turdi. Mamlakatda qatag'onlar boshlanganida birinchilardan bo'lib hibsga olingan jadidlardan biri Said Ahroriy bo'ldi. Said Ahroriy keying yillarda Samarqandga qaytib moliya-iqtisodiyot texnikumida o'qituvchilik qilar edi. 1930-yil

12-noyabrda Samarqandgi uyida “Milliy ittihad” tashkilotiga a’zolikda ayblanib hibsga olindi va Moskvada Abdurashid Munavvarqori (1878-1931), Salimxon Tillaxonov (1887-1931) va boshqa besh nafar o’zbekistonliklar 1931-yil 23-mayda qatl etildi [5].

S.Ahroriydan keyin “Buxoro axbori” gazetasiga Cho’lpon bosh muharrirlik qilgan. Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lpon jurnalistikaga 1914-yilda kirib kelgan. Uning 1914-1915-yillarda chiqqan “Sadoi Turkiston” hamda “Sadoi Farg’ona” gazetalarida ilk publitsistik badiiy asarlari bosilgan. 1919-yilning 16-dekabridan Toshkentda nashr etilishi mo’ljallangan “PycTo” devoriy gazetasiga muharrir etib tayinlangan. Said Ahroriyning BXS Rning Ozarbayjondagi vakili sifatida Bokuga ketishi munosabati bilan “Buxoro axbori” gazetasiga Mahmud Badaliyni qisqa muharrirlikdan so’ng, Fitrat taklifi bilan Cho’lpon bosh muharrirlikka taklif etilib, 1921-yil 30-iyunidan gazeta uning muharrirlikida chop etilgan. Cho’lpon muharrirligi davomida gazetada “Nozirlar sho’rosida”, “Iqtisod nazoratida”, “Hukumat mufattishlarida”, “Nozirlar sho’rosida suv masalasi”, “Ozuqa muammolarini ixchamlashtirish” kabi maqolalar chop etilgan bo’lib, muharrir ushbu maqolalarda xalq manfaatlarini har narsadan yuqori qo’yishga intilgan [6]. 1922-yilda Cho’lpon xasta bo’lib shifoxonaga tushgach shu yilning 4-fevralidan 17-iyuniga qadar Ziyos Usmoniy “Buxoro axbori” gazetasiga bosh muharrir etib tayinlangan. Ziyos Usmoniydan so’ng gazetaga Ostonqul Abdulqiyomov 1922-yil iyul-sentabr oylarida bosh muharrirlik qilgan. K.Raxmonov “Buxoro axbori” gazetasini o’rganish jarayonidagi Ziyos Usmoniy va Ostonqul Abdulqiyomovlar gazetada muharrirlik qilgan davrda gazeta matbuotida pasayish yuz berganligini ta’kidlab, olim o’z fikrini gazetaning Ziyos Usmoniy davrida chop etilishi qisqarganligi, Ostonqul Abdulqiyomov davrida esa asosiy e’tibor harbiy ehtiyojlarga qaratilganligi sababli gazetaning moddiy ta’minlanmaganligi kabi dalillar asosida izohlaydi. Ostonqul Abdulqiyomov keyin gazetaga Qori Yo’ldosh Po’latov 1922-yil sentabrdan 1923-yil sentabrgacha bosh muharrirlik qilgan. Uning muharrirligi davomida gazetaning moddiy, texnikaviy bazasi yaxshilanib Tatariston ASSRdan musulmon shirifti, Germaniyadan musulmoncha harf terish mashinasi keltirilgan. Gazeta haftada ikki marta muntazam

chiqib, 4 sahifadan emas, balki 8 sahifadan chop etilgan. Qori Yo'ldosh Po'latovdan so'ng gazetaga 1923-yilning 21-sentabridan shu yilning 16-oktabriga qadar Qosim Sorokin bosh muharrirlik qilgan [7].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buxoro vohasini tarixini tadqiq qilib o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ham tarixchilarning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Ular tarixiy tadqiqot va izlanishlari natijasida vujudga kelgan ma'lumotlarini qator ilmiy risolalarda, monografiyalarda chop etish bilan birga davriy matbuotda ham nashr etib borganlar. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarini XX asrning 20-yillardagi o'zbek milliy matbuotchiligi tarixidagi o'ziga xos o'rni va mavqega ega bo'lish bilan birga tarixiy manba bo'la olishi ham ahamiyatlidir. «Buxoro axbori» gazetasi Buxoro Xalq Respublikasining ichki va tashqi sohada olib borgan siyosati, o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlari va muammolari yaxshilash masalasida hukumat tomonidan amalga oshirgan masalalarini o'nlab ruknlar ostida imkon qadar xolisona hamda tanqidiy ruh bilan yoritishga erishdi desak adashmaymiz. “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro” gazetalarida Buxoro vohasi tarixi, geografiyasi, madaniyatiga oid tadqiqotlar nashr etib borilgan. Keyinchalik shunday matbuot nashrlaridan “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazetalarida tarixiy maqolalar barcha davrlarda uzluksizlik bilan atroflicha kengroq qilib yoritib borilgan. Mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi barcha ijodiy ishlarda “Buxoronoma” (“Buxoro haqiqati”) bundan keyin ham umumxalq mehnatini rag'batlantiruvchi, tinch – totuvlik va ezgulikka chorlovchi, xaqlni birlashtiruvchi minbar bo'lib qoladi. Ijodiy jamoa esa o'zining tajriba va imkoniyatlarini ana shunday dolzarb vazifalarni bajarishga tayyorligini ko'ramiz.

ADABIYOTLAR

1. Jo'raboyev A. “Buxoro axbori” yoxud “Buxoronoma” gazetasining rivojlanish tarixi // SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI respublika ilmiy-uslubiy jurnali, O'ZBEKISTON – 2022.

2. Hayitov Sh. Birinchi muharrir // “Buxoronoma” gazetasi, 2003-yil 10-sentabr.

3. Orziyev M. Buxoro amirligida bosmaxonachilik faoliyati tarixidan. Buxoro, 2016.

4. Tarixga muxrlangan 90-yil.”Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag’ishlanadi. Buxoro, 2010.

5. Inoyatov S. “Buxor axbori”ning birinchi muharriri // “Buxoronoma” gazetasi, 2020-yil 12-sentabr.

6. Do’stqorayeva B. Cho’lpon va Buxoro axbori. // Tarixga muhrlangan 90-yil.”Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag’ishlanadi. Buxoro, 2010.

7. Rahmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari. Buxoro, 2015.

TARIXI MULLOZODA» KITOBIDAGI BUXORO MOZORLARI TOPOGRAFIYASI

J.O. Xayriyev

BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro tarixiy topografiyasi, uning yodgorliklari va muqaddas makonlari – mozorlari haqida malumot berib o‘tilgan. Ushbu qisqa sharhlarda Buxoroning tarixiy manba bo‘lmish «Tarixi Mullozoda» kitobida bayon etilgan mozorlari haqida yangi ma’lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro shahri topografiyasi, qabristonlar, “ Tarixi Mullazoda”, Hasti Imom mozori,ChashmaiAyub mozri,Chorbakr memoriy ansambli, Sumitan qishlog‘i,qabrlar, Talipoch darvozasi, rabod, Ro‘di Zar (Shohrud).

Keyingi qirq yil mobaynida arxeologlar, arxitektura tarixini o‘rganuvchilar va sharqshunoslar Buxoro tarixiy topografiyasi, uning yodgorliklari va muqaddas makonlari – mozorlari haqida ko‘pdan-ko‘p yangi ma’lumotlar topishdi. Buxoro shahri hududidagi qabristonlarning ikki davrga – XIX asr oxiri hamda 1911–1912 yillarga doirlari ko‘rsatildi. Keyinroq XX asr boshlariga doirlari tadqiqotchi O. A. Suxareva tarafidan ko‘rib chiqildi. Shuni qayd qilish kerakki, avvalo, «Tarixi Mullozoda»da tilga olingan mozorlarning hammasi ham bugungi kunga qadar etib kelmagan, qolaversa, bu

manbada XV asr boshlaridagi Buxoro hududida mavjud mozorlarning hammasi ham qayd etilmagan. Bu, birinchi navbatda, mahalliy aholining asotiriy (mifologik) an'analari asosida bunyod etilgan (masalan, Siyovush, Qo'chqor Ota, Xoja Ro'shnoiy va boshqalar nomlari bilan bog'liq) sitadel, ya'ni qal'a ichidagi harbiy turli tarixiy davrlarda shahar ayrim qismlarining nomlanishi bilan bog'liq atamalar xususida to'xtalishga to'g'ri keladi [1]. Arab bosqini boshlarida Buxoro quyidagi qismlarga bo'lingan edi: qal'a (diz, 3 gektarga yaqin), shahriston (28–30 gektar) va shaharga tutash erlar (qo'rg'onlar va kichik qishloqlar). IX asr o'rtalarida Xurosonda noiblik tohiriylar qo'lga o'tgan (820–873 yillar)da shahar atrofi tashqi devor bilan o'rab olindi, shu tariqa Buxoroning umumiy maydoni 700 gektardan oshiqroq maydonni tashkil etdi. Shu davrdan boshlab Shahar qo'rg'onini «ko'handiz» («eski qal'a»), «shahriston»ni esa – «shahri darun» («ichki shahar») yoki arabcha «madina» deb atash boshlandi, tashqi devordan nari bo'lgan qismlar esa «shahri berun» («tashqi shahar») yoki arabcha «rabod» deb yuritildi. Bu qismlarning bari devorlar va suv to'ldirilgan xandaqlar bilan bir-biriga bog'langan edi. IX asr oxirgi choragi – X asrda Buxoro somoniylar poytaxti sifatida madaniy va tijoriy markazlardan, Mashriq va Mag'ribning yirik shaharlaridan biriga aylandi. Uning ko'handizi ham, ichki shahri – shahristoni ham mustahkam qilib qurildi. Tashqi shahar bir tekis qurilmagan edi, aholi yashaydigan makonlar atrofida esa er maydonlari va bog'lar mavjud edi. Ro'di Zar (u keyinchalik «Shohrud» deb nomlangan) kanali ustida darvozalari bor ko'priklar bunyod etildi. XI asr boshida somoniylar sulolasining barham topishi va poytaxtlik maqomi yovqotilganidan so'ng Buxoro shahri jiddiy siyosiy va iqtisodiy inqirozga uchradi. Kovhandiz vaqtlar o'tishi bilan nuray boshladi, biroq ichki shahar (shahriston yoki madina) mustahkam va zich qilib qurilganicha qoldi. Tashqi shahar (rabod)ning, asosan, tijoriy-hunarmandlik qismlari, Mox va Attoron bozorlari taraflar mustahkam qilib qurilgan edi. Bo'shab qolgan turarjoy makonlarida qabristonlar ko'payib bordi [2]. Tashqi shahar (rabod) atrofini ovragan devorlar bir necha bor vayron bo'ldi va qayta tiklandi.

“Tarixi Mullozoda” matnida Buxoroning birinchi va eng hurmatga sazovor bovlgan Abu Hafs Kabir Buxoriy mozori movljali (orientiri) ko'rsatilgan: shahardan

qibla (g'arb) tarafga qarab turganda o'ng qo'lda. Bu holatda masofa ahamiyatga ega emas. Chunki Buxoroda «shahar» deyilganda hamma zamonlarda ham shahriston (shahar, shahri darun, hisori qadim) tushunilgan. Qabriston keng tepalikning shimoli-janub yo'nalishida joylashgan, uning pastki qismida Buxoroda Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704–715 yillar hukm surgan) qurdirgan birinchi namozgoh devori yashirinib yotibdi. Ko'p o'tmay bu tepalikning shimolida birinchi musulmon qabristoni yuzaga keldi, unda Abu Hafs Kabirning maqbarasi va ko'p mozorlar bor edi. IX asr o'rtalarida bu qism tashqi shahar (rabod) tarkibiga kirdi. Somoniylar hukmronligi davrida, aniqrog'i, hijriy 360, milodiy 970/971 yili namozgoh shahar tashqarisiga – Sumitan qishlog'iga boradigan yo'l bo'yiga ko'chirildi. Ko'p o'tmay eski namozgohning qibla tarafi doimiy ravishda ko'pqavatli qabristonga aylanib borgan (6 qavatgacha qabr bo'lgani aniqlangan), bu qabriston qal'a devorining ichki qismini ham egallab borgan, u erda 12 qavat odam ko'milgan darajadagi qalinlikka ega (arxeologik tadqiqot). Ehtimol, qoraxoniylar hukmdori Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon (1102–1130 yillar hukm surgan) amri bilan hazira qayta ta'mirlangan. Uning peshtoqi ganch o'ymakorligi asosidagi mahobatli yozuv bilan bezatildi, yoniga Abu Hafs Kabir Buxoriy xotirasi uchun masjid tiklandi, u yaxshilab ishlov berilgan g'ishtlardan qurilgan, sirlangan feruza g'ishtchalar o'tmishda buzib tashlangan kichik maqbarasi ham bo'lganini eslatadi. U aynan Abu Hafs Kabir Buxoriy masjidi orqasida bo'lgan (arxeologik tadqiqot). Abu Hafs Kabir Buxoriy-mozorining janubi-g'arbiy tarafida safforiya imomlari mozorlari joylashgan bo'lgan, biroq bugungi kunda ularning aniq joyini faqat taxminangina ko'rsatish mumkin [3].

Chashmai Ayyub – XII asrning 50-yillarida yuzaga kelgan qabriston [4]. Undagi Chashmai Ayyub maqbarasi, aniqrog'i, qadamjoyi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Bu maqbaraning g'arbida Xoja Ka'bon (Abu Hafs Kabirning safdoshi (milodiy 814/815 yili vafot etgan) mozori mavjud. Aftidan, mozor uncha katta bo'lmagan tepalikda, XVI asr o'rtalarida tiklangan shahar devorining tashqarisida bo'lgan. 35–40 yillar burun tepalikni tekislashgan, hozirgi paytda bu erda bozor barpo etilgan.

Somoniylar sulolaviy qabristoni tashqi shahardagi bog'da joylashgan bo'lgan. U bog'ning shimolida, qadimda "Navkanda" deb atalgan erda. Keyinchalik hujjatlarda bu qabristonning Chorgumbazon ko'chasida ekani qayd etilgan [5]. Aftidan, bu nom somoniylar maqbaralari sonidan kelib chiqqan [6]. Bu erdagi Ismoil Somoniy (849–907) maqbarasi bugungi kunlarimizga qadar saqlanib qolgan. Podshoh Ismoil hovuzi qayta kovlangan, to'g'risi, bu hovuz maqbaradan bir necha asr keyin bunyod etilgan.

Xoja G'unjoriy maqbarasi bu maqbara G'unjor al-Hofiz (Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Bakr al-Buxoriy al-Varroq) mozori asosida qad rostlagan. Shaharning g'arbiy qismidan, Shergiron darvozasiga eltuvchi yo'lning o'ng tarafidan o'rin olgan. Bu maqbara XX asrning 30-yillarigacha mavjud bo'lgan. Hozirgi paytda bu erda turarjoylar qurilgan, mozor esa saqlanib qolmagan.

Sumitan qishlog'i mozorlari, ular hozirgi paytda X- XXI asrlarda bunyod etilgan Chor Bakr me'moriy ansambli tarkibiga kiradi. Chor Bakr qabristoni Buxoroning Talipoch darvozasidan g'arb tomonida 5 kilometr uzoqlikdagi Sumitan qishlog'i yaqinida joylashgan. Shu qishloq egalari bo'lgan bakrlar, ya'ni buyuklar – Abu Bakr Sa'd va uning o'g'li Abu Bakr Ahmad mozorlari asosida yuzaga kelgan. XVI asr o'rtalarida taniqli naqshbandiy shayx Xoja Islom Jo'yboriy o'zini, ularning avlodi va merosxo'ri, deb e'lon qildi. U Sumitan qishlog'ini va Abu Bakrlar mozorini qo'lga kiritgan va ular yonida dafn etilgan birinchi jo'yboriy shayx hisoblanadi. Asrlar mobaynida bu erda shayxlarning shajaraviy qabristoni shakllandi, Abdulloxon Shayboniy yordami bilan ulkan me'moriy majmua qad rostladi. Me'moriy-arxeologik tadqiqotlar davri (1983–1991, 1996–1997 yillar)da qabristonning yuzaga kelishi jarayonlari va xronologiyasi o'rganilgan. Shu narsa aniqlandiki, haqiqatan ham, Abu Bakr Sa'd va Abu Bakr Ahmad daxmalari hozirada ming yil burungi, ya'ni 2 metr chuqurlikda joylashgan. Bu qabrlar qabristonning shimoli-g'arbiy qismida, imorat esa bir necha bor kengaygan, ta'mirlangan va restavrasiya qilingan. Buxoro shahrida ko'plab mozorlar mavjud oz bo'lsada ularning tarixiy topografiyasini tasvirlashga harakat qildik. Hozir bu mozorlarning ko'pchiligini o'rnida turar joylar va jamoat binolari bunyod etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov. K. “Tarixi Mullazoda”, - Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiaysi “ Fan” nashriyoti. 2019 – 131 – bet.
2. Некрасова Е. Бухара // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Т. II. – Москва: 2018. – С. 102 – 110
3. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки. Т.:1958, С – 43.
4. Некрасова Е.Г. Архитектурные памятники Бухарского оазиса. Чашма-и Аййуб. – Ташкент, 2019.
5. Saidjonov M. Buxoro shahri va uning eski binolari. “Maorif va o‘qituvchi” . – 1927, № 9-10. – S. 54.
6. Мирзаахмедов Д. К. К изучению исторической топографии Бухары района мавзолея Саманидов // ИМКУ. Выпуск 19. – Ташкент: 1984. – С. 221–237.
7. Бабаджанов Б. М. Из истории одного «святого семейства» средневековой Бухары // Узбекистан в средние века: история и культура. Посвящается 80 летию доктора исторических наук, профессора Розии Галиевны Мукминовой. Доклады международной конференции. – Ташкент: 2003. – С. 86–99.

HOFIZ TANISH BUXORIY VA UNING ILMIY MEROSI

Aslonov Sohib Akmal o'g'li,

BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hofiz Tanish Buxoriyning ijtimoiy siyosiy qarashlari, uning O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi o‘rni, ilmiy merosi, “Abdullanoma” asari Abdullaxon II ning faoliyati, harbiy yurishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanoma, madaniyat, ilmiy meros.

Hofiz Tanish Buxoriy milliy davlatchiligimiz tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning Abdullanoma (Sharafnomayi Shohiy) asari XVI asrdagi tariximizni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Abdullanoma asarida Abdullaxon II ning faoliyati, Buxoro Xonligining

ijtimoiy siyosiy ahvoli, Chingizxonning Movarounnahr istilosi, Xurosondagi vaziyat to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan. Asar Shayboniy Abdullaxon II ning buyrug'i bilan 1584 – 1590 yillar oralig'ida yozilgan. “Abdullanoma” asarida to'lig'icha 940 / 1533 – 34 yillardan to 997 / 1588 – 90 yillargacha O'rta Osiyo, Qozog'iston va qisman Afg'oniston va Xurosonda bo'lgan siyosiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning qariyb qirq varaqdan iborat muqaddimasi ilgari yozilgan boshqa asarlar asosida tuzilgan bo'lib, undan Abdullaxonning nasabi, XV – XVI asrlarning birinchi choragida Mo'g'ulistonda bo'lgan siyosiy ahvol qisqacha bayon qilinadi.

Muallif o'zidan ilgari o'tgan mashhur tarixchilar: Rashiddiddin, Mirxond, Sharofiddin Ali Yazdiy va Abulxasan Nishopuriy asarlariga tayanganini ochiq aytadi. Undan tashqari Narshaxiyning mashhur “Tarixi Buxoro”, Juvayniyning “Tarixiy Jaxonkushoyi”, Mirzo Muhammad Xaydarning “Tarixiy Rashidiy” va Koshifiyning “Rashoxotu ayn ul - hayot” va boshqa asarlardan ham foydalanilgan.

Hofiz Tanish Buxoriy dastlab o'z asarini ikki qism (maqola) dan iborat qilib tuzmoqchi bo'lgan. Birinchi qism (maqola) da Abdullaxonning tarixi, ikkinchi maqolada esa xonning olijanob fazilatlari, uning davrida yashagan shayxlar, vazirlar, olim va shoirlarning tavsifini bayon qilmoqchi bo'lgan.

Lekin asarning ikkinchi qismi yozilmay qolgan. Fikrimizcha, Abdullaxon vafotidan keyinroq mamlakatda boshlangan ur – yiqitlar asarni tamomlashga imkon bermagan.

Asarning qimmatini shundaki, muallif ko'p voqealarni uning guvohi bo'lgan kishilar og'zidan yozib olgan, ko'plariga o'zi shohid bo'lgan.

“Abdullanoma” ning yozila boshlagan va tamomlangan yili xaqida ham turlicha fikrlar mavjud. L. A. Zimin asarining tamom yozib bo'lingan yili deb hijriy 996 / 1587 – 1588 yilni oladi. Muqadimada keltirilgan quyidagi manzum tarix asarning yozilgan yilini ochiq ko'rsatadi:

*In “Sharafnoma” kesh az g'oyati tashrifi qabul,
Sharaf az nomi shahanshoh falak qadar fuzud.
Che ajab, k – az pesh payvastani tarixu nomash*

Xomayi tahrir “Sharafnomayi shohiy” farmud.

Tarjimasi:

Bu shunday “Sharafnoma” ki, (hammaga) g‘oyat maqbul bo‘lganidan, Falak qadar (ulug‘) shahanshoh (Abdullaxon) nomidek sharaf orttirdi. Ne taajjubki, uning tamom bo‘lishi tarixi va nomini Tahrir qalami “Sharafnomayi shohiy” deb atadi.

Bu yerda “Sharafnomayi shohiy” so‘zlaridagi harflar hijriy 992 / 1584 yilni keltirib chiqaradi. Lekin asar 996 / 1587 88 va undan keyingi yillardagi voqealarni ham o‘z ichiga olgan. Shuning uchun ham “Abdullanoma” 1005 / 1596 yoki undan keyingi yillarda tamomlangan deb aytish mumkin.

Asarning muallifi Buxorolik mashhur shoir va muarrih Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad al – Buxoriydir. Uning hayoti va ilmiy adabiy faoliyatiga oid ma’lumotlar ham Hofiz Tanish Buxoriy ham “Nahliy” va “Kiromiy” tahalluslari bilan ham mashhurdir. U asli Buxorolik bo‘lib, ilmning ko‘p sohalarini egallagan va zamonasining yetuk olimlaridan bo‘lgan.

Ayrim qisqa ma’lumotlar “Abdullanoma” muqaddimasida va ba’zi tazkiralarda uchraydi. Ana shu ma’lumotlarga qaraganda, Hofiz Tanish Buxoriy va uning otasi Mir Muhammad Shayboniy xukmdorlariga yaqin odam bo‘lishgan. Masalan, otasi Mavlono Mir Muhammad, naqshbandiya tariqatining namoyondalaridan biri yirik olim Maxdumi A’zam Kosoniy (Xoja Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy: 1462 - 1542) ning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Jome’ ul maqomat” da yozishicha Shayboniy Ubaydullaxon (1534 - 1539) saroyida xizmatda bo‘lgan.

XVI asrning 50 yillari boshida Qoshg‘arga ketib qolgan va oradan ikki yil o‘tib, o‘sha yurtida qazo qilgan. Hofiz Tanish Buxoriy 1583 yili Abdullaxon II ning xizmatiga kirgan va umrining oxirigacha shu xonning xuzurida voqeanavis bo‘lib xizmat qilgan. Olimning tug‘ilgan yilini ba’zi faktlarga tayanib aniqlasa bo‘ladi, lekin vafot etgan yilni aniqlab bo‘lmaydi.

“Sharafnomayi shohiy” da mana bularni o‘qiymiz: ... Abdulg‘oziy Abdulla Bahodirxon, tangri taolo uning podshohligini, saltanatini abadiy qilib, farqadan ham baland qilsin, Movarounnahr mamlakatini zo‘r bilan o‘ziga bo‘ysindirdi va Sharq

quyoshidek adolat va insonparvarlik soyasini o'sha mamlakatning ilm ahllari boshiga tushirdi. Faxrlanishga munosib Buxoro shaharini xalifalik taxtining oromgohiga aylantirdi...

O'sha paytda faqiru xaqirning yoshi o'ttiz oltida edi. Ma'lumki, Abdullaxon Buxoroni 1557 yili egallagan. Lekin Movarounnahr faqat XVI asrning 80 – yillari boshidabatomom Abdullaxon qo'liga o'tgan. Bunga qaraganda, Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxonning xizmatiga u otasi o'rniga taxtga o'tqazilgan yili – 1583 yili xonning yaqin kishisi Qulbobo ko'kaldoshning vositachiligi bilan kirgan.

Agar o'sha paytda 36 yoshda bo'lsa, unda Hofiz Tanish 1547 yili tug'ilgan bo'lib chiqadi.

Hofiz Tanishning qachon vafot etgani ma'lum emas. Mashhur adabiyotshunos olim va shoir Mutribiyning "Tazkilat ush – shuaro" asarida "Janobi Hofiz Tanish ulomo jumlasidandir. U Maqdumi Xasan Xotamning tazkirasida ham tilga olinadi.

Yuqorida zikr etilgan Hofizning og'a – inilari uning vafotidan so'ng xotinini qandaydir jinoyat qilganlikda ayblab unga davogar bo'lganlar va oliy farmonga ko'ra, uning Buxoro minorasidan tashlab yuborishishga erishganlar, degan mish – mishlar bor" deb yozgan. Bundan chiqadiki, Mutribiy tazkirasini yozib tomomlagan yili (1604 yil) Hofiz Tanish hayot bo'lmagan.

Hofiz Tanish Buxoriy og'ir bir zamonda ya'ni Movarounnahrda feodal tarqoqlik kuchaygan, Abdullaxon II ning mamlakatni birlashtirish va markaziy davlat apparatini mustahkamlash uchun tinimsiz urishlar olib borgan bir zamonda hayot kechirdi. Olim buni quyida keltirilgan iboralarda ifodalaydi.

"Har tarafdin teskari shamol esardi. Har burchakdan fitna gardi osmonga ko'tarilardi. Sog'u – salomatlik anqodek maxfiylik pardasi ostiga yashiringan edi. Tinchlik va xotirjamlik kibriti axmar va aqlu – xunarning rivojkoridek ko'rinmay ketgandi. Omonlik va to'g'rilik jahondan nafratlanib, intizom ham jamiyat yulduzlari to'dasigina cheklanib qolgandi".

Shuni ham aytish kerakki. Hofiz Tanish Buxoriy, zamon taqozosiga ko'ra asarda ma'lum darajada xukmron sinfnig maqsad va manfaatlarini ifoda qilishga xarakat

qilgan, xon va uning atrofidagi aslzodalar, boylar va tugʻyonlarni koʻklarga koʻtarib maqtagan. Mehnatkash xalqning xol – ahvoli boʻlsa, koʻp oʻrinlarda soyada qolgan. Lekin asar faktik materiallarga boy, voqealar ozmi – koʻpmi obʻektiv yoritilgan, ayrim oʻrinlarda xonlar, sultonlar va amirlarning baʼzi xislat va xarakteri ham ochib berilgan. Masalan, Abdullaxonning bobosi Jonibek Sulton xaqida gapirar ekan, uni mumin musulmon, dinparvar va odil bir kishi sifatida taʼriflaydi: “U shunday dinpanohki, – deb yozadi Hofiz Tanish Buxoriy, din xukmronini tanqid qilish va Sayyid Mursalinning (xazrati paygʻambarimizning) sharʼiy amr – farmonlarini moʻmin – musulmonlarga yetkazish ishini toʻla bajo keltiradi. Xukumat va siyosat ishlarini quvvatlash va ijro etishda oshiqmas edi. Lekin jahli chiqqan paytlarda ixtiyoriy ishladi, uning gʻayrat va gʻurur qoʻlidan tushardi: lekin toyiluvchilarning xatolari ustia avfu karomat etagini yopardi”.

Muhimi shundaki, olim toju – taxt sohiblarining adlu – insofga chaqiradi: “Bu dunyo oʻtib ketuvchi soyadir, chunki soya goh oldinda, goh orqada boʻladi. Imkoniyati borida odamlarga yaxshilik qil, bilginki hamma vaqt ham bunga imkon boʻlavermaydi. Jahonda agar bir zahira talab qilsang, yaxshi nom eng yaxshi zaxiradir”.

Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” yoki “Sharafnomayi shohiy ” asari bilan tarixda qolgan shaxsdir. Kitobda Oʻzbekiston, Qozagʻiston, shuningdek Afgʻoniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy – siyosiy tarixi ham bayon qilingan boʻlib, bu xalqlar oʻrtasidagi madaniy, siyosiy, savdo, diplomatik munosabatlar haqida qimmatli maʼlumotlar keltirib oʻtadi. Undan tashqari, asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Qoshgʻar va Rossiya oʻrtasidagi munosabatlar haqida ham maʼlumotlar keltirib oʻtadi. Hofiz Tanish Buxoriy asarini XVI asrning 80 yillarida yozib tugallaganligi haqida zamondoshlaridan Mutribiy aytib oʻtadi. Shuningdek Mutribiy bu asarning oxirgi qismini xonning buyrugʻi bilan qozi Poyanda Zominiy yozgan deb keltirib oʻtadi [1].

“Sharafnomayi shohiy” muallifning rejasiga koʻra asar muqaddima, ikki qism yoki maqola va xotimadan iborat qilib yozishni xohlagan. Muqaddimada Allohning madhu va hamdu sanosi, homiy, hukumdor Abdullaxonning shaniga aytiladigan

tavsiflar, Abdullaxonning ota bobolari, qadimda Markaziy Osiyoda hukumronlik qilgan turk – mo'g'ul qavmlari, Chingizxon va uning avlodlari haqida ma'lumot keltirgan. Birinchi maqolada Movoraunnahrda 1533-1583-yillarda sodir bo'lgan voqealar keltirilgan. Ikkinchi maqolatda esa O'zbekiston, Qozog'iston va qo'shni davlatlarda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar keltirib o'tilgan. Xotimada esa Abdullaxonning ajoyib fazilatlari, u bilan bir davrda yashagan shayxlar, vazirlar, amirlar, va shuningdek, Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot keltirib o'tishni xoxlagan. Lekin asar yozilishi o'zgargan, ya'ni birinchi va ikkinchi reja qo'shib yozilgan, xotima esa muallifning bevaqt o'limi tufayli yozilmay qolgan [2].

Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p, asl matinning uchdan ikki qismi Sank – Peturburglik olim M. Salohutdinova ruscha tarjimasi bilan chop etgan. Kitob 1942 – 1952 – yillari Sodiq Mirzayev va oxirgi qismi Yu. Hakimjanovlar tomonidan 60 – yillar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Biroq 1-2-jildlari zarur tuzatishlar, tadqiqot izohlari bilan 1966 va 1969 – yillarda B. Ahmidov tomonidan chop etilgan. 3-4-jildlarini 1995 – 1997 – yillarda chop etadi [3].

ADABIYOTLAR

1. B. Ahmedov “Tarixdan saboqlar” “O'qituvchi” nashriyoti.
2. Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” tarjimasi. II tom
3. Nizomiddinov “O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari”. “O'zb SSR dav nashriyoti”.
4. Aslonov S. “Abdullanoma “asarining tarixshunoslik fanida tutgan o'rni

XX ASRNING 20 – 30 YILLARIDA BUXORO ME'MORIY OBIDALARINING O'RGANILISHI

U.R.Qo'lyiyev,

BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi XX asrning 20 – 30 yillarida Buxoro me'moriy obidalarining bir qator rus va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilishi, o'lkada olib

borilgan ekspeditsiyalar natijasida yaratilgan tarixiy asarlar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Tarixi anjuman, Buxoro shahri va uning eski binolari. Ark, masjid, shahriston, darvozalar, somoniylar maqbarasi, ashtarxoniylar, ekspeditsiya.

Mamlakatimiz tarixi, uning asrlardan hikoya qiluvchi tarixiy – me'moriy obidalari, o'tmishda ham bugungi kunda ham nafaqat mahalliy balki, dunyo sayyohlari, olimlarining jiddiy qiziqishi va e'tirofiga sazovor bo'lgani bizga ma'lum.

Ma'lumki, el – yurtimiz o'zining qadimiy o'tmishi davomida qanchadan – qancha unutilmas voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Lekin bir haqiqatni ta'kidlash kerakki, vatanimiz hududida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladimi, barcha – barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizni barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur [1].

Qadimiy va boqiy Buxoro ming yilliklar davomida shakllangan tarixiy-me'moriy go'zallikka ega shahar. Ko'plab tarixchilar, yozuvchilar va shoirlar hali-hanuz o'z ijod namunalarida vohaning yetuk ta'rifini keltirolgan emaslar. Buxoro shahar maqomini olibdiki muttasil ravishda takomillashib, kengayib, chiroy ochib kelgan.

Buxoro vohasida tarixiy o'lkashunoslikning holati, rivoji va uning turli jihatlari qariyb bir asr davomida yaratilgan katta hajmdagi tadqiqotlar – maqolalar, risolalar va monografiyalarda o'z aksini topgan.

1920 – yilda Buxoro amirligi ag'darilgandan keyin Buxorodagi arxiv hujjatlari, qo'lyozma kitoblar, tarixiy ashyolar va san'at yodgorliklarini saqlash hamda asrab qolishda yangi hukumatga yordam berish maqsadida sovet Rossiyasi Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi tomidan Buxoroga maxsus komissiya – hay'at yuboriladi. Uning tarkibida D.I. Nechkin, V.V. Bartold, A.E. Shimdt, P.E. Kuznetsov, E.K. Betger va A.A. Garritskiylar kiritilgan bo'lib, ular 26 – sentabrdan 5 – oktabrgacha Buxoroda bo'lishadi. Bu vaqt davomida ular Buxorodagi yodgorliklarni holatini o'rganishadi [2].

1921-yil Buxoroda tashkil topgan dastlabki ilmiy o'lkashunoslik jamiyati - “Tarixi anjuman” o'z tarkibiga V.V. Bartold, A.A. Semenov, P. Soliev singari atoqli olimlardan tashqari, bir guruh mahalliy ziyoli ma'rifatparvarlarni birlashtirgan ediki, ular safida Sayyid Muhammad Nosir ham bor edi.

O'tgan asrning 20-yillarida Buxoro tarixi, aniqrog'i shaharsozlik tarixi masalalari bilan bir guruh mahalliy o'lkashunos olimlar ham shug'ullandilar. Ular orasida tarixchi-o'lkashunos olim Muso Saidjonov (1893 – 1937) o'z o'rniga ega shaxs desak mubolag'a bo'lmaydi. Muso Saidjonovning hayot yo'li, uning biz kelgusi avlodlarga qoldirgan boy ilmiy me'rosi fikrimizning yaqqol isboti hisoblanadi.

Muso Saidjonovning Buxoro vohasi tarixi haqida so'z boruvchi muhim tarixiy asarlaridan biri bu “Buxoro shahri va uning eski binolari” asari hisoblanadi. Ushbu asar 1927 – yili “Maorif va o'qituvchi” jurnalida eski o'zbek yozuvida chop etilgan. Aynan mazkur asarning nusxasi ustozimiz professor H. Torayevga arxeolog, Buxoroshunos olim Y.G.Nekrasova tomonidan taqdim etilgani haqida bilamiz [3].

Muso Saidjonovning “Buxoro shahri va uning eski binolari” asari ustozimiz H. To'rayev tomonidan “Markaziy Osiyoni Tadqiq Qilish Fransuz Instituti” tashabbusi bilan 2005 – yil Toshkentda nashrga tayyorlab, chop etgan. Asar 54 sahifadan iborat bo'lib, ikki tilda ya'ni o'zbek va rus tillarida nashrdan chiqqan. Asarda Buxorodagi tarixiy joylar, shahristoni, Ark va undagi inshaotlar, Registon joylashuv o'ri, darvozalar, somoniylar va ashtarxoniylar davriga oid tarixiy yodgorliklar o'rganilib, tadqiq etilgan. Ish boy tarixiy manbalar, jumladan, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, o'rta asr vaqf hujjatlari, arxeologik ashyolar asosida yozilgan va hanuzgacha o'z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda.

Buxoro arkida joylashgan Subxonqulixon masjidi haqida ham sovet davrida bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masjid haqida M. Saidjonov ham o'z asarida ma'lumotlar bergan. Masjid Buxoro amirlarining tungi ibodat o'taydigan asosiy binolaridan biri bo'lgan. 1920 – yil voqealaridan keyin bu masjid o'z vazifasini bajarmay qo'ydi.

Buxoro vohasini o'rganish ishlarida rus olimlari qatorida faol ishtirok etgan yana bir olim, mashhur sharshunos va o'lkashunos I.I. Umnyakovdir. U “Buxoro va uning zamonaviy shaharlari to'g'risida Narshaxiy va arab geograflarining topografik ma'lumotlarini solishtirish” mavzusidagi tadqiqot uchun talabalik vaqtidayoq oltin medal bilan taqdirlanadi [4].

I.I. Umnyakov N.V. Xanikov ma'lumotlariga tayanib Buxoro Arking maydonini 22 tanob va balandligini 10-12 metrga teng deb qayd qiladi. Maqdisiy va Narshaxiy ma'lumotlariga asoslanib, X asrda Buxoro arkida ikkita darvoza (g'arbiy va sharqiy darvozalar) bo'lganini yozadi. O'lkashunos olim Qutayba ibn Muslim davrida Buxoro arkida birinchi jome masjidi qurilganligini yozadi [5].

I.I. Umnyakov arkning bir necha bor qayta tiklanganini va 1920 – yil qizil armiya bosqini natijasida undagi boy kutubxona ham kulga aylanganligini qayd etgan. Olim Narshaxiy ma'lumotlariga asoslanib rabot devori 849 – 850 yillarda qurilgani, keyinchalik 11 darvozadan iborat shahar devoriga aylangani haqida yozadi.

O'lkashunoslik sohasida olib borgan izlanishlari natijasi sifatida 1929 – yil I.I. Umnyakovning “O'rta Osiyo arxeologik yodgorliklari” nomli asari nashr etildi. Unda 1920 – 1928 yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar, ta'mirlash va restovratsiya ishlari xususidagi ma'lumotlar jamlangan. Tadqiqotning Buxoro vohasi qismida 1920 – yildagi bosqindan keyin Minorai Kalon va Buxoro Arkini ta'mirlanganligi, 1923 – yildagi D.A. Morozov Buxoro tarixiy yodgorliklarini fotosuratga olganligi hamda arxitektor Ginsburg ekspeditsiyaga rahbarlik qilganligini qayd etilgan. Ekspeditsiya guruhi Buxorodagi 32 ta tarixiy yodgorlikni ro'yhatga olgan [6]. Nafaqat Buxoro vohasi balki o'lkamizdagi Samrqand, Toshkentdagi tarixiy yodgorliklar ham ro'yhatga kiritilgan.

1920 – yil sentabrda V.V. Bartold (1869 – 1930) Buxoro ekspeditsiyasida qatnashadi. Ekspeditsiya vaqtida olim qadimgi mahalliy yodgorliklarni va san'at obidalarini ko'zdan kechirdi hamda ularni muhofaza qilish choralarini belgiladi. Mazkur safar haqida professor H.H. To'rayev “Akademik V.V. Bartold ijodida Buxoro tarixi” nomli maqolasida quyidagilarni yozadi: “1925 – yil V.V. Bartold Buxoroga kelganida

uni shahar obidalarining g'aribona ahvoli, shahar darvozalarining tarixiy nomlari o'zgartirilganligi juda ajablantiradi”.

V.V. Bartold Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasida ham kuzatuv ishlarini olib borgan. Ismoil Somoniy dafn qilingan maqbara – Somoniylar davri me'morchilik san'atining nodir namunasidir. Bu inshoot Buxoro shahridagi eng qadimiy obidalaridan biridir. Olim shu kunga qadar ushbu obida haqida biror tadqiqot olib borilmaganligini e'tirof etib, komissiya raisi sifatida Arxiv ishlari Markaziy Boshqarmasi oldiga Ismoil Somoniy maqbarasini ilmiy jihatdan har tomonlama o'rganish masalasini qo'yadi [7]. Keyinchalik ushbu maqbaraga oid 30 ga yaqin tadqiqotlar e'lon qilinganligini tarixiy ma'lumotlar asosida o'rganishimiz mumkin.

Buxoro vohasida o'lkashunoslik ekspeditsiyalarini uyushtirgan tadqiqotchilardan V.V. Bartold, M.Y. Saidjonov, I.I. Umnyakovlar o'lkani o'rganish barobarida, o'z nigohlarini Buxoro tarixiy-me'moriy obidalariga qaratdilar. Obidalarning shakli, uslubi, muhandisligi ularni shu darajada maftun etdiki, ularni o'rganishga, o'z esdalik, qaydnoma, maqola va asarlarida qayd etishga harakat qildilar. Bizga asrlar davomida o'lkada mavjud me'moriy obidalariga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirdilar. Bugungi kun nuqtai nazaridan ularning esdalik, hisobot, qaydnoma, maqola, monografiya va asarlarini tadqiq etgan holga me'moriy obidalarimiz tarixini o'rganish va tahlil qilish vazifasi mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri- Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
2. Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан / Сочинения. – М.: Наука, 1966. Т. IV. – С. 254.
3. Qo'yliyev U. Muso Saidjonovning “Buxoro tarixi va uning eski binolari” asari yurtimiz tarixiga oid muhim tarixiy manba // Journal of Social Sciences and Humanities Volume: 07. Issue:01/Jan-2023. Page: 70-77.

4. Boltayev A. I.I Umnyakov tomonidan Buxoro shahri tarixiy topografiyasining o'rganilishi // Buxoro tarixi masalalari mavzusidagi Respublikla ilmiy – amaliy anjuman materiallari. - Buxoro: 2019. - B. 31-34.

5. Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средисвековой Бухары. Сборники Туркистанского Восточного Института в честь проф. Э.А. Шмидта. – Ташкент, 1923. – С. 153.

6. Умняков И.И. Архитектурные памятники Средней Азии. Исследование. Ремонт. Реставрация. 1920-1928 г.г. – Ташкент, 1929. -С. 15-21.

7. Худойқұлов Т.В. Бухоро қадимий дарвозалари хусусида V.V. Bartoldning qaydlari// “Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida” Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. – Jizzax: 2020. - B 122-125.

O‘ZBEKISTON-ROSSIYA ALOQALARI:IQTISODIY STRATEGIK HAMKORLIGI

. F. M. Utayeva,

BuxDU, dotsenti, (PhD

Choriyev Yo'lchi Maxmudovich,

*BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha 2-bosqich magistranti.*

Annotatsiya: O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik munosabatlari, ikki davlat rahbarlarining davlat tashriflari va erishilgan natijalar, shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohalarda olib borilayotgan samarali ishlari va Markaziy Osiyo bo‘yicha qarashlari haqida qisqacha izoh berish va bugungi kunda ikki davlat o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy va tarixiy jarayonlarni tahli qilish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: Strategik sheriklik, «LUKOYL», parlamentlararo hamkorlik munosabatlari, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, tarixiy omillar

O‘zbekiston-Rossiya aloqalari uzoq tarixga ega. 1994-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi harbiy sohada hamkorlik qilish

to'g'risida Shartnoma, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma qabul qilindi. [2]

2003-yil O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1 mlrd. 149,1 mln. AQSH dollariga yetdi. Rossiyaning salkam 40 ta kompaniyasi, jumladan, "Aeroflot", "Avtovaz", "Zarubejneftgaz", "LUKOYL", "Texmashimpeks" va boshqa o'z vakolatxonalariga ega. Rossiyada o'zbek rezidentlari ishtirokida tashkil etilgan 167 korxonalar, shu jumladan, 72 qo'shma korxonalar bor. O'zbekiston — Rossiya munosabatlari sohasida, ayniqsa, aviasozlikda avvalgi kooperatsiya aloqalari saqlanib qolgan. Rossiyaning "Gazprom" aksiyadorlik jamiyatlari birlashmasi bilan "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi o'rtasida strategik hamkorlik qilish to'g'risida hamda "O'zbekneftgaz" bilan "LUKOYL" o'rtasida mahsulotni taqsimlashga oid bayonnoma tayyorlash haqida imzolangan hujjatlar bu borada muhim voqea bo'ldi.

2022 yilda O'zbekiston va Rossiyaning iqtisodiy hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. 15 sentyabr kuni mamlakatlar rahbarlari muzokaralar davomida bir qator aniq yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishni nazarda tutuvchi keng qamrovli strategik hamkorlik to'g'risida deklaratsiya tuzdilar: siyosiy, harbiy-texnik, huquqiy, savdo-iqtisodiy, atom-energetika, mintaqalararo, transport, madaniy-gumanitar, moliya-bank sohalarida. Bundan tashqari, uchrashuv doirasida mashinasozlik, kimyo, neft-kimyo va geologiyada 4,6 milliard dollarlik investitsiya shartnomalari to'plami imzolandi. Shuningdek, Rossiya va O'zbekiston rahbarlari so'nggi yillarda ularning hamkorligi "misli ko'rilmagan darajada yuqori darajaga ko'tarilganini" ta'kidladilar.

Xalq so'zi gazetasida ham O'zbekiston Rossiya munosabatlari keng yoritilib bormoqda. [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 mart kuni Rossiyaning «LUKOYL» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, jahonning yetakchi energetik korporatsiyalaridan biri va O'zbekiston neft-gaz kompleksining muhim investor-

«LUKOYL» bilan strategik sheriklikda sezilarli rivojlanishga erishilganini alohida ta'kidladi.

Bugungi kunda kompaniyaning qo'shma loyihalarga kiritgan sarmoyalari hajmi 10 milliard dollar atrofida. Yiliga 8 milliard kub metrdan ziyod tabiiy gazni qayta ishlash quvvatiga ega Qandim gazni qayta ishlash majmuasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Janubiy-G'arbiy Hisor va Ustyurtdagi konlarni o'zlashtirish davom etmoqda. Bundan tashqari, «LUKOYL» mamlakatimizdagi ijtimoiy dasturlarni faol qo'llab-quvvatlamogda.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Kompaniyaning korporativ boshqaruv va neft-gaz tarmog'ida raqamli texnologiyalarga o'tish borasidagi tajribasi va ilg'or yechimlarini jalb etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston hududida geologiya-qidiruv sohasida hamda uglevodorod konlarini, jumladan qazib olinishi qiyin bo'lganlarini o'zlashtirish borasida kooperatsiyani mustahkamlash imkoniyatlari muhokama qilindi.

Ilmiy izlanishlar hamda energetika tarmog'i uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlik qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi''

O'zbekiston va Rossiya davlatlari o'rtasida ikki tomonlama strategik hamkorlikning qariyb o'ttiz yillik davri mobaynida nafaqat iqtisodiy hamkorlik balki boshqa sohalarda ham ko'plab shartnomalar imzolanmogda. Rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilmogda.

ADABIYOTLAR

1. uz.m.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston.
2. V. Tyurinkov. R.G'ulomov. Istiqlol yilnomasi odamlar sanalar va voqealar (1991-2001) T. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.-B. 527.
3. [http://.press.natlib.uz](http://press.natlib.uz). Xalq so'zi. 2020-yil 6-mart № 48 (7550)

**MUHAMMAD NARSHAXIYNING “BUXORO TARIXI” ASARI
SOMONIYLAR DAVRI HAQIDA MUHIM MANBA**

Komiljon Raximov,

dotsent, t.f.d., (DSc).

Asrorjon G'ulomov,

BuxDU, tarixshunoslik va manbashunoslik,

tarixiy tadqiqot usullari yo'nalishi II-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlati hayoti ayniqsa IX-X asrlardagi Buxoro haqida so'z yuritilgan Narshaxiyning Buxoro tarixi asari o'z davri uchun muhim manba hisoblanadi asar asosan nimalardan tashkil topganligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro tarixi, Narshaxiy, fors-tojik, O'rta Osiyo, qishloqlar, bog'lar, rabotlar, ko'shklar, Poykand, Quboviy, Abdulfattoh Rasulov.

Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobi Somoniylar davlatining poytaxti – Buxoro tarixiga bag'ishlagan o'ziga xos qomusiy asardir. XIII asr muallifi Sam'oniyning “Kitob-ul-ansob” asarida keltirilgan qisqagina ma'lumotga qaraganda, uning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakiriyo ibn Xattob ibn Sharik bo'lgan. Naslu nasabi Buxoro ahlidan, 899-yilda shahar yaqinidagi Narshax qishlog'ida duyoga kelgan. 959-yilda 60 yoshida vafot etgan. “Buxoro tarixi” asarini u 943-944 mobaynida arab tilida yozadi. Kitobni Samoniylar davlatining hukmdori Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni (943-954 yy.) ga bag'ishlaydi. Afsuski, “Buxoro tarixi”ning arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning faqat ancha-muncha qisqartirilib, fors-tojik tiliga ag'darilgan tarjimasigina yetib kelgan [1].

Muhammad Narshaxiyning bu kitobi asosan Buxoro tarixiga bag'ishlangan. Unda Buxoro vohasining paydo bo'lishi, ovchilik, baliqchilik va dehqonchilikning kasb etilishi, Navmichkand, Poykand, Afshona, Varaxsha, Romitan, Vardona kabi qadimiy qishloqlarning barpo bo'lishidan tortib, to Buxoro shahrining qad qztarishigacha muhim tarihiy voqealar to'g'risida hikoya qilinadi. “Buxoro tarixi”da yer-suv munosabatlari

ustida so'z yuritilganda Narshaxiy qadimgi zamondoshlari “dexqon” ya'ni qishloq hokimi”, mehnatkash ziroatchilarni “kashovarz”, ya'ni “yer haydovchi-qo'shchilar”, feodallarga qaram bo'lib qolgan qishloq aholisini “kadivar” nomlari bilan aytadi [2]. Kitobda O'rta Osiyoda arab xalifaligi hukmronligining o'rnatilishi, islom dinining tarqatilishi, otashparslik va u bilan bog'liq madaniy hayotning inqirozi hamda xalifalik zulmiga, islom diniga qarshi Movaraunnahr aholisining olib borgan shiddatli ozodlik kurashlari borasida qiziqarli ma'lumotlar keltirildi. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, Muhammad narshaxiy ham, shuningdek asar tarjimoni va muharirlari Abbu Nasr Quboviy va Muhammad Zufarlar ham O'rta Osiyoda musulmonchilik barqaror topgan davrda yashab, ijod etganlar. Shu sababli ular “Buxoro tarixi” kitobida islom mafkurasini himoya qilib, xalifalikka va dini islomga qarshi ko'targan xalq qog'olonlarini qoralab, qo'zg'olon boshliqlarini “ayyor”, “bosqinchi” va “o'g'ri” deb atab, “og'ziga tuproq”, “alayki la'nat” (“xudoning la'natiga uchrasin”) degan iboralar bilan tilga oladilar. Buxoro vohasini sug'orib, obod etgan anhorlar va ular bo'ylab qad ko'targan qishloqlar, bog'lar, rabotlar va ko'shklar to'g'risida ma'lumotlar bor [3]. Butun voqea VIII-XII asrlarda Karmana, Shopurkom, Harqonat ul-Ulyo, Xarqonrud, Ovxirfar, Somjan, Baykonrud, Farovuzi Ulyo, Komil Daymun, Avon, Kayfur, Rudi Zar kabi sug'orish tamoqlari orqali suv bilan ta'minlangan. Birgina Poykand shahri atrofida mingdan ortiq rabot bo'lgan. Shunday qilib Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobi birgina Buxoroni tarixini emas, balki butun O'rta Osiyoning tarixini o'rganishda nodir asardir. Shu boisdan ham O'rta Osiyo xalqlarning VIII-XII asrlar tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda Narshaxiy ma'lumotlari va uning ham muallifi va muharriri Quboviyning qo'shimchalari keng talqin etilishi bejiz emas.

Zamonamizdan o'n asr muqaddam yozilgan “Buxoro tarixi” kitobining uch ming nusxada 1966 yilda chopetilgan o'zbekcha nashri moziyga qiziquvchi kitobxonlar o'rtasida allaqachonlardayoq tarqalib, hozirgi kunda u bibliografik jihatdan nodir kitoblar qatoridan joy olgan [4]. Asarni fors-tojik tilidan o'zbek tiliga keksa sharqshunos ustozlardan marhum Abdulfattoh Rasulov o'g'irgan.

ADABIYOTLAR.

1. Kamoliddinov F. B. Somoniylar davri tarixini rus olimlari asarlarida o'rganilishi V.V Bartold asarlarida Somoniylar tarixini yoritilishi //Academic research in educational sciences. – 2022
2. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: “Шарқ машаълига илова”, 1993
3. То'rayev Н.Н. Бухоро тарихи: о'quv qo'llanma. -Buxoro : Durdona nashriyoti, 2020
4. Низомулмулк. Сиёсатнома. -Т.: Янги аср авлоди, 1997

XORAZMSHOHLAR HARBIY SAN'ATI VA QO'SHIN TUZILISHIDA BUXORO VA BOSHQA SHAHARLARNING TUTGAN O'RNI

Sh. Qudratov,

BuxDU, t.f.f.d.(PhD)

B. Muyiddinov,

BuxDU, tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari yo'nalishi II-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatining harbiy san'ati qanday tashkil etilgani, qo'shinning umumiy tuzilishi va rivojlanishi, yuksalishi harbiy markazlarining vujudga kelishi va unda Xorazm tarkibiga kiruvchi shaharlarning yuksak va beqiyos o'rni borligi, ayniqsa, Buxoro shahri kabi markazlarning bo'lishi va qo'shinning asosiy qurollari nimalardan iborat ekanligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazmshoh, Buxoro, harbiy, qo'shin, shaxsiy gvardiya, Takash, Alouddin Muhammad, devon al-ard, qo'rg'on, qal'a, shturm narvonlar, shamshir, nayza, o'q-yoy, cho'qmor .

XII-XIII asrlarga kelib xorazmshohlarning asosiy harbiy kuchini yollanma va ittifoqchi turkiy harbiy qismlar-asosan xorazmshohlar saroyi bilan quda-andachilik munosabatlari o'rnatgan qabila boshliqlari va ular mansub bo'lgan qang'li va turkman qabilalari tashkil etadi [1]. Butun XII asr mobaynida Xorazmshohlar mana shu qabila aristokratiyasidan doimiy suratda o'zlariga xotin olganlar. Shunisi e'tiborga loyiqki,

Xorazm hukmdori qadimgi xorazmiy unvoni bo'lgan “xorazmshoh” va arabcha - “sulton” deb atalsa, xorazmshohning birinchi xotini Turkiy unvon “xotun” nomi bilan mashhur bo'lgan. Saljuqiylardan mustaqil ajralib chiqish uchun kurashning boshlanishidan tortib to davlatning tanazzul topishiga qadar xorazmshohlar muntazam qo'shinga ega bo'lganlar va uni to'ldirish, qurol-aslaha bilan ta'minlash ularning asosiy tashvishi bo'lib kelgan. Xorazmshohlar qo'shini yaxshi ta'lim olgan, turli qurol-yarog'lar bilan qurollangan. Uning sarkardalari esa harbiy harakatlar paytida bir necha bor jasorat va tajribali ekanliklarini namoyish etganlar. Davlat barpo etilayotgan davrda xorazmshohlar to'plagan qo'shin jangari turkiy qavmlardan tashkil topgan. Harbiy bo'linmalar va qismlar qabilaviy belgiga ko'ra shakllangan. Hatto davlat ravnaq topgan paytda ham, qachonki qo'shinga boshqa qabila va xalqlarning vakillari olinadigan bo'lganda ham turkiy qabilalar asosiy va bosh zarbdor kuchni tashkil qilganlar [2]. Manbalarning xabar berishicha, xorazmshohlar saltanatda umumiy majburiy harbiy ta'lim tizimini joriy etganlar.

Xorazmshohlarning muntazam qismlardan tashqari shaxsiy gvardiyasi (xaros) ham bo'lib, u mamluklardan tarkib topgan. Bunday gvardiyani ilk bor xorazmshoh Takash joriy qilgan. Alouddin Muhammadning bunday qismi tarkibida 10 ming kishi bo'lgan. Xarosdan xorazmshoh va uning xonadonini qo'riqlash, jazo ekspeditsiyasi sifatida, savdo karvonlarini qo'riqlash maqsadlarida foydalanilgan.

Jangovar harakatlar boshlanishi bilan xorazmshohlar xalq lashkarligiga aholi safarbarligini e'lon qilganlar, lekin yurish paytida bu lashkarlar hech qanday maosh olmasdan, talonchilik hisobiga yashaganlar. Davlat qo'shin boshqaruvining oliy organi devon al-ard bo'lib, bu devonga sohib devon al-ard rahbarlik qilgan. Manbalardan birida butun davlatning qo'shin boshqaruvining bosh organi devon parzdor jumla-i mamolik deb nomlangan. Eng yirik viloyatlarda, shuningdek mahalliy qo'shin boshqaruv organlari ham mavjud bo'lgan. Oddiy qurol-yarog'lar-shamshir, nayza, o'q-yoy, cho'qmor va kalta nayzalardan boshqa xorazmshohlar qo'shinini katapultalar (manjaniq), qamal mashinalar (dabbobat), “toshbaqalar”, ya'ni harakatchan minoralar, taranlar va shturm narvonlari (salolim) bo'lgan [3]. Xorazmshohlar qo'rg'on va qal'alar qurish va

ularni mustahkamlashga katta e'tibor berganlar. Ishtaxr, Ashkanavon va Ilol qal'alari eng mustahkam qal'alardan bo'lgan. Qal'adagi qo'shinga mustahfizlar qo'mondonlik qilganlar. Xorazmshohlar davlatida mirshablik va jazolash vazifalarini shihnalari o'z harbiy qismlari bilan amalga oshirganlar. Jand shimoliy askariy, harbiy faoliyatlari uchun eng muhim bazadir. Samarqand va Buxoro ham bazalar orasidadir [4].

ADABIYOTLAR.

1. Ҳасанов.Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018
2. А.И.То'rayev, F.F.Ахроров, М.М.Раҳматов. О'zbekiston davlat muassasalari tarixi. – В.: “Durdona”, 2019
3. Бобоев.Ҳ. Хидиров.З. Шодиев.Ж. Аҳмедова.М. Ўзбек давлатчилиги тарихи. II китоб. - Т.: 2009
4. ИБН АЛ-АСИР. Ал-камил фи-т-та'рих. (ПОЛНЫЙ СВОД ИСТОРИИ). Т.: Цюрих, 2005

O.A.SUXAREVA ESDALIKLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY HAYOT TALQINI

F.I.Ergashov,

BuxDU, tarixshunoslik va manbashunoslik,

tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligining ijtimoiy hayoti haqida XX-asrda olib borilgan tadqiqotlar va ularning tarixiy tahlili haqida fikr yuritiladi. Bunda O.A.Suxareva hamda unda ko'makdosh tadqiqotchilar o'zlarining tadqiqot ishlarini olib borib ,shu asosida ilmiy xulosalarini berib o'tadilar.

Kalit so'zlar: O.A. Suxareva, S.Ayniy, Fenin, topograf, kvartal, reja, tipografiya, rextagar, metal quyuvchi, ekspditsiya.

Buxoro shahri bilan bog'liq tadqiqotlarda O.A.Suxareva asosiy rol o'ynasa, o'z navbatida Suxarevaning ilmiy izlanishlarida” M.S Andreyev” [1] ning hissasi kattadir. Ular 1947- yilda Buxoroga keladilar. Buxoro bilan bog'liq ishlar o'n besh yil davom etgan."Shahar atrof-muhitining ichki tuzilishi bugungi kungacha sharq

tarixshunosligining noaniq , kam o'rganilgan muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [2] deb ta'kidlagan Y. Yakubovskiy bu sohada samarali ishlagan va uning topografik mohiyatini bergan .Shunga qaramay 1951- yilda shaharlar asosan formal tarzda o'rganilganligini ta'kidlab o'tishga majbur bo'lgan. Bu esa tadqiqotchilarni O'rta Osiyoning tarixiy shaharlarini o'rganish masalalariga olib keldi.Bundan tashqari Buxoro shahri haqidagi ma'lumotlarni 1858- gilda Ignatyev tomonidan nashr qilingan Buxoroda qolib ketgan 6 nafar rus asirlarining hikoyalari orqali ham qimmatli ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Xanikov Buxoroga kelib o'zidan oldingi olimlarning asarlarini o'rganadi. Aleksandr Leman nemis tilida yozilgan asarida ma'lumotlar berib o'tadi va madrasa, ta'lim tizimi ,to'y marosimlari haqida yozadi.Buxoro madrasalarida uzoq yillar tahsil olgan S.Ayniy yozishicha "Shaharda yuztagacha katta madrasalar va bir xil miqdordagi kichik madrasalar bo'lgan" [3]. XIX -o'rtalaridan Buxoroga oid ma'lumotlarni umumlashtirish zarurati tu'gildi.1835- yilda P.Savelyev boshlagan ishni V.Zavyalov davom ettirgan va ikkita batafsil maqola yozgan.Tadqiqotchilardan T.Poslavskiy Buxoro shahrining rejasini bayon etgan. Bu reja kapitan Fenin rahbarligida harbiy topograf Parfyonov tomonidan tuzilgan va "Fenin" nomi bilan ilmiy muomalaga kiritilgan.

XXX asr Buxoro shahri tarixiga oid tadqiqotlarni tahlil qilib, bundan xulosa qiladigan bo'lsak, tadqiqotlarda asosan Buxoro shahridagi mahalliy aholining hayoti, faoliyati, mashg'ulotlari, umuman olganda etnografik va xo'jalik hayoti o'rganilganligini ko'rib o'tsak bo'ladi. Xulosa qilib aytganda Buxoro shahri tarixini o'rganishda bu davr manbalari muhim o'rin tutadi.

O.A.Suxarevaning keyingi tadqiqotlari O'rta Osiyodagi so'nggi o'rta asrlar shaharlari va hunarmanchilik turlari bilan bog'liq bo'ldi. O.A.Suxarevaning keyingi tadqiqotlari O'rta Osiyodagi so'nggi o'rta asrlar shaharlari va hunarmanchilik turlari bilan bog'liq bo'ldi. U bu sohadagi ishlarni 1940 yildan boshlagan edi, O'rta Osiyo Davlat Universiteti M.S.Andreev qo'l ostidagi ekspeditsiya bilan Buxoroni tarixiy – etnografik jihatdan o'rganish urush tufayli to'xtab qolgan edi. Qadimiy

shahardagi ko'p yillik mehnat, aholi va turli xil kvartallarni o'rganish, katta yoshli kishilar bilan suhbatlashish orqali – hunarmandchilik va va boshqa aholi guruhlari to'g'risida, shaharning tipografiyasi, tarixiy asarlar, shuningdek, boshqa sayyohlik ma'lumotlari natijasida o'zining materiallarini ancha boyitadi. Uzoq mehnat natijasida O.A.Suxareva O'rta Osiyodagi so'nggi o'rta asrlar shaharlari haqida tarixiy asar yaratdi.

Amirlik aholisini kichik qismini arablar tashkil qilib, ular asosan Qarshi va Sherobod hududlarida yashagan. Shuningdek, Buxoro amirligi hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmoqlar yashagan. Qalmoqlar Buxoro shahrida, qoraqalpoqlar esa Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qozoqlar esa Buxoro amirligining shimoli–sharqida, oz miqdorda Rossiya fuqaroligiga mansub bo'lgan, asosan savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lgan tatarlar ham yashaganlar. Buxorodagi amir va amaldorlarning ilmsizligi, boylikka ruju qo'yib, faqat o'zini o'ylashi to'g'risida quyidagi fikrlar mavjud: Buxoro saltanatining ravnaqi mashhur, lekin siyosati yo'qdir. Vaholanki, podshohlar siyosat ilmini bilishlari lozim bo'lgan. Dushmanga qarshi siyosat qilish bilan birga odamlarning hayotini saqlab qolish darkor. Ming afsus! Davlatimizda askar-u qurol boru, ammo bu askarda siyosat va jasorat yo'q! Siyosiy hokimlarimiz siyosat tartibidan bebaxradirlar." Darhaqiqat, aynan shu ilmsizlik, siyosiy fanlarni bilmaslik oqibatida Buxoro Sho'ro davlati tobeligiga o'tdi, yillar davomida avom xalqning mehnati asosida yig'ilgan boylik o'zgalarga nasib etdi.

O.A.Suxareva esdaliklarida Buxoro shahri aholisining mashg'ulotlari haqida ham malumotlar berib o'tiladi. XX- asr boshlarida metall quyuvchilar asosan plug ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Buxoroda taxminan hunarmandchilikning yuzga yaqin tarmoqlari bo'lgan. Hunarmandlar metallga, teriga ishlov berish, kiyim tayyorlash, turli qurilish ishlarini amalga oshirishgan. Buxoro shahrining o'zida 7 ta degrezlik ustaxonalari mavjud bo'lgan. XIX- asr oxiri XX-asr boshlarida Buxoroda 40-50 ta rextagarlar bo'lgan. Rextagarlar tomonidan zambarak qismlari va qurollar tayyorlangan.

ADABIYOTLAR

1. О.А.Сухарева "Бухара XIX-начало XX-в Позднефеодальный город и его население"М.1966.С.19-21;
2. А.Ю.Якубовский, Главные вопросы изучения истории городов Средней Азии,-"Труды Тадж.филиала АН СССР ,"[Душанбе],т.29,1951,стр 4.
3. С.Айни Марги Судхур [Душанбе] ,1953,стр ,1.
4. С.П.Толстов "Древний Хоразм".М,1949,стр 285.
- 5.СухареваО.А.КвартальнаяобщинапозднефеодальногогородаБухары. Москва:Наука,1976.–367с.

ABU ZAYD MUHAMMAD IBN XALDUN NODIR TARIXSHUNOS OLIM

A.T.Qayumova,

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi,

falsafa kafedراسи dotsenti

Jahonda buyuk mutafakkirlar ma'naviy merosini chuqur o'rganish va hayotga tadbiq etish masalalari innovatsion taraqqiyotning nazariy-metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Jumladan, Sharq xalqlarining buyuk mutafakkiri Ibn Xaldunning bosib o'tgan hayot yo'li, ma'naviy merosi, ijtimoiy gumanistik g'oyalarini amaliy faoliyatga joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yangilanayotgan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan mavjud konstruktiv tendensiyalarni takomillashtirish, ilm, axloq va ma'rifatni egallagan shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri hisoblanadi.

Ibn Xaldunning ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi gumanitar fanlar oldidagi xizmati o'z davri ijtimoiy hayotini xarakterlovchi asosiy tendensiyalarni o'rganish zarurligi g'oyasini asoslab bergani bilan xarakterlanadi. Uning ijtimoiy fanlar, xususan tarix ilmi orqali hayotdagi murakkab jarayonlarni o'rganish masalasida bildirgan fikri diqqatga sazovor. Mutafakkir tarixiy jarayonlardagi barcha o'zgarishlarni tizimli o'rganish muhim, deb hisoblaydi. U o'zidan avvalgi tarixchilarni voqelikdagi o'zgarishlarga sabab bo'luvchi ob'yektiv va sub'yektiv jihatlarni hisobga olmay, ijtimoiy hodisalarni baholashda xolis yondashmaganlikda ayblagan. Uning fikricha, ijtimoiy jarayonlarni tasnif etuvchi olim, muayyan kishi ismlari, ularning mol-mulki,

hukumatdagi mavqeini sanab o'tish bilangina chegaralanishi mumkin emas. Aksincha, har qanday tadqiqotchi muhim tarixiy jarayonlar tahlilida xolis bo'lish uchun muayyan davlatning taraqqiyot bosqichiga asosiy e'tiborini qaratishi shart, deb hisoblagan.

Tarix - bu shunday ilmlar sirasiga kiradiki, — deydi Ibn Xaldun, uni xalqlar va qabilalar bir birlaridan o'rganib, uni tarqatishga harakat qiladilar, uni oddiy fuqarodan totib, tujjorlargacha qiziqib o'qiydilar, uni egallashda hukmdorlar va sarkardalar bellashadilar, uni tushunishda olimlar va johillar tenglashishga harakat qilganlar. “Zohiriy jihatdan esa tarix, bu — rivoyat, afsona va maqollarda aks etgan voqea-hodisalar, davlatlarning o'tmish avlodlari haqidagi muhim ma'lumotlardir. Odamlar jamoa bo'lishib, bu ma'lumotlar bilan bir-birlariga insonlarning qilgan ishlaridan, ularning yashash tarzlarining o'zgarib turishidan, davlatlar, chegaralari va faoliyat doiralari kengayishidan, odamlarning yerda hayot qurib, umrlarining oxiriga qadar yashashlaridan xabar berganlar. Botiniy jihatdan esa, tarix bu - tadqiqot, haqiqatni tiklash, jamiyati narsalarning asosi va ibtidosini aniqlash, hodisalar mohiyatini o'rganishdir” . [1]

Shuning uchun mutafakkir tarixni ijtimoiy fanlarning asosi sifatida munosib o'rin olishini qat'iy ta'kidlagan. Ibn Xaldun yetuk musulmon muarrixlari ahamiyatga molik bo'lgan voqea hodisalarni jamlab, kitoblarga yozib qoldirganini bayon qilishda tarix bilan yuzaki shug'ullanuvchi olimlar esa bu voqealarga afsonalarni qo'shib, o'zlarining tasavvur va g'oyalariga erk berib, ularni yolg'on xabarlariga aylantirib qo'yganlikda ayblagan. Natijada bunday larning izdoshlari izidan borib, ularga taqlid qilishadi. Ular faqat eshitganlarini yozib, voqea va shart-sharoitlarning sabablariga e'tibor berishmaydi, dalillar izlab topishga harakat ham qilishmaydi , - deb qayd etgan Ibn Xaldun. [2] U xalq hayotidagi voqeliklar va transformasiyalashuv jarayonlarni tasniflab, ulardagi muhimlik va ahamiyatiga ko'ra, uni tartiblashtirib ko'rsatishga intilgan. Xususan, kishilarning qishloqdan shahar hayotiga o'tishi; oiladagi avlodning to'rt marotaba almashinuvi; davlatning vujudga kelishi va uning taraqqiyoti; xalifalikning podshohlikka evolyusion tarzda o'tishi va boshqaruvning transformasiyalashuvi kabilardir.

Mutafakkir tarixiy o'zgarishlarning o'ziga xos takrorlanuvchanlik xususiyatini ilmiy asoslab, yangilik hamma vaqt o'zida eskilik unsurlarini saqlab qoladi deb hisoblaydi. O'zgarishlarning qaysi yo'nalishda bo'lib o'tishi, bo'layotgan voqea hodisalar tabiati bilan aniqlanadi. Ibn Xaldun "hodisalar tabiati" deganda ularning ichki amal qilish qonuniyatlarini nazarda tutgan. O'rta asr ilohiyotchilarining fikricha, olamda Allohning erkin irodasi hukmronlik qiladi. U o'z xohish va istagiga muvofiq voqeliklar yo'nalishi va jarayonlarni hodisalar yo'nalishini o'zgartiradi. Ibn Xaldun fikricha, tarixiy rivojlanishlar mazmun mohiyatini davrga xos bo'lgan ichki va tashqi omillar harakatlari belgilaydi. O'z navbatida, tarixiy rivojlanishlar umumiy va tabiiy qonuniyatlar, uning sababi va tamoyillariga bo'ysunadi.

Ibn Xaldunning tarixga doir ijtimoiy ta'limotining sosiologik mohiyati quyidagilardan iborat:

- 1) Har bir narsa tarixda o'z ichki amal qilish qonuniyatlariga asoslanib, barcha davrlar tarixi o'ziga xos odatdagi tabiatiga ega;
- 2) Hodisalar rivoji muayyan belgilangan tartiblar va tamoyillarga bo'ysunadi;
- 3) Hodisalar ketma-ketligida o'zaro mantiqiy bog'liqlik amal qiladi va ular sabab-oqibat zaruriyatidan kelib chiqadi.

Tabiat ustidan hukmronlik qilish mazkur qonuniyatning o'zagini tashkil etadi. Muxtasar qilib aytganda, Ibn Xaldun qarashlarida tabiat ustidan hukmronlik qilish g'oyasi ustuvor hisoblanadi. "Butun olamda, - deydi u, qattiq va qat'iy tartib hukmronlik qiladi. Ularning bari, bir zanjirga tizilgan, xuddi sabab va oqibat singari"[3]. Mutafakkir ta'limotida o'z davrining ijtimoiy hayoti, kishilik jamiyatining kelib chiqishi, uning taraqqiyot qonuniyatlari, insoniyatning oddiy holatdan, murakkab sharoitga o'tishi kabi masalalar tahlili muhim o'rin tutgan.

ADABIYOTLAR

ابن خلدون. المقدمة. الدار البيغاء. مصر. 1912 م. ص.

ابن خلدون. المقدمة. الدار البيغاء. مصر. 1912 م. ص.

شفاء السائل وتهذيب المسائل. دار الفكر المعاصر. بيروت. الطبعة الأولى. 1996 م. ص. 67.

شفاء السائل وتهذيب المسائل. دار الفكر المعاصر. بيروت. الطبعة الأولى. 1996م. ص. 68.

Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна "Мукаддима", –М.: Наука, 1965. –С. 134

Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. – Б. 39.

MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING TABIBLIK FAOLIYATI

Himmatov Ro`zi Sirojiddin o`g`li,

BuxDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari

mutaxassisligi magistranti 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur Buxorolik ma`rifatparvar, sayyoh va tabib Mirzo Sirojiddin Hakimning tabibchilik faoliyati haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: Mirzo Siroj, tabib, Buxoro, Yevropa, Eron, Buxoroi Sharif, Turon, Oyna, jurnalistika.

Mirzo Siroj Hakim, Hoji Mirzo Aburaufning o`g`li, hijriy 1294 (1877) yili Buxoroda savdogar va sarrof oilasida tug`ilgan. Yozuvchining ismi – Sirojiddin, Mirzo – oilaviy laqabi, Hakim – shifokorlik kasbidan dalolat beradi. Mirzo Siroj Hakim bolalik yillarini ona yurtida o`tkazgan, u yerda an`anaviy boshlang`ich ta`lim olgan. O`qish bilan birga paxta oldi-sotdisi bilan ham shug`ullangan. Keyinchalik, yosh savdogarni 1902 yilda qilgan Evropaga sayohat qilish istagi paydo bo'ladi.[1]

Mirzo Siroj Hakim Buxoroni uch marta tark etgan. 1902-yil 5-iyun kuni ilk bor uzoq safarga otlanadi va bu safar dengiz orqali Turkmaniston, Kavkaz va Turkiya orqali Yevropa qirg`oqlariga yetib boradi. Mirzo Siroj Hakim Sofiya, Belgrad, Budapesht, Vena, Berlin, Parij, London, Varshava kabi yirik shaharlarda bo`ldi. Tojik adibining safarining navbatdagi nuqtasi Moskva bo`lib, u yerdan 1903 yilning yanvarida o`z ona shahri Buxoroga qaytib keladi. Aynan shu Yevropa safari Mirzo Siroj Hakimda katta taassurot qoldirdi, uning dunyoqarashida inqilob qildi.

Yozuvchining ikkinchi sayohati 1903 yilning fevraliga to`g`ri keladi. Bu safar uning yo`li Xuroson shaharlari: Qudjak, Mashhad, Nishopurdan o`tadi. Keyin Mirzo

Siroj Hakim yetti oy Sabzavorda qoladi. 1905 yil 16 iyunda Afg'oniston amirining tavsiyanomasi bilan Buxoroga qaytib keldi. Qaytish yo'lida Mirzo Siroj Hakim Mozori Sharif, Termiz, Chorjou shaharlaridan o'tib, mahalliy aholi turmush tarzi bilan katta qiziqish bilan tanishadi. Uyda qolish yozuvchiga xotirjamlik keltirmaydi. Buxoroga qaytib kelganidan bir oy o'tgach, u Afg'oniston amiri Habibullaxon atrofidagi savdogarlar aybi bilan avj olgan mojaroga aralashdi. Ta'qiblar natijasida Mirzo Siroj Hakim Buxoroni tark etib, besh yil davom etgan uchinchi va oxirgi safarini amalga oshiradi. Yozuvchi umrining so'nggi yillarini (1910-1914) o'z ona shahri Buxoroda o'tkazadi. Mirzo Siroj Hakim 1914 yil 17 yanvarda 37 yoshida sil kasalligidan vafot etdi.

Sayohatlari davomida Mirzo Siroj Yevropa davlatlaridagi ko'plab kasalxonalariga tashrif buyuradi. Kasalxonalardagi sharoitlar va ulardagi zamonaviy davolash usullari haqida yozib qoldirgan. Masalan Mirzo Sirojiddin Germaniya kasalxonalari xushhavo maskan, ixtisoslashgan binolarda joylashgani va sanitar holatiga ijobiy baho berib, u yerlarda davolanayotgan bemorlar doktor va ularning muolajalarisiz ham 10 kun ichida tuzalib ketadi, deb yozadi. Germaniyadan keyin Frantsiyaning Parij shahriga borib, Fransiyadagi Hotel Debu nomli kasalxonasiga ta'rif berib, u yerdagi mohir va mashhur vrachlarning faoliyatini zikr etib, umumiy hisobda Fransiyada o'sha davrda 40 mingdan ziyod kuchli, malakali mutaxassislar turli kasalxonalarda faoliyat yuritganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi. Buxoroda zamonaviy tibbiyotning mavjud emasligi, gigiyena qoidalariga amal qilinmaslik, quruq, issiq, zararli ob-havo, ekologik muammolarni bartaraf etishga e'tiborning mavjud emasligi, shu tufayli rishta (teri osti qurtlashi), mollariya, chechak, zahm, ichki kasalliklar avj olgan. Har yili ushbu yuqumli kasalliklardan ming - minglab kishilar hayotdan ko'z yumardi. Mirzo Siroj Buxoro shahrining Chelangari mahallasida birinchi zamonaviy kasalxona ochib, unda Yevropa uslubi bilan me'da, rishta, bezgak kasalliklarini davolay boshladi. Mazkur shifoxona huzurida dorixona (apteka) tashkil etilganligi kasalga tashxis qo'yish orqali ritsept bilan dori tarqatish tartibi joriy etildi. Umuman bu kasalxona kecha-yu- kunduz ishlardi. Kambag'allar tekin davolanishgan.

Mirzo Sirojiddin Buxoro xalqi orasida keng tarqalgan rishta kasalligini be'morlarning teri ostidan qurtlarni sug'urib olib yo'qotish orqali davolash usulini kashf etdi. "Buxoroyi sharif"da boshlangan xabarlardan birida, uning say-harakatlari bilan 300 nafar bemor rishtadan qutulganligi haqida ma'lumot keltirilgandi. Shuningdek, davolash ishlari ham insonparvarlik tamoyili ostida bajarilar, o'ziga to'q insonlar tanasidan har bir nobud qilingan rishta uchun 5 tanga, o'rta hol insonlardan 2,5 tanga olishardi. Kambag'al beva- bechoralardan va yetim-yesirlardan bir tanga ham olishmas, ya'ni ularni tekin davolashardi.[2]

Mirzo Sirojiddin Hakim "Buxoroyi sharif"da qirqqa yaqin maqolalarini tabobat va tibbiyot tarixiga bag'ishladi. Uning "Meda va ichak kasalliklari va ularning oldini olish tadbirlari" (Buxoroyi sharif , 13- son 1912- yil 26- mart), "Sil kasali va uni davolash usullari to'g'risida" (O'sha gazeta, 17, 20, 57- sonlari), " Sog'liqni saqlash" (O'sha gazeta, 48-sonli) , " Bir oz faoliyat lozim" (O'sha gazeta, 100-son) , " Kasalliklarning kelib chiqishi " (O'sha gazeta, 90- son) kabi maqolalari hakimlik sohasida boy ilm va tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi . Olim kasalliklarning asosiy qismi ichimlik suvi va oziq-ovqat iste'molidagi tartibsizlikdan kelib chiqishida deb hisoblaydi. "Suv bir joyda uzoq qolib ketsa , ifloslanadi va unga tirik jonivorlar (bakteriyalar) mikroblar paydo bo'lib , kasallikni keltirib chiqaradi. Havoning iflosligi ham mikroblar paydo bo'lishini taminlaydi. Bu mikroblar ovqatlanganda, suv ichayotganda havodan qo'shilib, meda va o'pkaga boradi va aholini kasallantiradi. Binobarin, g'o'layi ohani (temir quvur) orqali har manzil- makonga vodoprovod (favvora) o'tkazib, pokiza suvlarni yetkazib, nazorat qilish kerak" – deb yozadi hakim " Sog'liqni saqlash" maqolasida [3] .

Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy ma'naviy merosi va faoliyatini o'rganib, tegishli ilmiy xulosalarga kelish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Inoyatov.S Matbuotchi, Tabib va jahongashta sayyoh// Buxoronoma. 50 son.- Buxoro, 2020 4 bet.

2. Қажумов.Т. Мирзо Сирожиддин Ҳаким- Бухоролик тараққийпарвар ва табобат донишманди// Бухоро тарихи масалалари(энг қадимги замонлардан ҳозиргача) мавзуидаги илмий-амалий(онлайн) конференция материаллари.- Бухоро- 2016- Б. 64-67.

3. О'zbekiston tarixi . Xrestomatiya . – 4-jild) 1860-1917 - yillar) .- Т. “Navro'z”

4. Мирзо Сирочи Ҳаким. Тухафи ахли Бухоро (мураттиб ва муаллифони сарсухану лугатнома С.Соледов, М.Мирзоев). -Душанбе: Адиб. 1992.

5. D.Jamolova. Ahmad Donishning vorisi// Tafakkur. 2 son-Toshkent, 2018- 86-87 betlar.

6. Низомиддинов И. Саёҳдарнинг ёзганлари. Тошкент,1960. 2014- yil. (Mas'ul muharrir va loyiha rahbari tarix fanlar doktori, professor D. H. Ziyayeva).

70220401 – ARXELOGIYA

BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI

Akmal Bobohusenov,

BuxDU, Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Baqtriya hududidagi bronza davri yodgorliklari ancha chuqur o'rganilgan va tahlil qilingan.Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston hududining bronza davrini o'rganilishida juda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Murg'ob vohasi, mikrovoha, Tikar, Oltintepa, Nomozgoh madaniyat, Marg'iyona , Baqtriya, dashli madaniyati,

Qadimgi Baqtriya Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston va Janubi-g'arbiy Tojikiston hududlaridan tashkil topgan. Janubiy va Shimoliy Baqtriya hududlaida bronza davrida o'troq dehqonchilikga asoslangan Dashtli-Sopolli madaniyatlari, Janubi-g'arbiy Tojikistonda dasht bronzasiga xos Beshkent-Vaxsh madaniyatlar faoliyat yuritgan.

Baqtriyaning bronza davri o'troq dehqonchilik madaniyati ildizlarini V.M.Masson Janubiy Turkmanistonning rivojlangan bronza davri arxeologik majmuasi

migratsiyasi bilan bog'laydi. Ob-havoning quruqlashishi natijasida bu erda yuksak darajada rivojlangan ilk shahar turidagi Oltintepa, Nomozgoh madaniyat markazlari inqirozga uchragandan so'ng mil. avv. II ming yillikning boshlarida (mil. avv. 1800 yil) aholi o'z joylarini tashlab, Marg'iyona va Baqtriya hududlariga ko'chib kelib joylashganligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan edi.

V.I.Sarianidi esa Murg'ob vohasining bronza davri madaniyatida Janubiy Anatoliya va Shimoliy Suriya hududlari bilan o'xshashligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan. Uning fikriga qaraganda mil. avv. IV ming yillikning oxirida O'rta yer dengizining shimoli-sharqiy qismidan Eron tog'lariga qadar cho'zilgan keng hududlarda yog'ingarchilik miqdori keskin pasayib, qurg'oqchil iqlim sharoiti qaror topadi. Bunday ekologik sharoit Anatoliya va Shimoliy Suriyada yashagan aholi hayotiga jiddiy ta'sir qilgan.

Iqlimning buzilishi O'rta yerdagi vohasida taraqqiy etgan madaniyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib, u yerda yashagan aholi sharqiy o'lkalarga ko'chishga majbur bo'lishgan. Yangi yerlarni ishlash harakatida aholisining asosiy qismi Murg'ob vohasiga, bir qismi esa Surxon va Balxob vohalariga kelib joylashadi. Qolgan qismi esa sharqqa tomon yurishni davom ettirib, Sharqiy Turkiston hududigacha borgan.

Dashli-Sopolli madaniyatlari bronza davri manzilgozlari ham Murg'ob vohasidagi kabi kichik daryo vohalaridan iborat mikrovohalardan tashkil topgan. Har ikkala hududda tog'lardan boshlanadigan kichik muvaqqat daryolar o'zanlarida joylashgan o'troq dehqonchilik qishloqlari alohida mikrovohani tashkil etgan. Mikrovohalar cho'l, dasht va tog'lar orqali chegaralanib, alohida xo'jalik tuzilmasini tashkil etgan.

Janubiy Baqtriya Davlatobod, Farruxobod, Dashtli va Nichkin hududiy dehqonchilik vohalari mavjud bo'lib, bu erga ko'chib kelgan aholi tabiiy sug'orishga qulay bo'lgan joylarga o'rtnashgan. Janubiy Baqtriya arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan arxeolog olim V.I.Sarianidi janubi-g'arbiy Afg'onistonning so'nggi bronza davriga oid arxeologiya yodgorliklarini Tikar va Girday bosqichlarida faoliyat yuritganligini qayd etgan.

Davlatobod mikrovohasida joylashgan Tikar 1,2,3 Tikar 4 (Girdaytepa), Dashli mikrovohasidagi Dashtli 3, yodgorliklari yaxshi o'rganilgan. Davlatobod mikrovohasidagi yodgorliklarning maydoni 0,4-1,0 ga. ni tashkil etadi. Tikar 4 yodgorligida (100x95 m.) mudofaa devori va to'rt burchagida burjlari mavjud.

Janubiy Baqtriyaning bronza davri manzilgohlari Afg'onistonning shimoli-g'arbiy hududida tarqalgan bo'lib, ulardan eng yirigi Dashli 3 yodgorligi hisoblanadi. Manzilgoh ibodatxona va saroy-ibodatxona majmualaridan tashkil topgan. Ushbu yodgorlik o'zida diniy boshqaruv tizimini aks ettirib, mazkur hududning markazi bo'lgan.

Surxon vohasi issiq iqlimli o'lka bo'lib, shimol, shimoli-g'arb va sharqda Hisor, Qo'hitog', Bobotog', janubda Amudaryo bilan chegaralangan. Bu o'lkada bronza davrida faoliyat yuritgan Sopolli madaniyati dehqon jamoasi sug'orma dehqonchilik xo'jaligini yuritish uchun qulay bo'lgan kichik daryo atrofidagi erlarni o'zlashtirgan. Birinchidan, bu o'z davri dehqon jamoasining texnik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan chorvachilik xo'jaligini yuritish uchun tog' oldi hududlari yaylov hisoblangan.

A.Asqarov Sopolli madaniyatiga oid yodgorliklar tarqalgan hudularning uchta - SHerobod, Bandixon va SHO'rchi mikrovoahalarini ajratib ko'rsatgan. A.S.Sagdullaev esa Muzrobod, SHerobod, Bandixon va Mirshodi mikrovoahalariga ajratadi. E.V.Rtvedze Hisor mikrovohasi ham faoliyat yuritganligini e'tirof etgan.

Sopolli bosqichiga yodgorlik Ulanbuloqsoy hududida joylashgan Sopolli yodgorlik hisoblanadi. Keyinchalik Surxon vohasi bronza davrida tarqalgan madaniyati mana shu yodgorlik nomi bilan atalgan. Umumiy maydoni 4 ga. ega bo'lgan yodgorlik uch qator mudofaa devori bilan o'rab olingan. A.A.Asqarov cho'l o'zlashtirish davrida tekscanib ketgan Kultepa va Kichiktepa yodgorliklarini qayd etib, ularning o'rnida sopol parchalari, hayvon suyaklari va kul qatlamlarini aniqlagan.

ADABIYOTLAR

1. Сарианида В. И. Древние земледельцы Афганистана

2. Аскарлов А.А. Древнземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Т.,Фан, 1977.

3.Сагдуллаев А.С. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа: Автореф. дис. ...канд. ист. наук. Л., 1978, -С.31-33.

4.Археология зарубежной Азии. М., “Высшая школа”, 1986, -С.127.

5. Дяконов М.М. У истоков древней культуры Таджикистана. -Сталинабад, 1956 -С. 22.

6. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: Проблемы истории и культуры. -М., 1977. -С.38.

7.Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольских нашествий. Соч. Т.1. -М., 1963. -С. 192

SARMISHSOY QOYATOSH SURATLARINING ISHLANISH TEXNIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nozima Shomurodova,

BuxDU, Arxeologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Sarmishsoy suratlari qanchalik chiroyli ishlangan bo‘lsa-da, qoyatosh suratlarining ishlanish texnikasi va tasviriga o‘xshash suratlar Farg‘ona hamda O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida ham uchraydi. Bu o‘xshashlik qadimgi davr aholisining etnomadaniy aloqalarining natijasi, deb ta’kidlasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlari: Petrogliflar, Chotqol, Ko‘hitangtog‘, urib cho‘kichlash, tabiiy bo‘yoq, sxematik, soya – kontur, naqshdor – bezakli.

O‘zbekistonning tog‘ tizmasi hududida keng tarqalgan qoyatosh rasmlarining ishlanish texnikasini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, rasmlarning ishlanish texnikasini o‘rganmay turib, ularning uslub xususiyatlari va xronologik chegarasi haqida so‘z yuritish mushkuldir.

Bu hudud qoyatosh rasmlari yodgorliklaridagi tasvirlar o‘zlarining ishlanish xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1-guruhga: Tosh, jez, temir, po‘lat, yoki boshqa xildagi qattiq buyumlar yordamida o‘yish, urib-cho‘kichlash, chizish, tirnash va ishqalash vositasi natijasida ishlangan

rasmlar. Bunday uslubda ishlangan rasmlar arxeologlar tilida petrogliflar, ya'ni toshlarga ishlangan rasmlar deb ataladi.

Petrogliflar respublikamiz hududida joylashgan deyarli barcha tog' tizmalari qoyatoshlarida uchraydi. Bunday tizmalarga Qorjontog', Chotqol, Pskom, Ugom, Qotrontog', Morguzar, Nurota, Oqtog', Qoratog', Ko'hitangtog', Zirabuloq, Bukantog' va boshqa shu kabi tog' tizmalarini kiritish mumkin.

2-guruhga: Tabiiy bo'yoq - qizil yoki qo'ng'ir oxra-bo'yoq bilan chizilgan rangli tasvirlar. Bo'yoq bilan ishlangan rasmlar Nurota tizmasi tog'laridagi Sangijumansoy, Oqsoqolotasoy hamda **Xolmatov A.N.** tomonidan aniqlangan

Beklarsoy va Olmalisoy yodgorliklarida uchraydi [1].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, rangli rasmlarning ishlanish texnikasi u qadar murakkab emas. Ular parranda patlari, oddiy cho'p, qamish parchasi va boshqa narsalar yordamida chizilgan bo'lishi mumkin. Ammo, qoyatoshlarga urib-cho'kichlab tushirilgan rasmlarning ishlanish texnikasi ancha murakkabdir. Petrogliflar o'yish, urib-cho'kichlash, chizish, ishqalash va tirnash texnikalari asosida bajarilgan.

Qoyatosh rasmlarining ishlanish texnikasini amaliy jihatdan o'rganish qadimiy tasvirlarning chizilgan davrini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday dastlabki amaliy tajriba 1972-yil arxeologlar T. Mirsaatov va J. Kabirovlar tomonidan Sarmishsoy qoyatosh yodgorligining Yiqilgan daryo qismida amalga oshirilgan. Tajriba uchun uchlari uchburchak, to'rtburchak shaklda o'tkirlangan temir, po'lat tayoq (posrednik), oddiy bolg'a, daryo toshi va chaqmoqtosh bo'lagi hamda bo'r kabi anjomlardan foydalanib, 20 tadan ortiq rasmlar ishlangan. Ular asosan, qoyatoshlarda ko'proq uchraydigan hayvon tasvirlaridan buqa, ot, tog' echkilari, bug'u, it rasmlarini chizib ko'rishgan. Olimlarning bu amaliy tajribani o'tkazishdan maqsadi tosh qurolida, temir va po'lat anjomda ishlangan tasvirlardagi farqni hamda bu rasmlarni ishlashda qadimgi rassom tomonidan sarflangan nisbiy vaqtni aniqlash. Bu amaliy tajribalar samarasi o'laroq, qadimgi rasmlarning aksariyati tosh, jez, temir va hatto po'lat qurollar bilan ishlanganligi aniqlangan. Eramizdan avvalgi 1-mingyillikga oid rasmlardagi izlar, ayniqsa, mayda bo'lib, bunday izlarni po'latdan yasalgan asboblarda qoldirishi

mumkin. Shunday ekan, Sarmishsoyning 1-mingyillik rasmlari, asosan, po‘lat qurollar yordamida ishlangan bo‘lishi mumkin, degan mulohazani yuritgan [2].

Nurota tog‘ tizmasi qoyatoshlaridagi boshqa tasvirlar va shimoliy Nurota tizmasining janubiy yon bag‘ridan aniqlangan yangi qoyatosh rasmlari yodgorliklarida olib borilgan tekshirishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur hududlardagi tasvirlar urilish texnikasi bilan Sarmishsoy rasmlari urilish texnikasi bir-biriga juda yaqindir. Chunki, bu yangi yodgorlik tasvirlari ham tosh, jez, temir va po‘lat qurollar yordamida o‘yish, urib-cho‘kichlash, chizish, ishqalash va tirnash texnikalari asosida bajarilgan. Yodgorliklardagi qadimiy rasmlar biroz qo‘pol urib-cho‘kichlangan bo‘lib, sak-skif davri tasvirlari esa ,o‘ta noziklik bilan ishlangan. Bu ularning qandaydir uchi uchqur po‘lat yoki temir qurollar yordamida chizilganligidan dalolat beradi.

Uslub xususiyatlari: Soha mutaxassislarning tadqiqot ishlarida rasmlarning uslub xususiyatlari qoyatosh san‘ati yodgorliklarining davrini aniqlashda ma‘lum darajada ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlab o‘tiladi.

A.N. Xolmatovning Nurota tog‘ tizmasi yangi qoyatosh rasmlari ustida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari ularning uslub jihatidan quyidagi turkumlarga bo‘linishini ko‘rsatadi [3]:

Sxematik tarzda ishlangan tasvirlar: o‘zining oddiyli, sxematik shaklda ishlanganligi bilan boshqa uslub rasmlaridan ajralib turadi. Ilk o‘rta asrlar va keyingi davrlarga oid bo‘lgan odam, suvoriy, tog‘ echkisi, it, ot, o‘q-yoy kabi tasvirlar shu uslubda ishlangan. Xuddi shunday uslub bilan ishlangan rasmlar Respublikamiz hududidagi barcha qoyatosh rasmlari yodgorliklarida, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonda ham uchraydi. Ularning aksariyati eramizning birinchi mingyilligiga oid bo‘lgan tasvirlardir [4].

Soya uslubida ishlangan rasmlar: asosan, odam, hayvon va boshqa tasvirlarni ishlashda qo‘llanilgan. Bu uslubda tasvirlangan odam yoki hayvon tanasining butun qismi to‘liq urib-cho‘kichlanadi. Bunday rasmlar Nurota tog‘ tizmasi va mamlakatimizdagi boshqa yodgorliklarda, shuningdek, qo‘shni respublika hududi

qoyatoshlarida keng tarqalgan. Ular ,asosan, yodgorliklardagi qadimiy tasvirlar chizilish uslubida keng tarqalgan.

Kontur shaklidagi rasmlar: o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa uslubda ishlangan tasvirlardan farq qiladi. Kontur uslubida faqatgina hayvon tasvirlari ishlanganligini kuzatish mumkin. Bu uslubda chizilgan hayvonlarning bosh qismi, quloq va oyoqlari soya tarzida urib-cho'kichlanib, butun tanasi gir aylana chizib chiqiladi. Nurota tog' tizmasi qoyatoshlarida bu uslubda ishlangan rasmlar ham ko'p uchraydi.

Kontur-soya tarzida ishlangan rasmlar: yarmi kontur, yarmi soya uslubida ishlangan tasvirlardir. Bu uslubda tasvirlangan rasmlar Sarmishsoy, Qoraqiyasoy yodgorliklarida ko'proq uchraydi. Ular ibtidoiy buqa, ibtidoiy sigir, yirik shoxli qoramollar hamda romb shaklidagi belgilardir.

Naqshdor-bezakli uslub: Nurota tog'lari qoyatosh rasmlari orasida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu uslubda yirik yirtqich hayvonlar, ibtidoiy buqa, yirik shoxli xonaki qoramollar, bug'u, romb va boshqa tasvirlar ishlangan. Naqshdor-bezakli uslubda,avvalo, rasmlarning tashqi konturi ishlanib, kontur ichiga esa ko'ndalang va tik chiziqlar parallel, kesishgan holda o'tkaziladi. Ba'zan hayvon tasvirlari tanasi tik, ko'ndalang o'tkazilgan chiziqlar, yumaloq va tuxumsimon shakldagi belgilar bilan bezatilgan. Ayrim yirtqich hayvonlar tasvirlarida ishlov berilmagan kichik shakldagi yumaloq va tuxumsimon belgilar qoldirilib ketilgan. Bular ifodalanayotgan hayvonning olachiporligini yoki targ'illigini bildirgan bo'lishi mumkin. Ayniqsa, Qoraqiyasoy yodgorligidagi romb tasvirlari naqshdor-bezakli uslubda juda nafis ishlangan. Bunday uslubda ishlangan rasmlar Suratlisoy, Tamg'ali daralarida ham uchraydi.

Nurota tog' tizmasi qoyatosh rasmlarining o'ziga xos xususiyati naqshdor-bezakli va kontur-soya uslublarida ishlangan tasvirlarning mavjudligida bo'lib, bunday uslubda ishlangan rasmlar Markaziy Osiyo va qo'shni mamlakatlar qoyatosh rasmlari yodgorliklarida kam uchraydi [6].

ADABIYOTLAR

1. **Хўжаназаров М.** Нурота тоғлари қоятошларидан топилган янги тасвирий санъат ёдгорликлари // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. -Самарканд,1992.- Б.21-22.

2. **Мирсаатов Т., Кабиров Ж.** Экспериментальное изучение техники нанесения петроглифов в ущелье Сармичская // ИМКУ. Вып. 11. –Ташкент,1974. - С.45-46.

3. Холматов А.Н. Нурота тизмаси қоятош расмларининг техник-типологик жиҳатдан ўрганилишига доир (янги қоятош расмлари мисолида) // О'zbekiston arxeologiyasi. № 1 (12). 2016. –Б. 73-90.

4. **Шер Я .А.** Петроглифы Средней и Центральной Азии. -М., 1980.

5. **Кабиров Ж.** Сармишсойнинг қоятошларидаги расмлар. -Тошкент, 1976.- Б.29-30.

ILK O'RTA ASRLARDA O'LKAMIZ MODDIY MADANIYATIDA OSTADONLARNING TUTGAN O'RNI

Utayeva Feruza Xolmamatovna,

BuxDU, dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Djumayeva Sarvinoz Saidovna,

BuxDU, "Arxeologiya" mutaxassisligi

I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar Turon zaminida zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va tarqalishi, ostadonlarning yasalishi, undan ma'lum maqsadlarda foydalanilganligi, arxeologik tadqiqotlarning ostadonlarga nisbatan munosabati tahlili to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Zoroastrizm, ossuariy, sopol xumdonlar, qazishmalar, Xorazm, Ahuramazda, Ahriman, arxeologik tadqiqot, suyakdon, Sayiltepa, Xo'ja Parixontepa.

Zardushtiylik (Zoroastrizm) — miloddan avvalgi VII-VI asrlarda vujudga kelgan din. So'nggi tadqiqot xulosalariga qaraganda, O'rta Osiyo xususan, Xorazm uning vatani bo'lgan. O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon hamda Yaqin Sharqning bir necha mamlakatlarida tarqalgan.

Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi – “Avesto” da ushbu dinga taalluqli barcha ma'lumotlar bayon etilgan. Zardushtiylik ta'limoti dunyodagi hamma tartiblar yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq deb tushuntiradi. Olamdagi hamma yaxshiliklarni Ahuramazda, yomonliklarni esa Ahriman ifodalaydi. Zardushtiylikning axloqiy ta'limoti “ezgu fikr”, “ezgu so'z”, “ezgu amal” dan iborat muqaddas uchlik (axloqiy triada) da o'z ifodasini topgan. Unda inson o'lganidan keyin murdani tuproqqa ko'mish yoki kuydirish taqiqlanadi, chunki o'lim deb atalgan yovuz kuch inson vujudini egallaydi va zardushtiylikda muqaddas bo'lgan olov, tuproq, havo, suvni u bilan ifloslash mumkin emas. Natijada ostadonlar (ossuariy) yasash jarayoni boshlangan.

Zardushtiylik Hindiston va Eronda hozir ham mavjud. Eronning Yazd va Gilon viloyatlarida ularning soni 100 mingdan, Hindistonning Maxarashtra, Gujarot shtatlarida 115 mingdan ziyodni tashkil etadi.

Ostadon (ossuariy)- (lot. os — suyak) — zardushtiylik diniga mansub xalqlarda marhumning suyagi solingan sopol, tosh yoki ganch idish, suyakdon. Zardushtiylikda o'likni yerga dafn etish man etilgan. Bunda ular «Ona yer muqaddas, u barcha jonzotning boquvchisi, tuproqning tarkibini buzmaslik kerak», degan aqidaga rioya qilishgan. Shuning uchun ham har bir qishloq, tuman, shaharda, tog' yonbag'ri yoki baland tepalikda maxsus supalar yasab, o'likni o'sha yerga eltib, barahna (yalang'och) tarzda qo'yishgan. O'limtikxo'r hayvon va parrandalar murda go'shtlarini yeb ketgach, suyaklarini yig'ishtirib olib, alohida joyda asrashgan. Ba'zi qavmlarda o'lik kuydirilib, kuli yig'ishtirilib, e'zozlab asralgan. Jamoada ajdodlar ruhini avaylab, ana shu suyaklarning ba'zi qismini, kulni saqlash maqsadida qopqoqli xumga o'xshatib ostadon— suyakdonlar yasashgan. Ular loydan kulollar tomonidan kesma naqshli tarzda yasalib, maxsus xumdonlarda pishirilgan. Hajmi turlicha bo'lgan. Bosh suyaklar saqlanadigan ostadonlarning qopqog'i tutqichiga marhum kallasining tasviri tushirilgan.

O'rta Osiyo xalqlarida ossuariyga solib ko'mish odati miloddan avvalgi I-ming yillikning I-yarmida shakllanib, milodiy VIII asrgacha (islomiy dafn rusumlari qabul qilinguncha) davom etgan. Xorazmdan topilgan qadimgi ossuariy haykallar shaklida

bo'lib, o'liklarni ilohiylashtirishni ifodalagan. O'rta Osiyo, Eron, Falastin, Misr va boshqa joylardan ko'plab ossuariylar topilgan bo'lib, ular yerga yoki novuslarda saqlangan. Ossuariylar eng ko'hna udumlarni o'rganishga, ajdodlar amaliy san'atining nozik qirralarini aniklashga ko'maklashadi.

Yurtimizning ko'pgina hududlaridan arxeologik qazishmalar natijasida ostadonlar topib o'rganilgan. Ular bir-biridan yasalishi, shakli, bezaklari va shunga o'xshash jihatlari bilan keskin farq qilgan.

Qashqadaryo vohasida olib borilgan arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatdiki, ilk o'rta asrlar ya'ni V-VIII asrlarda voha aholisi tomonidan dehqonchilikni rivojlantirish uchun yangi yerlarning o'zlashtirilishi, chorvachilikning rivojlanishi, foydali qazilmalarning topilishi, hunarmandchilik tarmoqlarining kengayishi kabi hodisalar ro'y bera boshlagan. Oxirgi yillarda ochilgan yangiliklar Janubiy Sug'd hududidagi madaniyat, mifologiya, ideologiya, aholining san'at sohasidagi kashfiyotlariga yangicha qarash shakllandi. Bu yerdan odam va hayvon tasviri tushirilgan haykalchalar, ikonalar, kuldon, qimmatbaho toshlar topilgan. Ushbu topilmalar Janubiy Sug'dda nafaqat zardushtiylik, balki hind madaniyati belgilaridan biri bo'lgan buddaviylik dini ham tarqalganligini aytadi. Bu ashyolar orasida ossuariylar ya'ni ostadonlar alohida ajralib turadi. Ushbu ostadonlar sopol tobutchalar bo'lib, bir necha yillar oldin "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnalida Xirmontepadan topilgan noyob ostadon haqidagi ma'lumot chop etilgan edi.

Shunga o'xshash ostadon shuningdek, Shahrisabz yaqinidagi Xontepa hududidan ham topib o'rganilgan. Xirmontepadagi ostadonning uzunligi 41 sm, eni 20, balandligi 28 sm ni tashkil etadi. Tepa qismi oval shaklida ochiq bo'lib, u qopqoq yordamida yopiladi. Xirmontepa va Xontepadan topilgan ostadonlar tuzilish jihatdan o'xshalar ham ammo yasalish, ishlov berish texnikasi, va bezak jihatidan bir-biridan farq qilgan. Xirmontepadan topilgan ostadon naqshinkor bo'lib, ushbu bezaklar ostadonning yua qismini bezab turgan. Xontepadan topilgan ostadonlardagi naqshlar esa chuqur tasvirlangan. Shuningdek, ushbu ostadonlar odam tasviri tushirilgan ostadonlar bo'lib, oyoqlari egilgan, chap oyog'i o'ng oyoq ustiga qo'yilgan holda tasvirlangan.

Qazishmalar natijasida topib o'rganilganda obyektning yuzi va qo'lidagi ushlab turgan predmet saqlab qolinmagan. Bundan tashqari, asosiy obyektning ikki tomonida musiqachilar tasvirini ham ko'rish mumkin. Ular qo'lida musiqa asbobi: birida dutor, boshqasida esa beshta tordan iborat bo'lgan burchakli arfa (bu cholg'u asbobi "chang" nomi bilan Eron hududida sosoniylar hukmronligi paytida mashhur bo'lgan) ushlab turilgan holda ko'zga tashlanadi. Dutor va arfa cholg'u asboblari O'rta Osiyoda antik davrlardan boshlab ishlatilgan va o'rta asrlarda keng foydalanilgan. Xuddi shu ko'rinishdagi ossuariylar ammo kichik hajmda O'zqishloqdan ham topib o'rganilgan.

Sayiltepa - Payariq tumanining "G'allakor" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Ushbu qadimiy joy To'sinsoyning irmoqlaridan biri bo'lgan Yuqorisoy bo'yidagi ikki pog'onali tepalik. Bu yer maydoni 98x64 metr, pastki pog'onasining balandligi 14 metr, yuqori pog'onasining balandligi esa 16 metrni tashkil etadi. Bu yerda dastlabki arxeologik kuzatuv ishlar o'tgan asrning 80-yillarida olib borilgan, - deydi Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarix va etnografiya bo'limi mudiri Sanjar Abdurahimov. 1986-yilda maktab o'qituvchisi P.Karimov Sayiltepadan taxminan 400 metr masofadagi maktab hududidan odam suyaklari va ostadon parchalari topilganligi to'g'risida Samarqand arxeologiya institutiga xabar beradi. Shundan so'ng bu yerda dastlabki kuzatuv va ro'yxatga olish ishlari olib borilgan. Aniqlangan ashyolar Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi arxeologiya fondiga topshirilgan. Ular 100 ga yaqin ashyolar, piyola, kosa, har xil uy-ro'zg'or buyumlari, ko'zalar, shisha buyumlar, sopol haykalchalar, ostadonlardan iborat. Bu buyumlarning aksariyati yurtimizga islom dini kirib kelgunigacha bo'lgan davrga taalluqlidir.

Xo'ja Parixontepa (Xo'jafarxon) – ilk o'rta asrlarga oid arxeologik yodgorlik, otashparastlar qabristoni (milodiy VI-VII asrlar), Beruniy va Kichik halqa yo'li ko'chalari kesishgan yerda joyda joylashgan. 1988-yil Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi M.I.Filanovich rahbarligida o'rganilgan. Ushbu hududda marhumlar ostadonlarda dafn etilgan nekropol (o'tmishda balandligi 5 metr bo'lgan) ekanligi aniqlangan. Xo'ja Parixontepaning ustki qatlami XX asr boshida qabriston bo'lgan (Bu qabriston «Tojikmazor» deb ham atalgan). Xo'ja Parixontepada qoraxoniylar davrida

(XI-XII asrlar) xumdon bo'lganligi aniqlangan. Yodgorliklardan topilgan naqshlar bilan bezatilgan ossuariy (ostadon)lar Choch va Iloq aholisi o'rtasida zardushtiylik dini keng tarqalgani, Sug'd va Xorazm bilan yaqindan aloqalar mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Xo'ja Parixontepa o'rnida hozir zamonaviy binolar qad ko'targan.

Ostadonlar zardushtiylik ta'limotida inson vafot etganidan keyin uning suyaklari saqlanadigan maxsus idish bo'lib, undan to VIII asrgacha ya'ni diyorimizda islom dini kirib kelishi va tarqalishi yuz berguniga qadar foydalanib kelingan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida biz ostadonlarning yasalish texnikasiga e'tibor berar ekanmiz, uning ko'rinishi, shakli, sur'ati-yu siyrati naqadar mukammal ishlanganini, uning aniq bir maqsad yo'lida foydalanganligini va shu barobarida inson dunyoqarashining takomillashib borgani sayin san'at ham ma'lum darajada ravnaq topganligining guvohi bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil B. 53-54, 255-256
2. Лунина С.Б, Усманова З.И. Уникальный оссуарий из Кашкадарьи // Общественная наука в Узбекистане. 1985. №3 С.46-51
3. Дресвянская Г.Я. Раннесредневековые оссуарии из Южного Согда//Общественные науки в Узбекистане. 1983. №3 С.44.
4. Хомидов Х., Авесто файзлари, Т., 2001.
5. Бобоев Х., Хасанов С, Авесто — маънавиятимиз сарчашмаси, Т., 2001.
6. Egamberdieva N.A. Arxeologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2011.
7. F.X.Utayeva O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi. O'quv qo'llanma "Durdona nashriyoti" 2022.

OILA – MUQADDAS TARBIYA MASKANI

*Teshayeva Yulduz Hakim qizi,
BuxDU, "Arxeologiya" mutaxassisligi*

Annotatsiya: Oila —jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'idir. Ushbu maqolada oilada axloqiy va ma'naviy tarbiyaning shakllanishida milliy an'ana va odatlarimizning o'rni va buyuk mutafakkirlarimizning oilada tarbiya, axloq tushunchalari haqidagi fikrlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Oila, mehnat tarbiyasi, ruhiy tarbiya, axloqiy tarbiya, kamolot, komil inson, axloq, ma'naviyat, “Turkiy guliston yoxud axloq”, salom, hashar, hol so'rash odati, mehmon kutish odobi.

Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur” [1]. Inson hayoti va turmush kechirishida oilaning roli beqiyos bo'lib, u muayyan darajada nustaqil hamda ijtimoiy muhit ta'siri ostida harakat qiladi. Ijtimoiy hayotning barcha jihatlari, yutuqlari va kamchilkiklari oilada o'z aksini topadi. Ayni paytda oila yangi insonni vujudga keltirish, bolalarni tarbiyalash, shaxsning ma'naviy va jismoniy shakllanishini ta'minlash orqali muayyan ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatadi.

Insonning taqdiri, kelajak hayotidagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, hattoki kayfiyati, uning oilaviy muhiti bilan bog'liqdir. Oilaning taqdiri esa insonning o'ziga bog'liq. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini

xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi.

Oila bu odobi axloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi, insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir [2],” – degan edi.

Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zamidida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rtaga tashlaydilar. Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko'pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo'yicha qarashlar tizimini tashkil etadi.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud Axloq” kitobida quyidagi ibratli o'g'itlarni aytgan edi: “Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim”. [3]

Oilaviy an'analarga qo'yidagilarni misol qilishimiz mumkin: hashar a'anasi, mehmondo'stlik an'anesi, salomlashish va ko'rishish an'anesi, bemorlardan hol - ahvol so'rash va oila boshiga kulfat tushganda yordam berish an'anesi va boshqa an'analardan mavjud.

Masalan hashar an'anasi, hashar sharq xalqlarining xususan o'zbek xalqining eng azaliy insonparvarlik, jamoatchilik asosidagi mehnat an'alaridan bo'lib o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hashar bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadni amalga oshirishda birgalashib harakat qilishi oqibatida katta mehnat samarasiga erishishdir. Oilada hashar an'anasi mazmuni halqimizning "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Kuch birlikda", "Yolg'iz otning changi chiqsa ham dong'i chiqmas" kabi maqollarida o'z ifodasini topgan.

Yana bir oilviy an'analardan biri bu mehmon kutish an'anasi- o'zbek oilalarining eng qadimgi insonparvarlik an'alaridan biri mehmondo'stlikdir. Qadimgi udum bir qarashda oddiy mehmon keldi, kutildi, kuzatildi singari soddalashtirilgan, holda kishi ko'z oldida namoyon bo'ladi. Xalqimiz bu borada tarbiyaviy ahamiyatga molik naql yaratgan: "Maktab o'qib mo'lla bo'lasan, mehmon kutib (mehmon bo'lib) odamgarchilikni o'rganasan". Haqiqatan ham, bu naqlda juda katta pir ma'no yashiringan. Odatda har bir xonadonda alohida did bilan bezatilgan mehmonxonasi bo'lgan va hozir shu tarzda davom etayapti. Ilgari har bir hovlida mehmonlar uchun alohida darvozadan to'g'ri kiriladigan mehmonxonaning mavjudligi xalqimizda mehmondo'stlik an'anasining qadimiyligidan darak beradi. Buni XI asrda yashagan sharqning allomasi Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asaridagi: "Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif qilgin va lekin taraddudlarni yaxshi ko'rib qo'y. Idish - tovoq, dasturxon, uy-joy, libos pokiza bo'lsin, pokiza ko'rpacha yoygin, ovqat va ichimliklar ham yaxshi bo'lishi kerak. Ovqat ichimliklar pokiza, totli, yaxshi bo'lsin, qo'l uzatgan havas bilan yesin. Taklif qilmasang, osh-suvning kamchiliklari bitta bo'ladi, taklif qilsang, uni ko'rgan birni ming qiladi. Uyla sen eb - ichiladigan narsalarni yaxshi, pokiza qilgin, kelgan yaxshilar to'yib turib ketsinlar. Do'stlarni, qarindoshlarni, ular xoh uzoq, xoh yaqin bo'lsinlar, barchasini ziyofatga taklif qil, haqlariga rioya qilgin. Keladigan keladi, agar kelmasa, uning ko'ngli taklif qilinganligi uchun qolmaydi"[4], - deb bildirgan qimmatli fikrlari ham isbotlaydi.

Hozirgi davrda ham har bir oilada katta, keng, ko'rkam, havodor bir xona maxsus jihozlar bilan bo'sh holda mehmon kutish uchun muljallab saqlash an'anaga, odatga

aylangan. Mehmon uchun ohori tukilmagan bir necha ko'rpacha, ko'rpa, bolishlar, idish tovoqlar tayyorlab qo'yiladi.

Salomlashish an'anasi haqida gapiradigan bo'lsak, salomlashish tarixiga nazar solsak, u XI asrda arablarning O'rta Osiyoga kelishi bilan qo'llanila boshlagan. Unga qadar O'rta Osiyo xalqining urug' - ajdodlari hisoblangan turon elatlari: massagetlar, sug'diy va xorazmiy kabi qabila kishilari bir - birlari bilan uchrashganda "Sayli Sohib" deganlar. Ya'ni kechirayotgan har bir kunning xursandchilik, tantana, zavqli bayram, namunali sayl bo'lsin singari mazmunlarni bildirgan.

Insonning barkamolligi, tarbiyalanganligi, ododbliligi salomdan boshlanadi. Salom odamning kimligini ifodalab turishi kerak. Shundagina salom insonlarni ezgulikka etaklayveradi hamda odamning qadr - qimmatini oshiradi va salomlashishga odatlantiradi. Shuning uchun ota - onalar oilada bolalarni salomlashishga o'rgatish sharq xalqlarining eng qadimgi oilaviy an'analaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy hotirjamlik, o'zaro totuvlik xukmron bo'lsa, oila a'zolari bir-birlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev. 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.06.2018 y., 06/18/5466/1527-son

3. A. Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq". T., "O'qituvchi". 1994 y.

4. Yusuf Xos Xojib. "Qutadg'u bilig". –Toshkent, "Yulduzcha", 1995 y.

5. "Axloq-odobga oid hadis namunalari". T., "Fan", 1999 y.

SITORAI MOHI XOSA SAROYINING MUZEYGA AYLANTIRILISH TARIXI

A.H.Boltayev,

BuxDU, dotsenti, (Phd)

J. Odilov,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sitorai Mohi Xosa Saroyining muzeyga aylantirish tarixi haqida ma'lumotlar o'z ichiga olgan. Buxoro o'lkashunoslik muzeyi 1922- yilda tuzilganligi hamda 1931-yilda Sitorai Mohi Xosa saroy muzeyi uning filialiga aylantirilishi haqida ma'lumotlar beriladi. Sitorai Mohi Xosa saroy muzeyi muzeylar ro'yxatida 2066 raqam ostida turishi, bo'limlari, ekspozitsiyalari haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro o'lkashunoslik muzeyi, shahar hunarmandlari, Buxoro inqilobi tarixi, amirning turmush tarzi, muzeyshunos va o'lkashunos, ekspozitsiya, eksponat.

Buxoroda muzeyshunoslik ishlarining boshlanganiga bir asr to'ldi. Darhaqiqat, Buxoro o'lkashunoslik muzeyi 1922 yilda tuzilgan bo'lab, uning o'lkadagi filiallarini tuzish ishlari ham orqaga qolmagan. Bu sohadagi ishlar 1927 yildan boshlandi.

Amirning yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xosa 1931 yilda Buxoro muzeyining filialiga aylantiriladi. Sitorai Mohi Xosa muzeylar ro'yxatida 2066 raqam ostida qayd qilingan. Aslida bu ishlar ancha oldinroq boshlangan edi. U yerda "Keyingi amirlarning turmushi tarzi" mavzuida yangi ko'rgazma tashkil qilingan [1] va u uchta bo'limdan iborat bo'lgan. Birinchi bo'lim "Shahar hunarmandlari", ikkinchi bo'lim "Buxoro inqilobi tarixi" va uchinchi bo'lim "Amirning turmush tarzi" deb nomlangan [2]. Ko'rgazmada misgarlik, zardo'zlik va boshqa amaliy san'at ashyolari namoyish etiladi. Q.Jumayevning fikricha, Sitorai Mohi Xosa muzeyi 1927 yilda ochilgan va u yerda uch

qismdan iborat ekspozisiya tashkil qilingan. Mazkur muzey ochilishining tashkilotchilaridan biri, birinchi o'zbek muzeyshunos va o'lkashunos olimi Muso Saidjonov edi deb qayd qiladi[3].

1933 yilda Buxoro muzeyi tumanlararo o'lkashunoslik muzeyi maqomi beriladi va uning ekspozitsiyasi yangilanadi. Sitorai Mohi Xosa filialining ko'rgazmasi ham qayta tashkil etiladi. Ushbu ko'rgazma 1947 yilgacha namoyish qilinadi.

30 yillarning boshida muzeyni ilmiy tashkil etish va me'moriy yodgorliklarini tadqiq etish maqsadida O'rta Osiyo davlat universiteti huzuridagi Sharq tillari instituti bitiruvchisi P.A.Goncharova va san'atshunos L.I.Rempel Buxoroga kelib, etnografiya sohasida samarali ish olib bordilar. Ularning tavsiyasiga asosan, 1937-1938 yillarda Sitorai Mohi Xosa muzeyida XVIII-XIX asrlarga mansub 320 ta turli kattalikdagi idishlar "Xitoy chinnisi" ekspozitsiyasi namoyish etiladi[4].

Viloyat xalq ta'limining 1941 yil 8-fevraldagi №29 buyrug'ida Sitorai Mohi Xosa muzey filialining faoliyatini jonlantirish va mustahkamlash, qo'shimcha xodimlar uchun o'rin ajratish kerakligi qayd qilinadi [5].

Sitorai Mohi Xosadagi ekspozitsiyada Buxoro amirining roli bo'rttirib ko'rsatilgani va amirlik davri targ'ib qilingani bahonasida 1947 yil muzeyning filiali yopib qo'yiladi. 1-noyabrdan Sitorai Mohi Xosada nazorat kuchaytirilib, tekshirish ishlari boshlandi. Bu voqealardan so'ng, tematik-ekspozitsion rejalar yuqorida turuvchi tashkilot tomonidan tasdiqlangandan keyingina ekspozisiya ochish mumkin bo'ldi [6].

Davr talabi va jamiyat taraqqiyoti muzeylar ekspozitsiyasining mazmunini tubdan o'zgartirishni taqazo etdi. 1948-1950 yillarga kelib, Sitorai Mohi Xosa muzeyining ko'rgazmasi batamom yangilandi va "Xalq ijodi va Buxoro san'ati" deb yuritila boshlandi. Bu ekspozitsiya: "Buxoro monumental san'ati", "Amaliy san'at", "Xalq musiqa san'ati", "Kalligrafiya va miniatyura san'ati" va "Buxoroning qardosh qo'shni davlatlar bilan madaniy aloqalari" kabi bo'limlardan iborat edi [7].

1950 yilda o'lkashunoslik muzeyi rahbariyatining taklifi bilan yetakchi mutaxassis, olim O.A.Suxareva Buxorga keladi va muzey ekspozitsiyalariga yuqori baho beradi.

Sitorai Mohi Xosa saroyining hashamatli bezatilgan zallariga yuksak did bilan eksponatlar joylashtirilgan edi.

1954 yilda Sitorai Mohi Xosa saroyida sho'ro hukumati qarori bilan kasaba uyushmalar tasarrufidagi dam olish uyining ochilishi muzeyning butunlay tugatish xavfini kuchaytirdi. Uzoqni ko'ra olmaydigan, tuban ma'naviyatli sobiq sho'ro xodimlarining savodsizlarcha ish yuritishi O'rta Osiyoda yagona saroy majmuasi bebaho osori-ataqilarining izsiz yo'qolishiga sabab bo'ldi [8].

Bu ishlarga javoban 1956 yil 9-mayda Buxoro o'lkashunoslik muzeyi direktor Muhsin Yoqubov O'zbekiston Kompartiya Markaziy qo'mitasi kotibi R.Melnikovga shikoyat maktubini jo'natadi. Sitorai Mohi Xosa filiali direktori K.Em O'zbekiston Madaniyat vaziri A.Qo'chqorov nomiga shikoyat xati yo'llaydi. Ko'rilgan chora tadbirlar natijasida, katta qiyinchiliklar bilan Sitorai Mohi Xosa saroy majmuasi asosiy binosining to'qqizta zalida "Xalq ijodi muzeyi" saqlab qolindi. Ammo saroydagi yodgorlik binolari, ayvonlar yiqitilib talon-toroj qilinadi.

Q.Jumayev ma'lumotiga ko'ra, XX asr 50-yillarida bebaho madaniy merosimiz mafkuralashtirilib, Sitorai Mohi Xosa saroyi va uning atrofidagi chorbog'ga tiklab bo'lmas darajada shikast yetkazildi, ko'pgina nodir ashyolar talon-toroj qilindi, bog'dagi noyob daraxtlar, o'simliklar va xayvonlar yo'q qilib tashlandi.

1968 yilda Moxi Xosada "Xalq ijodiyoti" nomli ekspozitsiya tashkil etiladi. 1975 yil muzeyda "Buxoro xalq amaliy bezak san'ati muzeyi" tashkil qilinadi. Unda sakkizta bo'lim mavjud bo'lib, ular kulolchilik, badiiy kashtachilik, zargarlik, zardo'zlik, kandakorlik, chitgarlik, yog'och o'ymakorligi, Xitoy va Yaponiya chinni buyumlari bo'limiga bo'linalar edi [9].

1978 yil Sitorai Mohi Xosaning amaliy san'at bo'limida yangi ekspozitsiya tashkil etiladi.

Sitorai Mohi Xosa [10] muzeyi Ministrlar savetining 1983 yil 16-maydagi 308-sonli qaroriga asosan Buxoro davlat badiiy – me'morchilik muzey – qo'riqxonasi tarkibiga kiritiladi.

1987 yil Sitorai Mohi Xosaning yaqinda ta'mirlangan mehmonxona binosi "Xonai-hasht"da "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro shahri aholisining milliy kiyimlari" deb nomlangan yangi ekspozisiya tashkil etiladi. Ekspozisiyaga erkaklar, ayollar va bolalarning o'tgan asrda tayyorlangan kiyimlari qo'yilgan bo'lib, ular mahalliy matolardan, gazlamalardan tikilgan. Ko'rgazmada 120dan ortiq eksponatlar namoyish etiladi [11].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu bedodliklarga chek qo'yildi. 1991 yil Buxoro viloyati hokimi Damir Yodgorovning qarori bilan saroyning bog'i va sanatoriya ixtiyorida bo'lgan bir qism binolari qaytarib berildi. Saroy bog'ida qurilishi boshlanayotgan sanatoriya tarkibidagi 180 o'ringa mo'ljallangan oilaviy pansionat barpo etish to'xtatildi. Shuningdek sanatoriya ixtiyoriga berilgan "Xonai Hasht" ham muzeyga qaytarildi [12].

1992-yilda Dekorativ – xalq amaliy san'ati, saroy pavilyonida "XIX – XX asr boshlarida buxorolik shaharliklar milliy kiyimi", saroy yotoqxonasining birinchi qavatida "XIX – XX asr boshida badiiy kashtachiligi va uy-ro'zg'or buyumlari", 1993-yil 6-noyabrda yotoqxonada ikkinchi qavatida "Saroy mebellari" ko'rgazmasi ochilgan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan muzey sohasiga katta etibor qaratildi. Sitorai Mohi Xosa saroyi qayta tamirlandi va restavrasiya qilindi hamda unda etnografiyaga oid ko'rgazmalar tashkil etildi. Bu ko'rgazmalar hozirgi kunda ham sayyohlar va mehmonlarni xursand qilib kelmoqda

ADABIYOTLAR

1. O'zR MDA 94-fond, 5-ro'yxat, 735-ish, 6- varaq
2. Sadikova N.S Музейное дело в Узбекистане. – Toshkent: Fan, 1975. – С.92.
3. Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa xalq amaliy san'ati muzeyi // moziydan sado .- Toshkent: 2003.-№1-B-25
4. Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa. – Toshkent: Fan, 2005.. –Б.36.
5. Buxoro viloyati davlat arxivi, 1175 – fond, 1-ro'yxat, 129-ish, 19-varaq.
6. Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.22.

7. Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa xalq amaliy san'ati muzeyi // moziydan sado .- Toshkent: 2003.-№1-B-26

8. Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa–Toshkent: Fan, 2005. –B.34.

9. Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa xalq amaliy san'ati muzeyi // Moziydan sado .- Toshkent: 2003.-№1-B-26

10. Hozirgi kunda “Sitorai Mohi Xosa” – Xalq amaliy bezak sa'ati muzeyi nomi ostida faoliyat olib bormoqda

11. Jumayev Q. Muzayning yangi ko'rgazmasi // Buxoro haqiqati.1987, 17 noyabr;

12. Jumayev Q. Sitorai Moxi Xosa. –Buxoro , 2010. –B.48.

DINIY MAROSIM VA URF-ODATLARDAGI TRANSFARMATSIYA JARAYONLARINING ETNOLOGIK TAHLILI

Qamariddinova Gulrux Akmal qizi,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasida islom dini kirib kelganidan so'ng o'tkazilishi sunnat hisoblangan marosimlar transfarmatsiya (bir shakldan ikkinchi shaklga o'zgarish) jarayoni natijasida o'zgarganligi tarixiy adabiyot va birlamchi manbalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Marosim. Kir yuvdi, qirq oshi, yil oshi, qoryog'di, gul marosimi, ta'ziya, xatna, sunnat, bid'at

Islom diniga e'tiqod qilina boshlangandan so'ng, diniy marosimlar ham o'z o'rnida o'tkazila boshlandi. Biroq oradan vaqt o'tishi bilan ushbu marosimlar, urf odatlar transfarmatsion jarayonlar ta'sirida o'zgara boshladi ya'ni bid'at [1] amallar aralasha boshladi va asl mazmunidan farq qila boshladi. Jumladan, ta'ziya marosimi. Dastlab, ushbu marosim shariat bo'yicha uch kun tib belgilangan. Ya'ni bir kunda kela olmaganlar ertasi kuni kelib, sabrga chorlash, yupatish maqsadida kelishlari mumkin. Biroq bugungi kunda ushbu marosimga insonlar tomonidan yangiliklar kiritilib, bid'at amallar ko'paytirilgan:

Sunnatga muvofiq bir marta kelib ta'ziya izhor etish mumkin. Har juma kunlari, hayit kunlari kelib ta'ziya izhor etish joiz emas. Sababki, marhumning oilasini yarasini yangilashi mumkin;

Kir yuvdi – diniy asosga ega bo'lmagan marosimdir. Ayollar ta'ziya tugaganligi belgisi sifatida azadorlarning belbog'ini yechib, kiyim-kechaklarini yuvib tashlaydilar. Kichik dasturxon atrofida faqat mayitning yaqin qarindoshlari yig'iladilar.

Yigirma, qirq, yil oshi – bular ham marhumning ruhini shod etish maqsadida o'tkaziladi. Lekin bid'at amal hisoblanadi va ortiqcha sarf-xarajatni keltirib chiqaradi. Ushbu kunda ayollar va oz sonli erkaklar yig'ilib, Qur'on tilovat qilishadi, amri-ma'ruf o'tkazishadi. Katta dasturxonlar yoziladi va ko'plab mehmonlar yana kutiladi. Bugungi kunda Buxoro, Samarqand ayollarining orasida tarqalgan yana bir amal paydo bo'lib – ushbu marosimda ishtirok etganlarga sovun, ro'mol tarqatiladi. Bu esa yana ham moliyaviy tanglikni keltirib chiqaradi. Diniy idoralar tomonidan ushbu marosimlarning bid'atligi targ'ib etilganidan so'ng ancha qisqartirilganiga qaramay, mahalla orasida yaxshiroq obro' qozonish uchun ta'ziya izhor qilish maqsadida kelgan mehmonlarga 2 xil taomlar tortish (quyuq va suyuq) holatlari ham uchraydi. Qolaversa, O'zbekistonning ko'p viloyatlarida jumladan Buxoroda ham maxsus taomlar pishiriladi. O'lim bilan bog'liq xotira kunlari maxsus taom- “ holvaytar” pishiriladi. Bu taom qizdirilgan yog'ga un solib, qizargunga qadar baland olovda pishiriladi. Piyola yoki likopchalarga solinib dasturxonga tortiladi. An'anaviy taomlardan bo'g'irsoq bilan po'ssiq ham keng tarqalgan [2]. Bular marhumning oilasiga yengillik emas aksincha moddiy qiyinchilikka olib kelishi mumkin. Shuni unutmaslik lozimki, ushbu marosimlar, taomlar, sovg'a-salom kabi buyumlar marhumning ruhini shod etmaydi. Aksincha xolis niyat ila qilingan duolar maqbuldir.

Qoryog'di- birinchi qor yoqqan kuni marhumning farzandlari hamda eng yaqin qarindoshlari uning xonadoniga kelib, u yerdagi kishilarning holidan xabar olib, marhumning ruhoniyyatiga atab Qur'on tilovat qilishlari mahalliy odatga aylangan.[3]

Gul – ushbu amal Buxoroda deyarli kam uchraydigan amal bo'lsada, O'zbekistonning ba'zi hududlarida haligacha mavjud bo'lgan nomaqbul amaldir. Bunda marhumning qo'shnilari va yaqinlari marhumning qabriga taom olib boriib qo'yishadi.

Chiroq yoqish – Buxoroning ba'zi tumanlarida hozirda ham amalda bo'lgan ish. Marhum yuvilgan xonada 3 kundan 40 kungacha sham yoqib qo'yiladi yoki chiroq kuni bo'yi o'chirilmaydi. Ishoniladiki, marhumning ruhi ushbu shul'a orqali xonadon a'zolarini kuzatib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ayollar jamlanib, o'zlarini urib-yig'lab, dod-faryod qilish kabi maxsus amallari mavjud. Bu ham eng nomaqbul ish bo'lib, Allohning taqdiriga norozilik hisoblanadi. Ayollar orasida aza kiyimlari ham mavjud bo'lib, bugungi kunda bo'rttirish kabi holatlari mavjud ya'ni azador ayol bir yil davomida faqat oq va qora rangli ro'mol bog'lashi, kiyim kiyishi lozim. Aslida, kiyimning ortiqcha zeb-ziynatdan holi bo'lishi va qulay bo'lishi lozim.

Ushbu amallarning barchasi keyinchalik xalq tomonidan o'ylab topilgan amallar bo'lib, ortiqcha sarf-xarajatni va asosiy mazmun Allohga itoat qilishdagi sustkashliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kundagi xatna marosimidagi aslida dinimizda mavjud bo'lmagan amallar ham mavjud. Xatna qilishning o'zi sunnat amal hisoblanadi. Hadislarda keltirilishicha, qo'chqor so'yish, ko'ngilxushlik qilish sahobalardan sobit bo'lgan amal ekan. Lekin nihoyatda ko'pchilikni chaqirib, ziyofat uyushtirib, “sunnat to'yi” tashkil etish dinimizda mavjud emas. Ushbu marosim uchun tashkil etilgan dasturxonada asosan ichkilik taqdim etiladi. Bu esa diniy ulamolar tomonidan mumkin bo'lmagan ish deyiladi. Sababki, asosan ushbu to'ylarning oxiri janjallar bilan tugayotganligi hech kimga sir emas. Qolaversa, xatna qilingan bolaga oq kiyim kiydirib qo'yiladi. Ya'ni turk mifologiyasiga ko'ra, oq rang ranglarning onasi hisoblanadi [4]. Shuningdek oq rangli libos kiyilsa baxt-omad, farovonlik keladi deb ishoniladi. Aslida ranglar shunchaki timsol deya qabul qilingan. Insonga barcha yaxshi ne'matlarni Allohning o'zi beradi. Xatna qilingan bolani otda sayr qildirish kabi bugungi kunda avj olgan yana bir amal bor. Bu ham moddiy tomondan kerak bo'lmagan ortiqcha ishdir. Chunki moddiy qurbi yetmaydigan ota-onalarning farzandiga ushbu amalni qilib bermasa xafagarchilikka olib

keladi. Umuman olganda xalqimizning turmush tarzida qo'llanilayotgan ushbu bid'at amallar, har qanday yangiliklardan halos bo'lishning yagona usuli, aholini ko'proq ilmi olishga chaqirishdir, ayniqsa, ayollarni. Boiski, jamiyatimizdagi ortiqcha sarf-harajatlar, irim-sirimlar ayollar tomonidan o'ylab topilayotgani sir emas. Dinimizdagi marosimlarni o'z holicha, yaxshi niyat ila o'tkazilsa, albatta bu ham savobli ish ham har bir oilaning moddiyatiga foyda bo'ladi. Aslida dinimizning maqsadi ham shunday, insonlarga imkon qadar yengillik yaratishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bid'at>
2. Iso Jabborov. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent., "O'qituvchi" 1994. B 175.
3. Islom ma'rifati. Nazariy-uslubiy qo'llanma. -Toshkent.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.
4. Davlatova S. O'zbek kiyimlari atamaları izohli lug'ati. –Toshkent.: "Yangi nashr", 2017.

XOTIN - QIZLAR BOSH KIYIMLARINING TARIXIY – ETNOGRAFIK O'RGANILISHI XUSUSIDA (QORAQALPOQLAR MISOLIDA)

Qurbonova Manzila Boqiyevna,

BuxDU. t.f.n., dotsent

Oripova Nigora Abdusamadovna,

BuxDU, Etnografiya,

etnologiya va antropologiya 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq xotin qizlari bosh kiyimlari, san'atshunos, filolog, arxeolog, etnograflar tadqiqotlarida ilmiy jihatdan o'rganilish tarixi ochib beriladi. Xususan, do'ppi, saukele, kimishek singari bosh kiyimlar va ular bilan bog'liq xalqning urf - odat va an'analari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Do'ppi, takya, popuk, jiyak, kashta, saukele, dubulg'asimon, tobelik, oq kiymeshek, qizil keymeshek

Dunyoning boshqa xalqlari kabi qoraqalpoq xalqi moddiy madaniyatida ham xotin – qizlar kiyim - kechaklarining o'ziga xos o'rni mavjud. Xususan, qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimlari azaldan ularning yoshini, ijtimoiy mavqeini, qaysi qabila va urug'ga mansubligini bildirib turgan. Qoraqalpoq xotin-qizlarining bosh kiyimi do'ppi - milliy libosining muhim qismidir. Yengil bosh kiyimi do'ppi, bugungi kunda ko'pgina xalqlarning milliy bosh kiyimiga aylangan. Etnograf olima Z.I.Qurbonova qoraqalpoq xalqi xotin-qizlari do'ppilari tarixini yoritib, ular – takya deb nomlanganini, asosan gumbazsimon shaklda va tepa qismi to'rt bo'lakda, mayda qaviqlar orqali birlashtirilib tayyorlanishini ta'kidlaydi. Do'ppilar astariga paxta tolasidan tayyorlangan mato yelimlanadi. Gardish shaklidagi do'ppi kizagiga jiyak tikilib, ipak iplardan tayyorlangan popuk qadab bezatiladi. Popuklar erkaklar do'ppisiga bir dona, qizlar do'ppisiga bir necha dona qadaladi. Qoraqalpoq do'ppilari asosan bezaklariga qarab turlarga ajratilishi, bunday do'ppilar “toqima takya” ya'ni to'qilgan do'ppi, duxoba(baxmal)dan tayyorlangani “makpal takya”- baxmal do'ppi deb yuritilishi, rombsimon hamda “qo'chqorshoxi” deb ataluvchi kashta naqshlari solingan do'ppilar esa “kozba takya” - “qo'chqor do'ppi” deb atalishini, marjon bilan bezatilgani esa “marjonli takya” deb nomlanishini o'z tadqiqotlarida tahlil etadi.[1] Qoraqalpoq o'smir yigit-qizlar asosan ko'k, yashil rangli duxobadan tayyorlangan do'ppilarni kiyishsa, keksa chollar, yosh bolalar esa milliy kashtaning mayda, nozik o'ziga xos nashqlar kompozitsiyasini tashkil etuvchi do'ppilarni yaxshi ko'rib kiyishi odatga aylangan. San'atshunos olima I.V.Bogoslovskaya qoraqalpoq xotin-qizlarining bosh kiyimi “saukele”ni ilmiy jihatdan o'rganib, quyidagilarni yozadi: xalq hunarmandlari zargar va kashtachilarning yuksak mehnati bo'lmish "saukele"ning o'nta noyob namunalarining barchasi, bugungi kunda muzey kolleksiyalarida saqlanadi. Qoraqalpoq kelinlarining to'yda kiyadigan bosh kiyimi hisoblangan “saukele” kelib chiqish tarixi o'ziga xos bo'lib, kelin bezagi sifatida xalqning turmush tarzi, dunyo qarashini o'zida ifodalagan.[2]

Haqiqatdan ham fol'klorshunoslik, arxeologik, etnografik, ma'lumotlarga asoslanib, “saukele” qoraqalpoqlarda qadim zamonlardan buyon kiyilganligi ma'lum. [3] Qoraqalpoq xalqi “Qirq qiz” dostonining bosh qahramoni Guloyim “qirq qiz”ga

qo'mondon qilib, Sarvinozni tayinlagani, Sarvinoz esa qizlari bilan birgalikda ot minib, jang oldidan boshlariga “saukele” kiyganliklari haqidagi ma'lumotlar dostoniga keltiriladi. [4]

Arxeolog olim S.P.Tolstov “saukele” lashkarboshilarning qudrat ramzi ekanligini qayd etib, dubulg'a shaklidagi bu xildagi ayollar qalpoqlari nafaqat O'rta Osiyo, shuningdek, Volga bo'yi, Sibir va Kavkazning boshqa xalqlari orasida ham tarqalganligini hamda arxeologik topilmalarga asoslanib O'rta Osiyoning hozirgi xalqlari tarkibiga kirgan qabilalar orasida turli xil dubulg'a shaklidagi bosh kiyimlarni miloddan avvalgi III asr tangalarida tushirilgan podshohlar tasvirlarida ham uchrashini aytib o'tadi. [5]

“Saukele” atamasini etnograf olim M. S. Andreev quyidagicha talqin qiladi: “sha”-shoh–podshoh va “kuloh” – bosh kiyim, ya'ni “hukumdor bosh kiyimi” degan ma'noni anglatadi. Elshunos A. S. Morozova ham tadqiqotida ushbu dubulg'asimon bosh kiyimiga oid turli ma'lumotlarni taqqoslab, G'arbiy Osiyo viloyatlaridan Kavkaz orqali, Amudaryo vodiysi va Kaspiyorti pasttekisligidan sak-skif dashtlarigacha, uzoq shimoli-sharqqa qarab jangchilar dubulg'asidan - ruhoniylar va podshohlarning bosh kiyimlarigacha, keyinchalik esa oddiy bosh kiyimga aylanganligi evolyutsiyasi bosqichlarini birma bir ko'rib chiqadi.[6]

Qoraqalpoqlar bezak toshlarning sehrli, shifobaxshlik xususiyatlarini yaxshi bilganlar deb ta'kidlaydi olim Z. I. Qurbonova saukeleni o'ziga xos bezatilganligiga oid tahlillarni berib o'tadi. “Saukele”- qora, qizil, oq baxmal bilan ishlangan va xoch shaklidagi kashta naqshlari bilan bezatilgan qalpoq hisoblanadi. Bosh kiyimning old tomoni marjon qatorlari bilan bezatilgan, yon tomonlarida esa uzun marjon va shisha munchoqlar osilgan, qimmatbaho toshlar, kumush, oltin, yoki tulki mo'ynasi bilan bezatilgan. Saukeleni bezatishda aynan kumushdan foydalanilganligining sababi, kumush himoya kuchiga ega deb ishonilgan. Marjon zarar va yomon ko'zdan, yoqut-yovuz, sehr-jodudan va ruhiy tushkunlikdan asragan bo'lsa, karnelian toshi - farovonlik va quvonch keltiradi deb e'tiqod qilishgan. Saukele tepa qismida marjonlar orasida unumdorlik,

farovonlik ramzi sifatida shoxli qo'chqor boshi yovuz ruhlardan himoyalanih maqsadida tasvirlangan.[7]

Qoraqalpoq kelinlarining bezagi sanalga "saukelening" aynan konussimon baland qilib tikilishiga oid xalq qarashlari mavjud. Rivoyat qilishlaricha qoraqalpoqlar qadimdan qo'shni qabilalardan ham kelin olib, qiz berishgan. Tabiiyki, kelin o'zi bilan turmushi uchun kerak bo'lgan jihozlar, kelinlikka atalgan kiyim kechak va taqinchoqlarini keltirgan. Kelin qarindosh urug'lari hamrohligida karvon bo'lib, birgalikda kuyov tomonga kelgan. Sabrsizlik bilan kutilgan karvon yaqinlashganda, kelin kiygan bosh kiyim "saukele" uzoqdan aniq ko'ringan va uni birinchi payqagan kishi "Saukele! Saukele!" deb hayqirib, ovulga xush xabarni yetkazgan.[8] Kelinnig kuyov ovuliga sog' - salomat yetib kelganiga boshidagi baxt qalopog'i sabab bo'lganiga ishonilgan. Shuning uchun ham qoraqalpoqlar "saukele"ga baxt keltiruvchi libos sifatida e'tiqod qilib, uni turli tumorlar, asrovchi duolar bilan bezatishgan. "Saukele" ustidan kiyiladigan, qo'shimcha bezak-tobelikdir. Tobelik silindrsimon shaklga ega bo'lib, marjon va feruza toshlar bilan bezatilgan kumush taqinchoqlar bilan yasatilgan. Tobelik nikoh to'yi bosh kiyimining – toji hisoblangan. Saukele "sau"- "quyoshli, chiroyli", "kele"-bosh degan ma'noni anglatib, uni kiygan qiz - "quyoshli, baxtli" bo'lishiga, uning ulkan muqaddas kuchga ega ekanligiga, qizni yomon ko'zdan himoya qilishiga ishonilgan. Xalq orasida mazkur bosh kiyimi to'g'risida turli taxminlar mavjud. Bulardan biri "saukele" - "sau"- butun, "kele"- minora deganidir, ya'ni bosh kiyimining minora shakllidaligiga ishora qilinganligidir. "Saukele" qoraqalpoq yigitlarining orig'ururi bo'lgan qiz juvonlarning an'anaviy qadriyati sifatida ardoqlangan, qadrlangan.

"Saukele" kelinlikning bosh kiyimi bo'lsa, "kiymeshek" turmush qurgan bolali ayollarning asosiy an'anaviy bosh kiyimi hisoblanadi. Bu bosh kiyimning lug'aviy ma'nosi, ya'ni lingvistik nuqtai-nazardan filolog tadqiqotchi K. M. Zayrova: quyidagicha izohlaydi: "kiymishek" - kiyim — ken – shek, ya'ni kiyimning qisqartirilgan shakli. Tarkibiy jihatdan kiymeshek uch qismdan - old qism, o'rta qism va dum qismidan iborat. Ushbu bosh kiyim XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida juda keng tarqalgan. Qoraqalpoqlarda kiymeshekning ikki turi mavjud: qizil va oq. Qizil

Kiyimeshekni turmush qurgan yosh ayollar, oq kiyimeshekni esa yoshi keksa ayollar iyishgan. Keksa avlod kiygan qizil kiyimesheklerini tashlab yuborishmagan. Qizil kiyimeshek avloddan avlodga me'ros bo'lib o'tgan. Qizil kiyimesheksiz kelinlar qaynotasi yoki erining akasi qarshisiga chiqa olmas edi. Kiyimeshekda o'ziga xos kashta gullari uzoq vaqt davomida hunarmand ayollar tomonidan qo'lda tikilgan. Qoraqalpoq xotin-qizlari kashtado'zlik orqali o'zlarining bor mahorat va tikuvchilik sohasidagi zukkoliklarini namoyon etadilar. Nikoh to'yidan oldin har bir qiz o'zi va bo'lajak qaynonasi uchun kiyimeshek tikkan. "Kiyimeshek" egasining ijtimoiy mavqei, yoshi va oilasiga qarab turli xil dizayn va ranglarda bezatilgan. [9]

Etnogrof olim M.B.Qurbonova ham ayollar bosh o'rovining muhim elementlari bilan bog'liq ma'lumotlarni akademik K.Shoniyozov tarixiy-etnografik o'rganganligini ta'kidlaydi.[10]

Akademik olim K. Shoniyozov xalqning milliyligini ko'rsatadigan kiyimeshekni o'zbeklarda uchraydigan lachak bilan genetik aloqasi borligini qayd etadi.[11]

Qoraqalpoq xotin-qizlari bosh kiyimlarining san'atshunoslik, filologik, arxeologik, etnografik nuqtai-nazardan mutaxassislar tomonidan o'rganilishi ushbu xalq tarixi va madaniyati sahifalariga doir ma'lumotlarni ochib beradi, ularga aniqlik kiritadi va xalqning ming asrlik o'tmishidan saboq beradi. Qoraqalpoq xotin – qizlari bosh kiyimlari nafaqat yaratilishi balki nomlanishida ham xalqning tarixi va madaniyati o'z aksini topadi. Bundan tashqari bosh kiyimlarda eng muhimi milliylik, xalq urf-odat va an'analari, estetik didi va dunyo qarashlari namayon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Курбонова.З.И.Головные уборы каракалпачек. Проблемы востоковедения.Нукус.:2014/1(63). – С.39.

2.Богословская И.В. Десять каракалпакских саукеле.// ЭО,М.:2014. №4.- С.108.

3.Этнография каракалпаков. XIX-начало XX века. (материалы и исследования) отв.ред. Жданко Т. А., Камалов С. К.Т.: «Фан» 1980. – С.96.

4. Народы Средней Азии и Казахстана. Сер. Народы Мира. Этнографические очерк. Под общ. ред. С. П Толстова. Изд. АН СССР. -М.: 1962. – С.484.

5. Этнография каракалпаков. XIX-начало XX века. (материалы и исследования) отв. ред. Жданко Т. А., Камалов С. К. Т.: «Фан» 1980. – С.96-97.

6. Морозова А.С. Каракалпакский женский шлемовидный головной убор «саукеле» // Археология Средней Азии, VI. Научные труды Ташкентского государственного университета. -1963. – Вып. 200. – С. 135.

7. Курбанова З.И. Традиционные верования и представления каракалпаков, связанные с одеждой и украшениями. // Вестник антропологии, М.: 2016. № 3 (35) -С.71

8. https://spletnik.ru/188660_svadebnyy-ubor-saukele.

9. Зайрова К.М. Этнокультурная характеристика наименований одежды и обуви в каракалпакском языке. // Вестник Челябинского государственного университета. Челябинск.: 2022. № 7. - С.29.

MA'NAViy HAYOTIMIZDA QADIMIY QO'LYOZMA

MANBALARNING O'RNI VA ULARGA QARATILAYOTGAN E'TIBOR

G'aybullayeva Zarina Zohir qizi,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda qadimiy qo'lyozma manbalarga, jumladan, Abu Rayhon Beruniy va uning “Osor al-boqiya” asariga qaratilayotgan e'tibor haqida so'z yuritilgan. Beruniy va uning ijodini o'rganish hukumat siyosati darajasida muhokama qilinib, uning ijodini o'rganish ma'naviy hayotimizning muhim bir jihatlaridan biri ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Prezident qarorlari, Abu Rayhon Beruniy, “Osor al-boqiya”, 1050 yillik yubiley, YUNESKO, Eduard Zaxau, turli xalqlar haqidagi tarixlar, marosimlar, tarixiy-etnografik asar.

Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan, o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

Mamlakatimizda, ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy merosni tiklash, saqlash, o'rganish va kelajak avlodning ma'naviy mulkiga aylantirish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'lkamiz tarixi haqida nafaqat mahalliy, balki mamlakat tashqarisida ham qo'lyozma asarlarning saqlanishi, namoyish etilishi va o'rganilishi jiddiy tus olib bormoqda. Tariximizni yoritishda katta ahamiyatga ega bo'lgan qo'lyozma manbalarni saqlash va o'rganish borasida hukumatimiz tomonidan ham yetarlicha e'tibor qaratib kelinmoqda. Chunonchi, Prezidentimizning 2017 yil 24 may kuni "Qadimiy qo'lyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" [1] qarori imzolandi. Yurtimizda asrlar davomida Markaziy Osiyo bo'yicha eng boy qo'lyozma meros jamlanganini e'tirof etish o'rinli. Ushbu qaror asosida turli maskanlarda saqlanayotgan noyob osori-atiqalar o'rganilishi davom ettirilishiga zamin tayyorlandi. Bu kabi noyob osori-atiqalar qatoriga ,shubhasiz, Beruniyning "Osor al-boqiya" asarini ham kiritishimiz mumkin.

Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida (2020 yil) "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 5000 nusxada chop etilgan Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari ham qaror ijrosi doirasidagi vazifalarning ijrosi hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2020 yil 14 sentabrdagi 4642-sonli xulosasi asosida Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti bir qator olimlari: tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmedov, akademiklar: Azimboy Sadullayev, Abdulla Azamov, professorlar Bahrom Abduhalimov, Surayyo

Karimovalarning ko'p yillik mehnatlari samarasi o'laroq Beruniy asarining yangi nashri omma e'tiboriga havola qilindi.

Ushbu Abu Rayhon Beruniyning (973–1048) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” («Osor al-boqiya») asari arab tilidan o'zbek tiliga tarjimasining ikkinchi tuzatilgan qayta nashri bo'lib, «Osor al-boqiya»da izohlar yangidan ishlanib, ko'rib chiqilib, o'rganilib, ularda tarixiy masalalar, aniq fanlarga oid muammolar keng yoritilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 avgustdagi PQ-361-son “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida” gi qaroriga [2] ko'ra, 2022–2023-yillarda buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligi YUNESKO shafeligida xalqaro miqyosda keng nishonlanadi. Shunga asosan, jumladan:

- “Buyuk Beruniy merosi” xalqaro sayyohlik marshrutlari yo'lga qo'yiladi;
- 2023-yil yakunigacha Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida Abu Rayhon Beruniy majmuasi quriladi;
- alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo'lyozma va boshqa madaniy boyliklar restavratsiya qilinadi;
- Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi va Xorazm Ma'mun akademiyasida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va konservatsiya qilishga ixtisoslashgan laboratoriya tashkil qilinadi;
- o'quvchilar o'rtasida Xorazm viloyatida tegishli fan bo'yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasi o'tkaziladi.

Beruniy “Osori boqiya” (“Al- osor al boqiya an al- qorun al-holiya” – Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini 1000 yili boshlab, 1003 yili yozib tugatgan. Asar Yevropada “Xronologiya”, o'zbek sharqshunosligida “Osor al-boqiya” nomi bilan mashhurdir [3]. Olim asarini o'sha kezlarda unga homiylik qilib turgan Kasbiybo'yi yerlarining hokimi Shams al- Ma'oliy Qobus ibn Vashmgir (976-981, 998-1012) ga bag'ishlangan va uni Jurjonda (Kaspiy dengizining janubiy sharqidagi shahar)

yashaganida yozib tamomlagan. Bu asar Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari bo'lib, uni 27 yoshida yozgan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” da Beruniy o'ziga ma'lum bo'lgan xalqlar: yunonlar, rumliklar, eroniylar, sug'diylar, xorazmliklar, harroniylar, (yulduzga topunuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlarning butun yil hisoblari, turli bayramlari va mashhur kunlarining mufassal tasvirini bayon etgan.

Beruniy bu asarni nima uchun yozganligi haqida shunday deydi: “Adiblardan biri mendan turli xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shaxobchalari, ya'ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtilof sabablari, mashhur bayramlar, vaqtlar va yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zisi amal qilmaydigan boshqa marosimlar haqida so'radi va men imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan bir asar yozishga da'vat etdi” [4].

Beruniy musulmon olimlari ichida birinchi marta yahudiylar kalendari haqida sistemali ma'lumot beradi [5]. “Osor al-boqiya” chulg'ab olgan masalalar bular bilan chegaralanib qolmaydi. Unda juda ko'p tarixiy voqealar, turli millat va dinlarga oid muhim ma'lumotlar, payg'ambarlar va soxta payg'ambarlar, podshohlar, mashhur tarixiy shaxslar va olimlar haqida ham axborot berilgan. Kitobning O'rta Osiyo xalqlari, ularning madaniyati va tarixiga doir ma'lumotlari juda muhim ahamiyatga egadir. Asarga bir qancha she'riy parchalar ham kiritilgan, so'g'd va xorazm tillaridan parchalar ham keltirilgan. Afsuski, til namunalari bo'lgan bu yodgorliklar keyingi qo'lyozmalarga buzib ko'chirilgan.

“Osor al-boqiya” Beruniyning boshqa asarlari kabi arab tilida yozilgan. Bu kitobni birinchi marta Yevropa olimlariga tanishtirgan kishi mashhur nemis sharqshunos va beruniyshunos olimi Eduard Zaxau (1845-1930) bo'ldi. U 1876-1878 yillarda Leypsigda “Osor al-boqiya” ning arabcha nusxasini birinchi marta nashr etdi. Zaxau arabcha nusxasini nashrga tayyorlashda o'sha vaqtda mavjud bo'lgan uchta qo'lyozmadan foydalangan. 1879 yili Zaxau “Osor al-boqiya” ning o'zining tanqidiy matni asosida

Londonda ingliz tilidagi tarjimasini nashrdan chiqardi. Tarjimaga Beruniyning mufassil tarjimai holi va izohlar ham ilova qilingan. E. Zaxauning tanqidiy nashri asarning XVII, XIX asrlarda bitta umumiy nusxadan ko'chirilgan nusxalariga asoslangan bo'lib, bu uchala qo'lyozma nusxada qator suqutlar (matnning tushurib qoldirilgan, yetishmaydigan yeri) mavjud edi. 1321-yili (milodiy 1943- yili) eronlik sharqshunos Akbar Dono Sirisht Sirafiy E. Zaxauning tanqidiy matnidan asarning forsha tarjimasini Tehronda nashr etdi. Bu nashrning mikrofilmi O'zRFA Sharqshunoslik institutida № 69 raqami bilan saqlanadi [6].

1957- yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Shaqrqshunoslik institutining kata ilmiy xodimi, arabshunos olim M. A. Sale birinchi marta “Yodgorliklar” ning to'la ruscha izohlangan tarjimasini nashr etdi. Kitobning boshida Xorazmda uzoq yillar arxeologik qazishmalar olib borgan mashhur arxeolog S.P. Tolstov va O'z R FA Astronomiya institutining direktori V.P. Sheglovlarning kirish maqolalari keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning bu asari hurfikrlik va erkparvarlikka oid, islomga zid bo'lgan ta'limotlar tarixi bo'yicha, ijtimoiy zulmga qarshi, ozodlik uchun, inson shaxsining erkin rivojlanishi uchun mardona kurashuvchilar haqida qimmatli tarixiy-adabiy yodgorlik bo'lib qoldi.

Bu ulug' siymoning, jamiyatimiz milliy–ma'naviy hayotini shakllantirishda, hozirgi barkamol avlodni ilm-fanga e'tiqodli qilib o'stirishda, milliy g'oyaning asosiy tamoyillariga sodoqat ruhida tarbiyalashda, olimning ilmiy merosidan foydalanish, yoshlarning ilmiy-nazariy dunyo qarashini kengaytirish uchun uning kashfiyotlarini asl mohiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/-3211987>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6172044>
3. М.К. Beshimov. хоразм маъмун академияси ахборотномаси. Beruniy “qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining ahamiyati Хива-2021
4. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т.: Ўзбекистон, 1968.- Б.487

5. И.Ю.Крачковский. Избранное сочинения т. IV. Москва-Ленинград, 1957. – Б.252

6. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т.: Ўзбекистон, 2020. – Б.622

ETNOLOGIYADA EVOLYUTSION MADANIYAT NAZARIYASI, UNING SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

F.X.Utayeva,

BuxDU, t.f.f.d.(PhD)

B.Safarov,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'arbiy Yevropada vujuga kelgan evolyutsion madaniyat nazariyasi, uning shakllanish tarixi va rivojlanishi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada deyarli bir vaqtning o'zida Germaniya, Avstriya, Angliya, Fransiya va AQShda vujudga kelgan evolyusion madaniyat nazariyasining o'ziga xos jihatlari haqida qiyosiy tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: evolyutsionizm, ijtimoiy birdamlik, jamoaviy g'oyalar, o'g'irlash orqali nikoh, ekzogamiya (qonli jamoada nikoh va oilaviy munosabatlarni taqiqlash), poliandriya (ko'p millatli), antropologiya

XIX asrning o'rtalariga kelib etnologiyada etnomadaniy materiallar asosida o'ziga xos talqin beruvchi yangi yo'nalishlar, konsepsiyalar va maktablar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari qat'iy ilmiy yo'nalishlarga tegishlilik va tizimlashgan shakli bilan ajralib turganligi uchun qisqa muddatlarda ommalashib ketgan.

Shubhasiz, fandagi bunday mashhur oqimlar va maktablar qatoriga diffuzionizm, evolyutsionizm, strukturalizm, etnologiyaning tarixiy Amerika maktabi mfunksionalizm, madaniy relyatizm kabilar kiradi [1]. Dastlabki etnologik nazariya-evolyutsionizmning rasman shakllanishi XIX asrning o'rtalarida umum metodologik dasturlar va kashfiyotlarning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bunday

qarashlar orasida o'sha davr fanida rivojlanish, taraqqiyot, evolyutsiya qoidalarining tasdiqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra dunyodagi har qanday o'zgarish ichki determinizm (narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishi)ga asoslanadi [2]. Mazkur nazariya asosida dastlab tabiiy fanlardagi ko'pgina jarayonlarga izoh va tavsiyalar berilgan. Tabiiy fanlardagi bunday qarashlarning yakuni sifatida XIX asrda evolyutsionizm g'oyasining yaratilishi va oxir oqibat uning g'alabasiga sabab bo'lgan.

Evolutsionizm nazariyasi tabiiy fanlarda keskin burilish yasashi bilan birgalikda inson va madaniyatlar to'g'risidagi mashhur g'oyani etnologiya faniga ham olib kirgan. O'z navbatida, ko'plab evolyutsionistlar o'z asarlarini tabiiy fanlarda erishilgan kashfiyotlardan ilhomlanib, ruhlanib yaratilganligini e'tirof etganlar. Evolyutsionizm tarafdorlari o'zlarining asosiy qarashlari, vazifalarini insoniyat madaniyati rivojlanishida, turli xalqlar madaniyatlarining rivojlanishida deb hisoblaganlar.

Evolutsionizm tarafdorlari bir vaqtning o'zida turli mamlakatlarda paydo bo'lib, evolyutsion yo'nalishning shakllanishi natijasida etnologiya fan sifatida faoliyat ko'rsata boshlagan [3]. Deyarli bir vaqtning o'zida Germaniya, Avstriya, Angliya, Fransiya va AQShda XIX asr o'rtalarida madaniyatning birinchi evolyutsion tushunchalari paydo bo'ldi. Ushbu yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilar edi:

insoniyatning birligi va yagona chiziqli evolyutsion yo'lda madaniyatlarning bir xilligi g'oyasi-oddiydan murakkabgacha;

insoniyat tarixida barcha jamiyatlar uchun universal bosqichlarning mavjudligi g'oyasi;

ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy nekbinlik g'oyasi, madaniyatlarning kelajakdagi rivojlanishining aniq-ratsionalistik idealidir;

madaniyat hodisalarining psixologik asoslanishi va ko'pincha jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini shaxsning aqliy xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Mazkur maktab namoyandalari Angliyada Gerbert Spenser, Eduard Teylor, Jeyms Frezer, Germaniyada Adolf Bastian, Teador Bays, Fransiyada Sharl Leturno, AQSHda Lyus Genri Morgan o'z qarashlari, ilmiy izlanishlari bilan etnologiya faniga salmoqli hissa qo'shdilar, yangi g'oyalarini fan doirasida tatbiq qila oldilar [4]. Nemis

etnologiyasining haqiqiy otasi va rivojlanish nazariyasining asosiy ishlab chiqaruvchisi Adolf Bastian (1826-1905) hisoblanadi [5]. Ta'lim shifokori Adolf Bastian hayotining deyarli uchdan bir qismini sayohatlarda o'tkazdi va dunyoning deyarli barcha burchaklariga tashrif buyurdi. Bastian o'z sayohatlaridan ko'plab etnografik to'plamlarni olib keldi, ular keyinchalik u yaratgan Berlin xalq boshqaruvi muzeyining asosini tashkil etdi.

Shuningdek, u Berlindagi "antropologiya, etnologiya va tarixdan oldingi jamiyat" ning tashabbuskori va faol a'zosi, shuningdek "Etnologiya jurnali" jamiyatining bosma organining muharriri bo'lgan. Bu inson ruhining birligi, A.Bastianning so'zlariga ko'ra, inson madaniyatining birligi ham belgilab qo'yilgan. Har bir xalq izolivanno yashagan paytda o'zgarishsiz qoladigan ma'lum bir g'oyalari doirasini yaratadi. Boshqa xalqlar bilan muloqotda g'oyalari doirasiga yangi faoliyat turlarini rag'batlantiradigan yangi qoidalar kiritiladi. Madaniyatni tasvirlash uchun u har qanday madaniyatning o'ziga xos hujayralari bo'lgan va Bastiandan "elementar g'oyalari"nomini olgan ba'zi bir asosiy elementlar orqali madaniyatni tavsiflashdan iborat bo'lgan tabiiy fan usulidan foydalangan. Uning fikriga ko'ra, ular barcha hodisalarning asosini tashkil etdi va tarixiy rivojlanishni tushunish uchun kalit berdi, bu dunyoning turli viloyatlarida boshlang'ich g'oyalarga qaraganda yuqori darajadagi tashkilotning "xalq g'oyalari" shaklida namoyon bo'ldi [6]. Xalq g'oyalari inson madaniyatining rivojlanishining universal qonunlarini aks ettiradi va shaxs emas, balki guruhga tegishli. U madaniyat hodisalarining xilma-xilligini bir nechta asosiy elementlarga kamaytirishga intildi, ularning umumiyliigi va tarkibi uning nazariy tuzilishiga aylandi. T. Vaytsdan farqli o'laroq, inson ruhining rivojlanishi daho odamlarning tasodifiyligi va harakatchanligi natijasidir, A. Bastian ruh, tafakkur butun insoniyat uchun bir xil darajada rivojlangan deb ishongan. Natijada, u butun insoniyatning aqliy faoliyat qobiliyatlari tengligi haqida gapirdi. Insoniyatning ayrim guruhlaridagi irqiy va madaniy farqlar u atrof-muhitdagi farqlarni tushuntirib berdi va shu sababli u "geografik viloyat" tushunchasidan foydalandi. Ammo u uni ma'lum bir hududning belgisi sifatida emas, balki mavhum tushuncha sifatida ishlatgan. Shveysariyalik olim Ioxann Yoqub Baxofen (1815-1887) klassik filologiya va

huquqshunoslikni o'rgangan va 1839-yilda Rim fuqarolik huquqi bo'yicha dissertifikatni himoya qilgan. U insoniyat jamiyatining madaniyati va ijtimoiy institutlarining evolyutsion rivojlanishi g'oyasi bo'yicha o'z xulosalarini asoslagan nazariyotchi sifatida shuhrat qozondi. 1861-yilda nashr etilgan "Onalik huquqi" fundamental asarida Baxofen onalik munosabatlari va onalik huquqining ustuvorligini gipotezasini asoslaydi, bu insoniyat tarixida madaniyat rivojlanishining universal bosqichi sifatida matriarxiya yoki ginekokratiya davri mavjudligini ko'rsatadi. Umuman olganda, nemis evolyutsionistlari madaniyatning rivojlanish nazariyasini nazariy asoslashga katta hissa qo'shdilar va etnologiyani ilmiy yo'nalishdan madaniyat va jamiyatning mustaqil faniga aylantirishga ta'sir qildilar. Etnologiyada evolyutsion yo'nalish rivojlanishining eng yuqori bosqichi ingliz olimlarining ismlari bilan bog'liq. Ingliz olimi Jon Fergusson Mak-Lennan (1827-1881) madaniyat tomoni sifatida nikoh va oilaviy munosabatlarni o'rganishga urg'u berdi. U dunyo olimlarining e'tiborini turli madaniyatlarda mavjud bo'lgan urf-odatlarining qiziq xususiyatlariga qaratdi: o'g'irlash orqali nikoh, ekzogamiya (qonli jamoada nikoh va oilaviy munosabatlarni taqiqlash), poliandriya (ko'p millatli). Yevropaliklar uchun juda g'alati bo'lib, bir ayol emas, balki bir nechta er bo'lishi odat edi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiriga kelib etnologiya yo'nalishida to'plangan ilmiy materiallar evolyutsionizm yo'nalishining haqiqiy hayotga to'g'ri kelmasligini yaqqol namoyon qila boshladi. Xususan, bu yo'nalish tarafdorlari madaniyatdagi miqdoriy o'zgarishlardangina kelib chiqib madaniyat va uning tarkibiy qismlarining qayta tug'ilishi kelajakdagi paydo bo'ladigan barcha madaniyatlarni insoniyat tarixining bosqichlari bilan bog'lanishini taxmin qilib izohlab bera olmadilar. Yangi etnologik ekspeditsiyalar evolyutsion qarashlarni rad etdi va bu borada yangicha qarash va yo'nalishlarga ehtiyoj sezildi. Ilmiy zaruriyat tufayli yangi antievolutsion nazariylar va maktablar tarmoqlari vujudga kela boshladi. Ko'plab etnolog olimlar bu qarashlardan voz kehdilar.

ADABIYOTLAR

1. Ashirov A Etnologiya T “Yangi nashr” 2014

2. М.Қурбонова Этнология фанининг асосий йўналиш ва мактаблари Бухоро 2019
3. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. (Ўқув қўлланма). Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. Т.: 2007
4. М.Қурбонова Этнология фанининг асосий йўналиш ва мактаблари Бухоро 2019
5. Токарев С.А. История зарубежной этнографии. М.: «Высшая школа».1978
6. Введение в этнографию. Учебное пособие. Изд. второе, исправленное и дополненное. Ленинград, 1991.-С.143

О'ZBEKISTONDA MAHALLA BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI

Sa'dullayev Umidjon Shokir o'g'li,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

sadullayevumidjon2701@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda eng quyi boshqaruv tizimi mahallada xotin-qizlarning roli, ularning mahalla boshqaruvidagi ishtiroki tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mahalla boshqaruvi, xotin-qizlar faoli, gender tenglik, taraqqiyot strategiyasi, xotin qizlar huquqi.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida xotin-qizlarning davlat organlarida va mahalliy boshqaruv tizimida ishtiroki ortib bormoqda. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvida faolligi huquqiy, demokratik davlatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Dunyoda gender tenglik, xotin-qizlarni davlat boshqaruvidagi rolini oshirish, ilm-fan sohasiga xotin qizlarni jalb qilish, xotin-qizlar huquqlari dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada xalqaro tashkilotlar va dunyoning yetakchi mamlakatlari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ham shu mamlakatlar qatoridan joy olmoqda. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

2019-yil 3-sentabrda e'lon qilindi. Qonunning maqsadi 1-moddada quyidagicha ifodalangan: Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, - deb ko'rsatib qo'yilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor berilgan. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmonining oltinchi maqsadi xotin-qizlarning huquq va erkinliklari va ularni ta'minlashga qaratilgan.

-Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash.

- Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash.

-Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.

-Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish.

-Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.

-Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.

-Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash.

“Ayollar daftari” bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini

amalgga oshirish.[2] Davlat dasturida belgilangan maqsadlar ijrosi va mas'uliyati xotin-qizlar faoli zimmasida bo'ladi. Chunki bu lavozim egalari bevosita joylarda xotin-qizlar bilan bevosita ishlaydi.

2022-yil 13-aprel kuni Toshkent shahrida "O'zbekiston taraqqiyotida parlamentdagi ayollarning roli" mavzusida ikkinchi forum bo'lib o'tdi. Bu forumda xotin-qizlarning O'zbekiston davlat boshqaruvidagi ishtiroki tahlil etilgan. Bunga ko'ra: Parlamentlararo ittifoqning "Siyosatdagi ayollar" xalqaro reytingida O'zbekiston xorijiy mamlakatlar orasida 45-o'rinni egallab, top-50 talikdan o'rin egallagan. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foiz, siyosiy partiyalarda esa 44 foizga yetdi[3]. Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki O'zbekistonda xotin-qizlarning boshqaruv tizimida faolligi ortgan. O'zbekistondagi mahallalar boshqaruvida ham xotin-qizlar faol ishtirok etishmoqda. 2022 yilning 9-iyun kuni Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvat vazirligi tomonidan Oliy Majlis Senati bilan hamkorlikda "Mahalla — islohotlar markazi yoki aholini rozi qilish, hududlarni rivojlantirishda mahalla raisining o'рни" mavzusida anjuman tashkil etildi. 2019-yilgi saylovlarda 8,9 foiz ayol raislar saylangan bo'lsa, 2022 yilgi saylovlarda 11,8 foiz - 1 104 nafar ayollar mahalla raisi bo'ldi. Bu ko'rsatkich, Toshkent viloyatida 133, Toshkent shahrida 130, Andijonda 123, Namanganda 113, Farg'onada 105 nafarni tashkil etadi.[4] Bu raqamlarni Buxoro shahri misolida tahlil etadigan bo'lsak, 2022-yilgi saylovlarda hududdagi 65 ta mahallada saylangan mahalla raislarining 26 tasini xotin-qizlar tashkil etadi. Saylangan mahalla raislarining 46%ini xotin-qizlar tashkil etishi mahalla boshqaruv tizimida ayollar nufusining ortib borishidan dalolat beradi. Yangi O'zbekistonda mahalla tizimiga e'tibor kuchaymoqda. Mahalla aholisining har bir qatlami bilan ishlaydigan alohida mas'ul shaxslar tayinlandi. Mahallada "beshlik" aniq maqsad yo'lida birlashib, mahalla rivoji uchun xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Xabaringiz bor, respublika xotin-qizlar tashkiloti hozirgi vaqtda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi sifatida yangicha mazmunda faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'mitaning

vakolat va faoliyat doirasi kengaytirilib, uning tarkibida bilimdon va yuqori malakali yangi kadrlar jalb etildi. Jumladan, birinchi marta quyidagidek bo'g'ida, 9 ming 400 dan ziyod mahallada ayollar muammolarini hal etishga ko'maklashadigan xotin-qizlar faoli lavozimlari joriy etildi [5]. Shu o'rinda yangi joriy etilgan "xotin-qizlar faoli" lavozimi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" prezident farmoniga ko'ra har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi. Bu haqida qonunda quyidagicha bayon qilingan: "Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi har bir mahallada mahalla raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis lavozimi o'rniga xotin-qizlar faoli lavozimi mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibi saqlangan holda bir nafardan joriy etilsin".

Prezident farmonida quyidagilar mahalladagi xotin-qizlar faolining asosiy vazifalari etib belgilangan:

-xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-xotin-qizlarning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokim yordamchisi bilan hamkorlik qiladi;

-“Ayollar maslahat kengashlari” bilan yaqin hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab

chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;

-xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish.[6]

Xotin-qizlar faolining asosiy vazifalaridan yana biri ayollar daftari ma'lumotlar bazasini yuritish hisoblanadi.

"Ayollar daftari – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi. Ushbu daftarga kiritish bo'yicha xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi, ma'lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi. So'nggi yillarda "Ayollar daftari" doirasida ham katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatda salkam 642 ming nafar opa-singillarimizga amaliy yordam ko'rsatilgani bu boradagi ishlarimiz ko'lamidan dalolat beradi.[7]

Vobkent tuman Nayman mahalla xotin-qizlar faolining faoliyati ham maxsus tadqiqot shaklida o'rganildi. Nayman mahallasida 5 ta qishloq bo'lib, aholisi 3335tani tashkil etadi, shundan 1685tasi ayollar hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu mahallada 701 ta xonadon, 904ta oila mavjud. Mahalla hududidagi ayollarni har taraflama qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, namunaviy oilani shakllantirish sohasida xotin-qizlar faoli "Oqila ayollar" harakati bilan hamkorlikda tushuntirish ishlari olib borilgan. Yoshlarni turmushga tayyorlash bo'yicha davra suhbatlari tashkil etilgan, 3ta yosh oila "oilaga tayyorlov" kurslarida o'qitilgan. Xotin qizlarning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo'yicha mahallaning ishsiz ayollarining 2tasiga tikuv mashinkasi, 1tasiga averlo tikuv mashinkasi, 1 ayolga issiqxona, 4tasiga mini dugali issiqxona, 3ta ayolga inkubator apparatlari subsidiya asosida berilgan. Bundan tashqari 10 ta ayolga

tikuv mashinkasi, 1ta ayolga inkubator apparat olish uchun hujjatlar tayyorlab berilgan. Ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida 115 ta ayol ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan bo'lib, ular turli moddiy yordam mablag'larini olmoqdalar. "Ayollar daftari" ma'lumotlar bazasini tahlil qiladigan bo'lsak, mahallada ishsiz ayollar soni-64ta, tadbirkor ayollar soni-9ta, boquvchisini yo'qotgan bevalar soni -19ta, nogiron frazandi bor ayollar soni-5 tani tashkil etadi. Mahallada uy-joyga muhtoj xotin qizlar yo'q. Bitta ayolning uy-joylari hokimiyat yordami bilan ta'mirdan chiqarib berilgan. 2023-yilda "ayollar daftariga" 116ta ayol ro'yxatga olingan bo'lib, ular bilan manzillli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu lavozimning joriy etilganiga qisqa muddat bo'lishiga qaramasdan bir qancha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan.[8]

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Yangi O'zbekistonda mahalla boshqaruvida ayollarning o'rnini ortib bormoqda. Mahalla tizimida xotin-qizlar bilan ishlashning o'ziga xos tizimi yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2019-yil 3-sentabr//lex.uz

2. „O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.//lex.uz

3. 2022-yil 13-aprel kuni Toshkent shahrida "O'zbekiston taraqqiyotida parlamentdagi ayollarning roli" mavzusida ikkinchi forumi.gazeta.uz sayti

4. 2022 yilning 9-iyun kuni Mahalla va nuroniylarni qo'llab- quvvat vazirligi tomonidan Oliy Majlis Senati bilan hamkorlikda "Mahalla — islohotlar markazi yoki aholini rozi qilish, xududlarni rivojlantirishda mahalla raisining o'rnini" mavzusida anjuman tashkil etildi. yuz.uz sayti

5. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi-Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish-doimo e'tiborimiz markazida.//”Milliy tiklanish” 2023-yil 8-mart

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" prezident farmoni.//lex.uz

7.O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi-Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish-doimo e'tiborimiz markazida.//”Milliy tiklanish” 2023-yil 8-mart

8.Dala ma'lumotlari.Vobkent tuman.Nayman mahalla.2023-yil

Ilk o'rta asrlarda bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlar

Shuhrat Qudratov,

BuxDU, t.f.f.d(PhD)

Shaxribonu G'aybullayeva,

BuxDU, Etnografiya, etnologiya va antropologiya 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Dunyoning turli makonlari singari O'rta Osiyo hududida ham insoniyat qadim zamonlardan yashab kelmoqda. Bola dunyoga keldimi, albatta, u bilan bog'liq qator urf –odat va marosimlar o'tkaziladi. Har bir xalqning o'zining milliyligi, o'tmishi bilan bog'liq marosimlari mavjuddir. Ushbu maqolada turkiy xalqlarning ilk o'rta asrlardan buyon amal qilinib kelayotgan bola tug'ilishi va u bilan bog'liq marosimlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Urf – odat, marosim, bola tug'ilishi, ism qoyish , beshikka belash, soch olish, magik qarashlar, totemizm.

Har bir xalqni o'rganar ekanmiz, ularni bir biridan ajratib turuvchi etnografik omil sifatida birinchi navbatda urf- odat, marosim va an'analarini aytishimiz mumkin. Oila va oilaviy marosimlar etnosga oid madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi xayala davomchisi hisoblanadi. Kishilar hayot faoliyati bilan bog'liq, an'analar ijtimoiy-siyosiy an'analarga qaraganda birmuncha mutaassibroq, konservativroqdir. Tug'ilish, nikoh va o'lim bilan bog'liq, marosimlar — bu tafakkurga yo'naltirilgan, balki hissiyot

va ruh bilan bog'liq, muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ularning ko'plari kelib chiqish asoslariga ko'ra qadimiy e'tiqodlar va diniy qarashlarga borib taqaladi.

Mashhur ingliz faylasufi K. Duosonning aytishicha, qon-qarindoshlilik, nikoh va oila bilan bog'liq barcha institutlar va marosimlar diniy kelib chiqish tarixiga ega va ularning ko'plari diniy sanksiyalarda o'z tasdig'ini topgan. Qolaversa, mazkur jarayonlarda etnosga xos lokal milliy va diniy xususi-yatlar birmuncha yorqinroq namoyon bo'lishi bois bu turkumga kiruvchi marosim va urf-odatlar ma'lum bir xalq; etnomadaniyati hamda etnik dunyoqarashi asoslarini tadqiq qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu davrlarga oid oila va oilaviy marosimlarni asosan so'g'diy hujjatlarda va turkiy run bitik toshlaridan o'rganishi mumkin. Bundan tashqari xitoy manbalarida ham, Turkiston o'lkasi haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkindir. Shu manbalar asosida yaratilgan bir nechta tarixshunos olimlarning asarlaridan ham o'rganishimiz mumkin.

Oila va oilaviy marosimlarning bir necha turlari mavjud. Masalan, bola tug'ilishi bilan bog'liq, oila qurish bilan bog'liq, to'ylar bilan bog'liq yoki aza marosimlari kabi turlarga ajratish mumkin.

O'zbeklardagi ayolning homiladorlik davri bilan bog'liq, urf-odatlariga binoan, ona o'z homilasini yovuz kuchlar xurujidan omon saqlashi kerak bo'lgan, bu uchun muayyan tartib-taqiqlarni bajarishi lozim bo'lgan. Bu qoidalarga yoki taqiqlarga binon homilador ayolning qorong'uda yolg'iz yurishi ma'n qilingan; homilador ayolga bolasi o'lgan yoki tug'mas xotinlar izini bosish taqiqlangan. Homiladorlik davridagi ona bilan bolani yovuz kuchlar ta'siridan saqlashga yo'naltirilgan afsungarlik ko'rinishlari animistik e'tiqodlar asosida paydo bo'lgan. Chaqaloqning sog'lom bo'lib o'sishi uning ona qornidalik davridayoq, balo-qazolar, yovuz ruhlardan himoya qilinishiga bog'liq degan ishonch ana shu turdagi afsungarlik ko'rinishlari vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Chaqaloq tug'ilishi paytida bola va onaga turli ins-jinlar ziyon yetkazar ekan. Shu bois ajdodlar ruhiga bag'ishlab oq mato, bir kosa un va pul ko'tariladi hamda oq, paxta olinib, homilador ayolning ustidan uch marta aylantirib qo'yiladi. Qolaversa, uning tug'ilayotgan bola haqida hech kimga bildirilmagan, hattoki qo'shnilar ham

sezishmagan. Agar bu voqea xususida boshqalar eshitsalar tug'ish jarayoni cho'zilib, qiyinlashadi degan tushuncha mavjud bo'lgan. Xuddi shu tushunchaga e'tiqod bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Laqay o'zbeklarida homilali ayol farzand tug'ish jarayonida qiynalib, chaqaloq tug'ilavermasa oiladagi erkak miltiq bilan ikki-uch o'q uzib, tug'ishga xalaqit qilayotgan yovuz ruhlarni haydagan.

Tug'ilgan chaqaloqning kindigi doya momolar tomonidan umri uzun, rizqi butun bo'lsin degan niyatda yuqoriga qarab kesilgan. Aytishlaricha, agar kindik pastga qaratib kesilsa go'yoki bola yo'lda yurgan paytda qora tovon kasaliga chalinib nobud bo'lar ekan.

Kishilarga ism qo'yish tarixi totemizm, shomonlik, afsungarlik, ajdodlar e'tiqodi kabi qadimiy diniy e'tiqod va topinishlar bilan ham bog'liq. Ba'zi ismlar bolaga og'irlik qiladi, degan mulohazaga ham borilgan. Hatto bola bu ulug', ogir nomni ko'tara olmay baxtsizlikka uchrashi mumkin, deya irim qilingan. Umuman bunda mutanosiblik-munosiblik nutqai nazariga amal qilingan. Shu bilan birga juda qadim zamonlardan bolaning sog bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Ismda taqdirga ishorat bor degan g'oya xayauzgacha yashab kelmokda. Binobarin, chakdlokka muvaffakiyatli tanlangan va berilgan nom uning taqdirini o'zida mujassam etadi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonilgan. Natijada odamlar "xosiyatli" (qutli) va "xosiyatsiz", yaxshi va yomon ismlar bor, deb tasavvur qilganlar. Shu sababli chaqaloqning turli kasalliklarga chalinaverishi yoki oilada bolalarning nobud bo'laverishi, bola badanida turli nuqsonlar mavjud bo'lishi, bundan tashqari farzandning kelgusi baxti uning ismiga bog'liq deb tasavvur qilinadi. Natijada chaqaloqqa beriluvchi ism odamni o'zaro farqlash, atashgina uchun emas, balki uni har xil balolardan saqlaydigan, himoya qiladigan vosita ham hisoblangan. Oilada farzand birin-ketin nobud bo'laversa farzandga Tursun, To'xtasin, O'lmas, Turdi, Turg'un, Turg'unoy, Ergash, Yo'ldosh, Mahkam kabi ismlar qo'yilgan. Qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga) Oy, Kun (quyosh)'va boshka osmon jismlari qudratiga sig'inish asosida Oyxon, Oysiz, Yulduz, Hulkaroy, Cho'lponoy, Quyoshbek, Tangriberdi kabi ismlar paydo bo'lgan. Ba'zida muqaddas deb ulug'langan hamda

sig'inilgan hayvonlar, jonivorlar, kushlarning nomlaridan ham ismlar qo'yilgan.. Bunday ismlar guruhiga Bo'ri, Bo'rivoy, Eshbo'ri, Arslon, Lochin, Burgut, Qo'chqor, Sherzod kabi ismlar kiradi. Bugungi kunda bu ismlarning barchasini uchratmasakda, biroq ayrimlari haligacha ishlatib kelayotganligini guvohimiz.

Ism qoyishda ba'zida bolaning o'zi ismi bilan tug'ilganligi haqidagi gaplarni eshitib qolamiz. Bu aqida ham bizga qadimdan qolgan hisoblanadi. Ba'zi chaqaloqlar badanidagi qandaydir ortiqcha belgilar bilan: xol, toj, qizil tamg'a, ortiqcha barmoq va boshqa belgilar bilan tug'ilgan. Bu nuqson va belgilar bolalarga ism berishda hisobga olinmasa ular bolaning sog'ligi, hayoti, kelajak turmushiga xavf tug'diradi, deb tushunilgan. Bunday bolalarni o'z nomi bilan tug'ilgan bola, deb hisoblashgan va ularga o'sha ortiqcha belgilar nomidan yasalgan ismlar qo'yilgan. Masalan, Xolboy, Xolbibi, Anor, Anorvoy, Anorxon, Toji, Tojixon, Tojigul, Ortiqvoy, Norboy, Norjon, Ochil va boshqalar.

Qadimda xalq tasavvuri bo'yicha chaqaloq va onasini ins- jinslardan eson-omon asrash ularning chilla davri (chilla — forscha “chixil” — qirq degan ma'noni bildiradi) tartib qoidalariga qanchalik rioya qilishlariga bog'liq bo'lgan. Chilla inson hayotidagi xatarli, eng og'ir va eng mas'uliyatli davrni anglatuvchi atama hisoblangan. Odatda, farzand tug'ilganda va kelin-kuyov turmushining nikohdan, marhumning vafotidan keyingi 40 kunlik davriga nisbatan chilla atamasi qo'llanilgan va bu davrda ma'lum tartib-qoidalar, magik rasm-rusumlar, cheklashlar va tabularga amal qilinadi . Bu kabi irim-sirimlar xalq hayotida diniy e'tiqodlar bilan bog'liq an'analarning saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Asosan chilla bilan bog'liq marosimlar zardushtiylikdan saqlanib qolgan odatlar hisoblanadi.

O'zbek xalqi orasida bolani beshikka belashda qarindosh-urug'lar va mahallada hurmatli-e'tiborli, uvali-juvali, nikohi buzilmagan ayollar tanlangan. Bulardan biri doya momo (enaga) yoki o'zining katta buvisi bo'lishi shart edi. Bolani beshikka belash jarayonida «Qo'rqmas botir bo'lg'in, sog'lom o'sgin, uzoq yashagin!» degan niyat bildirib turilgan. Shu tarzda bola beshikka belanib, qo'l- oyoq bog'langandan keyin atrofdagilar beshik ustidan turli shirinliklar hamda o'rik, jiyda, pista, bodom kabi

mevalarni sochganlar. Ushbu sochqilar marosim qatnashchilari tomonidan teribolingan va o'z farzandlariga yaxshi niyatlar bilan ulashilgan. Bu odatni bugungi kunda ham Buxoro vohasida uchratishimiz mumkin. Faqat meva- chevalar sochish emas ballki tzamonaviy shrinliklar chaqaloq ustidan sochiladi. Ko'p odatlar o'rta asrlarda mavjud bo'lgani kabi bugungi kunda uning zamonaviylashgan shakli davom etib kelmoqda.

Chaqaloqning dastlabki “qorin sochi”ni olish ham katta tantanaga aylangan. Ajdodlarimiz “Sochda odamning joni, kuch-qudrati, magik quvvati mujassamlashgan” deb tasavvur qilganlar. Ular bolaning qorin sochlarini o'zlari olishdan cho'chib, piru badavlat, farzandli, keksa yoshli onaxonlarimizga oldirganlar va uni asrab-avaydab mevali daraxt tagiga ko'mganlar. Xuddi shu odatni bugungi kunda ham davom etayotganligini o'zimiz bir necha bor guvohi bo'lganmiz. Bunda biz inson sochi bilan jon tushunchasining bog'langanligini, qolaversa sochni mevali daraxt tagiga ko'mish bilan serpushtlik e'tiqodi unsurlarini ko'ramiz. Qozoq elshunosi A. Toleubayev bolaning dastlabki sochini olishdagi o'ziga xos bu kabi odatlarni magiya bilan bog'laydi . Soch bilan bog'liq bunday odat dunyoning ko'plab xalqlarida saqlanib qolgan. Dunyo xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda soch magiyasi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar uchraydi [2]. Mashhur elshunos J. Frezerning yozishicha, ibtidoiy odam o'zining sochini tanasining ajralmas qismi, ya'ni jonli narsa deb bilgan. Sochi olingan odam o'zining magik qudratidan maxrum bo'ladi, deb tushunilgan. Shu bois ular sochni asrab-avaylaganlar, uning oyoqosti bo'lmasligiga harakat qilganlar. Qabila boshliqlari, kohin va shomonlarning esa ba'zan umr bo'yi soch oldirishga haqlari bo'lmagan, uzun sochli odam tangri nazari tushgan ulug' zot sanalgan. Taniqli o'zbek folklorshunos olimi M. Jurayevning yozishicha, ana shunday mifologik karashlar xalqimiz orasida soch bilan bevosita aloqador bo'lgan “soch to'yi”, «kokil to'yi», “xaydar qo'yish”, “soch siypatar” singari magik xarakterdagi udumlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan [2]. Yuqorida aytib o'tgan barcha marosimlarimizda ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan diniy e'tiqodlar- totemizm, animizm, afsungarlik, shomonlik, zardushtiylikka oid marosimlar o'sha davr uchun ham bugungi kun uchun ham amalda bo'lganligini ko'rdik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tmishdan to bugunga qadar davom etib kelayotgan marosimlarimizning ildizi o'rta asrlarga borib taqaladi. Bunda asosan islom kirib kelguniga qadar bo'lgan diniy e'tiqodlarning o'rni katta ekanlini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Dawson Ch. God, History and Historians: an anthology of modern Christian views of history. New York, 1977.
2. Гаген-Торн НМ. Магическое значение волос и головных уборов в свадебных обрядах Восточной Европы // Советская этнография, 1933, №5-6,
3. Jo'rayev M. Soch magiyasi bilan bog'liq marosimlar. T-2004.
4. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori.
5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T-1968.
6. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари.
7. Dala tadqiqotlari materiallari

QADRIYATLAR MILLAT MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI

Qurbonova Manzila Boqiyevna,

BuxDU, dotsenti, t.f.n.

Kalonova Iroda Turgunovna,

Etnografiya, etnologiya va antropologiya

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi turli millat va elatlarning ma'naviyatga ta'sirini ifodalovchi tarbiyaviy qadriyatlari etnografik aspektda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Kebin kesmek, kebin karizi, Saukele, ikudzi, bolaning erkinligi, talablarning qat'iyligi.

Zamonlarning baland-past dovonlaridan o'tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylana boradi. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan

munosabatida, umuman, har bir tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma'naviyatining ko'zgusi deyishgan.

Yer yuzida xar bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan aloxida ajralib turadi. Tabiiyki, har qaysi xalqning bebaxo boyligi qadriyat va an'analari bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. "Milliy an'analar - millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning me'ros bo'lib qolish tarzi".[1]

Zamonaviy O'zbekiston xududida ozarbayjon xalqining etnik diaspora sifatida shakllanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'zbek va ozarbayjon tillari hamda madaniyatlarining o'xshashligi, shuningdek yuz yillardan beri davom etib kelayotgan qarindoshchilik rishtalari xalqlarning yaqinlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Har bir millatda oilaviy qadriyatlar o'ziga xos, tarbiya berishning millat mentalitetidan kelib chiqqan o'z uslublari mavjud. Bola tarbiyasida ozarbayjonliklar "O'z farzandingni kelajakda qanday bo'lishini istasang, o'zing hozir shunday bo'l" degan aqidaga amal qiladi. "Keksalar oilaning tayanchi"[2] deb bilishlari ularning qariyalarga bo'lgan iliq munosabatida aks etadi.

Ozarbayjonlik har bir oila qadimgi udumlar va an'analarni qadriyat sifatida saqlab kelishga harakat qiladi. An'anaga ko'ra mehmondo'stlikdan tashqari, kelgan mehmonga oziq-ovqat solingan xalta berib yuborishadi. Ular oila va uning an'alariga juda ham e'tibor bilan qarashadi. Ozarbayjon marosimlaridan biri "Kebin kesmek" nikoh to'yidan bir necha kun oldin bo'lib o'tadi. Unda "kebin karizi"- ya'ni nikoh shartnomasi imzolanadi, mahr puli, ikki tomon majburiyatlari yoziladi. Asrlar davomida ozarbayjon xalqi rioya etib kelgan bu udum ayolning ajralishi yoki erining vafotidan so'ng mulkga egalik qilish huquqini beradi. Oilalarida ajralishlarning kamligi ham oilani muqaddas makon deb qaralgani bilan belgilanadi. Agarda oilada farzand bo'lsa, bunday oilalar kamdan kam ajrshishadi. Ajrashgan taqdirda ham ota hech qachon o'z farzandini tashlab qo'ymaydi va bevosita uning tarbiyasi va ta'minotida qatnashadi.[3].[4]

Libos nafaqat, insonga ko'rk bag'ishlaydi, balki uning odob-axloqi, dunyoqarashi, fe'l-atvori, ma'naviyati darajasini ifodalash bilan bir qatorda qaysi millat vakili ekanligini ko'rsatadi. Saukele “sau”- “quyoshli, chiroyli”, “kele”-bosh degan ma'noni anglatib, ushbu bosh kiyimni kiygan qiz- “quyoshli, baxtli” bo'lishiga, uning ulkan muqaddas kuchga ega ekaniga ishonishgan, qizni yomon ko'zdan himoya qilishgan.[5]

Qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz kelinlarining bezagi sanalgan mazkur bosh kiyimning aynan konussimon baland qilib tikilishini sababi: azaldan xalqlar qo'shni qabilalardan ham kelin olib qiz berishgan. Tabiiyki kelin kelar ekan o'zi bilan turmush uchun kerak bo'lgan turli jihozlar, kelinlikka atalgan kiyim kechak, taqinchoq va turli buyumlarni keltirgan. Kelinni qarindosh urug'lari karvon bo'lib, birgalikda kuyov tomonga kelishgan. Biroq yo'l har doim ham havsiz bo'lmagan. Kelin xavotirda sabirsizlik bilan kutilgan. Uzoq kutilgan karvon yaqinlashganda, uning kelin kelayotgan karvon ekanligi, karvonda kelin kiygan bosh kiyim “saukele”dan bilib olingan. Chunki uzoqdan ham saukele aniq ko'ringan, shu sabab ham mazkur bosh kiyimni birinchi payqagan kishi xush xabar bilan- “Saukele! Saukele!” deb hayqirib ovulga o'tlanishgan. Saukele qozoq xalqi uchun millat g'ururi, or nomus belgisi, mazkur bosh kiyim oila ramzi sanalgan.[6]

Gruzin xalqi orasida bola tarbiyasiga oid quyidagi rivoyat keng tarqalgan. Avvallari odam qarisa, uni savatga o'tqizib, qoyadan tashlab yuborisharkan. Bir ko'r qariyaning ham bolalari otalariga savat to'qishni boshlashibdi. Ularning gaplarini eshitgan qariya so'rabdi: “Nima qilyapsizlar?”. — “Savat to'qiyapmiz”, — deyishibdi ular. “Kimga to'qiyotganingizni bilaman. Shunday savat to'qinglarki, u sizning bolalaringizga ham kerak bo'lsin”, — debdi qariya. Buni eshitib bolalari qora niyatlaridan qaytishgan ekan.[7]

Yaponlarning farzandlariga tarbiya berish usullari ko'pchilikni hayratga solib kelgan. Ularning tarbiya berish usuli “ikudzi”deb nomlanib, bu faqat pedagogik ta'lim berish majmui bo'libgina qolmay, yangi avlodni ta'lim olishiga yo'naltirilgan falsafadir! Yaponiyada ona “amae” deb nomlanadi. Bu so'z “amaeru” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “erkalash”, “homiylilik qilmoq” ma'nolarini anglatadi. “Amae” — o'z farzandining soyasidir.[8] Yaponlar bola tarbiyasida o'ziga xos tarbiya usullaridan

foydalanishlari “Kelajak uchun harakat qilmasang, yaqinda xarob bo‘lasan”, “Muvaffaqiyatsizlik — omad kaliti”, “Bilgan — gapirmaydi, bexuda gapirgan — bilmaydi”[9] kabi xalq maqollari mazmunida xam o‘z ifodasini topadi. Yuqoridagi maqollarni etnografik apektida tahlil qilsak, ular farzandni yoshligidan o‘z ustida ishlashga, qiyinchiliklarni to‘g‘ri qabul qilishga va kamtarlik sifatlarini shakllantirishga intilishadi.

Bola tarbiyalashda yaxudiy onalari o‘zgacha yo‘l tutishadi, ular farzandiga xech qachon “Sen yomonsan!”- deb aytishmaydi, aksincha “Sizday yaxshi bola, qanday qilib bunday axmoqlikni qila oldi?” deb savol berishadi. Zamonaviy yaxudiy tarbiya uslubi ikki qarama qarshi yo‘nalishni o‘zida birlashtiradi. Bular: bolaning erkinligi, talablarning qat‘iyligi. Bu ulubni quydagicha etnologik taxlil qilish mumkin, tarbiya-devorlari qattiq bo‘lgan katta bo‘sh xona. Yaxudiylar diasporasi vakillari uchun, ota-onalarning farzandlariga ta‘sir qilishi, ular bilan muloqot qilishi va o‘rgatish jarayoni faqat mexr-muhabbat, ishonch va qo‘rquv mavjud bo‘lganda muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Ota-ona mehrining etishmasligi bolani begonalashtiradi, imonning etishmasligi itoatsizlikni keltirib chiqaradi, qo‘rqmaslik xayotdagi o‘z yo‘llarini izlashga undaydi. Qachonki ota-ona qarib, kuchini yo‘qotganda, yaxudiy farzadlar ularni o‘zlari parvarishlashadi. Yaxudiy qadriyatlarida oilaning asosida ota-ona munosabati aks etganidan. Farzandlarni ularga nisbatan qattiq xurmatda bo‘lishga, ota-ona vazifasi o‘ta masuliyat talab etadigan masala sifatida ko‘rsatiladi. Oilalarda ajralishga yo‘l qo‘yilmaydi.[10]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yillar, asrlar davomida ma‘lum bir qarash, odat, tushuncha, tajribalar shafqatsiz zamonlar, bir necha avlodlar sinovidan muvaffaqiyatli o‘tsagina yanada sayqal topadi, rivojlanadi, xalq hayotida o‘z o‘rnini egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mustaqillik.T.-“Sharq”-2009.b.220

2. Қосимова Н. Озарбайжоннинг миллий қадриятлари ва урф- одатлари.//

<https://nargis.uz/?p=1063>

3. А. Г. Трофимова. Из истории семьи азербайджанцев Апшерона (1920—1950 гг.). — // Кавказский этнографический сборник / Под ред. В. К. Гарданова. — М.: Наука, 1969. — Т. 4. — С. 192

4. Солонец М., “И краски хны ложатся на ладони...”// Дўстық-Дружба. №1 (76), 2014 г.С.51-55

5. Тожимаматова М., Сиз "Саукеле" бош кийими ҳақида эшитганмисиз?// Правда востока. <https://yuz.uz/news/siz-saukele-bosh-kiyimi-haqida-eshitganmisiz>

6. Саукеле — венец казахской невесты. Дата обращения: 2 января 2018. Архивировано 23 декабря 2017 года.

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI - 70220206

INSONDAGI IXTIYOR MASALASI

J.N.Mamadazizov,

*BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Kalit soʻzlar: Hadis, feʼl, amal, taqdir, jabariy, qadariy, iroda, mashiat, ixtiyor, banda, bandalik, erk, iqror.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bandaning ish-harakati bilan bogʻliq eʼtiqodiy hukmlar bayon qilinadi. Hadislardagi maʼnolar batafsil tushuntiriladi. Zohiriy maʼnosi bir-biriga qarama-qarshi boʻlganlari jamlanadi. Umumiy xulosalar olimlarning fikrlariga tayanadi. Maʼlumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan vorid boʻlgan sahih hadislarining jumlasidan bir necha hadislar borki, insonlar ularga ishora qilib: “Mana bu hadislar inson majbur (ixtiyorsiz) ekanligiga, qadar esa inson hayoti uchun musayyar (ixtiyorsiz)lik qaydi ekanligiga dalolat qiladi. Shundan kelib chiqib, agar bir insonning taqdirida uni doʻzax ahlidan deb bitilgan boʻlsa, bas, u doʻzaxiyalar amalini qilishga, agar jannatiylar ahlidan boʻlsa, jannatiylar amalini qilishga majbur boʻladi va undan oʻzga chorasi yoʻq” , - deydilar [2. 118.].

Quyida biz bu hadislarni birin-ketin keltirib, ularning asl ma'nolarini yoritamiz va u hadislarda aslida jabariylik tushunchalarini keltirib chiqaradigan mazmun yo'q ekanligini, ahli sunna val jamoa mazhabi takidlaganidek, inson tasarrufotlarida o'zi ixtiyor qilgan narsaga yuzlanishida kasbdan foydalanishi, savob va iqob ham o'sha inson qilgan kasbiga muvofiq bo'lishini to'lig'icha bayon qilamiz.

Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi.

U kishi aytadilarki:

«Bizga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hadis aytdilar. U zot sodiqu masduqdirlar:

«Sizning har biringizning xalq qilinish moddasi onasining qornida maniy holida qirq kun jam qilinadi. So'ngra ana shu mislicha alaqa (zuluksimon qon) bo'ladi. So'ngra ana shu mislicha muzg'a (chaynalgan go'sht) bo'ladi. So'ngra ichiga ruh puflanadi. Va to'rt kalima: rizqi, ajali, amali va badbaxt yoki baxtligini yozish amr qilinadi. Undan boshqa ilohu ma'bud yo'q zot bilan qasamki, biringiz ahli jannatning amalini qilib kelib, o'zi bilan jannat orasida bir arshin qolganda, undan o'sha kitob o'zib ketib, do'zax ahlining amalini qiladi-da, unga kiradi. Albatta, biringiz do'zax ahlining amalini qilib kelib, o'zi bilan do'zax orasida bir arshin qolganida, undan o'sha kitob o'zib ketib, ahli jannatning amalini qiladi-da, unga kiradi», dedilar».

Imom Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan[1. 240.].

Insonlardan bir toifasi bu hadisni o'qib: "Demak, bani odam ichida jannat va ne'matlanish uchun yaratilganlari borki, ularga gunohu ma'siyat qilish ziyon yetkazmaydi. Yana bir toifani do'zax va badbaxt bo'lish uchun yaratganki, ularga solih amalu toatlar kor qilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, oxiratda kimdir ahli jannatdan bo'lsa, yoki ahli do'zaxdan bo'lsa, bu uning dunyoda qilgan amallari uchun emas, balki Alloh taolo ularni taqdiriga bitgan narsani natijasidir. Barcha insonlar ular uchun bitib qo'yilgan qadarning qurboni bo'lib, o'z tasarrufotlarida ixtiyori bo'lmaydi", – deydilar.

Bu mushkulotning yechimi quyidagicha bo'ladi.

Agar biz hadisni ushbu ma'noda, ya'ni xudojo'y inson qilgan amallarni Alloh taolo qiymatini tushiradi va uni rizosini qasd qilib bajarilgan ishlarni zoya qiladi, deb

tushunsak, u holda quyidagi oyatlarga xilof bo'ladi. Alloh taolo «Kahf» surasi 30-oyatida aytadi:

«Albatta, Biz imon keltirgan va yaxshi amallar qilganlarning, go'zal ish qilganlarning ajrini zoye qilmasmiz».

Alloh taolo «Baqara» surasi 143-oyatida aytadi:

«...Alloh imoningizni zoye qilmaydi. Albatta, Alloh odamlarga mehribon va rahmlidir».

Alloh taolo «Oli Imron» surasi 195-oyatida aytadi:

«...Robbilari ularning (duolarini) istijobat qilib: «Men sizlar-dan erkagu ayol amal qiluvchining amalini zoye qilmayman. Ba'zingiz ba'zingizdansiz...» [3. 231].

Bizga ma'lumki, Nabiy sollallohu alayhi vasallamning so'zlari doimo Qur'oni karim kalomlariga muvofiq keladi. Shundoq ekan Nabiy sollallohu alayhi vasallam bu hadislarda iroda qilgan ma'no ham yuqoridagi oyatlarga muvofiqdir.

Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Banda insonlar-ning nazdida jannatiylarni amalini qiladi. Biroq u do'zaxiylardandir va bandalardan ba'zisi esa insonlarning nazdida do'zaxiylar amali bo'lgan ishlarni qiladi. Biroq u jannatiylardandir.

Imom Muslim rivoyat qilgan.

Bu hadisi sharifda zikr qilingan **فِيمَا يَبْدُو لِلنَّاسِ** degan kalima bilan mushkullik yechiladi va Nabiy sollallohu alayhi vasallam qasd qilgan asl ma'no Alloh taoloning kitobidagi solih amal qiluvchilarning amalini zoye qilmaslik borasidagi oyatlariga to'la-to'kis muvofiq keladi.

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisni Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisga haml qilish kerak bo'ladi. Bu ishimiz esa, mashhur qoidaga binoan amalgam oshiriladi [4. 183.].

Xo'sh, unday bo'lsa, Nabiy sollallohu alayhi vasallam hadislarini qanday tushunamiz? Albatta, siz Alloh taoloning kalomidagi ushbu oyatlarni eshitgansiz. Alloh «Kahf» surasi 110-oyatida aytadi:

«Bas, kim Robbiga ro‘baro‘ kelishni umid qilsa, yaxshi amal qilsin va Robbi ibodatiga birontani sherik qilmasin».

Alloh «Furqon» surasi 23-oyatida aytadi:

“Va qilgan amaliga kelib, ularni to‘zon kabi sohib yuborurmiz” [3. 283.].

Bu ilohiy oyatlarning ma‘nosi shuki, sohibini jannatga doxil qiladigan amal, nafaqat Alloh taolo buyurgan va yaxsh ko‘rgan amal bo‘lishi, balki u amallarni qilishdan murod faqat u zotning rizosini maqsad qilgan bo‘lishi kerak. Nabiyy sollallohu alayhi vasallam quyidagi hadislarini ayni mana shu gapimizning tasdig‘i bo‘ladi:

Abu Sa‘d roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Alloh taolo sizlarni jasadlaringiz va suratlaringizga emas, balki qalblaringizga qaraydi”, – dedilar va qalblariga ishora qildilar.

Imom Muslim rivoyat qilgan.

Ana endi dastavval keltirgan hadisimizga yana bir bor nazar solaylik.

Darhaqiqat, insonlarning ichida shundaylari borki, doimiy ahli jannatning amallarini qilib yuradi. Biroq ularning amallari xo‘ja ko‘rsin uchun, riyo uchun bo‘ladi. Natijada ular qilgan amallari habata bo‘ladi. Yana bir toifa borki, ularni har doim ahli do‘zaxlarni ishini qilib yurganini ko‘rasiz, biroq ular qilayotgan mana shu isyonlari Robbilarining buyrug‘iga kibr qilib, o‘zlarini bexojat his etganliklari uchun bo‘lamaydi. Alloh taolo ham bu toifa insonlarni oxir oqibat darajalarini ko‘taradi. Bu esa ularni siniqlik va yaratuvchisiga tazarru qilib, xorlanish kabi o‘zlari va Robbilarini o‘rtasida bo‘ladigan qalbiy kechinmasi sababidandir.

Insonlardan qalbini nifoq, riyo, ujub va qilayotgan toat-ibodatlari bilan takabburlik qilish kabi g‘arazlar bilan to‘ldirgan insonlarni oxir oqibat kirdikorlari fosh bo‘lishi, hayotlarining so‘ngida esa, haq yo‘ldan botil yo‘lga og‘ishi Alloh taoloning bandalari borasidagi sunnatidir [5. 283.].

Insonlardan qalbini xorlik, siniqlik va Alloh taologa chin dildan ubudiyat (bandalik) qilish istagi bilan to‘ldirganlar, agarchi ma‘siyat ishlarni qi-lishsa ham, oxir oqibat tavba qilishga sazovor bo‘lib, hayotlari go‘zal xotima bilan yakunlanadi.

Ularning bu kabi siniqlilari va o'z holatlarida mashaqqat chekib yurishlari tufayli Alloh taolo ularning bu holatlarini gunohlari uchun shafatchi qilib qo'yadi.

Biz zikr qilgan ushbu holat ham Alloh taoloning bandalari borasidagi yana bir sunnatidir. Mana shundan kelib chiqib bizga Nabiyy sollallohu alayhi vasallamning hadislaridagi **فيسبق عليه الكتاب** degan so'zidagi **الكتاب** kalimasidan murod Alloh taoloning irodasi va ilmi bo'lgan – qadar ekanligi ma'lum bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Али ибн Муҳаммад ибн Султон мулла ал-Қори. Мирқот ул мафотих. 1-жуз. – Байрут: Мактаба ар-Рашидийя, 2001. – 512 б.
2. Муҳаммад Саид Рамазон ал-Бутий. Ал-Инсон мусайяр ам мухайяр. – Байрут: Дорул фикр, 1997. – 118 б.
3. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Т.: Ҳилол Нашр, 2021. – 681 б.
4. Абул Мухсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомати Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд. – Т.: Ёзувчи, 1993. – 192 б.
5. Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий асарларида хурфликрилилик ғоялари. Ўрта Осиё халқлари хурфликрилиги тарихидан. – Т.: Фан, 1990. – 148 б.

NAQSHBANDIYA TARIQATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

I.N.Xolnazarov,

*BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Kalit so'zlar: tariqat, alamiyot, taraqqiyot, davr, Amir Temur, Bahauddin Naqshband, naqshbandiya, ilm, ma'rifat, Ahmad Yassaviy, mafkura, islom shariat

Annotatsiya: Ushbu maqolada naqshbandiya tariqatining tarixi yoritiladi. Ushbu tariqatning rivojlanish bosqichlari uch qismga bo'lib o'rganiladi. Har bir davrning tariqat shakllanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyalari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Naqshbandiya tariqati amaliyoti o'z tarixiy taraqqiyotida quyidagi juda murakkab va shiddatli davrlarni bosib o'tgan:

I davr. Naqshbandiya tariqati jamoasining shakllanishi va asosiy amaliy talablarining ishlab chiqilishi 1342-1347 yillardan to 1358 yilgi Amir Qazag'onning o'ldirilishi bilan bog'liq siyosiy beqarorlik, Amir Temurning siyosat maydoniga kirib kelishi (1360-1361) davrini o'z ichiga oladi.

II davr. 1361 yildan boshlab, to Amir Temur vafotigacha, undan keyingi davrda (1420 yillargacha) xojagon-naqshbandiya tariqati siyosiy ta'qib ostida bo'lsa-da, tashkiliy jihatdan mustahkamlanib o'zining jo'g'rofiy, etnik-siyosiy ta'sir doirasini kengaytira borgan.

III davr. 1420 yildan keyingi davr. Bu davrdan boshlab naqshbandiya Xoja Ubaydulloh Ahror, Muhammad Qozi, Maxdumi A'zam, Ofoq Xoja va boshqa naqshbandiya murshidlari faoliyati davrlarida, ya'ni XV asrdan to XX asrgacha jamiyat, davlat taraqqiyotining barcha jabhalarida milliy ozodlik harakatlari kurashining mafkurasi bo'lib qoldi. Xuddi mana shu 3-davrning boshida naqshbandiya kambag'allar najoti uchun kuchli ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirdi. Xonaqohlarda yo'lovchi darveshlarga, musofirlarga, yetim-yesirlarga boshpana va yegulik berilar edi[5. 478.].

Naqshband tariqat haqida: «Bizning tariqamiz urvatu-l-vusqo (kuchli tutqich)ning nodir ko'rinishlaridandir, ya'ni panjani Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam sunnatlarining tobelik etagiga urishdir hamda ulug' sahobalar izlaridan yurishdir. Bu tariqatda sunnatga rioya qilish ulug' ishdir» deb yozilgan [1. 78.].

Bahouddin tasavvuf, tariqat va islom, shariatning o'zaro aloqasi va munosabatini quyidagicha izohlab, bergan: «Mag'iz po'stning himoyatida bo'ladi. Agar po'stga nuqson yetsa, mag'izga ham ta'sir qiladi. Agar shariatda nuqson bo'lsa, tariqatga nuqson yuzlanadi»[1. 189.].

Bahouddin Naqshband islom, shariatni keltirish, uyg'un qilish borasida o'zidan oldin o'tgan salafarlari G'azzoliy, al- Arabiy, Ahmad Yassaviy, Ali Romitaniy, Amir Kulollar boshlab bergan harakatni ma'lum ma'noda mantiqiy nihoyasiga yetkazdi.

Naqshbandiya tariqati islom, shariat bilan uyg'unlashuv yo'lidan borib, uni yangi davr, shart-sharoitlar uchun hozirjavob qiladigan yo'l-yo'riqlarning butun bir muqobil tizimini yaratdi. Bu tizimni ayrim tadqiqotchilar bid'at va shirkdan saqlovchi, unga yo'l qo'ymaydigan, adashish, nizo-nifoq, to'qnashuvlardan asrovchi diniy-irfoniy va mafkuraviy-mazhabiy immunitet tizimi deb ataydi. Naqshbandiya tariqati o'tmishdoshlari kabi o'z faoliyatini islom, shariat, Qur'oni karim va hadislar asosiga qurdi[2. 38.].

Naqshbandiya tariqati g'oya va tamoyillari, ayniqsa, zikri xufiya va unga asoslangan naqshbandiya tariqati amaliyoti XIV-XV asrlardan keyingi Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqatining mintaqa ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sirini sobiq chor mustamlakasi va Sho'ro tuzumi davri tadqiqotchilari o'ta salbiy, reaksiyon deb baholagan edilar. Holbuki, naqshbandiya tariqatining Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ijobiy o'rni beqiyos.

Naqshbandiya tariqati «Himoya tizimi» yoki Bahouddinning o'z so'zlari bilan aytilgan «Himoyat va muruvvat ko'prigi» sifatida butun Turkiston, Markaziy Osiyo mintaqasida mislsiz ijtimoiy adolat, insonparvarlik harakati edi[3. 168.].

Naqshbandiya tariqatining buyuk piri-murshidlari Xoja Ahrori Valiy, Jomiylarga ixlosmandligi tufayli buyuk «Himoyat va muruvvat ko'prigi» tizimining bosh maqsadi va mezoni, o'sha Xoja Ahrori Valiy aytgan «Mas'uliyat, ya'ni musulmonlarni zolimlar zulmidan himoya qilish vazifasi yuklanganligini» Navoiy ham chuqur his qilib, unga rioya etgan.

Aytish mumkinki, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlari o'rtasidagi raqobat XVI-XIX asrlarda Turkistonda yashab o'tgan mashhur olim va faylasuflar Mushfiqiy, Xorazmiy, Mirzajon Sheroziy, Yusuf Qorabog'iy, Mirzo Bedil, Mirzo G'oliblar falsafiy dunyoqarashi, merosi va ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida tariqat g'oyalari asosida musulmon halqlarining miliy-ozodlik kurashi Shomil, Dukchi Eshon, Bommat Xoja va boshqalar boshchiligida bo'lib o'tgan.

Naqshbandiya g'oyalari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Musulmon Sharqi xalqlari orasida avj olib ketgan diniy, ijtimoiy-siyosiy islohchilik harakatlarining nazariyotchilari uchun mafkuraviy bayroq bo'lib xizmat qilgan[4. 93.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Naqshbandiya tariqati yuzaga kelgan vaqtdan to hozirga qadar odamlarning har bir tabaqasiga xos va mos bo'lib kelgan hamda bu tariqatda ruhiy erkinlik mavjud bo'lgan. Buni quyidagi ikkita dalil ko'rsatadi:

1. Naqshbandiya tariqatida faqat bir shayxgagina bo'ysunish shart bo'lmagan, Masalan: Bahouddinga Amir Kulol o'zidagi bor bilimlarini berganidan keyin unga ruxsat beradi va aytadiki, siz ruhiy kamolot uchun turkmi, yoki tojikmi kim bo'lsada, ustoz toping. Bahouddin Orif Deggaroniydan 7 yil, Qusam Shayxdan 5 oy ta'lim olganlar. Demak, bu tariqatda shogird ruhiy kamolotga erishish uchun shayx tanlash va ularga bog'lanishda erkin bo'lgan.

2. Naqshbandiya tariqatida shayx va jamoadagi qoidalarga shogird to'la bo'ysunishi shart bo'lmagan. U Allohgagina bo'ysungan. Masalan: "Bahouddin Naqshbandga Abduxoliq G'ijduvoni yashirin xufiya zikr talqinini buyurganlar. Naqshband Amir Kulolga murid bo'lib, xalifalari darajasiga yetgan. Lekin Amir Kulol jamoasida jahriya zikr bo'lgan. Shuning uchun zikr vaqtida Bahouddin ajralib, alohida xufiya zikrlarini bajargan. Shunga qaramay Amir Kulol o'limdan oldin shogirdlariga Naqshband izidan borishga va u bilan bog'lanishga vasiyat qilganlar. Shogirdlari Amir Kulolga Bahouddin zikrda sizga bo'ysunmadi deganlarida, Naqshbanddagi barcha harakatlar Alloh irodasi bilan bo'lganligini tushuntirganlar. Demak, naqshbandiya yo'lida ruhiy kamolot talabida bo'lgan shaxs erkin bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Абул Мухсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Мақомати Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд. – Т.: Ёзувчи, 1993. – 192 б.

2. Нуриддинов М. Юсуф Қорабоғий асарларида ҳурфикрлилик ғоялари. Ўрта Осиё халқлари ҳурфикрлиги тарихидан. – Т.: Фан, 1990. – 148 б.

3. Али ибн Муҳаммад ибн Султон мулла ал-Қори. Мирқот ул мафотих. 1-жуз. – Байрут: Мактаба ар-Рашидийя, 2001. – 512 б.

4. Муҳаммад Саид Рамазон ал-Бутий. Ал-Инсон мусайяр ам мухайяр. – Байрут: Дорул фикр, 1997. – 118 б.

5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Т.: Ҳилол Нашр, 2021. – 681 б.

HADIS TO'PLAMLARINING VUJUDGA KELISH TARIXI

S.S.Sa'dullayev,

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Kalit so'zlar: hadis, to'plam, muhaddis, davr, olim, ustoz, shayx, sanad, isnod, martaba, tabaqa, islom, shariat, hukm.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hadis to'plamlarining tarixi yoritiladi. Uning rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. Har bir davrning hadis to'plamlari shakllanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Eng dastlabki hadis to'plamlari egalari atab o'tiladi. Ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Umaviy xalifasi Umar ibn Abdulaziz davrida (717-720) muhaddis olim Muhammad ibn Shihob az-Zuhriy (670-721) tadvin, ya'ni hadislarni qayd etish ishini boshlab berganligi ma'lum. Hadislarni yozib borish, hadis to'plamlarini tuzish rasmiy ravishda mazkur xalifa tomonidan buyruq berilganidan so'ng keng tus oldi va an'ana tarzida odat tusiga kirdi. Ayrim tadqiqotchilar, sharqshunoslar hadislarni, xususan, ularning sahih tarzda yetib kelishini, ishonchli hujjat-dalil sifatida ishlatilishini inkor qiladilar. Shuningdek, islom olamida ahli sunnat va jamoatdan ajralib chiqqan toifalar – o'zlarini “ahli Qur'on” deguvchi “qur'oniy”lar, qodiyoniy-ahmadiylar kabilar ham hadislarni inkor qiladilar [1. 45.]. Bunga hadis matnlari Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam davridan ancha yillar, bir necha asrlar keyin to'plangan, degan ma'lumot sabab bo'lgan. Mazkur davrdan ilgari hadis ilmi qay tarzda rivojlangan, hadislarni jamlash qanday bo'lgan, degan savolga ushbu ishda javob izlab ko'riladi.

Hadislarni kitobat qilish tarixi to'rt bosqichdan iborat bo'lgan, deb ko'rsatish mumkin. Birinchisi, har xil odamlarning (bu yerda sahobalar nazarda tutilmoqda)

tartibsiz holda hadislarni ko'chirib yozishlari bosqichi. Bunda hadislar boblarga yoki mavzularga ajratilmasdan, to'g'ri kelgan hadis yozib olinavergan. Ikkinchisi, ayrim shaxslarning, (bu yerda ham sahobalar nazarda tutilmoqda), o'zlari yod olgan hadislarni to'plashlaridir. Bu to'plamlar "sahifa" deb atalgan. Uchinchi bosqichda hadisi shariflar katta hajmli kitoblarga jamlangan. Lekin bu bosqichda ham hali hadisi shariflar mavzularga ajratilib, bob-bob qilinmagan edi. To'rtinchi bosqichda hadisi shariflar mavzularga ajratilib, kitob holida to'plandi. Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam va sahobalar davrida hadislarni avvalgi ikki turda to'plash tarqalgan edi.

Hadislarni inkor qiluvchilar Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam davridan boshlab Umar ibn Abdulaziz davrigacha hadislar to'planganini inkor qiladilar. Bunga asosan uchta narsani sabab qilib ko'rsatadilar: sahobalar va tobe'inlar hamda bu davrda yashaganlarning ko'pchiligi yozishni bilmaganlar, ularning zehnlari shu darajada kuchli bo'lganki, hadislarni yozishga ehtiyoj tug'ilmagan, va nihoyat uchinchisi, hadislarni yozishdan qaytarilgan [1. 47.]. Bu fikrlardan avvalgi ikkitasiga qo'shilish qiyin, chunki, ko'pchilik yozishni bilmagani yoki xotiraning kuchliligi hadislarni yozishdan to'xtata olmaydi. Zotan, yozishni biladigan mashhur sahoba va olim tobe'inlar hadis majmualarini tuzishi mumkinligi o'z-o'zidan ma'lum.

Hadislarni yozishdan qaytarilganiga muhaddislardan Muslim ibn al-Hajjoj (821-875) rivoyat qilgan mana bu hadisni dalil qiladilar:

لا تكتبوا عني، و من كتب عني غير القرآن فليمحاه

“Mendan hadis yozib olmanglar. Kimki mendan Qur'ondan boshqani yozsa, uni o'chirib tashlasin!”.

Muhaddislar tomonidan keltirilgan mazkur hadis sahihdir. Umuman hadislarni yozishni yoqtirmagan sahobalar faqat uch nafar bo'lib, ular Abu Hurayra (602-679), Abu Said al-Xudriy (609-693) va Zayd ibn Sobit (615-665) bo'lgan, xolos. Ular ham hayotlarining oxirlarida hadislar yozilishiga ko'nganlar.

Haqiqatdan ham, o'z davrida hadislarni yozishdan qaytarilgan edi, lekin, ushbu hadis islomning boshlanishida aytilgan. Hadisni yozuvchilar ozchilikni tashkil qilar, ular ham har xil narsalarga hamma kerakli hadislarni bir joyga yozib qo'yardilar. U vaqtda

xurmo barglari, sopollar, daraxt po'stloqlari va boshqa narsalarga yozilardi. Ikkinchidan, hali u davrda Qur'oni karimning o'ziga xos uslubini, uning matnini sahobalar ajratib ololmagan edilar. Agar hadislar ham yozib olinsa, Qur'on bilan aralashib ketish xavfi bor edi. Ushbu xatarning oldini olish maqsadida Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam hadis yozishdan man qilgan. Keyinchalik Qur'onning uslubi va matni aniq bo'lganidan so'ng hadisi shariflarni ham yozib olishga ijozat berilgan.

Sahobalar orasida Abdulloh ibn Amr ibn al-Os (616-684) hadislarni yozib olishi bilan shuhrat qozongan edi. Bu haqida uning o'zi bunday rivoyat qilgan: "Men Payg'ambardan sollallohu alayhi va sallam eshitgan har bir narsani uni saqlab qolish maqsadida yozib olar edim. Bundan meni qurayshliklar qaytardilar. "Eshitgan har bir narsani yozib olaverasanmi?! Axir, inson g'azablanishi, rozi bo'lishi mumkin" dedilar. Men yozishdan to'xtab qoldim. So'ng bu haqida Payg'ambarga sollallohu alayhi va sallam gapirib berdim. Ul zot barmoqlari bilan og'izlariga ishora qildilar va "Yozaver, nafsing qo'lida bo'lgan zot – Allohga qasamki, bu og'izdan faqatgina haqiqat yuzaga chiqadi", dedilar.

Yana Abdulloh ibn Amr ibn al-Osning (r.a.) bunday rivoyat qilgani muhaddislar tomonidan keltirilgan:

قَيِّدُوا الْعِلْمَ. قَلَّتْ وَ مَا تَقْيِيدُهُ؟ قَالَ كِتَابَتُهُ

"Ilmni bog'langlar!". Men: "Uning bog'lami nima?" dedim. Ul zot dedilar: "Uni yozishlikdir"[2. 179.]. Boshqa sahobalarning ham xuddi shunday deb nasihat qilganlarini muhaddislar naql qilganlar.

Abu Iso at-Termiziy (825-892) ham "Ilm kitobi"da hadislarni yozib olishga berilgan ruxsat haqida alohida bob ajratgan. Unda Abu Hurayradan roziyallohu anhu bir hadis rivoyat qilingan: bir ansoriy Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam oldilarida o'tirar edi. U Payg'ambardan sollallohu alayhi va sallam ajoyib hadislarni eshitib, juda taajjubga tushardi. Lekin ularni yodlab ololmasdi. Shunda u Payg'ambarga sollallohu alayhi va sallam bu borada shikoyat qiladi. "Men sizdan ajoyib hadis eshitdim. Lekin yodlab ololmay qoldim", deganida, Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam: "O'ng qo'lingni yordamga chaqir!", deb o'ng qo'l bilan hadisni yozib olishga ishora qilganlar.

Muhaddislar Abu Hurayradan roziyallohu anhu mavzuga doir yana bir rivoyatni yozib qoldirganlar: Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam xutba qildilar va uning orasida bir qissani gapirib o‘tdilar. Abu Shoh (r.a.): “Ey Rasululloh, buni menga yozdirib bering!” dedi. Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam: “Abu Shoh uchun yozib beringlar!” dedilar.

Yuqoridagi hadislardan ularni yozishdan qaytarilgani ma’lum bir sababdan bo‘lgani ma’lum bo‘layapti. O‘sha sabab yo‘qolgandan so‘ng hadislarni yozishga ijozat berilgan. Demak, Payg‘ambar alayhissalom davridayoq hadislarning yozib olinishi sodir bo‘lgan. Shuning uchun ham hadisshunos olim Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy (1233-1277): “Aslida, islom boshlanishida ham, keng yoyilganidan keyin ham hadislarni yozishdan qaytarilgan emas. Hadislarni yozishga mutlaq ijozat bo‘lgan edi. Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam yozishdan qaytarganlari haqida keltirilgan hadisning ta’vili bor.

Ayrim sahobalar Qur’onni kitobat qilar ekanlar, ba’zi oyatlar va kalimalarning tafsiri ma’nosida ularning yoniga yoki tagiga Payg‘ambarning sollallohu alayhi va sallam bu borada aytgan gaplarini ham yozib qo‘yardilar. Aynan mana shu holat o‘ta xatarnok edi. Chunki, bu holatda Qur’on bilan hadis aniq aralashib ketardi. Shuning uchun ham Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam mana shunday holatlardan qaytargan edilar. Ta’qiq esa Qur’on bilan hadis alohida-alohida yozilsin, degan ma’noda edi” [3. 63.]. an-Navaviyning gapining tasdig‘i sifatida Oisha roziyallohu anho o‘zining quliga Qur’on ko‘chirtirganligini keltirish mumkin. U mazkur mushafning ushbu oyati yozilgan joyida qo‘shimcha yozdirib qo‘ygan.

Oysha roziyallohu anho oyatdagi “al-vusto” so‘zidan so‘ng “solat al-asr”ni yozdirib qo‘ygan ekan. U “al-vusto” so‘ziga izoh berib ketish uchun shuni yozdirib qo‘ygan. Ma’lumki, “solat al-asr” so‘zi Qur’onda keltirilmagan. Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam mana shunday narsalardan qaytargan edilar. Islomning boshlanish davrlarida Qur’on bilan sharhni farqlaydigan usullarni qo‘llash hali odat tusiga kirmagan edi. Hozirda biz oyatlarning tagiga yoki ustiga chizish, ularni boshqa rang bilan alohida yozish, izoh yoki tafsirni qavs bilan berish kabi bir qancha kitobat usullarini bilamiz. U

vayqlarda hali bu narsalar iste'molda qo'llanilmagan edi. Agar oyat bilan uning tafsirini birga yozilsa, ularni ajratib olish qiyin bo'lardi. Shuning uchun Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam oyatga beriladigan tafsirlarni oyatlar bilan birga yozishdan qaytargan edilar.

Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam hamda sahoba va tobe'inlar davrida, aniqrog'i hadislar rasmiy ravishda yozib olinishi boshlanishidan ilgari ham bir necha hadis to'plamlari va majmualari tuzilgani haqidagi ma'lumotlarni ushbu maqolada berib o'tishga qaror qilindi.

Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam davrida tuzilgan hadis to'plamlaridan biri "Kitob as-sadaqa" nomi bilan tanilgan bo'lib, undagi hadislarini Payg'ambarning alayhissalom o'zlari yozdirganlar [3. 61.]. Unda zakot, ushr, sadaqalar, umuman moliyaviy ibodatlariga taalluqli masalalar va hadislar o'rin olgan. Bu narsalar siyosiy ishlarga aloqador bo'lgani bois atrofdaagi voliy'larga, ushr va zakot yig'uvchilarning har biriga berish maqsadida Payg'ambarning sollallohu alayhi va sallam o'zlari yozdirib, jo'nattirmoqchi bo'lgan. Muhaddislar aytishicha, yozib qo'yilgan, tayyorlangan mazkur maktub shaklidagi hadis to'plami nusxalari jo'natilishidan avval Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam vafot qiladi. Shundan so'ng bu to'plam xalifa Abu Bakr Siddiq (571-634) oldida, undan so'ng xalifa Umar al-Foruq (585-644) huzurida, so'ng uning o'g'li Abdulloh ibn Umar (612-693) qo'lida saqlanib qolgan. Undan esa Hazrati Umarning (r.a.) nevarasi Solim ibn Abdullohning (vaf. 725) qo'lga kelib tushgan. Hadis rivoyatlarida eng sahih isnodlardan biri deb zikr qilinadigan az-Zuhriy Solim Abdulloh ibn Umar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam silsilasi shu tariqa vujudga kelgan. Mazkur hadis to'plami Hazrati Umarga (r.a.) qiz tarafdan avlod hisoblangan xalifa Umar ibn Abdulazizga avlodan-avlodga o'tib, yetib kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Imom Zahabiy. As-siyar al-a'lom van nubalo. – Bayrut: Dar ul-qalam. 2008. – 288 b.
2. Muslim ibn Hajjoj al Qushayriy Naysoburiy. Sahih Muslim. – Bayrut: Darul ihyoit turosil arabiy. 1990. – 875 b.

3. Muhammad ibn Abdulloh Al-Hokim an-Nisoburiy. al Mustadrak alas sahihayn. Mustafo Abdulqodir Ato tahqiqi. – Bayrut: Darul kutubil ilmiya. 1990. – 631 b.

TASAVVUF VA FIQH

A.S.Rahmonov,

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf va fiqh bilan bog'liq umumiy va farqli masalalar yoritiladi. Ushbu tushunchalarning uzviy bog'liqligi va ajralmasligi ham bayon qilingan. Tasavvufning ta'rifi va fiqhning istilohiy ma'nolari ochib berilgan. Tushunchalarning mazmun mohiyatiga ilmiy yondoshilgan. Ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Kalit so'zlar: tariqat, alamiyot, taraqqiyot, davr, Amir Temur, Bahauddin Naqshband, naqshbandiya, ilm, ma'rifat, Ahmad Yassaviy, mafkura, islom, shariat.

Alloh taolo insonni yaratganda faqatgina jismdan iborat qilib yaratmadi, balki unga beqiyos ne'mat sifatida ruh ham ato etdi. Inson shu ikki narsadan tashkil topgan. Birinchisi, moddiy narsa bo'lib, u o'sadi, harakat qiladi. Ikkinchisi esa, moddiy narsa bo'lmay, o'ziga xos boshqa bir holatlardan iborat bo'lib, fikrlash, bilish, iroda, yaxshi ko'rish, yomon ko'rish, yaxshi axloq yoki yomon axloq kabi narsalardan iboratdir. Shu ikki tarafning o'ziga yarasha talablari bor, inson ularni qondirishga harakat qilinadi. Jism ovqat, ichimlik va jinsga rag'bat qiladi. Ruh esa ma'naviy ozuqaga muhtoj hisoblanadi.

Alloh taolo bandalariga mana shu ikki talabni qanday bajarish yo'llarini ta'lim berish uchun Payg'ambarlarini jo'natgan. Darhaqiqat, Payg'ambarlar keltirgan har qanday din faqatgina ruhiy yoki ma'naviy amaliyotlarni emas, balki jismoniy va moddiy inson ehtiyojlariga bog'liq ta'limotlarni ta'lim bergan.

Islomning ilk davrlarida islom ilmlari alohida shakllanmagan edi. Chunki, bunga ehtiyoj ham yo'q edi. Tasavvuf, fiqh yoki aqid deya ajratayotgan atamalar aslida bitta maqsadda jamlanadi. U ham bo'lsa, insonning dunyo va oxiratada baxtu-saodat

topishiga. Mutaqaddim ulamolar ushbu ilmlarni hammasini o'zida jamlagan. Zero, ular biri-boshqasiz mukammal bo'la olmaydi.

Muhaqqiq ulamolar tasavvufni “botiniy fiqh”, ya’ni “ichki fiqh” deyдилar shariat ilmlarini esa, “zohiriy fiqh” deb ataydilar yoki oddiygina fiqh ilmi deyish bilan kifoyalanadilar. Binobarin, zohiriy fiqh shar’iy amallarning tashqi tomoniga ahamiyat beradi. Misol uchun, tahorat, g’usl, namoz, ro’za, zakot va haj kabi ibodatlarining zohiriy masalalarini oyat va hadislar hamda ijmo’ va qiyos asosida zohiriy fiqh ilmi bayon qilib beradi [1].

Namozdagi ruhiy holatni, qalbni qanday tutishni, xushu’ va xuzu’ni – hamma-hammasini botiniy fiqh ilmi bayon qiladi.

“So’fiy” va “tasavvuf” so’zlarining lug’aviy ma’nolari haqida turli xil fikrlar aytilganidek, ularning istilohiy ma’nosi borasida ham turli qarashlar bor. “Qavoidut tasavvuf” kitobida ikki mingga yaqin ta’rif keltirilgan. Tasavvuf ahlining o’zlari uning ta’rifidagi bunday xilma-xillikni yaxshilik alomati deb biladilar. Ta’riflarning hammasi “Alloh taolaga sodiq tavajjuh” qilish ma’nosidadir. Shunday ekan qanday qilib mufaqqih yoki mutakallim olimlarni tasavvuf ahli bo’lmagan deyish mumkin. Zero, ularning barchasi “Alloh taolaga sodiq tavajjuh” qilishga intilib yashashgan.

Tasavvuf shariatga bevosita bog’liq ekanligini quyida tasavvuf haqidagi ba’zi ta’riflar bilan tanishib chiqsak, yanada bir bor ishonch hosil qilamiz. Tasavvuf bu

1. Tasavvuf bu shar’iy odoblar ila zohirda turib uning hukmini botinda ko’rish. Shuningdek, shar’iy odoblar ila botinda turib uning hukmini zohirda ko’rishdir. Shunda odoblanuvchi uchun ikki hukm ila kamol hosil bo’ladi.

2. Tasavvuf bir mazhab bo’lib, maqsadi qalbni Alloh taolodan boshqa barchadan xoli qilish, Xoliqqa ixlos ila ibodat qilish hamda Undan boshqasidan ajralish ila ruhni qudsiyat olamiga olib chiqish.

3. Tasavvuf nafsni axloqiy jihatdan taraqqiy ettiradigan hayotiy falsafa bo’lib, u muayyan amaliy riyozat vositasida haqiqatga aylanadi va ba’zi vaqtlarda oliy haqiqatga singish hissiga olib boradi. Shuningdek, undan zavq va aql ila ma’rifat hosil qilishga olib boradi.

4. Tasavvuf bir ilm bo'lib, u ila nafsning ahvoli: yaxshi va yomoni, uning yomonini poklash yo'li, yaxshini ziynatlash yo'li, Alloh taologa yuzlanish kayfiyati va uslubi o'rganiladi ya'ni, O'zidan boshqadan panoh so'ramaslik.

5. Tasavvuf – har bir yomondan xoli bo'lish, har bir yaxshidan ibrat olish ila qurbat (Alloh taologa yaqinlashish)ga va visol (Alloh taoloning jamoliga yetishish) ga erishishdir. U insonni qayta bino qilish va uni har bir fikr, so'z, ish va niyatda Robbisi ila bog'lashdir.

6. Tasavvuf – axloqni sayqallashni va nafsni poklashni yo'lga qo'yadi.

7. Tasavvuf tavba, istig'for, duo, zuhd, taqvo va shunga o'xshash ma'nolarning haqiqatini anglab yetishga yordam beradi va ularni hayotga qandoq tatbiq qilish bo'yicha darslar va ko'rgazmali tajribalar olib boradi.

8. Tasavvuf mo'min-musulmonlarga nafl ibodatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha ham darslar beradi.

Yuqorida zikr etilgan ta'riflar bilan bir qatorda “tasavvuf” so'zi va unga bog'liq lafzlar qadimgi lug'at ilmi ustalari tomonidan ham sinchkovlik bilan o'rganilganini ham eslashimiz o'rinli.

Jumladan, “al-Mu'jam al-vasiyt” nomli lug'at kitobida bu haqda quyidagilar keltirilgan:

صَوَّفَ فلاناً “Savvafa fulonan” - falonchini so'fiylardan sanadi degani.

تَصَوَّفَ فلان “Tasavvafa fulonun” - falonchi so'fiy bo'ldi degani.

Tasavvuf suluk tarzi bo'lib, uning asosi nafs pok va ruh oliy bo'lishi uchun sodda hayot va fazilatlar ila ziynatlanib yashashdir.

Shayx Shihobiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad as-Suhravardiy (r.a.) so'fiyni quyidagicha ta'riflaydilar:

“So'fiy har bir narsani o'z joyiga qo'yadigan, vaqtlar va ishlarni ilm ila tadbirini qiladigan, xalqni o'z maqomiga qo'yadigan, Haqqning amrini o'z joyiga qo'yadigan, berkitilishi lozim bo'lgan narsani berkitadigan, ochilishi lozim bo'lgan narsani ochadigan va ishlarni qalb huzuri ila, to'g'ri tavhid ila, kamoli ma'rifat ila, rioyati sidqu ixlos ila o'z o'rnida ado etadigan shaxsdir”.

Oriflar sultoni Ahmad Yassaviy (r.a.) esa:

الشريعة عمل بالأركان أى بالظاهر والطريقة عمل بالقلب والحقيقة عمل بالسِر

“Shariat zohirda a’zolar bilan amal qilish, tariqat qalb bilan amal qilish, haqiqat esa sir (qalbdagi javhar, ko’ngil) bilan amal qilishdir” deganlar.[2]

Shariat va tasavvufning bir-birini taqozo qilishi haqida Imom Molik (r.a.)ning quyidagi so’zlarini eslash kifoya: «Kim so’fiy bo’lsa-yu, faqih bo’lmasa, zindiq bo’libdi. Kim faqih bo’lsa-yu, so’fiy bo’lmasa, fosiq bo’libdi. Kim ikkisini jamlasa muhaqqiq bo’libdi.[3]

Shuning uchun tasavvuf ahli inson o’zini Qur’on ila tarbiya toptirmog’i va sinovdan o’tkazishi, Alloh ishqini Qur’on ishq bilan uzviy aloqadorlikda kamol toptirishi lozim deganlar.

Tasavvufda tafakkurning eng muhtasham, eng zavqli va eng hosildor maydoni ilm va ma’rifat. Ahmad Yassaviy (r.a.) ta’kidlaganidek:

Ma’rifatni minbariga minmaguncha,

Shariatni ishlarini bilsa bo’lmas. [4]

Ma’rifatni minbarini egallash oson ish emas. Aks holda Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari: “Tavhid sirriga yetsa bo’lur. Ammo ma’rifat sirriga yetish dushvordir”, demagan bo’lurdi. Haqiqatda ham tavhid ma’rifatning yuqori, ammo bitta “tarmog’i” dir.

Xoja Bektoshi Valiyning obrazli ifodasi bo’yicha, “Ma’rifat shunday bir daraxtdurki, uning boshi – tavhid, tanasi – iymon, yaproqlari – islom, tubi – yaqinlik, ildizi – tavakkul, butoqlari – nahyi munkar, suvi – xavf va rajo, mevasi – ilm, tuprog’i – komil insonning ko’nglidir. Boshi arshdan ham baland bu daraxtning besh navdasidan biri – shavq, ikkinchisi – muhabbat, uchinchisi – inoyat, to’rtinchisi – irodat, beshinchisi esa – qurbiyatdir”.

Demak, ma’rifat sohibi bo’lish ana uchun ana shuncha haqiqat va fazilatlarning sohibi bo’lish, ma’rifat sirriga yetish uchun ana shuncha haqiqat va xususiyatlarning asroridan ogoh bo’lish lozim. Ma’rifat inson ongi yoki ko’ngliga tashqaridan olib kiriladigan ya’ni, zohiriy bir ne’mat yoki qudrat emas, balki insonning ilohiy

mavjudligidan yuzaga keladigan fikriy va ruhiy qudratdir. Ma'rifat – eng avvalo, qalb mujohadasi va o'zni anglash degani. Tasavvuf ta'limoti, ma'lum bir ma'noda, nubuvvat ta'limoti va ma'rifatga sodiqlikdir.

Ta'kidlash joizki, tasavvuf ta'limotlari har bir zamon va makon uchun muhim ahamiyat kasb etishi muqarrar. Ularda ilgari surilgan o'zgaralar haqqiga rioya qilish, ijtimoiy adolat, savob ish qilishga intilish, o'z mehnati bilan kun ko'rish, insoniy burch va mas'uliyatlarni his etish, ota-ona, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar, beva-bechoralarga muntazam va beminnat yordam qilish, jamiyatda madaniyatli hamda namunali, bir so'z bilan aytganda, komil insonni voyaga yetkazish, tarbiyalash kabi oliyjanob fazilatlarni xalqimiz orasida yanada kengroq yoyish va rivojlantirish biz yoshlarning bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Muhammad Zohid Qo'tqu. Iymon qushining ikki qanoti. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000. – 112 b.
2. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat / Yangi topilgan namunalar. – T.: Movarounnahr, 2004. – 148 b.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: Movarounnahr, 2004. – 520 b.
4. Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 334 b.

SUNNAT TARIXI

A.A.Yakubov,

*BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sunnat tarixi yoritiladi. Uning rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. Ushbu mavzuda ta'lif qilgan olimlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Eng dastlabki kitob egalari atab o'tiladi. Ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Kalit so'zlar: Sunnat, hadis, olim, muhaddis, davr, olim, ustoz, shayx, sanad, isnod, martaba, tabaqa, islom, shariat, hukm.

Asosiy matn: Sunnat Qur'oni Karim bilan chambarchas bog'liq ekanini avvalroq ta'kidlab o'tgandik. Shuningdek, Sunnatning tarixi ham, Qur'oni Karim va Islom tarixi bilan birdir. Biz esa sunnatni ilm sifatida shakllanishi tarixidan boshlab o'rganamiz.

Allohu taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallamga Qur'oni Karimning birinchi oyatlarini nozil qilib, U zotni oxirgi Payg'ambar, deb e'lon qildi. Muhammad sollallohu alayhi vasallamning payg'ambarliklariga iymon keltirmagan odam mo'min bo'la olmasligi uzil-kesil oshkor bo'ldi. Mo'minlarning U zotga ergashishlari va iqtido qilishlari lozimu lobud bo'ldi. Yuqorida zikr qilinganidek, bu haqiqatni Alloh taolo Qur'oni Karimda qayta-qayta ta'kidladi [1]. Islomning birinchi kunidan boshlab, mo'min-musulmonlar kattayu-kichik har bir narsani o'z payg'ambarlaridan o'rgana boshladilar. Ular U zotdan ilohiy dastur bo'lgan Qur'oni Karim oyatlaridan tortib, to oddiy tahorat olishgacha bo'lgan hamma narsalarni asta-sekin qubul qilib olar edilar. Shuning uchun ham Muhammad sollallohu alayhi vasallam muborak hayotlarining biror lahzasi ham sahobai kiromlarning diqqat-e'tiborlaridan chetda qolmas edi.

Chunki, U zotning muborak og'izlaridan chiqqan har bir so'z, o'zlaridan sodir bo'lgan har bir harakat shariat hukmi, o'rnak, shaxsiy misol, hikmat, nasihat va ko'rsatma sifatida qabul qilinardi. Insoniyat tarixida hayoti bunchalik to'kis ochiqchasiga, ommaviy ravishda, ko'pchilik tomonidan o'rganilgan yakkayu-yagona shaxs Muhammad sollallohu alayhi vasallamdirlar. U zoti bobarakotning hatto o'ta nozik va xos hayotlari, bugungi kun istilohi bilan aytilganda jinsiy hayotlari ham to'laligicha o'rganilib rivoyat qilingandir.

Chunki, Islom dini mukammal din bo'lgandan va inson hayotining barcha sohalarini qamrab olganidan bularning hammasidan Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning shaxsiy o'rnaklari bo'lishi kerak edi. Ifodali qilib aytilganda u zot Qur'onni o'z shaxslarida tatbiq qilib odamlarga ko'rsatishlari kerak edi. Amalda shundoq bo'ldi ham.

Shuning uchun ham sahobai kiromlar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ortlaridan uzuliksiz birga yurishar va U zotdan sodir bo'lgan har bir narsani o'ta aniqlik bilan yodlab olishar va rivoyat qilishardi. Hattoki, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lgan paytlarida boshqa kishilardan iltimos qilib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam huzurlarida e'tibor bilan turishni, u zotdan sodir bo'lgan narsalarni yaxshilab o'zlashtirib olishni iltimos qilib ketar edilar. Qaytib kelganlarida esa, darhol o'zlari yo'q paytda Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan sodir bo'lgan narsani ta'yinlab ketgan odamlardan so'rab, o'rganib olar edilar. Hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu o'z qo'shnilari bilan birgalikda kelishib olib, navbat ila Payg'ambarimiz huzurlarida turganliklari, U kishining o'zidan rivoyat qilingan.

Xulosa shulki, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamda sodir bo'lgan zarracha narsa ham sahobalarning e'tiboridan chetda qolmagan. Buni dushmanlar ham tan olganlar. Xudaybiya xodisasida mushriklardan vakil bo'lib Payg'ambarimiz huzurlariga kelganlardan bittasi o'z qavmiga qaytib borib: «Allohga qasamki, hech kimni Muhammadning sheriklari hurmat qilgandek birov hurmat qilmaydi. U tuflesa, tufugi yerga tushmayapti.

Sahobalari qo'llari ila ilib olmoqdalar»-degan. Shuningdek, U zot muborak sochlarini oldirganlarida sahobalar biror tolani ham yerga tushirmay bo'lib olganlar. Hattoki bir tola sochi yerda qolmagan zotning gapu-so'zlari va'z nasihatlari, hukmu vasiyatlari yerda qolarmidi?! Ularning hammasi katta e'tibor va aniqlik bilan qabul qilib olingan va omonot ila kelajak avlodlarga yetkazilgan.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, sahobai kiromlar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan sodir bo'lgan narsalarni xoyi havas, gapu-so'z, bilimli bo'lish uchun qabul qilmaganlar. Ular eng avvalo bu narsalarga amal qilishni ko'zlaganlar. Qolaversa boshqalarga yetkazib, ularni ham amalga chorlashni maqsad qilganlar. Bunga birgina misol keltiraylik.

Qozi Iyyoz va Ibn Sa'd rahmatullohi alayhimolar Abu Sa'd al-Xudriy roziyallohu anhudan qilgan rivoyatda quyidagilar aytiladi:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'z sahobalari bilan namoz o'qib turib, kavshlarini yechib, chap taraflariga qo'ydilar. Buni ko'rib odamlar ham kavshlarini yechdilar. Namozni o'qib bo'lib U zot:

«Nima uchun kavshlaringizni yechdingiz?»-dedilar.

Ular: «Siz kavshingizni yechganingizni ko'rib»-dedilar. U zot sollallohu alayhi vasallam:

«Menga Jabroil ularda nopoklik borligining xabarini berdi»-dedilar. Aslida nopoklik Payg'ambar alayhissalomning kavshlarida edi. Shuning uchun Jibroil alayhissalom U zotga kavshlarini yechib qo'yishni xabar qilgan edilar. Boshqalar kavshlarini yechishlari kerak emas edi. Ammo sahobalar Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga iqtido qilish istaklari g'oyatda kuchli bo'lganidan «modomiki, Rasululloh kavshlarini yechdilar, biz ham yechishimiz lozim» [2], deb shundoq qildilar. Bu oddiy bir misol xalos. Sahobai kiromlarning hayotlari bu kabi iqtidoning oliy misollariga to'lib-toshgandir.

Shunday qilib, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini anglab boshqalarga rivoyat qilish u kishining hayotlari davomida boshlangan. Sahobalar bir-birlariga, ayniqsa katta sahobalar kichiklariga Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini oqizmay-tomizmay rivoyat qilganlar. Sahobalardan esa, Sunnatni ulardan keyingi musulmonlar avlodi – tobe'inlar qabul qilib olganlar. Sahobalarning ba'zilar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari – hadislarini ko'p rivoyat qilish bilan mashhur bo'lganlar. Abu Hurayra roziyallohu anhu eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahobiy ekanliklari hammaga ma'lum. U kishidan keyingi o'rinda esa Oisha onamiz roziyallohu anho bo'lganlar. Shuningdek to'rt rashid xalifalar – hazrati Abu Bakr Siddiq, hazrati Umar, hazrati Usmon va hazrati Ali roziyallohu anhumlar, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Mas'ud, Anas ibn Molik kabi sahobalar ham ko'p hadis rivoyat qilish bilan nom chiqarganlar.

Ushbu davr haqida yana bir narsani ta'kidlab o'tmog'imiz lozim. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam vaqtlarida, to'rt xalifalar davrida, to'yuzinchi hijriy sanagacha hadisni yozish rasmiy ravishda yo'lga qo'yilmagan. Chunki, Payg'ambarimiz sollallohu

alayhi vasallam: «Mendan Qur'ondan boshqani yozmanglar», deganlar. Shuning uchun rasmiy ravishda Qur'oni Karimni yozishga alohida e'tibor berilgan. Ammo, bu, hadis umuman yozilgan emas, degan ma'noni ifoda etmaydi. Kishilar xususiy ravishda o'zlari uchun Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini yozib yurishgan.

Ammo, yozganlar ham, yozmaganlar ham, hadislarni o'ta aniqlik bilan rivoyat qilishni o'zlarining muqaddas burchlari deb bilar edilar. Birorta hadisni aniqlash uchun har qancha og'ir mehnatdan, uzoq safardan qochmas edilar.

Imom Buxoriy Uqba ibn al-Horisdan qilgan rivoyatda quyidagilar aytiladi: «Bir ayol Uqba roziyallohu anhuga, men seni ham, xotiningni ham emizganman, debti. Shunda Uqba darhol ulovini minib Makkadan Madinaga qarab yo'lga chiqibdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib, bilmasdan emikdosh singlisiga uylanib qo'ygan, keyin esa emizgan shaxs xabar bergan odamning hukmi haqida so'ragan. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Qandoq gap. Buning hukmi aytilganku!»-deb ikkovlarini o'sha zohati ajratdilar. So'ngra ayol boshqa erga tegdi.

O'sha vaqtda Makkadan Madinaga borishning o'zi oson bo'lmagan. Necha kunlab mashaqqatli safar qilish zarur bo'lgan. Lekin sahobalarning har bir narsada Islom hukmiga amal qilish rag'batlari har bir narsani Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdan so'rashga bo'lgan qiziqishlari hamma narsadan ustun turgan.

Sahobalar nafaqat hadislarni o'rganishni, balki o'rgatishni ham o'z burchlari, deb bilar edilar. Chunki, Islom ta'limoti, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning ko'rsatmalari shu edi.

Imom Termiziy va Imom Abu Dovudlar Zayd ibn Sobit roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Mening gapimni eshitib, yod olib, singdirib so'ngra eshitganidek qilib ado etgan odamni Alloh ne'matlantirsin»-deganlar.

Imom Ibn Abdul Barr Abu Bakr roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda esa, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam:

«Ogoh bo‘lingiz! Sizdan hozir bo‘lganlar g‘oyiblariga yetkazsin»-deganlar. Boshqa bir hadisi sharifda esa:

«Kim ilmni berkitsa, olovdan bo‘lgan yugan bilan yuganlanadi»-deganlar [3].

Shuning uchun ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini bilgan sahobalar ularni boshqalarga yetkazishga astoydil harakat qilar edilar. Shu bilan birga, ular o‘ta aniqlik bilan harakat va rivoyat qilayotganlariga ishonchlari komil bo‘lsagina bu ishga jur‘at qilar edilar. Aks holda, hadis rivoyat qilishdan o‘zlarini tiyar edilar. Chunki, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Imom Muslim Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda:

«Kishiga har bir eshitgan narsasini gapiraverishining o‘zi gunoh uchun yetarli»-degan edilar. Ya’ni, eshitgan narsasini orqa-oldiga qaramay gapiraverish gunohga olib boradi, deganlar. Har bir narsani eshitgandan so‘ng yaxshilab o‘rganib, o‘zlashtirib, aniqlab keyin gapirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Muhammad ibn Abdulloh Al-Hokim an-Nisoburiy. al Mustadrak alas sahihayn. Mustafu Abdulqodir Ato tahqiqi. – Bayrut: Darul kutubil ilmiya. 1990y. – 631 b.
2. Imom Zahabiy. As-siyar al-a’lom van nubalo. – Bayrut: Dar ul-qalam. 2008y. – 288 b.
3. Muslim ibn Hajjoj al Qushayriy Naysoburiy. Sahih Muslim. – Bayrut: Darul ihyoit turosil arabiy. 1990y. – 875 b.

TASAVVUF TA’LIMOTIDA “TARIQAT”, “MA’RIFAT” VA “HAQIQAT” BOSQICHLARINING TALQINI

A.L.Karimov,

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf ta’limoti bosqichlari yoritiladi. “Tariqat”, “ma’rifat” va “haqiqat” bosqichlari ilmiy bayon qilingan. Ushbu istilohlarning ma’nolari

ochib berilgan. Tushunchalarning mazmun mohiyatiga ilmiy yondoshilgan. Ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Kalit so'zlar: tariqat, ma'rifat, haqiqat, amaliyot, taraqqiyot, davr, tasavvuf, so'fi, so'fiylik, valiy, ilm, ilhom, mafkura, islom, shariat.

Asosiy matn: Islomning ilk davrlarida tariqat, ma'rifat va haqiqat lafzlari iste'molda bo'lmasa-da, ma'nolari bo'lgan. Bular keyinchalik mutasavvif ulamolar tomonidan ijti hod qilingan atamalardir.

“Maqolot”² asari o'n bir bo'limdan iborat bo'lib, ularda Shariat, Tariqat, Ma'rifat va Haqiqat maqomlari, tasavvufiy maslakning yetakchi xususiyatlari, komillikni qo'lga kiritish sirlari, ilohiy ishq va inson qismati kabi masalalar nihoyatda qiziqarli uslubda bayon etib berilgan. Dunyoda neki mavjud bo'lsa, halol, harom, pok, nopok – barchasi shariat ila ma'lum bo'ladi. Chunki shariat eshigi ulug' eshikdir. Alloh taolo har turli narsalarning mavjudligini Qur'on ichida bayon etadi:

“G'ayb (yashirin ish va narsalar) kalitlari Uning huzuridadir. Ularni Undan o'zga bilmas. Yana, quruqlik va dengizdagi narsalarni (ham) bilur. Biror yaproq (uzilib) tushsa (ham) uni bilur. Yer zulmatlari (qa'ri)dagi urug' bo'lmasin, ho'lu quruq bo'lmasin, (hammasi) aniq Kitob (Lavhul Mahfuz) da (yozilgan)dir”³.

Shariat, tariqat va haqiqat borasida Turkiston mashoyixlari ham bir qator asarlarida va suhbatlarida fikru mulohazalar bildirishgan. Yassaviya tariqatining asoschisi, Turkiston piri Ahmad Yassaviy hazratlari “*Faqrnoma*” risolasida shunday yozadilar: “Komillik 40 maqomdan iborat bo'lib, bularning 10 tasi shariatda, 10 tasi tariqatda, 10 tasi ma'rifatda va 10 tasi haqiqatdadur”⁴.

Shariatning ilk maqomi imon keltirishdir. Oriflar nazdida imon maskani aqldadir. Lekin ko'pchilikka ma'lum bo'lgani – imonning tilda va ko'ngilda ekanligi. Kimki Alloh taologa ko'ngildan iqror bo'lmasa mutlaq kofirdir.

² Xoja Bektoshi Valiy. Maqolot. – T.: Sharq, 2000. – B. 7-22.

³ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T.: Sharq, 2008. An'om surasi, 59-oyat.

⁴ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992. – B. 11.

Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirish (gunohi) ni kechirmagay va (lekin) ana shundan boshqa (gunohlar) ni O'zi xohlagan (banda) laridan kechirur. Kim Allohga shirk keltirsa, demak, u ulkan gunohni to'qib chiqaribdi⁵.

Robbingiz Odam o'g'illarining bellari (pushti kamarlari)dan zurriyotlari (ruhlari)ni olib, ularni o'zlariga guvoh qilib turib: “Men Rabbingiz emasmanmi?” (dedi). (Ular): “Yo'g'e! (Rabbimizsan!) Guvohlik berdik”, - dedilar. Qiyomat kuni: “Biz bundan g'ofil (bexabar) edik...”⁶

Imon ana shudir.

Ikkinchi maqom – ilm egallash.

Uchinchi maqom – namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, imkoni bo'lsa haj qilish va janobatdan poklanish:

Namozni barkamol o'qingiz, zakot beringiz va ruku' qiluvchilar (namozxonlar) bilan birga ruku' qilingiz (namoz o'qingiz)!⁷

To'rtinchi maqom – halolga erishish va sudxo'rlikni harom bilishdir.

...Alloh taolo bay'ni halol, sudxo'rlikni (esa) harom qilgan.⁸

Beshinchi maqom – nikohdir:

...sizlar uchun halol bo'lgan ayollarga uylanaveringiz.⁹

Oltinchi maqom – hayz va ko'zi yoriganda jinsiy aloqani harom deb bilish:

Bas, hayz paytida xotinlaringizdan chetlaningiz...¹⁰

Yettinchi maqom – jamoat ahlidan bo'lishdir:

“Jamoat bilan o'qilgan namoz yolg'iz holda o'qilgan namozdan yigirma yetti marta ortiq fazilatlidir”.

Sakkizinchi maqom – shafqatdir:

Alloh bilan ahd bog'laganlaridan keyin uni buzadigan, Alloh bog'lanishiga buyurgan narsalarni uzadigan va Yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan

⁵ Niso surasi, 48-oyat.

⁶ A'rof surasi, 172-oyat.

⁷ Baqara surasi, 43-oyat.

⁸ Baqara surasi, 275-oyat.

⁹ Niso surasi, 3-oyat.

¹⁰ Baqara surasi, 222-oyat.

kimsalar ham borki, ular uchun (Allohdan) la'nat bo'lur va ular uchun noxush diyor (jahannam) bordir.¹¹

To'qqizinchi maqom – pok yeb, pok ichish va toza kiyinishdir:

Ey, imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz!¹²

O'ninchi maqom – amri ma'ruf va nahyi munkar¹³:

Sizlardan yaxshilikka da'vat etadigan, amri ma'ruf va nahyi munkar ishlarini olib boradigan (bir) ummat bo'lsin! Aynan ular (oxiratda) najot topuvchilardir.

Bu bo'limda tariqat maqomlari bayon qilinadi

Ilk maqom – pirga qo'l berish va tavba qilish:

Hammangiz Allohning “arqoni” (Qur'oni)ni mahkam tuting...¹⁴.

Ey, imon keltirganlar! Allohga chin tavba qilingiz,...¹⁵.

...so'ngra ular tavba qiluvchilardan bo'lishlari uchun Alloh tavbalarini qabul etdi. Albatta, Alloh tavbalarnin qabul etuvchi va rahmli zotdir¹⁶.

Kimki Allohga tavakkul qilsa, bas, (Allohning) O'zi unga kifoya qilur¹⁷.

Ikkinchi maqom – muridlik:

Agar (bu haqda) bilmaydigan bo'lsangiz, ahli zikrlardan so'rangiz!¹⁸

Shu sababdan murid uch turlidir:

Birinchisi – mutlaq murid, u har qanaqa holda ham shayxiga “Nega?” deb dalil keltirmaydi.

Ikkinchisi – majoziy murid, u zohirda shayxi istaganidek, botinda o'zi xohlaganidek bo'ladi.

Uchinchisi – murtad murid, shayxining biror holini ko'rgani zamon undan yuz o'giradi.

Uchinchi maqom – tarosh va xirqa kiymoq:

¹¹ Ra'd surasi, 25-oyat.

¹² Baqara surasi, 172-oyat.

¹³ Yaxshi ishlarga buyurish va yomonlaridan qaytarish.

¹⁴ Oli Imron surasi,103-oyat.

¹⁵ Tahrim surasi, 8-oyat.

¹⁶ Tavba surasi, 118-oyat.

¹⁷ Taloq surasi, 3-oyat.

¹⁸ Nahl surasi, 43-oyat.

Masjidul-haromga emin-erkin, boshlaringizni, (sochlaringizni) qirdirgan va (yoki) qisqartirgan hollaringizda qo‘rqmasdan kirursiz, inshoalloh¹⁹.

To‘rtinchi maqom – nafs ila kurashda g‘olib kelish:

Yonilg‘isi odamlar va tosh (but va sanamlar)dan iborat, kofirlar uchun tayyorlab qo‘yilgan do‘zaxdan qo‘rqingiz²⁰!

Beshinchi maqom – xizmat qilish:

“Xizmat qilgan, xizmat ko‘rar”

Oltinchi maqom – xavf, ya‘ni qo‘rqish.

Sizlarga va‘da qilinayotgan narsa (qayta tirilish), shubhasiz, rostdir²¹

Yettinchi maqom – umidvor bo‘lish:

...Allohning rahmatidan noumid bo‘lmangiz²²!

Sakkizinchi maqom – xirqa, zanbil, qaychi, sajjoda, subha (yuz donali tasbeh) igna va aso.

To‘qqizinchi maqom – maqom sohibi – jamiyat va nasihat bo‘lishi:

Ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadi...²³.

O‘ninchi maqom – ishq, shavq, safo va faqirlik:

(Ajalim yetganida) **musulmon holimda vafot etdir va meni solihlar (qatori)ga qo‘shgin²⁴!**

Quyida ma‘rifat maqomlari bayon qilinadi

Ma‘rifatning birinchi maqomi – adab.

Ikkinchisi – qo‘rquv.

Uchinchisi – parhezkorlik.

To‘rtinchisi – sabr va qanoat.

Beshinchisi – hayo.

Oltinchisi – jo‘mardlik.

¹⁹ Fath surasi, 27-oyat.

²⁰ Baqara surasi, 24-oyat.

²¹ Zoriyot surasi, 5-oyat.

²² Zumar surasi, 53-oyat.

²³ Moida surasi, 54-oyat.

²⁴ Yusuf surasi, 101-oyat.

Yettinchisi – ilm.

Sakkizinchi – miskinlik.

To'qqizinchi – ma'rifat.

O'ninchisi – o'zni bilish ya'ni, o'zini tanisa, Robbisini taniydi.

Endi haqiqat maqomlari bayon etiladi

Birinchi maqom – tuproq bo'lish.

Ikkinchi maqom – yetmish ikki millatni ham ayblamaslik va kamsitmaslik.

Uchinchi maqom – qo'ldan kelgan narsani ayamaslik.

To'rtinchi maqom – dunyoda yaratilgan barcha narsadan emin bo'lish.

Beshinchi maqom – mulk Sohibiga yuz burib, ko'z yoshi to'kish. Chunki, vahdat U zotning O'zigagina xosdir.

Oltinchi maqom – suhbatda haqiqat sirlarini so'zlash.

Yettinchi maqom – sayri suluk.

Sakkizinchi maqom – sir.

To'qqizinchi maqom – munojot.

O'ninchi maqom – Haq taologa yetishish.

ADABIYOTLAR

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992y.
2. Xoja Bektoshi Valiy. Maqolot. – T.: Sharq, 2000y.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T.: Sharq, 2008y.

“ARBA'IN” HADIS TO'PLAMLARI VA ULARNING MUALLIFLARI

Sh.Sh.Saidov,

BuxDU, Islom tarixi va manbashunosligi

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arba'in hadis to'plamlarining tarixi yoritiladi. Uning rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. Bunday to'plamlarni ta'lif qilgan

muhaddislar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Eng dastlabki hadis to'plamlari egalari atab o'tiladi. Ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Kalit so'zlar: Arba'in, hadis, to'plam, muhaddis, davr, olim, ustoz, shayx, sanad, isnod, martaba, tabaqa, islom, shariat, hukm.

“Arba'iyin” – “qirqta” degani bo'lib, iste'molda qirqta saylanma hadisdan iborat to'plamlarga aytiladi. Ushbu uslubda asar yaratish islom olamida yaxshi bir an'anaga aylangan. Bunga Nabiyo sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadislarini asos va turtki bo'lgan:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: **“Kim ummatimga din ishlari borasida qirqta hadisni muhofaza qilib bersa, Alloh uni qiyomat kuni faqih qilib tiriltiradi hamda qiyomat kuni men unga shafatchi va guvoh bo'laman”**.”

Bu hadis juda ko'p muhaddislar tomonidan rivoyat qilingan mashhur hadis hisoblanadi. Jumladan, uni imom Bayhaqiy Abu Dardo va Abu Hurayra roziyallohu anhumodan, Daylamiy Ibn Mas'ud va Ibn Abbos roziyallohu anhumdan, Abu Nu'aym ibn Mas'ud roziyallohu anhudan, Ibn Javziy esa Aliy roziyallohu anhudan rivoyat qilganlar.

Mazkur hadisi sharifning ilhomi bilan ko'pchilik muhaddislar va ulamolar “Arba'in” asarlarini yaratishgan. Bu tur hadis kitoblarini ikki qismga ajratish mumkin:

Ma'lum bir mavzudagi hadislardan qirqtasini jamlagan asarlar. Masalan, odob-ahloq, ilmning fazilati, Madinaning fazli haqida, hajga yoki tabobatga oid hadislardan tuzilgan arba'iyinlar kabi.

Islomning umumiy asoslarini ifoda etuvchi hadislardan tuzilgan arba'inlar. Bularda mavzu cheklanmaydi. Bu tur arba'inlar ichida eng mashhur va m'tabari imom Navaviyning “Arba'in”lari ekaniga shubha yo'q.

Allohga itoat qilish Qur'onga itoat qilish bilan bo'ladi. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga itoat qilish, tiriklarida shaxslariga itoat qilish bilan bo'lsa, U zot vafotlaridan keyin esa, sunnatlariga, hadislariga amal qilish bilan bo'lib kelmoqda. Kezi kelganda shuni aytib o'tish lozimki, Allohga itoat qilish bilan Payg'ambarga itoat qilish alohida-alohida ikki xil narsa emas. Chunki, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam ham

doimo Allohning itoatida bo'lganlar. Allohning itoatidan tashqari narsaga buyurmaganlar. Gap Alloh taoloning bevosita Qur'onda kelgan amrlariga itoat qilish bilan, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari vositasi ila kelgan amrlariga ham itoat qilish haqida ketmoqda. Qur'on Karim lafz va ma'no jihatidan Allohning Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga yuborgan o'jiz qoldiruvchi vahiysidir [1].

Sunnat-hadis esa, ma'nosi Allohdan lafzi Payg'ambardan bo'lgan vahiyydir. Dindiyonat, shariat va boshqa ma'nolarda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o'z shaxsiy fikrlarini emas, Allohning vahiysini o'z iboralari bilan taqdim etganlar. Alloh taolo Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vasflarida: **“U havodan gapirmas. Bu faqat qilinadigan vahiyydir [2]”**, degan.

Ya'ni, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning din, diyonat, shariat xususida aytgan har bitta gaplari Allohning vahiysidir. U kishi o'z havoyi nafslaridan gapirmaslar. Ana shundan ham ko'rinib turibdiki, Sunnat shariatimizning ikkinchi manbaidir.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga itoat qilmasdan, U zotning hukmlariga taslim bo'lmasdan turib, iymon da'vosini qilish mumkin emasligini Alloh taoloning O'zi Qur'oni karimda ochiq-oydin bayon qilib qo'ygandir.

Islom fathi yetib kelgan barcha xalqlar hayotida, an'alarida, qadriyatlar-yu, urf odatlarida islom o'z aksini topadi. Zero, barcha musulmonlar islom shariatiga muvofiq turmush kechirishga intilgan. Shuning uchun boshqa barcha amallar qatori “arba'iy” hadis to'plamlarini yozish ulamo-yu, shoirlarning maqsadiga aylangan. Biz qo'yida ularning ba'zilarini sanab o'tamiz.

1. Muhiddin Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf Navaviy (hijriy 631-676). Imom, hofiz, faqih, muhaddis Yahyo ibn Sharaf ibn Murriy ibn Hasan al-Hizomiy al-Huvroniy an-Navaviy Islom olamining mo'tabar olimlaridan sanaladi. Kuniyalari — Abu Zakariyo, laqablari — Muhyiddin. U zot “Arba'iy” hadis to'plamini ta'lif qilgan.

2. Muhammad ibn Yahyo ibn Mansur Abu Sa'd Muhiddin Naysoburiy (vafoti hijriy 548 yil). O'z asrining Nishopur shahridagi shofe'iy larning raisi edi. Nishopurning

Turisis deb nomlangan joyida dunyoga kelganlar. Imom G'azzoliy qo'llarida fiqh fanini o'rgandilar. Nishopurdagi talabalarga dars berganlar. U kishi “Al-muxiyt fiy sharhil vasiyt”, “Al-intisof fiy masailil xilof” kabi kitoblarni yozganlar.

3. Roziyuddin Abul Xasan Muabbad ibn Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Muhammad ibn Solih Tusiy Naysoburiy. Hijriy 524 yilda tug'ilganlar. Sahihi Muslimni 30 yoshlarida Furoviydan o'qib o'rgandilar. Sahihi Buxoriyni Abul Maoliy Forisiydan eshitib o'rgandilar. Imom Molikning “Muvatto” asarlarini Hibatulloh as-Sayyidiydan eshitib o'rganganlar. Tusiy 617 yil, shavvol oyining 20-kuni vafot etdilar.

4. Yusuf ibn Hasan ibn Ahmad Ibn Hasan ibn Abdul Hodiyy as-Solihiy Jamoliddin ibn Mibrad. (1436-1503 m, 840-909 h). Hanbaliylarning mashhur faqih ulamolaridan. Damashqda dunyoga kelganlar.

5. Muhammad ibn Ibrohim ibn Ali ibn Osim ibn Zazon al-Xozin al-Asbahoniy Abu Bakr ibn Muqriy. (754-837 h). Qizil dengiz bo'yidagi, Yaman sohillaridan biridagi Sharja mintaqasida dunyoga keldilar. Boshlang'ich ilmlarni o'lkasidagi olimlardan oladi. Ilmga chanqoqligi uchun keyinchalik turli davlatlarga safar qiladi. Ibn Muqriy fiqnga juda qiziqar edi. Fiqh, tarix, nahv fanlariga oid ko'plab asarlar yozganlar.

6. Muhammad ibn al-Hasan ibn Muhammad ibn Muso al-Azdiy as-Sulamiy. Tasavvuf olimlardan biri. (936-1021). Nishopur shahrida to'g'ilib vafot etganlar. Imom Zahabiy aytadilar: U kishi so'fiylarning shayxi edilar. Sufiylikning tarixi va tabaqalari to'g'risida ko'plab asarlar yozgan. Sulamiy yuzdan oshiq asarlar yozganlar. Tafsiir faniga oid “Xaqoiq at-tafsiir”, “Tobaqotus sufiya”, “Muqaddamut tasavvuf” risolalari, “Minhojul orifiyn”, “Risolat fiy g'olatotus sufiya”, “Adabul faqri va sharoituhu”, “Adabus suhbatu” kabi ko'plab kitoblarni yozganlar.

7. Abdurrazoq ibn Muhammad ibn Ahmad at-Tobasiy. U kishi Nishopur shahrida yashagan. Sam'oniyy aytadilar: Tobasiy uzoq yurtlardan kelgan kishilarga kitoblarni o'qib berar va ularga ko'plab foydalarni keltirganlar. Aytishlaricha, Sahih Muslim kitobini 18 marta Muhammad ibn Fazl Faroviyyga o'qib berganlar. U kishi hijriy 538 yili robiul avval oyida Nishopur shahrida vafot etdilar.[3]

Tobasiy “Arbaiyn al-mustaxrajatu minas sihohi min rivayati Muhammadiyn” nomli arbaiynlarini yozganlar. Tobasiy hijriy 537 yili vafot etganlar.

8. Ali ibn Xasan ibn Hibatulloh Siqotud diyn ibn Asokir ad-Dimashqiy (h. 499-571 m. 1105-1176). Shom diyoringning muhadisi, Sam’oniyning safardagi sheriklari edilar. Damashq shahrida dunyoga keldilar. U kishi ko‘plab kitoblar yozganlar, ulardan: “Tarixu Dimashq al-kabiy”, bu kitob “Tarix ibn Asokir” nomi bilan mashhur. Abdul Qodir Badron ushbu kitobni muxtasar qilib “Tahziyb tarixi ibn Asokir”. Ushbu muxtasar kitob hozirda ham chop qilinmoqda. Ibn Asokir “Arbu’na hadisan min arba’iyna shayhan min armi’iyna madiynatin” nomli arba’iynlarini yozdilar.[4]

9. Ahmad ibn Abdurrazzoq ibn Shayh Muhammad ibn Zayd ibn Ibrohim ibn Shayh Anqariy. Anqariy ulumul qur’on va qiroatdan mutahassislikka ega edilar. Ahmad ibn Abdurrazzoqda Qur’onni yodladilar. Hadis ilmini Abdulloh Sa’ddan o‘rgandilar. Ustozlari sihohi sittadan ijoza berdilar. Ahmad ol Ibrohiymdan fiqh ilmini o‘rgandilar. Ibrohiym turkiydan aqoid ilmini o‘rgandilar. Anqariy “Arba’una al-Qur’aniya” nomli arba’iynlarini yozdilar.

10. Ali ibn Mufaddal ibn Ali ibn Mufarrij ibn Xotim ibn Hasan ibn Ja’far al-Maqdisiy. Hijriy 544 yilda tug‘ildilar. U kishining shogirdlari Xofiz Abu Muhammad Munziriy ustozlari haqida shunday deydilar: Ustozim Misrga ko‘chib keldilar. Xulq atvorlari yaxshi, taqvodor, bir necha fanlarni yaxshi o‘rgangan edilar. Men u kishidan juda ko‘p foyda oldim.[5]

Zakiyuddin Munziriy aytadilar: Maqdisiy hijriy 611 yili sha’bon oyida vafot etdilar va Qohira atrofidagi tog‘ tepasiga dafn qilindi.[6]

Maqdisiy “Kitabul arba’iyna al-murattabati ala tobaqoti al-arba’iyna” deb nomlangan arbaiynlarini yozdilar.

Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, musulmon shoirlar ham she’riy “Arba’in”lar yozishgan. Mazkur to‘plamlar arab tilida bo‘lmasa da, Rasulullohning hadislari ma’nolari tarjimasi hisoblanadi. Jumladan, buyuk olim Abdurrahmon Jomiy rahmatullohi alayh fors tilida “Arba’in” tuzib, unda fazilatli amallarga, islom ahloqiga doir qirqta qisqa-qisqa hadislarni she’riy to‘rtliklar bilan tarjima qilgan. Keyinroq u

kishining xos shogirdi, mumtoz shoir Mir Alisher Navoiy ham ustoz yo'lidan borib, o'zining "Arba'in" asarini yaratgan.

Xulosa o'rnida shunday deyish mumkin. Mazkur shaxslar va ularning bizga qoldirgan ilmiy meroslari bugungi kunda yuzaga kelayotgan ham ijtimoiy, ham siyosiy va iqtisodiy muommalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Kifoya". Toshkent, Hilol nashr. 2008. – B. 29.

2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. - Toshkent.: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. Najm surasi, 3-4 oyatlar.

3. "At-Tafsir li ma'rifati ruvatis sunani val masoniyd (1/351)"

4. "Al-A'lom liz Zirkliy"

5. Imom Zahabiy. As-siyar al-a'lom van nubalo. – Bayrut: Dar ul-qalam. 2008y. – 288 b.

6. Muslim ibn Hajjoj al Qushayriy Naysoburiy. Sahih Muslim. – Bayrut: Darul ihyoit turossil arabiy. 1990y. – 875 b.

7. Muhammad ibn Abdulloh Al-Hokim an-Nisoburiy. al Mustadrak alas sahihayn. Mustafu Abdulqodir Ato tahqiqi. – Bayrut: Darul kutubil ilmiya. 1990y. – 631 b.

JINOYAT SUDIDA ADVOKAT ISHTIROK ETISHI SHART BO'LGAN HOLATLAR TAHLILI

Shukurov Ikrom Qosimovich

BuxDU, advokatlik faoliyati yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Jinoyat sudida advokat ishtirok etishi shart bo'lgan holatlari bu O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual kodeksining 51-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorlarida keltirib o'tilgan holatlar yuzasidan sud prosessida sudlanuvchining ijtimoiy ahvoli hamda prosessual normalarga ko'ra himoyachining ishtirok etishi talab qilinadigan aks holda prosessual norma

buziladigan holatdir.

Kalit so'zlar: Jinoyat, advokat, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorlari, norma, prosessual.

Huquq sohasida ishtirokchilar turli xil nomlanib, o'ziga xos huquqiy maqomga ega bo'ladi. Ya'ni, har bir ishtirokchi o'ziga xos majburiyat va funksiyalarni bajaradi.

Xususan umumiyjurisdiksiya sudlaridagi prosessning ishtirokchilari bajaradigan vazifalar hamda ularning muhofaza qiladigan manfaatlari bilan bog'liq holda belgilanadi.

Chunonchi, advokat jinoyat prosessida qonunda ko'rsatilgan tartibda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish va ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega shaxs hisoblanadi.

Jinoyat ishlari yurituvda advokatning prosessual maqomini tahlil qilishda 2008 yil 31 dekabrda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-sonli Farmonining ahamiyatini e'tirof etib, mazkur normalar bilan advokatning prosessual vakolati va maqomi yanada oshirilganini alohida ta'kidlash lozim.

Ushbu normalar bilan birgalikda, Advokat O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni normalariga rioya etishi, avvalo, axloqiy soflik tamoyillariga hamda qonunlarga aniq va og'ishmay amal qilishi talab etiladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan jinoyat ishida advokat ishtiroki shaxsni jinoyatda gumonlanuvchi sifatida ushlanganidan oxirgi bosqich ya'ni unga nisbatan hukm yoki ajrim o'qilguniga qadar ishtirok etish mumkinligi bayon etilganligi to'g'risida hatto bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining

116-moddasiga binoan, ayblanuvchi himoyalani huquqi bilan ta'minlanadi, unga tergov va sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida malakali yuridik yordam olish

huquqi kafolatlanadi. Himoyachi jinoyat ishlari bo'yicha gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash uchun zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega²⁵ligi bayon etilgan. Shu o'rinda bir narsani aytish joizki, himoyachi sifatida faqat advokatlar ishtirok etishi mumkin. Advokat bo'lmagan shaxs ishda himoyachi sifatida ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi.

Advokatning jinoyat ishining barcha bosqichlarida ishtiroki kafolatlangan bo'lib, bunda taraflardan o'z xoxish istagiga ko'ra, advokatdan voz kechishi hamda buning aksi bo'lmish advokat ishtiroki shart bo'lgan holatlar ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasida himoyachi ishtiroki shart bo'lgan holatlar belgilangan bo'lib, quyidagi jinoyat ishlar bo'yicha advokat ishtiroki ishtirok etishi shart:

- 1) voyaga yetmaganlarning ishi bo'yicha;
- 2) soqovlar, karlar, ko'rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy holati buzilganligi sababli o'zini o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo'yicha;
- 3) sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 4) jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 5) shaxslarning manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo'lgan ishlar bo'yicha;
- 6) davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo'yicha;
- 7) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;
- 8) tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarda;
- 8.¹) sud tomonidan dastlabki eshituv o'tkazilayotgan ishlarda;
- 8.²) o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar bo'yicha;

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 116-моддаси. Т: 08.12.1992 й

8.³) shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish masalasi ko'rib chiqilayotganda;

8.⁴) aybiga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha;

9) apellyasiya va kassasiya instansiyasi sudi tomonidan ko'riladigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo'yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.

Agar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining xududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to'g'risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yoki ajrim O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining xududiy boshqarmasiga kelib to'shgan paytdan e'tiboran to'rt sodatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtirokini ta'minlashi shartligi belgilangan.²⁶

Ushbu moddada nazarda tutilgan holatlar gumon qilingan shaxsga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida o'zini himoyalash uchun berilgan qo'shimcha kafolat deb tushunilmog'i lozim. Unda to'qqiz xil ishlar bo'yicha himoyachi albatta ishtirok etishi talab qilingan. Bu ishlardan tashqari har qanday jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash, dalillar to'plash, ularni tahlil qilish va baholash hamda foydalanish murakkabligi tufayli surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud himoyachining ishtiroki zarur deb hisoblashi mumkin.

Shuningdek, ushbu moddada nazarda tutilgan ishlar bo'yicha barcha gumon

²⁶ Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал кодекси. Тошкент 22.09.1994 й

qilingan shaxslar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar ish yurituvining butkul davomida himoyachi xizmatidan uzluksiz foydalanadilar va har qanday sabablardan qat'i nazar, himoyachisiz qolmasligi lozim.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi birinchi bandiga asosan, voyaga yetmaganlarga nisbatan advokat ishtirokida - shaxs o'n sakkiz yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun gumon ostiga olingan, ayblanayotgan, sudlanayotgan shaxs, ish bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilayotgan vaqtda voyaga yetgan bo'lsa-da, himoyachi bilan ta'minlanmog'i shart.

Shuningdek, Oliy sud Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-son Qarorining

3-bandiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari sud muhokamasiga qo'yilganda ayblanuvchi voyaga yetgan-yetmaganligidan qat'i nazar, advokat ishtirok etishi shart ekanligi nazarda tutilgan.²⁷

Qoida o'rnida shuni aytish lozimki, voyaga yetmagan shaxs JPKning 52-moddasiga asosan advokatdan voz kechish istagi bo'lsada, tadbiiq etilmaydi.

Mazkur prosessual qonun talablariga rioya qilinmaslik JPKning 419 hamda 487-moddalarga asosan, hukmning bekor bo'lishiga asos bo'ladi.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi ikkinchi bandiga asosan, holat yuzasidan aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, shuningdek, ish bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi yuritilayotganda ruhiy kasallikka uchragan shaxs, uning aqli rasoligini aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlangan paytdan boshlab, ya'ni uning aqli norasoligi aniqlanganidan ilgariyoq himoyachi bilan ta'minlanmog'i lozim.

Bunda, ushbu kodeksning 571-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan hol bo'yicha sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga ko'ra, himoya ostidagi shaxs ruhiy holatining buzilishi jinoyat sodir etilgandan so'ng yuzaga kelgan yoki u ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan bo'lsa yoxud uning aqli rasoligini istisno

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленум қарори. 15.09.2000 й

etmaydigan, biroq ruhiy holati o'zini himoya qilish huquqini mustaqil amalga oshirishini qiyinlashtiradigan tarzda buzilgan bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan himoyachining ishda ishtirok etishi shartligi haqidagi qoida amal qilishda davom etishi belgilangan. Bundan tashqari ruhiy kasalligi yoki jismoniy kamchiliklari sababli himoyalani huquqini amalga oshirishda qiynaladigan shaxslar sud-psixiatriya ekspertizasi tomonidan aqli raso deb hisoblangan hollarda ham himoyachining yordamidan foydalanishlari, himoyachi bilan ta'minlanishlari shartligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003 yil 19 dekabrda "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori bilan o'z tasdig'ini topgan.²⁸

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi uchinchi bandiga asosan, sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha ham advokat ishtirok etishi shart bo'lib, bunday shaxsning o'z huquq va manfaatlarini to'liq va har tomonlama himoya olishga qodir emasligi, uning ishga oid holatlar yuzasidan o'z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi bilan belgilanadi. Himoyachi ishtiroki esa mazkur kamchiliklarni bartaraf etish hamda unga malakali yuridik yordam ko'rsatilishiga xizmat qiladi.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi to'rtinchi bandiga asosan, jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha ham advokat ishtiroki shart hisoblanadi. Bunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish kaloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir. Amaldagi qonunchilikka binoan faqatgina og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddaning ikkinchi qismi) hamda terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun JPKning ushbu moddasi amal qiladi.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismining byeshinchi-yettinchi bandlariga ko'ra, shaxslarning manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib, ulardan aqalli biri

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленум қарори. 19.12.2003 й

himoyachiga ega bo'lgan ishlar, davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar hamda jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ilarda ham himoyachi ishtirok etishi shart.

Bu to'g'risida Oliy sud Plenumining 2008 yil 3 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini appelyasiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida”gi 2-son Qarori 13-bandining uchinchi xatboshisi, 2008 yil 15 maydagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini kassasiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida”gi 11-son Qarori 11-bandining uchinchi xatboshisi hamda Oliy sud Plenumining 2008 yil 15 maydagi 12-son Qarori 14-bandining uchinchi xatboshisiga ko'ra, apellyasiya, kassasiya va takroran kassasiya “Sudlar tomonidan amaldagi qonunga binoan takroran kassasiya inchtansiyasi sudida prokurorning ishtiroki shart bo'lib, bunday holda JPK 25-moddasining birinchi qismi hamda 51-moddasi birinchi qismining 6-bandi mazmunidan kelib chiqib, ushbu inchtansiyada himoyachining ishtiroki ham ta'minlanishi shart. Shu sababli prokuror yoki himoyachi kelmagan hollarda ishning muhokamasi keyinga qoldirilishi kerak.

Sharhlanayotgan modda birinchi qismining sakkizinchi bandiga ko'ra, tibbiy yosindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarda ham himoyachi ishtirok etishi shart. Bu borada Oliy sud Plenumining 2008 yil 12 dekabrda “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi 23-son Qarori 11-bandining birinchi xatboshisiga muvofiq, JPK 51 va 571 moddalariga ko'ra, aqli noraso holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, shuningdek, jinoyat sodir etilgandan so'ng ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'indagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlash to'g'risidagi qarori chiqarilgan paytdan boshlab himoyachining ishtiroki majbur hisoblanadi.²⁹

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismining to'qqizinchi bandiga ko'ra, appelyasiya hamda kassasiya instansiyalarida advokatning ishtirok etilishi shart. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlar yuasidan prokurorning ishtiroki shartligi hamda

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленум қарори. 12.12.2008 й

manfaatlar qarama-qarshiligi bois advokat ishtiroki shart hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorlarida o'z aksini topgan.

Sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo'yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb ko'rsatilgan.

Xuddi shuningdek moddaning uchinchi qismida keltirilgan asosga ko'ra, advokat ishtiroki shart holatlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarori yoki sudning ajrimiga asosan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushagn paytdan 4 soatdan kechiktiray jinoyat ishi bo'yicha himoyachining ishtirokini ta'minlash shart.³⁰

Jinoyat-prosessual qonunchiligida belgilangan ushbu norma gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini himoyalanihga bo'lgan huquqni o'z vaqtida samarali ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan holatlar yuzasidan advokat ishtiroki ta'minlanishi fuqarolarning huquq va manfaatlarini professional kasbiy malakaga ega korpus vakillari tomonidan himoya qilinishiga asos bo'lib, jamiyat hayotida odillik, qonuniylik hamda insonparvarlik tamoyillarini ta'minlashda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: 08.12.1992 y
2. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual kodeksi T: 22.09.1994 y
3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi T: 22.09.1994 y
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum Qarori T: 15.09.2000 y
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum Qarori T: 19.03.2003 y

³⁰ "Адвокатура тўғрисида"ги Қонун. 27.12.1996 й.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum Qarori T: 12.12.2008

70230101 – LINGVISTIKA O'ZBEK TILI

MAQOLANI OMMALASHTIRISH XUSUSIDA

Hojiyeva Sadoqat Hamzayevna,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili)

ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqolalarni ommalashtirish hamda ularning o'ziga xos samaradorligi borasida fikr yuritilgan bo'lib, qayd etib o'tish lozimki, maqolani ommalashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan qator jihatlar mavjud. Maqolani ommalashtirish jarayonida barcha tez-tez foydalanadigan saytlardan foydalanish, ularni Adabiyotlar ro'yxatidan joy olinishini ta'minlash va boshqalar shular jumlasidandir.

Kalit so'zlar: maqola, ommalashtirish, global tarmoq, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, sayt.

Barchamizga ma'lumki, bugungi ilm-fan taraqqiyotida maqolalar muhim o'rin egallaydi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi o'laroq yaratiladigan maqolalar ilmiy ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan ushbu maqolada maqolalarni ommalashtirish, ularning samaradorligini qayd etishda ommalashtirish ishlaridan foydalanish hamda uning o'ziga xos turlari borasida fikr yuritiladi.

Maqolani ommalashtirish – bu ilmiy jihatdan tadqiq etilgan maqolani barchaga ma'lum qilish, uning sifat jihatini yuksaltirish hisoblanadi. Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda maqolalar miqdori son jihatidan ortsa-da, biroq sifat jihatidan nomukammallik kasb etmoqda. [1] Yozilgan maqolalar faqatgina nashr etilgan manbalarida qolib ketmoqda. Shuni hisobga olgan holda aytish lozimki, maqolani imkon qadar ilm ahliga tanitish, uning sifat samaradorligini oshirish borasida ayrim amaliy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ham

ilmiy ishlarni ommalashtirish yuzasidan qator farmon va qonunlar qabul qilinayotgan bo'lib, ularga misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni hamda “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori va shu kabilar shular jumlasidandir.

Maqolani ommalashtirishda qator xususiyatlarga e'tibor berish lozim, bunda esa maqolaning bir necha jihatlariga ilmiy jihatdan yondashuv yordam beradi, chunonchi: [2]

- a) ***Maqola sarlavhasining tushunarli bo'lishi*** – bu asosiy xislat sanalib, bu ilmiy maqola o'quvchisini o'ziga jalb qilishda muhim omillardan biri sifatida qayd etiladi;
- b) ***Maqolada annotatsiyasida maqolada ochib berilajak mavzuning konkret yoritilishi*** – ayrim maqolalar borki, maqolaning annotatsiya qismiga e'tibor bersangiz, undagi jumlar aynan maqolaning ichidan ko'chirma sifatida joylashtirilgan bo'ladi, bu esa maqola sifatining tushishiga sabab bo'ladi;
- c) ***Maqoladagi kalit so'zlar maqola ichida qo'llanilgan eng ko'p so'zlar sifatida keltirilishi*** – bu ham maqolaning tezda ommalashishiga xizmat qiluvchi omil sanaladi, ya'ni ayrim ilm-fan kishilari maqola mazmunini, asosan, maqolaning kalit so'zlar qismi orqali tushunishga harakat qilishadi, bu esa maqoladagi kalit so'zlarning sifat jihatidan namunali bo'lishiga erishilishiga sabab bo'lishi lozim;
- d) ***Maqolada yoritilayotgan mavzu barcha uchun tushunarli bo'lishi*** – maqolaning sarlavhasi o'laroq yoritilgan mavzu barcha uchun birdek tushunarli bo'lishining muallif tomonidan ta'minlanishi maqolaning sifat jihatidan samarali bo'lishiga yordam beradi;
- e) ***Maqoladagi foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxatiga e'tiborli bo'lish*** – ayrim maqolalarda foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati shunchaki boshqa maqoladan ko'chirma tarzida keltiriladi, bu maqoladagi plagiatni yuzaga keltirish bilan birgalikda undagi ommalashtirish uchun bo'lgan urinishlarni ham besamar ketkazadi va hokazo.[3] Demak, maqolani ommalashtirishda nafaqat uning ommalashishiga xizmat qilayotgan manbalar, balki maqolaning sifati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolani ommalashtirish jarayonida ikki manbadan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir, ular quyidagilardir:

- I. *Global tarmoq.*
- II. *Bosma nashrlar. [4]*

Global tarmoq – bugungi kunda butun dunyo miqyosini egallagan butunjahon o'rgimchak to'ri hisoblanib, u orqali maqolalarni ommalashtirish hozirda anchayin faol. Xususan, maqolalar tez-tez e'lon qilinadigan mashhur saytlar orqali ularni jamoatga e'lon qilib borish maqola saviyasining naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi. Quyida maqolalar e'lon qilinadigan mashhur saytlar xususida misollar keltiramiz:

Google scholar – ushbu sayt 2004-yil 4-noyabrdan beri faoliyat yuritib kelayotgan bo'lib, uning asosiy obyekti ilmiy maqolalar hisoblanadi. Google scholar da e'lon qilingan maqolalar qator imtiyozlar taqdim etib (ustama olish, maqolaning ommaviylikini ta'minlash va hokazo), bundan tashqari, ushbu platformaning qator qulayliklari ham mavjud, chunonchi:

- 1) *barcha ilmiy manbalarning bitta platformada joylashganligi;*
- 2) *mavzuga aloqador bo'lgan jami ishlar, sitatalar, mualliflar hamda nashriy ishlarning platformadan o'rin olganligi;*
- 3) *izlangan mavzuni saqlab olish imkoniyati;*
- 4) *maqola muallifi nashr etgan ilmiy ishlardan kimdan foydalanganligini tekshirish va hokazo. [5]*

Demak, maqolaning ommalashishida ko'mak beruvchi ushbu *Google scholar* sayti maqolaning ommaviylikini ta'minlash bilan birgalikda o'zining qator qulayliklarini ham taqdim etadi.

CyberLeninka platformasi ham ilmiy maqolalarni ommaga e'lon qilishda samarali yordam beradigan saytlardan biri hisoblanib, ushbu sayt 2012-yil 1-sentabrda ishga tushgan. Ushbu sayt elektron kutubxona vazifasini bajarishi bilan birgalikda maqolalarni bepul litsenziyalash xizmatini ham taqdim etadi hamda o'zida ulkan maqolalar bazasini jamlagan. *CyberLeninka* platformasi dunyodagi 5 ta ochiq arxivlardan biri hisoblanadi. Bu platforma orqali maqolangizni ommalashtirishga harakat qilsangiz, undagi qator

imkoniyatlarning ham guvohi bo'lasiz, xususan, maqolaning necha marta ko'rilganligi, maqolaning yuklab olinish miqdori va hokazo.[6]

ResearchGate maqolalar platformasi ham omma uchun mo'ljallangan platforma hisoblanib, ushbu saytning foydalanuvchilarining asosiy qismini ilmiy izlanuvchilar tashkil etadi. Bu platformaga a'zo bo'lishning bir necha bosqichlari mavjud bo'lib, buning uchun tahsil olinayotgan o'quv dargohining elektron pochta hamda shaxsiy ma'lumotlar saytga joylanishi lozim.[7]

Qayd etib o'tish lozimki, yuqorida nomlari qayd etilgan maqola platformalari ularni ommalashtirishdagi birinchi manba hisoblanadi. Ikkinchi manba esa bosma nashrlar sanaladi. Dissertatsiyalar, maqolalar, ilmiy asarlar hamda shu kabi qator ilmiy izlanishga asoslangan ilmiy ishlarning foydalanilgan Adabiyotlar qismida maqola nomi hamda muallifini qayd etib o'tish maqola sifatini ta'kidlashi bilan birgalikda uning ommalashishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, maqolani ommalashtirish muallif ilmiy izlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, maqola sifati, maqola mavzuning lo'nda va tushunarli bo'lishi, annotatsiya qismining maqola mavzusini to'laligicha ochib bera olishi, kalit so'zlardan unumli foydalanish va shu kabi jihatlar maqola sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maqolani ommalashtirishda internet saytlari hamda bosma nashrlar ham alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Avliyoqulov N.H.O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. B.: 2001. – 100 b.
2. Adizov D. Ijodiy ta'lim jarayoniga tizimli yondashish // Xalq ta'limi. – 2001. - №4. – B. 102-104.
3. Azizxodjaev N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. - 174 b.
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Изд-во Института профессионального образования министерство образования России, 1995. – 336 с.

5. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. T.: TASHS, 2001. – 59 b
6. Zaripov K.Z. Pedagogik kadrlarni malakasini oshirish tizimini metodologik tadqiq qilish // Xalq ta'limi. – T.: 2003. – № 3. – B. 15.

O'ZBEK TILIDA SHIRINLIKLARNING TOPONIMLAR BILAN IFODALANISHI

Xolova Shahnoza Shuxratovna,

BuxDU, 2-bosqich magistranti

s.s.xolova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada toponim va toponimika terminlari izohlanadi. Shirinliklarning joy nomlari bilan ya'ni ularga joy nomlarini qo'shib ifodalanishi tahlil qilinadi. Joy nomlarining tarixi va u yerdagi turli marosim bilan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Toponim, toponimika, joy nomlarining tarixiy nomlanishi, shirinlik nomlari, qandolatchilik, ma'rosim.

Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan — tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi.

Toponim - joy nomi yoki joy nomi bilan bog'liq holda yaratilgan so'z hisoblanadi. Toponimlar tilning lug'at boyligiga kiradi. Biroq joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan juda farq qiladi. Bu farq toponimlarning ko'p vaqtlardan buyon tilda mavjudligida, ko'p komponentlilikida, ya'ni har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra ko'p komponentlardan iborat bo'lishida, toponimlarning yasashida o'zaro bog'liq otlar bo'lishida namoyon bo'ladi. Toponimlarni yaratishda shu tilga xos lingvistik vositalardan foydalaniladi. Lekin shu bilan birga, har bir tilda toponim yaratishning o'ziga xos vositalari mavjud, ya'ni ma'lum qo'shimchalar (affikslar) va so'zlar toponimlarni yaratishga mo'ljallangan bo'ladi.

Toponimika (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — onomastikatt joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Toponimika geografiya, tarix, etnografiya bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalar)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki ba'zi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni o'zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko'pincha muayyan hududda yashagan xalqlarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponimlarning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga ko'ra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi toponimikaning amaliy jihati hisoblanadi.

Toponimlar yirik yoki mayda ob'yektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta ob'yektlar (materiklar, okeanlar, tog'lar, cho'llar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atokli otlari; mikrotoponimlar — kichik ob'yektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, ko'chalar, qo'rg'onlar va shu kabi) ning atokli otlari. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki ko'pincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

Turli xil geografik ob'yektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda toponimikaning quyidagi bo'limlari ajratiladi:

- a) gidronimika — suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko‘l kabilarning nomlarini o‘rganuvchi soha;
- b) oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha, ovul, qo‘rg‘on nomlarini o‘rganuvchi soha;
- c) oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tof, cho‘qqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarini tekshiradigan soha;
- d) urbanonimika — shahar ichidagi har qanday ob‘yektlar nomlarini o‘rganuvchi soha;
- e) kosmonimika — Yerdan tashqaridagi ob‘yektlar (osmon jismlari) nomlarini o‘rganuvchi soha va boshqa

Shirinliklarning nomlanishida joy nomlari ham asos bo‘ladi. Qaysi shirrinlik qayerda ishlab chiqarilgan bo‘lsa o‘sha joy nomi bilan ataladi.

Misol uchun, “Buxoro holvasi”, “Buxorcha teri”, “Buxoro”, “Buxorocha pashmak” yoki, “Samarqand holvasi”, “Qo‘qon holvasi”, “Toshkent holvasi”.

Buxoro — Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri, Buyuk Ipak yo‘lidagi eng yirik va mashhur markazlardan hisoblanadi. Shahar minglab yillar bilan o‘lchanadigan o‘zining boy va unikal barpo etilish tarixi, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy-diniy qadriyatlarining rivojiga qo‘shgan hissasi bilan butun jahonga dong‘i ketgan. Buxoro tarixga nazar soladigan bo‘lsak, u azaldan islom olamida yuksak nufuzga ega bo‘lgan. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Ko‘plab tarixchilar, tilshunoslar fikricha, Buxoro so'zi qadimgi hind – sanskrit tilidagi “vixara” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “qal'a” ma'nosini anglatadi. Qadimda shahar Numijkat va Faxira, deb ham atalgan. Bu shaharning har bir go'shasida – boy tarixga ega minoralari, osori- atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Shuningdek, u Sharqu G'arbda “ochiq osmon ostidagi muzey, shavkatli tarixning jilvakor ko'zgusi” nomini olgan.

Hozirgi kunda Buxoroda “Ipak va ziravorlar”, “Qovun sayli”, “Shahar kuni”, “Sharq taomlari”, “Buxoro hunarmandlari” kabi festivallar tashkil etiladi. Shuningdek, Buxoro o‘zining turli milliy shirinliklar va qandolatlari bilan ham mashhurdir. Turli savdo yarmarklari, festivallarning tashkil etilishi ular bilan tanishish uchun keng imkoniyat

bo'ladi. Milliy shirinliklarimizning aksariyat qismi Buxoro vohasida tayyorlanadi. Buxoro holvalarning turli-xilligi bilan ko'plab sayyohlarimiz va o'zimizning diqqatimizni tortadi. Holvalarni nomlashda Buxoroning qo'shib nomlanishi shu joyda ishlab chiqarilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. "Buxoro", "Buxorcha teri", "Buxoro holvasi", "Buxorochoa pashmak", "Buxoro baunti holvasi", "Buxorochoa kunjut", "Buxoro gardish" va boshqa holva-yu shirinliklarni misol qilsak bo'ladi.

Samarqand sayyoramizdagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. Samarqandliklar mohir hunarmandlardir. Ular butun hayoti davomida qo'shni xalqlarni o'zlarining hunarlari, mahoratlari va ijodlari bilan hayratda qoldirganlar. Samarqandni Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining bebaho xazinasini deb atashadi. Bu yerda O'rta asr me'morchiligining eng buyuk yodgorliklari – g'oyat go'zal me'moriy shakllar va rasmlar saqlanib qolgan bo'lib, ularning har biri alohida e'tiborga loyiqdir. Samarqand so'zining kelib chiqishi haqida bir qancha taxmin mavjud. Sharq mualliflari „Samarqand“ so'zining 1-qismi, ya'ni „Samar“ so'zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun'iy ta'riflarni taklif etdilar, ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma'lumotlar aniqlanmagan. So'zning 2-qismi „kent“ (kand) - qishloq, shahar degan ma'noni bildiradi. Ba'zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha „Samarya“ra yaqin, ya'ni „yig'ilish, yig'in“ so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo'lib, Marokanda — Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir.

Biz bilgan "Samarqand holvasi" ham aynan Samarqand shahrida tayyorlanadi. O'zining mazasi va xush ta'mligi bilan barchaga birday yoqadi. "Samarqand holvasi" turlari ko'p. Holva un, shakar, yog' va xush ta'm beruvchi moddalar solib tayyorlanadi. Tarkibida pista, mag'z, bodom va yong'oqlilari mavjud.

Qo'qon Buyuk Ipak yo'lidagi eng qadimiy shahar. Shahar hashamatli yodgorliklarga va ulug'vor madrasalarga boy va bu ajablanarli emas, chunki Qo'qon ilm-fan rivojlanishining markazi edi. Qo'qonga sayohat qilganingizda, kattaroq chamadonni oling, chunki u O'zbekiston hunarmandchiligining poytaxti! Bu yerda siz deyarli

hamma narsani topishingiz mumkin. Qo‘qonning oshxonasi butun O‘zbekistondagidek juda mazali va sergo‘sh. Qo‘qon oshxonasining yana bir o‘ziga xos xususiyati bu patirlardir. Qo‘qonliklarning aytishicha, vodiya qilingan barcha nonlarni qo‘qonlik erkaklar tayyorlashadi. Qo‘qon holvasini ham tatib ko‘rishni maslahat beramiz. U O‘zbekiston hududida tayyorlanadigan eng nozik va eng mazali holva. Qo‘qon holvasi juda mazali va bir necha turlari mavjud. Shakli dumaloq, oval ko‘rinishlari keng tarqalgan.

2022-yil sentabr oyida Qo‘qon shahrida “Holva” festivali tashkil etilgan. Festivalda Qo‘qon shahridagi faoliyat yuritayotgan holva ishlab chiqaruvchilari o‘z mahsulotlarini namoyish etishgan. Festival doirasida degustasiyalar, holva tayyorlash master-klasslari va holva savdo yarmarkalari o‘tkazilgan.

Toshkent - [O‘zbekistonning poytaxti](#) va eng yirik [shahri](#) bo‘lib, aholisi bo‘yicha [Markaziy Osiyodagi](#) eng yirik qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Toshkentda ham milliy hunarmandchiligimiz rivojlangan. Toshkentcha milliy taomlar barchamizga xush yoqadi. “Toshken holvasi” deb nom olgan holva ham juda mazali. O‘zining tashqi ko‘rinishi o‘rama shakli, tarkibida shokoladli turli xil yong‘oqlar borligi va rang-barangli bilan ko‘zni quvontiradi. Toshkent holvasidan ham tatib ko‘ring!

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, shirinlik nomlarida joy nomi bilan nomlash xalq orasida keng tarqalgan. Bir shirinlik turini turli hudud ishlab chiqarishiga qarab, uni farqlash boshqalaridan ajratib olish maqsadida shu joy nomi qo‘shib aytiladi. Va shirinlik nomiga aylanadi. Buni yuqoridagi fikrlarimizda ko‘rib o‘tdik.

ADABIYOTLAR

1. S. QORAYEV. toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti
2. Toshkent , 2006.
3. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. «Navro‘z» nashriyoti Toshkent, 2017.
4. M. G'. VASIYEV, Q. O. DADAYEV, I. B. ISABOYEV, Z. Sh. SAPAYEVA, Z. J. G'ULOMOVA OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI ASOSLARI. OSHKENT “VORIS-NASHRYOT”, 2012.

**“O’ZBEGIM“ QASIDASINING LINGVOSTILISTIK,
LINGVOKULTUROLOGIK, LINGVOSTATISTIK TABIATI HAQIDA**

T.Asadov,

BuxDU, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası dotsenti, f.f.n.

L.Halimova,

BuxDU filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O’zbekim” qasidasining ayrim lingvostilistik, lingvokulturologik, lingvostatistik tabiati haqida fikr-mulohaza yuritilgan, nazariy qarashlar matndan olingan misollar asosida keng dalillangan.

Kalit so'zlar: lingvostilistika, lingvokulturologiya, lingvostatistika, sinonim, omonim, tarixiy so'z, sodda va sodda yasama so'z, qo'shma so'z, muallif nutqi so'zlari.

Bugungi kunda lingvopoetika va unga yondosh sohalar – lingvostilistika, lingvosemantika, lingvostatistika va h.k. sohalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lami son va sifat jihatdan ancha oshdi. Hatto nasriy va nazmiy asarlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan alohida-alohida tahlil etish, lingvistik poetika, lingvopoetik tahlil jarayonlarini baholash [1], lingvopoetik tahlil tamoyillarini belgilash [2] borasidagi ishlar va shunga yondosh tadqiqotlar ko'laminin oshib borayotganligi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi kesimida lingvopoetikaning nazariy jihatdan ancha yetilib ulgurganligini ko'rsatadi. Bilamizki, o'zbek lingvopoetikasida ma'lum bir ijodkor asarlari tilini turli usul va ko'rinishlarda tadqiq va tahlil etish bo'yicha keng yutuqlarga erishildi [3].

Sir emaski, ijodkorlarning til imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati lug'at qatlamidagi so'z va frazeologik birliklardan, fonetik vositalar rang-barangligidan, uslub yaratishda xizmati bir qadar keng sanalgan grammatik hamda sintaktik vositalardan foydalanish qobiliyati, bir so'z uchun bilan aytganda, til bilimdonligidagi uquvi va salohiyati bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan qarasak, ko'pgina iste'dodli ijodkorlar singari iste'dodli shoir, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ham til hodisalarini

chuqur his qilgan holda qalam tebratdi, natijada jozibador, purma'no asarlar yaratdi. Shoirning “O'zbekim” qasidasi shunday asarlar sirasiga mansub.

Badiiy matni lingvostilistik tahlil qilish jarayonida ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda namoyon bo'lgan leksik birliklarni aniqlash va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish muhim. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlar, mahalliy, vulgar va h.k. so'zlar tahlilga tortiladi va ulardan qay maqsadda foydalanilgani izohlanadi.

Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. Sinonimlar shaxs, narsa, belgi, xususiyat, voqea-hodisa va harakatning bir necha nom bilan aytilishidir. Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, narsa va hodisalarning nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

“O'zbekim” qasidasida *sulton, xon, shoh, vatan, yurt, el; g'urbat, dard, sitam, armon, oh, fig'on, nolon; o't, otash; olam, jahon; shamshir, tig'; gulshan, bog'; mijgon, ko'z; farzand, o'g'il* kabi o'zaro sinonimik so'zlar kuzatiladi. Shoir bir o'rinda maqsadli ravishda vatan so'zini qo'llasa (*Men Vatanni bog' deb aytsam/ Sensan unda bitta gul*), boshqa bir bandda yurt so'zini (*Men buyuk yurt o'g'lidurman/ Men bashar farzandiman*) ishlatadi.

Asarda matniy sinonimlar ham mavjud. Masalan, *Faxr etarman, ona xalqim, Ko'kragimni tog' qilib* misralarida *faxr etmoq, ko'kragni tog' etmoq* kabi birikmalar bunga misol bo'la oladi.

Ma'lumki, omonim, paronim so'zlar matnda shakl o'ynoqiligi bilan birga ma'no-mazmun tugalligini ham yuzaga chiqarishga yordam beradi. Mazkur holat *Yig'ladi furqatda Furqat/ Ham muqimliqda Muqiyim/ Nolishingdan Hindu Afg'on/ Qildi afg'on, o'zbekim* misralarida kuzatiladi. Bu o'rinda furqat, muqim, afg'on so'zlari shakldoshlikni yuzaga keltirgan.

Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, tabiiyki, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalarga ham murojaat qilinadi. “O'zbekim” qasidasida keng iste'mol so'zlari bilan birga *O'rxun xati, xon (qoon), sulton, nayza, tiyri kamon, zardusht, shamshir* kabi bir guruh tarixiy so'zlar ham kuzatiladi.

Shoir ayrim so'zlarni she'riy shaklda, ya'ni qisqartirgan holda qo'llaydi: *lek (lekin), ne (nima uchun), qayga (qayerga), birla (bilan)* kabi.

Asardagi so'zlar tuzilishi jihatdan turlicha bo'lib, sodda (*tarix, asr, pinhon, o'zbekim, Pomir, o'zbek, Afrosiyob, O'rxun, xat, shoda, marjon*), sodda yasama (*O'zbekiston, tengdosh, sho'rlik, bo'g'ma, buddiy, odamiylik, kavkabiston, yig'lamoq, muqimlik, o'zlik*), qo'shma (*oqsoch, sarbador, erksevar, g'urbat chekmoq, tug'yon urmoq, oh chekmoq, darmon topmoq, faxr etmoq, imkon bermog, qabul etmoq*), juft (*aks-sado, shoh-u sulton, zor-u nolon*) shakllarda uchraydi.

Fonetik, leksik-grammatik vositalar kabi sintaktik vositalar ham keng estetik ifoda imkoniyatlariga ega. “O'zbekim” qasidasidagi ayrim sintaktik vositalar ifodalarini kuzatamiz. Inversiya: *Tarixingdir ming asrlar/ Ichra pinhon, o'zbekim... So'ylasin Afrosiyobu/ So'ylasin O'rxun xati.*

Emotsional gaplar: *Menga Pushkin bir jahonu/ Menga Bayron bir jahon!*

Ritorik so'roq gaplar: *O'zbekim deb keng jahonga/ Ne uchun madh etmayin?!*

Qasidaning har bir bandi so'nggida *o'zbekim* so'zi murojaat birligi sifatida keladi.

Qasida tarkibida mavjud metaforalar quyidagilar: 1) *Sirli osmon tokiga ilk – Qo'ydi narvon, o'zbekim.* 2) *Ma'rifatning shu'lasiga/ Talpinib zulmat aro.* 3) *She'riyatning gulshanida/ So'ldi mahzun Nodira.*

Matndagi sinekdoxalar: 1) *Ko'hna tarix shodasida/ Bitta marjon, o'zbekim.* 2) *Men Vatanni bog' deb aytsam/ Sensan unda bitta gul/ Men Vatanni ko'z deb aytsam/ Bitta mujgon, o'zbekim.*

Til va madaniyat munosabati, tilda madaniy qarashlarning aks etishini tadqiq va tahlil etuvchi lingvokulturologiya sohasida xalqning milliy-madaniy qarashlari, urf-odat, qadriyatlarning nutqda ifodalanish xususiyatlari o'rganiladi. Bugungi kunda lingvokulturologiya va unga yondosh sohalar, lingvokulturologiyaning asosiy maqsad

va vazifalari, yo'nalishlari, metodlari, lingvomadaniy birliklar tahlili, lingvomadaniyatlardagi ramzlar, stratiplarning qiyosi, qolaversa, lingvokulturologiyaning nazariy tadqiqiga bag'ishlangan darslik, monografiya, o'quv qo'llanmalarining son va sifat jihatdan miqdori oshib bormoqda [4]. Muayyan bir ijodkor asarlari tili madaniy birliklarini o'rganish borasida ham keng tushdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Lingvokulturologiyaning predmetini president birliklar, o'xshatishlar, ramz, strateplar, muqobilsiz leksika (realiyalar), lakunalar, ekzotik leksika, arxiteplar, tilning paremiologik, frazeologik fondi, metafora va obrazlar, nutqiy muomala va h.k.lar tashkil etadi [5] Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasida til va madaniyatning uyg'unligini ta'minlovchi hamda bu uyg'unlikni yuzaga chiqaruvchi yuqoridagi kabi hodisalar ham keng kuzatiladi.

Ma'lumki, president birliklar lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri sanaladi. "O'zbekim" qasidasida xalqimizning president birliklari sifatida Afrosiyob, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farob, Chingiz, Botu, Muqanna, Mirzo Ulug'bek, Ko'ragoniy, Mir Alisher, Bobur, Mashrab, Nodira, Furqat, Muqiyim, Firdavsiy, Pushkin, Bayron, Erkin, Pomir, Tiyonshan, O'rxun, O'zluq, Tarxon kabilar uchraydi. Bulardan bir qismi (Afrasiyob, Al Beruniy, Al Xorazmiy, Chingiz, Botu, Navoiy) umumbashariy nomlar bo'lsa, bir qismi (Nodira, Furqat, Muqimiy va b.) o'zbek millati vakillariga yaxshi tanish bo'lgan president birliklardir. Shuningdek, asarda madaniy belgilarning yorqin ifodasini *do'ppi, tanti dehqon, o'zbekim, oq sut, tuz hurmati* kabilar orqali ham yuzaga chiqqanligini ko'rish mumkin.

O'xshatishlar ham lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan sanaladi. O'zbek tili o'xshatishlarga boy til [6]. "O'zbekim" qasidasida O'zbekiston, o'zbek xalqining o'xshatish (sifatlovchi)lari sifatida *chashmi giryon, bitta marjon, ko'ksi qalqon, umri qurbon, mulki taroj, yurti vayron, erksevar qon, toza iymon, tanti dehqon, shohi sulton, shu'la afshon, sodiq o'g'lon* kabi birliklardan foydalanadi. Bularning ko'pchiligi muallif nutqi neologizmlari sanaladi, ya'ni ijodkor yaratilari hisoblanadi.

Ma'lumki, lingvostatistik tahlil badiiy matnni o'rganishdagi leksikografik medodga keng yo'l ochib bera oladi. "O'zbekim" qasidasining lingvostatistik tahlili natijalariga ko'ra quyidagi jihatlar xarakterli deb bilamiz. Asarda takroriy qo'llanishlar bilan birga 332 ta so'z qo'langan bo'lib, ularning qo'llanish chastotasi yuqoridan pastga quyidagicha: B-37, O'-34, T-27, M-24, S-24, K-18, A-16, N-15, D-14, O-14, SH-12, Q-11, Y-8, F-7, X-7, I-6, G-5, J-5, L-5, U-5, V-5, Z-5, CH-5, L-4, H-3, P-3, G'-2, CH-1.

Matnda so'zlarning turkumlik ko'rsatkichi quyidagicha: a) **fe'llar:** so'ylamoq, o'tmoq, o'ynatmoq, yog'moq, bosh egmoq, talpinmoq, oqmoq, tuzmoq, qo'ymoq, bermoq, g'urbat chekmoq, o't solmoq, tug'yon urmoq, so'lmoq, yuvmoq, ko'mmoq, yig'lamoq, afg'on qilmoq, bitmoq, oh chekmoq, qolmoq, ketmoq, topmoq, bitmoq, demoq, aytmoq, faxr etmoq, qilmoq, ko'tarmoq, bermoq, bormoq, yurmoq, ketmoq, qabul etmoq; b) **turdosh ot:** *tarix, asr, o'zbek, xat, shoda, marjon, avlod, nasl, bosh, shamshir, qon, sulton, xon, tog', ajdar, daryo, chashm, nayza, bag'r, dog', tig', qalqon, ko'ks, kamon, mulk, umr, yurt, davr, zulm, zardusht, otash, sanam, odam, din, iymon, ma'rifat, shu'la, ko'z, tun, jadval, osmon, narvon, na'ra, aks-sado, jahon, she'riyat, shoh, she'r, ilm, qul, el, olam, o't, vatan, bog', gul, mujgon, ona, ko'krak, dehqon, davr, imkon, o'g'il, farzand, o'g'lon, bobo, do'ppi, g'oz, qasida, sut, tuz, hurmat, gulshan, tan, yosh, armon, furqat, muqim, afg'on, xalq, doston, oh, tarix, dard, sitam, darmon, imkon;* d) **sifat:** *tengdosh, ko'hna, bo'g'ma, qaysar, asl, tiyri, sarbador, erksevar, odamiylik, toza, sirli, mahzun, siym, asriy, tiyra, tanti, buyuk, sodiq, sho'rlik;* e) **son:** *bir, ikki, to'rt, ming;* f) **olmosh:** *men, sen, o'z, bu, necha, qayer, nima;* g) **bog'lovchi:** *va, lekin, na...na, go'yo;* h) **ko'makchi:** *uchun, uzra, bilan;* i) **yuklama:** *-u, -yu, ham.*

Matnda egalik va kelishiklarning qo'llanish chastotasi yuqoridan quyiga qadar –im –33, -i – 22, -ing – 9, -si –3, -m –2, -ng –2, -ga –15, -da –15, -ni – 4, -dan – 4, -ning – 3 marta qo'llangan.

Xullas, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasida morfologik-sintaktik vositalarning qo'llanishi rang-barang bo'lib, ular badiiy matnda ekspressivlikni yuzaga keltirish uchun o'rinli xizmat qila olganki, bu holat shoirning iqtidori va til bilimdoni ekanligidan ham dalolat bera oladi. Shoir badiiy tasvir yaratishga xizmat qiluvchi til

vositalaridan mohirona foydalanib betakror, mazmundor misralar, ohorli jumlar yaratgan.

ADABIYOTLAR :

1. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни. Илмий тўплам. –Т.: Университет, 2002. 20-23-б.
2. Мирзаев И. Лингвопоэтик таҳлил – ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бирламчи омили эканлиги ҳақида. Илмий тўплам 3-том. –Т.: ЎзМУ нашри, 2006. 81-83-б.; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.
3. Muhiddinov M., Karimov S. G‘afur G‘ulomning poetik mahorati. Monografiya. – S.: SamDU nashriyoti, 2003.;
4. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд, 2006.; Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she’riyati lingvopoetikasi. NDA.– Т.,2007.
5. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. ДДА. –Т.,2009.;
6. Тошева Д. Лингвокультурологиянинг назарий тадқиқи. Ўқув-услубий кўлланма. – Бухоро: “Дурдона”, 2020.
7. Usmonova Sh. Lingvokulturalogiya. Darslik. –Т. 2018б 28-33-б.
8. Маҳмудов Н., Худойберганова Д, Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Т.: Маънавият.

ONOMASTIKANING AJRALMAS QISMI SANALGAN ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMI TAHLILI ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ROMANIDA TALQINIDA

Kilichev Bayramali Ergashovich,

BuxDU, o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori

filologiya fanlari nomzodi

buxara-1@inbox.ru

Nigora Bafoyeva Azimovna,

Annotatsiya: mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” romani onomastik birliklar tarkibining ajralmas qismi hisoblangan antroponimlarning leksik qatlami tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: antroponim, tarixiy shaxs, hukmdorlar, laqablar, turkiy qatlam, forsha so'zlar, arabcha so'zlar, tojikcha so'zlar qatlami.

Bizga ma'lumki, har bir til o'z rivojlanish tarixida turli bosqichlarni bosib o'tadi. Til rivojlanishning mana shu bosqichlarida uning lug'at tarkibi va grammatik tuzilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu hol o'z-o'zidan har bir davr tilining o'ziga xos xususiyatlari va normalarini yuzaga keltiradi. Mana shu normalarga ko'ra bir davr adabiy tili ikkinchi davr adabiy tilidan ma'lum xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Til rivojining muayyan davri uchun xos leksika, grammatik vositalar o'sha davr tilining davriy normalaridir [1:9].

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asari antroponimiyasini lug'aviy qatlamlarga ajratish asar tarkibini boyitgan antroponim, taxallus, laqablar tarixini bilib olishda, o'zbek tilining o'tmishda qanday tillar ta'sirida bo'lganini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Asardagi antroponimlarni lug'aviy qatlamlarga ajratish antroponimiyani sistema sifatida o'rganishning muhim usullaridan biridir. “O'tkan kunlar” asari antroponimiyasining ko'p qismini tarixiy shaxslar tashkil etadi. Ularning leksik qatlamlarini o'rganishda tub turkiy antroponimlar yoki asl turkiycha antroponimlar aslida turkiy bo'lmagan antroponimlar, ya'ni o'zlashma antroponimlarga nisbatan tahlil etildi.

Xullas, asarning antroponimik tizimida tarixiy lug'aviy qatlamlarning borligi aniq. Manbimiz hisoblangan asarda tarixiy lug'aviy qatlamlar o'zaro kelib chiqishi, paydo bo'lish davri, o'ziga xos funktsional belgilariga ko'ra farqlanadi. Qatlamlanish o'zbek tilining barcha jabhalarida keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Asardagi tarixiy, real va to'qima antroponimlar ham bundan mustasno emas. Izlanishlarimiz natijasida Abdulla

Qodiriyning “O‘tgan kunlar” antroponimiyasi tizimida to‘rtta antroponimik qatlam yuzaga kelganligini aniqladik : 1. Turkiy antroponimlar qatlami. Bular arabcha-turkiycha; tojikcha–turkiycha; turkiycha, fors–tojikcha; antroponimlarni o‘z ichiga oladi. 2. Fors - tojikcha antroponimlar qatlami. Bular arabcha , fors –tojikcha ; fors –tojikcha , arabcha; antroponimlarni o‘z ichiga oladi. 3. Arabcha antroponimlar qatlami. Bular o‘z ichida arabcha - turkiycha; arabcha, fors –tojikcha; fors-tojikcha, arabcha; arabcha, yahudiycha; nomlarga bo‘linadi. 4. Bundan tashqari yahudiycha va arabcha – yahudiycha nomlar o‘z aksini topgan. Biz ularni quyidagi jadvallar asosida birlashtirib o‘rganishga harakat qildik.

Arabcha
<i>Akram, Azizbek, Ahmadxon, Aziz, Abdukarim, Azimbek, Farfi, Hojibek, Husaynbek, Homid, Hasanali, Hotam, Komilbek, Murodxon, Muhammadrahim, Mo`minjon, Mutal, Malikboy, Muhammadrajab, Nusratbek, Najmiddin, Olim, Qayum, Qayumjon, Qosim, Qambar, Rahimbek, Rajab, Rahmat, Salimsoqbek, Solihbek, Sayfi, Umarbek, Xoliqbek, Ziyoy, G`anibek, Shokirbek, Hanifaniso, Jannat, Karima, Mohira, Oysha, Risolat, Savra, Saodat, Zaynab, Sharofat.</i>

Arabcha - turkiycha
<i>Alimqul, Karimqul, Karimbek, Musulmonqul, Mallaxon.</i>

Turkiycha
<i>Esh, Otabek, Sotiboldi, Tosh, O‘ttaboy, Kumushbibi, Oybodoq, To‘ybeka.</i>

Fors –tojikcha
<i>Norbo‘taxon, Niyoz, Xudoyorxon, Yodgor, Shamshodbek, Gulsinbibi, Oftoboyim, Xushro‘ybibi.</i>

Arabcha, fors –tojikcha
<i>Normuhammad, Pirmat, Pirnazar, Sheralixon.</i>

Tojik,turkiy
<i>Jonkeldi</i>

Fors-tojikcha, arabcha
<i>Mirzakarim</i>

Turkiycha, fors –tojikcha
<i>Xonimbibi</i>

Yahudiycha
<i>Sulaymon, Yunus, Sorabek.</i>

Arabcha, yahudiycha
<i>Yusufbek</i>

Asarda turkiy antroponimlar qatlami.

Turkiy antroponimlar haqida so‘z yuritganda, tadqiqotchi G‘.Sattorovning o‘zbek ismlarining turkiy qatlamiga bag‘ishlangan tadqiqoti e‘tiborga loyiq. G‘.Sattorov “O‘zbek ismlarining turkiy qatlami”[2:24] nomli tadqiqotida turkiy ismlar to‘g‘risida to‘xtalib, nomshunos E. Begmatovning quyidagi fikrlarlarini keltiradi: birinchidan, turkiy ismlar turkiy tillarda atoqli otlar, antroponim tizimining qadimiy qatlamini tashkil

qiladi. Turkiy ismlarning qadimiyligini ikki ma'noda tushunish mumkin. Birinchidan, nomlar turkiy til leksikasining qadimiy qatlamiga mansub bo'lgan leksemalardan yasaladigan bo'ldi. Bu so'zlar o'zbek tili leksikasining ilk, qadimiy qatlamiga mansubdir [3:90]. Olim bu o'rinda ismlarning qadim tarixga ega ekanligini bu nomlar uchun asos bo'lgan so'zlarning eng ko'hna ekanligi belgilashini alohida ta'kidlaydi.

Ikkinchida esa, "O'tgan kunlar" romanidagi ismlarning ko'p qismi qadimiy ekanligini inobatga olsak, hozirgi o'zbek tilida qo'llanishda bo'lgan ko'pgina ismlar aslida bu tilda eski davrlardan mavjud bo'lgan ismlardir. Antroponimik tizimda qadimiy nomlar, ismlar zahirasiga arxisistemalilik xususiyatini beradi, antroponimik zahiraning tarixiy va an'anaviyligini belgilaydi.

Asardagi turkiy, jumladan, o'zbek antroponimiyasining qadimiy namunalar ikki manbada saqlanib qolgan nomlar: 1) tarixiy yozma yodgorliklar tilidagi

2) hozirgi davr antroponimik zahirada mavjud bo'lgan nomlar. Birinchi manbaga turli tarixiy, badiiy didaktik xarakterdagi yozma asarlar, shuningdek, arxeologik, xonlar saroyining arxiv materiallari va boshqalar kiradi. Bu antroponimlar haqidagi ba'zi ma'lumotlarni Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" asarida ilova sifatida varog' ostida keltirib o'tgan. Quyidagi ma'lumotni muallif bevosita o'zi keltirib o'tadi:

*Bu bo'zaxonalar **Mallaxonning** 1273-nchi yil Toshkand hokimligi vaqtida barham berildi (mual.) [36-bet]*

Shu bilan birga asarda bir qator asli turkiy bo'lgan nomlar ham uchraydi. Asarda keltirilgan turkiy antroponimlar leksik qatlamini quyidagicha bo'lish mumkin:

Turkiycha: *Esh, Tosh, Sotiboldi, Otabek, O'ttaboy, Kumushbibi, Oybodoq, To'ybeka.*

Esh aka bilan Tosh akaning uylari orqasidan teshilib mollari o'g'irlana beradir, peshtoqdan qopqa bo'g'ilib tashlanmoq uchun fohishalar ham yetishib turadirlar. [122-bet]

Pirnazar jallodning yonida Otabek va Sotiboldi akaning qatorida Yusufbek hoji edilar. [183-bet]

Oybodoq tashqarini yig'ishtirib kirdi. [178-bet]

Kumushbibi chirt etib yuzini To'ybekadan o'girdi. [16-bet]

Asar bosh qahramonlari hisoblanmish Otabek va Kumush ismlarining asl turkiy ismlar sirasiga kirishi ham bejiz emas nazarimizda. Tohir Malik : “ Bu romanning poydevori Otabek va Kumushning sof va buyuk muhabbatidir. Men ularning muhabbatini buyuk tog‘lardagi ulkan aysberglarga o‘xshataman. Ular hech qachon erimaydi, hech qachon ularga putur yetmaydi “ – deya aytib o‘tadi “O‘tkan kunlar” haqida yozgan maqolasida. Bizning nazarimizda shu aysberglarga antproponimlar ham o‘zgacha jilo berib turibdi. Otabek nega “Ota”, ”bek”, Kumush nega Kumush? Bu o‘rinda Zaynab boshqa leksik qatlamlarga tegishlilikini ham inobatga olsak, bu uch sevgi uchburchagi ostida Vatan taqdiri yotadi, nazarimizda.

Otabek zo‘rg‘agina o‘rnidan turdi... Ul uzog‘lashqandan keyin Kumush sekingina yuzidan ko‘rpani oldi va mudroq ko‘zlari bilan Otabekka kulimsirab qaradi. Otabek havlidag‘i oyog‘ tovshini eshitib, tokchadag‘i sham‘lardan uchtasini o‘chirg‘an edi, darichadan Zaynab ko‘rindi: «Hali ham shu yerda ekansiz, men sizni tashqarig‘a chiqq‘ansiz, deb o‘ylabman...» dedi. Otabek javob bermay qolg‘an sham‘larni o‘chirdi. Zaynabning «hali ham shu yerda...» so‘zi bilan Kumushning ko‘zi uyqudan ochilib ketkan edi... Otabek eshikni yopib chiqdi.

Asarning ushbu parchasida faqat shaxslar harakatda. Tohir Malik ta‘biri bilan aytganda Otabek – yurtning kelajagi, lekin yurtning kelajagini yorug‘likda ko‘rolmadi. Kumush Vatanning kelajagi yorug‘ligining ishorasi, u kumushning jilosi kabi Otabekni vatan fidoyisiga aylantiradi. Zaynab bu o‘rinda sergaklikka da‘vat etguvchi mayoq. Yuqorida aytib o‘tganimizdek ismlar har doim so‘zlaydi, so‘zlamaydigan ismlar yo‘q. Muallif ham, kitobxon ham asarni o‘qish jarayonida asardagi shaxs nomlaridan sevgi, o‘zbekona odatlar, vatan taqdiri kabi masalalarning syujetda harakatlanayotganini sezadi.

“O‘tgan kunlar” asaridan to‘plangan antroponimlarning turkiy qatlamida turkiy so‘zlar bilan birgalikda arabcha va fors-tojik tilidagi so‘zlar ham qo‘shilib keladi. Ularning aksariyati mahalliy va tarixiy shaxslarning arabcha yoki forscha-tojikcha nomlaridir. Bu turdagi nomlarni quyidagicha guruhlariga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

a) arabcha-turkiycha: *Alimqul, Karimqul, Karimbek, Musulmonqul, Mallaxon; Alimqul (1833—1865) Andijon atrofidagi qirg‘iz-qipchoq qabilalaridan birida*

tug'ilgan. Qo'qon xoni Muhammad Sulton Saidning otaligi (murabbiysi va maslakchisi). Ruslarga qarshi kurashgan lashkarboshilardan biri. Toshkentning Sho'rtepa mavze'ida bo'lgan jangda halok bo'lib, Shayxantohur qabristoniga dafn qilingan.[120-bet]

Yig'inda Muhammadniyoz qushbegi, Qosim mingboshi, Qambar sharbatdor, Karimqul ponsadlardan tortib Toshkandning yetuklik ashrof va a'yonidan o'n beshlab odam bor edi.[157 -bet]

Mohirabonu-dan ikki o'g'ul va ikki qiz dunyog'a kelib, to'ng'uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro'y (yoshlig'ida Xushro'y o'rniga Xushra der edilar), uchunchisi Karimbek va to'rtinchisi bizning Zaynab edi.[206-bet]

Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg'anda, zolimlarni o'rtadan ko'tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi?[8-bet]

b)tojikcha–turkiycha: Jonkeldi;

Jonkeldi o'lib turg'an ekan, quloq qoqmay xo'b, dedi.[138-bet]

d)turkiycha, fors–tojikcha: Xonimbibi.

Xonimbibi qizlarga qistatib o'lturmay o'rnidan sakrab turdi-da, o'ynab ham ketdi.[30-bet]

Asar leksik qatlami rangba – rang bo'lib, bu asarda aks etayotgan zamon, qahramon xarakterini ochib berishda salmoqli rol o'ynagan.

ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 9.
2. Сатторов Ф. " Ўзбек исмлирининг туркий қатлами. Номзодлик диссертацияси . – Тошкент, 1990. –Б. 24
3. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б.90.
4. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романи. «Адабий барқарор асарлар туркуми». –Т., 2019. –Б.1-448-betlar.

5.M.Safarova “Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names” International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.

6.M.Safarova [The Concept of Totemism and Ethnonym](#). Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

7. [Manba <https://tafakkur.net/otkan-kunlar/kumushning-soz-oyuni.uzb>]

ABU RAYHON BERUNIYNING “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARIDAGI AYRIM TOPONIMLAR XUSUSIDA

Mirzaxmedova Oygul Abdirashidovna,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida qo‘llangan ayrim toponimlar haqida va ularning izohlari bo‘yicha fikrlar yuritilgan. Abu Rayhon Beruniyning ushbu asarida toponimlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini o‘rganish orqali o‘sha davrda keng tarqalgan toponimlardan xabardor bo‘lishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: joy nomlari, toponimlar, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, Poykend, Tavovis, atoqli otlar, Kash

Ma’lumki, qadimgi yunon tilidan tarjima qilinganda, topos-joy, nomos-nom “Joy nomi” mazmunini beradigan toponimika muayyan tildagi geografik nomlarni to‘plash, ularning rivojlanishi, o‘zgarish tendensiyalarini, areallarini aniqlash, nomlarning muhim leksik-semantik xususiyatlarini yoritish, toponimik lug‘atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi kabi masalalarni tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi.

Umuman, inson narsalarga nom qo‘ymasdan yashay olmaydi. Dunyoda hamma narsaning nomi bor. O‘simlik va hayvonlarning mahalliy nomlaridan tashqari, ilmiy, lotincha nomlari ham mavjud. Har qanday o‘simlik va hayvonni lotincha nomiga qarab

turli millat mutaxassislari darrov bilib oladilar. Demak, nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farqlashga yordam beradi [5]

Taniqli rus olimi N.I.Nadyojdin “Yer bamisoli bir kitobdirki, unda insoniyat tarixi geografik nomlar bilan bitilgan” deb toponimlar ahamiyatini ta’kidlagan bo’lsa, nomlarga “Yer tili” deb ta’rif bergan.Olim Hamidulloh Hasanov “Joy nomlarini tabiat, tarix, hayot insoniyat ko’zgusi desa bo’ladi” deb yozgan edi.

H.Hasanov ta’biri bilan aytganda, nomlarning o’z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo’jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsa, tog’lar va suvlarning xosiyati, o’simlig-u hayvonot turlari, savdo-sotiq kasb-hunar, xazinalar, janglar-u e’tiqodlarimizning hammasi ayon bo’ladi [4]. Demak, toponimika kishilik jamiyati rivojlanishidagi muhim elementlardan biri bo’lib, tabiat, tarix va insoniyat ko’zgusi hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy o’rta asrlarning buyuk qomusiy olimi edi.Uning buyukligi o’sha davrning deyarli barcha fan sohalariga qo’shgan betakror ilmiy me’rosida namoyon bo’ladi.Olim o’zining “Osor ul- boqiya”(Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarida O’rta Osiyo va Xuroson shaharlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy joy nomlariga izoh berib shunday yozgan:...ammo aksari mamalakatlarining nomlari hozirgi vaqtdagi nomlaridan farq qiladi. Xususan tili boshqa bo’lgan, qabilalar biror joyni egallaganlarida, nomlar tez-tez o’zgarib turadi. Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi...Nomlarning ma’nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda, nomlar o’zgarib ketadi. Ko’pincha arablar chet el nomlarini arabchallashtirib, shunday o’zgartiradilar va buzib aytadilar”[2]

Poykend qadimgi karvon yo’li ustida qad ko’targan shahar harobasi (miloddan avvalgi IV-III – milodiy XI asrlar). Buxorodan 44 km janubi-g’arbda, Jondor va Qorako’l tumanlari tutashgan hudduda joylashgan.O’rta asr yozma manbalarida shahar Boykand, Xitoy solnomalarida esa Bi nomlari bilan tilga olinadi.Uning nomlari “Quyiy shahar” ma’nosini anglatadi. Poykend tashqi devorlarining mustahkamligidan shahar ilk

o'rta asrlarda "shahristoni Ro'in, ya'ni "Jezdan qurilgan shahriston" (Jez shahar) nomi bilan mashhur bo'lgan.

Ayrim manbalarning guvohlik berishicha, Poykand qadimgi Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo'lgan. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, "Podshoh turadigan kata qishloq Boykand (Poykand) edi. Shahar "Kalayi Dabusiy –Dabusiy qal'asi" bo'lib, shahar deb shuni atar edilar. Uning yozishicha, shahar aholisining aksariyati savdogar bo'lib, ular Xitoy va dengiz bo'yi mamlakatlari bilan savdo qilganlar va davlatmand bo'lgan. Shu sababli arab geograflari Ibn Hurdobeh va Ibn al-Faqihlar Poykandni "Madinat tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" nomi bilan ta'riflaydilar.

Basokanj. Bu oyning yettinchi kuni nikh og'omdir. Bu ularning Paykanddagi hayitlari bo'lib, [shu kuni] u yerga yig'iladilar. uning o'n ikkinchi kuni ikkinchi mohirjdir. o'n beshinchi kuni amsxvora [hayiti]. Bunda ovqat, ichimlik va olov tekkan narsalarni tark etib, xamirli [ovqat va] meva va sabzavotlar yeyadilar.

Tavovis (arabcha-tovuslar) Buxoroning sharqida joylashgan qadimiy shahar. Hozir Tavovis aholi punktidan 2-3 km uzoqlikda joylashgan, qishlog'i hozir "Shahri vayron" deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Qiziltepa tumani hududida joylashgan. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, ilgari "Arqud" deb atalgan. Bu qishloqda dabdabali yashaydigan boylar bor edi; hashamat belgilaridan biri har bir uy egasi uyida 1-2ta tovus boqishi edi. Arablar ilgari tovuslarni ko'rmagan; bu qishloqda bu qushlarning ko'pini ko'rib, qishloqni zati tavais (aslida mavais, tovusning ko'plik shaklida) deb atashgan, ya'ni tovuslarga boy joy. Tez orada qishloqning "zat-i" so'zi tushib qolib, Tavis deb atala boshlangan [2]

O'n beshinchi kuni Tavovisda bozor bozor bo'ladi, atrofdan savdogarlar shu yerga yig'ilishib, yeti kun turadilar [2]

Yangikent – Sirdaryo etaklaridagi *Yangikent* (hozirgi G'azalkent shahri ro'barasida, daryoning chap sohilidagi xarobalar) turli xalqlarda turlicha atashgan deb yozadi. Mahalliy turkiylar *Yangikent* – *Janikent* deb yuritgan, arablar uni "Qariyat al-xodisa" (Qariyat – qishloq, hodisa – yangi) yoki Madinat al-jadida (Madina shahar, jadida yangi)

fors – tojikcha *Dehinav* deb yuritgani haqidagi aniq misolar orqali izohlagan. Sirdayoning Orol dengiziga quyilish joyidagi shaharcha[2]

Kash – (*Kesh, Kass*) – tarixiy shahar. Arab yozma manbalarida Kash, Kesi, Kass shakllarida uchraydi. Hozirgi Qashqadaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismini egallagan. Dastlab Kesh Kitob shahri o'rnida bo'lgan bo'lib, keyin Shahrisabz shahriga ko'chgan. Kesh nomining xitoycha transkripsiyasi 1-marta VII asrga oid xitoy yozma manbalarida Syusha shaklida uchraydi. Uning sug'd tilidagi nomi esa VII asr oxiri VIII asr boshlarida hukmronlik qilgan kesh hokimi Axhurapat tangalarida va VIII asr o'rtalarida Keshni idora qilgan hokim Ixshidning dastlabki arabcha tangalarida zikr etilgan. Ayrim manbalarda Kesh atamasining kelib chiqishi Qashqa-Qashqurud nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin deyilgan. Boshqa bir fikrga ko'ra (A. Muhammadjonov), Kesh toponimining ilk ma'nosi-uy, qishloq, shahar, viloyat, el-yurt, hatto "Kishvar" shaklida Vatan va mamlakat ma'nolarini anglatgan. Arab tarixchisi Ya'qubiyning yozishicha, Kesh milodiy VII asr o'rtalarida yuksalib, Sug'dning bosh shahriga aylangan. Dunyo ahli Keshga "Qubbat ul –ilm val- adab" - "Ilm va adab qubbasi" nomini bergan.

U Amudaryo orqali Kash va Nasaf tomonlarga o'tdi. Xoqonga xat yozib, undan yordam so'radi, "oq kiyimliklar" va turklar uning atrofiga yig'ildilar[2]

Nasaf toponimining etimologiyasi bo'yicha turli qarashlar mavjud bo'lib, Xitoy manbalarida Naxshab "Nashebo" tarzida keltirilgan. Arab tarixchilari Ibn Xavkal, Ibn Hurdobek, Istaxriy asarlarida qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Qarshining nomi bir necha bor o'zgargan bo'lib, avval "Naxshab" deb atalgan. Bu so'z etimologiyasi bo'yicha turlicha qarashlar mavjud, arablar istilosidan so'ng Nasaf deb yuritila boshlagan. Olimlarning fikriga ko'ra, bu so'z Naxshab so'zining arabcha talaffuzidir. Ammo amalda ikkala nom ham qo'llanavergan. Turli asrlarda ijod qilgan nasafiy va naxshabiylik fikrimizni isbotlaydi.

Abdukarim as Sam'oniyning (1113-1167) "Al-ansob" asarida, "Nasaf-Movarounnahrning shaharlaridan. Avvalgi nomi- Naxshab. Bu shaharda qariyb ikki oy turdim va u yerning ko'p olimlaridan ta'lim oldim" deb yozadi.

V.B.Bartold shahar haqida shunday yozadi: "Shahardan 2 farsax narida qurilgan saroydan shaharning hozirgi nomi paydo bo'lgan. Chunki Qarshi mo'g'ul tilida saroy demakdir". Bu qadimiy yozma manbalar shahar toponimi haqida ma'lumot beruvchi muhim madaniy me'ros hisoblanadi.

Mustaqillik ona yurtimizga, xalqimizga o'zini anglash baxtini berdi. Shu bilan birga, milliy, ma'naviy, adabiy va diniy qadriyatlarni tiklash, asriy an'analarga qayta hayot bag'ishlash imkonini yaratdi.

Xalq xotirasi madaniyati va ma'naviyatining tarkibiy qismini o'tmishda o'zbek tilida bitilgan qadimiy yozma manbalar tashkil qiladi. Ushbu manbalarni har tomonlama jumladan, lisoniy nuqtaiy nazardan tadqiq qilish, ulardan istiqloq davri mafkurasini yaratish yo'lida foydalanish muhim vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулов таржимаси (қайта нашри). –Тошкент: Шарқ баёзи, 1993.

Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. –Т.: Фан, 1968.

Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: НамДУ нашри, 2006.

Накимов Қ. Топонимика. –Т.: "Mumtoz so'z", 2016.

Qorayev S. Toponimika: O'quv qo'llanma. –Т.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2006.

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR ONGIGA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHINI SINGDIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mahfuza Shavkat qizi Sulaymonova,

BuxDU, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedراسи magistranti

Ushbu maqolada xalqimizning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish jarayonida o'quvchi-yoshlarda yurtga e'tiqod asoslarini tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, manbalarini o'rganish, ona tili darslarida o'quvchilarni milliylik ruhida tarbiyalash yo'llari nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi haqida gap boradi. Milliy qadriyatlar vositasida

o`quvchi-yoshlarda yurtga e`tiqod asoslarini tarbiyalash jarayoni hamda o`quvchi-yoshlarda yurtga e`tiqod asoslarini tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, vositalari, yo`llari o`rganilib, ona tili darslarida o`quvchilar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish usullarini markazlashtirish lozim.

Kalit so`zlar: *milliylik, qadriyat, milliy qadriyat, ona tili darslarida maqsad va usul, metodika, ona tili ta`limi.*

Uchinchi renessans kirib kelgan hozirgi zamonda ona tilimizni o`rganish, uning sofligini saqlab qolish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma`naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqyosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[7], - deb aytgan so`zlarining isbotini biz bugun guvohi bo`lyapmiz. Yurtboshimiz tomonidan aytilgan bu so`zlar shunchaki balandparvoz so`z bo`lmay, balki bugungi hayotimizni, xususan, ta`lim sohani rivojlantirish uchun aytilganiga hech qanday shubha yo`q. So`nggi yillarda mamlakatimizda ta`lim tizimiga katta e`tibor qaratilyapti, ko`plab imkoniyatlar berilyapti. Qiyosan olib qaraydigan bo`lsak, besh yil avval ta`lim tizimimiz umuman boshqacha edi. Darsliklardagi qoidabozliklar, aynan ona tili ta`limida fanni tildan uzib o`rgatardik. Ona tilimizga bo`lgan e`tibor ham susayib ketayotgan edi. Afishalarda va reklamalarda imloviy qo`pol xatolarni ko`p-ko`p uchratib turardik.

Ona tilini o`qitish metodikasida ona tili darslarida milliy qadriyatlar vositasida o`quvchi-yoshlarda yurtga e`tiqod asoslarini tarbiyalashning nazariy asoslarini ishlab chiqish; “vatan”, “yurtparvarlik”, “vatanga e`tiqod” tushunchalarining ilmiy, pedagogik, falsafiy, psixologik talqinlarini o`rganish asosida, ularning asl mohiyatini ochib berish; xalqimizning moddiy va ma`naviy qadriyatlarini o`rganish jarayonida o`quvchi-yoshlarda yurtga e`tiqod asoslarini tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, manbalarini o`rganish; ona tili darslarida o`quvchilar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish usullarini aniqlash yo`llarini ochib berish maktabda ona tili

mashg'ulotlarini takomillashtirish uchun xizmat qila oladiki, bu masalalarini tadqiq etish ham ona tili ta'limi tadarisida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.[1]

Ona tilini fanini o'qitishda, u haqida o'quvchilarga tushuncha berishda ona tili fani o'qituvchilarining xizmatlari benihoya kattadir. “Unutmaslik kerakki, har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy omil –muallim, uning tafakkur dunyosidir,”- deya ta'kidlagan A.Disterveg.[2,3]

Milliy Istiqloqlning ta'lim oldiga qo'yadigan vazifalari, jumladan, bugungi kunda maktabda ijodiy tafakkur sohibini, o'rta maxsus ta'limda ixtisosiy nutq madaniyati shakllangan ijodiy tafakkurli shaxsni, oliygohlarda jahonning ilg'or mamlakatlari mutaxassislari bilan raqobatdoshlikka iqtidorli mutaxassisni tayyorlash uchun ta'lim qanday bo'lishi kerakligini belgilash, maqsadga muvofiq mazmun va usullarni to'g'ri tanlash juda-juda muhim. Ona tili ta'limi dunyoning barcha burchaklarida barcha zamonlarda odam bolasini odam qilib tarbiyalashda favqulodda muhim jarayonlardan biridir.[6]

Bugun ta'lim sohamizda ona tili fanini o'qitishda ba'zi bir muammolar ham mavjudki, bular tilimizning sofligiga, milliyiligiga, boyligiga putur yetkazayotgan holatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Natijada ushbu fanni o'qitishda, o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishda ba'zi bir qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi kunda darsliklar yangilanayotganligiga qaramay, undagi milliy qadriyatlarimizga yo'g'rilgan badiiy matnlarning juda kam berilganligi, qadimiy kitoblarimiz bo'lgan “Boburnoma”, Navoiy asarlari, Gulxaniy, Beruniylar, Ibn Sinolar, jadidlarning go'zal ijod namunalaridan misollarning kamligi, tilimizning imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarning to'liq qondirilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu holatlar esa, albatta, ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'z ona tilining leksik va grammatik qurilishlarini joy-joyiga qo'ya oladigan o'quvchi o'ziga bo'lgan ishonchi ham, dunyoqarashi ham ortiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda olimlarimiz qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, o'zaro aloqasi, qadriyatlarning inson hayotida tutgan o'rni, ularning tarbiyaviy ta'siri hamda ta'lim va tarbiya

jarayonida tarbiya vositasi sifatida qo'llash borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini maktabdan o'rgatsak, o'zbek yoshlari o'zligini hech qachon unutmaydi.

ADABIYOTLAR

- 1.Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti// OO'MTV tomonidan nashrga tavsiya etilgan o'quv qo'llanma.–T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
- 2.Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. – Т.: Шарқ, 1999.
- 3.Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. – Т.: Шарқ, 1999
- 4.Тўленов Ж., Гофуров З. Фалсафа.– Т.: Ўқитувчи, 1997.– 381 б.
- 5.uz.m.wikipedia.org. Qadriyat
- 6..Рўзиева Д. Олий ўқув юртлари талабаларида миллий ифтихор туйғусини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. ДДА.– Т., 2005.
- 7.Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz/16.12.2016

MUROJAAT SHAKLLARINING IJTIMOY-LISONIY XUSUSIYATLARI

A.Sh. Rahmonovna,

Lingvistika: (O'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

So'zlovchi suhbatdoshining diqqat-e'tiborini jalb qilish, unga estetik ta'sir o'tkazish, uni muloqot jarayoniga qiziqtirish, hayajonlantirish, rag'batlantirish, biror ish qilishga undash, da'vat etish, qo'rqitish, chalg'itish, ishontirish kabi maqsadlarni amalga oshirish jarayonida murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Til –ijtimoiy hodisa. Til jamiyatda paydo bo‘ladi ,taraqqiy etadi. Jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalar tilda o‘z aksini topadi. Zamon, makon, adresat, adresantlarning o‘zgarishi ham muloqotga o‘z tasirini o‘tkazmay qolmaydi. Insonlarning boshqalarga murojaati uning nutq etikasini , madaniyatini ifodalaydi, shuningdek, kishida u tarbiyalangan oiladagi muhit haqida ham tasavvur paydo qiladi. Sababi har qanday munosabatlar jamiyatda,ijtimoiy muhitda shakllanadi. Inson qanaqa oilada tarbiyalanganligi uning nutqida,o‘z navbatida, murojaatlarida ham aks etadi. Ziyoli oila vakilining o‘zaro suhbatlari, ularning muloqotlari o‘ziga xos. Ayniqsa, ijodkorlar bo‘lsa , ularda mulozamat ham o‘zgacha.

Kundalik turmushda muloqot jarayonida tez-tez ishlatiladigan,doimiy ma’nosiga ega bo‘lgan murojaat shakllari nutqdagi turli vazifalarni bajaradi. Tadqiqotchi Nargiza Ahmedova o‘zining “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasida murojaat birliklarining quyidagi turlarini sanab o‘tgan:

1. Nominativ vazifa-so‘zlovchi tinglovchiga murojaat qilish jarayonida dastlab uni nomlaydi. Bu muloqot jarayonining o‘rni,so‘zlovchi va tinglovchining yoshi ,jinsi, ijtimoiy mavqeyi kabilar asosida amalga oshiriladi. Shular asosida so‘zlovchi tinglovchini muloqot jarayoniga mos bo‘lgan chaqiriqlardan foydalanadi.

2. Apellyativ vazifa-bu xitob,murojaat qilish vazifasi. So‘zlovchi tinglovchining diqqatini tortishga doim ham harakat qiladi.Bundan ko‘rinadiki, murojaat shakllari apellyativ vazifani bajarishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Kommunikativ(aloqa almashinuv) vazifasi yakka va ommaviy holatda aloqa o‘rnatish va muloqotni davom ettirishda murojaat shakllari asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asosan,suhbatni boshlashda so‘zlashuv va badiiy uslublarda murojaatlardan tez-tez foydalaniladi.

4. Konnotativ vazifa – murojaat shakllari faqatgina murojaat qilish, undash emas,balki so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan shaxsiy munosabatini –hurmat, erkalash, nafrat, taskin, maqtov, nafrat kabi ijobiy va salbiy munosabatlarni ham ifodalaydi. - Voy,bolam!-deb Xonzoda begim qichqirib o‘g‘liga tomon intildi. (P.Qodirov.”Yulduzli tunlar”,515-bet). Bunda Xonzoda begimning o‘g‘lidan xavotirlanishi, tashvishlanishi

aks ettirilgan. Bundan ko'rinadiki, murojaat shakllarida faqat undash emas, boshqa turli ma'nolarni ham ifodalaydi.

5.Emotiv vazifa- so'zlovchi his-tuyg'ularini, his-hayajon (quvonch,tushkunlik,qo'rquv) kabi holatlarni murojaat shakllari ifodalaydi.

Barchamizga ma'lumki , so'zlovchi va tinglovchi muloqot jarayonining asosiy komponentlaridir. Shu masalaga bag'ishlangan boshqa tadqiqotlar singari biz ham so'zlovchini ,ya'ni gapiruvchi,ma'lumot beruvchini “adresant”, “kommunikator” deb adresantning nutqi qaratilgan shaxs, tinglovchini, xabarlarini qabul qiluvchini adresat, kommunikant deb ataymiz. O'z navbatida suhbat jarayoniga bir qancha omillar ta'sirini o'tkazadi. Bular ichki va tashqi omillardir. Shu omillar asosida bir qancha birliklar ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikator va kommunikant shaxsiga bevosita aloqador bo'lgan omillar ichki ta'sir etuvchi birliklar sanaladi. Tadqiqotchi S.Mo'minov o'zining ”O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari ” nomli tadqiqotida ichki ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha sanagan:

- 1) millati;
- 2) jinsi;
- 3) yoshi;
- 4) ijtimoiy belgilari;
- 5) ta'sir birliklariga yaqinlik darajasi.

Muloqotga bivosita ta'sir etuvchi omillar tashqi birliklar sanaladi. Ular quyidagilar:

- 1) muloqot vaqti;
- 2) vaziyat,holat;
- 3) ijtimoiy muhit

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda suhbat jarayonida qo'llanadigan murojaatlarga ham ta'sir etuvchi birliklar mavjud. Muloqot jarayonida bevosita bog'liq bo'lgan birliklar ichki birliklar sanaladi. Tadqiqotchi S. Mo'minovning fikrlariga biroz qo'shimchalar kiritdik. Ularni quyidagicha guruhladik:

- 1) mentalitet;

- 2) yoshi;
- 3) jinsi;
- 4) qarindoshligi;
- 5) kasbi;
- 6) unvoni;
- 7) laqabi.

Murojaatga bivosita ta'sir etuvchi birliklarga:

- 1) murojaat vaqti;
- 2) murojaat o'ri;
- 3) ijtimoiy muhit.

Suhbat jarayonida faol qo'llanadigan murojaat shakllariga dastlab ta'sir ko'rsatuvchi omil – mentalitet. Sababi murojaatlar lingvomadaniy xarakterga ega. Kundalik turmushda qo'llaydigan chaqiriqlarimizda tom ma'noda o'zbek xalqining madaniyati, axloqi, qadriyatlarini o'z aksini topadi. O'zimizdan yoshi ulug' insonlarga otaxon, onaxon, opa, aka deb murojaat qilishimiz, garchand o'z ota-onamiz, opa, akamiz bo'lmasa-da, hurmat nuqtayi nazaridan shunday munosabatda bo'lamiz. -Opa, siz tag'in bir martaba qutidorning uyiga xat olib boraturg'an bo'ldingiz... (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" 228-bet). -G'am yemang, aka, xom bo'lsa o'bdan pishirtirmiz, o'lmasak. (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" 228-bet).

O'zbek tilidagi murojaatlar gender jihatdan ham tafovutlanadi. Ayollar nutqidagi murojaatlarda ochiqlik, xushmuomalalik, mulozamat, andisha yetakchilik qiladi. Ularga nisbatan quvonch, rag'batlantirish, xushomad, maqtash, taskin-tasalli berish mazmunidagi murojaatlar ko'proq qo'llaniladi. Erkaklar nutqida ko'proq ulug'vorlik, buyurish, fikrdan qaytarish, undash, ko'maklashish mazmunidagi chaqiriqlar faol iste'molda bo'ladi.

Dastlabki murojaatlar sifatida onaning bolasiga yoki bolaning onasiga chaqirig'ini olishimiz mumkin.

Onaning murojaatidan farzand tarbiyalanadi. Murojaatlar bola tarbiyasi uchun ham muhim sanaladi. Shuning uchun ham chaqaloq hali dunyoga kelmasidan unga iliq

munosabatda bo'lish talab etiladi. Azal-azaldan ham ma'lumki, o'zbek xalqi bolajon xalq. Onalarimiz turli-tuman erkalash mazmunidagi chaqiriqlardan foydalanishadi. Jumladan, farishtam, erkam, oppog'im, nuri diydam, o'glim, qizim, polvonim, suyanchig'im, asalim, oy parcham, do'mbog'im, toychog'im ... Bu qatorni uzoq davom ettirish mumkin. Murojaatlar davr nuqtayi nazaridan ham tafovutlanadi. Asalim, erkam, farishtam kabilar bugungi kun onalarining murojaatlaridir. Tarixiy asarlarga nazar solsak, yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqotimiz davomida onaning farzandiga murojaatini tarixiy va bugungi kun nuqtayi nazari asosida qiyoslab o'tamiz.

-Akbarjon, bas! Bas! O'qlardan qutuldik! Yig'i bas!!! Bo'ldi, bolajonim! Bo'ldi! (P.Qodirov. "Avlodlar dovoni", 208- bet), -Akbarjon, o'g'lim! Seni xavf-xatar girdobida goldirganim uchun kechir! (P.Qodirov. "Avlodlar dovoni", 210- bet)

Shoh o'g'lim, nahotki elchilarning ikki og'iz tahsini uchun o'z jonini shunchalik xatarga qo'ysangiz?

Shu qadar o'ylamay ish qilish to'g'rimi, aylanay bolam?! Bizni ham o'ylang-da, jon bolam! (P.Qodirov. "Avlodlar dovoni", 420- bet)

Adham, jigarporam!... (P.Qodirov. "Avlodlar dovoni", 360- bet), Xurramjon, yolg'izim, Xurramim! (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar", 516- bet)

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, onaning murojaatida mehr-muhabbar, xavotirlanish hissi sezilib turibdi. Bunga o'xshash chaqiriqlar bugungi kunda ham faol qo'llanib kelmoqda.

Yuqoridagi misollardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, nutqiy faoliyatda murojaatlar muhim o'rin tutdi. Ular vositasida turli maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muloqot jarayonida tinglovchining yoshi, jinsi, mavqeyi kabi jihatlarga diqqat qaratish lozim. Bundan ko'rinadiki, murojaat shakllari nafaqat lingvistika bilan o'z navbatida sotsiologiya, psixologiya fanlari bilan ham chambarchas aloqadadir.

ADABIYOTLAR

1. Abdupattoev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss. avtoref. – T., 1998.
2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konotativ tadqiqi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2008.
3. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2007.
4. Акбарова З. Ўзбек тилида муурожаат шакллари. Монография – Тошкент: Академнашр, 2015. – 112 б.
5. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. – 152 б.
6. Begmatov E. Adabiy norma va nutq madaniyati. –Toshkent: Fan, 1983.
7. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” [Davlat ilmiy nashriyoti](#), 2009
8. Hojiyev A. O'zbek tili terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 2000.
9. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: fil.fan.nomz...diss. – Toshkent, 1993.
10. Lafasov O'. Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi: filol. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 1996.

SADRIDDIN AYNIY “SUDXO‘RNING O‘LIMI” QISSASINING LINGVOPOETIK ASPEKTD A O‘RGANILISHI

Mohinur Odinayeva,

BuxDU, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedras i magistranti

Annotatsiya: ushbu axborotda Sadrid din Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi matni lingvopoetik aspekt da tahlil etilgan. Asosiy e‘tibor asar tilidagi maqol, ibora, shakldosh va ma‘nodosh so‘zlar hamda antonimga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Sadrid din Ayniy, “Sudxo‘rning o‘limi”, qissasi, lingvopoetika, lingvopoetik aspekt, asar tili, asar tahlili, maqol, ibora, shakldosh so‘z, ma‘nodosh so‘z, antonim so‘z.

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasida lingvopoetika deb ataluvchi tilshunoslik tarmog'i shakllanib, istiqbolli yo'nalishga aylanib ulgurdi. Ma'lumki, nutqiy faoliyatning o'ziga xos noyob turi – bu badiiy adabiyotdir. Uning til birliklarini tatbiq etishda lingvopoetik tahlil muhim ahamiyatga ega. Lingvopoetika tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishiga qarab fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi qismlarga bo'linadi. [1]

Aytish lozimki, 21-asrning dastlabki yillarida matn va uning lingvopoetikasini tadqiq qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. [2]

M.Yo'ldoshev o'z tadqiqotida N.Mahmudovning quyidagi fikrini keltirgan: “Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi”[3]

Adabiyotimizning noyob durdona asarlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish bugungi kunda o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu boisdan ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning “Sudxo'ring o'limi” asaridagi lisoniy birliklarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilamiz. Sadriddin Ayniyning “Sudxo'ring o'limi” qissasi Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi hayoti, o'sha davrda yashagan oddiy mehnatkash xalq hayoti, turli mansabdagi kishilarning noinsofligi haqida hikoya qiluvchi asar hisoblanadi.

Asar o'zining tili nuqtayi nazaridan bir qator jihatlarga egaki, ularda o'tgan asar boshidagi o'zbek tilining lisoiy xususiyatlari o'z aksini topgan. “Sudxo'ring o'limi” qissasida keltirilgan maqollar, iboralar, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, antonimlar asarning badiiy-estetik qimmatini oshirgan.

So'z ko'rki – maqol, deydi dono xalqimiz. Maqollarda ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy, estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini jam bo'lgan. Ular asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib keladi. Maqollar har bir tilning milliy-madaniy boyligidir. Har bir ijodkor o'z asarining badiiy ahamiyatini oshirishda xalq maqollaridan foydalanadi. Sadridin Ayniy ham asari tilining go'zalligi uchun frazeologik birliklardan qo'llagan.

Fikrimiz dalili uchun asardan olingan misollarga murojaat qilamiz:

Arbob Ro'zi Qori Ishkambadan hol-ahvol so'ragandan keyin:

– *Mening sizga bir zarur ishim bor edi, shu kun qishloqdan siz bilan uchrashish uchun kelib edim, u kishini “qayerdan toparkanman” deb o'ylab turganimda, o'zingizga ko'zim tushib qoldi.*

– *Ko'p yaxshi, – dedi Qori Ishkamba, – Xizrni yo'qlagan uni ko'rar deganlar.*

– *“Ayiqni yo'qlasang, tayoqni qo'lingga ol!” ham deganlar, – dedi Arbob Ro'zi kulib, – har holda ko'p ovora bo'lib yurmasdan sizni uchratdim [4]*

Bu dialogda ijodkor ketma-ket ikkita maqol qo'llagan. Maqollarning har ikkalasi ham suhbatdoshlarning fikrini yanada ravshanlashtirishga xizmat qilgan. Biri xalq orasida ko'p qo'llanuvchi Xizr obrazi bilan bog'liq. Ikkinchi maqol esa Qori Ishkambani uchratib qolib, o'z ishini tezda bitirib olishi kerakligini o'ziga uqtirayotgan Arbob Ro'zining fikrini dalillash uchun keltirilgan. Shuningdek, bu maqol temirni qizig'ida bos maqoliga ham mos keladi.

– Keling Arbob aka, o'n besh kunlik gap ekan, muhlat bering, **“yuziga chidagan, yuz biriga ham chidar”**, deganlar (42-bet).

Bu biz eng ko'p ishlatadigan maqollarimizdan biri bo'lgan **“Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidar”**ning muqobilidir.

– **“Iflos suv botqoqda yaxshi”**, – deganlar, aslida sizning pulingiz murdor edi, bir murdor joyga ketgan ekan, xafa bo'lmang, – der edilar (61-bet).

Shu o'rinda muallifning o'zi bu maqolni **“Obi ganda ba xandaq”** degan tojikcha maqolga o'xshatma deb yozadi. Bunda muallifning ham shaxsiyati ko'rinadi, ya'ni tojik tilini mukammal bilishi.

“Bu shum rost-yolg‘on gaplarni gapirib, ko‘nglimni qora qilib qo‘yar”, – deb o‘yladi. Ammo bir oz o‘ylab turgandan keyin “**yomon aytmaguncha yaxshi kelmas**” deganlar, – dedi o‘z-o‘ziga (67-bet).

Shuningdek, asarda “ Muomalada ot bo‘ling, it bo‘lmang”, “Odamni odam buzadi, ariqni suv”, “Bolta kelgunicha kunda dam olar”, “O‘g‘ri o‘g‘rini qorong‘uda topadi” kabi maqollar keltirilgan va bular asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlagan.

Asarda Sadridin Ayniy o‘zgacha tashbehlardan ham foydalangan. Masalan, *Qori Ishkambaning gavdasi suv to‘ldirilgan meshday tekis ko‘rinar edi* (2-bet). Yoki *U oy-u kuni to‘lgan tullagan kekxa bo‘g‘oz hayvonning xuddi o‘zi* (2-bet) kabi.

Ishkamba bu kun ko‘zimda “**Hotami Toy**” bo‘lib ko‘rindi (4-bet). Bu o‘rinda muallif Qorining saxiyiligini Hotami Toyga qiyos etadi.

Rahimi Qandning barmoqlari madorsizlanib, tanbur toriday titramoqqa boshladi. Ijodkor Rahimi Qandning tanbur chalib, ashula aytuvchiligiga qarab, barmoqlarini ham tanbur toriga qiyoslaydi(8-bet).

Yoki Azizullo Hisor urushida Amirning “galabotur” navkarlari qatorida hisorliklar safida ot minib hujum qilgan, har bir qilich urushida o‘n-o‘n ikki nafarni **daraxt novdasiday** qalam qilib chopib tashlagan bir qahramon edi (11-bet). Yana *Qori Ishkamba yo‘qolgan biron muhim narsasini topgan odamdek, yugurib borib saroybon ko‘rsatgan tangani yerdan ola soldi* (58-bet).

Qissada adib ko‘proq Qori Ishkambaning xarakter xususiyatlarini yanada ochiqroq ko‘rsatishda o‘xshatishlardan foydalanadi.

Antonimlar tasvirning aniq, ravshan chiqishida, tasvir etilayotgan holat, narsa, voqelikning farqli tomonlarini to‘la va obrazli aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. [2] Badiiy matnda qarama-qarshi ma‘noli so‘zlardan foydalanish kuchli hissiyotni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu sabab asarda zid ma‘noli so‘zlardan o‘rinli foydalanilgan:

Masalan, *Boylik, qashshoqlik Xudodan, – dedi Qori Ishkamba ishontiruvchi ohang bilan* (3-bet). Yoki *Lekin do‘st-dushman orqa-oldingda To‘ramurodni Hamrohraqfiq o‘ldirgan, deb gap tarqatdilar*(33-bet). Agar zamona ahlining tamizi bo‘lsaydi,

hunarmandni hunarsizdan farq qila olsaydi (10-bet). Ushbu misollardagi *boylik – qashshoqlik, do'st – dushman, orqa – oldin, hunarmand – hunarsiz* kabi antonimik juftliklar orqali tasvir va bayon kuchaytirilgan.

Ayniy asarda shevaga xos so'zlardan ham unumli foydalangan. Bu asarga o'zgacha bir ruh bergan. Aynan asarlarda shevaga xos so'zlardan foydalanish asarda tasvirlanayotgan muhitni aniq ko'rsatib beradi. Masalan, *Sizning sallangiz tuproqqa tushsa hech bir zararlanmas edi, – dedi sartarosh, – ko'pdan beri jomashov yuzini ko'rmagan bo'lsa kerakki, tuproqdan ham farqsizroq holga kelgan* (2-bet). Yoki Agar *“xar murd” dan keyin bitta non bilan bir kosa osh bersalar zarari yo'q* (9-bet).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atoqli adib Sadridin Ayniy tilimizdagi lingvopoetik vositalardan unumli foydalanib, asar qahramonlarining ruhiyatini aniq ko'rsatib bera olgan. Yozuvchi frazeologik birliklarni qo'llash orqali asar tilini jozibali bo'lishiga erishgan; zid ma'noli so'zlar vositasida matnning ta'sirchanligini oshirgan; shevaga xos so'zlardan foydalanish orqali esa o'sha davr, muhitni yorqinroq aks ettirgan. Bundan tashqari asarda sinonim so'zlar, uyadosh so'zlar, tasviriy ifodalar, omonim so'zlar qo'llangan. Ushbu maqolada asar lingvopoetikasining ma'lum qismigina tahlil qilindi, to'liq holatda esa tahlil hali davom ettirilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. – 23 б.; Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.; Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 24 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 45 б.
2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. diss.-Andijon, 2003.
3. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent.:Fan.2008.-B.152

4. Sadriddin Ayniy. Sudxo'ring o'limi..- Toshkent: O'qituvchi. 1982.- B.37.
5. Юлдашев М.М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – Б. 104.

JONDOR SHEVASIDAGI UY-RO`ZG`OR BUYUM NOMLARINING TARIXIY ILDIZLARI

Erkinboyeva Norgul Barot qizi,

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-ro`zg`or buyumlari nomlari to`planib, ularning har biri leksik jihatdan tasniflashga harakat qilingan. Bundan tashqari, uy-ro`zg`or buyumlarining tarixiy etimologiyasiga ham bir qadar to`xtalangan hamda tarixiy manbalar aniqlangan. Ta`kidlash joizki, Jondor shevasidagi uy-ro`zg`or buyumlarining nomlarining yangi ko`rinishlari haqida ham bir qadar ma`lumotlar berib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Jondor shevasi, dialekt, lahja, uy-ro`zg`or buyumlari, nom, etimologiya, ma'no, qatlam

Shevalar har bir millatning asosini, mohiyatini o`zida mujassam qiladi, shuningdek, u milliy-ma'naviy meros sanaladi. Umuman olganda, o`zbek tili deganda, shevalarni anglashimiz to`g`ri. Lekin har bir shaxs rasmiy muloqot jarayonida adabiy tilda so`zlashi zarur, ammo bu holat o`z shevasini unutishi kerakligini anglatmaydi. Tarixdan ma'lumki, tilimiz rivojlanib, taraqqiy etgani sari o`zbek shevalari ham kun sayin o`sib boraveradi.

Sheva forscha so`z bo`lib, ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildiradi, fanda o`ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. Shundan kelib chiqadigan bo`lsak, sheva har bir hudud egasining til nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanuvchi omili hisoblanadi. Shevalar tilimiz boyligining asosidir. Shuning uchun sheva xalqning madaniyati, turmush tarzi, an'analari va boy merosini ko`rsatib beruvchi ko`zgu bo`lib xizmat qiladi.

Biz quyida o'zining ma'no qirrasiga ega bo'lgan Jondor shevasining rang-barangligi bilan tanishamiz. Zero, biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan Jondor shevasida ro'zg'or anjomlarini ifodalovchi nomlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Jondor shevasida ushbu guruhga mansub so'zlar keng iste'mol doirasida qo'llanib kelinmoqda. Bu nomlarning deyarli barchasi shu hududda yashovchi aholi madaniyati, qadriyatlari bilan bevosita bogliq. Hozirgi davrda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilning integratsiyalashuv jarayoni davom etmoqda. Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi, insonlar orasida aloqaning turli vositalar, xususan, elektron vositalarning vujudga kelishi mahalliy dialektlarning yaqinlashuviga olib keldi. Biz o'rganayotgan hududda ham o'zbeklar, tojiklar hamda turkmanlar uzoq vaqtdan beri hamkorlikda yashaydilar. Shu sababli sheva vakillari nutqida bu jarayon aks etmoqda. Ular turli fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanilmoqda va sheva vakillari talaffuziga moslashgan. [1]

Shuni ham alohida qayd etishimiz kerakki, o'rganilayotgan hudud shevasining yana bir o'ziga xos xususiyati singarmonizmning saqlangani va shundan kelib chiqib unilarning til oldi, shuningdek, til orqa shakllarida hosil bo'lishidir.

Turli davrlarida yozib qoldirilgan yozma yodgorliklar, ilmiy asarlar tadqiqot uchun asosiy manba bolib xizmat qiladi. Shuningdek, har bir yaratilgan yozma yodgorlikda o'sha davr tili mujassam. Qadimiy yozma yodgorlikni tadqiq qilish jarayonida o'zbek tilining ichki xususiyatlari, uning fonetik, leksik-semantik qonuniyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining taraqqiyotini aniqlash maqsadida umumturkiy yozma yodgorliklar matnlariga, eski o'zbek tilidagi asarlarga, hozirgi o'zbek tilidagi asarlarga, hozirgi o'zbek adabiyoti namunalari va hududdagi kundalik matbuot materiallariga murojaat qilindi va ulardan uy-ro'zg'or buyumlari leksikasiga doir tarixiy, dialektal, qardosh tillarga xos leksik birliklar tanlab olindi va qiyosiy tahlilga tortildi. Uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining qo'llanish davrlarini aniqlashga xizmat qiladigan yozma yodgorliklar jumlasiga eng avvalo, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu

lug'otit turk" asari kiradi. Bu hodisa turkiy tillar tarixining eng qadimgi davrlardagi elementlari ham shu asar orqali bizgacha yetib kelganligidan guvohlik beradi. [2]

Mahmud Qoshgariy o'zining mazkur qimmatli asarida uy-rozg'or buyum nomlarining ancha qismini misol keltirib, ularning tub negizi, ya'ni asl kelib chiqish ildizini ham izohlagan. Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-rozg'or buyumlarining dialektik variantlari bugun yoki kecha paydo bo'lib qolgan hodisa emas. Ularning kelib chiqish tarixi mavjud bo'lib, ba'zi qadimgi yozma manbalarda uy-rozg'or buyumlari nomlariga duch kelishimiz mumkin. Xususan, Mahmud Koshgariyning "Devonu lugotit-turk" asarida ham uy-rozg'or buyumlarining nomlari salmoqli bo'lib, ularning ba'zilari hozirda nutqimizda qo'llanilsa, ba'zilari umuman boshqa ma'no kasb etadi. [3] Jumladan, "manxul" elak ma'nosini anglatrsa, "eshik" qozon so'zini ifodalagan. Bundan tashqari, "idish" – piyola, "ayaq" – kosa va shu kabi qator so'zlarni asarda uchratishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asarda ishlatilgan narsa-buyum nomlarining ba'zilari hozirda umuman boshqa ma'no kasb etadi. Asarda qo'llanilgan "idish" so'zi eski turkiy tilda piyola ma'nosini namoyon etgan bo'lsa-da, hozirgi kunga kelib ushbu ma'no tubdan o'zgargan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da idish so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: "Narsa solish(solib qo'yish) uchun ishlatiladigan uy-rozg'or yoki xo'jalik buyumi. Don idish. Suv idish". Demak, hozirgi o'zbek tilida qo'llanilayotgan idish so'zi umumiy ma'no kasb etmoqda.

O'rganilayotgan hududda qo'llanuvchi bir qancha dialektlarni Mahmud Qoshgariy qimmatli asarida berib o'tadi va ularning kelib chiqish o'zagini izohlaydi. Jumladan, "O'roq" ma'nosida qo'llanuvchi *minjal* so'zi, "Elak" ma'nosida *munxul* so'zi, "Supurgi" ma'nosida *minsaf* so'zlari "Devonda" tartib qilingan.

Birgina idish so'zi bir necha ma'nolarda qo'llanilgan:

- 1) idish – qadah, piyola;
- 2) idish – obdasta, lagan, kosa, tovoq.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asarda ishlatilgan narsa-buyum nomlarining ba'zilari hozirda umuman boshqa ma'no kasb etadi. Asarda qo'llanilgan *idish* so'zi eski turkiy tilda piyola ma'nosini namoyon etgan bo'lsa-da, hozirgi kunga kelib ushbu ma'no

tubdan o'zgartirgan. “O'zbek tilining izohli lugati” da idish so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Narsa solish (solib qo'yish) uchun ishlatiladigan uy-ro'zg'or yoki xo'jalik buyumi. Don idish. Suv idish. Demak, hozirgi ozbek tilida qollanilayotgan idish sozi umumiy ma'no kasb etmoqda. Shuningdek, *qozon* (o'rganilayotgan hududda *qazon* tarzida muomalada) leksemasi bir qancha lug'atlarda turli izohlar bilan keltirilgan: Qazon – ovqat pishirish uchun mo'ljallangan buyum nomi. Mahmud Qoshg'ariy lug'atida *achish* so'zi “qozon” ma'nosini bildiradi.

L. Budagov lug'atida qazg'an, kazan, V.V. Radlov yog'ochdan ishlangan q qozon quyadigan qolip deb izoh beriladi. [4] Bu so'z o'zbekcha qozon, uyg'ur va qozoq tillarida qazan, qirg'iz tilida kazan, turkman tilida gazan deb aytiladi. V.G. Igorov bu so'zning qaz, qazio' fe'li bilan aloqadorligi, u bizga qazg'an ~ qaz/g'an shaklida fonetik o'zgarishlar bilan yetib kelganligini ta'kidlaydi. [5] L.X.G'afurova uni qaz fe'liga – an qo'shimchasi qo'shilishidan hosil bo'lgan desa, [6] I. Ismoilov bu so'z turkiy tillarda har xil nomlar bilan atalishini qayd qiladi. Masalan, o'zbekcha doshqozon, mahalla qozon, to'y qozon (katta qozon): uyg'urcha doshqozon//bashqozon, qozoqcha qara qazan, tay qazan (bir toyning go'shti sig'adigan qozon); qirg'izcha dashqazan; qoraqalpoqcha qara qazan kabi. [7]

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Jondor shevasida qo'llaniladigan so'zlar, ya'ni uy-ro'zg'or buyumi nomlari mahalliy hudud vakillarining ehtiyoji, milliy qadriyatlari asosida yuzaga kelgan. Ularning tub ildizi turkiy xalqlar asarlariga borib taqaladi va har birining tarixan kelib chiqishi, hozirda qo'llanilish miqdori, salmoqdorligi mavjud bo'lib, bu ularning nutqida qo'llovchi mahalliy aholi vakillarining soni bilan belgilanadi. Kelgusida Jondor shevasida qo'llaniluvchi uy-ro'zg'or buyumlari nomlarini aks ettiruvchi so'zlar lug'atini tuzish ularning kelgusi avlodga yetib borishini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Xo'ja Ahmad Yunus. “Turkiy tillar devoni” dagi bayonlardan uyg'urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4, 21-b.
2. Ishaev A. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 176 b.)

3. M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.
4. Л.Будагов. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. 1869.)
5. В.В.Радлов. Опыт словаря тюрских наречий. 1893.
6. В.Г. Игорев. Этимологический словарь чувашского языка. Чекобсари, 1964.
7. Л. Х. Фафурова. Бытовая лексика современного узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1991

BOBUR POETIKASIDAGI O'XSHATISHLARNING STRUKTUR-KOMPOZITSION TAHLILI

Fattoyeva Ruxsora Bahodir qizi,

Buxoro davlat universiteti II bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasidagi o'xshatishlarning struktural - kompozitsion xususiyatlari tahlil etilgan. O'xshatishlarning shakliy xususiyatlari va qurilish qo'llari o'rganilib, misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'xshatish, o'xshagan, o'xshatilgan, o'xshatish qaydi, o'xshash.

Bobur she'riyati beqiyos badiiyati bilan qimmatli va o'ziga xosdir. Unda she'riy san'atlarning tashbeh, laffu nashr, mubolag'a, tashxis, istiora, husni ta'lil, tanosub kabi rang-barang turlarini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan shoir ijodida o'xshatish san'ati alohida ahamiyatga ega.

Bilamizki, o'xshatishlar to'rt uzvdan iborat. Abdurauf Fitrat bu uzvlarni o'xshag'an, o'xshatilg'an, o'xshatish qaydi, o'xshash deb(8:52, 53); Atoulloh Husayniy mushabah, mushabah bihi, vajhu shibh(9:212); Ishoqov Y. mushabah, mushabbahun-bih, adoti tashbih, vajhi shibh(4:230) ; Nizomiddin Mahmudov o'xshatish subyekti simvoli, o'xshatish etaloni simvoli, o'xshatishning shartli ko'rsatgichi, o'xshatish asosining simvoli (5: 66); M. Yoqubbekova o'xshatish asosi, o'xshatish timsoli, o'xshatish vositasi, o'xshatish belgisi (3: 39) tarzida ifodalagan. Biz o'xshatish uzvlarining har birining shartli belgisi uchun kirill alifbosidagi dastlabki harfiy belgilar – А Б В Г dan, o'xshatish uzvlari nomlari uchun esa Abdurauf Fitrat qo'llagan so'zlar – o'xshagan (shartli belgisi А), o'xshatilgan (shartli belgisi Б), o'xshatish qaydi (shartli belgisi В), o'xshash (shartli belgisi Г)dan foydalanishni lozim topdik [8:53].

Bilamizki, o`xshatishlar uning uzvlari ishtirokiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) to`liq o`xshatishlar; 2) to`liqsiz yoki qisqa o`xshatishlar. To`liq o`xshatishlarda o`xshatiluvchi ob`ekt, o`xshovchi obraz, o`xshatma belgi alohida birliklar bilan kelishi asosiy mezon hisoblanadi (5:134-b).

To`liqsiz o`xshatishlarda esa o`xshatma belgi alohida birliklar bilan ifodalanmaydi.

Aytilganlarga ko'ra Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasidagi o'xshatishlarni tadqiq etishga harakat qilamiz.

I.To'liq yoki **A B B Γ** tartibli o'xshatishlar shoir lirikasida juda kam sonli hisoblanadi. Bunga misol sifatida ushbu baytni keltirish mumkin:

Yo qoshi yanglig' egilgan jismi zorimnimu dey?

Yo sochingdek tiyra bo'lg'on ro'zgorimnimu dey?

(2: 70)

Mazmuni: " Qoshing kabi egilgan jismi zorimni deymi, yo sochingdek tiyra (qorong'u, qora) bo'lgan hayotimni deymi?"

Baytda o'xshatishning to'rtala unsuri ham qo'llanilgan. Birinchi misrada jismi zorim - o'xshagan (A), qoshi- o'xshatilgan (B), yanglig'- o'xshatish qaydi(B), egilgan- o'xshash(Γ). Ikkinchi misrada ro'zgorim- o'xshagan (A), soching- o'xshatilgan (B), - dek - o'xshatish qaydi (B), tiyra bo'lg'on- o'xshash (Γ). Demak, yuqoridagi tashbeh A B B Γ tartibiga asoslangan.

II. To'liqsiz o'xshatishlar

1. **A B B** ko'rinishidagi o'xshatishlar to'liqsiz o'xshatishlar sanaladi, ularda o`xshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalanmaydi, (7:30) ya'ni mazkur qurilmali o`xshatishlar o`xshagan, o`xshatilgan va o`xshatish qaydi tarzida shakllanadi. Bobur she'riy asarlarida bu kabi to`liqsiz o`xshatishlar miqdori ancha ko`p bo`lib, shoir ulardan keng foydalangan. Quyida shunga doir ayrim misollarni tahlil etishga harakat qilamiz:

Quyosh yanglig' yuzungga men dururmen volau hayron,

Yangi oytex qoshingga men dururmen oshiqu moyil.

(2: 77)

Mazmuni: " Quyoshdek yuzingga men maftun- hayronman, yangi oydek qoshingga oshiq-u moyilman". Vola sozi maftun bo'lgan, berilgan hayratda qolgan ma'nolarini anglatadi (8: 140)

Baytning har ikki misrasida A B B tartibidagi o'xshatishlarni ko'rishimiz mumkin. Birinchi misrada yuzung- o'xshagan (A), quyosh - o'xshatilgan (B), yanglig'- o'xshatish qaydi (B). Ikkinchi misrada qoshing - o'xshagan (A), yangi oy- o'xshatilgan (B), -tek - o'xshatish qaydi (B). Baytdagi o'xshatishlar A B B strukturali hisoblanadi.

2. A B strukturali o'xshatishlar.

Alohida ta'kidlash o'rinliki, shoir she'riy asarlarida to'liqsiz o'xshatishlarning ikkinchi turi, ya'ni A – o'xshagan va B– o'xshatilgan qurilmali o'xshatishlar muhim o'ringa ega. Ular shoir nazmiy asarlarida alohida tizim sifatida shakllangan. Bunday turdagi o'xshatishlar ta'sirchanligi, badiiy-estetik zavq uyg'otishiga ko'ra tashbih badiiy san'ati tizimida "eng kuchli"sidir. Abdurauf Fitrat o'z o'rnida "Adabiyot qoidalari" asarida o'xshatishlar xususida fikr bildirib, mazkur turdagi o'xshatishlar eng ta'sirchan ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi (9: 51). M.Mukarramov esa "O'zbek tilida o'xshatish" kitobida mazkur turdagi o'xshatishlar xususida quyidagilarni yozadi: "Vositasiz o'xshatishlar o'xshatiluvchi obyekt bilan o'xshovchi obrazning o'zidagina iborat bo'ladi. Ularda o'xshatma belgi hamda o'xshatish ifodalovchi elementlar ham bo'lmaydi. Bularda o'xshatiluvchi obyekt – ega, o'xshovchi obraz – ot kesim vazifasida keladi" [7: 30]. O'xshatishning mazkur turiga oid ayrim misollarni quyida tahlil etishga harakat qilamiz:

Bahoru bog' sayrin ne qilaykim, dilistonimning

Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondir.

(2: 121)

Baytni tavsiflashdan avval izohtalab so'zlar ma'nosiga e'tibor qaratamiz: diliston- dilni oluvchi, ko'ngilni asir etuvchi, dilbar, sevgili(8: 192 b), sarvi xiromon- go'zal yurishli, sevgili, nozanin(8: 547).

Bayt tavsifi esa quyidagicha: bahor- bog' sayrini nima qilaman, axir dilbar yorimning yuzi gul, zulfi sunbul, qomati esa go'zal yurishli.

Baytda bir misraning o'zida uchta to'liqsiz o'xshatish mavjud: yuzi - o'xshagan (A), gul-o'xshatilgan (B); zulfi- o'xshagan (A), sunbul - o'xshatilgan (B); qomati- o'xshagan (A), sarv- o'xshatilgan (B)

Bobur she'riy asarlaridagi o'xshatishlarning struktural-kompozision tahlili natijalariga ko'ra shoir nazmiy asarlarida o'xshatishlar mazkur jihatdan o'ziga xos xususiyatga egaligi, o'xshatish uzvlarning ishtirokiga ko'ra ikki turli, ya'ni to'liq o'xshatishlar hamda to'liqsiz o'xshatishlar qo'llanilganligi, vositasiz (o'xshagan va o'xshatilgan uzvlari mavjud) o'xshatishlar, ya'ni A (o'xshagan) hamda B (o'xshatilgan) qurilmali o'xshatishlar boshqa strukturali o'xshatishlardan nisbatan ko'pchilikni tashkil etishi kabilar aniqlandi. Bunday o'xshatishlar estetik zavq uyg'otishiga ko'ra tashbih badiiy san'ati tizimida eng ta'sirchan tur ekanligini shoir yaxshi anglagan. Shunga ko'ra Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining poetik asarlarida A (o'xshagan) hamda B (o'xshatilgan) strukturali o'xshatishlardan keng hamda unumli foydalangan.

ADABIYOTLAR

1. A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov. Badiiy san'atlar.
- Toshkent: Tafakkur, 2015.
2. Бобур. Асарлар. Уч жилдлик.-Т.: Фан, 1965. I jild.
3. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. –Тошкент: Фан.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Тошкент: Зарқалам, 2006.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
6. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т.: Фан, 1976.
8. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
9. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. V жилдлик. -Тошкент: Маънавият, 2006. -IV jild.

10.Хусайний Атоуллоҳ. Бадойий-ус-санойий. (Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси). -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

MEHNAT VA MEHNATSEVARLIK HAQIDAGI TURK VA O'ZBEK MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI

Bakirova Nigina Elnurovna,

BuxDU 1-bosqich magistranti

Kalit soʻzlar: mehnat va mehnatsevarlik, maqol, semantik xususiyat, muqobil soʻzlar.

Annotatsiya: maqolada mehnat va mehnatsevarlik haqidagi turk va oʻzbek maqollarining semantik tahlili haqida soʻz boradi.

Maqollar ustida qaysi tilda ish olib borilishidan qatʼiy nazar ularning semantik xususiyatlariga toʻxtalish ishning eng muhim qirralarini ochib berishga yordam beradi. Koʻpincha qiyosiy tilshunoslikda ikki tilda mavjud terminlarning maʼnolarini tahlil qilish va bu borada tildagi mavjud leksemalarning yangi qirralarini kashf etish muhimdir.

Ushbu maqolada oʻzbek va turk maqollarining semantik xususiyatlariga koʻproq toʻxtalamiz. Ayrim turk va oʻzbek maqollarining semantik tahlillarini qilgan holda, maqollarning har ikkala tildagi oʻxshash va farqli jihatlarini koʻrib chiqamiz. Bu orqali oʻzbek va turk tillaridagi maqollarning har ikki tildagi semantik jihatdan ishlatilish oʻrnini oʻrganamiz.

Maqollarning semantik doirasi juda keng boʻlgani uchun ham jamiyatning har bir sohasida qoʻllashimiz mumkin. Bu borada turk va oʻzbek xalq maqollari maʼno jihatdan ham, qoʻllash jihatdan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Oʻzbek va turk tilidagi maqollarni hajm jihatidan oʻrganib borish asnosida aynan mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning koʻproq uchrashiga guvoh boʻldik. Buning sababini turlicha keltirishimiz mumkin. Masalan, mehnat qilib obroʻ topish, oʻz ehtiyojlaringni qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham oʻz isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak

yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo'lish kabi masalalarga turk va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o'zbek va turk maqollarida o'z aksini topadi. Aynan shu mavzudagi maqollarni tahlil qilish jarayonida, hamisha mehnatsevarlik ijobiy baholanganligini, dangasalik va ishyoqmaslik esa qattiq qoralanishi kabi masalalarning yoritilishini kuzatamiz. Quyida ushbu mavzuga oid ayrim turk maqollarining o'zbek tilidagi ma'nolari va muqobil variantlarini ko'rib chiqamiz

№	Turkcha maqol	O'zbekcha ma'nosi	O'zbekcha ekvivalenti
1	Akşamın işini sabaha koyma	Oqshomning ishini tongga qo'yma	Bugungi ishni ertaga qo'yma
2	Emek olmazsa yemek olmaz	Mehnat bo'lmasa, ovqat bo'lmaydi.	Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi.
3	Nerede hareket orada bereket	Qayerda harakat, o'sha yerda barakat.	Harakat, harakatda barakat
4	Tembele iş buyur sana akıl öğretsin	Dangasaga ish buyur, senga aql o'rgatsin.	Dangasaga ish buyursang, otangdan yaxshi nasihat qiladi
5	Yazın başı pişenin kışın aşı pişer	Yozda boshi pishganning qishda oshi pishadi	Yozda boshi qaynamaganning qishda oshi qaynamas.
6	Kalan işe kar yağar	Qolgan ishga qor yog'ar	Qolgan ishga qor yog'adi.
7	Boş gezmekten bedava çalışmak iyidir	Bekor kezishdan ko'ra bepul ishlagan yaxshidir.	Bekor turguncha bekor ishla

Ko'rib turganimizdek, mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning o'zbek va turk tillarida mavjudligi har ikkala xalqning o'ta mehnatsevar va ishchan ekanligini ko'rsatadi. Shu bois qayd etgan barcha maqollarimiz xalqlarning turmush tarzida o'ta

keng ko'lamda foydalaniluvchi mavzulardan biridir. Shu o'rinda ularning semantik doirasi haqida so'zlasak ham huddi bir xil narsani ya'ni maqollarning qo'llash ma'nosi aynan bir xil ekanligini tushuna olamiz.

Masalan: “Tembele ish buyur sana akil o'rgatsin” maqolini o'zbek tiliga tarjima qilganda “Dangasaga ish buyur, senga aql o'rgatsin” ma'nosini beradi. Bu maqol orqali biz o'ta ish yoqmas, dangasa biroq juda so'zamol kishilarni tasvirlaymiz. Ammo biz turkcha maqolning o'zbekchadagi tarjimasini yoki ma'nosini har doim ham o'zbek tiliga tayyor holda ishlatolmaymiz. Buning juda chiroyli va muqobil varianti sifatida “Dangasaga ish buyursang, otangdan yaxshi nasihat qiladi”ni keltirishimiz mumkin [3].

Maqoldan kelib chiqayotgan ma'no har doim ham uni tashkil etayotgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazlilik bilan bog'liqdir. Shu o'rinda maqollardagi obrazlilikning kuchlilik bir maqolni har ikkala tilda bir xil talqin etilishiga olib keladi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, maqollardagi pand-nasihat ohangidagi xususiyatlar insonga hamisha to'g'ri yo'l ko'rsatadi va yomon oqibatlardan ogohlantiradi. Masalan: “Emek olmazsa yemek olmaz” maqolini tahlil qiladigan bo'lsak, u o'zbekcha muqobil variant sifatida “Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi” maqoliga to'g'ri keladi. Maqolning har ikkala tildagi umumiy ma'nosi shuki, qattiq mehnat qilib erishilgan narsa har doim qadrli, xuddi yeyayotgan shirin oshingdek, biroq mehnat qilinmasa, hech narsaga erishilmasligi aytiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik doimo ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. [1] Aynan biz ko'rib, o'rganib, tahlil qilib chiqqan maqollarda ham ushbu holatni ko'rishimiz mumkin. Turk maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini turk tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir

maqolning asl ma'no-mazmunini chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin. Xalq og'zaki ijodining sara namunalari hisoblanmish maqollar qaysi tilda yangrashidan qat'iy nazar, agar ularning ma'no mohiyati insonlar tomonidan chuqur anglab yetilsa, insonlarga hamisha to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi yo'lboshchi sifatida xizmat qilaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. – T.: Sharq, 2005.
2. Ülku Kuşçu, Hüseyin Kuşçu. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. –İstanbul, 2002.
3. O'zbek va turk maqollari, iboralari. I.Yo'ldoshev, Tuncay Öztürk, Yüksel Öztürk, 1998.

SO'ROQ GAPLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

H.Hodiyeva,

BuxDU magistranti

Annotatsiya: *ushbu axborotda so'roq gaplarning xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Unda so'roq gaplarning nutq uslublari qo'llanishi bilan bog'liq qarashlar o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *so'roq gap, ritorik so'roq, nutq uslublari, intonatsiya, kommunikatsiya.*

So'zlovchiga noma'lum bo'lgan narsa, hodisa, voqea haqida so'roqni ifodalaydigan gap so'roq gap deyiladi. Masalan: *Buni eshitib, E'tibor nima qilarkin? Yo sevinarmikin?* [S.A.]

Bu bilan so'roq gaplarda suhbatdoshni o'z fikrini anglatishga yoki ifodalanayotgan fikrga bo'lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi.

So'roq gapning xususiyatlari quyidagicha: ba'zan faqat so'roqni: *Hoy, nima balo bo'ldi? — deb alangladi Inoyat oqsoqol*[S.A.]. Ba'zan ham so'roq, ham hayratlanishni, so'roq yo'li bilan ifodalangan taajjubni bildiradi: *Bo'ston, bu so'roq anglashilmaganidek, otasiga tikilib qaradi: —Qanaqa ish? — Qanaqa bo'lardi, o'sha Botir topib yurgan ishda. Yangi yer ochish, suv chiqarish, bog '-rog' qilish bo'lmag'ur*

ishmi? [S.Nazar] Ba'zan so'roq bilan birga, turli hayajonlar, tuyg'ular ifodalanadi: Qani bu yerda insof, qani bu yerda adolat degan narsa? Ba'zan so'roq yo'li bilan berilgan buyruq ifodalanadi: *Ko'ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding?* [Cho'lpon]. So'roq gap shubha, gumon o'ttenkasini ham bildirishi mumkin: *Men bir kuy to'qiganman, bilmadim, mehmonlarga ma'qul bo'ladimi, yo'qmi?* [O.] (kuyning yoqish, yoqmasligi gumon) Ba'zan so'roq yo'li bilan taxmini bildiradi. Bu gap so'roq - gumon gapga ancha o'xshamasa ham, lekin ayrim xususiyatlari bilan undan ajralib turadi: *Kechirasiz, Odiljonning o'rtog'i Tashxonov emasmisiz?* Ba'zan darak gapga juda yaqinlashgan bo'ladi. Bunday gaplardan biror hodisa haqida so'roq yo'li bilan ifodalangan xabar, hukm anglashilib turadi: *Kim axir bir kuni aso tutmagay?* [S.S.] — so'roq bilan birga, javob — “hamma ham bir kun aso tutadi” mazmunidagi darak, qat'iy hukm ifodalangan. Bu kabi so'roq gap turlari matnda o'ziga xos emotsiyani hosil qiladi. Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadi: so'roq gap, odatda, so'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror narsa haqida xabar bilish, shu to'g'rida ma'lumot olish maqsadida ishlatiladi va shu xabarni anglatuvchi javobni talab qiladi; lekin uning so'roq bildirmaydigan, javob talab qilmaydigan ko'rinishlari ham bor. Masalan: *“Karima xolani to'yga Toshkentdan tez chaqirish kerak. Nima qilamiz?” — dedi chol. Kattalarning suhbatini jim tinglab o'tirgan Turg'un, cholning nevarasi, birdan gapirib yubordi: “Telegraf-chi?!”* [E.Y] (Ikkinchi misoldagi “Telegraf-chi? gapi so'roq yo'li bilan taajjub, ta'kid, uqtirish, xabar bildiradi: *Telegraf bor-ku!*” degan ma'noda). Bunday ko'rinishlar ham aslida javob talab qiladigan so'roq gapdan kelib chiqadi. So'roq darak gap o'z ichki xarakteri bilan darak gapga to'g'ri keladi; bundan tashqari, u xabarni darak gapdagiga nisbatan kuchli ravishda, qat'iy tusda bayon qiladi. So'roq tusiga ega bo'lgan (tashqi tomondan), lekin so'roq bildirmaydigan, demak, javob talab qilmaydigan bunday gaplar, odatda, asosiy holatda emotsionallik hodisasini qo'shadi: qat'iy tusda ifodalangan hukm + emotsional imkoniyat. Masalan: *Odanning hayoti tug'ilishdan boshlanishini kim bilmaydi? Yo'q! Qanday chidayman, bu tuhmatga!* [Oybek, “Qutlug' qon”.] Bu gap “Odanning hayoti tug'ilishdan boshlanishini bilmaydigan odam yo'q, buni hamma biladi” degan mazmuni

emotsionallik bilan, kuchli ravishda ifodalaydi. Bunday so‘roq ritorik so‘roq deyiladi. Ritorik so‘roqda javob gapning o‘zidan anglashilib turadi, so‘zlovchining o‘zi javob beradi. Masalan:

Sevgini tortib bo‘lurmi

Tosh-u tarozi bilan?

Mehrni o‘lchab bo‘lurmi

Zar bilan, inju bilan?[E.V]

So‘roq gaplarning yana bir xususiyati shundaki, ular barcha nutq uslublarida uchraydi. Ammo ular turli nutq uslublarida turlicha uslubiy vazifa bajaradi. Jumladan, ilmiy uslubdagi asarlarda so‘roq gap tinglovchining diqqatini ma’lum bir hodisaga jamlash uchun ishlatiladi: *O‘quvchilar, masalani yechish uchun biz avvalo bir savolga javob topishimiz kerak: Tezlik o‘zi nima? Uni sof fiziologik tomondan qanday tushunish kerak?* [Darslik]

Publisistik uslubdagi asarlarda esa kitobxon yozuvchi orasidagi do‘stona savol-javob munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ya’ni publitsist o‘z nutqi jarayonida o‘quvchiga savol beradi va uning o‘zi ayni zamonda javob berib ham ketadi.

So‘roq gaplar, odatda, so‘roq olmoshlari ishtirokida tuziladi. Uslubiy ixchamlik va qulaylik uchun bu olmoshlar ba’zan so‘roq gap tarkibidan tushirib qoldiriladi. So‘roq gapning bu ko‘rinishi so‘zlashuv va badiiy uslubda keng qo‘llanadi: — *Nima bilan boqyapsizlar?*

— *Nima bilan bo‘lardi? Nima ko‘p — o‘t ko‘p.*

— *Don-chi?*

So‘roq gaplar dialog nutqda keng qo‘llanadi. Dialoglarda so‘roq gaplar suhbatdoshga qaratilgan bo‘lib, undan u yoki bu narsa-voqea haqida javob olish maqsadida aytiladi. Bir luqmada ikki va undan ortiq so‘roq gapning ishlatilishi so‘zlovchining o‘ta hayajonini, ruhiy holatini ifodalashga harakat qiladi: *E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?* [O‘.H.“Dun.I.”]

So‘roq gaplar o‘zaro fikrlashuvda nutqiy aralashuvni keltirib chiqaradi. Ya’ni — bu kommunikatsiya jarayonida hosil bo‘ladi.

Aloqa kishilar o'rtasida mos aloqa kanali bo'yicha axborotlarni uzatish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan yondashiladigan kommunikatsiya — guruh yoki tashkilot ichidagi, butun jamoa ichidagi alohida shaxslar o'rtasida axborot almashish jarayonini o'z ichiga oladi. Bunday turdagi kommunikatsiya, asosan, tabiiy til yordamida amalga oshiriladi.

Mana shunday ijtimoiy tabiatga ega kommunikatsiya jarayonini gap yuzaga chiqaradi. Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н. Нурмонов А., Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. —Т., 1995.
2. Qilichev E. Intonatsiya haqida mulohazalar. O'ТА. 2001.1-son.63-65 В.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 2-қисм. —Т.: Фан, 1966. — Б.38.
4. Ҳошимов Ўткир. Дунёнинг ишлари. Қисса. — Т., 2011. 167 б.

О`ЗБЕК ТИЛИДА PLEONAZM HODISASI, JUMLADAN ILMIY NUTQDA PLEONAZM

Hamdamova Sevinch,

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Tezisdagi tilshunoslik uchun yangi bo'lmagan, biroq keng miqyosda o'rganilmagan hodisa – pleonazm haqida so'z boradi. Tezisdagi, asosan, ilmiy nutqda uchraydigan pleonazm hodisasi va shunday pleonastik birliklar haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Pleonazm, muzli aysberg, atmosfera havosi, mening avtobiografiyam, qisqa rezyume, qat'iy tabu, yuz mimikasi, qurilish konstruksiyalari, CD disk.

Pleonazm (yun. pleonasmos — ortiqchalik) — bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining (til birliklarining) semantik jihatdan takror holda qo'llanishi. Pleonazm tejamlilik prinsipiga zid hodisadir. Biroq shunga qaramay u uslubiy vazifa bajarishga asoslanadi. Pleonastik qo'llanish uchun shakliy takror asosiy mezon bo'la olmaydi, balki

mavjud ma'noning qayta takrorlanishi asosdir. Nutqda takrorlanayotgan birliklarning turi (qo'shimcha, so'z, gap)ga qarab, pleonazmni quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1. Leksik pleonazmlar; 2. Semantik pleonazmlar; 3. Affiksial pleonazmlar; 4. Leksik-affiksial pleonazmlar; 5. Sintaktik pleonazmlar. Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin bo'lgan so'zlar leksik birlik sifatida birikib, o'zaro aniqlovchi — aniqlanmish munosabatida bo'lsa, ular leksik pleonazmlar hisoblanadi: ko'ppak it, tuz namak, interval oralig'i, mayda mikroblar kabi. Bunday tautologik harakterdagi pleonazmlar ko'pincha o'zlashma so'zning ma'nosini to'la anglamaslik yoki hisobga olmaslik natijasida unga shu so'zning o'zbekcha sinonimini qo'shish tufayli vujudga keladi. Ba'zi leksik pleonazmlarda aynan bir tushunchaning takrori mavjud bo'lsada, o'zlashma so'z semantikasida ma'no siljishi ro'y beradi. O'zbek tilida semantik pleonazmlar ham keng tarqalgan: oyoq bilan tepmoq, ko'z bilan ko'rmoq, qari chol kabi (tepish oyoq orqali, ko'rish ko'z orqali sodir bo'lishi; chol bo'lgach, uning qariligi aniq). Mazkur misollardagi semantik ortiqchaliklar nutqda ta'sirchanlikni, ta'kidni oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Til doimo o'ta aniqlikka intilar ekan, unda ortiqchalikning yuzaga kelishi tabiiydir. Ortiqchaliklar esa ko'pincha uslubiy vazifa uchun xizmat qiladi. Tautologiya ham pleonazmning bir ko'rinishi hisoblanadi. Affiksial, leksik-affiksial va leksik pleonazm shu kunga qadar turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida keng planda o'rganilmagan aktual problemalardandir. Turkologiyada birinchi bo'lib, G.F.Blagova o'z maqolasida turkiy tillardagi affiksial pleonazmni qiyosiy-tarixiy va areal-lingvistik tahlil qildi. Hozirgacha bu maqola affiksial pleonazmga bag'ishlangan yagona maxsus ishdir. G.D.Adjibekova, M.Turobovalarning maqolalari ham pleonazm hodisasining ma'lum tomonlarini yoritishda alohida o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida pleonazm haqidagi fikrlarni, birmuncha kengroq planda R.Qo'ng'urovning ishlarida uchratish mumkin. Biroq shunga qaramay, hozirgi paytgacha tilshunoslikda pleonazmning chegarasi va uning turlari haqida konkret bir fikr mavjud emas. [Mahkamov,1988: 7-11]. Lingvistik ADABIYOTLARda "pleonazm" termini ko'pincha tautologiya, diftalogiya, perissologiya, reduplikatsiya, takror so'zlar kabi hodisalar bilan qorishtirib yuboriladi. Biroq bu terminlarning har biri

o`z xususiyatiga ega. Ular tilshunoslikdagi bir xil hodisalarning turli atamaları emas. O.S.Axmanova pleonazmni quyidagicha ta`riflaydi: “Pleonazm nutqiy figura bo`lib, sinonimik ifodalarning bir joyda yig`ilib qolishidir”. Leksik pleonazmlar og`zaki nutqda va badiiy adabiyotda emotsional-ekspressivlikni ifodalashda muhim rol o`ynaydi. Lekin har doim ham o`zlashgan so`z va uning sinonimini kontakt holda qo`llash pleonazmni vujudga keltirmaydi. O`zbek tilida shunday birikmalar borki, ularga formal qaraganimizdagina pleonastik qo`llanishga o`xshaydi (ko`pincha bunday holat arab va fors-tojik tillaridan o`zlashgan so`zlar doirasida ko`proq uchraydi). Shunday so`zlarning bir nechtasini ko`rib chiqamiz.

1. Bosh-oyoq sarpo (tojik tilida sar-bosh, po-oyoq) deganda biz biror kishiga in`om etiladigan ust-boshlarni ma`nosini anglaymiz. Demak, sarpo so`zining lug`aviy ma`nosini bilmaganlimiz sababli uni izohlab keluvchi so`zni qo`llashga ehtiyojimiz bor. Misol: Sunbulxon aya Fotimaga juda katta hurmat ko`rsatib...bosh-oyoq sarpo qo`ydi. (Mirmuhsin, "Umid").
2. Xarsangtosh (sang-tosh) deganda katta toshni tushunamiz. “Sang”so`zi fors-tojik tilida “tosh” degan ma`noni bildiradi. So`zning morfem tarkibida pleonazm bor. Bir ma`nodagi ikki so`zning qo`llanilishi tufayli qavatlanish hodisasi sodir bo`lgan. Misol: Abdurasul suvning kechuviga yetib, xarsangtoshga o`tirdi va allaqanday alanglagan ko`z bilan atrofni tomosha qila boshladi. (Sh.Xolmirzayev, “Og`ir tosh ko`chsa”).
3. Lahm go`sht (arabcha lahm – go`sht,et) deganda suyaksiz go`sht ma`nosini anglaymiz. Bu birikmada ham lahm so`zining tub lug`aviy ma`nosini bilmaslik natijasida uni izohlab keluvchi qismga ehtiyojimiz bor. Misol: Go`sht so`rab kelganda,”puling qani” deb surishtirmay, go`shtning katta yumshoq, lahm joyidan kesib berganman. (P.Tursun, “O`qituvchi”).
4. Pulsiroto ko`prigi (pul – ko`prik) kabi. Ushbu birikmada ham xuddi shunday holat takrorlangan. “Pulsiroto” so`zining morfem tarkibida pleonazm mavjud.Bu jarayonda ham qavatlanish hodisasi sodir bo`lgan. Misol: Do`zax uzra, o`t uzra, hayhot, Ko`prik shumi... ya`ni pulsiroto. (M.Ali, “Boqiy dunyo”).

Bu birikmalarda aynan bir soʻzning takrorlanayotgani maʼlum. Lekin bu oʻzlashma soʻzlar oʻzbek tilida oʻz maʼnosida anglashilmaydi. Bu kabi pleonastik birliklarni ilmiy nutqda ham uchratishimiz mumkin. Ilmiy nutq aniq, sodda, ravon, mantiqan toʻgʻri tuzilgan boʻlishi lozim. Biroq aytib oʻtganimizdek, chet tilidan kirib kelgan soʻzlarning tarjimasini va lugʻaviy maʼno tarkibini bilmaslik tufayli pleonastik birliklar yuzaga keladi. Shu kabi pleonastik birliklarning bir nechtasini koʻrib chiqamiz.

1. Atmosfera havosi – ushbu pleonastik birlikdagi “atmosfera” soʻzining lugʻaviy tarkibida havo maʼnosi bor. Atmosfera – yerni va boshqa baʼzi planetalarni oʻrab turgan gazsimon qobiq. Bu soʻzning maʼno tarkibida havo soʻzi bor ekan, yana bitta havo soʻzini qoʻshish kerakmi? Yuqorida aytilganidek, chet tilidan oʻzlashgan soʻzning maʼnosini anglash uchun oʻsha soʻzning yoniga uni izohlab keluvchi soʻzni qoʻshish lozimdir. Misol: Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishiga olib keladi. [3;170]
2. Muzli aysberg. Aysberg – (ingl. iceberg – muz togʻ) qutb dengizlarida qirgʻoqdan yoki muz tepaliklaridan oʻpirilib tushib, suvda suzib yuradigan katta muz. Aysberg soʻzining lugʻaviy maʼnosi muz deganidir. Biroq, tarjimon yoki tilshunoslardan boshqa kasb vakillari yoki oddiy aholi buni bilmaganliklari tufayli ushbu soʻz yonida uni izohlab keluvchi soʻz qoʻllanilishi zarurdir.
3. Mening avtobiografiyam. Avtobiografiya – biror shaxsning oʻzi yozgan tarjimai holi. Yaʼni bunda bir shaxsga aloqadorlik mavjud. Bir kishining avtobiografiyasini boshqa kishi yoza olmasligi aniq. Shu sababli ushbu soʻzning oldida “mening” soʻzini qoʻllash nooʻrindir.
4. Qisqa rezyume. Rezyume – (fransuzcha – “rezumer” – “qisqacha bayon qilmoq”) yozilgan, aytilgan yoki oʻqilgan matn mazmunining qisqacha bayoni. Ushbu soʻzning lugʻaviy tarkibi “qisqa” maʼnosini anglatib turibdi. Biroq, hamma ham buni bilmaydi. Shu sababli uni izohlab keluvchi “qisqa” soʻziga ehtiyoj bor.
5. Qatʼiy tabu. Bu soʻzda ham tabu soʻzining lugʻaviy maʼno tarkibida taʼqiqlash, man etish maʼnolari bor. Ammo, ushbu terminning lugʻaviy maʼnosini bilmaslik oqibatida uni izohlab keluvchi “qatʼiy” soʻziga ehtiyoj bor.

6. Yuz mimikasi. Bu pleonastik birlikdagi “mimika” soʻzi yuz muskullarining his-tuygʻu, ichki kayfiyatini ifodalovchi harakatlari maʼnosini bildiradi. Mimika soʻzi faqatgina yuzga aloqador boʻlgan soʻzdir. Boshqa soʻzlar qatorida ushbu soʻzning ham lugʻaviy maʼno tarkibini bilmaslik sababli uni aniqlab, izohlab keluvchi soʻzga ehtiyoj mavjud.
7. Qurilish konstruksiyalari. Konstruksiya – lot.sonstructio - toʻplash, yigʻish; tuzilish, qurilish. Ushbu birlikning morfem tarkibida pleonazm bor. Konstruksiya soʻzining tub maʼnosini bilmaslik oqibatida pleonastik birlik hosil boʻlgan. Bunday olib qaralganda qurilish soʻzi takror qoʻllanilgan. Bu jarayonda qavatlanish hodisasi sodir boʻlgan. Misol: Bunday sharoitlarda vertolyotlardan foydalanish, yuklarni tashish va qurilish konstruksiyalarini montaj qilish vaqtni bir necha baravar kamaytiradi hamda vaqtincha yoʻllar qurish tashvishidan xalos qiladi. “Fan va turmush”.
8. CD disk pleonastik birlik tarkibidagi CD qism Kompakt Disk soʻzining qisqartmasi hisoblanadi. Ingliz tilidan kirib kelgan ushbu soʻz koʻpchilikka notanishdir. Shuning uchun CD qisqartmasidan soʻng uning nima ekanligini bilish uchun disk soʻzi qoʻshiladi. Kompakt disk soʻzining tarjimasida esa ixcham disk deganidir.

Pleonastik birliklarni oʻrganar ekanmiz, ularning tilimizda va nutqimizda qoʻllanilishi kerakligi, ularga ehtiyoj borligi xulosasiga keldik. Tilshunoslar pleonastik birliklarni bilishadi, biroq koʻpchilik aholi qatlamiga bunday birliklar butunlay notanishdir. Shuning uchun ularning ilmiy oʻrganilishi va ommaga maʼlum qilinishni istaymiz. Bu oʻrinda shuni qayd etish kerakki, bugungi kungacha pleonazm tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganilishi kerakligi, u grammatikaning obyektimi yoki stilistikaning obyektimi, farqlanmaydi. (Blagova G.F.) Bizning fikrimizcha, pleonazm tilshunoslikning stilistika qismida oʻrganilishi kerak. Chunki pleonastik qoʻllanayotgan til birligi stilistik funksiya bajaradi. Maʼlum oʻrinlarda, masalan, leksikologiyada leksik pleonazmlar, morfologiyada va soʻz yasashida affiksial pleonazmlar, semasiologiyada semantik pleonazmlar, sintaksisda sintaktik pleonazmlar haqida fikr yuritish mumkin. Biroq umumiy planda pleonazm stilistikaning obyektidir.

ADABIYOTLAR

N.Mahkamov. Adabiy norma va pleonazm. – T.: Fan, 1988. – 7-11b.

www.ziyouz.com kutubxonasi O'zbek tilining izohli lug'ati;

7-sinf. Kimyo. – T.: Sharq, 2022. – 170 b.

Sh.Xolmirzayev. Og'ir tosh ko'chsa. – T.: Yosh gvardiya, 1980. – 51b.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TOSHPO'LAT AHMAD IJODIDAGI IFODASI

Azimova Aziza O'ktamovna,

BuxDU, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida 2-bosqich magistranti

a.u.azimova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro farzandi Toshpo'lat Ahmadning so'z qo'llash mahorati, xususan, ijodkor ijodida frazeologik birliklarning qo'llanilishi haqida so'z boradi. Har bir nazariy fikr shoir ijodidan saralab olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.

Tayanch so'zlar: frazeologizm, frazeologik birlik, jonli so'zlashuvga xos iboralar, badiiy uslubga xos iboralar

Frazeologik birliklardan o'rinli foydalanish oddiy so'zlarga qaraganda murakkabroq kechadi. Yozuvchi va shoirlarning frazeologik birliklardan foydalanishlari ijodkorning badiiy mahoratini ko'rsatib turuvchi muhim vositalardan sanaladi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning nazariy jihatlari borasida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan [3] Shuningdek, iboralar izohli lug'atining mavjudligi ham mazkur hodisa borasidagi ishlar ko'lamini belgilay oladi [2]

Umuman, o'zbek tilshunosligida frazeologik iboralarning lingvistik hamda lingvopoetik tadqiqi borasida yetarlicha ishlar amalga oshirilmoqda. Hatto frazeologizmlarning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ko'lami ham kengaymoqda.

Turmush tarzimidagi xilma-xil voqea-hodisalarning tagiga yetish, turli-tuman harakat holatlarga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari bo'lgan iboralar badiiy matnda deyarli doimo poetik aktual bo'ladi [2]

Frazeologik birliklar mazmun-mohiyatiga ko'ra a) badiiy uslub (ko'ksini ochmoq, dilini yoqmoq, chehrasi ochilmoq); b) jonli so'zlashuv nutqi (ko'zi tushmoq, yeng shimirmoq, jonini olmoq); d) shevaga xosligi (eshikka chiqmoq, qatim tortmoq, ajal tortib kelmoq); maqol-matal xarakterida bo'lishiga (igna bilan quduq qazimoq, go'ri nurga to'lmoq) ko'ra ham alohidalikka ega

Toshpo'lat Ahmad she'riyatida ham frazeologik birliklar anchagina. Mazkur hodisaning shoir ijodidagi ahamiyatini anglash uchun bir guruhini tahlilga tortamiz:

O'tmishingni ko'rding-ku, ey sen/ G'ofil banda, ochgil ko'zingni/ Uzr so'ra, yolvor, yalingin/ Tavof ayla ular izini. (“Uyqum keldi”)

Mazkur parchada ko'zingni och iborasi obrazli vosita sifatida qo'llangan, Bu o'rinda mantiqiy qurshovning roli va ta'siri yuqori, qolaversa, ushbu iboraning inversiya holatidagi ifoda shakli ham ma'no ta'sirchanlikni oshirishga yordam bergan.

Shoir ijodida ko'z so'zi bilan bog'liq *ko'z tikmoq, ko'z tutmoq, ko'zdan uyqu qochmoq, ko'zi tort bo'lmoq, ko'z ostidan qaramoq* kabi iboralar ishlatilgan. Misollarni kuzatamiz: *Pirpiragan yulduzlarga men/ Ko'zim tikib suqlanaman jim/ Yarqiragan yulduzlarga men/ Qalxim ochgum misli munajjim.* (“Yulduzlar nidosi”) *Ko'kka ko'z tutmasang* mayliga, lekin/ Muqaddas yeringda yorug' yulduz bo'! (“Yulduzlar nidosi”)

Ko'z, bosh, qo'l kabi so'zlar bilan birga *ko'ngil* so'zi bilan ham o'nlab frazeologik birliklar shakllanganligi ma'lum. Lug'atlarda mazkur so'z bilan bog'liq 150dan ortiq frazeologik birliklar mavjudligi kuzatildi [4]Toshpo'lat Ahmad she'riyatida *ko'ngil* so'zi bilan bog'liq quyidagi frazeologik birliklar uchraydi:

1. *Men axir hamisha halol, pokiza/ Ustozlar ko'nglini etolganman chog'.* (“Ustoz”) 2. *Do'stlar kelar bo'lsa, deysan: marhabo/ Ko'ngil darvozasi ochiq Buxoro!* (“Buxoronoma”) 3. *Tarix varaqlayman bag'rim xun bo'lib/ Asrlar o'tarlar oysiz tun bo'lib.* (“Buxoronoma”)

Bu parchalarda *ko'ngli chog' bo'lmoq, ko'ngil darvozasi ochiq, bag'ri xun* iboralari ishlatilgan. Dastlabki ikki ibora jonli so'zlashuvga xos bo'lsa, *bag'ri xun* (*yurak-bag'ri xun*) frazeologik birligi badiiy uslubga mansub. Bu ibora ko'pincha *bag'ri qon* shaklida qo'llanadi. Shoir “Mirzo Abdul Karim Buxoriy istagi” she'rida ham *bag'i*

xun iborasidan foydalangan: *Kutganim “mujda”ni Amir Haydardan/ Yorab, olarkanman, bag‘rim bo‘ldi xun.*

Shoir yuqorida keltirilgan ”Ustoz” she’rida *ko‘ngli chog‘* iborasini keltirgan bo‘lsa, ”Saharda” she’rida shu frazeologik birlikning sinonimini, ya’ni *kayfiyatim chog‘* iborasini ishlatadi: *Saharda simirdim gullar hidini/ Maydan mast bo‘lganday kayfiyatim chog‘.*

Ma’lumki, ijodkor ba’zida maqsadiga muvofiq frazeologik birlikning bir qismidan foydalanadi. Xuddi shunday holat T.Ahmadning ”Saharda” she’rida ham kuzatiladi. Masalan: *Nasim, sen tutdingmi bunday bodani/ Tong, yo sen yoqdingmi konglimga chiroq?* Nutqimizda *ko‘nglimga chiroq yoqsa, yorishmaydi* iborasi mavjud. Shoir ushbu parchada mavjud frazeologik birlikdan samarali foydalangan holda faqat bir qismini ishlatgan.

Toshpo’lat Ahmad sinonimik frazeologik birliklardan foydalanish bilan birga antonimik munosabatdagi iboralardan ham o‘rinli foydalanadi. Masalan:

1. *Bugun qo‘ling uzun sen uni zinhor/ O‘z qadr-u bastingga qarab bo‘ylama.* (”Hayotga uzoqdan tashlama nazar”) 2. *Dur termoqqa qodirsan, ammo qo‘ling kaltadir/ Jism-u jonga botguvchi ehtiyojdir, ehtiyoj.* (”Ehtiyoj”)

Toshpo’lat Ahmad “Vo ajab, bu hayot qanaqa o‘zi” misralari bilan boshlanadigan she’rida *tirnoq ostidan kir qidirmoq* frazeologik birligidan juda o‘rinli foydalanib ham mazmunan, ham shaklan go‘zal misralar yozganiga guvoh bo‘lamiz. Bunda u hayot (aslida Yaratgan)ga murojaaaat etadi, nazarimizda:

Nechun ajab deyman, o‘ylama, hayot/ Tirnog‘ing ostidan qidirmayman kir/ Sen axir najotsan – xonayi xurshid/ Seni o‘ylamasdan bo‘lurmi axir!

Shoir boshqa bir she’rida hayot so‘zi bilan bog‘li holatda “*Ahmadiy, g‘ofil bo‘lma, yo‘q esa/ Bu hayot boshga yong‘oq choqadi*” tarzidagi satrlarni bitadi va bunda *boshga yong‘oq chaqmoq* iborasini qo‘llaydi.

Shoir frazeologik birliklarining ko‘pchiligi tor matniy doira uchungina xizmat qilib qolmay, balki asar g‘oyaviy mazmunini berishga ham bevosita xizmat qila olishi

kuzatiladi. Ayniqsa, shoirning “Hadisi sharif” – ko‘ngil javhari” she’rida bu hol yorqin kuzatiladi. She’rdan parcha kuzatamiz:

Ey, oyog‘ yerdan uzilgan oshnam/ Magarkim zaminga boqmasang bir qur/ Takabbur ko‘zingga tik boqib men ham/ Degayman: ”Peshonang tuproqqa tekkur!”

Xullas, Toshpo‘lat Ahmad o‘z ijodida frazeologik birliklarni she’riyat talablariga mos tarzda – ham shaklan, ham mazmunan o‘rinli qo‘llagani kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Жумаева З. Фразеологик birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi. HDA. – Jizzax, 2021.
2. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд, 2006.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. – Т. :Фан, 1964. 101-106-b.

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDAGI -la, -lan, -lash AFFIKSLI MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARINING izohli lug'ati ifodasi

Mehmonova Sojida Astanaquli qizi,

BuxDU, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrasida 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi -la, -lan, -lash affikslari bilan hosil bo‘lgan muallif nutqi neologizmlari, bu affikslarning so‘z yasashdagi imkoniyati, -la, -lan, -lash affiksli so‘zlar izohli lug'ati atroflicha tadqiq etilgan. Har bir nazariy fikr adib ijodidan olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.

Tayanch so‘zlar: lug‘aviy va nutqiy yasama so‘z, so‘z tarkibi, muallif nutqi neologizmi, yasama so‘zning ma‘nosi.

Bilamizki, ko'pgina o'zbek adiblari ijodining til xususiyatlarini turli maqsadlar asosida o'rganishga, bu borada umumiy xulosalar chiqarishga qaratilgan u yoki bu darajadagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod asarlari poetikasi va lingvistikasi bo'yicha filologik izlanishlar olib borilmoqda[7]. Biroq tilimiz (adabiy va og'zaki til)ning boy imkoniyatlari namoyon bo'lgan "Otamdan qolgan dalalar" asari, undagi nutqiy va lug'aviy vositalarning turli jilodagi qo'llanishlari tadqiqotchilarni yillar davomida o'ziga jalb etib kelayotganligini keng izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Xuddi shunday hodisalardan biri -la, -lan, -lash affiksli nutqiy yasama so'zlar (muallif nutqi neologizmlari)ning asardagi ifodasi masalasi sanaladi.

Ma'lumki, -la/-lan-lash affiksli nutqiy yasama so'zlarning semantik tahlili o'ziga xos kuzatishga zarurat sezadi. Bu so'zlar batamom yangi bo'lib, izohli va izohsiz lug'atlarda o'z ifodasiga ega emas. Shu bois ushbu so'zlarning izohlanishi o'zbek tili semasiologiyasi uchun ham ahamiyat kasb etadi.

Tog'ay Murod asarida qo'llagan nutqiy yasama so'zlar asosi anglatgan ma'no ifodasiga tayangan holda izohlab chiqishga harakat qilamiz:

Dalalamoq. Aholi yashaydigan ekin ekiladigan yer tomon yo'nalmoq, bormoq. *Bobomiz ana shu yo'ldan sahar-sahar dalalaydi. (11-bet)*

Tomlamoq. Uyning, binoning ustini bekitib turuvchi tepa qismiga chiqish. Chiqish harakati. *Hovlini aylanadi-aylanadi narvondan tomlaydi. (37-bet)*

Qiblalatmoq. Namoz o'qish yoki sig'inish paytida musulmonlar yuz o'girib turadigan tomonga yo'nalmoq, qaramoq. *Tahorat oladi. Qiblalatib belbog' yoyadi. (11-bet)*

Soyalamoq. Quyosh nuri tushmaydigan salqin joyga o'tirish, dam olish, shu harakat bilan bog'liq jarayon. *Bo'yrachi ariq bo'yida soyaladi. (13-bet)*

Zug'umlamoq. Qahr-g'azab do'q-po'pisa qilmoq. *-Oldimga tush!- deya zug'umlaydi*

Toat-ibodatlanmoq. Sig'inmoq, namoz o'qimoq, toat-ibodat qilmoq. *Osiy banda mulla Namozni oq kigizga o'tirg'izuvchi muridlari ana shu masjidida toat-ibodatlanadi (26-bet)*

Mashvaratlashmoq. Kengashda maslalatlashish, maslahat qilmoq. *General Skobelev uzangi yo'ldoshlari bilan mashvaratlashadi (26-bet)*

Ayvonlamoq- oldi ochiq bino, uy tomonga yo'nalmoq, bormoq, kirmoq. *Onamiz oyoq uchida oyoq uchida ayvonlaydi. (44-bet)*

Tonglamoq-tong, sahar uyg'onmoq. *Tonglay ayvon qarayman (46-bet)*

Ko'chalamoq- uy-hovlidan tashqari bo'lgan joy tomon yurmoq, yo'nalmoq. *Tong saharlab ko'chalayman (63-bet)*

Nishlamoq- qo'lini tepaga qaratmoq. *Direktorimiz shahodat barmog'ini shipga nishlaydi (64-bet)*

Sharaq-shuruqlamoq- ovoz chiqarmoq, sharaq-shuruq etgan tovush chiqarmoq. *Miltiq tepkisini sharaq-shuruqlatib boraman (77-bet)*

Bayonlamoq- ma'lum bir voqea-hodisani og'zaki aytmoq, bayon qilmoq. *Bajarak yumushlarimni bot-bot bayonlaydi(87-bet)*

Havorlamoq- chopmoq, tuproqni qo'zg'atmoq. *Dilnavozim bilan shudgor havorladim (107-bet) Sixmola tegmay qolmish chet-chetlarni ketmon bilan havorladim (128-bet)*

O'toqlamoq- ekin va ko'chatlar orasidagi begona o'tlarni yulib tashlashlamoq, o'toq qilmoq. *Men ko'zlarimni qisib-qisib g'o'za o'toqladim(117-bet)*

Jon omonlamoq- jonini saqlamoq, o'zini himoya qilmoq. *Men ellik daraja jaziramadan ana shu ajinlarim ostida jon omonladim (117-bet)*

Qirlamoq-atrofdagi yerlardan bir oz ko'tarilib turgan, yassi yoki salgina gumbazsimon balandlikka yo'nalmoq,harakat qilmoq. qirga chiqmoq. *Bulut qirladi (126-bet)*

Qoyalamoq- qattiq, tub jinlardan iborat tik ko'tarilgan cho'qqi, jarlik, tepalikka yo'nalmoq. *Bulut qoyaladi (126-bet)*

Adirlamoq- tog'lar yaqin tog' etaklaridagi alohida tepalik yerlar tomon yo'nalmoq. *Bulut adirladi (126-bet)*

Yerpoymollamoq- yer toptalgan, oyoqosti qilingan, yo'q qilingan. *Havo nima uchun ana shu norasidalarimni yerpoymollaydi? (127-bet)*

Xoksorlanmoq- ojiz qolmoq, o'zini kamtar tutmoq, ojizligini his qilmoq. *Men ich-ichimdan xoksorlandim (132-bet)*

Soyabonlamoq- umuman quyosh nuridan yoki yomg'irdan saqlovchi har qanday qurilma, qo'l bilan pana qilish holati. *Qo'llarini qoshlariga soyabonlab qaradi* (135-bet)

Muloyimlamoq- yumshatmoq, muloyim qilmoq. *Barmoqlarimni yer botirib-yer botirib g'o'zalarim ost-ustini muloyimladim* (138-bet)

Elaklamoq- un elash uchun ishlatiladigan, to'r qoplangan yog'och gardishidan iborat uy-ro'zg'or asbobi bilan qilingan harakat, elamoq. *Osmon misoli un elaklamish-un*

Tuproqlamoq- biron narsaning ustiga tuproq to'kish harakati. *O'ra bet-boshini sinchlab-sinchlab tuproqladi* (155-bet)

Yerlamoq - ko'mmoq. *G'o'zalarim botin yerlamadi* (159-bet)

Niyatlanmoq- maqsad, o'y, mo'ljal, o'ylab qo'ymoq, niyat qilmoq. *Saharda vaqtliroq turib devor uraman, deya niyatlandim* (178-bet)

Doriqog'ozlamoq- qog'ozdan tayyorlangan qop bilan bo'lgan harakat. *Bosh-adoq o'qariqni ana shu maqomda doriqog'ozladim* (192-bet)

Ariqlamoq - ekin ekish va sug'orish uchun ekin maydonida tortilgan maxsus suv yo'li, jo'yakda harakatlanmoq. *Suv hovuzda sharbat bo'lib adoq ariqladi* (201)

Ko'z ostimlamoq- ko'z osti bilan qaramoq. *Men shu ko'yi tag'in ohista ko'z ostimlab-ko'z ostimlab qaradim*(210-bet)

Cho'ntagimlamoq- cho'ntakka solmoq. *Rejissor o'ngyon cho'ntagimlab "Pravda" soldi, chapyon cho'ntagimlab "Sovet O'zbekistonni" soldi* (274-bet)

Umuman, asardagi -la, -lan, -lash affiksli muallif nutqi neologizmlari tuzilishi va ma'nosi o'ziga xos. Muallif nutqi neologizmlari tilimizning boyishiga o'z hissasini qo'shadi desak, adashmagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Asadov T. Mardonova S. O'zbek tilida faol so'z yasaliishi va muallif neologizmlari. Monografiya. Globe. 2021.
2. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Т.: Ўқитувчи, 2007

3. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларнинг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1974, 307 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Тошкент: Ўзб. Мил. Энцикл., 2006–2008.

NARSA–BUYUM VA MAISHIY TEXNIKAGA OID OT NEOLOGIZMLAR

Saidova Xurshida Faxriddin qizi,

BuxDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikdan buyon ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan narsa-buyum va maishiy texnikaga oid ot neologizmlar tadqiq etilgan. Shuningdek, soʻzlarning qaysi tildan kirib kelganligi va ayrim soʻzlar izohi keltirilgan. **Kalit soʻz:** oʻzlashma, neologizmlar, kalkalash, ingliz tili, rus tili, izohli lugʻat, vikipediya, brend nomlar.

“Hech qanday xalq oʻz taraqqiyoti yoʻlida boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan, ayrim holda xoʻjalikni yuritishi mumkin boʻlmaganidek, qanday boʻlmasin birorta xalqning ajralgan holda til ishlab chiqarishi mumkin emasdir”. Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishning shiddat bilan rivojlanayotganligi, koʻpgina taraqqiy etgan mamlakatlarda sodir boʻlayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari tillarning oʻzaro aloqaga kirishi ularga xos leksik fondning boyishiga zamin yaratdi. Chunonchi, narsa-buyum va texnika sohasida yangidan yangi soʻzlar kirib keldi. Ushbu soʻzlarning koʻpchiligi oʻzlashtirildi (*blender, chopper, pampers, toster, skuter, tolokar*) ayrimlari esa tarjima (kalkalash) orqali (*sok chiqargich, kir yuvish mashinasi, havo tozalagich, kiyim quritgich*) tilimizga moslashtirildi. Quyida shu sohaga doir ot leksemalar berilgan. Misollarni kuzatamiz:

Pilesos, changyutgich, robot changyutgich, kir yuvish mashinasi, sovitkich, muzlatkich, monitor, mikrotoʻlqinli pech, multivarka, suv isitkich, konditsioner, sok chiqargich, (avtomatik) suv nasosi, oyoq massajor, blender, mikser, kofe yanchgich, elektr goʻsht maydalagich, kiyim quritgich, dazmol taxtasi, barbekyu, ventilyator, havo namlantiruvchi qurilma, mini-pech, elektr choynak, tefal, termopot, multivarka, toster,

kuler, oshxona tarozisi, chopper, printer, pampers, tolokar(bolalar mashinasi), kvadrotsikl, skuter, dron, elektroskuter, smart soat, pult, nam salfetka, organayzer, konteyner, samokat, konki, brelok, girland, risovarka – guruch pishirgich, stol uchun lampa, svetilnik, so'rg'ich, tishlagich, ovqatlantirish stulchasi, xodunok, DVD, gulqog'ozlar–oboy, jalyuza, termokrujka, kolonka, dinamiklar(avtomobil uchun), kir yuvish kukuni, qon bosimi o'lchagich, tonometr, dazmol(bug'), elektr pompa, kuler, selfi lampa, elektrbuyum, Maishiy texnikaga oid so'zlarning ham ko'pchiligi ingliz va rus tilidan kirib kelgan. Ingliz tilidan kirib kelgan ot neologizmlar: toster, barbekyu, mikrovalnovka, chopper, blender, skuter, smart soat (watch)... Rus tilidan kirib kelgan ot neologizmlar: kuler, pampers, kolonka, ventilyator.... Rus tili ta'siri o'zlashma so'zlarning ko'pchiligini so'zlashuvda hech qanday o'zgarishsiz qo'llanishiga sabab bo'lmoqda: pilesos – changyutgich, “sushilka” – quritgich, “stiralnaya mashinka” – kir yuvish mashinasi, “xolodilnik” – muzlatkich, “vozdux asvejitel” – havo tozalagich, “kofevarka” – kofe yanchgich, “myasrubka” – go'sht maydalagich, “na stolnaya lampa” – stol uchun lampa, “sokovijimalka” – sok chiqargich va sh.k.

Pilesos rus tilidan o'zlashgan so'z bo'lib tilimizda muqobili sifatida changyutgich so'zi ham qo'llaniladi. So'zlashuv va badiiy uslubda pilesos variant ko'proq qo'llansa, ilmiy va OAV tilida changyutgich leksemasi muomalashgan. Lekin “O'zbek tili izohli lug'ati”da pilesos leksemasi *changso'rg'ich, kiyim-kechak, gilam, mebel kabilarni changdan tozalaydigan apparat sifatida izohi mavjud*. Changyutgich so'zi esa vikipediyada havo oqimi orqali so'rilishi sababli sirtlardan chang va ifloslantiruvchi moddalarni tozalash mashinasi sifatida izohlangan. Kuler – *ruscha, suvni filtrlaydigan, sovutadigan, issitadigan apparat*.

Tefal – *elektr toki bilan ishlaydigan, suvni tez qaynatib beradigan choynak*.

Chopper – *inglizcha “chopper” – kesuvchi, maydalagich. Oshxona texnikasi*.

Skuter – *inglizcha “scooter” – elektr transport vositasi*.

Toster – *inglizcha “toaster” elektr toki bilan ishlaydigan tekis non bo'lagini qovurish uchun mo'ljallangan*.

Chopper – *inglizcha-maydalagich, oshxona pichog'i bolta*.

Barbekyu – inglizcha “barbecue” ba ‘zan barbecue” pishirish pechi.

Smart soat – ingliz tilidan o ‘zlashgan “smart watch”

Shuningdek, Mustaqillik yillari o‘zbek tili lug‘at fondining boyib borishida respublika xalq xo‘jaligi uchun mutlaqo yangi sohalarning shiddat bilan shakllanishi va rivojlanishi kabi favqulotda muhim omillar sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. 1996-yilda Andijon viloyati Asaka shahrida Janubiy Koreyaning “DEU (DAEWOO)”avtomobil korporatsiyasi bilan hamkorlikda “O‘zDEUAvto” qo‘shma korxonasi ishga tushirildi. Buning natijasida o‘zbek tilida ushbu soha terminalogiyasi tubdan takomillashdi. O‘zbek terminologiyasi “Tiko” (Tiko), “Damas” (Damas), “Neksiya” (Neksia), “Lasetti” (Lacetti), “Matiz” (Matiz), “Spark” (Spark), “Epika” (Epika), “Kaptiva” (Kaptiva), “Malibu” (Malibu), “Kobolt” (Cobolt), “Tracker” (Traker), “Equinox”(Ekinoks) singari Respublikada konveyyerga qo ‘yilgan yengil avtomobillarning tijoriy nomini anglatuvchi atamalar hisobiga yana ham boyidi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Тошкент: Ўзб. Мил. Энцикл., 2006–2008.
2. Hamidulla Dadaboyev . O‘zbek terminologiyasi.- Toshkent, 2019.
3. www. literature. uz. Internet sayti.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.– Тошкент, 1985. 168 б.
5. Ўзбек терминологияси: бугунги ҳолати ва истиқболи. Илмий-назарий анжман материаллари.-Тошкент, 2017(лотин ёзувида).

“BOBURNOMA” ASARIDAGI ETNOOYKONIMLAR

Shabonova Guljamol Abdullo qizi,

BuxDU, Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti

gulishabonova@gmail.com

Ortiqova Aziza Bahriddin qizi,

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” asaridagi etnooykonimlar haqida soʻz boradi. Etnotoponimlar etnik nomlar asosida shakllangan joy nomlari boʻlib, ular son jihatdan koʻpchilikni tashkil etadi hamda turli geografik obyektlarning nomlari hisoblanadi. Etnonim va etnooykonimlar turli xalq va elatlarning oʻtmishini, ular amal qilib kelgan eʼtiqod va anʼanalarni anglashda katta ahamiyatga egadir.

Kalit soʻzlar: toponimika, oykonim, etnonim, etnooykonim, “Boburnoma”, urugʻ, qabila, qavm, qatlam, etnik birlik.

Toponimika xalq tarixi, tili va turmush tarzi haqida qimmatli maʼlumot beruvchi fandır. Bunda etnooykonimlar alohida oʻrin tutadi. Etnooykonimlar (urugʻ, qabila, millat, xalq nomlari asosida yaratilgan aholi punktlari nomi) tildagi eng qadimgi toponimik qatlamlardandir. Ular uzoq tarixiy davrning yodgorligi boʻlib, maʼlum xalqning tarixini, etnik tarkibini oʻrganishda, ularning tarqalish chegarasini koʻrsatishda muhim manba sifatida qimmatlidir.

Etnonim va etnooykonimlar xalq tarixi bilan bogʻliq boʻlib, ularda joy nomlarini yaratgan kishilarning maʼnaviyati, turmushi, hayoti, xarakter-xususiyati, yashash tarzining oʻziga xos tomonlari aks etgan. Etnooykonimlar turli tarixiy hodisalar, xalqlar migrastiyasi, xalqaro aloqalar, shuningdek, til taraqqiyoti bilan bogʻliq holda shakl va mazmun jihatidan oʻzgarishi mumkin.

Joy nomlari orasida etnooykonimlar oʻzining qadimiyligi va turgʻunligi bilan ajralib turadi. Etnooykonimlarning xususiyatlari haqida mulohaza yuritishdan oldin etnik nomlarning oʻzi, ularning xarakteri haqida qisqacha fikr yuritishga toʻgʻri keladi. Chunki aytilgan ikkala holat oʻzaro uzviy bogʻliq. Etnik nomlar tildagi eng qadimiy soʻzlardan hisoblanib, har bir xalqning oʻtmishi, etnografik xususiyatlarni, til tarixini oʻrganishda muhim manbalardan biri. Etnonimlar urugʻ va qabilachilik jarayoni (tuzumi)da paydo boʻlgan. Bu jarayon keyinchalik ham davom etib, bugungi kungacha yetib kelgan. Ayni vaqtda etnonimlar toponimik, xususan, oykonimik nomlarning shakllantirishga katta hissa qoʻshadigan onomastik leksikaning bir qismi [8]. Tarixiy oʻtmishda turkiy va moʻgʻul xalqlari oʻrtasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy va til aloqalari turli koʻrinish va mazmunda amalda boʻlgan. Shu sababli moʻgʻul

toponimikasida turkiy soʻzlarning yoki aksincha, turkiy toponimik nomlarda (ayniqsa qabila nomlarida) baʼzi moʻgʻul soʻzlarining uchrashi tabiiydir [2, 163].

Nom qoʻyish talab va meʼyorlari xalq, elat, qabila-urugʻlar, shuningdek, turli davrlarda bir xil asosga ega boʻlmaganligi, nomlarning esa birdaniga emas, ongli ravishda jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida yuzaga kelganligi, etnonim uchun asos boʻlgan soʻzning oʻzini asoslab aniqlash ancha qiyin. Oʻzbek xalqining tarkibiy qismini tashkil etuvchi, qipchoq, qoʻngʻirot, nayman, xitoy, jaloyir, doʻrmon, mitan, qangʻli, qarluq, barlos kabi qabila-urugʻ nomlari uchun asos boʻlgan soʻzlarning leksik maʼnosi va oʻzagi aniq emas [3, 7]. Mazkur nomlar uchun asos boʻlgan soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida isteʼmoldan chiqib ketgan yoki unutilgan. Ularning koʻpchiligi turk-moʻgʻul tillariga xos tarixiy mushtarak leksemalardir. Juda qadimdan etnik guruhlariga nom qoʻyish talablari ham rang-barang boʻlgan. Yaʼni kasbi, hunari, mashgʻuloti kabilarga tayanilgan holda urugʻ va qabilalarga nom berilganligi turli tarixiy manbalarda berib oʻtilgan. Etnonimlar turli xil usul hamda nomlanishda yuzaga kelib, keyinchalik etnik guruhlar yashagan joylar ularning nomlari bilan atalgani uchun etnotoponimlar shakllanishgan. Baʼzi qabila va urugʻ nomlari shu etnik birliklar uchun muqaddas sanalgan hayvon, qush, oʻsimlik nomlari – totemlardan yuzaga kelgan.

Tarixchi: Rashididdinning yozishicha, Oʻgʻuzxon va uning qoʻl ostidagi urugʻ shaxobchalarning har qaysisiga bittadan hayvon totem qilib belgilashgan. Abulgʻozi Bahodirxonning «Shajarayi tarokima» asarida ham har bir etnik guruhning oʻz nomi, maxsus tamgʻasi va totemi sanaluvchi qushi boʻlganligi aytib oʻtiladi. Muallifning keltirilishicha, Oʻgʻuzxonning nevaralari avlodi uchun totem hisoblanuvchi qush nomlari: *shunqor, ukki, kalxat, qirgʻiy, qizil, qargʻa, qarchigʻay* va h.k.

Totem sanalgan jonivorlar nomi asosida qadimda turkiy va moʻgʻullar orasida qabila hamda urugʻlarning nomlarini oʻzida jamlagan etnik birliklarning nomlari yuzaga kelgan. Chorvachilik bilan shugʻullangan turkiy qabila va urugʻlarning har birining maxsus belgilari, chorva mollariga xos tamgʻalari boʻlgan. Ushbu urugʻlarning tamgʻalariga qarab bir-biridan farqlashgan [6, 89]. Dastlab chorvadorlik bilan shugʻullanadigan etnik guruhlar oʻrtasida chorva mollariga tamgʻa, belgi holatlarni

o'tagan shartli belgilar keyinchalik etnik birikmalarni bir-biridan farqlash vazifasini ham bajargan. Har bir urug'ning tamg'a hamda belgisi mazkur etnik guruh uchun nom bo'lib kelayotganligini etnonimlarning majmuyi tasdiqlaydi [3, 19]. Jumladan, *Qanjig'ali, Qaychili, Beshtamg'ali, Oytamg'ali, Qo'shtamg'ali, Bolg'ali* kabi bir qancha nomlar shu tariqa paydo bo'lgan. Odatda, etnooykonimlar aholisi turli etnik guruhlarga tegishli joylarda ularga nomlar sifatida yuzaga keladi. Xalqi bir elat, qavm, urug' yo qabilaga mansub joylarda etnotoponimlarning yaratilishiga zarurat bo'lmaydi. Taniqli toponimist V.A.Nikonov ta'biri bilan aytganda, "Asosida etnonim yotgan toponimlar, agar ular chekkadagi kishilar tomonidan berilmasa, aholisi yoppasiga bir bi xalqqa mansub joylarda yuzaga kelishi mumkin emas. Bunday nomlar, odatda, etnonimlardan farq etuvchi belgi vazifasini bajargan joylarda paydo bo'ladi" [7, 3].

Bobur o'z asari «Boburnoma»da joy nomlari, xususan, aholi yashaydigan maskanlar nomini ma'lum sistema sifatida o'rganib, joy nomlarining lingvistik va nolingvistik tabiatini to'g'ri talqin etishga harakat qilgan. Bobur o'ziga xos tadqiq metodi asosida joy nomlarini tahlil qilarkan, bunda nom yasashda ishtirok etgan so'z va qo'shimchalarning arealini aniqlaydi, shu xildagi nomlar qatorini belgilab, ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Jumladan, "Boburnoma"da oykonimlar tarkibidagi etnonim va etnooykonimlar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan:

To'qboy etnonimi haqida gapirib, o'zbek urug'laridan *saroy va mang'itlarning* bir urug'i *to'qboy*, deydi. To'qboy – qishloq. Mang'it qabilasining urug'laridan biri *to'qboy* deb nomlangan. Ilmiy manbalarda yuz qabilasining urug'laridan biri *to'qboy* deb atalgan. Etnik birlik qishloq nomining yaratilishiga asos bo'lgan [9, 487-488].

Armiyon – "Boburnoma"da Andijon viloyatining Rabotak o'rchin (tuman)iga qarashli kent(qishloq) deyilgan. Bu joylarning tabiiy sharoiti qishlov uchun qulay bo'lgan. Bobur (1499-1500) 905-yili o'z cherigi bilan Armiyon va o'sha atroflarda qishlagan. "Rabotak o'rchinini Ikki suv orasi ham derlar, Armiyon va No'shob navohisida qishlamoq xayoli bila Andijondin ko'chub, mazkur bo'lgan kentlarning navohisig'a kelib qishloq solduk" (72-73-b). Bu yerda "Ikki suv orasi" deganda, Ilamish (yoki Iramish) daryosi (Qoradaryo) bilan Norin daryosi oralig'i nazarda tutilgan.

Ashporiyon – “Boburnoma”da Andijondan janubda yashovchi elat sifatida qayd etilgan va mazkur elat yashagan joylar shu nom bilan atalgan. Bobur 914- (1498-99) yili Uzun Hasan va sulton Ahmad Tanbalga qarshi kuch to'plash uchun Qosimbekni Ashporiyonga jo'natgan va mazkur elatdan o'ziga navkarlar olgan. “Qosimbekka Pashog'ariydan va yangi navkar bo'lg'onlardan va Ali Do'st bekning navkarlaridan yuzdin ko'prak kishi qo'shub, Andijonning janub tarafidag'i tog' ellariga, misli Ashporiyon va To'ruqshoron va Chakrak va ul navohilarg'a yiborildikim, istimolat bila va yo zo'r bila bu ellarni kelturgay...va ul navohidag'i tog' va tuzdagi raiyat va aymoq tamom kirdilar” [58-b].

Chagrak (Chakrak) – mahalla. Andijon shahri. “Boburnoma”da: Andijon viloyatining sahronishinlaridan bir *Chakrak* elidur, qalin eldur. Besh-olti ming uyluk el bordur. Farg'ona bila Koshg'ar orasidagi tog'larda bo'lurlar [50-b].

Chaqar – qishloq. Shahar devori ortida mustahkamlangan. S.D.Nominxanovning so'zlariga ko'ra Chakar toponimi mo'g'ul urug'laridan birining nomi bilan atalgan. Mo'g'ullarning chaxar (saxar) qabilasi ma'lum [1, 131].

Bobur yozadi: “Temurbekning nabirasi Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning tosh qo'rg'onida – Chaqarda bir madrasa solibtur”[44-b].

Koson – Qashqadaryo viloyatidagi tuman, tuman markazi, shahar. Qadimiy “Kushan” nomining (mil.av. III va milodiy IV asr) o'zgargan ko'rinishi. Qadimgi Kushan imperiyasining nomi “Kushan” urug'i (etnonim) nomidandir. Kushan etnonimining o'zgargan shakli – Koson. So'z o'rtasida sh-s, u/a-o tovush o'zgarishi yuz bergan: kushan-kusan-koson-Koson. IX asr yodgorligi “Hudud al-olan”da Kason, Somoniy va Yoqut asarlarida Koson nomi qayd qilingan.

Koson haqida “Boburnoma”da quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: “...Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur... yaxshi havoliq yerdur, safoliq bog'chalari bor.Safo va havoda O'sh bila Koson elining taasusubi bor. Nechukkim,Andijon suyi O'shdin kelur, Aysi suyi Kosondin kelur” [8-b]. Koson yonidan oqib o'tadigan suv tarmog'i, Axsikatga oqib borgani uchun Aysi suvi deb atalgan, hozirgi nomi Kosonsoy.

Shuningdek, Bobur Ko‘hi Jud tog‘ida ellardan biri jud qabilasi yashaganligini aniqlaydi va bu tog‘ shu qabilaning nomi bilan atalganligini keltirib o‘tadi: “Bu tog‘ni juda mansub qilib, Ko‘hi Jud debturlar” [204-b].

Bundan tashqari asardagi oykonimlar tarkibida quyidagi etnooykonimlar ham uchraydi: *Hindiston [7-b], Mo‘g‘uliston [13-b], Misr [48-b], Hazora [212-b], Afg‘oniston [116-b], Xitoy [117-b], Rum [117-b], Ozarbayjon [127-b]*;

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, etnooykonimlar xalq tarixi, turmushi, urf-odati, xo‘jalik faoliyati, joyning tabiiy-jug‘rofiy sharoiti bilan bevosita bog‘liqdir. Tilimiz boyligi bo‘lgan joy nomlarini yozib olish, to‘plash, ilmiy tahlil qilish hozirgi kunga qadar muhim masalardan bo‘lib kelmoqda. Ular xalqimiz aql-zakovatining mahsuli, madaniy yodgorligimiz sifatida qat’iy e’zozlanmog‘i, qadrlanmog‘i lozim.

ADABIYOTLAR

1. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. –Л., 1934. –С.131.
2. Ишаев А. Шимолий Хоразмдаги баъзи топонимик номларнинг этимологияси. – Т., 1963. –Б.163.
3. Зиётов З. Турон қавмлари. Кичик энциклопедик луғат. –Т.: Истиклол, 2008. –Б.3; 7; 19.
4. Kilichev B.E. Onomastika. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdon, 2023. –180 b.
5. Kilichev B., Shabonova G.A. “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida/“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. №18 (2023).
6. Махмуд Кошғарий Девони луғотит турк. –Т., 1960. –Б.89.
7. Никонов В. А. Топонимика в историко-географической этнографии. –М., 1964. – С.3.
8. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. –Т.: Фан, 1989. – 56 б.; Фарғона водийси этноойконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: Фан, 2000. 1-сон. –Б.20-23.

9. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. 1-nashri. –T., 2022. – B.487-488.

10. Shabonova G. (2023). "BOBURNOMA"DAGI OYKONIMLAR TAVSIFI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 43–49. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7814432>.

BOLA NUTQINING LINGVISTIK BUZILISHLARI

Nozima Obloberdiyeva

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda nutq buzilishining o'ziga xos jihatlari xususida so'z yuritiladi. Qayd etib o'tish lozimki, bolalarda kuzatiladigan nutq buzilishlarining ayrim ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan mazmuniga ko'ra hamda tabiatiga ko'ra farqlanadi. Bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarini o'z vaqtida bartaraf etish ularning kelgusida jiddiy kasallikka aylanmasligi uchun asos vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: bolalarda nutq buzilishi, jihat, kasallik, biologik buzilish, lingvistik buzilish.

Barchamizga ma'lumki, nutqning to'g'ri rivojlanishi ayrim parvarishni hamda e'tiborni talab qiladi. Nutqda paydo bo'la boshlagan ba'zi kasalliklarga o'z vaqtida diqqat qilinmasa, u keyinchalik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bolalar nutqi e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim obyekt bo'lib, uning to'g'ri tarbiya topishi, takomilga yetishi uchun ota-onalar hamda pedagoglar hamkorligi birdek lozimdir. Ushbu maqolamizda bolalarda kuzatiladigan nutq buzilishlari hamda ularning davo choralarini xususida so'z yuritiladi.

Bolalardagi mavjud nutqiy buzilish – ularning ayrim harflarni talaffuz eta olmasliklarida, nutq jarayonida duduqlanish holatining mavjudligida, ayrim so'zlarni aytishga nisbatan qo'rquv, so'z mohiyatini garchi tushuntirilgan bo'lsa-da anglamaslik va shu kabi boshqa holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, o'z tasnifiga ko'ra, bolalarda mavjud nutqiy buzilish ikki toifaga bo'linadi:

- A) Biologik buzilish;
- B) Lingvistik buzilish[3].

Bolalarda kuzatiladigan ikkinchi nutqiy buzilish bu lingvistik buzilish hisoblanib, manbalarda uning to'rt turi xususida fikr yuritiladi:

I. **Artikulyatsion buzilish** – ushbu holatda bola tovushlarni talaffuz qilish jarayonida nomuvofiqlikka yo'l qo'yadi. So'zdagi ayrim tovushlarning o'rnini almashtirish holatlari artikulyatsion-lingvistik buzilishning o'ziga xos jihati hisoblanadi. Masalan, "yostiql" ifodasi bolalar nutqida "yotsiql" holatida yuzaga kelishi mumkin. Artikulyatsion belgining ikkinchi ko'rinishi bu ayrim tovushlar talaffuzida kamchilikka yo'l qo'yish, chunonchi, ba'zi bolalar "l" hamda "r" tovushlarini talaffuz qilish jarayonida qiyinchilikka duch keladilar.

II. **Nutqiy ravonlik bilan bog'liq muammolar** – lingvistik nutqiy buzilishning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanib, bunda bola so'zlash jarayonida nutqiy ravonlikda kamchilikka yo'l qo'yadi. Bunda tovushlarning tushirib qoldirilishi, bir so'zni qayta-qayta takrorlash, uzun so'zlarni aytishda muammoga duch kelish, so'zlarning talaffuzi jarayonida nafas tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq muammolar hisoblanadi.

III. **Boladagi ovoz bilan bog'liq muammolar** ham nutqiy buzilishning lingvistik turi sifatida qayd etiladi, bunda bolaning ovozi balandlik jihatidan ham me'yorida bo'lmaydi. Ovoz tonining pastligi ushbu kamchilikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida qayd etiladi.

IV. **Til bilan bog'liq muammolar** – ushbu holatda bola o'z fikrlarini yoki ayrim ma'lumotlarni ifodalashda qiyinchilikka duch keladi yoki boshqalar tomonidan ifodalangan fikrning tushunilishi bilan bog'liq muammolar bu turning o'ziga xos belgisi sifatida ta'kidlanadi[5].

Lingvistik nutqiy buzilishning o'ziga xos salbiy oqibatlar mavjud bo'lib, eshitishning yo'qolishi, nevrologik kasalliklar, miya shikastlanishi, aqliy nuqsonlar, dorilarga mukkasidan ketish; jismoniy jihatdan kamchiliklardan esa tepa yoki pastki labning harakatsizligi, ovozning pasayishi yoki ovozdan foydalanmaslik va hokazolarni ushbu oqibat sifatida qayd etish mumkin. Jahon miqyosida nutqning lingvistik buzilishi bilan bog'liq holatlar kasalligi mavjud shaxslarning ta'limiy harakati tashkiloti tomonidan o'rganiladi hamda shu kabi kasallikka chalingan shaxslarga yordam berish borasida qator amaliy ishlar olib boriladi. Qayd etib o'tish lozimki, ushbu harakat tomonidan 2005-2006-o'quv yillari mobaynida 1.1 milliondan ortiq bolalar maxsus

ta'lim olishdi, bu tizimning asosiy maqsadi lingvistik nutqiy buzilishga ega bolalarga ruhan hamda jismonan ko'maklashish hisoblanadi.

Aytish kerakki, lingvistik nutqiy buzilishlarning ilmiy ADABIYOTLARda quyidagi ko'rinishlari ham mavjudligi qayd etib o'tiladi. Unga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:


- a) **fonologik muammolar** – so'zdagi mavjud tovushlarni talaffuz qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- b) **lug'at bilan bog'liq muammolar**, ya'ni so'zlarning anglatgan ma'nosini anglash bilan bog'liq muammolar;
- c) **so'z shaklini aks ettiruvchi** muammolar, xususan, so'zning grammatik formasi, sintaktik formasi, morfemik formasi bilan bog'liq muammolar;
- d) **nutqdagi pragmatik muammolar**, chunonchi, so'zning tor ma'nosi, diskurs, nutqiy muloqot jarayonlarini aks ettiruvchi muammolar[6].

Lingvistik nutqiy buzilishning umumiy jihatlari ham mavjuddir, ushbu muammolar yuqorida qayd etilgan muammo turlaridan qat'i nazar barchasi uchun amal qiladi:

- cheklangan nutq miqdori;
- lug'atlar xilma-xilligida cheklanganlikning kuzatilishi;
- yangi so'zlarni o'rganishda kuzatiladigan qiyinchiliklar;
- lug'atni aks ettirishda yoki so'z tanlashda qiyinchilikka duch kelish;
- gaplarning qisqa-qisqa tuzilishi;
- grammatik strukturalarning o'ta soddaligi;
- gap turlarini tanlashda xilma-xillikning mavjud emasligi;
- noodatiy so'z tartibidan foydalanish;
- so'z tartibini moslashtirishda qiyinchilikka duch kelish;
- so'zlarni, gapning sintaktik tuzilishi tushunishda kamchilikka yo'l qo'yish[5].

Boladagi nutqiy buzilishning lingvistik ko'rinishidan yana biri nutqning kech chiqishi hisoblanadi. Ushbu holatda nutqning shakllanishi odatdagi bolalardan ko'ra kechroq namoyon bo'ladi. Tilshunoslar orasida ushbu holatlar bilan bog'liq bo'lgan ayrim stereotiplar ilgari suriladi, ya'ni “o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan kechroq

gapirishadi”, “ikki tilli oilada ulg`ayish bola nutqiga ta`sir qiladi”, “ko`p gapirmaydi, ammo hamma narsani tushunadi” va hokazo tushunchalar ham nutqning o`z vaqtida shakllanishiga oid harakatlarning orqaga tisarilishiga sabab bo`ladi. Bolalarda nutqning kech shakllanishi uning nutqi chiqishi kutilayotgan davrdan kechroq chiqqanligi bilan diagnostika qilinadi. Nutqning kech shakllanishi bir qancha omillar asosida yuzaga kelib, bunda bolaning ota-onasida ham aynan shu holat kuzatilgan bo`lsa, bu tabiiy omil sifatida baholanadi hamda davo muolajalari qo`llanilmaydi, biroq jarayon nasl-nasabni taqozo etmay ayrim belgilarni namoyon eta boshlasa, bu kasallikning o`z vaqtida oldini olish shart. Ushbu kasallikning ikki xil ko`rinishi mavjud:



Ekspressiv kechikish bolalarda lug`atning o`ta qiyinchilik bilan egallanishida kuzatiladi hamda gap strukturalarini anglashda muammolar mavjud bo`lishi mumkin, bundan tashqari, nutq artikulyatsiyasida ham ushbu holatga bog`liq bo`lgan kamchiliklar ko`zga tashlanadi. Reseptiv kechikishda esa so`zni eshitish bilan, ya`ni qabul qilish hamda tushunish bilan aloqador bo`lgan voqeliklar namoyon bo`ladi. Ekspressiv va reseptiv kechikish nutq ravonligining hamda og`zaki nutq mahsuldorligining kamligida yuzaga keladi.

Yuqorida qayd etib o`tganimizdek, bolalardagi nutqiy kechikish ayrim hollarda nasl-nasabga ham bog`liq bo`ladi va uning kasallikdan farqlovchi jihatlari ham mavjud, shu o`rinda bir savol paydo bo`lishi tabiiydir, ya`ni kasallik va ushbu tabiiy holat o`rtasida qanday farq mavjud? Ba`zi tadqiqotlarga ko`ra, tabiiy holat mavjud bolalarda imo-ishoraviy harakatlar ko`plab kuzatiladi, biroq bu kasallikka chalingan bolalar esa imo-

ishoralar borasida ham sustkashlikka yo'l qo'yadilar. Bundan tashqari, og'zaki lug'at boyligini ifodalash borasida ham cheklanganlik kuzatilib, bu ham asosiy farqlovchi omil sifatida baholanadi. Qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, nutqiy kechikishi tabiiy jihatlarga bog'liq bolalar, odatda, lug'atlar moslashuvchanligini topishda ham kamroq qiyinchilikka duch keladilar. Nutqiy kechikishi kasallik sifatida baholangan bolalarda esa lug'atni to'g'ri tanlash borasida anchayin qiyinchilik yuzaga keladi, misol uchun, sog'lom bola va kasallik bilan og'rigan bola o'rtasida olib borilgan kichik tarjibaga asosan, sog'lom bolalar so'zga mos lug'atlarni tanlashda qiyinchilikka kamroq yuzlanadilar va ular so'zga mos leksik ifodani mutanosib holatda tanlay biladilar.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bolalarda mavjud biologik hamda nutqiy kamchiliklar ularning nutqining boshqa bolalarga nisbatan kechroq chiqishiga sabab bo'ladi. Ushbu holatga o'z vaqtida e'tibor qaratish hamda ehtiyot choralarini ko'rish kasallikning bartaraf etilishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М. : МГУ, 1975.
2. Фердинанд де Соссюр. Труды по языкознанию. –М., 1977.
3. Рождественский Ю.В. Типология слова. – М., 1969.
4. Кодухов В.И. Общее языкознание. – М., 2010.
5. Амирова Т., Олховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. –М., 1975.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Т., 2009.

МАКТАБДА О'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI

О'STIRISH METODIKASI

Nuriddinova Mehriniso Fathiddinovna,

BMTI akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish shakllari va metodikasi haqida gap boradi. Maktabda yosh avlodni og'zaki nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga to'sqinlik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni

yoki o'qituvchigagina bog'liq bo'lmay qoldi. Muhit, jamiyat, ommaviy axborot vositalari ham muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, bilim, ko'nikma, metodika, so'z, so'z birikmasi, gap.

O'rta umumta'lim tizimi malaka talablarida maktabda tahsil olayotgan o'quvchilarga barcha fanlardan, jumladan, "Ona tili" o'quv predmetidan berilayotgan ta'lim (tarbiya) jarayonida o'qituvchi~o'quvchi hamkorligi quyidagilarga erishishi ko'zda tutilgan:

- 1) milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash;
- 2) ona tili ta'limini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish;
- 3) o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'ar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish.[1,3]

Maktablarda "Ona tili" o'quv predmeti ta'limining asosiy maqsadini lo'nda qilib ifodalaydigan bo'lsak, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan bola: "ijodiy fikrlashi, to'g'ri so'zlashi va xatosiz yoza olishi" zarur. [3]

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920-yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi. So'ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan "Ilk qadam" tayanch dasturini o'quv jarayoniga joriy etish, nutq o'stirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq meyyorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi.

Demak, nutq o'rtirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda nutq o'rtirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim beradi.

Nutq o'rtirishda uch yo'nalish aniq ajraladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. [5]

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikaga asoslanadi.[5]

Nutq o'rtirishda to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'rtirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'rtirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.
2. Har qanday nutqning mazmuni, material bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.
3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodallasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'rtirishning uchinchi sharti –nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.[1]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ona tili mashg'ulotlari faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalashi shart. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u bolalarning kundalik oddiy salomlashishidan tortib kimga, qachon, qayerda va qanday so'zlashigacha bo'lgan nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bu madaniyat sirlari, avvalo, ona tili mashg'ulotlarida til hodisalarini o'rganish jarayonida singdiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.
2. Dilova N.G. (2021). O'quvchilarning shaxsiy sifatlari - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. Vol. 2, Issue 10
3. D. Yuldosheva. O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI. Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan darslik. 2020
4. <https://azkurs.org/taraqqiy-boshlab-bergan-yo'l-o'zbek-milliy-matbuotining-tongichi.htm>
5. Saidvoqqosova Umida Turgunpòlatovna. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES 8 (CARJIS) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda. "YANGI O'ZBEKISTONNING UMIDLI YOSHLARI" 1(3)-SON 2022-YIL 28-APREL // O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH METODIKASI.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDA QO'SHMA SO'ZLAR

Asadov To'lqin Hamroyevich,

BuxDU, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedra dotsenti, f.f.n.

Latifova Maftuna Yashin qizi,

BuxDU, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrasida 2-bosqich magistranti

latifovamaftuna186@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilshunosligida qo'shma so'zlarning tarixi, ma'no imkoniyatlari, so'z turkumlarida ifodalanishi haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Bu

borada mumtoz adabiyot matnlaridan foydalanib, qo'shma so'zlar izohlangan va dalillangan.

Kalit so'zlar: tarixiy qo'shma so'z, kompozitsiya, so'z yasalishi, murakkab son, murakkab olmosh.

Qo'shma so'z til tarixining turli davrlarida yuzaga kelgan. Kuzatishlar ko'rsatdiki, qo'shma, juft, takror so'zlarning paydo bo'la borishi soda so'zlarga qaraganda keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Qadimgi turkiy tilga oid materiallar ham buni dalillaydi. [1] Buning asosiy sababi shundaki, insoniyat ijtimoiy hayotda o'z fikrini birovga yetkazishda dastlabki davrlarda oddiy, soda til birliklaridan foydalangan bo'lsa, keyinchalik narsa-hodisalar haqidagi tushunchalari, qarashlari kengayib murakkab tarkibli so'zlarga ham zarurat seza bo'lgan. Shu hodisa turli shakldagi murakkab shakllarning paydo bo'la borishiga zarurat tug'diradi. Masalan, ko'zoynak so'zi, ya'ni qo'shma so'z paydo bo'lishi ko'z va oynak sodda so'zlardan so'ng yuzaga kelganligini payqash qiyin emas. Yoki bo'yinbog' so'zining o'zbek xalqi nutqida qo'llanila borishi juda yaqin tarix bilan bog'liq. Bu fikrni andijonnusxa, itmijoz, qozonyuvg'ich, kelintushdi, dommotsalom, Xalqobod, Yangiobod, temiryo'l, beshyillik va h. z. qo'shma so'zlar haqida ham aytish mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ko'pgina qo'shma so'zlar, ya'ni qo'shma so'zlarning son va sifat jihatdan oshishi, kundalik turmushda keng qo'llanilishi XIX asrdan boshlab kuzatiladi. Buning bir nechta sabablari bor. Birinchidan bu davrda ijtimoiy tuzumda keng o'zgarishlar sodir bo'ldi. Natijada yangi-yangi so'zlar, jumladan, qo'shma so'zlar paydo bo'la bordi. Ikkinchidan, turli yangicha fanlarning paydo bo'lishi aynan shu davrga to'g'ri keladi. Fan va kasb-kor rivoji ham u bilan bog'liq ko'plab birliklarning yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratdi. Uchinchidan, bir guruh qo'shma so'zlar rus tilidagi shu ma'nodagi qo'shma so'zlarning aynan tarjimasini o'laroq paydo bo'ldi. Bularning bari qo'shma so'zlarning lug'atimiz tarkibidan keng o'rin egallashiga zamin yarata bordi desak xato bo'lmaydi.

Qo'shma so'zlarning rivoji XX asrda ham faol kechdi. Bu esa fanlar rivoji bilan bog'liq holda ro'y berdi. Xullas, qo'shma so'zlarning shakllanib rivojlanishi davr bilan uzviy bog'liqlik tufayli yuzaga kela bordi.

Qo'shma so'zlarning mumtoz adabiyot namunalaridagi qo'llanishini kuzatish orqali amin bo'lamizki, aksariyat qo'shma so'zlar doirasida o'zlashish, ya'ni sodda so'zlar kabi qo'shma so'zlarning keng o'zlashishi uchramaydi. O'zbek xalqining yaratmalari bo'lgan qo'shma qolaversa, juft va takror so'zlar asosan X- XI asrlardan boshlab ko'paya boradi. Bu shu davrda yozilgan yodnomalarda ham kuzatiladi. Shuningdek, til tarixining eski turkiy til davriga to'g'ri keladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, qadimgi turkiy til davrida qo'shma so'zlarning paydo bo'lishi juda oz miqdorda uchraydi. Bu davrdagi qo'shma birikmalar mazmunan va shaklan to'liq shakllanib ulgurmagan edi.

Eski o'zbek tilida asosan ikki usul bilan yangi so'zlar yasalganligini kuzatishimiz mumkin: 1) morfologik usul (affiksatsiya); 2) sintaktik usul(kompozitsiya).

Sintaktik usul bilan so'z yasalihi hozirgi o'zbek tilidan deyarli farq qilmaydi. Bu davrdagi ot so'z turkumiga doir qo'shma so'zlar. Masalan:

qarabash (Taf., Rabg'uziy), shabchirag' (Navoiy), almabash, chaqirqanat, temurqanat (Navoiy), tash qonul (Lutfiy), tashbag'ir (Atoy). Bular [ot+ot] qolipi hosilalari sanaladi.

Qo'shma sifatlar qo'shma otlarga ko'ra oz uchraydi. Masalan:

qara yuzluk bashi (Navoiy), qara tamg'aliq ay (Lutfiy), ko'k yallug' bo'ri (Rabg'uziy), turluk-turluk taomlar (Rabg'uziy), qattiq-qattiq avaz ("Shajarayi turk").

Qadimgi turkiy tilda qo'shma (murakkab son) so'zning qo'llanilishi bugungi kundagidan o'zgacha bo'lganligi ko'rinadi. Masalan:

1. *Bir lak afg'an yig'ilibdur (Boburnoma)*
2. *Yuz tuman barqi bala urdun mene. (Navoiy)*
3. *sekiz on, toquz on ("Devoni lug'otit turk)*
4. *Yilg'amin sekiz yuz-u toqsan edi. (Furqat).*

Olmosh so'z turkumiga oid qo'shma so'zlar. Masalan: Ne so'roq olmoshi predmet, voqea-hodisa, hayvon, jonivorlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bu olmosh quyidagi o'rinlarda ishlatiladi: Fe'lga bog'lanib, nima olmoshi ma'nosidagi so'roqni bildiradi. Masalan:

1. *Sene ne boldi? (Tafsir)*

Ne so'roq olmoshiga et-(etmoq) yordamchi fe'li qo'shilib netti? Netar? Ne bolgay? kabi formasi hosil bo'ladi. Masalan:

1. *Ey lablari shahd-u shakarim netti ne boldi? (Atoyi).*

2. *Qara ko'l eli bila biz neteli? (Shayboniynoma).*

3. *Neter ul ag'izda muncha yalg'an? (Muhabbatnoma)*

Belgilash olmoshining murakkab shakllaridan har kim, har nima, har qanday, har qaysi ajratib ko'rsatish ta'kidlash ma'nosini ifodalaydi. Bu shakllar egalik, ko'plik, kelishik affikslari bilan ham qo'llaniladi. Masalan:

1. *Har kim ana jahd qilmish ersa, ... (Tafsir).*

2. *Har kimnin yazg'an va oqug'anig'a ko'zum tushub, ... (Furqat).*

3. *Har kimda iyman yoq, andin adamiylik kelmek yoq. (Navoiy).*

4. *Har nimege ehtiyaj bolsa, yiberurmen ("Shajarayi turk")*

5. *Alar har qaysilari bir ilmge dars aytur ekenler (Furqat)*

Bo'lishsizlik olmoshining murakkab shakllari hech kim, hech narsa, hech qaysi, hech kimse, hech kimerse shakllaridir. Bulardan hech kim shakli keng qo'llangan bo'lib, hamma davrlar uchun xarakterli hisoblanadi. Masalan:

1. *Sizin qadriniz andag', hech kim yiqmag'ay (Tafsir).*

2. *Hech kimga fayda va asar anin so'zi qilmag'ay (Navoiy).*

3. *Hech kimdin ko'mak va madadi yetishmedi (Boburnoma)*

4. *Hech kimsege dunyada anin azabi kebi azab yetmagay (Tafsir)*

5. *Tushmesun gul mavsumi hech kimse janandin (Lutfiy)*

6. *Dunyada qimay durur hech kimse mendin ko'p gunah (Atoyi)*

Hech kimerse, hech nimerse shakli XII-XIV asrlarda ancha keng qo'llangan bo'lib, keying davrlarda ayrim yodgorliklarda uchraydi. Masalan:

1. *Hech kimersanin senin birla ishi yoq turur (Tafsir)*
2. *Hech kimerse kelmegey ul nomuslman yuzig'a (Lutfiy)*
3. *Ang'a hech kimerse qol yapmasunlar ("Shajarayi turk")*
4. *Hech nimege ixtiyarim yoq turur (Navoiy)*
5. *Orduleriga yetkach hech nimega baqmay qocharlar (Boburnoma)*
6. *Men sendin hech nimerse alganim yoq (Furqat)*

Hech qaysi bo'lishsizlik olmoshi XV asrdan keying davrlarda qo'llanilgan. Bu olmosh egalik, kelishk affikslari bilan ham qo'llaniladi. Masalan:

1. *Og'lanlanlariniznin hech qaysisi sizge inanmas ("Shajarayi turk")*
2. *Hech ishqqa va hech qaysi so'zge qarar qila almaydururlar (Boburnoma)*
3. *Biz munlarnin hech qaysisini qilmaduk ("Shajarayi tarokima")*
4. *Har falakat ke, bolur dunyada*
5. *Hech qaysidin emen azada (Shayboniynoma)*

Ko'rinadiki, qo'shma shakldagi olmoshli birikmalar eski turkiy til davrida kengroq qo'llanilgan. Bu olmoshlar faoliyati qadimdan keng qamrovda bo'lganligi bilan belgilanadi.

Sintaktik usul bilan yasalgan fe'llar, ya'ni qo'shma fe'llar komponentlarning qaysi so'z turkumiga aloqador ekanligi, ma'nosi, bog'lanish yo'llariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh ot (yoki ot turkumiga oid so'zlar) + yordamchi fe'l tipidagi qo'shma fe'llar: qabul qildi/qabul etdi, tamom bo'ldi va h.k.

Ikkinchi guruhni fe'l+fe'l tipidagi analitik fe'l shakllari hisoblanadi. Bu fe'llar –a/-a (y) yoki –b/-ib// ub affiksli ravishdoshga ko'makchi fel qo'shilishi bilan hosil bo'ladi: kele bahladi, kete berdi, alib berdi, borib turdi, bara aldi kabilar. Bu turdagi fe'llar asosan harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugallanganligini, takrorlanib turish tushunchalarini ifodalaydi. Misollarda kuzatamiz. [1]

1. *Bu ayatni Makkaga iza berdi (Tafsir)*
2. *Tiliga kela bahladi (O'g'uznoma)*
3. *Tutayin deb, quva chiqim (Rabg'uziy)*

4. *Ittifaq qila almay, parishan barib (Boburnoma)*
5. *Hojalarini yibara berdilar (Shayboniynoma)*
6. *Qarindashlari ani avg'a alu bardilar (Rabg'uziy)*
7. *Tamasha ayleyu bolsun xiramin (Navoiy)*

Ravish so'zlar guruhidagi **murakkab tarkibli**, ya'ni ikki va undan ortiq tarkibli so'zlar taraqqiyoti ham o'ziga xos kechadi. Boshqa so'z turkumlarida bo'lgani kabi murakkab ravishlar ham eski turkiy til davriga kelib tarkiban va mazmunan takomillashdi. Til birliklari rivoji – zaruriy ehtiyoj bunga shart-sharoit yaratdi. Natijada tilimizning eski o'zbek tili davrida bir, har, hech, ul, bul, o'shal, kabi o'z va o'zlashma qatlam birliklari yordamida hosil bo'lgan qo'shma ravishlar paydo bo'ldi, tarkiban va mazmunan rivojlandi. Qolaversa, juft va takror ravishlar ham yuzaga kela bordi. Misollarni kuzatamiz. [1]

1. *Bir lahza sensiz sabr yo'q. (Lutfiy)*
2. *Har kecha yuzin yodi birla yig'laram. (Lutfiy)*
3. *Bu kecha Karmanada qo'narlar. (Bobur)*
4. *O'shal vaqt mening xotiramg'a yetti kim... (Bobur)*
5. *Hech zamonda hech kim eshitkan va ko'rgan yo'qtur. (Abulg'oz Bahodirxon)*
6. *Erur ahvoli kundan-kunga behbud. (Furqat)*
7. *Qazar erdi ariqni kecha-kunduz. (Navoiy)*
8. *Oz-oz organib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. (Navoiy)*

Manbada aytilganidek, eski o'zbek tilida juft va takror ravishlarning ko'pchilik qismi ot turkumidagi so'zlardan hosil bo'lgan. Fe'l, sifat, son, ravish, olmoshlardan hosil bo'lganlari kam kuzatiladi.

Xullas, murakkab ravish so'zlar taraqqiyoti, odatda, eski o'zbek tili davri bilan belgilanadi. Sodda tarkibli ravishlar singari qo'shma, juft va takror ravishalar ham ma'lum bir taraqqiyot davrini bosib o'tgan. Sodda tublashgan ravishlarning bir qismi qadimgi turkiy til davridanoq shakllanib ulgurgan bo'lsa, murakkab ravishlar keyingi davr mahsuli sanaladi. Qo'shma fe'l,.. ot shakllaridan farqli ravishda tarkibli ravishlar nisbatan keyingi davrlarda paydo bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1973.
2. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. –Т.: “Фан”, 1975.
3. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т.: “Ўқитувчи”.

TARIXIY ASARLARDA TOPONOMIK PERIFRAZALAR

To'xtayeva Zaynura O'ktam qizi,

BuxDU, Lingvistika: O'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada tarixiy asarlarda qo'llanilgan toponimik perifrazalar o'rganilgan hamda tahlil qilingan. Shoh va shoir, qomusiy olim, tilshunos Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarlarida qo'llanilgan toponimik perifrazalarga murojaat qilingan bo'lib, ushbu asarlarda qo'llangan toponimik tushunchalarni ifodalagan yangi perifrazalar aniqlangan.

Kalit so'zlar: lingvistika, til, tilshunoslik, tafakkur, tarix, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, “Boburnoma”, “O'tkan kunlar” perifraza, izoh, lug'at.

Mamlakatimizda “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy” [1] bo'lgan hozirgi bir sharoitda ishlab chiqilgan toponimika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi. Shu kabi talab va ehtiyojlar natijasida o'zbek tilshunosligida xalq tarixi, qadriyati, an'ana va urf-odatlarini o'zida to'liq ifodalovchi lisoniy birliklar – toponimlarni ayniqsa, tarixiy asarlarda joy nomlarini perifrazalab nomlash va bu birliklarni lingvistik tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lum bir predmetlarni perifrazalab nomlash kecha paydo bo'lgan tushuncha emas. Jumladan, tarixiy asarlarda ham hududlarni esda qolarli bo'lishi, shu hududning boshqa hududlardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish uchun ham perifrazalab nomlashga ehtiyoj tug'iladi. Zahiriddin Muhammad Boburning

“Boburnoma” asarida ham joy nomlari perifrazalab atalgan. Bobur Mirzo, ayniqsa, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati, ijodkorligi uning serqirra iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Shu orqali Boburning tildan foydalanish mahorati, til xususiyatlarini anglash mohiyatini ko‘rish mumkin. Jumladan,

Kamoni chochiy – Toshkent

Oxir navbat kelaturgandakim, ul fursatda Toshkent viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh biturlar, ba’zi Choch biturlarkim, “kamoni chochiy” andin iborattur, berdi [4,9].

Ajab orasta shahar – Samarqand

Samarqand shahri ajab orasta shahredur, bu shaharda bir xususiyati borkim, o‘zga kam shaharda andoq bo‘lg‘ay [4,46].

Yaxshi viloyot – Buxoro

Yaxshi viloyoti va tumonoti bor. Ulug‘ viloyatkim, Samarqand qarinasidur, Buxorodur [4,46].

Tuz yer – Dahkat

Dahkat tuz yer uchun Obburdan daboni bila Mascho ko‘histonig‘a oshtuk [4,89].

Ma’lumki, o‘zbek tili o‘zining so‘zga boyligi, serqirraligi bilan ajralib turadi. Qomusiy alloma Zahiriddin Muhammad Boburning til mahorati, yorqin iste’dod egasi ekanligi, lingvistik bilimlar sohibi ekanligi anglashiladi. «Kamoni chochiy» – Toshkent, latif shahar, baldai mahfuza – Samarqand, bisyor oliy imorat – Ko‘ksaroy, Samarqandning tosh qo‘rg‘oni – Chaqar, ajab orasta shahar – Samarqand, muhaqqar va muxtasar viloyat – Hisor viloyati, muhaqqar yer Xo‘jand, ikki suv arosi – Rabotak o‘rchini, tuz yer – Dahkat kabi perifrastik birliklar qatorini uzoq davom ettirish mumkin.

Yuqorida joy nomlari (toponimlar) viloyat, shahar nomlari perifrazalangan bo‘lib, badiiylashtirib tasvirlangan. “Boburnoma”dagi toponimlarning paydo bo‘lishi ma’lum bir sabab va qonuniyatlar asosida ro‘y bergan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hududdagi geografik obyektlarning nomlari biror sabab, yoki biror asosning natijasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” asarida ham joy nomlari bilan bog‘liq toponimik perifrazalar qo‘llangan. Jumladan:

Yer yuziga dong chiqargan – Turkiston, Buxoro

O‘zining eski mahramiga ko‘ngli to‘lmay boshqa bir o‘yinchi, ashulachi, husndor bir mahram topmoqchi va o‘zining bu mashhur mahrami bilan yer yuziga dong chiqargan shaharlarda (Turkiston va Buxoroga) shuhrat chiqarmoqchi! [2,122].

Hindilar makoni – Marg‘ilon

Nima qilmoq kerak? Toshkandda birarta hindi domlasi yo‘qki, ilojini qilib bersa....Endi xotin boshi bilan, hindilar makoni – Marg‘ilonga borib, murojaat qilsunmi? [2,186].

Faqirlar dargohi – Xo‘ja Muoz

Chindan ham u o‘zini tanilmaslik darajada oldirg‘an, o‘lat tekkan kishilardek ko‘zlari ichiga cho‘kib ketkan edi. Kirtaygan ko‘ziga kuch bilan kulgi berdi.

– “Xo‘ja Muoz”ga borg‘an edim. ...Faqirlar dargohi.

–Nima uchun?

–Tunashka [2,266].

Xulosa sifatida keltiriladigan bo‘lsa, A.Hojievning «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati»da «Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma’lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom» [3] tarzidagi qarashlari, perifraza tog‘risida keltirilgan izohi tahlilga tortilgan misollar bilan mutanosiblik hosil qiladi. Til tarix bilan tarix esa til bilan bog‘liq jarayondir. Asarda o‘nlab fanlarga oid ma’lumotlar saqlanishi bilan birga undagi til xususiyatlari tilshunoslikka oid ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirganligidan dalolat beradi. Perifrastik birliklarning keng doirada qo‘llanilishi nutqni ta’sirli va maqsadli yo‘naltirish vazifasini bajarish lozimligi va shu bilan bir qatorda perifrazalarga o‘sha davrda ham murojaat qilishga ehtiyoj mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 5850-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. 2019 yil, 21 oktyabr. // lex.uz.
2. Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar". – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2016. – B. 455.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B. 367.

BUXORONING TARIXIY INSHOOT VA O'SIMLIK NOMI BILAN BOG'LIQ GODONIMLARI

Uchqunova Aziza Sulaymonovna,

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida magistranti

a.s.uchqunova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur axborotda o'zbek tilida toponimlar, Buxoro shahridagi ko'cha nomlari (godonim), xususan, tarixiy inshoot va o'simlik nomi bilan bog'liq godonimlar, ularning mazmun-mohiyati, etimologiyasi haqidagi ma'lumotlar misollar asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: toponim, toponimiya, urbonim, godonim, inshoot, o'simlik bilan bog'liq godonimlar.

Har qanday tilning lug'aviy sathi davrlar o'tgani sari boyib boradi. Tilda biror so'z paydo bo'lishi bilan birga uning semantikasi ham o'zgarib, shakllanib va qat'iylashib boradi. Xuddi shunday har qanday tilning toponimiya tizimi ham ma'lum bir davrninggina, ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas. Toponimiya til onomastik tizimining ko'p asrlik rivoji mahsulidir. Ular orqali o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning turmush tarzini, maishiy hayotini, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi – migratsiyasini bilib olish mumkin. Bu haqida biz oldingi ishlarimizda ham to'xtalib o'tganmiz.

Ma'lumki, Buxoro O'zbekistonning eng ko'hna shaharlaridan biri sanaladi. Ushbu maskan qadimiy, ilk va o'rta asrlarda qurilgan me'moriy yodgorliklarga boydir. Ushbu yodgorlik nomlarining joy nomlariga ko'chishi esa ularning hududda mavjudligini bilish, aholi tilida tez-tez qo'llanishi orqali tariximiz, ajdodlarimizni eslash kabi jihatlarga yo'l ochadi.

Buxoro shahar hududi misolida oladigan bo'lsak, tarixiy inshoot nomlari berilgan godonim, ya'ni ko'cha nomlari talaygina. Masalan, "Chor Minor" ko'chasi. Bu godonim Xalifa Niyozquli tomonidan 1807-yilda bunyod etilgan Chor Minor me'moriy obidasi nomi bilan ataladi. Ushbu obidaning o'ziga xosligi shundaki, u to'rtta minora bilan o'rab olingan O'rta Osiyodagi yagona inshoot hisoblanadi. Nom tarkibidagi "chor" so'zi forsiydan to'rt raqamiga ishora. U o'z davrida masjid, madrasa, darveshlar va musofirlar tunab qolishi mumkin bo'lgan xonaqoh vazifasini bajargan.

Shahar hududida "Poyi Kalon" ko'chasi ham mavjud bo'lib, ushbu godonim Buxorodagi eng mashhur inshootlardan – Minorayi Kalonning ikkinchi nomini bildiradi. O'z vaqtida Minorayi Kalon yuqoridan kuzatish va din ishlari, xususan, aholini Poyi Kalon masjidiga bayram namozlariga chaqirish uchun xizmat qilgan. Ayrim manbalarda Buxoro amirligi davrida bu yer tomoshaviy qatl joyi bo'lgan, degan farazlar ham uchraydi. Godonim tarkibini tahlil qilsak, "poy" so'zi "uzvi badani inson va hayvon", ya'ni inson va hayvon tana a'zosi [16;104]. Aniqrog'i, minoraning pastki qismi, atrofi nazarda tutiladi. "Kalon" so'zi esa forsiy tilda "hajman va miqdoran buzurg, azim" [16;582] deya izohlanadi, ya'ni katta degani.

Bundan tashqari, "Machitibaland" ko'chasi ham mavjud bo'lib, tarixiy joy nomi sharafiga qo'yilgandir. Machitibaland, ya'ni Baland machit. Ko'chadagi VI asrga oid masjid baland asosga, yerdan baland qilib qurilgani guzarning shu nom bilan atalishiga sabab bo'lgan. Masjid oldida sakkiz hujrali kichik madrasa qad ko'tarib turgan [15;157]. Godonim tarkibidagi "machit" so'zi aslida masjid bo'lib, talaffuz o'zgarishi holati mavjud.

"Oqmasjid" godonimi ham bir qadar tarixiy bo'lib, hududda qurilgan masjid sharafiga qo'yilgan nom hisoblanadi. Ayrim manbalarda bu masjidida zamonasining eng badavlat

kishilari, rahbarlik lavozimidagi insonlar namoz amallarini ado etishgani e'tirof etiladi. Buxoroda shu nomdagi qabriston ham bor.

Yana bir inshoot nomi bilan bog'liq godonim "Quyri xonaqo" deb yuritiladi. Ushbu joy aholisi qadimda savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ko'chada katta masjid-xonaqoh, uning orqasida esa XVI asrda yashagan mudarris Sadri Badri Maydoniyning qabri mavjud. Qabr ziyoratgoh hisoblanadi. Nomi 1855-yilda yozilgan vaqf yorliqlarida tilga olinadi.

Bundan tashqari, shaharda "Kunjiqal'a", "Ko'ksaroy", "Toshko'prik" kabi tarixiylik kasb etgan ko'cha nomlari ham bo'lib, hududda mavjud ko'hna inshootlarning borligini, bo'lganligini eslatib turadi.

"Osmon ostidagi muzey" maqomiga munosib shahrimizda qad rostlagan me'moriy obidalar va 11 darvozasining dong'i butun dunyoga mashhurdir. Hozirgi kunda ushbu darvozalarning sanoqlisi saqlangan. Ko'chalariga berilgan "Qarshi darvozasi", "Darvozayi Sallohxona", "Darvozayi O'g'lon" kabi nomlar o'sha inshootning bevosita xarita vazifasini o'tashi, aholi tilida esa doim yangrab, yod etib turilishi maqsadida qo'yilgan bo'lsa, ajabmas. "Darvozayi Sallohxona", "Darvozayi O'g'lon" godonimlari o'zbek tilida Sallohxona darvozasi, O'g'lon darvozasi deyiladi. So'zlarning o'rin almashishi tojik tili ta'siridadir.

Buxoro shahar hududida o'simliklar bilan bog'liq va yangi nom sifatida e'tirof etiluvchi ko'cha nomlari ham mavjud bo'lib, "Lolazor", "Olmazor", "Tutzor", "Shaftolizor" godonimlari shular jumlasiga kiradi. Ushbu nomlar tarkibini o'simlik nomiga -zor qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan deya tahlil etish mumkin. Yoki "ot+zor" tarzida hosil qilingan. "Quyri daraxt", "Chinor" kabilar esa nisbatan tarixiylik kasb etib, xususan, "Quyri daraxt" ko'chasi – "daraxtlari ko'p joy" ma'nosida keladi. Ko'chada bosh kiyim tikuvchilar, qisman zargarlar, savdogarlar, amir amaldorlari, mashhur mudarrislar, munshiylar istiqomat qilishgan. Ko'cha nomi XVI asr hujjatlarida uchraydi [15, 187-188]. Bugun Buxoro eng ko'hna shaharlar qatorida qadrlanadi. Aslida bunday sharaf ming yillik obidalar, eng buyuk insonlar maskani ekanligi sharafidir. Sayyohlar ham ayni shunday o'rta asrlar tipini saqlab qolgan qadimiy shahar tomoshasiga

oshiqadilar. Shunday ekan, biz ham tarixda mustahkamligi sabab mis va bronzaga qiyoslangan, hozirda esa oltinga barobar ko'hna kent madaniyatini, undagi qadimiy nomlarni ko'z qorachig'idek asrashimiz, saqlab qolishimiz darkor. Zero, toponimik materiallar shaharning o'tmish tarixi, umumiy hududi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, harbiy salohiyati, etnografik ma'lumotlarni bilishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –T.: Navro'z, 2020. – 120 b.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. –Б.26.
- Kilichev B.E. Onomastika. O'quv qo'llanma. –Buxoro, Durdon, 2023. – 180 b.
3. Киличев Б.Э. Топонимлар таркибидаги сонлар ҳақида // “Ilm sarchashmalari” Urgench, 2021, 3-son. –В.148-151.
4. Kilichev B.E., Timur Khojaoglu, Nodira Adizova Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region)/ International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16.
5. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym/ Central asian journal of literature, philosophy and culture. Volume: 03 Issue: 05 May 2022.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
7. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.
8. Kilichev B.E., Bafoyeva N. A. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel “Bygone days” Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.
9. Kilichev B.E A way of making words on proper nouns// International Journal on Integrated Education Volume 3, Issue II, Feb 2020. p. 96-98.

10. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.

XXI ASR VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGI RAVNAQI

Qahhorova Dilbar,

BuxDU, lingvistika (o'zbek tili) 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada XXI asr o'zbek tilshunosligi va uning fanlar bilan integratsiyasiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lison, nutq, integratsiya, sistema, tadqiqot, grammatika, zohiriy, botiniy

Bugungi shiddatli zamonda fan-texnika tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga barcha fan sohalari kabi tilshunoslik sohasi ham keng taraqqiy etyapti. XX asrda tilshunoslikda til va nutq dixotomiyasi, tilning lisoniy tizimdagi grammatik imkoniyatlari, til- lison va nutq yaxlitligidagi murakkab butunlik, lison nutqda me'yor asosida voqelanishi, nutq uchun asos bo'lib xizmat qilishini zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar va metodlarga asoslangan holda tadqiq etish hamda tilni sistema sifatida o'rganish borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar markazidagi asosiy izlanishlar sistem-struktur yondashuv asosida olib borilishi natijasida til birliklarini zamonaviy metodologik tamoyillarga tayangan holda tavsiflash, ularni tashkil etuvchi birliklarining lingvistik tabiatiga xos aniq nazariy xulosalar chiqarish zaruriyati yuzaga keldi. [3]

Har qanday tadqiq manbayini o'rganish asosan ikki xil metodologiya-emperik(fahmiy) yoki nazariy(idrokiiy) asosdan birida amalga oshirilishi mumkin. Fan uchun ikkalasi ham muhim. Chunki birinchisida o'rganish obyektining zohiriy belgi-xususiyati tadqiq etilsa, ikkinchi metodologiya asosida botiniy mohiyati tadqiq qilinadi. Ikkinchi metodologiya asosidagi tadqiqot fahmiy tadqiq natijasiga tayanibgina ish ko'radi. [3]

Har qanday hodisada zohiriy va botiniy jihat farqlanishi bilan birgalikda, hodisaning o'zi ham xilma-xildir. Bu esa unga yondashuv ham turli-tuman, qo'lga kiritilgan xulosa ham rang-barang, hatto biri ikkinchisini inkor qiladigan darajada bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ilmiy talqindagi xilma-xillik esa o'rganilayotgan

obyektning har tomonlama tadqiq qilingani, unga turli tomondan yondashilayotganidan dalolat beradi.

XXI asrda substansial yondashuvda, asosan, lison va nutqni farqlash natijasida lisonni tadqiq qilishga e'tibor qaratildi, desak xatò bo'lmaydi. O'zbek tilini yaxlit sistema sifatida o'rganish tilshunoslikni taraqqiyotning yangi darajasiga moslashtirdi. Ta'kidlanganidek, “Endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirishdir”. [1] Jumladan, o'zbek tilshunosligi XXI asr bo'sag'asida o'z zimmasiga yangi ijtimoiy vazifani oldi. Endi bugungi davr tilshunoslarga ona tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlash muammosi bilan shug'ullanishga jiddiy kirishishni taqozo etmoqda. Bu esa til imkoniyatlarining yuzaga chiqishini ilmiy tekshirishga zarurat borligini ko'rsatadi.

Amerikalik olim Krestofer Fort o'zbek tilida yozgan “O'zbek tili XXI asrda” maqolasida: “Navoiyning vafot etganidan besh yuz yildan ortiq vaqt o'tganiga qaramay, uning so'zlari va keltirgan dalillari hali ham o'z isbotini topmoqda. Biz, albatta, globallashtayotgan dunyoda yashaymiz. O'zbek tiliga qaraganda jahon bo'ylab keng tarqagan tillar – masalan, ingliz, fransuz, rus yo xitoy tili ko'proq ijtimoiy harakatchanlik imkoniyatini beradi. Tarix va mustamlakachilik natijalari shular taqdirga tan berishiga to'g'ri keladi. Ammo bu zamonaviy fakt Navoiy merosiga ziyon yetkaza olmaydi, chunki Navoiy ijod qilgan turk tili va hozirgi o'zbek tili o'ziga xos husn va lakunalarga ega.

O'zbek tilining o'ziga xosligi haqida so'z borganda, ko'p mualliflar tilning lug'atidagi durlarni ko'rsatib o'tadilar. Masalan, “zavol” so'zi boshqa tillarda yo'q. Mabodo “zavol” haqida aytilmasa, o'zbek tilining benazir maqollari to'g'risida gapiriladi.

Shaxsan meni esa lug'aviy so'zlar emas, balki o'zbek tilining sintaksisi yoki so'zlar tartibi ko'proq qiziqtiradi. Ona tili ingliz tili bo'lgan mendek odam uchun o'zbek tilining so'zlar tartibini o'rganib olish juda qiyin bo'lgan va bu so'zlar tartibi meni nafaqat gaplarni boshqacha o'ylab tuzishga, balki men kuzatgan dunyo va gaplashgan odamlarga boshqacha nuqtayi nazardan qarashga majbur qiladi. O'zbekchada gapirsam,

shunday aytishim mumkin, o‘zimni boshqa odamdek his qilaman. Bu tilda o‘ziga xos go‘zallik bor.

O‘zbek tilining sintaksisdagi husni men uchun subyektiv hissiyot hamdir. Tildagi so‘zlar tartibi quloqqa yoqadigan simmetrik kuy tuzadi. Biron gap “men”dan boshlansa “man” bilan tugaydi, “sen”dan esa “san” bilan tugaydi va hokazo. Bu tabiiy simmetriyadan o‘zbekchada har bir gapda to‘lalik yo tugallash hissi bor.

Hazrat Navoiy bu xushohanglikni, shubhasiz, sezgan bo‘lsa kerak, chunki ushbu o‘ziga xos ovoz uning turk tilidagi g‘azallari va ruboiylarida betakrorona ifodalanadi”- deya o‘zbek tiliga yuksak baho berishi ham bejiz emas.

XXI asr jahon tilshunosligida tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvini kuzatishimiz mumkin. Bu integratsiyalashuv natijasida sotsiolingvistika, antropolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, areal lingvistika, onomastika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi qator sohalar rivojlanmoqda, yangidan yangi nazariyalar, yo‘nalishlar shakllanmoqda. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ham qator tadqiqotlar olib borilib, tilimizning boyligi, kuch-qudrati, ifoda imkoniyatlari, o‘ziga xos jihatlari, serqirraligi har tomonlama ochib berilmoqda. Mamlakatimizda ona tilimizning rivoji, taraqqiyotini yanada yuksaltirish uchun ko‘plab ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Jahon minbarlarida o‘zbekcha so‘zlar, madhiyamizning yangrashi bu kabi ishlarning yanada ko‘proq amalga oshirilishiga turtki bo‘lyapti. Bu esa XXI asr o‘zbek tilshunoslaridan yanada ko‘proq mas‘uliyat va izlanishni talab qiladi. Chunki davlat tili bo‘lgan o‘zbek tilimizni yuksaltirish, uning imkoniyatlarini barcha sohalarda namoyon qilish har bir tilshunosning muqaddas burchi hisoblanadi. Zero, yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma‘naviy boyluk, buyuk qadriyatdir. Ma‘naviy boyligimiz, buyuk qadriyatlarimizni kelgusi avlodlarga yetkazish esa har birimizning muqaddas burchimizdir. O‘zbek tili qadimiy va boy tarixga ega. O‘zbek tilshunosligi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turli davrlarda turlicha yo‘nalishlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga guvoh bo‘lamiz.

XX asr o'zbek tilshunosligida asosan grammatikaga e'tibor qaratilgan va ko'plab ishlar olib borilgan bo'lsa, XX asr oxiri, XXI asr boshlariga kelib, professorlar H.Ne'matov, G'.Zikrillayev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, Sh.Shahobiddinova, M.Abuzalova, B.Bahriddinova, filologiya fanlari nomzodlari I.Madrahimov, S.Nazarova, Sh.Akramov, O.Shukurovlarning ishlari va boshqa ko'plab tilshunoslarning tadqiqotlarida lingvistikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasiga ko'proq diqqat qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda soha lingvistikasiga ham katta e'tibor qaratilib, tilshunoslikning, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar: falsafa, mantiq, tarix, etnografiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, adabiyot bilan munosabatlari ham o'rganilmoqda. Ayniqsa, tilshunoslik va tabiiy fanlar integratsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki bugungi inson qadri oliy o'ringa ko'tarilgan davrda inson salomatligi uchun so'zlarni to'g'ri va o'rinli qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tilshunoslar oldiga tibbiyot va lingvistika aloqadorligiga oid ko'plab ilmiy izlanishlarni olib borish kabi mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

Demak, inson omiliga alohida e'tibor qaratilayotgan hozirgi zamonda har bir fan, har bir soha inson uchun xizmat qilishi kerak. Maqsadimiz qaysi kasb sohasi bo'lishidan qat'iy nazar tilshunoslikning ta'sirini, ahamiyatini namoyon qilish, har qanday holatda tilshunoslikka murojaat qila olishini bildirish va eng asosiysi o'zbek tili mavqeyini oshirish.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: ЎзМЭ, 2013.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Замонавий ўзбек тили. Морфология. Дарслик.– Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.

5. Abuzalova M. Substansial morfologiya, valentlik va gap qurilishi talqini. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. (Kirish. Fonetik sath, lek-sik-semantik sath). Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.

SINONIMLARNING MA'NO XUSUSIYATLARI (SIROJIDDIN SAYYID SHE'RLARI MISOLIDA)

Rustamova Muhayyo Saidovna,

BuxDU, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası magistranti

[*m.s.rustamova@buxdu.uz*](mailto:m.s.rustamova@buxdu.uz)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid she'riyatida sinonimlarning qo'llanishi va shoir ijodida ma'nodosh so'zlarning badiiy samaradorligini oshirish jihatlari, shuningdek adibning leksik, semantik sinonimlardan foydalanish mahorati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sinonim, leksik sinonim, ma'noviy sinonim, badiiy tasvir, uslubiy xususiyatlar, dominan so'z.

Dunyo tilshunosligida ma'nodosh so'zlar qatlami har bir til leksikasining boylik darajasini ko'rsatib beradi. Tilda bunday birliklarning ko'p bo'lishi nutqimizning ravonligi va so'zlarning takrorlanmasligini ta'minlaydi.

Sinonimlarni o'rganish dastlab faqat leksik sathda bo'lib, "...odatda, bir xil ma'noli so'zlar", "bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar", "yaqin, yoki bir ma'noli so'zlar" sifatida ta'riflanadi" [4, 109]. O'zbek tilshunosligida sinonim hodisasiga berilgan ta'riflarga e'tibor berilsa, ularni belgilashda dastlab leksemalarning ma'no jihatidan bir xilligiga [1, 5], so'ngra ma'nolarning umumiylikiga [10, 45], keyinchalik esa ma'noviy o'xshash (aynan)likka [5,55] asoslanishi kuzatiladi. XX asrning 70-yillariga qadar sinonimlik hodisasini ma'noning aynan bir xilligi bilan belgilangan bo'lsa, 80-yillarga

kelib esa soʻzning semantik strukturasi Sh..Rahmatullayev, H.Nematov, E.Begmatov, R.Rasulov kabi olimlarimiz tomonidan oʻrganila boshlandi [9, 18].

Sinonimiyada ideografik va uslubiy sinonimlar farqlanadi. Ideografik sinonimlar ayrim semalari bilan bir xil boʻlsa-da, ayrimlari nuqtayi nazaridan ajralib turadi. Masalan, olam, jahon, dunyo. Bunda dunyo soʻzi oʻziga turli aniqlovchilarni olib kengaya oladi.

Uslubiy sinonimlar oʻzining uslubiy boʻyogʻiga ega boʻlib, soʻzlovchining munosabati ifodalab turadi. Masalan, kulmoq, tabassum qilmoq, tirjaymoq, ishshaymoq, qah-qah urmoq.

Oʻzbek tili sinonimlarini tadqiq etishga bagʻishlangan ilmiy ADABIYOTLARda ushbu hodisani talqin etishning turli aspektlari va munosabat yoʻnalishlari belgilangan. Ularni guruhlashda turlicha nuqtayi nazarlar mavjud [7, 136-137; 8, 116]. Ular maʼlum maʼnoda sinonimlarning u yoki bu turlarini ochib berish uchun imkoniyat yaratadi.

Badiiy matndagi maʼnodosh soʻzlar tahlilida asosan ikki jihatga eʼtiborni qaratish lozim: 1) yozuvchining ikki yoki undan ortiq maʼnodosh soʻzdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlash; 2) matn tarkibida ikki yoki undan ortiq maʼnodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uygʻun holda qoʻllash. Tilshunoslikda maʼnodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi: 1) leksik maʼnodoshlik; 2) frazeologik maʼnodoshlik; 3) leksik-frazeologik maʼnodoshlik [2, 31].

Leksik maʼnodoshlik soʻzlarning takrori natijasida yuzaga keladigan uslubiy xatolarni oldini olish, emotsional-ekspressivlikni taʼminlash, badiiy tasvirni kuchini oshirish kabi bir nechta maqsadlarda foydalaniladi.

Sirojiddin Sayyid asarlarida qoʻllanilgan sinonimlar doirasi juda keng. Ushbu maqolada shoirning sinonimlarning qoʻllash mahoratini koʻrib oʻtamiz.

Menga xanjar bilan shamshir tigʻiga hargiz hojat yoʻq,

Uzun mijgonlarini gar nigorim bir qadab qoʻysa (“Mening shoirligim orzu...” 6-bet).

Ushbu misrada xanjar (ikki tomoni tigʻli qurol) va shamshir (qilich) soʻzlari sinonimik qatorni hosil qilgan.

Kimlar yashar edi xalifalarday,

Orol qurir edi – chorasiz, abgor. (“Hayot ko‘zgusi” 20-bet).

Shoir she’rda chorasiz (mushkul, noiloj ahvolga tushib qolgan; nochor, bechora) va abgor (nochor holatli, ahvoli xarob) sinonimlarini ketma-ket keltirish vositasida emotsional-ekspress bo‘yoqning kuchaytirikishiga erishgan.

Senda yo‘rgaklandi qanchalar adib,

Ne-ne shoirlarning tilagi bo‘lding.

Ma‘rifat tarqatib, ziyo tarqatib,

O‘zing ham yurtning bir bo‘lagi bo‘lding. (“Hayot ko‘zgusi” 21-bet)

Ushbu she’rda ma‘rifat va ziyo (yog‘du, yorug‘lik nur) so‘zlari sinonimlikni hosil qilgan.

Adolatning qo‘li baland kelsa gar,

Razolat doimo tuban, pastdadir. (“Ulug‘roq ish bormi elning tinchidan” 22-bet).

Tuban so‘zi quyi, past degan ma‘nolarni bildirsa shoir razolatning tasvirini kuchaytirish maqsadida pastda so‘zini ham yonma-yon keltiradi.

Fasllar ketdilar –yoz-u qish, ko‘klam,

Umlar o‘tdilar – ro‘yomi yo tush.

Faqat kimlarnidir chaqirib, yo‘qlab,

Bo‘zlab qolaverdi bunda bir haqqush. (“Do‘rmondagi haqqush” 29-bet).

Shoir ushbu she’rda chaqirib (nomini aytish chaqirish yoki biror xatti-harakat vositasida muayyan joyga kelishga undamoq, chorlamoq) yo‘qlab (hol-ahvol so‘ragani bormoq yoki kelmoq) kabi leksemalar orqali sinonimlikni hosil qilgan.

Elning xavotir-u og‘riqlaridan

Yupanch, tasaliday bunyodga kelding. (“Toshkent oqshomi”ga 39-bet).

Adib she’rlarida qo‘llanilgan ma‘nodosh so‘zlarning aksariyati yonma-yon qo‘llangan. Bu esa she’rdagi lug‘aviy birliklarning ta’siri kuchini oshirgan. Yuqoridagi she’rda ham yupanch (yupantiruvchi, ovuntiruvchi sezgi, his-tuyg‘u) va tasalli (yupantiruvchi, taskin beruvchi gap-so‘z, xatti-harakat va sh.k.) so‘zlari yordamida sinonimik qator hosil qilingan.

Shoir she'rlarida el – millat – xalq (“Bevafolik” 36-bet), g‘urur – iftixor; tiriklik – umr; tanho – yagona (“Izhor” 38-bet), g‘alla – don, amir – bek, mehnat – zahmat (“Furqat bobo va fermerlar qissasi” 44-bet), karam – inoyat – insof (“Eski ertak” 54-bet), quyosh – mahtob (“Musofirlar” 68-bet), ulgur – intil (“Xavotir” 70-bet) falak – ko‘k; irjaymoq – hiringlab – tirjaymoq (“Somonchilar” 71-bet), xalta – qop; falak – charx – ko‘k (“Tegirmonchi” 75-bet) va boshqa sinonimik qatorlarini uchratamiz.

Ma‘nodoshlikning yana bir turi bu kontekstual ma‘nodoshlikdir. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo‘lgan, tayyor ma‘nodosh so‘zlardangina foydalanib qolmasdan badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra ma‘nodosh bo‘lmagan so‘zlarni ham shunday qo‘llaydilarki, bu so‘zlar ham xuddi ma‘nodosh so‘zlar kabi idrok etiladi [2, 31]. Shoir Sirojiddin Sayyid she'rlarida ham ana shunday badiiy tasvir vositalarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan,

Hammamiz bitta bog‘ning

Nihollari, bargiday.

Oq yorug‘ sinfxonalar

Onamizning bag‘riday. (“Maktabga boraman” 85-bet).

She‘rda shoir butun bo‘lak munosabatidagi nihol – ekilgan urug‘dan tuproq yuzasiga unib chiqqan o‘simlik hamda barg – yaproq so‘zlarini keltirib, sinonimik qatorni hosil qilgan.

Adibning Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan o‘zbek o‘g‘lonlari xotirasiga bag‘ishlab yozgan “450000 lola” she‘rida matn tarkibida alam, g‘am, nola va lola, g‘uncha, chang, g‘ubor, bahor kabi so‘zlar kontekstual sinonim bo‘lib kelgan.

O‘tar davr-u davronlar, O‘tgay alam, g‘am, nola.

Yot ellarda sochilgan To‘rt yuz ellik ming lola

To‘rt yuz ellik ming lola – O‘zbekning bolalari.

Bo‘stonidan ayrilgan G‘unchasi lolalari.

Alam – jismoniy qiynoq; azob, og'riq; nola – g'am-alam, hasratni ifodalovchi ayanchli ovoq; afg'on, fig'on, faryod kabi ma'nolarni ifodalasa matn tarkibida sinonimlikni hosil qilgan.

Biz Navoiy bog'ining bog'bonimiz,

Bog'bonidirmiz, vale mehmonimiz. (“To Navoiy bor...” 127-bet).

Misrada bog'bon va mehmon so'zlari mazmunan yaqin bo'lmasa-da, matn tarkibida kontekstual sinonim bo'lib kelgan.

Bul kecha shahd-u shakar birlashdilar,

Ikki dil, ikki shahar birlashdilar.

Ikki daryo, ikki yulduz, ikki nur,

Misli ikki xushxabar birlashdilar. (“Ikki dil g'azali” 121-bet).

Ushbu to'rtlikda dil (yurak; qalb, ko'ngil), shahar, daryo, yulduz (koinot jismi), nur kabi so'zlar ma'no jihatdan bir-bir tubdan farq qilsa-da, matn tarkibida kontekstual sinonim vazifasida kelgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili nutqda nozik ma'no ottenkalarini hamda rang-barang uslubiy bo'yoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur o'zbek shoir va yozuvchilari va so'z ustalari sinonimlardan unumli foydalanadilar. Ko'rinadiki, sinonimlar bir xil ma'nosi bilan birlashsa ham emotsional-ekspressiv ma'nosi jihatdan fikr va his-tuyg'ularni aniqroq va ravshanroq ifodalashga imkon beradigan stilistik ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Shoir Sirojiddin Sayyid she'rlarida ham sinonimlar obrazlilikni ta'minlashda, she'ring ma'no ko'lamini kengayishda asosiy o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Жуманиёзов Р. Синонимлар таърифи масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970, 1-сон. –Б.5.
2. Йўлдошев М. Бадиий матн ва лингвопоэтик таҳлил асослари. –Т.: Фан, 2007. –Б.31.
3. Kilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. O'quv qo'llanma. –Buxoro, Durdona, 2023.

4. Орифжонова Ш. Луғавий синонимия ва градуонимия муносабати хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007, 6-сон. –Б.109.
5. Раҳматуллаев Ш. Семантик таҳлил ва лексик синонимияни таърифлаш масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979, 5-сон. –Б.55.
6. Сирожиддин С. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 2-жилд. –Т.: Шарқ, 2008. – 383 б.
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1965. –Б.136-137.
8. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.116.
9. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Т.: Фан, 1982. –Б.18.
10. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974. –Б.45-45.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO‘ZLARGA MUNOSABAT

Istamova Sohiba,

BuxDU Lingvistika: o‘zbek tili ta’lim


yo‘nalishi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi, so‘z turkumlari tasnifi, bu boradagi qarashlar, o‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarga munosabat, ularning so‘z turkumlari orasidagi o‘rni, taqlidlarni mustaqil so‘zlar turkumlari sirasiga kiritish asoslari tahlil qilingan.

Tilshunosligimizda so‘zlarni turkumlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Birinchi tasnifda so‘zlar quyidagi 5 guruhga bo‘lingan:



Ikkinchi tasnifga koʻra soʻzlar 4 turkumga ajratiladi:



Keyingi tasnifga koʻra 3 turkum koʻrsatilgan:



Mustaqil soʻzlar:	<ul style="list-style-type: none">• feʼl, ot, sifat, son, olmosh, ravish, olmosh
Yordamchi soʻzlar:	<ul style="list-style-type: none">• koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama
Alohida yoki oraliqdagi soʻzlar:	<ul style="list-style-type: none">• undov, modal, taqlid soʻzlar

Tilshunosligimizda soʻzlarni turkumlarga ajratishda soʻzlarning semantik (soʻzlarning mustaqil holda leksik maʼno ifodalashi), morfologik (umumiy morfologik xususiyatlari) va sintaktik (soʻzlarning gap tarkibida qanday vazifada kelishi)xususiyatlari singari uch belgi asos qilib olingan. Soʻzlarni turkumlashda bu uch xususiyatdan dastlabkisi, semantik xususiyatga koʻproq tayaniladi, yaʼni amalda bu masalada, asosan, ularning semantik xususiyatiga koʻproq eʼtibor beriladi. Koʻpchilik tilshunoslar tomonidan soʻzlarni tasniflashda semantik, yaʼni maʼnoviy belgi asosiy tayanch qilib olinadi. Ayrim tilshunoslar esa morfologik, sintaktik hamda semantik kabi uch belgi asosida tasniflashadi. Soʻz turkumlarining bir-biriga koʻchishi, omonimiya kabi hodisalar bu masalada har xil qarama-qarshilik va xilma-xilliklarni yuzaga keltiradi.

Semantik tasnifiga koʻra soʻzlar mustaqil lugʻaviy maʼnoli (feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid soʻzlar), nomustaqil lugʻaviy maʼnoli (olmosh, soʻz-gap), lugʻaviy maʼnosiz (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama) kabi turlarga boʻlinadi. Olmosh va soʻz-gaplarning nomustaqil maʼnoli soʻz sifatida ajratilishiga sabab shuki, olmosh mustaqil maʼno anglatmaydi. U ifodalagan maʼno bu olmosh almashtirayotgan soʻzning maʼnosi hisoblanadi. Soʻz-gaplar esa matn ichida lugʻaviy maʼno anglatadi. Ammo bu maʼno mustaqil emas.

Morfologik tasnifga asosan soʻzlar oʻzgaruvchi (feʼl, ot, sifat, son) va oʻzgarmas (taqlid soʻzlar, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, soʻz-gap) leksemalarga ajratiladi. Oʻzgaruvchi leksemalar lugʻaviy shakl hosil qiluvchilarni qabul qiladi. Oʻzgarmas leksemalarda esa bunday xususiyat mavjud emas.

Soʻzlar sintaktik xususiyatiga koʻra gap boʻlagi boʻlishga xoslangan soʻzlar (feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid soʻzlar, olmosh), gap boʻlagi boʻlishga xoslanmagan soʻzlar (undovlar, modal soʻzlar, soʻz-gaplar) hamda sintaktik aloqa vositasi boʻlishga xoslangan soʻzlar (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklamalar) singari uch guruhga ajratiladi. Ushbu tasnifda, asosan, soʻzlarning nutqda boshqa soʻzlar bilan bogʻlana olish-olmasligi, shuningdek, gap boʻlagi vazifasida kela olish-olmaslik kabi xususiyatlari oʻz aksini topadi.

Oʻzbek tilida soʻz turkumlari yuqoridagi uch belgi asosida quyidagi koʻrinishda guruhlanadi:

1. Mustaqil soʻzlar:

- feʼl;
- ot;
- sifat;
- son;
- ravish;
- taqlid;
- olmosh.

2. Yordamchi soʻzlar:


- koʻmakchi;
- bogʻlovchi;
- yuklama.

3. Oraliq soʻzlar:

- soʻz-gaplar.

O'zbek tilida taqlid so'zlar leksik va formal xususiyatlariga ko'ra alohida mustaqil guruhni tashkil etadi hamda mustaqil so'z turkumlari qatoridan joy oladi. Chunki taqlid so'zlar mustaqil so'z turkumlari singari quyidagi xususiyatlarga ega:

- turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida taqlid so'zlar miqdor jihatdan katta guruhni tashkil etadi (O'zbek tilining izohli lug'ati asosida so'z turkumlariga oid so'zlar soni yuzasidan tayyorlangan statisti ma'lumotlar asosida taqlid so'zlar miqdor jihatdan tilimizda katta guruhni tashkil etadi.



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, so'z turkumlari orasida taqlid so'zlar miqdor jihatdan ot (22599), sifat (7179), fe'l (3949)dan keying 4-o'rinda turadi);

- taqlid so'zlar tarkibidagi tovushlar tizmasi ma'lum bir obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.
- taqlid so'zlar gap tarkibida ma'lum bir sintaktik vazifa bajaradi (ular gap tarkibida, asosan, kesim,ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi hamda hol vazifalarini bajaradi);
- ular atrof-muhitdagi, tabiatda uchraydigan tovushlarni qayta tiklab, obraz sifatida ifodalab beradi;

- hattoki ular da graduonomiya (darajalanish) hodisasini ham kuzatishimiz mumkin (tiq-taq-tuq-to'q);
- morfologik jihatdan o'zgarish xususiyatiga ega (*Uzoqdan kimlarningdir g'ovur-g'uvuri eshitildi.*)
- tuzilishga ko'ra juft va takroriy kabi turlarga ega.

Bundan tashqari taqlid so'zlar o'ziga xos lug'aviy ma'no turlariga ega. Shaxs, jonivor, narsa, predmet va hodisalar paydo qilgan tovushga taqlid qilish natijasida hosil bo'luvchi tovushga taqlid so'zlar birinchi LMTi bo'lib, bu turning o'zi fiziologik va fizik tovushga taqlid kabi ko'rinishlarga ega. Ikkinchi LMT ko'rinish bilan bog'liq hodisalarni ifodalovchi ko'rinishga taqlid so'zlar hisoblanadi. Ular ham o'z navbatida ichki LMTlarga ega:

- harakatni ifodalovchi taqlidlar;
- tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlidlar;
- yorug'likni ifodalovchi taqlidlar.

ADABIYOTLAR

1. Abdushukurov B. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020.
- 2.. Sayfullayeva R. va bosh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
3. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов Узбек тили. Т., «Укитувчи» 1978.
4. Ш. Шоабдурахмонов, М.Аскарлова, А.Хожиев, И.Расулов,, Х.Дониёров Хозирги ўзбек адабий тили. Т., «Укитувчи» 1980.

SHAXS RUHIYATINING SO'Z BIRIKMALARIDA AKS ETISHI

Akramova Shohista Islom qizi,

BuxDU, Lingvistika(o'zbek tili) mutaxassisligi

II bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'z birikmalarining inson ruhiyatiga ta'siri hamda uning nutqda ifodalanishi to'g'risida fikr yuritilgan. Ruhiy holatlarning sintaktik birliklardagi ifodasi dalillar asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: soʻz birikmasi, inson ruhiyati, ruhiy holat, nutq, sintaktik birlik

Soʻz birikmalari til tizimida maʼlum bir sintaktik qolipning va shaxsning ruhiy emotsional holatlarining nutqiy voqealanishidan hosil boʻladi. Biroq nutq voqeligida turli-tuman maʼnoviy munosabatlarni cheklanmagan miqdorda ifodalaydigan soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik qurilishi masalasi formal grammatikaning eʼtiboridan chetda qoldi. Formal grammatika soʻz birikmalarining faqat bevosita kuzatishda berilgan xususiyatlarini oʻrganish bilan cheklandi. Shuning uchun soʻz birikmalarining nutq oʻzgaruvchan, xususiy, ruhiy, tasodifiy belgilari lisoniy umumiy, oʻzgarmas zaruriy belgilardan ajratilgan holda tavsiflandi. Xususan, soʻz birikmalarning tasnifi masalasi ham shu yoʻsinda bir yoqlama ilmiy yondashuv va qarashlar negizida tahlil qilingan.

Tilshunos M.Sharipov qayd etishicha, “Soʻz birikmalarining tarkibini belgilashda uning tarkibiga kirgan barcha soʻzlarning miqdorigagina qarab emas, oʻsha soʻzlarning shu soʻz birikmasi tarkibida bajargan vazifasiga ham qaralishi kerak.”

Inson nutqi va unda aks etadigan ruhiy holatlar tahlili oʻta murakkab jarayon boʻlib, bu tahlil jarayoni bilan shugʻullanish, nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, tibbiyot, sotsiologiya psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi fanlarning ham obyektidir. Aynan his-tuygʻular muayyan individninggina emas, u mansub boʻlgan etnik, ijtimoiy guruh va hatto xalqning oʻziga xos jihatlarni ruhiyatini aks ettiradi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv jarayonida turli millat vakillarining obyektiv bilimlari bir-biriga juda yaqin keladi.

Inson lisoniy va nutqiy faoliyati bevosita ruhiy holati bilan bogʻliq jarayondir. Nutqiy faoliyat psixologiyasi yuzasidan koʻpgina olimlar ish olib borganlar: N.I.Jinkin, A.N.Sokolov, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiy, L.A.Chistovich, D.I.Ramishvili, Y.L.Ginzburg shular jumlasidandir [1] Dastlab tilni inson ruhiyatining namoyon boʻlishi deb baholagan mualliflardan biri V.fon Gumbolt edi. U tilni oʻlik mahsulot emas, balki doimiy tugʻilish natijasidir, deya qaraydi [2] Rus psixologi L.S.Vigotskiy fikrni soʻzga toʻyinib turgan bulutga oʻxshatadi. U fikr ifodalamaydi,

balki soʻzda namoyon boʻladi,- degan gʻoyalarni ilgari surgan [3] Haqiqatan ham, tilda barcha leksemalar tayyor holda boʻladi va biz uni yomgʻir tomchilaridek nutqda alohida-alohida voqelantiramiz. Professor N.Mahmudovning quyidagi fikrlariga eʼtibor qaratish lozim: “Tilni faqat va faqat kishilar oʻrtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, joʻnlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo boʻlgan sunʼiy tilga (masalan, esparanto kabi) tenglashtirishdan yoʻl harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga tenglashtirishdan boshqa narsa emas. Holbuki, odamlar til vositasida tuygʻu va kechinmalari, quvonch va qaygʻulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni koʻzda tutmaydi” [4].

Sintaktik birliklar nutqda shunchaki ketma-ketlik munosabati asosida bogʻlanib qolmay, balki pragmatik unsurlar bilan ham oʻziga xos ravishda munosabatga kirishadi. Boshqacha aytganda, nutq vaziyati, muhiti, soʻzlovchi va tinglovchining xususiyati, bilim darajasi, dunyoqarashi, kayfiyati, ruhiy holati lisoniy birliklarni nutqqa xoslovchi, moslashtiruvchi omillar sifatida namoyon boʻladi. Shunday ekan, nutq nafaqat pragmalingvistika, balki psixologiya, psixolingvistikaning ham oʻrganish obyekti sanaladi. Psixologik konstantlarning tildagi aksi boʻlgan emotsional konseptlar Jeneva tilshunoslik maktabining eng yorqin namoyondalaridan boʻlgan Sh.Balli tilda affektiv faktorning oʻrniga eʼtibor bilan qaragan. Uningcha, insonlarning koʻpchiligida hissiyot aqldan ustun turadi va bu holat nutqda, albatta, aks etadi. Uningcha, tilda affektiv faktor 2 maqsadga xizmat qiladi:

1. Inson subyektiv dunyosini aks ettiradi.
2. Kommunikatsiyaning boshqa aʼzolariga taʼsir koʻrsatadi.

Har bir fraza “ikki qavatli” boʻlib, birinchi qavat axborot, ikkinchisi esa subyektning informatsiyaga munosabatidir. Aslini olganda, Qadimgi Yunoniston tilshunoslari aniqrogʻi, stoiklar nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa boʻlib oʻrgandilar.[8] Bu esa qadim davrlardanoq nutqda “qavatlilik” borligini isbotlaydi.

Bu xil qarashlar boshqa tilshunoslar tomonida ham bayon qilingan bo'lib, nemis tilshunosi K.Byuller diqqatga sazovor fikrlar aytgan. U o'zining "Til nazariyasi" asarida lisonning uch vazifasi haqida gapiradi:

- 1) Darstelling – "bayon, tasvir" predmet yoki hodisaning ifodalanishi;
- 2) Ausbruk – "ifodalash ekspressivlik" axborot uzatuvchining shaxsiy xususiyatlarining ifodalanishi;
- 3) Appell – "murojaat" axborotni qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatish va uning xatti-harakatini boshqarish.

Shaxsning lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishi so'zlovchi hamda tinglovchining shaxsiy sifatlari, nutq maqsadi, uning turlari(oshkora yoki yashirin), shakllari(xabar so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da berish, salomlashish, so'rashish, xayrlashuv, uzr, tabrik, shikoyat kabilar), nutq strategiyasi va taktikasi, nutq odobi, muloqot madaniyati, so'zlovchi yoki tinglovchining dunyoqarashi, bilim darajasi, qiziqishlari kabi qator nolisoniy omillar bilan mushtarak holda yuzaga chiqadi [4]. Darhaqiqat, lisoniy imkoniyat ijtimoiy hodisa bo'lganligi sabab uning birliklari ham nutqiy voqelanishda turli pragmatik omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Lisoniy imkoniyatlar nutqda voqelanar ekan, endi u xususiylashadi, nafaqat pragmatik omillar ta'siri, balki so'zlovchining dunyoqarashi, psixik holatini ham o'zida namoyon etadi. Borliq idroki bilimsiz kechmaydi, idrokning har qanday bosqichi ongli ravishda, shaxsning bilimi doirasida kechadi. Demak, qiyoslash va baholash harakatlari qanchalik emotsional xususiyatga ega bo'lmasin, oxir-oqibatda kognitiv faoliyatning bir qismi bo'lib qolishadi. Ko'rinadiki, muloqot jarayonida so'zlovchi yoki yozuvchi munosabatining hosilasi bo'lgan baholash muhim o'rin tutadi. Muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilari alohida shaxs-nutq egasi sifatida o'z fikrlarini bayon etadi, fikrlarini himoya qiladi, zarur bo'lsa, o'z fikrlarini tasdiqlatishga harakat qiladi. Fikr bayon etuvchi so'zlovchi yoki yozuvchi muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his-tuyg'ulari va kechinmalarini ham bayon qiladi. Shu tariqa yuzaga kelgan vaziyatni o'zicha baholaydi: ijobiy yoki salbiy munosabatlarini bildiradi.

Ruhiy holat tushunchasiga psixologik Adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida ruhiy holat - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida ruhiy holat deb - tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda ruhiy holat -shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat, Professor E.G'oziyev muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida ruhiy holat- odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ruhiy holat bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z- o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlarda ruhiy holat bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida emotsiya-odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya - shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, ruhiy holat tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Ruhiy holatlar o'zining yuzaga kelishi nuqtayi nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo'ladi. Biz esa mana shu ruhiy holatlarning so'z birikmalari orqali inson nutqida aks etishini tahlil qilamiz.

So'z birikmalarining poetik imkoniyatlarining badiiy nutqda voqelanishi asosida o'rganish mazkur birliklarning poetik-sintaktik imkoniyatlari haqida ma'lumot bera oladi. Bu esa so'z birikmalarining poetik asarlarda voqelanishini tahlil qilish zaruriyatini belgilaydi. [6]

Abdulla Oripovning “Sarob” she'rida ifoda etilgan ruhiy holatga e'tibor qaratamiz:

Olti oykim allakimlar pana-panadan

Tosh otadi *darvozasiz qalbim*ga tomon.

Shovqin to'la ko'chalarda kezaman tanho,

Yana she'rim *yuva boshlar* dildan *g'amimni,*

*Xayollarning girdobi*ga qolganda ammo

Alam bilan xotirlayman muallimimni. (Abdulla Oripov)

She'rda keltirilgan insonning rangin ruhiyati, betakror ko'ngil olami, serqirra fikr-kechinmalarini yoritishda so'z birikmalari asosiy o'rinni egallagan. She'rda kelgan so'z birikmalari *darvozasiz qalbim, shovqin to'la ko'chalar, tanho kezmoq, g'amimni yuva boshlamoq, xayollarning girdobi, alam bilan xotirlamoq* shoirning tushkun depressiv ruhiy holatda ekanligini ko'rsata olgan.

Depressiya ruhiy holat bo'lib, u odamda hayotga bo'lgan umidsizlik, odamlarga bo'lgan ishonchsizlik, tushkunlik, yolg'izlik, stress, to'xtovsiz xavotirlanish va shu kabi yomon [negative] hissiyotlarni uyg'otishi mumkin. O'ta jiddiy holatlarda, ba'zilar sigaret chekish, spirtli ichimliklar ichish, me'yorida ortiqcha uxlash kabi yomon illatlar bilan o'zlarini chalg'itishga urinishadi. O'spirin yoshidagi bolalarning juda ko'p musiqa tinglashi depressiyadan qiynalishlariga sabab bo'lishi mumkin. Depressiya vaqtida inson ortiqcha miqdorda taom iste'mol qilishi ham mumkin.

*Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e'tibor qilmay, to'rga o'tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko'zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och **bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa-hech narsa ko'rinmas edi.***

*Dodxo darchani zichlab yopib, joyiga o'tirib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'tkazayotgan bo'lsa ham, qulog'i **g'uvillayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: “Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan...”***

*Uzbek go'ristoni o'zi xunuk, buning ustiga, go'riston haqida aytilmagan **xunuk gap, to'qilmagan vahimali mish-mish qolgan emas. Haqiqatan, bunday kechalarda go'riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodxo singari payg'ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo'ygan kishi o'lishdan ham ko'ra go'ristonda yotishini o'ylaganida tiligacha sovuq ter chiqaradi.***

Ushbu parchada Abdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasidan olingan parchada **bo'riday uvillamoq, o'lim changaliga tushgan mushukday pixillamoq, g'uvillayotgan shamol, vahimali mish-mish, kafanligini sandiqqa solib qo'ygan kishi, tiligacha sovuq ter chiqmoq** kabi so'z birikmalari qo'rquv fobiyadagi insonning ruhiy holatini ko'rsatib kelgandir.

ADABIYOTLAR

1. Ginzburg.Y.L. 1) Nutq harakatining programm sxemalari haqida. “XVIII Xalqaro psixologik kongress. Ma'ruzalar tezislari” 2-chiqishi. –M., 1966
2. Леонтьев А.А. Психоллингвистика, –Л.: Наука, 1967;
3. Серебренников Б.О. О материалистическом подходе. – М.:Наука. – С.7.
4. Mengliyev B. Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi. Ma'rifat gazetasi.,2013.15-may
5. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik –Toshkent,2010.-22-b
6. Nazarova S., Yokubova Sh., Xojiyeva M. Otli birikmalarning badiiy nutqda voqelanishi. –Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021. – 124 b
7. Wikipediya

8. Abdulla Qahhor. Anor:-Toshkent.:G'afur G'ulom,2018.125

O'RTA UMUMTA'LIMDA ONA TILI HAMDA ADABIYOT TA'LIMI MAQSADLARI HAMOHANG

Jo`rayeva Charos Bahodirovna,

BuxDU, Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. O'rta umumta'lim maktablari ona tili mashg'ulotlarida o'quv predmetlararo aloqadorlikni ta'minlash ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Maktabda ona tili mashg'ulotlarini adabiyot mavzulari bilan bog'lab o'qitish yo'llarini ko'rsatib berish orqali dars samaradorligini yuqori bosqichga ko'tarish mumkin.

Kalit so'zlar: fanlararo aloqadorlik, ona tili va adabiyot, ta'lim samaradorligi, integratsiyasiga asoslangan dars, videodars.

Ta'limning umumiy maqsadi davlat siyosati bilan hamohang tarzda davlat buyurtmasi asosida belgilab beriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi yagona bo'lib, bu davlat, jamiyat va uning a'zolari munosabatlari bilan o'zaro bog'liq holda belgilanadi. Tabiiyki, ta'lim maqsadi va mazmunini har bir davlat o'zi yashayotgan jamiyat ehtiyojlariga, o'quv jarayoni xususiyatlariga mos ravishda belgilar ekan, ta'lim maqsadi ta'lim jarayonini, ta'lim mohiyatini, uning mazmuni, vositalari, usuli, o'qituvchi~o'quvchi munosabatlari va nihoyat, uning samarasini belgilab beradiki, bu jamiyatning bo'lg'usi taraqqiyot yo'nalishini belgilaydi.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlarning, jumladan, o'rta umumta'lim tizimida ta'limi belgilangan har bir o'quv predmetining maqsadi davr ruhiga hamohang tarzda yangilandi. Milliy istiqloлга erishganimizdan so'ng, uning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari, avval ham eslatib o'tganimizdek, maktabda ijodiy tafakkur sohibini, o'rta maxsus ta'limda ixtisosiy nutq madaniyati shakllangan ijodiy tafakkurli shaxsni, oliygohlarda jahonning ilg'or mamlakatlari mutaxassislari bilan bellasha oladigan raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash kerakligi va buning uchun ta'lim maqsadiga muvofiq mazmun va usullarni tanlash, bu borada milliylik zaminidan uzilmagan holda jahon standartlariga moslashish muhimligi masalasi bo'ldi. Shu bois ham respublikamizda bugun ta'limning umumiy maqsadi

negizida ijodiy fikrlovchi, ma'naviy-mafkuraviy qiyofasi jamiyatning bosh g'oyasi bilan uyg'unlashgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi yotadi. Ta'limning umumiy maqsadi esa har bir o'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadi. Demak, barcha fanlarning xususiy maqsadi ta'limning umumiy maqsadi negizida shakllantirilar ekan, ularda bevosita o'zaro bir-biriga aloqadorlik va hamohanglik yuzaga chiqadi. Bu, xususan, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida berilgan ona tili ta'limi maqsadida va adabiyot ta'limi maqsadida o'zining yaqqol ifodasini topgan. Chunki, og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish, ma'naviyati yetuk shaxsni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ona tili ta'limi maqsadi bevosita adabiyot ta'limi maqsadi bilan hamohang.

Ona tili ta'limining maqsadi ***bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim*** va bu maqsad ta'limning umumiy maqsadiga uyg'un bo'lib, ijodiy va mustaqil fikrlash malakasini qaror toptirish hamda buning natijasida ta'lim oluvchining har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol toptirish talablarini o'zida mujassamlashtirgan. Chunki bugungi o'qitish tizimi uchun o'qituvchining aytganlarinigina eslab qoladigan o'quvchilarni tayyorlash maqsad bo'la olmay qoldi. Endi mavjud imkoniyatlardan ezgu maqsadlar yo'lida to'g'ri foydalana oladigan, hamisha nimanidir o'rganishga ichki ehtiyoj sezadigan va buning samarali yo'llarini izlaydigan kishilarni shakllantirish zarurati yuzaga keldi.[3]

Maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi ***sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratligi*** [3] belgilangan. Zero, har ikkala fan maqsadi negizida ham hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri o'z bilimi, hunari bilan mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlab yurtimiz sha'nini ko'klarga ko'tara oladigan barkamol yetuk yosh avlodni tarbiyalash masalasi yotadi va yangilangan

yo`nalishdagi milliy pedagogika ham xuddi shu maqsad yo`lida izlanishi zarurligini ko`zda tutadi.

Ona tili – tafakkur tarjimoni, adabiyot – qalb tarjimoni. Tafakkur toza qalbdan, pokiza qalb esa teran tafakkurdan suv ichganda, oziqlangandagina inson haqiqiy insonlik qiyofasini kasb etadi. Sababki, ona tilining, milliy adabiyotning ildizlari inson qon tomirlariga singib ketgan, ong ostida hech sezilmay yotgan “milliy menlik”, “milliy o`zlik”, “millatparvarlik”, “yashab turgan zaminiga tengsiz muhabbat”, “vatanparvarlik” tuyg`ularidan oziqlanadi. Ona tili kishi shuurida olam lisoniy manzarasini chizsa, adabiyot unga betakror bo`yoqlarda milliy naqsh beradi. Shu tariqa ona tili va adabiyot simfoniyasi uyg`unlashadi. Ona tili adabiyotga badiiy so`z beradi. O`z navbatida, adabiyot badiiy so`zlar guldastasidan nazmiy, nasriy matnlar tuzib til qudratini adabiyot vositasida namoyon etishga kirishaveradi, kirishaveradi...

Adabiyot ta'limida o`quvchini ijodiy fikrlashga o`rgatish badiiy asarlar, ularda ifodalangan g`oya, tasvirlangan voqelikni anglash, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini his eta olish va ularni o`z tilida ifodalay olishda ko`rinadi. Badiiy asarni o`qib anglay olgan, undan o`ziga kerakli xulosalarni chiqara olgan o`quvchi ma'naviy va “badiiy” jihatdan ham kamol topa boradi.

Bugungi kunda, davlatimizda bozor iqtisodiyoti shakllanib, taraqqiy etayotgan bir vaqtda, ta'lim-tarbiya jarayoni tadbirkor, ijodiy tafakkuri yuksak, har qanday qiyin vaziyatdan o`z aql-idroki, mustaqil ijodiy tafakkuri bilan omon chiqa oladigan, shuurida milliy ruhi mustahkam bo`lgan shaxsni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o`zbek tilidan bemalol–erkin, samarali va to`g`ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to`laqonli bahramand bo`lish, zaruriy ko`nikma va malakalarga ega bo`lishlari kerakligi [1] ham ona tili va adabiyot fanlari maqsadlarining bir-biriga nechog`lik hamohang tarzda yaratilganligi va uzviy, uyg`un tarzda amalga oshirish zarurligini ko`rsatib beradi. Ona tilini chuqur anglagan o`quvchigina uning badiiy asarda yuzaga chiqish imkoniyatlarini va badiiy tasvir yaratishdagi o`rni nechog`lik baland ekanligini his eta oladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari, avvalo, til ta'limiga qo'yilgan talablardan kelib chiqadi. Maktabda ona tili ta'limiga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Chunki jamiyatda fikr almashish – qonuniy zarurat.

Maktab o'quvchisining nutqi ravon va to'g'ri bo'lishi lozim. Yaxshi va o'rinli talab. Xo'sh, buning uchun ona tili mashg'ulotlarida qanday yo'l va usullardan muntazam foydalanish zarur?

Bu borada ba'zi mulohazalarimizni bayon etamiz.

1) har bir sinfda har bir mashg'ulotda darsning tarbiyaviy maqsadiga bog'lab (o'quvchilarga yod bo'lib ketganlardan tashqari) 5ta maqolni tahlilga torting. Masalan, 6-sinfda turdosh otlar ta'limida quyidagi kabi maqollarni tahlilga tortish mumkin:

№	Suv haqida maqollar	Non haqida maqollar	Ilm haqida maqollar
1	El hayoti yer bilan, Yer hayoti suv bilan.	Non bolasi – non ushoq.	Ilm – yorug'lik, Jaholat – zuimat.
2	Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non arimas.	Non bo'lsa bas, O'zgasi havas.	Ilm izlagan yetar, Izlamagan – yitar.
3	Tomchi suvda tol ko'karar.	Non qadrini och bilar, Kiyim qadrini– yalang'och.	Ilmli olar, Ilmsiz oldirar.
4	Qum bor joyda suv bor, Suv bor joyda jon bor.	Nonvoyga non aziz, Tegirmonchiga – un.	Ilmli uy –charog'on, Ilmsiz uy – zimiston.

2) ona tili mashg'ulotlari mavzusiga va darsning tarbiyaviy maqsadiga moslab hadislar yoki sharq hikmatlaridan foydalanish. Masalan,

Ilm o'rganish bilan bog'liq hadislardan istalgan sinfda, istalgan mavzu ta'limida foydalanish o'rinli:

1. *Ilm o`rganish har bir musulmon uchun farzdir.* (Hadis)
2. *Beshikdan qabrgacha bilim ista.* (Hadis)
3. *Bir soatgina ilm o`rganish bir kechalik ibodatdan yaxshidir.* (Hadis)
4. *Qaysi bir olimning ilmidan so`ralganda qizg`onib gapirib bermasa, qiyomatda og`ziga o`tdan tizgin solib qo`yiladi.* (Hadis)
5. *Avvalo olim bo`l! Loaqal ta`lim oluvchi yoki tinglovchi, ilm-u ulamolarni sevuvchi bo`lgin.* (Hadis)

Sharq hikmatlaridan istalgan sinfda, istalgan mavzu ta`limida foydalanish o`rinli:

- 1) *Ilm o`qub qilmagan amal maqbul,*
- 2) *Dona sochib ko`tarmadi mahsul.* (A.Navoiy)
- 2) *Birovkim qilsa olimlarga ta`zim,*
Qilur go`yoki payg`ambarga ta`zim. (A.Navoiy)
- 3) *Jahon ravshan ziyoyi ilmdandur,*
Ko`ngil sofi safoyi ilmdandur. (Anbar Otin)
- 4) *Ilm ila kimning dili ravshan erur,*
U zamon ichra salomat tan erur. (Farididdin Attor)
- 5) *Agar inson ilm nuri bilan o`z yo`lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko`chasida qoladi.*
(Sheroziy)

3) o`quvchi tafakkuriga kuchli ta`sir ko`rsata oladigan she`riy matnlardan foydalanish. Masalan, O`zbekiston Xalq shoiri M.Yusufning “Iqror” she`ridan so`z tuzilishi yoki so`z turkumlari yuzasidan tahlillarda unumli foydalanish zarur:

Iqror

O, ota makonim.

Onajon o`lkam.

O`zbekiston, jonim to`shay soyangga.

Senday mehribon yo`q,

Seningdek ko`rkam.

Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,

Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirilar.

Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,

Tog'laring ortimdan ergashib yurar... (M.Yusuf she'ri)

Mazkur sirani matallar, topishmoqlar, aforizmlar, shohbaytlar kabilar bilan davom ettirish ham o'rinli va ahamiyatlidir.

Va yana ona tili mashg'ulotlari fikrni bayon qilishda nutqning badiiy qimmatini oshiradigan vositalar: badiiy asarlardan olingan ko'chirmalar va yorqin obrazlardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va frazeologik birliklardan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag'a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so'roqli gaplardan foydalanishga o'rgatmog'i lozim.[4] Bular esa adabiyot darslari orqali o'quvchiga ma'lum bo'ladi va shu jarayonda o'quvchi ularning tub mohiyatini anglaydi. Ona tili va adabiyot o'quv predmetlari maqsadi bir-biriga hamohang tarzda yaratilgan ekan, har ikkala o'quv predmetini o'tish jarayonida bu maqsadlar birgalikda qamrab olinishi buning uchun dars jarayonida o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berishga alohida e'tibor qaratilishi va she'r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlarning berib borilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, shaxsning rivojlanishi nafaqat ta'lim, balki tarbiya bilan ham uyg'unlikda amalga oshishi zarur.

Demak, muayyan o'quv predmetining xususiy maqsadi samarali voqelanishi shu o'quv predmetini maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bilan uzviy bog'lanish yoki bog'lanmasligiga ham chambarchas bog'liq. Ona tili va adabiyot ta'limi maqsadlari har jihatdan o'zaro hamohang bo'lib, bu maqsadlarning amalga oshishida aloqadorlikning ta'minlanishi yosh avlodni ijodiy tafakkurli, yuksak ma'naviyatli, kuchli salohiyatli shaxs sifatida kamol topishini ta'minlay oladi.

ADABIYOTLAR

1. Yo'ldosheva D., Hamroyeva Sh., Bozorova N. Ona tili ta'limi maqsadi va o'zbek tili doimiy anjumani.– Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2016.

2. Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. ЎТДА 6-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир: М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2001. – 98 б.
3. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. (Loyiha).– Toshkent: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.–252 b.
4. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Сафарова Р. Она тили таълимнинг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Т.: Фан, 1995. – 110 б.
6. [www.http://kh-davron.uz/](http://kh-davron.uz/) 21-fevral-xalqaro-ona-tili-kuni

MEHNAT KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARDA RAMZIYLIK

Yo'ldosheva Nafisa Qudrat qizi,

BuxDU Lingvistika (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi, 2-bosqich magistranti

E-mail: n.q.yuldosheva@buxdu.uz

Annotatsiya. Insonni hayvondan farqlovchi jihatlardan biri - uning ramzlashtirishga bo'lgan etiyojidir. Ramz - tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi.

Tayanch so'zlar: ramz, symbol, konsept, “ot” leksemasi, “it” leksemasi.

Til, madaniyat, etnos (xalq) o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar fanlararo muammo bo'lib, uni hal qilish bir qancha fanlarning – falsafa va sotsiologiyadan to etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha - birgalikdagi sahyharakatlari bilan bog'liq. Jumladan, milliy til tafakkuri masalalari – bu lingvistik falsafaning bir tarmog'idir; ijtimoiy yoki guruharo axborot almashinuvini til aspektida o'rganishpsixolingvistika tadqiqot doirasiga kiradi va sh.k. Til madaniyat bilan chambarchas bog'liq: u madaniyatning ichida rivojlanadi va madaniyatning ifodachisidir

Ramz (arab. — ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) — voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib,

mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmuni ifodalaydi. Ijodkorlar an'anaviy Ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (Masalan, bulut, buloq, chaqmoq va boshqalar)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo'ladi[1].

Xalq og'zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko'lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Ramz (arab. – belgi, imo, ishora; laqab, taxallus). Biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishorat[1. III, 347].

O'zbek tilida ayrim o'rinlarda *ramz* so'zi o'rnida *simvol* so'zi ham qo'llaniladi. Mazkur so'z —O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida uchramaydi. —O'zbek tilining izohli lug'atida esa ushbu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: —**Simvol** (yunoncha – belgi, ramz; alomat, timsol). U aynan ramz ma'nosida qo'llaniladi. Biron-bir g'oyani o'zida mujassamlashtiruvchi badiiy obraz[3. III, 506].

Ramz uchun asosiy belgi shartlilik, obrazlilik, ko'p ma'nolilik, ko'chma ma'nolilikdir. Xalqning ong va shuuriga chuqur singgan ramzlar borki, ular badiiy asarlarda yorqin obrazlar yaratishga xizmat qilib kelmoqda. Kabutar – tinchlik, sher — mardlik, tulki — makkorlik, bo'ri — ochko'zlik ramzi sifatida badiiy asarlarda qadimdan mavjud bo'lib kelmoqda. Bu kabi zoomorf metaforalar badiiy asarlarning ta'sirchanligi va badiiy-estetik qiymatini oshirishda muhim vosita sifatida voqelanadi. Ijodkorlar uchun ramzlar nisbatan kuchli his-tuyg'uni, keng tushuncha va katta voqea-hodisani ixcham, aniq va ta'sirli tarzda ifodalash uchun cheksiz imkoniyat yaratadi. Shunga ko'ra xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda ramziy obrazlar alohida tizim sifatida shakllangan.

Aytilganidek, ramzlar nutqda keng qo'llanuvchi ifoda vositasi hisoblanib, u umumxalq nutqining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ular badiiy asar matnlarida qo'llanib, badiiy asar tilining rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Adabiyot

tarixida asrlar davomida foydalanib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul — go'zallik, ma'shuqa; bulbul — oshiq; sariq rang — mahzunlik, qora rang — motam ramzi va boshqalar. Ijodkorlar an'anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (masalan, bulut, buloq, chaqmoq va boshqalar)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar[2].

Xuddi shuningdek, maqollarda ham ramziylikka duch kelamiz. Masalan, Aravani ot tortar, Ko'lankasin — it[3].

Ushbu maqolda ot va it zomorflari o'zaro qarama-qarshi qo'yilmoqda. Ma'lumki, ot qadimdan inson og'irini yengil qilib kelgan. Ot kuchli, chidamli, ko'rkam, pokiza, hushyor, biror nalsani darhol payqaydi. Ko'rish, hid bilish, tovushni, bilinar-bilinmas sharpani eshitish qobiliyati kuchli. Bu fazilatlaridan tashqari ot insonning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, har qanday holatda ham kishini o'limdan saqlab qolguvchi ajoyib uy hayvonidir.

Mahmud Koshg'ariyning ta'biri bilan aytganda *ot* "turning qanotidir". "Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri bo'lib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuz ruh ustidan g'alaba qfishda yordam beradi. Shomonlarning hassalari ko'pincha ot ramzini ifodalaydi va o'zbek xalqida hozirgacha otning devi bor degan ishonch saqlanib qolgan.

Maqolning birinchi qismidagi "ot" leksemasi "mehnatkash shaxs" semasini, ikkinchi qismidagi "it" leksemasi "maqtanchoqlik" semasini ifodalamoqda.

Arg'umog'im jirtak otdi, Loyni ko'rib tappa yotdi[3].

Ushbu maqolda esa qiyinchilikda tez taslim bo'luvchi kishilar "ot" leksemasi orqali berilmoqda.

It o'zining beminnat xizmati tufayli inson hayotida muhim o'rin tutadi. Tirik jonzotlar ichida Yerdan kosmosga ko'tarilgan ilk jonivor ham itdir. It boshqa hayvonlardan farqli ravishda ong darajasi ozmuncha rivojlangan bo'lib, buyruqlarni so'zsiz bajaradi. O'zbek xalq maqollarida "it" LMGining uch jihati: ijobiy, mo'tadil va salbiy xarakter-xususiyatni ifodalashi ko'zga tashlanadi[4].

Emgaksiz itdan yomon, It tugul bitdan yomon.

Ushbu maqolda ham it leksemasi salbiy semani ifodalab kelmoqda.

Eshak maqollarda, asosan, mehnatkash qilib ifodalanadi. Quyida esa kamharakatlik natijasida dangasalik semasi faollashgan.

Yuki yengil eshak yotag'on bo'lar.

Ot topadi, eshak yeydi[3].

Bunday maqollar, odatda, kuchli emotsional ma'noga ega. Ya'ni tekinxo'rlar eshak, maqtanchoqlar it timsolida qoralanadi. Maqolning birinchi qismida qo'llangan "ot" leksemasi esa mehnatkash shaxs timsoli sifatida yuzaga chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ramzlar obrazli tafakkur qilishning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, insonning badiiy-estetik didini oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. - 680 б; Т. II. 2006. - 672 б.; Т. III. 2007. - 688 б.; Т. IV. 2008. - 608 б.; Т. V. 2008. - 592 б.

2. wikipediya

3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.

4. Jo'rayeva V.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 144 b.

70230101 – LINGVISTIKA RUS TILI

КОНЦЕПТ САД В РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Латипова Нозима.

БухГУ, Магистрант 2- курса

(70230101 Lingvistika - Rus)

Целью настоящей работы является исследование одного из ключевых концептов английской национальной концептосферы «сад» в русском и английском фольклоре, анализ функционирования данного концепта в авторской англо-шотландской картине мира и его трансформации в христианском контексте. Материалом исследования стали национальные песни, загадки, пословицы. В работе использован метод компонентного семантического анализа и сравнительно-типологический метод исследования. В статье рассмотрены особенности употребления лексем «сад» репрезентация микрополей концепта «дом». Исследовано место концепта «дом» в авторской философско-религиозной картине мира. Сделан вывод о том, что концепт «дом» в русском и английском фольклоре обусловленные индивидуально-авторской картиной мира писателя. Репрезентация концепта «дом» также обусловлена оппозицией «английскости» двум национальным культурам.

Ключевые слова: концепт, концептосфера, национальная идентичность, английскость.

В последние десятилетия особое место в филологии занимают исследования концептов. Проблемам когнитивистики и концептологии посвящены работы С.А. Аскольдова, А.П. Бабушкина, А. Вежбицкой, В.И. Карасика, Е.С. Кубряковой и других учёных. В широком смысле концепт понимается как ментальная единица, отмеченная лингвокультурной спецификой и имеющая языковое выражение [1]. Также выделяют художественный концепт как вербализованную в художественном произведении ценностно значимую ментальную единицу индивидуально-авторской картины мира. Художественный концепт, с одной стороны, отражает субъективный авторский опыт переживания действительности, а с другой стороны, неразрывно связан с национальной языковой картиной мира. Соответственно, исследование художественных концептов является неисчерпаемым средством познания и осмысления картины мира как автора, так и целого народа. С позиции исследования художественных концептов и проблемы национальной идентичности интересно

рассмотрет народную творчеству. В индивидуально-авторской концептосф теснейшим образом переплетаются элементы «английскости» («Englishness») и «шотландскости» («Scottishness»). Лексема «сад» отличается от лексемы «сад» наличием эмоциональной окраски, связывающей её с такими концептами, как «любовь», «забота», «уют комфорт». Однако концепт «сад» (Garden) оказывается эмоционально маркированным, поскольку непосредственно связан с важнейшим ценностным концептом авторской картины мира – с человеком.

Maqollarda o'zbek xalqiga xos fazilatlarni mujassam etgan. Shuning uchun ham odamlar xalq donoligidan muammolarni hal qila olsalar, aqlli hisoblanadilar. Badiiy tilning ajoyib namunasi bo'lganligi uchun xalq maqoliga azaldan qiziqib keladi. Uning barcha zamonlarning barcha so'z san'atkorlari tomonidan qo'llanilishi muhimdir. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'azi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza. Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz.

Tilshunos olim, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning ijod faoliyati va uning «Devoni lug'otit turk» asari bunga yorqin misoldir. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham yozilgan, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab kerak. Misol uchun, Muhammad

Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida 300 dan ko'p maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan oshiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir.

Ingliz maqollari asosan Bibliya kitobidan olingan fikr va so'zlar asosini tashkil etadi. Ingliz maqollarida ham insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Quyida ingliz maqollarida insoniy fazilatlarini ko'rsatilishini ko'ramiz:

None but the brave deserves the fair

When thieves fall out, honest men come by their own

An honest man's word is as good as his bond

Humble hearts have humble *Humble hearts have humble*

Maqollar – bu kuzatuvlarni qat'iy ravishda hujjatlashtiradigan ko'p yillik hayotiy tajribalar to'plami. Ular qat'iy qutblarga ega bo'lgan to'liq fikrdir va ular turli kontekstlarda turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ularning ma'nolari doimo mos keladi. Biroq, maqolning ma'nosi u qo'llanilgan muayyan kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Misol uchun, tuz so'zi hozirda mineral moddani anglatadi. Tarixan tuz so'zi to'g'ri, odobli; dala, tekislik ma'nolarini bildirga va faqat maqollardagina saqlanib qolgan: *Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan boy.* Bundan tashqari, mehnat so'zining azob-uqubat, baxtsizlik ma'nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: *Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz.*

Maqollar rasm yoki she'rga o'xshaydi. Ular bir so'zdan juda ko'p turli xil ma'nolarga ega va ularning barchasini misollarda toppish mumkin. Qaysi bir maqol tarkibida kelishiga qarab bir dona yomon so'zi yomonlikdan tashqari xudbinlik, tekinxo'rlik, egrilik, insofsizlik, dushmanlik, qo'rqqoqlik, nodonlik, ilmsizlik, odobsizlik, baxillik, manmanlik, noshudlik, yo'lg'onchilik, sabrsizlik, bevafoqlik, ochko'zlik, nomussizlik, isrofgarchilik va hokazo ma'nolarni bildiradi.

Bilamizki, xalqimiz marhumlarga alohida hurmat ko'rsatadi. Tiriklik chog'ida qanchalik yomon bo'lishmasin, ular haqida yomon so'z aytishdan, garchi to'g'ri bo'lsa ham, tiyiladi. Biroq maqolda bunday kishilarning tazariga ham ishilar istar-istamas

kelishi, tilida aytmasa ham, dilida ulaming aslida kim bo'lganini unutmasligi o'z ifodasini topgan. Bunday qat'iy hukmda o'ziga xos ogohlantirish holati tasvirlangan.

Ko'pni yomonlagan ko'milar.

Bu maqolda yerda halok bo'lar, el nazaridan qolar degan ma'no ifodalangan. *Hisoblashgan do'st emas.* Ba'zi kishilar arzimas xizmatlarini ham do'stga minnat qilishadi. Bu yerda so'z o'sha haqda ketmoqda. Hisobli do'st ayrilmas. Bu maqolda esa do'st kishi do'stning yaxshiliklarini unutmasligi, doimo yodda tutishi kerak, degan mano ifodalanmoqda.

Turmushda ro'y bergan voqea-hodisalar natijasida paydo bo'lgan vaziyatdan kelib chiqqan holda biron shaxs biron maqolni o'z fikrini tasdiqlash maqsadida keltirishi mumkin. Ammo mazkur maqolning o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanganligini ro'y berilayotgan voqeani aniq ko'z oldimizga keltirish orqali ifodalaymiz. *Ayb yilda emas, mehnatda.* Maqolini tahlil qilamiz. Dehqon yerini kuzda ekmasa, bahorda yana shudgor qiladi, yaxshi hosil ololmasa, maqolda vaqt bekor ketkazmasdan doimo mehnatda bo'lish kerakligini o'rgatadi.

Yer — ona, suv — ota, Mehnat — boylik.

Hunarli yigit — mevali daraxt.

Arslon og'zidan ov olinmas.

Quyida keltirilgan maqollar majoziy ma'noni anglatadi. Misol qilib *Hunarli yigit — mevali daraxt.* Maqolini olsak hunarli bilimli inson mevali daraxtga o'xshatilyapti

Odamlar "dono" so'zini aqlli yoki biror narsani bilish uchun ishlatadilar. Ba'zan "dono" so'zi majoziy ma'noda kimdir mehribon yoki tushunadigan degan ma'noni anglatadi. Ba'zi dono so'zlar qiyin vaziyatlarni yengishga yordam beradi. Demak, maqol va matallarning xalq hayotida tutgan o'rni, kundalik vaziyatlarning og'irligi jihatidan bir-biriga yaqin va ulardan biri tarixiy jihatdan maqol sifatida, ikkinchisi esa matal sifatida rivojlana boshlagan.

ADABIYOTLAR

1. Yusupov O'.Q. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamallari hususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2011.– B. 49-55.
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: 1991. – 274 b.
3. Камбарова З.А. Актуализация фразеологически хединиц в языке английской газеты. – М.,1977; -166 ст.
4. Вяльцева С.И. Речевое использование английских пословиц. – М., 1977– 106 с.
5. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.– М.: 1961. – 236 ст.

ANTROPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.

A.A.Haydarov.

BuxDu ingliz tilshunosligi kafedrasi f.f.n.prof.

R.A.Mo'minova.

BuxDu 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikning eng asosiy bo'limi bo'lgan onomastikada antroponimlarning o'rganilishi, uning leksik tizimdagi o'rni haqida izoh berilgan va mulohazalar bildirilgan. Antroponim tushunchasining tilshunoslikda paydo bo'lishi tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlar ifodalangan va shuningdek, uning nutqdagi vazifasi belgilangan.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimika, onomastika, til, madaniyat, lingvistik, ismshunoslik, etimologiya.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, xalqimizning o'zligini anglashi, mamlakatimiz ichki va tashqi hayotida tilning o'rni, milliy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni tiklash xalqimiz hayotidagi muhim, o'z oldiga qo'ygan asosiy masalalarning biri ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning sa'y-harakatlari bilan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi, milliy-ma'naviy

qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir” [1], deb ta’kidlagan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Badiiy asarlarda antroponimlarning qo‘llanishi, maqsad va vazifasi xususida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, tadqiqotchi N.A.Mo‘minovning “Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari” [2] nomli tadqiqot ishida antroponimlar Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asari misolida maxsus o‘rganilgan. Asar qahramonlarining nomlari etnolingvistik jihatdan izohlangan, qahramonlarning nomi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muhim rol bajarganligi aniq dalillangan; asarda qo‘llanilgan ismlar, asosan, ma’no doirasi hamda qaysi tildan olinganligiga ko‘ra tasniflangan.

Muayyan ijodkor asari tilini o‘rganishda uning umumxalq jonli tilidan va an’anaviy adabiy tildan qanday foydalanishi, bu ikki sohani qanday birlashtirib borishi, biror badiiy uslubni e’tirof yoki inkor etishda yozuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash lozim.

Yozuvchining o‘ziga xos uslubini belgilash quyidagi omillarni hisobga olishni taqozo qiladi:

1. Ma’lum asarning g‘oyaviy yo‘nalishi va mundariyasi.
2. Muallifning til uslubida qaysi oqimga moyilligi.
3. Yozuvchining til hamda umumiy madaniyat va xalq turmushining turli tomonlarini qanday o‘rganganligi, shuningdek, unga qanday munosabatda bo‘lganligini ko‘rsatuvchi biografik ma’lumotlar bilan tanishib chiqish.

Lugʻaviy jihatdan badiiy asar matnining bir boʻlagini onomastik birliklar tashkil qiladi. Ular turli koʻrinishlarga ega boʻlib, nominativ va uslubiy vazifa bajaradi. Onomastik birliklar til lugʻat tizimida oʻziga xos xususiyat va mavqega ega, ularni badiiy asar matni bilan bogʻlab tahlil va tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikning eng munozarali va dolzarb masalalaridan biri “matndagi ism” muammosi, chunki ism soʻz, ammo oʻziga xos, individual ravishda maʼlum boʻlgan soʻzdir. Har bir antroponimik birlik (ism, familiya, otasining ismi, taxallus va boshq.) katta ijtimoiy-tipologik va badiiy vizual imkoniyatlarga ega.

Ism qoʻyish ehtiyoji va ismlarning paydo boʻlishi har bir xalqning moddiy hamda maʼnaviy sharoitlariga, etnik udumlariga mos ravishda rivojlanib borgan. Ismlar qadimiy davrlardan boshlab shaxslarni ajratib atash vazifasidan tashqari, urugʻ va qabila, keyinchalik elat va xalqlarning turli-tuman udumlari, urf-odat, orzu-istaklarini, maʼnaviy, falsafiy, diniy, axloqiy qarashlarini oʻzida ifodalaydigan omilga aylana borgan. Shunga koʻra, har bir tarixiy davrning oʻziga xos ism berish odatlari, oʻshanga mos ravishda yuzaga kelgan ismlar yigʻindisi (fondi) boʻlgan. Bu ismlar oʻsha davrning hayotiy talablarini, intilish va orzularini, shuningdek, falsafiy hamda diniy aqidalarini oʻzida ifoda etgan. Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urugʻchilik davrida berilgan ismlarda mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, turli ilohiylashtirilgan tasavvurlar oʻz ifodasini topgan. Masalan, Oyarigʻ (nurli oy), Oydanarigʻ (oydek nurli), Oykun (oydin kun), Oyqanot (oyqanoti), Kuchbars, Azak, Anas, Alp Aya, Alp Er Tunga, Qutlugʻ tagin, Chagʻribek Chugʻlan, Tangriqul, Tangriberdi va b.[3]

Odamlar, odatda, muayyan obʻektning kishi nomlari bilan atashganliklari uchun ular ajratish, nomlash xususiyatini ifodalaydi, biroq adabiy matnda antroponimlar orqali yozuvchi, koʻpincha, qahramonning xarakterini aks ettiradigan muayyan bir maʼnoni yashiradi. Atoqli nomlar tufayli oʻquvchi uning oldida qaysi belgi borligini aniqlaydi.

Barcha adabiy antroponimlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1) yozuvchi tomonidan tilda mavjud boʻlgan onomastik fondan toʻliq olingan nomlar;

- 2) antroponimlar, ulardan faqat tovush-grafik qobiq olinadi;
- 3) muallif tomonidan to'liq kashf etilgan antroponimlar [4].

Antroponimning asosiy vazifasi insonni individuallashtirishdir. Har bir antroponimga o'ziga xos xususiyat beriladi. Birinchidan, antroponimning tashuvchisi shaxs ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, shaxsning jinsini bildiradi. Uchinchidan, milliy-lingvistik jamoaga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Aytish mumkinki, kundalik turmushdan tashqari, badiiy asarlarda ham antroponimlar keng qo'llanib, ma'lum vazifa bajarishga xizmat qiladi. Nomlar bir necha vazifalarni bajaradi:

- 1) semantik yuk ifodalaydi;
- 2) milliy va mahalliy o'ziga xosliklarni, an'analarni ifodalaydi;
- 3) tarixiy davrni aks ettiradi va h.

Badiiy asar antroponimlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning alohida joyi hisoblanadi, shuning uchun nomlar obraz yaratishning eng muhim vositasidirki, ular asardagi mazmunning shakllanishiga yordam beradi.

Agar kundalik turmushdagi til birlamchi model tizimi bo'lsa, unda badiiy matn haqiqiy va fantastik dunyolarni birlashtirgan ikkilamchi model tizimidir. Bu axborot tarkibining oshishini anglatadi. Adabiy matnning o'ziga xos xususiyati ham talqin sifati, matnning yashirin ichki ma'nosi. Nomga maxsus ma'no berilganligi sababli, badiiy asarni muayyan matnda nomlarni o'rganmasdan turib tahlil qilish mumkin emas. Antroponim tahlil qilinishi uchun ijtimoiy-madaniy tajriba ham kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., 2008.-5.83
2. Мўминова Н.А. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари.– Қарши, 2021. –186 б.
3. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т.: Фан, 2013. –264 б. –Б. 190.
4. Magazanik E.B. Rol antroponimov v postroenii xudojestvennogo obraza // Onomastika. –М.: Nauka, 1969. – S. 162-163.

ОТНОШЕНИЯ ДИСКУРСА И ПРАГМАТИКИ.

Рахматова Мехринисо Мусиновна,

БухГУ, Доктор философских наук Ассоциированный профессор

Аслонова Шахризода Зиёдуллаевна,

Магистр БухГУ

Аннотация: в данной статье на примерах анализируются прагматический анализ дискурса, связь прагматики с другими областями, прагматический феномен. Проведен анализ культурно-прагматических явлений в языке.

Ключевые слова: синтаксис, семантика, вера, традиция, прагматическое поле, языкознание, коммуникация, общество.

Анализ дискурса изучает язык в общении. Этот тип анализа, который включает в себя контекстуальные соображения, тесно связан с разделом лингвистики, известным как прагматика.

Прагматика в основном занимается трехмерными отношениями, сочетающими коммуникативные функции и языковые формы, и эти формы могут создавать контекстно-зависимые ситуации, включающие языковые формы, выполняющие определенные функции [1, 10]. формируются смыслы устной и письменной речи, зависит от контекста, в котором происходит устная и письменная речь. Прагматика в основном связана с интересами и целями говорящего, формируемыми посредством дискурса. [6, 59]

Традиционный языковой анализ противопоставляет прагматику синтаксису и семантике. Синтаксис — это раздел языкового анализа, который описывает отношения между лингвистическими формами, то, как они упорядочиваются, и какие структуры предложений взаимно совместимы и, следовательно, грамматически приемлемы. [3, 64] Семантика — это изучение языка, это раздел лингвистического анализа, который описывает, как значение скрыто, и эта ветвь в основном связана со значением лексических единиц. Области Лингвистика и Семантика не принимают во внимание пользователей языковых форм при их анализе и описании, в то время как прагматика очень четко связана с изучением

отношений между языковыми формами и людьми, которые используют эти формы. [4, 44] В целом, прагматика связана с намерениями, предположениями, убеждениями, целями и поведением людей при использовании языка.

Область прагматики имеет дело с предполагаемым значением говорящего и контекстуальным значением. Значение говорящего относится к значению говорящего, а не к значению определенных слов или фраз внутри или вне предложений. [7,30] Когда человек говорит: «Я голоден», можно понять, что этот человек чувствует голод. С практической точки зрения, если то же самое предложение использует маленький ребенок, чтобы попросить свою мать, сидящую на кухне в полдень после школы, это предложение действует как просьба пообедать или просто пообедать. Когда ребенок говорит: «Я голоден», можно понять, что он недоел за обедом или хочет десерта после ужина. Для того чтобы понять смысл говорящего, необходимо учитывать не только смысл, понятный из самого предложения, но и ситуацию, в которой происходит событие. Если такая ситуация возникает между пассажиром и нищим, то есть когда нищий говорит «я голоден», он имеет в виду прошение милостыни, а не голод. Из этих случаев известно, что простой дискурс «Я голоден» скрывает в разных ситуациях разные смыслы, вызывая прагматический феномен [2, 44].

Человеку, изучающему иностранный язык как второй язык, для более глубокого изучения языка необходимо знакомство с культурой и обычаями общества, общающегося на этом языке [9, 295]. Поэтому между культурами существует разнообразие понятий, и одно и то же предложение, слово или сочетание слов могут иметь разное прагматическое значение в разных языках, имеет разное значение в узбекских языках. «Черные глаза девушки...» относятся к эстетической красоте ее глаз и выражают отношение узбекского народа к красоте. В английском языке черные глаза не имеют такого значения, потому что в их культуре нет положительных взглядов на черные глаза. [8, 98].

В процессе изучения языка, понимания и углубленного изучения сочетание анализа дискурса и прагматических направлений дает возможность изучить все

аспекты языка. Культуры отличаются своим разнообразием и самобытностью каждой культуры, что порождает уникальные значения языковых единиц. Такие тонкие аспекты языка более глубоко изучаются в научных исследованиях.

Список литературы:

1. Brown, G. and Yule, G.(1983) Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Schiffrin, D. (1994). Approaches to discourse. Oxford: Basil Blackwell
3. Rakhmatova M.M., and Abdukhlikova K.M.. "THE IMPORTANCE OF "COLLABORATIVE LEARNING" TECHNOLOGIES IN CREATING INNOVATIVE IDEAS IN THE CLASSROOM" Мировая наука, no. 12 (21), 2018, pp. 64-66 <https://cyberleninka.ru/article/n/the-importance-of-collaborative-learning-technologies-in-creating-innovative-ideas-in-the-classroom>
4. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
5. Raxmatova, M. M. CROSS-CULTURAL UNDERSTANDING OF VALUES IN LANGUAGE.<http://www.internauka.com/uploads/public/15058932524023.pdf#page=137>
6. Рахматова, М. М. (2019). ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА "НЕКРАСИВОСТЬ (ХУНУКЛИК)" В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ. Международный академический вестник, (2), 59-62. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37109696>
7. Musinova, R. M. (2022). Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 30–33. <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35>
[Linguistic features of the concept " beauty" in English, Uzbek and Tajik national cultures](#) RM Musinova, SZ Haydarovna - International Journal of Recent Technology and ..., 2019
8. Рахматова, М. М. "ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТА" НЕКРАСИВОСТЬ (ХУНУКЛИК)" В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ В УЗБЕКСКОЙ

ЛИНГВОКУЛЬТУРЕ И ЕГО ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ." *Теория и практика современной науки* 3 (2018): 295-299
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=34883609>

INGLIZ VA O'ZBEK SHE'RIYATIDA KONSEPTUAL METAFORA

Djalilova Zarnigor Baxadirovna,

BuxDU, f.f.f.d.(PhD).

Umarova Mohlaroyim Sirojiddinovna,

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Tilshunoslikda metaforalar talqiniga bo'lgan munosabat ushbu fan rivojlanishining chuqur ildizlariga borib taqaladi. Ammo zamonaviy tilshunoslik sohalari paydo bo'lishi bilan bir qatorda ushbu masalaga bo'lgan yondashuvlar va talqinlar ham o'zgarib bormoqda. Ushbu tezisda konseptual metafora tushunchasi, uning kelib chiqishi, ko'rinishlari hamda ingliz va o'zbek she'riyatida tutgan o'rni, uning qay darajada o'rganilganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: metafora, konsept, konseptual metafora, she'riyat, adabiy metafora.

Tilshunoslikda metafora tushunchasi mavjud bo'lib, "nomlanish", "ko'chirish" ma'nosini anglatuvchi yunoncha "metafora" so'zidan paydo bo'lgan. Ikki narsa yoki hodisa taqqoslanayotganda birining sifatlari boshqasiga ko'chishi mumkin. Metafora - bu matnni boyroq va hissiyotli qilishga imkon beruvchi adabiy uslub hamdir. Ushbu tushuncha, o'xshashlik asosida bir obyekt yoki hodisani boshqasi bilan yashirin taqqoslash tushuniladi. Masalan, oy "samoviy pishloq" deb nomlanadi, chunki pishloq dumaloq, sarg'ish va kraterga o'xshash teshiklar bilan qoplangan. Shunday qilib, metafora orqali bir obyekt yoki harakat xususiyatlarini boshqasiga o'tkazish mumkin bo'ladi. Ammo zamonaviy tilshunoslik rivojlanib borgani sari unda konseptual termini paydo bo'ldi. Bu termin bevosita metafora termini bilan ham aloqadorlikni kasb etdi. Konseptual metafora haqida bir qator fikrlar bildirilgan, u barcha fikrlar uchun asosdir. Misol uchun, "vaqt – pul", "kasalliklar – dushman", "hayot- sayohat" modellari mavjudki, ular ikki tushunchaning qaysidir o'xshash xususiyatlariga asoslanadi.

Ularning nima ekanligini, nima qilishini va ulardan qanday foydalanishni bilish bizning tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi, empatiyamizni kengaytiradi va oxir-oqibat hayotimizni yaxshilaydi. 40 yil avval ushbu sohaga qiziqish uyg'otgan "Metafores We Live By" kitobining muallifi Jorj Lakoff va Mark Jonson shunday yozadilar: "Metafora asosan bir narsani boshqa narsa nuqtai nazaridan tasavvur qilish usulidir va uning asosiy vazifasi tushunishdir." [1] Odatda kontseptual metafora mavhum narsani (maqsadli sohani) konkret narsa (manba sohasi) nuqtai nazaridan tushunish usulidir. Metafora tilni she'riy deb belgilovchi aniq uslubiy vositalardan biridir. Shoirlar o'zlarining adabiy asarlarida odamlar bog'lashi mumkin bo'lgan oddiy narsalardan foydalanadilar. Tabiatdagi obyektlar (jonli yoki jonsiz), narsalarga ko'pincha metaforik qiymat beriladi. Yozuvchi bir hodisa yoki obyektни boshqasidan foydalangan holda belgilaydi, birinchi obyektни ikkinchisining fazilatlari bilan bog'laydi. Konseptual metaforalar o'xshatish bilan bir qatorda adabiy "troplar"ning umumiy toifasiga kiradi. [2] O'xshatishdan farqli o'laroq, konseptual metaforada ikki predmetni solishtirishda "kabi" yoki "dek" kabi solishtirish so'zlari qatnashmaydi. She'riyatda, boshqa adabiy san'at turlarida bo'lgani kabi, muallif ham ikki shaxs, narsa, hodisa o'rtasida o'xshashlik munosabatlarini o'rnatishi mumkin. Metafora nafaqat kundalik suhbatlarda, balki adabiyotda ham keng tarqalgan. Misol tariqasida Emili Dikkinsonning "Because I could not stop for Death" she'ridan keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

Because I could not stop for Death –

He kindly stopped for me

The Carriage held but just Ourselves –

And Immortality [3]

Bu she'r mazmunida o'limning tashrifi tasvirlangan. Dikkinson o'limni aravaga qiyoslab hayot sayohati nihoniga yetayotgan yo'lovchini olib ketishga kelganini tushuntiradi. Ma'lumki, "Life is a journey" (Hayot sayohat) metaforik modelida inson hayoti bir manzildan boshqa manzilga boradigan sayohat kabi tushuniladi. [4] She'ring keyingi bandlarida o'lim abstract tushunchasi sayohatda mavjud moddiy ko'rinshdagi tushunchalar orqali (*"We slowly drove...(Biz sekin haydadik) We passed the*

School..., (Maktabdan o'tdik) We passed the Fields..., (Dalalardan o'tdik)”) o'quvchi tafakkurida aniq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Shunday qilib, muallif o'lim haqidagi o'y-xayollarini ochib berishda sayohatni tugatish metaforik tushunchasidan foydalanadi.

Ingliz adabiyotida olimlar ko'pincha konseptual metafora tabiati to'g'risida nazariya yaratganda, ular ko'pincha obrazli tilning badiiy tabiatiga e'tibor berishadi. Shu bilan birga, psixolingvistika va tegishli sohalardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, konseptual metafora an'anaviy metafora bilan bir xil fikrlash naqshlari va tana tajribalariga asoslangan. Shunday qilib, ular na standart kommunikativ me'yorlarni buzadilar, na ilgari taklif qilinganidek, maxsus iste'dodni ishlab chiqarishni yoki tushunishni talab qiladilar. [5]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, konseptual metaforaning asosini tashkil etuvchi alohida so'zlar, she'riy metaforalarning talqini va yaratilish jarayonlarini qanday shakllantirishini bilish shoirlarga o'quvchilarning o'ziga xos metaforalarga munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Boshqa tomondan, o'quvchilar she'riyatdagi metaforalarning yashirin darajada ishlashi va muayyan assotsiatsiyalar va hissiyotlarni qo'zg'atishi haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Ingliz va o'zbek she'riyatida ham konseptual metaforalarning qo'llanishi bu lingvistik hodisaning qanchalik dolzarligi va ahamiyatliligidan darak beradi.

ADABIYOTLAR

1. Lakoff, G. & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago, IL: University of Chicago Press. [Google Scholar](#)
2. Freeman, M. (2000). Poetry and the scope of metaphor: toward a theory of cognitive poetics. In Barcelona, A. (ed.), *Metaphor and metonymy at the crossroads: a cognitive perspective* (pp. 253–281). Berlin: Mouton de Gruyter. [Google Scholar](#)
3. Casasanto, D. & Gijssels, T. (2015). What makes a metaphor an embodied metaphor? *Linguistics Vanguard* 1(1), 327–337. [CrossRefGoogle Scholar](#)

4. Fayziyeva A. Ingliz shaxsiy rivojlanish lingvo diskursida konseptual metaforlarning kontekstual shartlanishi va ularning o'zbe tiliga tarjimasini, Filol fan. dok-ridiss. avtoref.– Buxoro, 2022

5. Djalilova, Z. (2022). ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН ОБРАЗИНИНГ ГУЛЛАР ОРҚАЛИ ТАСВИРЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 26(26).

http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8567

6. Джалилова, З. Б. (2021). ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-1). <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/380>

SIMILAR ASPECTS AND COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

A.B.Asadov,

Bukhara State University

The field of philology.

Abstract: This article examines the role of “proverbs” in English and Uzbek cultures. In this article several ideas about proverbs and their peculiarities have been done by famous writes and researchers. This article will be useful in my own research as I develop a clear theoretical framework for the role of proverbs in in English and Uzbek cultures

Key words: proverb, grammar, comparison

The whole of the spiritual culture created by the people is definitely the proverbs of that people. Let's take the oral or personal memory of each people, in which we will see the legends preserved in their historical memory, the primitive ideas and concepts of the long history, the wisdom of life derived from the observations over the centuries, the reflection of the human thinking experience.

English and Uzbek folk proverbs have been collected and polished over thousands of years as a product of scientific and artistic thinking, spoken and studied among the people, and passed from generation to generation as one of the best spiritual heritages. . The best proverbs created and used in the past, as an example of folk wisdom, are still of great educational value. Such proverbs and wise words are a precious treasure of the spiritual wealth of every nation [1,2].

Poets and writers like Alisher Navoi, Bobir, Muqimi, Furqat, Zavqi, Lutfiy used folk art effectively to make it easier for people to understand. The writer M. Gorky also gave a high assessment to proverbs: “The greatest wisdom is in the simplicity of words”. Proverbs and songs are always short. They will have thoughts and feelings equal to the contents of entire books. Deep analysis of proverbs and their reflection of national-cultural and universal values in different languages is an urgent problem of modern linguistics. If we study in comparison, we can see that all the languages of the world have their own characteristics, and it is this phenomenon that separates different languages from each other. But it is known that language learners acquire a foreign language on the basis of a certain connection between the mother language and this language. These languages are united under certain categories [2].

These categories include grammatical categories, lexical-semantic categories, linguistic signs similar to functional categories. So, generalizing categories provide universality in languages. At the same time, proverbs are a unique linguistic unit found in every language, and they also have something in common. G. L. Permiakov thinks about it as follows: the feature of generalizing situations, that is, combining the same or similar situations, can be found in proverbs of different peoples.

This uniformity in proverbs provides universality, and in many cases they have a special logical meaning. It follows that the proverbial world is related to world civilization, and it is completely wrong to say that it belongs to only one nation. Universality in proverbs is the main edge of paremiology, which summarizes similar and identical situations in proverbs and occurs even in unrelated languages, despite their

history and ethnicity¹. It should be mentioned that many proverbs in different languages have similarities both in form and meaning or in their general functions.

Therefore, many studies have been conducted on the possession of universal and national characteristics of proverbs. If universal features are manifested in the structure, monosyllabicity and multisyllabicity, and themes of proverbs, the reason for this is the historical development, the strengthening of international relations, and the growth of universal values. National characteristics are a reflection of national character, national spirit, and are characteristics of a specific ethnic group. It is absolutely impossible to understand the essence and meaning of proverbs of a certain ethnos without knowing the necessary aspects such as its place of residence, history and nationality[1,2].

Proverbs to be alert, to distinguish a friend from an enemy, to be humane, kind, sweet words, to be loyal, to value parents, relatives and friends, to respect elders, to be kind to children teaches to be: *“Yaxshi bilan yursang etarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga”*, *“Hurmat qilsang hurmat ko‘rasan”*. The proverbs that call people to cleanliness and health are short and simple words, but they have a deep, deep meaning and are aimed at the same goal: *“Ko‘zing og‘risa qo‘lingni tiy, iching og‘risa nafsingni tiy!”*, *“Odam – po‘latdan qattiq, guldani nozik”*, *“Sihat tilasang, ko‘p ema, izzat tilasang, ko‘p dema!”*, *“Pokliging-sog‘liging”* is one of our good spiritual heritages. Therefore, it is appropriate to decorate our conversations with proverbs containing wise thoughts so that it is easy for students to understand them when instilling the idea of national independence into the minds of young people and raising them to be a perfect generation.

References

1. Mieder W. Proverbs: A handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
2. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs-Maqollar - T.: Mehnat, - 2000. -398 b.

MAQOLLARNING BOSHQA FOLKLOR JANRLARIGA NISBATAN O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Tursunov Mirzo Maxmudovich,

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq maqollarining o'ziga xos xususiyatlari, shakliy tuzilishi va shuningdek, xalq og'zaki ijodi janrlari, jumladan, matal va topishmoqlar bilan o'xshash hamda farqli jihatlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: folklor janrlari, maqol, matal, topishmoq, lirik tur, epik tur, hukm va xulosa, voqelik, obraz, kechinma, qisqa va soddalik.

Maqollar kishilik jamiyati zamirida paydo bo'lgan xalq og'zaki ijodi janri sifatida ma'lum bir xalqning turmush tajribalari va xalq donoligini ifodalaydigan qisqa, ko'p hollarda she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralar bo'lib, juda ixcham, tugal va puxtaligi bilan xalq ijodidagi boshqa janrlardan farq qiladi. Shu bois, ular yoshlarga to'g'ri hamda mantiqiy fikrlashni, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon etishni o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga ko'maklashadi. Bunga qo'shimcha ravishda, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga yordamlashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Mavzu jihatidan esa, maqollar xilma-xil va rang-barangdir.

Rus mashhur yozuvchisi A.M.Gorkiy xalq maqollari to'g'risida quyidagi fikrni bildiradi: “Men maqollardan juda ko'p narsani, boshqacha qilib aytganda, lo'nda fikrlashni o'rganganman”. “Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo'ladi.[1] Bunda yozuvchi maqollarning yuqorida aytganimizdek, qisqaligiga urg'u bermoqda. Keyingi fikrida esa, bevosita qo'shiqlar bilan maqollarning mazmuniy xilma-xilligi aytilgan bo'lib, ular hajm jihatidan tenglashtirilmogda. Doston, ertak, afsona, asotir, rivoyat, latifalar epik tur hisoblanib, ulardagi voqelik obrazlar va ularning kechinmalari orqali aks ettiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, maqollarda kechinma emas, balki xulosa va hukm bo'lib, voqeaning qay holatda kechishi folklorning boshqa janrlari orqali bayon

etiladi. Binobarin, epik janrlarda yo'nalish harakat va holatdan hukmga tomon yo'nalgan bo'lsa, maqollarda hukmdan harakat va holat tomon yo'nalganlik boshchilik qiladi.[2]

Bu kabi janrlarni ko'pgina xalqlar ijodida uchratishimiz mumkin. Xususan, ingliz tilida ham. Ingliz tilida maqol "proverb", matal "saying" va topishmoq "riddle" tarzida yuritiladi. Ularning farqi esa "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" kitobida aniq ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin: "Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi. Matalda esa tugal fikr ifodalanmaydi. Topishmoq shaklan maqollarga yaqin tursa ham, biroq voqelikni aks ettirish tarzi, asosan fikrni jumboqli shaklda yashirib ifodalash bilan maqollardan keskin farqlanib turadi".

Maqollarda hukm bo'ladi, ya'nikim, "Tushgan yerini buzar" topishmog'ida esa ombur mehnat quroli yashiringan, bunda hech qanday hukm yoki xulosa mavjud emas. Bundan shuni xulosa qilamizki, maqol va topishmoqlar o'rtasida faqatgina shakliy o'xshashlik bor xolos. Ingliz tilidagi "Honesty is the best policy" maqolida rostgo'ylikning naqadar muhimligi ifodalanmoqda. Demak, ingliz tilidagi xalq maqollarida ham hukm va xulosa mavjud ekan.

Endi matal janrini ko'rib chiqsak. "Better late than never" matali o'zbek xalqimizning "hechdan ko'ra kech yaxshi" degani singari ma'noni bildirib, bunda tugal hukm yo'q. "What has one eye, but can't see?" topishmog'ida esa nina javobi yashiringan, ya'ni hech qanday hukm ko'rsatilmagan.

Bundan ko'rinadiki, maqol alohida qo'llanganda tugal fikrni bildiradi va hayotda uchrab turadigan o'xshash lavhani izohlaydi. Matal esa alohida qo'llanganda, mustaqil ma'no ifodalamaydi va fikrning estetik jihatdan boyishiga yordam beradi. Ikkala janr ham xalq hayotida tutgan o'rni, maishiy vaziyatlarini ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat tarixiy jarayon natijasida ularning biri maqol bo'lib shakllangan, ikkinchisi matal sifatida yashay boshlagan.[3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek xalq maqollari juda ko'p xususiyatlari, jumladan, hukm va xulosa ifodalashi, mavzuning keng ko'lamda bo'lishi, notiq nutqini boyitishi bilan folklorning boshqa janrlaridan keskin farqlanib tursalar

ham, ko'pchilikning ijod mahsuli sifatida, anonim yaratilishi, o'g'zaki holda jonli yashashi, keng variantlashishi va o'ta ommaviyligi bilan xalq og'zaki ijodining barcha janrlari bilan umumiylik kasb etadi.. Bir so'z bilan aytganda, xalq og'zaki ijodining lirik, epik va hattoki liro-epik turiga mansub janrlar xalq donoligi, turmush-tarzi, tajribasidan xabar beruvchi durdonalardir.

ADABIYOTLAR

1. Горький М. Материалы и исследования. Т.,1934.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990
3. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi(o'quv-uslubiy qo'llanma), Namangan .2008.
4. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/bolalar-folklori-maqollar/>
5. <https://hikmatlar.uz/quote/2413>
6. <https://uz.wiktionary.org/wiki/matal>

SO'Z URG'USINING TABIATI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI.

A.A.Haydarov,

BuxDU, F.f.n.,professor

D.U.Mansurova,

BuxDU, 2- bosqich magistranti,

Annotatsiya: Urg'u supersegment (ustama) vositalardan biridir. Supersegment element segment (asos) ustiga qurilgan ifoda elementi. Urg'ular tilning turli sathlariga tushib nutq jarayoni zanjirini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Intonatsiya, pauza, urg'u, ritmik – melodik, nutq tempi, nutq tembri, logik urg'u, emfatik urg'u, emotsional – ekspressivlik. Ma'lumki, urg'uli bo'g'inning unlisi kuchli aytiladi, aniq talaffuz qilinadi. Urg'uning fonetik tabiati juda murakkab: u akustik jihatdan ko'p komponentli. Bu uning temporalligida (vaqtincha) musiqiylikda ko'rinadi. Ikkinchidan, urg'uli bo'g'inda akustik cho'qqilar yuqori bo'ladi, urg'usiz bo'g'inlarning akustikasi past bo'ladi.[1;69-72]

So'z tarkibidagi biror bo'g'in yoki gap tarkibidagi biror so'z talaffuzda ajratilib, urg'u berib, zarb bilan aytiladi. Bu hol, odatda, ovozning ko'tarilishi, cho'ziqlikning ortishi yoki intonatsion taktning kuchayishi kabi fonetik vositalar bilan ifodalanadi. Turli fonetik vositalar orqali bo'g'in yoki so'zni ajratish, shu ajratishga xos kuchli talaffuz urg'udir. Ajratish obyektiga ko'ra urg'uning ikki turi farqlanadi:

1) So'z urg'usi;

2) gap urg'usi.

O'zbek tilining urg'usi, uning tabiati, o'rni ayniqsa, uslubiy xususiyatlari haligacha chuqur tadqiq qilinmagan. Holbuki, o'zbek tilidagi so'zlarning aksent strukturasi har tomonlama chuqurroq tekshirish, tadqiq qilish davr talabidir. Ammo bu o'rinda 1947 yilda A. G'ulomov tomonidan nashr qilingan "O'zbek tilida urg'u" risolasining nazariy va amaliy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim.

Professor Ayub G'ulomov yuqorida nomi qayd qilingan risolasida o'zbek tilida urg'u olmaydigan 16 ta elementni sanab o'tadi va buning sabablarini ochib beradi. Shu bilan bir qatorda, ko'rsatilgan elementlarning urg'u olmaydigan, ularning asosiy holati, ayrim o'rinlarda biror sabab bilan istisnoga yo'l ochilib qolishi, jumladan, bir umumiy intonatsiya yordami bilan birikkan sintagmalarda, hayajonli ifodalarda, yuqoridagi holatlarning o'zgarishi, urg'u olmaydigan elementlarning urg'uli holatda qo'llanishi mumkinligini qayd etadi. [5;32] So'z urg'usi semantik – uslubiy tomondan so'z ma'nosi va talaffuzini to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. Masalan: "olma" so'zining birinchi bog'inidagi urg'u uni morfologik jihatdan fe'l turkumi, leksik jihatdan harakat lug'aviy ma'noli so'z ekanligini ko'rsatadi. Shu so'zning ikkinchi bo'g'inidagi urg'u esa ma'noni tamoman o'zgartiradi: ot, ya'ni meva ma'nosi ifodalanadi. Ayni zamonda urg'u shu so'zning to'g'ri talaffuz etishni ham taqozo qiladi. Bunga e'tibor qilmaslik adabiy talaffuz me'yorini buzilishiga olib keladi.

[4;57-60]

Ingliz tilida ham urg'u ma'no farqlashga xizmat qiladi, ya'ni urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishi bilan farqlanadi.

Masalan: present simple – hozirgi zamon

present – sovg'a (gift) ma'nosida. Santa Clause gave many presents to the Children in New Year. Darhaqiqat, urg'uning o'rnini almashtirish orqali ma'nosi va grammatik shakli o'zgacha so'zlar vujudga keladi. Jumladan quyidagi so'zlarning biri ot bo'lsa, ikkinchisi fe'ldir. Ot so'z turkumiga urg'u oxirgi bo'g'inga, fe'lda oldingi bo'g'inga tushadi: qatlama – ot (predmet nomi), qatlama – fe'l (harakat); kesma – sifat (kesma charm), kesma – fe'l (harakat)kabi.[2;144] So'zdagi urg'uning o'rin almashishi bilan bog'liq bo'lgan bu hodisalarda stilistik bo'yoqdorlik ham vujudga keladi. Yana shunday holatlarni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

Bog'chalarda erkin sayrar qushchamiz,

Xoy, bolalar, biz ham ozod qushchamiz.

Biz yosh kuchlar – har bir ishda chaqqonmiz,

Keng osmonda uchishda ham qushchamiz.

(“Bolalar adabiyoti” dan) Birinchi qatordagi qushchamiz I shaxs ko'plikdagi qush so'zining kichraytirish shakli va ma'nosini, ikkinchi misradagi qushchamiz so'zi ko'plik va kichraytirish shaklida qushga tegishlilik ma'nosini, oxirgi qatorda esa ushbu so'z qushga tenglik, barobarlik, monandlik ma'nosini yuzaga chiqargan. Bu ma'no xususiyatlari, turli ottenkalar urg'u orqali ifodalanmoqda. Ayni zamonda, she'r ohangligining yoqimli bo'lishini ta'minlamoqda.

Urg'u orqali ma'no o'zgarishida ohang asosiy rol ni o'ynaydi. Bunda yangi so'z hosil bo'lmaydi, ya'ni so'zning denotative ma'nosi o'zgarmaydi, turli konnotativ ma'nolari hosil bo'ladiki, bu uslubiy rang – baranglikni vujudga keltiradi: Chog'ishtiring: So'zlayman (to'g'ri, odatdagicha anglatish), so'zlayman (ta'kid, uqdirish, yalinish), so'zlayman (qat'iyat); kesildi (to'g'ri, odatdagicha anglash), kesildi (kesatish), kesildi(uqdirish) kabilar.

So'z urg'usi so'zning urg'u tushgan bo'g'ini boshqa bo'g'inlarga nisbatan alohida talaffuz qilishi bilan farqlanadi. Bu farqli talaffuz tovush kuchi, tovush balandligi, tovush cho'ziqligi, sifati kabilarda kuzatiladi.

Shunday qilib, urg'u semantik – grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan fonetik vositadir. Urg'u vositasida so'zning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi. Urg'u vositasida paydo bo'lgan turli xil emotsional – ekspressiv ma'nolar so'zlashuv nutqi va badiiy tasvirning obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Haydarov A. “Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari” BuxDu Ilmiy axbarot. 2006. N1 – B.69 -72
2. Haydarov A. “Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi”. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2009 -21b -144b.
3. Hojiyev A. “Lingvistik terminlarning izohli lug'ati” – T.: 1985
4. Qobilova N. “Pasayuvchi intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari” Buxoro, 2005. – B. 57-60
5. G'ulomov. A. O'zbek tilida urg'u. – T.: 1947. – 32 b.

KONSEPTUAL METAFORALAR TARJIMASIDA INTEGRATIV YONDASHUV

N.S.Qobilova.

BuxDU, dotsenti PhD,

begin1977@mail.ru

A.O.Ollomurodov,

BuxDU, 2-bosqich magistranti

a.o.ollomurodov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada konseptual metaforalarni tarjima qilish jarayonida qo'llaniladigan integrativ yondashuv haqida so'z yuritiladi. Ushbu yondashuv tarjimashunoslikning zamonaviy tamoyillari va yondashuvlari asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: konsept, til, tarjima, integratsiya, adekvat, kalka, prakseologik vazifa, transformatsional, metaforik tarkib.

Zamonaviy kognitiv nazariyaga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, bir nechta asosiy nutq uslublariga oid matnlarda, jumladan, ilmiy, kundalik, publitsistik va badiiy

uslublarda, metaforaning keng ko'lamli foydalanilishi mutlaqo tabiiy hodisadir. Ma'lumki, metaforalar eng ko'p badiiy nutqqa xos bo'lib, badiiy matn tarjimalarida ularni aniq ma'nosini saqlab qolgan holda yetkazib berish tarjimonga juda ko'p qiyinchiliklarni olib keladi. Metaforani tarjima qilishning qiyinchiligi asosan mavjud metaforik tizimlar orasidagi farqli tegishli tillar bilan bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi metaforik tasvirlar, xarakterli bo'yoqlar, metaforik tarkib va birikmalar ko'pincha rus, o'zbek yoki tegishli tillarda yo'q bo'lishi mumkin va aksincha. Shuning uchun ingliz tilidagi matndan metaforalarni shunchaki o'tkazish har doim ham mumkin emas. Natijada, vaqti-vaqti bilan metaforik tasvirni o'sha ma'noviy birlikni saqlab qolgan xolda o'zgartirish zarurati yuzaga keladi. Bu almashtirish asl nusxaning ifoda darajasini saqlab qolish va tarjimani ko'proq qilish idiomatik shakllantirishga yordam beradi. Tarjima nazariyasida "metaforaning saqlanish qonuni" mavjud bo'lib, unga ko'ra, metaforik tasvir, iloji boricha, tarjima paytida saqlanishi kerak. Ushbu qonunga rioya qilmaslik iboraning ma'nosi o'zgaradi va uning estetik va pragmatik ta'siri pasayishi kabi oqibatlarga olib keladi. V.N.Vovk ta'kidlaganidek, asl metaforalarning tarjima jarayonida tushurib qoldirilishi "jiddiy va juda keng tarqalgan buzilish vositalaridan biri" sifatida ko'riladi. Metafora yozuvchining tili, madaniyati, tarixi hamda tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan fenomen bo'lib, tarjimonlar uchun tilni borligicha yaqqol ko'rsatib beruvchi jonli vositalardan biridir. Chunki metafora orqali inson va uning atrofidagi jonli muhitni anglash va his qilish mumkin. Shuning uchun ham, tarjimashunoslikda metaforalarning tarjima qilinishidagi muommalarni hal qilish muhim o'rin tutadi. Tarjimashunos olim Nyumarkning ta'kidlashicha, tarjimon o'z faoliyati davomida ikki yirik muammoga duch kelishi mumkin: to'liq matn uchun eng sara tarjima uslubini tanlash va metaforalarni to'g'ri tarjima qilish. [1] Bu esa aynan metaforalar tarjimasiga xos bo'lgan o'ziga xos yondashuv ishlab chiqilishini taqazo etadi. A.V.Nimirovskaya metafora tarjimasining murakkablik jihatlarini o'rganar ekan, bunday serqirra ma'no kasb etuvchi tushuncha tarjimasida integrativ yondashuv lozimligini ta'kidlaydi. [2] Tarjimadagi ushbu yondashuv esa fandagi ma'lum tarmoqlarni bir joyga yig'gan holda muommalarni hal qilishni nazarda tutadi.

“Integratsiya” so‘zi asosan iqtisodiyot sohasida qo‘llanilishiga qaramasdan, boshqa yo‘nalishlarda maxsus usul sifatida foydalanilib kelinmoqda. Ushbu so‘zning quyidagi ma‘nosi yondashuvning maqsadi nimalardan iborat ekanligini tushunishga yordam beradi:

Integratsiya [lot. integratio — tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish].

1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha.

2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. [3]

Ushbu fikrlar shuning yaqqol daliligi, konseptual metaforalarni tarjima qilishda umumiy xizmat uchun birlashgan turli faktorlardan iborat kognitiv yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayon mental jarayon bo‘lib, inson tafakkuri jarayoni bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, integrativ yondashuv orqali metaforaning praksiologik (grek. Praktikos – faol, serharakat, samarador) vazifasi ham aniqlashtiriladi, ya‘ni metaforik maqol hamda iboralardan ko‘zlangan asosiy maqsad-maslahat yorqin namoyon bo‘ladi. Metaforik leksemaning asosiy semalaridan tashqari qo‘shimcha, ya‘ni vaziyatga nisbatan harakat uchun yo‘naltirish mohiyati mazkur praksiologik xususiyat orqali namoyon bo‘ladi. Y.I.Retzker metaforalarni so‘zlovchiga yetkazishning 4ta yo‘lini ajratadi.

1. Teng – ushbu turdagi yetkazib berish agar metafora asos tilda o‘z ekvivalentiga ega bo‘lsa amalga oshadi.

2. Teng bo‘lmagan – metaforik iborani o‘zgartirish jarayonida lug‘atlardan foydalanishni taqazo etadi.

3. Transformatsional – metaforaning asl asosini butkul o‘zgarishiga olib keladi.

4. Kalka – tarjimada asl metaforaning to‘liq analogini tiklaydi [4].

Integrativ yondashuvning qo‘llanilish jihatlari turlicha talqin qilinsada, maqsad bitta, ya‘ni metaforaning mukammal tarjimasiga erishishdan iboratdir. Ushbu yondashuv orqali metaforaning aniq tarjimasiga yuzaga chiqsa, konseptual metafora nazariyasi vositasida nutqdagi turli tarqoq jumlar ma‘lum bir tizimga solinadi.

Integrativ yondashuv shakllanishi asosida aynan metaforaning kognitiv nazariyasi turadi.

ADABIYOTLAR

1. Немировская, А. В. Интегративный подход к переводу метафоры в художественном тексте / А. науки, 2006. №3., –Красноярск, 2006. –С. 211-213
2. Newmark P. A. Textbook of Translation. – Harlow : Pearson Education Limited, 2008. – P. 292.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institute
4. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 237 с.
5. Lakoff G.,Johnson M. Metaphors we live by. The University of Chicago Press. 1980.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI TOPISHMOQLARIDA SOMATIZMLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

M.I. Gadoyeva,

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasini professori, f.f.d. (DSc)

L.B.Yodgorova,

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola somatizmlarning ingliz va o‘zbek tillari topishmoqlarida chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan. Ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, xalq og‘zaki ijodi, somatizm, denotativ ma‘no, konnotativ ma‘no.

Folkorning eng kichik janrlaridan biri hisoblangan topishmoqlar qadimdan to hozirga qadar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmasdan kelyapti. Ular o‘zining qiziqarliligi, tinglovchining topqirlik va zukkoligini sinovdan o‘tkaza olish xususiyati tufayli diqqat

e'tiborni o'ziga jalb etadi. Topishmoq xalqaro janr bo'lib, ya'ni ular turli xalqlar folklorida uchraydi. Tarkibida somatizmlar bor-yo'qligiga qarab yoki o'zi somatizm haqida yaratilgan topishmoq ekanligiga ko'ra, topishmoqlarni uchga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Muayyan somatizm yashiringan topishmoqlar. 2. Tarkibida somatizm berilgan topishmoqlar. 3. Tarkibida somatizm uchramaydigan topishmoqlar. Ushbu maqolada tarkibida somatizm berilgan topishmoqlarni tahlil etilgan.

Har ikkala xalq topishmoqlari tarkibida ham somatizmlar ya'ni tana a'zolari nomlarini uchraydi, ular o'rtasida ba'zi bir umumiyliklar mavjud.

Ingliz topishmoqi	O'zbek topishmoqi
<i>It walks on four legs in the morning, two legs at noon and three legs in the evening. What is it?(Man)</i>	<i>Erta bilan to'rt oyoqlab yuradi, Tushda ikki oyoqlab yuradi, Kechqurun uch oyoqlab yuradi. (Odam-bolaligi, yigitligi, keksaligi)</i>

Bu topishmoqlarda oyoq somatizmi o'z denotativ ma'nosida ham, konnotativ ma'nosida qo'llanilgan. Bu topishmoq ingliz va o'zbek tillaridan tashqari boshqa xalqlar ijodiyotida ham uchraydi.

Ingliz topishmoqi	O'zbek topishmoqi
<i>A golden girl sits in the darkness, but her hair hangs out in the sunlight. Do you know her? (A carrot).</i>	<i>Qirmizi yuz qiz Yer ostidasiz. Sochlari yer ustida Rangi osmon tusida. (Sabzi)</i>

Bu topishmoqlarda ko'rib turganimizdek sabzi va uning barglarini tasvirlash uchun soch somatizmi har ikkala tilda ham bir xil ma'no (konnotativ ma'no) ifodalab kelyapti. O'zbek tildagi topishmoqda yana bir somatizm yuz (konnotativ ma'noda) qo'llanilgan.

Ingliz topishmoqi	O'zbek topishmoqi
-------------------	-------------------

<i>What loses its head in the morning and gets it back at night? (A pillow)</i>	<i>Qo'lsiz, oyoqsiz ko'ylak kiyar.</i> (<i>Yostiq</i>)
<i>What is higher without the head than with it? (A pillow)</i>	<i>Qo'li oyog'i</i> <i>Ko'ylak kiyar,</i> <i>Qorni to'q. (Yostiq)</i>

Bu topishmoqlarga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, ingliz tilida yostiqni tasvirini gavdalantirish uchun head-bosh somatizmi (denotativ ma'noda) qo'llanilgan. O'zbek tilida esa bosh somatizmi qo'llanilmagan, ammo bu yerda qo'l, oyoq, (denotativ ma'noda) shuningdek, keyingisida bu somatizmlar bilan bir qatorda qorin somatizmi (denotativ ma'noda) yostiqni jumboqlantirishga xizmat qilyapti.

Bir xalqning madaniyati, ushbu xalq qadriyatlari uning xalq og'zaki ijodi namunalarida, shu jumladan, topishmoqda ham aks ettirilgan bo'ladi. Ular xalqning asrlar mobaynida shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot tarzi haqida ma'lumotlar beradi. Somatizmlarning xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibida mavjudligi, ularning azaldan til qatlamida tez-tez foydalaniladigan leksemalar ekanligini bildiradi. Ularda shu xalqning o'ziga xos milliy madaniyati va qadriyatlari aks ettiriladi. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi xalq donoligini namoyon etadi. Ular har bir xalqning bebaho boyligi hisoblanib, ular shu xalq vakillarining ko'p asrlik turmush tarzini o'zida ifoda etgan, xalqning madaniy va ma'naviy madaniyatini namoyon etadi.

Ingliz xalq madaniyatini o'zida mujassam etgan topishmoqlarga quyidagi misolni keltirishimiz mumkin.

As I went over London bridge

I met my sister Jenny,

I broke her neck and drank her blood

And left standing her empty. (A bottle of gin)

Yuqoridagi topishmoqda ingliz xalqiga xos joy nomi va antroponim mavjud, shuningdek, neck(bo'yin) va blood(qon) somatizmlari(konnotativ ma'noda) spirtli

ichimliklarning bir turi jumboqlantirib kelyapti. Bu ichimlik turi inglizlar tomonidan yaratilmagan bo'lishiga qaramay, ingliz xalq madaniyatining bir qismi aylangan.

O'zbek xalq madaniyatini o'zida aks etirgan shunday buyumlar borki, ular yevropa xalqlari uchun mavhum hisoblanadi. Chunki unda shu xalq yoki shu xalqga yaqin bo'lgan boshqalarga xos madaniy elementlar mavjud.

O'zi bitta,

Ko'zi to'rtta.

Yoki: *To'rt og'aynining boshida bir qalpoq. (Tancha)*

Tancha ba'zi sharq mamlakatlari, shuningdek, o'zbek xalqi madaniyati, uning turmush tarzida qo'llanilgan isitish vositasi hisoblanadi.

Somatizmlar qiyoslanayotgan ikkala til topishmoqlarida ham bir somatizm orqali aynan bir obyektini tasvirlash holati kuzatildi. Ba'zi bir topishmoqlarda turli xil somatizmlar ham qo'llanilishi mumkinligiga guvoh bo'ldik. Ingliz va o'zbek xalq madaniyati aks ettirilgan, ularning lingvokulturologik xususiyatni o'zida ifoda etgan topishmoqlarda ham somatizmlar keng qo'llanilgan.

ADABIYOTLAR

1. Husainova Z. Topishmoqlar. –Toshkent G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti: 1981.
2. Husainova Z. O'zbek topishmoqlari. –Toshkent: 1966
3. Gadoyeva. M.I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantic-pragmatik tadqiqi (Folklorning kichik janrlari misolida) Filologiya fanlari doktori(DSc) dissertatsiyasi avtoreferat/Buxoro-2022/B.19
6. www.goodriddlesnow.
7. www.ziyouz.com. M.Abdurahimov. O'zbek xalq topishmoqlari

O'GENRI HIKOYALARIDA OBRAZLI SO'ZLARNING LINGVOMADANIY JIHATDAN IFODALANISHI

M.I.Gadoyeva,
BuxDU, f.f.d. prof.

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi obrazli so'z va iboralarning O'Genri asarlari misolida madaniyat bilan bog'liqligini ko'rsatishni tahliliga qaratilgan. Bundan tashqari unda ingliz tilshunosliklarining til va madaniyat bog'liqligi ustida olib borgan izlanishlari natijalari bo'yicha kerakli xulosalarni aks ettiradi. Til va madaniyat bog'liqligi O'Genri hikoyalaridagi obrazli so'z va iboralar misolida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: obrazli so'zlar, obrazli iboralar, madaniyat, til, metafora, o'xshatish, ironiya, giperbola, jonlantirish.

Asl nomi Uilyam Sidni Porter bo'lgan O'Genri 1862-yilda, Shimoliy Karolinadagi Grinsboro shaharchasida tug'ilgan. O'Genri hikoyalarining har biri o'ziga xos bo'lib, unda turli xil obrazli so'zlar va iboralarni ko'rish mumkin. Obrazli so'z va iboralardan hikoyalarda eng ko'p qo'llanganlari metafora, o'xshatish, bo'rttirish, ironiya va jonlantirishdir.

O'Genrini butun dunyoga tanitgan hikoyasi bu shubhasiz uning "Gift of Magi" ya'ni "Megining sovg'asi" hikoyasidir. Bu hikoyada er-xotinning moliyaviy qiyinchiliklar sabab Yangi yil bayrami uchun bir biriga sovg'a olishi qanchalik muammo bo'layotgani haqida gap boradi. Hikoya oxiri esa umuman kutilmagan yakun bilan nihoya topadi.

"Megining sovg'asi" hikoyasida O'Genri ko'proq giperboladan foydalangan. Bundan tashqari bu hikoyada jonlantirish, metafora, o'xshatish va ironiyani ko'rish mumkin. Masalan quyidagi gapda jonlantirishni ko'rish mumkin:

The Dillingham had been flung to the breeze during a former period of prosperity when its possessor was being paid \$30 per week. Now, when the income was shrunk to \$20, the letters of "Dillingham" looked blurred, as though they were thinking seriously of contracting to a modest and assuming.

Ushbu gapda Jimning o'rta ismi "Dillingham" harflari ham inson sifatida tasvirlanyapti. Ingliz madaniyatida o'rta ismning (middle name) ning ishlatishining o'ziga xos madaniy belgisi bor. Ya'ni xristian diniga asosan, insonning birinchi ismidan

keyin o'rta ism avliyolar yoki rohiblarning nomi bilan qo'yilsa, o'sha avliyo uni asraydi degan fikr bilan bog'liq.

“The gift of Magi” ya'ni Megining sovg'asi deb nomlanishida metaforani ko'rish mumkin. Hikoyaning nomidagi “Magi” so'zi go'dak isoga sovg'a keltirilgan dono inson Megiga hikoya qahramonlarning qilgan ishi o'xshatilyapti. Shu sababli ham buyerda metafora qo'llanilgan. Bu yerda ingliz madaniyatiga xos bo'lgan diniy holatni ko'rish mumkin. Megi xristian dinida dastlabki sovg'a bergan aqlli inson sifatida tasvirlangan.

Bundan tashqari quyidagi o'rinda ham metafora qo'llanilgan:

The turn in drab, heavy narration to light and “rosy” tones

Ushbu gapda sochini kestirganday keying holati metafora bilan ifodalangan.

Megining sovg'asi hikoyasida 2 ta o'xshatishni ko'rish mumkin. Bu ikkita o'xshatish ham hikoya bosh qahramoni Della sochini qirqqandan keying tashqi ko'rinishini tasvirlash uchun qo'llanilgan.

"like a truant schoolboy"

"like a Coney Island chorus girl" [1]

Bu misollarda “truant” ya'ni qochoq bolaning yoyilib to'zg'igan sochlariga Dellaning kesilgan sochlari o'xshatilgan. Buyerda ingliz madaniyatiga xos bo'lgan maktabdan beruhsat qochib ketgan bolaga nisbatan qanday ko'rinish ifodalanganini ko'rish mumkin.

Ikkinchi misolda esa ‘chorus girl’ ya'ni raqsga tushuvchi qiz tasvirlangan. Bu holat Yevropa va Amerika madaniyatiga xos bo'lgan holatni ko'rish mumkin. O'Genri asarlarida metaforalar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalash uchun muhim rol o'ynaydi. Ikkinchi o'rinda esa o'xshatish bo'lib, orqali lingokulturemalar ifodalanganligini ko'rish mumkin. Keyingi o'rinlarda jonlantirish, giperbola va ironiya kelgan. Ammo ironiya jonlantirish va giperbolaga nisbatan ma'lum bir xil xalqning madaniy qarashlarini o'zida ko'proq aks ettiradi.

O'Genri asarlari Amerika va ingliz olamining madaniy hayotini eng yaxshi aks ettirgan buyuk ishlarni o'z ichiga olgan.

ADABIYOTLAR

1. O'Henry "Gift of Magi" The Four Million, 1905
2. George Lakoff and Mark Johnson "Metaphors we live by" The university of Chicago Press, 1984
3. Burgers, C., Brugman, B. C., Lavalette, K. Y., & Steen, G. J. (2016). HIP: A Method for Linguistic Hyperbole Identification in Discourse. *Metaphor and Symbol*.
4. Guntur Tarigan, Henry Menyimak Sebagai Suatu Keterampilan Berbahasa. Angkasa Bandung, 1986

CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING (CLIL) AS AN EFFECTIVE APPROACH IN EFL/ESL CLASSES

M.U.Saidova,

BuxDU, dotsenti, PhD

(m.u.saidova@buxdu.uz)

V.X.Zabiyeva,

BuxDU, Lingvistika(ingliz) yo'nalishi II bosqich magistranti

(v.x.zabiyeva@buxdu.uz)

Abstract. In the era of scientific and technological progress and globalization, more and more people of different ages and social status are faced with the need studying of English. This thesis discusses one of the effective approaches—CLIL, that is Content and Language Integrated Learning, in English language teaching, which allows to acquire not only language itself, but practice other subjects in a target language as well. Several didactic games and activities for the CLIL approach are also provided.

Key words: CLIL, approach, assumption, subject, school curriculum, young learners, secondary school, academic purpose.

Content and language integrated learning is an approach for acquiring content with the help another language (L2), thus teaching the subject and the language simultaneously. The term CLIL itself was proposed by David Marsh, a member of the team, which conducted project on the very approach in 1994. According to this approach, students acquire a subject and a second language at the same time. CLIL is

built on a simple assumption: any subject, for example, science, art, math, geography, history or any other subject entirely can be taught to students in L2 and they will not only learn about the subject, but they will also obtain relevant vocabulary and language skills. In CLIL a foreign language is used as a means in delivering of a non-language subject, where a language and the subject play significant role altogether. It is worth to note that CLIL is not a tool of making content simple or teaching the material students have already acquired in a new language. CLIL classes aim at integrating the language and content for making progress – and good result is identified when both the subject matter and language is learned. CLIL can be implemented for students of any age : young learners , teenagers and adults. But firstly, course content and language aims should be designed with the students' needs and level. According to some investigations, CLIL approach is mostly implemented in primary and secondary school contexts. It is believed that CLIL more spontaneous style of learning a language, it increases learners' motivation to learn a language and a subject together, they will have a great opportunity to learn a language in a real context. Furthermore, CLIL encourages learners to develop abilities like critical thinking, creativeness, communication, collaboration and other XXI century skills. With this approach, academic subjects are used outside of foreign language education as a tool to teach grammar and vocabulary. However, not every foreign language educator is trained in science, history or other subjects. That is why in CLIL not only students will be able to get something new, but also teachers can benefit greatly by developing their knowledge of a new subject. One main advantage of activities for CLIL, irrespective of what subject it is being taught along, is that **they** require a wide range of vocabulary words.

For a preschoolers CLIL can be implemented by teaching numbers, practicing fundamental experiments for discovery and amazement, engaging young learners in small art and handcraft projects, introducing human values with the help cases and presentations [1]. All these help to formulate sense of being a part of society, who have full of rights and responsibilities. Topics may vary grasping both academic purposes and cultural reasons. Teacher can teach science content focusing on academic feature.

A vivid example can be presenting fruits and their health benefits and telling children that it is very essential to include them in our daily diet. Besides, from the cultural perspective, showing which fruits are grown in what part of the world can broaden their horizon about various cultures and lifestyles.

We have observed that applying CLIL approach in my language classes raises learners' interest toward the language, if there is additional information related to other subject from the school curriculum. There are students, who are not simply interested in English, but they are super active in other subject, like math, art and others. Integrating the subject students good at with English helps to keep them learning the language at the same time. It is very essential to choose a right path, while delivering other subjects in an English language setting: ranging from easy to complicated materials. For example, if we want to teach something related to geography, initially it is recommended to start with teaching world countries' names and their capitals in English. It is obvious, that even a student doesn't like English, but is interested more in geography, s/he surely would like to learn them in a target language. There some genius CLIL activities and games, which let students feel smart and complete. As a result, it can precede acquiring some grammar spots, as well as new vocabulary spontaneously. For instance:

The capital of Norway is Oslo. It is situated in Scandinavian Peninsula.

Here, a student automatically learns the name of a country and its capital in English, plus “to be situated in” structure.

The same method can be slightly modified and implemented for integrating English with art and handcraft classes. There are many students who enjoy drawing, so why not to take advantage of it. A teacher can assign a task to draw pictures of vegetables, fruits, animals and any other thing related to the topic, then ask learners to demonstrate their work and describe them in English. A student, who drew a picture will do the description with pleasure in order to demonstrate how skillful s/he is in drawing. So natural setting a learner will acquire new words and words combinations for describing an item.

Another game, which demands integrating several subjects is *Jeopardy*. This is one of the favorite activities of most students. Sometimes, it can be adjusted to a specific subject with questions and answers, all delivered in the target language. In this activity an instructor needs a list of questions and answers and a board. If the game is integrating several subjects, the name of the subjects should be written on the board, and on the left side of it points should be provided, ranging from 100 to 500 or more. The higher the scores, the more difficult questions will get. It becomes more interesting and engaging, when students are divided into two or three teams. When there is a rivalry environment during the game, students try harder in order not to lose the game. As a result, almost everybody in the class becomes involved in the process, every student does his/her contribution to receive higher score. This activity is an excellent way to boost knowledge and skills of students in natural setting. Such games can be more applied with higher grade students, because they are already aware of several subjects from the school curriculum.

One more game, which allows students to reflect on their knowledge about information or facts they have already acquired in other subjects is “*Two Truths and a Lie*”. [1] This is an icebreaker game that is used by many foreign language teachers to heat up classroom discussion in the target language. This game may be adapted to different subjects. For example, if to relate it to history, one student recites three “facts” about some historical event or figure in the target language. Two fact should be true, while the rest is lie. The students should sort out which two information are correct and which one is made up. Everybody, who is right gets a point and consequently the student with the most points at the end of the game wins.

To sum up, CLIL reinforces learners' ability to process input and develops higher-level thinking skills and enhances cognition of outer world in a target language. Constant usage of this approach assists hugely to broaden students' horizon of knowledge about other subjects and practice it authentically.

REFERENCES

1. <https://www.english.com/blog/tag/clil>

2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010) CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge. Cambridge University Press.
3. Dalton-Puffer, C. (2007) Discourse in Content and language integrated learning (CLIL) classrooms. Amsterdam: John Benjamins
4. Harmer J. (1998). How to Teach English. Longman.
5. Harmer J. (2007). The Practice Of English Language Teaching. Harlow: Pierson Education Limited.
6. Nunan, D (1991). Language Teaching Methodology: A textbook for teachers. Hemel Hempstead: Prentice Hall International.
7. Peck, S. (2001). Developing Children's Listening and Speaking in ESL. In Celce-Murcia, M. (Ed.) Teaching English as a Second or Foreign Language, 3rd edition, 139-149. Boston: Heinle Cengage Learning

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА

Расулов Зубайдулло Изомович,

БухГУ, доцент. Д.ф.н. (DSc)

Акрамова Мадинабону Баходир кизи

Магистрант БухГУ второго курса по специальности

Лингвистика (Английский)

m.b.akramova@buxdu.uz

Аннотация. Сегодня в вопросах изучения иностранных языков придается большое значение. Были организованы международные конференции в Узбекистане, в которых участвует множество делегатов из самых престижных стран мира, безусловно, увеличивает потребность в переводчиках, владеющих иностранными языками и обладающих достаточными знаниями и навыками на таких конференциях.

Ключевые слова: синхронный перевод, конференц-перевод, концептуальные проблемы, устный перевод.

Известный ученый Н.А. Шермухаммедова определяет концептуальную проблему следующим образом: «Концептуальные проблемы связаны с большим количеством ранее полученных данных, их организацией и интерпретацией, выводами и формированием гипотез, противопоставлений в соответствии с требованиями логической непротиворечивости предполагает устранение». Поэтому при изучении этих проблем целесообразно анализировать ранее полученные данные и уточнять вопрос исходя из логической последовательности. Известно, что существует несколько критериев деления перевода на определенные виды [1]. Известный ученый З. Прошин классифицирует виды перевода на основе нескольких критериев:

1) в зависимости от того, кто выполняет перевод: а) человеческий перевод; б) компьютерный перевод;

2) по форме речи: а) письменный перевод; б) устный перевод текста (перевод с места); в) устный перевод устной речи;

3) по способу восприятия источника: а) рецензия и перевод; б) аудирование;

4) по величине времени между восприятием источника и переводом: а) последовательный перевод; б) синхронный перевод;

5) в зависимости от количества используемых языков: а) односторонний; б) двухсторонний перевод;

6) по направлению перевода: а) непосредственно (на родной язык); б) обратный перевод (на иностранный язык);

7) по применению способов перевода: а) письменный и письменный; б) дословный перевод;

В дополнение к широкому использованию синхронного перевода на международных конференциях, он также широко используется в дипломатической деятельности, переговорах, встречах, торговых мероприятиях, средствах массовой информации, учебных и образовательных курсах, на телевидении, в международных арбитражах и во многих других областях. В отличие от этого типа перевода метод последовательного перевода часто

используется на мероприятиях, где используются только два рабочих языка в относительно небольшом масштабе, например, на дипломатических встречах, двусторонних переговорах, экспедициях, небольших отраслевых дискуссионных соглашениях, интервью с журналистами, в суде. заседаниях, банкетных речах.

Прежде чем говорить о синхронном переводе, необходимо иметь представление о всей системе, из которой он состоит. Специальным оборудованием является система синхронного перевода, которая обычно представляет собой стационарную или складную кабину, где две пары наушников (наушники) и микрофон для переводчика, а также комплект наушников или портативных приемников в зависимости от количества участников, которым необходим перевод. Во время конференции переводчики-синхронисты сидят в отдельном небольшом помещении в звукоизолирующих наушниках, чтобы их голоса не заглушали голос оратора. С помощью усилителя звука перевод доносится до наушников слушателей. Синхронный перевод с использованием технологии обычно организуют на мероприятиях с большим количеством людей и проводимых в большом конференц-зале или аудитории, таких как конференция, семинар, презентация и т.п.

Как разновидность метода синхронного перевода, его самой большой характеристикой является высокая эффективность, а временной интервал между исходной текстовой речью и переведенной речью составляет в среднем 3-4 секунды. В лучшем случае оно достигает 10 секунд. Поэтому гарантируется, что говорящий будет говорить без перерыва, а мнение говорящего не будет подвержено влиянию извне и не остановит его речь. Это позволяет слушателям понять речь в целом. Из-за этого синхронный перевод в настоящее время стал распространенным методом перевода в мире. Сегодня на 95% международных встреч и конференций используется синхронный перевод. В то же время синхронный перевод имеет очень научный и специализированный характер, а поскольку он обычно используется на официальных международных

конференциях, к синхронному переводу предъявляются чрезвычайно высокие требования.

Синхронный перевод требует от переводчика быстрого прогнозирования, понимания, понимания и направления информации на языке оригинала за короткий промежуток времени, опираясь на свои тематические знания при прослушивании и различении, когда речь идет на языке оригинала. [2] При этом переводчик-синхронист на различных международных конференциях и встречах должен обладать способностью «молниеносно мыслить» и иметь высокие ораторские способности. По решению Международной ассоциации переводчиков-синхронистов (IACI) переводчик-синхронист считается успешным, если он может перевести только 80% контента участника-докладчика (90%-100% синхронный перевод невозможен). Многие люди обычно говорят в очень быстром темпе, и в то время как они говорят, они всегда беспокоятся о содержании своей речи. Кроме того, они усложняют задачу, говоря на различных местных диалектах. В этих случаях переводчик-синхронист вынужден использовать все свои знания и работать изо всех сил, опираясь на свой опыт. Немногие ораторы могут беспокоиться о том, что переводчик-синхронист будет говорить в замедленном темпе. Это предъявляет чрезвычайно высокие требования к характеру специалиста.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Rasulov, Z.I. (2010). The principle of contextual analysis of elliptical sentences (based on the material of the English language). Bulletin of Chelyabinsk State University, (21), 91-94. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsip-kontekstualnogo-analiza-ellipticheskikh-predlozheniy-na-materiale-angliyskogo-yazyka/viewer> .

2. Rasulov, Z. I. The problem of language economy from the perspective of language evolution

3. Izomovich, R. Z., & Shavkatovich, S. X. UDC: 82 REDUCTION AS THE WAY OF THE LANGUAGE ECONOMY MANIFESTATION. SCIENTIFIC REPORTS OF

YOZUV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIMLIGI

Saidova Muhayyo Umedilloevna,

BuxDU, dotsenti f.f.f.d. (PhD)

Abduraxmonova Mahfuza Olimovna,

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi magistranti

m.o.abduraxmonova@buxdu.uz

Annotatsiya: Og'zaki va yozma nutq madaniyati yuqori, mantiqiy fikrlash va uni ifoda eta olish ko'nikmalariga ega, nutq uslublarini farqlay oladigan, fikrini usluban to'g'ri bayon eta oladigan, tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllangan, kamida ikkita xorijiy tilni mukammal egalagan mutaxassisga ehtiyoj katta. Bu albatta o'qituvchilardan katta tajriba va mehnat talab qiladi. Ayniqsa, o'quvchilarga maktabda boshlang'ich sinfdan xorijiy tilni o'rgatishda yozuv ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'rganuvchilarda yozuv ko'nikmasini shakllantirish boshqa qobiliyatlar, savodxonlik, o'qish, eshitish, talaffuzga e'tibor bergan holda gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada o'quv jarayonida, maktab o'quvchilariga yozuvni o'rgatishning muhimligi va uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Ingliz tilini o'rganish jarayoni ko'p vaqt talab qiladigan va progressiv bo'lib, u bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu jarayon ma'lum ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat. Umumiy asosga ko'ra, ular ishlab chiqaruvchi (productive) va qabul qiluvchi (receptive) turlarga bo'linadi. Qabul qilish qobiliyatlari tinglash va o'qishdir. Buning uchun o'quvchilar tilni bajarishlari shart emas, faqatgina ular ma'lumotni qabul qiladilar, o'zlashtiradilar va tushunadilar. Bu qobiliyatlar ba'zan passiv qobiliyatlar deb ham ataladi. Gapirish va yozish ko'nikmalari faol qobiliyatlar bo'lib, ulardan farq qiladi.

Til produktiv, talabalar muayyan amaliyot nuqtalari bilan cheklanib qolmasdan, kommunikativ maqsadga erishish uchun barcha va har qanday tildan foydalanishlari kerakligini anglatadi. [1]

Yozishni o'rgatish muhim, chunki yozma muloqot asosiy hayotiy ko'nikma hisoblanadi. Yozish qobiliyatining etarli darajada bo'lishi odamga ishonch bag'ishlaydi va uning ma'lum bir til bo'yicha tajribasini belgilaydi.

Yozish qobiliyatlari - bu yozuvchilarga o'z fikrlarini mazmunli shaklda so'z bilan ifodalashga va xabar bilan aqliy munosabatda bo'lishga yordam beradigan o'ziga xos qobiliyatlardir. Turli tilshunoslardan tomonidan izohlangan yozuvning turli xil ta'riflari mavjud. Yozish kattaroq faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, asosiy e'tibor til amaliyoti, harakat qilish yoki gapirish kabilarga qaratilgan. [2]

Yozish haqida o'ylayotganda, *o'rganish uchun yozish (writing-for-learning)* va *yo'zish uchun yozish (writing-for-writing)* o'rtasidagi farqni aniqlash foydali bo'ladi. Birinchi holda, yozuv o'quvchilarga o'rganayotgan tilni mashq qilishda yordam berish uchun yordamchi vosita yoki amaliyot vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan: talabalarga "going to" grammatik mavzusi yordamida 3 ta jumla yozing – *I am going to swim, we are going to sleep, I am going to do my homework*. Bu kabi yozish mashg'ulotlari o'quvchilarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

Yozish uchun yozish (writing-for-writing) esa o'quvchilarning yozuvchi sifatidagi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. [2] Boshqacha qilib aytganda, ushbu turdagi faoliyatning asosiy maqsadi talabalarning yozish ko'nikmalarini yaxshilashlari kerak. Masalan: yaxshi sintaksis, janr bilimlari rivojlantirilishi kerak (har xil yozuv turlarining me'yorlari: she'rlar, ertaklar, xalq ertaklari, ertaklar, badiiy adabiyotlar, realistik fantastika), matnni qanday tuzish, elektron pochta, xat va hisobotlarni yozish qobiliyati kabilardir.

Umuman olganda, o'rganish uchun yozish (writing-for learning) faoliyatida asosiy e'tibor odatda tilning o'zi bo'lsa, yozish uchun yozishda (writing-for-writing) biz butun matnni, uning tuzilishi, tartibi, uslubi, strukturasi kabilarni ko'rib chiqamiz.

Sinfda yozuvni mashq qilishning uch turi:

- Boshqariladigan yozish mashqlari
- Yo'naltirilgan yozish mashqlari
- Erkin yozish mashqlari

Boshqariladigan yozish mashg'ulotlarida o'quvchilar faqat so'zlarni ko'chirishadi. Bunga nuqtali chiziqlar orqali qilingan harflar mavjud. O'quvchilar faqat nuqtali chiziqlarning ustiga yozishadi. Bu orqali o'quvchilar qog'ozda orfografik va harakat ko'nikmalarini yaxshilaydilar. Bu yozishning eng oddiy shakli. Bundan tashqari, boshqariladigan yozuv quyidagilarni o'z ichiga oladi: nusxa ko'chirish, vizuallashtirilgan so'zlar, matn va rasmni moslashtirish.

Yo'naltirilgan yozish mashg'ulotiga "To'ldirish" (filling in activity) mashg'ulotlarini kiritishimiz mumkin: qo'shiq va qofiyalarda etishmayotgan so'zlarni qo'shish, rasmga qarab hikoyalar yozish, matnni to'ldirish. Yo'naltirilgan yozishning yana bir turi Parallel yozishdir: bunda o'qituvchi namunali matnni taqdim etishi kerakligini anglatadi, keyin o'quvchilar shunga o'xshash matnlarni yaratishi mumkin. Masalan: xatlar, taklifnomalar, elektron pochta xabarlari, hisobotlar. Diktant ham parallel yozishning bir turi bo'lib, Munden & Myhre ma'lumotlariga ko'ra buning uchun ba'zi qoidalar mavjud:

-diktant yozishdan oldin so'zlarni tanishtiring yoki matnda yaqinda qo'llaniladigan so'zlarni o'rgating;

- turli so'z turkumlaridan foydalaning (otlar, fe'llar, sifatlar, olmoshlar);
- ma'lum sur'atda o'qing (juda sekin emas, tez ham emas);
- har doim so'zlarni kontekstda taqdim eting;

-butun gaplarni bo'laklarga bo'lish mumkin: The old it/ loves to go swimming/ when it is hot.

- bolalarni iloji boricha ko'proq so'zlarni to'g'ri yozishga chaqiring.

Erkin yozish faoliyati quyidagilardir: ro'yxatlar, oxiri turlicha bo'lgan bir xil hikoya, turli matnlar, o'z kitobini yaratish, raqamli hikoya (foto hikoya)

Ko'pgina talabalar yozish qobiliyatiga boshqalarga qobiliyatlar, ya'ni o'qish, eshitish avvaligapirishga qaraganda kamroq kerak deb o'ylashadi. Ular yozishni qiyin,

zerikarli va hayotlarida muhim emas deb o'ylashadi. Talaba odatda o'z fikrini ifoda etishdan qo'rqadi va ular muvaffaqiyatsiz bo'lishdan qo'rqishadi. Yozish bizga nafaqat zamondoshlarimiz, balki kelajak avlod bilan ham muloqot qilish imkonini beradi. Bu yaqin va uzoq o'tmishdagi odamlarga biz bilan gaplashishga imkon beradi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik talabalar o'qituvchisi yozishni so'raganda, ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularga yozishni qiyinlashtiradigan sabablardan biri, ba'zida lug'at boyligi va g'oyalarning etishmasligi tufayli nima yozishlarini bilmaslikdir. Bu holat o'qituvchi uchun yozish faoliyatini qiziqarli qilish uchun qiyinchilik tug'diradi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvga o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, u o'quvchining xarakteriga, kayfiyatiga, imkoniyatiga bog'liq bo'lgan psixolingvistik jarayon sanaladi. Maktabga endigina kelgan bolalarni yozuvga o'rgatish nihoyatda qiyin kechadi. Shuningdek, bolalarni yozuvga o'rgatish bevosita o'qishga o'rgatish jarayoni bilan bog'lab olib boriladi. Yozuvga o'rgatish jismoniy va aqliy mehnat talab etadigan og'ir jarayon hisoblanadi. Yozuvga o'rgatish jarayoni o'qituvchilar zimmasiga qator mas'uliyatlar yuklaydi o'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarning grafik va orfografik ko'nikmalarini yaxshi rivojlantirishga harakat qilmog'i lozim.

ADABIYOTLAR

1. Harmer, Jeremi. *The Practice of English Language Teaching*, Great Britain: Pearson Education, 2014
2. Jeremi Harmer *How to teach English: 111-bet*
3. Keith S. Folse *The art of teaching speaking* by the University of Michigan 2006 p:10;26
4. Jeremy Harmer *How to teach writing* Pearson Education Limited 2004
5. Г.В. Рогова, Ф.М. Рабинович, Т.Е. Сахарова *МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ*

EXPRESSING THE MEANING OF OBLIGATION IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGE

Annotation: This article discusses the expression of the meaning of obligation in English and Uzbek languages. Also, the lexical units expressing this meaning in these two languages are studied at the language levels. While in English the means of expressing this meaning are called modal verbs, in Uzbek it is represented by independent word groups.

Key words: must, have to, should, need, ought to, possibility, obligation, due to, duty, make somebody do, modality, lexicology, category, independent words, word formation, lexics, had to, tenses, ability, pressure.

The scientific work tries to illustrate how to convey meaning of obligation in Uzbek and English languages. It is described as pressure on a person to do something or not to do something in both languages.

In English, there are strong obligations such as rules and necessities, and weak obligations such as advice. Obligations may be internal, from the speaker's body or mind, and external obligations such as regulations. Besides, obligation is an aspect of main senses of modal expressions. Specifically, root and epistemic, denoting "real-world obligation, permission or ability". Through root and epistemic modality markers speakers and writers express their judgment concerning the future actions taken by others and define their attitude concerning the truth of the proposition expressed by the sentence.

As mentioned above, there are some types of expressions that reflect obligation meaning. In present tense, need to, must and have to are all used to express strong obligation. All three have equal strength. Often learners have difficulties with must and have to and often see little difference between the two. In brief, the rule is that must is used for external obligations. In present, weak obligation is often described in grammar books as the right, correct thing to do. Weak obligations may come from tradition,

custom or culture and may be seen as advice. Should and ought to are the most common verbs used and there is no difference between the two.

The expressions which convey the obligation meaning are conjugated. In past, by using only needed to or had to and there is no difference in strength or internal, external aspects.

In Uzbek language, expressing the obligation meaning is more common. According to the Uzbek grammatical rules to express the meaning of obligation is conveyed by verbs (independent words). For instance, *majbur bo'lmoq*, *to'g'ri kelmoq* independent words. In contrast, the meaning of obligation is expressed by independent words but modal expressions are used to get the meaning of obligation.

As taking the consideration to English rules, in order to express the idea of obligation, to talk about rules, duties, or orders *must*, *have to*, *should* and *ought to* are used. *Should* and *Ought to* are used when a speaker thinks it is a good thing or right that a person does something. It indicates that a person has a duty to do something.

Must is utilized to order someone to do something, while *have to* means that there is a rule that forces that person to do something. *Must*, *have to* or simply *need to* is used when it is necessary to do something. Additionally, obligation by modality in English can be realized by a variety of grammatical and lexical means: modal auxiliary verbs, quasi-modals, adjectival and participial constructions. Of these categories, the first two are closed-ended and recorded by outstanding scientists as modality markers which are part of the English grammar system.

In some cases, expressing the obligation meaning, the sense of the modal auxiliary can be retrieved only from a wider context, an isolated sentence offering too little information to base on when interpreting the message. Thus, for instance, *following* can be either a requirement (root) or an expression of certainty (epistemic). The module must satisfy the constraints necessary to interpret the linguistic stimulus. . Propositions are graded as more or less likely to be factual, based on notions like obligation, possibility, permission. Modality can be expressed in various ways, but modal and semi-modal verbs receive the greatest attention in linguistic research. According to some research, it

is not differentiated between stronger and weaker meanings between verbs, since these are ‘virtually impossible to categorize impartially’. Objective cases are realized with have to or need to, rather than must which strongly associated with subjective obligation than the ‘more impersonal’. Some scientists says that, compared to must, have to ‘has more of a meaning of being obliged by extrinsically imposed authority’ and need to implies ‘that the obligation is imposed by something internal to the doer’. The view of need to as expressing an internally motivated obligation for the agent’s own sake is also found in Smith group.

ADABIYOTLAR

1. Buronov J.B. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent, 1973.
2. Ильиш Б.А. Современный английский язык. М, 1948.
3. Качалова К. Н. Практическая грамматика английского языка. Б., 2000.
4. Каушанская В.Л. A Grammar of the English language. Л., 1973.
5. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2005.
6. В.В. Виноградов. О категории модальности и модальных словах в русском языке. –Москва: Наука, 1975. — С. 53-87
7. Gordon E, Krilova I, “A grammar of Present –Day English “ М.: 1971
8. Gordon E.M “ Modality in Modern English “, М.:1968
9. Hoshimov U, Buranov J, “ Ingliz tili grammatikasining normativ kursi “ Т.: „O'qituvchi”- 1987, 345 p
10. Hill P, “ An Instant Approach to English Grammar “, „ Hong Kong”- 2002, 238 p

RASMIY NUTQA OID MATNLARDA PROPOZITSIYANING NAMOYON BO'LISHI

Z.I.Rasulov,
BuxDU, dotsenti f.f.d.(DSc),
N.S.Ibragimova,
BuxDU magistranti
n.s.ibragimova@buxdu.uz

Annotatsiya: mazkur maqolada matnning pragmasemantik tadqiq etish vositalaridan biri hisoblangan propozitsiya va uning rasmiy nutqqa oid matnlarda ifodalanish usullarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: semantik, pragmatik, propozitsiya, presuppozitsiya, diktum (diktal) ma'no, nutqiy akt, subyektiv munosabat.

“Propozitsiya” atamasi dastlab umumiy tarzda o'rganilgan bo'lib, falsafiy va mantiqiy izlanishlar ta'sirida tilshunoslikka kirib kelgan. Bu atama G.Frege g'oyalari ta'sirida shakllandi [1], so'zlovchi nutqiga xos tasdiq akti propozitsional struktura sifatida ajratila boshlandi. Shuningdek, ushbu atama sintaktik birliklar vositasida bayon qilingan propozitsiya, ya'ni asosiy hukm sifatida ham izohlanadi. Demak, matndan anglashilgan asosiy ma'no, mazmun, jumladagi asosiy hukm *propozitsiya* hisoblanadi.

Klassik mantiqda propozitsiya quyidagi tarzda tushunilgan “borliqning ma'lum predikatlari haqida tasdiq yoki inkor yo'li bilan axborot beruvchi fikr shakli tushunilgan. Bu atama dastlab hukmning ifodalanish shakli bo'lgan darak gaplarga, keyinchalik gapning hamma turlariga nisbatan qo'llandi”[2]. Biroq professor M.Hakimovning ta'kidlashicha, dastlab propozitsiya tushunchasi gapning mazmuniy strukturasidagi barcha mazmuniy sathlarni qamrab olgan holda qo'llana boshladi. Gapning subyektiv mazmuniy strukturasini ham propozitsiya ostida tadqiq etildi. [3]

Ifoda semantik tuzilishidagi propozitsiya masalalari bilan semantika shug'ullanadi. Propozitsiya tushunchasi jumladagi asosiy axborot bo'lib, so'zlovchi voqelikni bayon qilishda tildan foydalanadi.

Propozitsiya mavjudlikdagi voqelikni haqiqiylik sharti asosida namoyon bo'lgan tildagi mavhumiy mohiyatdir. Demak, nutq predmeti haqidagi asosiy axborot jumla propozitsiyasini tashkil qiladi. Masalan: “*ob-havo yomonlashdi, yomg'ir yog'adi shekilli*” jumlasida so'zlovchi faqat ob-havo yomonlashganligi haqida axborot berish bilan chegaralanadi. So'zlovchi nutqiga xos uning sub'yektiv qarashlarining yashirin ifodasi - “*biror yoqqa borolmaslik*”, “*ma'lum maqsadning bajarish imkoniyatining yo'qligi*” yoki ochiq bayonda mantiqiy zid mazmun - “*ob-havo yomonlashdi – quyosh chiqishi kerak edi*” kabi illokutiv akt semantik tahlilni murakkablashtiradi. Ko'rinadiki,

“jumla bilan propositsiya o'rtasidagi munosabat nutq sub'yekti bilan bog'liq tarzda kontekst hamda nutqiy vaziyat yordamida aniqlanadigan bo'lsa, u holda bu propositsiya bilan aloqador hodisalar lingvistik pragmatika predmeti mundarijasiga taalluqli bo'ladi.”.

Demak, propositsiyani semantik va pragmatik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, matn tarkibidagi propositsiyalar so'zlovchining subyektiv munosabati bilan bog'lanmasa, bu propositsiya semantikaning obykti hisoblanadi, so'zlovchining sub'yektiv munosabatini aks ettiruvchi propositsiya lingvistik pragmatikaning obykti sanaladi.

Rasmiy mantlarda ifodalangan propositsiyaning tahliliga e'tibor qiladigan bo'lsak, semantik propositsiyani ham, sub'yektiv jihatdan yondashilganda pragmatik propositsiyani ham ko'rishimiz mumkin:

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020.)

Raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi xususidagi axborot bilan shakliy semantika shug'ullanadi, so'zlovchining ichki niyati va sub'yektiv munosabatini (meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat) ifodalaydigan axborot bilan pragmatika shug'ullanadi.

“Ifoda semantik tuzilishidagi hamma uchun ma'lum bo'lgan axborot oshkora (eksplitsit) mazmun deb qaraladi. Buni mantiqiy atama bilan propositsiya deb yuritiladi”. Matndagi propositsiya *diktum* yoki *diktal* ma'no tushunchasini ham ifoda etadi, so'zlovchi nutqiga xos nutq predmeti xususidagi xabar va uning tasdig'i kabi asosiy hukmni bayon etadi. Ushbu ifodani rasmiy nutqning og'zaki shaklida ham, yozma shaklida ham anglashimiz va tahlil qilishimiz mumkin. Masalan:

Kuni kecha afv etish haqidagi yana bir farmonga imzo chekdim. Unga ko'ra jazo muddatini o'tayotgan 65 nafar fuqaro afv etildi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi)

Ushbu rasmiy matnda yurtboshimizning afv etish haqidagi farmonga imzo chekkanligi, fuqarolarning afv etganligi to'g'risidagi xabari gapdagi asosiy hukm hisoblanadi va propozitsiya deb qaraladi.

Til tizimida kechadigan o'zgarishlarni faqat kuch yoki energiyani tejash maqsadi bilan bog'lash g'oyasi o'z paytida tilshunoslar o'rtasida keng tarqalgan edi. Biroq keyingi kuzatishlar guvohlik berishicha, ushbu hodisa o'zgarishlar yuzaga kelishining yagona sababi bo'lmasdan, balki turli holat, kuchlarning o'zaro uchrashuvi til tizimi rivoji yo'nalishlarini belgilab beradi.[4]

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida yurtimizda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 23.12.2017.) Yuqoridagi rasmiy matndagi propozitsiya "avval ta'lim tizimida 11 yillik ta'lim bekor qilinganligi" haqidagi presuppozitsiyaning "tasdig'i"dir. Rasmiy nutqqa oid matnlarda ifodalangan propozitsiyani so'zlovchining subyektiv munosabatida asoslangan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Buyruqqa asoslangan propozitsiya.
2. Taklifga asoslangan propozitsiya.
3. Mas'uliyatga asoslangan propozitsiya.
4. Ishonch va faxrga asoslangan propozitsiya.

ADABIYOTLAR

1. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.401.
2. А.Нурмонов Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: "Akademnashr", 2012. – 404-бет.

3. Rasulov Z. I. So'zlashuv nutqi lisoniy o'zgarishlarning manbai sifatida // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — №.4 (45). — B .20-29. <https://doi.org/10.36078/1664529656>
4. Ҳақимов М. Тагмаъно ва тагбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент. - 2001. - №1. - Б. 33. 3. Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция / Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги: Илмий мақолалар тўп. - Тошкент. 2004. - Б.58.
5. Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. - Тошкент. 2005. - №5. - Б.32.
6. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994. - Б. 11-14.
7. Маҳкамов Н. Лисоний ортикчалик ва тежамлилик натижасида вужудга келган десемантизация // Ўзбек тили ва адабиёти.

KONNOTATIV MA'NONING NUTQ BIRLIKLARIDA IFODALANISHI

A.A.Haydarov,

BDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası professori,

filologiya fanlari nomzodi

[*a.a.haydarov@buxdu.uz*](mailto:a.a.haydarov@buxdu.uz)

Ro'ziyeva Nilufar,

BDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası magistranti

Annotatsiya: Tilshunoslikda konnotativ ma'noni qiyosiy planda o'rganish denotativ va konnotativ ma'nolarni chegaralash, bu ma'nolarning nutqda reallashishida til vositalarining o'rni, qiymatini belgilash kabi qator masalalar hozirgi davrda ilmiy ishlarning obyektı bo'lib qoldi. Konnotativ ma'no, uning ingerent va adgerent ko'rinishlarining nutqiy jarayonda ro'yobga chiqishi turlicha xarakter va xususiyatga ega.

Kalit so'zlar: denotativ, konnotativ, nominativ, ingerent, adgerent, ma'no ottenkasi, differentatsiyalash, kontekstual ma'no, paradigmatic qator, dominanta, stilistik bo'yoq.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatdan nominativ va ekspressiv funksiyalarni bajara oladigan vosita ekanligi tilning ichki dualizmi-uning, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning formasi, ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil sistema ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir.[1, 90-91] Agar tilning nominativ funksiyasi uning tafakkurning formasi, tushunchalarni qolipga soluvchi vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning ekspressiv funksiyasi tilning mustaqil sistema ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlaridagina ochilishi mumkinligi bilan bog'liq.

Darhaqiqat, barcha tilshunoslar so'zda ikki xil ma'no: atamalik, nomlash (denotativ) va qo'shimcha emotsional-ekspressiv ma'no mavjudligini qayd etadilar. [4,46] So'zning qo'shimcha ma'nosi tilshunoslikda turli nomlar bilan, chunonchi, stilistik bo'yoq[6,45] ekspressiv ma'no ottenkasi[8,34], qo'shimcha ma'no (созначение) kabi terminlar bilan nomlanadi. Biz so'zning bunday ikki xil ma'no va funksiyasiga nisbatan denotatsiya va konnotatsiya terminlarini qo'llaymiz.

So'z konnotativ ma'nolarining turlari, ularning so'zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarida so'z semantikasiga munosabati kabi qator masalalar tilshunoslikda haligacha uzil-kesil yechilmagan. Bir qator tilshunoslar so'zning konnotativ ma'nosi so'z semantikasi komponentiga kirmaydi, u faqat nutqiy hodisa desalar, boshqa tilshunoslar konnotativ ma'no so'z semantik strukturasi bevosita tarkibiy qismlaridan biri deb qaraydilar. [2,4] Bu chalkash masala sistem tilshunosligining fundamental tushunchalardan biri bo'lmish til va nutqni farqlash, so'zning semantik strukturasi izchillik bilan o'rganish jarayonida to'g'ri hal etilishi mumkin. Rus tilshunoslik fanining keyingi yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda o'zbek tilshunosligida ham til va nutqni farqlash, differentatsiyalash leksik-semantik va grammatik tadqiqot jarayonida izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada

S.N.Ivanov, SH.U.Rahmatullayev, O'.G'.Ne'matov, I.Qo'chqorboyev, M.Mirtojiyev va boshqalarning ilmiy ishlarini sanab o'tish kifoya.

So'zning semantik strukturasi o'rganishda ko'pgina tadqiqotchilar ikki xil konnotatsiyani: ingerent konnotatsiya – so'z kontekstdan tashqari olingan holatda unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va adgerent konnotatsiya – so'zda ma'lum kontekstda hosil bo'ladigan konnotativ ma'noni [9,523] qayd qiladilar. Shuning uchun biz ichki ma'no so'z til elementi sifatida o'z paradigmatic qatorida olinganda unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va nutqiy (kontekstual) – so'zda ma'lum bir kontekstda hosil bo'ladigan konnotativ ma'noni izchillik bilan farqlab boramiz. Bu ikki xil konnotatsiyani farqlamasdan turib na so'zning semantik strukturasi o'rganish va na konnotativ ma'noni so'zning semantik strukturasi kirish-kirmasligi masalasini hal qilish mumkin.

Ichki konnotativ ma'no so'z semantikasining tarkibiy qismi bo'la olishi va bo'la olmasligini aniqlash uchun quyidagi misollarni chog'ishtirib ko'ramiz:

Yuz-turq bet -chehra aft-jamol bashara-oraz

O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida bu so'zlarning semantikasi quyidagicha talqin qilingan: *bet* so'zi qo'llanishi bilan *yuz* so'ziga juda yaqin bo'lib, *yuz* so'ziga nisbatan salbiy ottenkasiga ega. *Aft* so'zi *bet* so'ziga nisbatan salbiy ottenkaga ega. *Bashara* so'zida salbiy ottenkaga *aft* so'zidagiga nisbatan ham kuchli. *Chehra* ijobiy ottenkaga ega. *Jamol* so'zida ijobiy ottenka *chehra* so'zidagiga nisbatan ham kuchli bo'lib, bu so'z asosan poetik uslubga xos. *Jamol* so'zi “husn”, “chiroy” ma'nosida ham qo'llanadi. *Oraz* – eskirgan, kitobiy so'z bo'lib hisoblanadi. [10,234]

O'zaro paradigmatic munosabatlarda bo'lgan bu so'zlarning denotativ ma'nosi bitta – odam boshining old tomondan tashqi ko'rinishi. Ammo yuqorida ko'rganimizdek, bu so'zlarning semantik strukturasi har xil. Agar konnotativ ma'no – so'z semantikasi strukturasi kirmaydi, degan taxminga asoslansak, yuqorida sanalgan sakkizta so'z obyektiv borliqda mavjud bo'lgan sakkizta so'z obyektiv borliqda mavjud bo'lgan sakkizta alohida obyektiv ifodalashi va sakkiz xil denotativ ma'noga ega bo'lishi kerak edi. Haqiqatda esa ahvol bunday emas. [11,59]

So'zlovchi bir shaxsga nisbatan, jumladan, uning yuziga nisbatan turli xil munosabat: *yuz* (neytral), *chehra*, *jamol* (ko'tarinki), *aft*, *bashara*, *turq* (salbiy) ifodalanishi mumkin. Ikkinchidan, *yuz* so'zidagi neytral munosabatdan tashqari *jamol*, *chehra* so'zlaridagi ko'tarinki ijobiy munosabat so'zlovchi tomonidan "go'zallik" ottenkasi bilan baholansa, *aft*, *bashara*, *turq* so'zlarida so'zlovchiga nisbatan "xunuk ko'rinish" bilan baholanadi. Ya'ni denotativ ma'no ustiga qo'shiladigan qo'shimcha ma'nolar kontekstdan, nutqdan tashqarida so'zlarning o'zaro paradigmatic munosabatlaridan anglashilib, o'zbek tilida so'zlovchilar uchun umumiy va majburiydir. Chunki emotsional-ekspressiv bo'yoq o'sha so'z ma'nosi tarkibining bir elementi sifatida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, *chehra*, *jamol* va *aft*, *bashara*, *turq* o'zbek og'zaki nutqida alohida intonatsiyaga egadir. Jumladan, "bashara" so'zini "chehra" so'zidagi kabi ko'tarinki intonatsiya bilan talaffuz etish tinglovchilarning hayratlanishiga emas, ularning qattiq kulgusi yoki anglashilmovchiligiga sabab bo'ladi.

Ingliz tilida *beautiful* sifati va uning sinonimlari tahliliga e'tibor qaratilsa, unda *beautiful* "chiroyli", "ko'rkam" ya'ni dominant so'z hisoblanadi. Ushbu so'zning sinonimlari *attractive*, *pretty* – *beautiful*ga nisbatan yuqori, ko'tarinki, ya'ni, stilistik bo'yoqqa ega bo'lib, ijobiy ma'no ottenkasini ifodalaydi. Shuningdek, *heavenly* "ko'kka ko'tarilgan", "dimog'dor (kalondimog')" sinonimi salbiy ma'no bo'yog'ini ifodalaydi.

Terrible, *dreadful*, *horrible*, *horrid* kabi sinonimik qator tahlil qilinganda, *terrible* neytral so'z, ya'ni dominanta, uning sinonimlarida *terrible*ga nisbatan kuchli salbiy bo'yoq ifodalanadi. *Terrible* so'ziga nisbatan *horrid* yanada salbiy bo'yoqli, ya'ni qabih, jirkanch kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, leksik jihatdan esa ayrim so'zlar sinonimiyasida kuchaytirish, sevinch kabi qo'shimcha ma'nolar hosil qilinadi. Demak, bu so'zlardagi nafaqat qo'shimcha ma'no, balki ma'lum intonatsion xoslik tilning qonun-qoidalari bilan belgilab berilgan bo'ladi, bular til elementlari bo'lib, tilning ekspressiv funksiyasining so'zdagi in'ikosidir. Bu xildagi qo'shimcha (konnotativ) ma'nolar kontekst bilan bog'liq bo'lganligi, til tomonidan belgilab berilganligi sababli ular so'z semantik strukturasi tarkibiy qismlaridan sanaladi, ya'ni til elementi bo'lib, so'zning semantikasiga kiradi.

Adgerent (nutqiy, kontekstual) konnotativ ma'no ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, *temir* so'zi o'z paradigmatic qatorida kimyoviy element, metall qorishmasi sifatida neytral konnotativ ma'noga ega. Ammo quyidagi kontekstda *temir* so'zi metall ma'nosida emas, balki mustahkam irodali, o'z fikridan qaytmaydigan shaxs: *temir odam*, xuddi shuningdek, *oltin qo'llar*, *po'lat iroda*, *arslon yurak*, *quyon yurak* kabi birikmalarda birinchi komponentlarning ma'nosini aniq, konkret tasvirlash mumkin emas. Bu so'zlarda juda katta ekspressivlik (konnotativ ma'no) *temir*, *oltin*, *arslon*, *quyon* so'zlarining o'zida paradigmatic ma'nosida mavjud emas, bu ma'nolar faqat mazkur kontekstdagina ro'yobga chiqadi. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, adgerent (nutqiy, kontekstual) konnotativ ma'no so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan uzviy bog'liqdir.

Demak, til o'zining kommunikativ funksiyasini nominative va ekspressiv funksiyalarining dialektik birligida amalga oshiradi. Ilmiy adabiyotda tilning ekspressiv funksiyasi ikkinchi planga ko'chirilsa, badiiy adabiyotda tilning ekspressiv funksiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'zda esa tilning ham nominativ, ham ekspressiv funksiyasi bilan bog'liq bo'lgan tomonlar – denotativ va konnotativ ma'nolar bor. So'zning denotativ va konnotativ ma'nolarga ega ekanligi – so'z badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri ekanligini belgilab beradi. Agar so'zning konnotativ ma'nosi so'zning semantik strukturasi kirsam, bu so'z, albatta, ma'lum bir sinonimik qatordan o'rin oladi. Yozuvchining badiiy mahorati bu sinonimlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan to'g'ri va mumkin qadar ularning ta'sirchanligini oshirgan holda foydalana olish san'atiga bog'liq bo'ladi. Lekin so'zning badiiy nutqning muhim vositalaridan biriga aylantiruvchi xususiyat uning nutqiy konnotativ ma'noga ega bo'la olishidadir.

ADABIYOTLAR

1. Иванов С.И. Курс турецкой грамматике. Часть 16 Л., 1975, с. 90-91:
2. Нигматов Х.Г. Морфология языка восточнотюрских памятников XI-XII веков. АДД, Баку, 1978, с. 4.
3. Шмелов Д. Проблемы семантического анализа лексики. АДД, М., 1968, с. 22-24.

4. Кодухов В.И. Введение и языкознание. М., 1979, с. 195:
5. Пинхасов Я. Хозирги узбек адабий тили. Тошкент, 1969, 46-бет.
6. Потоцкая Н.П. Стилистика современного французского языка. М., 1974 с. 45:
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги узбек адабий тили. Тошкент, 1965, 130-бет.
8. Михайлов М.М. Стилистика русской речи. Чебоксары, 1968, с. 34.
9. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1996, с. 523.
10. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, 1974, 234-bet.
11. Филиппов А.В. К проблеме лексической коннотации. ВЯ, 1978, №1, с. 59.
12. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). SEMANTIC PROPERTIES OF ANTHROPONYMS. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626>

INGLIZ VA RUS TILLARIDA INSONNING PSIXOEMOTSIONAL HOLATINI BILDIRUVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

M.M.Tursunov,

BuxDU, f.f.f.d. dotsent

Zuhurova Shaxnoza

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo 'nalishi magistranti

Annotatsiya: Har bir tilning boyishi, asosan, o'sha tilni tashkil etgan ichki resurslari hisobiga sodir bo'ladi. Har bir til o'zining grammatik qurilishi, leksik tarkibi, ya'ni lug'at boyligiga ega bo'lib, asosiy hollarda o'zining ichki taraqqiyot qonunlari asosida rivojlanadi, boyiydi va to'xtovsiz sayqallanib boradi. Tilning lug'at tarkibi o'sha tilning asosiy qurilish vositasi bo'lib, tilning rivojlanishi shu lug'at tarkibining rivojiga bog'liqdir. Lug'at tarkibining rivojlanishi esa faqat undagi leksik birliklarning fan va texnika taraqqiyoti natijasida uzluksiz ravishda yangi ma'no kasb eta borishi yoki fan va texnika taraqqiyoti natijasida yangi terminlarning tilda paydo bo'lishi tufayligina sodir

bo'lmay, balki tilda yangi frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, mavjud birliklarning esa qo'shimcha ma'no kasb etishi bilan chambarchas bog'liqdir [1].

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, o'xshashlik, frazeologiya, dominant birliklar, inson ruhiyati, ijobiy ham salbiy kontekstlar.

Hozirgi paytda ko'plab adabiy asarlarning frazeologik tarkibi tavsif qilingan, turli frazeologik guruhlarining grammatik va uslubiy xossalari o'rganilgan, ularni tavsiflash bo'yicha turli fikrlar bildirilgan va ingliz, o'zbek, rus va boshqa tillar bo'yicha frazeologik lug'atlar tuzilgan. Shu bilan birga, frazeologiyaning ko'lami va uning tarkibiy qismi turli mualliflar tomonidan turlicha tushuniladi, bu esa o'z navbatida yaqin vaqt ichida u yoki bu nuqtai nazar bo'yicha uzil-kesil bir to'xtamga kelish mumkinligidan darak beradi. Aynan shuning uchun ham hozirda frazeologiya sohasida eng dolzarb muammolardan biri frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy xususiyatlarini chuqur o'rganishdir.

Muammoning yechimiga yo'l topish uchun biz frazeologiyaning mavzu ko'lami va mohiyatini ko'rib chiqishimiz lozim. Chunki, V.V.Vinogradovning rus tili frazeologiyasi masalalari, N.N.Amosova va A.V.Kuninning ingliz tili frazeologiyasi bo'yicha nashr etilgan tadqiqotlarida frazeologiya lingvistikaning mustaqil sohasi sifatida chuqur ilmiy asoslangan va frazeologik birliklarning tasnifi ishlab chiqilgan.[2]

Insonning ruhiy holati va his-tuyg'ulari uning nutqi va tashqi ko'rinishi orqali namoyon bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi va emotsionalligini oshirishga xizmat qiladigan so'zlar, shuningdek, frazeologik birliklar o'z ma'nolari bilan inson ruhiyatiga ta'sir etish xususiyatiga ega. Shu boisdan fikrni tinglovchiga yetkazishda frazeologizmlar ham boshqa til birliklari singari voqea-hodisalarni aks ettirishda o'ziga xos ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ularning asosiy ahamiyati nutqni ifodalashda unga hissiy rang berish va uning ma'nosini mustahkamlashdan iboratdir. Insonlardagi ichki kechinmalarning hissiyot, kayfiyat va hayajon tarzida botiniy shaklda boshdan kechirilishi bilan bir qatorda tashqi ruhiyatda seziladigan darajada zohiriy belgilar ham yuzaga chiqadi. Masalan, qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, yuzning ifodali harakatlari (mimika), ovoz ohangi, ko'z va yuz rangining o'zgarishi, turq-tarovati,

ko'z qorachig'ining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasidandir. Bunday ruhiy kechinmalarni til orqali ifodalash uchun aksariyat hollarda frazeologik iboralar eng samarali vosita sanaladi. Masalan, frazeologiyada insonning ichki kechinmalarini asosan, uning ovoz ohangi, jismoniy harakati, yuz tuzilishi, ko'z qarashlari va yonoqlar rangi orqali ifodalovchi iboralar dominant birliklar hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda tilda his-tuyg'uning frazeologik birliklar yordamida ifodalanish holatini umumiy tarzda quyidagicha izohlash mumkin: daxshatdan qichqirmoq; g'azabdan bo'kirmoq; quvonchdan osmonga sakramoq; turgan joyida qotib qolmoq; ko'zlari katta – katta bo'lmoq; ko'zlari quvonchdan porlamoq; hayotga kulib boqmoq; og'zi qulog'ida bo'lmoq; baxtdan huzurlanmoq.

Frazeologik birliklarning emotsionalligi insonning turli xil his-tuyg'ulari, hamda shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. Bunday emotsionallik bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi. Darhaqiqat, rang komponentli FBlar qo'rquv, shodlik, azoblanish, hayrat, g'azab, taajjub, norozilik, uyat, g'am, qayg'u, tushkunlik kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Bunday ruhiy hayajon va harakat turlari insonning ichki his-tuyg'ulariga xos holat tarzi bo'lib hisoblanadi.

Masalan: dokadek oqarib ketmoq; murdadek oqarib ketmoq; devordek oqarib ketmoq; qizishib ketmoq. Frazeologik iboralar inson ruhiyatiga aloqador xususiyatlarni ifodalashda, asosan, g'azab, rashk, qo'rquv va sovuqlik kabi tushunchalarni aks ettiradi [3]. Masalan: g'azabi qaynamoq; qattiq rashk qilmoq; qattiq qo'rqib ketmoq; sovuqdan ko'karib ketmoq. g'azab otiga minmoq; darrov ko'ngliga olmoq (ta'sirlanmoq); joni xalqumiga kelmoq; yo'qotib qo'yimoq (dovdiramoq); o'zini osmonda his qilmoq (kayf-safo qilmoq) kabilar hisoblanib, ular inson ruhiyatiga oid xususiyatlarni ifodalashda, asosan, ikkiyuzlamachilik va g'azab tushunchalarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: majburan kulmoq; iljaymoq; g'azabi qaynamoq; birovning adabini berib qo'yimoq.

Quyida ingliz hamda rus tillarida ham ijobiy ham salbiy kontekstlarda qo'llaniladigan insonni turli hissiyotlar va emotsional holatini bildiruvchi tilde eng ko'p

uchraydigan frazeologik birliklarni taqdim etamiz: On cloud nine - extremely happy. I'm on cloud nine.

Like a dog with two tails - used to emphasize how delighted someone is. He's like a dog with two tails down there.

Full of the joys of spring - be lively and cheerful. Someone's full of the joys of spring!

Over the moon - extremely happy; delighted. And I was over the moon.

On top of the world - happy and elated.

Feel blue – feel sad. He knows just how to make me laugh when I feel blue.

Down in the dumps - (of a person) depressed or unhappy. No wonder you're down in the dumps.

Ingliz va rus tillarida insonning emotsional holatini bildiruvchi iboralarda ham o'xshashlik ham farqli jihatlar borligi ma'lum bo'ldi, aksariyat hollarda kuchlik emotsional hollarda somatik komponentlar asosida shallanganligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. N.B.Ваqoyev, A.A.Наydarov, A.P.Рахmatov Chet til darslarida qo'llaniladigan iboralar.- Вухоро, 2011.
2. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М., Советская энциклопедия, 1967.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (Маърунов З.М. таҳрири остида. I-II қисм) – М.: Рус тили нашриёти, 1981.
4. Абдурахимов М. Ўзбекча – русча фразеологик луғат. - Тошкент: ўқитувчи, 1980.
5. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., 1963.
6. Арсентьева Е. Сопоставительный анализ фразеологических единиц. 1989.
7. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. М., 1959.
8. Collins V.IV. A book of English Idioms. - Longmans. Briston; 1969.

INGLIZ TILIDA SO'Z YASASH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida so'z yasash usullari birma bir sanalib, har biri alohida ochib berilgan. So'z yasash usullari o'zbek tili bilan taqqoslanib o'rganilgan.

Kalit so'zlar: affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, suffiks, prefiks

So'z yasash usullari turli tillarda turlichadir. Soz yasashning grammatik (affiksatsiya va so'z qo'shish usuli) semantik, fonetik, konversiya usullari ko'p tillarga xosdir¹. Bularning ishtiroki turli so'z turkumlarida turlichadir. Masalan, arab tilida transfiks hamda konfiks (affiksatsiyaning ko'rinishlari) lar yordamida tildagi barcha turkumdagi so'zlar hosil qilinsa, rus tilida prefiksatsiya va postfiksatsiya ko'proq fe'llarga xos, suffiksatsiya va so'z qo'shish usuli ko'proq otlarga xos. O'zbek tilida affiksatsiya va so'z qo'shish ko'proq otlar uchun xarakterlidir.

So'z yasashda morfologik hodisalar ham hisobga olinadi. Bunda so'z yasash jarayonida yasaluvchi so'z tarkibida o'zgarishlar (tovush o'zgarishlari) ko'zda tutiladi.

Til lug'at tarkibi taraqqiyotining, asosan, to'rt usuli mavjud:

grammatik usul;

fonetik usul;

semantik usul;

so'z o'zlashtirish usuli.

Grammatik usul. Til lug'at sostavi taraqqiyotining grammatik usuli tilning so'z yasash modellari va so'z yasash usullariga asoslanadi. Har bir tilning o'ziga xos so'z yasash modellari va usullari bor.

Grammatik so'z yasash usullari so'z yasash asosi va yasalgan so'z hamda so'z yasovchi vositalarga ko'ra o'zaro farq qiladi. So'z yasash asosi va yasalgan so'zga ko'ra so'z yasalishi turli so'z turkumi doirasida bo'ladi: xizmat - xizmatchilik, son - sana - sanoq.

Soʻz yasash vositalariga koʻra soʻz qoʻshish va affiksial (morfologik) usul bilan soʻz yasash farq qilinadi. Soʻz qoʻshish usulida yangi tushuncha ifoda qilish uchun ikki yoki undan ortiq soʻz biriktirilib, bir soʻz holiga keltiriladi. Bu usul bilan qoʻshma soʻzlar hosil qilinadi:

timekeeper, railway, station, oʻzbek tilida muzyorlar, temir yoʻl, soʻz boshi va h.k.

Soʻzlarni qisqartirish va qoʻshma qisqartma soʻzlar (abbreviatura - lotincha abbrevio - qisqartirish) hosil qilish qoidalari ham shunga kiradi:

UNO – Birlashgan Millatlar Tashkiloti;

UzSWLU - Oʻzbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti;

USA - Amerika Qoʻshma Shtatlari.

Soʻz qoʻshish yoʻli bilan soʻz yasash barcha tillar uchun xosdir. Bu usul ayniqsa qoʻshimchasiz, masalan, xitoy, birma kabi tillarda keng rivojlangan. Ingliz tilida morfologik (affiksial) usul bilan soʻz yasashning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

Suffiksial usul: work -worker

Prefiksial usul: honesty – dishonesty

3) *Suffiksial - prefiksial usul: Misunderstanding*

4) *Fonetik usul.* Bunda soʻz tarkibidagi tovush oʻzgarishi hamda ularning oʻrnini oʻzgartirish yuli bilan yangi soʻz hosil qilinadi: bad — yomon; bat ~ koʻrshapalak.

5) *Semantik usul.* Til lugʻat tarkibi taraqqiyotining bu usulida soʻz maʼnolari oʻzgarib boradi. Fakat soʻzlar emas, ularning maʼnolari ham oʻz tarixiga ega. Soʻz maʼnolari semantik jarayonlar va soʻz maʼnolarining koʻchish qonuniyatlari asosida oʻzgaradi. Soʻz maʼnolarining oʻzgarishi ularning nutqda qoʻllanishiga bogʻlikdir.

Soʻz maʼnolarining oʻzgarish usuli uch xil: soʻz maʼnolarining koʻchishi, soʻz maʼnolarining kengayishi, soʻz maʼnolarining torayishi.

Til lugʻat tarkibining taraqqiyotida semantik usul yana quyidagi koʻrinishlarga ega:

Omonimlarning hosil boʻlishi: work (ish), to work (ishlamoq);

Soʻz maʼnosining til taraqqiyoti bosqichlari boʻylab taqsimlanishi. Mehnat (labour) soʻzi oʻtmishda azob-uqubat maʼnosini ifoda qilgan boʻlsa, hozir mehnat, sharaf

va shon ishiga aylandi. Native land (Vatan) so'zi ilgari kulba, tug'ilgan joy, er ma'nolarini ifoda etgan bo'lsa, hozir butun bir mamlakat ma'nosida qo'llaniladi;

Turdosh va atoqli otlar munosabati. Bunda turdosh otlar o'z ma'nosini toraytirib, atoqli otlarga aylanadi. Victor (lotincha victor - g'olib).

Volga (ruscha volga ~ vlaga). Anor (meva) kabi atoqli otlar turdosh otlar o'z ma'nosini kengaytirib, turdosh otlarga aylanadi. Masalan, iprit (zaharlovchi modda) Belgiyadagi Ipr shahri nomi bilan bog'liq Golife, Donjuan, Donkixot so'zlari ham mana shu tipdadir.

Konversiya (lotincha conversio - aylanish) so'z yasashning semantik - grammatik usulining alohida ko'rinishini tashkil qiladi. Bunda bir turkumdagi so'z ikkinchi bir turkumga o'tadi: uning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi.

ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1965
2. I.Mirzayev. O'zbek tili stilistikasi.-Toshkent:1983.
3. Abduazizov A.S. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent:O'qituvchi. 1982. –B.19-20

DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING TADQIQI

Saidova Muxayyo Umedilloevna,

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedراسi dotsenti

Nadirxanova Nozima Alisherovna,

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada diskurs tushunchasi, uning kelib chiqishi, turli sohalarda uni o'rganishga bo'lgan turlicha yondashuvlar, g'arb va sharq olimlarining diskurs tushunchasini tadqiq etish borasidagi xulosalar hamda hozirgi zamon badiiy diskursining ahamiyati va turlarining bayonotini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Diskurs, semantika, tahlil, yondashuv, gumanitar fanlar, lisoniy, nolisoniy, konteks, matn, muloqot, ekspressiv, argument, she'riy, hikoya.

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o'ta jadallik bilan sodir bo'layotgan fanlar integratsiyasini o'zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitsiyaga ega bo'lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo'nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar diskursni til orqali ifodalangan shakllangan fikrlash tarzi sifatida ta'riflaydi. Bu jamiyatning odamlar, narsalar va ijtimoiy tashkilot haqida fikrlash va muloqot qilish usuli, shuningdek, ushbu uch element o'rtasidagi munosabatlardir. Sotsiologiya diskursni voqelikka ma'no berish usuli deb hisoblaydi. Siyosatshunoslik buni ijtimoiy muammoni hal qilish uchun rasmiy mantiqiy fikr almashish sifatida tushunadi. Psixologik diskurs til shakli va funksiyasini yozma yoki og'zaki ravishda baholaydi, chunki ular ruhiy salomatlik bilan bog'liq.

Ma'lumki, diskurs (fr. Diskours – nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab bog'lanma matn tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik suhbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida diskurs termini yanada kengroq ma'noga ega bo'lmoqda. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendentsiyasi kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, diskurs so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmasligi, bunda shaxs omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir.

Diskurs tushunchasining bu tarzda talqin etilishiga, shubhasiz, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Diskursiv tahlil, obrazli qilib aytganda, bir necha lingvistik tahlil yo'nalishlarining kesishgan chorrahasidir. Chunki diskursiv faoliyat, ya'ni ongli tarzda nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni shaxs omilini o'rganishni taqozo etadi. Zero, har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos

xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir. Ayon bo'ladiki, diskursiv tahlil nutqni shaxs faoliyati sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayon esa lisoniy faoliyatga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazardan yondashish kerakligini bildiradi. Ko'rinadiki, nutqiy tuzilmani bu tarzda o'rganish tadqiqotchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga, uning diskursiv tahlil deb nomlanayotgan “chorraha”dan o'tishini ham taqozo qiladi.

Diskursiv faoliyat jarayonini o'rganmasdan turib diskurs hodisasini tushuntirib bo'lmaydi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog'liqdir. Bu o'rinda diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilning bir necha yo'nalishlari mavjud. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasidir. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini “ichdan” turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo'lgan tahlil ko'rinishlaridan biridir. Diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtai nazarini, ham retsipient nuqtai nazarini e'tiborga olishni talab qiladi.

Diskurs interpretatsiyasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan biri, mashhur gollandiyalik tilshunos T.A.van Deyk matbuot materiallari ustida olib borgan tadqiqotlarida diskurs tahliliga oid bir qancha muhim nazariy qarashlarni yaratdi. Shulardan biri makropropozitsiya haqidagi ilmiy qarashdir. Makropropozitsiya termini matnda ifodalangan obyektiv mazmuni aks ettiruvchi hodisadir. T.A.van Deyk so'zlari bilan aytganda, “Makropropozitsiya... diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan propozitsiyadir... u bir propozitsiyalar ketma-ketligining yana boshqa shunday yuqoriroq darajadagi propozitsiyalar ketma-ketligi bilan bog'lanishini aniqlaydi va buning natijasida diskurs yoki epizodning global ma'nosi kelib chiqadi”.

Olim matnda yonma-yon kelgan gaplarning mazmunan bog'lanishini lokal aloqa, diskursda ifodalangan obyektiv mazmuni keltirib chiqaradigan bog'lanishni esa global aloqa terminlari bilan nomlaydi va bu ikki hodisani farqlash lozimligini ta'kidlaydi .

Darhaqiqat, matnda ifodalangan asosiy mazmun (tema, topik) alohida olingan gapdagi shunday mazmundan – propozitsiyadan tubdan farq qiladi. Makropropozitsiyani tadqiq etish tadqiqotchiga diskurs yaratilishida tafakkur va tilning munosabatini chuqurroq o'rganish, lisoniy shaxs fenomenini kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Makropropozitsiya matnda ifodalangan gaplarning mantiqiy sintezidir. Uning qanday verbal vositalar orqali ifodalanishi nutq yaratuvchi shaxsning diskursiv qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Diskursning qo'llanilishi turli sohalarda uchraydi va uning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishini o'rganish ushbu millat vakillarining madaniyati, psixologiyasi, ijtimoiy ahamiyatini yoritib berishda xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Gao Yixong. Til va madaniy farqlarni tushunish. - Pekin: tahrir. chet tillarini o'qitish, 2000 yil.
2. *Dijk, Teun A. van (2008). Discourse and power. Houndmills, Basingstoke, Hampshire: Palgrave Macmillan.*
3. Gudkov D. Madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti. - M.: ITDGK Gnosis, 2003 yil.
4. Maslova, V.A. Lingvokulturologiya. - M.: Ed. "Akademiya" markazi, 2001 yil.
5. Vilgelm fon Gumboldt til va madaniyat falsafasi. - M.: Taraqqiyot, 1985 yil.
6. Abdunazarova N. "Diskurs"ni talqin qilishga turlicha yondashuvlar. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. 2021, №. 4
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - T.: 2008 yil
8. Usmonova Sh. Til madaniyati. - T.: 2014 yil.

EKVIVALENTSIZ LEKSIKA VA REALIYALARDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING IFODALANISHI

Rasulov Zubaydillo Izomovich,

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedراسi mudiri, f.f.d. (Dsc)

Xikmatova Shafolat Uyg'un qizi,

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Bir tilni o'rganar ekanmiz albatta o'sha til rivojlanishi bevosita xalqning tarixan madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayot rivojlanishi bilan bevosita bo'g'liq. Ushbu tezisdan ekvivalentsiz leksika va realiyalar milliy-madaniy xususiyatga ega lisoniy birliklar sifatida tahlil qilingan, hamda ularga misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekvivalentsiz leksika, realia, kolorit, lisoniy birlik, konnotatsiya, lakuna, transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash

Tilni o'rganish jarayonida dunyo tili va madaniyatlarini solishtirishda mos keladigan va kelmaydigan unsurlar ajralib turadi. Til madaniyatning tarkibiy qismi sanalib mos kelmaydigan unsurlar sirasiga kiradi. Solishtiriladigan tillar qanchalik o'ziga xos boy madaniy tarixga ega bo'lsa va qanchalik uning tarixida madaniy aloqalar kam bo'lsa, ular bir biridan butunligicha yoki qisman farq qiladi. Bunday mos kelmaydigan unsurlarga avvalambor ekvivalentsiz leksika bilan belgilanadigan predmetlar va bir til madaniyatiga mansub bo'lib, boshqa tilda mavjud bo'lmagan yoki tarjima qilib bo'lmaydigan konnotatsiyalar kiradi.

Ekvivalentsiz leksikani o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. “ekvivalentsiz leksika” termini ilmiy muomalaga tadqiqotchilar Ye.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar tomonidan kiritilgan. Ular mazkur terminni quyidagicha izohlashgan: “Ekvivalentsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ya'ni faqat muayyan madaniyatgagina xos bo'lgan madaniyat unsurlari, shuningdek, boshqa tilda tarjimasi bo'lmagan, bir so'z bilan aytganda, o'zi taalluqli bo'lgan tildan tashqarida muqobili bo'lmagan so'zlardir”[1]

L.S.Barxudarovning yozishicha: “Ekvivalentsiz leksika bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobilga ega bo'lmashligidir”[2]. U muqobilsiz leksikaga quyidagi uchta guruhdagi leksik birliklarni kiritadi:

Atoqli otlar – geografik joy nomlari, tashkilot, korxonalar, gazeta va h.k. nomlar.

Realia – boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo'lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar. Masalan: moddiy va ma'naviy madaniyatdagi milliy taom nomlari, milliy libos nomlari va h.k.

"Tasodifiy lakunalar" – biror bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko'ra

boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi.

D.Shveyserga ko'ra, muqobilsizleksika boshqa madaniyatda aniq muqobillari bo'lmagan, madaniy realiyalarni bildirish uchun qo'llaniladigan leksika "milliy-madaniy realiyalarni ifodalovchi so'zlar"dir [3]. V.N. Komissarov muqobilsiz leksikani „tilning komulyukativ vazifasi mahsuli, u mazkur madaniyatning o'ziga xos hodisalarini ifodalaydi va so'zlovchilar ongidagi mavjud bilimlarning ombori” sifatida talqin qiladi. [4] L.L.Nelyubin ekvivalentsiz leksika deganda boshqa til leksik birliklari orasida leksik birliklari orasida na to'liq, na qisman muqobilga ega leksik birliklar (so'zlar va turg'un birikmalar)ni nazarda tutgan.[5]

L.K. Latishev muqobilsiz leksikani bir qancha tiplarga ajratadi:

1. Realiya-so'zlar
2. Vaqtincha-muqobilsiz terminlar
3. Tasodifiy muqobilsiz so'zlar
4. Struktur ekzotizmlar. [6]

Tarjimada ekvivalentsiz leksikani tarjima qilishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelamiz. Chunki tarjimada nafaqat so'zning tarjimasini balki undagi milliy kolorit, ma'no nozikligini ham saqlab qolish darkor. Tarjimada ekvivalentsiz leksikani quyidagi usullar yordamida berish mumkin.

Transliteratsiya usuli orqali tarjima tili harflari yordamida muqobilsiz leksikaning tarjima muqobili yaratiladi va tarjima tilining fonetik qoidalariga ko'ra talaffuz qilinadi. Masalan, producer so'zi o'zbek tiliga prodyuser, computer-kompyuter, talant show-talant shou, interview-intervyu.

Transkripsiya usuli orqali ekvivalentsiz lisoniy birlik talaffuzi tarjima tilidagi harflar bilan beriladi. bunday usuldan kishi va joy nomlarini tarjima qilganda foydalaniladi. Masalan, Harry Potter- Garri Potter, Thomas-Tomas, Samarqand-Samarkand, Buxoro-Bukhara.

3. *Kalkalash usuli* (fransuzcha: nusxa olish, taqlid qilish). Bu usul tarjima jarayonida ko'p qo'llaniladi. Unda muqobilsiz leksik birlikning tarkibiy qismlari tarjima tiliga so'zma-so'z, aslidagidek o'giriladi. Masalan, ingliz tildagi *green revolution* birikmasi o'zbek tiliga *yashil -revolutsiya*, *copyright - mualliflik huquqi*, *foreign school - xorijiy maktab*, *cold arms - sovuq qurol* birikmasi sifatida so'zma-so'z tarjima qilingan. Frazologik birliklarni ham tarjima qilishda leksik jihatdan farq qiladigan yoki muqobil variantlar bilan tarjima qilishdan ko'ra, kalkalash usuliga murojaat qilish samarali bo'ladi.

4. *Tasviriy usulda so'z yoki frazeologik birliklarning na ekvivalenti, na muqobil varianti, na kalka yordamida tarjima qilishning imkoni bo'lmagan paytda bu usul yordamga keladi.* Bir so'zni tarjima tilidagi so'z, so'z birikmasi, frazeologik birliklar va butun bir gap orqali tarjima qilish mumkin. - *Yozuvchi deyishayotgandi, - javob berdi ikkinchisi. - Yozuvchi nima qiladi bu yerda, ularni joyi Mtatsmindada!* (N. Komilov tarjimasi "Abadiyat qonuni", 18) Tarjima jarayonida tarjimon nafaqat asliyat tilini, shu bilan birga, boshqa madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari, mentalitetini, an'analari, urf - odatlari, yaxshi bilishi kerak. Bu gapda Mtatsminda (lug'aviy ma'nosi: "Muqaddas tog") - Tbilisidagi taniqli jamoat arboblari dafn etiladigan joy. Agarda tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asar yaratgan yozuvchi (guzin) millatining yashash tarzini, bu nom tepalik nomi ekanligini va bu joyga aynan taniqli jamoat arboblari dafn etilishini bilmasa, buni boshqa millat vakili bo'lgan resipient tushunmagan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. - М.: Русский язык, 1990. . 83
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. _М. Международные отношения. 1975. _С.94.
3. Швейцер А.Д . Перевод и лингвистика. - М. Воениздат,1973.-С.108
- 4.Комиссаров В.Ию Теория перевода. -Мю Высш. Шк. 1990-С.37
5. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. М: Флинта Наука,2003. -С.24-25

6. Латышев Л.К. Технология перевода. Учебное пособие по подготовке переводчиков (с немецкого языка). _ М. НВИ Тезаурус, 2000. -С, 157-159

7. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya darslik. Toshkent. 2019 -84-88-betlar.

CHALLENGES OF IMPLICITNESS IN THE PROCESS OF TRANSLATING TOURISM TERMINOLOGY FROM ENGLISH INTO RUSSIAN

Khakimova Diana Maratovna,

Bukhara State University, Specialty of Comparative linguistics, linguistic translation (English language), 1st year master's student

E-mail: khakimovadiana88@gmail.com

Annotation. The purpose of this thesis is to discuss the problems of implicitness while translating tourism terms from English into Russian language. This thesis will explore the challenges of translating tourism terms and discuss the various strategies that can be used to overcome this problem.

Key words: implicitness, tourism terminology, challenges, simplification, research, cultural differences, contextualization, strategies.

Tourism is a rapidly growing industry, and it has become an important part of the global economy. The demand for tourism-related services has increased tremendously, and this has led to an increase in the number of people traveling to different parts of the world.

Challenges of Translating Tourism Terms from English into Russian. One of the major challenges is the problem of implicitness. Implicitness refers to the fact that the meaning of a term or phrase is not immediately obvious or clear. This can be due to various reasons, such as cultural differences, linguistic differences, or technical jargon.

Strategies for Overcoming the Problem of Implicitness. There are various strategies that translators can use to overcome the problem of implicitness when translating tourism terms from English into Russian. These strategies include:

1. Research. Translators need to do extensive research on the culture and language of the target audience. For example, a translator who is translating a tourism brochure for Russian tourists should research the cultural and linguistic differences between Russia and the English-speaking countries.

2. Contextualization. Translators need to understand the context in which the tourism terms are used. For example, the term "sightseeing" in English can be translated as "осмотр достопримечательностей" in Russian.

3. Simplification. Translators can simplify complex technical jargon by using simpler terms that convey the same meaning. For example, the term "jet lag" in English can be translated as "перелетная усталость" in Russian.

Tourism terms are often implicit in nature, which means that their meaning is not always clear from the words themselves. Some of the problems of implicitness that can arise while translating tourism terms from English into Russian language are discussed below.

1. Idioms and Colloquialisms. Idioms and colloquialisms are commonly used in English language, especially in the tourism industry. These expressions can be difficult to translate because their meaning cannot be inferred from the words themselves. For example, the expression "the icing on the cake" means something that is an extra benefit or advantage, but this meaning may not be immediately apparent to a Russian translator who is not familiar with this idiom.

2. Cultural References. Tourism terms often contain cultural references that may not be familiar to a Russian translator. For example, a hotel may advertise a "Mexican fiesta" as one of its amenities. While this term may be well understood by English-speaking tourists, a Russian translator may not be familiar with the cultural references associated with a Mexican fiesta.

3. Geographical References. Tourism terms may also contain geographical references that may not be familiar to a Russian translator. For example, a travel brochure may advertise a "Mediterranean cruise" as one of its offerings. While this term may be well understood by English-speaking tourists, a Russian translator may not be

familiar with the countries and regions that are considered part of the Mediterranean region.

4. Brand Names. Tourism terms may also include brand names that are not well known in Russia. For example, a hotel chain may advertise its "Hilton Garden Inn" as one of its properties. While this brand name may be well known in English-speaking countries, it may not be well known in Russia, which can cause confusion for Russian tourists.

Translating tourism terms from English into Russian language can be a challenging task due to the implicitness of some of these terms. To overcome these problems, translators should use simple language, avoid idioms and colloquialisms, provide context, and research the cultural and linguistic nuances of the target language. By following these recommendations, translators can ensure that their translations accurately convey the intended meaning, which can help improve communication between tourists and the tourism industry.

References

1. Al-Qinai, J. (2014). The Impact of Cultural Differences on Translation. *International Journal of Humanities and Social Science Research*, 2(1), 1-8.

2. ХАКИМОВА Диана Маратовна. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА СОВРЕМЕННОЙ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ ЯЗЫК. *Тадқиқот ва инновациялар*, 1(1), 21–25.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7551491>

3. Тошов,З., & Хакимова, Д. (2023). СПЕЦИФИКА ПЕРЕВОДА ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ ЯЗЫК. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(7). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/248>

MIFOLOGIK TASAVVURLAR- MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI.

Z.I. Rasulov,

BuxDU, dotsenti, DSc

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada miflar, miflar orqali kelib chiqqan mifologik tasavvurlar va ularning insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni, qadimgi insonlarning olam haqidagi fikr va mulohazalari, olimlarning asarlarida keltirilgan misollar. Bundan tashqari qadimgi odamlarning qarashlari negizida paydo bo'lgan miflarga misolla va mifshunos olimlar haqida ma'lumotlar berilgan. Renessans davrining mifologiyaga qanday aloqasi borligi, mifologik maktablarning shakllanish va miflar haqida ingliz va o'zbek olimlarining fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mif, mifologiya, anropogenik miflar, folklor, arxaik, sav, uyg'onish davri, structural maktab, allegoriya g'ori.

Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Ma'lumki, qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g'oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'zini o'rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borliqni borligicha qabul qilgan. Moddiy olamdagi voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo'lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro'y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e'tiqodiy qarashlar asosida dastiabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib ehiqqan. Mif -qadimgi odanming voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabali ifodasidir.

Mifologik tasavvuriar olamning yaratilishi, o'simiik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo'lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida baholangan.

M.I.Steblyn-Kamenskiyning ta'kidlashicha [1], “mif - bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqeelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o'rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmaydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o'z tasavvuri, ya'ni “mif - uydirmadir” degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan”

“Mif” so'zi aslida grekcha “mythos - so'z, rivoyat” so'zidan olingan. O'tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalagan va avloddan-avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Ya'ni mif - afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan.

Dunyoning barcha xalqlarining taraqqiyotining dastlabki bosqichlarda olam va odam haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqib, hayot, o'lim, borlik, dunyoning yaralishi haqida miflar yaratishgan. Dunyoning yaralishi, ma'budlar, seheru-jodular, ilohiyot bilan bog'langan voqea-hodisalar, ilohiy qahramonlar, ruhlar haqidagi asotirlar fan tilida “Mif” deb ataladi. Miflarni o'rganuvchi fan esa mifologiya deyiladi.

Mifologiya — muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Masalan yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, o'zbek mifologiyasi insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Miflar ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Mifning asosini qadimgi odamlarning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi. Mifning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar,

qadimiy e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik va animistik miflaridan tashkil topgan.

Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qadimiy Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan miflar insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari mifologiya bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan miflar qadimgi diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga kamrab olgan.

U qadimiy odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g'oyasi bo'lib xizmat qilgan. Miflar ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois miflar folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarining shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o'tagan. Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga bo'lgan ilk urinishlar antik davr olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Steblin-Kameniskiy MI. "Mif" Nauka, 1976, 4-5 bet
2. M. Jo'rayev. Folklorshunoslikka kirish. T., 2006.

3. Meletenskiy E. “Поэтика мифа”. М. 1976 й. 18 бет.4. Platon “Соб. соч. в 3-х тт. Т.3 (1). М., 1971г.

5. Rasulov, Z. (2022). INFORMATION FORMING TOOLS (FACTORS) IN THE STRUCTURE OF DISCOURSE. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 15(15). извлечено от

http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6981ю

6. Rasulov, Z. I. The problem of language economy from the perspective of language evolution. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf.

7. Rajabov D.Z.” The role of images in the artistic structure of uzbek folk songs”,2021, Journal Middle European Scientific Bulletin, volume 12, <https://scholar.google.com/scholar?cluster=16380765326730073131&hl=en&oi=scholar>

8. Ahrorova N,” The collected myths of a group of people” https://scholar.google.com/scholar?cluster=10350961352370301658&hl=en&as_sdt=0.5&scioq=ahrorova+nigina#:~:text=Integration%20Conference%20on%20Integration%20of%C2%A0%E2%80%A6%2C%202022%20%2D%20conferenceseries

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЛИТЕРАТУРНЫЙ ДИСКУРС КАК ВЕДУЩЕЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Саидова Мухайё Умедуллаевна,

PhD (БухГУ)

Косимова Нигина Шухратовна,

магистрант (БухГУ)

Аннотация. Научная статья посвящается изучению художественно-литературного дискурса и его основных характеристик. Был рассмотрен ряд определений дискурса для выявления причины возникновения художественно-литературного дискурса и рассмотрены его отличительные особенности.

В настоящее время всё большее значение уделяется определению термина дискурса, так как многие современные научные дисциплины (лингвистика, лингвокультурология, психолингвистика, прагмалингвистика и другие) напрямую связаны с ним.

Изучение дискурса началось еще во Франции в 50-е годы XX века и обозначало речь вообще или текст. В это же время зародилась англо-американская концепция дискурсивного анализа под руководством З.Хэрриса, где дискурс рассматривался как «последовательность высказываний, отрезок текста, больший, чем предложение» [1]. Однако, О.В.Рубцова считает, что основоположником теории дискурса является Э.Бенвенист, который, проведя грань между «планом повествования (récit) и планом языка, присваиваемого говорящим человеком (discours)» [2], пришел к выводу, что дискурс – «речь, присваиваемая говорящим».

Наиболее полное определение можно встретить в работах А.А. Кибрика, где «дискурс – это единство процесса языковой деятельности и её результата, т.е. текста. Дискурс включает текст как составную часть. Текст – статический объект, возникающий в ходе языковой деятельности. Это может быть письменный текст, т.е. последовательность графических символов, а может быть и устный текст – акустический сигнал, который может быть зафиксирован, например, на магнитном носителе. Дискурс, помимо самого текста, включает также разворачивающиеся во времени процессы его создания и понимания» [3]. Этому же мнению придерживается Н.Д.Арутюнова предлагая следующий афоризм: «дискурс - это речь, погруженная в жизнь» [4].

Начиная с 70-х годов XX века дискурс становится междисциплинарным явлением, включающим в себя достижения социолингвистики, этнолингвистики, психолингвистики и других направлений. В «Лингвистическом Энциклопедическом Словаре» Арутюнова дает следующее толкование дискурса: «связный текст в совокупности с экстралингвистическими – прагматическими, социокультурными, психологическими и другими факторами; текст, взятый в событийном аспекте; речь, рассматриваемая как целенаправленное социальное

действие, как компонент, участвующий во взаимодействии людей и механизмах их сознания (когнитивных процессах)».

Более того, Б.М.Гаспаров утверждает, что всякий акт употребления языка существует благодаря определённым обстоятельствам, которые он перечисляет в своей работе:

- 1) коммуникативные намерения автора;
- 2) взаимоотношения автора и адресатов;
- 3) всевозможные «обстоятельства», значимые и случайные;
- 4) общие идеологические черты и стилистический климат эпохи в целом и той конкретной среды и конкретных личностей, которым сообщение прямо или косвенно адресовано;
- 5) жанровые и стилевые черты как самого сообщения, так и той коммуникативной ситуации, в которую оно включается;
- 6) множество ассоциаций с предыдущим опытом, так или иначе попавших в орбиту данного языкового действия.

Таким образом, не удивительно появление художественно-литературного дискурса, так как он обладает всеми свойствами, приведенными выше: его объектом исследования является текст, содержащий процесс художественной коммуникации. Сам же текст литературного произведения даётся в определенном историческом периоде, имеющим социальное значение и влияющим на человеческое сознание и понимание мира.

Еще одним важным компонентом данного термина, является понятие художественный, который зачастую ассоциируют с искусством, однако он не ограничивается только им. ««Художественность» стабильно ассоциируется с «образностью» и «изобразительностью» и «воображением», т.е. деривативными смыслами понятия «образ»»[5]. Для художественного дискурса важно не только передать какую-либо информацию, но и побудить воображение читателя, донести до него тот самый некий смысл, что было бы невозможно без литературного контекста. Цветан Тодоров рассматривал литературный дискурс «как

диалектическую систему, проследив всю цепочку от появления идеи произведения до восприятия литературного текста читателем, реципиентом»[6].

Существуют ключевые отличия данного вида дискурса от других его типов:

Целью художественного дискурса является воздействие на «духовное пространство» реципиента, под которым понимается «система ценностей, знаний, взгляды на жизнь конкретного человека, чаяния и желания, личностные ориентиры»[7]. Таким образом, осуществляется «эстетическая функция»[8].

Текст произведений является выдуманным и проведенным через призму восприятия автором окружающего мира. Таким образом здесь задействуется как креативность, так же и явление концептуализации.

«Дискурс художественного произведения обладает большим многообразием жанровых, тематических, возрастных и идеологических составляющих».

Содержит следы конкретной культуры.

Следовательно, можно смело заявить, что художественно-литературный дискурс требует большего внимания со стороны исследователей, так как он является одним из основных его видов, включающий в себя текст в качестве источника коммуникации. в данном типе можно рассмотреть не только закономерности взаимоотношений людей в каком-либо отрезке времени, но и понять социальную обстановку того времени; культуру, в которой проживал автор; как он мыслил и какие цели преследовал, создавая данное произведение; определить его воздействие на читателя и взаимодействие с ним.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Хасанова Д.М. ДИСКУРС И ТЕКСТ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. 2008. С. 7. https://upload.pgu.ru/iblock/61a/uch_2008_ii_00059.pdf
2. Рубцова О. В. ПОНЯТИЕ ДИСКУРСА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. УДК 81'42. С. 2.
3. Красин М.Н. ДИСКУРС, ДИСКУРС-АНАЛИЗ И МЕТОДЫ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПРОЕКТАХ. Вестник ТвГУ. Серия "Филология". 2018. № 2. С. 159.

4. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В.Н. Ярцевой. – М.: Советская энциклопедия, 1990. С. 136.
5. Фещенко В.В. ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ДИСКУРС: К ОПРЕДЕЛЕНИЮ ТЕРМИНА В ПЕРСПЕКТИВЕ ЛИНГВОЭСТЕТИК. Новый филологический вестник. (Москва). 2021. №1(56). С.18.
6. Дасгупта Д. Р: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРНОЙ ТЕОРИИ. М: 22: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ДИСКУРС В ТЕОРЕТИЧЕСКОМ ОСВЕЩЕНИИ. С.3.
7. Хуиян Г. Особенности дискурса художественного произведения. «Молодой учёный». № 20 (154). Май 2017. С.485.
8. Сапиева С.К., Малова Н.Е., Шхумишхова А.Р. ЛИТЕРАТУРНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ДИСКУРС И ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики № 4 2021. С.30.
9. Saidova, M. U. (2019). THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE LITERARY TERMS IN LITERARY DICTIONARY" LITERARY TERMS AND LITERARY THEORY" BY JA CUDDON. Международный академический вестник, (1), 73-76.
<https://elibrary.ru/item.asp?id=36875142>

DEVELOPING CULTURAL AWARENESS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Rasulov Zubaydullo Izomovich,

BuxDU, f.f.d(DSc)

Razoqova Kumush

Sadriiddinova,

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili yo 'nalishi magistranti

k.s.razoqova@buxdu.uz

Annotation. English has been special as a supply of intercultural conversation most of the humans from various linguistic and cultural backgrounds. A variety of linguistic and cultural theories make a contribution significant insights at the

improvement of competence in intercultural conversation. The speculations recommend the usage of communicative techniques focusing at the improvement of learners performance in speaking language via cultural context. This article suggests issues in view of coaching English as a medium of coaching in public quarter faculties of indoors Uzbekistan prescribed textbooks in Uzbek schools. It additionally goals to pick out drawbacks and shortcoming in prescribed textbooks for intermediate college students at university stage and schools. Therefore, the task observe recommends integration of cultural attention right into a language coaching programme for an typical fulfillment of competence in intercultural verbal exchange.

Key words. Intercultural, cultural background, speculation, insight, fulfillment, verbal exchange

asosan o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab bir qator nazariy va emperik ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ularda so'z urg'usi yoki aksentemaga olimlar tomonidan turli ta'riflar berildi. B. A. Bogoroditskiyning ta'rif berishicha, urg'u artikulyatsion va nafas olish bilan bog'li energiyaning ko'tarlash yoki pasayishi bilan harakterlanadi. D. Jovns fikricha, urg'uni kuchli zarb yordamida nafas chiqarilganda hosil bo'ladigan tovush balandligi bilan bog'liq zarbning darajasi sifatida ta'rif beradi. H. Svit ham urg'u aynan chiqarilayotgan nafas kuchi bilan bog'liq degan qarashga qo'shiladi.⁴¹ Ingliz tilshunoslaridan yana biri A. Gimsonning ta'kidlashicha, urg'u olgan bo'g'in aynan shu so'zdagi boshqa bir urg'u olmagan bo'g'inlardan yuqoriroq nafas kuchi va muskullarning energiya sarf etishi bilan izohlanadi.⁴² D. Leksik urg'uni qanday hosil bo'lishini aniqlash maqsadida o'tkazilgan qator tajribalar shuni ko'rsatdiki, urg'uli bo'g'inni anglash uchun tovushning asosan unli tovushning turli xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Sababi bo'g'inlarning xosil bo'lishi unli tovushlar bilan chambarchas bog'liqdir. So'z urg'usi bu so'zdagi ma'lum bir unlining (yoki bo'g'inning) cho'ziqroq, ajratib ta'kidlab aytilishidir. Payqab olish nuqtai nazaridan barcha urg'uli bo'g'inlarning umumiy belgisi bu qolgan urg'usiz bo'g'inlardan yaqqol ajralib turishidir. Professor Abduazizov urg'uning fonetik komponentlarini quyidagicha tasniflaydi:

a) Nutq

organlarining harakatiga ko'ra. Ya'ni urg'u bo'g'iz faoliyati va nafas olish sezilarli darajada kuchaytirilishi va un paychalari titrashining yuqori chastotali artikulyatsiyasi davomiyligi bilan xarakterlanadi.

b) Akustika nuqtai nazaridan urg'u olgan bo'g'in boshqa urg'u olmagan bo'g'inlarga qaraganda yuqoriroq intensivlikka va yuqori tovush toni, davomiylikka ega bo'ladi.

c) Anglash doirasida esa urg'u olgan bo'g'in urg'ulantirilmagan bo'g'inlarga qaraganda balandligi davomiyligi va tovushning yuqori toni bilan belgilanadi. O'zbek tilidagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni farqlashda uchta xususiyat muhim ahamiyatga

⁴¹ Crystal D. A dictionary of linguistics and phonetics. Sixth edition. –Oxford:Blackwell publishing, 2008. –B. 454.

⁴² Sokolová H. THE PRONUNCIATION OF CZECH TEACHERS OF ENGLISH: ENGLISH WORD STRESS.

Diploma thesis. CHARLES UNIVERSITY PRAGUE. 2009. –B. 6.

egadir. Birinchidan urg'uli bo'g'in qolgan bo'g'inlarga qaraganda cho'ziq o'qiladi, ikkinchidan urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'indan ko'ra aniqroq talaffuz qilinadi, uchinchidan urg'uli bo'g'in boshqa bir urg'usiz bo'g'indan ko'ra balanroq ovozda aytiladi. Masalan dala, paxta, ona so'zlarining oxirgi ikkinchi bo'g'inlari birinchi bo'g'inga qaraganda cho'ziq, aniq va baland ovozda aytiladi. Fonetik va fonologik tabiatiga ko'ra ingliz tili urg'usi o'zbek tili so'z urg'usiga qaraganda murakkab jarayon hisoblanadi va o'z o'rnida tildagi ahamiyati ham yuqoriroq darajaga egadir. D.Kristal va Gimson ham bu fikrga qo'shilgan holda ingliz tili so'z urg'usi amalga oshirilishi mushkul bo'lgan jarayon deb ta'rif berganlar. Sababi mavjud ilmiy tadqiqotlarda urg'uga ta'riflar va yondashuvlar o'rtasida o'xshashliklar bo'lsada, ba'zan qarama-qarshi fikrlarga ham duch kelamiz. Masalan, Vrabelning fikricha ingliz tilida faqat ma'noli (mustaqil so'zlar) so'zlarga so'z urg'usi olishi mumkin va aksincha artikllar urg'u olmaydi. Ba'zi adabiyotlarda taklif qilinishicha artikllar ham, predloglar ham qaysidir ma'noda potensial (ehtimoliy) urg'uga egadir.⁴³ Shuning uchun ingliz tili urg'usi haqidagi barcha manbalarda bir nechta istisnolar ko'zga tashlanadi. O'zbek tili so'z urg'usi esa ingliz tili so'z urg'usidan farqli ravishda umumiy normalar bilan xarakterlanadi. Balki shuning uchun o'zbek tili fonologiyasiga va fonetikasiga doir manbalarda so'z urg'usi va uning alohida xususiyatlari haqida mualliflar o'ta qisqa ma'lumotlarni keltiradilar. Fonologik aspektda leksik urg'u (shu o'rinda urg'u farqlovchi urg'u deb ham nomlangan) ma'no farqlash xususiyatiga egadir.⁴⁴ Bunday holat ko'p tillarda, xususan, ingliz va o'zbek tillarida ham mavjuddir: 1) There has been a significant increase in the number young people who smoke. 2) The population may increase by 15 percent. Keltirilgan gaplardagi increase so'zi dastlab ot ['ɪnkri:s], keyingi gapda esa fe'l ['ɪn'kri:s] vazifasini bajaryapti. O'zbek tilida olma (meva), olma (fe'ning bo'lishsiz shakli). Bir xil tovush ketma-ketligiga ega bo'lgan so'z birikmalari va qo'shma so'zlar so'zlarni ajratib olish uchun leksik urg'udan foydalanamiz: 'black 'bird (qora qush, har qanday qora qush (so'z birikmasi)), 'black-bird (asosan Yevropa va

⁴³ Claire-A. Forel & Genoveva P, Updated by Cornelia H and Carmen S. PHONETICS AND PHONOLOGY University of Oldenburg.:2005. –B. 45-47

⁴⁴ Abulazova M, Yo'ldosheva D. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent.: Universitet, 2005. –B. 49.

Shimoliy Amerikada uchraydigan qush turi (qo'shma so'z). Kontekstdan tashqarida bunday so'zlarni faqatgina urg'u yordamida farqlashimiz mumkin. Qisqacha qilib aytganda, so'z urg'usi so'z bo'g'inlardan biriga tushib uning ma'no va talaffuzini belgilab beradi. So'z urg'usi leksik urg'u, lug'aviy urg'u deb ham yuritiladi. Agar ingliz tili so'z urg'usi klassik qoidalariga Anglo-saksonlar davriga nazar tashlaydigan bo'lsak, urg'uning murakkablik darajasi zamonaviy ingliz tili urg'u normalaridan tubdan farq qiladi. Bu haqda Robert Stokvel va Donka Minkovaning aytishicha, so'z urg'usidan foydalanish normalari anglo-saksonlar zamonasida jiddiy muammo emas edi va deyarli alohida qoidalarga ham zaruriyat tug'ilmagan. Odatda birinchi bo'g'in urg'uga (bosh urg'uga) ega bo'lgan: 'blossom,'body, 'holy. O'sha davrda mavjud so'zlarning aksariyatini bir va ikki bo'g'inli so'zlar tashkil etardi. Shunga qaramay, ingliz tiliga lotin, grek va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar va qo'shimchalar hisobiga ko'p bo'g'inli so'zlar hosil bo'ldi. Bu holat esa so'z urg'usi qo'llashdagi chigalliklarga sabab bo'ldi.⁴⁵

ADABIYOTLAR

1. Торсуев Г. Вопросы акцентологии современного английского языка. —Москва.: 1960
2. Roach P. English phonetics and phonology. A practical course second edition. —Cambridge.: Cambridge University press, 1991.
3. Halle M, Keyser J. English stress. Its form, its Growth and its Role in Verse. —NewYork.: 1970.
4. Торсуев Г. Вопросы акцентологии современного английского языка. —Москва.: 1960 Sweet H. A primer of phonetics. —Oxford.: 1929
5. Gimson A. An introduction to the Pronunciation of English. —London.: 1962; Fry D
6. Sharipov O', Yo'ldoshev I. Tilshunoslikasoslari. —Toshkent.: 2006. —B. 27.
7. Jalilov S. Hozirgi o'zbek adabiy tili (fonetikavafonologiya). —Nukus.: 2011. —B.

⁴⁵Robert S, Minkova D. English Words. History and Structure. —Cambridge.: Cambridge University Press, 2001. — B. 167-168

8. Robert S, Minkova D. English Words. History and Structure. –Cambridge.: Cambridge University Press, 2001. – B. 167-168

ZAMONAVIY INGLIZ TILIDAGI NEOLOGISMLAR VA ULARNING NUTQDA QO'LLANILISHI

F.B.Alimova,

Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ingliz tiliga kirib kelgan yangi so'zlar haqida ma'lumot beriladi. Ularning so'zlovchi nutqida qo'llanilishi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ingliz tili, neologizm tushunchasi, so'zlashuv uslubi, nutq madaniyati.

Ilm-fan va texnikaning tobora rivojlangani sari tilimizda yangi so'zlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Neologizm bu tilimizda boshqa tillardan kirib kelgan yoki yaratilgan so'zlardir. Bu atama qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, “neos”- yangi va “logos”-so'zlar degan ma'nolarni anglatadi. Neologizmlar tilshunoslikning neologiya bo'limida o'rganiladi. Rus olimi Mixail Vasilyevich Lomonosov ilm-fanga oid bo'lgan masalan, kislorod, nasos, minus, termometr, diameter kabi so'zlarni tilga kiritgan va bu atamalar XVIII-XIX arslarga xos bo'lgan yangi tushunchalar, neologizmlar edi. Bu haqida Lomonosovning o'zi garchi bu so'zlar noodatiy tuyulsada, vaqt o'tgan sayin zamon bilan moslashishini ham ta'kidlab o'tgan[1].

Neologizm tushunchasini har qanday olimlar har xil ta'riflashadi, shuning uchun Ukrainalik filolog M.I.Mostovy ta'kidlanganidek neologizmlarni lingvistik hodisa sifatida ta'riflashning aniq mezoni yo'qdir. Mashhur lingvist V.N. Yartseva neologizmlarni quyidagicha tushunturadi: “ Neologizmlar bu tilda ma'lum bir davrda paydo bo'lgan yoki nutq jarayonida bir marta qo'llanilgan so'z yoki iboralardir”. Yana bir lingvist O.S. Akhmanova o'zining “Lingvistik atamalar lug'ati” kitobida neologizmlarning ikki turga bo'linishini aytib o'tgan va quyidagicha izohlagan: “Birinchi ta'rifga binoan neologizmlar bu yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan

so'zlardir. Ikkinchisi esa neologizmlar bu oddiy xalq tilida ishlatilmaydigan, faqatgina nostandart nutq usubiga xos bo'lgan so'zlardir"[2].

Ingliz tili doimiy o'zgarib turuvchi tillar qatoriga kiradi va hozirgi kunda u neologik taraqqiyot bosqichida turibdi. Yangi so'zlarning kirib kelishi uning morfologiyasi va morfologik jarayonlariga yanada katta ta'sir ko'rsatadi. Taniqli ingliz dramaturgi Shekspir ingliz ilm-fanida mohir neolog sifatida tanilgan. Chunki uning asarlarida 500 ga yaqin yangi so'zlar uchraydi. Ingliz tilida neologizmlar turli xil yo'llar orqali yaratiladi. 2013 yilda ikki olim Behera va Mishra yaratgan klassifikatsiyasiga asoslanib, yangi so'zlar quyidagi metodlar asosida ixtiro qilinadi:

1. Mavjud so'zlarni birlashtirish usuli, ya'ni qo'shma ot yoki sifatdosh yasash (blending or compound words):

web + seminar = webinar

spoon + fork = spork

smoke + fog = smog

breakfast + lunch = brunch

2. Boshqa tillardan yangi so'zlar o'zlashtirish usuli (derived words):

herbs (Fransuzcha *herbes*) –giyohlar

alligator (Ispancha *el lagarto*) – timsoh

sub (Lotincha) – tagida

3. Tilda mavjud bo'lgan so'zlarni qisqartirish usuli (clipping):

influenza – flu

science-fiction – sci-fi

captain – cap

4. Tilda bundan oldin ishlatilmagan, umuman yangi bo'lgan yangi mazmunli so'zlar yaratish usuli:

Blert – ahmoq

Hellacious – shafqatsiz

Unfathomed – to'liq anglab yetilmagan[3].

Neologizmlar ingliz lug'atlarida tez-tez uchramaydi, ammo ba'zi lug'at tuzuvchilar hozirgi kunda nutqda ko'p qo'llanilayotgan yangi so'zlarni o'z lug'atlariga kirityaptilar. Masalan, Webster International Dictionary lug'atining

uchinchi sonida inglizlarning nutq jarayonida ishlatib kelingan neologizmlarning bir qanchasi kiritilgan. So'zlovchilar bir-birlarini to'g'ri tushinishlari uchun ular tilda mavjud bo'lgan yangi so'zlarning ma'nolarini ham bilishlari kerak. Aks holda suhbatdoshlar o'rtasida nutqiy tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin[4].

Ingliz tili chet tili bo'lgan davlatlarda mazkur tilni o'rgatuvchi pedagoglar odatda neologizmlar haqida ma'lumot berishmaydi yoki umuman o'rgatishmaydi. Negaki ular yangi so'zlar bo'lib, so'zlashuv uslubiga xosdir va yozma rasmiy nutqlarda ishlatilmaydi. Lingvist Irina Rets ning 2016 yilda olib borgan izlanishlariga ko'ra atigi 5% talabalar o'rgatilgan neologizmlarning 90% ni tushuntirib bera olishdi. Bunday past ko'rsatgich tufayli Rets chet tili o'rganuvchilariga dars jarayonida neologizmlarni o'rgatishni yo'lga qo'yilishini va bu orqali o'sha til madaniyatini, undagi o'zgarishlarni ham tushuntirish mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Rets dars jarayonida neologizmlarni quyidagi usullar orqali talabalarga o'rgatishni taklif qilib o'tgan.

1-usul: yangi so'zlarni guruhlash va muayyan mavzu asosida o'rgatish. Masalan, o'qituvchi kasblar mavzusida dars o'tayotgan bo'lsa, "open collar" (uyda o'tirib ishlaydigan odam) so'zini o'rgatishi mumkin.

2-usul: neologizmni o'rgatish bilan birga uning yaratilish tarixini ham tushuntirish. Misol qilib "oilgate" so'zini olsak, bu atama Janubiy Afrikadagi neft mojarosi sabab yaratilgan. Bu terminga o'xshash qilib, "Billygate, Motorgate" kabi so'zlarni ham o'rgatish mumkin. Bu namunalarda "gate" so'zi mojaro, urush degan ma'nolarni anglatadi.

3-usul: yangi so'zlarni rasmlar yordamida o'rgatish. Masalan, agar siz "downvote" ya'ni onlayn norozilik degan ma'noni anglatuvchi neologizmni o'rgatmoqchi bo'lsangiz, bosh barmoqning pastki holatda turgan rasmini ko'rsatib, bu so'zni yanada aniqroq tushuntirib berishingiz mumkin[5].

Neologizmlar haqida yana shuni ham aytib o'tish joizki, mazkur so'zlar o'z ona tilisida gapiradiganlar, shuningdek jamiyatning va ommaviy axborot vositalari nutqida juda katta rol o'ynaydi. Yangi so'zlarni o'rgatish orqali biz tilning qay

darajada muhimligini ko'rsatgan bo'lamiz. Amerikada neologizmlar “Yil so'zlari” nominatsiyasiga loyiq deb topilgan, ya'ni har yili mazkur yil davomida qaysi neologizm ko'p qo'llanilganligi aniqlanadi. 2012 yilda “hashtag” atamasi yil neologizmi g'olibi deb e'lon qilingan[6].

ADABIYOTLAR

1. Raquel, Ortiz C. (2020-2021). English Neologisms in Modern Times.
2. Jelena, I.P. (2021). Today's usage of Neologisms in Social Media Communication.
3. Yaroslav, L. (2010). Neologism in lexical system of modern English.
4. Behera, B., Mishra, P. (2013). The Burgeoning Usage of Neologisms in Contemporary English. IOSR Journal of Humanities and Social Science
5. www.theguardian.com
6. www.vappingo.com

THE IMPACT OF PROBLEM-BASED LEARNING ON DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS

Gulchekhra Ibrakhimovna Khamraeva

A lecturer of the department of Translation Studies and Language Education

Nigora Safarova

A first year Master student of Comparative Linguistics and Linguistic Translation

Studies, Bukhara State University

Abstract: Problem based learning or PBL is based on research in the cognitive sciences on how we learn. It improves learning and it is one of the biggest success in education in the last decades. And this article analyses the role of problem-based learning in developing language learners' critical thinking, problem-solving, reasoning, communication and self-assessment skills.

Key words: problem-based learning, critical thinking skills, student-centered approach, open-ended problems, self-reflective, to solve complex and authentic problems, problem-solving, reasoning, communication, and self-assessment skills

Learning a new language is easier and more enjoyable when it is truly meaningful. Communicative language teaching (CLT) is an approach to the teaching of second and foreign languages that emphasizes interaction as both the means and the ultimate goal of learning a language. Language learners in environments utilizing CLT techniques learn and practice the target language through interaction with one another and the instructor, study of "authentic texts" and use of the language in class combined with use of the language outside of class as well as learners need to be able to use the language appropriately in any social context. Moreover, communicative approach to language teaching stresses the importance of communication and interaction among the pupils and between the teacher and the pupils to learn a foreign language. Rather than repeating mechanically dialogues or grammar rules learnt by heart, this approach encourages pupils to use the target language in semi-authentic contexts and also values the pupils' personal experiences outside the classroom as a way to facilitate their learning in the lesson. So most of the tasks of this approach demand that pupils work in pairs or in groups and discuss different aspects of their lives free-time activities, likes/dislikes, have you ever done this or that. Another effective and innovative task in the communicative approach is identifying and solving problems in groups or organizing and designing problem-solving activities.

Problem-based learning (PBL) begins with the assumption that learning is an active, integrated, and constructive process influenced by social and contextual factors, some methodologists claim that problem-based learning is characterized by *a student-centered approach, teachers as “facilitators rather than disseminators,” and open-ended problems that “serve as the initial stimulus and framework for learning”*.

In a problem-based learning setting, teachers need to ask questions such as:

Why? What do you mean? How do you know that is true?

What assumptions might you be making?

These questions are meant to get students to become self-reflective about their learning processes and it emphasizes students' critical thinking skills, understanding, learning how to learn, working cooperatively with others.

PBL is a student-centered instructional strategy in which students collaboratively solve problems and reflect on their experiences. Instructors also hope to develop students' intrinsic interest in the subject matter, emphasize learning as opposed to recall, promote group work, and help students become self-directed learners, students work with classmates to solve complex and authentic problems that help develop content knowledge as well as problem-solving, reasoning, communication, and self-assessment skills. These problems also help to maintain student interest in course material because students realize that they are learning the skills needed to be successful in the field. And the following types can be defined in teaching through problem-based learning approach:

- ✦ **Contextual – PBL** uses real everyday problems. Hence the learning material is more relevant and will be easier to apply on real situations;
- ✦ **Constructive – PBL** is a student centered approach in which learners construct their own knowledge and the teacher or tutor serves as a guide on the side;
- ✦ **Collaborative – PBL** stimulates students to co-construct knowledge, and to share ideas and knowledge;
- ✦ **Self-directed – PBL** promotes self- directed learning skills among students. Examples are planning, reflection, evaluation of understanding, and managing information and resources;

Learning is “student-centered” because the students are given the freedom to study those topics that interest them the most and to determine how they want to study them. Students should identify their learning needs, help plan classes, lead class discussions, and assess their own work and their classmates' work.

Teaching languages through problem-based learning approach can be beneficial if teachers know the how to design problem-based learning activities, how to choose

different relevant materials according to learners' needs, interests, age and level, as well as according to the content of the lesson.

The steps to designing problem-based learning activities are:

- ✦ *Identify a Real-Life Problem - Depending on the problem you choose, determine what you want to accomplish by running the challenge*
- ✦ *Create and Distribute Helpful Material*
- ✦ *Set Goals and Expectations for Your Students*
- ✦ *Have Students Present Ideas and Findings*

Despite the work and effort it requires, PBL is never dull and is often fun. It develops learners' independence and using this method regularly students become more efficient and skilled at practicing the language. They become more confident, their motivation also increases and they can manage without regular teacher's supervision.

Besides practicing and consolidating the language group work helps to integrate the class. Learners learn how to cooperate with one another, make compromise, negotiate, and respect individuals with different abilities and views which is important for the class atmosphere and relationship with the teacher. Instead of sitting alone trying to understand something difficult they can help each other to solve a problem when it arises. In such a class the teacher is no longer a supervisor but becomes a resource center and advisor for the students.

Problem-based learning gives opportunities:

- ✦ *to examine and try out what students already know;*
- ✦ *discover what students need to learn;*
- ✦ *develop skills for achieving higher performance in teams;*
- ✦ *improve students writing and speaking abilities, to state and defend with sound arguments and evidence your own ideas;*
- ✦ *to become more flexible in different approaches to problems that surprise and dismay others.*

Thus, we can state that problem-based learning, one of the most innovative ways of teaching foreign languages is realized according to principles of the cooperative and communicative teaching and has its main goals to teach spoken language:

- **Firstly**, it is most commonly used to get learners talking to each other;
- **Secondly**, much research on PBL in language learning has studied spoken activity, partly because this is the most easily observed and recorded;
- **Thirdly**, most teachers use problem-solving activities in unprincipled ways and enhance students' outlook.

Overall, PBL is an effective method for improving students' critical thinking and problem-solving skills. Students will make strong connections between concepts when they learn facts and skills by actively working with information rather than by passively receiving information. PBL promotes students' confidence in their problem-solving skills and strives to make them self-directed learners. Teachers who provide a good learning community in the classroom, with positive teacher-student and student-student relationships, give students a sense of ownership over their learning, develop relevant and meaningful problems and learning methods, and empower students with valuable skills that will enhance students' motivation to learn and ability to achieve.

THE LIST OF USED LITERATURE

1. Jalolov J., Mahkamova G., Ashurov Sh. (2015). English Language Teaching Methodology, Tashkent
2. Jeremy Harmer. How to teach English. Addison Wesley Longman Limited, 1998.
3. Savery, J. R., and Duffy, T. M. (1995). Problem based learning: An instructional model and its constructivist framework.
4. Landsberger, J. (2011). Problem-based learning. <http://www.studygs.net/pbl.htm>
5. Khamraeva G.I. (2021). Interactive Games and Their Role in Developing Language Learners' Communicative Skills //E-Conference Globe, 413-417
6. Khamraeva, G., & Aslonova, S. (2018). The Role of Communicative Games
7. in Language Teaching. *Инновационные подходы в современной науке*, 163-165.

8. Gulchehra Ibraximovna Xamraeva, Zebiniso Ibrohimovna Bafoyeva, Marjona
9. Maxsud qizi Maxmudova. (2023). Umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol ta'lim texnologiyalari roli. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(10), 58–61.
10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7882364>
11. Olimova, D. (2021). Важность формирования навыков автономного обучения у студентов при преподавании иностранного языка. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 5(5). извлечено от
12. http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2398

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDAGI INSON BOSHI BILAN BOG'LIQ IBORALARNING KOGNITIV ASOSLARI

S.R.Mirzoyeva,

*Buxdu, Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik yo'nalishi 2-kurs magistranti*

s.r.mirzoyeva@2022buxdu.uz

Annotatsiya. Madaniyat tilning frazeologik birliklarini o'z ichiga oladi, chunki biz hech qanday tilni frazeologik birliklarning bir qismi - somatik so'zlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Va har bir mamlakatning o'ziga xos frazeologik birliklarining somatik komponentlari mavjud. Bizning tadqiqotimiz Ingliz va o'zbek somatik so'zlari madaniyatlararo jihatlariga ko'ra taqqoslashga asoslangan. Somatizmlar deb ataladigan somatik frazeologik birliklar oddiy so'z birikmasidan iborat bo'lib ko'p ma'noga ega, tilning eng qadimiy leksik qatlamini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: somatik frazeologik birliklar, lingvomadaniyat, somatizm, frazeologizm, frazema, tilshunoslik.

Tilshunoslikda inson tana a'zolari nomlariga nisbatan qo'llaniladigan "somatizm" atamasi ilk bor eston tili frazeologizmlarini o'rgangan olim F.Bakk tomonidan

qo'llanilgan edi. U mazkur dissertatsiyasida eston tili frazeologik fondining anchagina qismini tashkil etishini ta'kidlagan edi⁴⁶.

“Somatik frazeologizm” atamasi esa birinchi marta rus olimi E.M.Mordkovich tomonidan inson a'zolari bilan bog'liq “Семантико – тематические группы соматических фразеологизм” nomli maqolasida qo'llagan edi⁴⁷.

XX asrning ikkinchi yarmidan somatik frazeologizmlarni o'rganish ularni o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish boshlangan. Somatik frazeologizmlarni bir til doirasida o'rganish ishlarini 1964 yilda F.Bakk nomzodlik dissertatsiyasida boshlab bergan. U eston badiiy tilidagi somatik frazeologizmlarni o'rgandi va “somatizm” atamasini yoritib berdi⁴⁸.

1980 yilda V.M.Mokiyenko o'zining “Славянская фразеология” asosida slavyan tilidagi frazeologizmlarni o'rganib, somatik frazeologik birliklarga ham to'xtalib o'tgan. V.M.Mokiyenko o'zining “Славянская фразеология”(1980) nomli asarida frazeologik birliklarni ikki guruhga bo'lgan edi⁴⁹.

1. Aynan ma'lum fiziologik harakatni, ko'chma ma'noda qo'llanganda esa nofiziologik harakatni ifodalovchi frazeologik birliklar; 2.Aynan bir fiziologik harakatni, ko'chma ma'noda esa boshqa bir fiziologik harakatni anglatuvchi frazeologik birliklar;

Mokiyenkoning bu tasnifida to'g'ri, chunki frazeologiyaning barcha turida jismoniy harakat ma'lum ma'noda mavjud. Tadqiqotchining bu tasnifi frazeologik birliklar hosil qilishning struktur-semantik model yordamida aniqlashga bo'lgan ilk harakatlaridan biridir. Hatto D.Bazarova esa turkiy tillarning somatizmlarini taqqoslashga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlarni olib borgan⁵⁰.

⁴⁶ Bakk F. A kulturális értékekről: дис. – szte, 2013.

⁴⁷ Mordkovich E. M. Belorusskaya somaticheskaya frazeologiya: avtoref. dis.... kand. filol. nauk. 10.02. 02–yazyki narodov Rossiiskoi Federatsii Mordkovich Engelina Mikhailovna, 1971.

⁴⁸ O'sha manba

⁴⁹ Mokienko V. M. Славянская фразеология, 1980.

⁵⁰ Bazarova D. Variability of phraseological units. - Science and innovation, 2022. – Pp. 483-486.

O'zbek tilidagi somatizmlar A.Isayevning "O'zbek tilining somatik frazeologik birliklari" deb nomlangan ilmiy tadqiqotda o'rganilgan. Ushbu ilmiy ishda somatizmlar ularning sinonimi, antonimikasi, omonimiyasi va tilning kommunikativ funksiyasi nuqtai nazardan o'rganilgan. U tatar, turkman va ozarbayjon tillari materiallari bo'yicha "bosh" va "ko'z" komponentli frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilgan⁵¹.

Frazemalarni shakllantirishda inson omili juda katta o'rin egallaydi, shuning uchun ham odamga semantik yo'naltirilgan va inson faoliyatining turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p frazeologik birliklar mavjud. Frazemada ikki va undan ortiq leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Leksemalarda bo'lganidek, frazeologik birliklarning mazmun jihatida ham ikki hodisa ajratiladi: 1.lug'aviy ma'no, aniqrog'i – frazeologik ma'no; 2.baho semasi.

Frazeologik birlikning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuni frazeologik ma'no deyilishi barchamizga juda yaxshi ma'lum⁵².

"Oyoq" leksemali somatik frazeologik birliklar badiiy asarlarda ko'plab uchraydi. Quyida ushbu somatik frazeologik birliklar tavsifiga to'xtalib o'tamiz. 1. "Oyog'iga yiqilmoq" frazeologik birligiga "hokisor bo'lmoq, hokisorlik qilmoq" tarzida ta'rif beriladi. Ushbu somatik frazeologik birliklar harakat-holatni ifodalab kelib, kimdandir nimanidir o'tinib so'rash ma'nosini ifodalaydi.

Somatik frazeologik birliklarning kontseptual asosi diskursiv kontekstda ochiladi. Inson ongida somatik frazeologiyani semantik asoslari til shaxsi tomonidan inson tanasiga nisbatan talqin qilinadigan mos yozuvlar zonalarida yoki sferalarida shakllanadi. Idiomaning obrazlilikini tashkil etuvchi vaziyatning majoziy ifodasi shunday dunyoga keladi: "Frazeologik birlik shakllanishining asosi tasvir hosil qiluvchi ibora bo'lib,

⁵¹ Vaxobovna A. Z., Ikromjonovna M. D., Kamolovna X. M. ingliz tilida somatik frazeologik birliklar. – O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022, 378-384. – B.

⁵² Gadoeva M. Comparative analysis of somatism "head" in the Uzbek and English languages. – Конференции, 2020.

uning asosida avval geshtalt (sxematlashtirilgan obrazli tasvir), so'ngra idiomatik semantikaning kontseptual asosi bo'lgan, subyektiv-mantiqiy ma'no va uning konnotatsiyasini belgilaydigan strukturaviy geshtalt shakllanadi"⁵³.

ADABIYOTLAR

1. Bakk F. A kulturális értékekről: дис. – szte, 2013.2. Bazarova D. Variability of phraseological units. - Science and innovation, 2022. – Pp. 483-486.
3. Gadoeva M. Comparative analysis of somatism" head" in the Uzbek and English languages. – Конференции, 2020.
4. Mokienko V. M. Славянская фразеология, 1980.
5. Mordkovich E. M. Belorusskaya somaticheskaya frazeologiya: avtoref. dis.... kand. filol. nauk. 10.02. 02–yazyki narodov Rossiiskoi Federatsii Mordkovich Engelina Mikhailovna, 1971.
6. Vaxobovna A. Z., Ikromjonovna M. D., Kamolovna X. M. ingliz tilida somatik frazeologik birliklar. – O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022, 378-384. – B.
7. Vayntraub R. M. On somatic phraseological units in the Russian language. - Lexcal Units of the Russia Language and their Study. – 1980. – C. 51-55.
8. Беляевская Е. Г. Концептуальные основания семантики языковых единиц от лексикологии к фразеологии. - Вестник Московского государственного лингвистического университета, 2005. – С. 9-24.

INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN TIBBIY BIRLIKLARNING GENEZISI VA UZUAL MA'NOLARI

Yoriyeva Zarifa Xamroyevna,

BuxDU, Qiyosiy tilshunoslik,

lingvistik tarjimashunoslik 2- bosqich magistranti

⁵³ Беляевская Е. Г. Концептуальные основания семантики языковых единиц от лексикологии к фразеологии. - Вестник Московского государственного лингвистического университета, 2005. – С. 9-24.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tiliga ingliz tilidan o'zlashgan terminlarning nomlanish tarixi ,usual va okkazional ma'no kasb etish jarayonlari muhim manbalar asosida ilmiy nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Termin , spirt , blokada brutsellyoz, D.Bryus, gaymarit , N.Taymor, daltonizm, J.Dalton, lazer va hokazo.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi, qonun moddalarida qayd etilgan yo'l-yo'riq va vazifalar o'zbek tili taraqqiyotiga yangi davrni boshlab berdi. Til taraqqiyoti jarayonida uning o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishi qonuni to'la, erkin amal qila boshladi. Bu -o'zbek tili leksikasi taraqqiyotining bir jihati. Ikkinchi tomondan, yurtimiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o'zbek tili, xususan , uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar, yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi- iste'moldan chiqishi, so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi bilan baholanadi. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning adabiy me'yorga bo'lgan munosabatida, qo'llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o'zgarishlar yuz beradi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi. Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birliklarning atama sifatida paydo bo'lish omillari, ularni tilimizga to'la o'zlashgan holda usual va okkazional ma'no kasb etishi , lingvistik nuqtai nazardan sinxron va diaxron hosil qilish usullarini o'rganish yuqorida ko'rsatilgan muhim ehtiyoj tufayli ilmiy-nazariy va jiddiy tadqiqotni talab qiladi.

Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy atamalarni shaxsiy nazariya asosida quyidagi nisbiy guruhlarga bo'lib olamiz:

- 1.Mavjud bo'lgan kasalliklarga qo'yilgan nomlar.
- 2.Tibbiyot anjomlari va asbob-uskunalar nomlari.
- 3.Tibbiy muolajalar uchun qo'llanuvchi terminlar.

Birinchi guruhga “brutsellyoz”, “gaymorit”, “daltonizm” ,atamaları misol bo'la oladi. “Brutsellyoz” inglizcha “vchiss” so'zidan olingan (1, b:358). Brutsella mikrobinı kashf etgan ingliz vrachi D.Bryus nomidan olingan.Tibbiyotda uy hayvonlarida bo'ladigan va ularning suti, go'shti, qoni orqali odamga ham o'tadigan og'ir yuqumli kasallik hisoblanadi.O'zbek tili dialektlarida “qoraoqsoq” atamasi bilan ishlatiladi, lekin ushbu okkazional (tasodifiy) atama keng omma uchunt ushunarsiz hisoblanib , brutsellyoz atamasi ilmiy termin sifatida qabul qilingan. Badiiy asarlarda ham xuddi shunday ifodalangan .Masalan:”Bu yil tog'dan bitta yilqichi ,uchta cho'pon brutsellyoz bilan og'rib tushdi.”Gaymorit” tibbiy birligi ham ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib , “Highmore” – ingliz vrachi va anatomi N.Gaymor nomidan olingan(1,6:477).Tibbiyotda yuqori jag` bo`shlig`I shilliq pardasining ,ba`zan esa suyak devorlarining yallig`lanishi, ko`pincha grippning asorati sifatida namoyon bo`ladi.Ushbu atamaning o`rnida qo'llanuvchi termin mavjud emas. Tilshunoslikda etimologik ma'no tushunchasi mavjud.Aynan “gaymorit” tibbiy birligi leksik ma'noni tushuncha bilan bo'lgan munosabatini anglatadi .Matnda reallashadigan so'zning semantic strukturasi ko`rinuvchi uzual(aslma'no) sanaladi. Uzual ma'no umumiy xarakterga ega bo'ladi va u hamma tomondan qo'llanilaveradi. Til sohiblarining barchasi uchun bir xil tushunarli bo'ladi.“ Daltonizm” – inglizcha “Dalton ‘’ so'zidan olingan (1,6:551). Ingliz olimi J.Dalton nomidan olingan.Bu atama ranglarni ajrata olmaslik kasalligi uchun qo'llanuvchi termindir. Lingvistik nazariyaga ko'ra diaxron hosil qiladi.Genetik jihatdan kishi nomidan o'zlashgan.Ikkinchi guruh tibbiyot anjomlari va uskunalari hisoblanadi. Bu sohaga hamma uchun qiziqarli bo'lgan “Spirt” atamasini tahlilga tortamiz. “Spirt” ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birlik bo'lib “Spiritus so'zidan olingan” , “nafas” , “dam” , “jon” , “ruh” ma'nolariga teng(2,6:566). Bug'doy, kartoshka , uzum kabi serkraxmal, shirali mahsulotlardan haydash yo'li bilan hosil qilinadigan, alkogolga boy , o'tkir ta'mli, tuzsiz, yonuvchi suyuqlik.Kimyogarlar tarkibida vodorod atomi bilan kislorod atomi birikmasi bo'lgan bir guruh organic moddalarga ega suyuqlik deb izohlashadi.Tibbiyotda muolaja uchun muhim predmet hisoblanadi. O'zbek tilida “May”, “Sharob”, ”aroq”, “vino”, “konyak”, “musallas”kabi

suyuqliklar spirtli ichimliklar hisoblanib, badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Masalan: "Shu paytda odamchalar Gulliverning qo'lga ikki bochka vinoni yumalatib keltirdilar, bochkalar juda katta bo'lib har biri stakanda yedi" (3,6:16). Sharq mumtoz adabiyotida spirtli ichimliklarga nisbatan "boda", "may", "sharob" atamaları keng qo'llaniladi:

"Ey ,Navoiy, boda birlan xurram et ko'ngil uyin,

Ne uchun kim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi"(4,6:88)

"Lazer" atamasi ham ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib o'zbek tili leksikasida aynan variant mavjud emas. Ko'p hollarda "lazer jarrohligi" shaklida qo'llanadi. "Lazer"- "light of amplification by stimula – ted emission of radiation"(5,6:484), "(majburiy nurlanish oqibatida yorug'likning ko'payishi, kuchayishi) so'zlar birikmasidagi bosh harflarni qo'shish orqali hosil qilingan. Aniq uzunlikdagi to'lqinga ega, juda ensiz va kuchli taramli nur manbai bo'lgan optic kvant generator bo'lib, texnika ,aloqa, ayniqsa tibbiyotda keng qo'llanadi. So'zlashuvda va badiiy adabiyotda o'zbek tilida variant bo'lmagani sababli aynan o'ziday qo'llanadi. Ma'lum bo'lishicha, o'zini fanga baxshida etgan bu olim yarim o'tkazgichlar lazerini kashf etibdi(Gazetadan Yo.Z)

Uchinchi guruhga "Blokada" so'zini misol tariqasida tahlilga tortamiz. "Blokada" ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birlik bo'lib "qamal", "qurshamoq" ma'nolariga teng(1,6:290). Blokada so'zi polisemantik xususiyatga ega bo'lib quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: a) dushman egallab turgan hududning ayrim qismini yoki hammasini qurshab olish, qamal qilish, muhosara: urush yillaridagi uch yillik blokada Leningrad himoyachilarining irodasini sindiraolmadi (gazetadan Y.Z)

b) biror davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan yakkalab qo'yishga, uning boshqa davlatlar bilan aloqasini uzishga, qo'yilgan talablarni qabul qilishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tadbirlar tizimi. Iqtisodiy blokada ,siyosiy blokada kabi.

Nihoyat , biz uchun nazariy tahlil talab qiluvchi

c) kasallikni davolashning biror a'zo yoki sistema faoliyatini vaqtincha to'xtatishdan iborat bir usuli. O'zbek tili leksikasida bu terminning o'rnida qo'llanuvchi leksik birlik mavjud emas. Badiiy asarlarda va so'zlashuvda o'z ifodasi asosida

qo'llanadi. Demak , “blokada” tibbiy atamasi umumiy xususiyatga ega bo'lib, o'zbek tili lug'at sostaviga singib ketgan, hamma uchun tushunarli usul xususiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki:

1. Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birliklar o'zbek tili leksikasida muhim o'rin tutadi va alohida sub'ektiv ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

2. Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birliklar o'zining usul ma'nolaridan tashqari, okkazonal xususiyat kasb etish ahamiyatiga ko'ra yangi davr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti uchun muhim sabab bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlarning estetik qimmatini oshiradi.

3. Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birliklar o'zbek tilining lug'at boyligi hisoblanib , lug'atchilik fani taraqqiyotida yangi bosqichni yuzaga keltiradi. Har bir atamaning yuqorida ko'rib o'tganimizdek ,so'zlarning bosh harfi , kishi nomlari bilan bog'liq bo'lishi lingvistik nuqtai-nazardan tarixiy diaxronik va sinxronik ahamiyat kasb etadi.

4. Ingliz tilidan o'zlashgan tibbiy birliklarning chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlari natijasidan terminologiya fani taraqqiyotiga va oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida darsliklar yaratish , shu bilan birga, maxsus kurslar o'tish jarayonini tashkillashtirishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. “O'zbek tilining izohli lug'ati” 1-jild. “O'zbekiston nashriyoti” , Toshkent 2020-yil b:358, 477, 551 , 290
2. “O'zbek tilining izohlilug'ati” 3-jild , “O'zbekiston nashriyoti” , Toshkent 2020-yil, b:566
3. Jonatan Svift“Gulliverning sayohatlari” , “O'qituvchi” nashriyoti , Toshkent 2018-yil , b:16
4. Qosimov B, Jumaxo'ja N. “O'zbek adabiyoti” , “G'afur G'ulom” nashriyoti , Toshkent 2001-yil, b:88
5. “O'zbek tilining izohlilug'ati”, 2-jild , “O'zbekiston nashriyoti” Toshkent 2020-yil , b:88.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI SO'Z YASALISHI TIZIMIDA

DERIVATSIYA

Rabiyeva Mohidil G'ayratovna,

Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi f.f.f.d.(PhD)

Sattarova Adiza Salimovna,

BuxDU, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik

ta'lim yo'nalishi (ingliz tili) 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tilida so'z yasalishida derivatsion usulning xususiyatlari va gapda bajaradigan vazifalari haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu vositalarning tildan foydalanishdagi o'rnini qay darajada ekanligini ifodalab berish yuzasidan mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: derivatsiya, til, tilni rivojlantirish, qo'shimcha, faol birikmalar, so'z yasalishi

Tilshunoslikda “derivatio” lotincha “derivatio” – tayinlash, hosil qilish, boshlang'ich sifatida qabul qilingan boshqa birliklar asosida hosila deb ataladigan ba'zi til birliklarini yaratish jarayoni. Derivatsiya jarayoni tilning doimiy takomillashtirilishini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash mumkinki, derivatsiya qonunlari til va nutqning barcha birliklariga taalluqlidir. Bu esa tilshunoslar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy obyekt bo'lib kelmoqda. Til shunchaki til yaratish emas, balki tilning o'z-o'zini yaratish demakdir. Bu hodisa zamonaviy tilshunoslikda tilning ilmfandagi xususiyatlaridan biri bo'lgan “Derivatsiya” deb ataladi. Derivatsiya tilshunoslikning alohida bo'limidir. U so'z yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, so'z yasash usullari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Tor ma'noda, derivatsiya, masalan, affiksatsiya yoki so'z shakllanishi tufayli ildizning “kengayishi” kabi til birliklarini shakllantirishning oddiy jarayonlarini anglatadi. Masalan, ingliz tilida “black” va “board” so'zlarining qo'shilishidan “blackboard” yasama so'zi hosil bo'ladi.

O'zbek tilida ham chet tillaridan kirgan prefikslarning o'rni juda salmoqlikdir. Bunda so'z yasash usullari affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik usullardan iborat. So'zga so'z yasovchi affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan: do'st+lik, ser+jilo, sinf+dosh. Birdan ortiq mustaqil ma'noli so'z yoki so'z shakllarining qo'shiluvi, birikuvi orqali yangi so'z yasash kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deyiladi. Masalan: asal+ari, rahm+dil, hozir+javob. So'z yasalishi sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayondir. Biroq uning lisoniy asoslari bor. Shu sababli so'z yasalishi ham lison va nutqqa birday daxldor hodisadir. "Derivatsion morfologiya yangi so'zlarning tuzilishini tartibga soluvchi tamoyillarni o'rganadi, so'z jumlada o'ynashi mumkin bo'lgan o'ziga xos grammatik rolga ishora qilmaydi. Bu jarayon tufayli yangi so'zlarning shakllanishini ko'ramiz. har biri o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan so'zlardir". Derivatsion nazariya lingvistik kontekstda eng talabchan hisoblanadigan nazariyalardan biridir, chunki bu E. S. Kubryakovaning fikricha, tilshunoslik yo'nalishida zamonaviy rivojlanish tamoyillariga to'liq mos keladi. Tilning tabiati va nutq faoliyatini o'qitishda derivatologiya til jarayonini to'liq tushuntiradi. U bir qator nazariy muammolarni hal qilishga, inson ongini diqqat markaziga qo'yishga imkon beradi. Doimiy lingvokognitologiya, tekstologiya, nutq lingvistikasi kabi yangi tilshunoslik yo'nalishlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

So'z yasalishi an'anaviy ravishda ikki turga bo'linadi: derivatsiya (hosila) va qo'shma gap. So'z birikmalarining o'zi leksema bo'lgan bo'lsa, hosila yasashda bunday bo'lmaydi. Masalan, -ity (-lik) leksema emas, demak taxability (soliqqa tortish) hosil bo'lish holi. Income tax (daromad solig'i) so'zi qo'shma so'zdir daromad ham, soliq ham leksema bo'lgan. So'zning biror so'z turkumi yuqorida keltirgan misol kabi yasalishi so'z turkumini o'zgartirish- konvertatsiya deyiladi va hosila ostida (derivation) bo'lishi mumkin. Shu singari ingliz tilida ham prefikslar keng qo'llanadi. O'ziga xos prefikslar odatda asosiy so'zning so'z sinfini o'zgartirmaydi; ya'ni boshqa ma'noli yangi ot hosil qilish uchun otga prefiks qo'shiladi. Yordamchi qo'shimchalar esa odatda ma'noni ham, so'z turkumini ham o'zgartiradi; ya'ni fe'l yoki sifat-doshga ko'pincha

qo'shimcha qo'shilib, boshqa ma'noli yangi ot hosil qiladi: patient: outpatient group: subgroup trial: retrial adjective - dark: darkness verb - agree: agreement noun - friend: friendship. Ingliz tili so'z yasalishi tizimida sufikslar ham faol ishtirok etadi. Suffiks - bu so'z yasovchi morfema bo'lib, uning yordamida yangi so'zlar hosil bo'ladi, asl ma'no o'zgaradi yoki nutqning bir qismi boshqasiga aylanadi. Ingliz tilidagi qo'shimchalar prefikslarga qaraganda ancha keng tarqalgan va moslashuvchandir. So'z boyligini rivojlantirish va shakllantirish tilni o'rganish va takomillashtirishda muhim masala bo'lganligi sababli, biz so'z yasashning asosiy qoidalariga e'tibor berish lozim. Ularning bilimlari kelajakda lug'atsiz juda ko'p so'zlarning ma'nosini taxmin qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, har bir til rivojlanishida so'zlarning yasalishining alohida qoidalari mavjud. O'zbek va ingliz tillarida so'z yasash usullari ayrim jihatlari bilan bir-biriga o'xshasada, ularning farqli tomonlarini ham tilshunoslikda uchratiladi. Derivatsiya tushunchasi zamonaviy tilshunoslikdan tashqari turli sohalarda qo'llanilib, boshqacha ma'nolarni beradi. Ikkala tilda ham so'z yasovchi derivatsion formantlar faol qo'llanilishi orqali hosil bo'gan yasalmalar shu til lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. AZ Vakhobovna, FX Xayrulloevich. About Borrowing Phrazeological Units and their Study in Uzbek Language. International Journal of Culture and Modernity 14, 61-67.
2. Devid Kristal, "How Language works". Overlook Press, 2005.
3. Douglas Biber, Susan Conrad, and Geoffrey Leech, "Longman Student Grammar of Spoken and Written English." Longman, 2002.
4. Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion formantlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar materiali. –Toshkent, 2021. 8. Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления. Из научного наследия, М., 2001. Dilfuza Zakirovna, [27.03.2023 15:09]
5. Olimova, D. (2022). About The Mechanisms That Provide Understanding Of The Original Text While Speaking Text In Target Language: About The Mechanisms That

Provide Understanding Of The Original Text While Speaking Text In Target Language.

Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 23(23). Извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8137

6. 10.Краткий словарь когнитивных терминов / под общ. ред. Е.С. Кубряковой. –М.: МГУ, 1996. – 245 с.

7. Файзиева, Азиза Анваровна. "METAFORA TARJIMASIGA TURLI QARASHLAR: Fayziyeva Aziza Anvarovna, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti." Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 6.2. Махсус сон (2022): 36-40.

THE EFFECTIVE METHODS OF TEACHING IDIOMS TO EFL LEARNERS

Abdurakhmonova Nargiza Rakhimberdiyevna,

The second year Master's degree student in Comparative Linguistics and

Linguistic Translation at Bukhara State University

Department of Translation Studies and Linguistics

Abstract: The paper concentrates on the idea of learning idioms. The aim of the article is to elicit the main methods of teaching idioms to foreign English language learners (nonnative speakers). Much attention is given to understanding the meaning of the term «idiom», the main classifications of idioms and the sequence of learning idioms. It has been found that it is necessary to study idioms comprehensively: pronunciation, reading, meaning, usage, spelling, practice. The findings are of direct practical significance since they can be applied by a teacher in teaching idioms at the English lessons.

Key words: idioms, literary, figurative meaning, idiomatic expression, classification of teaching, method of teaching.

Uzbekistan Today, teaching methods of EFL to Uzbek students involve great attention as our aim is to bring up harmonious generation. It is the issue of great

importance to learn cultural heritages of studied foreign language to master the language. There are great attention is paid to various learning styles. Learning styles have been studied for decades and there are several models that have been proposed by various researchers. There are four basic learning styles: auditory learners, visual learners, kinesthetic learners, and tactile learners. There is a great deal of overlap between the kinesthetic and tactile learning styles, and they will be treated together here. Idiomatic expressions play great role in mastering the language. It is important to use different methods in risk of misunderstanding while teaching complicated idiomatic expressions. Interacting with students and asking different questions regarded to being learned idiom assists to teacher in teaching process thereby, eliminates misunderstanding of real meaning of idioms. One way of increasing effectiveness of English idiom teaching process is to teach idioms and idiomatic expressions in comparison with native language. Teaching English idioms comparing to native ones benefits lesson making it interesting and easy to remember. It is difficult for English native speakers to master English idioms, let alone EFL learners because the figurative meanings of English idioms cannot be predicted through an analysis of their individual word meanings. It is not surprising, “The trouble with foreigners in this country is that they take everything Americans say literally” .However, idioms are common in American daily life and provide a rich source of American culture. Teaching idiomatic expressions to EFL learning students require a number of pedagogical investigations. Non native speakers face several difficulties while gaining knowledge of foreign language . There are some of main reasons of found difficulties. Vocabulary drills, even when taught through interesting instruction, become boring for any student, especially those with limited expertise in language study. Integrating games or activities asking students to physically move help keep minds alert. Since it is vital for EFL learners to learn English idioms in order to master English, it is important for EFL teachers to design various activities for students to use with English idioms and subsequently acquire them efficiently. Moreover, students learn better when they are provided with collaborative activities because they can interact with peers and share fun in learning. Finally, when teachers

va ko'p nuqta qo'sh qo'llanganda, vergul qisqaradi); g) bir belgining o'zi (mas., undov belgisi) takrorlanadi. Tinish belgilari tuzilish jihatidan ikkiga ajraladi: Bir elementli tinish belgilari: vergul, nuqta, tire. Ko'p elementli tinish belgilari: a) ikki elementli tinish belgilari: ikki nuqta, nuqtali vergul, so'roq, undov va qavs; b) uch elementli tinish belgilari: ko'p nuqta; d) to'rt elementli tinish belgilari: qo'shtirnoq. Buni o'z mohiyatiga ko'ra "juft elementli" yoki "qo'sh elementli" tinish belgisi deb ham yuritish mumkin. Bir elementli tinish belgilari tarkibi jihatidan qismlarga ajralmaydi. Ko'p elementli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq shartli belgidan (shakldan) tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi. Masalan: ikki nuqta nuqtaning vertikal usuldagi kombinatsiyasi asosida (ikkita nuqtaning birikuvi zaminida) vujudga kelgan, ya'ni [:]; ko'p nuqta nuqtaning gorizontal usuldagi kombinatsiyasi asosida (uchta nuqtaning birikuvi zaminida) paydo bo'lgan, ya'ni [...]; nuqtali vergul nuqta va vergulning qo'shiluvi asosida tug'ilgan, ya'ni [;]. Bunda vergul va nuqta ustma-ust qo'yilgan. Qavs ham ikki elementdan iborat bo'lib, uning birinchisi "ochiluvchi qavs", ikkinchisi "yopiluvchi qavs" deb yuritiladi. "Yopiluvchi qavs" ba'zan "yarim qavs" ham deyiladi va numerativlarni bildiruvchi raqam hamda harflardan so'ng qo'llanadi. So'roq, undov va qo'shtirnoqlarning tarkibi yanada murakkabroq. So'roq belgisi ham, undov belgisi ham ikki elementdan iborat. Ma'lumki, "undov belgisi lotincha lo - undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan". Tinish belgilari, o'z vazifasiga ko'ra, uch guruhga bo'linadi: Chegaralovchi tinish belgilari. Bular yozma matndagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-uslubiy chegaralanishini ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini hamda o'rinlashuv doirasini ko'rsatadi. Bunga qo'shtirnoq, qavs (qo'sh qavs) kabi tinish belgilari kiradi. Ayiruvchi tinish belgilari. Bular yozma matnlarni yoki ularning qismlarini bir-biridan ajratish va muayyan qismning tugallanishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi: bunday ajratish logik-grammatik jihatdan bo'ladi. Bularga nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul kiradi.

Xulosa: Imlo qoidalari har tilda o'ziga xos. Yozuvdagi ba'zi qat'iy qoidalar hamma til uchun umumiydir. Shu bilan birga, O'zbek tilida ham punktogrammalarni

qo'llashning o'z asoslari va shartlari mavjud. Tinish belgilarining qo'llanishida: Gap mazmuni e'tiborga olinadi. Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov yoki so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi: Gaplar orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifodalashda ikki nuqta, tire, vergul yoki nuqtali vergul orqali ifodalanadi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar orqali ifodalanadi. Gapning grammatik qurilishi ham tinish belgilarining ishlatilishini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR

1. G'oziyev H. "O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti", O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1979
2. Yuldashev M.M. "O'zbek tilining amaliy grammatikasi "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tillar va adabiyot kafedrasini", Toshkent – 2018
3. K. Nazarov "Tinish belgilari va yozma nutq", O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent-1974
4. Jumali Shabonov, Xayrulla Hamidov "Turk tili imlo qoidasi", Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent-2010
5. Qosimova Z.S. Punktuatsiya va uning tamoyillari, Innovation in the modern education system: international scientific online conferences – New York, USA: "CESS", 2022. 107-109p
6. Abdurahmonov G'. Punktuatsiyani o'qitish metodikasi, T., 1968; Nazarov K., O'zbek tili punktuatsiyasi, T., 1976

NEMIS VA O'ZBEK MIKROMATNIDA O'TGAN ZAMONNING IFODALANISH USULLARI

Ro'ziyev Yarash Bozorovich,

BuxDU Filologiya fanlari falsafa doktori,(PhD),

Halimova Shohista Sharipovna,

BuxDU, Lingvistika: nemis tili. 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi." - deydi o'zlarining ma'ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O'zbekistonning har bir yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo'lmagan, dunyo ta'lim standartlari darajasiga to'liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo'lishi shart va bunga jon-jahdimiz bilan kirishishimiz kerak. Nemis va o'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Jumladan o'tgan zamonning mikromatnlarda ifodalanish usullari turlicha bo'lib, ushbu maqolada aynan shu tamoyillarga e'tibor qaratiladi va har ikkala tildagi mikromatnda o'tgan zamonning qo'llanilishi o'zaro chog'ishtiriladi.

Kalit so'zlar: mikromatn, shaxsning atributiv belgisi, til subyekti, so'z- gaplar

Kirish: Bilamizki, fe'l orqali ifodalangan harakatning zamon ma'nosi fe'l so'z turkumining turli grammatik shakllari orqali ifodalanadi. Fe'l zamon shakllari, ularning gapda ifodalanish tamoyillari xususida hozirda turli qarashlar mavjud.

Mikro va makro matnda zamon shakllari qo'llanganda undagi shakl va xususiyatlar o'zgarib, ma'lum bir zamon ma'nosi boshqa bir zamon ma'nosini ifodalab kelishi mumkin.

Asosiy qism: Odatda nemis tilidagi preterit zamoni hikoya zamoni sanalib, badiiy tasvirlash uchun preterital shakllar qo'llanadi va bunda qisman tarixiy prezengsa murojaat etiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa bo'lib o'tgan voqea – hodisalarni ktobxon ko'z o'ngida yanada jonlantirish sanaladi. Bunday hollarda preterital shakllar o'tgan zamon ma'nosiga ega bo'lmay, aksincha ular tasavvuriy hozirgi epik zamoni ifodalaydi. Preteritning o'zi xabar, ya'ni badiiy tasvir paytidan oldin sodir bo'lgan voqea – hodisalarni ifodalaydi. Bu voqea- hodisalar muallifga ham, o'quvchiga ham real bo'ladi.

Shuningdek hozirgi zamon ham o'tgan zamon ma'nosida kela oladi:

M: Am 5. September 1823 rollt ein Reisewagen langsam die Landsstrasse von Karlsbad gegen Eger zu....In der Kalesche sitzen drei Männer ,der grossheryoglich sachsen – weimarische Geheimrat . Goethe und die beiden Getreuen²

To'rt holat fe'li – yot, tur, o'tir, yur fe'llariga qo'shilganda ham shakl ushbu ma'no bilan bo'ladi. Bu, albatta, fe'lning lug'aviy ma'nosiga bog'liq holda yuz beradi. [-yotgan] shaklining ma'noviy mohiyati davomiy harakatni narsa shaxsning atributiv belgisi sifatida berishdan iboratdir.

Misollar: Nay ovozi kelayotgan tepaning oldiga yetdim. (S.Ayn).³

Barcha tillarda fe'l murakkab kategoriyalarga boy so'z turkumi hisoblanadi. Fe'llarning grammatik kategoriyalari fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik shakllarini o'zaro qarama-qarshi qo'yish vositasida ifodalanadi. Grammatik zamon kategoriyasi tillarda eng ko'p tarqalgan fe'l kategoriyalaridan biridir. Fe'lning zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq sodir bo'lishi paytiga nisbatan amalga oshishini ko'rsatadi.

Nazariy jihatdan bu kategoriya gapirilayotgan paytda, gapirilayotgan paytdan oldin, gapirilayotgan paytdan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi.

Ko'pchilik tillarda zamon grammatik kategoriyasi ana shu uch xususiy ma'nodan tashkil topgan.

O'zbek tilida fe'lning o'tgan zamon shakllari asosan **-di** (o'qidim, o'qiding, o'qidi).– **gan** (o'qiganman, o'qigansan, o'qigan) – **(i)b** (o'qibman, o'qibsan, o'qibdi) affikslari, **edi** to'liqsiz fe'li (o'qib edim, o'qib eding, o'qib edi, o'qigan edim, o'qigan eding, o'qigan edi) orqali hosil qilinadi.

Agarda biz nemis va o'zbek mikromatnlarini bir – biriga qiyoslagan holda tahlil qilsak, o'zbek tilining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri sanalmish nihoyatda tejamkor til ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv – quv yo'talaman. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi... (Dunyoning ishlari, O'. Hoshimov)⁴

Ich erinnere mich nicht mehr daran, wie alt ich damals war, jedenfalls war ich noch sehr klein. Eines kalten Wintertages rutschte ich lange mit meinen Brudern auf dem gefrorenen Teich dahin und schwitzte ausgiebig.

Ushbu misollarda ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilida bayon etilgan ma'noni nemis tiliga tarjima qilishda tarjimon kitobxon ko'z o'ngida badiiy tasvirni yanada jonlantirish maqsadida bir nechta ergash gaplardan foydalangan.

Xulosa: Xulosa o'rnida aytish joizki, nemis tilshunosligida o'zbek tilshunosligidan farqli o'laroq gap tuzilish strukturasi jihatdan anchagina noo'xshashliklarni uchratishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligida gap haqida fikr yuritganimizda „so'z gaplar“ degan jumлага duch kelamiz ya'ni bitta so'zdan iborat gaplar ham mavjud. Bunday gaplar asosan matnda muayyanlashadi. Shuningdek har ikkala tildagi mikromatnlardagi gaplarda foydalanilgan o'tgan zamon shakllari turli zamonlarni ifodalab keladi va bundan ko'zlangan asosiy maqsad voqea – hodisalarning badiiy bo'yoqdorligini oshirishdan iboratdir.

ADABIYOT

1. Nazariy manbalar:

2. A.X. Tursunov, Z.Z. Tursunov, M.M. Tojixojayev. Lingvistika (nemis tili) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun mutaxassislik fanlaridan DASTUR, Namangan 2021

3. Y. B. Ro'ziyev: Nemis tili zamon shakllaritranspozitsiyasining pragmatistik xususiyatlari. Toshkent 2019

4. Sh. O. Kuvanova . Nemis tili grammatikasi dan universal qo'llanma. Toshkent Akademiashr 2013

4. O'. Hoshimov. Dunyoning ishlari. Toshkent : Yangi asr avlodi 2018

5. O. Ostanov . Ubersetzung: Kein Himmel auf Erden , Taschkent : Akademiashr

6. Sh. Karimov. Nemis adabiyoti tarixi. Toshkent 2010

7 S. Saidov. Deutsche Grammatik in Übungen. Toshkent : O'zbekiston 2003

8 Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

Internet manbalari:

1. [http:// www. Ziyonet. O'zbekiston internet armog'i](http://www.Ziyonet.O'zbekistoninternetarmog'i)

O'ZBEK TILIDA SHAXS MAYDONINING IFODALANISH USULLARI

Jumayev Erkin

Boltayevich,

BuxDU f.f.f.d. PhD

Nurullayeva Gulshana

Xayrullayevna,

BuxDU, Lingvistika: nemis tili. magistranti

Annotatsiya: Har bir til “Til”ga aylanishi uchun bir necha ko'plab tarixiy davrlarni bosib o'tgan va yillar osha til me'yorlari vujudga kelgan. O'zbek tili ham shunday bosqichlardan pag'onalarda ko'tarilib sayqallangan. Shaxs ish harakatning so'zlovchi tomonidan uning bajaruvchisiga tegishli ekanligini bildiruvchi o'zaro qarama-qarshi shakllar tizimidan iborat grammatik kategoriya yoki morfologik ko'rsatkichdir. Ushbu maqolada o'zbek tilida shaxsning ifodalanishi haqida fikrlarimizni misollarga tayangan holda bayon etishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: shaxs maydoni, morfologik ega, lug'aviy ega, so'zlovchi, tinglovchi, lisoniy, kommunikatsiya, nutqiy amal, tejamkorlik xususiyati

Kirish: O'zbek tilshunosligi o'zining tejamkorlik xususiyati bilan boshqa tillardan, xususan hind-yevropa til oilalaridan farq qiladi. O'zbek tilshunosligida ega so'z, so'z birikmasi, iboralar yordamida ifodalaniladi degan fikrlar ilgari suriladi. Ona tilimizda gap haqida fikr yuritganimizda „so'z gaplar“ degan jumlagacha duch kelamiz ya'ni bitta so'zdan iborat gaplar ham mavjud. Bunday gaplar asosan matnda muayyanlashadi. So'z gaplarning yana bir sintaktik xususiyati ularning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, ya'ni boshqa gap bo'laklari bilan bog'lanmasligidir va yakka o'zi gapsifatida „yashay olishi“, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Chunonchi: Yengil tortdingizmi, qizim? – Shukur. (Abdulla Qahhor). Ko'rinadiki, so'z – gaplarning umumiy sintaktik xususiyati ular kesimlilik qo'shimchalarini qabul qilmagan holda ham gap va uning markazini tuza olishidadir.

Asosiy qism: Tilshunos G'.Zikrillayevning fikricha, fe'ning shaxsni ifodalagan shakli ham subye'ktni, ham uning kesimlik belgisini bildiradi.

F.Safarovning fikrlarida ham bunga yana bir bora amin bo'lamiz. Uning fikriga ko'ra o'zbek tilida qo'shimcha bilan ifodalanadigan ya'ni *morfologik ega* ham borligini e'tirof etib, o'zbek tilida ifodalanish usuli bo'yicha egani ikki turga ajratgan:

1. Morfologik ega ,masalan *izla* deganda II-shaxs birlik ma'nosini bildiruvchi ega ya'ni **sen** nazarda tutiladi. Yoki *o'qituvchimiz* deganda I-shaxs ko'plik ma'nosi anglashiladi.

2. Lug'aviy ega esa so'z, so'z birikmasi va iboralar bilan ifodalanishidir. Masalan: **Qor yog'di. U keldi. Qo'ng'iroq chalindi. Dars boshlandi. Talaba gapirdi. Biz boramiz. Sen sotasan.** ¹

So'zlarning grammatik ma'nolarini ifodalovchi maxsus til vositalari qatoriga kiruvchi kelishik, son, egalik, shaxs, mayllarni ifodalovchi qo'shimchalar kiradi. Shulardan shaxs, son qo'shimchalari Grammatik vositalarisiz aniqlab bo'lmaydi. Masalan, *ko'ylak, ko'ylakni, ko'ylakga,.....ruchka, ruchkaga, ruchkani,so'zlarining o'zi tugallangan fikr anglatmaydi. Ularga Grammatik shaxs, son, zamon qo'shimchalarini qo'shsak, tugallangan fikrni bildiradi. Masalan, Ko'ylakni oldim, ko'ylakni ko'rdim,ruchkamga tegma, ruchkangni ol,.... Oldim so'zidagi –m I-shaxs yasovchi morfologik qo'shimcha hisoblanadi. Tegma so'zidagi –ma esa II-shaxs yasovchi morfologik vositadir.*

Shaxs-ish-harakatning so'zlovchi nuqtai-nazaridan unung bajaruvchisiga aloqadorligini ifodalovchi, o'zaro qarama-qarshi shakllar tizimidan iborat Grammatik katagoriya, morfologik ko'rsatgichdir. Shaxs shakllari ish-harakatning so'zlovchiga(1-shaxs), tinglovchiga(2-shaxs), va suhbatda ishtirok etmagan o'zga shaxsga(3-shaxs) qarashlilikini bildiradi. Harakat obyektining shaxsi ko'p tillarda, jumladan, turkiy tillarda asosan fe'l orqali ifodalanadi.

Masalan: *ko'rdim, ko'rganman-* 1-shaxs; *ko'rding, ko'rgansan-*2-shaxs; *ko'rdi,ko'rgan-*3-shaxs shakllaridir. Nemis tilida esa shaxsni ifodalovchi vositalar sifatida shaxs kategoriyasi fe'lning boshqa kategoriyalari(mayl, zamon va nisbat) bilan paradigmatic va funksional munosabatlar orqali bog'lanadi. Ayniqsa shaxs kategoriyasini son kategoriyasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni

birgalikda nomlab, shaxs-son kategoriyasi, ushbu ma'noni ifodalovchi shakllar esa, shaxs-son qo'shimchalari deb ataladi. Shaxs tushunchasi muayyan leksemalar bilan kishilik olmoshlari tizimida, maxsus affiksial morfemalar (egalik qo'shimchalari) yordamida otlarda ham ifodalanishi mumkin. Bunda kishilik olmoshlari (men, sen, u, biz, siz, ular) bajaruvchi shaxslarni, egalik qo'shimchalari esa (kitobim, kitobing, kitobi) biror narsa buyumning qaysi biriga qarashli ekanligini bildiradi.

I-shaxs shakllarining morfologik vositalari: *-man, -miz, -m, -k, -(a)y va -(a)ylik* yordamida yasaladi. Masalan: *boraman, boramiz, bordim, boray, boraylik. Toshkentda bir ro'zg'orga yetadigan yukim bor. Olib kelsam degandim.....Siz qatori, qo'ni-qo'shnilaringiz qatori yashamoqchiman.* (Said Ahmad "Jimjitlik" 72-bet). *Shunaqa gaplardan qachon qutulamiz.* (A.Qahhor "Sinchalak")

II-shaxs shakllarining morfologik vositalari: *-san, -sanlar, -siz, -sizlar, -ng, -ngiz, -nglar, -ngizlar, -laring, -laringiz, -(i)sh, -(i)ng, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar* bilan hosil bo'ladi. *O'zing bilasan. Qarishing bor. Issiq-sovug'ing bor, yotish-turishing bor. Yoningda bittagina hamdaming bo'lsin degandim-da, yana o'zing bilasan. Zerikib qolyapsan, bolam. Ermakka bo'lsa ham biron ishning boshini tutsang bo'lardi. Bu joyga o'zlaringiz sig'may qolibsiz².* (Said Ahmad "Jimjitlik" 72-bet). *"Meni savdoyi dadang bilan tashlab ketasanmi³, deb yig'ladi, degan xayolga bordi.* (A.Qahhor "Sinchalak" 14-bet).

III shaxsda esa aniq va ma'lum qo'shimchalarni ayta olmaymiz. Mayl va zamon qo'shimchalari ayni paytda shaxs ko'rsatkichi vazifasini bajaradi. Masalan: **-di** qo'shimchasi xabar maylining o'tgan zamon ko'rsatkichi bo'lishidan tashqari III-shaxsni ham ko'rsatadi. *Ammo Mirvalining sabri chidamay, kampir yo'g'ida sandiq titib, soatni olar, uch- to'rt kun bolalarga maqtanib yurardi.* (Said Ahmad "Jimjitlik" 24-bet). **-sin** qo'shimchasi buyruq yoki istak bilan birga III-shaxsni ham ifoda etadi.

Tolibjon bo'layotgan ishlarni bilib ba'zan tajang, ba'zan isyonkor tabiatini kuch bilan bosib yurardi. (Said Ahmad "Jimjitlik" 11-bet).

Sen-u men o'z toshimizga bir botmon bo'lib yuribmiz-da, buning toshi bilan tortilsak, posangiga yaramaymiz. (A.Qahhor "Sinchalak" 16-bet).

Ustoz G'.Zikrillayevning ta'kidlashlaricha hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l turkumida shaxs, son, va hurmat ma'nolari bir xil shakl tizimi bilan ifodalanadi. Bunda shaxs yetakchi va asosiy hisoblanadi. An'anaviy tilshunoslikda u barcha tadqiqotda olib qaraladi. Son aksariyat ishda shaxs bilan uzviy bog'langan deb chiziqcha qo'yib (shaxs-son tarzida) yoziladi. Hurmat kategorial ma'no deb qaralmaganidan shakllari izchil o'rganilmagan. Holbuki eng kichik shakl (fe'lning o'zagi) da uchala kategorial ma'no mayl va zamon bilan birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday holda tejamkorlik yuqoridarajada zarur bo'ladi. Ayrim yasama shaklda ham beshala kategoriya bitta qo'shimcha (masalan –di) orqali ifodalanadi. Uchala kategorial ma'noni birgalikda ifodalaydigan qo'shimcha tizimi ham mavjud.

Shaxs ma'nosi mazkur shakllarning barchasida belgilangan bo'lib, predikativlikni (kesimlilik) shakllantirishda zarur unsuri sifatida ishtirok etadi. Shaxs fe'l o'zagining lug'aviy ma'nosiga ko'ra inson va boshqa jonli, jonsiz mavjudotni anglatadi. Bu uning lisoniy xususiyatidir. Nutqiy amal (nutq akti) yoki kommunikatsiya jarayonida fe'lning mazkur shakllari *so'zlovchi, tinglovchi va o'zga* vazifasini bajaradi. Bular grammatikada I, II, III shaxs deb yuritiladi. Fe'l shakllarining morfologik tasnifi shu asosda amalgam oshiriladi. Mayl va zamon kategoriyasida ham bu tasnif inobatga olinadi (II- shaxsdagi buyruq mayli shakli kabi).

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak shaxs, son va hurmat shakllari aniqrog'i qo'shimchalarining morfologik xususiyatini turli nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Jumladan ularning so'z tarkibida boshqa morfemalarga nisbatan qo'llanadigan o'rnini aniqlash ya'ni distributiv tahlil qilish yoki tuslanishli shakllarni hosil qilishdagi o'ziga xosliklari jihatidan olib qarash mumkin. Bundan tashqari mazkur shakllarning tuzilishi, tarkibi, shaxs, son va hurmat qo'shimchasiga ajralish-ajralmasligi nuqtai nazardan ham o'rgansa bo'ladi. Maqsadimiz shaxs, son va hurmat shakllarining morfologik xususiyatini atroflicha bayon qilish bo'lmaganidan bu haqda qisqa ma'lumot berish bilan chegaralanamiz. Asosiy diqqat - e'tiborni shaxs, son va hurmat shakllarining mazmuni, ma'nolari va qo'llanilish tahliliga

qaratamiz. Boshqacha aytganda, lisoniy ya'ni paradigmatic xususiyati va uning kontekst ta'sirida o'zgarishi o'rganiladi.

ADABIYOTLAR

1. A.X. Tursunov, Z.Z.Tursunov, M.M.Tojixo'jayev : Lingvistika(nemis tili) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun mutaxassislik fanlaridan DASTUR, Namangan-2021
2. Said Ahmad "Jimjitlik", "Sano Standart" nashriyoti, Toshkent- 2016
3. Y. Ro'ziyev : Nemis tili zamon shakllarining publisistik matnlarda pragmatik maqsadda qo'llanilishi, BuxDU- 2020
4. Said Ahmad "Jimjitlik", "Sano Standart" nashriyoti, Toshkent- 2016
5. Г.Зикриллаев "Рух ва тил" Фан нашрийоти. Тошкент-2018

Internet manbalar:

1. [http:// www. Ziyonet](http://www.Ziyonet) – O'zbekiston internet tarmog'i
2. [http:// www. Google. De](http://www.Google.De)
3. [http:// www. Librarybooks.ne](http://www.Librarybooks.ne)
4. [www. Lehrer-online.de](http://www.Lehrer-online.de)
5. [www. Fachdidaktik – ienecke. De](http://www.Fachdidaktik-ienecke.De)
6. [www. Paperball. De](http://www.Paperball.De)

JURNALISTIKA

JINOYAT OLAMIGA KIRIB QOLGAN O'SMIRLAR MAVZUSINING MATBUOTDA YORITILISHI

Berdiyeva Sevinch Aliddin qizi,

BuxDU Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada jinoyat olamiga kirib qolgan o'smirlar mavzusining matbuotda yoritilishi, uning tartiblari hamda bu singari materiallarning yoshlarning jamiyatda kim bo'lib yetishiga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jurnalistika, jinoyat olami, o'smirlar, OAV, kelajak, realistik, axborot, ijtimoiy, media, OAV

Hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi. **(Tohir Malik)**

O'zbekiston hududida qariyb 36 million aholi istiqomat qiladi. Bularning 70% ni esa yoshlar tashkil qiladi. Aynan shu ko'rsatkich dunyohamjamiyatida mamlakat nufuzini oshirib uning kelajak istiqbollarini rivojlantiradi. Axir, porloq kelajakli mamalakatni yoshlar qurishi sir emas. Ammo bunda har bir yosh ham bunyodkor bo'lavermaydi. Uning yaratuvchi va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda jamiyat va xalqning o'rni katta. "Bir bolaga yetti mahalla ko'y" degan naql bejiz emas, axir. Lekin bugungi 3-rensans arafasida bo'lgan o'lka bag'rida yoshlarning sog'lom fikrli bo'lib yetishib chiqish ko'rsatkichida bir qancha pasayishlar bo'layotgani achinarli. Ayniqsa, yoshlarning jinoyat olamida ishtiroklari ko'rsatkichi ortib borayotgani xavotirlidir. O'smir yoki yoshlar o'zi bilib, bilmay jinoyat yo'lga kirishi mumkin ammo bu uning jinoyatchilik faoliyatini davom ettirmaydi. Aksincha, yangi hayot ilinji bilan chiqqan shaxsga nisbatan jamiyatning "qo'i bilan ko'rsatishishi" uni qayta bu yo'lga boshlashi va bu olamning doimiy odami bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Biz buni Tohir Malik va Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlarida misolida ko'rishimiz mumkin. Xato qilib qo'ygan o'smirda nisbatan qanday munosabatda bo'lishni ommaga tushuntirish orqali bu turdagi yoshlarga nisbatan munosabatni o'zgartirsa bo'ladi. Bu borada qat'iy targ'ibot harakatlari darkor. Adabiyot va OAV esa bu ishni amalga oshirish uchun eng qulay vositalardan biridir. Lekin bugun kundagi o'zbek adabiyotida bunday ishni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratilmagan. Adabiyot borasida o'smirlarning jinoyatchilikka kirishini oldini olishga, ularga bo'lgan ayovsiz munosabatga chek qo'yishga qaratilgan hech bo'lmaganda bir qancha asarlar bo'lib, ular xalqqa bolaning psixologik holatini ochib berish, uning bunday taqdiri sabab - oqibatlarini atroflicha ochib berish orqali insonlarning jinoyat olamiga kirib qolgan yoshlariga nisbatan munosabatini o'zgartirishiga sabab bo'ladi. Masalan Tohir Malikni "Alvido bolalik" asar shular jumlasidandir. Asar qahramonlari – Asror, Qamariddin, Salim, Dilfuza, Sanjar kabi yoshlar. Ularning hayot yo'li, o'tmishi, voyaga yetgan muhiti, yashash tarzi, qiziqishlari, orzu-umidlari, dard-u armonlari turlicha. Biroq ularni birlashtirib turgan

yagona narsa bor – bu ham bo'lsa hayotda kimdandir yoki nimadandir alamzadalik. Ana shu alamzadalik bu yoshlarning hayotini zaharlashga, noto'g'ri qadam bosishlariga sabab bo'lgan birinchi omildir. Asar kitobxonning qalbidan joy olib, mavzu ko'lamida taassurot uyg'ota olishi bilan ahamiyatli va muvafaqqiyatga erishgan. Asarda odamlarning xunuk va aqlsiz oqibatlari natijasida yoshlarning ruhiyati va hissiyotlarning batafsil ochib berishi bilan mavzu borasida oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olgan. Yoki Xudoyberdi To'xtaboyevning "Mungli ko'zlar" asari. Ushbu asar ham jinoyatchilik olamiga kirib qolgan yosh yigitning dunyosi haqidagi bayonlardan tashkil topgan. Bu asarni tahlil qiladigan bo'lsa, u mamlakatda huquqbuzarlik olamining vujudga kelishi sabablarini mutlaqo ochib bergandir. Oddiygina otasi korrupsiya bilan onasi esa harom dallollik bilan boylik orttirgan yosh yigitning taqdiri haqida so'z boradi. Asar so'ngida turli xil yog'inlar hosil qilish, qo'pol muomilaga layoqatli bo'lib qolgan bu bolaning bu holatga kelishi asar boshidan keng holda kitobxonga ochiqdan, asar oxirida garchi shunday hunrezliklarga qo'lgan urgan bo'lsa-da, ushbu bolakayga nisbatan achinish munosabatida bo'lishga undaydi. Adabiyot o'zining shu singari kuchli psixologik kechinmalar bilan yog'irilgan asarlari orqali ommani bu mavzudagi yoshlarga nisbatan tushunish ruhida bo'lishga undaydi. Lekin butun boshli xalq uchun buning o'ziga kamlik qiladi. Chunki agar o'lkada kitob mutolaasiga tutingan fuqorolarning ko'rsatkichi 40 % ga yaqinni tashkil qilsa, yangilik o'qib, OAVni kuzatadigan aholining deyarli barchada uyda televizor bor (98.13%). Shuningdek, eng ko'p qatnashchilar (88.58%) uyali telefoniga ega. Respondentlarning yarmi bor smartfonlar (53.6%), kompyuterlar / noutbuklar (34.53%). Uydagi respondentlarning 41,46 shaxsiy, oilaviy kutubxona oddiy (qog'oz) kitoblari mavjud. Bu o'z o'zidan jamiyatda to'rtinchi hokimiyat tarzda shaklangan matbuot va axborot kommunikatsiyalarning ta'sir dorasini belgilab beradi.

Bugungi zamonda esa ommaviy axborot vositalarida jinoyatchining shaxsini shakllantirishga yordam beradigan va jinoyatchilikning ko'payishiga olib keladigan jinoyatlarni keltirib chiqaradigan omillarni tahlil qilish juda kam uchraydi. Zamonaviy Internet-ommaviy axborot vositalarining jinoyatchilik muammolari bo'yicha yetarli

miqdordagi nashrlarga qaramay, ularning aksariyati mualliflarning qobiliyatsizligi va maxsus bilimlarning yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Ushbu salbiy hodisaning mohiyatiga sayoz kirib borishi bilan ajralib turadi. Bu turdagi kamchilik yurtimiz nashrlari, TV va radiolari faoliyatida ham faol ravishda kuzatilmoqda.

Birgina faol kuzatiladigan TV faoliyatiga e'tibor beraylik. O'zbekiston hududidagi ko'plab kanallarda jinoyatchilikka kirgan o'smirlar mavzuni ommabop tarzda yoritiladi. Bu mavzu doirasida qator ko'rsatuvlar va lavhalar tayyorlanadi. Lekin bularning barchasi ham xato qilib qo'ygan o'smirlarning holatini ochiq oydin yoritib bera olamydi. Natijada esa ommaning o'smirlarning bunday xatti-hakaratlari borasida noto'g'ri xulosa yuzaga kelishi, ular qayta hayotga qaytganda yod nazar bilan qarash holatlari kuzatiladi. Shu bilan bir, shunday lavhalar va maqolalar yoki nashrlar mavjudki, ulardagi jinoyatchilikda o'smirlarning ishtiroki batafsil bayon qilinadi. Hamda nojoya qarashlarni oldini olish uchun sabab bo'ladi. Bugungi kunda republikaning Ichki ishlar vazirligi "POSTDA" nashri shular jumlasidandir. Ushbu nashr 2021-yildan 2023-yil yanvar oyiga qadar bosmadan chiqqan sonlari mobaynidagi ko'plab shu singari maqolalarda shuni kuzatish mumkin. Ammo O'zbekiston teleradiokompaniyasining "Bir jinoyat izidan", Miliy telekanali tomonidan eirga uzatiladigan "Millar" information dasturi va Zo'r TV kanalida uzatiladigan "JInoyat iz", "25 – soat" ko'rsatuvlari hozrida ommaga o'smirlarning huquqbuzarliklarini "kechililmas" xato tarzda talqin qilishiga va ularning yana jinoyatchilikka kirib qolishiga saba bo'lmoqda.

Masalan, o'smir qizning huquqbuzalikni amalga oshirish orqali ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan qamalgani. 2023-yilning 20-fevralida OAV telekanallarida xususan, Zo'r TV "Bu kun", Sevimli TV "Zamon" yangiliklar dasturida yoritilgan bu lavha ushbu qizga nisbatan barchaning nafratini uyg'ondi. Bu kanallarda e'lon qilingan ushbu yangilikning sarlavhasini o'ziyoq qizga nisbatan ayovsiz munosabat shakllanshiga sabab bo'lmoqda. (Zo'r TV "23-yoshli qizni panjara ortiga yetaklagan janjal) Yoki Milliy TV "Millar" dasturidagi 21 yoshli yigit 4 kishini pichoqladi", "Vahshiy o'quvchilar" shular jumlasidandir. OAVlarda o'smirlaning jinoyatchilkdagi ishtorki borasidagi xabarlar, lavhalar nihoyatda sayoz va hssiyotlarga berilgan holda

yoritilmoqda. Bu ommaning ushbu turdagi yoshlarga nisbatan kechirilmas munosabatda bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu singari munosabatlar esa yangi umid ilinji bilan orqagan qaytgan yoshning dunyo va jamiyatdan uzilib qolishi va qayta jinoyatchilikka moyillig oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Tohir Malik, “Alvido bolalik” qissa, “Sharq” nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. T.:2016
2. Markaziy Osiyo davlatlarida OAVlarni iste'mol qilish va OAV axborot savodliligi bo'yicha ijtimoiy tadqiqotlar. O'zbekiston. 4141/80.:USAID, internews, m'vector
3. Xudoyberdi To'xtaboyev “Mungli ko'zlar”
4. <https://lektsii.org/15-5460.html> -
5. Ichki ishlar vazirligi “Postda” gazetasi 2020-2023-yil soni
- 6.

O'ZBEK OAVDA MULTIMEDIAVIY JANRLARNING TARAQQIY TOPISHI (LONGRID MISOLIDA)

*Malikova Go'zal Tursunpo'latovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi,
Askarova Mohichehra,*

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda o'zbek OAVda rivojlanib borayotgan yangicha janr – longrid kabi multimedaviy janrlarning paydo bo'lishi va taraqqiy topishi xususida so'z yuritiladi. Ularning internet jurnalistikada tutgan o'rni haqida alohida to'xtaniladi. Aniq misollar orqali janrlarning o'ziga xosliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: axborot, longrid, uslub, janr, multimedaviy, parda-effekt, Internet.

Ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildirish axborot oqimida yashayotgan har bir shaxs uchun tabiiy hol. Filologiya fanlari doktori Xurshid Do'stmuhammad aytganidek, "Dunyo axborot ichida yashaydi, dunyo axborot ummonida

mavjud. Dunyo axborotdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Zero, axborotning borligi - dunyoning borligi, axborotning yo'qligi-dunyoning ham yo'qligi demakdir”[1].

Janrlarni mazmun-mohiyatiga qarab tasniflash XX asrning 60-yillaridan boshlangan. Bugungi kunda esa ular yetkazib berish vositalari (televideniye, gazeta, internet, radio) ga ko'ra ham ixtisoslashmoqda. Odatda gazetalarda xabarlar, tahliliy maqolalar, hisobot va reportajlar asosiy o'rin tutadi. Televideniya esa televizion lavhalar, ko'rsatuvlar yetakchi. Internet tarmog'ida tezkor va qisqa hajmdagi janrlardan foydalanishadi. Doimo takroriylikdan foydalanish auditoriya sonining tushib ketishiga olib keladi. Sir emaski, gazetarimiz deyarli o'lib bo'ldi. Televideniya esa tomoshabini ko'p bo'lgan kanallar sanoqli. Internet tarmog'i barchasini ortda qoldirib boryapti. Asosiy sabab nima bo'lishi mumkin? Albatta, auditoriya istagan mavzuda (sarlavha ham alohida shov-shuvli, jalb etadigan tarzda tanlanmoqda), hajmda va shaklda berish imkoniyati Internetda kuchli. G'arb jurnalistikasi mana shu mezonlarni inobatga olgan holda allaqachon peshqadamlikni qo'lga olgan. Ularda konvergent jurnalistikaning asosiy ko'rinishlari mavjud. Matn, ovoz va tasvirning bir kontentda mavjudligi foydalanuvchi uchun qiziq. Keling, fikrimizni quyida isbotlasak.

Sir emaski, azal-azaldan axborot faol muloqot jarayonida shakllanadi, qabul qilinadi va uzatiladi. Ammo jamiyat a'zolariga axborotlarni qay yo'sin va shaklda yetkazib berish har bir jurnalistning tajribasi, ijodkorligi va professionalligiga bog'liq. Shuning bilan birga fanga kirib kelayotgan yangicha yondashuv va janrlarga ham bog'liq. G'arbda “longread” (ingliz tilidan olingan, “uzoq o'qish” degan ma'noni anglatadi) nomi bilan allaqachon mashhurlikka erishgan longrid atamasi bugun o'zbek jurnalistikasida ham bo'y ko'rsatayotgani quvonarli hol. Sababi uzun matnlardan tez zerikadigan, ularni oxirigacha o'qishga sabri chidamaydigan, umuman olganda qisqa, aniq va lo'ndalikni talab etuvchi bugungi axborot dunyosi uchun ushbu janr ayni muddao. Sababi unda tahlilni ham matn, ham ovoz, ham tasvir bilan berish imkoniyati bor. Kezi kelganda, infografik ma'lumotlardan ham o'rinli foydalanish mumkin.

Ommaviy axborot vositalarida ilk Longrid 2012-yil oxirida “The New York Times” gazetasi saytida “Snowfall: The Avalance at Tunnel Creek” (“Qoryog'ishi: Krik

tunnelidagi ko'chki”) sarlavhasi ostida chop etilgan. Mazkur multimediyaviy material ilgari tahririyat tayyorlangan jurnalistik ishlardan tubdan farq qilar edi. Ahamiyatlisi, ushbu material uchun alohida veb-sahifa ochilib, so'ng u chop etiladi[2]. Unda bir guruh Amerikalik chang'ichilarning AQSHdagi Kaskad tog'lariga borib, ko'chkining guvohi bo'lishgani, ko'chki sababli bir nechta odam vafot etgani yoritiladi.

Materialning o'ziga xosligi tanlangan mavzuda emas, balki, axborotni taqdim etishning boshqacha usulida edi. Uning asosini uzun matn tashkil etib (16,000dan ortiq so'z) kerakli joylarida multimediyaviy elementlar (foto galereyalar, video, audio, grafikalar va boshqa) bilan taqdim etilgan. Matn juda yaxshi joylashtirilgan. Axborotning ta'sirchanligini to'g'ri o'rinlarda qo'llangan audio yoki grafika oshirib bergan. O'quvchida boshqa turdagi medianing kuchini his qilish imkoniyati bo'ladi. Materialning arxitekturasiga alohida e'tibor qaratilgan. U nafaqat alohida veb-sahifada paydo bo'ldi, balki yaxlit bir multimediyaviy kompozitsiyani tashkil qildi. Asosiy element matn bo'lsa, multimediyaviy qo'shimchalar turli tezlik bilan harakatlanib, “parda effekti” (ing. tilidan curtain effect), yoki parallaks-effekt orqali o'uvchining ko'ziga katta hajmni o'xshatib berish orqali taassurotlarni yetkazish, hissiyotlarni jalb qilish va shu yerda mavjudlik hissini uyg'otishga xizmat qiladi. Shu vaqtgacha bunday effektlar video-o'yinlar va taqdimotlarda qo'llanilgan. Ommaviy axborot vositalariga bunday texnikani qo'llagan birinchi nashr The New York Times bo'ldi. [3]. Mazkur ish, ya'ni “Snowfall” bir necha oy ichida 3.5 milliondan ortiq foydalanuvchi tomonidan ko'riladi. Demak, auditoriya uchun axborotni noodatiy, yangicha yo'sinda berish qiziq bo'lgan, e'tiborni tortgan. Ammo o'sha paytda buni tanqid qiluvchilar ham topilgan. Hajm juda katta, kuzatuvchilar faqatgina maxsus effektlarga qiziqishgan deya o'ylovchilar ham topilgan. Biroq qanday bo'lmasin axborotni bus-butunligicha auditoriyaga yetkazishni eplashgan. Shuning o'zi e'tiborga molik.

Xo'sh, bugun bizning o'zbek jurnalistikada ham bu tur materilallar uchraydimi? Albatta, bor. Afsuski, hali juda oz.

Longridda muallif bor voqeaning ildizigacha kirib bora oladi. Vaqt xronologiyasiga joylashtirib, orada multimediyaviylikdan foydalana oladi. Ya'ni rasmlar, videolar, matn uyg'unligini birda ta'minlaydi. Bizda ijtimoiy tarmoqlarda bunga namuna kam topiladi.

Lekin saviyaviy jihatdan mukammal janr. “Mushtum” jurnalining 100yilligi munosabati bilan “Oyina.uz” saytida tayyorlangan **“Haqliq “Mushtum”i haqida – asr oshgan nashrning 100 yillik kechmishlari”** sarlavhali longrid ana shunday mukammal ko'rinishga ega deb ayta olamiz[4]. Sababi unda “otaxon” jurnal haqidagi barcha ma'lumotlar, suratlar ham, matn ham, mashhur ijodkorlarning jurnal borasidagi fikr va xotirlari aytilgan videotasvirlar ham mavjud. Yoki 2021-yilda “xabar.uz” da chop etilgan “Katta og‘a”, “Kalmar o‘yini” va “ko‘zadagi jin” haqida longrid”ni olaylik[5]. Kichik tagsarlavhalardan foydalanib yozilgan longridda ma'no yaxshi bo'lsa-da, multimedia vositalaridan o'rinli foydalanilmagan. Jilla qursa, suratlar soni ko'paytirilmagan, balkii shuning uchundir ko'p “prosmotr” ga ega bo'lmagan. Ammo quyidagi longrid o'z maqsadiga yetgan. Sababi unda mavzu ustida uzoq vaqt mashaqqatli mehnat olib borilgani (4ta mamlakatdan qahramonlar izlanib, ularning hikoyasi bir joyga to'plangan, ko'plab so'rovnomalar o'tkazilgan) va kattagina jamoa ushbu loyihaga safarbar etilganini payqash qiyin emas. “Markaziy Osiyoda taksidagi ta'qiblar (xarrasment): himoya huquqisiz safar) ” [6] nomli longrid uchun alohida veb-sahifa yaratilgan. 4 mamlakatda 113 qahramonlar hikoyasini o'zida jamlagan ushbu longridni 6 tilda (ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, rus va o'zbek) o'qish imkoni mavjud. Unda Markaziy Osiyodagi taksilardagi shilqimliklar xususida so'z boradi va sabab va oqibatlar o'rganiladi. Matn bilan bir qatorda, videolar, ovoz va suratlar bilab boyitilgan ushbu longrid tom ma'noda multimediaviy longridga misol bo'la oladi. Longridlarni yaratishda asosiy masala aniq va faktli, ta'sirli matnni yaratish emas, balki uni o'quvchiga qay usulda yetkazish yo'lini ham kashf etmoq lozim. Shundagina o'ylangan maqsadga erishilgan bo'ladi. Har qanday mavzuda multimediaviy hikoya yoki longrid tayyorlashning iloji yo'q. Maria Lukina va Nataliya Loseva o'zining “Mediakonvergensiya va multimediaviy jurnalistika” risolasida bunday formatda material tayyorlash uchun voqelik turli talablarga javob berishi kerakligi aytiladi. Masalan ulardan ba'zilar quyidagicha:

- Voqelik (sujet) vaqt kesimida rivojlanishi;
- Voqelikda “eng” deb tariflash mumkin bo‘lgan jarayonlar bo‘lishi;
- Sujetda grafik ifodalash imkonini beruvchi qo‘shimcha ma’lumotlarning bo‘lishi;
 - Video uchun ko‘p asoslarning bo‘lishi;
- Ko‘p bekgraundlar va qo‘shimcha ma’lumotlarning mavjudligi;
- Voqealarning rivoji foydalanuvchilarning konteti bilan davom etishi mumkinligi kabi hislatlari bo‘lishi kerak[7].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, matbuotning otasi bo'lgan gazetalarining, butun dunyoni qamragan oyinayi jahonni jar yoqasidan olib chiqishga yordamlashuvchi asosiy uch me'zon mavjud. Bular: yaxshi kadr, o'zgacha uslubdagi material, yaxshi texnika. O'zbek jurnalistikasida keng foydalaniladigan reportaj, korresponsiya, ocherk kabi janrlarni yangicha ko'rinish longrid tarzida berish bizningcha juda foydali va o'rinli. Sababi yuqoridagi janrlarni longrid tarzida tayyorlash qulay va o'quvchi uchun ham yangilik bo'lardi. da elementlari, unsurlari mavjud.

Zamon yashin tezligidan-da tez o'zgaryapti. Shunga mos tarzda ish ko'rish bugungi kun jurnalistikasining asosiy vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Do'stqorayev B., Do'stmuhammad X. va boshq. Jurnalistika: bosma ommaviy axborot vositalarida janr masalalari. 5-jild, 2019. – T. “O‘zbekiston”. 550bet.
2. Wikipedia.org
3. Корабоева, М. К. Multimediyaviy longrid internet jurnalistikasida yangi fenomen sifatida / М. К. Корабоева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 21 (311). — С. 792-794. — URL: <https://moluch.ru/archive/311/70321/> (дата обращения: 30.04.2023).
4. <https://oyina.uz/uz/article/1429>
5. <https://www.xabar.uz/uz/tahlil/katta-oga-kalmar-oyini-va-kozadagi>
6. <https://longreads.cabar.asia/uztaxi>
- 7.

O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDAGI O'RNI VA NUFUZI ORTMOQDA

Nuritdinova Surayyo Ravshan qizi,

BuxDU, Filologiya fakulteti Axborot xizmati va jamoatchilik

bilan aloqalar yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tiliga berilayotgan e'tibor. Tilning hozirgi va bundan bir necha yillar oldingi o'zbek tilida so'zlash qoidalari keltirib o'tilgan. O'zbek tiliga oid qonunlar va ularning ahamiyati haqida malumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Til, jamiyat, davlat, adabiy til, sheva, mustaqillik, eski so'zlar, yangi so'zlar, lingvistika.

“Til-millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir”, deyiladi O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili” haqidagi qonunida. Bizga ma'lumki o'zbek tili aynan shu mukammal holatdagi o'zbek tiliga aylanishi uchun minglab chig'iriqlardan o'tgan. O'zbek tilining shakllanishi, ya'ni qadimiy ildizlari uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Tilimizning hozirgi fonetik, leksik, morfologik, grammatik jihatdan yuksak holatga kelishi uchun bizga ming yillar kerak bo'lgan. Bizning bebaho adibimiz Cho'lpon aytgandek "Til yashasa millat yashaydi". Tilimiz rivojlanganiga qadar ushbu bosqichlardan o'tgan. Birinchi bosqichda, miloddan avvalgi davrlardan X asrgacha bo'lgan davr. Haqiqatan ham, o'zbek tili o'zbek xalqining bebaho boyligi, tengsiz kuchga ega bo'lgan qudratli kuchi, tengsiz tilsimdir. O'zbek tili rivojlanishi uchun ma'lum bosqichlardan o'tgan. Va hozirgi ko'rinishga kelgan.

Demak, birinchi bosqich miloddan avvalgi X asrgacha bo'lgan davr.[1.3] Bu davrdagi tile eski turkiy tillar deb yuritilgan. Albatta, bu davrgacha ham rivojlangan misol tariqasida o'sha davrda yaratilgan asarlarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan qadimgi o'zbek adabiyoti, og'zaki ijod namunalarini, “O'rxun-Enasoy” tosh bitiklari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk"(Turkiy tillar devoni), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"(Saodatga eltuvchi bilim), Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul Haqoyiq"(Haqiqatlar armug'oni), Alisher Navoiyning bir qancha asarlarini o'zbek

tilining rivolanishiga asos bo'lgan desak yanglishmagan bo'lamiz. Hozirgi o'zbek tilining rivojlanishiga asos bo'lgan bu turkiy til hisoblanadi. Ya'ni, Turkiy til o'zbek tilining bobo tili hisoblanadi. Turkiy tillar oilasiga O'zbek tilidan boshqa qirg'iz, qozoq, turk, turkman, tatar, uyg'ur, chuvash, boshqird, qoraqalpoq, yoqut, tuva tillari kiradi. Bu esa Turkiy naqadar boyligini anglatib turadi.

Turkiy tillar olti yirik katta bo'linmaga bo'linadi, ya'ni ushbu tillar tillar MDH hududidagi Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Sharqiy Turkiston, Yevropa kabi hududlarda tarqalgan. Bizning milliyligimizni anglatib turuvchi O'zbek tili o'ziga eng yaqin bo'lgan uyg'ur tili bilan bu oilaning qarluq guruhini tashkil etadi.

Ammo hozirgi o'zbek tilida qarluq lahjasidan tashqari, qipchoq lahjasi va o'g'uz lahjasi xususiyatlari ham mujassamlashgan, chunki hozirgi o'zbeklar tarkibida qipchoq va o'g'uz guruhlarining ham vakillari bor. Turkiy xalqlar ichida o'zbeklar eng ko'p sonni tashkil etadi" Ikkinchi bosqich ya'ni qadimgi turkiy tilning davomchisi XI-XIV asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda yaratilgan asarlar turkiy tilning davomi hisoblangan. Xaydar Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" kabi buyuk asarlar yaratilgani tilimizni yorqin o'tmishidan dalolat beradi. Va bu asarlar bizning hozirgi o'zbek adabiyotining ildizi hisoblandi. Uchinchi bosqich: XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo'llangan til eski o'zbek tili deb nomlangan. Bu davrda ham o'zbek ijodkorlari tomonidan ko'plab asarlar yaratilgan. Jumladan, bu davrda yashab ijod qilgan ijodkorlar Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi Farog'iy, Zavqiy, Nodira, Anbar Otin, Uvaysiy, Gulxaniy, Muqimiy kabilar. Ushbu davrni o'zbek tilini oltin davri deb atash mumkin. Chunki bu davrda hazrat Navoiyning "Xamsa" asari yaratilgan. U o'sha davrda turkiy tilni boshqa tillardan kam emasligini isbotlab bergan. Uning bu xususda "Muhokamat ul-lug'atayin" nomli asari mavjud. Bu asarda Navoiy fors tili va turkiy til o'rtasidagi tafovutlarni tasniflab bergan. [2. 70,80]

Hozirgi o'zbek tilining taraqqiyot qonunlarini va shu asosdagi barcha tarmoqlari bo'yicha me'yorlarni belgilashga qaratildi, chunki til ma'naviyatimizni belgilab

beruvchi asos hisoblanadi. Adabiy til esa ya'ni adabiy nutq umumxalq tilining ishlov berilgan, sayqallangan va ma'lum bir shaklga, o'zining qonun-qoidalariga solingan shakli hisoblanadi. Endi biz o'zimizga adabiy til nega kerak degan savolni berishimiz kerak. Tilning ushbu shakli barcha xalqlar tilida mavjud bo'lib u barchaga birdek tushunarli tarzda mavjud bo'ladi. Ya'ni har bir millat vakillari tushunadigan shakldir. Tilning bunday shakliga tilshunos Mustaqim Mirzayev "Adabiy til umumxalq tilidan yasalgan guldasta",-deb baho bergan edi. [3,4,5,6,7] Demak, o'zbek adabiy tili sheva va lahjalar bir butunjahonligidan iborat bo'lgan o'zbek milliy tilidan farqlanadi. O'zbek adabiy tili o'zbek millatiga tegishli bo'lgan milliy tilining tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy til bilan adabiy til orasidagi aloqa butun-qism, umumiylik-xususiylik munosabatidek bo'ladi. Adabiy nutq me'yorlashgan qonun qoidalari ajralib turadi va barchani asosiy qolibga solib turuvchi til hisoblanadi. O'zbek adabiy tilidagi lingvistik omillar muayyan tilning sistemaviy va strukturaviy xususiyatlari fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik,grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, lingvistikaga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgach unga ekstralingvistik omillar jiddiy ta'sir o'tkazdi deb aytish mumkin. Negaki mamlakat mustaqilikka erishgach uning ijtimoiy hayotida, bozor iqtisodiyotida, ma'rifat va madaniyat sohalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu esa o'z-o'zidan yangi so'zlarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ayrim so'zlar esa iste'moldan (oblast,sovxoz, rayon va boshqalar). Endi esa tabiiyki, yangi so'zlar jamiyatimizga kirib kela boshladi.Ularga misol tariqasida quyidagi so'zlarni keltirish mumkin (biznes, investitsya, litsey, gimnaziya, menejer, menejment, brifing, marketing), shuningdek, hokim, hokimiyat, viloyat, tuman kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so'zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tdi. Bundan shunday xulosa anglashiladiki, milliy tilning shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar qatnashadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi 1989-yil 21-oktyabr berilgan va shundan buyon barcha hujjatlar hamda

majlislar o'zbek tilida olib borildi. Bu kunlarlar ko'rish qanchadan-qancha otaboblarimiz qo'llari qadoq bo'lgan. Olamning gultoji bo'lgan insonga tuhfa qilingan til uning mislsiz boyligi hisoblanadi. “Odamni, olamni va Ollohni tanimoqday mashaqqatli, sharaflı yo'lnıng avval-oxiri charog'boni shu tildir. Dunyoda o'zining kimligini anglash, qavmining hamjamiyati va hurligini ko'rish tuyg'usi ham, avvalo, til tufayli paydodir. Ona tilining inson va aqliy va ma'naviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni xushi o'zida bo'lgan odamlarning barchasi e'tirof etadi”- deydi, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov. [4. 14,20]

O'zbekiston- ko'p millatli davlat hisoblanadi. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Yurtimiz aholisning 80 % dan ortig'i o'zbek tilida so'zlashadi. Mamlakatimizda qozoq, rus, qirg'iz va boshqa millat vakillari yashashidan qat'iy nazar tinch-totuvlikda yashab kelishmoqda. Statistika ma'lumotlariga qaraganda 50 million aholi o'zbek tilida so'zlashadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub. 1989-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan «Davlat tili to'g'risida»gi qonunga muvofiq, o'zbek tili davlat tili, deb e'lon qilindi. Ushbu qonun bilan o'zbek tili davlat tili maqomini olgan bo'lsa-da, mamlakatimizda yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilida so'zlashish huquqi konstitutsiya bilan mustahkamlangan. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga ega ekani belgilangan., adabiyot ixlosmandlari, tadqiqotchilar tomonidan O'zbek tilining jozibadorligi va imkoniyatlari haqida ommaviy axborot vositalarida keng yoritib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Faxri Kamol. O'zbek orfografiyasi. Filologiya fanlari nomzodi darajasini olish uchun dissertatsiya. - T., 1946, 3 - b.
2. Mengaliyev B. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” 4-5-6-7 betlar
3. Jamolxonov H. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” 78-80 –betlar
4. Sayfullayeva R. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” 14-20 betlar

70230502 – ADABIYOTSHUNOSLIK O'ZBEK

ADABIYOTI

EPOSDA QAHRAMON XARAKTERI MUSHTARAKLIGI

G`ayrat Murodov,

BuxDU, filologiya fanlari doktori, professor

Shamsiddinova Sitora Badriddinovna,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

yildizjim18@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Alpomish”, “Ramayana”, “Bilgamish” eposlaridagi uch qahramon xarakterining mushtarak talqini haqida so‘z yuritiladi. Epos qahramonlariga xos mardlik va aql-zakovat, yovuz kuchlar ustidan g‘alaba qozonish, mashaqqatli intilishlar negizida baxt-saodatga erishish, ularning har bir ko‘rsatgan olijanobligida milliy g‘urur va iftixor, xalqlar hayotining tadrijiy rivojlanishi, bugungi yozma adabiyotga ta’siri masalalariga oydinlik kiritildi. Syujet va kompozision o‘ziga xoslik hamda obrazlararo mushtaraklik xususida nazariy mulohazalar bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: epos, etnos, poetika, estetika, uslub, obraz, xarakter, kompozisiya, mavzu, g‘oya, tipologiya.

Davr va zamon evrilishlarida avloddan avlodga tarixiy meros sifatida o‘tib kelayotgan eposlar hamisha xalq ruhiyatini yuksaltirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuni qayd etish joizki, turkiy xalqlar poetik dunyosi xilma-xil va rang-barang. Undagi adabiy xazinalar ham o‘ziga xos. Jumladan, shumerlar og‘zaki ijodiga mansub “Bilgamish”, hind adabiy durdonasi “Ramayana”, o‘zbek poetik durdonasi “Alpomish” – bu uch eposda ham qahramonlik, do‘stlik va mardlik singari olijanob fazilatlar badiiy tajassum topgan.

Bu badiiy durdonalar orasida eng qadimiysi shumer va akkadlar tomonida yaratilgan “Bilgamish”epopeyasidir. Mazkur asar turkiy xalqlar, shuningdek, bashariyat epik tafakkuri taraqqiyotida alohiyada ahamiyatga ega bo‘lgan. Yozuvchi Isajon Sulton bu haqda shunday fikrni ilgari suradi: “Turkiy xalqlar eposlarining o‘zagi qahramonlikdir. “Gilgamish” dostonida ham qadimgi Uruk shahrida bo‘lib o‘tgan

voqealardan hikoya qilinadi. Doston qahramoni Gilgamish samoviy ho'kizni o'ldiradi va yer ostiga tushib, mangulik o'tini olib chiqadi. Nuh payg'ambar o'g'illaridan va to'fondan bahs etdik, aynan shu doston Nuh alayhissalom to'fonidan xabar beruvchi yagona epik asardir. Ya'ni "Bilgamish" dostoni voqealari bilan to'fon bo'lib o'tgan davrning bir-biriga yaqinligini ko'rsa bo'ladi" [1]. Darhaqiqat, har uchala eposning qahramonlari qadim zamonlardan buyon insonning bilim va saviya negizida o'z maqsadlariga yetishmoqligini yuzaga chiqargan

"Bilgamish"ning qo'shiqlarida Quyosh, Ko'kni ulug'lash o'z ifodasini topgan. Ko'k tangri g'oyasi turkiy xalqlarning og'zaki va yozma adabiyotiga ham taalluqlidir. Bunday ustuvor fikr "Qutadg'u bilig"da ham mavjud.

Biz bu ishimizda jahon eposining nodir namunalaridan bo'lgan "Bilgamish", "Ramayana" va "Alpomish"dagi markaziy obrazlar xarakteridagi ayrim mushtark xususiyatlar hususida fikr yuritmoqchimiz.

Mazkur epik uchlikning g'oyaviy mushtarakligi shundaki, bu qahramonlik eposlarida yovuzlik ustidan ezgulikning mashaqqatlar evaziga bo'lsa-da, muzaffar bo'lish badiiy g'oyasi bo'rtib ko'rinadi. Azal-azaldan insoniyat tafakkuri, estetik quvvati, fikrlash tarzi osonlik bilan shakllangan emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida son-sanoqsiz suronli, iztirobli va qayg'uli hodisalarni boshidan kechirgan. Ana shunday umumbashariy ahamiyatga ega tarix eposning badiiy tasvir manbasi bo'lib kelgan.

Epos qahramoni el-ulus, insoniyat ko'lamida fikrlaydigan va faoliyat ko'rsatadigan insondir. U o'z oldiga ulug' maqsad qo'yib, unga yetishish zahmatlarini bosib o'tadi.

"Alpomish" dostonidagi markaziy qahramon o'zbek halqining mental xususiyatlari mujassam bo'lgan mardlik va olijanoblik timsoli. Shuningdek, "Ramayana"dagi Rama adolat uchun kurashuvchi obraz sifatida oliy ideallarga tayanib harakatlanadi. Bunday ideal shaxs timsoli hind xalqining milliy iftixoriga aylangan.

"Bilgamish" asaridagi yetakchi obraz "mangu yashash istagi" bilan xavfu xatar to'la yo'lga otlanganida: **"Kuchli pahlavonlar ham abadiy yashay olmaydi, xudoga**

itoat et, hamma ish uning roziligi bilan bo'ladi" [2] degan xulosaga keladi. "Ramayana"ning "Bolalik kitobi" nomli birinchi faslidagi mana bu mulohazalar yuqoridagi mulohazalarimizni to'laligicha quvvatlaydi:

"Kunlardan bir kun so'zamol kishilar orasida ham birovga gap bermaydigan fasohat egasi donishmand Valmiki hamma narsani bilguvchi avliyo Noradaga qarab "Dunyoda xayru saxovatli, mard, go'zal tal'at, alp kelbat va boshdan-oyoq benuqson, xiradmand yigit bormi?" – deb so'radi.

Norada unga Dasharathaning o'g'li haqida, nasli nasabi Ikshvokuga borib taqaladigan vallomat yigit Rama haqida hikoya qildi. Alqissa, Norada ushbu bahodir yigitning hayoti va jasoratini qo'shiqning avj pardalarida alqab, ramzu ma'nosini hammaga birdek tushunarli qilib kuylashni Valmikidan o'tindi. Valmiki bunga rozi bo'ldi" [3,10].

Keltirilgan iqtibos "Ramayana"ning muqaddimasi hisoblanadi. Bu yerda ikki xususiyatni ko'rish mumkin: birinchidan, donishmand Valmiki Rama haqidagi xushxabardan voqif bo'lish asnosida avliyo Naraning tafsilotlaridan hayratga tushadi. Ikkinchidan, bog' sayrida sayohatchi ovchining qashqaldoqni otib o'ldirishi "sayyodni duoibad qilinishi"ga sabab bo'ladi. Ana shu ikki jihat "Ramayana"dagi tirik mavjudotlarga, bexosdan ozor berish, barcha yaxshilik va yomonlik insonning boshiga nafi ammoradan kelishi, uni ko'rib kuzatib turgan ilohiy bir kuch borligiga ishora qilmoqda. "Alpomish" dostonidagi asosiy syujet chizig'i Boybo'ri va Boysarining "farzand tilab olishlik", o'zlaridan yaxshi bir zurriyod qolishlik ehtiyoji bilan yo'lga tushishi voqeasi bilan boshlangan. Doston muqaddimasidayoq syujetning tezlashuvini ko'rish mumkin. Hakimbekning tug'ilishi va voyaga yetish jarayonida turkiy xalqlarning ot minish, kamon tortish, cho'ponlik qilish, urug'-qabila saodatini ko'z qorachig'iday asrash, mehr-muhabbat rishtalarini muhofaza qilish, saqlash kabi urf-odat, qadriyatlar badiiy ifoda etilganki, bularning barchasi asar badiiy konsepsiyasini oydinlashtirishga jalb etilgan.

Dostondagi roviy (baxshi) obrazi – o'ziga xos xususiyat va vazifalarni bajaruvchi inson. U el-ulus orzu-armoni, dardu hasratlari, komil inson va barkamol davlat haqidagi qarashlarini badiiy ifoda etuvchi personaj sifatida namoyon bo'lgan.

Qadim zamonlardayoq insoniyat ilm olishning juda ulkan tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyati borligini yaxshi bilgan. Bunday jihatni qadimiy epik ijod namunalaridan biri bo'lgan “Alpomish”da yaqqol ko'rsa bo'ladi. Boysun yurtining hukmdori Boybo'ri yakkayu yolg'iz o'g'lini dastavval maktabga beradi. U o'qish-yozishni puxta egallab, mustaqil mutolaa qilishni o'rgangandan keyingina harbiy mashq va faoliyatga ruxsat beradi. Epos markaziga ko'yilgan ustuvor konfliktning yuzaga chiqishida aynan ilmga munosabat sabab bo'lgan:

“Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'riy shunda o'g'li Alpomishdan: - Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?, - deb so'radi. Unda o'g'li turib aytdi: - Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo'lsa ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joyi bor turib, joyi yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqt-bevaqt kishi bir mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo qilib o'tsa, bul ham saxiy, agar kim ham mozorotdan o'tganda, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, agar mozorotning haqiga duo qilmay o'tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan” [4, 8-9].

Mo'tabar kitobda ko'rsatilganidek, zakot berish saxiylik, bermaslik esa xasislik belgisi ekan. Parvardigori olam tomonidan Odam bolalariga farz qilingan bu ilohiy talabni Boybo'ri o'zicha tushunadi. Uning tasavvuriga ko'ra ukasi Boysari zakot bermasa, xalq orasida ziqna odam sifatida baholanishi mumkin. Shu mulohazaga ko'ra u o'zini zakot olishga haqli deb mulozimlarini Boysari dargohiga jo'natadi. Zolim va johil ijrochilar o'n ming uylik Boysun-qo'ng'iro't urug'i sardoriga kibr-havo bilan gapirib odobsizlik qiladilar. Oqibatda aka-uka orasida adovat, ixtilof yuzaga keladi. Bu esa yagona ulusning ikkiga bo'linishi, Boysari urug'ining yot yurtida sarson-sargardon bo'lib xo'rlashiga olib keladi.

Ko'riyaptiki, na Boybo'ri, na uning inisi zakot mohiyati va shartlaridan xabardor. Boybo'ri podshoh bo'lgani uchun, o'zini zakot berishdan ozod deb o'ylaydi, Boysari esa akasiga zakot berishni o'ziga nisbatan haqorat deb tushunadi. Biri biri shoh, boshqasi biy bo'lgan bu shaxslarning xato yo'l qo'yishlarining asosiy sababi ularning ilmsizligidadir. Mana shu ilmsizlik jabr-zulm va ulus ichidagi tarqoqlikka sabab bo'ladi.

Otasi va amakisidan farqli ravishda Hakimbekdagi mulohazakorlik, har bir ishni mantiq va mulohaza asosida qilishi bilim va kitobga ixlos qo'yishga borib taqalishini zinhor e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Negaki, Bilgamish, Rama, Alpomish ham xarakterlararo bir maqsad – bilim va ilmning kuch-qudratidan jismoniy kuch-qudratga o'sib borishini yuzaga chiqargan.

Shumer-akkad epopeyasidagi Bilgamish va Enkidu o'rtasidagi dramatik munozara eposlar orasidagi mushtaraklikni aniq ko'rsatib turibdi:

Bu ochiq iqordan so'ng Enkidu der so'zini:

“Do'stim, ancha yiroqda Livan tog'lari bordir,

Ular qarag'ay va archa o'rmoni-la qoplanmish.

O'sha o'rmonda yashaydi u darg'azab Xumbaba

Kel, ikkimiz birlashib, biz uni o'ldiraylik.

Va barcha yomonlikni yer yuzidan haydaylik!

Kesgum qarag'aylarni va tog'lar ag'darar ularni,

Nomimiz abadiyatga yozilgusidir albat!..”

Eposda Enkiduning o'z do'sti Bilgamishga bergan maslahati, ya'ni yovuzlik ramzi Xumbabani o'ldirish maqsadi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Negaki, u Xumbaba haqida xabar beruvchi ramziy obrazdir. Xumbaba Kedr o'rmonida yashovchi pahlavonni halok qilgach, ikkala do'st safarga o'tlanadilar. Eposning syujetida savol va javob, masala-muhokama tarzida ifodalanishi ham bilim va tafakkur insonni har tomonlama g'alaba sari yetaklashiniko'ratib turadi:

Gilgamesh uning so'zin bo'lib, shoshib so'radi:

“Qanday boramiz va o'rmonga qanday kiramiz, xo'sh, ayt?

Uni asrar ma'bud Ver, qudratli va ko'p ziyrak,

Xumbabaga esa Shamash bergan o'zin ilohiy kuchin.
Add ulashgan unga o'zin bahodirlik qudratin,
Ignabargli o'rmonlarni qo'riqlamog'i uchun"[5].

Mana shu munozara eposning o'ziga xos uslubiy-shakliy qiymatini ta'minlashga xizmat qilgan. Maqsad aniq. Yo'l va manzil qahramonlik talab qilmoqda. Do'sti Enkiduning ko'rsatmalari bilan u o'z maqsadiga to'laqonli erishish istagida yonib yashaydi. Biz bunday o'rinlarni tahlil qilganimizda, Alpomish bilan Qorajonning suhbatlarini ko'z o'ngimizga keltiramiz. "Alpomish" dostonida Qorajon Hakimbekni qo'llab-quvvatlab, unga yordam beruvchi do'st sifatida tasvirlangan.

Adabiyotshunos A.Abdurahmonovning qayd etishicha: "Qadimshunoslar «Bilgamish» yaratilgan shumer tilini biror til oilasiga kiritish qiyin, deb hisoblaydilar. Shu sababli ham bu tilni ba'zan turkiylar, ba'zan hindlarning qadimgi mund tiliga taqqoslashlar bo'lgan. Xo'sh, «Bilgamish»ning qadimgi turkiylarga aloqador tomoni bormi? Kuzatishlar dostonning turkiylar bilan aloqador tomonlari ham borligini ko'rsatadi". Haqiqatdan ham, shumer tilida yaratilgan asarlar boshqa halqlar adabiyotiga u yoki bu darajada o'z ta'siri ko'rsatgan. Eposlarning mavzu-mundariyasi, g'oyasi, xarakterlararo o'ziga xosliklar, maqsad-muddao, syujet tiplari bir-birini to'ldiruvchi ahamiyat kasb etgan. Natijada eposlar tabiatida ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar orasida kyechedigan, yovuzlik kuchlari bilan to'xtovsiz kurashadigan, oxir-oqibat ezgulik g'alabasi bilan nihoyalnadigan turli-tuman syujetli asarlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bizgacha yetib kelganlarida ushbu masalalar diqqatga sazovordir.

"Alpomish" eposida do'stini izlab qalmoq yurtiga kelgan Qorajon Hakimbekning zindonband qilinganini oshiq o'ynab o'tirgan bolalardan bilib oladi. Ular Chilbir cho'li va Murod tepaning tepasiga chiqib "misli go'riston"dek zindon borligini aytib berishadi. "Alpomish"ning 1992 yilgi nashridagi II kitobda bu haqda batafsil bayon qilingan:

Zindonda yotib Alpomish Qorajonni ko'rdi. Qorajon ekanini bilmadi. To'qson botmon temirdan sovut kiygan, zindonning boshida qarg'aday buldurab ko'rinadi. "Bu Qalmoqshohning xabar olib yurgan josuslarida. Alpomishning juda ko'ngli cho'kib ketgan ekan, demasin", - deb Qorajonga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

Zindonchilar mendan xabar olmasin,
So‘zimni shohingga aytib borasan,
Men Alpomish nazarkarda botirman,
Botirlikdan bu zindonda yotirman.
Omon-eson o‘lmay chiqsam zindondan,
Toychixon yurtini izzillatirman.

Mazkur lavhada chin do‘st Qorajonning ichki iztiroblari, unga tezda yordam berish rejasini tuzishga kirishishi o‘z ifodasini topgan. Eposshunos olim Shomirza Turdimov: “Dostonning mohiyati singdirilgan universal kod - timsollar bu kunga ham, Kishi va Tishi (Odam Ato va Momo Havo) davriga ham, kelajakka ham bimalol tatbiq etiladi. Ularning asosi, isboti u davrlarda, bu zamonda, kelajakda ham topiladi. Shunday bo‘lmaganida dostonning bizga keragi yo‘q edi. Vaqt ketkazib, o‘qib o‘rganishga arziyasdi”[6,13-14], - deb yozgan edi. Darhaqiqat, har uchala eposdagi ijobiy tiynatli qahramonlarni birlashtirib turadigan yagona g‘oya ulardagi aqlu farosat, tafakkur va kuch birligi, jasorat hamda mardlik ramzi sifatida namoyon bo‘lishidadir. Shu boisdan ham, uchala eposning tipologik mushtarakligi alplarning qora kuchlarni mardlik va zahmatlar bilan yengib o‘tishga bel bog‘laganida qabarib ko‘rinadi. Mana shu jihat syujet va kompozitsiyani badiiy-poetik yaxlitlashuviga jiddiy zamin hozirlay olgan.

Hind xalqining bebaho yodgorligi “Ramayana” voqea tizimida “Alpomish”dagi Hakimbekning tug‘ilishiga o‘xshash tasvir – Tangridan farzand so‘rab olish sahnasi asar boshida o‘z ifodasini topadi:

“Yazdonlar odam suratida yerda mujassam bo‘lmoqni xayol qildilar chunki faqat odam bolasigina Ravani yengib chiqmog‘i mumkin. Najotkor tangri Vinshu Dasharathaning to‘rt o‘g‘li timsolida tug‘iladigan boshqa tangrilar esa rokshaslar sarkardasi bilan bo‘lajak jangda ko‘mak qo‘lini cho‘zuvchi maymunlar tarzida dunyoga keladigan bo‘ldi.

Vinshu ilohiy ne‘mat olib Dasharathaga zuhur ko‘rgizdi. Podsho xotinlarining kubrosi Kovshalya boyagi ilohiy ne‘matning yarmini, ikkinchisi, suyuqlisi – Kaykeyi sakkizdan birini, Sumitra kichik xotin esa qolganini tanovul ayladi.

O'sha kuniyoq har uchala xotin ham yukli bo'ldi.

Vaqt o'tib Kovshalya to'ng'ich o'g'il Ramani tug'di, Kaykeyi Bhoratani, Sumitra esa birvarakay egizak – Lakshmana va Shatrushhlarni podshohga in'om etdi" [3,14].

Eposning poetik sarhadlari nihoyatda keng va rang-barang. Ramaning tug'ilishi, keyingi voqealar, xususan, uning qahramonlik ko'rsatish uchun Himolay tomonlarga safarga yuborilishi mana shunday ko'lamdorlik va ranginlikni ko'rsatadi. Mavjud e'tiqod, Xudodan farzand so'rash va ularning tilagi ijobat bo'lishi, yovuz kuchlarning ustidan g'alaba qozonib, muvaffaqiyat sari odimlashidagi eposlararo mushtaraklik nihoyatda zavqli sahnalarni yuzaga chiqarmoqda. Rama – rokshaslarning adabini berishi, Shiva kamalagining yetti iqlimga tarqalishi syujetni yanada jonlantiradi. "Alpomish"da Hakimbekning yetti yoshida kamon ko'tarishi xuddi "Ramayana"dagi Ramaning kamal akka yoy bog'lab, Jonakning qiziga uylanish sahnalari o'quvchini o'ylashga undaydi. Taqdir ajoyibotlari orasida kecha boshlagan muvaffaqiyatli umr – Rama va Sitaning nikoh to'yiga yetaklaydi:

“Nogoh tutar atrofni zo'r sadoi qaldiraq:
Qarsillab sinmish edi Rama ilgida yaroq.
Mahodeva yarog'in Rama yaroqsiz qilmish,
O'ngu so'lga qochib el, o'takasi yorilmish” [3,16].

Mana shu badiiy parchada Ramaning benihoya kuch-qudrati, tengsiz bahodirligi namoyon bo'lgan. Poetik talqin boshqaruvida xind xalq eposi turkiy xalqlar eposi kabi jangu jadallar iskanjasida kecha boshlaydi. Rama va Sitaning pokiza muhabbati hind xalqining eng qadimgi og'zaki ijod namunalarining antik yunon madaniyati, o'zbek xalq eposining mushtarak uyg'unligini taqozo etmoqda. Ayniqsa, har uchala epos muqaddimasi insoniy muhabbat ulug'ligini, ulug' Tangrining marhamati va kuch-qudratining eng qadimgi xalqlar falsafiy-estetik tafakkurida alohida bir zuvala, asos bo'lib tadrijiy rivojlanib kelayotganini, har bir xalq mifologiyasi mavjudligini, bir-birini to'ldiruvchi mohiyat kasb etishini yuzaga chiqarmoqda. Zotan, ushbu eposlar tipologik qatlam mundarijasini aks ettirib, hozirgi zamon adabiyotiga ham katta xazina bo'lib xizmat qilayotgani ayni haqiqatdir:

Oqsoqollar duolarga ko'mishar uni,
Safar uchun Bilgamishga berib maslahat.
“Bilgamish, o'z kuchingga sen ko'p ham ishonma,
Yuzing sokin, zarbang esa ko'p aniq bo'lsin faqat.
Oldinda borayotgan hamrohin qutqazajak,
Kimki ko'rsa so'qmoqni, saqlar do'stiga uni.
Qo'yaver, boraversin Enkidu oldinroqda,
Ignabargli o'rmonda yaxshi bilar yo'llarni.
Janglarni ko'rgandir u, kurashlar unga ma'lum,
Enkidu, hamrohingni, do'stingni sen asragin.
Qo'llaringda ko'tarib o'tgin o'nqir-cho'nqirdan
Biz kengashib, endi shohni senga topshirdik mana,
Eson-omon qaytgach so'ng uni bizga topshirgin!”

Ana shu parchaning mohiyatida har ikkala do'sting bir-biriga sadoqati hamda ilk epos tabiatiga xos qahramonlik ruhida shakllanayotgan lirik kechinmalar hozirga qadar butun insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Muqaddas kitoblarda insonning o'z qabilasi, o'z qavmiga sadoqati ulug'langan. U yerda ilohiy bir kuch yo'l ko'rsatishi, baxt va saodat izlayotgan har bir inson bugun ham shunday maqsadlararo kezib yashashga mahkum ekanligini olimlar to'g'ri talqin qilganlar. Azal-azaldan bir-birini yovuz kuchlardan asrash mifologiyasi insoniyatning aqlu donishmandlik rutbalariga chiqishiga zamin tayyorlagani hech kimga sir emas. Zero, “Alpomish”da Qorajon, “Bilgamish”da Enkidu, “Ramayana”da Lakshmana ana shunday do'stlikni qadrlaydigan, eng og'ir damlarida birga bo'lgan hamda jon-jahdi ila kurashlar olib dushmani tor-mor qilgan mushtarak obrazlar, xarakterlar sifatida o'ziga xos o'rin tutadi. Har uchala eposda do'stlik ulug'lanib, pokiza muhabbat qadrlanadi. Qahramonlik yuqori pardalarda kuylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Исажон Султон. Жон ичра жоним менинг. //Халқ сўзи. 2020 йил, 8 май.

2. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимий қатламлари. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/abdurashid-abdurahmonovi-tortinchi-qism.html>

3. Қадимги ҳинд эпоси. Рамаёна. –Т., “Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”. 1978. –Б. 10.

4. Ўзбек халқ дostonлари. Алпомиш. –Т., Ўзбекистон нашриёти. 1992. –Б.62.

5. Антик эпос. Билгамиш. Таржимон: мақола муаллифи Шамсиддинова С.

6. Турдимов Ш. Эпос ва этнос. –Т., Ўзбекистон. 2012. –Б.13-14.

ASQAR MAHKAMNING “TAVAJJUH“ DOSTONIDA AYOLLARGA BO’LGAN MUNOSABAT

Fotima Mamadova,

BuxDU, Adabiyotshunoslik (o'zbek tili) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy she'riyat namunasi bo'lgan shoir Asqar Mahkamning ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning so'nggi kunlari, qazo va qadar kunigacha bo'lgan tavba-yu tazarrusi, insoniyat hayoti va uning mazmuni taqdiri uchun juda ham muhim va ahamiyatli ekanligi aks ettirilgan “Tavajjuh” dostonida ayollarga bo'lgan munosabat, umuman, Boburning hayotida ayollarning o'rni haqida so'z boradi.

Keyingi paytlarda diniy-axloqiy g'oyalar adabiyotimizda chuqur ildiz otib borayotir. Ma'naviy sarchashmalarimiz – Ollohning kitobi muqaddas Qur'oni Karimga, Muhammad Mustafo s.a.v. sunnatlari- muborak hadislarga murojaat etish alohida tamoyilga aylandi. Ushbu yo'nalishda Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumini, Tohir Qahorning “Muhammad bilan suhbat “lirik dostonini, Asqar Mahkamning “Naqshbandiya” dostoni bilan “Tavajjuh”, “Ishq” she'riy qissalarini, Sirojiddin Sayyidning “Qirq hadis”, Shukur Qurbonning “Unutmadi adolar rasmin” (she'rga tushgan hadislar) she'riy turkumlarini ta'kidlash joiz.

Axloq qoidalarida, umuman, dinimizda muqaddas bo'lgan narsalar mavjud. Masalan, non –muqaddas ne'mat bo'lib uni bosish tuproqqa qorishtirish gunoh, yoki bo'lmasa, suv ham shunday unga axlat otish, isrof qilish taqiqlanadi. Shular qatorida

ayol zoti ham muqaddaslik kasb qilib, uni xor qilish, kamsitish dinimizda, konstitutsiya qonunlarida taqiqlab qo'yilgan. Bejizga xalqimiz orasida ham ayol bir qo'li bilan beshikni tevratsa, bir qo'li bilan dunyoni tevratadi degan naql yurimaydi. Zabardast qahramonlar-u, ma'rifatparvar insonlar; dunyoni titratguvchi podshohlar-u, ilmpesha olimlar – barchasi mushtipar onalar etagidan tushgan daholar sanaladi. Adabiyotimizda o'z ijodi orqali ayol zoti sha'nini, uning nomus-u huquqlarini himoya qilib yozilgan asarlar ko'plab uchraydi. Diniy adabiyot namunasi bo'lgan, o'zida o'quvchiga adabiyot bilan birgalikda diniy qoida va ahkomlardan dars bergan Asqar Mahkamning "Tavajjuh" dostonida ham ayol qadri, o'tgan asrlarda ayollarga bo'lgan munosabat, muslima qizlarning nomus masalasi yuqori pardalarda yoritib berilgan.

Shoirning "Tavajjuh" poemasi Andijoniy podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning o'z xalqi, ommasi, gunohkor banda sifatida Ollohning oldidagi va, shu bilan bir qatorda, ayollarga bo'lgan tazarrusi bayon etilgan dostonida Ollohning qahrini uyg'otadigan ishlardan eng yomoni zino ekanligi, zino insoniyatni yomonlikka – noto'g'ri yo'lga boshlovchi xaromiy illat ekanligi ko'rsatib o'tilgan. O'tgan asrlardan ma'lumki, bir podshohning xaramida ko'plab xotinlari va kanizaklari bo'lgan. Ijodkor nazmida bu holat qora bo'yoqlarda tasvirlangan:

Sochlari o'ralib saksovullarga
Sahroda yotganda bir it, bir Majnun,
Murdor tanangizni uyg'otmoq uchun
Qoshingizda qotdi ming bitta xotun [1]

Ko'p xotinlik dinda qoralanmaydi. Dinda to'rttagacha xotin olishga musulmon ahli uchun ruxsat berilgan. Jaloliddin Rumiyning "Ichingdagi ichingdadur" diniy –falsafiy kitobining tarjimoni bo'lgan ijodkor uchun ko'p xotin olib vaqtini aysh –ishratga sarflagan o'tmish podshohlari salbiy qiyofada akslangan. Shu sababli ham shoir dostonning ko'plab o'rinlarida bu mavzuga murojaat etib o'tgan:

Roviylar ochdilar sinoat lavhin,
Dedilar: "Ey Mirzo, yozmishing qaro..."
Ibrohim Luddining yoy o'qi yanglig'

Janub bodi qoldi so'ngagim aro.

Bu parcha juda ham tahliltalab bo'lib, shoir bu yerda tarixiy shaxs, Lut payg'ambarni yodga oladi. Lut payg'ambar Ibrohim payg'ambarning akalari Xoronning o'g'li edi. Bu payg'ambar dastlab Ibrohim alayhissalomga iymon keltirib, u zotning yo'lidan yurgan, keyinchalik Lut alayhissalom amakilarining iznlari bilan Urduning (Iordaniya) Sadum degan joyiga ketdilar. Bu shaharning aholisi dunyodagi eng yomon gunohlardan biriga muhtalo bo'lishgan edi. Ular bachchabozlik bilan shug'ullanishardi. Lut alayhissalomning asosiy vazifalaridan biri ularni shu qabih ishdan qaytarish bo'lgan [2] Shunga ishora sifatida yozilgan parchada Boburning taqdiri – yozmishi qora ekanligi, uning yaxshi kunlaridan ko'ra yomon kunlari ko'p ekanligi aytiladi. Sadum shahri ham Hindiston singari janubiy davlatlardan biri bo'lib, Hindistonda tinchlik o'rnatish Boburning chekiga tushadi. U ham Hindistonda eng yomon gunoh sanalgan eri o'lgan ayolni tiriklariyin eri bilan yoqib yuborish qonunini bekor qiladi.

Xarold Lambning “Bobur – yo'lbars” asarida ham Boburning o'z yaqin zaifalariga hurmati-izzati ifolanib, hattoki, ijodkor zaifalarni alohida mavzu ostida hikoya qilgan:

“Andijon qal'asida Bobur Mirzoning har bir safarida qadam –baqadam ergashib kelayotgan uch ayol bor edilar. Qarindosh erkaklardan farqli o'laroq, bu ayollar Boburga sadoqatliroq bo'lib chiqdilar...” [3]

Dostondan xulosa shuki, inson hech qachon ham hoziri bilan hozirgi kuni bilan yashamasligi lozim. Ertani o'ylab ish qilish har doim ham xayrli bo'lgan. Xayrli ishning esa hech ham kechi yoq. Ayol zoti mukarram. Uni qadrlash, e'zozlash lozim. Olamda ayol borki, hayot bor; ayol borki kelajakka ishonch bor. Farzandlar salomatligi, ularning porloq kelajagi onalarimizga, momolarimizga bog'liq. Birgina alla orqali go'dak qulog'iga yuz xil tovush, yuz xil ohang yetib boradi. Bejizga xalqimiz orasida ham “Ayolning sarishtasi – ro'zg'orning farishtasi “degan maqol uchramaydi. Shoir hatto farishtamisol ayollarni Navoiy qalamidan, qobiliyatidan ustun qo'yganligi ayol zotining hatto so'zdan ham ustun ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ayollarning dostonda qanchalik qadr topganligini, yuksakka ko'tarilganligining isbotidir.

ADABIYOTLAR

1. Asqar Mahkam. “Tavajjuh”. –T.: “Movuraunnahr”, 1993-yil.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. –T.: Hilol nashr, 2020-yil
3. Harold Lamb “Bobur- yo'lbars”. –T.: “O'zbekiston”, 2018.

SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA BADIY SAN'ATLAR

Yoqub Saidov Siddiqovich,

*BuxDU, o'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasida dotsenti*

Ismatova Mahliyo Ulug'bek qizi,

*BuxDU, o'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasida magistranti*

Annotatsiya: Maqolada badiiy asar matnida muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy san'atlarning tahlili haqida fikr yuritiladi. Badiiy san'atlarning turlari, o'ziga xos jihatlari Shavkat Rahmon she'rlari misolida tahlil qilinib, turli mulohazalar keltirilib izohlanadi.

Kalit so'zlar: *badiiy san'atlar, takrir, epitet, ishtiyoq, antiteza, tasbe, tazod.*

O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ovozi va ijod olamining kengligi va salmoqliligi bilan nom qozongan, she'riyatimiz maydonida o'z ijod maktabini yaratib ketgan zabardast shoirlardan biri Shavkat Rahmondur. Shoir o'tgan asrning 80-yillarida kuyunchak ovozi va isyonkor ruhi bilan adabiyotimizda alohida ko'zga tashlandi. U nainki har bir she'r, balki har bir so'z ustida mahorat bilan ishladi. Bir-birini takrorlamaydigan satrlar, unutilmas badiiy obrazlar yaratish mahoratiga ega bo'lgan Shavkat Rahmon ijodi o'zbek adabiy tanqidchiligining yuksak e'tirofi va bahosiga musharraf bo'ldi. Shavkat Rahmon she'rlarining mavzulari ham turlicha. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov buni quyidagicha izohlaydi: “Shavkat Rahmonning ilk she'rlaridan tortib so'nggi misralarigacha qalbi, tabiati, butun borlig'i vaziyatga qarab tovlanavermaydigan mustahkam e'tiqodi, sodda va mag'rur, kurashchan va jasur siymosi mana men deb turibdi” [1].

Shoir o'zi kuylagan har qanday mavzuda yonib, to'lqinlanib, joiz bo'lsa, dildan azoblanib kuylashga o'rgangan. U, ayniqsa, ijtimoiy hayot motivlarini keng ko'lamda aks ettirgan. Har bir misralaridagi so'zlar marvaridga terilgan misol, badiiy san'atlardan mohirona foydalangan. Shoir ijodida lafziy va ma'naviy san'atlardan turli xillarini ko'rishimiz mumkin.

Shoirning "Baxt" she'ridan olingan quyidagi misralari kitobxon diqqatini muayyan hodisaga yoki muammoga jalb qilish, o'z hayajonini muhrlash va pafosni kuchaytirish maqsadida asarda ritorik (undovli) so'roqlar beradi.

Og'ir botmasmikin

bu so'z kimgadir,

tegib ketmasmikin oh-vohlariga,

qandoq bardosh berib yashayman keyin

baxtsiz kimsalarning nigohlariga.

Agar so'z yoki iboralar bir necha gap, she'riy misra yoxud band boshida takrorlanib kelsa, bu hodisa anafora deb ataladi:

Garchi baxt so'zlarning eng yoqimligi,

Garchi tursa hamki tilning uchida.

Ba'zan muayyan so'z va iboralar birinchi bandning oxirida kelib, ikkinchi bandning boshida takrorlanadi. Bu esa tasbe' san'atining yorqin namunasi.

Avvalo bu so'zni o'zgalari aytsin,

Aytsinlar ko'zlari quvochga to'lib.

Quyidagi misralarda esa antiteza san'atidan foydalanilgan. Bir yoki bir necha hodisaning belgilarini o'zaro aloqador holda tasvirlanishi ko'p uchraydi. Bunday figura qarama-qarshi qo'yish yoki antiteza deb ataladi. Antiteza ko'pincha antonim so'zlar orqali hosil bo'ladi [2].

G'am so'zin elimdan keyinroq aytdim,

Baxt so'zin aytaman eldan keyinroq.

Shoir zamon muammolari-millatning dardini ifodalari ekan, tarixga bot-bot murojaat qiladi:

Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov

Komillik qidirgan jasur erlarga.

Ilavsin yigitlar, bobur yigitlar

Sajdaga bosh qo'ydi teskari qarab,

Gullarni kemirib yig'ladi itlar,

Buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.

Yuqoridagi she'r misralarida “hiylagar do'st”, “jasur er”, “ilavsin yigitlar”, “bobur yigitlar”, “buyuk bosh” kabi so'z birikmalarida otga mansub so'zlar oldidan sifatlovchi aniqlovchining keltirilishi, fikrni go'zal va ta'sirchan ifodalash san'ati- epitet, ya'ni sifatlash san'atini yuzaga chiqargan. Bundan tashqari “do'st” va “yov” so'zlarini tazod san'atining go'zal namunasi.

Aytish mumkinki, shoirning ijtimoiy ruhdagi barcha she'rlari yurak hayqiriqlari bo'lib, aksariyat millat, xalq, odamlarning o'kinishlaridan, yangi va uyg'oq hayotga chorlovlardir.

Kelar, kelar buyuk mehribon,

Kiftlar, kiftga osilajak kun,

G'amdan forig' jez kallalar ham

Ko'kraklarga osilajak kun.

“Kelar” so'zining ikki bor takrori botinida ertangi kunga qat'iy ishonch, xitob, chorlov pafosi bor. Kiftlar kiftga osilajak kun-bu ulug' birlik orzusi. Takrir san'atining go'zal namunasi desak adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari “osilajak kun”, “jez kallalar” so'z birikmalari epitet san'atini yuzaga chiqargan.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'riyatining mavzu va muammo ko'lemi juda keng. Shoir badiiy san'atlardan juda ham o'rinli foydalanganiki, kitobxon yuragiga so'z kuchi juda tez yetib keladi va xotiradan o'chmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Rahmonni xotirlab. -Toshkent:Sharq,2012.56-bet
2. Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3, Issue-12//Shavkat Rahmonning “Baxt so'zi” she'ri va Abdulla

Qahhorning “O'g'ri” hikoyasi tahlili Marjona Hayitmurodova/Samarqand davlat unversiteti

3.Shavkat Rahmon.Uyg'oq tog'lar.-Toshkent:Sharq,1986.

4.<http://kh-davron.uz> internet sayti

FOLKLORDA KOSMOGONIK OBRAZLAR GENEZISI VA TADRIJI

Malohat Jabborova,

BuxDU, Adabiyotshunoslik (o'zbek tili)

yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada ibtidoiy odamlarning osmon jismlari bilan bog'liq ilk mifologik tasavvurlari negizida shakllangan xalq og'zaki ijodiyotida badiiyati Oy, Quyosh, Yulduz kabi samo yoritqichlari tasviri aks etgan mif va afsonalarning yaralishi, ularning she'riyatda rang-barang poetik obrazlarni gavdalantirishi haqida so'z boradi. Bunda turkiy sarzaminda yetilgan turli afsonalar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlar, she'rlarga murojaat qilinadi.

Kalit so'zlar. Oy, Quyosh, Yuilduz, samoviy kult, Zuhal, Maaday qara, atribut, Tiyr, Avesto, Yetagan, Antarus, Jaruq, Qiron.

Tarix qatlaridan ayonki, xalq og'zaki ijodiyoti mahsuli bo'lgan mif, afsona, asotirlar qadimgi odamlarning bepoyon olam, koinot yaralishi, hayvonot-nabotot dunyosi tadriji, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalar mohiyati, afsoniy qahramonlar, ilohlar haqidagi ibtidoiy-stixiyali tasavvurlar negizi majmuidir. Ibtidoiy inson o'zini qurshab turgan tabiiy olamdan aniq ajrata olmagan, shu sababli tabiiy obyektlarga o'zining hissiy kechinmalarini, insoniy xususiyatlarni ko'chira borgan. “Insonlashtirilgan” obyektlar olamni boshqaradi, xo'jalik yuritadi, borliq ustidan hukmronlik qiladi mifik tasavvurlar shakllangan.

Shuningdek, qadimgi odamlarning ziroatchilik, chorvachilik bilan shug'ullanish ehtiyoji osmon yoritqichlari va taabiiy hodisalarni muntazam kuzatib borishni taqozo etardi. Ular oy, quyosh, yulduzlarni kuzatish asnosida vaqt hisobini yurgizishning ilk usullarini yaratganlar. Samoviy jismlar galaktikasi chorvadorlarga yangi yaylovlarga

ko'chish muddatlarini aniqlashda, dehqonlarga dala yumushlarini bajarish fursatlarini belgilashda, dengiz hamda yo'l xaritalarini tuzishda dasturulamal vazifasini o'tagan. Bu kuzatishlar, borliqni boricha qabul qilish qadimgi ajdodlarimizning koinot va inson birdamligi, samo yoritqichlari haqidagi ilk xayoliy tasavvurlar, inonchlar mahsuli bo'lgan samoviy miflarning yaralishi . sabab bo'ldi. V.N Toporov ta'biri bilan aytganda: “Kosmogonik yoki samoviy miflar va olamning tuzilishi haqidagi tasavvurlar mifopoetik tafakkurning boshqa shakllari orasida alohida o'rin tutadi. Zero, bunday qadimgi e'tiqodiy qarashlar, olamning makoniy-zamoniy o'lchamlari, inson o'zi hayot kechiradigan shart-sharoitlar hamda mifologik tasavvur mohiyatini o'zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi” [2] Samoviy miflarning poetik evolutsiyasi davomida ajdodlarimizning samo haqidagi ilk asotirlari xalq og'zaki ijodiyoti, hunarmandchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik kabi amaliy hamda tasviriy san'at asarlariga ham omuxtalashib ketgan. Shu bois ular muqaddas marosimlarda ishlatiladigan ashyolar, taqinchoqlar, ro'zg'or buyumlarini tayyorlashda samo motivlari haqidagi xayoliy tasavvurlar jilosini gavdalantirganlar. “... Bunday ritual ashyolar astral va samoviy kultlarga topinish, ulardan madad tilash hamda ruhiy quvvat olish maqsadida yaratilgan bo'lib samoviy qarashlarning shakllanishida muhim bosqich bo'lgan” [3]. Yurtimizda olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan noyob topilmalar buning yorqin dalilidir. Qadimda quyoshni mo'tabar deb bilguvchilar uni balo-qazolardan, qarg'ish so'z-u, yomon ko'zdan asrovchi qudratli homiy sifatida ulug'lashgan. Shu sababli har bir xonadonda quyosh tasviri yoki uning ramziy chizgilardan biri tushirilgan kigiz, gilam va so'zanalar bo'lishi xosiyatlilik belgisi hisoblangan. “Qadimgi turklar orasida uy eshigi tepasida quyosh tasviri ifodalangan doirasimon-barkashsimon tovoqni osib qo'yish odati keng rasm bo'lgan ekan. Bu udum xalqimiz xotirasida uzoq vaqt saqlangan bo'lib, keyinchalik quyosh belgisini eshikning o'ziga naqshlash odati kelib chiqqan. Aytishlaricha, quyosh tasvirini anglatuvchi naqsh shu xonadonni yomon ko'zdan asrar ekan” [4]

Umuman olganda, osmon yoritqichlari aks etgan ilk xayoliy inonchlar silsilasi, astral miqlar yaralishi, tabiiy muhitga ko'nikish, mehnat qilish, moslashish ehtiyoji o'z navbatida kosmogonik ilmlar rivojiga keng yo'l ochdi.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lgan qo'shiq qadim ajdodlarimizning mifopoetik tafakkur taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Ajdodlarimiz qo'shiqlarda ham samoviy jismlarni afsonaviy tirik atributlar sifatida ulug'lab, ularga sig'inganlar, turli magik amallarni bajarganlar.

Jaruq juldaz tug`arda [5]

Uznu kellip baqarman.

Satulaju sajraship

Tatlig' unun qush otar.

Ya'ni yorug` yulduz tug`ar vaqtida uyqudan ko'z ochib, daraxtlarga boqaman, qushlarning diltortar, yoqimli xonishinishlariga quloq tutaman. Bu misralarda lirik qahramon o'z baxtini tabiatning go'zal manzaralari bilan taqqoslaydi. Bu animistik uzvlar qadim ajdodlarimizning yulduzlarning sirli olamini anglolmay, ularni ilohiylashtirganli va xalq orasida: "Yulduz tuqqanda bedor bo'lgan kishi baxtga erishadi" degan qarashlarga ishoradir. Yulduzlarni ezgu kuch timsoli sifatida tasvirlash oltoy turklarining qahramonlik eposi "Maaday qara"da ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kok teneri ol tubinde,

Jeti kaan depıııdyıstar bar,

Jeti tuney Kogudey mergen,

Toygo braatkan ol dor dejit

Buning ma'nosi: Ko'kning olis tubida shu'la sochayotgan Etti hoqon yulduzi bo'lib, ular bir-biriga o'xshash yetti Ko'gedey Merganlar emish. Go'yo to'yga borishayotganmish. G.N.Potanin yozib olgan qadimgi buryat miqlaridan birida Yetti hoqon, ya'ni Yetti qaroqchi yulduzlari yer bilan osmon o'rtasiga osilgan —altın zurgel, ya'ni —oltin qoboqni otgani ketayotgan etti bahodir sifatida tasvirlanadi. Ko'rinadiki, bu asotir to'y bilan bog'liq samoviy motivlarga tipologik jihatdan

daxldor bo'lgan arxaik syujet asosida yuzaga kelgan.. Etti Ko'gedey Merganlarning to'yga ketayotgandagi holati Etti hoqon yulduzlariga o'xshatilgani kabi, altyn zurgell otish odati ham aslida o'zbeklar orasida bugungi kunda Nikoh to'ylarida ommalashgan —oltin qoboq otish o'yini bilan aloqadordir. Rus olimi Y.A Karpenkoni ta'kidlashicha, yulduz va sayyoalarni xudolar nomi bilan atash, ularni ilohiylashtirish dastavval Sharqda yuzaga kelgan, Arastu davriga kelibgina yunonlar yulduzlarni o'z xudolari nomi bilan atay boshlaganlar. “Avesto”da uchraydigan kosmonimlar bu fikrni yanada yaqqol tasdiqlaydi. Kitob 21 yashtan iborat bo'lib, ularning bir nechtasi ,masalan, “Moh yasht”- oyga, “Xurshid yasht”-quyoshga, “Tiyr yasht” – Sيريوس yulduziga, “Vanant yasht”-Antarus yulduziga bag'ishlangan go'zal alqovlardan iborat.

Yulduzlarning hamrohi,
Tishtiriyaga namoz,
Somon yo'li bag'rida,
Somon yo'li yulduzlariga,
Bariga alqovimiz.

“Avesto” ta'limotiga ko'ra yerdagi barcha suvlar manbai Tishtir, ya'ni Tiyr yulduzida saqlanadi. Yovuz Axriman suvli yulduzlarni egallash maqsadida ularga parilarni yo'llaydi. Biroq Tiyr yulduzi parilarga shikast yetkazib, ularni Farog'kant daryosi bo'yiga quvib yuboradi va ona zaminni suv bilan ta'minlaydi. Xalq o'rtasida uzoq vaqt qo'llangan “Tishtir” so'zi bora bora fonetik o'zgarishga uchrab Tushtr-Tustr-Sustr keyinchalik “Sust” so'z oxiridagi “r” tovushining tushib qolishi natijasida “Sust” shaklida bizgacha yetib kelgan. Bu yomg'ir chaqirish marosimi bo'lgan Sust xotin aytimining Zardushtiylikdagi suv tangrisi Tishtiriya nomi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Havolarning egasi, sus xotin,
Bahor oyi bekasi, sus xotin,
Sen mehribon enasan, sus xotin,
Ko'k toqining erkasi, sus xotin,
Bulutlarni qamchilat, sus xotin,

Ekinlarga tomchilab, sus xotin.

Iqlim qurg'oqchil kelgan yillari, ayniqsa, lalmi ekinzorlardan mo'l hosil olish uchun dehqonlarimizga yillik yog'in-sochin miqdori nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan, bu esa o'z navbatida turli xil magik amallar hamda "Sust xotin" marosimining o'tkazilishiga sabab bo'lgan. "Sust xotin" yurtimizning turli go'shalarida turlicha o'tkazilgan. Ko'lbuloqlik Sa'dulla Mirsaparovning xotirlashicha, «Sust xotin» marosimini o'tkazayotganda dehqonlar omochlarining uchini tepaga qaratib qo'yishgan. Omochning tig'iga bitta toshbaqani osib qo'yib qiynaganlar. Go'yo jonivorning qiynalganini ko'rib rahmi kelgan xudo yomg'ir yuboradi deb umid qilganlar. Ayollar esa uyma-uy yurishib, «Sust xotin» qo'shig'ini aytishgan. Uy egasi bug'doy chiqarib bersa, xotinlar: «Oblohu akbar! Guldur momo, Jaldir momo kelsin, yomg'ir yog'sin, hammamiz seroblikka chiqaylik!» - deb niyat qilisharkan. So'z sehriga asoslanuvchi marosim folklorining Alla, Beshik to'yi, Nikoh to'yi, Guli surh aytimlarida ham samo motivlarining o'ziga xos ko'rinishlari ko'zga tashlanadi.

Oy keladi botgani,
O'g'lim keladi yotgani,
Man qo'rqaman bolaginam,
Qo'lim tegib uyg'otgani

Bu chaqaloqni ilk beshikka solish jarayonida aytiladigan aytimlar sirasiga kiradi. Bunda oy bolaga, osmon esa uni allalaydigan beshikka muqoyasa qilinadi. Beshik bag'rida oy singari sokin mudrayotgan bolani nogahon uyg'otib yubormaslik uchun momolarimiz ohistalik, orastalik bilan chaqaloqni allalaganlar.

Chimildiqda aytiladigan "Yor-yor" qo'shiqlarining kelinchakni yuzini ochish jarayonida aytiladigan quyidagi aytim ham samoviy atributga hamohang tarzda amalga oshadi.

Hoy kelinchak, kelinchak,
Och yuzingni yor-yor.
Qani biz ham ko'raylik
Yulduzingni yor-yor.

Ohuri to'kilmagan bu go'zal misralarda endigina yangi xonadonga kelin bo'lgan kelinchakni ko'rgani kelganlar, uning yuzlarini osmon toqidan tushgan yulduzga qiyoslaydilar va yulduzday charog'on baxt tilaydilar.

Qadimgi ajdodlarimiz vaqtni aniqlashda oy yoki quyosh kabi samoviy sayyoralarga alohida e'tibor qaratganlar. Quyidagi to'rtlikda oyning tabiatiga bog'lab aniqlanayotgan vaqt o'lchovi orqali yaxshilik va yomonlikka ishora bor.

Oyning o'n beshi qorong'u

O'n beshi yorug' bo'lur.

Norasoning oldida

Aqli raso nodon bo'lur..

Ma'lumki, oy tamom bo'lar oldida o'zi ko'rinmasa ham, xira yorug' nur tortib, xuddi tong otgandek ko'rinadi. Buni "ko'r oydin" deydilar. Go'yoki bunda aqli ko'r, noraso kishining oldida aqli raso kishi xuddi shu oydek xiralashishiga ishora mavjud.

O'zbek folklorining asrlar davomida sayqallanib kelayotgan janrlaridan biri bo'lgan maqollar xalqimizning uzoq asrlik hayotiy tajriba va sinov hosilasi mahsuli bo'lib, ularda qadim turkiylarning diniy, didaktik, e'tiqodiy, axloqiy qarashlari aks etgan. Shuningdek, maqollarda tabiat va koinot bilan bog'liq mifologik olam rang-barang manzaralari ko'zga tashlanadi.

Hulkar tug'di-o't tug'di.

Yoki Hulkarli oyning bari qish.

Ma'lumki, o'zbek xalq samoviy afsonalarida Hulkar yulduzi "sovuq havo egasi" sifatida talqin qilinadi. Buxoro viloyatining Olot tumanida yashovchi Eshon buva Abdiyevdan 1986-yilda yozib olingan afsonada Hulkar yulduzi botganda yerning tagiga tushib ketishi, u yer ostida qancha ko'p tursa, jonivorlar uchun shuncha yaxshi bo'lishi haqidagi qarashlar keltiriladi. Bunda Hulkar tug'di deganda sovuq havo kirdi ma'nosi anglashilgan.

Yulduz aslo oy bo'lmas,

O'g'rikdan boy bo'lmas.

Ya'ni bunda yulduz hech qachon oy bo'lmaganidek, inson ham o'g'rilikdan boy bo'lmasligi haqidagi ibratomuz fikrlar ifodalanadi.

Nafsilambirini aytganda, bizni qurshab turgan bu munavvar zamin ajoyibotlar va sir-sinoatlarga to'la. Dunyo yaralibdiki, Hazrati Odam Atodan tortib to shu farovon kunlarga yetib kelgan uning avlodlari o'z va o'zga olamlar mohiyatini anglash, sayyoralarning inson taqdiri hamda tabiat bilan uyg'unlik holatlarini o'rganishga, bilishga intilib kelganligi, bu esa o'z navbatida xalq badiiyatining yozma va og'zaki ijod madaniyati shakllanishiga keng yo'l ochdi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: „O'zbekiston“. 2017. 483-bet.
2. Toporov V.N.. Космогонические мифы// Мифы народов мира. 2-tom. М., 1982, 6-bet.
3. Jo'rayev.M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1995, 6-bet.
4. Rempel L.I. Цень времени Верковы образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. Toshkent, 1987, 13-17-bet.
5. Javliyev.T. Tabiat, inson va din. Toshkent:”Fan” nashriyoti, 1986,20-bet.
6. Eshonqulov. H. Alisher Navoiy she'riyatida samoviy timsollar. Samarqand-1999, 8-bet.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent:. Fan. 1971. 80–bet.
8. Kur'oni Karim. Toshkent:. Movarounnahr. 1992. 406-bet.
9. Alisher Navoiy, Sab'ai sayyor. Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1977-yil, 15-bet.

NAVRO`Z UMUMXALQ BAYRAMINI MILLATIMIZ

MADANIYATIDAGI O`RNI

Fozilova O`g'iloy Fayoz qizi,

BuxDU 1-bosqich tayanch doktoranti,

Annotatsiya: Navro`z O`zbekistonda qadri bayram bo`lib, mamlakatning madaniy o`ziga xosligini shakllantirish va namoyon etishda muhim o`rin tutadi. Bayram mamlakatning boy madaniy merosi, mustahkam mahalla rishtalari, chuqur ma'naviyatni ifodalaydi. Ushbu maqolada Navro`z bayrami, uning kelib chiqish tarixi, an'analar, qadriyat, mehr-oqibat, urf-odatlarimiz, milliyligimiz, madaniyatimiz bilan butun dunyo xalqlari orasida alohida o`ringa ega ekanligimiz haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: Navro`z, sumalak, qadriyat, afsona, umumxalq, o`zbek, meros, yangilanish.

Navro`z har yili 21-mart kuni O`zbekistonda nishonlanadigan an'anaviy bayramdir. Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz, Afg'oniston xalqlari orasida juda qadim zamonlardan beri keng nishonlanib kelinayotgan Navro`z bayrami bu xalqlar madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Navro`zning qachon paydo bo`lgani haqida yana bir yangi fikr Zoir Ziyotovning "Navro`z – moziydan sado" kitobida keltirilgan. Muallif e'tiroficha, kitob shumerlarning mixxati asosida yozilgan, Navro`z, "yil boshi" bayramini shumerlar bilan bog`liq holda tasvirlaydi: "Forslar shumerlarga qarindosh bo`lgan elam turklarning merosxo`rlari edi, ularning yerlarida o`z davlati (Parsa)ni tuzib (eramizdan avvalgi VII asrlar), elam xalqlarining an'anaviy buyuk yutuqlarini, shu jumladan, yangi yilni ham qabul qilganlar va unga "Navro`z" nomini berganlar". Bayram 3000 yildan ortiq vaqtdan beri nishonlanib kelinmoqda va o`zbek kalendaridagi eng muhim sanalardan biri hisoblanadi. Navro`z bahorning boshlanishi va tabiatning yangilanishi bayramidir. Navro`z so`zi "yangi kun" deb tarjima qilinadi va bu bayram tarix davomida turli madaniyatlar, jumladan, fors, zardushtiy va islom jamoalari tomonidan turli shakllarda nishonlangan. Bu qadimgi Forsda paydo bo`lgan deb ishoniladi va u yerda diniy bayram sifatida nishonlanadi. O`zbekistonda Navro`z katta ishtiyoq bilan nishonlanadi va mamlakatda eng ko`p nishonlanadigan bayramlardan biri hisoblanadi. Bu O`zbekiston bo`ylab nishonlanadi, xalq an'anaviy musiqa, raqs va taomlardan bahramand bo`lish uchun yig`iladi. O`zbekistonda Navro`z bayrami tarixi mamlakat madaniy merosi bilan chuqur bog`langan. O`zbekiston boy tarixga ega bo`lib,

asrlar davomida turli madaniy ta'sirlarga ega. O'zbekistonda Navro'z bayrami o'zida ko'plab an'anaviy elementlarni, jumladan, musiqa, raqs va mamlakatning turli mintaqalarining taomlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda Navro'zning madaniy ahamiyati yangi yil boshlanishi bilan cheklanib qolmaydi. Bu negativlikdan voz kechish, pozitivlikka e'tibor qaratish va bor narsasi uchun minnatdorchilik bildirish vaqti hisoblanadi. Bu birdamlik, tafovutlarni bartaraf etish va xilma-xillikni qabul qilish vaqti. Navro'z bayrami turli yoshdagi, jins va millat vakillari uchun ochiq. O'zbekistonda Navro'z oilaviy yig'ilishlar uchun muhim vaqt va odamlarning o'z madaniyati va merosi bilan bog'liqligini tasdiqlash uchun imkoniyatdir. Bayram odamlarga birlashish, an'anaviy musiqa va raqsdan bahramand bo'lish, bayramning o'ziga xos xususiyati bo'lgan an'anaviy taomlar va taomlarni baham ko'rish imkonini beradi. O'zbekistonda asrlar davomida sodir bo'lgan ko'plab madaniy va siyosiy o'zgarishlarga qaramay, Navro'z bayramini nishonlash an'anasi doimiy bo'lib qoldi. Bugungi kunda Navro'z butun O'zbekiston bo'ylab nishonlanadi va mamlakat madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

Ma'lumki, xalqlar, millat va elatlarni turli ijtimoiy-madaniy qadriyatlar birlashtirib turadi. Bu qadriyatlarning bir qismi ularni harakatlantiruvchi ichki qonuniyatlari asosida o'zgarib boradi. Ba'zan bir xalq ardoqlagan qadriyatni qaysidir xalq aynan oladi va o'z milliy qadriyatlari chegarasini kengaytiradi. Boshqa bir xalq esa uni muayyan o'zgarishlar asosida qabul qiladi, o'zga moslaydi, o'z qadriyatlari bilan uyg'unlashtiradi. Qadriyatlarning bunday o'zgarishi fanda "ijtimoiy metamorfizm" deb ataladi. Navro'z bayrami ham kelib chiqishiga ko'ra qaysi xalqqa tegishli bo'lishidan qat'i nazar bugungi kunda haqiqiy milliy bayramlarimizdan biri sanaladi. U hozirgi shaklga kelgunga qadar tashkiliy va mazmuniy jihatdan turli o'zgarishlarga uchradi. Ba'zan diniy, ba'zan siyosiy sabablarga ko'ra taqiqlandi. Mamlakat mustaqillikka erishgan kundan beri bu bayram xalqimizning eng ardoqli bayrami sifatida nishonlab kelinmoqda. Navro'z Bahor faslining boshlanishi, tengkunlik tantanasidir. Qadimdan tabiat sirlarini bilishga qiziqqan ota-bobolarimiz Yer va uning Quyosh tizimidagi harakatini kuzatish asosida vaqtni belgilashgan. Navro'z, fasllar almashinuvi, iqlim 10

yangilanishi, yangi kun, yangi hayot ramzi bo'lish bilan birga, o'ziga xos birdamlik bayrami hamdir. Bu shunchaki saylu tomosha yoki odatiy bayramlardan emas. Bu bayram o'zlikka qaytish, ota-bobolarni yodlash, bemorlar, yetim-yesirlar va mehrga tashna insonlar holidan xabar olish bayramidir. Bu bayram xalqni yuksak fazilatlar atrofida birlashtiruvchi, millat ruhida Vatan tuyg'usini mustahkamlovchi bebaho qadriyatdir. O'zbek xalqi asrlar mobaynida Navro'zni ezgulik, mehr-shafqat va saxovat bayrami sifatida qadrlab keladi.

Ana shunday iliq tuyg'ular baxsh etuvchi bahor faslida qadimiy bayramlardan biri sanalgan Navro'z Sharq xalqlari o'rtasida keng nishonlanadi. Shu o'rinda, avvalo, Navro'z so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. Navro'z so'zi forscha bo'lib, "nav" – yangi, "ro'z" – kun, ya'ni "yangi kun" ma'nosini beradi. Navro'z shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (mart oyining 21-kuniga to'g'ri keladi). Eski sana hisobidagi yangi yil va bahorning boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram. Navro'z Turkiston, Sharq xalqlarining qadimiy an'anaviy yangi yil bayramidir. Shamsiy taqvim hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi kun va tunning tengligiga, ya'ni 21–22-mart kunlariga to'g'ri keladi. Navro'zni bayram sifatida nishonlash ahmoniyalar davri (mil.av. V–VI asr)dan boshlangan deb hisoblanadi. Bayramning paydo bo'lishi to'g'risida turli rivoyatlar mavjud bo'lib, Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida uni shoh Jamshid nomi bilan bog'laydi. Abu Rayhon Beruniy "Osor ul-boqiya" kitobida ma'lumot berishicha, bayram farvardinning oltinchi kuniga qadar davom etgan. Sosoniy podsholari olti kunda olti toifa xalqni qabul etganlar va tortiqlar ulashganlar. Navro'z bayrami kuni mahbuslarni ozod qilish an'anasi ham bo'lgan. Umar Hayyomning "Navro'znoma" kitobida yozilishicha, Navro'z bayrami o'tkazishning maxsus tartib-qoidasi 37 bo'lgan. Uy-joylarni tozalash, ko'kat va gullar bilan bezash, ota-ona, yaqin qarindoshlar bilan diydorlashish, marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish kabilar xalq orasida keng odat tusiga kirgan. Boshqa xalqlar singari o'zbeklar ham bu kunni qadim zamonlardan buyon yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan qarshi olganlar. Tojik va eron xalqlarida bayram dasturxoniga nomi "s" harfi bilan boshlanadigan yetti xil taom qo'yish (haftsin) odati bor. Bu bayramni nishonlash uchun

hamma bir necha kun avval tayyorgarlik ko`radi. Odatda, bir necha kun avval undirishga qo`yilgan bug`doydan ayollarimiz sumalak taomini tayyorlashadi. Erkaklar ham undirilgan bug`doy va go`shtda bir kun davomida halim taomini pishirishadi. Bundan tashqari, barra ismaloq, yalpiz kabi bahoriy ko`katlardan ko`k somsa, ko`k chuchvara kabi taniq taomlar ham tayyorlanadi. Qishdan horg`in chiqqan inson tanasiga bu kabi taomlar haqiqiy quvvat baxsh etadi. Bayram kechasi yoshlar tonggacha uxlamasdan turli ertak va hikoyalar aytib, o`yin-kulgu bilan kutib olishgan. Bayramning birinchi kuni otchopar, ko`pkari, uloq kabi sport o`yinlari o`tkazilgan. Xalq sayillarida turli dorbozlik, masxarabozlik, askiya kabi xalq tomoshalari namoyish etilgan. Bu bayram nafaqat yangi yil, balki dehqonchilikning ham boshlanish bayrami sanalgan.

Vatanimiz mustaqil bo`lgach, juda katta yutuqlarga erishdi. O`zbekiston nafaqat mustaqilligini o`zining urf-odatlari, milliy qadriyatlarini o`zligini qo`lga kiritdi. Eng boy yurt o`zining tarixiga, milliy urf-odatlariga ega bo`lgan yurt hisoblanadi va O`zbekiston ham bundan mustasno emas. Vatanimizning umumbashariy qadriyatlari va milliy urf-odatlari haqida so`z yuritar ekanmiz, eng avvalo, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni o`zida mujassam qilgan Navro`z bayrami ko`z oldimizga keladi. “Navro`z mehr-oqibat, qadriyat bayrami bo`lishi bilan birga milliyligimizni butun bo`y-basti bilan ham ko`rsatib beradi deydi”, - Respublika Ma`naviyat va ma`rifat markazi xodimi Maxfirat Zikirova. Aslini olganda, Navro`z bu – yangi kun demakdir. Navro`z bu – yangilanish, yasharish, tun va kunning tenglashishidir. Navro`z qadim asrlardan bizga meros bo`lib kelgan bayramdir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham Navro`z haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Navro`z – chinakam xalq bayrami, milliy o`zligimiz ko`zgusi, ma`naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir” [2]. Navro`z bayrami umumxalq bayrami hisoblanib, necha ming yillardan buyon keng nishonlanib kelinadi. 2010-yilda Navro`z bayrami BMT Bosh assambleyasi tomonidan Xalqaro Navro`z kuni sifatida belgilangan va YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meroslar ro`yxatiga kiritilgan. Bilamizki, mart oyidan bahor bayramlari boshlanadi, birinchi bo`lib 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami, undan so`ng o`lkamizga Navro`z o`zining o`zgacha shukuhi bilan kirib keladi. Navro`z bayramida

har bir xonadon, yoshi ulug‘ insonlar, bemor kishilar ziyorat qilinadi. Ushbu ulug‘ kunda bir-biri bilan xafalashgan insonlar bir-biri bilan yarashadi. Doshqozonlarda sumalaklar pishiriladi, ko`k somsa, halim, chuchvara, patir kabi shifobaxsh taomlar qilinadi va hamma bir-biriga ulashadi. Navro`zda uy-joylar tozalanadi, daraxtlar oqlanadi, yaxshi niyatlar qilinadi. Har yili Navro`z bayrami yurtimizda keng miqyosda nishonlanadi. Har bir shahar va qishloqlardagi mahallalarda obodonlashtirish, ko`kalamzorlashtirish va umumxalq hasharlari uyushtiriladi. Shu bilan birga hunarmanchilik ko`rgazmalari, kitob rastalari milliy buyumlar, ko`klam, ya'ni bayramona dasturxonlar tashkil etiladi. Umumxalq sayillari o`tkaziladigan joylar milliy bayramona bezatiladi. Folklor guruhlari badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san'ati vakillari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar va artistlar tashrif buyurishib, bayramda bayramona kayfiyat ulashiladi.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Navro`z O`zbekistonda ming yillik boy tarixga ega muhim milliy bayramdir. Bayram mamlakatning madaniy merosi bilan chambarchas bog'liq bo`lib, odamlarning birlashishi va o`z madaniyati va an'analari bilan bog'liqligini nishonlash uchun muhim imkoniyatdir.

ADABIYOTLAR

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom Toshkent, 1968, 255-bet
2. Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishdan lavhalar, 97-bet
3. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. 1988, 80-bet
4. Shodiyev B. Navro'z bayrami. Toshkent 2001-y.

O'ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRINING O'RGANILISHI

Fayziyeva Gulshan Hayitovna,

BuxDU, o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

g.h.fayziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada istiqlol davri adabiyoti muxammaslarining xususiyatlari o'rganilishi, istiqlol davrida muxammas janrida samarali ijod qilgan ijodkorlar va ularning ijodiy na'munalari tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: tazmin muxammaslar, tab'i xud, qofiya, ijtimoiy tuzum, obraz.

Muxammas janri haqidagi ma'lumotlarni Rashiddin Vatvot, Qays Roziy, Tabriziy, Qabul Muhammad, Atoullloh Husayniy asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Musammatlar tarkibiga kiruvchi muxammaslar haqida E.Bertels, A.Hayitmetov, R.Majidiy, O.Sharofiddinov, tojik adabiyot vakili M.Gulizoda, turkman adabiyot vakili A.Meredov kabi olimlar tadqiqotlarida ham ko'ramiz.

Muxammas musammat tarkibiga kiruvchi arab-fors she'riyati, aruz vazni orqali turkiy adabiyotga kirib kelgan lirik janr. Bizga ma'lumki, lirik janrlar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: kichik lirik janrlar va katta lirik janrlar. Kichik lirik janrlarga qit'a, fard, ruboiy, muammo kabi janrlar kirsa, katta lirik janrlarga g'azal, tarjiband, tarkiband, musammat kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, muxammaslar katta lirik janrlar sirasiga kiradi.

Adabiyot olamida lirik janrlarda mahorat ko'rsatib, uning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ijodkorlar bor. Misol uchun arab ijodkori Al-Xansa marsiyada, Rudakiy qasidada, Ibn Yamin, Anvari qit'ada, Burxoniddin Ahmad turkiy tuyuqda, Monuchehri va Qatron Tabriziylar esa musammat janrining rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Muxammas haqida Atoullloh Husayniy o'zining "Badoyyiu-s-sanoyi" asarida quyidagicha ma'lumotlarni bergan:

To'rt misrani bir qofiyada keltirib, beshinchisini o'zak qofiyada berurlar va muni muxammas derlar, andoqkim:

Gavharafshon shud bar atrof-i chaman dast-i sahob,
Vaz zumurrad sar birun zad g'uncha chun yoqut-i nob,
To tovoniy rav kunun chun lola shav jom-i sharob,
Varneh bore har shabe ro' poyi gul mastu xarob,
Bo surohiy ta sahargah dast dar og'ush kun! [1]

O'zbek adabiyotida muxammas janrining rivojini Navoiy nomi bilan izohlash mumkin. G'azal va qasidalarining ta'siri natijasida muxammas janri paydo bo'ldi. Tazmin muxammaslarning vujudga kelishi Navoiy bilan bog'liq. Navoiydan so'ng bu janrning rivojiga Turdi Farog'iyning o'rni beqiyos. U muxammasning yangi shakli hajviy muxammaslarni yaratdi. Muxammas janrini yaratish Ahmad Tabibiy an'analari asosida paydo bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'sha davrda muxammas janriga asoslangan she'riy maktublar ham paydo bo'ldi. Turdi Farog'iydan so'ng bu janr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlar sifatida Maxmur va Muqimiylarni aytish mumkin. Hajviy va yumoristik muxammaslarning yaratilishi ularning nomi bilan bog'liq. Bu janrning rivoji Ogahiy katta hissa qo'shadi. Uning "Taviz-ul oshiqin" devonida 82 ta muxammasi mavjud.

Hozirgi davr tadqiqotlariga asoslanadigan bo'lsak, musammatlarning eng keng tarqalgan shakli bu muxammaslardir. Olim Sharafiddinov o'zining tadqiqotlarida musammatlar tarkibiga kiruvchi muxammas janri haqida to'xtalib, o'z fikrlarini bildiradi. Musammatlar ichki muayyanlik, qat'iy mavjudligini, uning uch banddan o'n bandgacha bo'lgan turli formasi bo'lib, texnik jihatdan, har bir turda birinchi strofa qofiyadosh bo'lib, keyingi strofalarning so'ngi misralari birinchi band bilan qofiyadosh bo'lishi, keyingi strofalarning qolgan misralari o'zaro qofiyadosh bo'lishi shartligini ko'rsatib o'tgan [2].

Muxammasda bandlar muhim rol o'ynaydi. Har bir band o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Vazn, qofiya, ritmlar bilan birgalikda misralar ham asosiy o'rinni egallaydi. Muallif biror fikrni yuqori baytlarda bayon qilib, keyingi baytlarda shu fikrni rivojlantiradi.

Ahmad Tabibiy muxammaslardan iborat majmua yaratadi. To'rt yuzdan ortiq muxammaslar yozadi va muxammasga quyidagicha ta'rif beradi:

Muxammas yaxshiroq ash'ordur,
Tariki hammaga nomudordur...
Qo'shulg'onda chun ikki shoir so'zi,
Malohatlik o'lg'usi nuqta tuzi.

Ijodkor misra so'ngida uni go'zal maqolot deya ta'rif beradi.

Adabiyotshunos Nodira Afoqova o'zining “Jadid lirikasida musammat” risolasida muxammaslar haqida ma'lumotlar berib, jadid adabiyotida yaratilgan muxammaslar, ularning tuzilishi va badiiyatiga diqqat qaratadi.

Musammat turlari ichida muxammaslar nisbatan ko'p yaratildi. Jadid shoirlari tomonidan taxmislar asosan ishqiy, tasavvufiy, didaktik mavzudagi g'azallar asosida bitilgan bo'lib, bu holning sababi o'z-o'zidan tushunarlidir. Jadid taxmislarida ularning mualliflari yashagan zamon manzaralari ham qalamga olinadi.

Tabi' xud muxammaslarining ko'pchiligi jadid lirikasi uchun xarakterli bo'lgan mavzulardan bahs etadi. Bunday muxammaslarning ko'pchiligi sarlavhalangan. Sarlavhalar muallif poetik maqsadini ko'rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. [5]

Ushbu risolada jadid muxammaslarining o'ziga xosligi, taxmis va mustaqil muxammaslar, muxammas sarlavhalari, mavzusi haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu ma'lumotlarni izohlash uchun Sidqiy-Xondayliqiy, Kamiy, Avloniy, Hamza, Ajziy, Majidiy kabi ijodkorlarning muxammaslari tahlil etiladi.

Muallifning tahlili davomida A. Majidiyning “Xushomadgo'y va maqtanchoq mudir” hajviy muxammasi sof diologik usulda, Hamzaning bir muxammasi ham savol-javob tarzida bitilgan bo'lib, garchand Hamza buni muxammas deb nomlagan bo'lsa ham, bu ijod namunasi dostonga o'xshashi ta'kidlanadi.

Muxammas 25 band, jami 125 misradan iborat. Boshqa manbalarni solishtiradigan bo'lsak, Hamzashunos olim Laziz Qayumov ham ushbu muxammas muhabbat haqida bitilgan doston ekanligini aytadi. Bunday hajmdorlik bilan dostonga o'xshab ketadi. Balki, doston janrining rivojiga aynan shu janr sababchidir.

ADABIYOTLAR

1. Атоуллох Хусайний, Бадойтъу –с –санойиъ, Тошкент, 1981, 73-бет.
2. Sharafiddinov O. Alisher Navoiy poetikasining ba'zi bir xususiyatlari \ O'zbek tili va adabiyoti 1968, 4-son, 54-bet
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: O'zbekiston, 2002

4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati –Toshkent: Akademnashr, 2010
5. Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – T.: Fan, 2005. 9-b
6. Adashboyev T., Musurmon R. Istiqlol ilhomlari. –Toshkent,: Adabiyot va san'at nashryoti. 2001.
8. Samandar Vohidov Buxoriylar bo'stoni. –Toshkent,: Yozuvchi.1998.
7. Jamol Kamol Bosh ustina, bosh ustina -Toshkent,: Sharq . 2016

OYBEK ASARLARIDA ALISHER NAVOIY SIYMOSI TALQINI

Axmedova Shoir Ne'matovna,

BuxDU, Filologiya fanlari doktori

Mo'minova Feruza Farmonovna,

BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi

II bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, shoir va adib Oybekning Alisher Navoiy obrazi yaratilgan asarlari va ularda buyuk shoir siymosining tasviri, yozuvchining mahorati kabi masalalar yoritilgan. Unda Alisher Navoiyning turli yoshdagi tashqi qiyofasi va ichki dunyosi talqini o'zaro qiyoslab, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Oybek, Alisher Navoiy, roman, qissa, doston, bolalik, yigitlik, yoshlik Hirot, portret, obraz, asar, siymo, afsona, muhabbat, ijod, "Navoiynoma".

XX asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili, adib, shoir va adabiyotshunos olim Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'z davrida Alisher Navoiy haqida eng ko'p asar yaratgan so'z san'atkoridir. Oybekning Alisher Navoiy siymosiga hurmati juda erta – hali maktabda shoir g'azallarini o'qib yurganida boshlangan edi. Keyinchalik "Qisqacha tarjimai hol"ida: "Bolaligimdan asarlarini sevib o'qiganim o'zbek xalqining ulug' klassik shoiri Alisher Navoiy haqida asar yozishni ko'pdan beri orzu qilardim", deb yozgan edi. Oybek ham adib, ham olim sifatida Alisher Navoiy ijodiga ko'p marta murojaat qilgan edi. "Navoiy" romanini yozishdan oldin u dastlab Navoiy ijodi haqida

turkum maqolalar yozdi.1937-yilda “Navoiy” dostonini yaratdi.Dostonda Oybek Alisher Navoiy haqida shunday yozadi:

Asrlarga eltib xayolim,
Ba'zan yorqin ko'raman cholni.
Nuroni yuz, nuroni soqol,
Ko'zlarida muhabbat, malol [2].

Dostonda shoir Oybek buyuk shoir Alisher Navoiyni “nuroni yuz, nuroni soqolli chol qiyofasida tasvirlaydi. Go'zal “Unsiya”da ulug' shoir ijod bilan band. Tokchalar kitobga to'la, xitoyi kosada limmo-lim suv, oltin shamdondagi shamning yorug'ida oyoq ostiga to'shalgan gilamning gullari goyoki qonga o'xshaydi. Oybek Navoiyning asosiy fazilati deb uning mehnatkashligiga ishora qiladi, Chunki adib yashagan davr mafkurasi shuni taqozo qilar edi. Oybek uning mehnat uchun tug'ilganini,sevgi,chidam,matonat bilan ishlashi,yaratish uning uchun rohat-farog'at ekanligini ta'kidlaydi.Bu doston,Oybek ta'biricha,”Navoiy” romani uchun bir eskiz “ edi. “Guli va Navoiy” dostonini Oybek 1968-yilda yozgan.”Navoiy” romanida Alisher Navoiyning sevgi qissasi berilmagani uchun bu dostonni yozishga ehtiyoj sezgan adib unga “xalq afsonasidan” deb izoh beradi.Dostonda muhabbat yoshidagi Alisher Navoiyni shunday ta'riflaydi:

Yigit kezi – qomati nihol,
She'ri kabi ko'ngli ham zilol.
Xo'b yarashgan qop-qora miyiq,
Belidadir shohidan qiyiq.

“Guli va Navoiy” dostonidagi Navoiy obrazi- xalqparvar, mamlakat osoyishtaligi, xalq farovonligi uchun tolmas kurashchi, dono vazir, mohir davlat arbobi, lekin shaxsiy hayotda omadsiz- o'z muhabbati uchun kurashmaydigan, taqdiriga ko'ngan inson. Guli obrazi shoir xayolotining mahsuli bo'lgani uchun hayotda qanday bo'lganini bilmaymiz. Shuning uchun ham Mir Alisher Navoiy hazratlarini ayblay olmaymiz. Bu doston bizga yigit yoshidagi Alisher Navoiyning insoniy fazilatlari, ijtimoiy faoliyati va his-

tuyg'ularini oybekona mahorat bilan tasvirlagani uchun qadrlidir. “Bola Alisher” qissasida Alisher Navoiyning to'rt yoshidan olti-yetti yoshlarigacha bo'lgan voqealar qiziqarli berilgan. Bola Alisher bilan tanishamiz: “To'rt yoshlar chamasidagi Alisher kelishgan, xipcha gavdali, tuyg'un ko'zlarida teran aql ko'rinar edi. Uning boshida taqya, ustida adras to'n, oyoqlarida xiyol etik, holvani yeb turib, majlisni odob ila kuzatar edi”. Yuqorida berilgan tasvirda kichkina bolakayning tashqi qiyofasi va ichki dunyo uyg'unligini ko'ramiz. Bunda o'z “Navoiynoma”sini tugatayotgan adibning yillar va asarlar osha o'sib borgan mahoratini ko'ramiz.

Shubhasiz, Alisher Navoiyning mukammal qiyofasi Oybekning shoh asari, “Navoiynoma”sining gultoji bo'lgan “Navoiy” romanida berilgan:” “Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga silliq o'ralgan ko'rkamgina salla. Egnida odmi shohi to'n, ustida yalang qo'ng'ir movut chakmon... Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, yoshi ulug'lardek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqdari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi”. Shu o'rinda adib Navoiyning portretini tasvirlar ekan, uning tashqi qiyofasi, ko'zlari, qovoqlari, qo'llari, soqol va miyiqdaridan aslzoda oiladan ekanligiga ishora qilib, asosiy urg'uni “go'zallash tiruvchi bir horg'inlik”ka berganday bo'ladi. Chunki Oybek tasvirlagan Navoiy eng avvalo ijod bilan mashg'ul *shoirgina emas, balki el-yurt g'ami bilan yurgan arbob*. Shuning uchun ham horg'inlik uning qiyofasini nurli va ko'rkam qiladi.

Umuman olganda, Oybek o'zining “Navoiynoma”sida, xususan, “Navoiy” romanida o'zining butun iqtidori, kuch-g'ayrati va mahoratini ishga solib, adabiyot ixlosmandlariga, Navoiyni sevib o'qiydiganlarga ma'qul va maqbul Navoiy siymosini yaratganiga shubha yo'q.

ADABIYOTLAR

1. Oybek. “Navoiy”. Poman. “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2012-yil

- 2.. Oybek."Navoiy".Doston.Mukammal asarlar to'plami,3-jild,"Fan",1975.
- 3..Oybek."Guli va Navoiy". Doston.Mukammal asarlar to'plami,4-jild, "Fan", 1976.
- 4.. Oybek." Bola Alisher."Cho'lpon",T.,1995.

IQBOL MIRZO IJODIDA ERTAK JANRI STILIZATSIYASI

Farmonova Mohinur Nuriddin qizi,

BuxDU, Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

II bosqich magistranti

E-mail: m.n.farmonovam@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iqbol Mirzo she'riyatida ertak shaklida yozilgan asarlarning xalq og'zaki ijodidagi ertak janri namunalari bilan mutanosibli tahlil qilinadi. Ulardan parcha keltirib, solishtirilgan, o'xshash va farqli jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: folklor, yozma adabiyot, epik tur, ertak, janr, obraz, motiv.

Hozirgi zamonda hayotning har jabhasida kechayotgan jadal rivojlanish insonlarda ma'naviy ozuqaga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Bunda eng asosiy yordamchi, albatta, adabiyotdir. Vatanimiz mustaqillikka erishgach milliy qadriyatlarimiz va o'zbek xalqiga xos an'analarning tiklanishi, xalq og'zaki ijodiga oid asarlarga ilmiy qiziqishning ortishi sababli o'zbek adabiyotshunosligi sohasida folklor ta'siri bo'lgan yozma adabiyot namunalariga xos xususiyatlarni tadqiq etishga qiziqish kuchaydi.

Folklor – bu bebaho milliy meros. U, o'z navbatida, milliy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma adabiyot va folklor munosabati benihoya keng bo'lib, folklorga xos badiiy shakllardan, tasviriy vositalardan foydalanishning muhim tomonlari, folklorizmlarning yuzaga kelishi kabi masalalarni qamrab oladi. "Folklordan foydalanish badiiy adabiyot taraqqiyotining turli davrlarida turlicha kechganki, ularning tadrijini bosqichma-bosqich o'rganish, ijodkorlarning folklorizmlardan foydalanishdagi uslub va mahoratini maxsus tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [3]".

Tarixning turli davrlarida turli sabab va ehtiyojlar tufayli folklordan foydalanish holatlarini kuzatish mumkin. XX asrning 20-30-yillarida bu ehtiyoj xalqning erk va ozodlik uchun kurashi yanglig' namoyon bo'ldi. H.Olimjon, M.Shayxzoda, Oybek kabi ijodkorlar mustamlaka zulmiga qarshi noroziliklarini tarixiy va xalq og'zaki ijodi qahramonlari vositasida bayon qilishga, xalqni sergaklikka da'vat etishga harakat qilganlar. Jumladan, H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida zolim xonga qarshi isyon qilgan qullar obrazi, o'z erki uchun kurashgan qiz Oygul timsoli orqali mustamlaka zulmidan ozod bo'lish g'oyasi yaqqol sezilib turadi.

O'zbek xalqi mustaqillikka erishgach, adabiyotimizda erk uchun kurash mavzusi o'rniga ko'proq milliy qadriyatlarni tiklash, ilmni yana-da yuksaltirish, yurtni obod qilish, odamlarni hamjihatlikka undash, mehr-oqibat singari ijtimoiy mavzular asosiy o'rin egalladi. Mustaqillik davrida ham o'z fikrlarini o'quvchiga oson va tushunarli tarzda yetkazish maqsadida folklor an'alaridan foydalanish holatlarini ko'plab uchratish mumkin. E. Vohidov, A. Oripov, U. Azim, I.Mirzo, E. Samandar, M. Ali, Sh. Sulaymon, A.Hamro, M.Toir, G. Asqarova kabi ijodkorlar o'z she'rlarida xalq og'zaki ijodi an'alaridan unumli foydalandilar.

Xalq og'zaki ijodining epik turiga mansub ertak janri yozma adabiyotda ham mavjud. Faqat aynan xalq ertaklarining mavzu, g'oya, obraz va motivlaridan foydalanib yaratilgan she'riy ertaklar alohida hodisa hisoblanadi. Folklor asarlarini she'riy shaklga solish an'anasi o'tgan asr shoirlari ijodida nisbatan ko'p uchraydi. Bu borada ayniqsa Hamid Olimjon mahorat ko'rsatgan. Uning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" kabi she'riy ertak va ertak-dostonlari mashhur.

I.Mirzo ijodida ham folklor ertaklariga xos janriy xususiyatlar, obrazlar va ertaklardagi motivlarga murojaat ko'plab uchraydi. Xususan, "Ertak" she'rida tasvirlangan malikaning ikki yonida ikkita beshikda Hasan va Husan ismli egizak o'g'illari borligi, ular suv ostida yashashlari haqida aytiladi. Bilamizki, ertaklar xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga quriladi. Suv ostida insonning yashashi xayoliy uydirma bo'lib, malikalar ham ko'pchilik xalq ertaklaridagi an'anaviy obrazlardan biri hisoblanadi. She'rdan *billur uy, moviy uy, shaffof uy* deya ta'riflangan suv ostida

malikaning ikkala o'g'li baliqlar bilan o'ynab ovunadi. Tillo baliqlar esa malikaga bir martagina ko'zgu bo'lishni orzu qiladi, so'ngra o'limga-da rozi. Faqat:

Sohilda qo'llarini cho'zib

Erkak yolboradi

Oylab...

Yillab...

Yig'lab...[1]

Ehtimol, bu she'r shoir eshitgan qandaydir hayotiy mahzun voqea asosida yaratilgandir. E'tiborlisi, undagi obraz va tasvir usullari xalq ertaklariga xos.

Iqbol Mirzoning "Cho'pchak" she'rida Alp Er To'nga obrazi qalamga olinadi. Faqat bu ertakda xalq ertaklaridagi singari "qadim-qadim zamonda" bo'lib o'tgan voqea emas, yaqin kelajak – ertaga ro'y beradigan voqealar hikoya qilinadi:

Ertaga ust-boshin qoqib Er To'nga

Tulporiga urar egar-jabduqni.

– Biriktiray, – deydi, – yongan-u to'ngan,

Urug'dek sochilgan urug'ni![2]

Er To'nga xalqini "–O'-ho'-o'v, uxlaganing yetadi, Turuk budunim-o-vv!", deya jangga chorlaydi. Bu chorlovdan xalq qahramoni tilidan shoir o'z vatandoshlarini birlikka chorlayotgani, g'aflatda qolmaslikka undayotganini tushunish mumkin. Ushbu she'r "Yurakning shakli" to'plamida "Do'stim Isajonga aytgan cho'pchagim" deya nomlangan.

"Sevgilim" nomli she'rda ham xuddi "Cho'pchak" she'ridagi singari kelasi zamonda hikoya qilish usulidan foydalanilgan. Unda sevishgan ikki dilning bir-biriga yetishishlariga to'sqinlik qilgan g'animlar bor. Ular hatto yovuz maqsadlarini amalga oshirish uchun Qorabotirni go'rdan chiqarishga tayyor. To'siqlar, dushmanlar ko'p bo'lishiga qaramay, lirik qahramon sevgilisi uchun og'ir jangga kiradi. Mardonavor kurashgan yigit – muzaffar botir horg'in holda qilichini qinga qayta joylaydi. Chunki yovlar sichqon iniga qochadi. Oshiq yigit xalq ertaklaridagi salbiy obrazlardan yana biri – hiylagar kampir hali ham omon ekanligidan yorini ogohlantiradi:

Sevgilim,
omondir hiylagar kampir,
U meni aldaydi, avrab-aldaydi,
Qo‘l-u oyog‘imga soladi zanjir,
– Qorabotir, mana yoving, ol! [2] – deydi.

Ertak so‘ngida oshiq yigit sevgilisiga alvido aytib jon beradi. Bu o‘rinda ham xalq ertaklaridagi kabi jasur o‘g‘lonlarning janglarda emas, balki hiyla-nayranglar, xiyonatlar natijasida mag‘lubiyatga uchrashi motivi qo‘llangan. She‘rning oxirgi misrasida “Axir, bu – ertak-ku, axir, bu –xayol...” deya aytib o‘tilgan voqealar ertaklarda, xayolda bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Ertak janri folklorda muayyan janriy xususiyatlarni namoyon qiladi. Xususan, syujet uch asosiy qism: an’anaviy boshlanma (“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...”), asosiy qism – voqealar rivoji hamda tugallanma (“Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y beribdi”, “Murod-maqсадiga yetibdi” kabi)dan iborat bo‘lsa, I.Mirzo ertaklarida boshlanmalar ko‘zga tashlanmaydi. She‘r birdaniga asosiy voqealar ifodasidan boshlanib ketadi. Yuqorida qayd qilinganidek, voqealarning ro‘y berish vaqti ham folklordagidan farqli o‘laroq, kelasi zamonda berilgan misollar ko‘proq uchraydi.

Tafovutlarga qaramay, shoir ertaklari bilan xalq ertaklari o‘rtasida mutanosibliklar talaygina. Shularni inobatga olgan holda aytish mumkinki, I.Mirzo qalamiga mansub ertaklarda folklor an‘analariga xos belgilar talay.

ADABIYOTLAR

1. Iqbol Mirzo. Yurakning shakli. – Toshkent: “Kamalak”, 1993. – B.25.
2. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: “Sharq”, 2007. – B. 157.
3. Laylo Sharipova. XX asrning 70 –80-yillari o‘zbek she‘riyatida folklorizm. – Toshkent, 2011. – B.3.

OMON MUXTORNING TARIXIY ROMAN YARATISH MAHORATI

Usmonova Barno Ziyodullo qizi,

BuxDU, Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti

II bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli yozuvchi Omon Muxtorning “Xotin podshoh” romani asosida uning tarixiy roman yaratish mahoratidagi o’ziga xosliklar bilan tanishamiz. Bu romanda qadim Buxoro manzarasi va uning tarixi haqidagi tarixiy voqealar o’z aksini topgan.

Kalit so’zlar: Xotin podshoh, modern usul, Turkiston tarixi, Buxoro, roviy.

Ijodkor tomonidan yaratilgan har bir asarda– uning dunyoqarashi, o'y-kechinmalari, yashab turgan zamon va makonga xos bo'lgan sabablar o'z ta'sirini o'tkazadi. Bundan tashqari, ijodkor o'zi yashab turgan zamon bilan birga o'tmishga ham murojaat qilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, yozuvchi Omon Muxtor ijodida ham o'tmish manzarasi aks etgan asarlar ko'plab uchraydi. Bu haqida adabiyotshunos D.Quronov ijodkor asarlarini quyidagicha baholaydi: "Omon Muxtor ijodiy izlanishlaridagi eng maqbul jihat shuki, uning modern adabiyotga xos usul va qarashni o'zlashtirishda yuksak darajadagi ijodiylik kuzatiladi. Xususan, adib milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik usullarini asos qilib oladida, ularni modern usullar bilan boyitadi, natijada ular milliy adabiy zaminning o'zidan o'sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi...[1]" Yozuvchining "Xotin podshoh" romanini yuqoridagi fikrlarga dalil sifatida keltirish mumkin. Romanda tarixchilar yozib qoldirilgan ma'lumotlar, muallifi aniq bo'lgan she'riy parchalar, tarixiy faktlar, rivoyatlar, hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Ijodkor asar so'z boshisida: Asar ustida ishlayotib, eski xalq rivoyatlari va qo'shiqlari, Narshaxiy, Vamberi kitoblari, ustod Sadridin Ayniyning tarixiy maqolalari, akademik Ibrohim Mo'minovning ayrim kuzatuvlarini ham o'rganishga tog'ri keldi. Men ulardan imkon darajasida foydalandim", – deb aytib o'tadi.

Romanda Turkiston tarixi va uning manzarasi, Buxoro qishloqlarining qanday yuzaga kelganligi, arablarning kirib kelishi va ular bilan birga arab madaniyati, islom dinining butun o'lka bo'ylab yoyilishi, madrasalar ochilishi, ilm-fanning yuksalishi kabilar tasvirlangan. Asar bosh qahramoni - Xotin podshoh. Arablar ayollarning nomini

aytmay, "Xotin podshoh" deb atashgan. Xotin podshohning asl ismi– Oynur bo'lgan. Asarda tasvirlanganidek, "o'n olti – o'n yetti yoshdagi xivichdek nozik, yoshlik beg'uborligi, chiroyiga to'lg'in qizaloq-kelinchak. Oynurning turmush o'rtog'i– Bidun Buxorxudot erta vafot etadi., qo'lida hali emizikli bolasi bilan taxtga o'tirib, mamalakatni boshqaradi. U mamlakatni odilona siyosat bilan boshqaradi. Uning olib borgan siyosatidan xalq doim minnaddor bo'ladi. U hayotda ikki narsa: Adolat va intizom muhim, deb bilar, bu ikki narsadan odamlar imkon qadar baxtga erishadilar, deb tushunar edi". Bu so'zlar uning hayotdagi shioriga aylangan edi. Unda qat'iyat, matonat, jasurlik, mehnatsevarlik, boshqaruv qobiliyati bor edi. Fikrimizga dalil sifatida asardan quyidagi parchani keltiramiz, "Oynur bolalikdan erkin, erka o'sgan, bir qancha xizmatkorlari va kadivar (qul) lari bo'lganligiga qaramay, dehqonchilik, mol-holga qarash, xo'jalik yuritishni ko'rgan-bilgan... Kenja qiz aksar o'g'il bola kabi otasi yonida, ota qumga (sahroga) chiqadimi, to'qayzorni aylanadimi, doimo ergashadi. Na bo'ri, na ilondan qo'rqadi, o'ktam edi". U yoshligidan baliq tutish, nayza sanchish va qilich chopish mashqlari bilan ham shug'ullangan. Mamlakatni boshqarish san'ati unda yoshligidan shakllana borgan. U arablar bosqiniga qadar mamlakatda urush va talonchiliklarga duch kelmagan edi. Faqat Bidun Buxorxudotdan qolgan joylarni obod qilib, ko'shklar qurish, yo'llar ochish va boshqa ishlar bilan shug'ullanib yashar edi. Arablar bosqini uni ozgina sarosimaga soladi. U garchi jangga tayyor bo'lsada qon to'kilishi, vayronagarchilikning oldini olish uchun arab sarkardasiga sulh taklif etadi. Xalifa noibi Said ibn Usmon sulhga rozi lekin, Buxoro malikasini o'z qarorgohiga kelishini aytadi. Uchrashuv boshida Usmon unga qo'pol muomala qiladi va so'ng malikaning shirali ovozi, uning latofati, uni o'ziga maftun eta boshlaydi. Ikki hukmdorda bir-birlariga nisbatan ili, sof sevgi uyg'onadi. Lekin, ularning sevgisi ilojsiz va istiqbolsiz edi. Biri-bosqinchi, biri– hukmdor. Ular birga bo'lishlari aqlga sig'maydi. Voqealar rivoji davomida Usmon (bosqinchiligiga borib) malikadan 80 nafar zodagonlardan berishini va ularni Samarqandga qadar garov tariqasida olib borishi va ozod qilishini aytadi. Lekin, va'dasiga vafo qilmay ularni qul qilmoqchi bo'ladi. Buxorolik asirlar Usmonning nohaqligiga qarshi birlashib undan qasos olishga ahd

qilishadi. Ular bir tunda avval yolg'onchi Usmonni, so'ng o'zlarini halok etadilar. Qilich ko'targan, qilichdan halok bo'ladi, deganlaridek, Usmon Buxoro malikasiga uning xalqiga nohaqlik qildi va o'zi halok bo'ldi.

Ham sevgisidan, ham 80nafar qardoshidan ayrilgan Xotin podshoh iztiroblar girdobida taxtni ulg'ayib qolgan o'g'li Tag'shodaga topshiradi. O'g'li o'zi o'ylagandek hukmdor bo'lib yetishmaydi. Yurtga Usmon, undan keyin Qutayba ibn Muslim kirib keladi. Tag'shoda Qutayba ibn Muslimga yurtni topshiradi. Hatto uning sharafiga birinchi farzandining nomini uning sharafiga Qutayba deb qo'yadi. Bundan iztirobga tushgan Xotin podshoh Qutayba bilan muzokara olib bormoqchi bo'ladi. Shuunday kunlarda u har xil tushlar ko'radi. Qutayba ham shunga o'xshash tushlar ko'radi. So'ng Qutayba malika bilan muzokaralar olib borib, sulh tuzadi. Qutayba malikaning tadbirli hukmdor ekanligiga amin bo'ladi. Muzokaralardan so'ng, Xotin podshoh xobxonasiga uyquga kirib, qaytib uyg'onmaydi. U juma kuni avval "zardusht ota" keyin "Olloh" degan cha jon beradi.

Asarda roviy obrazi ham bor. U Xotin podshoh bilan uchrashmaydi. Lekin, u xalq tilidan bosh qahramonni baholash uchun asarga kiritilgan. Asar roviy ishtiroq etgan epizod nihoya topgan. Odamlar roviydan "Xotin podshohdan nima qoldi?"- deb so'raydilar. u esa Buxoro aholisiga, Buxoroga, mehr qoldi– deb javob beradi. Roman roviyning quyidagi so'zlari bilan yakunlangan: "Xudoyi taolo" yurtimizni ofat va balolardan saqlasin!" Mana shu so'zlar asarning xulosa so'zlaridir.

Roman o'tmishda yurtimizning mustaqilligi, kelajagi uchun kurashgan zotlar haqida. Asar– vatanparlik ruhida yozilgan. Bu roman orqali o'tmishda diyorumizning naqadar ulug'vorlik kasb etganiga yana bir bor amin bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Normatov U.IJod sehri.-T.: "Sharq", 2010
2. Yo'ldoshev Q. Roman va hozirgi o'zbek romanchiligi. "Sharq yulduzi", 2011, 4-son.
3. Muxtor, O. (2010). Xotin podshoh Romanlar. Toshkent: Sharq

**ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA SHAXS TAVSIFI VA
SIFATLANISHI UCHUN ISHLATILGAN BADIY TASVIR VOSITALARI**

M.T.Saypidinova,

BuxDU adabiyotshunoslik

(o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistranti

m.t.saypidinovna@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi, shoir Ulug'bek Hamdamning she'rlarida shaxs tasviri, shaxs ta'rifida qo'llangan badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlar ijodkor badiiy niyatini ochishga xizmat qilishi tahlil etiladi.

Kalit so'z. Badiiy san'atlar, shaxs, obraz, tashbih, tazod, istiora, takror, jonlantirish.

Badiiy asardagi poetik maqsadni ro'yobga chiqarishda takror, jonlantirish, bo'rttirib ko'rsatish, kuchaytirish, detallashtirish va boshqa ko'plab badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Zero, badiiylik so'z san'atining asosiy qonuniyatlardandir. Chin shoir, yozuvchilar doimo badiiy asar yaratishda ushbu qonuniyat o'laroq yondashadi. Badiiy asarning yuqori saviyali bo'lishida badiiy tasvir vositalarining o'rni beqiyos. Bilamizki, adabiyot nazariyasi mumtoz klassik davrdan boshlab uchta mustaqil sohaga bo'lingan. Bulardan biri **ilmi bade'** ("bade" arabcha yangi, ajoyib, nodir demakdir) - fikrlarni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlar (uslublar, vositalar) ning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi. [1] Bundan ko'ramizki, badiiy tasvir vositalari, ularning nazariy asoslarini o'rganish fanda alohida soha sifatida e'tirof etiladi.

Fitrat o'zining adabiyot nazariyasiga oid asari "Adabiyot qoidalari" da badiiy tasvir vositalariga alohida to'xtaladi va bunga uslubning xususiy hollari deya ta'rif beradi. "Adabiy she'riy uslublarda ishlatilgan, uslubni beztishga xizmat qilg'an hollarg'a uslubning xususiy hollari deymiz", [2] deydi va badiiy san'atlar, ularning nazariyasini misollar bilan dalillaydi. Bundan ko'ramizki, badiiy asarni ayniqsa she'riy asarni badiyatini yuksaltirishda badiiy tasvir vositalarining o'rni beqiyos. XXI asrning

yetuk shoiri Ulug'bek Hamdam o'z she'rlarida badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan:

*Iliq bag'ringda ardoqlab,
Yorug' umidlar ila dunyoga keltirding.
Oq yuvding,
Oq tarading,
Oppoq yo'lga yo'lga kuzatarkan,
Oydin tilagingni poyonoz aylab
Yam-yashil poyimga to'shading. [3]*

Yuqorida ko'rgan “Onamga” she'ridan olingan ushbu misralar ona shaxsiga bag'ishlangan bo'lib unda “yorug' umidlar” metafora usulidan foydalanib tashbeh san'atini yuzaga keltirgan. Tashbeh, Tashbih deb nomlanuvchi bu badiiy san'atga Yoqubjon Is'hoquv quyidagicha ta'rif beradi: “Tashbih – o'xshatish, ma'naviy san'atlar ichida eng faollaridan biri bo'lib, uning mohiyati so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki vazifa) nuqtayi nazaridan qiyoslashdan iborat. O'xshatishdan maqsad esa tasvir obyekti bo'lgan jism yoki hodisani yohud ularning biror xususiyatini yorqinroq tasvirlash va chuqurroq ochib berishdir.” [5] Bu o'rinlarda hodisani ifoda etib, ona farzandini yaxshi niyatlar, ezgu tilaklar bilan dunyoga keltirganini izohlaydi. Ushbu tasvir vositasi she'ning badiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Misralardagi so'z boshida bir xil “o” unli tovushi alliteratsiya, ya'ni unlilar takrori orqali tavze' badiiy san'ati yuzaga keltiradi. Tavze' – (arabcha, tarqatmoq, taqsim qilmoq) nazm yoki nasrda ohangdoshlikni yuzaga keltirish uchun imkon beradigan san'at. [5] Yuqorida “Oq yuvdin, Oq tarading, Oppoq yo'lga kuzatarkan” misralarida tavze' san'ati misralar ohangdorligini oshirish qolaversa, onaning shaxsiyatini ochishga hamma yaxshiliklar ona tomonidan farzandiga istalishi aks etadi.

Mazkur she'ning davomida:

...Boqdimu

Ko'zlarim yana senga tushdi,

Eshityapsanmi, senga!

Sen ... o'sha joyda eding,

Meni kuzatgan,

Menga oq yo'l tilagan,

Oppoq yuragingni yo'limga to'shagan

Qadim go'shada turarding hanuz...[1]

Bu o'rinda "ko'zim tushdi" – ko'rib qoldim, boqdim – ko'zim tushdi sinonimlari takror san'atinini yuzaga keltiryapti. Takrorning turlari ko'p, lekin shu kungacha sinonimlar takrori ko'rsatilmagan. O'ylaymizki, jamiyatimizdagi rivojlanish, yangiliklar bo'lgani kabi adabiyotimiz ham taraqqiy etib boraveradi. Takrorning an'anaviy turlari kabi bu o'rinda sinonimik takror ham misralar ohangdorligi va tasirchanligini oshiradi. Misralardagi "oppoq yurak" metoforik ko'rinishda ifoda etiladi. Yurak somatizmi *qora yurak, yorug' yurak, tor yurak, keng yurak* tarzda ifoda etiladi. Bu misralarda yurakka nisbatan ishlatilgan sifatlar "pok qalb" ma'nosida ifoda etilmoqda.

Ushbu she'rning yana boshqa baytida:

Sochlaring esa oppoq,

Xuddi yuragingdek oppoq edi ular -

Yo'l yurib momataloq bo'lgan oyoqlarimni,

Tirikchilik g'ubori qo'ngan yong'oqlarimni,

Tiriklik ishq qon qilgan yuraklarini

*Artib olish uchun **boshingda** tutib turgan sochiq edi ular!..*

Soch, oyoq, yurak, yonoq, bosh ta'na a'zolari tanosub badiiy san'atini yuzaga keltiradi. Tanosub – qo'llanish doirasi nihoyatda keng bo'lgan va bir qator she'riy san'atlar bilan uzviy bog'liq ma'naviy san'at [5]. Yuqoridagi misrada ham ko'ramizki, baytda bir-biri bilan mazmunan aloqador bo'lgan somatik birliklar jamlanib, ta'riflanayotgan obrazning shaxsiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qilgan. Yana boshqa baytda:

Men-chi?

Men ketdim ularni tashlab –

Olis-olislarga,

O'zga manzillarga,

O'zga ko'zlarni ko'zlab ketdim men,

Sening ko'zlarini ellik yil o'zga ko'zlardan izladim

Mazkur misralarda *ko'zlar*, *ko'zlab* so'zlari tajnis san'atini yuzaga keltiradi. Tajnis – asosdosh so'zlardan tashkil topib, jinsdosh degan ma'noni anglatadi. Ushbu o'rinda tajnis san'atini nozik so'z o'yini bilan birga misraning ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shoirning “Ko'zlarimning oqi sensan” she'ri lirik qahramon tilidan, suyuqli shaxsiga dil izhori tarzida yozilgan:

Ko'zlarimning oqi sensan, qarosi – sen,

Yuragimni hech bitmagan yarosi – sen.

Yulduzim – sen, kunduzim – sen, oy-tunim – sen,

Yo'q, alarning a'losi-yu sarosi – sen! [1]

Ushbu baytda *oq*, *qora* – tazodni, *yulduz*, *kunduz*, *oy*, *tun* – tanosub badiiy san'atlarini yuzaga keltiradi. Shuningdek, sen so'zining takrori misralar ta'sirchangini oshirib, uni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilgan (boshqa emas aynan sen). She'rning ikkinchi bandi birinchi misrasida lirik qahramon yorga “*Ey, gulbadan! Sendin ortiq ma'ni bormu*” deya istiora badiiy san'atidan foydalanadi. Istiora – arabcha, “oriyatga olish” – nozik ma'naviy san'atlardan biri bo'lib, so'z yoki iboralar asl ma'nosida emas, balki boshqa ma'noda ishlatiladi va so'zlarning ko'chma ma'nosi tashbihiy bog'lanish asosida yaratiladi. Zotan, istiora yopiq tashbih asosida yuzaga keladi. [5] Ushbu o'rinda ham ko'rishimiz mumkinki, “ey, gulbadan!” undalmasi bilan murojaat qilgan lirik qahramon yoqiq tashbihdan foydalanish orqali yorni nazarda tutadi.

Tazod badiiy san'ati zid ma'noli so'zlardan tashkil topuvchi eng ommabop san'at hisoblanadi. Shu kungacha xoh o'g'zaki adabiyot bo'lsin, xoh yozma adabiyotda juda ko'p o'rinlarda bu san'atdan foydalaniladi. Yozma adabiyotda esa birorta ham shoir yo'qki tazod badiiy san'atga murojaat qilmasa. Davrimizning eng serqirra ijodkori

Ulug'bek Hamdam she'riy asarlarida ham ushbu badiiy san'atdan juda ko'p o'rinlarda foydalanilgan. Masalan, “Sensiz” she'rida

*Do'stim edi dunyo sen bilan,
Begonaga aylandi sensiz.
Sen-la obod bo'lgan gul ko'nghim
Vayronaga aylandi sensiz. [1]*

Ko'ramizki bu o'rinda “do'st”, “begona”; “obod”, “vayrona” so'zlari bir- biriga qarama-qarshi so'zlar bo'lib, tazod san'atini yuzaga keltiradi va bundan foydalanish orali shoir o'z fikrlarini o'quvchi ko'z oldida aniq tasavvur qilishiga erishadi. Bunday misralarni shoir ijodida ko'p ko'rishimiz mumkin. Ispan yozuvchisi M. Servantesning “Don Kixot” asarining bosh qahramoni, xayolparast ritsar Don Kixotni o'ziga do'st deb biluvchi she'ri “Do'stim Don Kixot” she'rida ham tazod badiiy san'atidan foydalanadi:

*Bir yonda otam bor,
Bir yonda bolam,
Ortda o'tmish turar,
Oldda kelajak...
Don Kixotga o'xshab tug'ildim-ku man,
Don Kixotga o'xshab o'lsam kerak...[1]*

“Tug'ilish-o'lish”, “o'tmish-kelajak” so'zlari misralarda tazod san'atini yuzaga keltirish orqali ijodkor o'zining tabiattan xayolparast, tug'ma iste'tod bilan tug'ilganini uni o'zgartirib bo'lmasligini ifoda etadi.

*Faqat mening otim
Rosinant emas,
She'riyat atalgan shonga egadir.
Qilichim – bir qalam,
Aslo po'latmas,
Ko'nghim esa yolg'iz
Dulsineyamdir...[1]*

Bu misralarda otni she'riyatga, qilichni qalamga, ko'ngilni sevikli yorga o'xshatish oraqali tashbih san'atidan foydalanmoqda. Shoir oddiy odamlar shaxsini ta'rif etar ekan, ularning soddaligi-yu tantiligini ifoda etadi.

Sotsializm degan

Bir kambag'alning

Bog'ichsiz ishtoni tushdi-yu ketdi.

Feodalni yiqqan

Kapitalizm

Sho'rlik bechorani yamlamay yutdi. [1]

Misralardagi sotsializm, feodalizm, kapitalizm kabi davrlar insoniyat boshidan o'tgani hammamizga ma'lum. Bu o'rinda jonlantirish orqali tashxis san'atini yuzaga keltiradi. Tashxis – hayvonot va nabotot jonsiz tabiat olamidagi ashyolarga inson uchun xos bo'lgan xususiyatlarni (kechinma, his-tuyg'u, xatti-harakat) baxsh etib tasvirlashdan iborat.⁵⁴ Keltirilgan misralarda insonlarga xos xatti-harakatlar davrlar tariqasida ifoda itilyapti. Bu orqali hamma davrlarda ham oddiy shaxslarni turmushida qiyinchiliklar bo'lganini aks ettiradi.

Ulug'bek Hamdamning "Sevgi nima?" she'ri Muhammad Yusufning "Qora Quyosh" dostonidan olingan qamoqdagi she'rning nidosi bilan boshlanuvchi she'ridan olingan "Sevgi nima ey odam?" misrasini epigraf qilib olish bilan birga xuddi shu misra bilan boshlaydi. Har ikkila she'rda ohang bir, bog'inlar miqdori bir. Muhammad Yusuf odamga nido qilish orqali aybsiz aybdor bo'lgan bir shoirning o'y-fikrlarini qalamga olgan bo'lsa, Ulug'bek Hamdam *ey odam, ey olim, ey zamondosh, ey qalamqosh*(bu o'rinda istiora) *ey oshiq, ey oqil, ey g'ofil* deya turli xil shaxslarga murojaat qiladi. Ushbu she'rda Nido badiiy san'atidan keng foydalanganini, bu orqali shoir o'z qalbidagi tuyg'ulari, his-hayajoni juda kuchli ekanini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda shoir ko'plab she'rlarida shaxs tasnifi uchun ko'plab badiiy san'atlardan o'rinni, kutilmagan tarzda foydalanadi. Ifoda etilgan badiiy san'atlar shaxs qiyofasi-yu, xarakterini ochishga, yortishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Hamdamov Ulug'bek. Eski dunyo va yangi men. -T.: Yangi asr avlodi, 2018.- 96-bet.
2. Hamdamov U.A. XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha fan doktori (DCC) diss. avtoref. – T., 2017.
3. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – T.: Adib, 2012. – 304 b.
4. Hamdamov U. Atirgul. – Toshkent: Sano-standart, 2005. – 224 b.
5. Yoqubjon Is'hoqov. "O'zbekiston" NMUI – 2014.

“GO'R O'G'LI YOXUD HAYOT SUVI” ROMANINING QAHRAMONI N. NING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulzahro Hamroqulova,

BuxDU, Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

II bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada — Go'r o'g'li romani qahramonlarining xarakter xususiyatlari ochib berilib, asardagi vodealarni rivoji va o'sha davrdagi insonning botiniy quvvatini so'rishga asoslangan tuzum haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Baxt, inson qadri, rahbar, mustabid tuzum, qoloqlik.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ilmiy tadqiqot, ma'rifat va ma'naviyat sohalarida yuz berayotgan o'zgarish hamda yangilanishlar ma'naviyatimizning ajralmas qismi hisoblangan adabiyotimiz rivojiga, uning kelajagiga behad samarali hamda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tafakkur eskicha qarash va yondashuvlardan xalos bo'lib borayotgan bir davrda ilm-fanning barcha sohaları qatori adabiyotshunoslikning ham muhim nazariy masalalarini har tomonlama teran tadqiq etish borasida keng imkoniyatlar ochilmoqda. Sobiq sho'ro davrida unutilgan yoxud qoralanib, kamsitib kelingan, hatto taqiqlab qo'yilgan milliy qadriyatlarimiz aks ettirilgan adabiy asarlar o'zining munosib bahosini olib, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanmoqda. “Har bir odam yoshi, kasb-koridan qat'i nazar, olamni bilishni istaydi va undagi bu intilish so'nggi nafasigacha davom etadi. Adabiyot va san'at esa kishilarning olamni idrok

etishi, hayot hodisalarini anglashiga yaqindan ko'maklashadi. Bu jihatdan hech bir fan san'at va adabiyot bilan raqobat qilolmaydi. Barcha fanlar birlashganida ham odamlarga hayot murakkabliklari, inson dunyosi jumboqlari to'g'risida adabiyotchalik tasavvur berolmaydi".

Bizning nazarimizda, ayniqsa, XX asr adabiyoti boshqa davr adabiyotlariga qaraganda, ijodkorlarining ko'pligi, mavzularining kengligi bilan alohida ajralib turadi. Yozuvchilar ijodidagi bir xil xususiyatlarning adabiyotdagi umumlashgan ko'rinishi esa adabiyotdagi uslublar yaqinligini, birligini va rang-barangligini hosil qiladi. Kitobxon biron asarni mutolaa qilishi davomida uning qaysi ijodkor qalamiga mansub ekanligini payqaydi. Masalan, Nazar Eshonqul qalban ruhan folklorga, qadimiy eposlarga, jumladan, "Go'ro'g'li" dostonlariga ehtiromi baland yozuvchi hisoblanadi. Uning "Go'r o'g'li yohud hayot suvi" romani uslubiy jihatdan o'ziga xos epos, mifologik talqinning psixologik ruhiy, ijtimoiy-ma'naviy pafos bilan yo'g'rilgan asarlaridan biridir.

Odatda Go'ro'g'li obrazi bilan bog'liq asarlarda shunday buyuk xalq qahramonining sarguzashtlari, hayotiy kechinmalari, ayrim syujet yo'nalishlari xususida to'xtalib o'tiladi. Nazar Eshonqulning mazkur asarida bunday uslub yetakchilik qilmaydi, hattoki, asosiy matnning biron joyida "Go'r o'g'li" nomi ham, u bilan bog'liq voqealar ham bayon etilmagan.

To'g'ri, adibning "Go'r o'g'li yoxud hayot suvi" romanida aynan, qaysi mif, asotir, yoki epos namunasidan misol keltirilganligi yaqqol namoyon bo'lmaydi, ammo uning san'atkorligi "Go'ro'g'li" dostonida ifodalangan erk, hurlik, erkin inson orzusi, zulm, bosqin, xiyonat, inson qadrini toptash kabi zo'ravon g'oyalardan, badiiy namunalardan mohiyatan foydalanganligi, ularni bugungi davr, anig'i, sho'ro mustabid tuzumiga mazmunan yangi badiiy shaklda tadbiq qilinganligida aks etadi. Ushbu roman yaralishida yozuvchi qadimgi yapon folkloridan tortib, bugungi ilg'or Yevropa adabiyoti rivojigacha bo'lgan davrdagi mifologiya hamda yozma adabiyot munosabatlarigacha bo'lgan tajribalariga suyanganini anglash mumkin.

"Ijodkor mavzuni muayyan maqsad bilan tanlaydi va hayotning muayyan haqiqatlarini ochib beradi. Albatta, barcha asarlarda ham ijodkorning maqsad-muddaosi

ochiq-oshkora ko'rinib turmaydi. Bunday bo'lishi shart ham emas. Ijodkorning hayot hodisalarini qay darajada ko'rsatishi, hodisaning qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor qilishining o'ziyoq uning maqsad-niyatini bildirib turadi. Yozuvchi voqelikni xolis turib gavdalantirganida ham undagi nimanidir tasdiqlaydi, nimanidir inkor etadi”.

1990-yillarning eng jirkanch, insonning botiniy quvvatini so'rish, insoniylik sha'ni va g'ururini xo'rlash va haqoratlash evaziga yashagan mustabid tuzumning badbo'y hidlari haqida so'z yuritilgan ushbu roman katta bir tashkilotning oddiy bir xodimi N.ning idora rahbarining chorloviga binoan uning qabuliga kirish arafasidagi ruhiy holatini psixologik tasviri bilan boshlanadi.

Inson uchun eng muhim narsa boshliqning nazariga tushish bo'lgan, hattoki, 15 yildan buyon ishlab, rahbarning xonasiga bir marotaba kirmagan ishchilar tasvirlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, asarda yasama bo'rttirish orqali boshliqqa bo'lgan qo'rquv, uning qabuliga kirish nechog'lik sharaflilik vazifa ekanligiga urg'u beriladi.

Muallif asarda inson, uning hayotdagi o'rni, o'z taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat, haqiqat hamda uning tantanasi haqidagi qarashlarini turli tabiatli shaxslarning qismati misolida, keskin va qaltis burilishlarga boy, shiddatli voqealar asosida ifodalashga intilgan. Yozuvchi romanda ko'proq inson hayoti ma'nosini anglatmoqchi bo'lgan faylasuf sifatida ko'rinadi. Asarda yozuvchi bu ko'hna dunyoning chigalligini, tushunarsizligini, rejalarga bo'yin bermasligidan paydo bo'lgan hayratlarini aks ettiradi. Rus adibi L.Tolstoy muallifning nuqtayi nazari ya'ni, tasvirlanayotgan voqelikka nisbatan o'z munosabati muhimligini quyidagicha izohlaydi: “badiiy asarning butunligi faqat g'oyaning birligi, qatnashuvchi shaxslarning ishlanganligi kabilardangina iborat emas, balki avtorning butun asarga singdirib yuborgan voqelikka nisbatan o'z munosabatining ravshanligi va aniqligidan iboratdir”.

Demak, muallif asar mohiyatiga salbiy ta'sir etib qo'yimaslik uchun voqelikka o'rinli yoki o'rinsiz aralashaverishi ham mumkin emas. Shu jihatdan qaralganda, ro'y berayotgan voqea-hodisalar qahramonlar qarashlari orqali ifodalangan o'rinlarda muallif qahramon qalbiga singib kirib, o'z nuqtayi nazarini qahramon nigohi bilan ko'rish va ifodalashga intilgan. Qolaversa, o'tgan asrning 1980 – 1990-yillarida o'zbek

adabiyotida personaj nuqtayi nazari ilgari surilgan asarlarning soni ko'payganini ham e'tirof etishimiz o'rinli bo'ladi.

Romanda insonlar faqat ish uchun yashashi hamda boshliqni chizgan chizig'idan chiqmaydigan xodimlar bo'lishi lozimligi, ularning hech qanday shaxsiy hayoti muhim bo'lmasligi kerakligi haqidagi tushunchalarning mavjud bo'lganligi ilgari suriladi. Insonlar qo'rqitish orqali nazoratda ushlab turilganigani aytiladi. Barchasi nazoratda, xalq o'z hayotidan xursand va hech kim bundan qochib qutula olmasligiga ishontiriladi. Laqma xalq ham bizning qismatimiz shu ekan deb ko'nib yashab kelganligi bayon etilgan.

Asarning bosh qahramoni N. hayotda og'ir bosiq o'zini ustida ko'p ishlaydigan, o'zini ishini juda yaxshi ko'radigan inson sifatida tasvirlangan. U o'zining tirikligini qancha urinsa ham isbotlay olmaydi. U bu yo'lda juda ko'p voqealarni guvohi bo'ladi. N. juda ko'p sarsongarchiliklar, odamni kulgisini qistatadigan holatlarni boshidan o'tkazgan. Asarda shunchalik chalkashlik, tushunarsizlik, aslida, nima qilayotganini o'zlari ham yaxshi bilmaydigan ishlar bilan band odam ishtirok etgan. Ular uchun ish juda muhim hisoblanadi.

Muallif N. ning qanchalar dilkash insonligini bir necha jummalarda bayon etib o'tadi. U o'zidan ko'ra baxtsiz bo'lgan hali o'ttizga ham kirmagan juvonne baxtli bo'lishga haqqi borligini his qilgan holda uni baxtli qilish uchun qo'lidan kelganicha harakat qiladi. Havo aslida yaxshi obrazda tasvirlanmasa ham N. uni bu qo'shtirnoq ichidagi yomon hayotdan olib ketmoqchi ekanligini, bu hayotni eslatadigan barcha narsadan olib ketmoqchiligini aytadi. Bu ishlar orqali u bir insonga yangi hayot berishga urinadi. Roman qahramoni N. taqdiri orqali mavjud muhit tug'dirgan fojidan chiqib ketish yo'llarini izlaydi. Hayotiy jarayondan uzulib qolgan N. birdaniga harakat hamda fikrdan to'xtamaydi, biroq u bora-bora insoniy ro'shnolikdan darak bo'lmagan, bu diqqinapas, tuzsiz va fayzsiz hayotdan beziydi. Tirik odamni go'rga tiqqan jamiyatga qasdma-qasd yashashda biror ma'no ko'rmaydi.

Asar davomida mustabid tuzumning kirdikorlari, insonni xo'rlab, masxara qilishdan boshqa narsaga yaramaydigan tuturuqsiz ishlari, ortiqcha yugur-yugur,

buyruqbozliklar, har qanday holatlarda ham boshliqning gapi yozilmagan qonun bo'lganligi, o'sha paytlarda, inson qadri umuman ahamiyatsiz ekanligi xususida so'z yuritiladi. Hattoki, ishlar to'xtab qolmasligi uchun vafot etgan odamning hali janozasi bo'lmay turib, o'rniga yangi ishchi olingani esa o'quvchini yanada hayratlantiradi yoki g'azablantiradi. N. tirik bo'lsada, uning janozasiga katta tayyorgarlik ko'riladi. Ammo N. ushbu janozani to'xtatib bo'lmasligini angelaydi, ya'ni unga tushuntirib qo'yishadi. O'zining janozasiga o'zi ham ishtirok etib, unga nisbatan juda ta'sirli so'zlar aytilganini eshitadi. Hattoki, vazirning o'zi ham janozada qatnashadi u ham uzundan uzun so'zlar aytib "marhum"ning ruhini shod etmoqchi bo'ladi. Biror marta ko'rib gaplashmagan inson xotirasiga juda ko'p iliq gaplarni aytadi. Bularni hammasini eshitib turgan N. shunchalar muhim inson ekanligi haqida o'ylab qoladi. Bu gaplarning, ishlarning barchasi shunchaki qog'ozbozlik, maynavozchilik, soxtalikdan o'zgasi emas edi. Ya'na shuni aytish joizki, rahbari N. ning tirikligini bilsa ham hech narsa qilmaydi, shunchaki vazirga yomon ko'rinmaslik uchun hattoki, marosimni buzmasligi uchun N.ni qabristondan chiqarib yuboradi. N.ning o'zi ham shuncha odamni qabristonga borishdan mahrum qilishni o'ylab hijolat tortadi.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, N. ni K. ning o'rniga adashib chaqirib yuborilganligi ma'lum bo'lganida "K. mi N. nima farqi bor hammasi bir xil ishchi, ishga nisbatan hammaning fikri bir xil" deya insonlar o'rtasidagi ijtimoiy ongsizlikka ishora qilinmoqda va bu orqali inson qadrini hech qanday ahamiyati yo'qligi nazarda tutilmoqda. Bundan ham ko'rinib turibdiki, yozuvchi so'zni san'at darajasiga olib chiqqan holda qahramonlar orqali insonni ezadigan tuzum juda avjiga chiqqan muhitni tasvirlagan. O'ziga xos uslubi va badiiy mahorati bilan qahramolarning har bir harakatidan yangilik, badiiy yuksaklik axtargan va ana shu yuksaklikni ijod o'zagi deb bilgan.

Demak, yozuvchi o'z qalbini og'ritgan, xalqimizning og'riqli nuqtalari xususida mushohada yuritgan va buni mahorat bilan uddalagan. Hayotni badiiy yorqin tasvirlash, betakror obrazlar yaratish, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi poetik kashfiyotlar bilan boyitishga muvaffaq bo'lgan. Muallif tasvirlayotgan voqea-hodisalarga o'z fikrini

bildirib yoki asarini shunchaki bayon qilib emas, balki kitobxonni fikrlashga undagan. “Demak, avtorning tasvirlanayotgan voqea va qahramonlarga loqaydligi loqaydlik, betaraflik emas, balki, o‘quvchining fikrini aktivlashtiruvchi, qalb zarbini harakatga keltiruvchi vositadir”. Shu orqali ham muallif, ham kitobxon nuqtai nazari shakllanib boradi. Yozuvchi xolis hikoyachi vazifasini bajargan hamda asar ta’sirchanligini oshirishga erishgan.

Darvoqe, shu o‘rinda aytish lozimki, romanda xronikal va konsentrik syujet turlarini qorishiq holatda uchratish mumkin. Unda xronikal syujetga xos qahramon taqdirini davriy izchillikda, uning xarakterini rivojlanishda ko‘rsatish, asosiy syujet bilan yondosh holda yordamchi syujet chiziqlarini ham yurgizish, juda katta hayot materialini qamrab olish imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Syujet voqealari bosqichma-bosqich rivojlantirib borilgan. Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi hisoblangan konflikt benihoya kuchaytirilgan. Yechimda konfliktli holat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o‘zining badiiy yechimini topgan.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, har bir xalqning ma’naviy yuksalishida o‘sha xalqning is’tedodli ijodkorlari yaratgan madaniy meros ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Barcha mohir so‘z san’atkorlari kabi Nazar Eshonqulning ham adabiy merosi xalqimiz ma’naviy tafakkurini komillikka yetaklashga xizmat qiladi. U betakror asarlari bilan xalqimizning ma’naviy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan siymodir.

ADABIYOTLAR

1. Nazar Eshonqulov Go'ro'g'li romani.
2. J. Oruellning 1984 romani
3. Sharq yulduzi jurnali 2012 yil 2-3 son.
4. <https://kitobxon.com/oz/kitob/gor-ogli-yohud-hayot-suvi>

ISTIQLOL DAVRIDA ADABIY PARALLEL JANRI TARAQQIYOTI

Teshayeva Gulnoza Jamshidovna,

BuxDU, Adabiyotshunoslik mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: O‘zbek adabiy tanqidchiligi istiqloq yillariga kelib har tomonlama ko‘lamdorlik kasb etdi. Badiiy asarga baho berish, uni jahon miqyosida tahlil etish uflari kengaydi. Adabiy tanqidning barcha janrlarida, shu jumladan, adabiy parallel janrida ham barkamol asarlar maydonga keldi. Ushbu maqolada istiqloq davrida yaratilgan adabiy parallellarga oid xususiyatlar Suvon Melining “Mushtarak uchlik” maqolasi orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Adabiy parallel, mustaqillik davri tanqidchiligi, spessifik xususiyatlar, “Mushtarak uchlik”, qiyosiy-tipologik tahlil, mikroanaliz

Adabiy parallel janri ham mustaqillik davrida zamon talablariga binoan o‘z maqsad va vazifalari jihatidan yangilanib bormoqda, mumtoz adabiyotimizga e‘tibor kuchaymoqda. O‘zbek adabiy tanqidchiligi istiqloq yillariga kelib har tomonlama ko‘lamdorlik kasb etdi. Badiiy asarga baho berish, uni jahon miqyosida tahlil etish uflari kengaydi. Ayniqsa, ijod erkinligining, fikrlash ozodligining rivoj topishi adabiy-tanqidiy qarashlar salmog‘ini oshirib yubordi. Munaqqidlik sohasida yetuk olimlar faoliyat ko‘rsatdilar. Adabiy tanqidning barcha janrlarida, shu jumladan, adabiy parallel janrida ham barkamol asarlar maydonga keldi. Adabiyotshunos va tanqidchilar A.Rasulov, Y.Solijonov, S. Meli, M.Xolbekov, Sh.To‘ychiyeva, Q.Ergashev, A.Allamberganovlar mazkur janrda tadqiqotlar yaratishdi. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek adabiyoti namunalarini jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish boshlandi. Tanqidchi va adabiyotshunos Suvon Melining “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida nashr etilgan “Mushtarak uchlik” deb nomlanga maqolasi ana shunday xususiyatga ega adabiy parallelga misol bo‘la oladi. Maqolada muallif Aflotun, Pushkin va Hamid Olimjonning she‘rlarini o‘zaro qiyoslaydi, ularning mushtarak va farqli jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi va qiyoslanayotgan ikkilik yoniga uchinchi hodisaning qo‘shilishi ikki hodisa qiyosida mavjud bo‘lmagan, faqat uchlik qiyosi natijasida tug‘iladigan ma’no va qonuniyatlarni tahlil qiladi. Maqolani shartli ravishda 3 qismga bo‘lish mumkin. Kirish qismida tanqidchi binar (ikkilik) va trinar (uchlik) tipologiya haqidagi nazariy ma’lumotlarni beradi. Trinar tipologiyaning binar tipologiyadan murakkab jihatlarini,

xususan, agar ikkidan ortiq hodisa solishtiriladigan bo'lsa qiyosdagi ma'no ipini qat'iy tizginda tutib turish ancha qiyin kechishini ta'kidlaydi. “Lekin agar ushbu muqarrar qiyinchilik yengib o'tilsa, ikkidan ortiq hodisa o'rtasidagi tipologik mushtaraklikni o'rganish ham muayyan afzallikka, ilmiy qimmatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi”[1]. Asosiy qismda Aflotunning “Asterga” nomli she'ri, Pushkinning “Siklop” va shu she'rning Hamid Olimjon tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini obyekt sifatida tanlangan.

*“Yulduzlarga boqasan yulduzim. Osmon bo'lgim kelar,
Lak-lak ko'z ila boqmoq uchun senga mahliyo”*

(Aflotun)Aflotun she'rini Aster, ya'ni yulduz ismli qizga bag'ishlab yozgan bo'lsa, Pushkin uchun Siklop she'rning yozilishi uchun asos vazifasini o'tagan. Ikki she'rni birlashtirib turuvchi nuqta ko'z va qaramoq so'zlaridir. Har qanday adabiy parallelda qiyoslanayotgan obyektlar o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar bilan bir qatorda farqlar bo'lishi tayin. Farq sifatida tanqidchi quyidagi mulohazalarni keltiradi: “Farq — Aflotunda “lak-lak ko'z”, Pushkinda — “yagona” ko'z. Aflotun “men”i yerda turgani holda osmondan sevgilisi, ma'shuqaga qaraydi, Pushkin “men”i esa yerda, odamlar orasida. Aytilganidek, mushtarak jihat — har ikkisi ham ma'shuqaga boqadi, biri lak-lak, biri yagona ko'z bilan”. [1] Maqolaning keying qismida Suvon Meli Pushkin she'rining H.Olimjon tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini trinar tipologiya uchun obyekt sifatida tanlaydi. Olim tarjimini ham mustaqil obyekt sifatida tanlanishiga quyidagicha sabab keltiradi: agar tarjima erkin, ijodiy yondashib amalga oshirilgan bo'lsa, uni mustaqil asar sifatida qarash mumkin. Bundan tashqari, tarjima asliyatdan bir misraga ortiq. Aynan mana shu misra maqola muallifi uchun uch obyektini birlashtirib turadigan kavsharni yuzaga keltirgan. Yuqoridagi she'rlardagi “lak-lak ko'z” — yagona ko'z munosabati yoniga osmon — yulduz — oy, ya'ni samoviy bog'liqlik qo'shiladi.

Maqolaning oxirida Suvon Meli qiyoslash natijasida kelib chiqqan umumiy xulosalarini keltiradi. “Mushtarak uchlik” maqolasi ikkidan ortiq obyektning o'zaro farqli va umumiy jihatlarning tadqiq qilinishi, ularning o'ziga xos jihatlarning ochib

berilishi, qiyoslash natijasida ilmiy xulosalarning chiqarilishi uning adabiy parallel janrining namunasi sifatida tahlil qilishimizga asos bo'ladi. Demak, istiqlol davri tanqidchiligida ijtimoiy tahlil qatori mikroanaliz, qiyosiy-tarixiy talqinning kuchayib borayotganligini ham kuzatishimiz mumkin.

Mustaqillik davrida yaratilgan adabiy parallellar mavzu, mazmun va g'oyaviy jihatdan ham yangilanish bosqichiga kirdi. Endi mazkur janrdan o'zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlarni jahon adabiyoti kontekstida o'rganish yo'liga o'tildi. Istiqlol davri tanqidchiligida ijtimoiy tahlil qatori mikroanaliz, qiyosiy-tarixiy, turli xil zamonaviy oqim va yo'nalishlarni talqin qilishning kuchayib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Meli Suvon. Mushtarak uchlik// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2014, 16-son.
2. Axmedova Sh. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. – Тошкент: Фан, 2008.
3. Баранов В.И., Бочаров А.Г., Суровцев Ю.И. Литературно-художественная критика. –М.: Высшая школа, 1982.
4. Егоров Б. О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль. – Ленинград: Сов. Писатель, Ленинградское отд-ние, 1980.
5. Дўстқораев Б. Ўзбек совет танқидчилиги тарихи: Ўқув қўлланама. – Тошкент: ТошДУ, 1989. –88 б

ОҚ, ҚОРА, ҚИЗИЛРАНГЛАРИНИНГ SHE'RIYATDAGI MA'NOLARI

Surayyo Ahadova,

BuxDU, Adabiyotshunoslik (o'zbek) yo'nalishi

2- bosqich magistranti

[s.a.ahadova.@buxdu.uz](mailto:s.a.ahadova@buxdu.uz)

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotda rang bilan bog'liq ramziy obrazlar yaratishdan ko'zlangan maqsad, yozuvchi adiblarning rang bilan bog'liq so'zlarni

ishlatishdagi mahorati haqida soʻz yuritilgan. Tasvir vositasi sifatida foydalaniladigan ranglarning maʼlum bir maʼnolari hamda mazmunlari xususida toʻxtalib oʻtiladi.

Kalit soʻzlar: rang, obraz, motiv, ramz, tasvir, uslub, ruhiy holat, ifoda.

Sheʼriyatda ranglar vositasida hosil qilingan turli maʼnolarni anglatadi. Bitta rangning oʻzi ham bir necha maʼno qirralariga ega boʻlishi mumkin. Ayniqsa, inson ruhiy holati, qalb kechinmalarini ranglar tasvirida oʻqisak, ularni aniqroq tasavvur eta olamiz. Bu esa rangin hayotning adabiyotda aks etishi katta ahamiyatga ega ekanini koʻrsatadi. Biz quyida XX asr adabiyotida oq, qora, qizil ranglarining qanday maʼnolar anglati olishini koʻrib chiqamiz. Buni dastavval oʻzi ham oq rang kabi pokiza va begʻubor oydin sheʼriyati bilan xalq qalbidan chuqur joy olgan shoira Oydin Hojiyeva ijodi misolida kuzatsak:

Oq roʻmolni bir uchini yelkaga tashlab sipo,
Darvozada turar onam, qoʻli ishga bormayin:
Tashvish bilan, mehnat bilan toliqtirganday dunyo,
Koʻzlari ham xira tortib bormoqdadir kun sayin.⁵⁵

Onaning umr boʻyi mashaqqat bilan mehnat qilgani va shuning natijasida toliqib, koʻzlari xira tortib qolgani haqidagi ushbu sheʼrda oq rang ona roʻmolining sifatlashi tarzida kelgan. Oydin Hojiyevaning Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tavvallud topganini hisobga olsak, bu yerning aholisi odatda oq roʻmolni aʼzadorligida bogʻlaydi va bundan kelib chiqadiki, ona aʼzador ekanligi anglashiladi. Haqiqatan ham, shoiraning akasi urushga borib qaytib kelmagan. Oq roʻmol shu maʼnoni ifodayotgan boʻlishi mumkin. Ikkinchidan esa, roʻmolning oqligi ona qalbining pokiza tuygʻular bilan toʻlganligi va bu uning siyrati-yu suratini oqlikka, poklikka burkagani maʼnosini anglatadi. Darhaqiqat, ona deganda ranglardan eng avval oq rangni koʻz oldimizga keltiramiz. Shoira quyidagi sheʼrida esa oq rangni sandiqqa sifatlash tarzida ishlatadi:

Jabr boʻldi yurakka yolgʻiz
Mangu bitmas undagi chandiq.
Ilon chiqdi, tanlab ikkimiz

⁵⁵ Oydin Hojiyeva. “Shom shuʼlolari” -T Sharq, 2010-445-bet.

Baxt bor deya ochgan oq sandiq [1]

Ushbu she'riy parchada yorga murojaat qilinib, yaxshi niyat va orzular bilan baxt ostonasiga qadam qo'ygan bo'lsak-da, baxtli bo'lolmadik, ikkalamiz baxt bor deya tanlaganimiz oq sandiqda ilon bor ekan, bundan faqat yurakka jabr bo'ldi, endi undagi chandiq o'rni hech qachon bitmaydi, deyilyapti. Bu yerda folklorizmga murojaat ham bor, chunki oq sandiqdan ilon chiqish hodisasi o'zbek xalq ertagi "Zumrad va Qimmat"da bor. Ertak qahramoni Qimmat ham turli zeb-u ziynat va javohirlar bor deb ochgani oq sandiqdan ilon chiqqan edi, endi shoira o'zining holatini shunga o'xshatib, baxt bor deya o'ylaganimiz baxtsizlik bo'lib chiqdi, demoqda. Endi shoira 1978-yilda yozilgan "Fursat deydi..." she'ridan parcha o'qisak:

Qish bilan qo'l ushlab inoq,
Chanalarda go'dakday uchdim.
"Xalqimning pok qo'li" deb oppoq
Zaminning baxt ko'ylagin bichdim.

Shoira ushbu she'rida yil fasllarining tarovati va ularning shoira bilan qilgan muloqoti aks etgan. Yuqorida o'qigan parchamizda esa qish fasli ramzini anglatuvchi oq qorlar tilga olinadi. Shoira oppoq qorga o'ralgan zaminning baxt ko'ylagini bichdim, deganda qishda yerlarda jo'yalar tortib, egatlar qo'yishni nazarda tutgan. Bunda oq rang birinchidan qorni, ikkinchidan, xalqning pok qo'li-yu ko'ngli ramzi, shuningdek, zaminning oq libosga o'ralgani baxt ko'ylagi ham oq bo'lishiga ishora.

Yana bir she'rida tabiat tasvirini tasvirlashda qora rang ma'nosidagi siyoh so'zini ishlatadi:

U to'lqin-u bu to'lqin,
Oy uchadi arg'imchoq.
Nurlanadi siyoh tun,
Yorishib borar qirg'oq.

Tun tasvirida oyning soyga aksi tushib, hamma yoqni yoritib yuborganidagi holat aks etgan. Siyoh so'zi ham qora ma'nosini ifodalaydi, biroq siyoh so'zi qoraga nisbatan

yumshoqroq, ya'ni g'ira-shira yorug'roq ma'nosini ifodalaydi. Oy yoritgan tunni qora emas, siyoh deyish mantiqan to'g'ri tanlov bo'lgan.

Zulfiya ijodida ham ranglar o'zining turfa ma'no qirralari bilan bo'y ko'rsatadi:

Oppoq pag'a bulut ustida
Hayron suzar keksa oysuluv.
Yulduzlarni quchib ko'ksida,
Anhor to'lib jo'shib oqar suv[2]

Zulfiya ikki yoshning muhabbati tasvirini chizishda unga guvoh bo'lgan tun, undagi oy, yulduzlar, oppoq bulut, yulduzlar aksi tushgan anhordan foydalanadi. Bundagi oydin tun va oppoq bulut ikki qalbning sofliqi, orzularining oqligi ramzidir.

Shoira "Oltin kuz" she'rida tabiatni tasvirlashda turli ranglardan foydalanadi.

Simob to'lqinlari tutar osmonni,
Muttasil yomg'irlar zeriktirsa ham.
Kumush buloqlarning suvlari sokin,
Qushlar inlariga kirib olsa ham.[2]

She'rdagi "oltin kuz", "kumush buloq", "paxtalar kumushi", "oltin yaproq" kabi birikmalarida aynan rangni bildiruvchi so'zlar ishtirok etmasa-da, ulardagi oltin va kumush sifatlashlari rang ma'nosini bildirgan. Kuzdagi sariq ranglarga nisbat berib "oltin kuz", "oltin yaproq" deyilsa, toza va pokiza buloq suvi va oq paxtaga nisbatan "kumush" sifatlashini ishlatamiz. Shu she'rning yana bir bandida oq rangga murojaat qilinadi:

Bulut chodirini yirtib, mo'ralab,
Chiqsa quyosh, ko'kka bo'laman maftun.
Sevaman nurlarda pati yaltirab,
Oppoq kabutarlar qilsalar o'yin.

Shoira kuzda qora qarg'alarni emas, balki oppoq kabutarlarni tilga olyapti. Bu yanglishish emas. Bundan bilinadiki, shoira kuz faslini ham bahordan kam sevmaydi, shuning uchun ham undagi qora va mahzun tasvirni emas, balki dilga yorug' tuyg'ular baxsh etuvchi manzaralarni tilga olyapti.

ADABIYOTLAR

1. Oydin Hojiyeva “ Shom shu‘lari” – T, Sharq 2010.
2. Zulfiya “ Saylanma” -T , Sharq 2015.

AVESTO-SHARQ XALQLARI DURDONASI

M. Raxmatova,

BuxDU, Filologiya fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Avesto” jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi, zardushtlik e`tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi ekanligi va uning tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Avesto, ma’naviy makon, zardushtiylik, otashparastlik

Jahon tarixi va xalqlarning taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, insoniyat rivojlanishining har bir yangi bosqichida jamiyat makonini tushunish va talqin qilishning yangi-yangi qirralari ochilavergan. Xuddi shunday “Jamiyatning ma’naviy makoni” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ham insoniyatning ko’p asrlik taraqqiyoti belgilab berishi shubhasiz. Mavzuning ayni shu jihati “Avesto” zamonlaridan bugungi kunlargacha, hozirgi zamon olimlari va mutaxassislarigacha ko’plab kishilarni o’ziga jalb qilib kelmoqda. [1]

Sharq xalqlarining qadimgi adabiy, manaviy, madaniy va falsafiy nodir yodgorliklaridan biri Avesto ming yillar davomida tarixchi, filolog, madaniyatshunos, etnograf olimlar tomonidan dunyoning turli burchaklaridan o‘rganilib kelinmoqda.

Insoniyat tarixiga nazar tashlansa, millatlar, elatlar va xalqlar tadrijiy taraqqiyoti mobaynida jamiyat makoni xususidagi qarashlar xilma xilligiga guvoh bo‘lamiz. “Jamiyatning ma’naviy makoni” tushunchasi talqinida ham ana shunday holat namoyon bo‘ladi, ya’ni bu tushunchaning ijtimoiy-falsafiy mazmuni taraqqiyot bosqichlariga bog‘liq tarzda takomillashib boraverishi oydinlashadi [2]. Sharq xalqlari tafakkurining durdonasi bo‘lgan “Avesto” davridan, bugungi kungacha ilm-fan vakillari diqqat e’tiborida turgan ushbu mavzu, shu ma’noda, jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy bilimlar tarixi hamda tadriji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Avestoda nozil etilgan bilimlar hali hamon bugungi kun ilmi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Unda jamlangan millat va elatlarning dini, tili, marosim udumlari va tarixi haqida ma'lumot beradigan materiallari va dalillari hozir ham o'ziga jalb etadigan tomonlari sifatida qaralmoqda.

Avesto tili qadimgi Sanskrit bilan qadimgi pahlavon tili qorishig'idsn iborat ekanligini aniqlangan. Avesto ("Asosiy Kitob") zardushtiylikning diniy e'tiqod kitobi bo'lishi bilan birga so'z san'ati yodgorligi hamdir. Zardushtiylik olti kamolotga yetaklovchi kuchlar (1 Vohu Mana- ezgu niyat; 2. Asha Varishta - eng yaxshi haqiqat; 3. Spenta Armayti - halollik; 4. Xshatrya-varya- hokimiyat 5. Xarvatat- butunlik; 6. Umuratat- abadiy hayot.) insonlar uchun eng oliy qadriyatlar sifatida ulug'langan.

Avestoni faqat otashparastlar kitobi deyish, zardushtiylikni esa faqat otashparastlik dini deyish to'g'ri emas. Chunki bu muqaddas kitobda quyoshga, olovga ibodat qilishdan tashqari, mehr, suv baxtli tol'e, haqiqat kabi tushunchalari ham ilgari suriladi. Muqaddas yodgorliklarda mehr so'zi quyoshdan farqi o'laroq, odamlar orasidagi oqibat, vadaga vafo, sadoqatni ham bildiradi.

“Inson olamni komillikka yetkazmoq, uni pok niyatli, fidoyilik bilan mehnat qilmog'i, kurashmog'i lozimligi qayta-qayta ta'kidlanadi." Insonni xiramandz til-zabonli qilib yaratgan Tangriga olqishlar bo'lsin! U insonni yomonlikka qarshi kurashsin, uni nest-nobud etsin, deb barcha mavjudotlarga rahbar va sarvar etdi.” [3]

Ushbu yo'nalishda butun jahon olimlari diqqatini o'ziga tortgan masalalar orasida “Jamiyatning ma'naviy makoni” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy jarayonlar bilan aloqasini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi aslo bejiz emas. Mazkur tushunchaning mohiyatini aniqlashda uning ijtimoiy-falsafiy tabiatini hisobga olish jamiyatning ma'naviy makoniga turli xavflar va tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi zamonda bu bilan bog'liq muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. [4]

Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid fikrlar ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim

malumotlarga ega bo'lamiz. « Avesto » diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik, va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan. [5]

Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, er, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar–tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi Adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson sa-hovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasmlar va rasmusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyoti bilan shug'ullanuvchi dunyo olimlarining bugungi ko'plab global masalalar qatori "Jamiyatning ma'naviy makoni" tushunchasiga alohida e'tibor qaratayotgani bejiz emas albatta. Bu tushunchaning ijtimoiy-falsafiy tabiatidan kelib chiqilsa, insoniyat ma'naviyatiga nisbatan turli-tuman tahdidlar tobora ko'payib borayotgan hozirgi davrda, mazkur yo'nalishdagi mavjud muammolarga yechim topishda jamiyat ma'naviy makonining mohiyatini, uning umuminsoniyatga xos qonuniyatlari va milliy xususiyatlarini bilib olish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. H. Boltaboev. Jahon adabiyotshunosligi tarixi chun- Toshkent." Mumtoz so'z" 2020 138-bet.
2. M. Ishoqov. Avesto. - Toshkent, fan nashriyoti. 1999. 201-bet

3. Ishoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. "Zarqalam", 2006-128 bet.
- 4.D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent:" Akademnashr",2019.-400-bet
5. I. Haqqul. Taqdir va tafakkur.- Toshkent:" Sharq",2007.-336-bet

O‘ZBEK ADABIYOTIDA “DAHSHAT” SARLAVHALI ASARLARNING YARATILISH OMILLARI

Jalilova Munavvar,

BuxDU, Adabiyotshunoslik yo`nalishi 2-bosqich magistranti

m.x.jalilovabuxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida “dahshat” sarlavhali asarlardan Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasining yaratilishi tarixi, yozuvchining bu asarni yozishga undagan sabablar haqida ma’lumotlar beriladi. Nima uchun hikoya nomi “Dahshat”, hikoyadagi dahshat o‘zi nima ekanligi haqidagi savollarga maqola orqali javob topiladi.

Kalit so‘zlar: “ dahshat” sarlavhali asar, go‘riston, xalq og‘zaki ijodi, rivoyat

Mutolaa qilish uchun qo‘limizga biror kitobni olganimizda birinchi navbatda uning nomi e’tiborimizni tortadi. Boisi, asarga berilgan sarlavha orqali uning mazmun-mohiyati haqida ilk tasavvur uyg‘onadi, uni tezroq o‘qish uchun qiziqish paydo bo‘ladi. O‘z nomi bilan kitobxonni o‘qishga, undagi voqealar bilan tezroq tanishishga undovchi qiziqarli sarlavhalardan biri “dahshat” dir. “Dahshat” nomli asarlar adabiyotda badiiy g‘oyaning chuqurligi, undagi yoritilayotgan mavzuning ahamiyatliligi va o‘z davri uchun dolzarbliligi bilan alohida o‘rin egallaydi. Bunday asarlardan o‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhor ning “Dahshat” hikoyasini misol qilib keltirish mumkin.

Abdulla Qahhorning “Dahshat” sarlavhali asari ham o‘z nomi bilan, ham voqealar tasviri bilan, ham undagi qahramonlar taqdirining yakuni bilan inson qalbida kuchli qo‘rquv va hayajon uyg‘otadi. Hikoyaning bosh qahramoni ganjiravonlik soddadil Unsin qahri qattiq zolim Olimbek dodhoga sakkizinchi xotin bo‘lib turmushga chiqadi. Kuzak shamoli esib, kongilni g‘ashlik chulg‘aydigan kechalarning birida Olimbek

dodho va uning xotinlari sandal atrofida har kungiday jam bo'lishadi. Kuchli shamol va u orqli derazaga kelib urilgan bo'yra dodhoga qabriston vahimalarini eslatadi, u o'zidagi qo'rquvni yo'qotish uchun ham qabriston tasviri haqida so'z ochadi. Uning katta xotini Nodirmohbegimning aytgan voqeasi Unsin va dodho o'rtasidagi garovga sabab bo'ladi:

— Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?» degan gap bo'lipti. Shunda bir kishi pichog'ini qinidan sug'urib: «Men sanchib kelaman»,— deпти, bitta qo'ydan garov bog'lashib yo'lga tushipti. Jo'ralari hali kutishar emish — yo'q, hali kutishar emish — yo'q; tong otipti, uyida ham yo'q emish; go'ristonga borib qarashsa, Asqarponsotning go'ri oldida o'lib yotgan emish! Bechora go'rga pichoq sanchganida etagini qo'shib sanchgan ekan, qaytay desa etagidan birov tortganday bo'lgan-da...» [2].

Shu qisqa hikoya Unsinning qabristonga borib choy qaynatib kelish evaziga Olimbek dadhodan butunlay uyga ketish uchun javob olishga sabab bo'ladi. Aynan shu voqea hikoyani harakatlantiradi, haqiqiy dahshat manzaralarini namoyish qilishda turtki bo'ladi, eng asosiysi, bechora Unsinning zolim dodho qo'lidan qutilish uchun vosita bo'ladi. Asarning sujet chizig'i ushbu hikoya bilan harakatlanar ekan, go'yoki, yozuvchi o'zi yaratayotgan asariga Nodirmohbegim tili bilan aytilgan hikoya orqali jon kirgizadi. “Bu ayatilgan qisqa voqea rostdan bo'lganmi yoki yozuvchining badiiy to'qimasimi?” , degan savol barchaga birday qiziq bo'lishi tabiiy, albatta. O'z-o'zidan hech qanday asoslarsiz asarda keltirilgan hikoya xalq og'zaki ijodi namunasi ekanligi anglashilib turibdi. Olimbek dodhoning xotinlari bilan sandal atrofidagi suhbat qadim-qadimdan ota-bobolarimiz, momolarimizning xuddi shunday sham yorug'ida oila davrasida bir-birlariga aytimlar aytib, maqol, matal-u ertaklar to'qib o'tkazgan kechalarni ko'z oldimizda gavdalantiradi. Bugun xalq og'zaki adabiyotimizni boyitib kelayotgan nodir durdonalar ana shunday kechalarda tug'ilgan bo'lsa ne ajab. Barchamizga ma'lumki, yozma adabiyotdan avval o'g'zaki adabiyot paydo bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi na'munalari og'izdan og'izga o'tib sayqallanib, asrlar davomida shakllanib kelgan, keyinchalik esa yozma adabiyotning yuzaga kelishida asos bo'lgan. Yozma

adabiyotning har bir janr, har bir masalasiga doir jihatlar, shubhasiz, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasining yaratilish omili ham xalqimizning boy madaniy merosi bo'lmish folklor janridan biri rivoyat bilan bog'lanadi. Yozuvchi hayotni tinimsiz o'rganib, uni kuzatar ekan undan ijodiga zarur bo'ladigan hodisalarni, faktlarni tanlab oladi. Ammo bu faktlar hayotda qanday bo'lsa, o'shandayligicha qog'ozga tushmaydi. Har bir fakt badiiy asarga aylanguncha, yozuvchining miyasida, qalbida ming chig'riqdan o'tadi, ming alfozda qayta ishlanadi, o'zgaradi. Bu g'oyat murakkab ish. “Dahshat” hikoyasini esga olaylik. Hikoyaning yaratilish tarixi juda qiziq. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning “Ilhom bilan yozilgan asar” nomli maqolasida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Ozod Sharafiddinov “Dahshat” hikoyasining yozilishiga xalq o'rtasida ancha keng tarqalgan bir rivoyat turtki bo'lganini aytadi. Rivoyatda kelishicha, bir yigit o'zining dovyurakligini isbot qilish uchun kechasi go'ristonga borib tobutga pichoq sanchib kelmoqchi bo'ladi. Biroq, u o'rnidan turib qaytayotganda arvoq uning etagidan tortqilab, ketishiga yo'l qo'ymaydi. Yigit qo'rqib ketib jon taslim qiladi....Ustoz Ozod Sharafiddinovning guvohlik berishicha, “Dahshat” hikoyasini yozish niyati adib yuragiga 50-yillarning boshida tushgan edi. Deyarli o'n yil davomida u hikoyani o'yladi, pishitadi, xayolida obdon ishladi”. [1] Demak, bu hikoyani yozish niyati 50- yillarda yozuvchining diliga tushgan ekan, hikoyaga asos bo'lgan rivoyatni haqiqiy yetuk badiiy asar darajasi sifatida yaratish, unga o'zining badiiy-estetik g'oyasini singdirib, ijtimoiy ahamiyatlik darajada mukammal qilib qaytadan ishlash uchun o'n yil vaqt ketgan. Yozuvchi qalbini yondirib-kuydirib aytishga undagan gaplarini xalq og'zaki ijodi janri bo'lmish rivoyatdan o'z maqsad yo'lining shakli sifatida tanlab unga badiiy hayot berdi va laxcha cho'g'dek kichik rivoyat asosida qalbidagi olov - “Dahshat”ni dunyoga keltirdi.

Bu o'n yillik vaqt oralig'ida adib yashagan davrda qanday voqealar ro'y bergan-u, uning qalbini o'rtagan, yozishga majbur qilgan dard nima bo'lgan, “Dahshat”ni dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan omil o'zi nima edi, degan savol bizni mushohadaga chorlaydi, albatta. Bunday savollarga javob topish uchun, avvalo, o'sha davr va undagi yozuvchining holatini tasavvur qilishimiz lozim. Adabiyotlardan bizga ma'lumki, bu

davr Stalin vafoti va uning vafotidan keyin shaxsga sig'inish oqibatlarining qoralanishi bilan xarakterlanadi. “Abdulla Qahhorning 1953-yildan keyin yozilgan publisistik asarlariga e'tibor berilsa, ertangi kunga ishonch, ko'tarinki ruh barq etib turganini sezish mumkin. Biroq, 60-yildan boshlab undagi bu ishonch ancha susaygani, aksincha, tanqidiy munosabat mutonosib ravishda kuchaya borgani ko'riladi. Mazkur holning sababini adibning yon daftaridagi quyidagi qayddan sezib olish qiyin emas: “Mamlakatimizda Stalindan so'ng uzundan uzun momaqldiroq bo'ldi-yu o'tdi. Bu momaqldiroqning birinchi sadosi xalqlar ko'nglida juda katta orz-u umidlar uyg'otdi, xalqlar buning ketidan keladigan obirahmatni kutdi, biroq, momaqldiroq shamol, to'polon qildi-yu obirahmatdan bir tomchi ham tommadi”. Abdulla Qahhor ham xuddi boshqalardek obirahmat yom'g'iri yog'ib jamiyat va hayot tarzi to'g'ri izga tushishiga ishongan edi. Shu bois uning ko'p maqolalarida ana shu ishonch ruhi aks etadi. Lekin keyinchalik ijtimoiy hayot va unga nisbatan insonlar ruhiyati mohiyatan o'zgarishsiz qolayotgani sezilib bordi. Teran dunyoqarash egasi bo'lgan Abdulla Qahhorning ijodiga bu o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatib bordi. Xalq dardini o'zining shaxsiy dardiga aylantirgan yozuvchi qachonlardir eshitgan rivoyatini yillar davomida ishlab, pishitib o'tmish dahshatidan so'zlovchi “Dahshat”ni yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. D. Quronov. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.:Akademnashr.2013.
2. Abdulla Qahhor. “Dahshat” hikoya
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. 5-жилдлик. 5-жилд. – Б.549.
5. Қуронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013.– 406 б.

JO'RA FOZIL IJODIDA IJTIMOIIY MUAMMOLAR BADIIIY TALQINI

Abdulloyeva Farangis,

BuxDU, Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxorolik ijodkor Jo'ra Fozilning hikoyalarida aks etgan ijtimoiy muammolar tahlilga tortilgan. Tahlil davomida ijodkorning so'z qo'llash va badiiy mahorati xususida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: uslub, badiiy mahorat, ijtimoiy muammolar, mavzu, g'oya.

Qalbi uyg'oq ijodkor borki, o'zi yashab turgan jamiyat hayoti, undagi muammolar uning ijodiga ko'chadi. Jamiyat bilan hamnafas bo'lib undagi og'riqli nuqtalar, masalalarni obrazli tarzda asarlariga ko'chiradi. Jo'ra Fozil ijodi, hikoya va qissalarida ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ijodkorning “Bog” hikoyasini o'qir ekanmiz, bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy muammolar qalamga olinganiga guvoh bo'lamiz. Asarda xalqning, davlat tashkilotlarining tinkasini quritgan tekshir-tekshirlar tilga olinadi: “...tekshiruvchi deganingiz, hech zamonda o'z cho'ntagidan ovqatlanarmidi?” bu ijtimoiy muammo hozirgi kun uchun o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Hozirgi kunda ham davlat tashkilotlariga yuqori tashkilotlardan kelgan tekshiruvchilar, xodimlarning hisobidan bir necha kun ovqatlanib, dam olib, ko'ngil yozib ketishlari hech birimizga sir emas. To'g'ri, tan olish kerakki, so'nggi yillardagi islohotlar, Prezidentimizning chiqargan Farmon va qarorlari bunday korrupsion holatlarga biroz bo'lsa-da mone bo'la oldi. Ammo muammo tub ildizidan bartaraf etilganicha yo'q. Qachonki xalqimizning ongi, tafakkuri o'zgarmas ekan, biz bunday illatlardan forig' bo'la olmaymiz. “O'zbekchilik” niqobi ostiga yashiringan bunday korrupsion holatlar, nafaqat davlat tashkilotlari xodimlari, balki mamlakat rivoji uchun ham jiddiy xavf bo'lib qolaveradi.

Jo'ra Fozil deyarli barcha asarlarida vayron bo'layotgan tabiat nodirliklari haqida kuyinib yozadi. Asarlarini o'qish davomida amin bo'ldikki, ijodkor tabiatning mohir kuzatuvchisi, iqtidorli so'z rassomidir. “Bog” hikoyasida ham bu holatni ko'ra olamiz. Asarga kiritilgan Farmon bobo obrazi orqali tabiatni o'z farzandidek sevgan insonlar qiyofasini ko'ra olamiz. Asl ismi Farmon bobo bo'lishiga qaramay, hamma uni Amaki deb ataydigan bu obrazsiz asar kompozitsiyasi yaxlitlikka erisha olmaydi. Yo'l qurilishi

maqdadida buzib tashlangan bog'dan so'ng Farmon bobo ham uzoq yashamaydi. Chunki unda farzandidan ayrilgan ota iztirobi bor edi.

Jo'ra Fozil o'zining bir qancha hikoyalarida bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lgan yana bir ijtimoiy muammo – vatandoshlarimizning turli maqsadlar bilan xorijga borib ishlashiga ham ahamiyat qaratadi. Xususan, “Sog'inch” hikoyasida ushbu masalaning boshqa bir jihati qalamga olinadi. Unda xorijga ishlashga ketgan qahramon hayoti, uning mashaqqatlari emas, balki uning ketgani sababli sog'inch va qayg'u iskanjasida qolgan onaizorning dardlari yoritilgan. Haqiqatdan ham, bugun tobora ko'payib borayotgan muhojirlik muammosi nafaqat o'sha xorijga ketganlarning o'zi bilan, balki ularning yaqinlari ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari bilan ham bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Hikoya qahramoni Karomat buvi kenja o'g'lining 5 yil xorijga ketishi, so'ngi ikki yilda undan xat-xabar bo'lmasligi oqibatida yostiqqa mixlanib qoladi. Unga hech qanday muolaja yordam bermaydi. Uning dardining davosi faqatgina musofirlikda yurgan o'g'lining diydori edi. Albatta, o'g'il, Komiljon ham xorijda o'ynab kulib yurgani yo'q. Uning mashaqqatlari ham oz emas edi. Biroq hikoyada bularga batafsil to'xtalinmagan bo'lsa-da, birgina jumla bilan ijodkor uning qiyinchiliklarga to'la o'tgan 5 yillik hayotiga ishora qiladi: “Yigitning barvasta qaddi biroz bukchaygan, ko'zlari kirtaygan, yonoqlari salqi edi. U jonsarak nigohlari bilan supani to'ldirgan yaqinlari orasidan onasini izlardi.” Komiljonning qaddini bukchayishi, ko'zlarining kirtayishi, yonoqlarining salqishi bejizga emas edi. U ham o'tgan besh yil mobaynida o'z yurtidan yiroqda ne-ne mashaqqat, azoblarni boshidan kechirganligi faqat uning o'ziga ayon. Bundan tashqari, so'ngi ikki yilda undan darak bo'lmasligi ham uning bir izda va muvaffaqiyatli hayot kechirmayotganligidan darak beradi. Hikoyada shu kabi qisqa jumlar va belgilar orqali ulkan ijtimoiy muammo – muhojirlik masalasi diqqat markaziga olinadi. Shuningdek, hikoyada ushbu muammo yoritilar ekan, uning vositasida yuzaga chiqadigan yana bir ijtimoiy masalaga yozuvchi diqqat qaratadi. Bu aka-ukalar orasidagi tobora uzoqlashib borayotgan mehr-oqibat, o'zaro g'amxo'rlik, bir-birining holidan xabar olmaslik kabilardir. Onaizor qattiq betob bo'lib, o'g'illaridan rozi bo'lishi uchun kenja o'g'ilni topishga undaguniga qadar akalar uning qayerda, nega 2

yildan beri daraksiz, u bilan qanday bog'lanish mumkinligi haqida hech o'ylab ham ko'rmagan edilar. Onaning iltimosiga binoangina bunga majbur bo'ldilar, go'yo. Va ukalarini qidirib toptilar. Hikoya so'ngida Komiljon o'z uyiga qaytadi va uning qaytishi onasini ham hayotga qaytaradi. Og'a-inilar birlashadilar. Hikoyaning bu kabi yaxshilik bilan tugashi orqali adib ushbu muammolarning yechimi bor ekanligiga, va insonlar o'z vaqtida xatolarini anglab, o'z yurtlarida xotirjam mehnat qilib hayot kechirishlarini umid qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotimizda yana bir o'lmas mavzu borki, bu mavzuda asar yozmagan ijodkor bo'lmasa kerak. Bu farzandlarning qarib qolgan ota-onalari oldidagi burjlaridir. Jamiyatimizda bu illat butkul yo'qolib ketmas ekan, bunday asarlar yozilaveradi. "Ayriliq ostonasi" kitobining so'nggidan joy olgan "Sohildagi uy" hikoyasi ayni shu ijtimoiy muammoga bag'ishlangan hikoyadir. Ushbu hikoyadagi voqealar "ismi jismiga monand, gugurt qutisiday" Gugurtli qishlog'ida sodir bo'ladi. Erta bahor faslida Amudaryo sohilidagi Navro'z saylida Xudoybergan bobo ilk bor Guljamol ayani ko'rgan edi. Qiz "oq yuzli, guldek nozik" bo'lganligidan ilk uchrashuvdayoq Xudoybergan boboning nazariga tushgandi. Tez orada to'y bo'ldi. So'ngra ikki yosh Qizilqumning daryoga tutash olis yaylovlarida cho'ponlik bilan mashg'ul bo'ldilar. Bir qiz, bir o'g'il ko'rdilar. Farzandlarini ne-ne umidlarda oq yuvib, oq tarab ulg'aytirdilar. "Farzandlar esa uchirma polaponlardek olis shaharlarga yo'l olib, o'sha yerda qo'nim topdilar, uyli-joyli, bola-chaqali bo'ldilar va bu dunyoda Gugurtli degan g'arib bir qishloq borligini batamom unutdilar..."[2] Biz orzu-havas uchun shaharga ketgan farzandlarni qoralashdan yiroqmiz. Chunki har bir insonning hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bor. Ammo bu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida ota-ona oldidagi burchimizni ham unutib qo'ymasligimiz lozim. Binobarin, har bir farzandning zimmasiga ham aqlan, ham shar'an o'z ota-onasiga nisbatan behisob burch va vazifalar yuklanadi. Jumladan Qur'oni karimning bir qancha oyatlarida ota-onalarimizgayaxshilik qilishga buyuriladi. Alloh taolo ota-onaga zinhor ozor bermaslik va ularning so'zlari-yu fe'llarini hech bir malol olmaslikka buyurib, quyidagicha xitob qiladi: "Rabbingiz, Uning o'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik

qilishni amr etdi. (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga “Uf” dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so‘z ayt!” (Isro,23) Bu yerda “yoqimli so‘z ayt” deganda ota-onalarimizga “otajon”, “onajon” deb murojaat qilishimiz nazarda tutilyapti. Hikoyada bo‘lsa buning butunlay aksini ko‘rishimiz mumkin. Guljamol buvining o‘limidan so‘ng yotoqqa mixlanib qolgan Xudoybergan boboga, “Xudoybergan bobo singari yakka-yolg‘iz yashaydigan, endi 17 ga to‘lgan yetim qo‘shni qiz” –Oqmaral g‘amxo‘rlik qilayotgan edi. Xudoybergan boboning yigirmasi o‘tgandan keyin qishloqqa kelgan qizi Oqmaralga dag‘-dag‘a qila boshlaydi:

“-Eshitishimcha, cholga (qarang, qiz otamga demadi) sen qarab turgan emishsan. Yostiqlari ostidan topilgan pul juda kam.U kishi axir 50 ming so‘m pensiya olardilar. Xo‘sh, gapir, pulni o‘marganingni o‘zing tan olasanmi yoki militsiya chaqiraymi?”

Otaning 3 yil to‘shakka mixlanib yotganida bir bor yo‘qlamagan qiz, pensiya pullarini hisoblash uchun keladi. Hikoyada farzandlarning bemehrligi haqida biror so‘z aytilmagan, ammo farzandning naqadar bemehr, tuban kimsaga aylanganini ijodkor birgina so‘z bilan juda ta‘sirli ifodalab bergan, ya‘ni qiz o‘z otasini “chol” deb ataydi. Bu o‘rinda ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Umuman olganda, Jo‘ra Fozilning deyarli barcha asarlarida dolzarb ijtimoiy muammolar qalamga olinadi. Ijodkor jonkuyar adib sifatida xalqimizning og‘riqli nuqtalarini qalamga olishdan charchamaydi.

ADABIYOTLAR

1. Fozilov J. Yo‘lbarsdaraning so‘nggi sultoni: Roman, hikoyalar: – T.:Sharq, 2015. – 320 b
2. Fozilov J. Ayriliq ostonasi: Tarixiy roman, qissa, hikoyalar: –T.: Sharq, 2006. – 288 b.
3. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari. – Toshkent:Yangi asr avlodi, 2017 . – 320 Fozilov J.Xongul . –T.:Sharq, 2016.
4. Fozilov J. G‘oziyon zindoni . – T.:O‘zbekiston, 2014.–150 b.
5. Muhammadjonova Go‘zalxon. “ Badiiy asar tahlili ”. – Farg‘ona.2018 yil.

6. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: 2006.
7. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Укитувчи, 1986.–Б.258

XURSHID DO`STMUHAMMAD QISSALARIDA RAMZIYLIK

Jalilova Zarina Sadriddinovna,

BuxDU, Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti

z.s.jalilova@buxdu.uz

Annotatsiya: Badiiy asrlarda ramziylik tushunchasining o'rganilishi va uning badiiy asarlarda ifodalanishi

Kalit so'zlar: ramziylik, qissa, ramz, tasvir, oromkursi, badiiy obraz, badiiy tasvir, qissachilik

Muayyan bir badiiy asarning yaratilishi ijodkorda katta mahorat, matonat, iqtidor talab etadi. Mana shu jihatlarning barchasi jam bo'lsa, yozuvchida badiiy ijoddagi eng nodir va buyuk bir hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkor asarlarni yaratar ekan, turli vosita va usullardan foydalanadi. Shunda u o'z asarini o'qimishlilikini ta'minlay oladi. So'ngi o'n yillikda o'zbek qissachiligi shakl va mazmun e'tibori bilan badiiy obrazda, badiiy tasvir vositalaridan foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy o'zbek qissachiligida Murod Muhammad Do'st, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Ulug'bek Hamdam, G'affor Hotamov, Salomat Vafo, Xayriddin Sultonov va Xurshid Do'stmuhammad kabi ijodkorlar qizg'in ijod qilishmoqda. Jumladan yozuvchi X.Do'stmuhammad ham bugungi o'zbek nasrida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorlar safiga kiradi. Uning hikoya qissa romanlarida ramziylik ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Adib har bir yaratgan hikoya, qissa, romanida ramziy detallardan mohirona foydalangan.

Ramz so'zi (arabcha – ishora qilmoq badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy tasvirlashning shartli usuli hisoblanadi. Ramziylik mazmuni obrazli tuzilish bilan bog'liq bo'ladi va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Ramziy obrazlar ma'lum bir tizimni tashkil etadi. Adabiyotimiz tarixida azaldan ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi mavjud bo'lib, turli ma'nolarni yaratishda yordam bergan. Ijodkorlar o'z asarlarida ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detallardan ramziy tasvir

uchun foydalanishgan. Bunday paytda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi ramziy ma'no ga ega bo'ladi.

Jurnalist X.Do'stmuhammadning qissa janrida yaratilgan asarlarda ramziylikka ega bo'lgan xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Uning "Orom kursi", "So'roq", "Katta ko'cha", "Chayongul" nomli qissalarida ramziylik unsurlarini uchratamiz. Chunonchi adibning "Orom kursi" qissasini tahlil qiladigan bo'lsak, asarda ramziylikdan mohirona foydalanilgan. Hattoki asar bosh qahramoni ismini tanlashda ramziy ma'no bor deb o'ylash mumkin. Asar qahramoni Ko'klam Tongotarov qishloqdan poytaxtga kelgan oliy ma'lumotli shaxs, o'qishi tugagandan so'ng sobiq viloyat rahbarining o'gli sifatida aspiranturaga qabul qilinadi. Otasidan ko'p yillar yaxshilik ko'rgan, ilmiy rahbari Nazirov yordamida nufuzli, oilaviy yotoqxonaga kirishi, qadimdan qolib kelayotgan tanish – bilishchilik, imtiyozli yosh olimlarning kibru – havoga berilishi realistik ruhda aks ettirilgan. Qissani realistik ruhda yozilgan qissalar safiga kiritsak ham bo'ladi. Ammo asarda fantastik unsurlar ham yo'q emas. Muallif ikkalasidan ham mohirona foydalangan va yaxlit bir aniq g'oyani shakllantirgan. Bosh qahramon yosh yigit Ko'klam Tongotarov g'arb adabiyotida tasvirlangan orom kursini o'zi yashayotgan yotoqxonada uchratib, unda o'tirishdan huzurlanuvchi insonga (ya'ni maniyakka) aylanadi. Jamiyatdagi boshqa insonlar oromkursida o'tirib, ilmiy ishlar, ilmiy asarlar yozsa, Ko'klam esa go'zal qizni ko'rgandek, uni eslagandek orom kursining o'zidan zavqlana boshlaydi. Muallifning tasvirlashicha, bosh qahramon es – hushli yigit, u qilayotgan ishi umuman mantiqqa zid ekanligini anglab oromkursiga muhabbatidan voz kechish uchun jiddiy kurash olib boradi.

"...Aslida u orom kursisiga mute bo'lib qolayotganidan norozi. Qanday bo'lmasin o'zidagi bundayin irodasizlikka chek qo'yishni o'ylar, aksari o'qishga mukkasidan ketar saboqdoshlariga qo'shilib ulfatchilik qilar, ijaradagi xonasiga qamalib olib qiroatxonlikdan bosh ko'tarmas – shunday kezlarda...miyasi oromkursilar tajovuzida xalos bo'lganidan yayrab emin – erkin yashash baxti nasib etganidan cheksiz quvonar quvongani zahoti rango – rang oromkursilarning turqi – tarovati xayoliga tiringala boshlar, necha kun o'ylamagani, unutgani jazosiga son –

sanoqsiz oromkursilar lashkar tortib kelardi....U bemani odatdan qutulishga umid bog'lab diplom himoyasiga chalg'idi – himoya qildi,qishlog'iga qaytishni o'yladi,ammo nima jin urib,ko'ngli olimlikni tusab qoldi” [1].

Xurshid Do'stmuhammad qahramon ruhiyatini tasvirlashda hayotida uchrab kelayotgan, sho'rolar davridan qolib kelayotgan yoshlarning amal – mansab kursilariga o'ch bo'lib qolishayotganini ham real faktlar orqali aks ettirgan.Ayniqsa,boy insonlarning farzandlari o'qishga kiriyapti va ular ham yuqori mansabni,amalni kursini egallashi kuchayib bormoqda. Qissa qahramoni Ko'klam oromkursini xudoli go'zal qizni sevib qolgandek edi. Ammo biz uni real hayotdagi insonlarning ba'zi yosh yigitlar aksincha,amal,mansab boylik deb,go'zal sevgilisidan voz kechib, or – nomusini,g'ururini o'ylamasdan,boyning qiziga uylanadiganlarni kuzatamiz.Bugungi kunda insonlar bir –biridan mol – mulki deb,amal – mansab deb mehr – oqibatni unuta yozishyapti,adibning sinchkovligini hayotning mana shu qirralariga naqadar chuqur e'tibor berganligini asarlari misolida his qilishimiz mumkin.Amalu – kursi deb inson bir – biridan bezib ketsa,bolasi otasidan,xotinidan kechsa hayot shunday davom etaversa, jamiyat qanday qilib rivoj topsin,qanday qilib inson ma'nan yuksalsin.

Qissa qahramoni Ko'klam Tongotarov bu kabi samarasiz orzu – xayollardan so'ng es – hushini yig'ib, oromkursini sevish amaldor bo'lgan otasining qonida borligini, o'zi ham uylanib, farzand ko'rsa u ham xuddi otasi ya'ni Ko'klamdek shu kasallikka chalinsa nima bo'ladi deb o'ylaydi. Mana shu jirkanch kasallikdan qutulish uchun u oromkursini xonadan tashqari dahlizga chiqarib qo'yadi.Nazoratchilar kelib uni bir qizning nomusiga tegishida ayblab aspirantlar uyidan haydashadi.Onasidan xat olgach,u ham hamma odamlarday hayot kechirish uchun qishlog'iga borishga qaror qiladi.Ammo yozuvchining yana bir harakati ya'ni Ko'klam Tongotarovni yotog'iga kelib,es – hushini yo'qotib derazani ochib,o'zini oromkursi ustidan to'qqizinchi qavatdan tashlashini har qaysi kitob har xil talqin qilishi mumkin. Balki,bizningcha,asar g'oyasini kuchaytirish uchundir.Balki amal kursiga o'chlikdan qutulishning yagona yo'li bu–

o'lim demoqchidir yozuvchi. Ammo ikkinchi talqin unchalik ham mantiqqa to'g'ri bo'ladi deb aytoilmaymiz.

Adibning ushbu qissasini realistik qissaning yetuk namunasi deb aytish mumkin. Chunki unda bugungi kunda real hayot bilan bog'liq bo'lgan muammo va manzaralar tasviri jonli tarzda tasvirlangan. Har bir davrning o'z ijtimoiy muammolari va qahramonlari bo'ladi. Badiiy adabiyotning maqsad va vazifasi ham mana shu muammo va qahramonlarning o'ziga xosligini qanday unsurlar bilan tasvirlashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Хуршид Ду`стмухаммад Кисса. Т.Янги аср авлоди 2021 188 – бэт
2. Umurov H. Badiiy ijod asoslari – T: “O`zbekiston”, 24 - bet

JO`RA FOZILNING TARIXIY QISSALARIDA AYOLLAR OBRAZI IFODASI

Latipova Sayyora,

BuxDU, Adabiyotshunoslik yo`nalishi 2-bosqich magistranti

s.t.latipovabuxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahoratli yozuvchi Jo`ra Fozilning tarixiy qissalarida mavjud bo'lgan ayollar obrazi haqida fikr yuritiladi. Badiiy adabiyotda ayollar xarakterining o`rni hamda muhimligi haqida tushuncha beriladi.

Kalit so`zlar: tarixiy qissa, ayol, obraz, portret, to`qima obraz, xarakter, iroda, otashkada, epizodik obraz, muallif nutqi, personaj, vatanparvarlik.

Iste'dodli va izlanuvchan yozuvchi qalamiga mansub aksariyat hikoya, qissa, romanlarni mutolaa etib, to'g'ri (haq) yo'lni tanlagan insonlar bu ijodkorning ideal-ijodiy qahramonlari ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilish mumkin[2]. Tarixiy qissalarning aksariyat qahramonlari mazkur jihatlarga ega ekanligini bilan xarakterlidir.

Asar yaratish jarayonida ijodkor o`zining tafakkuri, o`y-fikrlarini ham ma'lum darajada badiiy obrazga singdiradi. Jo`ra Fozilning tarixiy qissalarida turli din vakillari, har xil tabaqadagi shaxslar, turli dunyoqarash-u ko`rinishga ega bo'lgan personajlar, obrazlar ishtirok etgan.

Yozuvchi har bir tarixiy qissalarida ayollar obrazini mukammal yaratishga alohida e'tibor qaratgan. Asarda biror ayol shunchaki ishtirok etmagan. Ularning har biri ma'lum bir vazifani bajarishga xizmat qilgan.

“Buxoro malikasi” asarida adib bosh qahramon bo'lmish malika Qabojni o'n yetti, o'n sakkiz yoshli nozik malika sifatida emas, balki qat'iyatli, mard, vatanparvar ayol va mehribon ona sifatida tasvirlaydi. U xazinadagi boyliklar, o'z or-nomusidan ko'ra mamlakatning tinchligi, osuda va farovon hayoti, xalqning baxt-saodatini ustun qo'yadi. Qaboj hukmronligi davrida Buxoroda undan dono, odilroq biror kishi bo'lmagan. U dushman oldida bir necha bor mag'lubiyatga uchrasa-da, xalqi uchun taslim bo'lmaydi, dushmanlar bilan kurashishdan aslo to'xtamaydi. Mamlakat boshlig'i Bidun taxtni tashlab, Sharqiy Turkistondan yordam so'rab ketadi, biroq bu holat yosh malikaning shiddatini so'ndira olmaydi. Asarda malika dono va tadbirli ayol sifatida tasvirlanadi. Arablar hujum qilgan vaqtda, Buxoro sarkardalaridan biri ularga qarshi bemavrid jangga kirmoqchi bo'ladi. Mazkur hodisaga nisbatan Qaboj: “Fillar bilan jang qilganlar ularning oyoqlari ostida toptalgaylar”, kabi hikmatli so'zni sarkardaga eslatib, o'zining nechog'lik tadbirli ekanligini ko'rsatadi.

Asarda tasvirlanishicha, Sayyor ismli bir yigit otashkadada yonib turgan olovni o'chirmoqchi bo'ladi, shakkoklik qiladi. Malika u bilan alohida suhbat o'tkazadi. Oddiy bir fuqaro bilan yuzma-yuz suhbatlashish malikaning o'ziga xos yuksak bir xususiyatini ko'rsatadi, negaki, tarixda bu kabi hodisalar kam uchraydi. U yigitdan olovni o'chirmoqchi bo'lganligini sababini so'raydi, shunda yigit olovdan vahimaga tushishini aytadi. “Tushunarli. Olovdan vahimaga tushar ekan, hali yuragidagi e'tiqodi butunlay o'chmagan”[1], ko'nglidan o'tkazdi malika. Bu voqea orqali biz Qabojning imon-e'tiqodi mustahkamligiga guvoh bo'lamiz. U o'z diniga chuqur hurmat bilan qaragan va xalqini ham bunga da'vat etgan. Ariq qazib, yerlarni suv bilan ta'minlashga katta xizmat qilgan bir dehqonga hadya berishi, o'limga, sazoyi qilishga hukm qilingan yosh yigitlarning jazosini yengillashtirishi malikaning xalqparvarligini ko'rsatadi.

Malikani bosh qahramon sifatida e'tirof etish mumkin, chunki u qissa voqealarining markazida turadi, asar syujetining boshidan oxirigacha ishtirok etadi,

voqealar rivojini harakatlantirib turadi va asarning bosh g'oyasini oydinlashtiradi. Qaboj vatanparvar ajdodlarimizning qahramonlik, millatparvarlik kabi tuyg'ularini o'zida jam qilgan obrazdir.

Malika obrazi ijobiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, o'quvchilar uchun namuna bo'la olgan, yosh avlodni, insoniyatni, asrlar osha ezgulikka, vatanga muhabbat bilan qarashga, hamda adolatli bo'lishga undagan. Shu sababli malika bevosita ijobiy obrazdir.

Ushbu qissada Qubla nomli ayol obrazi mavjud. Bu personaj asarga to'qima obraz sifatida kiritilgan. Xalifa Said ibn Usmon malikadan visol talab qilganida, yurtning boshlig'i bo'lmish podshohni qutqarish uchun Qubla dushman qarorgohiga boradi. Uning nutqida uchragan: “It tekkan bilan daryo harom bo'lmas”, “bir boshga bir o'lim” kabi jumlar yoshgina qizning o'z yurtiga kuchli muhabbati borligini va u Buxoroning kelajagi porloq bo'lishi uchun o'limga ham tayyorligini ifodalaydi. Qublaning xalifaga tik boqib “qonxo'r”, “jallod”, “bosqinchi”, “iflos nafsing” kabi so'zlarni aytishi orqali adib bosqinchilarga o'z munosabatini bildirgan. U hech ikkilanmay, xalqining ozodligini yo'lida o'z hayotini qurbon qilishga tayyor turadi.

Qissada Qubla obrazi ayollarda ham vatanga muhabbatning nechog'lik kuchli bo'lishi, yosh qizlarning irodasi erkaklardan qolishmasligi(asardagi asosiy mazmunning kichkina bir qismi) kabi g'oyani ifodalagan hamda asarning syujeti davomida kam ishtirok etgan, shuning uchun u yordamchi yoki epizodik obraz sifatida ishtirok etgan.

Qubla o'z ona yurtiga bo'lgan muhabbati, jasurligi bilan kitobxonga o'rnak bo'la oladi. Shu sababli bu qiz ijobiy obrazlar sirasiga kiradi.

Adib aynan Qubla singari oddiy joriyani to'qima obraz sifatiga kiritib, unga ulkan vazifani yuklashi sababini shunday izohladi: “Qabojdek yurti uchun jonidan kechishga tayyor ayol taxtda o'tirgan ekan, demak, uning atrofida o'zi singari mard, ona vatani uchun har ishga tayyor joriyalar, albatta, bo'lgan”. Shu sababli Qubla obrazi tarixiylik va badiiy to'qimaning ajoyib uyg'unligiga misol bo'la oladi. Bu obraz Qaboj xarakterining mohiyatini ochishda yordam beradi.

Jo'ra Fozilning “Ibtido va intiho” nomli tarixiy asarida Zarringisu nomli obraz mavjud. U Ismoilning hayotida doimiy yo'ldosh edi. Zarringisuning: “Biz zaifalar g'alabani g'oliblarini xush ko'radurmiz. Mag'lublar o'zlarini-da, ayollarini-da taqdir to'fonlari izmiga tashlaydurlar. Amirimni yaxshi ko'rishim boisi – yalovlaridagi g'oliblik suvratidur...” kabi so'zlari amirni nafaqat ona yurti uchun jang qilishga undash, balki g'alabani qo'lga kiritishi uchun da'vat qilish edi. Bu ayolning so'zlari amirni ruhlantirib, g'alabaga bo'lgan ishonchini yanada oshirish vazifasini bajargan. Zarringisuga epizodik obraz sifatida qaraladi.

“Qizil quyun” nomli tarixiy qissada o'n yetti-o'n sakkiz yoshlar chamasida bo'lgan qiz – Gulshodabonu obrazi mavjud. Bu epizodik obraz asarning asosiy mazmun-mohiyatlardan birini ko'rsatish uchun ishtirok etgan. U “Sizda hali bir emas, bir necha arslon kuchu bor! Sizning oq arg'umoqda Buxoroga kirib borishingizni ko'rish menga nasib qilg'ay, hazratim! Buxoroda hozirlanayotgan lashkari islomga siz bosh bo'lgaysiz va biz Buxoroi sharif tuprog'ini yana ko'zlarimizga to'tiyo aylash baxtiga muyassar bo'lg'aymiz!” kabi so'zlari bilan Olimxonni ko'nglini ko'tarib, o'ziga bo'lgan ishonchini orttirish va dushmanga qarshi to'plangan lashkarga amir bosh bo'lib, jangga kirishi uchun undash vazifasini bajargan.

Tarixiy qissalarda ayollarning erkaklarga ishonch berib, ularni vatan ozodligi yo'lida kurashishga da'vat etish hodisasi mazkur asarda ishtirok etgan Gulbodom obrazida ham o'z aksini topgan. Asarning bosh qahramonlaridan biri bo'lgan Abduvahob va Gulbodom orasida bo'lib o'tgan suhbat yigitning tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatadi. “Men Buxorodan, ona shahrimdan ayru bir soniya ham yashay olmasam kerak! Ayting, Buxoroni holi ne kechadi?! Machit-madrasalar otxona-yu omborxonaga aylandi, muqaddas qadamjolarimiz kuyib kul bo'ldi. Ayting, biz nima qilamiz endi?!” Yosh qizning yuqorida keltirilgan fikrlarini eshitgan yigitning yuragida har xil o'ylar paydo bo'la boshladi. Qizlarning, ayollarning yuragida o'z ona yurtiga, vataniga juda kuchli muhabbat borligi Abduvahobni quvontiradi, u shunday matonatli insonlar yordamida Buxoroga bostirib kelgan balolardan qutilishimiz mumkin, deya o'ylaydi. Mazkur suhbat davomida Buxoroga necha marotaba yovlar bostirib kelsa-da,

uning gullab yashnashda davom etayotganligi kabi hodisalar haqida yoshlar mushohada qilishadi. Birgina Gulbodom obrazi misolida adib ayollarning vatanga muhabbati, oqibati, xalq haqida qayg'urishi kabi xislatlarning mavjudiligini, ularning matonati kuchli ekanligini ko'rsatib beradi. Qiz bilan suhbatdan so'ng, Abduvahob bolsheviklarga taslim bo'lmagan, dushmanga qarshi kurashadigan kishilarni qidiradi. Qiz yigitning yuragiga umid uchqunlarini ekib, Buxoroning dushmanlariga qarshi kurashishga kuch va ishtiyoq paydo qilgan edi.

Ko'rinib turibdiki, tarixiy qissalarda adib ayollar obraziga katta mas'uliyat yuklagan. Ularning erkaklar singari mardligi asarlarda mahorat bilan tasvirlangan. Qissalarda bir o'rinda yurt ozodligi uchun jangga kirgan ayol timsoli gavdalansa, boshqa o'rinlarda ayollar erkaklarni dushmanga qarshi kurashishga undovchi, ularga ma'nan qudrat, o'ziga ishonch beruvchi kuch sifatida aks ettirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, qadim zamonlardan boshlab hozirgi kunga qadar ayollar davlat siyosatida ham, jamiyat hayotida ham muhim o'ringa egadirlar.

ADABIYOTLAR

1. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari.–Toshkent:Yangi asr avlodi, 2017 . – 320 b.
2. Murodov G`. “Yo'lovchi tasviri”, maqola. Yoshlik jurnali. 2019, 10-son.

BOLALAR QALBIGA YAQIN SHOIR

Nozima Ochilova,

BuxDU, Adabiyotshunoslik (o'zbek) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anvar Obidjon ijodining o'ziga xosligi, badiiy mahorat qirralari to'g'risida so'z yuritilgan. Ijodkorning bolalarga bag'ishlangan she'rlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, She'riyat, Anvar Obidjon ijodi, Ijodiy niyat, badiiy mahorat, tabiat tasviri, obrazlilik.

Bolalar adabiyoti deganda bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan asarlar, she'rlarni tushunamiz. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – o'zgaruvchan

hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fontaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.

Bolalar adabiyotiga nazar solar ekanmiz, bevosita ko'z o'ngimizga Xudoyberdi To'xtaboyev, Po'lat Mo'min, Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Do'stjon Matjon, Kavsar Turdiyeva, Anvar Obidjonlarning ijod namunalari gavdalanadi. Ayniqsa Anvar Obidjonning she'r va ertaklaridagi ma'no ravshanligi, xalqchilligi bilan alohida ajralib turadi.

Anvar Obidjon “Ona yer”, “Olovjon va uning do'stlari”, “Akanq qarag'ay Gulmat”, “Oltin yurakli avtobola”, “Alamazon va Gulmat hangomasi”, “Meshpolvonning janglari”, “Meshpolvon”, “Odobli bo'lish osonmi?” kabi to'plamlarining aksariyati bolalarga bag'ishlangan. U bolalarga fikrini nasihat yo'li bilan emas, jonli va ramziy tasvir vositasida ifodalashga urinadi. Adibning barcha turdagi ijod namunalari katta-yu kichikka birdek yoqadi va sevib o'qiladi. Anvar Obidjon yaratgan she'rlarning har bir satrida quvonch hamda beg'uborlik yaqqol ko'rinib turadi.

“Bolakaylar kechiring,
Aytolmayman u yog'in
Chunki, avtoruchkamning
Tugab qoldi siyohi”.

Ushbu she'r orqali ham shorning tabiatini, bolalarga mehrlari va ular bilan qalban birgaligini sezish qiyin emas. Haqiqatan ham bola toza qalb egasi. Uning o'ylovlarida yolg'onga o'rin yo'q. Har bir gap uning uchun chin hisoblanadi. Shoir boladagi mana shu sof qalbni hurmat qilgan holda ular bilan bolalardek suhbatlashadi. Albatta, o'quvchi uning sodda va samimiy she'rlari, ertaklarini o'qir ekan, adibning bunday mehrini e'tibordan chetda qoldirmaydi, beixtiyor uning kechinmalarini his etadi.

Anvar Obidjon qalamiga mansub she'r va hikoyalar o'quvchi tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Uning har bir obrazi, ijodining syujetliligi beg'ubor bolaligimizni eslatadi. Qalbimizda bolalik damlarimizning sho'x-shodon onlariga qaytish istagini uyg'otadi.

Anvar Obidjon o'zbek bolalar adabiyotiga olib kirgan yangiliklardan biri – kichkintoylar uchun aruz vaznida asarlar yaratish an'anasini davom ettirdi. Chunki bizning mumtoz adabiyotimizda aruz yetakchi vazndir. Bolalar adabiyotida bolalar tilida g'azal yaratish mumtoz yo'nalishlarimizdan biridir. Masalan, “Bulbulning salomnomalari” o'zbek bolalar adabiyotida katta voqea bo'ldi. Shoir muqaddimada: “She'rlarning shakli g'azalga o'xshaydi, ya'ni unda aruz qonun-qoidalariga to'liq rioya qilinmagan” [1] deydi. Lekin asar juda nafis yozilgan. Bu asarda jonzotlarning o'ziga xos tomonlari ochib beriladi. Jumladan, qo'rqqoq quyon, do'stsiz chayon, yer qazadigan yumron, pismiqlik sirtlon, go'l karkidon, olg'ir sichqon va shu kabilarning hayot tarzlarini ochib berish bilan ijodkor bolalarni mehnatkash, vatanparvar, odobli, ziyrak, chaqqon bo'lishga undaydi.

Tun-u kun yer qazigan, zaxda yotib ozigan,

Ko'p tirishib, oz yegan go'shtxo'r Yumronga salom.

Bu bayt orqali shoir Yumronqoziq hatti-harakati timsolida mehnatkashlikni, sabrli bo'lishni ko'rsatib bermoqda. Demak, u tabiatning har bir kichik detaliga e'tiborli bo'lib, undagi xususiyatlarni obrazlar orqali syujetli ifodaga aylantirishga harakat qilgan. Tabiatni yanada go'zallashtirishga, jozibali kuy-ohangda ifoda etishga intiladi. Bolalar tilida yaratilgan g'azal kitobxonning yoshlikdanoq she'riyatning turli janrlariga qiziqishini uyg'otadi. Bunday she'rlarni yod olish esa ular uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bolalarning mumtoz adabiyotimiz namunalarini ham tushunish darajasi oshib borishida muayyan ahamiyatga ega bo'ladi.

Anvar Obidjonning tavallud ayyomiga bag'ishlab o'tkazilgan “Ko'ngil mayli...” nomli yozuvchi bilan bo'lib o'tgan suhbatda bolalarga atalgan she'rlari va hikoyalari adib shunday munosabat bildirgan: “Buning siri tezkor va o'zgaruvchan zamondan ortda qolmaslikka intilishda bo'lsa kerak. Odamzotning, jumladan,

bolakaylarning fe'li, orzu-istaklari zamona bilan ohangdoshlikda o'zgarib boraveradi. Taraqqiyotning asosiy omili - yangilanish. Men eski an'anaviylikning eng go'zal qirralariga tayangan, ularni hurmatlagan holda, bolalar she'riyatiga ko'proq yangi havo qo'shish tarafdoridan biriman" [3]

Bundan ko'rinib turibdiki, adib o'z asarlarini zamon talablabiga qarab bolalarning his-tuyg'ulari, orzu-istaklari o'zgarishini inobatga olgan holda yaratadi. Hattoki bolalardek fikrlashga urinadi. Buning yaqqol ko'rinishi sifatida uning she'riyatidagi obrazlilik va badiiy mahoratni ta'kidlash mumkin. Shoir borliqdagi hodisalarning payqash mushkul bo'lgan qirralarini ta'sirchan qilib yetkazib berishga harakat qiladi. Shoir she'rlarining asosi – tabiat va bola. U tabiatni, meva va sabzavotlarni tilga kiritib, ulardan obraz yaratadi. Uning she'rlari bolalar qalbi, ruhining yorqin ko'zgusidir, desak mubolag'a bo'lmas. Adib badiiy g'oyani chiroyli kulgiga o'rab ifodalaydi. Ramziy obrazlar zamirida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar yotadi. Ma'lumki, o'zbek bolalar adabiyotining ilk davrlaridayoq tabiat mavzusi yetakchilik qilgan. Agar bolalar uchun tabiat mavzusida bag'ishlangan she'rlar yig'ilsa, ular ko'p jildlik kitoblardan tashkil topardi. Ushbu yo'nalishda Anvar Obidjon ham ijod qilar ekan, boshqalargam o'zgacha fikr aytishga, yangicha kashfiyot qilishga to'g'ri kelishini bildi va buning uddasidan chiqdi. U o'z she'rlarida ana shu boqiy mavzuni bolalar ongiga, dunyoqarashiga, ruhiyatiga mos tarzda badiiy talqin etishda o'ziga xoslikni namoyon eta oldi. Ayniqsa uning ijodida hazil-mutoyibaga ham keng yo'l ochib berilgan. Bu orqali adib insonlar xarakter-xususiyatlarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. "Tog' hazili" she'ri buning yaqqol namunasi:

Buncha ulkansen, ey tog'?

Seni ilg'olmas ko'zim.

Qoyang tik va qirrali,

Muncha ham bo'psan azim.

– Sen endi yeti yoshda,

Boqqinchi bo'yingga bir.

– Million yoshga kirsam ham

O'smaymi, shuncha axir?

Bola bunday she'rlarni o'qiganda, labida beixtiyor tabassum yuguradi. Ko'rinib turibdiki, she'r nihoyatda ixcham. Shunday bo'lishiga qaramay she'rda haqiqatan chekinmagan holda xayoliy romantik obrazlar yaratilgan hamda o'zida yuksak ma'noni yashirib turibdi. She'rning ikkinchi misrasida tog'ning bolaga bergan javobida badiiy mahorat orqali insonning ilm egallashi kerakligi ifodalab berilgan. Biz bilamizki, tog'ning mahobati naqadar yuksak bo'lmasin, inson o'z aql-u zakovati va kuch-qudrati orqali uni zabt eta oladi. "Saxiy Lolalar" she'ri:

Birgalashib uch o'rtoq –
Men, Aziza va Qo'shoq,
Keng lolazor qo'ynida
O'ynardik bekinmachoq.
Bekinmoqchi bo'lsam men,
Har lola imlab sekin –
Deydi: "Kelaqol o'g'lon,
Bizning makonga bekin".

Bu she'r orqali bolalar ko'z oldiga o'zbek milliy o'yinlarimiz keladi. She'rda Lolalar bolani o'zlariga chorlashlari, uni himoya qilishlari orqali yosh insonda gullarga nisbatan mehr uyg'otadi. Shu bilan birga bahor faslining tarovati, tabiatni asrash, biz tabiatni asrasak, u ham bizni asrashi mumkinligi shoir tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan. Tabiat bilan biz qancha oshufta bo'lsak, uning go'zalligi, gullarning xushbo'yligi bizni o'ziga shuncha maftun etadi va borliqdan go'zallikni izlashga chorlaydi. Shunday ekan biz tabiatga o'z hissamizni qo'shsak, u ham insondan saxiyligini ayamaydi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun shoir she'rlarini yod olish, tushunish, anglash qiyinchilik tug'dirmaydi. Aksincha misralarning sodda, ravon, o'ynoqiligi bola ongi va qalbiga ona tabiatni asrash, ona vatanni sevish tuyg'ularini singdiradi. Kitobga muhabbat ruhini uyg'otishga xizmat qiladi. Yosh insonning nutqi ravonlashadi. Bolaning so'z jilosini yoshidanoq his etishni ta'minlaydi. Shoir she'rlari

bor bo'y-basti bilan bolalar dunyosini qayta kashf etadi. Adib ijodidagi o'ynoqlik bolani san'atni tushunishiga ham vosita bo'la oladi. Uning she'rlaridagi rang-barang mavzular, tasvirning aniqligi hamda hazil-mutoyibaga boyligi bola qalbiga iliqlik baxsh etib, dunyoqarashining kengayishiga, tasavvur qobiliyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Anvar Obidjon O'g'irlangan pahlavon. – T.: Cho'lpon, 2006.
2. Anvar Obidjon Ona yer. – T.: Yosh gvardiya, 1974.
3. Ko'nglimizning mayli ichki tarbiyamizga bog'liq (Anvar Obidjon bilan suhbat). // Bekajon, 2005. – № 74.
4. Shermuhammadov B. Pokiza qalblar kuychisi. // Xalq so'zi, 2021-yil, 1-noyabr.

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA PSIXOLOGIK

DETAL

Jaloliddinova Gulnoza Jaloliddin qizi,

BuxDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi II bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalarida psixologik konflikt tabiati va inson munosabatlarning talqin etilishi, ijodkorning inson ruhiyatini badiiy ifoda etish va xarakter yaratishdagi mahorati masalasi xususida so'z borgan.

Kalit so'zlar. Konflikt, kolliziya, to'qnashuv tushunchalari, psixologik detal, Shukur Xolmirzayev ijodi, badiiy obraz, xarakter, talqin, tabiat va ruhiyat tasviri, badiiy mahorat.

Inson ruhiyati va ma'naviy olamining badiiy talqini borasida har qaysi yozuvchining o'ziga xos uslubi, yondashuvi kuzatiladi. Insonning ichki olami murakkab masala bo'lib, u bir paytning o'zida turli holatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Inson turli tashqi hodisalar ta'sirida o'zgarishi, bir onning o'zida qarama-qarshi holatga tushishi mumkin. Ijtimoiy hayot va insonning badiiy olamini tasvirlashni maqsad

qilgan adabiy asarda bu kabi holatlar tasviri adabiy asarning ishonirish kuchini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda konflikt muammosi doirasida ruhiy konflikt masalasi o'rganiladi. Konflikt, kolliziya, to'qnashuv tushunchalari adabiy qahramon tasvirida muhim o'rin tutadi. "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" da "badiiy konflikt" ga shunday ta'rif beriladi: "Kolliziya – to'qnashuv, qarama-qarshilik so'zidan olinib, badiiy asarda xarakterlarning o'zaro kurashi, sharoit va xarakterlar o'rtasidagi to'qnashuv deb baholanadi". Ushbu ta'rif ziddiyatning tuyg'ular kolliziyasi ma'nosini to'liq ifodalamaydi. Lekin bu ta'rifga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, "kechinmalar kolliziyasi" – asar personajlari ruhiy olamini tasvirlovchi, hamda ular ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, to'qnashuvlar kurashidir.

Sh.Xolmirzayevning "Jarga uchgan odam" hamda "Omon ovchining o'limi" hikoyalarida psixologik detal vazifasini miltiq bajargan bo'lsa, "Sog'inch" va "Yovvoyi gul", "Bulut to'sgan oy", "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" hikoyalarida o'simlik poetik detal bo'lib xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayevning asarlarida eng ko'p qo'llaniladigan detallar bu – tabiat unsurlari: turli daraxtlar, o't-o'lanlar, gullar, qushlar, hasharotlar va hayvonlardir. Ularni inson obraziga nisbat berish bilan adib tabiat va odamning yaqinligini, biri ikkinchisiz yashay olmasligini uqdirmoqchi bo'ladi. Ayni chog'da tabiat hodisalaridagi o'zgarishlarga, ularning o'ziga xosligi (masalan, yarmi qurigan do'lananing hamon gullab, meva tugishi, gap tomirning chuqur ketganligi, ya'ni mohiyatda ekani)ga urg'u berish orqali odamni o'z hayotiga e'tiborliroq bo'lishga undaydi. Adib asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko'rkini namoyish etish uchun quturib gullab, bizni maftun etadi. Ruhiatimizga osoyishtalik bag'ishlab, umrimizni uzaytiradi. Psixologik detal asarda muallifning badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi, ya'ni qahramon tasvirida u uchun juda zarur bo'lib turgan mavhumlikni ochib beradi, shu bilan birgalikda qahramon ruhiyatini ham ayonlashtiradi. Eng muhim tomoni shundaki, badiiy asarda qahramon

ichki olamining rang-barang, ayni chog'da o'quvchi anglab olishi zarur bo'lgan muhim qirralarni ochadi.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida psixologik detalning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Adib hikoyalarida miltiq detali muhim o'rin tutadi. Adibning hikoyalarida tez-tez uchraydigan tabiatga daxldor insonlar timsollar orasida alohida e'tiborni tortadigan ovchi obrazi va u bilan bog'liq jihatlar atrofida miltiq detali ko'zga tashlanadi. "Omon ovchining o'limi" hikoyasida ayni shu miltiq detali ko'plab tirik jonlarning umriga zomin bo'ladi, ayni damda shu detal vositasida anchayin jonlini jonsiz qilgan Omon ovchining ham hayotiga yakun yasaydi. U shunchalar vahshiy insonga aylanadiki, hatto hayvonlarni ov uchungina emas, balki ko'ngil rohati, jonzotlar o'limidan maroq olish uchun o'q uzadi, "Shunda... uning o'rnida yana bir kiyik paydo bo'ldi. Omon miltiqni o'qlay solib, uni ham otdi. U ham tepaga bir talpinib, quyiga uchdi. Keyin esa shoxi gajak bir arxar ko'rindi. Omon miltiqqa o'q joylar ekan, allanechuk shoshar edi. Arxarning ham ajali yetgandek qochmasdan quyiga qarab turib qoldi. Omon uni ham otdi... Omon otishga... shunchalik berilgandiki, kiyiklarning qayerga yiqilib tushayotgani haqida ham o'ylamasdi: yana otgisi, jonivorning sakrab tushib ketishini tomosha qilgisi kelardi"[4.34]. Mana shu parchaning o'ziyoq sovuq qurol bo'lmish – miltiq detali vositasida qahramonimizning to'liq qiyofasini, ichki olamini, ruhiy dunyosini kitobxon ko'z o'ngida anchayin tiniq tasvirlab beradi. Mamlakatimizda noyob hisoblanadigan, "Qizil kitob"ga kiritilgan jonzotlar sirasiga kiruvchi arxar, kiyiklarni ayovsiz ravishda yo'q qilgan bu qahramon ruhiy dunyosi qanchalar qora, tund parda ostida qolganini anglash qiyin emas. Miltiq yovuz qurol, o'lim keltiruvchi detal bo'lsa, Omon ovchi undanda yovuz, qalbi muz, insoniylikdan yiroq bir shaxs ekanligini ko'rsatib turibdi. Bu detal hikoya davomida juda ko'p marotaba qalamga olingan. Omonning doimiy hamrohi – shu miltiq bo'lmasa, biz bu qahramonni to'laqonli tasavvur qila olmagandek bo'lamiz. Psixologik detalning vazifasi ham aslida shu. Omon ovchi qorli kunda ov qilib oyog'i shikastlangan bir vaziyatda shifokor huzurida ham miltig'ini yonida bo'lishini istaydi. Arzimagan bir ehtiyotsizlik sabab oyog'ini sindirib, nogiron bo'lib yotib qolganida ammasi unga nasihat qiladi, bu

qilmishlari Yaratganga xush kelmasligini uqtiradi: “Senga ko‘z tegdi. Keyin hadeb jonlini jonsiz qilishingniyam xosiyati yo‘q. Qusham xudoning maxluqi... Uyam bir vaqtlar odam bo‘lgan emish”, – ammasining bu gaplaridan so‘ng oyog‘ining singan joylarini solayotganda ham inqillamagan Omon ixrab yuboradi. “Miltiqni obering! Yonimda tursin... Amma qo‘rqa-pisa “indamas”ni keyin u aytgan yerdan bir changal o‘qni olib berdi”[4.35]. Omonning ixrab yuborishiga sabab ammasining gaplari unga nashtardek sanchildi, hatto oyog‘i singandagi og‘riq ham unga bunchalar ta‘sir qilmagandi. Biroq u endi o‘zgarmasdi. Niholni yoshlikda qanday parvarishlasang shu ko‘yi o‘sgani singari Omon ham bolalikdan shunday tarbiya topgandi, otasining qilgan xatosi tufayli u mana shunday “manqurt”ga aylanib bo‘lgan edi. Bunday fikrga kelishimizga asos uning: “miltiqni olib bering yonimda tursin “– degan so‘zlari. O‘zi bir ahvol bo‘lib to‘shakka mixlanib, nogiron bo‘lib qolganiga qaramay yana miltiqni o‘ylaydi, go‘yoki ammasi undan indamas”ni tortib oladiganday. Ammaning qo‘rqa-pisa miltiq va o‘qlarni olib berish holati ham hattoki, o‘z jigarlarining ham Omonda qo‘rqishlarini o‘quvchiga anglatadi. Hikoyadagi psixologik detal bo‘lmish miltiqni yozuvchi mahorati bilan shunchalar Omonga kerak ichki bir zarurat sifatida tasvirlanadiki, bunga qoyil qolmay iloj yo‘q. Jon holatda yotgan Omon kakliklarning ovozi eshitib aqlini yo‘qotgandek kalovlanib, kitelining kissasiga o‘q solib yurolmaganidan emaklab bo‘lsa ham borishga ahd qiladi. “U shahd bilan supa labiga emaklab bordi-da, qorga tushsa, gipsi nam tortishini o‘yladi. Keyin: “ Sandalda quritib olaman-da!”– deya bir qo‘lini qorga botirdi – qor tirsakdan keldi. Keyin ikkinchi qo‘lini botirdi. Keyin, sudralib tushib, oyoqlarini tizzadan ko‘tarib oldi. Shu tobda uzoqdan qaragan kishi uni ko‘rmas edi” [4.32]. Ov, kaklik otish uchun o‘z sog‘ligi ham ko‘ziga ko‘rinmaydi. O‘rmalab bo‘lsa-da, o‘z maqsadiga yetish, nafs yo‘lida qorga botib qiynalib ovoz kelgan tomonga intiladi. Agar gipsi nam tortsa sandalda quritishni o‘ylagan bu qahramonimiz bu galgi ovdan endi qaytmasligini o‘ylamas, xayoliga ham keltirmasdi. Qo‘llari yordamida o‘rmalab borayotgan Omon miltig‘ini bo‘yniga osib hansiray-hansiray tepalikka tirmashadi, ba‘zi joylarda sirg‘alib tushib yana emaklar borgan sari ko‘zlariga qon quyilib borardi. O‘z-o‘ziga esa: “Ularni otmasam,

qaytmayman!” – deya kuchli dalda, ishonch bildirardi. Mana shunday kechinmalar qo‘ynida borayotgan Omon qo‘riqxonada ichida don yeyayotgan kakliklar yoniga yetib keladi. Och qolgan kakliklar don yeyish ilinjida unga parvo ham qilmasdilar. Uch kaklikni otib ko‘ngli joyiga tushgan ovchi ularni tishida tishlab qo‘riqxonada sim to‘ri tagidan o‘rmlab ketayotganida sirpanib og‘zidan kakliklarning oyog‘i chiqib ketadi, o‘zi esa dumalab-dumalab qor o‘rami orasida qoladi. Lekin shunda ham u tirik edi va Olatog‘da jonivor zoti qurisa keyin nima qilishni o‘ylardi. Mana shunday jirkanch xayollar ichida, o‘z savoliga javob topishga ham ulgurmay qor o‘rami orasida nafasi bo‘g‘ilib qoladi. Qor kechasi bilan tinmay yog‘ib bo‘ron turadi. Ovchining bu kabi o‘lim topishi, qilmishlariga yarasha jazolanishi, tabiatga, uning jonzotlarga qiron keltirgan kimsaning jazosi su bo‘ladi deganday yakun yasaydi yozuvchi.

Hikoyada miltiq va inson parallel qo‘yiladi. Miltiq – sovuq qurol, mahv etuvchi, ayovsiz, yaxshi va yomonga bir, hissiz. Omon ovchida ham ana shunday xususiyatlar mujassam: mehrsiz, shafqatsiz, kerakli, keraksiz, qadrlil, qadrsiz degan tushunchalar uning uchun yot. Shu boisdan bo‘lsa kerak, adib miltiq detalini uning timsoli bilan yonma-yon qo‘yib boradi. Aslida adib Omon ovchining ichki kechinmalari tasviriga ham u qadar keng o‘rin ajratmagandek ko‘rinadi. Ammo aslida unday emas. Qahramonning hislari ham miltig‘idek sovuq. Bu hislar faqat mo‘ljaldagini mahv etishga yo‘naltirilgan va shu maqsaddan qaytmaydigan. Qadr-qimmat, mehr-oqibat, himmat va shafqat kabi tushunchalar uning uchun yot. Uning kechinmalari o‘ldirishga yo‘naltirilgan va bu yo‘lda uning yo‘liga hech narsa va hech kim g‘ov bo‘la olmaydi. Bunda g‘ov bo‘lganlar o‘qning domiga o‘zi giriftor bo‘lishi kutiladi. Umuman olganda, hikoyada xarakter va badiiy detalning parallel tasvirlanishi yozuvchining poetik mahoratini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – 384 б.
2. Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм: Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – 156 б.

3. Solijonov.Y. Detallar tilga kirganda//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.– Toshkent,2007.–N 5

4.Холмирзаев Ш. Омон овчининг ўлими. / Холмирзаев Ш. Сайланма. Иккинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 19-34.

ABDULLA SHER IJODIDA PEYZAJNING O‘RNI

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna,

BuxDU Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti II bosqich magistranti

d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada serqirra ijodkor - Abdulla Sher she’rlaridan bir nechta namunalar tahlilga tortilgan. Unda peyzaj masalasi, ijodkorning so‘z qo‘llash imkoniyati va badiiy mahorati o‘z ifodasini topgan. Shoir she’rlarida qo‘llangan peyzajning go‘zal namunalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: peyzaj, peyzaj lirikasi, so‘z qo‘llash mahorati, estetik zavq.

Peyzaj – badiiy so‘z vositasi orqali tabiat tasvirini berishdir. U tasviriy va psixologik peyzaj turlariga bo‘linadi. Uning tasviriy turi orqali she’rdagi voqeaning qayerda sodir bo‘layotgani, qahramonning xarakteri ochib berilsa, peyzajning psixologik turida ruhiy kechinmalar beriladi. “Yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyatini faqat qahramonlarning xatti-harakatlari orqali emas, balki ularni o‘rab turgan tabiat manzalarini tasvirlash orqali amalga oshiradi”⁵⁶. Peyzaj asar mazmunini yorqinroq ko‘rsatib berishga imkon beradi. Uning “Lola” she’ri peyzaj lirikasining yorqin namunasidir:

Yellar tog‘ bag‘irlab o‘tadi ilk bor

Archalar so‘raydi:

- Cho‘qqida ne bor?
- Unda chiqayotgan quyosh parchasi.
- Unda bir piyola may tutgan nahor.

⁵⁶ Sultonava M. Peyzaj san’ati. – T.: Fan, 1983. – B. 9.

Ushbu she'rda ko'rinadiki, yellar tog' bag'irlab o'tadi. Pastda turgan archalar uni so'roqqa tutadi. Shu savol – javob orqali shoir tabiat manzarasini beradi. Yoki yellar takror o'tadi:

Yellar tog' bag'irlab o'tadi. Takror

Archalar so'raydi:

- Cho'qqida ne bor?
- Unda botayotgan quyosh haykali.
- Unda sarxushlikdan chayqalgan bahor. [2]

Oddiygina yel va archa suhbatini orqali shoir quyosh chiqish va botish jarayonini tasvirlaydi. Shu orqali umrning qisqa ekanligi, bir ko'z ochib yumguncha fursatda, quyosh ko'tarilib tushishi jarayoniga qiyoslanadi. Haqiqatan ham umr qisqa, uning qadriga yetish, besh kunlik dunyoda yaxshilik ulasha olish esa eng oliy fazilatdir. Bundan tashqari, she'r syujetiga e'tibor bersak, bahor fasli qalamga olingan. Bahorgi yel tog'lar oralab o'tadi. Tog' etaklarida o'sgan archalar uni so'roqlaydi: cho'qqida nimalar borligini so'raydi. Archalar inson umriga ham o'xshab ketadi. O'z joyidan uzoqlasholmaydigan yiroqqa ketolmaydigan, kishilar taqdiri aks ettiriladi. Biroq inson tug'iladi, yoshligidan boshlab atrofqa qiziqadi, olam tilsimlarini ochishga harakat qiladi. Archalar ham quyosh chiqqandan botganga qadar, ya'ni umri davomida savollarga qorishib yashaydi. Va she'r yakunida ham, ya'ni umr oxirida ham inson yuqoriga bo'y cho'zishdan, savollarga javob izlashdan charchamaydi. Shoir peyzaj lirikasi orqali umrni ta'sirchan tasvir etadi.

Tuni bo'yi behol yotgan

Xazonni yel opichdi.

Behol xazon terga botgan

Derazamga yopishdi. [2]

Shoir tabiat manzaralarini tasvirlash barobarida ularga o'zining fikrlarini ham bildirib o'tadi. Shoir she'rlarida dastlab tabiat tasviriga to'xtaladi, atrof, fasl aytiladi, so'ng o'zi bilan bog'liq o'rinlarga o'tib ketadi. Yuqoridagi she'rda ham kuz fasli, xazonrezgilikni tasvirlaydi. Kuzgi shamol xazonlarni uchirib tashlayotgani, barglar

derazaga urilayotganini tasavvur qilish qiyin emas, aynan terga botgan deraza degandan tashqari sovuq va uyning issiq haroratda ekanligini ham aytib o'tadi. Shundan keyin shoirning o'ylari, xotiralari qalmaga olinadi. "Tuni bo'yi ezma yomg'ir Bog'ustidan quydi g'am" satrlari orqali yomg'ir yog'ishi aytiladi. Biroq u yoqimli yomg'ir emas, g'am quydi. Shu g'am bilan shoirning "qip yalang'och xotira"si uyg'onadi. Bu birikmalar tasvirlarning bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi.

So'ng qarz olib baxtli yozdan

Qizg'aldoqlar terdim men.

Xotiramga oq qog'ozdan

Ko'ylak qilib berdim men.

Shoir yozdan baxtni qarz oladi. Demak, yoz baxtli. Shu orqali faslga ham o'z qarashlarini bildirib qo'yadi. Abdulla Sher tabiatga shu qadar yaqinki, u ona tabiatni his etib, jonli tarzda tasvirlaydi. Abdulla Sher o'z Vatanining sehrliligi, jozibali tabiat manzaralarini shoirona so'zlar orqali tasvirlab bera olgan, hayvonot, nabotot olamini yaxshi anglagan va shu manzaralarni she'rlariga mahorat bilan singdira olgan shoirdir. Aytish mumkinki, shoir ijodida tabiat va unda uchrovchi jismlarning o'rni katta. Tasvir jarayonida shoir shu narsani o'z g'oyasiga uyg'un tarzda tasvir etadi.

Shoir ona yurt tabiatidan go'zal peyzaj yaratadi. U tabiatni shu qadar jonli tasvirlaydiki, kishi oniy lahzada shu yerni ko'rgisi, o'sha yerga borib qolgisi keladi. Uning she'riyati o'ta samimiyligi, tuyg'ulari chinligi bilan alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

¹ Sultonava M. Peyzaj san'ati. – T.: Fan, 1983. – B. 9.

¹ Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san'at, 1987. – B. 16.

MUSTAQILLIK DAVRI MILLIY DOSTONCHILIGIDA SHAKLIY- USLUBIY IZLANISHLAR

Soliyeva Kamola Abdumalikovna,

BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti II bosqich magistranti

Annotatsiya: Musaqillik davri dostonlarida ko‘chma ma’no hosil qilish, konseptual metaforaning xususiyatlarini ko‘rib chiqish kognitiv ahamiyat kasb etadi. Istiqlol davri ijodkorlarining aksariyatida dostonlarida folklorizmning ko‘rinishlari mavjud. Ular kitobxon tafakkurida turlicha tasavvur uyg‘otadi va birgina yo‘nalishdagi talqinga qarshilik ko‘rsatadi. Shuning uchun majoziy obrazlilik asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati bilan modernistik she’rlar tadqiqot manbai sifatida alohida e’tiborga loyiq. Shu bois mazkur maqola modern usulda yozilgan dostonlar haqida olimlarning fikrlaridan isbot sifatida foydalandik. Mustaqillik davrida yartilgan dostonlarni tahlili va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: modernistic, ko‘chma ma’no, tashbeh, jonlantirish, sifatlash, majoziy obrazlilik, poema, relistik tip.

Dostonchilik an’anasi turkiy xalqlarda ancha qadimiy bo‘lib, u mumtoz adabiyotda bir qator rivojlantirildi va o‘ziga xoslik kasb etdi. Mumtoz adabiyotdagi dostonlarda lirik holatlar epik bayon miqdoriga nisbatan yaqinlashdi. XX asr o‘zbek poeziyasidagi dostonlarning yaratilishida bir tomondan, milliy dostonchilik an’analari ikkinchi tomondan, Yevropa va rus adabiyotdagi dostonchilik an’analari katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, o‘zbek adabiyotiga boshqa ko‘plab terminlar kabi «poema» termini ham XX asrda kirib kelib, o‘zlashdi. O‘zbek adabiyotshunosligida epik asarlarga nisbatan «doston» yangi yaratilgan lirik epik asarlarga nisbatan «poema» terminini qo‘llash odatdir. Ba’zan shoirlarimiz ham, adabiyotshunoslarimiz ham bu ikki termini sinonim sifatida ishlatadilar. Akademik I.O.Sultonovning fikricha «Bu unchalik to‘g‘ri emas, chunki o‘zbek mumtoz adabiyotida «doston» deb asosan nasr bilan yozilgan asarlarga aytilar edi. Doston-o‘zbek folklorining ham keng tarqalgan yirik janrlaridan biri. Uning yaratilishi xalqimizning ma’naviy maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqida ideallari bilan chambarchas bog‘liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning mavzusi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi. V. M. Jirmunskiyning fikricha «Epos-bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi jonli o‘tmishdir. Uning tarixiy

qimmatini, ayni paytda juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir». Dostonning epik voqealikka munosabati, spetsifikasi, sinkretik xarateri to'g'risidagi qimmatli fikirlarni boshqa folklorshunos olimlarimizning tadqiqotlarida ham uchraydi.

XX asrning shiddatli voqealari ya'ni davr talabi yangi janrlarning yaratilishini talab etardi. Bunday doston janri G'arbiy Yevropa va rus mumtoz poemasida bor edi. Ko'plab rus shoirlari o'z salaflarining an'alaridan ijodiy foylanib, 20-yillardayoq dostonlar yarata boshlaganlar. Kundalik hayotda ro'y berib turgan voqealarni keng aks ettirishga, real kishilarning to'laqonli obrazini yarata olishiga qodir doston janri asta-sekin o'zbek milliy adabiyotlarga ham o'z o'rnini egallay boshladi. Bunday intilishlar o'sha yillardagi o'zbek poeziyasida yuqori cho'qqilarga erishdi. Doston-o'zbek folklorining ham keng tarqalgan yirik janrlaridan biri. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqida ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning mavzusi, g'oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi, sujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi. Dostonning epik voqealikka munosabati, spetsifikasi, sinkretik xarateri to'g'risidagi qimmatli fikirlarni boshqa folklorshunos olimlarimizning tadqiqotlarida ham uchraydi.

Dostonlarda tarixni xalqona tushunish, uni jonlantirish mavjud. Ularda xalqimiz boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning etnik birlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan. Dostonlar haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlagan xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlarini va maishatini qomusiy bir tarzda ifodalagan o'tmish yodnomalaridir.

Ko'rinadiki, doston janriga asos bo'lgan manbalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Turkiy xalqlarning qadimiy dostonchilik an'anasiga asoslangan, muayyan o'zgarishlar bilan bizga yetigan va saqlangan xalq baxshilaridan yetib kelgan dostonlar.
3. Rus va Yevropa adabiyotidagi dostonchilik an'analari.
4. Qardosh xalqlar adabiyotidagi janriy o'zgarishlar.

5. XX asr boshlaridagi ijtimoiy voqealik va epik ko'lamdorlik.

Mavzu, ma'no, mazmun jihatidan har xil bo'lgan bu dostonlarda tariximiz sahifalari yorqin ranglarda badiiy gavdalantirildi, tarixiy shaxslarning betakror obrazlari, qahramonlik ko'rsatgan o'rinlari, zamondoshlarimizning qalb dunyosi, hiskechinmalari folklorizmlar bilan ziynatlangan, ramziylik, falsafiylik, tasavvufiy, tarixiylik, jozibadorlik ohanglar bilan yo'g'rilgan satrlarda namoyon bo'ldi. Bu holat mustaqillikning keng imkoniyatlari orqali edi.

Abdulla Oripov "Istiqlol manzaralari", Jamol Kamol "Shayxurrais", Ikrom Otamurod "Dog", "Og'ish", Ikrom Asli "Oy so'qmog'i", Chorsham "Bahouvuiddin Balogardonga borish", Sa'dulla Hakim "Bola botir", Nurilla Doston "Hidoyat charog'i", Mahmud Toyir "Ogoh bo'l, dunyo", "Oshiq ohi", Abduvali Qutbiddin "Ozodlik", Muhammad Rahmon "Abadiy nido", Oydin Hojiyeva "Bolalik", A'zam O'ktam "Qochayotgan qon", Faxriyor "Yoziq", "Ayolg'u", Eshqobil Shukur "Ibtido xatosi", Toshpo'lat Ahmat "Chorbakr", Samandar Vohidov "Vido", Sirojiddin Said "Yuz oh Zahridin Muhammad Bobur", Asqar Mahkam "Tavajjuh", Oydinniso "Boshpana", Sirojiddin Rauf "Vido" singari dostonlari g'oyaviy ko'lami, mavzu-mundariyasi, kompozitsion tuzilishi, sujetlar chizig'i, obrazlar tizimi, qahramonlar xarakteri, falsafiy mushohadasi, tarixiy ildizlari jihatdan boy va rang-barangdir. Ularning janriy xususiyatlarini, taraqqiyot tamoyillarini yaxlitligi, mavzular jihatidan xilma-xilligi, g'oyalar jihatidan kata qamrovga egaligini tizim sifatida o'rganish bugungi adabiyotshunosligimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Mustaqillik davri dostonchiligi o'zining bir qator o'sib borish va rivojlanish xususiyatlariga ega. Istiqlol davri dostonchiligiga xos xususiyatlardan biri xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat etish va ularga xos epik qoliblardan, obrazlardan, sujet chiziqalaridan, motivlaridan, mifologik obrazlardan ijodiy foydalanish asosida poetik manzaralar yaratishdir. Shoirlarimiz xalq og'zaki ijodiga mansub doston, o'lan, alla, marsiya, rivoyat, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona janrlarni shu bilan birga topinimlar va antroponimlarni kiritish orqali dostonlar badiiy strukturasi yangicha tus va asosida voqelikni ta'sirchan ifodalash, milliylik mentalitet va xalqchilik belgilarini

kuchaytirishga erishdilar. Natijada istiqlol davr dostonchiligida folklorizmlarning xilma-xil shakllari yuzaga keldi. Misol sifatida Mahmud Toyir “Ogoh bo’l dunyo”, Ikromjon Asliy “Oy so’qmog’i”, Chorsham “Bahouddin Balogardonga borish” kabi dostonlarda ijodkorlar xalq og’zaki namunalariga bevosita murojat qilib, ohangdorlikni saqlagan. Ikrom Otamurodning “O’rin”, “Dog’”, “Og’ish” kabi dostonlarida falsafiy qarashlar mujassaligini ko’rishimiz mumkin. Shoirning o’zi ta’kidlab o’tganidek: “Yozishdan avval, kangulga monand so’zni qidiraman. So’zning ma’no yo’sinlarini, shakl tarzlarini qidiraman. Tilimizda har bir so’zning turfa ma’nolari, turfa shakllari mavjud. Xalq og’zaki ijodi, mumtoz adabiyotimiz, sheva jihatlarimizdan tortib, bugungi so’z siralariga bir nazar solib ko’ring-a? Omonim so’zlarga qarang. Sinonim so’zlarga qarang. Bu tilimiz maydonida o’sib kelayotgan ma’no daraxtlari-ku. Ana shu daraxtlarni o’ziga muqobil nomi bilan atalsa, daraxtlar, ya’ni so’zlar yashaydi. Asarim boshlamasida oxirini belgilay olmayman. Faqat fikrimda, kanglumda nimalardir aylanadi. Yozuvda favquloddalikka suyanaman. Yozuvim oxirini favquloddalikdan topaman, favquloddalikdan his qilaman”deydi.

Sa’dulla Hakimning “Bola botir” dostonida chapanalik, quvlik biroz bo’lsada qishloq havosini simirgandek bo’lamiz. Dostonda folklor chiziqlari bo’rtgan bo’lib, unda ijodkor o’z qahramoni ochib berishda afsonalarga murojat etadi. Shu bilan birga doston o’qilganida beixtiyor ertaklarga xayolimiz ketib qoladi. Shoir Sa’dulla Hakimning «Bola botir» dostonini o’qiy turib, men shundoq xayollarga bordim. Darhaqiqat, Bedil hazratlari aytganidek, asl she’riyat o’ziga xos bir olamdur. u uchinchi dunyodir. Shoirimiz ajib bir hikoyat bitibdi. Asarning shaklu shamoyili uning umumiy ruhiga g’oyatda mos, xalqona...

XX asrning ikkinchi yarmida dramatik va tarixiy mavzulardagi doston janri ancha taraqqiy etdi. Rang-barang mavzulardagi mazkur badiiy ijod namunalarida tarixiy shaxslar, yurt qahramonlari va zamondoshlarimizning badiiy obrazlari yaratildi. 2011-yillarda kelib bu kabi dostonlar yanada salmog’i to’lishib bordi. Demak, istiqlol davr dostonchiligiga xos rivojlanish xususiyatlaridan yana biri *dramatik va tarixiy chizgilar, asoslar bilan ochib berilgan doston tadriji* bilan belgilanadi. Jamol Kamolning

“Shayxurrais”, M.Rahmonning “Abadiy nido”, Oydinnisoning “Boshpana”, singari dostonlarida drammatizm va lirizm uyg'unlikda aks ettirilganligi kuzatiladi.

Davr dostonchiligida lirik dostonlar alohida o'rin egallaydi. Aslida bu yillar o'zbek dostonchiligiga xos muhim xususiyatlardan biri ham aynan *lirik dostonning takomili* bilan belgilanadi. Bu esa doston mazmuniga yangilanishlar olib kirdi. Chunki voqelikning lirik syujetga asoslanishi natijasida ramziylik, timsollar orqali fikrlash jihati yorqinroq namoyon bo'ldi. Binobarin, adabiyotshunos Sh.Hasanov T.Nizomning “Girya”, A.Mahkamning “Tavajjuh”, “Ishq”, “Fotiha”, Faxriyorning “Yoziq”, “Ayolg'u”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug'at”, I.Otamurodning “Sen” kabi lirik dostonlarini tahlil eta turib, o'tgan asrning 80-90 yillarida lirik poemaning maqomi oshganligini to'g'ri ta'kidlaydi.

Shu o'rinda xullas qiladigan bo'lsak, o'zbek xalq dostonlari juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Asrimiz boshlariga kelib o'zbek xalq dostonchiligi an'anasida keskin o'zgarishlar yuz bergan. Ko'plab tarixiy dostonlar yaratilgan. Shu orqali jamiyat hayotimizda yangiliklar, diniy qarashlar kurtak yoza boshladi. Xalq dostonlarida ham XX asr boshlaridan to Mustaqillik yillargacha bo'lgan davrda an'anaviylik keskin o'zgarishga uchragan. O'zining mavzu doirasi badiiy tarkibi, obrazlari olami, badiiy tili va tasvir vositalari bilan fikrlanuvchi real tarixiy voqeani asoslanuvchi tarixiy dostonlar ko'plab yaratilgan. Ularni biz folklorshunos Umrzoq Jumanazarov fikriga tayanib, «O'zbek tarixiy dostonlarining realistik tipi» - deb atash to'g'ridir. Yozma adabiyotdagi dostonlardan ham farqladik. Chunki baxshi repertuaridagi an'anaviy dostonlar qahramonlari bilan tarixiy shaxslar aks etgan dostonlar qahramonlari o'rtasida hamohanglik mavjud. An'anaviy borqaror she'riy misralar uchrashi, muallifning aniqligi, badiiy to'qimaning kamligi jihatlar qo'shilib xalq eposi tabiatida o'zgarish sodir bo'lgan deyishga asos beradi.

ADABIYOTLAR

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: “Академнашр”, 2010.
2. Куронов С. Модерн шеърятда тасвир. –2018

(<https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/modern-she'riyatida-tasvir>).

3. Кутбиддин А. Тасаввур лаҳзалари – 2015 (<https://kh-davron.uz>)

4. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – 2018 (<https://kh-davron.uz>).

5. Ховардсхолм Э. Модернизм. Пер. Э. Панкратовой//Называть вещи своими именами: Progr. выступления мастеров запад.-европ. лит. XX в. Сост., предисл., общ. ред. Л.Г.Андреева. — М.: Прогресс, 1986.

ABDUQAYUM YO`LDOSH HIKOYALARINING TIL XUSUSIYATLARI

Muxidinova Shaxnoza,

BuxDU, Adabiyotshunoslik (o`zbek) yo`nalishi 2-bosqich magistranti

s.s.muxidinova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abduqayum Yo`ldoshning “Jinnivoylar” hamda “Mix” hikoyalarida til xususiyatlari va ifoda-tasvir vositalaridan foydalanish mahorati haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: mahorat, mazmun va shakl, til imkoniyatlari, so`z qo`llash mahorati, individual uslub.

Mahorat masalasi qadim davrlardan beri ma'lum. “Mahorat hayotdagi muhim narsani ilg'ash, ko'rishdan boshlanadi, u ongda va tushunchada pishitilib, obrazga aylanadi, bu obraz niyat, g'oya sifatida paydo bo'ladi, o'ziga xos shaklga kiradi va o'ziga xos ifoda etiladi. Badiiy mahorat – badiiylikni hosil etuvchi mezonlardan biri”[1]. Demakki, mahoratda individuallik va ijodiylik namoyon bo'ladi. “Mahorat asar qurilishining hamma jihatlarini o'z ichiga oladi. Unga taalluqli bo'lmagan ijodiy masalaning o'zi yo'q”[2] Shu bilan bir qatorda, san'at sohasi uchun mahorat juda katta ahamiyatga ega.

Yozuvchi hikoyalarida jamiyat va shaxs munosabatlari talqin etilar ekan, bu borada uning o'ziga xos yo'li, ifoda usullari, bayon tarzi, voqelikni kitobxon ko'z o'ngida jonli va ravshan ko'rsatib berishdagi mahorati namoyon bo'ladi.

Asarning jonli, ishonarli, haqqoniy chiqishini mavzu va g'oya, o'ziga xos xarakter yarata olish, badiiy va milliy til imkoniyatlaridan mohirona foydalanish, asar kompozitsiyasini to'g'ri shakllantirish ta'minlaydi.

Abduqayum Yo'ldosh hikoyalarida hajviy ruh kuchli. Asarlari hajviy yo'nalishda bo'lmasa-da, yozuvchining qahramonlarga va voqelikka nisbatan munosabatida yumor namoyon bo'ladi. Asarlari tilida, birinchi navbatda, mantiqiylik, kinoya, piching, hazil-mutoyiba, istehzo sezilib turadi.

Qahramonlari nutqida jonli til elementlaridan – shevaga oid so'zlar, neologizmlar, maqollar, iboralar, o'xshatish va tasviriy ifodalar, kinoya-pichinglar kabi ifoda vositalaridan foydalanishi asarlar badiiy qiymatini oshirib, o'qirman ko'z o'ngida voqelikni jonli gavdalandirishga, til boyligini, milliy ruhni namoyon etishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, har qanday asar tuzilishini shakl va mazmun tashkil etadi. Adabiyotda shakl va mazmun doimo uyg'un holda namoyon bo'ladi, ya'ni mazmun shakl orqali yuzaga chiqadi, badiiy shaklsiz badiiy mahoratga ega bo'lib bo'lmaydi.

Til shakl hosil etishning asosiy vositalaridandir. Badiiy til me'yorlari xarakterni gavdalandirish, voqeani hammaga tushunarli va ravon tasvirlash, aniqlik, g'oyani to'g'ri ifodalash imkoniyatlarini beradi.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish sifati oshib bormoqda. "Jinnivoylar" hikoyasida bugungi kundagi ilmiy-texnik yutuqlar bilan birga kompyuter texnologiyalarining bugungi kunda yoshlar ongiga ta'siri, shuningdek, jamiyatda kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini yuksaltirish masalasi ko'tarilgan. Yoshlarning ko'pchiligi hozirda uyali aloqa vositalari va kompyuterdagi ko'ngilochar o'yinlar ishqiboziga aylanayotganligi va bu o'yinlarning aksariyati jangarilik, otishma, qotillik sahnalariga asoslanganligi, bu holat esa yoshlarning ongi va ruhiyatiga, ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazayotganligi achinarli hol, albatta. Shuning uchun ham ota-onalar farzandlari taqdiriga befarq bo'lmasliklari, farzandlarining yoshiga mos kitoblar mutolaasini yo'lga qo'yishlari, bu

borada, avvalo, o'zlari o'rnak bo'lishlari, ularning fikr-mulohazalarini tinglab, qo'llab-quvvatlashlari lozimligi g'oyasi yotadi ushbu hikoyada.

Hikoya onaning otaga shikoyati bilan boshlanadi: “Ishni bahona qilmang-da, dadasi, o'g'lingizga bir e'tibor bering. Qachon qaragam, kompyuterda o'ynagani-o'ynagan. Boshqa bolalar bunaqa emas-ku. Ana, jiyaningiz Ahmadjon. Kecha ko'zim bilan ko'rdim, hatto bekatda kitob o'qib o'tiribdi-ya. Avtobusda ham kitobdan bosh ko'tarmay ketdi deng. Bo'larkan-ku. Bolangiz bo'lsa qip-qizil kompyuter jinnisi...”[2] Bu gapdan keyin bir-ikki kun o'g'lini kuzatgan Rahimboy aka o'g'lining maktabdan kelgach, ba'zan ovqatlanmasdan darhol o'zini kompyuter o'yiniga urishini ko'rib, jahli chiqqancha o'g'lining qulog'idan sudrab, jiyanining uyiga boshlab boradi va “Ahmadjon, jiyan, mana sen o'qigan, tushungan bolasan. Eshitishimga qaraganda, qo'lingdan kitob tushmas emish. Dadang kimsan, fan doktori. Endi manavi shumtakamgayam bilimning afzalligi haqida bir ma'ruza o'qib qo'ysang. Zora shundan keyin buyam kitob-pitob o'qiy boshlasa. Bu bo'lsa dars qilish o'rniga kompyuterda o'ynagani-o'ynagan” – deydi. Xonasiga boshlab kirgan Ahmadjonning bir emas, ikkita kompyuteri, kserokopiya, rangli printer va internet qurilmasini ko'rib Rahimboy aka hayratda qoladi. O'g'li va Ahmadjonning so'zlashuvini tinglab, uyidagi deyarli barcha kitoblar kompyuter o'yinlari haqidagi kitoblar ekanini ko'rib, bilsaki, Ahmadjon ham o'g'li kabi kompyuter jinnisi. U berilib o'qiydigan kitoblar ham kompyuter o'yinlari va dasturlari haqida. Ularning suhbatini-ku eshitib Rahimboy akaning og'zi ochilib qoldi. Jumladan, qahramonlar nutqida “USN LEVEL 303”, “Intel® Graphics Media Accelerator X4500”, “DVD±R/RW-CD-R/RW”, “Apple Mac Pro MC561”, “Intel Xeon Quad-Core”, “ATI Radeon HD 5770 1ГБ GDDR5”, “Субноутбук Sony VAIO PCG-C1MSX” kabi kompyuter, protsessor, videoadapter, netbuk va noutbuklarning birin-кетин modellarini, “Star Wars”, “The Old Republic, Dragon's Dogma, Call of Duty”, “Modern Warfare 3, FIFA 12, Dead Space 2, World of Warcraft”, “Cataclysm, Fallout”, “New Vegas. Honest Hearts, StarCraft 2, GTA 5!, Alien Shooter 2, Counter-Strike, Delta Force”, “Black Hawk Down, Hitman”, “Blood Money, Red Alert” kabi o'yinlar nomini qator qilib sanay ketishadi. Qahramonlar nutqida kompyuter texnologiyalariga oid so'z

va atamalarni mahorat bilan qo'llaganligi, badiiy tafakkur va mantiqiy tafakkur o'zaro uyg'un holda aks ettirilganligi muallifning zamonaviy fanlardan ham anchagina xabardor ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, qahramonlar nutqi orqali yuzaga kelgan vaziyatda yengil yumor ham zohir bo'ladi.

Yozuvchining badiiy mahoratini nafaqat bugungi kunda tilimizda yangi paydo bo'layotgan so'zlardan, balki milliy til imkoniyatlaridan ham mohirona foydalanganligida ko'rish mumkin.

Adibning "Mix" hikoyasida jamiyat va shaxs munosabatlarida yozuvchining yuksak badiiy mahorati aks etganligini kuzatish mumkin. Yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini, g'oyaviy mazmunni mana shu "mix" detaliga yuklagan.

Istiqlol davri adabiyotida insonning ruhiy olami, his-tuyg'u va kechinmalari tasviriga e'tibor yetakchilik qilmoqda. Insonning insoniyligi ta'minlab turadigan halollik, poklik, e'tiqod kabi axloqiy masalalarga urg'u berilmoqda. "Mix" hikoyasida ham insoniylik mezonlarining buzilishi natijasi fojiga olib kelishi Elmurod domla qismatida ko'rsatilgan.

Abduqayum Yo'ldosh hikoyalari tilida milliylik ufurib turadi. Hikoyalarida ona tilimizning imkoniyatlaridan keng foydalanadi. U qo'llagan shevaga xos so'zlar, badiiy o'xshatmalar, iboralar, xalq maqollari asarlarining badiiy-estetik ta'sir kuchini oshirgan. Jumladan, birgina "Mix" hikoyasida: "qo'noq", "ovul", "dovur", "hodisot" kabi shevaga oid so'zlardan; "alal-oqibat", "illo", "inchunun", "baayni", "bil'aks", "aloha" kabi modal so'zlardan; "qaytar tovoq", "zalvarli ketmon", "arqonni juda uzun tashlab qo'ygan", "qichiydigan joyini oldindan qashlab qo'ygan", "yiqiladigan joyiga ko'rpacha to'shab qo'ygan", "tutun chiqsa ham yetib borishga hozir-u nozir", "alam-iztirobdan yuzi qorayib ketgan", "qondosh jo'ram-jondosh jo'ram", "hodisotning o'zini uzoq yillar saqich qilib chaynab yurishadi", "qarz arqoni", "oynayi jahon", "qaysar eshak", "yog'li ish", "sirkasi suv ko'tarmaydigan", "jahli burnining uchida turadigan", "sarkash jiyan", "shikoyatlar suvga cho'kkan ona-bola sigir misoli izsiz yo'qoldi", "sabr kosasiga tomgan so'nggi tomchi", "suv ko'rmasdan etik yechmaydiganlardan", "ilon sehriga tushgan odamday", "haram pulning sassig'iga uxlay olmay chiqadigan

boyvachchalar”, “ko‘ngli hovlisiday zimiston”, “avra-astaringizni ag‘darib tekshirishadi”, “otning kallasiday jarima”, “o‘pkasini qo‘ltiqlagancha hovliqmoq”, “chivin chaqqanchalik ta’sir qilmadi”, “yuragiga qil ham sig‘mayotgan”, “ to‘nini teskari kiyib olgan” kabi ibora, badiiy o‘xshatma va qochirimlar; “Mo‘ltonidan odam chiqsa, chodiriga o‘t qo‘yarkan”, “Zo‘rdan zo‘r kelsa, zo‘r dumini qisadi”, “Kuchala yegan joyingga borib tirish”, “Mol achchig‘i – jon achchig‘i”, “Rang ko‘r – hol so‘r”, “ Aldagani bola yaxshi” kabi xalq maqollarining qo‘llanishi hikoyaning qiziqarliligini, shuningdek ravon o‘qilishini va yumorni ham ta‘minlagan. Xalqona milliy til imkoniyatlari asarning badiiy qiymatini oshiribgina qolmay, qishloq hayoti, odamlari, ularning dunyoqarashi va fikrlashi, hayot tarzini ham ko‘rsatib bergan hamda milliy ruhni ifoda etgan.

“...Individual uslub – ijodkorning voqelikni o‘zicha idrok etishi, voqea-hodisalarni o‘ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirishi...”[4] – deya ta’kidlaydi adabiyotshunos N.Shukurov. Abduqayum Yo‘ldosh ijodiy individualligi ham asarlarida voqelikka munosabati, o‘ziga xos obrazlar yarata olishi, milliy til va ifoda-tasvir unsurlaridan mohirona foydalanishida namoyon bo‘lgan.

ADABIYOTLAR

- 1.У.Тўйчиев. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.:«Янги аср авлоди»,2011. – 507б.
- 2.Йўлдошев А. Жиннivoйлар/Қайдасан, мўжиза... Т: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи,2019.–347б.
- 3.Yo‘ldoshev A. Mix./ Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 219b
- 4.Н. Шукуров. Услуглар ва жанрлар. – Т:Адабиёт ва санъат,1973. – 170бет.

QO‘CHQOR NORQOBIL IJODINING MAVZULAR OLAMI

Primova Ro‘zigul Abduqodirovna,

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakili Qo'chqor Norqobil ijodidan o'rin olgan xilma-xil mavzular xususida so'z yuritilgan. Qo'chqor Norqobil ijodida aks etgan mavzularning serqirraligi, ularni yoritishda muallifning ijodkor sifatidagi mahorati masalalariga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, Qo'chqor Norqobil, mavzular xilma-xilligi, nasr, badiiy mahorat, ijodiy qobiliyat, badiiy obraz, badiiy g'oya.

O'zbek adabiyotining ko'plab namunalari xilma-xilligi, mavzuiy jihatdan turfaligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Ta'kidlash lozimki, ushbu holat adabiyotda mavjud muhit, qalam tebratayotgan ijodkorlarning ilm saviyasi, ijodiy mahorati bilan bevosita bog'liqdir. Chunonchi, xalq og'zaki ijodida, asosan, sevgi-muhabbat, qahramonlik kabi mavzular yetakchilik qilsa, mumtoz adabiy asarlarda yor vasli madhi, tasavvuf, tariqat kabi masalalar oldingi o'ringa chiqqan. Mustaqillik yillariga kelib esa ushbu mavzular ko'laming yanada kengayganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ana shunday xilma-xil mavzuiy takomillashish iste'dodli ijodkor Qo'chqor Norqobil asarlarida ham ko'zga tashlanadi.

“Kaftimdagi qizg'aldoq”, “Xosiyatli dunyo”, “Kulib tur, azizim”, “Nur soyada qolmaydi[3]” va shu kabi qator asarlar muallifi hisoblanmish Qo'chqor Norqobil ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda turli mavzuga adib ijodkor hamda journalist va ayni paytda, mohir qalamkash, fidoyi, vatanparvar shaxs sifatida yondashilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa asarlarida namoyon bo'lgan mavzular ko'laming naqadar kengligi, serqirraligini ta'minlagan omillardan hisoblanadi. Shu jihatdan Qo'chqor Norqobil ijodining mavzular olamini, ijodkor asarlarida aks etgan adabiy turlarga mansubligi nuqtai nazaridan uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

- a) ijodkor nazmida aks etgan mavzular;
- b) ijodkor nasrida aks etgan mavzular;
- c) ijodkor dramatik asarlarida aks etgan mavzuiy guruhlar.

Demak, muallif ijodini tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, adib qalamining adabiyotdagi qaysi jabhalarda namoyon bo'lganligini aniqlashimiz maqsadga muvofiqdir.

Qo'chqor Norqobil she'riyatida ilgari surilgan mavzularga diqqat qiladigan bo'lsak, ularning samimiylikka yo'g'rilganligiga guvoh bo'lamiz, shoir ijodida turli mavzular, jumladan, ishq-muhabbat, ona-Vatan, bundan tashqari, turli ijodkorlar vafotiga atalgan bag'ishlovlar ham o'rin olgandir. Jumladan, Qo'chqor Norqobilning "Yoniq yulduz uchdi" she'ri aynan Abdulla Oripov vafotiga atalgan bag'ishlov bo'lib, unda Qo'chqor Norqobil aynan Abdulla Oripovning o'zini emas, balki shoir atrofidagi insonlarni – onasi, ayoli, farzandi yoinki shoirning Vatanini – e'tirof etadi:

Yoniq yulduz uchdi – samovot qalqdi,

Hatto titrab ketdi yerda gul bandi.

Otangiz shu yulduz o'rnida balqdi,

Abdulla Orifning farzandi [4].

Qo'chqor Norqobil aynan ijodkor atrofidagi shaxslarga murojaat qilish orqali Abdulla Oripovni yod etadi hamda o'zining shoirlik mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Qo'chqor Norqobil nasr yo'nalishida ham barakali ijod qilgan adib sanaladi. Nasriy ijodidagi asosiy mavzu yo'nalishi bu urush tasviri bilan bog'liq. Biroq shuni ham e'tiborga olish lozimki, adibning urush muammosi ilgari surilgan asarlarini ikki yo'nalishga ajratish mumkin:

- a) aynan urush mavzusi aks etgan asarlar;
- b) urush qahramonlarining ruhiyati tasvirlangan asarlar;
- c) urush va asar qahramonlari ruhiyati qarama-qarshiligi yuzaga kelgan asarlar.

Shuni alohida qayd etish lozimki, urush mavzusi ifodalangan asarlarida adib qalamiga xos bo'lgan samimiylilik, tabiiylik, oddiylik va ulkan global muammolarning aks etganligi bilan yaqqol namoyon bo'lgan.

. Adibning "Yer yorilmadi" asarini tahlilga tortadigan bo'lsak, hikoyada munofiqlik, riyokorlik, mansabparastlik, laganbardorlik kabi illatlarni o'ziga do'st qilib olgan Toyqulov kabi kishilarning asl basharasi voqealar orqali yaqqol ochib berilgan. Hikoya muallif tilidan bayon qilinadi: "Toyqulov mashinani jildirdi. Sheramat ortimizdan shumshayib qarab qoldi. Ko'ngilga og'riq solguvchi bu manzaradan so'ng o'zimdan ham nafratlanib ketdim. Yuragim siqila boshladi. Yonimdagi badbin kimsani urib –

tepi, ezg'ilib tashlagim kelyapti. Bitta mashinada yonma – yon ketish azobning azobi edi". [2]

Yuqorida keltirilgan parchadan Toyqulovning aytgan so'zlari, har bir xatti - harakati muallifning nafratini qo'zg'atishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu hikoya ayrim jihatlari bilan Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasiga o'xshab ketadi. Toyqulovni "Qoplon " hikoyasidagi Qurbonboy obrazi bilan bemalol taqqoslasak bo'ladi. Ikkala qahramonda ham munofiqlik, laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik, mansabparastlik kabi salbiy hislatlarni ko'rishimiz mumkin. Toyqulov Shermatdan olgan tandirni boshlig'i Odil To'rayevichning tug'ilgan kuniga hadya qilmoqchi bo'ladi. Biroq yo'l – yo'lakay boshliqning lavozimidan ketganini eshitib uni keta – ketguncha haqoratlab ketadi:

“– Endi tabrik uchun so'zni, tajribali xodimimiz, ustozimiz Turdiboy aka Toyqulovga beramiz.

– Azizlarim! Hurmatli Odiljon To'rayevich, mehribon ukam! Sizni bugungi qo'shaloq bayram bilan chin dildan qutlayman. Siz chin ma'noda insonsiz, chin ma'noda rahbarsiz, chin ma'noda bugun sizni tayinlashgan yuqori lavozimga – vazir o'rin bosari lavozimiga loyiqsiz, mos-u xossiz! O'lguncha duoyi joningizni qilaman”

Ushbu parchada esa Toyqulovning o'z tusini tez o'zgartirishi, xushomadgo'yligi, insonlarning mansabiga, amaliga qarab muomala qilishi, surbetlik kabi illatlariga guvoh bo'lamiz. Afsuski, bunday kishilarni jamiyatimizda ko'plab uchrab turadi.

Ta'kidlash lozimki, Qo'chqor Norqobil nasridagi asosiy mavzu yo'nalishi bu urush davri voqeligi bilan bo'g'liq sanalib, muallif qalamiga mansub "Daryo ortidagi yig'i" qissasi ham aynan shu mavzu asosiga qurilgandir. Bu asarda ikki qarama-qarshilik bir-biri bilan olishadi, ya'ni inson tuyg'ulari hamda urushning fojiaiy oqibatlari. Yozuvchi Shukur Xolmirzayev bu haqida quyidagi fikrlarni ifoda etgan:

“...asarning maqsadini – urush fojiasini – urushning inson ruhiyatidagi o'zgartirishlarini, ruhdagi iztirobli to'lg'oqlarni tasvirlash va oqibat uning fojia natijasini ko'rsatishdan iborat bo'lsa, hali yosh, dunyoviy adabiyotning bu boradagi tajribalari bilan endi tanisha boshlagan va shu asno o'zini kashf etayotgan yozuvchiga

naqadar og'irlik tushadi" [7]. Demak, Qo'chqor Norqobil o'z asarlari orqali mohir qalamkashga xos bo'lgan psixologik tasvir mahoratini ham yaqqol namoyon etgan.

“Osmon ostidagi sir” nomli qissada urush va kishi ruhiyatidagi o'zgarishlar tasviri omixta qilinadi, ya'ni muallifning ko'plab nasriy asarlarida urush mavzusining o'zigina namoyon bo'lgan bo'lsa, ushbu asarida urushning inson ruhiyatiga ta'siri, uning falsafiy mohiyati kabi jihatlar namoyon bo'ladi. Demak, muallif nasridan o'rin olgan urush manzarasi hamda uning psixologik tasviri nasriy yo'nalishdagi ijod namunalarini boyitishga xizmat qildi. [7]

Qo'chqor Norqobil ijodidagi uchinchi mavzuiy guruh bu ijodkor dramatik asarlaridan o'rin olgan muammolar sanaladi. Ma'lumki, Qo'chqor Norqobil “Taqdir sinovlari”, “Quyoshni sen uyg'otasan”, “Nur soyada qolmaydi”, “Omad biz tomonda”, “Suv ko'rmay etik yechma”, “Zamindan olis ketma” kabi qator dramatik asarlar muallifi sanaladi. Ijodkor dramatismidan o'rin olgan mavzulardan biri bu insoniyat taqdiri hisoblanadi. Xususan, “Tog'lardek baland bo'l!” nomli dramasida ijodkor shaxsning umri davomida kechmish-kechirmishlari, taqdir sinovlari, o'zi faoliyat yuritayotgan kasbida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar xususida so'z yuritadi. Bundan tashqari, asar insonning ruhiy olami, uning qalbi kabi ruhiyat olamiga bog'liq bo'lgan mavzuga ham bag'ishlangandir.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Qo'chqor Norqobil o'z adabiy muhitida xilma-xil mavzularni aks ettirgan ijodkor sanaladi. Ishq-muhabbat, urush tasviri, kishi ruhiyatiga bog'liq bo'lgan manzaralar, inson taqdirining naqadar chigal ekanligi va shu kabi mavzularni mahorat bilan yoritgan Qo'chqor Norqobil ijodkor sifatidagi qobiliyatini zamonaviy o'zbek adabiyotida yorqin aks ettira olgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Qo'chqor Norqobil. Osmon ostidagi sir. Elektron nashr.
2. Qo'chqor Norqobil. Bu yerlarda hayot boshqacha/Yer yorilmadi.Toshkent-2018.G'afur G'ulom.
3. www.ziyouz.com

4. <https://kh-davron.uz/tag/qochqor-norqobil>
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/qo-chqor-norqobil-1968>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/qo-chqor-norqobil-1968>
7. <https://yoshlikjurnali.uz/yoshlik-xazinasidan/jarohatli-qalb-bitiklari/>
8. tg://openmessage?user_id=1874910296&message_id=211294

ABDULLA QODIRIY PUBLITSISTIK MAQOLALARIDA BADIY MAHORAT

Axrorova Zufnunabegim Rizvonovna,

BuxDU, 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adabiyotining ulug' ijodkori Abdulla Qodiriyning publisistik maqolalaridan “Shodmarg” va “Dumbasi tushib qolgan emish” deb nomlangan maqolalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, publisistik maqola, “Shodmarg”, “Dumbasi tushib qolgan emish”, badiiy mahorat

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida so'nmas iz qoldirgan buyuk ijodkorlardan biridir. Ijodkorning say'-harakatlari asosida roman, drama, hikoya, she'r, qissa kabi badiiy adabiyotning turli janrlari bilan milliy adabiyotimiz boyidi. Uning serqirra ijodiy faoliyatida publisistika ham alohida o'rin egallaydi. Bilamizki, Qodiriy juda ko'p feletonlar yaratib o'z davrida “Feleton qiroli” deb nom olgan edi. Uning feletonlari “Mushtum” jurnalining deyarli barcha sonlarida izchillikda berib borilar edi. Qodiriy, asosan, jamiyatdagi kamchiliklarni, o'z davridagi ayrim insonlarning ma'naviy olamining sayozligini o'kinch bilan qalamga olgan edi.

Abdulla Qodiriy ulkan iste'dod sohibi, uning har bir janrdagi ijodiga nazar tashlansa, uslubi va mahorati alohida namoyon bo'ladi. Aytish joizki, yozuvchining, hatto publisistik maqolalarida ham o'ziga xos mahorat egasi sifatida namoyon bo'ladi. Fikrimiz isboti sifatida uning Munavvarqori muharrirligida chiqqan “Najot” gazetasidagi “Shodmarg” deb nomlangan feletoniga e'tibor qaratsak. Maqola Abdulla Qodiriy nomi (taxallusi) bilan yozilgan bo'lib, unga “kichik feleto'n” deb muallif jnrini

ko'rsatib o'tgan. Haqiqatan maqola hajman kichik, ammo badiiy tili bilan ajralib turadi. Feleton qahramoni Mulla Karim hoji bo'lib uning yoshi yetmishlarda bo'lganligi aytiladi. Maqola shunday boshlansa-da, Mulla Karim hojining yoshlikda ko'p qiyinchiliklar tortganligiga urg'u beriladi. Muallif dunyoning qiyinchiligini ko'rgan, deya ta'riflaydi va bu ta'rifdan uni kambag'al, juda faqir deb o'ylamang, deya izoh ham beradi. Qodiriy Mulla Karim hojini juda boy bo'lmasa ham, besh-o'n ming oqchasi, o'n-o'n besh botmon sholikor va bir qo'rasi, yana bular ustiga xatmi kutub (biror doiradagi maktabni o'qib tugatish) ham qilgan, zamondan xabardor, musulmonlarning foyda, zarariga tushinuvchi kishi edi, deya ta'rif beradi. Bu o'rinda o'zi savol berib, o'zi javob ham beradi: "O'ziga yetarlik dunyosi bo'lsa, xatmi kutub qilg'an, zamondan xabardor bo'lsa nega jabru-jafo chekkan dersiz? Mulla Karim hojining jafu chekuviga haligi zamondan xabardorligi, musulmonlarning foyda-zarariga tushunuvchiligi edi", deydi. Chunki maqoladan ma'lum bo'lishicha, Mulla Karim hoji qirq yoshda bo'lganida shaharda qozi saylovi bo'ladi. Savdogar qozilar ellikboshilar va hokimlarga minglab, yuzlab pora berib, qozilikni sotib olishadi. Shunda Mulla Karim hoji "Xoinlar, zolimlar, zolim yordamchilari!" deb qichqirgan. Bu esa qozilarning nafsoniyatiga tegib hukumatga Mulla Karim hoji ustidan arz qilib, uni qamatadilar. Mulla Karim hoji o'n besh yil qamaldi. Mana shu davrda juda qiyinchilik ko'rdi, deb muallif ta'kidlaydi. Qayd etish lozimki, yozuvchi mumtoz adabiyotimiz namunalaridan yazshi xabardorligi bois maqolada nasr poetikasidan maromida foydalangan deyish mumkin. Ayniqsa, maqolada saj' (nasrdagi qofiya) ning qo'llanishi fikr ravonligi va ta'sirchanligini oshirgan: "Yoshliqda boshiga ko'b jabr-jafolar tushmish, dunyodagi hamma azoblarni tortmish edi"⁵⁷. Ushbu jumladagi tushmish va tortmish so'zlari nasrda qofiyadosh bo'lib, saj'ni yuzaga keltirgan. Maqola boshdan-oyoq saj'da yozilmagan bo'lsa-da ko'p o'rinlarda saj'ga murojaat qilinganligi ko'rinadi. Masalan, "Xalq va askar bir bo'lib, hukumatni o'rindan tushirgan, hamma ish xalq qo'liga o'tkan, eski hukumat ma'murlari o'rindan tushirilib, qo'lg'a oling'an, ministrlar ham hib etilg'an, podshoh ham qamalg'an, hurriyat e'lon qiling'an dedi"⁵⁸. Ushbu gapda ham oling'an, etilg'an, qamalg'an,

⁵⁷ A.Qodiriy. Diyori bakr. Toshkent. 2007y. 49-b.

⁵⁸ A.Qodiriy. O'sha asar. 50-b.

qiling'an so'zlari saj' hisoblanadi. Yana bir saj'ga diqqat qilaylik: "Balki siz "Mulla Karim Hoji juda kambag'al bo'lg'an ekan, shuning uchun faqirlik azobini, ochlik jafosini tortgandir", deb o'ylarsiz"⁵⁹. Bu gapdagi faqirlik, ochlik saj' hisoblanadi. Shuningdek, mazkur gapda mutanosib so'zlardan ham foydalanilgan: kambag'al, azob, faqirlik, ochlik, jafo. Bu so'zlarni bir gap tarkibida keltirib yozuvchi tanosib san'ati imkoniyatida foydalanib ta'sirchanlikka erishgan, deyish mumkin. Qolaversa, so'z takroridan ham unumli foydalangan: "Oy o'tdi, yil o'tdi"⁶⁰. Shuningdek, mumtoz nazmda keng qo'llaniladigan, ba'zan nasriy asarlarda ham uchraydigan ta'did (uyushiq otlarni qator tizish) san'atidan ham mohirona foydalanilganiga guvoh bo'lamiz: "Xoinlar, zolimlar, zolim yordamchilari"⁶¹. Bu keltirilgan so'zlar uyushiq otlar bo'lib, matnda bir o'rinda keltirilgan.

Hajm jihatdan uncha katta bo'lmagan ushbu publisistik maqolada muallif o'z davridagi illatlar, ya'ni poraxo'rlikning avj olgani va to'g'ri, haq fikrni aytishning imkoni yo'qligiga urg'u beradi. Chunki bir to'g'ri gapi uchun Mulla Karim hoji o'n besh yil qamaladi. Abdulla Qodiriy shu kichik feletonining o'quvchiga manzur bo'lishi uchun ko'pgina badiiy tasvir vositalaridan foydalanganligiga guvoh bo'ldik. Ushbu maqola "Najot" gazetasining 1917-yil, 21-martdagi 2-sonida bosilgan.

Abdulla Qodiriyning yana bir publisistik maqolasini tahlilga tortamiz. Bu maqola "Dumbasi tushib qolgan emish" deb nomlanadi. Muallif bu maqolani kichkina feleto'n deb atab "Eski shahar Oziq sho'basiga bag'ishlayman", deya yozib qo'ygan. Maqolaning boshi tajohulu orif bilan boshlangan: "Go'sh... Otingdan o'rgulay go'sh!.. Nega muncha o'zingni bizdan aziz tutding? Biz sening qadringga yetmadikmi?..". O'sha davrdagi qiyin ahvol va aholining go'sht mahsulotini iste'mol qilishi uchun sharoiti yo'qligi juda ta'sirli, ayni paytda achchiq kulgi orqali ifodalangan. Mana shu achchiq kulgini yanada ta'sirli ifodalash maqsadida juda chiroyli, orginal tashbehlardan foydalangan: "O'zimni O'zini qassob akalar qanorasida ko'rgandami? Ko'rganda vasliga yetolmay yurgan ma'shuqangga uchrashgan kabi hush boshingdan uchadir".

⁵⁹ A.Qodiriy. O'sha kitob. 49-b.

⁶⁰ A.Qodiriy. O'sha kitob. 50-b.

⁶¹ A.Qodiriy. O'sha kitob. 49-b.

Go'shtga tashna inson va go'shtni oshiq va ma'quqaga o'xshatishi, kulgi qo'zg'atishi bilan birgalikda o'ziga xoslikni ham namoyon etadi. Qolaversa, muallif sifatlashlardan ham unumli foydalangan: "Jonajoning, mehriboning bo'lgan go'shning ikki qadog'ini zolim, noinsof qassobning kanorasidan ajratib olmoqchi bo'laman..." Bu gapda ikki guruh sifatlashlar qo'llanilgan. Birinchi guruhi go'shtga nisbatan (Jonajoning, mehriboning go'sh); ikkinchi guruhi qassobga nisbatan qo'llanilgan (zolim noinsof qassob). Eng ajoyib va o'z o'rniga juda munosib qo'llanilgan badiiy tasviriy vositalardan yana biri bu tashxis (jonlantirish – insonga xos xususiyatlarni narsa-predmet va hayvonlarga o'tkazish) san'atidir: "Do'sting bo'lgan go'sh ma'yusona bir ravishda orqangdan qarab qolur". Bunda ma'yusona qarash insonga xos bo'lib, go'shtga nisbatan qo'llanilgan. Yana orqangdan qarab qolish ham insonga xos bo'lib, bu o'rinda ham jonlantirishdan juda mohirona foydalanilgan. Ijodkor fikr ta'sirchanligini oshirish uchun mubolag'adan ham mahorat bilan foydalangan: "Ramazon iydidan beri jonvor go'shning ishtiyoqida oh-voh ila kun kechirib, Oziq sho'basining marhamatiga intizorlikda kelmoqda edim. To'g'risini aytmoqg'a majburdirmanki, bu orada butun kechalar go'sh ishtiyoqida uxlay olmadim. Ko'z ilinganda ko'rilgan tushka ham go'shdan boshqa nimarsa kirmaydi". Bu o'rinda e'tibor qaratilsa muallif "go'shning ishtiyoqida oh-voh ila kun kechirib, butun kechalar go'sh ishtiyoqida uxlay olmadim. Ko'z ilinganda ko'rilgan tushka ham go'shdan boshqa nimarsa kirmaydi" kabi mubolag'avoy fikrlarni keltirib, asosiy urg'uni o'z davridagi odamlar har qancha urinmasinlar go'sht olishga sharoitlari yetmasligini obrazli ifodalagan. Xalq tilidagi iboralardan maqolada keltirilganligini ko'rish mumkin: "Qoq o'ttuz birinchi kun deganda xalq tilida: «Ertaga Oziq komiteti go'sh berar emish», degan xabarlar yuriy boshlab, yuragim azbaroyi xursandlikdan tors yorilayozdi. Bu xabar halidan hali to'g'riligig'a chiqib, dilim urmoqqa boshladi. Butun sabru qarorim qo'ldan ketdi..." . Mazkur gaplardagi quyidagi iboralarni misol sifatida keltirish mumkin: yuragim azbaroyi xursandlikdan tors yorilayozdi. dilim urmoqqa boshladi, butun sabru qarorim qo'ldan ketdi... Qodiriy bejizga "Feletonlar qirol" deb ta'riflanmagan. Bu uning feletonlarin hajm jihatdan ko'p bo'lishi bilan birgalikda ifoda uslubining orginalligini

ko'rsatadi. Fikrimizni mazkur maqolada qo'llanilgan navbatdagi mubolag'aga qaratamiz: “Uy ichimizni endi surishtirishmay ham, yetti yashardan tortib to yetmish yashargacha go'sh xursandligiga chiday olmay raqsga (tansaga) kelgan edi”. Bunda yetti yashardan tortib to yetmish yashargacha go'sh xursandligiga chiday olmay raqsga (tansaga) kelgan edi, degan mubolag'aviy fikr ham o'ta kulgili, ham o'ta achinarlidir. Butun oila a'zolarining go'sht kelsa o'ziga xos , ya'ni o'z ta'bidagi taomga rejalari borligi ham hikoya qilinadi: “Ertagi go'sh shodligi ila bu kun kechasi butun uy ichimizda uyqu o'rniga ertaga oladigan go'shning qay holda tomoq qilmoq maslahati edi: Oyimga monti durust emish, yangamga somsa yaxshi emish, hammadan ham akamniki qiziq, ertaga qorindan boshqasini yesa o'zini o'zi shahid qilar emish, buni ham qo'ying, dadamga bir six bo'lsa ham kabob tuzuk emish, endi meni ham tilagimni eshiting: menga hammasi bo'lsa ham noz qiladigan o'rnim yo'q...”. Ammo bu fikrlarning keltirilishi ham davr ruhini berishda nihoyatda asosli qo'llanilgan. Qolaversa, xalq azobi va davrning og'riq nuqtasining badiiy ifodasidir.

Ulkan adib barcha asarlari singari, hajm jihatdan ancha kichik bo'lsa-da, publisistik maqolalarida o'ziga xos uslubini namoyon etgan. Maqolalardagi badiiy tasviriy vositalar yozuvchi mahoratini ko'rsatib turadi. Shoirning badiiy tasviriy vositalardan o'rinli foydalanishi, albatta, so'z ta'sir kuchini oshirish bilan birgalikda asar mohiyatini to'g'ri va aniq ketkazib berishga ham xizmat qiladi. Qolaversa, mazkur badiiy matnning kitobxon nazdida qiymatini oshiradi. Shu bois bo'lsa kerak Abdulla Qodiriy barcha asarlarida, janrlaridan qat'iy nazar poetik tasvir vositalaridan keng foydalangan.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. Toshkent. 2007y.
2. Atoullloh Husayniy. Badoyi us sanoye'. Toshkent 1981y.
3. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent. 2000y.
4. www.ziyouz.com

ULUG‘BEK HAMDAM HIKOYALARIDA RAMZIYLIK VA FALSAFIY QARASHLAR IFODASI

Hilola Norova,

BuxDU, Adabiyotshunosligi (o‘zbek)

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida falsafiylik, xayolot va haqiqiy hayot masalalarining badiiy talqin etilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: hikoya, obraz, yurt sog‘inchi talqini, falsafiylik, hayot hodisalari talqini, badiiy ifoda.

Kitobxon qalbiga o‘zining falsafiy asarlari bilan kirib borayotgan zamonaviy yozuvchilardan biri Ulug‘bek Hamdamdir. Uning “Atirgul”, “Seni kutdim”, “Yolg‘izlik”, “Muvozanat”, “Itoat va isyon”, “Sabo va Samandar”, “Ota” kabi ko‘plab she‘riy va nasriy asarlari o‘z muxllarini topgan. Adib hikoyanavislikda ham shuhrat topdi. Uning qiziqarli va serqirra mavzulardagi hikoyalari ham o‘quvchilar e‘tiborini tortmoqda.

Hikoya adabiy tur sifatida kichik hajmli asar bo‘lib, Ulug‘bek Hamdam hikoyalari mazmuni va janriy xususiyatlari, qamrovli, obraz va detalga boyligi bilan mazkur janr imkoniyatlarini kengaytirganligi ko‘rinadi. Adib hikoyalari falsafiyli, teran fikrliligi, hayotiyli, o‘xshatishlarning to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

“To‘lin oy qissasi” hikoyalar to‘plamidan joy olgan “Bir payola suv” hikoyasiga diqqatimizni qaratsak. Hikoyada voqea mas‘uliyatli vazifani yelkasiga olgan yuk tashuvchi obrazi atrofida kechadi. U vazifani sidqidildan bajarish uchun hatto yuk nima ekanligiga qiziqmaydi. Manzilga vaqtida olib borsa, bas. Yo‘lda tashnalikdan bir go‘zal ishora qilgan joydan bir piyola suv ichadi. Muhtasham karvonsaroyda uzoq navbatda turib buning badalini to‘lash kerak edi. Navbatda uzoq qolib ketganidan qahramon qalbida xursandchilik o‘rnini qayg‘u egallaydi. Navbati kelguncha, yoshligi o‘tib, qarilik alomatlari seziladi. So‘nggida o‘zi eltayotgan yuk suv ekanligini ko‘radi.

Hikoyani o'qib bo'lib, biroz fikrga cho'mamiz. Falsafiy ishoralar kitobxonni o'ylantishi, tabiiy. Nega suv, nega karvonsaroy, navbat, go'zal, sahro... Barida o'xshatishlar tizmasi borligini anglash mumkin. Yozuvchi kitobxonga nima demoqchi?! Aslida hammamiz hayotda yo'lovchimiz, yelkamizdagi topshiriq esa farz etib belgilangan. Tashnalikdan, sinovdan o'tolmay, bir piyola suvga hayotini sovurgan yo'lovchilarmiz. Go'zalligi bilan o'ziga maftun etgan, hech ham qarimas qiz – bu bizning hoy-u havasimizdir, balki. Karvonsaroy – go'zal hayot, tez o'tguvchi umr. Undagi insonlarning ayrimlari vaqtlarini chog' o'tkazishadi, ayrimlari esa yoshlikdan qarilikka tomon tez sovurilayotgan umrga, vaqtga tobe bo'lishadi. Yuzlarida, ichki olamlarida yemirilishni ko'rish mumkin.

Nega yuk tashuvchi aravada suv borligini kech angladi. U, balki imon bo'lgandir. Aslida ham dunyoda inson uchun berilgan ne'mat nima ekanligini kech angalaymiz, vazifamiz nima ekanligini unutib qo'yamiz. Sahroda – sinovlar oldida dovdiramiz, hayotimiz yeldek o'tkinchi havaslar bilan o'tganini kech angalaymiz.

“Badiiy asarda til mahorati masalasi alohida muammo. Til mahoratining ildiz tomirlari tafakkur tarzidan, dunyoqarashdan, ijodkorlik konsepsiyasidan boshlanadi. Ijodkorning o'ylagani nima, niyati nima, ularni qay yo'sinda ifoda etmoqchi, asar uchun qay ohang va me'yorni tanlamoqchi, janr yo'nalishini qay tarzda belgilamoqda?.. Bularning barchasi piravordida tilda o'z ifodasini topadi, barchasining “taqdiri”ni til hal qiladi. Bor qiladigan ham, yo'q qiladigan ham til”– deydi Xurshid Do'stmuhammad. Ulug'bek Hamdam asarlari tili shunday o'ziga xos ohangda o'z ifodasini topgan.

Shu to'plamdagi yana bir hikoyaga e'tiborni qaratsak. “Unutilgan nay navosi” tush-hikoyasidagi epigrafning o'zi insonni vatanparvarlikka chorlaydi. Unda “O'lsam, yuzimni yurtimga qaratib ko'minglar” deyilgan musofir vasiyati keltirilgan. Hikoya qahramoni Alisher negadir so'nggi kunlarda nay sadosidan bezovta. Turish-turmushida halovat yo'qoldi. Xiyonatkor xotin dastidan, oriyat va nomus kuchliligidan vatanidan voz kechib, umrining ko'p qismini Moskvadek gavjum shaharda o'tkazdi. Shu yo'lni maqbul deb bildi. Bu yerda hamma orzu qilarli mansabga, mavqega, oilaga ega bo'ldi. Lekin nega yillar o'tib Vatanini qo'msadi. Nay sadosi doim qulog'i ostida yangrab

qishlog'ini, ota-onasini, aka va do'stlarini, qadrdon ko'chalarni, betashvish yoshligini eslatardi. Botinidagi kuy yoshlik o'y-xayollarini uyg'otib yubordi, hech bir joydan endi huzur topmay qo'ydi. Nihoyat, ota makonini ko'rishga jazm etdi. Dili taskin topgandek edi-yu, ammo ko'p narsa o'zgargandi, atrof, ko'chalar, kanal va uylar, insonlar... Tezda yana Moskvaga qaytayotganida yana o'sha botiniy nay sadosi uni bezovta qildi. Demak, unga faqat yurtidagina halovat bor edi.

Bu mavzudagi asar ko'p bo'lishi mumkin, ammo hikoya o'ziga xos uslubda yozilganligi diqqatni tortadi. Bu kabi holatlar har qanday zamonda ham uchraydi. O'zga yurtlarda qo'nim topib, yurtidan voz kechganlar ko'p. Bu esa hikoyada aks etgan voqelikning hayotiyigidan dalolat beradi.

Hikoyada sher bilan bog'liq lavhaga duch kelamiz. Yarador sherning jon saqlash uchun qilgan harakatlari, yolg'iz va yarador holdagi ovi, yashashga bo'lgan intilishi, sirtlonlar hujumiga uchragani, yaqinlaridan, go'shasidan ayrilgan sherning ayanchli taqdiri bekorga keltirilmadi. Bu orqali ijodkor qahramonning ichki dunyosini yanada aniqroq ochib berdi. Alisher boshqa yo'lni tanlashi ham mumkin edi, degan fikr ham yuzaga keladi. Lekin u qismat deb atalmish og'ir toshning zarbasidan tezroq qochishni istadi. Evaziga Vatansiz kechirgan yillari bilan tovon to'ladi. Yurt sog'inchi hissini hech qachon va hech narsa bilan bosib bo'lmaydi. Diydorgina qalbgaga taskin beradi.

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasvirlaydigan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqarishga, voqealarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashga, badiiy tasvirlarning xilma-xilligiga erishishga intiladi. Xulosani doim kitobxonga havola etadi.

Adib kitobxon ma'naviy olamini boyitishda, turli taqdirler, kechmishlar haqida bayon etib, ularni ummondek cheksiz bilimlardan bahramand etishni maqsad qiladi va bu orqali insonlarni tarbiyalashning maqbul yo'lini topa oladi. Kitobxonlar Ulug'bek Hamdam hikoyalarini mutolaa qilish, ularda aks etgan mavzular va g'oyaviy qarashlardan o'zlariga tegishli xulosalar chiqarishlari mumkin. Adib asarlari ana shunday o'ylashga, fikrlashga, mulohaza va muhokama yuritishga qaratilgan ramziy, falsafiy, ijtimoiy, tarbiyaviy mohiyatga ega bo'lgan ijod namunalariidir.

ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 408 b.
2. Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. -112b
3. Isajon Sulton. Hazrati majoz. – Toshkent, O'zbekiston. <http://www.ziyouz.com>
4. Hamdam U. To'lin oy qissasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017. -360-b

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA ONA OBRAZI

Shokirova Gulhayo Bobir qizi,

BuxDU, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Badiiy adabiyot inson his –tuyg'ularining sof hamda samimiy ifodasi bo'lib, nazmda yoxud nasrda uning ifodasi o'zining badiiy ta'sirchanligi bilan xalqimiz tafakkurida muhrlanib kelmoqda. Obrazli ifodalash esa, adabiy parchaning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, ona obrazi, obraz, samimiylik,

Badiiylik – san'atning ham joni , ham ruhi ekan , uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri obrazdir. Obraz deganda esa, inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi.

Shoirilar ham ushbu obrazlar orqali o'z asarlarinig ta'sirchanligini yana-da oshirish uchun hamda o'z badiiy mahoratlarini namoyish etish uchun istifoda etganlar va etib kelmoqdalar. Atoqli o'zbek shoiri Muhammad Yusuf ham nazmida ona, Vatan, ota, yor, Turkman qizi, lolaqizg'aldoq kabi obrazlar yaratgan, ular esa o'zining betakror badiiy ifodasi, ohangdorligi tufayli xalqimiz ongida qo'shiq bo'lib saqlanib kelmoqda. Ammo ular ichida shoir ijodidagi eng betakror obraz bu Onadir. Munis, mushfiq, mehribon volidalar haqida qalam tebratmagan ijodkor, bastakor yoinki, suxandon yo'q. Lekin Muhammad Yusuf bu mavzuda bir necha bor nazmlar yaratib, uni madh etgan:

Sog'inib bayt yozdim, u seni topsin,

Poyingga tiz cho'kib qo'llaring o'psin....

Sensiz g'arib ko'nglim – ko'ngilmi onam...

Ona buyuk zot, uning mehri, saxovatini hech bir narsaga qiyoslanib bo'lmaydigan bebaho ma'naviy tuhfadir. Alloh " Qur'on" da ham ayollarga bejizga "Niso " surasini bag'ishlagan emas. Zero, olamlar lamashinuvida umrguzaronlik qilib , qalbining bir parchasi bo'lmish farzand talmish ne'matni dunyoga keltirish , uni Vatanga kerakli inson sifatida tarbiyalash ham eng murakkab , ham eng sharaflig'ish. Bu yo'lda ularning matonati, zahmati , azoblari esa hamisha qalbimizda. Shoirlar ham aynan shularni izohlash , o'z o'rnida isbotlash uchun ham Ona , ayol obrazlariga qayta va qayta murojaat qiladilar. " Onalar oyog'i ostida jannat" hadisi bejizga paydo bo'lmagan. Muhammad Yusuf ham ona obrazini yoritib, kerak holatda , takomillashtirib bir necha marotaba she'r yozgan . Jumladan, "Onaizor", " Onajon", "Onamga", "Onamga xat", "Onajonim" kabi bir qator she'rlari shoir ijodida bu mavzuning yetakchi o'rinda ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ona hamisha g'amxo'r va dardkash zot. Shoir ham onasiga dunyoning bevafo-yu jabrga to'la ekanligini ming ehtiros bilan ifoda etadi:

Onajon,

Onajon,

Yuragim og'rur.

Qalbimni tirnaydi alam va nafrat.

Darhaqiqat, umr o'tkinchi, undagi yomonlik va zulm xotiramizda shunday izlar qoldiradiki, uning o'rnini tiklash aslo mumkin emasday . Ammo onaning mehrga to'la quchog'i esa , malhamday. Bola ulg'ayib katta bo'lishi , o'zi hayotda mustaqil inson bo'lishi mumkin , lekin emizgan validasi uchun bo'yi shiftga yetgan bo'lsa ham yo'rgakdagi bolaga o'xshaydi. Hayotimizda onaning o'rnini hech narsaga tenglashtira olmaymiz . Shoir ham shuni alohida ta'kidlar ekan , uning she'riyatidagi o'ziga xos badiiy tasvirga ko'zimiz tushadi:

Yetmish yulduz yog'ilib ,

Yarim oycha to'lolmas.

Yetti yanga bir bo'lib -

Bitta ona bo'lolmas.

Dunyoning achchiq, ammo, tan olingan ajib haqiqati bu - o'limning haqligi va barcha boshlanishning intihosi borligidir. Alletertsiya orqali o'ziga xos badiiy ohang yaratgan shoir har narsaning o'z o'rni mavjudligini yana bir bor ta'kidlamoqda. Ona obrazini ushbu misralarda raqamlar mushtarakligi asosida go'zal ifoda etgan nazm ustasi boshqa misrasida irsoli masal san'atidan unumli foydalanib o'z fikrini dalillaydi:

Bir mayizni besh o'g'il ,
Teng bo'lishib yer edik.
Tushmi endi u zamon ,
Hayronaman onajon!

Jonni o'rtaydigan , qalbingizga titroq bag'ishlaydigan misralar , shunday emasmi? Bejizga xalqimiz orasida " Bir qoringa sig'gan katta hovliga sig'maydimi?" degan fikr yurmaydi. Ahillikni , umuman, muvozanatni saqlab turgan kuch bu - onalardir. Muhammad Yusuf esa , ona obrazini yana ham go'zalroq badiiy ifodalash uchun tashbeh san'atiga murojaat etadi:

Onasiz uy , oysiz tun ,
Ekan endi o'ylasam .
Ichimda ko'p dardlarim -
Qay birini so'ylasam.

Oy azaldan onaga qiyos etiladi. Zotan, quyosh kunni yoritgan joyda, oy zulmatni yoritadi, tunga ravshanlik bag'ishlaydi. Axir, onalarimiz ham shunday mehribon. Muhammad Yusufning ona obrazi tasvirlangan ushbu mavzudagi she'rlarini o'qir ekanmiz , ko'proq dardga cho'mgan shoirning onadan dardkash bo'lishni iltimos qilib o'tinganligiga ,uning suhbatiga muhtojligiga ko'zimiz tushadi . Bu kabi fikrni Muhammad Yusuf "Onamga xat" she'rida ham aytadi:

Men sizga xat yozaman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman.
Tunlari charog'on shunday shaharda
Dardimni hech kimga ayta olmayman.

Misralaridan anglashikadiki, shoir onasidan yiroqda umrguzaronlik qilgan , turli adabiy suhbatlarga shaharma-shahar kezgan , taraqqiyot ichidagi shahardan esa bittagina dardkash topa olmaganini maktubida o'kinch bilan ta'kidlaydi. Samimiy misralarda yashayotgan ona obrazining yana bir chin qiyofasi "Onaizor" she'rida ham tarannum etilgan:

Sig'may qolsam shundayin keng jahon-a,
Osmonlarga ruhim bo'lsa ravona,
Jonsiz tanim ustida ham parvona ,
Onam yig'lar , onam yig'lar, onam u...

Ona uchun bu dunyoning do'zaxi o'zi tirikligida farzand dog'ini ko'rishlik degan edi mashhurlardan biri. Ehtimol shu misralarni yozayotganda o'z taqdirining bashoratini bilganda Muhammad Yusuf ,balki , bunday yozmagan bo'larmidi ? Haqiqiy so'zidan kechmaydi. Shundagina uning asari xalq orasida obro'ga ega bo'ladi . Zotan, shoirning ona obrazi tarannum etgan she'rlari shunday xarakterga ega.

Mushfiq ona obrazi. Ushbu misralarni o'qiganimda ko'z oldimga "Motamsaro ona haykali" keladi:

Joningdan aylanay turgin jonajon,
Yo'l qarab bo'ldingmi , jigarginang qon?
Boqma ko'zlarimga bemajol ,xasta ,

Mening topganlarim she'rmi bir dasta.... Darhaqiqat, Muhammad Yusuf ona obrazidagi, ona mavzusidagi she'rlarida his-tuyg'u , emotsiya juda kuchli hamda shoir har she'rida o'ziga murojaat qilib , o'zining onsig a nолоyiq farzand ekanligini ta'kidlaydi.

Haqiqatdan ham, biz Muhammad Yusuf bo'lmasak ham , ona obrazini ta'riflab , mushtarak jihatlarini yig'ib she'r bitmasak ham , o'zimizga bir savolni beraylik:

"Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi?"

Endi men ham senga farzand bo'ldimmi?

Foydalanilgan qopshimcha adabiyotlar:

1. "Bevafo yor" Muhammad Yusuf she'riy to'plami

2." Alyorim qolur" to'plami

3. Ziyocom

MAVLONO GADOIYNING ADABIY MEROSI

Askarova Zebiniso Akbar qizi,

Adabiyotshunoslik: o'zbek tili adabiyoti

10-1 UZA-21 guruhi talabasi

z.a.askarova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV asrning yetuk ijodkorlaridan biri bo'lgan va Navoiy e'tirofiga sazovor bo'lgan Mavlono Gadoiy hayoti va merosini o'rganilishi aks ettirilgan. Shoir ijodini o'rganilishiga turtki bo'lgan olimlar va merosi ustida ish olib borgan olimlar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: g'azal, qasida, badiiy mahorat, shoir, qit'a, ritmik, lirik meros, vazn.

O'zbek klassik she'riyati yorqin iste'dodli shoirlarga boy. Mavlono Gadoiy ana shulardan biri. Gadoiy taxminan 1403-1404-yilda dunyoga kelib, 90 yildan ortiq umr kechirgan. Gadoiyning tug'ilgan yilini aniqlash ilmda turli xil munozarali qarashlarga sabab bo'ldi. Filologiya fanlari doktori E. Rustamov Gadoiy taxminan 1360-yillarda tug'ilgan bo'lib, Abulqosim Bobur saroyida xizmatda bo'lgan paytlarida 96 yoshlardan oshganligini aytadi.

O'zbek g'azalnavisligida badiiy mahorat masalasi haqida gap borganda dastlab aytish mumkinki, g'azal yozish tartibi o'ta murakkab bo'lib, u ijodkordan yuksak mahorat va bilim talab etadi. Mavlono Gadoiy g'azal, qasida, mustazod, qit'a janrlarida ijod qilgan. Ritmik variatsiyalarni hisobga olmaganda, aruzdagi hazaj bahrining 4 xil, ramal bahrining 3 xil, rajaz bahrining 2 xil hamda muzori', mujtass va xafif bahrlarining bir xil, jami 12 xil vazndan foydalangan. Shoirdan bizgacha "Devoni Gado" deb nomlangan yagona devoni yetib kelgan. "Devoni Gado" tarkibidan shoirning 230 g'azali, 1 mustazodi hamda 1 qasidasi (bosh qismi tushib qolgan) 5 qit'asi joy olgan. Gadoiyning devoni ham Sharqda an'ana tusiga kirgan hamd va na't bilan boshlanadi. Ular devonning boshidagi ikkita g'azaldan (96 b – 97 a varaq) iboratdir. Shoir devonidan joy olgan lirik merosining umumiy hajmi 1487 bayt yoki 2974 misrani tashkil etadi.

Hamma she'rlar eski o'zbek tilida yozilgan. "Devoni Gado"ning yagona qo'lyozma nusxasi Parijdagi "Bibliotique Nationale" ("Milliy kutubxona")ning "Departament des Manuscrits Suppl turc" ("Turk qo'lyozmalari bo'limi")da 981-raqamli inventar ostida saqlanib kelinmoqda. Uning fotonusxasi esa 1968-yilda professor H.Sulaymon tomonidan keltirilib, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi fondiga topshirilgan. Mavlono Gadoiyning boshqa devonlari yoxud mazkur devonning boshqa nusxalari haqida hozircha ma'lumotlar yo'q.⁶²

XV asr adabiyotining muhim jihatlaridan biri zullisonaynlikdir. O'zbek adabiyotida bu adabiy hodisa «achunda porsiy daftarlari» bo'lgan Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"sidan boshlangan edi. XV asrning I yarmiga kelib mazkur an'ana ijodiy jarayonning xarakterli belgilaridan biriga aylandi. Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham turkiygo'y shoirlar haqida fikr yuritganda Gadoiyning Sakkokiy, Xaydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy va Amiriylar qatorida tilga oladi: "To mulk arab va sort salomatidin turk xonlarga intiqol topti, Huloquxon zamonidan sultoni sohibqiron Temuri Ko'rog'on zamonidin farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamoning oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab salomatine zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriylar va Gadoiydeklar"⁶³ Shoir Gadoiy Xurosonning muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy maraz poytaxti Hirotida yashagan. Uning hayoti, qismati Hirot va shu yerdagi adabiy muhit bo'lgan shoirlar, fozillar, san'atkorlar bilan bog'langan bo'lib, shoirning o'zi ham shu muhitda serunum ijod qilgan. Chunonchi Gadoiy she'rlarida Hirot ko'p bor madh etib, uning go'zallaridan biriga ko'ngil qo'ygani ham xabar qiladi:

Zulfunga vobastamen, bu shaharda

Sensizin yo'qsa manga bir jav Hiri.

Shoirning buyuk zamondoshi malikulkalom Mavlono Lutfiy va uning she'rlari bilan ham tanish ekanligidan ham ma'lumot aytgan:

⁶² Ergash Ochilov. Barhayot siymolar-Toshkent: O'zbekiston, 2012. -B. 292.

⁶³ Ergash Ochilov. Barhayot siymolar-Toshkent: O'zbekiston, 2012. -B. 292.

Gar inoyat bo'lsa haqdin, dog'I sultondin nazar,

Bu Gadodek Lutfiy kim bo'lg'ayki, Salmon bo'lmag'ay.⁶⁴

Mavlono Gadoiyning ham fors-tojik tilidagi yagona g'azali Faxriy Hirotiyning "Radoyif ul-ash'or" tazkirasi orqali bizga qadar yetib kelgan. Albatta, shoirning forsiy merosi shu bilan cheklanmagan bo'lgani aniq. Biroq, shu g'azalning o'ziyoq shoirning bu tildagi ijodiy mahorati haqida muayyan tasavvur uyg'ota oladi. Bu esa Gadoiyning zullisonaynlik an'anasini munosib davom ettirgan shoir ekanligini ko'rsatadi. Qayd etish joizki, Gadoiy adabiy merosi mamlakatimizda ilk marotaba 1965-yilda S. G'aniyeva tomonidan "Shoir Gadoiy" nomi bilan nashr ettirilgan edi. Mazkur kitobda shoirning 47 g'azali va 1 ta mustazodi o'rin olgan. E. Ahmadxo'jayev 1973-yilda Gadoiy "Devon"ini qo'lyozma nusxa hamda Ya. Ekman nashri asosida qaytadan nashrga tayyorlab, 230 ta g'azal, 1 ta mustazod, 5 ta qit'adan tashkil topgan nisbatan mukammal nashrini amalga oshirdi. 1986-yilda nashr ettirilgan "Navoiyning nigohi tushgan" to'plamidan Gadoiyning 80 g'azali va 1 ta mustazodi o'rin oldi. Shuningdek, 1988-yilda nashr ettirilgan "Hayot vasfi" to'plamiga ham Gadoiy lirikasi kiritildi. Unda shoirning 223 ta g'azali, 1 ta qasida, 1 ta mustazod va 5 ta to'rtlik shaklidagi she'ri o'rin oldi. Ushbu madaniy meros bugungi, umuman barcha davr avlodlari uchun qimmatli xazina hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. B.7-bet.
2. Ergash Ochilov. Barhayot siymolar-Toshkent: O'zbekiston, 2012.-B.292
3. Erkin Ahmadxo'jayev. "Gadoiy devon"-Toshkent-1973-B.3.
4. E. R. Rustamov. Узбекская поэзия в первине XI века, стр. 126- 145.

⁶⁴ Erkin Ahmadxo'jayev. "Gadoiy devon"-Toshkent-1973-B.7.

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA QUSHLAR OBRAZI ORQALI BADIY SAN'ATLARNING SHAKLLANTIRILISHI

Mustafoyeva Nigina Erkin qizi,

BuxDU, Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida keng qo'llanilib kelayotgan qushlar obrazining qanday badiiy shakllarni yuzaga keltirishi haqida so'z boradi. Shavkat Rahmon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo, Mehriniso Abbosova ijodi misolida ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'z: Zamonaviy she'riyat, obraz, obrazlilik, qushlar, metafora, tashbeh, tanosib.

Har bir davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mustaqillik davri she'riyati ham adabiyotga o'zgacha talqinda kirib keldi. Bu davr she'riyati o'zining salmoqli o'rniga egadir. Bugungi kunda yaratilayotgan she'rlar yangicha talqin va usulda. Zamonaviy she'riyatda yaratilgan ijod mahsulida inson ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, shuningdek, davr bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy qarashlar aks etgan. Mustaqillik davrida yaratilayotgan har bir asar xoh nazmda, xoh nasrda bo'lsin, erkin fikr va qarashlarni bayon etish imkoniyatiga egadir.

Mustaqillik davri she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, bugungi kunda yaratilayotgan she'rlar o'zbek she'riyatida muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Har bir yaratilayotgan she'rda ozodlik, vatanni madh etish, muhabbat, vafo kabi tuyg'ular ifodasiga guvoh bo'lamiz. Har bir ijodkorning o'ziga xos ijod uslubi mavjud. Undagi tanlanayotgan obrazlar salmog'i ham tubdan farq qiladi. Mana shunday timsollar orqali she'ning mazmun-mohiyati to'la ochib berilgan. Jumladan, qush nomlarining she'riyatda qo'llashning o'ziga xosligi, she'riy san'atlar yaratish vositasi sifatida ham adabiyotimizda keng qo'llanilgan. Masalan, badiiy fikrni obrazli ifodalashga xizmat qiluvchi tashbeh san'atida qush nomlari ham faol ishtirok etadi. Bugungi davr o'zbek she'riyatida turli xil qush nomlari obrazli fikr ifodalash, o'xshatish, metafora, sifatlash singari tasviriy vositalar hosil qilishda keng qo'llanilgan. Masalan, akademik shoir Shavkat Rahmonning quyidagi satrlariga diqqat qilaylik:

*Kabutarlar uchganday bo'ldi,
Shundoqqina yonimdan sarin.
Shabbodaday o'tardi o'ynab,
Shohi ko'ylak kiygan nastarin...[1]*

Shoir o'z she'rlarida ulkan mas'uliyat bilan yondashar ekan, har bir satrlarini mahorat bilan tasvirlaydi. Shoirning “Manzara” she'rida tabiat manzaralari orqali o'z dardini bayon etmoqchi bo'ladi. Tabiatning kishi ruhiga mahzunlik uyg'otgan holati ruhiy manzaralar ifodasiga sabab bo'ladi. Shoir ruhiy holatini go'yoki kabutar qushiga o'xshatadi. Kabutar-baxt ramzi. Yoriga yetishishi, uning visolini ko'rishini shabbodaga mengzaydi. Shoir asl tabiat orqali inson shaxsini tadqiq etishni ko'zda tutadi. Ushbu misralarda “kabutar uchganday” jumalari orqali tashbeh san'atini hosil bo'lgan.

Shuningdek, qushlar nomiga -dek, -vash qo'shimchalari va kibi/kabi, yanglig', nechukki, singari yordamchilar bilan birgalikda qo'llash orqali o'xshatish san'atini hosil qiladi.

Qushlar nomi adabiyotimizda ko'pincha ijobiy ma'noda keladi. Vatan madhi, yurt tinchligi, farovonligi, aynan, qush timsoli orqali ochib beriladi. Mahoratli shoira Zebo Mirzo “Ona tiliga qasida” nomli she'rida “bulbul” obrazi orqali go'zal badiiy ifodani yaratgan.

*Sen – maysalar tili, bulbul ko'zyoshi,
Sen – she'rning qanoti, ruhdir mukammal,
Besh doston besh qit'a bo'lib porladi,
Navoiy hayratdan she'r aytgan mahal! [2]*

Shoira she'rdan ona tilini bulbulning ko'z yoshiga qiyoslaydi. Bulbul o'zbek xalq og'zaki ijodida ko'p qo'llangan obrazdir. Biroq, bu timsol umum adabiyotda ham ko'p qo'llanilib kelmoqda. Shoira ushbu satrlar orqali o'z ona tilisini “bulbulning ko'zyoshi”ga mengzaydi. Bulbul timsoli orqali misrada yashiringan g'oyani nozik ishora orqali yuzaga chiqarmoqchi bo'ladi. Shuningdek, ushbu misralar orqali adabiyotimizda qo'llangan istiora san'ati hosil bo'lyapti.

Qushlar obrazi yosh ijodkorlar ijodida ham keng qo'llanilib kelyapti. Mehrinoz Abbosova qalamiga mansub yana bir go'zal she'rga e'tibor qarataylik:

*Uchayotgan qafasman, tili chiqqan sukunat,
Osmon torayib borar, dunning qulog'i bor.
Jussam qaldirg'och misol, ruhim devdek bahaybat,
Uzzukun ko'zlarimdan yomg'ir yog'ir, do'l yog'ir.*

Shoira o'zini "uchayotgan qafas"ga, "tili chiqqan sukunat"ga mengzaydi. Go'yo osmon torayib bormoqda. Dunyoning "qulog'i og'ir". Jismini qaldirg'ochga tashbeh etadi, buning ziddi o'laroq ruhining "devdek bahaybat" ligini bayon qiladi. Shoiraning qalbi nedandir siqilgan go'yo, uzzukun ko'zlaridan yosh oqadi. Ko'zyoshlarini yomg'irga, do'lga qiyoslaydi. Shu o'rinda mubolag'a san'atidan unumli foydalanganligi ko'zga tashlanadi.

Ba'zan qush nomlarini bir misrada yonma-yon takror qo'llash ham muhim uslubiy vosita vazifasini bajaradi. Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo "O'zbek o'g'li" she'rida "burgut, lochin, sor" qush nomlari takrori xuddi shunday uslubiy qimmatga ega bo'lgan:

*O'zbek desam, jaranglagan tor kelur,
Undan oldin nomus ila nor kelur.
Burgut kelur, lochin kelur, sor kelur,
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutma. [3]*

Ushbu satrlarda shoir qushlar timsolidan foydalanib, gradatsiya hodisasiga tayangan. Ayni choqda ushbu darajalanish tanosib san'atini yuzaga keltirgan. O'zbek yigitlarining mard va jasurligini qushlar timsolida ochib berishga harakat qilgan. Shoir tabiatan ham eng mohir qushlarga o'zbek o'g'illarini mengzagani satrlarda aksini topgan.

Qushlardan timsol sifatida foydalanish adabiyotshunoslikda yangi hodisa emas. Biroq zamonaviy she'riyatda qushlar timsoli yangicha talqinlar asosida boyib bordi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Rahmon. Saylanma. “Sharq” nashriyot-matbaa bosh tahririyati. -T.,1997, 18-bet.

2. Zebo Mirzo. “Ona tiliga qasida”. “Yangi asr avlodi”. -T., 2004. 38-bet.

3. Iqbol Mirzo. “Vatan haqida qo‘shiq”. “Sharq” nashriyot-matbaa bosh tahririyati. -T., 2010, 15-bet.

www.ziyo.uz.com

<https://kh-davron.uz>

https://t.me/abbosova_mehrinoz

ADABIY TOPISHMOQLAR BADIYATI

Najimova Xumora,

BuxDU, adabiyotshunoslik yo‘nalishi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Folklordan yozma adabiyotga o‘zlashgan janrlar janr stilizatsiyasini hosil qiladi. Xalq ijodiga xos bo‘lgan topishmoqlarnig badiiy adabiyotga kirib kelishi adabiy topishmoq istilohi bilan atala boshlandi. Ushbu maqolada yozma adabiyotda yaratilgan topishmoqlar badiiyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, stilizatsiya, janr, topishmoq, chiston.

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo‘lmish topishmoq o‘zining shakliy va mazmuniy qurilishiga ega. Savol, so‘roqqa asoslangan ushbu janr bolalar folklorining eng qiziqarli turlaridan biridir. Topishmoq so‘zi qadimda “lug‘z”, “chiston” atamaları bilan ifodalangan.

“Chiston” janri namunlari nafaqat mumtoz adabiyotda, balki zamonaviy she‘riyatimiz vakillari ijodida ham uchrab turadi. Shoira Mehrinoz Abbosovaning “Chiston” nomli she‘ri mumtoz an’analar davomi yanglig‘ yaratilgandir.

Ayni go‘zal chog‘i Navro‘z din iborat,

Yal-yal yashil qabosi ko‘z-ko‘z din iborat.

Zangori to‘n birla feruz ko‘zga o‘xshaydur,

To‘n yechsa ajab boshdin-ayoq ko‘z din iborat.

“Chiston”ning javobi “Bodom” bo‘lib, shoira ushbu mevani go‘zal tashbehlar bilan ifodalay olgan.

Bu davrda yaratilgan “Chiston”lar mumtozdan farqli ravishda barmoq vaznida ham yaratildi. Faxriyor ijodiga mansub “Chiston” nomli she‘r fikrimizning dalilidir.

Oyoqost tavq uchun osilgan bir tavq –

Toptalgan erk uchun to‘langan tovon.

Tovon evaziga yum-yumaloq shavq

Tuyayotgan tavqparast avom.

Shavqningda shakli bor zamon-makonda,

Mavhumdan ko‘ra u moddiyga yaqin:

Sochlari to‘kilib ketgan xokandoz

Kulrang kamzuliga yurar taqi-iib [2]

Ushbu she‘r nomlanishidan chiston esa-da, she‘riyat qoidalariga asosan chistonga monand emas. Chiston mazmunan jumboqqa asoslanishi va uning javobi berilishi zarur edi. Shoirning chistoniga e‘tibor qilsak kishini jumboqli holatga tushuruvchi, o‘ylashga, fikrlashga undovchi satrlardan tarkib toganiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu chistoni bilan shoir o‘tgan asr voqealarini, xalqimizning asir-u tutqunlikda, erk-ozodlik uchun kurash pallasidagi hayotini tasvirlashga uringan. Ushbu she‘r mumtoz ana’ananing zamonaviy shakli sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Adabiyotshunos, olim Laylo Sharipovaning fikricha, mumtoz adabiyotdagi “chiston” janri xalq ijodidan o‘zlashgan bo‘lib, topishmoqning fors-tojikcha nomlanishidir. Bu janrning XX asr adabiyotidagi namunasi esa adabiy topishmoq istilohi bilan nomlanadi. Olima bu uch janrning o‘xshash va farqli jihatlari haqida to‘xtalar ekan, chiston uchun aruzning turli bahrlarida, she‘riy shaklda yozilish usuli xosligini, xalq topishmoqlari esa ham nasriy, ham nazmiy shaklda uchrashini, adabiy topishmoqlar xalq topishmoqlari shakli va an’anasini davom ettirganligini aytib o‘tadi. Yozma topishmoqlarni xalq topishmoqlaridan farqalash uchun “adabiy topishmoqlar” deyish ma’qul, ularni chiston deb bo‘lmaydi deya ta’kidlaydi [3].

Topishmoq janri asosan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bolaning aqliy rivojlanishida, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Olima, Laylo Sharipova o'zining "She'riyat va folklor" nomli monografiyalarida ushbu janr stilizatsiyasini XX asr she'riyati misolida tadqiq qilgan bo'lsalar, tadqiqotchi R.Rajabova esa bolalar adabiyoti va xalq ijodidagi topishmoqlarni qiyosiy tahlil qildilar. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida ham adabiy topishmoqlar yaratildi. Topishmoqlar mavzu mundarijasi xalq an'anasini davom ettirdi. Biroq bu davrda zamonaga mos, texnika-texnologiyalar haqidagi topishmoqlar ham vujudga keldi. Topishmoqlar endi nafaqat tabiat, nabodot-u hayvonot olami haqida balki, zamonaviy yordamchilar: kompyuter, internet, televizor, telefon haqida ham yaratildi.

Ichida g'ij-g'ij bilim,

Unda hayot yashirin [4]. (kompyuter)

Erkin Vohidov – mohir so'z zargari. Bu ayniqsa, uning eng nafis, eng jarangli, eng tovlanuvchan so'zlar durdonasidan tuzilgan marjonni eslatuvchi lirik she'rlarida ko'zga ravshanroq ko'rinadi. Shoirning "Topishmoq" nomli she'ri ham latifa, ham topishmoq janri stilzatsiyasiga misol bo'la oladi:

Topishmoq aytadi menga nabiram

– "K" dan boshlanadi, har uyda bor, – der,

– Sodda ish asbobi...

Men ketmon desam,

Nabiram kuladi: – Yo'q, bu – kompyuter [5]!

Ijodkorning hajviy she'rlarida so'z o'yinlariga, so'zning nozik qirralariga duch kelamiz. Rohatlanib o'qilgani bois, yodda saqlab qolish ham qulay. "Taqdirda bor eding" nomli she'ri, nafaqat, hazil ruhida bitilgan, balki, o'zbek tilidagi omonim so'zlar orqali ajoyib so'z o'yini qilingan.

Ko'ngling bormi desam, "Ey, bor-bor" – deding,

Lol tursam, "Tur-tur"ni yuz, ming bor deding.

Tushundim, yoningga bordimu turdim,

Chunki peshonamda o'zing bor eding.

Shoir she'rlari kishini mushohadaga, o'ylashga, izlanishga chorlovchi, samimiy yumorga, achchiq satiraga boyligi bilan e'tiborlidir. Omonimlardan topishmoqlar yaratishda foydalanish bolalar shoirlari ijodida ham uchraydi:

Uni kir yeydi,

Kir uni yeydi[6]. (Sovun)

Bu topishmoqda 1) kir – kiyim ma'nosida; 2) kir – kiyimdagi dog' ma'nosida qo'llangan.

Xalq topishmoqlari orasida igna haqida "Hammaga kiyim tikadi, o'zi esa yalang'och" nomli topishmoq mavjud. Shoir "Ignaning hasrati" nomli she'rida xalq topishmog'idan go'zal foydalana olgan.

Igna aytar emish insonga,

Qadrimga yet, ko'zni och, dermish.

Kiyim tikdim jumla jahonga,

O'zim esa – yalang'och, dermish.

Bu davr she'riyatida yaratilgan toishmoqlar mavzu mundarijasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: odam va uning ta'na a'zolari haqidagi; maktab va u bilan bog'liq topishmoqlar; o'simliklar: daraxt, gullar, mevalar, sabzavotlar haqdagi; hayvon va hasharotlar haqida; uy-ro'zg'or buyumlari haqida; tabiat va u bilan bog'liq barcha narsalar; mehnat va ish qurollari haqidagi topishmoqlar va boshqalar. Ijodkorlar tomonidan yaratilgan topishmoqlar javobi bir bo'lsa-da shaklan o'ziga xoslik, o'xshatish-u tashbexlarda o'zgachalik ko'zga tashlanadi. "Shamol" haqidagi quyidagi topishmoqlarga diqqat qiling:

Kirmas yopiq eshikdan,

G'ir-g'ir kirar teshikdan.

Nima bu do'stim Jamol?

Beqaroq esgan...(Shamol) [7]

Ko'zi yo'q yugurar tez,

Birgalashib olam kez.

Jahli chiqsa etar vayron,

Ko'rib bo'lmagin hayron [6]. (Shamol)

U yoqqa o'tdim bildingmi?

Bu yoqqa o'tdim bildingmi?

Oq quvrayning boshini,

Chertib o'tdim bildingmi? [8] (Shamol)

Yuqoridagi uchta topishmoq ham shamol haqida bo'lib, dastlabki ikkitasi adabiy topishmoq, uchinchi esa xalq ijodiga mansub topishmoq hisoblanadi. Har uch topishmoq ham to'rtlik shaklida yozilgan va a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Biroq har uchovi bir narsani tasvirlasa-da tasvir va tashbehda o'ziga xoslik mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, istiqlol davri o'zbek she'riyatida topishmoq janri stilizatsiyasi boshqa janrlarga qaraganda bir muncha salmoqlidir. Shoirlar ushbu janrni stilizatsiya qilar ekanlar xalq ijodiga monand, shaklan, mazmunan yaqin topishmoq va tez aytishlar yaratdilar. Mumtoz an'analarni davom ettirib "chiston" janrida ham o'zlarini sinab ko'rdilar. Topishmoqlar nafaqat bolalar shoirlari ijodida balki, kattalar adabiyotida ham yaratildi. Bir nomdagi topishmoqlarda tasvir va o'xshatish rang-barangligi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mehrinoz Abbosova. Men yoshlikman. – Toshkent: Adib, 2011.
2. Faxriyor. Ayolg'u: She'rlar va dostonlar. – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Sharipova L. She'riyat va folklor. – Toshkent: Navro'z, 2019.
4. Zahro Hasanova. Topishmoq va tez aytishlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
5. Erkin Vohidov. Tabassum. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
6. Abror Qo'shnazarov. Quvnoq bolajonlar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.
7. Nabijon Ermat. 99 tez aytish va topishmoqlar. – Toshkent: Muharrir, 2019.
8. Qiziqarli topishmoqlar / to'plovchi: Nargiza Toshqulova. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.

70230502 – ADABIYOTSHUNOSLIK RUS ADABIYOTI

ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЗМА ПЬЕС А.ВАМПИЛОВА

Набиева Рушана Равшановна,

Бухарский государственный университет

Аннотация: исследование посвящено актуальной проблеме современного литературоведения – проблеме метода и стиля писателя. На материале наиболее известных пьес сделана попытка анализа метода психологизма в драматургии А. Вампилова.

Ключевые слова: метод психологизма, драма, катарсис, конфликт, коллизия, антигерой.

Ushbu asar qisman yozuvchining avtobiografiyasi ham bo'lib, falsafiy ruhda bitilgan. E'tiqodi va ruhiyatida inqiroz yuzaga kelgan adib shaxsiy takomil yo'lini sayohatda deb biladi. U sayohati davomida kashf qilgan insonlar, voqea- hodisalar, mistik vaziyatlar va his- tuyg'ularni kitobda batafsil aks ettirgan. Bu vaziyatga har bir kitobxon tushgan bo'lishi, u tuygan hislarni har bir shaxs tuyishi, o'xshash hodisalarni boshdan kechirishi mumkin.

Muallif kitob davomida Trans- Sibir temir yo'li orqali Afrikaga, so'ngra Yevropa va Osiyoga yo'l oldi, u o'z kuchini va ishtiyoqini jonlantirish uchun sayohatni boshladi. Shunday bo'lsa ham, u hech qachon iqtidorli yosh skripkachi Hilol bilan uchrashishni kutmagan edi. Hilol Paulo bundan besh yuz yil avval sevgan va unga shu qadar qo'rqqoqlik bilan xiyonat qilgan ayol ediki, bu unga hozirgi hayotda haqiqiy baxtni topishga xalaqit beradi.

Ular birgalikda vaqt va makon bo'ylab sirli sayohatni boshlaydilar, sevgi, kechirimlilik va hayotning muqarrar qiyinchiliklarini yengish uchun jasoratni o'rgatgan yo'lda sayohat qilishadi. Go'zal va ilhomlantiruvchi “Alif“ asari bizni shaxsiy sayohatlarimizning ma'nosini ko'rib chiqishga undaydi. Asarni o'qish jarayonida qahramon tilidan aytilgan birgina so'z bunga misol bo'la oladi : ..."Sayohatlarda asosiysi pulmas, balki dovyuraklik. Men butun yoshligimni

dunyo bo'ylab sandiraqlab o'tkazdim. O'shanda menda pul bormidi?[2]...

Asar yozuvchining 2006- yilda Transsibir magistrali bo'ylab qilgan sayohatini falsafiy ruhda hikoya qiladi. O'zidagi ruhiy va e'tiqod inqirozini tuzatish yo'lini sayohat deb biladi. Asar nomi Jorge Luis Borgesning 1945- yildagi qisqa hikoyasi „The Aleph” nomidan olingan. Alif yahudiy alifbosining birinchi harfi bo'lib, ko'plab sirli ma'nolarga ega. Coelho asar uchun to'rt yil ma'lumot yig'adi va romanni uch haftada yozib bitiradi. Koelo bilan roman haqida New York Times uchun intervyu olgan Juliya Bosman uni „Twitter jumbog'i” deb ta'riflaydi. Boshqa bir muxbir, - „Koelo hikoya davomida qiyin atamalarni soda tarzda berishi klishe'larni yorib chiqadi” [3], - deydi.

Asardagi voqealar badiiy to'qima emasligi ham odamni qiziqtirishi turgan gap. Shunday insonlar toifasi bo'ladiki ular sayohatda o'zlarini topishadi. Asar voqealarigacha Paolo Koelo ham trans holatiga tushar va oldingi hayotiga qaytib tushunarsiz narsalarni ko'rar edi. O'tgan hayotida mudhish xatoga yo'l qo'ygan va buni to'g'irlash uchun yo'lga tushgan Koelo o'tgan hayotidagi sevgilisi Hilol bilan topishadi va o'tmishda nimalar bo'lganiga birgalikda guvoh bo'lishadi.

Asarda Qur'oni Karimdan Injildan va ba'zi mashhur adiblardan iqtiboslar bor. Aynan shu iqtiboslar postmodernism adabiyotining jihatridan biri bo'lgan “pastiche” ga misol bo'la oladi.

Yana adib sevgi uchburchagi haqida ham eslab o'tadi. Alkimyogar uslubida yozilgan asar ko'pchilikka yoqmasligi tabiiy. Koelo ham bu asarni chop etishda qator muammolarga duch kelgan degan mish- mishlar yuradi. Lekin shuni ayta olamanki, kimdir asarni o'qishga kirishsa ketkazgan vaqtiga achinmaydi. Koeloning o'z uslubi va imzosini bu asarda ham ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki “Alximik” romani 1988-yilda Borxesning “ Ikki hayolparast ertagi” nomli asaridan ta'sirlanib yozilgan shu tufayli unda intertekstuallik elementlari yaqqol seziladi. “Alif” asari esa “Alximik” ning mantiqiy davomi hisoblanib unda ham postmodernizmning intertekstuallik jihatini payqash qiyin emas. Birgina shu uch asarning sayohat bilan boshlanib sayohat davomida turli tasodifiy voqealar aks ettirilishini misol sifatida aytishimiz mumkin.

Intertextuallik ma'no berish matnlar bir-biriga shuningdek madaniyatga o'zaro bog'liq bo'lgan usullarni anglatdi. Ular bir biriga ta'sir qilishi ta'sir qilishi, yoki parodiya qilish, bir birinig ustiga qurish mumkin. [4]

Asar juda ko'p tillarga tarjima qilingan va sevib mutoala qili kelinmoqda. Sababi uning soda va ravon tili hisoblanib, bu postmodernizmning jihatlaridan biri bo'lgan minimalism deb qarashimiz mumkin.

Asar qisman yozuvchining avtobiografiyasi ham bo'lib, falsafiy ruhda bitilgan. E'tiqodi va ruhiyatida inqiroz yuzaga kelgan adib shaxsiy takomil yo'lini sayohatda deb biladi. U sayohati davomida kashf qilgan insonlar, voqea- hodisalar, mistik vaziyatar va his- tuyg'ularni kitobda batafsil aks ettirgan. Bu vaziyatga har bir kitobxon tushgan bo'lishi, u tuyg'an hislarni har bir shaxs tuyishi, o'xshash hodisalarni boshdan kechirishi mumkin. [5] Yuqorida tilga olingan mistik vaziyatlar haqidagi fikr esa "magical realism" tushunchasiga misol bo'la oladi. "Magical realism" ham postmodernism adabiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib, o'quvchiga ta'sir etish kuchini oshirish uchun hayoliy va hayotiy voqealar aralashtirib yuboriladi. Ayniqsa asar davomida kutilmagan, noodatiy qahramon yoki hodisalarning to'satdan yuzaga chiqishi o'quvchini daxshatga soluvchi qahramonlar yoki voqealar sodir bo'lishi ham sehrlil realism jihatlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda asar tahlil qilish jarayonida postmodernizmning o'ziga xos ko'plab elementlarini uchratish mumkin. Ushbu tezida esa intertekstuallik, pastish, sehrlil realism hamda minimalizm jihatlaril tahlil qilindi. Asar haqidagi fikr mulohazalarni eshitgan o'quvchida bir bora bo'lsada asarni o'qishga istak bo'lmasligiga ishonish qiyin

ADABIYOTLAR:

1. Ulug'bek Hamdamov , " Jahon adabiyoti" O'quv qo'llanma, Toshkent 2021. 38-54 b.
2. [http:// arm.sies.uz/?p=2789](http://arm.sies.uz/?p=2789)
3. Thoughtco.com/aleph-book-review-852031
4. [http:// uz .efferit. com](http://uz.efferit.com)
5. [http:// asaxiy.uz /product/Paulo-Kaelo-alif](http://asaxiy.uz/product/Paulo-Kaelo-alif)

6. SHoira Normatova “Jahon adabiyoti” O’quv qo’llanma 76-78 b
7. P. Caelho “The Alchemist” London: Harper Collins, 1995.
8. [http:// uz.m. Wikipedia.Org/wike/ Postmodern_adabiyoti](http://uz.m.wikipedia.org/wiki/Postmodern_adabiyoti)
9. [http:// telegraph/Paolo Kaelo-alif-asar-haqida-/-28](http://telegraph/Paolo_Kaelo-alif-asar-haqida-/-28)

WOMEN’S THEME IN THE WORKS OF THEODORE DREISER: THE FATE OF A FEMALE ARTIST IN THE NOVEL THE “GENIUS”

Mavlonova Ugiloy Khamdamovna,

Associate Professor of Turon Zarmed University, Uzbekistan, Bukhara

Saakyan Roza Yuryevna,

1st course Master’s Student of English literature Department, Bukhara State University

The purpose is to present what is characteristic of the opinions of T. Dreiser the fate of the artist in the United States at the beginning of the 20th century. The driving force the article is an analysis of the female images of "Nero" published in 1915. The author tries observes the connection of the women's subject with the problem of feminism and human relations between the artist and society on the example of the image system of the novel. Author of the work The essay highlights the special understanding of the writer of the subject of women: Dreiser was one of the first address the question of the fate of the artist during this period. The article is under discussion philologists and linguists who study American literature.

Keywords: Dreiser, genius, novel, art, artist, feminism.

The idea of female and male equality, which has become widespread among the American public in the second half XIX century, found its expression in the feminist movement. His ideology tried to “restore value to those distinctive features of a woman that often seem underestimated, considered “differences between men and women, not only in the context of biology, but also from the psychological, cultural and historical points of view”. During this period in print a new type of composition appears - bold, experimental and innovative: in them, the authors touched on such how dissatisfaction

in marriage, female sexuality, as well as the literary and artistic aspirations of women (marital discontent, female sexuality and the literary and artistic inspirations of women). To be one of the dominant ones themes in late American literature XIX - beginning of XX century, "women's subject" Scientists rightly consider it "the key to understanding". the place of a woman in society, her role social progress, explanation typicality and specificity of this question rights and freedoms". In this period on the pages of magazines and works of art The image of the "new woman" appeared more often, about which L. Wittmann wrote: "...this is a woman who has unlimited individuality, an attempt to reject all the prohibitions imposed on him by society and to constantly seek new opportunities."

In the last decades of the 19th century points out the American historian S. Evans, emphasizing that "in this period, two new social types of women arose: the "new woman" middle class and "worker girl", ... whose individuality charted a shift away from the Victorian the culture of the common hearth in direction of independence, entertainment and consumption. The most striking evidence of change occurred among women, was the emergence of an educated, often unmarried, independent "new woman" [7, p. 153–154].

From the point of view of the struggle for equality, artists played an important role, for example, the artist Charles Dana Gibson at the end of the 19th century portrayed the "new woman" in his painting *The Reason Dinner was Late* (1912): it shows a girl drawing a visiting policeman, which "reflected the craving of young women to self-expression through art". Artists not only portrayed the "new woman", but also an example shaped their own lives new way of thinking. During this period, about 88% of the subscribers of 11,000 magazines and periodicals were women; when the women entered community of artists, publishers hired them to create illustrations, who depicted the world from the point of view of the woman herself [11, p. 160–161]. The fate of one of these women was portrayed by T. Dreiser in the collection of stories "Gallery of Women" (*A Gallery of Women*, 1929).

Most research papers about the "women's theme" or the theme of feminism in the work of Dreiser, are devoted to novels "Sister Carrie" and "Jenny Gerhardt", while female images in other works are almost never studied by neither Russian nor foreign researchers. E. V. Ershova notes that Kerry's interest in things like clothing, restaurants, entertainment, and everything related to luxury "represents a consumer society, and a large metropolis is represented desired place for the consumer". E. A. Morozkina holds a similar opinion, comparing images Kerry and Jenny: the researcher claims that "in Kerry, instinctive selfish aspirations prevail, and in Jenny, instinctive kindness, sympathy, compassion". This perception of images is correct, but scientists miss an important aspect: both heroines can be attributed to the "new woman" type. In the end As a result, Jenny and Kerry become independent and, to some extent, self-sufficient individuals, neither of them is not obliged to look for a husband in order to have a livelihood, is obliged to be a mother (although this everyone has their own point of view). Their we rather condemn the way of life, because which is unusual for the society described by the author, nevertheless, creating their images, Dreiser very accurately reflected the gender trends prevailing in American society. His the first novels were considered obscene, they were actively criticized, but the subject of the writer's study were not only freedom for women, but also emancipation from obsolete Victorian views of life at large sense. Writers like Theodore Dreiser and Edith Wharton, "cleverly poked fun at the upper-class obsession with propriety, revealing a welcome frivolity and reflectiveness in regarding social mores".

In the novel by T. Dreiser "Genius" (The "Genius", 1915) with a female theme, theme feminism is bound by the problem of freedom choice: do women have rights, what are they capable of and what does society expect from them? Reply to these questions can be analyzed by analyzing the figurative system of the novel, namely, by referring to the type of hero-artist, in in this case, a female artist. Several heroines can be attributed to this type: the model - Ruby Kenny, the journalist - Norma Whitmore, the sculptor - Miriam Finch, the opera singer - Christina Channing. Before each of they face the

problem of freedom of choice, and each must decide what more important: one's own ambitions and desires or socially encouraged the role of wife and mother.

It should be noted that for creativity and worldview of T. Dreiser is characterized by the use of the concept of "artist" (artist) in the broad sense of the word. By artist, the writer means an active person who sees the beauty of the surrounding world and is able to make this beauty seen by other people.

The most interesting from the point of view of the study are the images of Christina Channing and Miriam Finch, they are "the women of the new age, ready to fight the public opinion and longing for complete freedom, including moral" [2, p. 429]. These characters are a kind of "invariants of the image of the protagonist" [2, p. 429], and, although the images of the artists are more sketchy, their appearance in the novel allows you to get an idea of Dreiser's views on the problem of freedom of choice of a creative personality, if such a person is a woman.

So, how does he see the fate of the artist in America at the beginning of the 20th century? writer? The sculptor Miriam Finch appears first before the reader: «Her refined speech and manners immediately denounced her artistic nature». Introducing the heroine, the author refers to such a detail of the portrait as the costume, which says a lot about the personality character: "Miriam dressed with a noble simplicity that distinguished her among the others. She had little regard for fashion, but all her clothes suited her surprisingly; it can be said that, ordering dresses, she saw in herself like some kind of artistic whole, harmoniously combining individual requests with the requirements that the world makes".

With the help of the portrait, you can draw a conclusion Miriam's social status: On the one hand, she is educated a woman, a creative person who even perceives and thinks about her appearance as an artist, On the other hand, as the narrator notes, this is a woman who is no longer ordained becoming a mother and probably a wife, so it's a theme for Eugene his admiration — rather Miriam Finch above all, remains a friend because of the charm of youth, which the hero is passionate about, He's already gone.

Christina Channing represents a completely different type of female artist: in her youth, no one did not limit, but at twenty-seven years (when Eugene meets her) she not yet achieved great success, but, like the main character, she is confident in her abilities and still strives to glory. Compares images of heroines only the narrator (which is confirmed by the composition of the novel: women appear almost simultaneously, then the story about them alternates in several chapters), but also the protagonist, while noticing significant differences in their personalities.

The narrator notes that the heroine, like Eugene, is carried away by the dream of true love, but first take care of your future and a career as a singer, in this she is more like Eugene than other heroes. This similarity is emphasized by the author with the help of associations and colors in the clothes of the heroes: Angela in the mind of Eugene is associated with white and in blue, portrait of Miriam described in brown, Christina most often wears black with red: "She received them dressed in a sleek black velvet dress trimmed in red. It reminded Eugene of a dress in which he first saw Ruby. The beauty of the young singer struck him" . Indeed, red and black colors predominate in Ruby's clothes. and Christina, in addition, in the painting of the hero: he mainly uses contrasting white and black colors diluting them with one brighter one, for example, red. For the artist Eugene Vitla are the colors of life itself, active, saturated, impetuous. Attention to the costume, its details and flowers brings the writer closer to the Russian classic A.P. Chekhov: color in Dreiser's novel also appears in intertextual connections. Like a costume detail, black color appeared in the portrait of one hero, turns into another and retains its semantics, as if "pulls behind it the meanings fixed earlier, realizing them in a new image" [1, p. 85].

Eugene considers Christina careless, and all decisions made by her light, but it is apparent lightness. She talks a lot about the possibility of having a family and being successful career at the same time, but comes to the conclusion that this is impossible: "It is impossible live a normal life and stay true to art". Unlike Eugene, who does not understand music and features of musical industry, Christina "knew almost sure that success on the opera stage - and even more so the chances of a brilliant success abroad

- for beginners singers are highly dependent on any connection". The author exposes by abusing direct speech, mediating the thoughts of the heroine to your own negative attitude This problem. Christina formulates the impression of theory: how artistic people should relate to family and marriage notes that women, unlike male artists, are placed in a more difficult situation, because they have to think about what parents and the public are saying. The heroine refuses on purpose marriage for career no matter what according to her lover declares the narrator Eugene was as surprised at his decision as he was ready to marry him.

Christina shows up for more a more difficult position than Miriam Finch because while dating Eugene, he can still count on a successful game either give up or continue your career According to the Canadian scientist A. Gammel "Genius" a woman still has no chance to become an artist. The game claims that despite "his own philosophy, talent and free attitude towards sex, Christina Channing disappears from the attention of the narrator immediately after his relationship with Eugene ended", which in turn is a confirmation of the secondary his image. From the scientist's point of view, Christina is not a "genius" this word correlates only with the image of Eugene. A similar point of view seems unfair in relation to the images of women in the novel and the own worldview of the author who aspired to it to create images of strong and talented women. Christina is an artist whose most important value is voice: "His voice is rich and juicy contralto, was obvious and a depth that conveyed sincerity even his most provocative songs software".

Miriam Finch, it's too late who understood the need for conscious choice is a conformist hero. causal the connections of his personality development Dreiser presents himself as a naturalist writer who shows the strong influence of environment and heredity on personality formation: the heroine's mother decided how she should behave, Miriam grew up - weak-willed intellectual how lucky is Christina Channing to have a family that would not stifle his independence. That's why Christina rather a maverick: he decides to give up true love to get it his emotions did not prevent him from reaching her main goal With the main character combines the concept of success according to the

canon The American Dream: Christina Wants achieve worldwide fame and singing in America's best places and Europe, for which he is ready to give up own moral principles. His conscious and irreversible choice leads to what he wants as a result, it is an excellent example "new woman". Worthy of attention that the problem of freedom of choice the male artists of the novel have another point of view: they don't have to choose between love and art.

Later in the storybook "Women's Gallery" Dreiser will again turn to the "women's theme" and the associated problem of freedom of choice. At a new stage of creativity, the writer captures changes in society that allow us to talk about more freedom for a woman. In a 1929 book Dreiser created images of strong women, some of them just like the heroines of "Genius" were artists; their author endowed them with great opportunities and rights that allow celebrate progress in the emancipation of women.

In conclusion, we note that in the composition of the novel "Genius" the images of artists, including women artists, occupy a special place. Representing unconditional interest for researchers in connection with the study of the problem-thematic complex of the novel and features of the composition, these images allow inferences to be made about attitudes writer for artist like often noted by T. Dreiser, should be free in self-expression that was not applicable to a woman born in the last century. In the images of Miriam Finch and Christina Channing, the author embodied not only his own idea about the place of a woman artist in contemporary American society, but also reflected his hopes for the coming changes, which will allow young and talented artists to including women, find their place in the US art scene.

REFERENCES

1. Abieva N. M. [Costume “echoes” in Anton Chekhov’s late prose]. In: Vestnik Severnogo (Arkticheskogo) federal'nogo universiteta. Seriya: Gumanitarnye i sotsial'nye nauki [Bulletin of Northern (Arctic) Federal University. Series “Humanitarian and Social Sciences”], 2017, no. 3, pp. 84–92.
2. Demina O. F. [The women’s images in the novel of Theodore Dreiser “Genius”]. In: Nauchnyi elektronnyi zhurnal «Doklady Bashkirskogo universiteta» [Electronic

scientific journal “Reports of the Bashkir University”]. 2016, vol. 1, no. 2, pp. 427–431. Available at: [http:// dokbsu.ru/archive/2016/1/2/zhenskie-obrazy-v-romane-teodora-drayzera-geniya](http://dokbsu.ru/archive/2016/1/2/zhenskie-obrazy-v-romane-teodora-drayzera-geniya) (accessed: 10.03.2019).

3. Ershova E. V. [National self-awareness in the urban space of the American novel (based on "Sister Carrie" by T. Dreiser)]. In: Vestnik Polotskogo Gosudarstvennogo universiteta. Seriya A. Gumanitarnye nauki. Literaturovedenie [Herald of Polotsk State University. Series A. Humanity sciences], 2016, no. 2, pp. 49–52.

4. Kostina E.V. «Zhenskaya tema» v amerikanskom romane 1870–1910-kh godov: diss. ... kand. fi lol. nauk [“Women’s theme” in American novel in 1870-1910s: abstract of PhD thesis in Philological Sciences]. Saransk, 2003. 194 p.

5. Morozkina E. A. Tvorchestvo Teodora Draizera i literaturnoe razvitie SShA na rubezhe XIX– XX vekov: dis. ... dok. fi lol. nauk [Creativity of Theodore Dreiser and literary development of the United States at the turn of 19–20th centuries: D. thesis in Philological Sciences]. St. Petersburg, 1995. 223 p.

6. Prakina V. I. [Does a woman have a choice: feminism in popular culture and fiction]. In: Elektronnoe periodicheskoe izdanie dlya studentov i aspirantov «Ogarev-Online» [An electronic periodical for students and postgraduates “Ogarev-Online”], 2018, № 10 (115). Available at: <http://journal.mrsu.ru/arts/est-li-u-zhenshhiny-vybor-feminizm-v-massovojkulture-i-xudozhestvennoj-literature> (accessed: 10.03.2019).

7. Evans S. Rozhdennaya dlya svobody. Istoriya amerikanskikh zhenshchin [Born to be free. History of American women]. Moscow, Progress Publ., 1993. 320 p.

8. Aron N. R. This amazingly feminist novel was written by a middle-aged white man 99 years ago: ‘The Job’ struggled with the problem of having it all before women could even vote. In: Timeline. Available at: <https://timeline.com/feminist-novel-white-man-820f867a6b1e> (accessed: 10.03.2019).

9. Gammel I. Sexualizing the Female Body. In: Gogol M., ed. Theodore Dreiser: Beyond Naturalism. New York, New York University Press, 1995. pp. 35–54.

10. Melhuish F. The ‘New Women’: women writers of the 1890s. In: Beckett, Books and Biscuits: University of Reading Special Collections. Available at:

<https://blogs.reading.ac.uk/specialcollections/2017/01/the-new-women-women-writers-of-the-1890s/> (accessed: 10.03.2019).

11. Prieto L. R. At Home in the Studio: The Professionalization of Women Artists in America. USA: Harvard University Press, 2001. 304 p.

12. Wittmann L. Z. The new woman as a European phenomenon. In: Neohelicon, 1992, vol. 19, iss. 2, pp. 49–68.

SHARLOTTA BRONTENING “JEYN EYR” ASARIDA TA’LIMIY JARAYONLARNING YORITILISHI

Juraqulova Gulruh Murot qizi,

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan va ingliz adabiyotida yorqin iz qoldirgan ingliz adibasi Charlotta Brontening “Jeyn Eyr” asarida o’qitish va ta’lim olishning o’rni tahlil qilingan va romandan olingan parchalar yordamida fikrlarning isbotlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so’zlar: guvernantka, akademik yutuqlar, tengsizlik, qaramlik, harbiy tizim, dalilbozlikka asoslangan.

Angliyada XIX asrning boshlari eng quyi qatlamdan tortib, o’rta qatlam bolalarining ta’lim olishidagi tub burilishlarning boshlang’ich nuqtasi edi. Roman muallifining o’zi ham o’sha davrda tug’ilgan, shuning uchun u o’sha zamon ta’limiy jarayonlari borasida boy tajribaga ega edi. Xususan, XIX asr ayollar asarlari ichida ta’lim g’oyasi ko’p ilgari surilgan bo’lsa-da, ularning hech birini Charlotta Brontening “Jeyn Eyr” romanidagi kabi yorqin va aniq tafsilotlari bilan ifoda etib berilgan deb bo’lmaydi. Kitobning ochilish sahnasining o’ziyoq, kitob o’qish motivi bilan, ya’ni, yosh qizaloq Jeynning Bevik qalamiga mansub “History of British Birds” kitobini o’qish tasviri bilan boshlanadi.

Avvalo, XIX asrdagi guvernantkalik kasbi va “Jeyn Eyr” romanida tasvirlangan guvernantkalarining va o’qituvchilarning jamiyatdagi o’rni va mavqeiga urg’u berilgan holda fikr yuritimiz.

Brandon o'z kitobida guvernantkalar asosan qisman bilimga ega bo'lgan, va faqatgina o'zlarining bilimlari doirasida ta'lim bera olishganini ta'kidlaydi. *“The governess, herself only partially educated, could teach only as much as she herself had learned”*[1,19]. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ba'zi guvernantkalar mas'uliyatli bo'lib, o'z ustlarida muntazam ishlashgan va bilimlarini kengaytirib borishgan. Jeyn Eyr ham o'z ustida ishlab, nemis tilini o'rganadi. Bundan tashqari, Sent Jonning guvernantka bo'lib ishlaydigan singillari Diana va Merilar ham uylarida har doim o'qish bilan mashg'ul bo'lishar edi. Bu haqida asarda: *“We resumed our usual habits and regular studies...while Mary drew, Diana pursued a course of encyclopaedic reading she had (to my awe and amazement) undertaken, and I fagged away at German”*[3,455]. Diana va Meri nemischa kitobni lug'at orqali o'qishar va nemis tilidagi bilimlarini uy xizmatkori Xanna bilan muhokama qilishardi. Bu o'z navbatida, guvernantkalarining nemis tilida ham dars bera olishi, ularning maoshi ham oshishiga yordam berishini ta'minlar edi.

Biz romanda juda ko'p o'qituvchilar obraziga duch kelamiz. Lovud maktabida sakson nafar o'quvchi qizlarni to'rtta kichik guruhlariga bo'lib dars berish uchun yetarlicha o'qituvchilar mavjud edi. Asar mutolaasi jarayonida, kitobxonda har bir o'qituvchi haqida to'liq tasavvurlar uyg'onadi. Masalan, miss Miller *“under teacher”* ya'ni *“o'qituvchining yordamchisi”* doimo guruh sardorlariga yo'l- yo'riq ko'rsatib turar va eng kichik bolalarga dars berardi. Miss Smitning quyidagicha: *“u bizga chevarchilikdan saboq beradi, biz o'zimizga ko'ylak, yubka va boshqalarni mustaqil tikamiz”*[2,76] (*“attends to the work, and cuts out – for we make our own clothes, our frocks, and pelisses, and everything”*[3,58]) tasvirlanganiga qaraganda, u mehnat o'qituvchisi; Miss Sketcherd esa *“u tarixdan dars o'tadi, grammatika fanidan ikkinchi sinfni shug'ullantiradi”*[2,76] (*“teaches history and grammar, and hears the second class repetitions”*[3,58]) qattiqqo'l o'qituvchi. Jeynning do'sti - Helen tasvirlaganidek, *“..is hasty – you must take care not to offend her”*[3,58], ya'ni *“..juda qiziqqon, - qara, uning g'ashiga tegib qo'yishdan ehtiyot bo'l”*[2,76]. O'quv jarayonida ko'pchilik jazo turlari aynan shu o'qituvchi – miss Sketchert

tomonidan tayinlanadi. Aniqroq qilib aytganda, u o'quvchilarni jazolaydigan yagona o'qituvchi hisoblanardi. Madam Pyero fransuz millatiga mansub va tabiiyki, fransuz tilidan dars berardi, u “*not a bad sort of person*”[3,58] ya'ni “*..umuman yomon emas*”[2,76] deb ta'riflanadi. Jeynning dugonasi tomonidan “*is very good, and very clever: she is above the rest, because she knows far more they do*”[3,58], ya'ni: *..g'oyat oqila va mehribon ayol. Boshqalardan yaxshi fazilatlari bilan ancha ustun. U boshqalardan ko'ra ko'proq ma'lumotli ham.*”[2,76], -deb ta'riflangan maktabdagi eng yaxshi o'qituvchi bu – miss Temp1, Lovud maktab internatining boshqaruvchisi edi. Lovud maktabidagi kitobxonga tanishtirilgan o'qituvchilarning so'nggisi bu – Jeyn Eyrning o'zi. U o'zining ustozlari, miss Templdan juda katta mahorat va ishga sadoqatni meros qilib oladi va bu unga Tornfilddagi gubernantlik faoliyatida ham, Morton qishloq maktabida ishlash jarayonida ham qo'l keladi.

Mortondagi qishloqda Jeyn ishchi va fermerlarning savodsiz qizlarini o'qitish kabi juda qiyin vazifaga duch keladi. Boshida u keng ko'lamli o'z bilimlaridan bu o'quvchilar bilan foydalana olmasligidan biroz hafsalasi pir bo'ladi, ammo u ajoyib xulq-atvori va maktabdagi boshqaruvi tufayli maktabning ijobiy natijalarga erishishini ta'minlaydi. Jeyn, shuningdek, atrofdagilar tomonidan yaxshi o'qituvchi va bilimli inson sifatida qabul qilinadi. U o'quvchilari bilan ham, ularning otionalari bilan ham yaxshi munosabatga erishganini quyidagi jumlar orqali ifodalaydi: “*Their parents then loaded me with attentions...I felt I became a favourite in the neighbourhood. Whenever I went out, I heard on all sides cordial salutations, and was welcomed with friendly smiles...*”[3,410]. Tarjimasi: “*Otionalari iltifot ko'rsatishar, mehmonnavozlik qilishardi...Bu joylarda meni yoqtirib qolishayotganini his qilardim. Uydan chiqqanimda hamma meni iliq, muloyim tabassum bilan qarshilab, samimiy salomlashib ko'rishardi...*”[2,594-595]

Jeyn murabbiyalik faoliyati davomida turli ijtimoiy tabaqalardagi o'quvchilarga ta'lim beradi. Lekin u doimo o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va yashirin iste'dodlari borligini his qilib, ularga past nazarda qaramaslikka o'zida

kuch topadi. Bu Jeyn Eyning Mortondagi qishloq maktabidagi ishi misolida juda yaxshi tasvirlangan: *“Ularning ba’zilari tarbiya ko’rmagan, qo’pol, qaysar va ongi mutlaqo oqsagan qizlar;... Esda saqlashim kerak bo’lgan haqiqat shuki, qashshoqlar ust-boshidagi mana shu qizaloqlar – et va qondan tarkib topgan, eng oliyjanob xonadonlarning farzandlari kabi bolalar. Ularning qalbida ham tabiiy oliyjanoblik, sezgirlik va muruvvatlilik fazilatlari mavjud. Ularning ana shu fazilatlarini o’stirish mening burchim...”*[2,581-582]

Tornfildda ham Jeyn Adelning kelib chiqishi bilan tanish emas edi. Janob Rochesterning fikricha, Jeyn o’quvchisining *“illigitimate offspring of a French opera-girl”* ya’ni, *“fransuz operachisining kimdandir orttirgan farzandi... tashlandiq qiz”*[2,231] ekanini bilgach ish joyini o’zgartirishi va qizchaga munosabati o’zgarishi mumkin edi. Ammo, aksincha, ota-onasiz bolaning taqdiri Jeynga shunchalik ta’sir qiladiki, u kichkina Adeleni oldingidan ko’ra ko’proq yoqtiradi.

Bir so’z bilan aytganda, o’n to’qqizinchi asrda o’qituvchi va murabbiyalarni tayyorlaydigan maxsus muassasalar yo’q edi. Shuning uchun, ularning hech biri rasmiy ma’lumotga ega bo’lishmagan. Ular faqat o’zlarining o’qituvchilarining namunasini ko’chirib olishlari mumkin edi. Jeyn ham o’zining rahnamosi va keyinchalik yaqin do’stiga aylangan Miss Mariya Tempdan o’rnak oladi va mehribon va bilimli o’qituvchi bo’lib yetishadi.

REFERENCES:

1. Brandon Ruth. “Governess”, New York: Walter Company. 2008.
2. Bronte, Sharlotta “Jeyn Eyr”, Fozil Tilavov tarjimasi, -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
3. Brontë, Charlotte “Jane Eyre”, - Great Britain: Wordsworth Editions Limited, 2019.
4. Gregorova Jaroslava. “Teaching and Education in Charlotte Brontë’s novels Jane Eyre and The Professor”, Brno.2019.

5. Jurakulova, G.M. Description of the theme education in the novel “Jane Eyre” by Charlotte Bronte // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2022.
6. Jurakulova, G.M., Baqoyeva M.Q. Critical analysis on the educational system of English church schools in Jane Eyre by Charlotte Bronte // Journal of Academic research and Trends in Educational sciences, 2022.
7. *Juraqulova Gulruh Murot qizi*. Biographic elements in “Jane Eyre” by Charlotte Brontë // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), (2023).
- Kayumova, B.M., Xayrulloevna S.Z. Description of Historical Background and Socio-Economic Life in Theodore Dreiser’s “The Financier” Middle European Scientific Bulletin, 2021.
8. Xayrulloeva, Nigorabegim. "The Issue of Feminism in “Beach House” Series by MA Monroe." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), (2021).

BOLALAR ADABIYOTIDA TIL, USLUB VA MAVZUNING DOLZARBLIGI

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna,

BuxDU, f.f.d., professor

Filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi,

"Ingliz adabiyotshunosligi" kafedراس

Zoyirova Mohidil Shokir-qizi,

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, til, uslub, mavzu, fantastika, sarguzasht, estetik qiymat, kognitiv qiymat

Annotatsiya: Bolalar adabiyoti kitobxonlarning eng kichik qismi, hali voyaga yetmagan bolalar uchun yozilgan adabiy asarlar hisoblanadi. Bolalar va kattalar o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiy asarlar o'rtasida aniq chegara belgilash qiyin. Agar biz uning estetik qiymati va matnning ichki kognitiv qiymatini baholasak, ular orasidagi ba'zi muhim farqlar deyarli yo'qligini ko'ramiz. Bolalar adabiyotida til o'ynoqi, sodda va bolalar tushunadigan va ular gaplashadigan so'zlardan iborat bo'lishi kerak. Uslub esa,

bolalarning dunyoqarashi jihatidan shakllantirilishi, shuningdek mavzu yosh olamning o'y-fikrlari, orzu-intilishlarini aks ettiradigan juda sodda, jo'n va murakkablikdan xoli bo'lishi kerak. Bu holatdagi asarlar tezda o'z o'quvchilarini topadi, kichkina olam o'rtasida qo'lma-qo'l bo'lib ketadi.

Kirish: Bolalar uchun mo'ljallangan adabiyotlar juda tematik boylik va murakkablikka ega. Bolaning tabiati hazil va yorqin rangli tarkib bilan javob beradi. Badiiy matn o'z tematik jihatdan bolalar uchun qiziqarli bo'lishi va ularning tashvishlariga javob berishi kerak. Bolalarning qiziqishlari keng va rang-barang bo'lib, adabiyot bitmas-tuganmas xayolparastlik, insoniylik va ijobiy axloqiy fazilatlarga javob berish va ayni paytda estetik did va hissiyotlarni rivojlantirish va tarbiyalashdir. Ijodkor yosh kitobxonlar dunyosini tushunishga yaqin bo'lgan mavzularni tanlab, ahamiyatsiz va soddalashtirmasligi yoki "amaliy, foydali va maqsadli darajada vulgarizatsiya qilmasligi" kerak.[2]

Muhokama: Bolalik olami va turli xil hayotiy voqealardan tashqari, inson va bolalarning tuyg'ulari, mehr-muhabbat, o'yin, do'stlik, insoniy fe'l-atvor va insonparvarlik, ota-ona va hayvonlarga muhabbat, xayoliy va manzarali voqealar, quvnoq hazil va chizilgan sahnalar, o'simlik va hayvonot dunyosi, fantastika, dunyolar, hamdardlik va sir bolalar adabiyotining umumiy mavzularidandir. Yosh tasnifi nuqtai nazaridan, bolalar e'tiborini jalb qiladigan ba'zi asosiy mavzularni guruhlash mumkin, ammo turli yoshdagi bolalarni tashvishga soladigan masalalar mavjud. Bu xayoliy va hayajonli uchrashuvlar va sarguzashtlar, shuningdek, fantastik mavjudotlar yashaydigan sirli va g'ayrioddiy dunyolardir. Maktabgacha yoshdagi bola dunyoga sodda munosabatda bo'ladi, shuning uchun u badiiy matnga go'yo haqiqiydek munosabatda bo'ladi va unga to'qilgan illyuziya va fantastikaga cheksiz ishonadi. Bu davrda bolalar ertaklarga juda qiziqishadi. Vukoviching ta'kidlashicha, bolalarning ertaklarga bo'lgan ehtiyoji katta bo'lganligi sababli, maktabgacha yoshdagi bolalar davri ko'pincha "ertaklar davri" deb ataladi. [1] Bu yoshda, qahramonlari hayvonlar (chumchuqlar, mushuklar, kuchuklar ...), gullar, mittilar va Petrovich tomonidan "rangli yolg'on" deb ataladigan va bu narsalar ko'proq narsani keltirib chiqaradigan turli xil narsalar bo'lgan qisqa hikoyalar o'qish uchun mos keladi. [4] Boshlang'ich sinflarda o'qiyotgan bola badiiy adabiyotni haqiqiy va orzuga

qiyinchilik sifatida boshdan kechiradi va uni tasavvurni uyg'otadigan mavzular, ertaklar va fantastik hikoyalar, shuningdek, hissiy rangdagi iplar, o'yin va buzqlikka to'la bolalik, maktab, hazillar, do'stlik va o'yinlar jalb qiladi. Fantastik mavzularning ustunligini bolalar shaxsiyatining tabiati bilan izohlash mumkin. Bola dunyosining markazida tasavvur, fantaziya va ajoyibot mavjud bo'lib, ular atrofdagi narsalarni boshdan kechirish usulini ifodalaydi. Bolalar adabiyotida fantastika hodisasi personifikatsiya, allegoriya yoki komika orqali amalga oshiriladi. Bolalarning dunyoni idrok etish xarakteri hikoyadagi fantastik elementlarning aralashuviga imkon beradi. Ko'pgina bolalar psixologlari va adabiyot nazariyotchilari fojiali ravishda bolalar adabiyotida estetik ma'noga ega emas va ijobiy estetik va tuzatuvchi effektlarga erishishga olib kelmasligini aniqlaydilar, chunki kichik o'quvchi badiiy adabiyot dunyosini to'liq ajrata olmaydi. voqelikdan olingan fantaziya va bu kabi adabiy asarlar og'riqli his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi va bolalarning yoshligida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishiga sabab bo'lmasligi kerak. Simeon Marinkovichning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi va birinchi sinf bolalari hayvonlar haqida yoki bolalar hayoti haqida gapiradigan rasmlar, tasvirlangan kitoblarni va qisqa ertaklarni afzal ko'rishadi. Natijalarga asoslanib, Marinkovich birinchi buyuk kitoblarning muhim xususiyatlari "bolalar dunyosiga yaqin bo'lgan mazmun, nutqning optimistik ohangi, insoniy xabar, qisqa matn, jonli rasmlar" degan xulosaga keladi.[3] Ertaklar va fantastik hikoyalar to'qqiz yoshga to'lgan bolalar uchun qiziqarli bo'lib, ular bunday hikoyalarga qiziqishni yo'qotadilar. Vukovich ertakga qiziqishning yo'qolishini bolaning oliy ma'lumoti va "tabiat va dunyo haqidagi bilimlar miqdorini kengaytirish" bilan izohlaydi.[1] Badiiy adabiyotga qiziqish ekzotik mazmundagi hikoyalar va boshqa mamlakatlar, madaniyat va urf-odatlar haqidagi hikoyalarga qiziqish bilan almashtiriladi. Barcha yoshdagi bolalar adabiyotida ona katta hikoya mavzusidir. Onani tarannum etuvchi adabiy asarlarda uning oilaga bo'lgan fidoiy mehr-muhabbati, fidoyiligi, ona uyining ustuni va poydevori ekanligi tarannum etilgan. Bolalar adabiyotida, afsuski, har doim ham yoqimli va quvnoq bo'lmagan hayotni aks ettiruvchi jiddiy muammolar mavjud. Bular qashshoqlik va kasallik, urush dahshatlari, qashshoqlik va ijtimoiy adolatsizlik mavzulari. Bu yosh bolalar uchun mos bo'lmagan

masalalar haqida, chunki bolalar adabiy matnlar va voqelikning sehrlangan dunyosida taqdim etilgan fantastika o'rtasida aniq chegara qo'ymaydilar va hissiy va sezgir munosabatda bo'lishadi. Amerika adabiyotida urush mavzusida inson hayotining qorong'u va halokatli mazmuniga ishora qiluvchi masalalarning semantik murakkabligi ko'rsatiladi. Mavzu o'zining dinamikligi, sarguzashtlari va hayajonliligi bilan bolalar uchun qiziqarli. Urush va shafqatsiz manzaralar insonning shaxsiyatini o'zgartiradi. Badiiy adabiyotda ideallashtirilgan qahramonlar o'rniga oddiy odamlar paydo bo'ladi, o'rtacha odamlar shubha va vasvasaga moyil. Urushning tajovuzkorligi va vayron bo'lishi ularning psixikasida iz qoldiradi, chunki ko'pincha g'ayriinsoniy sharoitlarda qorong'u va halokatli shaxsning sirt qatlamlari paydo bo'ladi. Urush mavzusi ishda bevosita ishtirok etishi shart emas, u boshqa mavzuga nisbatan ikkinchi darajali yoki to'ldiruvchi sifatida bilvosita kiritilishi mumkin. Badiiy matnlar zamonaviylikda boshlanishi mumkin va retrospektiv chaqiruv orqali urush mavzulari kiritilishi mumkin. Harakatga urush mavzusi bevosita tasodifiy havola orqali kiritilishi mumkin. Gap bolalar adabiyotining hayotga, uning ko'rinishlariga bo'lgan hayotiy munosabatlariga urg'u berish, bolalar va yoshlarga mo'ljallangan adabiy asarlarda voqelikning qorong'u manzaralaridan aziyat chekmasligi haqidadir. Bolalik inson rivojlanishining katta vaqt oralig'ini qamrab oladi va bu munosabat shartli ravishda maqbul yoki adabiy mavzularni yoshga qarab tasniflash uchun maqbuldir. Maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik boshlang'ich maktab yoshi qorong'u va halokatli mavzularga mos kelmaydi.

Xulosa: Bolalar uchun mo'ljallangan mavzular o'z-o'zidan va xayoliy jarayonga berilib ketgan, chunki bolaning e'tibori diqqatni jamlash va diqqatni jamlash qobiliyati bilan tavsiflanmaydi. Bolalarning temperamenti dinamik bo'lib, uni sekin va uzoq hikoyalar bilan tasvirlab bo'lmaydi, meditatsion mulohazalarga to'la va natijada faqat digressiv kechikishlar kechikishidan keyin yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR

1. Irisxo'jayeva S. Bolalar adabiyotida didaktika.-T.: Fan. 1978,-64b.
2. Mamajonov S. Hozirgi o'zbek bolalar adabiyotining ba'zi tendensiyalari. Bolalar olami. T., 1975.

3. Peter H. Understanding children's literature.- Taylor e-library, 1999,101p.
4. Safarov O. O'zbek bolalar adabiyotining spetsifik xususiyatlari. Kitobda: O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon.-T.:Fan, 1989, 4-18-betlar.

**70230301 – MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK
(TILLAR BO'YICHA)**

**ANDALIBNING “ZAYN UL-ARAB” (“ARAB ZIYNATI”) ASARINING
TOSHBOSMA NUSXASI XUSUSIDA**

Omonov Olloyor,

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

1-bosqich magistranti.

Annostatsiya: Maqolada Nurmuhammad Andalibning Buxoro San'at muzeyi xazinasida saqlanayotgan 12205 raqamli qo'lyozma nusxasi va undagi ba'zi qissalar badiiyati haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Nurmuhammad Andalib, qo'lyozma, qissa, basmala, hamd, fors, g'arib, rivoyat.

Mumtoz adabiyotning yirik vakilardan biri Nurmuhammad Andalib sanaladi. U o'zbek va turkman tillarida ijod qilgan. Andalib mumtoz adabiyotning g'azal, ruboiy, murabba, muxammas, musaddas, musabba, muvashshax va boshqa janrlarida ijod qilgan, Mumtoz adabiyotning ilg'or an'nalarini davom ettirib, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Jomiy g'azallariga muxammaslar bog'lagan. U o'z she'rlarida insoniy tuyg'ular, davrning ijtimoiy muammolarini badiiy talqin etishga harakat qildi. Xalq og'zaki ijodida kuylangan mavzu va g'oyalar shoir ijodiga o'zigacha tarovat baxsh etdi.

Andalibning turkiy dostonchilik taraqqiyotida ham munosib o'ringa ega. Uning «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra», «Yusuf va Zulayho», «Zayn ul arab», «Sa'd Vaqqos», «Bobo Ravshan», «Malikai Mehrinigor», «O'g'iznoma» kabi dostonlarida mumtoz dostonchilikning eng yaxshi xususiyatlari mujassamlashgan. Shu bois uning she'r va dostonlari o'z davridayoq mashhur bo'lgan. Dostonlari xalq tomonidan sevib

o'qilgan. Bu esa uning asarlarining qo'lyozmalari va toshbosmalarining xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Jumladan, shoir asarlarining qo'lyozmalari va toshbosma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida hamda Buxoro San'at muzeyi xazinasida bir necha nusxalari saqlanadi.

Andalibning “Zayn ul- arab” dostonining Buxoro San'at muzeyi fondida 2 ta nusxasi mavjud. Shundan 1 tasi qo'lyozma va 1 tasi toshbosma nusxalar hisoblanadi. Biz dostonning 12205 raqam ostida saqlanayotgan toshbosma nusxasiga oid ma'lumotlarni berib o'tmoqchimiz.

Mazkur toshbosma ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Zayn ul-arab dostoni XVIII asrda Nurmuhammad G'arib – Andalib tomonidan yozilgan.
2. Zayn ul-arab asarining tosh bosmasi Toshkentda melodiy 1912- yil, hijriy 1330- yilda bosmadan chiqarilgan.
3. Toshbosma jami 96 sahifadan iborat bo'lib, dastlabki sahifalarida ushbu doston haqida ma'lumot keltiriladi. Beshinchi sahifasidan esa qissalar boshlanadi va oxirgi sahifasida esa doston qachon bosmadan chiqarilgani keltirilgan.
4. Bu asarda qissalar bir ustunlik va ikki ustunlik baytlar bilan hamda nasri matn yordamida bayon qilingan.
5. Qo'lyozmadagi satrlar, asosan o'zbek, fors va ba'zi bir misralar arab tilida bitilgan.
6. Sahifalari alohida-alohida betlangan.
7. Muqovasi oddiy qog'oz bilan muqovalangan.
8. Asarning birinchi sahifasi jim-jimador yug'on ramkaga olinib, ramka ichida besh qator turli xil kichik ramkalar ichida asar haqida ma'lumotlar berilgan.
9. Qo'lyozmaning saqlanish holati quyidagicha: dastlabki varaqlari o'qishqa yaroqli, dog'li va turli tusga kirgan sahifalari ham mavjud, shuningdek oxirgi sahifalari biroz yaroqsiz holatda.
10. Varag'ining hajmi: 14 x 26 ni tashkil etadi.

11. Harflarning hajmi: 21 x 13 sm holatda yozilgan.

Toshbosma dastlab an'anaviy tarzda "Bismillahi rahmoni rahim" kalimasi orqali ya'ni "basmala"dan boshlangan. Bu doston o'z ichida Zayn ul-arab bilan Muhammad Hanifa o'rtasidagi samimiy sevgini jozibali tasvirlaydi. Dostonning asosiy qahramonlari Ali, uning o'g'illari Muhammad Hanifa, Imom Hasan va Imom Husayn kabi diniy-tarixiy shaxslar bo'lsa ham, ular xalq qissalari va dostonlaridagi qahramonlar sifatida harakat qiladilar, ezgulik uchun kurashadilar. Dostonda Muhammad Hanifa bilan Zayn ul-arab orasidagi sadoqatli do'stlik, samimiy sevgi, bir-biriga vafodorlik tuyg'ulari mahorat bilan tasvirlanadi.

Nurmuhammad G'arib Andalib dostonlarida kuylagan g'oyalar bugun uchun ham zamondosh. "Zayn ul-arab" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. Shuningdek, odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy quturishlardan asraydi. Bu bebaho asar hirs-u havoga berilishdan, kulfat va musibatlardan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish, qanday anglash va anglabgina qolmasdan Andalib so'zlariga amal ham qila bilishdadir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent Davlat ilmiy nashiryoti, 1-kitob, 321-322-betlar.
2. Buxoro San'at muzeyida saqlanayotgan 7318 raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma.
3. Buxoro San'at muzeyida saqlanayotgan 12205 raqam ostida saqlanayotgan toshbosma.

NODIRANING BANDLI SHE'RLARI NASHRLARI XUSUSIDA MULOHAZALAR

Rajabova M.B.

BuxDU professori, f.f.d.

Nematullayeva M.H.

BuxDU, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

Annotatsiya: Maqolada Nodira devonining nashrlari xususida fikr yuritiladi. Nashrlarda shoironing muxammasi, musaddas, musamman hamda tarkibband va tarkibbandlari matnidagi tafovvtli o‘rinlar tahlilga tortiladi va tahlil qilinadi,

Kalit so‘zlar: nashr, devon, muxammas, musaddas, musamman, tarje’band, tarkibband.

Mohlaroyim devonida janrlar rang-barang. Shoironing 3 ta shery devoni va ushbu devonlarda 11 ta muxammasi, 1 ta musaddasi, 2 ta musammani, 1 ta tarje’band, 1 ta tarkibbandi, 1ta firoqnomasi yetib kelgan. Ushbu devonlarning nashrlari Mahbuba Qodirova va Aziz Qayumovlar tomonidan amalga oshirilgan. Bu devonlarning “Nodira.Asarlar” II jildlik, “Nodira.Devon” 1963- yildagi nashri, “Nodira she’riyatidan” 1979-yilgi, “Nodira. Devon” 2001-yildagi nashrlari amalga oshirilgan.

Nodira mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirib, musammatlarning muxammas turida ham samarali ijod qildi. Mohlaroyimning 11 ta muxammasi mavjud bo‘lib, shundan 8 tasi o‘zbek tilida, 3 tasi fors- tojik tilida bitilgan. Muxammas “beshlik” degan ma’noni anglatadi. Har bir bandi 5 misradan iborat, band oxirida shoira taxallusi keltiriladi. Ushbu janr namunalarini “Nodira.Asarlar” devonining II jildi, “Nodira.Devon” 1963- yildagi nashri, “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashri, “Nodira she’riyatidan” 1979-yilgi nashrida uchratamiz. Bularni o‘zaro qiyoslaganimizda ularning matnida farqlar borligi ko‘zga tashlanadi.

Mohlaroyimning “*Kelgil, ey nola, sanga oh ila imdod qilay*” deya boshlanuvchi muxammasi “Nodira she’riyatidan” 1979-yilgi nashrida qisqartirish bilan berilganiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur muxammasning yettinchi band, sakkizinchi va to‘qqizinchi bandlari nashrdan tushub qoldirilgan. Shuningdek, “*Oh bir sarvi sihi raftordin ayrilmisham*” deya boshlanuvchi to‘qqiz bandli muxammas “Nodira she’riyatidan” 1979-yilgi nashrida olti band tarzida ifodalangan, mazkur muhammasning ham uch bandi nashrdan tushirib qoldirilgan. “*Necha kun bo‘ldi aql-u hushimdan begonaman*” deya boshlanuvchi muxammasning so‘nggi bandi “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashrida tushirib qoldirilgan.

Nodiraning ulug' shoir Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan “ So'rog'ingda biyobonlar kezib, bepo-u sar yurdim” deb boshlanuvchi muxammasida ham matniy farqlar kuzatiladi. Jumladan, muxammasining oltinchi band ikkinchi misrasi:

Meni lol etti guftori labi xomushi go'ysi,

*Ushatti qand-u shakar **ne`matin** shakarxosi*

dagi “**ne`matin**” so'zi boshqa nashrlardan farqli o'laroq, “*qimmatin*” shaklida ifodalangan. “*Guftor*” so'zi “*so'zlamog, gapirish*”, “*xomush*” so'zi “*indamas, jim turuvchi*”, “*go'yo*” so'zi “*ohang*”, “*qimmatin*” so'zi esa “*narxi, bahosi*” va “*shakarxo*” so'zi esa “*shirin so'zli*” ma'nolarini bildiradi. Qaysi bir so'z bayt mazmuniga mos kelishini tahlildan bilib olamiz: “*Meni jim turuvchi labining so'zlashi lol etdi, shu shirin so'zi bilan qand-u shakarning narxini tushirdi*”. Demakki, bu yerda “*qimmatin*” so'zi mosdir.

“*Kelgil, ey nola, sanga oh ila imdod qilay*” deya boshlanuvchi muxammasning birinchi band so'nggi mirasidagi:

Tobakay hajru firoq ofatidin dod qilay,

Emdi o'zni necha kun sabr ila mo'tod qilay

“*mo'tod*” so'zi “*Nodira.Devon*” 1963- yildagi nashrida “*mu'tod*” tarzida qo'llanilgan. Qolgan devonlarda esa “*mo'tod*” tarzida yozilgan. “*Mu'tod*” so'zi “*o'rgangan, odatlangan*” ma'nosini bildiradi. Aksar lug'atlarda bu so'z “*mu'tod*” shaklida berilgan. Xuddi shu muxammasning o'ninchi bandi ikkinchi misrasidagi:

Vasl bazmi aro jomi mayi sarshor qani

***Zulm** ila mendin ayirdi falaki sifla sani*

“*zulm*” so'zi “*Nodira.Devon*” 2001-yildagi nashrida “*ol*” tarzida so'z almashinuvi sodir bo'lgan . “**Jom**” so'zi “*qadah*”, “*may*” so'zi esa “*tiriklik suvi*”,

“sifla” so‘zi “xasis, pastkash”, “ol” so‘zi “hiyla, firib”, “sarshor” so‘zi esa “mast bo‘lib qolgan” ma‘nosini ifodalaydi. Baytni quyidagicha tahlil qilish mumkin: “Vasl bazmi aro tiriklik suvidan ichib mast bo‘lganlar qani, xasis, pastkash falak esa sani mandan xiyla ila ayirdi”. Pastkashlar, xasislar faqatgina qing‘ir yo‘l ila maqsadiga erishishini mulohaza qilsak, bu yerda zulmdan ko‘ra “ol” so‘zi ma‘noga to‘la mos keladi. Mohlaroyim musaddas janrida ham qalam tebratgan bo‘lib, uning bittagina musaddasi bor. Musaddas har bandi olti misradan iborat bo‘lgan she‘rdir. Nodiraning musaddasi to‘rt bandni tashkil qiladi. Musaddasning nashrlarini qiyoslaganda birgina farqli o‘rinni borligini ko‘rish mumkin. Ya‘ni bu farqlar bandlarning almashinishi tarzda sodir bo‘lgan. “Sog‘indim” radifli musaddasning ikkinchi bandi “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashrida to‘rtinchi band sifatida berilgan. Nodira devonida ikkita musamman mavjud bo‘lib, birtasi o‘zbek, birtasi forsiy tilda yozilgan. Mohlaroyimning ozbek tilidagi musammani “Faryodki ishq etti meni yorg‘a maftun” deya boshlanadi. Mazkur musammanning “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashrida ham bandalar almashinuvi ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni nashrda uchinchi bilan to‘rtinchi bandning o‘rni almashib qolgan. Bundan tashqari, mazkur nashrdagi uchinchi banddagi quyidagi misralar:

Yoding birla jon xotirin shod qilurman,

Jon murg‘ini tan mulkidan ozod qilurman

“Nodira.Asarlar” devonining II jildi, “Nodira she‘riyatidan” 1979-yilgi nashri, “Nodira.Devon” 1963- yildagi nashrlarida bu misralar tushirib qoldirilgan va musammanda bandlar soni kamaygan. Maknuna taxallusi bilan ham ijod qilgan shoiramiz tarje‘band va tarkibband janrida ham ijod qilgan. Bitta tarje‘band va bitta tarkibbandi bizgacha yetib kelgan. Tarkibbandda bandlar oxiridagi bir bayt mustaqil qofiyalansa, tarje‘banddagi hamma bandlar oxirida bir xil bayt takrorlanib keladi. Shoiraning tarkibbandi “Nodira she‘riyatidan” 1979-yilgi nashrdangina o‘rin olmagan. Qolgan uchta devonda mavjud. Tarkibbandda ham bandlarining o‘zaro o‘rni almashgani kuzatiladi. Shuningdek, tarkibbandning “Nodira. Devon” 2001-yildagi nashri shunday misralar bilan yakunlagan:

Yo, rab senga tangri rohat etsun,

Joningga riyoz jannat etsun.

Ammo yuqoridagi devonlarda bu ikki misra tushirib qoldirilgan. Bayt mazmuniga e'tibor qaratsak, ushbu misralar yakunlovchi bayt sifatida tarkibband uchun zarurdir.

Tarkibbandda so'z almashinuvi bilan bog'liq o'rinlar ham mavjud:

*Har go'shada **qullaring** parishon.*

Sen eding alarning dastgiri

Ushbu misradagi “*qullaring*” so'zi “Nodira.Devon” 1963- yildagi nashrida “*qo'llaring*” tarzida bayon etilgan. “*Dastgir*” sozi “yordamchi, hamroh” ma'nosidan kelib chiqsak, misradagi “*qullaring*” so'zi aynan mosdir. “Har go'shada senga qul bo'lganlarning holi parishondir, chunki, sen ularning gamxo'ri, yordamchisi eding”. “*Qo'l*” so'zi bayt mazmuniga tog'ri kelmaydi.

*Azm ayladi kibriyoyi **jinonin**,*

Sultoni baland ostona.

Birinchi misradagi “*jinonin*” so'zi “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashrida “*janobin*” tarzida ifodalangan. “*Kibriyo*” so'zi “*ulug'lik*” ma'nosida, “*janobin*” so'zi “*martaba*” ma'nosida, “*jinonin*” so'zi esa “jannat” ma'nosida qo'llangan. Bayt mazmuni: “Sultoni baland ostona ulug' jannat uchun ahd qildi”. Albatta, sulton o'zi baland martaba egasi bo'la turib yana martaba emas, balki ulug' bo'lgan martaba, ya'ni jannatga yetishish uchun qaror qiladi. Bu yerda “*jinonin*” so'zi shoira maqsadini aniqroq ifodalanishiga xizmat qiladi.

Nodiraning tarje'bandlari soni bitta bo'lib, u 176 misrani o'z ichiga oladi. Bandlari soni o'n bitta. Ammo “Nodira she'riyatidan” 1979-yilgi nashrda bandlar soni beshta bo'lib, qolgan bandlar tushirib qoldirilgan. Shuningdek, “Nodira.Devon” 2001-

yildagi nashrida ham bandlar almashinuvi bilan bog'liq o'rinlar mavjud. Buning natijasida tarje'bandning ma'noviy tizimining buzilishini ko'rishimiz mumkin.

Tareje'bandda ham so'z almashinuvi hodisa mavjud bo'lib, buni biz ikkinchi bandda ko'rishimiz mumkin:

*Falakdin **buyukroq** edi rif atim,*

Ki vasling harimida mumtoz edim.

Misradagi “**buyukroq**” so'zi “Nodira.Asarlar” devonining II jildida “**biyikroq**” deya talqin qilingan. Ammo, bu ikkala so'z ham bir ma'noni, ya'niki “**yuksak**” ma'nosini bildiradi. “*Mening ulug'ligim falakdanda yuksakroq edi, Chunki vasling haramida bo'lish uchun faqatgina men saralanib olingan edim*”.

Tarje'bandning beshinchi bandi :

*Qayu **marg'zor** o'ldi javlongahing,*

Qayu bo'stondur makoning sening.

misrasidagi “**marg'zor**” so'zi “Nodira.Asarlar” devonining II jildida “**murg'zor**” tarzida berilgan. “**Marg'zor**” so'zi “o'tloq, yaylov”, “**murg'zor**” so'zi, “**qushzor**” ma'nosini va “**javlongoh**” so'zi esa “*keziladigan joy, maydon*” ma'nosini bildiradi. “*Sen kezaadigan maydoning qaysi chamanzorda, qaysi bo'ston sening makoning*”. Demak, bayt mazmuni “**murg'zor**” so'zini emas, balki “**marg'zor**” so'zini “*hazm qila oladi*”

Xulosa qilib aytganda Nodira devonlardagi matniy tafovvutlar, albatta, muallifning asl maqsadi va badiiy mahoratiga soya solishi mumkin. Bunday chalkashliklarning oldini olish, shoira devonlarining mukammal nashrlarini amalga oshirish matnshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati, I tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. 656-bet.
2. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati, II tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. 644-bet.
3. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati, III tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. 624-bet.
4. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati, IV tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983, 636-bet.
5. Aziz Qayumov. Nodira. She'rlar. Toshkent: O`z.SSR davlat badiiy nashriyoti, 1958. 95-bet.
6. Mahbuba Qodirova. Nodira she'riyatidan. Toshkent: O`zbekiston Markaziy Komiteti nashriyoti, 1979. 112-bet.
7. Mahbuba Qodirova. Nodira- Komila. Devon. Toshkent: Xalq merosi, 2001. 308-309betlar.
8. Porso Shamsiyev. Navoiy asarlar lug'ati. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1972-y. 784-bet.
9. Қодирова М. Нодира ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 1961. –182 б.
10. Қодирова М. XIX аср шоирлари ижодида инсон ва халқ тақдири: Филол. фанлари д-ри ... дис. – Тошкент, 1975. –307 б.
11. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII–XIX асрлар): Филол. фан. докт. ... дисс. –Тошкент, 1961. –563 б.
12. Мунтаҳаб ут-таворих. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, № 594 в.161а.
13. Нодир. Ҳафт гулшан. ЎзФА ШИ, инн № 1861. 8-саҳ.
14. Нодира. (ғазал) / Нашрга тайёрловчи А. Қаюмов. –Тошкент: Ўздавнашр. Миллий адабиёт, 1958. –94 б

XIROMIYNING “CHOR DARVESH” ASARI TOSHBOSMA

NUSXASI XUSUSIDA

Ismoilov Namozbek,

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

1-bosqich magistranti, Mir Arab o'rta

maxsus islom bilim yurti mudarrisi

Annotatsiya: Maqolada Mulla Qurbon Xiromiyning Buxoro San'at muzeyi xazinasida saqlanayotgan “Chor darvesh” asarining 27844\11 raqamli toshbosma nusxasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mulla Qurbon Xiromiy, nastaliq, ramka, basmala, salovot, hamd.

Mulla Qurbon Xiromiy ijodini o'rganish, to'plash va ilmiy tadqiq etish ishlari XX asrning 40-70-yillardan boshlangan. Xiromiy asarlari 1940- yildan xrestomatiya va darsliklaraga kiritila boshlandi. Keyinchalik shoirning asarlari kitob qilib nashr etildi.

Mullo Qurbon Xiromiy Kitob shahrining Charmgaron guzarida 1796- yilda kosib oilasida dunyoga keladi va XIX asrning ikkinchi yarmida vafot etadi. U boshlang'ich ma'lumotni o'zi tug'ilib o'sgan Charmgaronda olgach, Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qishni davom ettiradi. Ammo iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida o'qishni oxirigacha yetkazmay, ona shahri Kitobga qaytib ketadi. Qolgan umrini charmgarlik, tabiblik, xattotlik bilan o'tkazib, ro'zg'or tebratadi. Shoirning asli nomi Mullo Qurbon bo'lib (ba'zi manbalarda Mirzo Qurbon), "Xiromiy" uning adabiy taxallusidir. Bu taxallus ota kasbi charmgarlikka nisbat qilib olingan.

Xiromiy madrasada olgan bilimlari bilan chegaralanib qolmay, o'zi mustaqil o'rganib, bilimni oshiradi, shoirlik sirlarini chuqur o'rganishga qaratadi. Ilm-fanga bo'lgan qiziqish, o'zbek va fors-tojik adabiyoti vakillari asarlarining mutolaasi, zamondoshlari bilan bo'lib turgan o'zaro ijodiy hamkorlik, mehnatkash xalq hayotiga yaqinlik Xiromiyning shoirlik iqtidorini shakllantirdi, qalbni ilhomlantirdi va qalamiga qudrat baxsh etdi. Dastlab, uning Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy va Zebuniso g'azallariga muxammas (taxmis)lari maydonga keldi. Keyinchalik "Chor darvesh" (1834), "To'tinoma" (1854), "Ra'no va Zebo" (1856) va "Yusuf va Zulayho" (1862) dostonlari

yaratib, kitobxonlar qalbidan joy oldi. Hozirgi kunda Xiromiy dostonlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalari anchagina. Ularni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Buxoro San'at muzeyi xazinasida “Chor darvesh” asarining 2 ta toshbosma nusxasi mavjud bo'lib, ularning biri 100 bet va ikkinchisi 252 betdan iborat. Biz ilmiy ishimiz uchun 27844\11 raqamli toshbosma nusxasini asos qilib oldik. Mazkur toshbosma ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarni bayon qilmoqchimiz:

1. Toshbosma jami 252 sahifadan iborat bo'lib, dastlabki sahifada basmala, Alloh taologa hamdu sano, payg'ambar sollollohu alayhi vasallamga salovot, u zotning to'rt xalifalariga maqto'v keltiriladi.
2. Toshbosma nastaliq xatida yozilgan. Matnlar ikkita ustun shaklida bitilgan bo'lib, atrofi ramka va naqsh bilan bezatilgan.
3. Basmala, mavzu sarlavhalar o'rtada alohida ramkaga olingan.
4. Toshbosmadagi misralar asosan o'zbek tilida yozilgan. Ayrim bir misralar fors tilida bitilgan.
5. Har bir sahifa ostida keyingi sahifa qaysi so'z bilan boshlanganini bildiruvchi so'z yozilgan va u sahifalar almashib qolishiga yo'l qo'ymaydi.
6. Sahifalar alohida betlangan.
7. Kitob kartondan muqovalangan va muqova hamda sahifalar juda yaxshi holda saqlangan.
8. Varag'ining hajmi: 14 x 26 ni tashkil etadi.
9. Harflarning hajmi: 9 x 19 holatda yozilgan.

Abu Lays Samarqandiy shunday fikrlarni aytib o'tadi: “Farzandning tili kalimaga juftlangan kundan boshlab uning ongiga quyidagi uch muborak jumlaning quymoq farzi: “Assalomu alaykum”, “Bismillahir rohmanir rohim”, “Allohu akbar”. Shuning uchun har ishni “Basmala” bilan boshlash sunnatdir. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: «Har bir ish “Bismillah” bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir»», deganlari bejiz emas.

Xiromiyning “Chor darvesh” asari ham basmala bilan boshlangan. U quyidagicha:

Bismillahir rohmanir rohiym,
Xudoki (xudoyimki) olamg'a xollaq(xoliq) erur.
Bari shirkat va juftdin toq erur,
Birovni qilib oshyonin baland,
Birovni etib el aro (arhamand).
Birovni ne (kashurg'a)shoh aylabon.
Muti' anga behad sipoh aylabon.
Birovni qilib (hanin ofard xutta, fard duxta)
Bo'lib anga yuz ming jigar suxta....[2]

Birinchi misrada muallif Alloh taolo butun borliqning yaratuvchisi ekanligi va unga biror narsa sherik bo'lmasligini, shuningdek, jufti ham yo'q ekanligini aytib o'tadi.

Darhaqiqat, Alloh subhonahu va taolo ko'z bilan ko'rib turganimiz va ko'zimizga ko'rinmaydigan butun borliqni yaratgan qudrat sohibidir. Avval koinot yaratilib, undan so'ng inson xalq qilingan. Azaldan yakkayu yagona Allohdan boshqa biror narsa mavjud emas edi. Alloh taolo o'zining borligini, buyukligini, qudratini bildirish uchun oliy hikmati bilan osmon, yer va undagi boyliklarni, o'simliklar duvosini yo'qdan bor qilganligi haqida fikrlar bildirilgan. Keyingi misralarda esa Alloh taolo insonlarni turlicha yaratgani, birovni boy qilib, uylarini baland qilgani unga ko'plarni xizmat qildirgani, boshqa birovni esa kambag'al qilib qo'ygani haqida aytib o'tadi. Muallif bu fikrlar orqali Alloh taoloning har narsaga qodir zot ekanligini go'zal tarzda bayon qilib o'tadi.

Basmaladan keyin 11 misra Alloh taolo hamdi, 5 misra payg'ambarimizga na't va 8 misrada xalifalarga maqtov keltirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, basmala, hamd, na't va munojotlarning keltirilishi mumtoz adabiyotining o'ziga xos an'analardan hisoblanadi. Xiromiy dostonida o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'analarni davom ettirib, o'zining xalqqa, hayotga bo'lgan munosabatlarini singdira olgan.

ADABIYOTLAR

1.Тожи Қораев. Танланган асарлар. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2008. 311 Б.

2.Xiromiy. Chor darvesh. 27844\11 raqamli toshbosma nusxasi. 252 sahifa

“HUVAYDOYI CHIMYONIY”NING BUXORO TOSHBOSMASI XUSUSIDA

Olimova Munavvar Sultonovna,

BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Xojanazar Huvaydo Qo'qon adabiy muhitining zabardast namoyandasi bo'lib, sohibdevon shoir sanaladi. Uning lirik merosi devon holida nashr qilingan. Maqolada shoirning nashr etilgan devoni bilan Buxoro adabiyot va san'at muzeyida saqlanayotgan “Huvaydoyi Chimyoniy” nomli toshbosmasi o'zaro qiyoslandi. G'azallar matnidagi tafovutlar izohlandi.

Tayanch so'zlar: Huvaydo, „Devon“, ”Huvaydoyi Chimyoniy” Buxoro toshbosmasi, qiyosiy tahlil, nashr, qo'lyozma, badiiyat, Qur'on, hadis, tasavvuf.

Xojanazar Huvaydo o'zbek mumtoz adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mutasavvif shoir hisoblanadi. Uning ijodida axloq-odob, ma'naviyat, ma'rifat va tarbiya masalalari alohida o'rin tutadi. Huvaydo o'z she'rlarida, asosan, Qur'on oyatlari, Hadislar va tasavvufiy g'oyalarni singdirgan. Shuning uchun shoir qo'lyozmalari keng nusxada turli hududlarda tarqalgan.

Buxoro viloyat xalq amaliy san'at muzeyi qo'lyozmalar fondida “Huvaydoyi Chimyoniy” nomli toshbosma(inv.163)mavjud. Bu noyob manba hali ilmiy tadqiq etilmagan. 1900-yil Toshkent Ilin tipo-litografiyasida bosilgan, 120 sahifadan iborat bo'lib, “Huvaydoyi Chimyoniy” nomi bilan berilgan ushbu toshbosma tadqiq qilish uchun tanlandi. Ushbu kitob Toshkentda bosilgan bo'lsa-da, Buxoro qo'lyozmalari fondida saqlanayotgani uchun shartli ravishda Buxoro toshbosmasi nomi bilan o'rganilmoqda. Toshbosma betlari sahifaning yuqori qismida arab raqamlari bilan ko'rsatilgan. Ushbu kitobda Huvaydoning tanlangan she'rlari kiritilgan bo'lsa-da,

an'anaviy devonlar kabi Basmala bilan boshlangan. G'azallar arab alifbosi asosida joylashtirilgan bo'lib, 197 tani tashkil qiladi. Yana 1ta musaddas va 7ta 2 baytli she'rlar kiritilgan. Huvaydo toshbosmasi joriy yozuvdagi bosma nashrlar bilan o'zaro qiyoslab o'rganilganda juda ko'p tafovutli o'rinlar aniqlandi. Mazkur farqlar quyidagicha tasniflandi:

1. G'azal baytlari o'rni va soni bilan bog'liq farqlar;
2. Ma'noga ta'sir etuvchi farqlar;
3. Ma'noga ta'sir etmaydigan farqlar.

Huvaydo devoni Buxoro toshbosmasidagi 32 ta g'azalda baytlar o'rni va soni bilan bog'liq tafovutlar bor. "Huvaydoyi Chimyoniy" toshbosmasi an'anaviy devonlar kabi hamd g'azal bilan boshlangan. Ushbu g'azal 14 baytdan iborat. Bosma nashrda 13 bayt, shundan 4 bayti toshbosmada tushib qolgan, o'rnida 5 bayt bosma nashrdagi 11-g'azaldan kiritilgan.



66

Joriy yozuvdagi tabdili:

O'lumning oldida shoh-u gado barcha barobardur,
O'shandoq Mustafo o'tdi, bilur o'lmas kishi qayda?
G'animatdur hayoting necha kun Haq yodilao'tsa,
Va gar na ul tiriklikdin xushdur o'lganing avlo.
O'zungg'a kelg'il va insof qilg'il, bo'lma noinsof,
Xudodin qo'rq, uyot eldin qil emdi toat-u taqvo.

⁶⁶ "Huydayi Jismaniy" Buxoro toshbosmasi, 1900- yil

Bahosiz bebaho umringni zoye qilma, ey nodon,
Qo'lingdin boy berib behuda ishga qilmag'il savdo.
Ishe qil, ey Huvaydo, zodi rohe oxirat bo'lsun,
Taman anbar gar yig'sangki, bo'lmas to'shayi uqbo.

Ko'rinadiki, qofiyalar o'xshash bo'lgani uchun Buxoro toshbosmasida boshqa g'azal baytlari qo'shib ketilgan.

Toshbosmadagi 3-,14-, 16-,59- va 65-g'azalarda baytlar o'rni almashgan. 4-,39-, 41- va 66-g'azallar esa boshqa g'azal matni bilan almashgan. Masalan, 39- va 41-g'azallar bir xil "Bois" radifli bo'lgani uchun 39-g'azal matla'sidan so'ng 41-g'azalning baytlari davom etgan, 41-g'azalda esa matla'dan so'ng 39-g'azal baytlari berilgan.

Buxoro toshbosmasidan o'rin olgan 22 ta g'azalda baytlar soni bitta kam yoki bitta ko'p, ba'zilar tugallanmay qolgan. Shundan bosma nashrlarda aks etmagan, ya'ni yangi bayti mavjud g'azallarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.


№	Buxoro toshbosmasi dagi g'azalning tartib raqami	"Devon"da gi g'azalning tartib raqami	G'azallar o'rtasidagi farq	Qo'shilgan baytlar
1	6	24	3- va 4- baytlar o'rnini almashgan, yangi bir bayt qo'shilgan	Yangi bayt: Sen, ey zolim, hazar qilg'il mani mazlum otidin, Mabodo bo'lg'ay ishim bilan tayri balo paydo.
2	57	90	Yangi bir bayt qo'shilgan	Yangi bir bayt: Bu ko'ngilni sayqalini pok qilg'il ro'zi shab, Yig'labon pokiza qilg'il, qolmasin kir-u g'ubor.

3	59	92	1 bayt tushib qolib yangi bir bayt qo'shilgan	Yangi bir bayt: Ko'rgali zulfi parishoning parishondur ko'ngil, Bul parishon zulfig'a mandek parishon qaydadur.
4	61	94	Yangi bir bayt qo'shilgan	Yangi bir bayt: Ko'ngilni og'ritib avval misoli bevafoledek, So'rab holim yana qaytib rahm qilmog'ing nedur?
5	67	102	Yangi bir bayt qo'shilgan	Yangi bir bayt: Soching markon qunduzdek, labing la'li Badaxshoni, Ko'rub zulfi parishoningni hama mushki anbar der.
6	75	114	Yangi bir bayt qo'shilgan	Yangi bir bayt: Yuzungni ko'rgani har dam ko'ngil ko'b orzu aylab, Uchay desam qanotim yo'q erurman intizor zor.

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, "Huvaydoyi Chimyoniy" toshbosmasida shoir qalamiga mansub, ilm ahli hali o'qimagan yangi satrlar bor. Toshbosmadan joy olgan 197 ta g'azaldan bitta munajat g'azal, 6 ta g'azaldagi yangi baytlar va bitta tasdis-musaddas bosma nashrlarda uchramaydi. Xojanazar Huvaydoning 30 misra she'ri va 1 musaddasi huvaydoshunoslikda kiritilgan bir yangilikdir.

"Huvaydoyi Chimyoniy" toshbosmasi va bosma nashr o'rtasida bir qancha ma'noga ta'sir etuvchi tafovutlar ham mavjud. Masalan, "Anda" radifli g'azalning ikkinchi baytida "kishti" so'zi "kishi" tarzida ko'chirilgan. Ma'lumki, fors-tojik tilidan olingan

“kishti” so’zi kema ma’nosini beradi. Bayt mazmunini anglash uchun matn aynan keltirildi.




(“هویدای جمانی” Buxoro toshbosmasi, 1900- yil)

Joriy yozuvdagi tabdili:

Qilurda Nuh qavmidek tamug’ning otashi g’arqob,
Xalos aylar bo’lur kishi sanga kelsa azob anda.

Ko’rinadiki, baytda “do’zax otashiga g’arqob bo’lgan Nuh qavmidek, senga ham azob kelganda qilgan ehsoning va aytgan zikring kema bo’lib tamug’dan xalos etadi” degan mazmun ifodalangan. “Bo’lur kishi” jumlasida esa mazmunga muvofiq emas.

Yana bir g’azalda “-ma” bo’lishsizlik qo’shimchasi bayt ma’nosiga ta’sir qilgan. “Qolmadi” bo’lishsiz fe’li toshbosmada “qoldi” bo’lishli fe’l tarzida kelib, ma’noga ta’sir qilgan.



Joriy yozuvdagi tabdili:

O’ttilar bu dunyodan ko’b odami dilxohlar,
Qol di dunyoda boqiy ham gado-u shohlar.(Buxoro toshbosmasi 56-g’azal)

Mazkur baytda “Bu dunyodan ko’p yaxshi odamlar o’tdilar, gado-yu shohlar ham boqiy qolmadi” degan mazmun ifodalanishi kerak, ammo “gado-yu shohlar boqiy qoldi” tarzida berilgan. Bu esa mantiqan to’g’ri kelmaydi, chunki bu dunyoda hech kim abadiy emas.

“Huvaydoyi Chimyoniy” nomli Buxoro toshbosmasi hamda bosma nashrlari matni qiyosiy tahlil qilinganda ma’noga ta’sir etmaydigan farqlar ham aniqlandi. Ushbu tafovutlarning aksariyati so’z va qo’shimchalarning tarixiyliigi bilan bog’liq. Bundan tashqari bir nechta so’zlar o’rnida sinonimlari qo’llangan bo’lib, bular matn ma’nosiga ta’sir qilmagan.

Albatta, Huvaydo ijodiga oid 2005-yil Toshkentda “Yangi asr avlodi” nashriyotidan chiqarilgan “Devon”ni to’la va mukammal deb bo’lmaydi. Shoir adabiy merosi qo’lyozmalari va bosma nusxalarini qiyosiy o’rganib, 1907-yilgi toshbosma nusxasi bilan solishtirib, bosma to’plam va bayozlarga kirgan she’rlarini ham jamlab, uning mukammal tanqidiy devonini tayyorlash biz magistrnlarning kelgusi vazifamizdir.

ADABIYOTLAR

1. “هویداى جمانى” Buxoro toshbosmasi, 1900- yil;
- 2.Xojanazar Huvaydo. Devon.-Toshkent:Yangi asr avlodi, 2005.303 bet;
3. Adizova I. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-T.:2006.
- 4.Jumaxo’ja N. Huvaydo me’rosining ma’naviy-ma’rifiy mohiyati.-T.:1995.
- 5.Buxoriy “Al-jomi’ as-sahih”, 1-kitob, Toshkent-1991;
- 6.Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 4 jildlik.– T.: Fan, 1983.
- 7.Ro’zmatzoda Q. “Xojamazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o’rni” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2020.

“QOBUSNOMA” ASARI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI.

NASHRLAR ARO TAFOVUTLAR

To’xtayeva Sojida Murot qizi,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (tillar bo'yicha) 2-kurs magistranti

E-mail: s.m.tuxtayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Unsur al-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asarining nashrlari va nashrlar o’rtasidagi ba’zi farqli jihatlar, matniy tafovutlar haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: "Qobusnoma", nashr, qo'lyozma, tarjima, nusxa, sharh, tanqidiy matn, tafovut

Ma`lumki, o`zbek mumtoz adabiyotini o`rganish va nashrga tayyorlashda mas`uliyatli ish asar matni ustida ishlashdir. Bu ish tadqiqotchidan keng ko`lamdagi bilimni , eski o`zbek tilini chuqur bilishni , arab , fors tillaridan katta bilimga ega

bo'lishlikni talab qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirda ham o'zbek mumtoz adabiyotida matnshunoslik nuqtai nazaridan ko'plab asarlar haligacha to'liq o'rganilmagan. Kaykovusning “Qobusnoma” asari ham o'zbek adabiyotida matnshunoslik nuqtai nazaridan haligacha o'rganilmagan. Asar fors – tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingandan so'ng bir necha marotaba nashrga tayyorlangan, asarning badiiyati, uning mavzular olami qisman bo'lsada ba'zi maqolalarda yotilgan, xolos. Asar badiiyati, kompozitsiyasi, tarjimadagi yutuq va kamchiliklar, nashrlar aro matniy tafovutlar haqida haligacha to'liq ma'lumotga ega emasmiz. “Qobusnoma”ning turli yillarda nashrlarini solishtirganimizda (1986 – 1994 – 2017 – yillardagi nashrlari), turli xil o'ziga xosliklarga duch keldik. Ushbu nashrlar aro farqlarni bir biri bilan solishtirar ekanmiz, o'z navbatida, bu farqlarni ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Asar mazmuniga ta'sir etadigan farqlar;
2. Asar mazmuniga ta'sir etmaydigan farqlar.

Avvalo, asarning boblarini o'zaro qiyoslaganimizda son jihatidan farqli holatlarni ko'rishimiz mumkin. Yani, “Qobunoma”ning 1986 – yilgi nashrida boblar soni umumiy hisobda 38tani tashkil qilsa, 1994 – yilgi va undan keyingi nashrlarda esa boblar soni 44tani tashkil qilyapti. Demak, Kaykovusning o'z asarida bergan ma'lumotiga tayanib, asarning 44 bobdan iborat ekanligini hisobga olsak, “Qobusnoma”ning 1986 - yilda Subutoy Dolimov tomonidan tayyorlangan nashrida umumiy hisobda 6ta bob (1-, 2-, 3-, 4-, 15-, va 23- boblar) tushirib qoldirilganiga guvoh bo'lamiz. Tushirib qoldirilgan boblar quyidagilar:

1. I bob. Parvardigori olamni tanimoq zikrida.
2. II bob. Payg`ambarlarning xilqati zikrida.
3. III bob. Haq Taoloning shukurguzarlig`i zikrida..
4. IV bob. Ne'matlarga shukur qilmoq zikrida.

5. XV bob. Naf' olmoq zikrida.

6. XXIII bob. Asir sotg'un olmoqning zikrida.

Bundan tashqari nashlarni o'zaro chog'ishtirganimizda, asar matnida ham ba'zi jumalarni tushirib qoldirilganiga guvoh bo'ldik. Xususan, "Qobusnoma"ning 1986 – yil Subutoy Dolimov tomonidan tayyorlagan nashrida muqaddima qismi quyidagicha boshlanadi:

“ Bu muborak ovonda amir Unsurulmaoliy Kykovus binni Iskandar binni Qobus Vushmagirning o'z o'g'li Gilonshoh uchun jam qilg'on nasihatnomasi ul shahzodayi ozodaning nazari anvariga yetishdi va musaffo xotirig'a uni turkiy til bila tarjima qildirmoq tamannosi tushdi...”

Ammo, "Qobusnoma" ning 1994 – yil Ulug'bek Dolimov tomonidan tayyorlangan nashrini solishtirganimizda asarning muqaddima qismi anchagina farq qilishiga guvoh bo'ldik. Jumladan ushbu nashrda asarning muqaddima qismi quyidagicha boshlanadi:

“ Hamdu behad javohirining tuhfalari ul hakimi ala al – itloqning dargohi oliysiga loyiqdurkim, inson vujudining tarkibin aqlu donish zevari bila tuzdi...”

Asar muqaddimasidan olingan quyidagi parcha ham Subutoy Dolimov nashrida katta qisqartirishga uchragan, ammo Ulug'bek Dolimovning keyingi ikkala nashrida (1994, 2017 – yilgi nashrlar) tushirib qoldirilgan jumla va so'z birikmalari tiklangan.

*“... faqirkim ul janobdin bundog` marhamatlarni ko`rdim. Qulluq qilib, ta`zim rusumin bajo kelturdim. Xushhollik bila **ul behishtnishon** majlisdan chiqib, o`zimning vayrona kulbamga kelib... Endi **hazrat karimg`a** umidim shulki, bu xizmat ibtidosi ixtidom sarhadiga yetushg`ay va shahzodayi ozodaning humoyun xotirig`a maqbul va marg`ub tushg`ay, bu sarhushlik vositasi bila bu ranji g`amning og`ir yukidinkim **necha yildin beri bo`ynimg`a tushubdur**, tezroq qutulg`aymen. **Yordam ham undandur va suyanish ham ungadur**”.*

Yuqoridagi parcha Subutoy Dolimovning 1986-yilgi nashrida ayrim qisqartirishlarga uchragan, ba'zi o`rinlarda juz'iy tafovutlar ham mavjud bo`lib, ularni quyidagicha tahlil qildik:

“*Ul behishtnishon*”, “*hazrat karimg`a*”, “*necha yildin beri bo`yning`a tushubdur*”, “*Yordam ham undandur va suyanish ham ungapdur*” kabi birikmalar 1986-yilgi nashrda tushib qolgan. Ayrim so`zlar imlosida farqli jihatlar mavjud. Masalan, “*e`tiqod*” so`zi “*e`tiqot*” tarzida, “*zuhurg`a*” so`zi “*zuhuriga*” tarzida, “*sarxush*” so`zi “*sarhush*” shaklida berilgan. Albatta, bu tafovutlar so`zning imlosi yoki jarangli tovushning jarangsiziga almashinishi oqibatida yuzaga kelgan va bu kabi juz`iy tafovutlar asar mazmuniga ta`sir etmaydi. Ammo “Qobusnoma”ning “Mazoh qilmoq, nard va Shatranj o`ynamoq odobin bayoni zikrida” deb nomlanuvchi 13 –bobidagi quyidagi parchada yuqoridagi kabi holat bevosita asar mazmuniga ta`sir etadi.

“...*nard va Shatranj o`ynamoqda adab uldurkim, sen birinchi bo`lib muhraga qo`l urmag`aysan, to harifing avval ne qilmoq tilasa, shundoq qilsun, agar nard bo`lsa qab`ataynni avval harifingga berg`il...*”.

Ushbu parchada qo`llanilgan “muhra” so`zi asarning 1986- yilgi nashrida “muhr” tarzida, qolgan ikkala nashrda (1994, 2017) esa “muhra” shaklida uchraydi.

Parcha mazmuniga qaysi so`z mos kelishini bilish uchun so`zlarning ma`nosiga diqqat qaratsak: “**Muhr**” so`zi “**tamg`a, belgi**” degan ma`noni ifodalaydi, “**muhra**” so`zi esa lug`atlarda “**soqqa, sadaf**” yana boshqa bir lug`atda esa “**shahmat donalari**” kabi ma`nolarni ifodalashi ko`rsatilgan. Parchaning mazmuniga e`tibor qaratsak: “...*nard va shatranj o`ynamoqning odobi shundaki, sen birinchi bo`lib shaxmat donalariga qo`l uzatmaysan, toki raqibing oldin nima qilmoqchi bo`lsa shundoq qilsun...*”. Demak, yuqoridagi ma`nodan kelib chiqadigan bo`lsak, asar mazmuniga “**soqqa, sadaf , shahmat donalari**” ma`nosida qo`llaniluvchi “**muhra**” so`zi mos keladi.

“Qobusnoma” asari o`zbek adabiyotida bir necha bor nashr qilinganligiga qaramay, bugungi kunga kelib nashrlar aro ba`zi tafovutli o`rinlar ham mavjudki, ularni bartaraf etish bugungi kun matnshunoslarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Unsur al-Maoliy Kaykovus. “Mav`izatnomai Kaykovus” Ogahiy tarjiması. – T.: O`qituvchi, 1986, - 162 b.

2. Kaykovus. “Qobusnoma”. – T.: Istiqlol, 1994. – 173 b.
3. Kaykovus. “Qobusnoma”. – T.: O`qituvchi, 2017. – 271 b.

Elektron saytlar:

www.khurshiddavron.uz

www.saviya.uz

www.vikipediya

“TUHFAT UL-AFKOR” QASIDASINING JAMOL KAMOL VA SAYFIDDIN RAFIDDINOV TARJIMALARIDAGI O`XSHASH VA TAFOVUTLAR

Narzullayeva Yulduz,

BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo`nalishi 2-kurs magistranti

Alisher Navoiyning “Tuhfat ul-afkor qasidasi bir qancha adabiyotshunos olimlar tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu tadqiqotda O`zbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning “Foniy gulshani” nomli to`plamidan o`rin olgan tarjimasi va Alisher Navoiy “Sittayi zaruriya” turkumining Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

Qasidaning umumiy hajmi 99 baytni tashkil etadi. Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi baytlar nasriy bayon ko`rinishida so`zma so`z tarjima qilgan. Umumiy hajmi 99 baytdan iborat. Jamol Kamol tarjimasi esa bayt mazmuni saqlangan holda she`riy yo`l bilan tarjima qilingan. Umumiy hajmi 98 baytni tashkil qiladi. Qasida umumiy hajmidan 1 bayt kam. Jamol Kamol tarjimasida Navoiy forsiy qasidasining 51- bayti tushirib qoldirilgan.

Quyida tushirilib qoldirilgan baytni ko`rishimiz mumkin:

Dil, ki nabvad jam` dar maddi hayotash, ko`tahist,

Az parishone qasirash xoni, on k-o` qaysar ast.

Bu baytning Jamol Kamol tarjimasida uchramasligi to`g`risida aniq bir xulosa mavjud emas.

Ushbu baytni Sayfiddin Rafiddinov quyidagicha tarjima qilgan:

Podshoh hayotining uzayishidan ko'ngil to'lmasa, noqislik paydo bo'ladi, parishonlikdan “qasir” (qisqa) so'zini “qaysar” (podshoh) deb o'qiysan.

Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov o'zining “Xizr chashmasi” nomli kitobida yuqoridagi baytga quyidagicha izoh bergan:

O'z hayoti davomida jam' bo'lmagan dil nuqsonlidir. Parishonlikda “qaysar” so'zini “qosir-nuqsonli” o'qish hech gap emas.[3]

“Dilning jam' bo'lishi” iborasi faqat hayotdagi xotirjamlikkina emas, tasavvufda bu solikning yuqori martabalardan birini egallashini ham anglatadi. Ya'ni odam to o'zi Alloh bilan yaqinlashib, butun vujudi bilan Unga bog'lanmasa, fikrlari, qiyoslari, niyati bir nuqtaga birlashmaydi, jam' bo'lmaydi. Buni boshqacha qilib aytsak, tuyg'ular, fikr va iroda bir vahdatga kelgandagina Alloh vahdatini anglash mumkin. Shunda qalb osoyishtalik topadi.

Jamol Kamol tarjimasi:

Otashin la'l, ulki shohlar tojiga zavar erur,

Xom xayollarni pishirmoqqa olov, axgar erur.

Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi:

Podshohlar tojidagi qip-qizil la'l- boshda xom xayollarni pishiruvchi bir cho'g'dir.

Ushbu ikki tarjimaning mazmun mohiyati bir xil. Keyingi baytlarni solishtirib ko'radigan bo'lsak,

Jamol Kamol tarjimasi:

Shohki yod etmas o'limni, yurtni vayron aylagay,

Xusravi beoqibat g'oratgari kishvar erur.

Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi:

O'limni eslamydgan podshohning mamlakati vayron bo'ladi, oqibatsiz shoh yurtiga ziyon keltiradi.

Yuqoridagi har ikki baytda ham bir xil ma'no yuzaga chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, o'limni, oxiratni o'ylamay ish yuritadigan, faqat bugungi kuni uchun yashaydigan, o'z huzur-halovatini, nafsini o'ylaydigan podshohlarning mamlakati

oqibatda vayron bo'ladi. Xalq aziyat chekadi. Oqibatsiz shoh xuddi Xusrav singari yurtiga ziyon keltiradi.

Navoiy yuqoridagini fikrini qasidaning keyingi baytida o'xshatish san'atining go'zal namunasini keltirish orqali dalillab o'tadi:

Jamol Kamol tarjimasi:

Zebu ziynat hirs oxir aylagay shohni xarob,

Sher agar zanjirga tushsa, savlati kamtar erur.

Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi:

Zebu ziynatga hirs qo'yish shohona shon-shavkatni barbod etadi.

O'rmon she'riga nisbatan zanjirband she'rning savlati ko'rimsizdir.

Alisher Navoiy tabiatan saxovatli, kamtarin, adolatli inson bo'lgan. Shoirlik bilan bir qatorda xalq manfaati uchun ham beminnat xizmat qilgan. Navoiy zebu-ziynat, molu dunyoga hirs qo'yish, nafsga qullik shohlarning qudratiga soya solishini alohida ta'kidlab o'tadi. Shunga mos tamsil ham keltirib o'rmondagi qudratli she'rga qaraganda tayyor luqma uchun qafasda zanjirband holda turgan sher ko'rimsiz yani, hech qanday qudratga ega emasligini aytib podshohlarni nafs balosidan ogoh bo'lishga chaqiradi.

Bu ikki tarjima qasidaning badiiy mazmunini yoritishda xizmat qilgan. Har ikkala tarjimonning o'ziga xos tarjima yo'nalishi mavjud. Bu tarjimalarni qiyoslaganimizda ayrim o'rinlarda farqlar borligini ko'rishimiz mumkin. Ammo bu farqlar Navoiy badiiy niyatini ochib berishga mone'lik qilmaydi. Fikrimizning dalilini quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin.

Jamol Kamol tarjimasi:

Yuk ko'targan yo'lchilarga bu faqirlikmu pisand,

Qovjiroq yavshan-tikanlar tevaga **shakkar** erur.

Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi:

Suluk yukuni ko'taruvchi hammollarga faqirlikka chidashni oson deb bilgin, tuyaga og'zidagi qurigan tikan yangi, toza **xurmodek** tuyuladi.

Ushbu baytda Navoiy "xurmo" so'zini qo'llagan. Jamol Kamol esa bu o'rinda badiiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadida "shakkar" so'zini qo'llagan. Fikrimizning isboti

sifatida “shakar” so’zida mazmundagi ta’sirchanlikni kuchaytirish uchun taznib qo’llanilib bitta “k” undoshi orttirilgan va “shakkar” shakliga keltirilgan. Bu ham, albatta, tarjimonning o’ziga xos uslubi mavjudligini ifodalaydi.

Fikrimizni yana bir misol bilan davom ettiramiz.

Jamol Kamol tarjimasi:

Gar hakim bevajh lof ura, **azizlar** nazdida

Ofat ermish, garchi Aflotunga ul afsar erur.

Sayfiddin Rafiddinov tarjimasi:

Oriflar nazdida donishmandlarning o’rinsiz lofi Aflotun boshiga toj bo’lsa ham, balo-ofatlar keltiruvchidir.

Ushbu baytda “dil ahli” so’zi o’rnida Jamol Kamol “azizlar” atamasini, Sayfiddin Rafiddinov esa “Oriflar” atamasini qo’llagan. Bu ham, albatta, tajimonning dunyoqarashi, so’z boyligi, tarjima uslubidan kelib chiqadi.

Jamol Kamol ushbu forsiy qasidani tarjima qilish jarayonida qofiyalanish usuli va radifni saqlab qolishga katta ahamiyat bergan. Qofiyalanuvchi so’zlarni ham imkon qadar saqlashga harakat qilganligini ko’rishimiz mumkin.

Navoiyning “Tuhfat ul-afkor” qasidasida baytlari a-a, b-a, d-a, e-a ... tarzida qofoiyalangan. Jamol Kamol ushbu shaklni saqlagan holda o’zbekchalashtirishga harakat qilgan. Shu o’rinda tarjimada Navoiy qo’llagan qofiyadosh so’zlardan unumli foydalangan.

Navoiyning “Tuhfat ul-afkor” forsiy qasidasidan o’rin olgan 100 ta fors-tojikcha qofiyadosh so’zdan 66 tasini Jamol Kamol qasidaning tarjimasida qo’llagan. Qolgan 33 tasi o’zbekcha so’zlardan iborat.

Qasidaning ikki tarjimasini solishtirib ko’radiga bo’lsak, ikkalasida ham o’ziga xos jihatlarni ko’rishimiz mumkin.

Masalan, 45-baytni oladigan bo’lsak,

Barmakash teg’i zabon har dam, k-az in ro’ shamro,

Sar burand archi ba faqr az shu’la zarrin **mig’far** ast.

Ushu baytni Jamol Kamol quyidagicha tarjima qilgan:

Chekmagil tig'i zaboning har zamon ham, xub emas

Shamni kesgaylar, agarchi boshida **afsar** erur.

Sayfiddin Rafiddinov esa ushbu baytni quyidagicha tarjima qilgan:

Har doim tiling tig'ini tortavermaki, sha'mning boshida shu'ladan **oltin dubulg'asi** bo'lsa ham boshini kesadilar.

Forsiy baytda berilgan "mig'far" so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu so'z "kuloh", "dubulg'a" degan ma'noni anglatadi. Sayfiddin Rafiddinov ushbu so'zni o'z tarjimasida "oltin dubulg'a" tarzida bergan. Jamol Kamol esa "afsar"[4] (toj) tarzida keltirgan. Bu so'z ham, albatta, qofiya va vazn jihatidan kelib chiqqan holda qo'llangan.

Qasidada uchraydigan ayrim islomiy istilohlarning ham tarjimalarda turlicha kelganini ko'rishimiz mumkin:

Lavh yasatsa, ahli shoh **Mus'haf** qo'yarga tishlari

Rahnalar ermishki, din devorida yaksar erur.

Jamol Kamol tarjima qilgan ushbu baytdagi "Mus'haf" so'zi dinimizning muqaddas kitobi Qur'oni Karimga ishora qilmoqda.

Sayfiddin Rafiddinovda quyidagicha kelgan:

Mansabdorlarning **Qur'on** qo'yish uchun yasatgan lavhlarining kungurasi din qo'rg'oni eshigining rahnalaridir.

Ushbu baytda esa tarjimon "Mus'haf" so'zi o'rnida "Qur'oni Karim" so'zini qo'llashni afzal ko'rgan. Bu esa tarjimonning har bir baytni so'zma so'z to'liq tarjima qilishga e'tibor qaratganini bildiradi.

Jamol Kamol esa o'z tarjimasida baytlarning qofiyalanish tizmi va nazmiylikni saqlagan holda mazmuniy tarjimaga urg'u berganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda tarjimada forsiy so'zlar ham salmoqli o'rin egallagan.

ADABIYOTLAR

1. Jamol Kamol. "Foniy gulshani". Toshkent. Meriyas. 2011.
2. Alisher Navoiy. "Sittayi zaruriya". Sayfiddin Rafiddinov tarjimasida. Toshkent. Fan. 2005.
3. Najmiddin Komilov. "Xizr chashmasi". Toshkent. Ma'naviyat, 2005.

4. Farhangi zaboni tojiki. Iborat az du jild. Jildi 1. Moskva: nashriyoti “Sovetskaya ensiklopediya”, 1969.

“BOBO RAVSHAN” DOSTONI VA UNING TOSHBOSMA NUSXALARINING QIYOSIY TAHLILI XUSUSIDA

H.R.Latipov,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Kumushxon Jalolova,

Matnshunoslik va adabiy

manbashunoslik 1-bosqich magistranti, Kogon tuman 3-

maktab ona tili va

adabiyot fan o'qituvchisi

Annostatsiya: Maqolada “Bobo Ravshan”dostonining Buxoro san’at muzeyi xazinasida saqlanayotgan 12932 va 33007 raqamli nusxalari va ular o’rtasidagi tafovutlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Bobo Ravshan, Hazrat Ali, qo’lyozma, doston, qarz, juhud, salla, qurbonlik, nasr va nazm qorishiqligi, poygir, xattot

Badiiy adabiyotning asosi va ilk davri xalq og’zaki ijodi sanaladi. Adabiyotning nodir turi bo’lmish folklor necha asrlardan buyon xalq tilidan yozib olinadi. Folklorning barcha namunalari xattotlik maktabining yirik vakillari nazaridan ham chetda qolmagan. Jumladan, xalq dostonlari og’izdan-og’izga o’tish bilan bir qatorda xattotlarimiz tomonidan ham eski o’zbek yozuvida yozib olingan. XIX-XX asrlarda ham bir qator xalq dostonlari ko’chirildi, “Bobo Ravshan”dostoni ham shular qatorida xalq baxshilari tomonidan kuylandi va yozib olindi. Bunday samarali ishlar Buxoroda ham amalga oshirilib, “Bobo Ravshan”dostonining turli yozma shakllari kitob holiga keltirildi. Buxoro san’at muzeyi fondida dostonning ikki nusxasi mavjud. Bu ikki kitob ham toshbosma shaklida bo’lib, ulardan biri Kogonda ko’chirtirilgan. Aynan ilmiy faoliyatimiz uchun dostonning bu ikki toshbosma nusxalari va Nurboy Abdulhakim o’g’li tomonidan nashrga tayyorlangan kirill alifbosidagi nusxasi asos vazifasini

o'taydi. Ushbu maqolada "Bobo Ravshan" dostonining mazkur toshbosmalar o'rtasidagi farqlar va yozib olishdagi tafovutlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Mazkur toshbosmalar ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan ushbu toshbosmalar 12932 va 33007 raqamlari ostida saqlanib kelinyapti. Ularda dostonning matni o'z aksini topgan. Ikki toshbosmada ham nazm va nasr aralash tarzda keltirilgan.

2. 12932-raqam ostidagi toshbosma ko'k muqovada, 33007-raqam ostidagi toshbosma esa qizil muqovada bo'lib, ko'k muqovadagi doston oddiy va bezaklarsiz karton bilan qoplangan, qizil muqovadagi doston esa to'rtburchak naqshlar bilan bezatilgan.

3. Ikki toshbosma varag'ining hajmi 11.5 x 22 holatda.

4. Toshbosmalarda harflar hajmi: 8 x 16 holatda yozilgan.

5. Toshbosmalarning nomlanishi ham farqlanadi. Ya'ni qizil muqovadagi toshbosma "Kitobi Bobo Ravshan" bo'lsa, ko'k muqovadagi toshbosma esa "Bobo Ravshan" deb nomlangan.

6. Toshbosmalarning saqlanish holati ancha yaxshi, harflar o'chib ketmagan. Faqat ba'zi qismlar tushib qolgan yoki umuman yozilmagan holatlar mavjud. Ko'k muqovadagi toshbosmaning yakuni mavjud bo'lsa ham, sahifalar soni kam, ammo qizil muqovadagi toshbosmaning yakuni berilmagan, unda voqealar batafsil yoritilganligi bois sahifalar soni ko'proq.

7. Toshbosmalarning sahifalari betlangan, "Kitobi Bobo Ravshan" da hatto poygir ham berilganini ko'rishimiz mumkin.

8. Sahifalardagi matnlarning zichligi ham farq qiladi. Qizil muqovadagi toshbosma 13 qatorda, ko'k muqovadagi toshbosma esa 15 qatorda yozilgan.

9. Sahifalarning bezatilishi bir xil, ya'ni to'rtburchak shakldagi uch chiziqli hoshiya bilan ziynatlangan.

10. Toshbosmalarning nomlanish qismida ham, bezatilish qismida ham farq mavjud. Ko'k muqovadagi toshbosmada asar nomi aylana ichiga olingan va atrofi

naqshlar bilan bezatilgan. Qizil muqovadagi toshbosmada esa to'rtburchak ichiga olingan va qalin 3 sm atrofidagi naqshli hoshiya bilan ziynatlangan.

11. Toshbosmalar ikkisining muqovasi ham kartondan ,”Kitobi Bobo Ravshan” da karton qismi uch jimjimador lavha bilan beztilgan. Muqova qismida esa asar nomi yozilgan, ko'chirtirilgan vaqti va muqovalovchining ismi berilmagan , pastki qismida Rossiya imperiyasi poligrafiyasi tomonidan ko'chirtirilgan deb rus tilida yozilgan yozuv mavjud.

12. Ko'k muqovadagi toshbosmaning muqova qismida asar nomi yozilgan. Qachon va kim tomonidan muqovalanganligi, kim homiylik qilganligi haqida ham qisqacha ma'lumot berilgan. ”Bobo Ravshan” dostoni (ko'k muqovadagi) hijriy 1326 (1908)-yilda Mulla Muhammadiy Maxdum tomonidan Kogonda ko'chirtirilgan. Solihxo'ja Buxoriy bu ishga homiylik qilganligi bayon qilingan.

13. Toshbosmalardagi yozuvlar , asosan, o'zbek tilida ba'zi o'rinlarda esa fors tilida yozilgan.

Izoh: Payg'ambarlar va xalifalar nomiga o'qiladigan duolar arab tilida berilgan.

14. Toshbosmalarda asar mazmuni to'liq nasta'liq xatida berilgan.

15. Dostonlarning muhim xususiyati - nasr va nazm aralash kelishi inobatga olingan va bu yozuvda ham o'z aksini topgan. Ya'ni ikki toshbosmada ham nasr qismi qatorma-qator yozilgan. Nazm qismi esa ikki qatorda bir satrdan zigzag tarzida yozilgan.

16. Toshbosmalarning saqlanish holati , yozilgan va bezatilgan uslubi deyarli bir xilligi inobatga olinsa , ushbu dostonlarning davr jihatdan ko'chirilishini ham bir xil deyish mumkin. Ya'ni XX asr boshlariga tegishli. Faqat bu bir toshbosmada aniq ko'rsatiladi.

17. Toshbosmalarning sahifalar soni farq qiladi. ”Kitobi Bobo Ravshan” (qizil muqovali toshbosma) - 94 betdan iborat. ”Bobo Ravshan” (ko'k muqovali toshbosma) - 87 betdan iborat. Shuni aytib o'tish o'rinliki, ushbu dostonni nashrga tayyorlagan Nurboy Abdulhakim o'g'li vaianti esa kirill yozuvida bo'lib, 48-betdan iborat. Nurboy

Abdulahkim o'g'li dostonni qachon va kimdan yozib olganligi, mazkur alifboda kim yozib berganligini so'zboshi qismida aytib o'tgan.

“Dostonni shoir Hamza Imonberdiyev o'g'li Rahmonberdi, kelini Opatayga, singlisi Karomatga o'qib bergan, hozirgi alifboga ko'chirtirgan Shahribonu Sulton Xalifa qizini Olloh rahmat qilsin. Bu kitobni o'qiganlar tabarruk momomizni ham duo aylasalar, behad xursand bo'lur edik”.

Toshbosmalarning ikkisi ham an'anaviy tarzda “Bismillahi rahmoni rahim” kalimasi orqali, ya'ni “basmala”dan boshlangan. Voqealar bir xil boshlangan, qahramonlar ruhiy holati ham o'zgarishsiz bayon qilingan. Bu dostonda, asosan, Bobo Ravshanni qarzdand qutqarish jarayonida Hazrat Alining boshidan o'tgan sarguzashtlar xalq dostonlariga xos mubolag'alar, badiiy tasvir vositalari orqali hikoya qilinadi.

“Bismillahir rohmanir rohim.

Alhamdu lillahi robbil a'lamin ba'da ammo roviyon va noqilon osor andog' rivoyat qilularkim, Madina shahrida bir Bobo Ravshan degan bobo bor edi. Ko'p kambag'al, ko'p ayolmand erdi. Bir juhuddin ming tillo qarzdor erdi. Ani hargiz berib ado qilolmadi.”

Doston voqealari xalq og'zaki ijodiga xos sochma usulidan boshlangan. Arabcha so'zlar va Madina shahrining tilga olinganligi Bobo Ravshanning asardagi o'rnini ko'rsatgan:

Bobo Ravshan deyur otim,

O'chir juhud daftar xatin.

Qutqarib ol omonatim,

Xudoyo, hojatim bergil.

Toshbosmalarda “basmala”ning yozilishi ham farq qiladi. Ko'k muqovali kitobda uch gul tasviri berilgan, qizil muqovali kitobda esa “basmala” to'rtburchak lavha ichida berilgan .

Dostonda din tarixiga, payg'ambarlar tarixiga oid rivoyatlarga ishora qilingan she'riy misralar ham uchraydi. “Ibrohim va Ismoil” rivoyati bunga misoldir. Toshbosmalarda ularning yoritilishi farq qiladi. Iblisning Ismoil yoniga kelish tasviri biroz o'zgargan.

Dostonda islom dinining insonparvar din ekanligi, musulmon insonning hech qachon xor bo'lmasligi, haqiqiy iymonli insonlarga Alloh hamisha madadkor ekanligi bayon qilinadi. Nurboy Abdulhakim o'g'li nashri va ikki toshbosmada bu g'oyani tashigan so'zlar hamohangligini kuzatamiz. Bu ulug'vor g'oya asar oxiriga qadar davom etadi. Hazrat Ali Bobo Ravshanni qarzdan qutqaradi, iymon masalasi ulug'lanadi.

Toshbosmalarni solishtirish davomida quyidagi xulosaga keldim, asardagi yozuvlar o'rtasida tafovut bo'lsa-da, ayrim o'rinlar tushib qolgan bo'lsa ham, doston mazmuniy ustunligini ikki kitob ham to'ldira oladi. Toshbosmalarda g'oyaviy butunlik mavjud, buni anglamoq va amal qilmoq darkor.

ADABIYOTLAR

1. Bobo Ravshan: Doston (nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Nurboy Abdulhakim o'g'li). - T.: Cho'lpon, 1992. - 48 b.

2. Layli va Majnun, O'zbek adabiyoti, 4-jild, 2-kitob, - T.: 1960.

3. O'zbek xalq dostonlari. - T.: Sharq, 2006

4. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan 12932 raqam ostidagi “Bobo Ravshan” dostoni. - Kogon: 1908.

5. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan 33007 raqam ostidagi “Kitobi Bobo Ravshan” dostoni.

MUQIMIY “SAYOHATNOMA”LARINING NASHRLARARO QIYOSIY TAHLILI: TUSHURIB QOLDIRILGAN VA TAHRIR ETILGAN BANDLAR

H.O. Safarova,

BuxDU, f.f.n. dotsent

X.I. Baxtiyorova,

BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi II bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada Muqimiy asarlari nashrlaridagi “Sayohatnoma” janrida yozilgan she’rlarning farqli va o’xshash tomonlari hamda ularning davr talabidan kelib chiqib, tushurib qoldirilgan va tahrir qilingan bandlari to’g’risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: Muhammad Aminxo’ja Muqimiy, sayohatnoma, murabba’, tahrir, tahlil, tanqid, qozi, mufti, Nurboy Jabborov, 2022-yilgi nashr, noshir, nashr

Sayohatnoma deganda, ko’z oldimizda birinchi bo’lib, Muqimiy shaxsi gavdalanadi. Negaki, o'zbek she'riyatida sayohatnoma janrining shakllanishi aynan Muqimiy nomi bilan bog'liq. Muqimiy Farg'ona vodiysi bo'ylab sayohatga o'tlanib, topgan ozgina puliga Isfara, Konibodom, Toshkentning bahavo joylariga sayohat qiladi. Va mana shu sayohatlaridan olgan taassurotlarini she'r qilib yozadi. Bu she'rlar bugungi kungacha “Sayohatnoma” nomi bilan mashhurdir. Sayohatnoma shoirning Qo'qon - Farg'ona, Qo'qon - Shohimardon, Qo'qon-Isfara qishloqlari bo'ylab qilgan sayohatlarini o'z ichiga oladi. “Sayohatnoma”lar taxminan, 1890-yilda yozilgan. Unda shoir sayohati davomida ko’rgan – kechirganalarini qanday bo’lsa, shundayligicha qog’ozga tushiradi. She’r satrlaridan Muqimiyning kayfiyati, atrof-muhitga, qishloq kishilariga munosabati sezilib turadi.

Ma’lumki, uzoq yillar davomida Muqimiy ijodini o’rganishga biryoqlama yondashildi. Ya’ni uning turli janrlardagi diniy-tasavvufiy va ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi she’rlari umuman o’rganilmadi, o’rganilsada, nashr etilmadi. Nashr etilganlarini ham tahrir etilgan holda ko’rishimiz mumkin. Xuddi shunday davr talabi nuqta nazaridan tahrirga uchrab, so’ng nashr qilingan asarlari sirasiga “Sayohatnoma”larini ham qo’shishimiz mumkin. Jumladan, “Sayohatnoma” asarining “Qo’qondan Farg’onaga” (ba’zi nashrlarda Qo’qondan Konibodomga) deb ataluvchi

qismining 10-bandi sho'rolar davrida chop etilgan nashrlarning barchasida va 2010-yilda Abdullatif Turdialiyev tomonidan nashr etilgan “Bog' aro” she'rlar to'plamida ham quyidagicha keladi:

Ko'p odamidin Beshariq
Bog'larda ekmishlar tariq
Yetim haqi-go'shti baliq,
Qilmishlari nayrang ekan.

Xuddi shu band 2022-yilda Nurboy Jabborov tomonidan nashr etilgan “O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur” deb nomlangan she'rlar to'plamida quyidagicha kelgan:

Ko'p mardumidin Beshariq
Ahlini “quttout tariq”
Yetim haqi – go'shti baliq,
Ishlari revu rang ekan.

Bandlarning 2-misrasidagi tafovutli qo'llangan so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, birinchi bandda Beshariq odamlarining bog'larda tariq ekishi haqida aytilsa, ikkinchi bandda Beshariq odamlarini “quttout tariq” deya ta'riflaydi. “Quttout tariq” so'ziga Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati, 4-jildida “yo'lto'sarlar”, “yo'l bosib o'tuvchilar” deya izoh berilgan. Qaysi nashr to'g'ri ekanligini bilish uchun Filologiya fanlari doktori Q. Pardayev tomonidan aniqlangan 6352 raqamli bayozdagi bandni keltirib o'tamiz:

Ko'p mardumidin Beshariq
Ahlini “quttout tariq”
Yetim haqi – go'shti baliq,
Ishlari revu rang ekan.

Demak, 2022-yildagi nashr asliyatdagi bilan bir xil.

“Qo'qondan Shohimardonga” deb ataluvchi qismining 5-bandida ham tahrirga uchragan jumlar mavjud. Bu band ham sho'rolar davrida chop etilgan nashrlarning barchasida va mustaqillik yillarida nashr etilgan “Bog' aro” she'rlar to'plamida quyidagicha keladi:

Mingboshilik kimning ishi,

Desam, dedi bedonishi,
Bir Qo'shtegirmonlik kishi,
Xo'ja Iso badkor ekan.

2022-yilda Nurboy Jabborov tomonidan nashr etilgan “O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur” deb nomlangan she'rlar to'plamida esa quyidagicha kelgan:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bir donishi,
Bir “Qo'shtegirmonlik” kishi,
Xo'ja Iso bekor ekan.

Bandlarning 2-misrasidagi “bedonishi” va “bir donishi” so'zlari bir- biriga zid so'zlardir. Biri dono, oqil insonni bildirsa, biri nodonni anglatadi. 4-misradagi “bekor” va “badkor” so'zlari ham xuddi shunday. 2022-yildagi band misralaridan ma'lum bo'lishicha, Muqimiy savol bermoqda. Bu joyning mingboshisi kim? Shunda bir oqil odam bir “Qo'shtegirmonlik” kishi ekanligini aytmoqda va Xo'ja Iso mingboshilik lavozimidan bo'shagani ta'kidlanmoqda. Qaysi nashr to'g'ri ekanligini bilish uchun Filologiya fanlari doktori Q. Pardayev tomonidan aniqlangan 6352 raqamli bayozdagi bandni keltirib o'tamiz:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bir donishi,
Bir “Qo'shtegirmonlik” kishi,
Xo'ja Iso bekor ekan.

Demak, 2022-yilgi nashr asliyadagi bilan bir xil. Oldingi nashrlarda “bir donishi” so'zining “bedonishi”ga aylantirilishi natijasida muallifning badiiy niyati butunlay teskari talqin etilgan. 4-misradagi “bekor” so'zining “badkor” tarzida tahrir qilinishi misralar mazmunini o'zgartirib yuborgan. Hozirda hech qanday lavozimda ishlamaydigan Xo'ja Iso ismli shaxs yomon ishlar qiluvchi mingboshi deya talqin qilingan. Bundan maqsad Muqimiyni yuqori lavozim egalariga qarshi qo'yish.

8-bandda ham tahrirga uchragan misralar mavjud.

Unda bo'lus G'ozini dedi,
Ham mufti, ham qozini dedi,
Yurt barcha norozini dedi,
Qilg'on ishi ozor ekan.[4]

Mazkur bandning 2022-yildagi nashrda va 6352 raqamli bayozda mana bunday ekani kuzatiladi:

Anda bo'lus hojini dedi,
Ham mufti ham qozini dedi,
Yurti hama rozini dedi,
Bechora beozor ekan.

Ushbu bandlar Do'rmancha mavzesining bo'lusi haqida. 1-banddan anglashiladiki, G'ozini ismli bo'lus qishloqdagi barcha mansablarni egallab olgan, uning zolimligidan, ozor berishidan, yurt norozini. 2-bandning ma'nosiga e'tibor beramiz: Do'rmancha mavzesining bo'lusi hojini bir inson. U qishloqda ham muftilik, ham qozilik qiladi. Yurtdagi insonlarning hammasi bu bechora beozor isondan rozini. E'tibor bering, G'ozini obrazi asliy matnda umuman uchramaydi. Davr talabi nuqtai nazaridan bandning barcha misralari tahrir qilingan. Buning natijasida esa muallifning diniy lavozim egalari ya'ni mufti, hojini va qozilar haqidagi qarashlariga xato baho berilgan.

Yuqorida aytganimizdek, tahrir qilingan bandlar bilan qisqartirilgan bandlar uchraydi. Jumladan, "Qo'qondan Farg'onaga" qismidan 5 band qisqartirib nashr qilingan. 2022-yilgi nashrda esa bu bandlar tiklangan. Shundan 2 band bilan tanishamiz:

Xojam bugun savdo bajo
Baskim ko'p erkan oshno,
Erkaklari bari ato,
Xotunlari ammang ekan.

Hayfi alar kimbox-u shol,
Xoh yosh bo'lsun, xohi chol,
Erkaklari der qizni ol,

Xotunlari qadzang ekan.

“Qo’qondan Shohimardonga” qismidan esa 10 band tushurib qoldirilgan. Shundan 3 bandni keltirib o’tamiz:

Tug’lar ko’rindi yorqirab,
Shohi arab, miri Najaf,
Ham durri daryoi sharaf,
Ul Haydari karror ekan.

Qilmoq shikoyatdur o’sal,
Keldi bad-u nek az azal,
Beshak mukofoti amal,
Dunyo qurilgan dor ekan.

Alhamdulillah, bexatar,
Keldim, Muqim, aylab safar.
Muztar qolib, ko’rmay zarar,
Haq bandasiga yor ekan.

“Qo’qondan Isfaraga” qismidan ham 1 band qisqartirib nashr etilgan:

Soyiki Ishtonsoldisi
Kelgay shahidlarning isi,
Kanda emasdir o’g’risi,
Asli qaroqchizor ekan.

Tushurib qoldirilgan bandlar haqida shuni aytish mumkinki, ba’zilari hech bir sababsiz qisqarishga uchragan bo’lsa, sho’rolar davri nashrlarining ba’zilari o’sha davr talabiga ko’ra qisqarishga uchragan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Muqimiyning hali ko’plab asarlari yo toshbosma holida yoki qo’lyozma holida o’qilishi, ommalashtirilishi uchun o’z egasini kutib yotibdi. Biz bo’lajak matnshunoslar kelgusida mana shunday sharaflari xizmatga bel bog’lashimiz joiz.

ADABIYOTLAR

1. G'afur G'ulom. Muqimiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: O'z SSR davlat nashriyoti, 1953.
2. G'ulom Karimov. Muqimiy. 2 tomlik asarlar to'plami.- Toshkent: O'z SSR Davlat badiiy Adabiyot nashriyoti, 1960.
3. G'ulom Karimov. Muqimiy. Asarlar.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1974.
4. Abdullatif Turdialiyev. Muqimiy. Bog' aro. She'rlar. -Toshkent: Akademnashr,2010
5. Nurboy Jabborov. Muqimiy. O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur. -Toshkent: Adabiyot,2022
6. Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. www.navoiy-uni .uz.

MUHAMMAD IBN XUSRAV NUSXASI VA UNING TURKCHA NASHRI

Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o'g'li,

BuxDU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Mir Arab oliy madrasasi mudarrisi, "Shom" jome masjidi imom xatibi

Annotatsiya: Maqolada Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan Mahmud Ali Kadariyning "Nahj ul-farodis" asari, uning o'rganilishi tarixi, XIV asrning noyob turkiy adabiy manbasi ekanligi xususida, asarning tarkibiy qismi, bob va fasllarning nomlanishi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mahmud Ali Kadariy. "Nahj ul-farodis", Janos Eckmann, Semih Tezjan, Hamza Fulfiqor, Qur'on oyatlari, hadislar.

“Nahj ul-farodis” (“Jannatlarning ochiq yo‘li”) asari o‘zbek adabiyotshunosligida u qadar chuqur o‘rganilmagan va hali joriy yozuvga tadbil qilinib, chop etilmagan adabiy meroslarimizdan biridir. Unda Islom tarixiga oid ma’lumotlar turli hikoyat va rivoyatlar asosida berilgan ushbu asarda muayyan masalalalar Qur’on oyatlari, hadislar asosida dalillangan. Ushbu asarning bir necha xil nuxalari mavjud bo‘lib ulardan eng

mashhurlaridan biri bu bugungi kunda Turkiyaning Istanbul shahridagi Sulaymoniya kutubxonasida 879 inv. Raqami ostida saqlanayotgan “Yangi Jome” nusxasidir. Xorazmda XIV asr o'rtalarida yaratilgan ushbu asar va uning nusxalari ustida turkshunos olimlar tomonidan ancha ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Masalan, biz ko'rayotgan Yangi Jome nusxasi Ahmad Zakiy Validiy tomonidan kashf etilgan hamda uning “Xorazmda yozilgan eski turkcha asarlar” maqolasi orqali keng jamoatchilik bu nusxadan xabardor bo'lgan. Bu nusxa kashf etilishidan avval asar haqida faqatgina Shahobiddin Marjoniyning “Kitabu mustafedi al-ahbar fi ahvali Qozon va Bulg'or” nomli tarixiy kitobida qisqacha ma'lumotlar bor edi xolos. Lekin Marjoniy asar haqida u hijriy 759, milodiy-1358 yilda Oltin O'rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ko'chirilgan, nusxaning so'ngida muallif yoki kotib tomonidan ko'rsatilgan “Mahmud bin Ali as-Saroiy menşeen va al-Bulg'oriy mevlevi...” ismi muallif ismidir. Asar Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida yaratilgan va Volga turklari orasida tarqalgan. Tili bulg'orcha deya xabar beradi. Bundan xulosa qilishimiz mumkin-ki, demak asar XIV asr o'rtalaridan ancha oldinroq yozilgan. Marjanoniy xabar bergan nusxa esa uning bulg'orcha tarjimasini bo'lishi mumkin. Chunki Marjoniyning o'zi bu tilni boshqa turkiy tillardan ancha farqli deb aytadi. Bu esa asarning o'z davrida ancha mashhur bo'lganligiga hamda turkiy xalqlar orasida keng tarqalganiga dalolat qiladi.

Qo'lyozmaning asl nusxasida asosiy matn qora rangda, fasl va boblarning nomlari hamda ba'zi xos ismlar, muhim sana va jumlar esa qizil rangda ko'chirilgan. Jumlar yirik harflar va harakatlar (zer-u zabarlar) bilan bitilgan. Jumlarning qora rangda harakatlarning qizil rangda ekanligi zer-u zabarlar asosiy matn kitobat qilinganligidan keyin qo'yilganligini anglatadi. Ba'zi bir so'zlarning ostiga qizil chiziq bilan chizilgan. Masalan, 66-bet 1-qatordagi *ملكت محبتى كونكولدا* jumlasini 211-bet 4-qatordagi *يركا عرب ميل* jumlasini. Bundan tashqari 1-sahifaning o'rtasida *وتفسير آية متفرقة من القرآن العظيم لشيخ الامام* “va tafsir-u oyatin mutafarriqotin min al-Qur'an al-Aziym lish-shayh al-imam al-a'lim Abu Muhammad ibn Mas'ud al-Bag'aviy” yozuvi bor. Qo'lyozmaning 3-, 216- va 444-betlarida “Sulton Ahmadxon G'oziy Sulton Mahmudxon” yozuvli muhr to'rt burchakli o'chat mavjud. Lekin bizning qo'limizdagi

bo'lgan nusxa faksimeliya nashridan pedef holatiga keltirilgani uchun ham qizil bilan berilgan joylari bizda ko'rinmaydi. Yuqoridagi fikirlarni Janos Ecsman ning fikriga tayangan holatda ayta olamiz. Asarni tarkibi tuzilmasi asar 222 varoq 444 sahifadan iborat bo'lib, matn har bir betga 17 qatordan qilib ko'chirilgan. Ba'zi betlar zich yozilgan, birinchi nazar tushganda 17 qatordan oz bo'lsa kerak degan fikir keladi lekin to'liq 17 qator chiqadi.

Qo'lyozmaning 36, 59, 88, 91, 105, 120, 122, 139, 160, 176, 185, 187, 194, 199, 209, 212, 292, 293, 305, 312, 332, 407, 416, 423, 440- sahifalarning xoshiyalarida izohlar yozilgan. Qo'lyozmada ayrim betlarning o'rni almashgan. Lekin faksimeliya nusxasida noshir har bir betlarni o'z o'rniga qo'yib pedef holatiga keltirgan.

Asar diniy-didaktik ruhda yozilgan bo'lib, birinchi muqaddima bilan boshlanadi. Asarda to'rtta bob va har bir bobda o'ntadan fasllar keltirilgan. Undagi birinchi bob Muhammad alayhis-salomning hayotiga, ikkinchi bob sahobalar va to'rt mazhabboshi imomlarga bag'ishlangan. Asarning uchunchi bobida Alloh taologa yaqinlashtiruvchi yaxshi ammallar va to'rtinchi bobda Alloh taolodan uzoqlashtiruvchi yomon amallar haqida so'z yuritilgan. Aynan keyingi ikki bobda muallif maqbul va nomaqbul amallarni ikki bobga ajratib har bir bobda o'ntadan fasl quydagi shaklda keltirilgan:

Birinchi bob Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning fazilati bayoni haqida

1. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning fazilatlari. Bu fasl qo'lyozmada uchunchi oltinchi betgacha Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning dunyoga kelishlari, u zotning nasablari va fazilatlari haqida so'z yuritiladi.
2. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom ga vahiy kelishining bayoni. Bu fasl oltinchi betdan o'ninchi betgacha, Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom ga vahiyning boshlanishi qanday bo'lganligi, nozil qilingan oyatlar, Payg'ambarimiz alayhis-salomning holatlari haqida bayon qilingan.
3. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salom va sahobalrga islom avvalida aziyat yetgan holatining bayoni. Bu fasl o'ninchi betdan o'n sakkizinchi betga qadar, Nabi

alayhis-salom va u zotga imon keltirgan sahobalarga Makka mushriklari tarafidan berilgan aziyatlar haqida bayon qilingan.

4. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning Makkadan Madinaga chiqishining bayoni. Bu fasl o'n sakkizinchi betdan yigirma yettinchi betga qadar, Nabi alayhis-salomning tug'ilib o'sgan ona vatanlari Makka shahridan Madina shahriha hijrat qilish holatlari bayon qilingan.
5. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning mo'jizalari bayoni. Bu fasl yigirma yettinchi betdan o'ttiz oltinchi betga qadar, Nabi alayhis-salomga Alloh taolo tarafidan berilgan mo'jizalar bayoni va Nabi alayhis-salomning bir necha mo'jizalari bayon qilinadi.
6. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning Makkaga kirishlarining bayoni. Bu fasl o'ttiz oltinchi betdan ellik ikkinchi betgacha yana ona vatanlari Makka shahriga qaytishlari u joydagi voqealar haqida so'z yuritiladi.
7. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning me'rojga chiqishlarining bayoni. Bu fasl ellik ikkinchi betdan oltimishinchi betgacha Nabi alayhis-salomni makka shahrida Alloh taoloninh buyuk inomi Me'roj voqeasi bo'lgani va undagi bo'lgan voqealar haqida so'z yuritiladi.
8. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning Jannat va Do'zaxni ko'rishlarining bayoni. Bu fasl esa oltimishinchi betdan oltimish sakkizinchi betga qadar, Me'roj voqeasida Alloh taolo Nabi alayhis-salomga Jannat va Do'zaxni va undagi holatlarni bayon qilib beriladi.
9. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning Hunayn g'azotida qatnashishlarining bayoni. Bu fasl oltimish sakkizinchi betdan yetmish yettinchi betga qadar, Hunayn g'azoti va undagi voqeliklar bayon qilingan.
10. Payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salomning vafotlarining bayoni. Bu fasl yetmish yettinchi betdan to to'qson birinchi betga qadar, Nabi alayhis-salomga bemorlik yetib bu dunyodan rihlat qilishlarigacha bo'lgan holatlar bayon qilingan.

Ikkinchi bob Xulafoi roshidinlar va ahli bayt hamda to'rt mazhab imomlarining fazilatlari haqida

1. Abu Bakr roziyallohu anhu ning fazilati bayoni. Bu fasl to'qson birinchi betdan bir yuzi to'rtinchi betga qadar Nabi y alayhis-salomning g'ordagi sohiblari, Alloh taoloning kalomida zikir qilingan zot Abu Bakr roziyallohu anhu ning fazilatlari haqida so'z yuritiladi. Qo'lyozmada to ikki yuzi yigirma sakkizinchi betga qadar fasllarda zikir qilingan zotlarning sifatleri, islom uchun qilgan ishlari, ulamolarning bu zotlar haqida aytgan rivoyatlari bayon qilinadi.

2. Umar roziyallohu anhu ning fazilati [104]
3. Usmon roziyallohu anhu ning fazilati [122]
4. Ali roziyallohu anhu ning fazilati [137]
5. Fotima roziyallohu anhu onamizning fazilati [156]
6. Imom Hasan Husayinlarning fazilati [158]
7. Imomi A'zam Abu Hanifa roziyallohu anhu ning fazilati [185]
8. Imomi Shofe' roziyallohu anhu ning fazilati [198]
9. Imomi Molik roziyallohu anhu ning fazilati [206]
10. Imomi Ahmad roziyallohu anhu ning fazilati [219]

Uchinchi bob Alloh taologa yaqinlashtiruvchi amallar haqida. Bu bob ikki yuzi yigirma to'qqizinchi betdan ikki yuzi o'ttiz uchinchi betga qadar, Alloh taoloning roziligiga sabab bo'ladigan amallar, hadislarda dinimizning ustuni deya ta'riflangan imon, namoz, ro'za, zakot, haj va umra amallarining fazilatlari oyat va hadislar, ulamolarning rivoyatlari bilan yoritib berilgan.

1. Alloh taologa yaqinlashtiruvchi yaqinlashtiradigan amallar [229]
2. Namoz vazilatri bayoni [240]
3. Zakot va sadaqaning fazilati bayoni [249]
4. Ro'za fazilati bayoni [259]
5. Haj va umra fazilati bayoni [269]
6. Ota-onaga xizmat qilmoq fazilati bayoni [282]
7. Halol yemoq fazilati bayoni [293]

8. Amri ma'ruf va nahiy munkar fazilati bayoni [303]
9. Tun-u kun uyqusiz ibodat fazilati bayoni [312]
10. Sabr va rizo fazilati bayoni [323]

To'rtinchi bob esa Alloh taolodan uzoqlashtiruvchi amallar haqida. Bu bob uch yuzi o'ttiz to'tdan to'rt yuzi qiriq uchinchi sahifalarni o'z ichiga oladi. Bu bobda quyidagi fasllarda zikir qilingan, Alloh taoloning g'azabiga sabab bo'ladigan, insonni ikki dunyoda ham xor qiladigan amallarni qo'lyozmada musannif turli xil rivoyatlar bilan yoritib bergan.

1. Nohaq qon to'kma ofati haqida [334]
2. Zino qilmoq ofati bayoni [346]
3. Xamr ichmak bayoni [362]
4. Kibrlanish ofati bayoni [371]
5. Yolg'on va g'iybat ofati bayoni [380]
6. Dunyoni sevmak ofati bayoni [390]
7. Riyo va suma' (eshittirish) bayoni [400]
8. Gina va hasad ofati bayoni [411]
9. G'uru va g'aflar ofati bayoni [422]
10. Uzun orzuga berilmoq ofati bayoni [433]


Qo'lyozmaning xotimasi esa to'rt yuzi qiriq uch, qiriq to'rtinchi sahifalarda yozilgan.

Asarda muallif insoniy amallarni sanab o'tarkan, ularning xosiyati yoki kasofatini avvalo Qur'on oyatlari va hadisi shariflar bilan so'ng boshqa ulamolarning kitoblaridan iqtibos va parchalar keltirgan holatda hamda rivoyatlar bilan asoslaydi. Hadislarni ko'proq Imom G'azlloning "Ihyo ulumiddin" kitobidan keltiradi. Chunki musulmon madaniyatiga xos xususiyatlardan biri shuki, ma'lum bir fikrning yoki xulosaning kuchi uning oyat va hadislar bilan dalillanishiga qarab belgilanadi.

Asarning har fasli arabcha hadislar bilan boshlangan. Hadislarning turkiy tarjimasini keltirgandan so'ng mashhur islom olimlarining hadis ma'nosini


oydinlashtiradigan rivoyat va hikoyatlarni naql qiladi. Hatto boshqa hadis va oyatlarni ham ilova qilib o'tadi.

Asar va uning muallifi haqida faqatgina kitobning xotima qismida ma'lumot berilgan.



(443-b.)

بو كتاب تمام بولدي تاريخ يتي يوز التمش بيردا شهر الله المبارك جمادي الاول ابي نينك التينج كونيدا اردي كيم كتابتي قوشلوق وختيندا تمام بولدي تقي بو كتاب نينك مصنفي مدكور يكشنبه كون دار الفنادين دار البقاغا رحلت قيلدي اما بو كتابني جمع قيلغان اندغ ايتور كيم بو سوزني كيم تكما بير سوز كيم



(444-b.)

..... تفسيركا متعلق بولغاي اول سوزلار جمله سني امام جار الله العلامة رحمت الله عليه اوزى نينك كشافى دين نقل قلدي تقي امام ابوا المعالى اسفهانى رحمة الله عليه اوزى نينك تفسيرى دين نقل قلدى ينا تكما فصل اولنيدا كيم بيغانبر عليه السلام دين حديث روايت قلدى بو كتاب آتى ايتلميش ترور تقي اونكين حديث لار تقي او مدكور كتاب لار دين نقل قلميش ترور ينا اول كلمات علما و مشايخ بولغاي يا تقي آنلار نينك حكايتي بولغاي انلار نينك جمله سى شيخ امام ابو طالب مكى رحمة الله عليه اوزى نينك قوة القلوب آتليغ كتابى دين نقل قلدى تقي امام زين الأئمة الفردوسي رحمة الله عليه اوزى نينك مجتلى آتليغ كتابى دين نقل قلدى هم ينا بو مجتلى شرحى دين نقل قلدى تقي امام واقدى رحمة الله عليه اوزى نينك مغازى آتليغ كتابى دين نقل قلدى تقي امام محمد كاتب رحمة الله عليه اوزى نينك مغازى آتليغ كتابى دين نقل قلدى اما بو كتابنى اوقيان لاردين التماس او ترور كيم بو كتاب نى جمع قىلغان عاصى و جافى حقيغنا نظر و عنايت قلسا لار تقي انينك او كوش

يازوق لار نی حق تعالی دین یرلیفا تو قولسا لار بولغای کیم انلار دعاسی برکاتیدا حق تعالی انی تموغ دین
خلاص قیلسا تقی سکیز اوجماح روزی قیلغای آمین رب العالمین وصلی الله علی سیدنا محمد وآله الطیبین
الطاهرین برحمتک یا ارحم الراحمین
الکاتب العسی الجافی الراجی الی رحمة ربه اللطیف علی عبد الضعیف النحیف والفقیر ملقب باسم محمد ابن
محمد ابن خسرو الخوارزمی غفر الله لمن کتب ولمن نظر ولمن قرأ ولجميع المؤمنین والمؤمنات آمین رب
العالمین

Ya'ni: bu kitob (hijriy) 761-yil jumadul avval oyining 6-kunida (kitabati qushluq) vaqtida tamom bo'ldi. Bu kitobning musannifi yakshanba kuni vafot etdi. Ammo bu kitobni jam qiluvchi (ya'ni kotib) aytadiki: "bu kitobda keltirilgan bazi gaplarni Imom Jarulloh (Imom Zamaxshariy) o'zining "al-Kashshof" asarida naql qilgan, yana Imom Ma'oniyy Isfahoniy (r.h) o'zining "Tafsir"ida naql qilgan. Bu kitobda ("Tafsir"da) bir faslning avvalida Payg'ambar alayhis-salomdan bir hadis rivoyat qilinganki, ushbu hadisda bu kitob (Najh ul-farodis)ning nomi zikr qilingan. (O'ngin) bu kitobdagi hadislar yuqorida keltirilgan kitoblardan olingan. Yana ulamolarni, mashoyixlarni va ularning hikoyatlari ham keltirilgan. Musannif jumladan, Imom Abu Tolib Makkiyning "Quvvat ul-qulub", Imom Firdavsiyning "Mujtaliy" va uning sharhidan ham naql qilgan. Va yana Imom Voqidiyning "Mag'osiy" nomli kitobidan ham naql qilgan. Ammo bu kitobni o'qiganlardan iltimos shuki, bu kitobni jamlaganni haqqiga duo qilsa, bu duosini barokatidan Alloh uni tamug'din (Do'zax) xalos qilsa va sakkiz Jannatni nasib qilsa. Amin".

Kotib Muhammad bin Muhammad bin Xusrav al-Xorazmiy. Alloh yozganlarni, nazar solganlarni, o'qiganlarni va barcha muslim va musulmalarni gunohini kechirsin amin.

Asar muallifi haqida bundan boshqa ma'lumot berilmagan. Asarning umumiy holatidan insonni komil inson bo'lishga olib boradigan jihatlar yoritib berilganligi ko'rinib turibdiki

ADABIYOTLAR:

1. Nehcül-Feradıs. 2004. Uçmahlarning Açık Yolu (Cennetlerün Açık Yolu). I Metin. II. Tıpkıbasım. Tıpkıbasım ve Çevriyazı: Janos Eckmann, Yayımlayanlar: Semih

Tezcan, Hamza Zulfikar. Ankara: Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları.

2. Eckmann, Jenos. 2004. Ön söz. Nehcül-Feradıs. Uçmahlarning Açık Yolu (Cennetlerin Açık Yolu). I Metin. II. Tıpkıbasım. Tıpkıbasım ve Çevriyazı: Janos Eckmann, Yayımlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zulfikar. Ankara: Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları.

ALISHER NAVOIYNING “DEVONI FONIY” ASARI TARKIBIDA KELGAN MUXTARA’ G`AZALLARNING NASHRLARARO FARQLI NOMLANISHI

Tangriyeva Ondagul Murodjon qizi,

BuxDu, Matnshunoslik va adabiy mnbashunoslik(tillar bo`yicha) 2-kurs magistranti

o.m.tangriyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asari nodir asarlardan biridir. Bu asar yurtimizda 3 marotaba nashr qilingan bo`lsa, bu nashrlarda turli xil nashriy tafovutlar ko`zga tashlanadi. Mazkur maqolada muxtara’ g`azallarda uchraydigan farqlardan biri bo`lgan nomlanishlar bilan bog`liq bo`lgan tafovutlar haqida fikr yuritilgan.

Kirish so`zlar: “Devoni Foni”, muxtara’, nashriy tafovutlar, tatabbu, tavr

Alisher Navoiyning “Devoni Foni” asari ijodkorning fors tilida ham naqadar ko`p bilimga ega ekanligini ko`rsatgan asardir. Mazkur asar yurtimizda uch marotaba qayta-qayta nashr qilingan. Lekin mana shu nashrlar davomida bir qancha nashriy tafovutlarga uchragandir. “Devoni Foni” ning yurtimizdagi birinchi nashri 1965-yil sobiq Sovet hukumati davrida Toshkentdagi Badiiy adabiyot nashrida amalga oshirilgan. Navoiyning 15 tomlik to`la asrlar to`plamida “Devoni Foni” 5 tom 2 kitobga jamlangan. Nashrga tayorrovchi olimlar esa Hamid Sulaymonov, Muniraxon Muinzodalar edi. Keyinchalik mustaqillik yillarida Alisher Navoiy asarlarining qayta to`ldirilgan 20 tomlik mukammal asarlar to`plami dunyo yuzini ko`rdi. Bu to`plamda “Devoni Foni” yakuniy qismlar bo`lgan 18,19,20-jildlarda jamlandi. Bu nashr 2002-yil O`RFA “Fan” nashryotida amalga oshirilgan bo`lib, nashrga tayyorlovchilar Hamid

Sulaymonov, Sayfiddin Rafiddinov, Murodiy (Hojimurod Tojiboyev)lar edi. 2013-yilda G`afur G`ulom nomidagi nashryot-matbaaijodiy uyida Alisher Navoiy asarlari yana qayta nashr qilindi. Bu safargi nashrda ham “Devoni Foniyy” 10 tomlikning 5-kitobidan o`rin oldi. “Devoni Foniyy” hajm jihatdan juda yirik asardir. Lekin mana shu turli yillarda nashr qilingan nusxalar orasida juda katta nashriy tafovutlarni uchratishimiz mumkin. Birgina g`azallar soniga e`tibor berilsa ham anchagina farqlarga ko`zimiz tushadi. “Devoni Foniyy”ning 1965- yilgi nashrida 394 ta g`azalni uchratsak, 2002-yilda nashr qilingan Mukammal asarlar to`plamida 554 nafar nashr qilinganligiga ko`zimiz tushadi. “Devoni Foniyy”ning Eronda Ruknuddin Humoyunfarrux tomonidan tayyorlangan nashrda esa g`azallar soni 485 tani tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin. Nashrlardagi mana shunday tafovutlar boshqa janrdagi asarlarda ham ko`zga tashlanadi.

Alisher Navoiyning “Devoni Foniyy” asari nashrlaridagi bunday tafovutlar bu asarni qayta tadqiq qilish kerakligini ko`rsatadi. cc Yuqoridagi farqlar g`azallarning soni jihatidan edi. Endi esa “ Devoni Foniyy” asarining turli davrlardagi nashrlarida turli xil nom bilan nomlangan muxtara’ g`azallarga to`xtalamiz.

“Devoni Foniyyning” har to`rtala nashrida bunday g`azallar turlicha nomlarda uchraydi va mana shu nomlanishlar orasidagi farqlanishlar o`z-o`zidan muxtara’ g`azallarning sonlari o`rtasidagi tafovutlarni keltirib chiqaradi.

Bunday tafovutlardan ba`zilari quyidagilar:

1965-yilgi to`la asrlar to`plamida

“G`ayri hunob naboyad, ba chashmu dili mo

Go`yiyo ishq ba xun ba kard muxammar gili mo”

bayti bilan boshlanuvchi g`azal “muxtara” sarlavhasi ostida berilgan bo`lsa, Mukammal asarlar to`plami va 10 tomlik to`la asarlar to`plamlarida ushbu g`azal alohida nom bilan keltirilmagan.

Mukammal asarlar to`plami 18-jild 59-betdan o`rin olgan

“ Tu hubu xulqi takallumat ham xub,

Nabuda chun tub a xubi kase ba olam xub”

bayti bilan boshlanuvchi “muxtara” nomi ostida keltirilgan g`azal esa 1965-yilgi Hamid Sulaymonov nashrida esa “ Tatabbui Xoja” nomi ostida berilgan. To`la asarlar to`plamida esa ushbu g`azal “muxtara” nomi bilan berilgan. 15 tomlik to`la asarlar to`plamida:

“La`li tu naboyad suxanad obi hayot ast,

Tabxola bar on go`shai lab habbi nabot ast.”

bayti bilan boshlanuvchi g`azal esa “Tatabbui ba`ze azizon” nomi bilan berilgan

bo`lsa, mukamal asarlar to`plami va to`la asarlar to`plamida “muxtara” nomi ostida keltirilgan. Keyingi nomlanish bilan bog`liq farqlardan yana biri 1965-yilgi Hamid sulaymonov nashrida:

“Gohi xandidan labat obi hayotu qand rext

Nutqi shirinu ravonat ham bad-on monnd rext”

bayti bilan boshlanuvchi “muxtara” sarlavhasi ostida berilgan g`azal mukammal asarlar to`plami va to`la asarlar to`plamida “ayzan” g`azal shaklida keltirilgan.

“Chi son ba ko`I tu oyam mani gado gustoh,

Dar on chaman chu nayorad shudan sabo gustoh.”

bayti bilan boshlanuvchi ushbu g`azal 1965-yilgi to`la asalar to`plamida maxsus nom ostida keltirilmagan bo`lsa, mukammal asarlar to`plami va to`la asarlar to`plamida “muxtara” nomi ostida berilgan.

Hamid Sulaymonov tomonidan 1965-yilda nashrga tayyorlangan 15 tomlik to`la asarlar to`plamida quyidagicha boshlanuvchi:

“So`i gulshan raftamu sarvi xiromonam nabud,

Giryra zo`r ovard, k-on gulbargi xandonam nabud.”

g`azali “Bayoni Voqe” nomi ostida berilgan bo`lsa, mukammal asarlar to`plami va to`la asarlar to`plamida “muxtara” nomi ostida berilganligiga guvoh bo`lamiz.

“Az g`ami yak shab, ki dar hajrash dila zoryy kashid,

Bo kasi monam, ki o` yak sol bemoriy kashid.”

bayti bilan boshlanuvchi ushbu g`azal 1965- yilgi to`la asarlar to`plamida “Muxtara” nomi ostida berilgan bo`lsa, 2002-yilgi mukammal asarlar to`plami va 2013-yilgi to`la nashrlarda “ Dar tavr Mahdumiy” nomi ostida keltirilgan.

“ Kas naxli qadat noz chun qadat,ey siymbar,nadid,

Chun la`li mayparasti tu gulbargi tar nadid.”

bayti bilan boshlanuvchi g`azal ham xuddi yuqoridagi g`azal singari 1965-yilgi to`la asarlar to`plamida “muxtara” g`azal tarzida keltirilgan bo`lsa, 2002-yilgi mukammal asarlar to`plami va 2013-yilgi to`la nashrlarda “Dar tavr Xoja” nomi ostida tavr g`azal sifatida keltirilgan.

Nomlanishida farq kuzatiladigan g`azallardan yana biri

“ Jon baxshad ar soqiy mai gulrang dar jom afkand,

Lekin kushad chu jilva dar ruhsori gulfam afkand”

bayti bilan boshlanuvchi g`azaldir. Ushbu g`azal 15tomlik to`la asarlar to`plamining 5-jild 1-kitobida “Dar tavr Mir” nomi bilan keltirilgan. Ammo mukammal asarlar to`plami va to`la asarlar to`plamida “muxtara” g`azal tarzida ifodalangan.

“Tu gashti kajkulohi jumla shohon,

G`alat guftam,ki shohi kajkulohon.”

bayti bilan boshlanuvchi nomlanishida farq bo'lgan navbatdagi g'azal 1965- yilgi nashrda “Dar Tavri Mir” nomi ostida berilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida nashr qilingan keyingi 2 nusxada “muxtara” g'azal tarzida keltirilgan.

Mukammal asarlar to'plami va to'la asarlar to'plamidan “muxtara” g'azal sifatida o'ringan

“Chu mili qabram oroyad ba gulho guluzori man,

Shavad guldastai mulki fano mili mazori man.”

bayti bilan boshlanuvchi ushbu g'azal 1965- yilgi to'la asarlar to'plamida “Tatabbui Maxdum” nomi ostida ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari “Ey rindi durdosham, chuz....”, “Nest dar dayri mug'on....”, “Husg ast subh kulah....”, “Zi lab dar xanda garchi...” deb boshlanuvchi g'azallarning ham nomlanishlarida nashrlararo tafovutlar kuzatiladi. Bu g'azallarning barchasi mukammal asarlar to'plami va to'la asarlar to'plamida “muxtara” nomi ostida berilgan bo'lsa, 1965-yilgi nashrda turli xil nomlar: “Tatabbui Mir”, “Dar tavri Xoja”, “Tatabbui Xoja” va “Tatabbui Maxdum” nomlari ostida keltirilgan.

Biz yuqorida 15 ta g'azalning turli nashrlarda turlicha nomlanishini ko'rib chiqdik. Bundan tashqari “Devoni Foniyy” asaridagi muxtara g'azallar son jihatdan ham mutanosib emas. Sobiq Sovet hukumati davrida Hamid Sulaymonov tomonidan nashr qilingan 1965- yilgi nashrda mukammal asarlar to'plami va to'la asarlar to'plamiga muxtara' tarzida kiritilgan quyidagi g'azallar umuman uchramaydi.

1. “Chun ba dayr omad zi bahri hum shikastan mo`htasib....”
2. “Husne, ki dida did, dil on so`y moil ast....”
3. “Boz dil tafriqa dar tavbavu tomot andox....”
4. “Nasimi sabo`h namud az tag`ori sahbo mavj....”
5. “Ba xubi shud chunon on simbar sho`h....”
6. “Labat, ki bargi guli tar ba boda omazad....”
7. “Dili sadporam az la`li tu ast xun ast digar...”

Biz yuqorida “Devoni Foniy” asarining nashrlaro farqlarini muxtara’ g`azallar nomlanishidagi farqlarini k`rib chiqdik, xolos. Bunday nashriy tafovutlar esa bu asarning to`liq holda qayta ilmiy o`rganilishini talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik, 18-tom. Toshkent. Fan nashriyoti. 2002
2. A.Navoiy. To`la asarlar to`plami. 15 tomlik, 5-tom. Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti. 1965

Elektron saytlar:

W.W.W. arxiv.uz

W.W.W.kh-davron.uz

Uz.wikipeidiya.org

PEDAGOGIKA

“BUXORO MAORIFI UYI”DAGI TA’LIM-TARBIYA JARAYONI HAMDA O‘QUV-TARBIYAVIY ISHLAR MAZMUNI

*Aslonov Madamin Mansurovich,
Buxoro shahar 24-son “Nurli maskan”
ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori
mansurovich1981@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Buxoro maorif uyi” ning O‘zbekiston ta’limini, ma’naviy-madaniyatini rivojlanishidagi o‘rni haqida fikr yuritilib, ushbu maorif uyining ta’lim-tarbiya jarayoni hamda Buxoro Xalq Sovet Respublikasida xalq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashdagi katta ahamiyatga ega ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: “Buxoro maorif uyi”, madaniyat arboblari, ma’naviyat, madaniyat, rivojlanish, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, buxorolik talabalar, “Ta’lim uyi”, ta’lim va madaniyat markazi.

1920-yil sentyabrda Buxoroda amirlik tartibi ag‘darilgandan so‘ng F.Xo‘jayev boshchiligidagi yangi hukumat zamonaviy maorif tizimini vujudga keltirish choralarini

ko'rdi. 1923-yil aprelda SSSR Xalq Komissarlari Kengashining buyrug'i bilan Moskvada Buxoro "Maorif uyi" ni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish millatlar va maorif bo'yicha komissarliklarga topshirildi. RKP(b) qarori bilan Kreml yaqinidagi 9-sonli "Saxaro-Trust" binosi Moskvadagi BXS talabalari uchun birinchi maktab bo'ldi.

Buxoro maorif uyi odatiy maktablar sirasiga kirmay, balki o'zining mustaqil hayoti bilan yashaydigan ta'lim muassasasi hisoblanib, tarbiyalanuvchilarini turli o'quv dargohlariga o'qishga tayyorlash bilan shug'ullanar edi.

Shu sababli "Buxoro maorif uyi" o'z faoliyatini o'zi tashkil etib, o'quvchilarning milliy xususiyatlari va o'ziga xosligini inobatga olgan holda, shuningdek, tarbiyalanuvchilarining kelgusida o'qishni davom ettiradigan o'quv muassasalari talablarini hisobga olib faoliyat ko'rsatar edi. 1923-yilning yozida ta'lim muassasasi uchun "Mehnat maktabi uchun yangi dastur" qabul qilindi.

"Buxoro maorif uyi"ning 90% tarbiyalanuvchilari rus tilini bilmaganligi sababli dasturni amalga oshirishda qiyinchiliklar kelib chiqdi. Shu sababli asosiy e'tibor rus tilini o'rganishga qaratildi. Chunki rus tilini bilmasdan turib dasturlar hamda o'quv kurslari mazmunini o'zlashtirib bo'lmaz edi.

1923-yilning 9-may kuniga kelib, "Buxoro maorif uyi" da 8 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 55 nafar tarbiyalanuvchilar tahsil olib ularga 7 nafar tarbiyachilar rahbarlik qilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarbiyalanuvchilarning aksariyat qismini qizlar tashkil etib, Buxoro xonligida maktablarda o'qish man qilingan qizlar yangicha madaniyat va bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

"Buxoro maorif uyi" tufayli O'zbekiston o'zining Sora Eshonto'raeva, Maryam Yoqubova, Zamira Xidoyatova, Xolida Xo'jaeva kabi talantli ayollarini tanidi. Shu bilan birgalikda "Buxoro maorif uyi"da Ermatova Baxri, Inoyatova Sharofat, Saidazimova Tursunoy, Mannon Uyg'ur, Farida (Nurixon), Umarov Fatxulla, Nazrullaev Lutfulla, Hidoyatov Abror, Karimov Isoqqori, Qayumov Sharif, Raxmatullaev Xojikul, Siddik Xo'ja, Tabibullaev Sagdi, Toirov, Bobojanov Fozil, Mahmudov Xamid Saidovich, Isomov G'ulom Hodi, Muhamedov Muzaffar

Maxmudovich kabi o'z davrining ta'niqli arboblari, qolaversa O'zbekiston Respublikasining ta'lim, madaniyat va sana't sohalarida juda kata hissa qo'shgan mashhur insonlari tahsil olishdi.

“Buxoro maorif uyi”da o'quvchilar 4 guruhga bo'lingan bo'lib, bu guruhlar tarbiyalanuvchilarning yoshi, tayyorgarligi va asosan rus tilini bilish darajasiga qarab tashkil etilgan edi.

Ish kuni ikki qismga bo'lingan bo'lib, o'quv ishlari tushlikka qadar davom ettirilib, kechki payt ya'ni soat 17 dan boshlab klub mashg'ulotlari olib borilar edi. Rus tilini o'rganishda asosan tabiatni kuzatish, mehnat jarayoni, san'at asarlarini tomosho qilish kabi ko'rgazmalilik metodidan keng foydalanilganligi diqqatga sazovordir. Ammo o'quvchilar sinf va sinfdan tashqari ham o'zlarining ona tillari o'zbek tilida muloqot qilishar edi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga to'sqinlik qildi. Shu sababli “Novaya jizn” rus maktabi o'quvchilari bilan doimiy uchrashuvlar tashkil etilib, rus tilini o'rganishga amaliy zamin yaratildi.

Buxoro maorif uyi faoliyati davomida bir qancha qiyinchiliklar ham yuzaga keldi. Bu holat muassasaga rahbarlik qilgan insonlar faoliyati bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan Buxoro maorif uyining hayotini 2 davrga bo'lib o'rgansa bo'ladi Bular: 1. Dastlabki tashkiliy davr;

2. Burnashev rahbarligidagi davr;

Dastlabki tashkiliy davrda Hodi Fayzi rahbarlik qilgan. Hodi Fayzi kuchli tashkilotchi hisoblanib, ishni g'ayrat bilan boshladi. Uning yordamida “Buxoro maorif uyida” o'z-o'zini boshqarishga qaratilgan qat'iy ichki intizom tashkil etildi. 7 nafar a'zodan iborat birinchi o'quv komiteti tashkil etildi. “Buxoro maorif uyi”da quyidagi bo'limlar ham tashkil etildi:

1. Sog'liqni saqlash; 2. Xo'jalik; 3. Madaniy-oqartuv; 4. O'rtoqlik sudi; 5. Kiyintirish komissiyasi.

Buxorodan tashrif buyurgan o'quvchilar birinchi vaqtda uyning ichki qoidalariga o'rganishi qiyin kechdi. Shu sababli 4 oy davomida yig'ilishlarning 70% ichki tartib qoidalar va intizomga rioya qilishga bag'ishlandi.

Bu borada o'quv komitetining ahamiyati va rolini alohida ta'kidlashimiz zarur. O'quv komiteti rahbariyat va xo'jalik bo'limi bilan birgalikdagi aloqada tarbiyalanuvchilarga kiyim-kechak tanlash va kiyintirish, o'quv materiallarini tarqatish, navbatchilikni ta'minlash va tashkil etish, o'quvchilarning ovqatlanishlarini nazorat qilish, ularning o'quv faoliyatini va o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish kabi vazifalarni bajargan. Shu bilan bir qatorda o'quv komiteti madaniy-oqartuv tadbirlar va turli kechalarni tashkil etishda qatnashgan. O'quv komiteti o'z navbatida Moskvada boshqa ta'lim muassasalari bilan "Buxoro maorif uyi" o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha jonbozlik ko'rsatgan. Bu davrni "Buxoro maorif uyi"ning eng yorqin davri deb atashimiz mumkin. Bu davr tarbiyalanuvchilarni mustaqil faoliyat yuritishga o'rgatib, mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirdi. O'quvchilar bu davrni eng yorqin va samarali davr sifatida eslashadi.

Ikkinchi davr(Burnashev rahbarligidagi davr) tarbiyalanuvchilar xotirasida yaxshilik bilan eslanmaydi. Faqatgina Fayzullo Xo'jaevning Buxorodan kelib maorif uyi masalalari bilan shug'ullanganligidan so'ng maxsus komissiya tuzilib, ushbu komissiya maorif uyidagi noxush holatlar va salbiy jarayonning sababalarini o'rgandi



va uni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgiladi. "Buxoro maorif uyi" ga yangi rahbar Abdulxay Tojiev tayinlandi. Tarbiyalanuvchilar darrov erkinlikni his etishdi.

F.Xo'jaev taklifi asosida yangi o'quv komiteti a'zolari tayinlandi va maorif uyi faoliyati yana shiddat bilan davom ettirildi.

1925 yil Moskvada turli o'quv yurtlarida tahsil olgan talabalar

Markazda O'zbekiston MIQ rahbari Yo'ldosh Oxunboboev, O'ngdan devordan birinchi -Zamira Xidoyatova. Pastda Sora Eshonto'raeva bilan quchoqlashgan Maryam Yoqubova, keyingi Toshxon Sultonova, Lutfulla Narzullaev, Hikmat Latipov, Lev Sverdlin.

Ammo Buxoro Xalq Respublikasining tugatilishi va SSSR tarkibiga O'zbekiston Respublikasi sifatida qabul qilinishi "Buxoro maorif uyi"ning Moskvadagi faoliyatining tugatilishi hamda Samarqandga ko'chirilishi bilan yakunlandi.

Bunday ta'lim va madaniyat markazining tashkil etilishi va taraqqiyotida Rossiya ham ulkan pozitiv rol o'ynadi. Qisqa muddat ichida Rossiyalik mutaxassislarning boy ilmiy va amaliy tajribasi Buxoro va O'zbekiston xalqi uchun yetuk mutaxassislarni yetishtirib berishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

"Buxoro maorif uyi" xalqlar aro do'stlik vazifasini ham bajargan. Bu yerda nafaqat buxorolik bolalar, balki butun O'rta Osiyodan kelgan bolalar ham tahsil olishgan va tarbiyalangan. "Buxoro maorif uyi" tarbiyalanuvchilari safidan akademiklar, injenerlar, arxitektorlar, fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi va ular keyingi avlodning ta'lim-tarbiyasi jarayoniga ulkan hissa qo'shdilar.

ADABIYOTLAR

1. A.Hasanov . "Fayzulla Xo'jaev" Toshkent. 1980 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivlari F-56, op. 1, d.28, 16 v
3. M.Aslonov. "Buxoro maorif uyi"ning ma'naviy-madaniyatini rivojlanishidagi o'rni. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, № 1 71-v 6.
4. Buxoro axbori (Eski Buxoro) gazetasi. 1920-1923-yillar.
5. Qosimov F.H. "Buxoro -Tarix asrlar sadosi".
6. Sadridin Ayniy "Hayoti va ijodi" Toshkent. 1994-yil.
7. Qosimov F.H. "Buxoro Respublikasi tarixshunosligi". Buxoro. 1996-y.

8. “Buxoro sharq durdonasi” 1997-yil.
9. Naimov N. “Buxoro jadidlari” Toshkent. 2000-yil.
10. Ahmedov S. “Jahon xazinasini javohirlari”. Buxoro. 2005-yil.
11. Buxoro tarixi sahifalari. Buxoro. 1993-yil.
12. Lvov N. Tojik teatri tarixi uchun materiallar .Davlat ishlari
13. O‘zbek teatri tarixiga oid materiallar. T. 2, 3. Badiiy akademiyaning San’at tarixi instituti poydevori Uz. 1962-yil.
14. Nurjonov N. X. Professional teatrning shakllanishi, Tojik sovet teatri tarixi (1917-1941). Dushanbe: Donish, 1967. - S. 80-156.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Xudayberdiyev Abdumadjid Abduljalilovich,
Guliston davlat pedagogika instituti
“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasini o‘qituvchisi
Abdumajid85@inbox.uz*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish haqida fikr yuritilgan. Asosiy e’tibor axborot va kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan dars jarayonida sifatli foydalanishga qaratilgan.

Fan va texnika, ayniqsa, axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda har bir inson o‘zining hayotida muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Bunday bilimlarni biz albatta o‘qib izlanishimiz bilan bir qatorda ularni amaliyotda qo‘llay olishimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari, 2020-yil 6-oktyardagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiy va ijtimoiy muhitga, xususan, ta'lim tizimiga keng tatbiq etish bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qarorda yoshlarni ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, ularni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir dolzarb vazifalar belgilab berildi.

O'zbekistonda ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'lash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda va uning huquqiy va me'yoriy asoslari yaratilgan. O'quv jarayonini tashkil etishdan innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Kundan-kunga zamonaviy axborot texnologiyalari sanoat, savdo-sotiq, boshqaruv, bank, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida, transport va aloqada, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy xizmat tizimida, jamiyatimizning barcha soha vakillarida, xuddi shuningdek yoshlarimizning har kungi kundalik hayotlarida chambarchas bo'g'liq bo'lib bormoqda. Talaba-yoshlarimizning ongida turli xildagi axborotlarning saqlanib borishiga sabab albatta bu zamonaviy axborot texnologiyalaridir. [1]

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida talaba-yoshlarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin va olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi.

Multimedia vositalari ta'lim berishning samarali va istiqbolli instrumentlari bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumotlar massivini taqdim etish, ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animatsiyalar, video va boshqalardan foydalanish, axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish Talaba-yoshlarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish

malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi, ta'limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari auditoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini yanada qiziqarli va ishonchli, o'rganiladigan axborotning katta oqimini oson o'zlashtiriladigan qilish imkonini beradi. [2]

O'qitish (mustaqil o'qishdan farqli o'laroq) ta'rifiga muvofiq muloqotli hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarning samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining keng jabhali turlarini salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha to'liq malakaga ega bo'lish har bir yosh avlodga zarurdir. Hozirda fan va texnikaning rivojlanishi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish kabi jarayonlarni samarali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Bunda asosiy o'rinni texnik vositalar – mobil telefon, noutbook, kompyuter va boshqa turdagi vositalar egalladi.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarsiz hordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazir Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzalarida: "Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi"- degan edilar. [2]

Bugungi kunda pedagog kadrlarni uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolariga butun dunyoda katta e'tibor berilmoqda. Bir qator xalqaro tashkilotlarda, jumladan, Jahon ta'limini rejalashtirish instituti (Parij), YUNESKOning ta'lim bo'yicha instituti(Gamburg), Oliy ta'limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta'limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy muassasalarda bu muammo tadqiq etilmoqda.

Mamlakatimizda yangi jahon axborot - ta'lim muhitiga integrallashga yo'natirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqta. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayoning yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarining sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayoni uchun eng muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR

- [1]. D.E.Toshtemirov, M.B.Niyozov, J.D.Saidov "Ta'limda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanma: Toshkent-2020 yil
- [2]. Niyozov M.B., Niyozova G.B. O'quv jarayonida elektron ta'limning imkoniyatlaridan foydalanish. Педагогик ва психологик тадқиқотлар, (2023)1(1), 146–152.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazir Mahkamasi kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.

SHAXMAT O'RGATISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING SHAXSIY SIFATLARINI VA MANTIQUIY FIKRLASH SHAKLLANTIRISHNING TA'LIM AMALIYOTIDAGI HOLATI

Xoliqov Umidjon Kuchqarovich,

Guliston davlat Instituti

«Pedagogika» kafedrasida o'qituvchisi

shax75.75@mail.ru

Abdualimova Madina Akbar qizi,

Ijtimoiy-gumanitar fakulteti o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 36-22 guruh

talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilar, maktabgacha va oilada shaxmat o'rganish orqali mantiqiy fiklash, shaxmat bilan shug'ullangan bolaning bo'sh vaqti, barcha fanlarni o'zlashtirishi osonlashtiradi, intellektual salohiyat yuksaladi, qobiliyatlar bag'ishlangan bo'lib, shaxmat o'yinni orqali ularning diqqat, idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o'stiradi va rivojlantiradi yoritilgan.

Kalit: boshlang'ich sinf o'quvchilar, maktabgacha ta'lim, oilada, shaxmat o'yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, qobiliyat, harakter, sog'lik, ruhiy, jismoniy tayyorgarlik va albatta

Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va bunday komillik darg'alarini etishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Inson kamolotida esa jismoniy va ma'naviy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz boshchiligida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan 5 ta tashabbusi ilgari surildi.[1]

Shaxmat insoniyat kashf etgan eng qadimiy, qiziqarli, jozibali hamda go'zal o'yinlardan biridir. Uning asosiy xususiyati shuki, shaxmatda sport va san'at uyg'unlashib ketgan. Shaxmat qiziqarli va maroqli o'yin. U bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga, fikrlash doirasining o'sishiga, o'sib kelayotgan yosh avlod ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bola yoshligidan shaxmatda yuzaga keladigan variantlarni hisoblay boshlaydi. Ularni solishtiradi, yaxshisini tanlaydi, vaziyatga baho beradi, har doim band bo'ladi. Uning bo'sh vaqti miya uchun kerakli va

foydali mashg'ulot bilan to'ldiriladi. Agar bola shaxmatdagi kombinatsiyalarni topa olar ekan, shaxmat darsidagi qiyin masala yechimini albatta topishga harakat qiladi. [3]

Shaxmatning yana bir o'ziga xos xususiyati bor. U o'zida sport, fan va san'atni mujassamlashtirgan.

Shaxmat nazariyasini mutolaa qilish jarayonida uning yangi qirralarini kashf etish mumkin. Xar qanday yaxshi shaxmatchi esa chiroyli yurishlar-u ajoyib o'yinlardan xuddi musiqa tinglagani, qiziqarli himoya o'qigani kabi zavqlanadi, o'zi ham shunday «san'at asarlari»ni yaratishga intiladi.

Barchamizga ayonki, tarbiya oiladan boshlanadi. Tarbiya ongni, xulq-tvorni, shaxsni har tomonlama rivojlantirishni aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayondandir. Chunki oilada beriladigan bu tarbiya jarayonida faqat bilimlar o'zlashtirilib, malaka va ko'nikmalar hosil qilinmaydi, o'zbek oilasining axloqiy e'tiqodi, his-tuyg'usi, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari, xarakter xususiyatlari tarkib toptiriladi.

Shaxmat o'yini sporti milliy qadriyat ekanligini avvalombor, oilada xis qilib, uni mahallalarda foydalanish bilan umuminsoniy qadriyatga aylantirishga barchamiz mas'ul ekanligimizni va bu orqali o'zbek yoshlarni dunyoga tanitish imkoniyatlari mavjudligini anglashimiz, ushbu masalaga yanada jiddiy qarash zarurligini ko'rsatadi.

Sog'lom farzand esa sog'lom onadan dunyoga keladi. Shu sababdan yurtimizda sportga, ayniqsa, ayollar sportini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Ota-onalar o'zlari ham bolalarga o'yin mazmuni va yo'nalishini taklif etishlari mumkin.

Mamlakatimiz va chet ellarda o'tkazilgan pedagogik, psixologik va fiziologik tekshirishlar, 6-7 yashar bolalardagi bilimlarni o'zlashtirish hamda umumiy o'sishning potentsial ruhiy, fiziologik imkoniyalari hozirgacha faraz qilingandan ko'ra ancha yuqori ekanligidan dalolat beradi. Fantaziya chegaralari odamning mashg'ulotiga bog'liq bo'lib, u kengayishi va torayishi mumkin. Shaxmat o'yini fantaziyani qo'zg'otadi va o'stiradi.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyorsiz diqqat bolaning o'zi uchun qiziq

bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullana olishni nazarda tutadi. Shaxmat o'yinining yana bir jihati xotirani o'stirishga qaratilgandir. Katta maktabgacha yoshdagi bola o'z oldiga maqsad qo'ya oladi. Biror narsani eslab qolishi, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir. Tafakkurni o'stirish obrazli, harakatli, ko'rgazmali obrazli mantiqiy tafakkur, turlarini egallashdan iboratdir. Bola turli rejalar va sxemalardan erkin foydalana olishi lozim. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda mantiqiy tafakkur elementlari shakllana boshlaydi, ya'ni ular xulosa qila oladilar. Mantiqiy qonunlarga ko'ra fikrlaydilar. Bolalar ijodiy qobiliyatini o'stirish deganda tasavvur, hayolning taraqqiyoti va noan'anaviy tafakkur qila olish tushuniladi. Ijodkorlik ko'p jihatdan o'z his-tuyg'ulari, olam haqidagi tasavvurlarni turli usullar bilan bayon eta olishga bog'liq. Buning uchun esa bola har bir narsada uning turli tomonlarini ko'ra olishi, narsaga xos alohida belgilarning barchasini his qilishi, obrazni ko'z oldiga keltira olishi kerak.

Va nihoyat, bolalarni maktabga tayyorlashga yordam beradigan shaxmat o'yini orqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning tahlili bilan tanishtirish, bolada irodaviy sifatlarni malakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada shakllantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4954-son qaroriga muvofiq maktab dasturlari doirasida 150 ta umum ta'lim maktablarining o'quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o'qitishni tashkil etish vazifasi belgilangan. [2]

Ushbu qarorga ko'ra, umum ta'lim maktablarining boshlang'ich (2-sinf) sinfida shaxmat o'quv kursi jismoniy tarbiya fani tarkibiga singdirib o'qitilishi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirliklari, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi bilan o'zaro kelishuvlari asosida belgilandi. Ushbu umum ta'lim maktablarining 2-sinflarida jismoniy tarbiya fani odobnoma fanini 0,5 soatga qisqartirish hisobiga, haftasiga 2,5 soatdan o'qitiladi. [3]

Umum ta'lim muassasalarida shaxmat kursini o'qitishdan maqsadi – o'quvchilarning shaxsiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish xamda ularda umumiy madaniyat, mantiqiy, mustaqil, sog'lom fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'limning bir turi hisoblanib, psixologik jarayonlarini rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga erishishiga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat o'quvchilarni yanada ma'nan etu qilik qilib tarbiyalashda qo'shimcha tarbiya vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shaxmat sport o'yinigina bo'lib qolmay, balki inson xarakteri va shaxsining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida, insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Shaxmatning inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida ko'pgina ilmiy tadqiqotlar (M.Muhiddinov, R.Evqae, A.Toshxo'jaev) olib borilgan. Shuningdek, buyuk tarixiy shaxslar (Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va b.) o'z faoliyatlarida shaxmat (shatranj) o'yinlaridan foydalanganliklari, uning ijobiy ahamiyati haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi. [4]

Haqiqatdan ham, davlatimiz mustaqillik sharoitida ta'lim sohasida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida o'qitishni mantiqiy fikrlash asosida tashkil etish hozirgi kun jamiyat taraqqiyotining talabidan kelib chiqmoqda. Hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish jarayonida shaxmat mashg'ulotlariga e'tibor qaratish ijobiy natija beradi. Shaxmat faqat sport o'yinigina bo'lib qolmay, balki inson harakteri va shaxsining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas'uliyatli bo'lish va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga o'rgatadi. Shaxmat bola uchun ermak, quvonch manbai bo'libgina qolmay, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Shaxmat o'yini jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o'stiradilar.

Shaxmat o'yini ruhiyatini tetiklashtirishga yordam beradi. Shu sababli men 1-sinf o'quvchilar uchun shaxmat alifbo kitobni yaratmoqda. Bu kitobning ayrim qismlari bilan tanishtirib o'taman.

Shaxmat «Alifbo»si alifbe uslubida qurilgan (yaratilgan) shuning uchun bu kitobdan foydalanish mumkin deb emas, balki kichkintoylarni uni nafaqat maktabda, balki uyda ham parallel ravishda o'rgatib borish kerak. Bu bolaga grammatik hisob- kitob va amallarni tezroq o'rganishida yordam beradi.

Ma'lumki, shaxmat bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qilishi bilan bir qatorda ularning intellektual salohiyatini, fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu jarayonni, ya'ni shaxmatning bolada qanday ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishini quyida izohlashga harakat qilamiz. [5]

Diqqatni jamlash: shaxmat o'ynagan bola taxtadagi vaziyatlarga qarab diqqatini jamlaydi. Diqqatni bir joyga jamlay olish fikrlashning bir bosqichidir.

Reja tuzish va taqlil qilish: bola shaxmat taxtasidagi vaziyatga qarab, raqib shohini mot qilish uchun turli yo'llar izlaydi, reja tuzadi, tahlil qiladi.

Qaror qabul qilish: favqulodda yuzaga kelgan kutilmagan holatni bartaraf etish uchun “Yurish kerakmi?”, “Hujum qilish kerakmi?”, “Himoyalani kerakmi?” kabi qarorlarni bolaning o'zi tezkorlik bilan qabul qiladi. Bu esa o'z navbatida uni mustaqil fikrlashga, natijani hisobga olgan holda qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Mas'uliyatni qis qilish: o'yin jarayonida yosh shaxmatchining tajribasi oshib boradi. Turli musobaqalarda ishtirok etadi. Jamoa azosi sifatida maktab sharafini himoya qilish uchun ko'proq tajriba to'plashga, mahoratini oshirishga harakat qiladi. Bunda bolaning mas'uliyatni his etish ko'nikmasi shakllana boradi.

Do'stona munosabat: o'quvchilarda birgalikda shaxmat o'ynash orqali o'zaro do'stona munosabat shakllanadi, bu jarayon bolaning kirishimli bo'lib ulg'ayishiga ham xizmat qiladi.

Xotiraning rivojlanishi: eng chiroyli yurishlar, kombinatsiyalar, etyud va masalalar ularning yodida qoladi. Keyingi o'yinlarda bu yurishlarni eslab, amaliyotda

qo'llashi bir tomondan ularni g'alabaga yaqinlashtirsa, yana bir tomondan xotirasi mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

Xulosa qilish qobiliyati: sportda hamma vaqt ham omad kulib boqavermaydi. Ba'zan mag'lubiyatga ham uchrash mumkin. Har bir sportchi o'z mag'lubiyatidan to'g'ri xulosa chiqarganidek, yosh shaxmatchilar ham “Qaysi yurishda xato qildim? Xato qilmaslik uchun nima qilish kerak edi?” deb o'ylaydi. Keyingi musobaqalarda shu xatoni takrorlamaslikka harakat qiladi. Demak, bolalar o'z xatolariga tanqidiy ko'z bilan qarashni, har bir holatdan o'ziga kerakli xulosa chiqarishni o'rganadi. Shuni ta'kidlash muhimki, xulosa chiqarishni o'rgangan bola hayotda ham murakkab vaziyatlardan tez chiqib ketishning choralarini topa oladi. [7]

Shaxmat o'yini boshlang'ich sinf o'quvchilarning xotirasini kuchaytirishda, fikrlashdagi parisonxotirlikni yo'qotishda muhim omil vazifasini bajaradi. Yuqorida bildirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilarni ijtimoiy taraqqiyotga mos holda tarbiyalash, ularning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini zamon talablari darajasida shakllantirish borasida bir qancha olimlar o'z tadqiqot ishlarida ilmiy asoslangan fikrlarini bayon qilishgan. Ularga tayangan holda, biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxmat o'yinlarini tashkil qilish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

-shaxmat o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda milliy metodologik, tarixiy va mantiqiy ilmlarga tayanish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarda shaxmat o'yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda nisbatan yangicha yondashishni qaror toptirish;

-amaliy va nazariy mashg'ulotlarda shaxmat o'yinlarining o'rni va mavqeini belgilash;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarda shaxmat o'yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy shakllari va tamoyillarini ishlab chiqish;

-o'rta maktab tizimidagi fakultativ darslar rejasiga shaxmat o'yini kursini kiritish;

-maktab yoshlari orasida har yili shaxmat bo'yicha maktab, tuman, viloyat, respublika an'anaviy musobaqalarini o'tkazish;

-iqtidorli, mantiqiy fikrlaydigan bolalar orasidan respublika shaxmat maktabi tashkil etish chora va tavsiyalarini bildirmoqchimiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shaxmat o'yini boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqlini o'stirish barobarida, mustaqil, har tomonlama to'g'ri, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ulkan imkoniyalarga ega deb hisoblaymiz. Shaxmat boshlang'ich sinf o'quvchilarni axloqiy, ruhiy, ma'naviy jihatdan sog'ligini ta'minlaydi. Shaxmat o'quvchi-yoshlarning fanlarni a'lo darajada o'zlashtirishga yo'l ochib beradi. Shaxmat o'ynash qobiliyati shakllangan bola hech qachon yomon yo'lga kirmaydi, shundan komillikka intilib yashashga o'rganadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan Besh muhim tashabbus

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi "Shaxmatni yanada shakllantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 5 avgustdagi Shaxmatni yanada ommalashtirish va shakllantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-347-son qarori.

4. У Холиқов О'рта Осиё та'лим ва инноватсиялар журнали 1 (2), 28-37 [Бошланғич синф ўқувчиларда шахмат ўргатиш орқали мантиқий фикрлаш ва шахсий сифатларини баҳолашнинг инновацион усуллари](#)

5. UK Khalikov [PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN](#) Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23

6. Xaylayev, Mamatqul “Shaxmat alifbosi”. Uslubiy qo‘llanma “Tafakkur”, 2015. 12 b.

7. UK Xoliqov [YOSHLAR TAFAKKURINI SHAKLANTIRISHDA SHAXMATNING O‘RNI](#). Academic research in educational sciences 2 (CSPI conference 3), 538-541

TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Fayoz Vaxobjonovich Xalilov,

Buxoro muhandislik-texnologiyalar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda innovatsion yondashuv va ta’lim platformlaridan samarali foydalanish bo’yicha ma’lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, mustaqil ish, innovatsiya, talaba, platforma

Bugun eng ko‘p ishlatadigan so‘zlarimizdan biri bu “innovatsiya”, ingliz professori V.R. Spenser “Innovatsiya – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin” [1] deb ta’rif beradi. Rossiyalik olimlar A.Kulagin “Innovatsiya – bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalardagi yangilikdir” [2] deb ta’rif beradilar. D.Forining “innovatsion imkoniyatlar - bu muntazam ravishda kombinatsiyalashgan bilimlarni kashf qilish, ulardan foydalanish demakdir. Bunda kombinatsiyalashgan jarayonlarda asosiy e’tibor beriladigan jihat – bu bilimdir” [1] deb ta’kidlaydi. I.Balabanov “Innovatsiya-kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko’rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir” deb ta’riflagan.

Ta’lim tizimida ham yangi innovatsiyalarni qo‘llash bugun yangilik emas. Bu ta’lim tizimiga yangi zamonaviy texnika, texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan bog‘liq faoliyatdir.

Zamonaviy o'qitish tendentsiyasida juda katta e'tibor talabaning o'qituvchi nazoratiga mustaqil ishlarini samaradorligini, mahsuldorligini, ilmiy amaliy salohiyatini va boshqa shu kabi omillarini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kun oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik o'quv rejalariga asoslanib, shuni ayta olamizki, majburiy va tanlov fanlarini o'qitishda asosan talabalarning o'z ustida ko'proq o'qib o'rganishlari, ilm olishlari uchun har bir fan tarkibining 60% ni mustaqil ta'lim soatlari tashkil etmoqda. Fan bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlarni doimo o'qituvchi rahbarligida bajarish mushkul, sababi turli xil topshiriqlar, bajarilish shakllari turlicha va nazorat mexanizmlarini inobatga olgan holda, uning bajarilishi va qabul qilinishini inobatga olgan holda ta'lim platformalarini ishlab chiqish lozim [3].

Shuni inobatga olib, ta'lim tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rolini oshirish kerak. Tezkorlik bilan rivojlanayotgan davrida mustaqil ta'limni tashkil qilishga juda katta e'tibor qaratilishi kerak. E'tiborli tomoni shundagi, axborotli jamiyatning rivojlanishi oliy ta'lim muassasalari oldiga zamon talablariga mos keladigan kasbiy faoliyat mutaxassislarini tayyorlashda nafaqat o'z mutaxassisligini «yaxshi biladigan, o'zlashtirgan» mutaxassisni emas balki, eng muhimi shundan iboratki, ilmiy salohiyatli «mutaqil fikrleydigan», o'zining kasbiy salohiyatini «baholay oladigan», «mutaqil tarzda maqsadga erishish» «mutaqil tarzda qaror qabul qilish» ko'nikmalariga ega bo'lgan, olgan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyat uchun qo'llashga yo'nalitira oladigan, faol, izchil «shakllangan» kompetentli mutaxassisni tayyorlashda e'tiborni mustaqil ta'limni tizimli va to'g'ri tashkil qilishga qaratishni bosh mezon darajasiga olib chiqishni talab etmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy sharoitlarda axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha yondashuvlarda kardinal o'zgarishlar qilinmoqda. Aynan talabalar mustaqil ishlarini bajarishlari uchun qulay interfeysga ega ta'lim platformalarni joriy etish talab etiladi. Bunday axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim platformalariga talabaning fanlar bo'yicha mustaqil ishlarini istalgan vaqtida qabul qilish, bajarilgan topshiriqlarni qay darajada bajarilganligini, tezkor va ob'ektiv baholash imkoniyatlarini yaratish lozim. Ushbu

orqali talabalar o'z bilimlarini nazorat qilishlari, talabalar o'rtasidagi reytinglariga ega bo'lishlari hamda ular fan o'qituvchilari tomonidan doimiy nazorat bo'lishlari bilan birga monitoring olib borish imkoniga ega bo'ladilar. Talabalar real vaqt rejimida fan o'qituvchilari bilan fikr, ma'lumot almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu ta'lim platformasi axborot almashish va kommunikatsiyalar uchun (geografik, masofaviy, oliy ta'lim muassasasidan tashqarida) va vaqt chegaralarini (dars jadvalidan tashqari, xohlagan vaqtda) kengayishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki oliy ta'lim muassasalarida talabaning mustaqil ishini axborot texnologiyalari asosida tashkil qilishga bo'lgan bunday e'tibor dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Talabaning mustaqil ishining mohiyati, o'quv jarayonida tutgan o'rni, mustaqil ishlarini samarali tashkil qilishning usullari va shakllari, sharoitlari bo'yicha ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan, masalan L.G.Vyatkina, M.G.Gorunova, B.P.Esipova, I.I.Ilyasova, P.I.Pidkasistiy, V.L.SHatunovskiy va boshqalar, respublikamiz pedagog olimlaridan A.A.Abduqodirov, Saidaxmedov, M.Aripovlar boshqalar [3].

Har qanday sharoitda yaxshi va sifatli ta'lim olish orqali kompetentli mutaxassis bo'lish murakkab, chunki auditoriyada olingan bilimlarning o'zi etarli emas. Talabaning mustaqil ishiga rahbarlik qilish va tashkil qilishning asosiy printsiplarini ko'rib chiqqanda juda katta e'tiborni talabada o'quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlashning mustahkam ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratish kerak. Internet muhitida ta'lim platformalarini keng targ'ib etish juda muhim omil hisoblanadi. Talabalarda topshiriqlarni, o'quv-ilmiy izlanishlarni mustaqil tarzda bajarish va nazorat qilish bo'yicha tajriba metodikalari shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.
2. Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55.
3. Юсупов Ф. Акт соҳасида касбий таълим мутахассислигида талабалар мустақил ишларини ташкил қилишда инновацион технологияларнинг роли/ Олий

таълим муассасаларининг ўқув жараёнида илғор педагогик ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг жорий этилиши: амалиёт ва истиқболлар-2018 йил 25 октябр, Тошкент,-210-213 бет.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA KEYS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Dilnora Farxod qizi Bahromjonova,

Navoiy davlat pedagogika instituti

II-bosqich magistranti

dilnorabahromjonova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida keys-stadi texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv motivatsiyasini oshirish muammosi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: keys-stadi texnologiyasi, analitik mahorat, ko'nikma, mahorat, qobiliyat, introspektsiya.

Motivlar - bu shaxsning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan va uni ma'lum bir faoliyatga undaydigan ichki kuchlar. L. I. Bojovich tomonidan taklif qilingan motivning ta'rifi eng to'liqdir: motiv - bu faoliyat amalga oshiriladigan narsa, "tashqi dunyo ob'ektlari, g'oyalar, his-tuyg'ular va tajribalar motiv bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, ehtiyoj o'z mujassamini topgan hamma narsa"[2]. A. N. Leontev, o'zining faoliyat nazariyasiga ko'ra, "motiv" atamasini "ma'lum shartlarga bo'lgan ehtiyoj aniqlangan va uni rag'batlantirish sifatida qaysi faoliyatga yo'naltirilganligini bildiruvchi maqsad" sifatida ishlatadi. [6] Pedagogik-psixologik adabiyotlarni o'rganib chiqib, bir tomondan, motivatsiyaning rivojlanishi o'qituvchining har bir o'quvchida o'quv jarayoniga munosabatni shakllantira olishiga bog'liq degan xulosaga keldik. Boshqa tomondan, ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini izlab, biz ta'limda hali keng qo'llanilmagan innovatsion texnologiyalarga murojaat qildik. Ulardan biri o'quvchilarni turli vaziyatlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni faol yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishga jalb qilish orqali ularning motivatsiyasini rivojlantirishga imkon

beradigan keys texnologiyasi yoki keys usulidir. Keys texnologiyasi qanday ishlashini, uning mohiyati nimada ekanligini tushunish uchun keys, keys usuli, keys texnologiyasi kabi asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsatish kerak.

Keys texnologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: vaziyatni tahlil qilish va muammoni qo'yish ko'nikmalarini egallash, o'z nuqtai nazarini aniq va to'g'ri bayon qilish ko'nikmalari, guruh tahlili asosida mustaqil qaror qabul qilish malakasi. Aynan 7-11 yoshda ushbu ta'lim texnologiyalari muayyan vaziyat misolida bolalarda o'qishga yuqori motivatsiyani shakllantirishga imkon beradi. Maktab o'quvchilari ma'lum bir qiyinchilikni yengishadi va ularning faolligi va mustaqilligi yuqori darajaga yetadi, bu esa o'qish uchun ijobiy motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Shu tarzda olingan ma'lumotlar mustahkamroq so'raladi va uzoq vaqt esda qoladi, o'quv natijalari yaxshilanadi, o'quvchilar o'rganganlarini yangi vaziyatlarda osonlik bilan qo'llashlari va shu bilan birga o'zlarining qobiliyatlari va ijodkorliklarini rivojlantirishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchining hamkorlik qilish qobiliyati, yetakchilik hissi va guruh qarori uchun mas'uliyat kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchi ishni yechish jarayonida boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda kerakli ma'lumotlarni tez topishga, matn mazmunini tahlil qilishga, o'z nuqtai nazarini to'g'ri va ishonchli bayon etishga, suhbatdoshni tinglab, muloqotga kirishish, o'z fikrini, o'z nuqtai nazarini to'g'ri va ishonchli bayon qilishni o'rganadi, muammolarni jamoaviy muhokama qilishda ishtirok etish ko'nikmalari shakllanadi.

Keys hayotdan olingan misol bo'lib, u shunchaki real vaziyatning ishonchli aks etishi emas, balki bu vaziyat tahlil qilinadigan yagona axborot majmuasidir. Qoidaga ko'ra, ish uch qismdan iborat:

- 1) aniq vaziyatning tavsifi;
- 2) ishni o'rganish uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar;
- 3) ish uchun vazifalar. [10]

Keys texnologiyasi turli omillarni faollashtirishga imkon beradi: ma'lum bir kurs bo'yicha nazariy bilimlar, o'quvchilarning amaliy tajribasi, o'z fikrlarini, g'oyalarini, takliflarini ifodalash qobiliyati, muqobil nuqtai nazarni tinglash va o'z fikrini asosli

ravishda ifodalash qobiliyati. Ushbu texnologiya yordamida o'quvchilar tahliliy va baholash ko'nikmalarini namoyish etish va yaxshilash, jamoada ishlashni o'rganish, nazariy materiallarni amaliyotda qo'llash va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'rganish motivatsiyasining samarali rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu usuldan foydalanish ham zarur, chunki u haqiqiy hayotda muammolarni hal qilishning noaniqligini ko'rishga, o'rganilgan materialni amaliyot bilan bog'lashga tayyor bo'lishga imkon beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, uslubning shubhasiz afzalligi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, balki o'quvchilarning qadriyatlarini tizimini, hayotiy munosabatlarini rivojlantirishdir.

Tavsiya etilgan ish tartibi:

- 1 bosqich – muammoga kirish;
- 2-bosqich - keys-topshiriq bo'yicha ma'lumot to'plash;
- 3-bosqich - qaror qabul qilish;
- 4-bosqich – muqobil variantlarni ko'rib chiqish;
- 5-bosqich - qiyosiy tahlil;
- 6-bosqich – yechimlar taqdimoti.

Shunday qilib, o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirish muammosini hal qilishda keys texnologiyasining imkoniyatlarini nazariy o'rganishimiz natijalarini umumlashtiramiz.

1. O'quvchilarning ish bilan ishlashga real hayotiy vaziyatlarga "qo'shilishi" hayot va mehnat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi, o'rganilayotgan materialning ahamiyatini, uning amaliy yo'nalishini ko'rsatadi.

2. O'quvchilarning barcha texnologik bosqichlarda faoliyatning turli xarakterini o'z ichiga olgan holda keys bilan faol ishlashi ularning dunyoqarashining rivojlanishiga, fan va umumta'lim kompetensiyalarining shakllanishiga yordam beradi.

3. Ushbu texnologiyada o'quvchilarning mustaqil ishlarining yuqori ulushi ularning kognitiv mustaqilligini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi, bu esa o'quv faoliyatida motivatsiyani rivojlantirishning muhim shartidir.

4. Keys topshirig'ining va ishni muhokama qilishning munozarali xarakteri o'quv jarayonidagi raqobat elementini o'z ichiga oladi va o'quvchining shaxsiy qiziqishini belgilaydi, mehnat qobiliyati kabi shaxsiy manfaatlarini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.

5. Keyslarning yaxshi ma'lumotlar bazasi mavjud bo'lsa, o'quvchilarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning turli bosqichlarida keys texnologiyasidan foydalanish mumkin .

Shunday qilib, o'quv jarayonidagi keys texnologiyalari quyidagilarga imkon beradi:

- O'quvchilar o'rtasida o'quv motivatsiyasini oshirish;
- O'quvchilarda keyingi ta'lim va kasbiy faoliyatida talab qilinadigan intellektual ko'nikmalarni rivojlantirish.

ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU. 2006 y.
2. [Божович Л.И.](#) Личность и ее формирование в детском возрасте. (Психологическое исследование.) М., «Просвещение», 1968.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
3. Долгорукову А. Кейс-метод как современная технология профессионально-ориентированного образования.<http://www.evolkov.net/case/case.study.html/> (12.02.2013).
4. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.: 2001
5. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе.-М.: Знание.
6. Леонтьев.А.Н. Мотивы, эмоции и личность. М., 1971. 178 ст.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. "Nasaf", 2000 y.-80 b.
8. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: "Fan". 2005.
9. Pityukov V.Yu. Osnovi pedagogicheskoy texnologii. - M.: Gnom-Press, 2007 (uchebnoe posobie).

10. Ю.П. Сурмина. Кейс-анализ, или анатомия кейс-метода innovatsiyalar va rivojlanish, 2002. 286 b.

АВТОМАТИЗАЦИЯ ПРОВЕДЕНИЯ МОНИТОРИНГА УСПЕВАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ SMART-ТЕХНОЛОГИИ

Зайниддин Рашидович Хўжаназаров,

Бухарский инженерно-технологический институт

Аннотация: В работе анализирована структура Web- приложения системы мониторинга успеваемости студентов. Разработана методика оценивания знаний студентов на основе SMART-технологии с использованием информационных технологий.

Ключевые слова: Образовательное учреждение, принятие решения, управление, оптимизация, информатизация.

В настоящее время информационные технологии становятся неотъемлемой частью жизненного пространства человека. Сегодня с уверенностью можно констатировать факт существования нового цифрового (сетевое) поколения людей, для которых мобильный телефон, компьютер и Интернет являются такими же естественными элементами их жизненного пространства, как природа и общество. Для развития современного образования уже недостаточно влияния человеческого капитала. Необходимо изменять саму образовательную среду, не просто наращивать объёмы образования трудовых ресурсов, должно качественно измениться само содержание образования, его методы, инструменты и среды, необходим всеобщий переход к SMART образованию.

SMART образование ставит перед университетами новую глобальную задачу: подготовку кадров, обладающих креативным потенциалом. Кроме того, на основе SMART – технологии можно автоматизировать проведения мониторинга успеваемости студентов. Для аналитических исследований деятельности вуза обязательно должны быть использованы сведения, которые были получены в процессе осуществления мониторинга успеваемости.

В вузах на кафедры и другие учебные подразделения придаются функции по проведению мониторинга успеваемости студентов. Проведение мониторинга предназначено как для обеспечения органов управления вуза надежными и достоверными данными, так и для быстрого обнаружения проблемных в организации и проведении учебного процесса.

На основе SMART –технологии мониторинг успеваемости студентов должен проходить поэтапно в следующем последовательности [1]:

Первый этап. Сбор, анализ, классификация и систематизация информационных данных и ресурсов из журналов учета посещаемости и успеваемости студентов на учебных занятиях. Этот этап является наиболее продолжительным по времени, отведённого на мониторинг успеваемости.

Второй этап. Вычисление ключевых показателей успеваемости обучающихся, а далее их анализ.

Третий этап. Формируются выводы и заключения об успеваемости студентов вуза на базе показателей, вычисленных на втором этапе.

Обработка значительного количества информационных данных в ручном режиме требует большого количества времени и дополнительного вспомогательного персонала. На всех этапах мониторинга при ручной обработке информации очень часто появляются ошибки. Для повышения производительности процессов мониторинга успеваемости студентов вуза и его качества, т.е. безошибочности, необходимо внедрить в процесс мониторинга программно-технические средства автоматизации на базе SMART- технологии.

В вузах нашей республики программно-технические средства автоматизации мониторинга успеваемости разнородны по своему составу и содержанию. Это в основном специально под настраиваемые файл-серверные системы управления базами данных, которые позволяют в специально разработанные формы вводить данные об успеваемости студента и осуществлять запросы с расчетом показателей успеваемости в автоматическом режиме. Достоинством применения систем управления базами данных является сравнительная упрощенность в разработке и

выполнения программ мониторинга, а также учет успеваемости студентов по каждой дисциплине, структурному подразделению вуза и т.д. При этом за качество ввода информационных данных в такие системы, их эксплуатацию и обслуживание отвечает администратор баз данных, который должен иметь не только высокую квалификацию в программировании, но и знать структуру управления вуза [3].

Следует отметить, что архитектура доступа к информационной системе мониторинга успеваемости должна быть построена на технологии доступа – «клиент-сервер». Клиент-серверная технология в отличие от файл-серверной позволит снизить нагрузку информационных данных на сеть, повысит удобство её управления и администрирования, а также применять тонкие клиенты, что экономически очень выгодно при большом количестве точек доступа [2].

Наиболее перспективными направлениями развития инфокоммуникационных систем мониторинга успеваемости студентов являются веб - приложения, которые должны работать во взаимосвязи с клиент-серверными системами управления базами данных. Это обеспечить оперативный доступ к информационным данным об успеваемости студентов и их надежное хранение.

В заключении отметим, что инфокоммуникационная система мониторинга успеваемости в любом вузе усилит мотивацию студента повысить свою обучаемость и компетенции путем анализа результатов оценивания учебной работы каждого студента.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Гришнова Е.Е. Модернизация учебного процесса: проблемы и тенденции // Высшее образование в России. – 2011. – № 8-9. – С. 41-46.

2. Ерохин В.В. Проектирование систем электронного документооборота вуза // Тенденции развития науки и образования. – 2018. – №42, Ч.5. – С. 8-11.

3. Жетесова Г.С., Ерназарова М.А. Автоматизация контроля знаний студентов при модульной форме обучения на основе программного обеспечения // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 6-2. – С. 355-359.

XELSINKI XUSUSIY MAKTABINING O'QUV DASTURLARI VA REJALARI

Norova Nargiza Xalmamat qizi,

Nukus davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) I bosqich tayanch doktoranti

norovanargiza592@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada jahonda o'zining ta'lim tizimi bilan mashhur bo'lgan Finlandiya mamlakatining xususiy maktablaridan biri bo'lgan Xelsinki Xalqaro Maktabining o'quv rejalari va dasturlari haqida ma'lumot berilgan. Finlandiya ta'lim tizimi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Finlandiya, Xelsinki Xalqaro Maktabi, o'quv dastur, o'quv reja, xususiy maktab, dars, ta'lim sifati, baholash mezon.

Barcha mamlakatlar singari Finlandiya ham ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratgan va buning natijasida jahonning eng mashhur ta'lim beruvchilari qatoridan joy olgan. Finlyandiya milliy ta'lim tizimlarini xalqaro miqyosda taqqoslaydigan PISA tadqiqotida doimiy ravishda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda, garchi so'nggi yillarda Finlandiya eng yuqori pog'onadan siqib chiqqan bo'lsa ham. 2012 yilgi tadqiqotda Finlandiya o'qish bo'yicha oltinchi, matematika bo'yicha o'n ikkinchi va fan bo'yicha beshinchi o'rinni egallagan bo'lsa, 2003 yilgi tadqiqotda Finlandiya ham fan va o'qish bo'yicha birinchi va matematika bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan. Finlandiya oliy ta'limi Jahon iqtisodiy forumi tomonidan birinchi o'rinni egallagan [1].

Xo'sh, buning sabablari nimada? Finlandiyada boshlang'ich ta'lim 4 yoshdan 10-11 yoshgachani (5-sinf) o'z ichiga oladi va "Boshlang'ich yillar" dasturi asosida 4 yoshli bolalar bog'chasida boshlanadi. Bu dasturda bolalarni har tomonlama rivojlantirishga mos keladigan o'quv faoliyatiga jalb qilish, bilim, tushuncha, ko'nikmalarni rivojlantirishni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish uchun ishlab chiqilgan. Har bir o'quv dastur integratsiyalashgan yondashuvlar asosida tuzilgan. Finlandiya so'ngi 30 yil ichida ta'lim tizimida katta islohatlar olib bordi va yuturlarga erishdi. Finlandiya

maktatablarida yana bitta metodlardan biri bu, deyarli raqobat yo'q. Ya'ni o'quvchilarga baxo qo'yishda Finlandiya baxo tizimi mavjudmas. Ularda kredit ball tizimi mavjud bo'lib, maktabni bitirguniga qadar o'sha ballni to'plashlari zarur. O'quvchilar bir biri bilan taqqoslanmaydi. Agarda o'quvchi o'zlashtira olmasa u bilan fan o'qituvchisi ko'proq shug'ullanadi [2].

Finlandiya bog'chalari IB o'quv dasturi doirasida erta bolalik ta'limi va parvarishi bo'yicha o'quv dasturini joriy etgan va shu modellar asosida ta'lim beriladi. IB - Xalqaro bakalavriat (IB) xalqaro ta'lim bo'yicha global yetakchi bo'lib, izlanuvchan, bilimli, o'ziga ishongan va g'amxo'r yoshlarni rivojlantiradi. IB dasturlari maktab yoshidagi o'quvchilarga o'z ta'limini egallashga imkon beradi va ularga tez o'zgarib turadigan dunyoda o'zgarish qilish va rivojlanish uchun kelajakka tayyor ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu dunyo bo'ylab maktablar hamjamiyatiga xalqaro ta'limning yuqori sifatli dasturlarini taklif etadi. 145 mamlakatda 4000 dan ortiq IB maktablari mavjud. Xelsinki Xalqaro Maktabi Finlandiyaning 2005 yilda to'liq IB akkreditatsiyadan o'tgan birinchi maktabiga aylandi. Bundan tashqari Boshlang'ich Yillar Dasturi (PYP); O'rta Yillar Dasturi (MYP) va Diplom dasturi (DP) bilan birgalikda dars jarayonlari olib boriladi. Bu dasturlar maktab o'quvchilariga muvaffaqiyat qozonish imkonini beradigan ko'nikmalar, munosabatlar, ishonch va mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Xelsinki maktabi IB dasturi o'quvchilarning qiziqishlariga va so'rovlariga asoslangan. Ularning eng katta g'oyasi o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish, bu g'oya o'quvchilar jarayonni shakllantira olsa, o'rganish samaraliroq bo'lishini tushunishga asoslanadi, shu asosida mustaqil fikr yuritishlarini, dunyoni qiziquvchanlik bilan kashf etishlarini va o'z fikrlarini ijodiy ifoda etishlarini ta'kidlaydi. Maktabda ta'lim ingliz tilida olib boriladi, chet tili sifatida shved, ispan, frantsuz va fin tillari, shuningdek, fin ona tili taklif etiladi. Ingliz tili maktabning akademik va ijtimoiy tilidir va quyidagicha talablar mavjud:

- Maktab Discoverydan (4 yoshdan 5 yoshgacha) 8-sinfgacha ingliz tilini oldindan bilmagan talabalarni qabul qiladi.

- O'rta maktab (9-12-sinflar). O'rta maktab diplomi dasturida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun ingliz tilini yetarli darajada bilishlarini ko'rsatishlari kerak.

Barcha ta'lim muassalari o'z oldiga bajarishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalarni reja qilib oladi. Bu rejalar umumbashariy tamoyillar asosida tuzilganligi e'tirofga loyiqdir. Xelsinki Xalqaro maktabining missiyalari quyidagilar:

- Hamma uchun faravonlik, sog'lik va baxtga intiling;
- Jamiyatda barcha turdagi odamlar o'zlarini qadrli deb bilishlarini ta'minlash;
- Muhim bo'lgan o'z qarorlarini qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- Biror kishining harakatlari tobora murakkab dunyoga hissa qo'shishini biling;

Bu missiyalar maktabning o'quv reja va dasturlariga singdirilgan va darslar shu rejalar asosida olib boriladi. Xelsinki maktabining ta'lim ta'rifi quyidagi tamoyillarni o'zida mujassam etgan:

- O'rganish individualdir;
- O'rganish ijtimoiydir;
- O'rganishni aks ettirish;
- O'rganish umr bo'yi davom etadi

Bundan tashqari, Xelsinki Xalqaro maktabi NEASC tashkilotiga a'zo. NEASC-Yangi Angliya Maktablar va Kollejlar Assotsiatsiyasi mustaqil, ixtiyoriy, notijorat a'zolik tashkiloti bo'lib, barcha talabalar uchun yuqori sifatli ta'limni baholash, qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish uchun AQSh va butun dunyo bo'ylab 1500 dan ortiq davlat, mustaqil va xalqaro maktablar bilan hamkorlik qiladi. NEASC biz qo'llab-quvvatlagan har bir muassasaning o'ziga xos madaniyati va kontekstini hurmat qilish bilan birga, mazmunli, davomli butun maktabni takomillashtirish jarayonini ta'minlashga intiladi. NEASC akkredatsiyasi: jahon miqyosida tan olingan mukammallik standarti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. wikipedia.org/wiki/Education_in_Finland

2. Heidi Krzywacki. Leila Pehkonen and Anu Laine. University of Helsinki. Promoting mathematical thinking in Finish mathematics education.

TEST TUZISHNING ASOSIY QOIDALARI, TAMOYILLARI VA TEST TURLARI

Sevinchov Ne'mat Gulboyevich,

organik va fizkolloid kimyo kafedrası dotsenti k.f.n

G'aniyev Baxtiyor Shukurullayevich,

organik va fizkolloid kimyo kafedrası asisteni

Halimova Maftuna Obidovna,

BuxDU, organik va fizkolloid kimyo kafedrası 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada testlarning qo'llanilishi, qo'llash bo'yicha tavsiflar va ularning turlari, testing vazifasi va testlarning tuzilish mohiyati batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, test, testologiya, test tuzish qoidalari, fan, ilmiy-nazariy g'oyalar, test tushunchasi, pedagogik testologiyaning tavsifi, shakl va metodlar.

Test tuzish metodikasining asosiy qoidalaridan biriga nima maqsadda test tuzilayotganligini aniqlashtirish kiradi. Bunda test topshiriqlarini tuzish va sinash metodikasi, test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar, test rejasini ishlab chiqish, fan bo'limlari bo'yicha test rejasi, o'quv materialini o'zlashtirish darajalari bo'yicha test rejasini aniqlashtirib olish zarur [1-5].

Testlarning umumiy maqsadi – butun ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'lsa-da, har bir test sinovi o'z navbatida xususiy maqsadni ko'zlab tuzilishi va o'tkazilishi kerak.

Jahonda shu paytgacha qo'llanib kelayotgan testlarning aksariyati bilim, malaka va ko'nikmalarni baholash hamda nazorat qilish uchun yaratiladi. Testlarning quyidagi maqsadlarda qo'llanishi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega [3,5].

1. Qo'llanilish maqsadiga ko'ra testlar uch turga bo'linadi:

Tashhis qo'yuvchi testlar fan o'qituvchisi uchun juda muhimdir. Ular o'quv dasturining eng bo'sh o'zlashtirilgan bo'limlarini aniqlashga yordam beradi hamda yirik

bo'limlar o'rganilgandan so'ng o'tkaziladi. Natijada talabalarning javoblariga qarab, ular qaysi mavzularda xatoliklarga yo'l qo'yganlarini ko'rish mumkin.

Taxmin qiluvchi testlar ham asosan o'qituvchi uchun ahamiyatga ega. Ma'lumki, til o'rgatish jarayoni bosqichma-bosqich olib boriladi.

Vaziyatni ko'rsatuvchi testlar avvalgi turlardan farqli ravishda, tez-tez o'tkazilib turadi. Ma'lum mavzu o'rganilayotgan vaqtda talabaning bu mavzuga bo'lgan munosabatini, ya'ni uning qiziqishini, layoqatini va boshqa ko'p jihatlarini aniqlashda bunday sinovlar juda foydalidir.

2. Tuzilishiga ko'ra testlarning ikki turi ma'lum:

Oddiy (bir shakldagi topshiriqlardan iborat) testlar keng qo'llanadi, chunki ularda bir turdagi vazifalar, masalan, tanlash yoki berilgan tasdiqlarni o'zgartirishdan iborat topshiriqlar beriladi.

Murakkab testlar turli shakldagi topshiriqlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, dunyoga mashhur Michigan testi xorijiy davlatlardan kelgan va Amerika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirayotganlarning ingliz tilidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshiradi. U uch variantdan iborat bo'lib, har bir variant 4 qismdan iborat. Bular: yozma insho, og'zaki nutqni tushunishni tekshirish, leksika va grammatika bo'yicha bilimlarni aniqlash hamda o'qish qobiliyatlarini tekshirishdan iborat. Bunday testlar tajribasi kam bo'lgan sinalayotganlar uchun juda murakkab hisoblanadi.

3. Testlar qo'llanilish davriyligiga ko'ra uch xil bo'ladi:

Kundalik testlar har bir mashg'ulotda ma'lum bir mavzuni yoki dasturning muayyan bo'limini o'rganish jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Ular mashqlar ko'rinishida bo'lib, talabaning bilimini tekshirish bilan birga, unda qaysidir ko'nikmalarni hosil qiladi. Lekin bunday testlarning natijalari har gal turlicha bo'lishi mumkin, chunki ular fragmentlar (uzuq - yuluq) xarakterga ega.

Davriy testlar o'quv jarayonining ma'lum bosqichlarida o'tkaziladi va odatda bir mavzu yoki bir bo'lim ustida ish yakunlangan vaqtda, yohud o'quv bloki intihosida qo'llanadi. Boshqachasiga ularni **turkumli** testlar deb atasa ham bo'ladi, chunki ular asosan mavzular turkumini qamrab oladi. Bu testlar talabalarning ushbu turkumni qay

darajada o'zlashtirganliklarini qo'rsatib, o'qituvchiga nimalarga ko'proq ahamiyat berish kerakligini, qaysi mavzularni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Bunday testlar boshqa testlardan ko'ra talabalarning bilimini aniqroq baholashga imkon beradi.

Yakuniy testlar odatda semestr yoki blok oxirida, o'quv dasturi yakunlanganda, ya'ni imtihonlar jarayonida qo'llanadi. Ular asosan talabalarning bilimini baholashga qaratilgan bo'lib, o'quv jarayoniga yakun yasaydi. Tarkibiga ko'ra esa, kundalik testlar qisqa va bir turdagi topshiriqlardan, davriy testlar katta bo'limni o'z ichiga olgan murakkabroq ko'rinishdagi savol va vazifalardan, yakuniy testlar esa har xil turdagi bir necha maqsadli topshiriqlardan iborat bo'ladi.

4. Sinov xususiyati bo'yicha testlar ikki xil bo'ladi:

Individual testlar avval paydo bo'lgan. Ta'lim jarayonida individual testlar har bir talabani alohida-alohida sinovdan o'tkazish uchun qo'llanadi. Ular talabalarning bilim darajalarini taqqoslash zaruriyati bo'lmaganda, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadida qo'llanadi. Bunday testlardan ta'lim jarayonida deyarli foydalanilmaydi.

Muayyan guruhga mo'ljallangan testlar o'quv auditoriyasida o'tkaziladigan testlarining asosiy turidir. Ular ma'lum guruh talabalari, ya'ni bir xil yoshdagi sinalayotganlar uchun muayyan fandan tuziladi va bir xil sharoitda, bir vaqtda o'tkaziladi. Ularning afzalligi shundaki, bunday testlar vaqtni tejaydi, natijalarni qayta ishlash ham juda qulay.

5. Vazifasiga ko'ra testlarning ikki turi ma'lum:

Bilimlarni aniqlaydigan testlar asosan nazariyaning qay darajada o'zlashtirilganini ko'rsatadi. Ularning asosiy xususiyati bunday testlarda aniq javoblar berilishi talab qilinishidir. Bilimlarni asosan davriy testlar yordamida aniqlash mumkin.

Malaka va ko'nikmalarni aniqlaydigan testlar mashq ko'rinishidagi topshiriqlardan iborat bo'ladi. Bu testlarni bajarayotgan talaba ushbu mavzuni o'rganganda o'zida qanday malakalar hosil bo'lganini namoyish qiladi. Malaka va ko'nikmalarni kundalik va turkumli testlar yordamida aniqlash mumkin.

6. Bajarilish usuliga ko'ra testlar uch xil bo'ladi:

Og'zaki ravishda bajariladigan testlar qog'oz ishtirokisiz o'tkaziladi. Ularni audio- texnik vositalarga yozish maqsadga muvofiq. Ayrim hollarda bunday testlar yagona nazorat usuli bo'lib, og'zaki nutqni egallash ko'nikmalarini tabiiyga yaqinlashtirilgan sharoitlarda aniqlaydi. Bundan tashqari, og'zaki testlarda topshiriq shartini doskaga yoki kartochkaga yozish, shuningdek, teletestlardan ham foydalanish mumkin. Javoblar og'zaki ravishda beriladi.

Yozma ravishda bajariladigan testlar qulayligi va tejamkorligi, ularga kerakli shart-sharoitlarning deyarli har doim mavjudligi tufayli keng tarqalgan. Test topshiriqlari yozma ravishda berilib, javoblar “to'g'ri - noto'g'ri”, “+” va “-” tarzdagi muqobil (al'ternativ) ko'rinishda yoki to'g'ri javobga “+” belgisini qo'yish tarzida, yozma ravishda beriladi. “To'ldiring” tarzidagi topshiriqlarda sinalayotganlar bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldirishadi yoki butun javobni yozishadi. Hozirgi vaqtda qo'llanayotgan testlarda tanlangan javob raqamini doiracha bilan belgilash keng tarqalgan. Yozma bajariladigan testlarning natijalarini tekshirish qulay va oz vaqt talab qiladi.

Kompyuter yordamida bajariladigan testlar ta'lim beruvchi dasturlar asosida amalga oshiriladi. Bunday dasturlar ikki rejimda ishlaydi: repetitorlik (ta'lim beruvchi) va imtihon oluvchi (nazorat qiluvchi) dasturlar. Hozirga vaqtda testlarni komp'yuterlarda bajarish eng tezkor usul bo'lib hisoblanadi [6,7].

7. Testlar tuzilish mohiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

Standartlashtirilgan testlar, asosan, rasmiy ro'yxatga olingan bo'lib, yuqori malakali mutaxassislardan tuzilgan komissiyalar tomonidan yaratiladi va sinalayotganlarning juda katta guruhini qamrab oladi. Ular yakuniy xarakterga ega. Bunday testlarning ishonchliilk darajasi yuqori bo'ladi. Chunki ularni qo'llashdan avval tajribada bir necha bor sinab ko'riladi. Respublikamizda standartlashtirilgan testlar Davlat Test Markazi tomonidan yaratiladi va turli o'quv yurtlariga kirayotgan abituriyentlar uchun yagona bo'ladi. Bundan tashqari, standartlashtirilgan testlar fanlar bo'yicha tuman, viloyat, shahar va respublika olimpiadalarida ham qo'llanadi [6].

Noan'anaviy (nostandart) testlar bir yoki bir necha mutaxassis tomonidan tuzilib, o'quv yili davomida muayyan masalalarga bog'liq ravishda qo'llanadi. Bunday testlarni asosan fan o'qituvchilarining o'zlari tuzadilar. Ularning ishonchlik va maqsadga muvofiqlik darajalarini tekshirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma.-T.:TDPU.2016 b.
2. Временные государственные требования к минимуму содержания профессиональной образовательной программы и уровню подготовки лиц при получении дополнительной квалификации "Тестолог (специалист в области педагогических измерений)". Министерство образования Российской Федерации. Москва, 2000.-14 с.
3. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. Т.:ИПВССШ. 1999.-84 с.
4. Testologiya bo'yicha ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha izohli terminologik lug'at-minimum/Texnika fanlari doktori B.M.Ismoilovning umumiy tahriri ostida. T.:DTM, 2005. Rus va o'zb. til.-136 b.
5. Qosimov S., Sapayev M., YUsupov A. Risola. yevropa tajribalari asosida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari reyting tizimini takomillashtirish. Urganch, 2009.-41 b.
6. Halimova Maftuna Obid Qizi, Sevinchov Nemat Gulboyevich. "Kimyodan testlar tuzishga qoyiladigan zamonaviy talablar va testologik yondashuv." Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 2, №. 8 (2022): 53-57.

KICHIK PARCHADAN – KATTA XULOSALAR SARI

Sultonova Gulasal,

Buxoro davlat Pedagogika Instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich

magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi avlod darsliklari turkumiga kiruvchi 1-sinf ona tili va o`qish savodxonligi darsligida keltirilgan Xudoyberdi To`xtaboyevning “Sariq devni minib” romanidan parcha tahlil qilindi.

Kalit so`zlar: Nasriy asarlar, ona tili va o`qish savodxonligi, uyadosh so`zlar

Yer yuzida yosh avlod tarbiyasi va kamolotiga alohida muammo sifatida qaramagan yoxud bu muammoni kun tartibidan chiqarib, o`z iqtisodiy-siyosiy, ma`naviy-ma`rifiy istiqbolining jiddiy qadamlarini qo`ya olgan mamlakatni topish mushkul. Ayniqsa, o`z istiqlolini qo`lga kiritgan barcha mamlakatlarda erk va ozodlikni mustahkamlashning muhim sharti sifatida yosh avlod tarbiyasiga alohida e`tibor qaratilganligiga tarix guvoh.

Movarounnahr va unga qo`shni ko`plab mamlakatlarda XX asr avvaliga qadar faoliyat ko`rsatgan boshlang`ich maktablar, kichik, o`rta va oliy ta`limga mo`ljallangan madrasalar, farzandlar kamoloti ko`zlanib yaratilgan minglab ilmiy, axloqiy va ta`limiy asarlar esa mazkur masalaga Musulmon Sharqida yanada jiddiyoq qaralganligini tasdiqlaydi.

Mustaqil O`zbekistonda barkamol avlod tarbiyasiga istiqlolning dastlabki kunlaridan beri kechiktirib bo`lmaydigan masalalardan biri sifatida munosabatda bo`lib kelinayotganligi ana o`sha ko`p asrlik an`analarning mantiqiy davomidir.

Dunyo jamoatchiligini siyosiy buzg`unchilik, diniy aqidaparastlik, xalqaro terrorizm, giyohvandlik, axborot hujumi, ekologiya va ko`plab global xatarlar xavotirga solib turgan bir paytda, Prezidentimiz ta`kidlaganidek, “Jaholatga qarshi – ma`rifat”ni qurol qilish va bu islohot samaradorligiga erishish jarayonida ajdodlarimizning asrlar davomida sinovdan o`tgan va hamma davrlar uchun ahamiyatli bo`lgan boy ma`naviy

merosini o'rganish hamda ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotimizga tatbiq etish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Dunyoda bolalardan qudratliroq kuch yo'q. Chunki ular nafaqat bugunning, balki ertangi kunning ham egalari, yaratuvchilaridir. Ammo bu qudratli kuchni tarbiyalash, voyaga yetkazish, ulkan parvozlarga undash katta avlodning burchidir. Bu jarayonda dastlab maktabgacha tarbiya muassasasi, so'ngra maktab ta'limi, undan so'ng oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ibrat maskani vazifasini o'taydi.

Bu jihatdan, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab ta'limining ahamiyati beqiyos. Bu maskanlar tayanadigan eng katta kuch esa kitoblar, aniqrog'i, badiiy adabiyotdir. Bolalar shoirlari, yozuvchilari va dramaturglari ana shu maskanlarni bilim bulog'i bilan ta'minlashdek sharafli va mas'uliyatli vazifani o'z zimmlariga olganlar.

Bu sharafli ish o'tgan asr avvalida jadid ma'rifatparvarlari sa'y-harakati, jumladan, yangi maktablar tashkil etish, ularda yangicha ta'lim usullarini joriy etish, mazkur ta'lim maskanlari uchun o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratish misolida namoyon bo'lgan edi. Bu jihatdan, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ko'plab ma'rifatparvarlar ko'rsatgan ma'naviy jasorat diqqatga sazovor. Eng muhimi, shunday sa'y-harakatlar tufayli Turkiston mintaqasida bolalar uchun maxsus asarlar yozish o'ziga xos an'ana sifatida qaror topdi. Bu esa keyinchalik "bolalar adabiyoti" tushunchasining nafaqat atama, balki hodisa sifatida mamlakat ma'naviy hayotiga kirib kelishi va undan mustahkam o'rin olishiga zamin yaratdi.

O'tgan asrning 30-50-yillarida G'afur G'ulom, Sulton Jo'ra, Zafar Diyor, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat kabi shoir-yozuvchilar o'zbek bolalar adabiyotining yaxshi namunalarini yaratdilar. Keyinroq bu safni Hakim Nazir, Po'lat Mo'min, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Oqiljon Husanov, Latif Mahmudov, Safar Barnoyev, Tohir Malik, Hojiakbar Shayxov, Sharof Boshbekov singari adiblar to'ldirdilar. Shu tariqa qaror topgan bolalar uchun asarlar yaratish an'anasi o'tgan asrning 80-yillariga kelib, o'zining jiddiy samaralarini berdi. Bolalar nazmi va nasri ham, ular uchun liro-epik va dramatik asarlar yaratish an'anasi ham takomilga erishdi.

Bu jarayonda O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning xizmatlari ulkan, albatta.

Jumladan, adibning bolalar va o'smirlar sarguzashtlari aks etgan “Shirin qovunlar mamlakati”, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o'limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Mungli ko'zlar” asarlari bugun ham sevib o'qilmoqda. Nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki umumta'lim maktablari uchun ham muhim o'quv-tarbiya materiali sifatida xizmat qilmoqda.

Bolalar va kattalar munosabatlaridagi murakkabliklarni qalamga olish ijodining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboyev murojaaaat qilgan muhim mavzulardan biri oilaviy munosabatlardir.

Darhaqiqat, oila – insoniyatning ilohiy va mo''jizaviy kashfiyoti. U ma'naviy rishtalar bilan Vatanga bog'lanadi. Inson o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtni behad qadrlaydi. Ayniqsa, o'zbek xalqi oila oldidagi mas'uliyatni doimo yodda tutib yashaydi. Farzand tarbiyasida ota va onaning o'rni bo'lakcha. Shu kabi muhim ijtimoiy haqiqatlarga suyangan yozuvchi adabiy merosi namunalaridan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf darsliklarini tartib berish jarayonida foydalanib kelinayotgani adib ijodining ulkan ma'rifiy ahamiyatidan dalolatdir.

Jumladan, Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun kabi tuzuvchilar sa'y-harakati bilan tartib berilgan, 2021-yilda Respublika ta'lim markazi tomonidan nashr etilgan 1-sinflar uchun “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligida adibning “Sariq devni minib” romanidan kichik parcha o'rin olgan. E'tiborlisi, mazkur parcha shunchaki ilova qilinmagan. Balki undan ham axloqiy, ham ta'limiy material sifatida samarali foydalanilgan.

Parcha haqidagi muhokamalar dasrlikning 5-betidan “Men, sen, u va ular” sarlavhasi hamda suratlar taqdimotidan boshlanadi. 6-betda esa oilaviy suratlar taqdim etilib, “Rasmlarga qarang. Har biriga mos so'zlarni toping” topshirig'i asosida oila tushunchasiga mansub so'zlar qatori keltiriladi. Ota, ona, aka, singil, opa, o'g'il, bobo, buvi, oyi, dada, nabira, chaqaloq, uka, qiz singari mazkur uyadosh so'zlar o'quvchining oila haqidagi, qarindosh-urug'lik mansubiyati xususidagi dastlabki bilimlarini

mustahkamlashga xizmat qiladi. Sahifa oxirida ilova qilingan “Bir rasmga bir nechta soʻz mos kelishi mumkinmi? Nega shunday? Sizning oilangizda kimlar bor?” kabi savollar oʻquvchiga maʼnodosh (sinonim) hamda uyadosh (partonim) soʻzlar haqidagi dastlabki bilimlarni olishga, “Oila aʼzolaringizni bildiruvchi soʻzlarni yozing” topshirigʻi esa uning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu tariqa oʻquvchining oila haqidagi tasavvuri shakllantirilgach, 6-7-betlarda “Sariq devni minib” romanidan olingan “Hoshimjonning oilasi” nomli parcha oʻquvchi eʼtiboriga havola etiladi.

Toʻrt qismdan iborat mazkur parchadan Hoshimjonning ota-onasi va singillari haqidagi sodda va samimiy soʻzlari oʻrin olgan. Eʼtiborlisi, mazkur parchalar shunchaki keltirilmay, ularga tasavvurni boyituvchi suratlar hamda uch savol ilova qilingan. Suratlarda Hoshimjonning yaqinlari nimalar bilan shugʻullanishiga, ularning tashqi koʻrinishiga ishoralar mavjud. “Qanday ismlarni eshitdingiz?”, “Qaysi kasblar haqida aytildi?”, “Oila aʼzolarini bildiruvchi qaysi soʻzlar ishlatildi?” kabi savollar esa oʻquvchining kishi ismlari, kasblar hamda ularning nomlanishi, oilaga mansub kishilar va ularning nomlari haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi.

Darslikning oila va Hoshimjonning hikoyasi haqidagi muhokamalar davom etgan 9-betidan faqat savollar oʻrin olgan. Bunda dastlab oʻquvchidan Hoshimjonning hikoyasidan kelib chiqadigan savollarga javob talab qilingan boʻlsa, parcha matnida qora rang bilan ajratib koʻrsatilgan soʻz va ifodalar maʼnosini ochishga yoʻnaltirilgan ikkinchi guruh savollar orqali oʻquvchining ona tili faniga oid bilimlarini boyitish koʻzda tutilgan.

Bu kabi muhokamalar 10-11-betlarda ham davom etadi. Jumladan, 10-betda “Ular sizga kim?” soʻrogʻi hamda suratli ishoralar ostida xola, amaki, amma, togʻa soʻzlari keltirilib, oʻquvchiga ularning qarindoshlik munosabatini aniqlash topshiriladi. 11-betdagi “Ular haqida nimalar bilasiz?” savoli ostida berilgan rasm, savol va topshiriqlar esa asosan, tilga oid bilimlar taqdimotiga qaratilgan. Bunda Roʻzivoiy traktorchi, Hoshimjon, Oyshaxon va Donoxonlarning ixcham portretini yaratish orqali matni

kengaytirish, kishi ism-shariflari bosh harf bilan yozilishi haqidagi eslatma orqali atoqli otlar haqidagi dastlabki bilimlarni berishga muvaffaq bo'lingan.

Shu tariqa 5-betdan boshlangan oila haqidagi muhokamalar 11-betga kelibgina yakuniga yetgan va Xudoyberdi To'xtaboyev romanidan keltirilgan mo'jaz parcha orqali o'quvchi o'z hayoti davomida duch kelishi mumkin bo'lgan qarindoshlarning mansubiyati haqida ancha batafsil ma'lumot berilgan.

Qayd etilganidek, matn, surat, savol va topshiriqlar ketma-ketligi va mantiqiyliги asosida o'quvchi e'tiboriga havola etilgan badiiy parcha darslikda sof ta'limiy material maqomini olgan.

Ta'kidlash joizki, badiiy matnning aynan shunday taqdim etilishi uning axloqiy-ma'rifiy ahamiyatini bir necha karra oshirgan. Bunda aynan metodologiya to'g'ri tanlangani – milliy qadriyatlarimizga urg'u berilgani, badiiy matn o'z o'rnida keltirilgani, o'rinli savol va izohlar taqdim etilgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Shu tariqa qiziqtiruvchi usullar orqali ham o'quvchining dunyoqarashini kengaytirishga, ham unga yangi bilim berishga erishilgan. Bu esa zamonaviy pedagogikaning eng muhim talabidir.

ADABIYOTLAR

1. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi
2. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti.

**O‘QUVCHILAR EGALLASHI LOZIM BO‘LGAN BILIM, KO‘NIKMA,
MALAKA VA KOMPETENSIYALARNING 5-11 SINFLAR KESIMIDAGI
DARAJALARI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
O‘QUV FANI BO‘YICHA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING DAVLAT
TA’LIM STANDARTI**

F.R.Karimov,

*BuxDU, “Amaliy matematika va dasturlash
texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi*

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan uzluksiz majburiy ta’lim tizimining bosqichlari:

TK-tayanch kompetensiya

1. TK1-kommunikativ kompetensiya;
2. TK2-axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. TK4- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. TK5- Milliy va umummadaniy kompetensiya;
6. TK6- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

FK-fanga oid kompetensiyalar

1. FK1-Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig‘ish kompetensiyasi;
2. FK2-Axborotlarni elektron vositalarda qayta ishlash va saqlash kompetensiyasi;
3. FK3-Axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetensiyasi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari ta’limining ahamiyati, uning fan va texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohasida va kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Maktabda informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish ta’limning umumiy maqsadlariga xizmat qilishi, ya’ni o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishi va o‘stirishi, ularda milliy va

umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirishi hamda ijtimoiy hayotlari va ta'lim-tarbiya olishni keying bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi lozim.

- O'rta ta'limning umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, maktabda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitilishi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan:

- axborot haqida ilmiy tasavvur asoslarini, axborot jarayonlarini, axborot tizimlarini, texnologiyalarini tashkil etuvchi bilimlarni egallash;

- kompyuter va axborotkommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) vositalari yordamida turli ko'rinishdagi axborotlar bilan ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijodiy va intellektual qobiliyatlarini AKT vositalari yordamida rivojlantirish;

- axborotlarni tanqidiy tahlil qilishni; axborotlarni uzatishda huquqiy va ahloqiy jihatlarini inobatga olgan holda mas'uliyatni tarbiyalash;

- kundalik hayotida, individual va hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarni bajarishda, o'quv faoliyatida AKT vositalaridan foydalanish malakalarini shakllantirish.

O'rta ta'limda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitilishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot, kompyuter, axborot texnologiyalari, kompyuterning dasturiy ta'minoti, kompyuterda masalalar echish texnologiyalari, algoritmlash va dasturlash asoslari, yangi axborot texnologiyalarining jamiyatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim ahamiyati va inson faoliyatining turli jabhalariga ijobiy ta'sirini ilmiy ravishda o'rganadigan usullar haqidagi bilimlarga ega bo'lishi;

- axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatishda turli texnik vositalardan va amaliy dasturlardan foydalana olishi;

- axborot jarayonlari natijalarini xulosalashda turli texnik vositalarning imkoniyatlaridan foydalanilishi, ularning ishlash prinsipini tushuntirish, amaliy masalalarni kompyuterda echishlardan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- Amaliy masalalarni echishda, boshqa fanlarga oid yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash, turli manbalar (darslikdan, ilmiy-ommabop adabiyotlardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati va ma'lumotnomalardan, elektron ishlanma va darsliklardan, Internet sahifalaridan va h.k.)dan fanlarga oid ma'lumotlar bilan ishlay olish;

- axborotni tahlil qilish va baholash, bir turdagi axborotni ikkinchi turga aylantirish va shu kabi masalalarni echa olishi;

- axborot texnologiyasi orqali axborot makonni o'rganish mumkinligiga bo'lgan ishonch, insoniyatni bundan keyingi rivojlanishi uchun fan va texnologiyalar yutuqlaridan kerakli darajada foydalanish, fan va texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash, informatika va axborot texnologiyalari ta'limiga umumbashariy madaniyat elementi sifatida qarashni tarbiyalash;

- kundalik hayotda uchraydigan va hayotiy faoliyatining havfsizligini ta'minlashda egallagan bilim va ko'nikmalaridan foydalana olish.

Bugungi hayotimizning har bir jabhasi, har bir soha va barcha faoliyat turlari bevosita axborot texnologiyalari bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, axborot texnologiyalarni yaratish va ularni boshqarishga oid bilim, ko'nikma va layoqatning har bir insonda shakllanishi fundamental ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Yuldashev U.Yu, Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-b.
2. Xodjayev B.X. Innovatsion ta'lim texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari.- T.:2015
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashriyoti, 2013 yil 278 bet

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASI VA UNING O'QITISH TENDENSIYALARI

F.R.Karimov,

*BuxDU, “Amaliy matematika va dasturlash
texnologiyalari” kafedrası o'qituvchisi*

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish quyidagi maqsadni ko'zda tutadi:

Bo'lajak o'qituvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;

Bo'lajak o'qituvchilarni informatika va axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi «Informatika va axborot texnologiyalari» fanining ahamiyatini, uning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

- informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
- informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi roli;
- informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishdan maqsadi:

Bo'lajak o'qituvchilarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda paydo bo'ladigan muammolarni hal qilishni tarbiyalash, mustaqil o'quv jarayonining, uslubiy ijodiyotning ko'nikmalarini shakllantirish, muammolarni maqsad, vazifa va fanning mazmuni bo'yicha umumlashtirish, klassifikatsiyalashning asosiy shakllarini ishlab chiqish masalalarini tushuntirish, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, o'quvchilarning yoshiga qarab alohida pedagogik usublarning qo'llanilish samarasini tushuntirish, tekshirish va ko'rib chiqish kabilardan iboratdir.

Bundan tashqari, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida amaliy faoliyatga tayyorlash vazifasini to'g'ri hal etishga erishish uchun informatika va ilmiylikini axborot texnologiyalari fanini oshirish lozim. Faqatgina to'g'ri va chuqur xulosalar qila olsagina, o'quvchilar har bir masalani yechishga tanqidiy va ijodiy yondasha oladilar.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini metodikasining xususiyatlaridan biri o'quvchilarning ushbu fanning mazmunini va unga xos ilmiy izlanish usullarini egallash, amaliy bilimlar va ish ko'nikmalarini egallashning usul va yo'llarini belgilash masalasidir. Bularga fanning materialini o'rganish usullari hamda zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari kiradi.

O'qitishning maqsadi va vazifalari o'qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma'lum bir mazmun bir necha metod bilan o'rganilishi mumkin. Bunda albatta har bir metod yordamida o'qitish maqsadlariga erishiladi. O'qitish metodlari ko'p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko'plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha jamlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Yuldashev U.Yu, Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-b.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashriyoti, 2013 yil 278 bet.

ART TERAPIYA ORQALI O‘SMIRLAR IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANISHINI O‘RGANISH

Umedjon To‘raqulovich Jumayev,

BuxDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Axmedova Sabina Ravshanovna

BuxDU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi

9-3MTS(rus)-18guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogic jarayonlarning asosiy turlaridan biri bo‘lgan ART-terapiyaning bolalar bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni o‘tkazishda va bolalarni turli xildagi stress holatlaridan chiqarishning pedagogik usuli ekanligi keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ART-pedagogika, maktabgacha ta’lim, bolalar, san’at, zamonaviy, shaxs*

Ushbu maqolaning dolzarbligi ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishda qilinayotgan say-harakatlar va jadal o‘zgarishlar bilan birgalikda, bu jamiyatda yangi yo‘nalishlarni belgilab berish va zamonaviy sharoitda ijodiy shaxsni rivojlantirishga talablar qo‘yadi. Ijodkor shaxs o‘z rivojlanishining barcha bosqichlarida jamiyat tomonidan tan olinadi.

Ko‘pgina zamonaviy mualliflar ta’kidlaganidek, art-terapiya va uning usullari insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir.

Aqlli shaxsning shakllanishi imo-ishoralar, mimikalar, pantomima, raqs, tosh san’ati tasvirlarning xalqaro tilining rivojlanishi bilan bog‘liq. San’at muloqot qilish maqsadida, aloqa vositasi sifatida, hissiy tilning bir turi sifatida paydo bo‘lgan. Zamonaviy artterapiyaning prototipi san’atning arxaik shakllarida - xalq amaliy san’atida saqlanib qolgan. Bu erda "kollektiv ongsizlik" ning ramziy tiliga tayanish eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalangan. Ramzlashtirishga moyil bo‘lgan odam ongsiz ravishda atrofdagi olamning predmetlari va shakllarini ramzlarga aylantirgan va bu ramzlardan dinda ham, tasviriy san’atda ham foydalangan.

Qadimgi ildizlarga qaramay, davolash, tuzatish va profilaktika ishlarida mustaqil yo'nalish sifatida, art-terapiya faqat bir necha o'n yilliklarga ega. Uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar bolalar va ibtidoiy san'atga qiziqish bilan birga XX asrning oxirida paydo bo'la boshladi. O'z his-tuyg'ularini o'z-o'zidan ifodalash, san'analar bilan cheklanmagan samimiylik, ijodkorlikning o'zi va tomoshabinlar tomonidan rassomning professionalligiga haqiqiy baho emas - bu san'at uchun ham, art-terapiya uchun ham muhimdir.

U eng katta mashhurlikka XX-asrning o'rtalarida erishdi. ART-TERAPIYA (art-san'at, art terapiya) atamasi insonning psixo-emotsional holatini ifodalash uchun plastik san'at bilan davolashni anglatadi.

Birinchi marta bu atama Adrian Xill tomonidan 1938 yilda sanatoriyalarda sil kasalligi bilan og'rigan bemorlar bilan tasviriy san'at bilan ishlashni tavsiflashda ishlatilgan. Keyinchalik bu atama terapevtik san'atning barcha turlariga (musiqa terapiyasi, drama terapiyasi, raqs harakati terapiyasi va boshqalar) nisbatan qo'llanila boshlandi.

Kasbiy faoliyatning alohida turi sifatida art-terapiya Buyuk Britaniyada Ikkinchi jahon urushidan keyin va psixoterapiya bilan chambarchas bog'liq holda rivojlana boshladi. 1960-1980 yillarda. art-terapiyani mustaqil mutaxassislik sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishga hissa qo'shgan professional uyushmalar tashkil etildi.

1969-yilda art-terapevtlar - amaliyotchilarni birlashtirgan Amerika Art-terapevtik assotsiatsiyasi tuzildi. Keyinchalik shunga o'xshash uyushmalar Angliyada (Britaniya san'at terapevtlari uyushmasi), Gollandiyada va Yaponiyada paydo bo'ldi. 1980-1990 yillar madaniy iqlimning o'zgarishi bilan ajralib turardi. Dunyo immigrantlar, qochqinlar oqimi, bir hududda irqiy va etnik jamoalarning majburiy yashashi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda art-terapevtlarning yordami katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillar psixoterapiyaning jadal rivojlanishi va uning yangi shakl va modellarini faol va dolzarb masalaga aylandi.

Art-terapiya va ijodiy terapiyaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning asosiy dasturlarini tayyorlash va shu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni jalb qilish masalalari qo'ldi va bularga alohida dasturlar ishlamasini va yo' xaritalari ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Барышева Т. А. , Жигалов Ю. А. Психолого – педагогические основы развития креативности. СПб. 2006.
2. Воронина А.Н. Ситуационные и межличностные детерминанты проявления интеллекта и креативности // Экспериментальная психология. 2010
3. Ковальская Е.В. Психологическое сопровождение развития интегральной индивидуальности студентов с низким уровнем креативности : дис. ... канд. психол. наук: 19.00.07. Пятигорск, 2014.
4. Колягина В.Г. Арт-терапия и арт-педагогика для дошкольников. Учебно-методическое пособие. М.: Прометей, 2016.
5. To'raqulovich, Jumayev Umedjon, and Hakimova Nargiza Supxonovna. "Ways to shape a healthy lifestyle in the family of preschool children." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).
6. To'raqulovich, J. U., Hikmatovna, A. N., & Muhammadovna, R. S. (2021). Theoretical foundations of cooperation between the family and preschool education in the moral and aesthetic development of preschool children. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
7. To'raqulovich, Jumayev Umedjon, Azimova Nodira Hikmatovna, and Rahmonova Sojida Muhammadovna. "Theoretical foundations of cooperation between the family and preschool education in the moral and aesthetic development of preschool children." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).

TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

A.Shukurov,

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Musiqa va tasviriy san'at kafedrasi dotsenti

D.Raxmatova,

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogika texnologiyalardan foydalanish usullari, pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish va maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi haqida to'liq bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, pedagogik texnologiyalar, yangilanish, tematik kompozitsiya.

Ma'lumki, inson va uning jamiyatining harakatlantiruvchi kuchi - bu inson tafakkuridir. Tafakkur - bu aql-idrok va dunyoviy bilimlar majmuasidir. Dunyoviy bilimlar ta'lim jarayonida bunyod etiladi. Haqiqatan ham ta'rif berilganidek, "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi"

Barcha bosqichlar qatorida tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik, haykaltaroshlik kabi san'at namunalarini ta'lim tarbiya jarayoni bilan imlashuv jihatlarini to'g'ri anglash tushuntira olish kabi sifatlar bo'yicha anchagina vazifalar turganini bilishimiz shart. Pedagogika sohasida qaysi bir aniq yoki tabiiy fan uchun alohida davlat ta'limi standarti DTS mezoniga tasviriy, amaliy san'at me'yoriy hujjatlari zamon talabidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz ta'lim tizimiga xorij tajribalarining shiddat bilan kirib kelishi, yangicha ta'lim kontratsepsiyalari (global ta'lim, bolalarga do'stona munosabat, eksklyuziv ta'lim pedagogik texnologiyalar va

hokazo) o'qituvchilar, metodika, pedagogika, ta'lim psixologiyasi mutaxassislarida misli ko'rilmagan qiziqish uyg'otgani hammamizga ma'lum. Ta'lim sohasidagi yangiliklar barcha o'qituvchilarga bir xil munosabatni vujudga keltira olganicha yo'q edi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchilarda kasbiy kelajagi haqida tashvish, ayrim katta yoshli (nafaqa yoshiga yaqinlashgan, nafaqa yoshdagi) o'qituvchilarda befarqlik holatlari namoyon bo'layotganini ko'rish mumkin

Pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish o'ziga xos murakkab, ko'p qirrali muammolardan bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim tarbiya jarayonining barcha tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan ijtimoiy tizim. Bunda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, jarayon maqsadi, mazmuni, metodi, shakli, natijasi, shart sharoitlari, texnologiyalar va uni boshqarishga samarali ta'sir etadi.

Ta'lim-tarbiya amaliyotiga bilvosita, ya'ni o'qituvchi mahorati didaktik vositalar, ta'lim texnologiyalar orqali kirib keluvchi ko'p qirrali muammolar. Kompyuter hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida amaliyotga tatbiq etish, shu sababdan barcha o'qituvchilarni kompyuter savodxonligi va axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid ko'nikmalarga ega bo'lish. Yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatmalarga yondashgan holda kasbiy mahoratni mustahkamlashdan tashqari tasviriy san'at mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish, o'quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

Tasviriy san'atni o'qitishda qiziqarli va sermazmun mavzular tanlash o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Hozirda maktablarda o'quvchilar rasm daftari, bo'yoq, qalam oddiy qalam va o'chirg'ichdan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, zamonaviy, xorij texnologiyalaridan foydalanib, ishlab chiqarilgan bir qancha turdagi bo'yoqlar, rangli qalamlar, dekorativ bezak ishlarini yorqinlik darajasini oshiruvchi turli chizish vositalaridan foydalanilmoqlar. Bunday ashyolar bilan o'quvchilarda badiiy faoliyatini aktivlashtiradi. San'atga qiziqish uyg'otadi.

Ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik texnologiyadan tasviriy san'atni o'qitishda foydalanish va uning samaradorligiga erishish uchun ham o'ziga xos didaktik

jarayonning o'rganib chiqilishi zarur bo'ladi. Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi bilan hozirgacha biron-bir tuzukroq ilmiy asar yoki metodik-didaktik qo'llanma chop etilgani yo'q. Shuning uchun bu masalada mulohaza yuritishda masala kengroq o'rganilib, texnologiya, pedagogik texnologiya va so'ngra tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish masalasi tahlil qilinishini lozim topdik.

Ma'lumki, tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida yoki texnologiyada amalga oshiriladi:

1. Narsaga qarab rasm ishlash.
2. Tematik kompozitsiya ustida ishlash.
3. Dekorativ amaliy-bezak san'ati.
4. Haykaltaroshlik ishlari.
5. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlar turlarida olib boriladi.

Bu darslarning texnologiyasi bir mazmunda bo'lsa-da, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir-biridan farqlanadi. Ya'ni «narsani o'ziga qarab rasm chizish» mashg'ulotlarida naturadan, buyumning o'zini ko'rib, undan shaklning imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi.

Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylab-o'ylab, uzoqlarga qarab, nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar.

Haykaltaroshlikda esa, qalam-bo'yoq bilan emas, loy-plastilin bilan, oz bo'lsa-da, jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar texnologiyasi mashg'ulotning asosi bo'ladi. Shuning uchun tasviriy san'at darslaridagi pedagogik texnologiyalar ta'rifini keltirish va ularni "Dars texnologiyasi" turlariga ajratishda ham alohida e'tibor zarur bo'ladi.

Tasviriy san'atning pedagogik texnologiyasi - bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon. Ya'ni o'qituvchining 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchun ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning

didaktik, metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik jarayondir.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari.T., 1998, 2-bet
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontseptsiyasi.- Toshkent, 1995.
3. Oydinov N. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. -Toshkent; O'qituvchi, 1997.
4. Nabiyev M. Rangshunoslik.–Toshkent; O'qituvchi, 1995.
5. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.-Toshkent: HBM, 1992.
6. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. *Oliy o'quv yurtlarining “Badiiy grafika” va “San'atshunoslik” fakultetlari talabalari uchun o'quv-metodik qo'llanma.* Toshkent :- “Ilm Ziyo” - 2013.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF TEACHING FINE ARTS IN SECONDARY SCHOOLS

(On the example of primary classes)

A.Shukurov,

Bukhara Pedagogical Institute,

Associate Professor of Music and Fine Arts Department

D.Rakhmatova,

2nd stage master's degree of Bukhara Pedagogical Institute

of Fine Arts and Applied Décor in Art

Abstract. This article will focus on technologies for improving the aesthetic outlook of secondary school students on the subject of fine arts, a modern approach to science. In modern conditions, when the scale of knowledge necessary for a person is becoming wider, it is impossible to limit oneself to the assimilation of a certain amount of facts. Therefore, it is necessary to teach students to independently replenish and enrich their

knowledge, to focus their attention on the most important aspects of scientific and political information. This task requires the expansion and development of fine art lessons of students in close connection with the educational process.

Key words: fine art, painting, existence, nature, modern technologies, methodology

The main purpose of the discipline of "fine art" is to teach younger students to see, feel the being, the beauty of nature, to distinguish shades of colors, to have spatial representations, to develop memory and a sense of observation, to realize the goal, correctly interpreting works of fine art, and to encourage students to spiritual heights in combination with the development of artistic, creative abilities.

The specificity of the subject "Fine Art " in primary school is determined primarily by the content of education, depending on the age characteristics and psychology of primary school children, interests, their knowledge and skills, abilities. It is known that the passion for visual activity, in particular for drawing, begins incredibly early in children. It is known from pedagogy that it begins at the age of 2-3 years. It is interesting to note that children are much more fond of drawing than reading and writing. Another characteristic feature of the visual activity of younger schoolchildren is their desire to simplify the drawing. They describe the appearance of some objects from the front, some from the side, and others from above. This gives children a certain relief and comfort when working with the painting. Also, children at this age do not depict things due to the fact that they are light-shadow, the perspective narrows and they do not understand the rules. There is another aspect peculiar to children's creativity, which is that images (objects) are not depicted overlapping (or partial) each other. Because children always perceive things as a whole. These features of descriptive activity, which were mentioned above, are associated with the division of children's thinking into concrete, figurative and emotional.

Now let's focus on the specifics of the methodology of conducting art lessons in primary schools. The State Educational Standard establishes mandatory minimum requirements for the content of art education in the following four areas:

1. Perception of being and art

2. Artistic design-production
3. Illustration by nature
4. Compositional activity

Students who have graduated from the fourth grade of primary school according to state educational standards should directly know:

- working tools and materials used in art lessons: album, pencil, brush, pencil, paint, palette, gouache, watercolor;
- names of colors;
- rules for the correct handling of textbooks used in art lessons;
- the name and surname of 15 creative artists and sculptors, as well as the name of their works;
- basic and derived colors, chromatic and achromatic colors, warm and cold colors;
- types of patterns
- arc-shaped pattern, rectangular pattern, square pattern, circular pattern;
- names of colors used in applied art
- leaf, dubarg, se barg, aigul, almond, shobarg, pakhmagul;
- terms used in applied art-artist, color, painting, form, application, rhythm, symmetry, asymmetry, photography, format.

Currently, the development and wider dissemination of the discipline “Fine Arts” in the educational process is due to the use of modern pedagogical technologies in order to increase students' drawing literacy. Pedagogical technology of fine arts is a pedagogical process by which a teacher of fine arts can guarantee the achievement of a predetermined goal and the fulfillment of this task on the basis of means of transferring artistic knowledge and skills to students in a certain period and under certain conditions. When teaching fine arts at school, such manifestations of pedagogical technology as “lesson technology”, “learning technology” and “learning technology” are also used.

1. “Lesson technology” is a pedagogical process that ensures that the construction, structure and organization of a 45-minute fine art lesson meet general pedagogical requirements (didactic and methodological). That is, fine art is a class-based system of an educational subject, which includes such subjects as the transfer of new knowledge,

the consolidation of transferred knowledge, a mixed lesson, lessons for checking and controlling knowledge. Each of them works according to its own technology.

2. “Learning technology” - this technology expresses the process of didactics and private methods of teaching and mastering a certain academic subject. Accordingly, the technology of teaching fine arts varies by five types of lessons. Because didactics and methods of teaching fine art coursework as the goals and objectives of the lesson change, the technology of its teaching also changes.

3. “Information technology” is expressed in the content of informing students, it is expressed in the content of the processes of scientific communication, relationships, creative cooperation between teacher and student in the process of cognitive and qualification training of students in the discipline of fine arts. That is, the knowledge of the theory of art and drawing (image) transmitted to students is expressed in a complex of educational tools, didactics, teaching methods and techniques that can guarantee the ability to convey skills to students. Because in the course of the lesson, the teacher of fine arts provides students with the simplest, concise and scientifically based information about the tasks and ways to perform them according to the content of the upcoming lesson and the practical work performed in the lesson.

In the technology of teaching fine arts at school, the main ones are the possibilities, conditions, means, methods and techniques for guaranteed results, the organization of which is part of the main task of didactics and its principles of teaching fine arts. Because the didactics of teaching fine arts at school provides for each lesson, first of all, the scientific validity of the transmitted knowledge and skills. The scientific principle ensures that every information provided to students about nature, object, subject, event or analyzed work of art is based on scientific and subject data.

Fine art by its nature is considered an academic discipline, the teaching of which is impossible without an exhibition. In art lessons at school:

-From such techniques of the method of “oral narration” as a conversation, a story, a question-answer, a lecture;

- From such techniques as demonstrating the method of “visual learning”, working with illustration and reproduction, drawing on a blackboard and an excursion;

-Such techniques of the ”practical work" method as painting, sculpture, decorative and applied art, work on compositions, analysis of works of art, writing essays, essays on works of art are used.

Summing up, we can say that the main task of the teacher remains that the technology of teaching fine arts at school is able to perfectly use the didactics and teaching methods of this subject to achieve this goal.

REFERENCES:

1. Abdullayev N. San’at tarixi. 2 jildli, 1-jild, T., 1986. (Abdullaev N. The history of art. 2 volumes, volume 1, vol., 1986.)
2. Azimova B.Z. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan meto4. dik tavsiyalar. T., 1989. (Asimova B.Z. Method 4 for completing coursework at the Art and Graphic Faculty. Dik recommendations. T., 1989.)
3. S. Abdurasulov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasidan amaliy mashg’ulotlarni bajarish. T., 1996. (S. Abdurasulov. Implementation of practical exercises on the methodology of teaching fine arts. T., 1996.)
4. Abdurasilov S, N. Tolipov. Rangtasvir. T.. «Bilim», 2005. (Abdurasilov S., N. Tolipov. Painting. T.. "Knowledge", 2005.)
5. <http://wikiped.uz>

O’ZBEK XALQ CHOLG’ULARINI TAKOMILLASHTIRISH

ISHLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Xudoyberdiyev Dilmurod Ro’zimurodovich

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

“Musiqqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada cholg’u asbobining vujudga kelish tarixiga oid bo’lgan ishlar, takomillashtirish uchun hissa qo’shgan ustalar, ustozlar cholg’uchilar va

ularning qilgan ishlari, prima rubobining orkestrdagi o'rni va bu sozning asta sekin takomillashishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xas-parda, laboratoriya, orkestr, kuy, temperatsiya, sozanda, ijrochilik, takomillashtirish, mutaxassis, rubob, yakkanavoz, repertuar, cholg'u

O'rta Osiyo xalqlarining turmushi va urf-odatlarini, kuy va raqs jo'rligida ijro etiladigan turli xalq marosimlarini tavsiflovchi Sharq yilnomalarida cholg'u asboblarning xilma-xilligi haqida gap boradi. Musiqiy tilda aytadigan bo'lsak uning ohang-parda xususiyatiga aynan qadimda asos solingan, cholg'u asboblarning asosiy tarkibi hamda soz turlari belgilangan, ko'hna xususiyatlarini hozirga qadar saqlab kelgan va bizgacha yetib kelgan xalq monodiya (yakkanavoz) va xalq professional musiqasi rivojlanishi uchun poydevor yaratilgan. [1] Milliy cholg'u asboblari xalqning madaniy qadriyati bo'lib, ijrochilik san'ati bilan chambarchas bog'langan. Ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan cholg'u asboblari ham takomillashtirilib, ularning ko'rinishi o'zgarib boradi. Ijrochilik madaniyatining takomillashuvi jarayoni bilan milliy cholg'u asboblarning rivojlanish jarayonining ushbu chambarchas o'zaro munosabati ularni jamiyat musiqiy ehtiyojlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish g'oyasini olg'a suradi. Ijrochi o'z san'ati bilan ijodkorda yangi ijodiy niyatlarni yuzaga keltiradi, Ayni mahalda cholg'u asboblari kontruksiyasini takomillashtirishga, ularni o'zlashtirish san'atiga hamda ularning ifoda imkoniyatlarini boyitishga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatadi. XX asrning 20-30 yillaridayoq o'zbek xalq ustalaridan Usmon Zufarov, Matyusuf Xarratov, Shorahim Shoumarov va boshqalar xalq cholg'u asboblari takomillashtirish yo'lida dastlabki qadamni tashladilar. Ular sado kuchini oshirish va sifatini yaxshilash, tashqi bezakni ko'rkamlashtirishga e'tiborni qaratdilar. Sadoni kuchaytirish o'sha davr sozlarini takomillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lgan. Sadoni takomillashtirish uchun turli usullar sinab ko'rilgan. [2] Sozning tuzilish shakli o'zgartirildi, dutor tanburning ichki qismi ikki yoniga qo'shimcha rezonatsiyaga mo'ljallangan torlar tortildi, biroq parda bog'lamalari, tovush chiqishi va tovushqator o'zgarishsiz qoldi. Xalq cholg'u asboblari yaxshilashga urinish, ma'lumki, har qanday musiqqa madaniyatida bo'lgan va bo'lishi kerak, chunki olimlarimiz ham, xalq

sozandalari ham barcha davrlarda o'z davri musiqa san'ati darajasiga muvofiq bo'lish uchun milliy cholg'u asboblari sozini tartibga solishga, diapozonini kengaytirishga, registrini oshirishga harakat qilganlar. O'zbek sozandalari xalq cholg'u asboblarining ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida azal-azaldan "xas-parda" deb atalmish vositani qo'llaganlar. Ushbu talablarni hayotning o'zo yangi ijtimoiy-badiiy vazifalar bilan birga olg'a surgan. Bu jarayon ma'lum darajada stixiyali bo'lib, davrning o'zgarib borayotgan talablariga javob bergan holda, evolutsiyon tarzda rivojlangan. Milliy cholg'u asboblarini takomillashtirish bo'yicha tajriba ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasi tashkil etilishi bilan yozma an'anadagi kuyni ijro etish uchun yaroqli milliy cholg'u asboblarini takomillashtirish bo'yicha asosiy vazifalardan biri amalda hal etilgan. Milliy cholg'u asboblarida yozma solo va jamoa akademik ijrochiligi o'zbek musiqa madaniyati tarixida butunlar yangi hodisadir. U bir qator muammolarni ishlab chiqishni talab qildi. Bular:

- Milliy cholg'u asboblarini yozma an'anadagi kompozitorlik musiqasiga asos bo'lgan 12 bosqichli bir maromdagi temperatsiya negizida takomillashtirish.
- Kompozitorlik musiqasini partitura bo'yicha ijro etuvchi ko'p ovozli ansambllar va orkestrlarni tashkil etish bo'yicha yuqori, o'rta va past registrdagi cholg'u asboblarini yaratish.
- Yakkanavoz ijrochiligi hamda jo'rnavoz ijrochiligi o'quv va badiiy repertuarini yaratish.
- Bolalar musiqa maktabi, o'rta va oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari konsert tashkilotlari hamda badiiy havaskorlik jamoalari uchun pedagogic va ijrochi kadrlarni tayyorlash.
- Milliy cholg'u asboblarini ilmiy asosda takomillashtirish

Labaratoriyada yaratilgan takomillashtirilgan cholg'u asboblari va ularning orkestrbop turlari zamonaviy kompozitorlar yaratgan ko'p ovozli kuylarni ijro etish imkoniyatini berdi, milliy cholg'u asboblarida yevropa cholg'u asboblariga xos kuy ijrochiligi yutuqlaridan: nota bo'yicha chalishdan, Bolalar musiqa maktabidan tortib, oliy o'quv yurtlari assistenturasigacha maxsus o'quv yurtlarida o'qitish metodikasidan bahramand

bo'lish, metodik va badiiy repertuaridan foydalanish hamda uni nisbatan rivojlangan yevropa ham yakkanavoz, ham jo'rnavoz va boshqa ko'plab cholg'u asboblari repertuari hisobiga kengaytirish imkonini yaratdi.

O'zbekistonda professional va havaskor xalq sozandalarida ikki tipdagi – afg'on va qashqar rubobi uchraydi. Afg'on rubobi Buxoroda ancha mashhur bo'lgani bois, buxoro rubobi, deb ham yuritiladi. 1936 yilda Farg'ona vodiysining so'lim Shohimardon qishlog'ida bo'lib o'tgan xalq saylida ustoz M. Mirzayev bir uyg'ur sozandasidan qashqar rubobi cholg'usini xarid qiladi va Toshkentga olib kelib usta Usmon Zufarov bilan bu cholg'uni takomillashtiradi, ya'ni uning menzurasi uzaytirilib, dasta qismiga latundan bo'lgan qalamchalar o'rnatiladi. Natijada bugunki kundadagi ko'rinishdagi qashqar rubob cholg'usini yaratadilar. [3] Bu cholg'u bo'yicha mashhur ustoz, O'zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Qobiljon Usmonov, Shavkat Mirzayev, Tohir Rajabiy, Zamira Rahmatullayeva, Odiljon Nazaroov kabi taniqli sozanda va san'atkorlar, ko'plab Respublika va Xalqaro tanlovlar g'oliblari yetishib chiqdilar. Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim dargohlarida hamda, "Bolalar musiqa va san'at" maktablarida ushbu cholg'u bo'yicha ta'lim yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston kompozitorlari qashqar rubobi uchun yaratgan maxsus asarlari rubob ijrochiligining yangi-yangi ufqlarini ochiq bermoqda. So'nggi yillarda yaratilayotgan maxsus asarlar ijro hamda o'quv dasturlarini boyitib kelmoqda. Qashqar rubob ijrochiligi mohir sozanda va bastakorlar ijodi bilan chambarchas bog'liq. Bastakor va mashhur sozanda, O'zbekiston xalq artisti M.Mirzayev o'tgan asrning 50-60 yillarida juda sermazmun ijod qildi. Uning qashqar rubobi uchun yaratgan har bir asari xalq orasida tez ommalashdi. Ustozning ham bastakor sifatida, ham sozanda sifatida sermahsul ijodi qashqar rubobi sozini O'zbekning har bir xonadoniga olib kirdi. Qashqar rubobida o'z farzandi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sh. Mirzayev bilan birgalikda ijro etgan duetlari o'zining takrorlanmas jozibasiga ega. XX asrning 20-30 yillaridayoq o'zbek xalq ustalaridan Usmon Zufarov, Matyusuf Xarratov, Shorahim Shoumarov va boshqalar xalq cholg'u asboblarni takomillashtirish yo'lida dastlabki ishlarni qildilar. Ular sado kuchini

oshirish va sifatini yaxshilash, tashqi bezakni ko'rkamlashtirishga intildilar. Sadoni kuchaytirish o'sha davr solarini takomillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lgan. [4] Sadoni takomillashtirish uchun turli usullar sinab ko'rilgan – sozning korpusi shakli o'zgartirildi, dutor, tanburning ichki qismi ikki yoniga qo'shimcha rezonatsiyaga mo'ljallangan torlar tortildi, biroq parda bog'lamlari, tovush qurilishi va tavushqator o'zgarishsiz qolaveradi. Soz ustasi Usmon Zufarov 1927 – yilda radio qoshidagi milliy cholg'u asboblari ansambli buyurtmasi bo'yicha katta dutor, karnayli dastaning yuqori qismida og'iz bo'lgan, tanbur hamda korpusning quyi qismida og'iz bo'lgan g'ijjak yasadi. Ular soz sadosini kuchaytirishga urinib, tovushqatori, torlarning sozlanishi, diapazoni, yasash usuli va boshqa xususiyatlari an'anaviyligicha qolgan cholg'u asboblarini yaratishdi. Ustan Usmon Zufarov va boshqa xalq ustalari tomonidan o'tkazilgan tajribalar asosan sozning sadosini kuchaytirishga qaratilgandi. Xalq cholg'u asboblarini takomillashtirish bo'yicha tajriba laboratoriyasi tarkibida musiqa amaliyoti talabalariga javob beruvchi cholg'u asboblarining yangi na'munalari konstruksiyasini ishlab chiquvchi tajriba konstruktorlik bo'limi muntazam ish olib borgan. Bu yerda yangi cholg'u asboblarining sifatini aniqlash uchun ularni chalib tinglash ishi doimo o'tkazib turilgan. Eng yaxshi namunalari ijrochilarga va ijrochi jamoalarga berilib, ularning tanqidiy fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilgan, cholg'u asboblari fabrikasida ommaviy ravishda ishlab chiqish uchun tuzatishlar kiritilgan. Tajriba laboratoriyasida cholg'u asboblarini va ularning qismlarini tayyorlovchi musiqa ustaxonasiga rahbarlik qilingan, muzey eksponatlari ta'mirlangan. Bu ishlarning bari puxtalik bilan tavsiflab borilgan, ularning bayonnomalari tuzilgan, mufassil chizimlari tayyorlanib, ular asosida o'zbek xalq cholg'u asboblarining yangi turlari yaratilgan. Ilmiy asarlar fondi, fonoteka va ilmiy kutubxona bunyod etilgan. 1943-1990 yillar oralig'idagi davrda tajriba laboratoriyasida xalq cholg'u asboblarini yasovchi taniqli ustalar: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi usta Usmon Zufarov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari X. Muhitdinov, A. Abdug'ofurov, cholg'u ustasi A. Tarasov, N. Ryuxin, O. Turdiyev, X. Majidov, S. Qodirov. B. Inoyatov va boshqalar ish olib borishdi.

ADABIYOTLAR

1. А. И. Петросянц. Инструментоведение. Ташкент. 1980
2. А. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993
3. А. Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent 1995
4. О. Akbarov. Prima rubobi darslik. Toshkent 2003

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI QOSHIDAGI “NOZANIN” DUTORCHILAR ANSAMBLI

Normurodova Dildora Erdon qizi,

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

“Musiqqa ta'limi va san'at” yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dutorchilar ansamblining xalq turmush-tarzidagi o'rni, dutorchi qizlar ansamblining vujudga kelishi va “Nozanin dutorchi” qizlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ansambl, repertuar, dutor, konsert, festival, gostrol, polifonik, garmonik, akadem, folklor.

Dutorchi qizlar ansambli milliy kuy-ko'shiqlarimiz, ashulalarimiz va milliy ohanglarimizni xalqimiz qalbiga hamda butun dunyoga keng targ'ib qilish maqsadida shakllanib, vujudga keldi. [1] 2015-yilda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi qoshida dutorchi qizlar ansambli tashkil etildi. Ansambl yettita ijrochidan iborat bo'lib, bular: Umida Abduzokirova (Rahmatullayeva), Latofat Mo'minova, Shoirra Sanayeva, Dilfuza Rahimova, Rahima Abrayqulova, Barno Hasanova (Qurbonova), Aziza Niyetullayeva kabi dutor sinfida ta'lim olayotgan talaba qizlar edi. Konservatoriyani tugatgan talabalarning o'rniga o'qishga yangi qabul qilingan talabar jamoa repertuarini o'rganishadi, ansambl faoliyati shu tariqa davom etadi. Ansambl rahbari “Shuhrat” medali sohibi, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi professori Ro'zibi Xodjayeva. 2022-yilga kelib ansambl tarkibi ko'paya bordi. Ular Niyetullayeva Aziza, Po'latova Farangiz, Ummatova Nodira, Hasanova Barno, Normurodova Dildora, Mahmudjonova Maftunabonu, Toshpo'latova Sanobar, Kamolova Hulkaroy, Rabbimova Nasiba,

Allamberganova Gulnaz, Abdulhakimova Umida, Ravshanova Anora kabi dutorchi qizlar faoliyat olib bormoqdalar. Ansambl tez fursatda o'zbek musiqa madaniyatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Barcha ommaviy va davlat tadbirlari, turli konsert va festivallarda, Teleradiokompaniyaning turli chiqishlarida ishtirok etib, muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishmoqda.

O'zbekiston viloyatlari Buxoro, Xorazm, Navoiy, Samarqand, Andijon, Namangan, Farg'ona, Sirdaryo bo'ylab uyushtirilgan konsert gostrollari ansamblning yanada gullab yashnashi, rivojiga hissa qo'shdi.

Hatto chet el safarlarida o'z ijodlarini namoyon etib o'zbek milliy musiqasini xalq cholg'ularida ijro etib, dunyo sahnalarida ko'z-ko'z qilishga muyassar bo'ldilar. Xususan, 2018-yil aprel oyida va takror sentyabr oylarida Kiyevdagi O'zbekiston elchixonasi vakili Alisher Abduvaliyev taklifi bilan Ukrainaning Lvov shaxriga gostrol safariga borib kelishdi. Elchining ayoli Gulnoza Abduvaliyeva ansamblidagi ijrochi qizlarning xushfe'lligi, go'zal hulqi, mohir ijrosiga tan berib, ansamblga "Nozanin" nomini berishni taklif qilgan. Bu nom R. Xodjayevaga ma'qul kelib, shu nom bilan butun dunyoga tanilishmoqda. 2018-yilgacha bu jamoa faqat dutorchi qizlar ansambli nomi bilan ijod etib keldi.

2019-yil yanvar oyida Ukrainaning Kiyev shahriga yana borishdi va bu safar juda katta tassurotlar bilan qaytishdi. 2019-yil iyul oyida Turkiyaning Anqara hamda Istanbul shaharlariga borib konsert dasturini namoyon etdilar.



2019-yil noyabr oyida R.Xodjayeva rahbarligidagi "Nozanin" dutorchilar ansambli O'zDK organ zalida "Safar xotiralari" nomli ansambl konsertini taqdim etishdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, BWG Production kompaniyasi milliy raqs tarixi haqida yangi, musiqiy-hujjatli filmni taqdim etdi. "O'zbek raqsining afsonalari" o'zbek raqs san'atining boshidan to buguni, jahon sahnasini zabt etgan mamlakatning mashhur siymolari: Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qori-Yoqubov, Mukarrama Turg'unboeva va "Bahor" ansambli hamda Isohor Oqilov va boshqalar haqida hikoya qilinadi. R. Xodjayeva boshchiligidagi "Nozanin" dutorchilar ansambli "O'zbek raqslari afsonasi" nomli hujjatli filmga tushish va uning premyera jarayonlarida faol ishtirok etdi.

Eng muhimi shundaki, Ro'zibi Xodjayevaning professionallarga aylanib bo'lgan "Nozanin" ansambli endilikda O'zDK rektori K.O'rinboyev boshchiligidagi Yoshlar simfonik orkestri bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdi. Ular ilk marotaba 2019-yil 8-dekabr Xalqlar do'stligi saroyida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilingan kuni" ga bag'ishlab o'tkazilgan katta konsert tadbirida ishtirok etishdi. 2021-yil "Oltin kuz" deb nomlangan katta konsert dasturida ham ansambl va orkestrning uyg'un chiqishlari olqishga sazovor bo'ldi. Ularning umumiy repertuarlari orasida "Kuylar dutor", "Olma otdim" deb nomlangan asarlar o'rin olgan. Bu orkestr va ansambl hamkorligida ko'plab konsert tadbirlarda chiqish qilib, tomoshabinlar mehrini qozonmoqdalar.

Qolaversa, bugungi kunda ansambl faoliyatini yoritish maqsadida televideniya dan ko'plab ko'rsatuvlarga taklif bildirishmoqda. Jumladan, O'zbekiston telekanalining "Assalom O'zbekiston", Mening yurtim telekanalining "Omon-omon", "Mahalla telekanalining "Mahalla tonggi" teledasturlari

2022-yil 28-may kuni R.Xodjayeva rahbarligidagi O'zbek-yapon markazining dutor chalish kurslari ishtirokchilari hamda o'zbek qizlaridan iborat "Nozanin" dutorchilar ansambli ikkita davlat hamdo'stligi tadbirida kichik konsert tadbirini taqdim etishdi. Bu tadbirda Yapon madaniyati bilan tanishish bilan birga, O'zbek madaniyatini targ'ib qilish asosiy maqsadga aylandi. Konsert tadbirida o'zbek xalq va mumtoz asarlari ijro etildi. Ikkala davlat san'atini birlashtirgan holda bitta ansambl bo'lib kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

Mazkur ansambl G'.Toshmatov nomidagi dutorchi qizlar ansamblidan ko'p tomonlari bilan farq qiladi. Ansamblda xalq folklori, milliy mumtoz kuy qo'shiqlar bilan birgalikda, akadem yo'nalishdagi ijrolarni ham uchratish mumkin. Bunda ansambl oilalarining barcha turlari ishtirok etishi, o'zbek qardosh, chet davlatlar musiqalarini ham bemalol qiynalmasdan ijro etish imkoniyati yuzaga keladi. Masalan, dutor prima, dutor alt, dutor tenor, dutor bas, dutor kontrabas kabi takomillashtirilgan cholg'ular ansambli vositasida keng diapazonli, ko'p ovozli, polifonik-garmonik kuylarni ijro etish mumkin. Ansambli ijro dasturi poppuri asarlar, shou programmalar, ko'p ovozli dutor oilalari vositasidagi ijrorolar hamda turli cholg'ularni kiritish orqali boyitildi. Ijro dasturidagi "Qo'shtor-lazgi" poppurisi eng ommalashgan nomer hisoblanadi. Undan tashqari, "O'zbek xalq qo'shiqlariga poppuri", "Dutorim", "Chertmak", "Dilxiroj", "Qiz munayim", "Qizgina", "Nahori nashta", "Dilnoz", "Hayoli qiz", "Do'ppi tikdim", ukrain xalq qo'shig'i "Ты же меня пидманула", Yapon xalq qo'shig'i "Popuriva", "Shima uta" va boshqa ijrolari ham tinglovchilar e'tiboridan chetda qolmagan.

Yangi avlodni tarbiyalab beradigan, umrni bezaydigan kasblarni egallashga xizmat qilish oldimizdagi vazifalardan. Shukurki, mustaqillik yilarida barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim, eng ommabop vositasi bo'lgan xalq o'yinlari, kurash va qo'shiqlarini rivojlantirishga kirishildi. Biz yashayotgan tabarruk zamin bag'rida ko'p buyuk insonlar hayot kechirgan. Ilmu-ma'rifat, adabiyot, san'atda, jasoratda tengsiz, yuksak isoniy fazilatlar bilan ibrat bo'la oladigan nomlari abadiyatga muxrlangan buyuk yurtodoshlarimiz juda ko'p. Ularning hayot va ijod yo'llari juda katta maktab.

Shular orasida o'zbek musiqa madaniyati ham qadimiy rang-barang va ayni vaqtda hozirgi zamon an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo betakror xalq musiqasi, mumtoz musiqiy me'ros, milliy bastakorlik, hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek xalq havaskorligi hamda jo'shqin estrada ijodiyoti kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo, maftunkor jabhalar namoyon bo'ladi. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor, uni taraqqiy ettirishga bo'lgan intilish ijobiy natijalarga erishishga olib bormoqda.

Ma'naviy me'rosni qayta tiklash, milliy madaniyatni anglash jarayonlari san'atkorlar e'tiborini uzoq va yaqin o'tmishdagi Vatan tarixi, unutilayozgan qadriyatlar qatlamiga, bir vaqtlar qatag'on etilgan mavzular va shaxsiyatlarga jalb etdi. So'nggi o'n yillikda kechgan ijodiy jarayonlarda tarixini mavzuning yetakchilik qilgani ham ana shundandir. Xulosa qilib aytganda, mazkur maqola akademik litsey, san'at kollejlari, san'at institutlari, konservatoriya talabalari hamda o'qituvchilar uchun "Nozanin" ansambli repertuari, ustoz R.Xodjayeva hayot yo'llari, ijodiy muvaffaqiyatlari o'rnak bo'lsa, aynan biz ko'targan mavzu yuzasidan amaliyotda ijobiy natijalarni ko'rsak, maqsadga erishgan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. B. Rahimjonov "Dutorchilar ansambli" Toshkent. 2002 y.
2. M. Akmaljonova "Dutor orkestri" Toshkent. 2004.
3. O. Abdullayeva "Ansambl cholg'ularini o'rganish" Toshkent. 2006 yil.

O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA "STEAM" O'QITISH YONDASHUVIDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Nadirxanova Nilufar Alisherovna,
BuxDU, "Tasviriy va amaliy bezak
san'ati" 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning badiiy estetik tafakkurini shakllantirishda "STEAM" o'qitish yondashuvidan foydalanish metodikasi.

Kalit so'zlar: Texnika, tasviriy san'at, o'qitish, axloqiy-estetik, fan Bugungi kunga kelib ta'lim sohasida pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarning paydo bo'lishi o'qituvchi faoliyatining yangilanish g'oyalarning paydo bo'lishi o'qituvchi faoliyatining yangilanishini talab etmoqda. Amaliy fanlar o'qituvchilarning asosiy maqsadifanlarni o'qitishda o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish

S - science (tabiiy fanlar)

T - technology (texnologiya)

E - engineering (muhandislik)

A - art (san'at)

M - mathematics (matematik)yondashuvi asosida fanlarning integratsiyasini kuchaytirish, har bir o'quvchini ijodkorga aylanishiga turli manbalar (adqbiyotlar,tajribalar va h.k)yordamida mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirishga o'quvchilarga ta'lim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratish hamda bilim olishga qiziqishidir .

Masalan, "Tabiatdagi daraxtlarning yil fasllariga qarab o'zgarishini tasvirlash " mavzusini tushuntirish jarayosinf o'quvchilari STEAM yo'nalishlari bo'yicha guruhlarga bo'ladi. **STEAM** yo'nalishlari bo'yicha 5 guruhga bo'linadi.

Ta'lim tendensiyalariga rioya qilish ba'zida biror bir metodning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin . Ta'limda ko'pgina pedagoglarning o'quvchilarni baholash uchun yo'llar izlashadi . Negaki an'anaviy baholash usullari o'quvchilarning bilim - ko'nikmalarini aniq baholamasligi mumkin.O'quvchilarning o'zlashtirishida asosan baholash o'quvchilarning darsda o'rganagan ko'nikmalarini aniq o'lchamaydi.

Asosiy qism. o'zlashtirishga asoslangan baholash o'quvchilarning Jahondagi ta'lim bo'yicha ekspertlarning ta'kidlashicha, STEAM ta'limi o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

1 O'ylab tavakkal qiling

2 Ma'noli o'quv faoliyati bilan shug'ullaning

3 Bardoshli muammolarni hal qiluvchilarga aylaning

4 Hamkorlikni quchoqlang va qadrlang

5 Ijodiy jarayon orqali ishlang

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bogliq bo'ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta etibor qaratish lozim.Yurtboshimiz takidlaganidek yoshlarni erkin fikrlash



SCIENCE



TECHNOLOGY



ENGINEERING



ARTS



MATHEMATICS

mustaqil hayotga yonaltirishimiz kerak. Bu borada STEAM texnologiyasi bizga qo'l keladi. STEAM-tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, sanat va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. STEAM talim muhitida bolalar bilimga ega boladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 1-2 sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy, matematika darsliklarida berilgan mavzularga STEAM texnologiyasi asosida yondashib, darslar tashkil etsa bo'ladi. Xususan, tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan. Jumladan 2-sinf tabiiy fanida Yer- sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni organishda oquvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulot ham otkazishadi. Oquvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini oylab topishadi. Bir shu mavzu asosida oquvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka undash mumkin. Nafaqat darslarda balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham STEAM texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg'ulotlarni tashkil etishda kasb, hunar egalari taklif etilsa, ular oz kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy korsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o'z yo'nalishini topib oladilar. Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil fikrlashga, g'oyalarni ilgari surishga undaydi.

STEAM - ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyon qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish STEAM - dasturi bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan: bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'adilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazadilar. Birinchi sinovdan so'ng kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o'ylaydilar va topadilar. Balkim, g'ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to'g'ri kelmagandir. Har bir sinovdan so'ng ular kamchiliklarini bartaraf etib boradilar.

O'z kuchiga ishonish hissining ortishi

Bolalar ko'prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so'ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish, g'alaba va quvonch demakdir. Har bir g'alabadan so'ng ular o'z kuchlariga yanada ishonadilar.

Xulosa. STEAM - dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot qilishga o'rganadilar. Bolalar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan qatnashsalar, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. STEAM - mashg'ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo'lganidan bolalar mashg'ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o'tganligini sezmay qoladilar.

STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini taqazo etadi.

ADABIYOTLAR

- 1 Abjalova M. M. Ta'limda STEAM yondashuv va kreativlik . O'quv qo'llanma
- 2 Abdurasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent "Fan va texnologiya"2002
- 3.Hasanov R. Maktab tasviriy san'at darslari T.,1995- y.

**UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARDA INSON QADRINI
YUKSALTIRISH TUYG'USINI SINGDIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING
O'RNI**

Ergasheva Shohida Qosimovna,

BuxDU, "San'atshunoslik" fakulteti

"Tasviriy va amaliy bezak san'ati" 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarda inson qadrini yuksaltirish tuyg'usini singdirishda tasviriy san'atning o'rni tushunchasi, o'rganilib, tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, mafkura, globallashuv, mantiqiy, abstrakt.

San'at- inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at- voqea- hodisalarni badiiy obrazlar orqali aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa.

Mafkuraviy tarbiya-inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat, dunyoqarashini shakllantirishga va ularni g'oyaviy, mafkuraviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, oila, mahalla, maktabgacha ta'lim, maktab, maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'lim hamda mehnat jamoalarigacha bo'lgan bosqichda amalga oshiriladi. Mafkuraviy tarbiyada o'quvchilarni yetuk shaxs qilib tarbiyalashda san'at mafkuraviy tarbiyaning muhim vositasi sifatida ahamiyatlidir. Jumladan o'zida vatanparvarlik, ozodlik, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularni aks ettirgan "Alpomish", "To'maris", "Amir Temur", "Jaloliddin Manguberdi" kabi milliy kino namunalari, "Vatan", "O'tov" kabi videofilmlar orqali va Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", M. Behbudiyning "Padarkush", Oybekning "Navoiy", A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" kabi milliy tarix va insoniy mehr-muhabbat aks etgan badiiy adabiyot namunalari orqali kishilarda mafkuraviy tarbiyani u yoki bu darajada shakllantirib boriladi. Shu bilan birga Ro'zi Choriyev, O'rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov, Rahim Axmedov singari rang tasvir ustalari yaratgan, kishida umuminsoniy tuyg'ularni, yurtga bo'lgan mehr-muhabbatni aks ettiruvchi san'at asarlarini hgam bunga misol qilib olishimiz mumkin.

Tasviriy san`at o`quv predmeti har bir inson uchun zarur bo`lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o`quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat`iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo`ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san`at asarlari bilan muzey, ko`rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. SHuningdek, ko`pchilik o`quvchilar o`zlarining kelajak hayotlarida ma`lum miqdorda rasm ishlashlariga to`g`ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me`morlar uchungina emas, u o`qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o`z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so`z bilan tushuntirib bo`lmaydigan o`z g`oya va fikrlarini tasvirlab ko`rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma`noni bildirmaydi. Maktablar o`z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta`lim [maktablari deb nomlanib](#), bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo`yadi. Maktablarda tasviriy san`atdan beriladigan elementar bilim va malakalarga yarasha o`qitish metodlarini qo`llash zarur bo`ladi.

Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin:

1. Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at

asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish, uni qadrlashga, sevishga o`rgatish.

2. Tasviriy san`at darslarining qo`shimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko`maklashish; milliy g`urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yullash.

Tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to`xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o`qitiladigan deyarli barcha o`quv predmetlari bilan bog`lanadi va ular yuzasidan materiallarni o`zlashtirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa, u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. SHuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada, u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish;
- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;
- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish;
- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvirleydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladilar, natijada

bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmuni aks etiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan, rassomlar chiziq, ranglar, o`lchovlar, kompozitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

ADABIYOTLAR

1. "Hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent "O'zbekiston" 2019y;

2. XXI asrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar I-qism. Toshkent "Mirzo Ulug'bek" 23 may 2008 yil

O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI TURLARINI RIVOJLANISH TARIXI

Zilola Naimovna Xayrullayeva,

BuxDU, "Tasviriy va amaliy bezak san'ati" 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati haqida tushuncha berilgan, amaliy bezak san'atining turlari haqida, amaliy san'atda bezak, naqsh bilan tasviriy san'atning bog'liqligi haqida, amaliy san'atning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Amaliy san'at, bezak, naqsh, shakl, asr, xom-ashyo.

Bizning vazifamiz — to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelini qat'iy amalga oshirishdan iborat.

Shavkat Mirziyoyev,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, tasviriy va amaliy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o'rta ta'limning yana o'n bir yillik bo'lishi va unda kasbga yo'naltirish maqsadida o'quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek akademik litsey, kasb–hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining Konstitutsiyamizning 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzalarida «...Farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi–yangi ta'lim–tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy–joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga...»[1] ko'tarish zarurligini aytib o'tadilar.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari boy va rangbarang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shoh ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Amaliy bezak san'ati – bezak san'ati sohasi hisoblanadi. Ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi.[2] Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining

ko'inishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qiymati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom-ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir.

Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o'ynaydi. Xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibliigi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta'sirchan mazmunli shakllar ko'pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi.

Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to'r; gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo'ladi.

Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi. XIX asr 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san'at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog'och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo'yash, o'yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to'qish va boshqalar)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o'z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratdi.[3] Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizasiya -ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa

turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan iboratdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda.

Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildiradi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa shakllarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo- afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqi ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'g'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylilik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi.

Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar kuyini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi “Xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan” iborat bo'ladi.[4] Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib erkin ifodalikka erishadi. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to'garaklar tarmog'ini iloji boricha kengaytirish vazifasi qo'yilmoqda. Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish insonlarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi. Xalq amaliy san'atining qaysi bir turi bo'lmasin uning zaminida naqsh elementlaridan to'qilgan kompozitsiya yotadi.

Asrlar davomida ortirilgan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kashtachilik, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyasi, xaqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, uslublari, yaratgan ustalarning nomlari asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi. Shuning uchun xalqning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan va yaratib kelinayotkan o'zbek xalq amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amalda foydalanish, yoshlarga o'rgatish orqali ularning estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning muhim vazifalaridan biridir.

Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X asrda (taxminan 864-868yy.) Somoniylar sulolasi asoschisi tomonidan qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir. Bu yodgorlik ajoyib ziynatli turli jimjimador naqshlari va murakkab gumbazi tomli konstruksiyani qo'llagan binokorlarning muhandislik mahorati jihatidan ham jahon me'morchiligining eng mukammal asari hisoblanadi. Cheklangan tasvir vositasi g'ishtning o'zidan ham qurilish ashyosi sifatida mantiqiy naqshinkorlik hamda o'ta nafis badiiy kompozitsion mukammallikni yaratilishi ajdodlarimiz zakovati va mohirligidan dalolatdir.

Naqshinkor bezaklar bilan jilolangan O'zbekiston me'moriy yodgorliklari butun dunyo sayyoh, o'lkashunos, san'atshunos olimlarining e'tiborini tortmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, O'gan kabi shaharlarning betakror qiyofasini yaratgan qadimiy me'morlarining yuksak mahorati va badiiy tafakkuri hanuzgacha kishilarni hayratga solib kelmoqda.[5]

Yodgorlik binolarining bezaklari xilma-xil va sermazmundir. Ular binolarning funksional vazifasi hajmiy mutanosibligiga mos kelib, xalq madaniy an'analarini o'zida ifoda etadi. Me'moriy binolar bezagida o'simliksimon, handasaviy va epigrafik naqsh turlari uyg'unligida jozibali kompozitsiya yaratilgan. O'rta Osiyo san'atida o'rta asrlarda paydo bo'lgan girihi naqshlar keng tarqalib, hozirgi yog'och, ganch, tosh o'ymakorligi, kulolchilik, g'isht terish, mozayka va devor naqshlarida foydalanilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, diyorimizning asrlar darg'alarida muhrlangan boy xalq amaliy san'ati durdonalari kelajagimiz yoshlari va buguni uchun bebaho meros bo'lib, ularni asrab avaylash hamda ustozlar izidan borish ushbu madaniy merosimizni yanada yuksalishiga va keyingi ming yillikka ham yetib borishiga yordam beradi. Xalq amaliy san'ati turlarini rivojlantirish, yo'qolib borayotgan har bir amaliy san'at ishlarini qayta tiklashimiz darkor!

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» mavzusidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2016 yil, 8 dekabr.
2. Axmetova A.S., Ismatullayeva M.Z. «Xalq hunarmandchiligi». -T.: «Iqtisod Moliya» 2009.
3. Bulatov S. «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati». -T.: «Mehnat» 1991.- 382 b.
4. Golovin N.N. «Kustarniye promisli Turkistana». -T.: 1999.-98 b.
5. Zasipkin P.SH. «Mastera uzbekskogo zodchestva». -T.: 1967.-132 s.

71010303 - ADAPTIV SOG`LOMLASHTIRISH, JISMONIY TARBIYA VA SPORT

JISMONIY TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI MILLIY AN'ANALAR VOSITASIDA TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

A.E.Sattorov,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Jo'rayeva Zarina Hasan qizi,

BuxDU, Sport faoliyati kafedrasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy ta'lim-tarbiya jarayonini milliy an'analar vositasida tashkil etishning muhimligi borasidagi fikrlar, xalq milliy an'ana va urf-odat sifatida qaragan jismoniy mashg'ulotlar va ularning turlari, ahamiyat borasida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy ta'lim-tarbiya, jismoniy sifatlar, milliy an'ana va urf-odatlar, jismoniy barkamollik.

Inson jismoniy sifatlarni kamol toptirishga qaratilgan faol harakatlar faoliyati jismoniy ta'lim-tarbiya asosini tashkil etadi. Bolalarning jismoniy faoliyatini milliy an'ana va urf-odatlar vositasida tashkil etish – milliy jismoniy ta'lim-tarbiya jarayoniga asoslangan faoliyatni amalga oshirish bugungi pedagogika oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Milliy an'ana va urf-odatlar o'chog'i esa bu- oiladir. An'anaviy jamiyatda oilaviy jismoniy tarbiya bolalar shaxsini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Ota-onalarning bolalariga chiniqtirish, jismoniy mashqlar o'rgatish, ular bilan birgalikda mashg'ulotlar o'tkazishda ishtirok etishi nafaqat bolalarda jismoniy tarbiya va sportga doimiy qiziqishni shakllantiradi, balki ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini ham oshiradi. Ular ota-onalar va farzandlar o'rtasida manfaatlar mushtarakligining kengayishiga, oila ichidagi rishtalarning mustahkamlanishiga, o'zaro xayrixoh munosabatlarning yo'lga qo'yilishiga, yaxshi oilaviy an'analarning shakllanishiga, oilada ma'naviy-axloqiy muhitning yuksalishiga xizmat qiladi. Aksariyat xalqlarning

an'analarida ota-onalar, qarindoshlarning bolalar uchun turli o'yinlar, musobaqalar tashkil etishi va bu jarayonda bevosita o'zlarining ham ixtiyoriy ishtiroki mavjud bo'lgan. Bu an'ana xalq pedagogikasining o'ziga xosligini, o'zining keng pedagogik auditoriyasini, o'z bolalariga befarq bo'lmagan munosabatini aks ettiradi. Bu xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'ziga xos tarbiyaviy estafeta edi.

Ikkinchi o'rinda bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiyalashda shu bola yashayotgan jamiyatning o'rni muhim. Manbalarda xalq bolalariga jismoniy harakatlarni o'rgatishda murabbiy tayinlash tosh asrlariga borib taqalishi aytiladi. O'sha davrlarda yosh avlodni jismoniy tarbiyalash jarohat yoki kasallik tufayli ov yoki janglarda qatnasha olmaydigan eng yaxshi ovchilar, jangchilarga ishonib topshirilgan. Keyinchalik bu an'ana sport mashg'ulotlariga to'g'ri keldi. Murabbiylar sport mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'z tarbiyalanuvchilari shaxsining butun bir qator axloqiy-irodaviy, axloqiy va estetik fazilatlarini tarbiyalash borasida jiddiy ishlar olib borganlar. Shu bilan birga bolalarga jismoniy harakatlarni o'rgatuvchi murabbiylarning o'zlari ham yuksak ma'naviyat namunasi bo'lishga harakat qilganlar.

G. N. Volkov jamoat tadbirlari, xususan, bayramlarda turli musobaqalarning yo'lga qo'yilishini xalq pedagogikasidagi an'analar orqali bolalarni jismoniy chiniqtirish mumkin deb qaraydi. Bayramda jismoniy madaniyat elementlarining mavjudligi muhim xalq tarbiyaviy an'alaridan biridir. Qadimgi kunlarda jismoniy mashqlar deyarli har qanday xalq bayramining eng muhim tarkibiy qismi sanalgan edi. Zero, barcha xalqlar jismoniy tarbiyani kuchli avlodni tarbiyalash vazifasini amalga oshiruvchi kuch deb bilishgan. Murabbiylar o'yinlarni bolani jamoaga kirishishiga yordam berish, o'zini tuta bilish, uyushqoqlik bilan harakat qilish va xarakterni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaganlar. Bundan ko'rinadiki, mahalliy jismoniy tarbiya fani o'tmishning boy merosi ta'sirida shakllangan bo'lib, uning ildizlari ko'p asrlik xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Mohir murabbiylar jismoniy tarbiyani har tomonlama

tarbiyaning bir qismi sifatida qarashgan va bolaning aqliy, axloqiy va estetika jihatdan kamol topishi bilan bog'liq ekanligini aytishgan. Ular jismoniy tarbiyaning maqsadini tizimli mashqlar, o'yinlar, yurishlar va tanani chiniqtirish orqali bolaning jismoniy kuchini rivojlantirish va sog'lig'ini mustahkamlashda ko'rdilar. P. F. Lesgaft Ochiq o'yinlar nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqqan P. F. Lesgaft jismoniy mashg'ulotlarni "Bolani hayotga tayyorlaydigan mashq" deb ta'riflaydi. Bu mashg'ulotlarda bola o'zida ko'nikma, odatlarni shakllantiradi, xarakterni rivojlantiradi. O'yinlardagi qoidalar qonunning ma'nosiga, bolalarning ongli va mas'uliyatli bo'lishi kerak bo'lgan munosabatiga ega. Ularning bajarilishi hamma uchun majburiydir, shuning uchun ular katta tarbiyaviy kuchga ega. O'yinlar axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi - intizom, halollik, rostgo'ylik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni bolada shakllantiradi"-deydi P.F.Lesgaft. Bir so'z bilan aytganda P.F.Lesgaft jismoniy faoliyatni shaxsni tarbiyalashning eng qimmatli vositasi deb hisoblagan.

Bolalarning jismoniy ta'lim-tarbiyasini milliy an'analar vositasida tashkil etishda xalq azaldan qo'llab kelgan bir qator mashqlarni ularda keng targ'ib qilish g'oyat o'rinli hisoblanadi. Jumladan, umumiy rivojlanish mashqlari hisoblangan - yurish, yugurish, muvozanat mashqlari, toqqa chiqish, emaklash, uloqtirish, sakrash, kurash, ot choptirish, velosipedda uchish, suzish kabi ko'nikmalarini shakllantirish muhim. Bugungi kunda keng tarqalgan sport o'yinlari-tennis, badminton, volleybol, basketbol, xokkey, futbol kabilar bilan birgalikda yuqorida sanab o'tilgan xalq azaldan qo'llab kelgan sport mashg'ulotlari bilan bolalarni tanishtirish va ularga qiziqish uyg'otish g'oyat muhim hisoblanadi.

Sababi bu kabi mashg'ulotlar insonga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi, ularning jismoniy holatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasi kabi vazifalarini amalga oshirishga, shuningdek, aqliy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Zero, Jismoniy mashqlar odam o'zining kelgusi mehnat faoliyatiga (ov qilish, turli xil asboblar yasash va h.k.) jismoniy tayyorgarlik zarurligini anglab etgan bir paytda paydo bo'lgan. Dastlabki odamlar ovdan ancha oldin yaqinlashib kelayotgan o'ljasini qanday yengishlarini tasavvur qilishgan va bunday harakatlarning qayta-qayta

takrorlanishi jarayonida odamda ko`z o`tkirligi, diqqatni jamlash, nishonga tegish kabi qobiliyatlar shakllangan. Shunday qilib, dastlab mehnat jarayonida ishlatiladigan harakatlardan iborat bo`lgan jismoniy harakatlar bugungi kunda sport darajasigacha yetdi va bunda, albatta, xalq ularni urf-odat va milliy an`analar sifatida qadrlashi asos bo`ldi.

Masalan, bayramlarda, musobaqalarda xalq doimiy qo`llaydigan mashg`ulotlardan biri bo`lgan to'pni masofaga uloqtirish mashg`uloti insondan qo'l va tananing tebranish paytidagi harakati uloqtirish paytidagiga qaraganda teskari yo'nalishda amalga oshirilishi uchun tezkorlik, diqqatni jamlash, epchillik kabi jismoniy sifatlarni talab qiladi. Shu bilan birga, bu mashg`ulotda mushaklar cho'ziladi. Qo'l harakati to'p masofasini to`g`ri olishda asosiy sanalgani bois, bilaklarda kuch bo`lishi talab qilinadi. Xalq milliy mashg`ulot sifatida bilgan balandlikka sakrash mashg`uloti ham insondan kuchli iroda talab qilgan va bu mashg`ulot inson jismoniy ta'lim tarbiyasida muhim o'rin tutgan. Chunki balandlikka sakrash mashg`ulotining o'ziga xos xususiyati: tananing turli qismlariga, alohida bo'g'imlarga, mushak guruhlariga va hatto ularning faoliyati va holatining turli tomonlariga (bo'shashish, mushaklarning cho'zilishi va boshqalar) selektiv ta'sir ko'rsatishi; o`z og`irligini aniq bilish imkoniyatini anglashni taqozo etadi. Jismoniy mashqlardan foydalanish tananing sezilarli kuchlanishini va barcha asosiy tizimlarning harakatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi, shuning uchun har bir inson xalq milliy an'ana sifatida qadrlagan kurash, kamondan o`q otish, ot poygasi va ot minish, arqon tortish yoki gilam tortishish kani turli o'yinlar va musobaqalarni bilishi va keying avlodlarga yetkazishi zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. САТТОРОВ А. Э., ИБРАГИМОВ А. К. СПОРЧИЛАРДА ҲИССИЙ ИРОДАВИЙ СИФАТЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ПСИХОЛОГИЯ Учредители: Бухарский государственный университет. – №. С2. – С. 112-118.
2. Сатторов А.Е., Ибрагимов М. Методы и средства формирования специальных умений в процессе проведения индивидуальных занятий тренеров по боксу //Web

of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 02. – С. 1302-1307 гг.

3. Сатторов А.Е., Рустамов А. Пути укрепления здоровья студентов путем организации трехэтапных спортивных соревнований в Узбекистане //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1121-1127.

MALAKALI DZYUDUCHILARNING MAXSUS VA MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

A.E. Sattorov,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Xodjayev Nodir Shuxratovich,

BuxDU, Sport faoliyati kafedrasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sportda dzyudoning o'rni, ahamiyati, shakllanishi va malakali dzyudochilarning maxsus va musobaqa oldi tayyorgarligini shakllantirish texnologiyalari borasidagi nazariy fikrlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: dzyudo, olimpiya o'yinlari, Nage Waza, Katame Waza

Ma'lumki, sport shaxsning har tomonlama rivojlanishiga maxsus tarzda ta'sir ko'rsatadi, shaxsiy ko'nikma va malakalarning shakllanishiga yordam beradi, ma'naviy, axloqiy va aqliy o'sishga, shaxsning mardlik, iroda, ruhiy tetiklik kabi xususiyatlarini chiniqtirishga ko'maklashadi, insonlarda o'zaro hurmat, do'stlik, inoqlik hisslarini tarbiyalaydi. O'zaro yordam, oliyjanoblik, halollik, baynalminallik ruhi vaboshqalar sportning eng muhim fazilati hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy sportning juda ko'p mustaqil turlari paydo bo'ldiki, ularning har qaysisi o'zining musobaqa shakli, maxsus harakat tarkibi, bellashuv qoidalari va musobaqa faoliyatiga baho berish usuli bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi. L.P.Matveyev sport turlarini harakat faoliyatiga qarab 5 guruhga bo'lgan:

Birinchi guruh: sportning bu turi jismoniy sifatlarni talab qiladigan sport turlari bo'lib, sportchini shaxsiy imkoniyatiga qarab muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Sportning bu turiga boks, gimnastika, kurash, sport o'yinlari, yengil atletika, dzyudo va boshqalar kiradi.

Ikkinchi guruh: yuruvchi texnik vositalarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan sport turlari. Sportning bu turiga mototsikl, avtomobil, yaxta va boshqalar kiradi.

Bunday turda sport natijasi o'zi yuruvchi texnik vositalariga, ham ularni boshqarish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi guruh: maxsus qurollar (miltiq, kamon va boshqalar) dan qat'iy cheklangan shart bilan nishonga tekkizuvshi sport turlari hisoblanadi.

To'rtinchi guruh: model konstruktorlik faoliyatini o'zaro taqqoslash turlari bo'lib, sportning bu turiga aviamodel, avtomodel va shu kabilardagi faoliyatlar kiradi.

Beshinchi guruh - sportning abstrakt mantiqiy yo'l bilan g'alaba qozonish turi. Sportning bu turiga shaxmat, damka kabi o'yinlar kiradi.

Yozgi va qishki olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari boshqa xislatlarga ko'ra guruhlariga birlashtiriladi.

1-guruh - davriy xarakterdagi harakat- faoliyati bilan bog'liq sport turlari:

Suzish, eshkak eshish, yengil atletika, velosport va boshqalar;

2-guruh – asosan, tezkorlik, kuch sifatlarini namoon etishni talab etuvshi sportturlari: Sakrash, uloqtirish, og'ir atletika, dzyudo

3-guruh – asosan, harakatlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq sport turlari : badiiy gimnastika kabi sport turlari kiradi.

Demak, dzyudo sport turlarini harakat faoliyatiga ko'ra birinchi guruhga; yozgi va qishki olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlariga ko'ra ikkinchi guruhga kiradi.

Dzyudoni keng ommaviy sport turiga aylantirish va malakali dzyudochilar tayyorlash muammosi uzoq yillardan buyon keng ilmiy jamoatchilik tomonidan o'rganilib kelinayotgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Dzyudoni asoschisi bo'lgan Dzigoro Kano -mashhur pedagog, ma'rifatparvar va murabbiy shaxs bo'lib, bolaligida Xyegodan Kiotoda, Naritatsugaki va Ikuey pansionatlarida ta'lim olgan. U tug'ilganida juda nimjon bo'lgan va jiu-jiutsu usullarini o'zlashtirishga qaror qildi. Ushbu sport turi Kanoning tafakkuri va ongida yangi sport turi yaratish g'oyasini shakllantirdi. 1959-yilda dzyudo sportning Olimpiada turi sifatida rasman tasdiqlandi va 1964-yilda Tokioda VIII Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi.

O'zbekistonda dzyudo 1972-yilda, ya'ni O'zbekiston Davlat sportqo'mning dzyudoni rivojlantirish to'g'risidagi buyrug'i asosida tashkil etish yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda dzyudoning rivojlanishi Kim Vladimir Alekseyevich nomi va faoliyati bilan bog'liq. U o'z vaqtida dzyudo bo'yicha milliy terma jamoada qariyb 10 yil davomida bosh murabbiy bo'lgan va mamlakatimizda dzyudoni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan. O'zbekistonda dzyudochilar tayyorlash bo'yicha o'ziga xos "maktab" va uslub yaratilgan. Bundan tashqari viloyatlarda dzyudoni rivojlantirish va yosh sportchilarni tayyorlash borasida ham bir qator mahoratli murabbiylar zahirasi shakllangan. Ular yosh dzyudochilar tayyorlash va milliy terma jamoamiz zahirasini shakllantirish borasida o'ziga xos muhim va dolzarb vazifani bajarmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda sport siyosati muhim va dolzarb vazifalardan biriga aylangan bo'lib, sportning turli yo'nalishlari, xususan, dzyudoni rivojlantirish va xalqaro arenalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qila oladigan dzyudochilar tayyorlash muhim sanaladi. Dzyudo texnikasi asosan ikkita katta guruhga bo'linadi. Ular bellashuv jarayonida raqibni mag'lub etish va unga qarshi texnik usul qo'llash nuqtai-nazaridan tasniflanadi. Dzyudo texnikasi quyidagi tasnifga ajratiladi: Nage Waza – tik turib uloqtirish texnikasi va Katame Waza – yotgan holatda (parterda) usul bajarish texnikasi.

Dzyudoda texnik-taktik tayyorgarlik juda muhim hisoblanadi. Malakali dzyudochilarning maxsus va musobaqa oldi tayyorgarligini shakllantirish texnologiyalari ishlab chiqish zarur, chunki texnik-taktik tayyorgarlikning darajasi musobaqalar sharoitida hal qiluvchi o'rin tutadi. Texnik-taktik tayyorgarlik dzyudoda yuqori natijalarni qayd etishda fundamental ahamiyatga ega.

A.N.Lens va G.S.Tumanyan kabi olimlar tomonidan dzyudochilar tayyorgarligi jarayonida individual tayyorgarlik dasturi taklif etilgan. Ularning fikricha yosh va malaka toifasidan qat'iy nazar dzyudochilar tayyorlash jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mashg'ulotlar tashkil etish yuzasidan turli yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Bu o'rinda sportchini musobaqalarga tayyorlashda keng qo'llanilayotgan psixologik, tibbiy-biologik, farmokologik hamda pedagogik vositalar va usullar muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. Т.: ЎзДЖТИ 2018.-286 б.
2. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотлар. Т.ЎзДЖТИ 2020.-263 б.
3. Саламов Р.С. Jismoniy tarbiya va uslubiyati.1,2 jild.Т.ITA-press. 2018-296 б.
4. Сатторов А.Е., Ибрагимов М. Методы и средства формирования специальных умений в процессе проведения индивидуальных занятий тренеров по боксу //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1302-1307 гг.
5. Сатторов А.Е., Рустамов А. Пути укрепления здоровья студентов путем организации трехэтапных спортивных соревнований в Узбекистане //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1121-1127.

O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TARAQQIYOTINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Kadirov Rashid Xamidovich,

BuxDU, Sport nazariyasi va metodika kafedراسи professorи, p.f.n.

r.x.kadirov@buxdu.uz.

Bobomurodov Samandar

BuxDU, Sport faoliyati kafedراسи 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari har tomonlama o'rganildi. Qadimgi zamondan to hozirgi kungacha bo'lgan davlarda jismoniy tarbiya va sportning kelib chiqishi, rivojlanishi va taraqqiy etish qonuniyatlari hamda uning ilmiy nazariy asoslari o'rganildi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya tarixi, nazariya, jismoniy mashqlar, o'yinlar

Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining ilmiy- nazariy asoslarini tadqiq etishda jismoniy tarbiya tarixiga tayaniladi. Jahon xalqlari tarixi, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixida jismoniy tarbiya va sport tarixining ham o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o'mi g'oyat kattadir. Jismoniy tarbiya tarixi fani qadimgi zamondan to hozirgi kungacha bo'lgan davlarda jismoniy tarbiya va sportning kelib chiqishi, rivojlanishi va taraqqiy etish qonuniyatlari hamda uning ilmiy nazariy asoslarini o'rganadi.

Jismoniy tarbiya va sport tarixi fani qadim zamonlardan boshlab, shu kungacha turli xalqlarda jismoniy tarbiya taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini aniqlash va o'rganish bo'lib, uning vazifasi turlicha tarixiy davrlarda jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, jismoniy tarbiya shakllari, usullari, vositalari va kishilarning sport sohasidagi faoliyatining tahlilini berishdan iborat. Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining ilmiy nazariy asoslarini keng o'ragnish uchun, avvalo, nazariy asoslar nimaligini chuqurroq anglab olish zarur.

Nazariya deganda, asosan, u yoki bu sohadagi tajribalarni umumlashtiruvchi, tabiat qonunlarini, obyektiv ravishda ko'rsatishi, asosiy bilimlarni inson ongida namoyon bo'lishi tushuniladi. Nazariya ilmiy bilimning oliy shakli bo'lib, tamoyillar va qonunlar, tushuncha va funksiyalari, uslubiyati va qoidalarini, umumlashtirish va tahlil qilishda, ma'lum sohadagi bilimlarni butunligicha tushunchaga keltiradi. Sport nazariyasini haqiqiyliigi sport faoliyati amaliyotda aniqlanadi, yoki nazariya bilan amaliyot bir-biri bilan mustahkam bog'langandir. Sport nazariyasini obyektiv holati inson faoliyati sohasini ijtimoiy hodisasi sifatida, musobaqalarni o'tkazish va tashkil qilish tizimini, musobaqalarda yuqori sport natijalari va g'alabaga erishish, shu bilan sog'ligini musta

hkamlash va insonni umumiy jismoniy rivojlantirish maqsadida o`quv mashg`ulotlarin i o`tkazish hisoblanadi. Sport nazariyasi quyidagi elementar tuzilishlarga ajratiladi: Dastlabki emperik asoslari (tajriba yo`li bilan) bu sport faoliyati to`g`risida tajriba dav omida tanlab olingan, nazariy tushuntirishga muhtoj ma'lumotlardir.

Dastlabki nazariy asoslari quyidagi tarkibiy qismlarga ega: ko`p yillik yoki kelajakdag faoliyat natijalarini anglab yetishi va amaliy qayta tuzilishida aniq haqiqatni yurituvchi birlashgan shakli tushuniladi, bu esa anglab yetgan maqsadni o`z ichiga oladi.

Dastlabki logik asoslari sport nazariyasida shunday tushuncha borki, u hodisa va pred metlar xususiyatlarini, faqat ilmiy holda emas balki, ilmiy bilimgacha bo`lgan bilimni ham ko`rsatadi.

Mutaxassislar jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etishda quyidagi davrlashtirishga tayanishadi;

- I. Qadimgi dunyoda jismoniy tarbiya (mil.av. VIII mingyillikdan - mil. IV asrgacha).
- II. O'rta asrlar davrida jismoniy tarbiya (V- XVII asrlar).
- III. Yangi davrda jismoniy tarbiya va sport (XVIII- XIX asr oxiri).
- IV. Eng yangi davrda jismoniy tarbiya va sport (XX asrning boshlari - hozirgi kungacha)

1. Франкл, Виктор / Леонтьев Д. А. // Уланд — Хватцев [Электронный ресурс]. - 2017. - С. 535-536. (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 33). — ISBN 978-5-85270-370-5.
2. “Redeeming the Unredeemable: Auschwitz and *Man's Search for Meaning* Timothy E. Pytell *Holocaust and Genocide Studies*, Volume 17, Issue 1, Spring 2003, Pages 89–113,
3. [Man's Search for Ultimate Meaning](#). (A revised and extended edition of [The Unconscious God](#); with a foreword by Swanee Hunt). Perseus Book Publishing, New York, 1997; [ISBN 0306456206](#). Paperback edition: Perseus Book Group; New York, 2000; [ISBN 0738203548](#)
4. Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник / Пер. с англ. и нем. Д.А.Леонтьева, М.П.Папуша, Е.В.Эйдмана.— М.: [Прогресс](#), 1990.— 368 с.: ил.— [ISBN 5-01-001606-0](#).

DIN PSIXOLOGIYASIDA ZAMONAVIY SHAXS SHAKLLANISHINING TENDENSIYALARI

E.S. Eshov,

*BuxDU psixologiya va sotsiologiya
kafedراسи dotsenti*

N.N. Ashrapov,

BuxDU psixologiya (faoliyat turlari)

II bosqich magistranti

n.n.ashrapov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada dinimizning ruhiy-ma'naviy va axloq – odobga oid ta'limotlarining bayoni, ruhiy tarbiya, qalbni poklash, axloqni sayqallash hamda uni ilm bilan g'izolantirishlik kerakligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Din psixologiyasi, axloq, xulq-atvor, his-tuyg'u, diniy qadriyatlar, tushuncha, faoliyat, ong, shaxs, psixika, din, axloqiylik

Bugungi kunda mamlakatimiz tarixiy rivojlanishining yangi bir davriga bosqichma-bosqich o'tayotgan bir paytida kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarimizning ma'naviy va aqliy barkamolligi barchamiz uchun muhim ahamiyatga ega. Jamiyatimizda har bir shaxsning o'z ma'naviyati, odob-axloqi inson sifatidagi shaxsiy rivoji va uning bugungi kundagi kamoloti, shaxs va jamiyatdagi manfaatlarining uyg'unligi har qachongidanda muhim hisoblanib, chuqur tadqiq qilinmoqda. Hozirgi zamon psixologiyasi zamonaviy va chuqur tadqiq qilingan ta'limotlarga asoslangan holda shaxsning tarkib topishi va uning psixik rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi, o'z-o'zini anglashi va xarakterini o'rganadi. Yoshlarimizni kelajakda yetuk va barkamol bo'lishlari uchun pedagogik-psixologik nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yondashishimiz maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda quyidagi amaliy takliflarni bayon etamiz:

a) har bir shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni va uni shaxs sifatida takomillashtirish bosqichlarini tashkil etish;

b) umuminsoniy va diniy qadriyatlarimizni, yoshlarimizning ongi va shuuriga psixologik jihatdan to'g'ri va samarali usullarda tushuntirish va yo'nalishlar berib borish.

c) Yoshlarimizni ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini qondirish, ya'ni, ularning bo'sh vaqtlaridan to'g'ri va unumli foydalanishlari uchun psixologik yo'nalish berish;

Yurtimizda yoshlar tarbiyasi, ularning rivoji, aqliy qobiliyati va dunyoqarashiga bo'lgan e'tibor va bu sohadagi ilmiy izlanishlar uzoq o'tmish tarixga borib taqaladi. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan shaxsning psixologik qonuniyatlari muayyan aniq bir ilmiy jihatdan o'rganilgan. Mutafakkirlarimizning asarlarida shaxsning yaxlit psixik holatlari namoyon bo'lishi va inson kamoloti to'g'risidagi bildirgan qimmatli

fikrlari bugun o'z isbotini topib kelyapti. Dastlabki psixologik mazmundagi asarlardayoq yoshlarning ta'lim va tarbiyasi diniy va dunyoviy bilimlari bilan bog'liq psixologik muammolarni yirik olimlar va faylasuflar muntazam ravishda o'rganib kelishgan. Buyuk muhaddis Imom Al-Buxoriy to'plagan hadislarni o'qiganimizda, shunday jumlar yozilgan. Insonni ma'naviy poklikka va axloqiy komillikka erishishi uchun nimlar qilmo'g'i kerakligi to'g'risida yozgan qatorlarida insonning haqiqiy kamolot sohibi bo'lishga, vijdonli hamda vatanini sevadigan bo'lishga da'vat etadi. Imom Al-Buxoriy ta'kidlashicha: -islom dini o'zida uchta xislatni mujassam etgan insonni iymoni butun, irodasi mustahkam va barcha qilgan ibodatlarini mukammal hisoblagan. [1]

- a) Insofli va adolatli bo'lish.
- b) barchaga salom berish.
- c) kambag'alligiga qaramasdan boshqalarga sadaqa berish.

Islom dinida inson e'tiqodi Allohni tan olish, uni yagona deb bilish, e'tiqodda doim mustahkam bo'lishi qayd etilgan. Biz bugun psixologlar, yoshlarimizga diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur qalblariga, ongiga singdirishimiz darkor. Yuqoridagi hadisda buyuk muhaddis Imom Buxoriy, har bir musulmon shaxs tanigan va tanimaganga salom berishi kerakligini ta'kidlagan edilar. Bugun oilada, mahallada, ta'lim tizimida, butun jamiyatda yoshlarimizga oddiygina insonlar e'tibor qilmaydigan salom berish odobini ko'proq takror-takror singdirsak maqsadga muvofiqdir. Birgina salom berish va unga alik olish islomda musulmonlik darajasini ko'zguga solgan axloqdek ko'rinadi. Psixologiyada biror – bir shaxsga salom berish orqali unga o'zgacha bir energiya beramiz va shu orqali kayfiyatini ko'taramiz, bu esa zamonaviy shaxsni rivojlantirishda o'ziga xos bir uslubni tashkil qiladi, ya'ni, jahldor, agressiv holatdagi kishiga salom berish orqali, uni bir pog'ona jahldan pasaytirishimiz mumkin bundan tashqari, oilada shaxslararo munosabatda ota-o'g'il o'rtasidagi kelishmovchilikda, rahbar va xodim munosabatida salom ular o'rtasidagi mehri, hurmatni psixologik tushkunlikni, ko'ngildagi g'araz niyatni amalga oshirishni ma'lum darajada to'xtatadi. Din va psixologiya doim chambarchas bir-birga

bog'liqdir. Hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, dunyodagi barcha ilm va tajribalar, so'z, tushuncha, hukm, hamda xulosalar bevosita yoki bilvosita shaxs faoliyati bilan bog'liq holda dunyoga keladi, rivojlanadi, boyib rivojlanib boradi, yoki aksincha bulardan foydalanmaslik natijasida zavolga yuz tutadi. Ayni paytda dunyoda shunday bir hodisa borki, odamzotning ongli hayoti bor ekan, hech qachon zavolga yuz tutmaydi. Shuning uchun ham uni juda nodir fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog'lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan insoniyat va jamiyat tomonidan barcha zamonlarda ham e'zozlanib kelgan axloqdir. Shunday ekan Markaziy Osiyo fiqh maktabining yetuk siyмосi Burhonud-din al-Marg'inoniy ta'kidlaganlaridek, “Axloqsiz odam katta fasoddur”[2]. Shuning uchun kishilik jamiyatida axloqning o'rni bahstlab, ayni paytda, muhim ilmiy va amaliy mavzulardan bin bo'lib hisoblanadi. Insonlarning ongida shunday jumlar ya'ni: “Qanday harakat qilmoq lozim”, “Nima qilish mumkin, nima taqiqlanadi”, “Men nima uchun yashayman”, “Nima yaxshi-yu, nima yomon” kabilar yotadi. Axloq psixologiyada “axloq”, “xulq” kategoriyalar hisoblanadi. Axloq lotincha “moralis”, “mores” so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir. Mutafakkir Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda “Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bu - ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitob axloqdir” [3]. Xulq (odob) - odamlarning amaliy xatti-harakati, odamlar o'rtasidagi amaliy munosabatlardir. Axloqning bosh mavzusi shaxsdir. Shaxslarning o'zaro munosabatlari va muammolari axloqning bevosita va bilvosita obyektini sanaladi. Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan axloq insoniyat shakllanishining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan. Axloq ijtimoiy faoliyatni tartibga keltirishning boshqa shakllaridan o'z talablarining asoslanishi bilan farqlanadi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning yoki guruhlarining manfaatlari o'ziga xos ravishda shakllangan va hamma qabul qilgan, ommaviy namuna, odat va jamoatchilik fikrining kuchi bilan mustahkamlangan qoidalar, me'yorlar tarzida baholanadi. Axloqda ongning boshqa sotsial nazorat shakllariga qaraganda kattaroq va kengroq rol o'ynashini taqozo qiladi, zotan, bu ong tushuncha va hukmlarning aqliy shaklida ham, his-tuyg'u, intilish,

mayillarning hissiy shaklida ham ifodalanishi mumkin. Inson axloqida ijtimoiy ong bilan bir qatorda individual ong shakli ham muhim o'ringa ega hisoblanadi. Individual jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan axloq-odob tasavvurlariga tayangan, tarbiya jarayonida ularni o'zlashtirib, mustahkamlab borgan holda o'z xatti-harakatini mustaqil ravishda tartibga solishi va atrof-muhitda sodir bo'layotgan hamma narsaning axloqiy ahamiyati haqida fikr yurg'izishi mumkin. Shu sababli axloqda individual faqat ijtimoiy nazorat obyekti sifatida emas, bil aks uning ongli subyekti, ya'ni axloqiy shaxs sifatida ham maydonga chiqishi mumkin. Ijtimoiy hayotning turli sohalariga tatbiqan axloqda maxsus qoidalar yuritiladi va bu qoidalar mustaqil sohalarini tashkil etadi, shuningdek, mehnat axloqi, kasb axloqi, hunar axloqi, oila axloqi, diplomatiya axloqi, bozor va tadbirkorlik axloqi kabi shakllarda axloq o'ziga xos bir xususiyatni yuzaga chiqaradi. Axloq jamiyatda shaxslar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni muvofiqlashtirish, shaxslar faoliyatining insonparvarlik qadriyatlari va belgilarini ko'rsatib berish, shaxsni ijtimoiylashtirish kabi xususiyatlarni amalga oshiradi. Ijtimoiy voqelikning turli jarayonlarini va kishilarning xatti-harakatlarini ular qanday axloqiy qiymatga ega bo'lishiga qarab, qo'llash yoki qoralash axloqiy baholash deyiladi. Axloqiy baholash qilingan harakatlarning axloq-odob talablariga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlaydi. Axloqiy baholashning tub mohiyatida xatti-harakatlarning obyektiv sotsial ahamiyatini bilish asos bo'ladi. Mana shu asosda axloqiy baholash yordami bilan kishilarning xatti-harakatini intizomga solish mumkin. Umumiy axloqiy baholash yaxshilik va yomonlik kategoriyalarida yuzaga chiqariladi. Bir xildagi ish amallarga joriy qilinadigan umumiy talab va ta'qiqar vositasi bilan kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi axloq-odob talablari axloqiy qoidalar deyiladi. Axloqiy qoidalarni jamoatchilik fikrining quvvati barqaror qiladi. O'z ijtimoiy mazmuni tomonidan axloqiy qoidalar umuminsoniy ham milliy bo'lishi mumkin. Axloq va axloqiylik o'z-o'zidan yuzaga chiqadigan psixologik jarayonmas. Bu jarayon keng ko'lamli bo'lib, o'zida bir qator ijtimoiy-ma'naviy ko'rinishni gavdalantiradi, ma'naviyat yo'nalishidagi sohalar bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Jamiyat a'zolarining axloqiy fazilatlarini, ularni rivojlantirish va

takomillashtirish vazifalari, ta'lim-tarbiyaning bosqichlari va yo'llariga insonlarning yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi, milliy jihatlari, diniy e'tiqodlari katta ta'sir ko'rsatgan. Har qanday axloqiy ta'limotlar jamiyat rivojining muayyan bosqichida obyektiv, subyektiv ehtiyojlar va zaruriyatlar asosidavujudga kelgan. Shu nuqtayi nazardan Sharq va G'arb axloqiy ta'limotlari qanchalik farqlanmasin, ularga tegishli va belgilovchi bo'lgan umumiylik ichida jahoniy miqiyosidagi chuqur ijtimoiy psixologik hodisa sifatida komil inson, adolat, yaxshilik, vatanparvarlik tushunchalari alohida o'rin tutadi. Bu borada J. Neruning: "Beruniy yunon falsafasi bilan tanishib, hind falsafasini egallash uchun sankrit tilini o'rgandi. So'ng yunon va hind falsafasini bir-biriga solishtirib, ulardagi mavjud bo'lgan umumiylikni ko'rib nihoyatda taajjubda qolgan edi"[4]-degan fikri tub mohiyatida juda katta ma'no mavjud. Sharqda ham, G'arbda ham ilk axloqiy fikrlar va qarashlar xalq og'zaki ijodi - maqollar, matallar, hikoyatlar, hikmatlar va rivoyatlarda yaqqol namoyon bo'lgan, asrlar davomida ular og'izdan- og'izga o'tib bizga qadar yetib kelgan. Sharq va G'arbda qadim zamonalardan hozirgi kunga qadar psixologiyaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan determinizm tushunchasi tahlili muhim o'rin tutgan. Din psixologiyasining kategoriyalari, tamoyillari va me'yorlari xususida Sharqda ham, G'arbda ham ko'plab asarlar bitilgan.

Ayrim sifatlariga ko'ra Sharq va G'arb odami, avvalo, axloqiy, ruhiy, ma'naviy qiyofasi o'zaro farq qiladigan odamdir. Sharqdagi insonning tarbiya yo'li, dunyoni anglash tarzi va urf-odatlari g'arbdagi insonning tarbiya yo'li, dunyoni anglash tarzi va urf odatlari tubdan farq qiladi. Sharqda ikki turli aql mavjudligi e'tirof qilingan. Birinchisi, aqli kull - ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo'lib, ilohiy quvvatning faol jilosidan iborat. Aqli juz - kichik aql, insonning moddiy hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli hisoblanadi.

Din psixologiyasida zamonaviy shaxs shakllanishining tendentsiyalari, din psixologiyasida zamonaviy shaxs shakllanishining amaliy jihatlari hamda zamonaviy shaxs rivojida axloqni sayqallash bosqichlarini ko'rib chiqdik. Zardushtiylikda insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi hisoblanadi va bu dinda inson doimo ezgu ishlarni qilishi lozimligi ta'kidlansa, Kanfutsiylikda ham xuddi shunga o'xshash ya'ni,

insonlarni har kuni yangi ilmlarni o'rganishga chaqiradi. Bundan tashqari axloq konsepsiyasi ham ishlab chiqilgan hisoblanadi. Bizning muqaddas dinimiz islom esa insonlarni birdamlikka, xushmuomalilikka, birovning haqqini yemaslikka, halollikka, go'zal xulqli bo'lishga, boshqa din vakillariga xushmuomalilikda bo'lishga, ota-onasiga doimo yaxshi munosabatda bo'lishga, o'g'rilik qilmaslik, doimo ilm o'rganmoqlikka chaqiradi. Bu orqali insonlar haqiqiy kamolotga erishadilar. Shunday ekan muqaddas dinimiz islom qonun – qoidalariga asoslanib hayot kechirsak albatta inson haqiqiy yuksaklikka erishadi.

ADABIYOTLAR

- 1.Shayx Abdulaziz Mansur. "Dinda savolim bor".- Toshkent.: Movarounnahr nashriyoti.-138-sahifa.
- 2.Ochilova B.M. Axloq falsafasi: Toshkent«HOD-PRINT»2019 B 15
- 3.Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. -T :.Fan , 2009. B.301-303
- 4.Nizomiddinov N . Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari va islom. - T , 2006,- B. 115.
- 5.“Salafi solihlarning yoshlarga vasiyati”. Abdushukur Murodov. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent :. 2020. –B.3.
6. Abdivaliyeva, A. N. (2022). Psychological Characteristics of Children with Attention Deficiency and Hyperactivity and their Readiness for School Training. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 295-298.
7. Anorbayeva, G. N. (2016). Influence of the sibling status of teenagers on interpersonal relations. European journal of education and applied psychology,
- 8.Valixojayev B. Ho'ja Ahror: uydirma va haqiqat. // M u loqot 1991 , 4-sB-67

TALABALAR XOTIRASINING INGILIZ TILINI O`RGANISH JARAYONIDAGI INDIVIDUAL TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

A`zamova Sarvinoz Aftandil qizi,

BuxDU, Psixologiya ta`lim yo`nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar xotirasining ingliz tilini o`rganish jarayonidagi individual tipologik xususiyatlari mazmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so`zlar: til, lingvistika, xotira, individual psixologik xususiyatlar.

Bugungi kunda ingliz tilini bilish qobiliyati bilan hech kimni lol qoldira olmaysiz ammo eng malakali, bilimli kadrlar qatorida bo`lishingiz tabiiy. Bu xalqaro muloqot vositasi va martaba muvaffaqiyatga erishish yo`lidir. Agar odamlardan siz chet tilini o`rganish zarurmi, deb so`rasangiz, ularning ko`pchiligi «yo`q» deb javob beradi. Ona tilidan boshqa bironta tilni bilmasdan bemalol yashash mumkin, deydiganlar ancha. Ular eng yaxshi badiiy asarlar allaqachon o`zbek tiliga o`girilgan, qolganlarini o`qish uchun esa ikkinchi tilni o`rganish shart emas, deb o`ylaydi. Ammo biron-bir tilni o`rganish kerakmi-yo`qmi, degan savolga xolis javob olmoqchi bo`lsangiz, chet tilini bilmaydiganlardan emas, xorijiy tilni biladigan odamdan so`rab ko`ring.

Til dunyo sirlaridan biridir. Biz har doim tilning hayotdagi rolini bilmaymiz, lekin biz uni havo, nafas, odatiy holat sifatida qabul qilamiz.

Tilning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi, tafakkurning rivojlanishi esa tilni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Til - bu fikrlash vositasi.

Til o`rganuvchilarning aksariyati 17-30 yoshni qarshilagan kishilardir. Endi ishga kelgan tajribasiz yoshlarning ko`pchiligi to`jajriba orttirguncha chet tillaridan bir nechtasini bilishi evaziga «jon saqlashadi».

Kadrlarni xalqaro talablarga javob beradigan qilib tayyorlashni ko`zlayotgan oliy o`quv yurtlari soni yildan-yilga ko`paymoqda. Ammo kamdan-kam institut va universitetlar talabalarning xorijiy tillarni mukammal o`zlashtirishlari uchun yetarli sharoit yaratib beradi. Shu sabab o`zingizga mos o`quv kursini toping. Sertifikat, tavsiyanoma olish, kursning bahosiga bilimlaringiz ham hamohang bo`lishi kerak [2]

Til o'rganishdagi to'siqlar va ularning sabablari

Tilni o'rganish yo'lidagi asosiy muammo – til to'sig'idir. Grammatikaning ajoyib bilimlari va katta so'z boyligi har doim o'z fikrlarini ishonchli tarzda ifoda etish qobiliyatini kafolatlamaydi. Til to'sig'i juda tez-tez uchraydigan hol.

Ushbu to'siqning 2 turini ko'rib chiqsak:

- Lingvistik to'siq
- Psixologik to'siq

Lingvistik til to'siqning sababi til amaliyotining yetishmasligi, xorijiy nutqni idrok etishda qiyinchilik bo'lishi mumkin.

Psixologik til to'siqning sababi jiddiyroq. U muloqotda xato qilish, o'z bilimlari, qobiliyatlari, chet ellik kishi bilan muloqot qilishda xijolat bo'lish qo'rquvi asosida [3]

Til to'siqlarini yengishga nima yordam beradi?

To'siqni bartaraf etishda eng yaxshi yordamchi sizning o'qituvchingizdir, u esa o'z navbatida psixolog ham bo'lishi kerak. Talabani barcha psixologik xususiyatlarini hisobga olish va individual texnikani o'rganish tilni o'rganishga yordam beradi, bu esa til to'siqlarining har qanday ko'rinishini chetlab o'tadi. Bundan tashqari, ona tili bilan individual mashg'ulotlar katta yordam beradi, chunki aloqa chet ellik kishi bilan sodir bo'ladi va siz darhol ingliz tilida so'zlashuv tajribasini qo'lga kiritasiz va darslarda til to'sig'ini engib o'tasiz.

Lug'at boyligingizni to'ldirish va so'z birikmalarini muntazam amalda qo'llashdir. Kitob o'qish, filmlar tomosha qilish-ingliz tilini o'qituvchilarsiz mustaqil ravishda o'rganishning oddiy va qiziqarli usuli.

Qaysi yoshda til to'sig'ini yengib o'tish osonroq?

Ehtimol, til to'sig'ini bilmagan yagona kishi bolalardir. Ular murabbiyni taqlid qilib, tilni tabiiy ravishda o'rganadilar. Ta'limning o'yin shakli tufayli ular xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqmaydilar, chunki ular tanqid qilinmaydi va tanbeh berilmaydi. Erta yoshda bolalar qiziqish, yangi, o'rganilmagan narsalarni o'rganishga bo'lgan ehtiros bilan harakat qilishadi-energiyani to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish va bolani xorijiy til bilan tanishtirish vaqti keldi. Bundan tashqari, talabani barcha psixologik

xususiyatlarini hisobga olgan «to'g'ri» o'qituvchini tanlashni to'xtatish, uning salohiyatini ochib berish va qulay, erkin muhitda o'rganishga yordam berish kerak.

Grammatikani, tilning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zlarni, til tuzilmalarini qo'llashni takrorlash va o'rgatish orqali - bularning barchasi suhbatdoshingiz bilan yuzma-yuz uchrashishga yordam beradi.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, yaxshi kayfiyat, ijobiy ichki ruhiy kechinma va yaxshi hordiq ham chet tili o'rganishda katta ahamiyatga ega. Toni Robinsning aytishicha, « Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atigi 20 foizini tashkil etadi. Qolgan 80 foiz inson psixologiyasiga bog'liqdir». Mutaxassislarining e'tirof etishicha, ijobiy ruhiy ichki kechinmani saqlab qolish va shakllantirish til o'rganishda qo'llaniladigan usullardan ham kuchli hisoblanadi.

Qanday qilib hech qanday til to'siqlarsiz ingliz tilini o'rganish mumkin?

Xususan, talabalarda xorijiyini o'rganish davrida ularning psixologik qarashlari, fikrlari hamda bazida hatto yashash tarzlari ham o'zgarib boradi. Ayniqsa, talabalarning yosh psixologiyasiga ko'ra ong rivojlanishi hamda muloqot psixologiyasiga ko'ra shaxslararo muloqotga kirisha olishi shu bilan birga kognitiv jarayonlar tarkibiga kiruvchi tafakkur, idrok hamda xotira kabi ajralmas qismlar talabalarning til o'rganish jarayonidagi asosiy tipologik muhim jarayonlardan hisoblanadi. Chunki ushbu psixologik jarayonlar tipologik jihatdan uzviy bog'liq hisoblaning ularning zanjirini bir birisiz tasavvur eta olmaymiz [3]

Xulosa qilib aytganda, Yosh avlodni chet tillarda o'qitish hamda shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish negizida, yoshlarning jahon tamadduni yutuqlari hamda butun dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Mashhur nemis olimi Y.V. Fon Gyote aytganidek: “Kim chet tillarini bilmasa, u o'z tilini ham bilmaydi”. Shu sababdan nafaqat chet tili mutaxassislari, balki tilga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan barcha bo'lajak kadrlar chet tillarini o'rganib, ularda erkin fikr almasha olish g'oyat muhim vazifalardan sanaladi. Xalqimizda ham bir maqol bor: “Til bilgan el biladi”. Haqiqatdan

ham, xorijiy tilni bilgan kishi ko'p tomonlama imkoniyat va ustunliklarga ega bo'ladi. Hozirgi davr talablarini amalga oshirishning yana bir yo'li talabalarga ortiqcha material berishni kamaytirish, o'quv jarayonini oddiy holatga keltirishdir. Bular yangi chet tillar dasturida hisobga olingan.

ADABIYOTLAR

1. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi 312-son qarori // <http://www.lex.uz>

2. Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2017 yildagi 610-son qarori, // <http://www.lex.uz>

3. Mutalipova M., Imomov M. "Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar" moduli buyicha o'quv-uslubiy majmua. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2017

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xaloqova Munisabonu Valiyevna,

BuxDU, Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi

xaloqovamunisa@gmail.com

Annotatsiya. Psixologlarning matematik tafakkurini rivojlantirish muammosining tadqiq etilishi va mazkur muammo yuzasidan nazariy-amaliy tadqiqotlar tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek bo'lajak psixologlarning matematik tafakkurning rivojlanishiga doir bilimlarining rivojlantirish usullari haqida ilmiy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Matematik tafakkur, kompotensiya, ta'lim, manbalar tahlili, texnologiya, diagnostika, intellekt, psixologik tafakkur.

Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Hozirgi bosqichda oliy ta'lim strategiyasi kasbiy rivojlanish va rivojlanishdan iborat mutaxassisning nafaqat kasbiy

muammolarni hal qilishga, balki normativ faoliyatdan tashqariga chiqishga, innovatsion jarayonlarni amalga oshirishga tayyor va qodir. Universitet ta'limining asosiy jihatlari haqida zamonaviy ma'lumot uning atrofimizdagi jarayonlar, haqiqiy dunyo, voqealar va boshqalar o'rtasidagi chuqur aloqalarni aniqlashga qaratilgan ushbu dunyoda yashaydigan ob'ektlar kompetning universitet devorlarini tarbiyalashning ishonchli asosidir.

Aniq miqdoriy tadqiqot usullarini matematik modellashtirmasdan, zamonaviy hisoblash vositalaridan keng foydalanmasdan gumanitar fanlarni yanada rivojlantirish mumkin emas. [3] Bugungi kunda matematika psixologiya va pedagogikaga tobora ko'proq kirib bormoqda. Tadqiqot o'tkazishda psixolog o'qituvchilar tobora ko'proq matematik usullardan, matematik apparatdan foydalanmoqdalar. Shubhasiz, matematik asoslar kelajakdagi o'qituvchi-psixologlarning keyingi ta'limida ham, kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham muhim rol o'ynaydi.

Matematik fanlarni o'qitish muammosi oliy ta'limning gumanitar yo'nalishlari uchun juda dolzarbdir va shundan iboratki, gumanitar talabalar, xususan, bo'lajak psixolog o'qituvchilar matematikani o'rganish zarurligini ko'rmaydilar. Ular matematik tsikl fanlarini "rad etishadi", chunki ular matematikani bilish kelajakdagi kasbiy faoliyatida talab qilinmaydi, deb hisoblashadi. Qiyinchiliklar, matematik asoslarni o'rganishda bo'lajak o'qituvchi-psixologlardan kelib chiqadigan narsa asosiy, maktab matematikasida o'qitish va ko'plab talabalarning ko'nikmalari yo'qligi bilan bog'liq tizimli mustaqil ish. O'qituvchilar uchun, masalan, "Pedagogika-psixologiya" kabi gumanitar mutaxassisliklar talabalarining matematikani o'qitishning murakkabligi talabalarining matematikadan qobiliyatsizligi yoki o'quv jarayonining har qanday oraliq bosqichida kechikish bilan bog'liq. Bularning barchasi " kelajakdagi o'qituvchi-psixologlarning matematik tayyorgarligi sifatiga eng yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Bugungi kunda ijodiy, yuqori malakali, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini o'qitish va kasbiy o'sishga qodir mutaxassislarga muhtoj bo'lgan jamiyatning talabiga javob bermaydi.

Bo'lajak o'qituvchilar va psixologlarning matematik tayyorgarligi sifati psixologik va pedagogik ta'lim muammolari bilan shug'ullanadigan mutaxassislarning diqqat

markazida (B. P. Bitinas, V. P. Kuzovlev, A. D. Merosxov, G. V. Suxodolskiy, L. M. Fridman, E. V. Shikin, G. E. Shikin va boshqalar). [1]

Psixolog tomonidan olingan psixodiagnostika ma'lumotlari quyidagilar uchun zarurdir:

Aqliy rivojlanish dinamikasini nazorat qilishni ta'minlash; bolalarda ta'lim olgan va tarbiyalanayotgan bolalar; muassasalarda rivojlanishning mumkin bo'lgan anormalliklarini tuzatish imkon qadar boshlanadi

Psixologga zaif va kuchli talabalar uchun maqbul rivojlanish sharoitlarini yaratish, ularni yuqori darajaga ko'tarish uchun bola bilan keyingi ish dasturini aniqlashga imkon bering;

maxsus qobiliyatlarni kashf etgan talabalar tomonidan samarali rivojlanish yo'nalishini belgilang;

qanday samarali ekanligini tekshiring

psixolog tomonidan olib boriladigan psixoprofilaktik ish;

ularning rivojlanish ta'sirini aniqlash va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish uchun turli tizimlar, yondashuvlar, ta'lim va o'qitish usullarini qiyosiy psixologik tahlil qilish;

ushbu maktab uchun eng dolzarb psixologik ta'lim mavzusini tanlang va hokazo.

Bundan kelib chiqadiki, o'qituvchi - psixolog uchun psixodiagnostikaning asosiy maqsadi ma'lum bir bolaning ichki dunyosiga chuqur kirib borishdir. Shuning uchun o'qituvchi-psixologlar uchun psixodiagnostikaning etakchi usuli-bu shaxsga noyob va noyob shaxs sifatida yo'naltirilgan sifatli yondashuv. Takrorlanish g'oyasi, o'lchash qobiliyati, statistik naqshlarni aniqlash asosida miqdoriy yondashuv kamroq ahamiyatga ega. Biroq, I. V. Dubrovinaning ta'kidlashicha, "psixologik xizmatda, ehtimol psixologiyaning boshqa sohalarida bo'lgani kabi, bu yondashuvlarning kombinatsiyasi muhimdir, ammo asosiysi olingan ma'lumotlarning sifat xususiyatidir". Shunday qilib, kelajakdagi o'qituvchi-psixologning miqdoriy usullarini qo'llash hamma narsaning zaruriy elementidir. [1]

Biz psixologik diagnostika tadqiqotini hal qiladigan eng qiziqarli vazifalardan birini ajratamiz: ilmiy maqsad bilan psixologik tadqiqotlar. V. A. Xudikning so'zlariga ko'ra, " muammoning bunday bayoni bilan, qoida tariqasida, yosh yoki boshqa qiziquvchi tadqiqotchiga mos keladigan katta guruhlarini o'rganish amalga oshiriladi. Bu erda olingan ma'lumotlarning statistik ishonchliligi alohida rol o'ynaydi. Xuddi shu psixodiagnostik tekshirish usullaridan foydalanganda tadqiqotchi bir yosh guruhidagi aqliy sohaning xususiyatlarini tavsiflovchi statistik jihatdan ishonchli ma'lumotlarni olish, ushbu ma'lumotlarni tartibga solish, ma'lum aqliy xususiyatlarga ega bolalarni aniqlash imkoniyatiga ega.

Psixolog o'qituvchilar tomonidan matematik usullardan (matematik statistika usullari) foydalanish nafaqat ularning ilmiy-tadqiqot ishlarining, balki kasbiy faoliyatining ajralmas qismidir. Keling, kelajakdagi matematik tayyorgarlikning asosiy muammolarini ta'kidlaymiz o'qituvchi-psixologlar. Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi ko'plab gumanitar fanlarni, shu jumladan pedagogika va psixologiyani matematiklashtirishga olib keldi. Hozirgi vaqtda matematika pedagogika va psixologiyada qo'llaniladi Natijalarni statistik qayta ishlash, eksperimentni rejalashtirish va kutilgan natijalarni prognoz qilish, turli xil psixologik hodisalar, jarayonlar, vaziyatlarning matematik modellarini ishlab chiqish va qurish. Bu gumanitar mutaxassisliklar talabalariga, xususan kelajak psixologlarga matematik fanlarni o'qitishning yangi usullarini izlashga olib keldi.[3]

G. V. Suxodolskiy shunday deb yozadi: "kam matematika rasmiyatchilik gumanitar yo'naltirilgan psixologlarni o'ziga jalb qiladi va matematik usullarga ishonchni susaytiradi. Ayni paytda, muhojirlar tabiiy va texnik fanlardan pedagogika va psixologiya psixologiyani psixikaning o'zi matematik tarzda ifodalanadigan darajaga qadar matematiklashtirish zarurligiga amin. Shu bilan birga, matematikada psixologik foydalanish uchun etarli usullar mavjud.

Matematika va psixologiya integratsiyasini rivojlantirish sharoitida kelajakdagi psixolog o'qituvchilar ko'pincha matematik usullarni o'rganish zarurligiga shubha qilishadi va elementar matematikaga ega emaslar. Masalan, natijalarni asoslash uchun

foizlarni, nisbatlarni manipulyatsiya qilish usuli hali ham turli profildagi o'qituvchilar va psixologlarning tadqiqot ishlarida qo'llaniladi. Yermolayeva "bunday yondashuv mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas, chunki foizlar uchun ularning farqlarida ishonchlilik darajasini aniqlash mumkin emas"

ADABIYOTLAR

1. Andreev A.L. Компетентностная парадигма в образовании: опыт Философско - методологического анализа педагогика // Педагогика. -М. -2005.
2. Raxmatov A., Raxmonkulov F., & O'sarov S. (2020). ZAMONAVIY ELEKTRON O'QUV MATERIALLARI TAYYORLASHDA ADOBE CAPTIVATE DASTURIDAN FOYDALANISH.
3. Usarov, S. (2020). MATEMATIKA FANI DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH.
4. Raxmatov, A., Raxmonkulov , F., & O'sarov , S. . (2020). ZAMONAVIY ELEKTRON O'QUV MATERIALLARI TAYYORLASHDA ADOBE CAPTIVATE DASTURIDAN FOYDALANISH.
5. Rakhmonkulov, F. (2020). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VIRTUAL MUHITNI SHAKLLANTIRISH.

ART-TERAPIYANING IJTIMOIIY AHAMIYATI TADQIQI

Sh,Sh. Ostanov,

BuxDU, (PhD) dotsent

Boymurodov Nazirjon Narzi o'g'li,

Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha)2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Art terapiya – psixokorreksiya usuli sifatida alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etishi haqida so‘z yuritiladi. Muomala jarayonida san’atning deyarli barcha turlari insonning ruhiy-emosional holatini yaxshilashi. Shuningdek o‘smirlarning ichki muammolariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, qo‘rquvlarini, xohish-istaklarini va maqsadlarini anglashni, ularni mavjud bo‘lgan ijodiy yo‘llar orqali ifodalashni o‘rgatadi.

Kalit soʻzlar: kreativlik, qobiliyat, shaxs, kreativ fikrlash, koʻnikma, ong, ongosti, ijtimoiy-psixologik muammo, qiziquvchanlik, tasavvur, kreativ tafakkur.

“Kreativlik” tushunchasi oʻzida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. Gʻarb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noanʻanaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazilmutoyiba tuygʻusi va erkinlik mavjud boʻlishiga eʼtiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tugʻilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi gʻarblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha boʻlsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Koʻpgina oʻqituvchilar oʻzlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat oʻqituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday maʼnoni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni oʻrinda shuni alohida qayd etib oʻtish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xoʻsh, oʻqituvchilar oʻzlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu oʻrinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi:

“Agarchi oʻzingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ boʻlganingiz yoki boʻlmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi gʻoyalarni amalda sinashga intilishingizdir”. [1]

Patti Drapeau nuqtayi nazariga koʻra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan oʻquv topshirigʻi, masalasi va vazifalarini bajarishda koʻplab gʻoyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina toʻgʻri gʻoyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va koʻp tomonlama fikrlashdan birini inkor etib boʻlmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Yaʼni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (koʻp tomonlama fikrlash),

keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O'quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim [2] E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik [3]

Ijodkorlikning doimiy yo'ldoshi bo'lgan bir hodisa bor. Bu ilhom degan hodisadir. Agar o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida ularda ilhom uyg'otish muammosini hal qila olsak, oldimizga qo'yilgan maqsadning yarmiga yetgan bo'lar edik. Bu vazifani bajarish uchun ham ongostiga murojaat qilishimiz va u bilan ishlashimiz kerak bo'ladi.

Psixologiyaning mamlakatimizda eng kam rivojlangan, endigina oyoqqa turib kelayotgan sohalardan biri sport psixologiyasi hisoblanadi. Bu yo'nalish bo'yicha

Jismoniy tarbiya va sport universitetida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu universitetning mazkur yo'nalishini tamomlagan mutaxassislarning nazariy tayyorligini bilmadim-u, lekin men bilganlarim amaliy jihatdan o'z yo'nalishi bo'yicha ishlashga to'la tayyor emas.

Sportchi mahorati o'zi tanlagan sport turidagi zarur ko'nikmalarni qanchalik puxta egallashiga bog'liq. Ko'nikmalar esa barcha darslik va qo'llanmalarda takrorlanayotganidek, zarur amallarni ko'p marta takrorlash natijasida shakllanadi. Sportchi zarur ko'nikmani shakllantirish uchun uni yuzlab va minglab marta takrorlaydi. Bu ko'nikmalar ongda emas, ongostida shakllanadi.

Shuning uchun murabbiy yoki jamoa psixologi ongostiga ta'sir o'tkazish usullaridan xabardor bo'lsa, zarur ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini bir necha marta tezlashtirish mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarning mavjudligi va tez tugatilmayotgani sabablaridan biri, bizningcha, mamlakatimizda psixologiya bo'yicha yagona ilmiy-metodik markazning yo'qligida. Aytaylik, Rossiyada psixologiya bo'yicha o'nlab ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari ishlab turgan paytda, mamlakatimizda psixologiya bo'yicha birorta ham ilmiy-tadqiqot institute yoki shunday institutning o'rnini bosa oladigan markaz yo'q. Ana shunday ilmiytadqiqot instituti tuzilsa va unda tegishli bilim va malakaga ega bo'lgan olim va mutaxassislar jamlansa, bu sohadagi ishlarimiz ancha jonlangan bo'lar edi. Nafaqat sport, balki, ta'lim-tarbiya, tibbiyot va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham psixologiya fanida vujudga kelayotgan yangiliklarni o'rganish va imkon boricha amaliyotga tadbiiq qilish. [4] Yangi O'zbekistonning tezroq shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi, deb ishonch bilan aytish mumkin. Juda ko'pchilik ijtimoiy-psixologik muammolar inson ongi va ruhiyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Kishilar psixologga murojaat qilganlarida ko'pincha muammolarni o'zlari bilan emas, xayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, tashqi olamdagi voqea hodisalar, odamlar, ularning munosabatlari bilan bog'lashadi. Vaholangki, har bir insonning ichki tuyg'usi mavjud bo'lib, bu tuyg'uning atrof olam, jamiyatdagi jarayonlar bilan mos kelmasligi muammoning asosiy sababi ekanligini psixologlarga

ma'lum. Bunday nomutanosiblik tufayli inson aziyat chekadi, azoblanadi va oqibatda bu iztiroblar uning hayotida xilma xil energiyani hosil qiladi.

Psixologiyada kreativlik voqeilikni o'ziga xos aks ettirishga, kishining olam haqidagi boy tasavvurlarga egaligini ifoda etuvchi tafakkur uslubi sifatida baholanadi. O'z ichki olamini bilish, tushunish, his qilish xususiyati ko'pchilikka xosdir. Shuning uchun ham aksariyat odamlar o'z hayotini ma'lum maromga solib, ruhiyatini ongli idora qiladi. Afsuski, ayrim kishilarda bu garmoniyani his etish va boshqarish qobiliyati sust bo'ladi va ruhiy muammolar tufayli aziyat chekish ko'pincha shu toifadagi odamlarda ko'proq kuzatiladi. Eng qiziqarlisi shundaki, ko'pincha bu kabi muammolarning asosiy sababi insondagi ijodkorlik va uning o'z vaqtida ro'yobga chiqarish imkoniyati bilan bog'liq bo'lar ekan. Demak ijodkorlikni ro'yobga chiqarish orqali inson ruhiyatidagi tashqi va ichki olam garmoniyasiga erishish mumkin degan xulosa chiqarsak mubolag'a bo'lmaydi.

Art terapiya mashg'ulotlari davomida shaxsning o'z ijodiy salohiyatini anglashga yo'naltirish orqali, shaxsiy muammolarining mohiyatini tushunish va ularni bartaraf etish uchun o'z ijodiy salohiyatini, kreativ fikrlashni yuksaltirishga erishish orqali hayotiy garmoniya hosil qilinishi mumkin.

Shaxsning kreativ fikrlash ko'nikmasini mashq qildirish natijasida faqatgina o'rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar.

ADABIYOTLAR

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). –Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). –Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
3. Bashina T.F., Пын Ye.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009. – s.
4. Karimova V. Salomatlik psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHING PSIXOLOGIK TALQINI

Maftuna Akbarova,

BuxDU, Psixologiya va sotsiologiya kafedrası

1-bosqich magistranti

Maftunakbarova94@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'smirlarning psixologik jihatdan rivojlanishi, o'smir shaxsining shakllanishiga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri masalalari, o'smirlar rivojlanishiga doir nazariy yondashuvlar, o'smirlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: o'smir, psixik o'sish, jinsiy balog'at, xarakter, xususiyat, o'z-o'zini anglash, ota-ona, pedagog, psixolog, qiziqish.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabgi pallasida ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi yosh avlodning yutug'idir. Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyotini uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan yoshlar belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohalari va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag'ishlovchi shiddatli lokomotiv desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko'progini yoshlar tashkil etmoqda. Yurtimizda esa yoshlar soni 9 mlndan ortiqni tashkil etadi. Ushbu ushbu ko'rsatkichning ko'p qismini o'smirlar tashkil qiladi. O'smirlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash bugungi globallashuv zamonida o'smirlarda xulq-atvor og'ishishlarini oldini olish va ular bilan ishlashda psixolog va pedagoglarga yordam berishga xizmat qiladi.

Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu davr taxminan bolalarning 5—8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11—12 yoshdan 14—15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1—2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir

davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. Bu davrning «og'irligi», «keskinligi», «murakkabligi» nimalar bilan asoslanadi? O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «o'tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigoskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini »bola»lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga

mansubligini ta'kidlamoqchidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi.[1]

O'smirlik davridagi barcha nomunosib harakatlar bir onda o'tib ketadigan xohishlarning ko'pligidan va kelib chiqadigan oqibatni nihoyatda yuza tarzda ko'ra bilishlikdan kelib chiqadl. Deyarli barcha zararli xohishlar oldin zararsiz va yengillik bilan amalga oshiriladigandek bo'lib ko'rinadigan ko'ngil ochish tarzidagi ishlardan boshlanadi. Biroq, aslida esa bu ishlarni amalga oshirishga o'smirlarning imkoniyatlari yetmaydi. Bunga shaxs taraqqiyotining tabiiy ehtiyojlari ta'sir qiladi. Agarda o'smir bolalar faqat bajara oladigan ishlarni qilganlarida edi, ular o'zlarining psixik xususiyatlarini rivojlantira olmagan bo'lar edilar. O'smirlar, o'zlarining turli xil xohishlarini bevosita qondirishdan bo'lak narsani ko'ra olmaydilar va bunday xohishlar xatarli oqibatlarjga tomon yo'llaganda o'zlarini vaqtida to'xtatib qola olmasliklari ham mumkin. O'quvchilarni o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga va o'zlarini tuta bilishga o'rgatish tarbiyachilarning asosiy vazifasidir. o'smirlar haddan tashqari g'ayratli va besaramjon bo'ladilar, ular uchun bekorchilik juda og'irdir, bir xil tarzidagi ishlardan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo'yadilar, bu esa ulaming ta'lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Binobarin, o'smirlarga muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga qiziqtirish va turli xil foydali mashg'ulotlarga jalb qilish hamda qiyinroq, lekin kuchlari yetadigan ishlar bilan shug'ullantirish nihoyatda muhimdir.«o'smirlik yoshining mohiyati shundan iboratki, o'smir bir- muncha faolroq ijtimoiy muhitga yetilgan bo'lib, bolalik chog'ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi». Har bir o'smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o'rtasida o'z shaxsini tasdiqlashga intiladi.ijobiy sifatlar, ehtiyojlar va intilishlar har bir yoshda, jumladan, ma'lum darajada yo'ldan ozgan o'smirda ham bo'ladi.[2]

O'smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko'pchilik o'smirlar boshqalardan yomonroq bo'lishni xohlamaydilar va ko'zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar. o'smirlarning hammasi g'ayratli va shijoatli, biroq, o'zlarining kuch-quvvatlarini qayoqqa sarf qilishni hamma vaqt ham

bilavermaydilar. Binobarin, ularni bevosita natijalari bilan xursand qiladigan xilma-xil foydali va qiziqarli ishlar bilan band qilish kerak. o'smirlar, garchi hamma vaqt ham bunga tayyor emasliklariga qaramay, mustaqilikka intiladilar. Ammo ko'pincha mustaqil ish-harakatlar uchun yetarlik imkoniyatlari bo'lmaydi. Demak, ularni mustaqil faoliyatga yaxshiroq tayyorlash va ularga mustaqil ishlarni ishonib hamda muvaffaqiyatli bajarilishini hamma vositalar bilan ta'minlash kerak. o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'smirlarda ijobiy tomonlar yetarlicha mavjuddir. Bu ijobiy tomonlaridan foydalanib va ularni rivojlantirish, salbiy ishtiyoq va xatti-harakatlarni yo'qotish kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik juda nozik davr hisoblanib, bunda bolaning ham biologik, ham psixologik, ham ijtimoiy jihatdan mohiyat o'zgaradi. Bu yoshda o'smir kattalar dunyosiga kirish, mustaqillikka intilish, o'zlikni anglashga urinish bilana tavsiflanadi. Bu davrda organizmda jinsiy bezlar faoliyati kuchayib, buning natijasida psixik dunyosida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlarni vaqtida anglash esa ota-ona va pedagog, psixologga o'smir tarbiyasida yuzaga kladigan qiyinchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. SH.A.Do'stmuhamedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunusova, G.Ziyavutdinova. Umumiy psixologiya(2-kitob), Toshkent-2020.

2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. 333-334-bet

3. G'oziyev E.G. Psixologiyasi. Toshkent-2008

4. G'oziyev E. Ontogenez psixologiya. Noshir taxriri ostida Toshkent-2010

OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Abira Amanovna Xuseynova

falsafa fanlari doktori, professor

Shaxnoza Fazlitdinovna Ramazonova,

BuxDU Psixologiya faoliyat turlari 2-bosqich magistranti

информационного пространства использование компьютерных технологий в научных исследованиях, проводимых во всей области психологии, получает все более широкое распространение. Одной из причин этого является создание компьютерных моделей методов диагностики, позволяющих проводить широкомасштабные научно-практические исследования, расширяющие объемы психодиагностических обследований и облегчающие обработку собранных данных психологических исследований, а вторая - репрезентативность статистических данных. выборки, данные необходимо обратить внимание на обоснованность выводов, сделанных на основе статистического анализа.

В результате реформ, проводимых в последние годы в нашей республике, в том числе по совершенствованию системы образования и внедрению передовых подходов к его обучению, исходя из требований сегодняшнего времени, важно повышать профессиональную компетентность практикующих школьников. психологи, приобретая математические знания. Кроме того, развитие науки и техники, увеличение потребности людей в качественной и достоверной информации свидетельствуют о необходимости углубления научных исследований. В «Стратегии развития Нового Узбекистана» о дальнейшем развитии Республики Узбекистан «дальнейшее совершенствование системы непрерывного образования, коренное повышение качества общего среднего образования, независимое мышление, верность Родине, твердая взгляды на жизнь» определены такие задачи, как «воспитание молодежи».

Коммуникативная компетентность практикующих психологов нашей страны, статистическая обработка психологической информации и разработка современных решений этой проблемы - одна из актуальных проблем психологии. Среди узбекских ученых, таких как Ш.Р.Баратов, А.М.Джабборов, Э.Ғ.Ғозиев, Д.Г.Мухамедова, Н.М.Муллабоева, З.Т.Нишонова, Ш.Ш.Олимов, проблема коммуникативной компетентности Практикующие психологи - это отдельная тема.

Компетентность – это результаты, определяющие эффективный рабочий процесс, то есть аспекты работы, в которых человек компетентен, например, деятельность бухгалтера, руководителя отдела продаж или студента.

Компетенция - это кластер оцениваемого, наблюдаемого поведения. Это можно увидеть на примере проявления способностей, интересов, мотивации будущего педагога-воспитателя.

В течение последних 20 лет слово "компетенции" трактовалось как понятие, объединяющее в себе все термины, связанные с эффективностью управления. В конце концов, такое обобщение привело к череде путаницы и недопонимания. Основной причиной таких недоразумений может быть неправильное употребление слов «компетентность «и» компетентность».

Согласно приведенному выше теоретическому анализу данных, понятие «компетентность» означает «знающий, авторитетный в любой области». Следовательно, «компетентность» – это зрелый специалист в какой-либо области, авторитетный, полноценный, обладающий рядом компетенций, способный человек.

В теориях, относящихся к социальной психологии, понятие “компетентность” рассматривается как качества, присущие конкретной профессии, качества, которых должен достичь каждый человек. Компетентность здесь понимается как часть профессионального профессионализма. Практически во всех словарях проблемы "компетентности" и "компетентности" изучаются как отдельная категория.

Особенности использования коммуникативных методов в формировании профессиональной компетентности практикующих психологов показали, что исследований, посвященных изучению, в настоящее время недостаточно. Это свидетельствует об актуальности проблемы применения новых технологий в области современной психологии.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Президента Республики Узбекистан от 2 февраля 2018 года № ПФ-5325 "о кардинальном совершенствовании деятельности в области поддержки женщин и укрепления института семьи".
2. Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. – М.: Педагогика, 2008. – 500 С.
3. Жутикова Н.Б. О практике психологической помощи: КН.для учителя. – М.:Просвещение, 1988. – 176 С.

Интернет-сайты:

1. arxiv.uz
2. ziyoNet.uz
3. disser.com

UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN ISHLASHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Axmedova Muxlisa Uralboy qizi,

BuxDU, Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Bugungi kunda talaygina yoshlar o'quv faoliyatida juda ko'plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Bularning barchasi yoshlarni alohida o'rganish doirasidagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Uyushmagan, kompetentlik, identifikatsiya, refleksivlik, deviant.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida " ...bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo'layotgani,

o'qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'layapti? Ba'zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani – achchiq bo'lsa-da, haqiqat” degan edilar. [1]

Darhaqiqat, bugungi kunda o'ziga xos xulq-atvori, «Men» ligi namoyon etilishida shaxslararo munosabat, identifikatsiya, refleksivlik jarayonlarining yaqqol ta'siri ko'rinib turgan har bir yoshlar guruhida me'yoridan ortiq bezovtalik, hissiy zo'riqish, ruhiy tushkunlik va asabiylik holatlarini o'z vaqtida payqash va bartaraf etish uchun tegishli chora-tadbirlarni qo'llamay turib, ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya samaradorligi zaiflashgan joyda esa shaxs yetarli darajada rivojlanmaydi.

Shu boisdan, yoshlik davri o'zining o'ta murakkabligi shaxs taraqqiyoti uchun “o'tish” yoki “tub burilish” davri ekanligi bilan unga nisbatan jiddiy yondashuv muqarrarligini taqozo etadi.

Bugungi kunda talaygina yoshlar o'quv faoliyatida juda ko'plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Bularning barchasi yoshlarni alohida o'rganish doirasidagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning ijtimoiy psixologik mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq muayyan tushunchalarni ilmiy jihatdan asoslaydi. Ayni paytda mazkur tadqiqot ishi deviant xulq-atvor psixologiyasi haqidagi ilmiy qarashlarni psixologik xizmat doirasidagi yangi ilmiy ma'lumotlar, mushohadalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Asosida boshqa odam manfaatlarini hisobga olish yotadigan gumanistik g'oyani amalga oshirish uchun Psixologlar quyidagi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir [2]

❖ uyushmagan yoshlar bilan muloqot davomida asosiy e'tiborni faoliyat predmeti va munosabatlarga qaratish lozim – ana shunda individual o'ziga xosliklar faqatgina birgalikdagi ishga halaqit berishdan to'xtab qolmay, balki o'zaro ta'sirlarga kutilmagan xususiyatni berishi mumkin;

❖ har bir insonning (ham uyushmagan yosh, ham Psixologning) fikrlari, didlari, qobiliyatlaridagi o'ziga xoslikni tan olishdan foydalanish – bunda muloqot jarayoni qiziqarli bo'ladi, birgalikdagi faoliyat qatnashchilari fikrini bir joyga jamlash ham osonlashadi;

❖ tarbiyalanuvchini ochiq baholashga yo'l qo'ymaslik, ko'proq yuz berayotgan hodisaga o'z munosabatini bildirish, bunda uyushmagan yoshdagi o'ziga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, uning o'zini o'zi baholash tizimi ortadi.

Biz Psixolog va uyushmagan yosh o'rtasidagi o'zaro ta'sir ko'proq dars jarayonida yuz beradi, degan fikrdan kelib chiqqan edik. Psixologning uyushmagan yoshlar psixokorreksiyasi bo'yicha olib boradigan ishlarini kasbiy kuzatish darsga mazmunli instrument sifatida qarashni o'z ichiga olishi kerak. Mazkur holatda psixologning vazifasi Psixologga uyushmagan yoshga nisbatan individual shaxslilik yondashuvni amalga oshirishga yordam berish bo'lib, bunda Psixolog ontogenezning mazkur davri psixik va shaxslilik rivojlanish me'yorlariga o'z qarashlarini namoyon qilishidan foydalanish zarur. Psixologning kasbiy pozitsiyasi kasbiy jarayondagi o'zaro ta'sir xarakterini, maqsadlar shakllanishi, mazmuni o'zlashtirish, usulni egallash, shuningdek, Psixologlar tomonidan uyushmagan yoshning hayot yo'lidagi shaxs sifatida rivojlanish xususiyatlarini oldindan prognozlashtirishga xizmat qiladi.

O'smir yoshlarda deviant xulq-atvorni bartaraf qilishda ijtimoiy- psixologik xizmatning o'zni bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning psixologik omillarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va uni amaliyotga joriy etishning psixologik nuqtai nazardan tadqiq qilinishi nazariy va amaliy jabhalarini boyitishga xizmat qiladi.

Deviant xulq-atvorni olidini olishni psixologik jihatdan o'smir yoshdagi o'quvchilar misolida o'rganish, ulardagi deviantlik va xulqiy og'ishni stimulyatsiya tamoyiliga ko'ra o'rganish, o'smirlarda deviant xulqni keltirib chiqarishga sabab va omillar kandy kechayotganligi, bu og'ishga nisbatan psixologik immunitetni mustahkamlash, bilim-malakalarni rivojlantirish xususiyatlari, tartibli xulq-atvorlarni o'stirish, shaxsning atrofdagi insonlar bilan bo'lgan shaxslararo munosabatlarini mustahkamlash, xulqiy og'ish faoliyatining individual psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va bu holatni oldini olishni ta'minlash munosabatlarining psixologik jihati qay darajada ekanligi tadqiq etildi.[3]

Deviant xulq-atvorni bartaraf etishda ijtimoiy-psixologik xizmatning o'ziga xos shakllantiruvchi dasturi o'quvchilar o'rtasida ijobiy va ishonchli munosabatlarni o'rnatish, konstruktiv qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirish uchun o'smirlarda hissiy holatlar va o'zaro ta'sir jarayonida ularni boshqarish qobiliyatini shakllantirish, o'zini tutish madaniyatini oshirish uchun ijobiy motivatsiya yaratish, o'smir o'quvchilarni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turlariga jalb etish va ularda muvaffaqiyatga erishish holatlarini yaratishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy psixologik xizmatning yaxlitlik, maqsadga yo'naltirilganlik, ommaviy xarakter, ijobiylik, kelajakka intilish, mas'uliyatlilik tamoyillari asosida, deviant xulq-atvorli o'smir o'quvchilarlar shaxsi tuzilishiga xos faol ijtimoiy psixologik metodlar vositasida nizoli vaziyatlarni hal qilish usuli, tajovuz holati, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlarida ijobiy o'zgarishlarni vujudga keltiradi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. Toshkent – 2017yil.
2. G'oziyev E. Kasbiy psixologiya asoslari, Toshkent. Universitet, 1997yil
3. Spits R.A. No and yes. On the genesis of humor communication, - New York, 1957. –P. 9-11.

TUPROQSHUNOSLIK

BUXORO TUMANI TUPROQLARINING UNUMDORLIK KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH YO'LLARI

G.T.Zaripov

BuxDU, t.f.n.dotsent,

E.Sayfieva,

BuxDU, 2 bosqich magistranti

Bugungi kunda dunyo tuproq qatlamlarida yuz berayotgan salbiy jarayonlar, jumladan, sho'rlanish, gleylanish, og'ir metallar bilan ifloslanish, degumifikatsiya va boshqa jarayonlarni aniqlash, ularning oldini olish va oqibatlarini yumshatish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, antropogen omillar ta'sirining kuchayishi va global iqlim o'zgarishlari ta'sirida yuzaga kelayotgan salbiy jarayonlarning oldini olish, yer resurslaridan samarali foydalanishda tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tuproq ifloslanishini sezilarli darajada kamaytirish, evolyusiyalar jarayonlari ta'sirida tuproq xossa-xususiyatlarida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlash orqali ulardan samarali foydalanish hamda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tuproqlarning unumdorligini saqlash va tiklash bugungi kunda dehqonchilik oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tuproqlarning unumdorligi qishloq xo'jaligida ekin maydonlaridan noto'g'ri foydalanish, mineral o'g'itlarni noto'g'ri qo'llanishi natijasida pasaymoqda. Ilmiy tadqiqot ishlari Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarida olib borildi.

Buxoro tumani Buxoro viloyatining shimoliy-g'arb va janubiy qismida joylashgan bo'lib, shimol tomondan Vobkent tumani, Sharq tomondan Kogon tumani, janub va g'arb tomondan Jondor tumani bilan chegaradosh.

Buxoro tumanining jami qishloq xo'jalik yer turlari yer maydoni jami 394561,0 gektarni, shundan tuproqlari tekshirilgan sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari esa 22861 gektarni tashkil etadi. Bu yerlarda paxta, g'alla, bog'dorchilik va boshqa qishloq

xo'jalik maxsulotlari yetishtirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Buxoro tumani tuproqlari dasht tuproqlari mintaqasida tarqalgan.

Tumanning tuproqlari asosan sug'oriladigan taqir-o'tloki, sug'oriladigan o'tloqi-cho'l, sug'oriladigan o'tloqi, sug'oriladigan o'tloki allyuvial va botqoq-o'tloqi tuproqlardan iborat.

Sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlar o'zlashtirishni dastlabki davrida kam gumusligicha qoladi (0,7-0,8 %), azot esa 0,06-0,07 %. Tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra yengil, o'rta va og'ir qumoqli, qirrali chag'ir toshliroq, 0,5-1,0 m dan shag'al qatlamlar joylashgan. Tuproqlarda karbonatlar miqdori 8-10 %. Tuproq kesimi bo'yicha ularning tarqalish mexanik tarkib bilan bog'liq. Taqirli-o'tloqi tuproqlar kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan. Tuzlar tarkibida asosan sulfatlar ustunlik qiladi.

Zarafshonning subaeral deltasida **sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar** eng kam tarqalgan. Ular sizot suvlari chuqurligi 1-2 m oralig'ida, ya'ni intensiv grunt-kapillyar namlanish sharoitida tarkib topadi. O'tloqi tuproqlar, avtomorf sharoitda gidromorf (o'tloqi) sharoitga tadrijiy o'zgargan sharoitda, o'zlashtirish va ishlab chiqarishga jalb qilish, yaxshi ishlaydigan kollektor-zovurlar tarmog'i fonida o'tkazilishi kerak.

Sho'rlanganlik darajasiga ko'ra o'tloqi allyuvial tuproqlar turlicha: kuchsiz sho'rlanganlardan va sho'ri yuvilganlardan to kuchli sho'rlangangacha, bu esa tabiiy meliorativ sharoitlar shuningdek, yerlarni kollektor-zovur tizimi bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bu tuproqlar mexanik tarkibi turliligi bilan ajralib turadi. Sug'orish manbaiga yaqin joylashgan tuproqlar ulardan uzoqroqda joylashgan tuproqlarga nisbatan birmuncha yengil mexanik tarkibga ega. Qadimdan sug'oriladigan tuproqlar yuqoridan boshlab 1,2-2 m gacha qalinlikdagi agroirrigatsion yotqiziqlar bilan qoplangan. Mexanik tarkibiga ko'ra ular asosan o'rta va og'ir qumoqli, kamdan kam yengil qumoqli va qumloqlidir.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarni cho'l zonasining boshqa tuproqlariga solishtirilganda ular gumus miqdori (1,1-1,45 %) va azotga (0,08-0,12 %) birmuncha

boy. Gumusni agroirrigatsion oqizma loyqalarga chuqur kirib borishi tuproq kesimida uning zahirasini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Qadimgi allyuvial va delyuvial-prolyuvial yuzalarda tarkib topgan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda gumus oz (0,5-0,7), chunki ularning o'tmishdoshi – sur-qo'ng'ir yoki taqirli tuproqlarda organik modda miqdori kam bo'lgan.

Bu tuproqlarda gips oz miqdorda (0,12-0,25 %) va u sho'rtoblanish jarayonini rivojlanishiga to'siq bo'la olmaydi. Shu sababli ildiz tarqalgan qatlamning quyi qismiga, ayrim hollarda singdirish sig'imi tarkibiga natriy va magniy ionining kirishi hisobiga sho'rlanish sodir bo'ladi. Sho'rlanish tuproqning suv o'tkazish ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi. Tuproqni sug'orishlardan so'ng zichlashishi va boshqa salbiy xususiyatlarini vujudga keltiradi. Karbonatlilik tuproq kesimi bo'yicha tekis – 8,8-9,3 % SO₂. Umuman, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar birmuncha yuqori ishlab chiqarish qobiliyatiga ega va Buxoro viloyatining yer fondini qimmatli qismini tashkil etadi.

Zarafshonning hozirgi va qadimgi deltalari, shuningdek uning qayir va birinchi qayir usti terassasi maydonlaridagi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar orasidagi kichik massivlarda **botqoq-o'tloqi tuproqlar** joylashgan, ularning ko'p qismi sug'oriladigan tuproqlar hisoblanadi. Bu tuproqlar lokal botiqlarda sizot suvlari sathi 0,5-1 m bo'lgan, kuchli sho'rlanish jarayoni ketayotgan sharoitda tarkib topadi. Shuning uchun bu tuproqlar nafaqat botqoqlanish, balki sho'rlanishga ham uchraydi. Ular asosan kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan holatda uchraydi.

Sug'oriladigan tuproqlari asosan yengil mexanik tarkibga ega bo'lib, ayrim hollarda o'rtacha va og'ir mexanik tarkiblar ham uchraydi. Tuproqlarning meliorativ holati, uning yer osti suvlari, ularni minerallashtirganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli hududda mavjud tuproq qoplami turli darajada sho'rlanganligi bilan yer osti suvlari chuqurligi esa turlicha minerallashtirganligi bilan farq qiladi. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar ko'proq suv eroziyasiga uchragan bo'ladi. Bu tuproqlarda mayda tuproq zarrachalari yil davomida davriy sug'orishlar ta'sirida yemirilib bormoqda. Hududlarning tuproq unumdorligi asosan mineral o'g'itlardan samarali va tabaqalashgan holda foydalanishga bog'liq. Buxoro tumani hududidagi sug'oriladigan

tuproq unumdorligini muhofaza etish va qishloq xo'jaligi ekinlarini sifatli va hosildorligini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni o'tkazishni tavsiya etamiz:

- Ob-havo quruq kelgan yillarda, bahorgi namlab sug'orishni amalga oshirish, davriy tekislash ishlarini o'tkazish, sug'orish suvlaridan tejimli foydalanish imkonini yaratadi;
- Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida qishloq xo'jalik ekinlarini almashlab ekishni jorish etish, ixota daraxtzorlarini barpo etish natijasida yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud;
- O'g'itlar samaradorligini oshirish maqsadida organik o'g'itlarni mineral o'g'itlar aralashmasini kompost holda tayyorlab, qishloq xo'jalik ekinlarini oziqlantirish, organik o'g'itlardan gektariga 25-30 tonnadan solish yuqori samara beradi;
- Tuman xo'jaliklarida kollektor-drenajlar tizimini davriy tozalash kabi agromeliorativ tadbir samaradorligini oshirib yer osti suvlarini ko'tarilishiga yo'l qo'ymaydi

ADABIYOTLAR

1. Artikova H.T., Yunusov R., Istamova M. Qadimgi sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar. Tuproq unumdorligini oshirish, saqlash, muhofazalash va qayta tiklashdagi muammolar va ilmiy yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. -Buxoro, 2018 y., 252-254 b.
2. Artikova H.T., Yunusov R., Istamova M. Sug'oriladigan qumli-cho'l tuproqlari tavsifi. Tuproq unumdorligini oshirish, saqlash, muhofazalash va qayta tiklashdagi muammolar va ilmiy yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. -Buxoro, 2018 y., 251-252 b.
3. Tojiev U., Namozov Sh., Nafetdinov Sh., Umarov K. O'zbekiston tuproqlari.- Toshkent, 2004 y., 224-b.
4. Nafetdinov Sh., Qoraxonov Yu., Xo'jasov A. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar tavsifi. Tuproq unumdorligini oshirish, saqlash, muhofazalash va qaytatiklashdagi

muammolar va ilmiy yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. -Buxoro, 2018 y., 237-239 b.

5. Karimov E.Q., Primov J.J., Amirbekov O. O'simliklar qoplamini kartaga olishda masofadan zontlash materiallarini ahamiyati. Tuproq unumdorligini oshirish, saqlash, muhofazalash va qayta tiklashdagi muammolar va ilmiy yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami-Buxoro, 2018 y., 140-142 b.

BUXORO VOHASI TUPROQLARNING AGROFIZIKAVIY XOSSALARI VA YAXSHILASH CHORA TADBIRLARI

Nazarova Sevara Mustakimovna,

Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasida dotsenti, q/x, f.f.d. PhD

Islomova Nasiba Saidhaydar qizi,

Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasida

Tuproqshunoslik yo'nalishi 2 kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada sug'oriladigan allyuvial tuproqlarning suv-fizik, fizik-kimyoviy xossalari haqida ilmiy asosga ega bo'lgan ma'lumotlar va ushbu masala yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarning qisqa tahlil va xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tipik bo'z tuproq, umumiy fizik xossalar, hajm, solishtirma massa, g'ovaklik, unumdorlik.

Bugungi kunda respublikamizda yer resurslaridan, xususan, sug'oriladigan tuproqlardan oqilona hamda samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, tuproqlarning fizik, kimyoviy hamda biologik xossa xususiyatlarini uning unumdorligiga ta'sirini tadqiq etish, baholash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli tuproqning unumdorligini oshirish, saqlash va muhofaza qilish hamda baholashda fizik, kimyoviy xossalar, organik va mineral moddalar, jumladan, gumus miqdori va qatlami qalinligi, biologik faolligi va boshqa ko'rsatkichlar asosida o'rganilmoqda.

Tuproqlarning tabiiy xossa va xususiyatlariga ko'ra baholashda asosiy mezonlardan biri uning fizik xususiyatlariga tayaniladi. Tuproq unumdorligi sharoitini

yaratishda ham muhim omillaridan biri uning fizik xususiyatlari va fizik jarayonlari hisoblanadi.

Respublikamizda bo'z tuproqlar sharoitida sug'oriladigan dehqonchilikda tuproqda kehadigan barcha kimyoviy, fizik, fizik-kimyoviy, biologik va boshqa jarayonlar odatda yil, fasllar, sutka davomida tez-tez o'zgarib turadi. Ayniqsa, sug'oriladigan sharoitda tuproqlarning qator xususiyatlari o'zining turg'unligini yo'qotadi, ya'ni sug'orish ta'siri natijasida qisqa vaqt ichida kimyoviy xususiyatlari o'zgaradi. Shuning uchun tuproqlarni tadqiq etishda nisbatan turg'un mezonlarni tanlash juda muhim

Tuproqlarning tabiiy, sun'iy va potensial unumdorligini tadqiq etishda ham mezonlar nisbatan turg'un, ya'ni o'zgarmaydigan va etishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekin turlari hosili miqdori va sifati bilan ijobiy aloqadorlikda bo'lishi lozim.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida turg'un mezonlar qatoridan tuproqning umumfizik xossalari joy oladi.

Tuproqning umumiy fizik xossalari, ya'ni solishtirma massasi N.A.Kachinskiyning ma'lum miqdordagi tuproq siqib chiqargan suv massasini hisoblashga asoslangan. Uni quyidagi formula bilan, bunda: d_s – tuproqning solishtirma massasi, g/sm^3 ; P – tuproqning massasi, g; A – piknometrni suv bilan massasi, g; C – piknometrni suv va tuproq bilan massasi, g hisobida Tuproqning hajm massasi quyidagi formula yordamida aniqlandi. Bunda: d_h – tuproqning hajm massasi, g/sm^3 ; R_s – tabiiy nam tuproqning silindrdagi og'irligi, g ($R_s = A - V$, ya'ni A – silindrdagi tabiiy nam tuproqning og'irligi. V – silindr og'irligi); W – tuproq namligi (silindrdagi); V – silindrning hajmi, sm^3 hisobida.

Tuproqning g'ovakligi formula yordamida hisoblandi.

Tadqiqot natijalari. Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy umumfizik ko'rsatkichlar qatoriga sug'oriladigan tuproqlarda hajm, solishtirma massalari va g'ovakligi kiradi. Tuproqning zichligi mineral, organik, organo-mineral tarkibi, mexanik elementlar, mexanik tarkib, strukturasi va boshqa omillar majmuasi ta'sirida shakllanadi va o'zgarib turadi.

Tuproqda dehqonchilikni yuritish, ya'ni ishlov berish, sug'orish, o'g'itlash kabi muhim ko'rsatkichlar hajm massasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, hosil miqdorini, mahsulot tannarxini belgilaydi. Shuningdek, turli texnikalar bilan ishlov berish tuproq hajm massasini ortishiga, ayniqsa, haydov osti qatlamini og'irlashishiga olib keladi. Sug'orishlar davomiyligi, sug'orish suvi tarkibi va antropogen omilga bog'liq holda ona jinsga nisbatan hajm massasining ortib borishi hamda o'zlashtirish darajasiga bog'liq holda eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar hajm massasi biroz engillashishi kuzatiladi.

Sug'oriladigan tuproqlarida profil bo'ylab pastki qatlamlar tomon tuproq hajm massasi ortib borishi kuzatildi. Bu qonuniyat tipik bo'z tuproqlarda umumiy g'ovaklik bo'yicha ham saqlanib qoladi.

Tuproq va uning ona jinslarida hajm massa eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda 1,30-1,43 g/sm³ oralig'ida o'zgarsa, yangidan sug'oriladigan va yangidan o'zlashtirilgan tipik bo'z tuproqlarda 1,33-1,43% oralig'ida tebrandi. Solishtirma massa ham eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda tuproq mexanik tarkibi, gumus miqdori va dehqonchilik darajasiga bog'liq ravishda 2,67-2,72 g/sm³, yangidan sug'oriladigan va yangidan o'zlashtirilgan tipik bo'z tuproqlarda 2,65-2,71 g/sm³ oralig'ida o'zgaradi, tuproq g'ovakligi mexanik tarkib va gumus miqdorlariga bog'liq holda ushbu tuproqlarda 46,3-51,3% ga teng bo'ldi.

Agronomik nuqtai nazardan tuproq zichligini taxminiy baholash maqsadida N.A.Kachinskiy tomonidan baholash shkalasi taklif qilingan bo'lib, lekin ko'p yillar davomida dalalarni zich va kuchli zichlashgan tuproqlar guruhiga kiradi deyish mumkin, shu bois bu tasnifni bo'z tuproqlar uchun qabul qilish tavsiya etilmaydi.

Sug'orish jarayonida tuproqning umumiy fizik va fizik mexanik xossalarini bilish, boshqarish tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tuproq suv sarfi, tartiboti va oziqa elementlar miqdorining o'zlashtirilishi, agrotexnik tadbirlar sifati tuproq fizik xossalari asosida belgilanadi. Tipik bo'z tuproqlarning hajm massasi genetik qatlamlarda quyi tomon asta-sekinlik bilan ortgan.

Tuproqning solishtirma massasi esa tuproqning o'zlashtirish darajasi va mexanik tarkibiga bog'liq ravishda kamaygan.

Hudud tuproqlarining unumdorlik elementlari va suv fizik kimyoviy xossalari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Mexanik tarkibi tuproq paydo qiluvchi ona jinslar xarakteriga bog'liq holda, asosan o'rta, yengil va og'ir qumoq, ba'zan qumloqlardan iborat bo'lib, ularda chang fraksiyasi (0,05-0,01) ba`zida mayda qum fraksiyasi (0,1-0,05) muhim.

2. Tuproqlarning solishtirma massasi tuproq tiplaridan qat'iy nazar 2,63 – 2,71g/sm³ atrofida tebranib turadi.

3. Xajm massa tuproq genetik qatlamlariga mos ravishda turli kattaliklarga ega bo'lib, 1,31 – 1,59 g/sm³ gacha o'zgarib turishi mumkin.

4. Tuproqning umumiy fizik xossalarini yaxshilash uchun, zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda sug'orish tartibotini to'g'ri joriy qilish, organik o'g'itlardan samarali foydalanish, sideratlar qo'llashni amalda joriy etish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Kimberg N. V. Pochvi pustinnoy zoni Uzbekskey SSR. T.: Fan, 1974. -bet 11-52. (Kimberg N. V. (Soils of the desert zone of the Uzbek SSR. T.: Science, 1974. - p 11-52). 3. Qo'ziyev R. Q, Sektimenko Y. V. Pochvi Uzbekistana. T.: "EXTREMIUM PRESS", 2019 –115 – 117. бет

2. Gafurov K, Abdullayev S. Xarakteristika pochvennogo pokrova oroshaymoj zoni Buxarskoy oblasti. T. Fan, 1982 – bet 140-b.

3. Абдуллаев С. Агрофизические свойства и солевой режим орошаемых почв оазисов Бухарской области: Автореф. дис... канд. с.-х. наук.. Т.: 1975. –34-бет

IQTISODIYOT

OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

Odinayeva Nigina Furqatovna,

BuxDU, "Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Tezisdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning zamonaviy modellari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'lim xizmatlari bozori, oliy ta'lim muassasalari, zamonaviy modellar, akademiya, oliy ta'lim muassasalarini boshqarish.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarish jarayonlarining klassik usullarining transformatsiyalashuvi natijasida fan va innovatsiyalarga asoslangan boshqaruv modellari rivojlana boshladi.

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotining rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, o'rta asrlarda jamiyat a'zolariga ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi ijtimoiy institut sifatida shakllana boshlagan. 1815-1850 yillarda jahonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning «klassik universitetlar» modeli shakllandi. Bu turdagi universitetlar faoliyati faqatgina aholiga ta'lim xizmatlari ko'rsatish bilan cheklanib, ularda ilmiy tadqiqot ishlari umuman amalga oshirilmagan. [1]

Shu o'rinda R.S. Turner va P. Vatson tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Unga ko'ra,

R.S. Turner fikricha, oliy ta'lim muassasalarining faqatgina ta'lim berishga qaratilgan boshqaruvi XVII asrning oxiri va XIX asrning boshlariga kelib mehnat bozoridagi kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyatining ortishi, raqobat kurashining kuchayib borishi natijasida o'z ahamiyati asta sekinlik bilan yo'qotib bordi. Natijada oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi. Mavjud vaziyatni inobatga olgan holda 1810 yildan boshlab Germaniyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi jamiyat hayoti va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari kesimida ilmiy tadqiqotga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlashni boshladilar. 1815 yilga kelib jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqaruvi amaliyoti ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonlarini qamrab olgan akademik boshqaruv komponentlari bilan to'ldirildi. [2]

Tahlillarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyotini nafaqat mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanishi balki global tendensiyalarning o'zgarishi natijasida muntazam takomillashtirib borilishi talab etiladi. Iqtisodiy adabiyotda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish klassik (tarixiy) va zamonaviy modellari o'zaro farqlanadi.

T.K. Yekshikeev fikricha, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda tarmoq va fundamental rivojlanish modellarini farqlash mumkin. Tarmoq universiteti bozor talablarini e'tiborga olgan holda, amaliy bilimlarni taqdim etadi. Fundamental universitet fizika, kimyo, biologiya, kompyuter texnologiyalari kabi fundamental bilim sohalarida kadrlarni o'qitishni ta'minlaydi. Ular tarkibiga davlatning klassik universitetlari va texnik universitetlari kiradi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish modellarining xilma-xilligi, o'ziga xos xususiyatlari – o'quv dasturlari, moddiy, moliyaviy imkoniyatlari va geografik joylashuvi bilan belgilanadi. Binobarin, oliy ta'lim muassasalari o'zlarining strategik rivojlanishida raqobatbardoshlik imkoniyatlarini aynan noyob raqobatbardoshlik afzalliklari asosida amalga oshirishi mumkin.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ta'lim sifatini ta'minlashga ustuvorlik qaratilmoqda. Turli mamlakatlarda amal qiladigan ta'lim sifatini ta'minlashning milliy tizimlari quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- hukumatning vakolatlari;
- jamoat, mutasaddi organlar va oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki darajasi;
- maqsad va vazifalarni shakllantirish;
- mezonlar va tartiblar [7]

Turli mamlakatlardagi milliy ta'lim sifati tizimidagi tafovutlar (1.1-jadvalga qarang), ularni boshqarish va o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillari davlatlarning institutsional va madaniy an'analari (ona tili, tarixi, madaniyati va h.k.) bilan bog'liq.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlaridagi milliy oliy ta'lim tizimlari [8]

Oliy ta'lim tizimining parametrlari	Turli mamlakatlarda amalga oshirilishi
--	---

OTMLar soni	Avstraliya va Irlandiya, Gollandiya va Shvesiyadagi 40-65 universitetlardan; Angliyada 130, Germaniyada 350 va Yaponiyada 1290, AQShda 4000 tagacha.
Oliy ta'limni boshqarish tuzilmasi	Germaniya, Avstraliya va AQShda federal tizimlar. Buyuk Britaniya va Irlandiyada milliy tizimlarni moliyalashtirish "bufer" tashkilotlar – vositachilar orqali amalga oshiriladi.
OTMLar tipologiyasi	Tadqiqot universitetlari o'zlarining o'zni va munosabatlari bo'yicha kasbiy yoki texnik o'quv yurtlaridan (Irlandiya, Gollandiya, Germaniya) farq qilishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda mavjud, hamda Yaponiya va AQShda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiy universitetlar alohida ta'kidlanadi.
Institutsional avtonomiya darajasi	Barcha oliy o'quv yurtlari akademik qarorlar qabul qilish va ilmiy yo'nalishlarini tanlashda avtonom hisoblanib, ularning moliyaviy va boshqaruv sohasida qarorlar qabul qilish darajasida katta farqlar mavjud: - davlat bilan shartnoma asosida ishlaydigan xususiy universitetlar; - davlat tashkilotlari bo'lgan universitetlar hukumat tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tahlillarga ko'ra, jahonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning «Fransuz», «Kontinental», «Anglo-Sakson», «Atlantika» va «AQSh» modellari o'zaro farqlanadi.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning «Fransuz» modeli Germaniya, Fransiya, Skandinaviya davlatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya, Yevropa oliy ta'lim an'analari qabul qilgan MDH mamlakatlarida qo'llaniladi, ularning ta'lim tizimlari «kontinental» oliy ta'limni boshqarish modeli asosida qurilgan va quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi:

- oliy ta'limni rivojlantirishni tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan markazlashtirilgan nazoratni amalga oshirish orqali davlatning oliy ta'lim muassasalariga nisbatan patateralizmi (Ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi va boshqalar);

- moliyaviy (akademik) ta'lim muassasalarining cheklangan avtonomiyasi;

- universitet ta'limiga kirishning qat'iy tabaqalangan tizimi (odatda bepul);

- davlat mulkining ta'limda ustunligi

«Fransuz»modelida universitetning ichki o'zini-o'zi nazorat qilishi nominal qiymatga ega bo'lib, asosiy e'tibor davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari tomonidan universitetni samarali tashqi baholashga qaratiladi.

Oliy ta'limning sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning«Anglo-Sakson»modeli Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSh, Lotin Amerikasi, Filippin, Tayvan kabi mamlakatlarda qabul qilingan. Ushbu ta'lim tizimi oliy ta'limni boshqarishning «Atlantika»modeli asosida qurilgan va quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- oliy o'quv yurtlarining mustaqilligi (davlat ahamiyatiga ega bo'lmagan yoki Yevropa nuqtai nazaridan universitet strategiyasiga liberal yondashish);

- oliy o'quv yurtlarining avtonomiyasining yuqori darajasi, akademik erkinlik darajasi esa har bir universitetning moliyaviy va imijiy asoslari bilan belgilanadi;

- pullik asosda oliy ma'lumot olish;

- ta'limda xususiy mulkning salmoqli ulushi [9]

Ushbu modelda birinchi o'rinda oliy o'quv yurtlarining ichki o'zini-o'zi baholashi, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ichki tahlilga yo'naltirilgan ta'lim sifatining tashqi professional yoki jamoat ekspert bahosi turadi.

Iqtisodiy adabiyotda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning «Anglo-Sakson» va «Fransuz»modellari g'oyalarining muvaffaqiyatli kombinatsiyasi hisoblangan ta'lim muassasalari va ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish orqali ta'lim sifatini ta'minlashning «AQSh» modeli ajratib ko'rsatiladi.

AQSh universitetlarida o'zini-o'zi baholash tizimi rivojlangan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari davlat idoralari tomonidan tartibga solinadigan mamlakatlardan farqli o'laroq, Amerika oliy ta'lim tizimi asosan ta'lim muassasalarining o'zlari tomonidan nazorat qilinadi. Universitetlarni akkreditatsiya qilish jarayoni universitetlar va kollejlarning mintaqaviy birlashmalari, uyushmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu birlashmalarning mintaqada akkreditatsiyadan o'tkazuvchi maxsus oliy ta'lim komissiyalari faoliyat yuritadi.

AQShdagi oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish ta'lim muassasalarining akademik erkinlik huquqlari, ularning davlat va jamiyat oldidagi javobgarligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun kollektiv o'zini-o'zi boshqarish tizimi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Amerika o'zini-o'zi boshqarish tizimining markazida ta'lim muassasasi darajasida o'tkazilgan baholash orqali ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadi yotadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruvning Yevropa yondashuvi davlatning yetakchi mavqega egaligi va nazorat qilishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun Yevropada oliy ta'lim sifatining ahamiyati, uning baholanishi va ta'minlanishi AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda keyinroq tan olingan.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyoti uzoq yillar mobaynida rivojlanib, globallasuv jaryonlari, mamlakat iqtisodiyotidagi tendensiyalarning o'zgarishi natijasida muntazam ravishda takomillashib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar maxalliy oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan to'ldirish bilan birgalikda, xalqaro oliy ta'lim xizmatlari bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytirishga qaratilgan bo'lishini talab etadi.

Adabiyotlar

1. Маасен П. Парадокс в управлении университетом. Современный университет между глобальными вызовами и локальными задачами. VII Международная конференция Российской Ассоциации исследователей высшего образования: сб. материалов. Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики», Ин-т образования. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2016. с. 30-41
2. Turner R.S. The growth of professorial research in Prussia, 1818 to 1848 – causes and context // Historical studies in the physical sciences. 1971. Vol. 3 № 2. P. 137-182
3. Watson P. The German genius. Europe's third renaissance, the second scientific revolution, and the XX Century. L.: Simon & Schuster, 2010. 992 p.

4. Turner R.S. The growth of professorial research in Prussia, 1818 to 1848 – causes and context // Historical studies in the physical sciences. 1971. Vol. 3 № 2. P. 137-182
5. Krucken G., Meier F. Turning the university into an organizational actor // Globalization a. organization: World society a. organizational change / G. Drori, J. Meyer, H. Hwang (eds). Oxford Univ. Press, 2006. P. 241-257
6. Екшикеев Т.К. Конкуренентоспособность и конкурентные преимущества ВУЗа / Проблемы современной экономики, № 4 (32). 2009. – с. 392-396
7. Геворкян Е.Н., Мотова Г.Н. Болонский процесс и сотрудничество в области обеспечения качества образования: опыт Российской Федерации.// Вопросы образования, 2004.№4 – С. 150-165.
8. On the edge: securing a sustainable future for higher education. Report of the OECD/IMHE-HEFCE project on financial management and governance of higher education institutions, OECD,2004,p.8.
9. Высшее образование в глобализованном обществе. Установочный документ ЮНЕСКО по образованию. ЮНЕСКО. Франция, 2004. – 32 с.
<http://unesdoc.unesco.org/images/0013/001362/136247r.pdf>

IMPROVING THE BRAND & IMAGE OF CULTURAL TOURISM DESTINATIONS THROUGH MARKETING TOOLS IN THE CASE OF UZBEKISTAN

Norov Bektosh Negmurod ugli,

Lecturer at Bukhara State University Joint Programs Department

Today, due to the process of globalization, competition for regional image is taking place not only in countries, regions and cities, but also around the world. In the process, it can be seen cities and even small villages competing for potential tourists. The global long-distance competition will feature 2.7 million small towns and cities, 3,000 major cities and 455 major metropolis [8] That is, regions cannot think about socio-economic development without knowing how to manage business and marketing tools [6]

In order to find its place in this competitive market, the destination must have a strong image. Developing strong marketing research and strategies is required to enhance the destination image.

Uzbekistan is a destination with high cultural tourism potential. In order to effectively use this potential and increase the image of the destination, there is a need to scientifically study the development path of successful tourism destinations specializing in cultural tourism.

For a scientific in-depth analysis of the research topic, there is a need to analyze scientific literature and previous research works within the framework of topics such as "Branding in the field of tourism" and "Marketing activity of cultural tourism destinations".

Research on the branding and integration of tourism destinations has been extensively studied by a number of foreign scholars. These include B. Baker, C. Blain, S.E. Levy, J.R.B. Ritchie, G. Hankinson, A. Juan Garcia, Mar Gomez, Arturo Molina, G. Marzano, N. Scott, N. J. Morgan, A. Pritchard, R. Piggott, N. Morgan, A. Pritchard, R. Pride, A.M. Morrison, D.J. Scientists such as Anderson and S. Pike can be included.

A great contribution to problems related to topics: "destination branding of Uzbekistan" and "Uzbekistan destination image" was made by such scientists named below table.

Table 1.

Authors	Topic	Published Journal	Published Year
MARAT Erica	“Nation Branding in Central Asia: a New Campaign to Present Ideas about the State and the Nation.	Europe-Asia studies, Vol 61, q 7, pp.1123-1136	2009

ALEKSANDRA KIM	Analysis and perspectives of tourism development in Uzbekistan	Revista AGALI Journal, n° 3 (2013) ISSN: 2253-9042	2014
Kamoliddin Fayzullaev, Susanna Heldt Cassel & Daniel Brandt	Destination image in Uzbekistan – heritage of the Silk Road and nature experience as the core of an evolving Post Soviet identity	The Service Industries Journal, 41:7-8, 446-461	2021
Ibragimov Nutfillo Salimovich	METHODS OF DETERMINATION OF TOURISM BRAND COMPETITIVENESS	Journal of Management Value & Ethics	2021
Graham Hankinson	Managing destination brands: establishing a theoretical foundation	Journal of Marketing Management, 25:1-2, 97-115	2009
Cox, Carmen, and Meredith Wray.	"Best practice marketing for regional tourism destinations."	Journal of travel & tourism marketing 28.5 (2011): 524-540.	2011

Source:*author's work

Despite the fact that the issues raised in the works of these authors are deeply studied, the development, development and success of cultural tourism destination

brands remain one of the main issues of these studies. Despite the fact that many scientists have developed several proposals for the development of destination brands, the development of the brand of each destination requires a special approach.

The research mainly belongs to strategic basic and applied research classification due to the requirement of goals. First of all, I need to concentrate on basic objectives such as destination branding, marketing tools for destination brand development, destination image. I'll try a basic explanation for existing condition of Uzbekistan tourism brand (Figure 1) and its development way in my research object. Furthermore, I'll try to suggest a new development way for Uzbekistan's tourism brand by making marketing research.




Figure 1. Uzbekistan destination brand and its features.

Source: Illustrated by author according to the results of research.

- Study of the main functions of the State Committee for Tourism Development of the Republic of Uzbekistan in the development and implementation of the destination brand;

REFERENCES:

1. Cox, Carmen, and Meredith Wray. "Best practice marketing for regional tourism destinations." *Journal of travel & tourism marketing* 28.5 (2011): 524-540.
2. Graham Hankinson. *Managing destination brands: establishing a theoretical foundation* (2009) *Journal of Marketing Management*, 25:1-2, 97-115

3. Ibragimov Nutfillo Salimovich, METHODS OF DETERMINATION OF TOURISM BRAND COMPETITIVENESS (2021) Journal of Management Value & Ethics ISSN: 2253-9042
4. Kamoliddin Fayzullaev, Susanna Heldt Cassel & Daniel Brandt. Destination image in Uzbekistan – heritage of the Silk Road and nature experience as the core of an evolving Post Soviet identity (2021). Industries Journal, 41:7-8, 446-461
5. Kantarci, Muzaffer Uysal, & Vincent P. Magnini (2014)
6. Kotler, P., Haider, D.H. and Rein, I. (1993): “Marketing Places: Attracting Investment, Industry and Tourism to Cities, States and Nations”. New York: The Free Press.
7. MARAT Erica. “Nation Branding in Central Asia: a New Campaign to Present Ideas about the State and the Nation (2009). Europe-Asia studies, Vol 61, q 7, pp.1123-1136
8. Metti & Bronner (2011): “Global Market of Cities”
9. Norov, Bektosh Negmurod Ugli, and Egamberdi Bobokul Ugli Karimov. "The Importance Of Events On Destination Brand Image Enhancement–The Case Of Bukhara." *The American Journal of Management and Economics Innovations* 3.05 (2021): 106-117.
10. Norov, Bektosh. "THE IMPLEMENTATION WAYS OF TICKET VALIDATING MACHINES IN BUKHARA PUBLIC BUSES." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
11. Norov, Bektosh. "БУХОРО ДЕСТИНАТСИЯСИ БРЕНДИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).

THE IMPACT OF EVENTS ON HOTEL VISITS –THE CASE OF EDEM PLAZA AND AYVAN HOELS

Egamberdi Bobokul ugli Karimov,

Lecturer of Joint programs department

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

e-mail: e.b.karimov@buxdu.uz

